O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

QO‘QON UNIVERSITETI ANDIJON FILIALI

QO‘QON UNIVERSITETI

TASHKENT INTERNATIONAL UNIVERSITY

TA’LIM VA SOG‘LIQNI SAQLASH TIZIMI ISTIQBOLLARI: HUQUQIY ASOSLAR, MUAMMO VA YECHIMLAR, XORIJIY TAJRIBALAR

RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI TO‘PLAMI

I-JILD

ANDIJON-2025

“TA’LIM VA SOG‘LIQNI SAQLASH TIZIMI ISTIQBOLLARI: HUQUQIY ASOSLAR, MUAMMO VA YECHIMLAR, XORIJIY TAJRIBALAR”

mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiya to‘plami

I-JILD

Andijon-2025

Ushbu to‘plam O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirining 2024-yil 27-dekabrdagi 490-son buyrug‘iga asosan ta’lim va sog‘liqni saqlash tizimini rivojlantirishda huquqiy asoslar, innovatsion g‘oyalar va xorijiy tajribalarni o‘rganish hamda ularni milliy amaliyotga joriy etish yo‘llarini aniqlash, ilmiy-tadqiqot ishlari natijalarini muhokama qilish orqali O‘zbekistonda Uchinchi Renessans poydevorini yaratishga xizmat qiluvchi ilmiy hamkorlikni mustahkamlash maqsadida Qo‘qon universiteti hamda Toshkent xalqaro universiteti hamkorligida Qo‘qon universiteti Andijon filialida o‘tkazilgan anjuman materiallaridan tashkil topgan.

Tahrir kengashi:

Kuvatov Juratbek Dilshodbekovich-Qo‘qon universiteti Andijon filiali direktori;

Omonboyev Abduvosid Shavkatbek o‘g‘li- Qo‘qon universiteti Andijon filiali, HR departamenti boshlig‘i;

Mamajanov Ikramjon Ganijonovich-Qo‘qon universiteti Andijon filiali, Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektori, falsafa doktori (PhD), dotsent;

Axmedov Botirjon Ravshanovich-Qo‘qon universiteti Andijon filiali, Yoshlar masalalari va ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo‘yicha prorektori, f falsafa doktori (PhD), dotsent;

Tuychiyev Golibjon Urmonjonovich- Qo‘qon universiteti Andijon filiali, Davolash ishlari bo‘yicha prorektor, fan nomzodi, dotsent;

Xolbutayev Gayratbek Oybekovich- Qo‘qon universiteti Andijon filiali, Akademik ishlar bo‘yicha prorektor, falsafa doktori (PhD), dotsent;

Mullajonov Rustamjon Vahobjonovich - Qo‘qon universiteti Andijon filiali, Akademik ishlar boshqarmasi boshlig‘i, fan nomzodi, dotsent;

Turdiev Farxodjon Ibroximovich - Qo‘qon universiteti Andijon filiali, Tibbiyot fakulteti dekani, falsafa doktori (PhD);

Kurbonov Baxodir Ergashevich - Qo‘qon universiteti Andijon filiali, Iqtisodiyot va pedogogika dekani, falsafa doktori (PhD);

Dadaboyev Sardorbek Usmanovich - Qo‘qon universiteti Andijon filiali, IT va ijtimoiy-gumanitar fakulteti dekani, falsafa doktori (PhD);

Nasirdinova Yorkinoy Abdumuxtarovna- Qo‘qon universiteti Andijon filiali, Tibbiyotda tillarni o'qitish kafedrasi mudiri, falsafa doktori (PhD);

Tojibayev Botirjon Maxamadaliyevich- Qo‘qon universiteti Andijon filiali, Tarix va ijtimoiy fanlar kafedrasi mudiri, falsafa doktori (PhD), dotsent;

Bakiyeva Muhabbatxon Kamoldinovna - Qo‘qon universiteti Andijon filiali, Pedagogika, psixologiya va jismoniy madaniyat kafedrasi mudiri, falsafa doktori (PhD);

Axmedov Odiljon Saxibjonovich- Qo‘qon universiteti Andijon filiali, Fizika va matematika kafedrasi mudiri, fan nomzodi, dotsent;

Konferensiya materiallarini nashrga tayyorlaganlar:

I.I.Usmonov, A.A.Xudoyberdiev, D.S.Saidraximova., X.M.Ismoilova, O.M.Jakbarova, X.S.O‘sarov

SO‘Z BOSHI

O‘zbekiston Respublikasida ta’lim va sog‘liqni saqlash tizimlari so‘nggi yillarda davlat siyosatining eng ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida yangilanmoqda. Bu ikki sohada qonunchilik bazasi takomillashib, zamonaviy boshqaruv, innovatsiya va inson kapitaliga yo‘naltirilgan yondashuvlar joriy etilmoqda. Ta’lim tizimida maktabgacha tarbiya qamrovi kengaydi, oliy ta’limga kirish sharoitlari erkinlashdi, nodavlat ta’lim muassasalari soni oshdi. Kredit-modul tizimi, raqamli ta’lim platformalari, xalqaro standartlarga mos o‘quv dasturlari va dual ta’lim kabi yangiliklar yoshlarning bilim darajasi va raqobatbardoshligini yuksaltirishga xizmat qilmoqda.

Sog‘liqni saqlash sohasida esa tibbiyot muassasalarini modernizatsiya qilish, birlamchi tibbiy xizmatni kuchaytirish, profilaktika va sanitariya madaniyatini rivojlantirish borasida samarali ishlar yo‘lga qo‘yildi. Tibbiy sug‘urta tizimi bosqichma-bosqich joriy etilmoqda, onalik va bolalikni muhofaza qilish, xususiy tibbiyot sektorini rivojlantirish va telemeditsina xizmatlarini kengaytirish orqali aholining tibbiy ta’minoti yaxshilanmoqda. “Inson qadri uchun” tamoyili asosida hayot sifati va sog‘lom umr davomiyligini oshirish ustuvor vazifa sifatida belgilanmoqda.

Shu bilan birga, ta’lim va tibbiyot sohalarida malaka, ilmiy-tadqiqot, innovatsion texnologiyalar va xalqaro hamkorlikni rivojlantirishga ehtiyoj katta. Zamonaviy yechimlarga yo‘naltirilgan ilmiy yondashuv, xorijiy tajribani o‘rganish, huquqiy asoslarni mustahkamlash va mavjud muammolarni bartaraf etish dolzarb masalalar bo‘lib qolmoqda.

“Ta’lim va sog‘liqni saqlash tizimi istiqbollari: huquqiy asoslar, muammo va yechimlar, xorijiy tajribalar” mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi ana shu vazifalarni amalga oshirishda ilmiy va amaliy platforma bo‘lib xizmat qiladi. Unda olimlar, soha mutaxassislari, amaliyotchilar va yosh tadqiqotchilar tomonidan mavjud tajribalar tahlil qilinadi, dolzarb masalalar muhokama etiladi va istiqbolli takliflar ilgari suriladi. Ushbu anjuman islohotlarni samarali davom ettirish, xalqaro tajribalarni ommalashtirish va sohalarning kelajak rivoji uchun muhim ilmiy-amaliy asos yaratadi.

Zaxidov G‘ofurjon Erkinovich,
Qo‘qon universiteti Andijon filiali direktori,
Iqtisodiyot fanlari doktori, professor.

TIBBIY TA’LIM: NAZARIYA VA AMALIYOT UYG‘UNLIGI

Kuvatov Juratbek Dilshodbekovich
Qo‘qon universiteti Andijon filiali direktori
Mamajanov Ikramjon Ganijonovich
Qo‘qon universiteti Andijon filiali
ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha
prorektori, p.f.f.d., dotsent

Annotatsiya: maqolada bugungi kunda tibbiyot ta’limida amalga oshirilayotgan islohotlar va ularning samarasi, qabul qilingan hukumat qarorlari va ularning ijrosi, tibbiyot ta’limi, tibbiyot ta’limida nazariya bilan amaliyot uyg‘unligini ta’minlash masalalari Qo‘qon universiteti Andijon filiali misolida yoritilgan.

Kalit so‘zlar: fan, ta’lim, ishlab chiqarish, tibbiy ta’lim, nazariya va amaliyot, integratsiya, model,sifat, samaradorlik, mutaxassis, ta’lim yo‘nalishlari, kadrlar.

Аннотация: В статье рассматриваются реформы, проводимые сегодня в медицинском образовании, и их последствия, принятые государственные решения и их реализация, медицинское образование, а также вопросы обеспечения гармонии теории и практики в медицинском образовании на примере Андижанского филиала Кокандского университета.

Ключевые слова: наука, образование, производство, медицинское образование, теория и практика, интеграция, модель, качество, эффективность, эксперт, образовательные направления, кадры.

Abstract: The article examines the reforms carried out today in medical education and their consequences, government decisions and their implementation, medical education, as well as issues of ensuring harmony between theory and practice in medical education using the example of the Andijan branch of Kokand University.

Key words: science, education, production, medical education, theory and practice, integration, model, quality, efficiency, expert, educational areas, personnel.

Kirish. Oxirgi yillarda respublikada olib borilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar barcha sohalar kabi tibbiyot sohasida ham o‘z natijalarini ko‘rsatmoqda. Jumladan, 2025 yil 23-may kuni Prezident Shavkat Mirziyoev raisligida tibbiyot sohasidagi islohotlarning navbatdagi bosqichida turgan ustuvor vazifalar muhokamasiga bag‘ishlangan videoselektor yig‘ilishida Prezidentimiz so‘nggi 7 yilda tibbiyotga ajratilayotgan mablag‘ 6 karra oshgani va joriy yilda 42 trillion so‘mga yetgani, mahalladagi birlamchi bo‘g‘in bilan ixtisoslashgan xizmatlarni bog‘laydigan kompleks tizim yaratilgani, ilgari faqat poytaxtda bajarilgan 400 dan ortiq yuqori texnologik amaliyot viloyat va tumanlarda o‘tkazilayotgani xaqida fikrlar bildirib, qo‘shimcha ravishda quyidagilarga to‘xtaldilar: “Birgina buyrak ko‘chirish amaliyoti kuniga 2 tadan bajarilayotgani, shuningdek, mamlakatimizda har o‘n ming aholiga 27 nafar shifokor to‘g‘ri keladi. Bu AQSh, Buyuk Britaniya, Finlyandiya bilan bir xil ko‘rsatkich. Turkiya va Kanadada bu raqamlar 1,5 baravar kam. – Ko‘rib turibsiz, bizda tibbiyot xodimlari sonida ham, moliyalashtirishda ham muammo yo‘q. Lekin, sifat-chi? Bu borada e’tirozli savollar juda ko‘p” [1], – deb ta’kidladlagan edi. Prezident Sh.Mirziyoev tomonidan bildirilgan fikr-mulohazalar bir paytning o‘zida tibbiyot sohasida bir qancha yutuqlarga erishilganini bildirsa, bir tomondan esa, xali mazkur sohada amalga oshirilishi zarur bo‘lgan vazifalarimiz ko‘p ekanligini anglash mumkin. Bu o‘z navbatida tibbiy ta’limga e’tiborni yanada kuchaytirish zarurligidan dalolat beradi.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqot davomida tahlil, sintez va analogiya usullaridan foydalanildi. Aniqlangan tendensiyalar oliy ta’lim muassasalarida, xususan tibbiyot oliy ta’lim muassasalarida ilm-fan, ta’lim va ishlab chiqarishni integratsiya qilish orqali sifat va samaradorlikni oshirish muammolarini hal qilish orqali mehnat bozorida tibbiyot sohasi uchun

raqobatbardosh kadrlar tayyorlashga bo‘lgan talab yuqoriligini ko‘rsatadi. Bu borada tibbiyot oliy ta’lim muassasalarida fan, ta’lim va ishlab chiqarishning uzviyligi, uzluksizligini ta’minlash orqali integratsiya qilish davlat tomonidan amalga oshiriladigan ta’lim islohotlarini uyg‘unligini ta’minlashga yordam beradi.

Adabiyotlar tahlili. Fan, ta’lim va ishlab chiqarish integratsiyasi masalasi bugungi oliy ta’lim tizimi oldida turgan asosiy vafalardan hisoblanadi-ki, mazkur masala yuzasidan hukumatimiz tomonidan oliy ta’limni yanada rivojlantirish borasida amalga oshirilayotgan islohotlar zamirida, shuningdek faoliyat olib borayotgan barcha oliy ta’lim muassasalari, oliy ta’lim muassasalarida faoliyat olib borayotgan pedagog-olimlarning ilmiy tadqiqotlarida ko‘rishimiz mumkin. B.Usmonov *“Oliy ta’lim muassasasi generator rolini bajarishi ifodalangan «Uchlik spiral» modeli (davlat-OTM-ishlab chiqarish) mexanizmini qo‘llash asosida «ta’lim, fan va ishlab chiqarish»ning simbiotik innovatsion rivojlantirishga asos bo‘ladi*” [8] deb ta’kidlaydi. T.Teshaboevning “Oliy ta’lim muassasasi va ishlab chiqarish korxonalari integratsiyasi” [9] nomli maqolasida Toshkent moliya instituti misolida fan, ta’lim va ishlab chiqarish integratsiyasi borasidagi tajribalari yoritilgan bo‘lsa, F.Rahimovning “Ta’lim, fan va ishlab chiqarish integratsiyasi va innovatsion hamkorlik” [10] ilmiy-uslubiy qo‘llanmasida *“innovatsion korporativ hamkorligini samarali tashkil etish”,* O.Bazarovning “Fan, ta’lim va ishlab chiqarish integratsiyasini rivojlantirish oliy ta’limning ustuvor masalasi” [11] nomli maqolasida Qarshi muhandislik-iqtisodiyot institutining tajribasi yoritilgan. Shuningdek, O.Abduraxmonovning “Fan, ta’lim va ishlab chiqarish integratsiyasi” nomli kitobida *fan, ta’lim va ishlab chiqarish sub’ektlari o‘zaro manfaatli integratsiyasining ilmiy-nazariy asoslari, uning modellari, bu yo‘nalishda jahonda to‘plangan tajriba* tahlil etiladi [12]. B.Qo‘chqorov o‘zining “O‘zbekistonda fan, ta’lim va ishlab chiqarish integratsiyasini ta’minlash bo‘yicha chiqarilgan me’yoriy-huquqiy asoslari” nomli maqolasida *“Bugungi kunda fan va ta’lim tobora kuchliroq tarzdajamiyatning ishlab chiqaruvchi kuchiga aylanmoqda. Fan va ta’lim har qanday davlatning qudrati ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy resursi hisoblanadi. Iqtisodiy o‘sish sur’atlari endilikda faqat jismoniy kapital yoki insonlar malakasi bilangina emas, balki, bilimni ishlab chiqarishga tadbiq eta olish qobiliyati bilan belgilanmoqda”* [13] degan fikrni ilgari suradi.

Tahlil va natija. Bugungi kunda, tibbiyot sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning asosiy maqsadi inson va uning salomatligi, xavfsizligi, turmush tarzi va farovonligini ta’minlash hamda yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlashga qaratilgandir [14]. Tibbiyot sohasidagi taraqqiyotni harakatga keltirishda va ijtimoiy hayotda kuzatilayotgan jarayonlarga ijobiy ta’sir ko‘rsatishda barcha yo‘nalishlarda yangilanishning muhim sub’ekti bo‘lgan yoshlar, xususan ta’lim oluvchilarni barkamol inson, o‘z sohasida yetuk mutaxassis qilib tarbiyalash muhim ahamiyatga ega. Sog‘liqni saqlash tizimida amalga oshirilayotgan islohatlar, sohaning modernizatsiyasi hamda turli milliy dasturlarning joriy etilishi mazkur sohada mavjud muammolarni hamda tibbiyot xodimlarini tayyorlashdagi kamchiliklar mavjudligini ko‘rsatmoqda. Uzluksiz ta’limni tizimini takomillashtirish jarayonida yuqori malakali mutaxassislarning tanqisligi kuzatilishi tibbiy ta’limda innovatsion yondoshuvlar, zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalarni qo‘llash, shuningdek, tibbiyot oliygohlarining birinchi bosqichidan boshlab tibbiy ta’lim, fan va ishlab chiqarish integratsiyasini ta’minlash zaruriyatini paydo qiladi.

So‘nggi yillarda mamlakatimizda ta’lim tizimining barcha bosqichlariga, jumladan, oliy tibbiy ta’lim tizimiga ham alohida e’tibor qaratilmoqda. Bu borada O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-sonli, 2022-yil 28-yanvardagi “2022 — 2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son farmonlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 3-iyuldagi “Ma’muriy islohotlar doirasida oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar sohasida davlat boshqaruvini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-200-sonli, 2023 yil 28-dekabrda “Sog‘liqni saqlash tizimini raqamlashtirishni jadallashtirish hamda ilg‘or raqamli texnologiyalarni joriy etish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-415 son qarori, 2019 yil 6-maydagi “Tibbiyot va farmasevtika ta’limi

va ilm-fani tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4310 son qarorlari qabul qilindi. [1, 2, 3, 4, 5, 6, 7] Mazkur me’yoriy huquqiy hujjatlarda tibbiyot oliy ta’lim muassasalarida ilmiy tadqiqot ishlari natijadorligini oshirish, yoshlarni ilmiy faoliyatga keng jalb etish, ilm-fanning innovatsion infratuzilmasini shakllantirish, tibbiy oliy ta’lim tizimini ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlari ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda, fan-ta’lim va ishlab chiqarishning mustahkam integratsiyasini ta’minlash asosida tibbiy ta’lim sifatini yaxshilash, tibbiyot sohasida raqobatbardosh kadrlar tayyorlash, ilmiy va innovatsion faoliyatni samarali tashkil etish, xalqaro hamkorlikni rivojlantirish kabi dolzarb, o‘z yechimini kutayotgan vazifalar belgilangan.

Shunday ekan, fan, ta’lim va ishlab chiqarishning integratsiyasi yuqoridagi tushunchalarning o‘zaro bog‘liqligida amalga oshiriladigan jarayon bo‘lib, tibbiy ta’limda alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki, bo‘lg‘usi tibbiyot sohasi uchun tayyorlanayotgan mutaxassislarning asosiy ob’ekti *“inson omilidir”*. Tibbiyot kadrlari xato qilishga xaqqi yo‘q mutaxassislar bo‘lib yetishlarini uchun ham tibbiy ta’limni modernizatsiya qilish, sohaga jahondagi innovatsiyalarni tadbiq etish, o‘quv jarayonlarida ilg‘or usullardan foydalanish, fan, ta’lim va ishlab chiqarish integratsiyasini ta’minlash muhim hisoblanadi. Shuning uchun ham Sh.Mirziyoev tomonidan 2022 yil 4 mart kuni o‘tkazilgan “*talabalarni bandligini ta’minlash*”ga qaratilgan video selektorning asosiy maqsadi ham fan, ta’lim va ishlab chiqarishning integratsiyasini ta’minlashga qaratilganligi bilan ahamiyatlidir.

“Oliy ta’lim muassasasi va ishlab chiqarish korxonalri integratsiyasi” nomli maqola muallifi iqtisodiyot fanlari doktori, professor T.Teshaboev integratsiya jarayonlarini ta’minlashda birinchi navbatda oliy ta’lim muassasasi bilan mehnat bozori o‘rtasida hamkorlik bo‘lishini, hamkorlik asosida korxonalar uchun raqobatbardosh mutaxassislarni tayyorlashni, ikkinchidan zamonaviy innovatsion texnoparklarni tashkil etish va ularga mos ravishda innovatsion guruhlarni shakllashtirishni hamda uchinchidan o‘zaro innovatsion hamkorlikni tashkil etish asosida innovatsion maxsus korxonalar uchun mutaxassislarni tayyorlashni nazarda tutadi. Shuningdek, korxonalar uchun raqobatbardosh mutaxassislarni tayyorlash, innovatsion hamkorlikni tashkil etish hamda innovatsion maxsus korxonalar uchun mutaxassislarni tayyorlash natijasida innovatsion loyihalarini joriy etadigan guruhlar shallanishini ta’kidlaydi (1-rasm) [9].



1-rasm. Oliy ta’lim muassasalari, fan va ishlab chiqarish integratsiyasi [9].

Iqtisodchi olim iqtisodiyot fanlari doktori, professor B.Xodiev oliy fan, ta’lim va ishlab chiqarish o‘zaro innovatsion hamkorligining zamonaviy modelida quyidagilarga e’tibor qaratadi (2-rasm) [15]:

2-rasm. Oliy fan, ta’lim va ishlab chiqarish o‘zaro innovatsion hamkorligining zamonaviy modeli [15].

Modeldan ko‘rinib turibdiki, integratsiya jarayonlari oliy ta’lim muassasasi bilan korxona va tashkilotlar o‘rtasida hamkorlik shartnomasi tuzish birinchi navbatdagi masala ekanligi, bu jarayonda kafedraning funksiyasiga innovatsion kichik guruhlarni shakllantirish, soha korxonalari to‘g‘risida ma’lumotlar bankini yaratish, har bir korxonalardagi ilmiy texnik muammolarining yagona elektron bazasini yaratish, mavjud muammolarni tahlil qilish, ekspertizadan o‘tkazish orqali saralash ishlarini olib borish natijasida korxona va tashkilotlarning muammolarini yechimiga qaratilgan namunaviy mavzular ro‘yxatini shakllantirish, shakllantirilgan namunaviy mavzular asosida bitiruv malakaviy ishi, magistrlik va doktorlik dissertatsiyalari tayyorlash hamda xo‘jalik shartnomalar asosida ishlarni bajarish nazarjda tutilgan. Olib borilgan ilmiy tadqiqot natijalari asosida kadrlar buyurtmachilari talab va ehtiyojlaridan kelib chiqib, o‘quv me’yoriy hujjatlarni takomillashtirish, vazirlik, idora va korxonalarning muammolari asosida investitsion loyihalar tayyorlash, shuningdek, natijada yangilanib boriladigan ish o‘rinlar bankini shakllantirish nazarda tutilgan .

Bugungi kunda o‘z faoliyati boshlagan Qo‘qon universiteti Andijon filialining asosiy missiyasi – ***“ta’lim va amaliyot uyg‘unligi”***ni ta’minlashdan iboratdir. Ayni paytda mazkur tibbiyot oliy ta’lim muaassasasida jami 14 ta shu jumladan, 4 tasi tibbiyot sohasi uchun “Davolash ishi”, “Stomatologiya”, “Pediatriya”, Formatsiya” ta’lim yo‘nalishlarida kadrlar tayyorlash yo‘lga qo‘yilgan. Sanab o‘tilgan ta’lim yo‘nalishlari talabalariga “Tibbiy va biokimyo”, “Klinik fanlar”, Tabiiy va tibbiy fanlar” hamda “Mikrobiologiya, farmokalogiya, normal va potologik fiziologiya” kafedralarida faoliyat olib borayotgan 163 nafar yuqori malakali pedagog kadrlar 2000 nafarga yaqin talabalarga o‘quv mashg‘ulotlarini olib bormoqdalar.

Qo‘qon universiteti Andijon filialida ta’lim va amaliyotning integratsiyasi 1-bosqichdan boshlab ta’minlashga erishilgan. Bu jarayonni amalga oshirish universitet tarkibida amaliyot bazalarining mavjudligi bilan izohlanadi. Xususan, talabalarning nazariy bilimlarini bevosita amaliyotga tadbiq etishlari uchun barcha shart-sharoitlar yaratilgan bo‘lib, bunda filiali tarkibida, “MAKRO FARM”, “MED SITI” sanatoriyasi, “FEMILI MED”, “BEBI SITI” kabi xususiy klinikalari hamda “Makrofarm”, “Shpris zavod”lari hamda xususiy dorixonalarning faoliyati yo‘lga qo‘yilgan.

Bugungi kunda Qo‘qon universiteti Andijon filialida Tibbiyot fakultetida tahsil olayotgan 4 ta ta’lim yo‘nalishlarining barcha talabalari o‘quv-tanishuv amaliyotlarini Farg‘ona vodiysining 21 ta sog‘liqni saqlash boshqarma va tibbiyot birlashmalari, 45 ta tibbiyot muassasalari, 39 ta xususiy klinikalar hamda tuman kasalxonalarida amaliyotlar o‘tab kelmoqdalar. Bundan tashqari, talabalar nazariy bilimlarini amaliyotda qo‘llash maqsadida xalqaro amaliyot dasturlari ham yo‘lga

qo‘yilgan bo‘lib, bugungi kunda 40 nafar talabalar Bolgariyaning nufuzli ishlab chiqarish korxonalari bilan tuzilgan hamkorlik shartnomalariga asosan “Vorking trevel” dasturi doirasida 3 oylik amaliyotlarini o‘tab qaytdilar. Kelajakda mazkur dasturlar Germaniya, Xitoy, Turkiya, Koreya, Indoneziya kabi davlatlarning ish beruvchi korxona va tashkilotlari bilan amalga oshirilishi rejalashtirilgan.

Shuningdek, ta’lim va ishlab chiqarish integratsiyasini ta’minlash maqsadida filialda 30 dan ortiq xorijiy mutaxassislar, 50 dan ortiq maxalliy ishlab chiqarish korxonalari rahbarlari, tajribali mutaxassislari hamda 30 ga yaqin hamkor oliy ta’lim muassasalarining tajribali professor-o‘qituvchilari ishtirokida binar, vebinar darslar tashkil etildi.

Xulosa o‘rnida.

“Fan – ta’lim – ishlab chiqarish” integratsiyasi ta’lim islohotlari jarayonlarida davlat ahamiyatidagi omillardan hisoblanib, uning natijasida quyidagilarga erishiladi:

birinchidan, fan, ta’lim va ishlab chiqarish integratsiyalashuvi natijasida ta’lim sifati va samaradorligi ta’minlanadi;

ikkinchidan, ta’lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklarning malaka talabi, o‘quv reja va fan dasturlarini ishlab chiqish jarayonlarida kadrlar iste’molchilari hisoblangan korxona va tashkilotlarning talab va ehtiyojlari inobatga olingan holda takomillashtirilib boriladi;

uchinchidan, talabalarning ish bilan ta’minlanishi va moddiy manfaatdorligi yuzaga keladi;

to‘rtinchidan, oliy ta’lim muassasalari va ishlab chiqarish korxonalari hamkorligida raqobatbardosh va jahon ta’lim sitandartlariga javob bera oladigan mutaxassis kadrlar tayyorlanadi;

beshinchidan, bitiruvchilarga nisbatan korxona va tashkilotlarning talabi ortadi;

oltinchidan, amaliy, laboratoriya mashg‘ulotlarini korxona va tashkilotlarida o‘tkazish imkoniyatlari yaratiladi;

yettinchidan, oliy ta’lim muassasalari tomonidan korxona va tashkilotlarda faoliyat olib borayotgan tajribali mutaxassislarni o‘quv jarayonlariga jalb etiladi;

sakkizinchidan, talabalarni moliyalashtirilgan loyihaviy ishlarga va xo‘jalik shartnomalarga jalb qilish orqali ularning manfaatdorligi ortishiga hamda ish o‘rinlariga ega bo‘lish imkoniyatlari yaratiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Sh.Mirziyoev. 2025 yil 23-may kuni tibbiyot sohasidagi islohotlarning navbatdagi bosqichida turgan ustuvor vazifalar muhokamasiga bag‘ishlangan videoselektor yig‘ilishidagi nutqi.

2. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. https://lex.uz/en/docs/5013007?ONDATE=01.02.2024

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-sonli Farmoni. https://lex.uz/docs/4545884

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022 — 2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son Farmoni. https://lex.uz/docs/5841063

5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 3-iyuldagi “Ma’muriy islohotlar doirasida oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar sohasida davlat boshqaruvini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-200-sonli qarori. https://lex.uz/docs/6945979

6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 28-dekabrda “Sog‘liqni saqlash tizimini raqamlashtirishni jadallashtirish hamda ilg‘or raqamli texnologiyalarni joriy etish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-415 son qarori. https://lex.uz/docs/6277776

7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 6-maydagi “Tibbiyot va farmasevtika ta’limi va ilm-fani tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4310 son qarori. https://lex.uz/docs/4323169

8. B.Usmonov. Oliy ta’lim, fan va ishlab chiqarish integratsiyasini klasterli yondashuv asosida innovatsion rivojlantirish. Pedagogika fanlari doktori dissertatsiya avtoreferati. T.:2020, 32-bet.

9. T.Teshaboev. “Oliy ta’lim muassasasi va ishlab chiqarish korxonalari integratsiyasi”.O‘zbekistonda oliy ta’lim. 2022 yil, 4-son. 32-37-betlar.

10. F.Rahimov. “Ta’lim, fan va ishlab chiqarish integratsiyasi va innovatsion hamkorlik”. Ilmiy-uslubiy qo‘llanma. Cho‘lpon nashriyoti. T.:2017 yil, 78 bet.

11. O.Bazarov. “Fan, ta’lim va ishlab chiqarish integratsiyasini rivojlantirish oliy ta’limning ustuvor masalasi”. Innovatsion texnologiyalar jurnali. 2020 yil, Maxsus son, 3-7 betlar.

12. O.Abduraxmonov. “Fan, ta’lim va ishlab chiqarish integratsiyasi”. T.: Fan va texnologiyalar. 2014. 5-bet.

13. B.Qo‘chqorov. “O‘zbekistonda fan, ta’lim va ishlab chiqarish integratsiyasini ta’minlash bo‘yicha chiqarilgan me’yoriy-huquqiy asoslari”. RESEARCH AND EDUCATION. VOLUME 1 |ISSUE 9| 2022. http://sjifactor.com/passport.php?id=22258

14. L.Abduraxmanova. Tibbiy ta’lim sifatini oshirishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarning qo‘llanilishi. Ta’lim va innovatsion tadqiqotlar jurnali, 2021 yil, 7-son, 113-bet.

15. B.Xodiev. Oliy fan, ta’lim va ishlab chiqarish o‘zaro innovatsion hamkorligining zamonaviy modeli. “Kafedralarda ta’lim, fan va ishlab chiqarish o‘rtasidagi innovatsion korporativ hamkorlik doirasida olib borilayotgan ilmiy tadqiqot ishlarining holati va ularning samaradorligini oshirish” mavzusidagi taqdimot materiallari. T.:TDIU., 2016 yil.

NUTQIY JANRLAR VA ULARNING ANTROPOLINGVISTIK XUSUSIYATLARI

Axmedov Botirjon Ravshanovich,
Qo‘qon universiteti Andijon filiali
Yoshlar masalalari va ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo‘yicha prorektori,
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Annotatsiya. Ushbu maqolada nutqiy janrlar nazariyasining mazmuni, tasnifi hamda ularning antropolingvistik yo‘nalishdagi tadqiqotdagi o‘rni tahlil etiladi. Nutqiy janrlarning inson faoliyati, milliy madaniyat, ijtimoiy ong va tafakkur bilan o‘zaro aloqadorligi yoritiladi. Shuningdek, nutqiy janrlarning milliy-madaniy, psixolingvistik va kommunikativ xususiyatlari antropolingvistik yondashuv asosida izohlanadi.

Kalit so‘zlar: nutqiy janr, antropolingvistika, kommunikativ vazifa, milliy-madaniy kontekst, dialogiklik, subyektivlik.

Tilshunoslikning so‘nggi o‘n yilliklarda jadal rivojlanayotgan yo‘nalishlaridan biri bu – **inson omiliga asoslangan lingvistik paradigmalardir**. Xususan, **antropolingvistika, etnolingvistika, kognitiv lingvistika, psixolingvistika** kabi yo‘nalishlar tilni faqat grammatik tizim sifatida emas, balki inson tafakkuri, madaniyati va ruhiyatining ifodasi sifatida o‘rganishni maqsad qilgan. Bu fanlar tilni **madaniy-tarixiy tajriba va jamiyat ongining in’ikosi** sifatida talqin etadi.

Shu boisdan, nutqiy janrlar masalasi bugungi tilshunoslik fani uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Har bir nutqiy janr insonning ichki dunyosi, dunyoqarashi, his-tuyg‘ulari, qadriyatlari va ijtimoiy maqomini aks ettiradi. Shu nuqtai nazardan, **nutqiy janrlar antropolingvistik tadqiqotlarning markaziy ob’yektiga** aylangan.

Nutqiy janr tushunchasini birinchi bo‘lib rus olimi **M.M. Baxtin** ilmiy muomalaga kiritgan. U tilni “inson faoliyatining ijtimoiy shakli” sifatida talqin etgan va har bir muloqotning o‘ziga xos, takrorlanadigan, barqaror shakllari mavjudligini ta’kidlagan. M.M. Baxtin nutqiy janrlarni ikki asosiy guruhga ajratadi:

1. **Oddiy (kundalik) janrlar** – kundalik muloqotda qo‘llaniladigan, kichik hajmli, ko‘pincha og‘zaki shakldagi nutqiy birliklar (masalan, salomlashish, uzr so‘rash, duo, tabrik, minnatdorchilik bildirish va hokazo).

2. **Murakkab janrlar –** ijtimoiy-siyosiy, ilmiy, diniy yoki badiiy sohada shakllangan, tarkiban va usluban murakkabroq nutq shakllari (ma’ruza, intervyu, va’z, reportaj, roman, nutq, muhokama, maqola va boshqalar).

Har bir janrning **mazmun, kompozitsiya va uslub** jihatidan o‘ziga xosligi mavjud. Masalan, **tabrik** janrida samimiylik, optimizm va ijobiy ohang ustuvor bo‘lsa, **nasihat** janrida axloqiy qadriyat, dono fikr va emotsional dalillar yetakchilik qiladi.

Nutqiy janrlar jamiyatdagi kommunikativ ehtiyojlar natijasida shakllanadi va ular **ijtimoiy qadriyatlarni mustahkamlovchi vosita** sifatida xizmat qiladi. Inson nutqi orqali nafaqat axborot almashadi, balki ijtimoiy rollar, ma’naviy me’yorlar, madaniy xulq-atvor modellarini ham namoyon etadi.

Masalan, o‘zbek jamiyatidagi “**duo**”, “**nasihat**”, “**tabrik**”, “**uzr so‘rash**” kabi janrlar xalqning ma’naviy olami, milliy xarakteri va diniy e’tiqodi bilan chambarchas bog‘liq. Har bir janr orqali xalqning o‘ziga xos **madaniy kodlari** va **til tafakkuri** namoyon bo‘ladi.

A.A. Leontev, V.V. Krasnyx, E.S. Kubryakova, T. Van Deyk va boshqa bir qator olimlar fikricha, nutqiy janrlar til tizimining **madaniy-motivatsion modeli** sifatida faoliyat ko‘rsatadi. Bu model orqali inson o‘zini jamiyatda tanitadi, o‘z ijtimoiy mavqeini va kommunikativ strategiyasini belgilaydi.

Antropolingvistika tilni insonning **madaniy, ijtimoiy va psixologik mohiyatini ifodalovchi tizim** sifatida o‘rganadi. Shu nuqtai nazardan, nutqiy janrlar inson shaxsiyatining, ruhiy holatining, madaniy muhitining va ijtimoiy qadriyatlarining in’ikosi sifatida tahlil qilinadi. Nutqiy janrlarning antropolingvistik belgilarini quyidagi jihatlar orqali tavsiflash mumkin:

1. **Sub’yektivlik** – nutq insonning shaxsiy tajribasi, hissiyoti, dunyoqarashi va maqsadlarini ifodalaydi.

2. **Milliy-madaniy belgilanganlik** – har bir xalq o‘ziga xos nutqiy janrlar tizimiga ega bo‘lib, unda xalqning madaniy qadriyatlari va urf-odatlari aks etadi.

3. **Emotsionallik** – nutqiy janrlar ko‘pincha emotsional ohang, undov, ritorik savollar orqali ta’sirchanlikni oshiradi.

4. **Dialogiklik** (o‘zaro bog‘liqlik) – nutq doimo muloqot xarakteriga ega, u boshqa nutqqa javob yoki davomdir.

5. **Kontekstual moslashuvchanlik** – bir janr turli vaziyatlarda yangicha ma’no, uslub va semantik yuklama kasb etadi.

Misol uchun, va’z janri diniy-ma’naviy mazmunga ega bo‘lib, xalqning e’tiqodi, axloqiy qadriyati va ruhiy dunyosini ifoda etadi.

- l**isoniy jihatdan**, va’z ko‘p so‘zli, ritorik savollar, undovlar, iboralar va maqollar bilan boyitilgan.

- a**ntropologik jihatdan,** u voiz va jamoa o‘rtasida ruhiy aloqa, ishonch va ma’naviy uyg‘onishni ta’minlaydi.

- madaniy jihatdan, va’z xalqning diniy tafakkuri, qadriyatlari, odob-axloq me’yorlari va milliy ruhini aks ettiradi. Shunday qilib, va’z – bu nafaqat diniy so‘zlashuv, balki **axloqiy-ma’naviy kommunikatsiyaning o‘ziga xos shakli,** unda til, tafakkur va madaniyat bir butun tizimda faoliyat ko‘rsatadi.

Nutqiy janrlarni o‘rganishda psixolingvistik yondashuv ham muhimdir. Har bir nutqiy janr inson ongida **motivatsion, maqsadga yo‘naltirilgan nutq rejasi** sifatida shakllanadi. Inson muloqot jarayonida so‘zlarni tanlash, ohangni belgilash, hissiy ta’sirni ifodalash orqali o‘z ruhiy holatini ifoda etadi. Shu bois nutqiy janrlarning psixolingvistik mohiyati – **inson tafakkuri va nutq faoliyati o‘rtasidagi dinamik aloqani** yoritadi.

Xulosa qilib aytganda, nutqiy janrlar – bu insonning **ijtimoiy, madaniy va psixologik tajribasini** ifodalovchi lingvistik hodisadir. Ular til tizimining nafaqat grammatik, balki **madaniy-semantik** qatlamini ham tashkil etadi. Antropolingvistik tahlil orqali nutqiy janrlar til, madaniyat va inson uchligini yagona tizim sifatida tushunishga imkon beradi. Bugungi kunda nutqiy janrlarni o‘rganish tilshunoslik, madaniyatshunoslik va psixologiya fanlari kesishgan nuqtada yangi ilmiy

natijalarni yuzaga chiqarmoqda. Bu esa tilni inson faoliyatining eng muhim ijtimoiy-madaniy ko‘rsatkichi sifatida anglashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Бахтин М. М. Проблемы поэтики Достоевского. – Москва: Русский язык, 1979.
2. Караулов Ю. Н. Русская языковая личность и задачи её исследования. – М., 1987.
3. Шарипов Ф. Tilshunoslikda antropologik paradigma. – Тошкент, 2019.
4. Нормуродов Н. Nutqiy janrlar nazariyasi. – Тошкент, 2020.
5. Ван Дейк Т. А. Язык. Познание. Коммуникация. – М., 1989.

ВЛИЯНИЕ СТРЕССА НА МОТИВАЦИЮ СТУДЕНТОВ К УЧЕБЕ И СДАЧЕ ЭКЗАМЕНОВ

Туйчиев Г.У., Ганиев А.Г., Абдурахманов И.Т.
Андижанский филиал Кокандского университета
Андижан, Узбекистан

Аннотация. В данной статье освещается влияние стресса на учебную мотивацию студентов на экзаменационном этапе, влияние психологического стресса во время экзамена на учебную деятельность, самооценку, эмоциональную устойчивость и уровень мотивации. Эмпирические результаты показали, что стресс на экзаменационном этапе негативно влияет на учебный процесс студентов. Для предотвращения этих явлений рекомендуется повышать психологическую поддержку учащихся, развивать навыки управления стрессом, формировать благоприятную среду в системе образования. Исследовательский фонд будет содействовать разработке мер, направленных на улучшение качества психологических услуг в образовательных учреждениях, эффективную организацию экзаменационного процесса, а также поддержку личностного и академического развития студентов.

Ключевые слова: стресс, экзамен, мотивация к учёбе, студент.

Abstract. This article examines the impact of stress on students' learning motivation during the exam phase, the impact of psychological stress during the exam on learning activities, self-esteem, emotional stability, and motivation levels. Empirical results showed that stress during the examination stage negatively impacts students' learning process. To prevent these phenomena, it is recommended to increase the psychological support of students, develop stress management skills, and create a favorable environment in the education system. The Research Fund will facilitate the development of measures aimed at improving the quality of psychological services in educational institutions, the effective organization of the examination process, and the personal and academic development of students.

Key words: stress, exam, motivation to study, student.

Annotatsiya. Ushbu maqolada imtihon bosqichida talabalarning o‘quv motivatsiyasiga stressning ta’siri, o‘quv faoliyati, o‘z-o‘zini baholash, emotsional barqarorlik va motivatsiya darajasiga imtihon paytidagi psixologik stressning ta’siri yoritib berilgan. Empirik natijalar shuni ko‘rsatdiki, imtihon bosqichidagi stress talabalarning o‘quv jarayoniga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Ushbu hodisalarning oldini olish uchun o‘quvchilarni psixologik qo‘llab-quvvatlashni oshirish, stressni boshqarish ko‘nikmalarini rivojlantirish, ta’lim tizimida qulay muhitni shakllantirish tavsiya etiladi. Tadqiqot jamg‘armasi ta’lim muassasalarida psixologik xizmat sifatini yaxshilash, imtihon jarayonini samarali tashkil etish, shuningdek, talabalarning shaxsiy va akademik rivojlanishini qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan chora-tadbirlarni ishlab chiqishga ko‘maklashadi.

Kalit so‘zlar: stress, imtihon, o‘qishga motivatsiya, o‘quvchi.

Введение. Подверженность изменениям системы образования в современном Узбекистане обусловлен асоциальным спросом общества. Сегодня возникает необходимость пересмотра учебных программ, так как обществу нужны творческие, целеустремленные, ответственные личности [1-3].

Эта потребность требует внедрения новых методов и приемов в сфере образования. В ходе модернизации учебных программ важно развивать креативное мышление,

критически анализировать, адаптироваться к командной работе, формировать умения учиться на протяжении всей жизни [5,7,12].

В центре внимания также должны быть ценности, которые способствуют всестороннему развитию личности, вопросы национального воспитания, культуры и гражданской ответственности. Таким образом, обновление системы образования будет способствовать развитию Узбекистана как глобальной конкурентоспособной страны в будущем [2,4,6-12].

Целью обучения в вузе является повышение познавательной активности, пробуждение мотивации к занятиям, стремление к саморазвитию, обучение эффективному использованию полученных знаний на практике.

Основной целью вуза является формирование студента как полноценной личности. Сензитивность этого периода предоставляет большие возможности для саморазвития студента. Кроме того, необходимо учитывать факторы, влияющие на изменение мотивации студента: взаимоотношения образовательного центра с учениками, возрастные, личностные, индивидуально-типологические особенности, субъективные характеристики преподавателя, специфику общения с студентами.

Материалы и методы. Для эмпирического исследования влияния стрессов студентов во время экзаменов на учебную мотивацию мы взяли за основу следующие точки зрения:

1) методы исследования должны соответствовать специфике, характеру объекта исследования. Только в этом случае они обеспечивают достоверность, объективность полученных результатов;

2) поскольку каждый метод исследования имеет свое специфическое значение, должен применяться комплекс методов, приемов и средств, обеспечивающих всестороннее изучение явления.

Требования ко всем видам психологических методик:

-Научность методов, обоснованность их применения, включая обоснование необходимости их определения и возможности применения в различных исследованиях;

- валидность методов;

- стандартизация инструкций и тестового материала;

- возможность практического применения методов, определяемая простотой проведения теста, а также скоростью его проведения.

Критерии, специфичные для разных анкет:

- адаптация анкеты к отечественным социокультурным условиям, если она была разработана за рубежом;

- наличие шкал для оценки полученных в ходе исследования результатов;

- публикация в социологической литературе как показатель достаточно широкого распространения методики.

Методология и порядок проведения экспериментального исследования: использовались авторская анкета; «Методика Дембо-Рубинштейн», методика А.А. Реаннына «Мотивация успеха и страх неудачи», методика Ч.Д. Спилберга и Л. Ханина «Определение уровня реактивной и личностной тревожности».

Исследование проводилось среди студентов города Андижана в первую экзаменационную сессию 2024 года. В исследовании приняли участие 70 студентов 1–4 курсов. Из них 18 студентов 1 курса, 9 студента 2 курса, 12 студентов 3 курса и 31 студентов 4 курса.

Результаты и обсуждение. При осуществлении метода экспертной оценки, проведен опрос студентов, обучающихся по другим специальностям со специальностью психолог. Причина проведения анкетирования среди них было определение того, какой этап обучения является сложным, каковы проблемы основного обучения. В анкете были заданы вопросы, которые актуальны для студентов, и тест был получен анонимно.

Таблица 1

Уровень стресса студентов во время экзамена и его влияние

Вопросы	Факторлар	%
Экзамен для вас	Образование	23,3
	Стресс	43,3
	Результат	33,3
Как тревожное состояние влияет на вас	Ухудшается здоровье	16,6
	Настроение падает	26,6
	Моя самооценка снижается	56,6
Как быстро вы выходите из стресса	Мгновенно	20
	Некоторое время	50
	Несколько дней	30
Самый напряженный период обучения для вас в студенческие годы	На начало учебного года	36,6
	На конец учебного года	16,6
	На этапе экзамена	46,6

В опросе приняли участие 70 студентов. Анкета была взята с целью выяснить, каково значение экзамена для жизни студента, каковы основные причины, по которым он впадает в стресс и тревогу, какова основная мотивирующая сила учебной мотивации. Анкета была взята у студентов 1-4 курсов. Возраст опрошенных студентов составлял 17-23 года. В ходе проведения анкетирования мы добились следующих результатов.

По результатам вопроса установлено, что для подавляющего большинства студентов экзамен имеет ассоциацию со словом стресс. В ходе опроса было установлено, что основным акцентом студентов является не здоровье, не настроение, а снижение их самооценки из-за неуверенности себе.

На вопрос о том, какой период обучения является для вас наиболее интенсивным в студенческом периоде, подавляющее большинство студентов отвечают, что экзаменационный период, какой бы период обучения ни был, имеет большое значение.

Анализируя результаты опроса, было установлено, что экзамен является стрессовой ситуацией для студентов, что в случае тревоги часто снижается самооценка, что на выходе из стресса уходит много времени, что самый интенсивный период обучения в студенческом периоде — это только экзаменационный период. Из-за этих результатов мы решили, что лучше углубиться в тест, проведенный в ходе опроса студентов. Это означает, что экзаменационный период имеет большое значение для студентов.

Цель детерминирующего исследования определить влияние стресса во время экзамена на учебную мотивацию студентов высшего учебного заведения и то, как обучение в текущем учебном году влияет на учебную мотивацию студентов.

Выбор исследовательских групп не был случайным, он зависел от следующих факторов. Результаты исследования показали нам, что первокурсники и студенты третьего, четвертого курсов явно находятся на разных этапах учебной мотивации. Первый мы видим, что если студенты I курса уже понимают содержание обучения, то для четвертого курса обучение утратило свою актуальность. Мы видим, что больше внимания уделяется трудовой деятельности, чем учебной деятельности. Студенты третьего курса в большинстве случаев ориентировались на учебную деятельность.

Неслучайно, что студенты учатся на разных факультетах. Целью исследования было определить, есть ли разница в мотивации к обучению между студентами гуманитарных и естественнонаучных специальностей. Однако такая классификация не имела никакого значения. Поскольку между ними нет существенной разницы,

Учитывались возрастные различия студентов. 70% студентов первого курса были в возрасте 17 лет, 19% — 18 лет, 11% — 20 лет, а 27% студентов третьего курса — 19 лет. Хотя гендерные и возрастные различия учитывались, мы не изучали их слишком подробно.

В результате экзаменационный период снижает эмоциональное, функциональное состояние студента. Несмотря на индивидуальные различия, мы обнаружили, что экзамен

оказывает влияние на мотивацию к обучению. Установлено, что это для того, чтобы начать с незначительной необходимости и получить доступ к нормальной жизни, избавившись от неудобств.

Мотивация к обучению меняется. Экзамен оказывает влияние на развитие мотивации к обучению, но было обнаружено, что 30% из них имеют более высокий уровень забвения, чем больше у них памяти, когда они обнаруживают, что их мотивация угасает во время экзамена.

Ориентация меняется во время экзамена. В большинстве случаев забывают 50% несмотря на то, что они так подготовлены во время экзамена. То есть, как бы хороша ни была подготовка к этому экзамену, коэффициент забвения низкий. Но в результате этого исследования начинается подготовка к экзамену.

Обоснованием выбора методики Ч.Д. Спилберга и Л. Ханина «Определение уровня реактивной и личностной тревожности» является изучение проявлений ситуативной или реактивной и личностной тревожности у студентов.

Кроме того, методология заимствована из-за ее валидности и широкого использования во многих исследованиях. В методике тревога определяется как указанная реакция на стресс. Ч. Д. Спилберг своей теории указывает на тревожность следующим образом:

1. Беспокойство при состоянии, при котором человек испытывает дискомфорт, когда на него оказывается давление. Субъективное беспокойство вызвано эмоциональным давлением личности.

2.Страх перед тревожным расстройством личности из-за серьезных причин беспокойства или интенсивного. Это зависит от того, как долго длится беспокойство, которое является основным фактором этих состояний.

3. Лица с высоким уровнем тревожности в большинстве случаев оценивают сложную проблему как неудачную или интенсивную нагрузку на себя.

4.Тревожное состояние личности может отразиться даже на системе защиты в ее действиях. Тип попытки убежать от неудачи, которая всегда совершается в неудобных ситуациях в постоянно повторяющейся личности, даже становится нормальным защитным механизмом личности.

В исследовании также учитывался уровень тревожности студентов. Согласно результатам, верхний уровень тревожности составляет 45%, а нижний уровень тревожности-55%. В результате исследования мы разделили тревогу на две группы. Ситуативная или реакционно- тревожная и личностная тревожность. Было обнаружено, что личностная тревожность студентов высока. Это объясняется тем, что уровень ситуативной тревожности составил 19,94%, а личностный-56,57% мы можем видеть. Самый высокий уровень ситуативной или реактивной тревожности среди студентов составляет 30%, средний уровень — 64%, самый низкий уровень — 6%.



Рисунок 1. Уровень тревожности учащихся, (%)

При измерении уровня ситуативной или реактивной тревожности было установлено, что у двух студентов, принявших участие в исследовании, наблюдался низкий уровень, у 30 студентов – средний уровень и у 18 студентов – высокий уровень.

При измерении уровня личностной тревожности было выявлено, что у одного из студентов, принявших участие в исследовании, она была на низком уровне, у 21 студента – на среднем уровне и у 28 студентов – на высоком уровне.

Исследование студентов выявило, что уровень личностной тревожности значительно выше уровня ситуативной или реактивной. Это означает, что студенты чаще

беспокоятся о трудностях, которые возникают у человека, то есть у него самого, в данной ситуации, а не о том, как эта ситуация будет развиваться.

По итогам проведенного подхода к студентам, количество высоко оцениваемых людей составило 28. А если количество студентов с адекватной самооценкой составляет 15, число студентов с низкой самооценкой составляет 7. Число высоко оцениваемых составило 6студентов из числа студентов 1-го курса. Количество студентов с адекватной самооценкой составило 4, а студентов с низкой самооценкой-3 студента; из числа студентов 2 курса-2 студента. Если количество студентов с адекватной самооценкой составляет 1, то количество студентов с низкой самооценкой составляет 1 студент; из числа студентов 3курса 3 студента. В то время как количество студентов с адекватной самооценкой составляет 2, количество студентов с низкой самооценкой составляет 2 студента; из числа студентов 4 курса 17 студентов. В то время как количество студентов с адекватной самооценкой составляет 8, количество студентов с низкой самооценкой составляет 1 студент.

Рисунок 1. Уровень ситуативных или реактивных тревожных расстройств у студентов

В ходе исследования для выявления открыто - эксплицитных и неявно - имплицитных мотивов студентов нами были посвящены исследования мотивов учебной деятельности студентов А. Ренана и В. Использовали методику А. Якунина. Основная причина, по которой мы выбираем письмо, заключается в том, что с помощью опроса мы можем определить причину мотивации к чтению 16. В том, что является одной из наиболее часто используемых методик в изучении учебной деятельности. Существует два варианта методики: первый определяет 5 основных мотивов, а следующий определяет уровень мотивов.

Мы использовали эту методику для определения явной мотивации студентов, принимая во внимание, что она также позволяет нам определить степень, в которой они чувствуют социальную потребность.

Методология позволила нам определить многогранность количества мотивов и установить, что их уровень выраженности различается у разных студентов. Основной причиной выбора первой версии метода является её оперативность, точность результатов и лёгкость сравнения с другими методами. Метод позволяет определить степень успешности и избежать неудач.

Личности, стремящиеся к успеху, предъявляют высокие требования к конкуренции, признанию и лидерству. Такие люди часто воспринимаются как уверенные в себе, целеустремлённые и инициативные.

Личности, стремящиеся к успеху-конкуренция, признание себя, высокая надежда на достижение лидерских качеств. Такие студенты часто воспринимаются как уверенные в себе, целеустремлённые и инициативные.

Личности, стремящиеся убежать от неудачи, являются индикаторами типа негативного мотива. При этом активная деятельность человека, наоборот, зависит от его действий, направленных на побег от неудачи. Пассивность его действий обусловлена его ожиданием отрицательного результата, его пониманием того, что он недостаточно силен для себя. С момента начала любой работы мысль о достижении успеха полностью уходит от мысли о том, что человек думает о неудачах и избегает этой неудачи. Личности с мотивами, ориентированными на неудачи, во многих случаях явно выделяются высоким уровнем тревожности и низкой уверенностью в себе.

Согласно определению методологии мотивации успеха и страха неудачи, проведенной целью определения мотивации студентов, было обнаружено, что нет страха неудачи, что есть два студента, которые избегают неудач, что есть двадцать один студент,

чья мотивация не полностью определена, что есть двадцать семь студентов, у которых есть ориентация на мотивацию.

Определяя уровень мотивации к успеху и боязни неудач у студентов 1-го курса, уровень боязни неудала не дала взгляда. На уровне побега от неуспеваемости выявлены 1 студент, 1 студент с не полностью определённой мотивацией, 11 студентов с ориентацией на мотивацию; уровень боязни неуспеваемости при определении уровня успешности и боязни неудачи у студентов 2 курса вообще не проявлялся.

На уровне избегания реальной неудачи не выявлено ни одного студента, у 2 студентов мотивация не полностью определена, у 3 студентов выявлена мотивационная направленность; при определении уровня мотивации успеха и страха неудачи у студентов 3 курса уровень страха неудачи у студентов вообще не отразился.

На уровне побега от неуспеваемости выявлены 1 студент, 3студента с не полностью определенной мотивацией ,3 студента с ориентацией на мотивацию; уровень боязни неуспеваемости при определении уровня успешности и боязни неудачи у студентов 4 курса вообще не проявлялся. На уровне побега от отсутствия реального пути выявлены 15 студентов, не имеющих мотивации, 10 студентов с направленностью на мотивацию.

При определении уровня мотивации успеха и страха неудачи у студентов в целом уровень ориентации на мотивацию неудачи у студентов вообще не отразился. Мы видим, что количество студентов с ориентацией на мотивацию неудачи меньше, чем студентов с неясным мотивационным полюсом, тогда как количество студентов с ориентацией на успех и мотивацией достижений больше.

Turli madaniyatlardan bo‘lgan shifokor va bemor o‘rtasidagi muloqotda tushunmovchiliklar oldini olish uchun tibbiy madaniy kompetentsiya zaruriyatga aylandi. Tadqiqotlar ko‘rsatadiki, madaniy omillar simptomlarni idrok etish, tibbiy yordamga murojaat qilish va davolanishga rioya etishga ta’sir ko‘rsatadi[19]. Shu bois, bugungi kunda ko‘plab mamlakatlarda tibbiyot xodimlari uchun madaniyatlararo muloqot bo‘yicha treninglar o‘tkazilmoqda[20]. Xalqaro tibbiy ta’limda ham talabalarga turli xalqlarda kasallik va sog‘liq bilan bog‘liq qarashlar, atamalar farqlari haqida bilim berish muhimdir.

Munozara. Yuqorida keltirilgan faktlar shuni ko‘rsatadiki, tibbiy terminologiyada milliy-madaniy komponentlar muhim o‘rin tutadi. Ingliz va o‘zbek tillari misolida sharqona hamda g‘arbona tibbiy tafakkurning o‘ziga xos lug‘aviy ifodasi namoyon bo‘ladi. Ingliz tili global tibbiyot tili sifatida ko‘proq standartlashgan ilmiy atamalar tizimini shakllantirgan bo‘lsa, o‘zbek tili ko‘p asrlik xalq tabobati merosi zaminida rang-barang terminlar qatlamini saqlab qolgan.

Zamonaviy tibbiy kommunikatsiya xalqaro miqyosda standartlashib borar ekan, milliy xususiyatga ega ko‘plab atamalar iste’moldan chiqmoqda. Masalan, avlodlar almashuvi bilan yosh shifokorlar “sariqlatma” (gepatit) kabi eski milliy atamani deyarli ishlatmay, to‘g‘ridan-to‘g‘ri “gepatit” atamasini qo‘llashmoqda. Bu hol, bir tomondan, terminologiyani unifikatsiya qilishga xizmat qilsa-da, ikkinchi tomondan, tilning madaniy boyliklarining bir qismini yo‘qotishiga olib keladi. Shu bois milliy atamalarni lug‘atlar va qo‘llanmalar orqali hujjatlashtirib borish, ularning izohini keltirish tavsiya etiladi.

Ingliz tilida esa, aksincha, murakkab ilmiy atamalar o‘rnini ba’zan sodda, ommabop iboralar egallamoqda. Masalan, “myocardial infarction” atamasi bilan birga “heart attack” iborasi keng ishlatiladi, “cerebrovascular accident” o‘rniga “stroke” deyiladi. Demak, hatto ilmiy jargonda ham madaniy va psixologik qulaylik nuqtai nazaridan soddalashtirish tendentsiyasi mavjud. Bu, aslida, har bir til va madaniyat tibbiy tushunchalarni o‘ziga mos shaklda qabul qilishga intilishini ko‘rsatadi.

Tarjima masalalarini muhokama qilar ekanmiz, aytish lozimki, tibbiy matnlarni bir tildan ikkinchisiga o‘girishda ekvivalentlikka erishish uchun lingvistik bilim bilan birga, madaniy bilim ham zarur. Yuqorida ta’kidlanganidek, ba’zi atamalarni so‘zma-so‘z tarjima qilib bo‘lmaydi – ular uchun ma’nodosh ibora yoki tushuntirish topish kerak bo‘ladi. Misol uchun, “ko‘k yo‘tal”

atamasini inglizchada whooping cough deb atash lozim, yoki “jinnilik” uchun “mental illness” deyiladi; aks holda, bevosita blue cough yoki madness (possession) deb tarjima qilish noto‘g‘ri ma’no berishi mumkin.

Shu nuqtai nazardan, tibbiyot sohasida faoliyat yurituvchi mutaxassislar va tarjimonlar uchun madaniyatlararo kommunikativ kompetentsiyani shakllantirish dolzarbdir. Bu borada quyidagi taklif va tavsiyalarni bayon qilish mumkin:

Xalqaro tibbiy ta’limda madaniy komponentlarga e’tibor – Tibbiy oliy o‘quv yurtlarida chet ellik talabalarga mahalliy sog‘liq tushunchalari, xalq tabobati elementlari va tibbiy atamalarning madaniy jihatlari haqida maxsus ma’ruzalar o‘qilishi lozim. Shuningdek, mahalliy talabalarga chet mamlakatlar tibbiyoti va terminologiyasidagi o‘ziga xosliklar bo‘yicha bilim berish, ularni global muhitga tayyorlash zarur[20].

Tibbiy tarjimonlar malakasini oshirish – Tibbiy matnlarni tarjima qiluvchi mutaxassislar uchun davriy seminarlar tashkil etilib, unda “false friends” (soxta do‘st terminlar), tibbiy metaforalar va madaniy atamalarni tarjima qilish usullari o‘rgatilishi kerak. Maxsus ikki tilli tibbiy terminologiya lug‘atlari va onlayn ma’lumotbazalarini yaratish ham ularga ko‘mak beradi.

Madaniy kompetentsiya treninglari – Turli madaniyat vakillari bilan ishlovchi shifokor va hamshiralar uchun madaniyatlararo muloqot bo‘yicha treninglar o‘tkazish tavsiya etiladi. Bu treninglarda bemorlarning madaniy e’tiqodlari, tabulari, muqobil davolash usullariga munosabati kabi jihatlar yoritilib, tibbiy muloqot simulyatsiyalari orqali xodimlarning ko‘nikmalari shakllantiriladi[19].

Ilmiy hamkorlik va tadqiqotlar – Turli mamlakatlar lingvist va shifokor olimlari hamkorligida tibbiy terminologiyaning milliy-madaniy jihatlarini o‘rganish bo‘yicha ko‘proq ilmiy izlanishlar olib borilishi kerak. Masalan, o‘zbek va ingliz tilidan tashqari boshqa tillar (rus, arab, xitoy va h.k.) bilan qiyosiy tadqiqotlar olib borish, tajriba almashish xalqaro tibbiy kommunikatsiyani yanada boyitadi.

Xulosa qilib aytganda, o‘zbek va ingliz tibbiy terminlarida milliy-madaniy komponentlarning namoyon bo‘lishi tibbiy bilim va tajribani chuqurroq anglashga xizmat qiladi. Terminlarning kelib chiqishi va qo‘llanilishi ortidagi madaniy qatlamni bilish shifokor va tarjimonlarga bemor bilan to‘g‘ri muomala qilish, axborotni aniq yetkazish va tushunish imkonini beradi. Qiyosiy tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, til va madaniyat tibbiyot sohasida ham chambarchas bog‘liq bo‘lib, ularni birgalikda o‘rganish zamonaviy sog‘liqni saqlash tizimining ajralmas qismiga aylanmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Qahramonova M., Bobojonova Sh. Y. (2023). Linguocultural Analysis of Medical Terms. Texas Journal of Philology, Culture and History, 15, 82–87[1][3].
2. Suyunov B. T. (2021). Morphology and National-Cultural Features of Medical Terms Related to Color in the Uzbek Language. EPRA International Journal of Research and Development, 6(1), 193–199[21][22].
3. Torakulova O. N. (2023). Medical Terminology as an Object of Linguistic Research. European International Journal of Pedagogics and Social Sciences, 3(5), 15–19[2][16].
4. Wu A., et al. (2025). The importance of multiculturalism in medical education: a global comparison of perspectives from medical and health professions students at 21 universities. (SAGE Open, Research Article)[19][20].
5. Norova M. F. (2022). Pseudo-internationalisms in Medical Translation. American Journal of Social Sciences and Humanity Research, 2(12), 13–20[18].

TIBBIY FANLARNI O‘QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR

Xusanov Azizbek Raximberdi o‘g‘li
Farg‘ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti
Kommunal va mehnat gigiyenasi kafedrasi assistenti
250398azizbek@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada tibbiy ta’lim jarayonida innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo‘llash zaruriyati, ularning samaradorlik omillari hamda zamonaviy ta’lim muhitida tibbiyot sohasida raqobatbardosh mutaxassislarni tayyorlashdagi o‘rni tahlil qilinadi. Innovatsion yondashuvlar, xususan, raqamli ta’lim, simulyatsion texnologiyalar, interaktiv metodlar va kompetensiyaga asoslangan yondashuvlar tibbiy fanlarni o‘qitish sifatini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Kalit so‘zlar: tibbiy ta’lim, innovatsion texnologiyalar, simulyatsiya, interaktiv o‘qitish, kompetensiyaviy yondashuv, raqamli ta’lim.

Аннотация. В статье анализируется необходимость использования инновационных педагогических технологий в процессе медицинского образования, факторы их эффективности и роль в подготовке конкурентоспособных специалистов в области медицины в современной образовательной среде. Инновационные подходы, в частности, цифровое образование, симуляционные технологии, интерактивные методы и компетентностный подход, имеют большое значение в повышении качества преподавания медицинских наук.

Abstract. This article analyzes the need for the use of innovative pedagogical technologies in the process of medical education, their effectiveness factors, and their role in training competitive specialists in the field of medicine in a modern educational environment. Innovative approaches, in particular, digital education, simulation technologies, interactive methods, and competency-based approaches, are of great importance in improving the quality of teaching medical sciences.

Bugungi kunda global miqyosda tibbiy ta’lim tizimi inson salomatligini ta’minlashning strategik omili sifatida qaralmoqda. Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti (JSST) ma’lumotlariga ko‘ra, XXI asr tibbiyotining asosiy maqsadi-bemorga yo‘naltirilgan, kompetensiyaga asoslangan, klinik tafakkurga ega mutaxassislarni tayyorlashdan iboratdir. Shu sababli tibbiy ta’limni tashkil etishda innovatsion yondashuvlarni joriy etish nafaqat zamon talabi, balki ta’lim samaradorligini oshirishning eng muhim sharti hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasida ham tibbiyot sohasini modernizatsiya qilish, ta’lim jarayoniga ilg‘or pedagogik va raqamli texnologiyalarni joriy etish borasida keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, Prezidentning “Tibbiyot ta’limi tizimini yanada takomillashtirish va sog‘liqni saqlash tizimi uchun malakali kadrlar tayyorlashni jadallashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori (2021-yil) bu yo‘nalishda muhim huquqiy asos bo‘lib xizmat qilmoqda. Mazkur hujjatga muvofiq, tibbiy oliy ta’lim muassasalarida o‘quv jarayonini xalqaro standartlarga moslashtirish, ta’limning modul-kredit tizimini joriy etish va interaktiv o‘qitish usullarini kengaytirish belgilangan.

Innovatsion yondashuvlarning joriy etilishi tibbiy ta’limni faqat nazariy bilim berishdan iborat jarayon emas, balki amaliy, tahliliy va mustaqil qaror qabul qilishga yo‘naltirilgan tizimga aylantirmoqda. Bugungi kunda “simulyatsion ta’lim”, “masofaviy interaktiv platformalar”, “klinik stsenariy mashg‘ulotlari” va “case-based learning” (holat asosida o‘qitish) metodlari orqali talabalarda real hayotiy vaziyatlarda to‘g‘ri tibbiy qaror qabul qilish kompetensiyasi shakllantirilmoqda. Bundan tashqari, tibbiy fanlarni o‘qitishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining (AKT) qo‘llanilishi ta’lim jarayonining ochiqligini va shaffofligini ta’minlaydi. “Google Classroom”, “Moodle”, “MedEdPortal”, “Coursera” kabi xalqaro platformalar tibbiyot sohasidagi darslarni interaktiv va vizual tarzda o‘tkazish imkonini beradi. Natijada, o‘quvchilarda nafaqat nazariy bilim, balki amaliy tajriba, tahliliy fikrlash, klinik tafakkur va mustaqil izlanish ko‘nikmalari shakllanadi.

Asosiy qism. Innovatsion yondashuv- bu an’anaviy ta’limdan farqli ravishda, o‘qituvchi va talaba o‘rtasidagi hamkorlikka asoslangan, ta’lim jarayonini interaktiv, tahliliy va amaliy

yo‘nalishga yo‘naltiruvchi tizimdir. U zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo‘llash orqali o‘quv jarayonining sifatini oshiradi. Tibbiy ta’limda innovatsion yondashuvlar yordamida talabalarda mustaqil fikrlash, klinik tafakkur, mantiqiy tahlil, muammoli vaziyatlarda qaror qabul qilish, jamoada ishlash kabi kompetensiyalar shakllanadi. Masalan, Toshkent Tibbiyot Akademiyasida 2024-yildan boshlab Klinik tafakkurni rivojlantirish nomli interaktiv modul joriy etilgan bo‘lib, unda talabalar klinik holatlarni tahlil qilib, bemor tashxisini mustaqil qo‘yish va davolash rejasini tuzishni o‘rganadilar.

Simulyatsion ta’lim- bu o‘quvchilarni real klinik muhitga tayyorlashning eng samarali usullaridan biridir. Bunda virtual laboratoriyalar, simulyator manekenlar (masalan, “SimMan 3G”, “Gaumard HAL” tizimlari), kompyuter dasturlari va klinik stsenariylar yordamida tibbiy jarayonlar qayta yaratiladi. Masalan, Buxoro tibbiyot institutida ‘Virtual anatomiya laboratoriyasi’ tashkil etilgan bo‘lib, unda talabalar inson organizmini 3D formatda o‘rganish imkoniga ega. Shuningdek, simulyatsion markazlar orqali talabalarda reanimatsiya, yurak-o‘pka reanimatsiyasi (CPR), qon ketishini to‘xtatish, jarrohlik asboblaridan foydalanish kabi muhim ko‘nikmalar shakllantiriladi. Bu jarayon bemorga zarar yetkazmasdan amaliy tajriba orttirish imkonini beradi.

Raqamli ta’lim tibbiy fanlar o‘qitilishida yangi bosqichni boshlab berdi. Bugungi kunda onlayn platformalar (masalan, “Moodle”, “Google Classroom”, “MedEdPortal”, “Coursera”, “OpenWHO”) yordamida talabalarga elektron darsliklar, video ma’ruzalar, test tizimlari va virtual laborator mashg‘ulotlar taqdim etilmoqda. COVID-19 pandemiyasi davrida masofaviy o‘qitish tibbiy ta’limda muhim ahamiyat kasb etdi. Masalan, Andijon davlat tibbiyot institutida ‘Telemeditsina’ moduli orqali talabalarga masofadan turib bemor holatini kuzatish, konsultatsiya berish va tibbiy xulosalar tayyorlash o‘rgatildi. Bu nafaqat zamonaviy raqamli kompetensiyalarni, balki global axborot almashinuvi ko‘nikmalarini ham rivojlantirdi.

Interaktiv usullar tibbiy ta’limda o‘quvchilarni faol ishtirok etishga undaydi va bilimlarni chuqur o‘zlashtirishga yordam beradi. Masalan, ‘Aqliy hujum’, ‘Debat’, ‘Problem-based learning’ (muammoli o‘qitish), ‘Case study’, ‘Klinik holat tahlili’ usullari bemorlar haqidagi holatlarni muhokama qilish, tashxis qo‘yish va davolash variantlarini tahlil qilish imkonini beradi. Kompetensiyaviy yondashuv esa ta’limning natijasiga yo‘naltirilgan bo‘lib, talabaning amaliy faoliyatga tayyorgarligini baholaydi. Masalan, Germaniyada ‘Objective Structured Clinical Examination’ (OSCE) tizimi orqali talabaning klinik ko‘nikmalari maxsus stansiyalar bo‘yicha test qilinadi. O‘zbekiston tibbiyot oliygohlarida ham ushbu tizim joriy etilib, talabalarning amaliy tayyorgarligi ob’ektiv baholanmoqda.

Innovatsion yondashuvlarning samaradorligi bir qator omillar bilan belgilanadi. Avvalo, bu yondashuvlar ta’lim sifatini oshiradi, talabalarni faol fikrlashga undaydi, ularning amaliy va klinik kompetensiyalarini rivojlantiradi. Masalan:

- Talabalarning dars jarayonidagi ishtiroki 40–60% ga oshadi;
- Klinik fikrlash darajasi 2 baravar tez shakllanadi;
- Simulyatsion mashg‘ulotlardan so‘ng amaliy xatolar 35% gacha kamayadi.

Bundan tashqari, interaktiv ta’lim talabalarda jamoaviy muloqot, tahliliy fikrlash, stress holatlarida to‘g‘ri qaror qabul qilish ko‘nikmalarini mustahkamlaydi. Shu tariqa, innovatsion yondashuvlar tibbiyot sohasida raqobatbardosh, kasbiy jihatdan yetuk va insoniy qadriyatlarga sodiq mutaxassislarni tayyorlashning muhim kafolatiga aylanmoqda.

Innovatsion yondashuv-bu an’anaviy ta’limdan farqli ravishda, o‘qituvchi va talabalar o‘rtasida faol interaktiv aloqaga asoslangan, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari yordamida o‘quv jarayonini samarali tashkil etish tizimidir. Tibbiy ta’limda bu yondashuvlar talabalarda mustaqil fikrlash, muammoli vaziyatlarni hal etish, amaliy tajriba orttirish imkonini beradi.

Simulyatsion (sun’iy) o‘qitish texnologiyalari — bu tibbiy jarayonlarni real hayotga yaqin sharoitda takrorlash imkonini beruvchi usullardir. Masalan, virtual laboratoriyalar, simulyator manekenlar, klinik stsenariy mashg‘ulotlari talabalarga amaliy tajriba orttirish imkonini beradi, bu esa bemorga zarar yetkazmasdan kasbiy ko‘nikmalarni rivojlantirishga yordam beradi. Bunday

metodlar AQSh, Germaniya, Yaponiya kabi davlatlarning yetakchi tibbiyot universitetlarida keng qo‘llaniladi.

Zamonaviy tibbiy ta’limda onlayn platformalar, multimedia resurslari, elektron darsliklar, telemeditsina modullari muhim o‘rin tutadi. Ular o‘quvchilarga o‘zlashtirish jarayonini individuallashtirish, vaqt va joydan qat’i nazar bilim olish imkonini beradi. Misol uchun, “Moodle”, “Google Classroom”, “MedEdPortal”, “Coursera” kabi platformalar orqali tibbiy ta’limda virtual darslar samarali o‘tkazilmoqda.

Tibbiy ta’limda interaktiv usullar — “Aqliy hujum”, “Debat”, “Klinik holat tahlili”, “Problem-based learning” (muammoli o‘qitish), “Case study” usullari o‘quvchilarning faol ishtirokini ta’minlaydi. Kompetensiyaviy yondashuv esa shunchaki bilim berish emas, balki real kasbiy vaziyatlarda mustaqil qaror qabul qilishga tayyor shaxsni shakllantirishga qaratilgan.

Tibbiy fanlarda innovatsion yondashuvlarni qo‘llash quyidagi natijalarni beradi:

- ta’lim sifati va samaradorligini oshiradi;
- talabalar faol ishtirokini ta’minlaydi;
- amaliy va kasbiy ko‘nikmalarni rivojlantiradi;
- tahliliy fikrlash va muloqot madaniyatini kuchaytiradi;
- klinik tafakkurni shakllantiradi.

Xulosa. Tibbiy fanlarni o‘qitishda innovatsion yondashuvlar bugungi global ta’lim paradigmasining ajralmas tarkibiy qismi bo‘lib, zamonaviy tibbiyotning rivojlanishida hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti (JSST), Yevropa tibbiy ta’lim assotsiatsiyasi (AMEE) hamda AQShdagi MedEdResearch markazi tomonidan olib borilgan tadqiqotlarga ko‘ra, innovatsion pedagogik metodlar tibbiy ta’limda o‘zlashtirish darajasini 35–50 foizgacha oshiradi, talabalar faol ishtirokini kuchaytiradi va amaliy tayyorgarlikni sifat jihatidan yaxshilaydi.

Tibbiyot ta’limida simulyatsion texnologiyalar, raqamli platformalar va kompetensiyaviy o‘qitish metodlari o‘zaro integratsiyalashgan holda qo‘llanilganda, o‘quv jarayoni nafaqat nazariy bilim berish, balki real klinik tafakkurni shakllantirishga xizmat qiladi. Masalan, Harvard Medical School va University College London tajribasida simulyatsion markazlar, interaktiv klinik holatlar, “case-based learning” tizimi orqali talabalarning diagnostik aniqligi 40 foizga oshgani aniqlangan.

O‘zbekiston tibbiy ta’lim tizimi ham so‘nggi yillarda mazkur yo‘nalishda sezilarli islohotlarni amalga oshirmoqda. Prezident qarorlari asosida tibbiyot oliygohlarida modul-kredit tizimiga o‘tish, o‘quv dasturlarini xalqaro talablarga moslashtirish, raqamli platformalarni joriy etish, hamda tibbiy simulyatsion markazlarni tashkil etish bo‘yicha amaliy ishlar olib borilmoqda. Bu o‘zgarishlar mamlakatimizda sog‘liqni saqlash tizimi uchun raqobatbardosh, kompetensiyaga ega va global miqyosda faoliyat yurita oladigan mutaxassislarni tayyorlashga zamin yaratmoqda.

Bundan tashqari, innovatsion yondashuvlar o‘qituvchi rolini ham tubdan o‘zgartirmoqda. Endilikda pedagog — bu faqat bilim beruvchi emas, balki yo‘naltiruvchi, motivatsiya beruvchi va ilmiy izlanishlarni boshqaruvchi shaxs sifatida namoyon bo‘lmoqda. Bu esa tibbiy ta’limning yangi bosqichga ko‘tarilishini ta’minlaydi.

Shunday qilib, tibbiy fanlarni o‘qitishda innovatsion yondashuvlar — bu ta’lim sifati, klinik kompetensiya va sog‘liqni saqlash tizimi samaradorligini oshirishning strategik yo‘nalishidir. Kelgusida bu borada xalqaro ilmiy hamkorlikni kengaytirish, ilg‘or ta’lim texnologiyalarini milliy tizimga integratsiya qilish va o‘qituvchilarning innovatsion salohiyatini rivojlantirish O‘zbekiston tibbiy ta’limining ustuvor vazifalaridan biri bo‘lib qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 6-noyabrdagi “Tibbiyot ta’limi tizimini yanada takomillashtirish va sog‘liqni saqlash tizimi uchun malakali kadrlar tayyorlashni jadallashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ–5280-son qarori.
2. O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi. “Tibbiy ta’limda innovatsion yondashuvlar bo‘yicha uslubiy qo‘llanma.” – Toshkent, 2023.

3. Abdurahmonova N. “Tibbiy ta’limda axborot texnologiyalarining o‘rni.” // Tibbiyot va ta’lim jurnali, 2022.
4. Shomurodov B., Yuldasheva D. “Simulyatsion ta’lim – tibbiy ta’lim samaradorligini oshirish omili.” O‘zbekiston tibbiyot ta’limi axborotnomasi, 2023.
5. Karimova M. “Innovatsion pedagogik texnologiyalarni tibbiy ta’limda qo‘llash.” – Toshkent tibbiyot akademiyasi ilmiy to‘plami, 2022.
6. Xodjayev A. “Tibbiy ta’limda kompetensiyaviy yondashuvning ilmiy-metodik asoslari.” Pedagogik innovatsiyalar jurnali, 2021.
7. World Health Organization (WHO). Transforming and scaling up health professionals’ education and training: World Health Organization guidelines. Geneva: WHO Press, 2013.
8. Harden, R.M., & Laidlaw, J.M. Essential Skills for a Medical Teacher: An Introduction to Teaching and Learning in Medicine. – 3rd ed. Elsevier, 2020.
9. Cook, D.A., & Triola, M.M.“Virtual patients: A critical literature review and proposed next steps.” Medical Education, 2009.
10. Issenberg, S.B., McGaghie, W.C., Petrusa, E.R., Gordon, D.L., Scalese, R.J. “Features and uses of high-fidelity medical simulations that lead to effective learning: A BEME systematic review.” Medical Teacher, 2005.
11. Kneebone, R. “Simulation in surgical training: Educational issues and practical implications.”Medical Education, 2003.
12. Harden, R.M. “Ten key features of the future medical school — not an impossible dream.” Medical Teacher, 2018.
13. 13.World Federation for Medical Education (WFME). Global Standards for Quality Improvement in Medical Education.– Copenhagen, 2020.
14. 14.Bligh, J., Brice, J. Medical Education: A Dictionary of Quotations on Teaching and Learning in Medicine. – Oxford University Press, 2019.
15. 15. AMEE Guide No. 141. “Developing the future of medical education through simulation and digital innovation.” Medical Teacher, 2021.

KONNOTATSIYA VA TIBBIY TERMINOLOGIYANI O‘QITISHDA KOMMUNIKATIV YONDASHUVNING AHAMIYATI

Mirzaabdullayeva Mahliyoxon Xosiljon qizi
Andijon davlat texnika instituti,
Tillar va gumanitar fanlar kafedrasi assistenti
mirzaabdullayeva1991@mail.ru

Annotatsiya. Ushbu maqolada tibbiy terminologiyani o‘qitishda konnotatsiya nazariyasining o‘rni va ahamiyati tahlil qilinadi. Tibbiy diskursda terminlarning faqat denotativ emas, balki konnotativ qatlamini ham talabalarga yetkazish muhimligi asoslanadi. Maqolada xorijiy tajribalar va amaliy misollar orqali kommunikativ yondashuvning samaradorligi ko‘rsatib beriladi. Shuningdek, tibbiy atamalarni o‘zlashtirish jarayonida madaniy, psixologik va ijtimoiy omillarning ta’siri yoritiladi.

Kalit so‘zlar: konnotatsiya, tibbiy terminologiya, kommunikativ yondashuv, tibbiy diskurs, tilshunoslik.

Аннотация. В данной статье анализируется роль и значение теории коннотации в обучении медицинской терминологии. Обосновывается важность передачи студентам не только денотативного, но и коннотативного уровня терминов в медицинском дискурсе. На основе зарубежного опыта и практических примеров показана эффективность коммуникативного подхода. Также освещается влияние культурных, психологических и социальных факторов в процессе усвоения медицинских терминов.

Ключевые слова: коннотация, медицинская терминология, коммуникативный подход, медицинский дискурс, лингвистика.

Abstract. This article analyzes the role and significance of connotation theory in teaching medical terminology. It emphasizes the importance of delivering not only the denotative but also

the connotative layer of terms to students in medical discourse. Drawing on foreign experience and practical examples, the paper demonstrates the effectiveness of the communicative approach. The influence of cultural, psychological, and social factors on mastering medical terms is also discussed.

Keywords: connotation, medical terminology, communicative approach, medical discourse, linguistics.

Kirish. Bugungi globallashuv davrida tibbiy terminologiyani o‘qitish jarayoni nafaqat mutaxassislik bilimlarini, balki tilshunoslik nazariyalarini ham chuqur o‘rganishni talab etadi. Chunki tibbiyot sohasi uchun yaratilayotgan atamalar oddiy leksik birliklar emas, balki ijtimoiy, psixologik va madaniy jihatlarni ham qamrab oluvchi murakkab til hodisalaridir. Tibbiy terminlarning to‘g‘ri va aniq qo‘llanilishi inson salomatligi va hayoti bilan bevosita bog‘liq bo‘lgani uchun, ularning ma’nosini chuqur anglash, jumladan, konnotativ qatlamini ham o‘zlashtirish zarurdir.

Shu bois tibbiy terminologiyani o‘qitishda kommunikativ yondashuvning o‘rni beqiyosdir. Ushbu maqolada tibbiy terminlarning konnotativ xususiyatlari, ularni o‘qitishda kommunikativ yondashuvning samaradorligi va xorijiy tajribalar asosida amaliy natijalar tahlil qilinadi.

Maqolaning maqsadi – tibbiy terminologiyani o‘qitishda konnotatsiya nazariyasining ahamiyatini asoslash va kommunikativ yondashuv orqali samarali natijalarga erishish yo‘llarini ko‘rsatib berishdir.

Asosiy qism. 1. Konnotatsiya tushunchasi va tilshunoslikdagi o‘rni

Konnotatsiya tilshunoslikda so‘zning qo‘shimcha ma’no qatlamini anglatadi. Denotatsiya narsa va hodisaning bevosita nomlanishi bo‘lsa, konnotatsiya uning qo‘shimcha emotsional, ijtimoiy yoki madaniy mazmunini bildiradi [1]. Masalan, “operatsiya” so‘zi denotativ ma’noda jarrohlik amaliyotini anglatsa, konnotativ qatlamda qo‘rquv, tashvish yoki umidni ifodalashi mumkin.

Tilshunoslik nazariyalarida konnotatsiya ko‘pincha stilistik va semantik tadqiqotlarning markazida turadi. Ayniqsa, so‘zning madaniy ko‘rinishlari, ijtimoiy ta’sir kuchi va nutqiy vaziyatlarda paydo bo‘ladigan qo‘shimcha ma’nolari tibbiy diskurs uchun ham nihoyatda muhimdir [2].

2. Tibbiy terminologiyada denotativ va konnotativ ma’no

Tibbiy terminologiyada ko‘plab atamalar ikki qavatli ma’noga ega. Denotativ qatlam – kasallik, davo yoki anatomiya bilan bog‘liq aniq ilmiy tushunchalarni bildiradi. Masalan, “infarkt”, “bronxit”, “virus”. Biroq bu terminlar bilan bir qatorda konnotativ qatlam ham mavjud. “Virus” atamasi pandemiya davrida qo‘rquv, xavotir, global tahdid kabi qo‘shimcha ma’nolarni ham ifodalagan [3].

Shuningdek, “saraton” termini nafaqat tibbiy tashxisni, balki odamlar ongida umidsizlik, og‘irlik va qo‘rquvni ham uyg‘otadi. Shu bois tibbiy ta’lim jarayonida talabalarga terminlarning bunday konnotativ xususiyatlarini ham tushuntirish zarur [4].

3. Tibbiy diskurs va kommunikatsiyada konnotatsiyaning roli

Tibbiy diskurs – bu shifokor va bemor o‘rtasidagi muloqot, ilmiy maqolalar, dars jarayonlari va amaliy mashg‘ulotlarni o‘z ichiga oladi. Bunday diskursda so‘z tanlovi bemorning ruhiy holatiga kuchli ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Masalan, shifokor “samarali davolash usullari mavjud” deb aytsa, bemorda umid uyg‘otadi, biroq “kasallik og‘ir kechadi” degan jumla tashvish uyg‘otadi [5].

Demak, tibbiy diskursda konnotatsiyani hisobga olish – nafaqat lingvistik, balki psixologik va pedagogik zaruratdir [6].

4. Talabalarga tibbiy terminlarni o‘qitishda konnotativ yondashuv

Tibbiy ta’lim jarayonida faqat terminlarning lug‘aviy izohini o‘rgatish yetarli emas. Ularning qo‘shimcha ma’no qatlamlari, ya’ni konnotativ xususiyatlari ham talabalarga tushuntirilishi lozim. Masalan:

- “Jarrohlik stolida qolib ketish” iborasi metaforik qo‘rquvni bildiradi.

- “Yurak yetishmovchiligi” termini klinik denotatsiyadan tashqari emotsional tashvish uyg‘otadi.

Kommunikativ yondashuv asosida o‘quvchilar terminlarni kontekstdan kelib chiqib o‘rganadilar, ular ustida suhbatlashadilar va amaliy nutqiy vaziyatlarda qo‘llashni mashq qiladilar. Bu usul o‘zlashtirish samaradorligini oshiradi [7].

5. Amaliy misollar va xorijiy tajribalar

Yevropa va AQShdagi tibbiy oliygohlarda talabalarga terminologiya alohida kurs sifatida o‘tiladi. O‘qituvchilar nafaqat atamaning ilmiy ta’rifini, balki uning madaniy va ijtimoiy qo‘llanishini ham tushuntiradilar [8]. Masalan, amerikalik professorlar “cancer” atamasining konnotatsiyasi haqida maxsus seminarlar o‘tkazadilar, chunki bu so‘z bemor ruhiyatiga kuchli ta’sir ko‘rsatadi.

Xitoy tibbiy universitetlarida esa konnotatsiyani tushuntirishda milliy madaniyat va qadriyatlardan foydalaniladi. Bu esa talabalarning kasbiy muloqotda terminlarni yanada ehtiyotkorlik bilan qo‘llashlariga yordam beradi [9].

Xulosa. Yuqorida keltirilgan tahlillar shuni ko‘rsatadiki, tibbiy terminologiyada konnotatsiya nazariyasi muhim ilmiy va amaliy ahamiyatga ega. Tibbiy diskurs nafaqat shifokor va bemor o‘rtasidagi muloqotni, balki talabalarning kasbiy kompetensiyasini shakllantirish jarayonini ham o‘z ichiga oladi. Terminlarning faqat denotativ mazmunini emas, balki ularning konnotativ qatlamini ham o‘rgatish, talabalarga yanada chuqur bilim beradi.

Xorijiy tajribalar shuni ko‘rsatadiki, tibbiy terminlarni konnotatsiya asosida o‘qitish talabalarda til sezgirligini rivojlantiradi, ularni psixologik jihatdan tayyorlaydi va kommunikativ samaradorlikni oshiradi.

Shuningdek, konnotatsion yondashuv tibbiy ta’limda madaniy va ijtimoiy jihatlarni ham hisobga olish imkonini beradi. Bu esa kelajakda shifokorlarning bemor bilan muloqotini yanada insonparvar, ehtiyotkor va ishonchli qilishga xizmat qiladi. Demak, tibbiy ta’lim jarayonida konnotatsiyani chuqur o‘rganish – zamonaviy pedagogikaning dolzarb talabi hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ахманова О.С. *Словарь лингвистических терминов*. – М.: Советская энциклопедия, 1966.
2. Lyons J. *Semantics*. – Cambridge: Cambridge University Press, 1995.
3. Wodak R. *Disorders of Discourse*. – London: Longman, 1996.
4. Кожина М.Н. *Стилистика русского языка*. – М.: Высшая школа, 2004.
5. Fairclough N. *Language and Power*. – London: Longman, 2001.
6. Crystal D. *A Dictionary of Linguistics and Phonetics*. – Oxford: Blackwell, 2008.
7. Searle J. *Speech Acts: An Essay in the Philosophy of Language*. – Cambridge: CUP, 1969.
8. Cook G. *Discourse and Literature*. – Oxford: OUP, 1994.
9. Li J. *Medical Terminology Teaching in China*. – Beijing: Peking University Press, 2018.

LOTIN TILIDAGI TERMINLARNING TIBBIYOTDAGI AHAMIYATI

Nasirdinova Yorkinoy Abdumuxtorovna
Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori, PhD
Qo‘qon universiteti Andijon filiali,
Tibbiyotda tillarni o‘qitish kafedrasi mudiri,
E-mail: nasirdinovayorkinoy@gmal.com
Shamsiddinov Sharifjon Habibullo o’g’li
Tibbiyot fakulteti Pediatriya ishi yo’nalishi talabasi

Anotatsiya. Ushbu maqolada lotin tilidagi terminlarning tibbiyot sohasida qanchalik muhimligi va foydaliligi tahlil qilinadi. Maqolada terminologiya nazariyasi, lotin tilining tibbiy terminlar tarkibidagi roli, uning o’quv jarayonidagi ahamiyati va zamonaviy klinik amaliyotdagi o’rni ko’rib chiqildi. Shuningdek, tadqiqot metodologiyasi, lotin terminologiyasining afzalliklari

va kamchiliklari, natijalar va xulosalar taqdim etiladi. Maqola sog'lom muomala, ilmiy muloqot va xalqaro hamkorlik uchun lotin terminlari xizmat qilishi mumkinligini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: Lotin tili, tibbiy terminologiya, meditsina, termin, etimologiya,

Аннотация. В данной статье анализируется значение и полезность латинских терминов в области медицины. Рассматриваются теоретические основы терминологии, роль латинского языка в составе медицинских терминов, его значение в учебном процессе и роль в современной клинической практике. Кроме того, представлены методология исследования, преимущества и недостатки латинской терминологии, а также результаты и выводы. В статье подчёркивается, что латинские термины могут служить инструментом для здорового общения, научного дискурса и международного сотрудничества.

Ключевые слова: латинский язык, медицинская терминология, медицина, термин, этимология.

Abstract. This article analyzes the importance and usefulness of Latin terms in the field of medicine. It examines the theory of terminology, the role of Latin in the structure of medical terms, its significance in the educational process, and its place in modern clinical practice. The research methodology, advantages and disadvantages of Latin terminology, as well as the results and conclusions, are also presented. The article highlights that Latin terms can serve as a tool for effective communication, scientific discourse, and international collaboration.

Keywords: Latin language, medical terminology, medicine, term, etymology.

Kirish. Lotin tili – hind-yevropa tillari oilasining Italiy tillar oilasiga mansub; Italiyaning o'rta qismidagi Latsiy viloyatida miloddan avvalgi 8-asrda yashagan lotin qabilasining tili. Lotin tilining asta-sekin Rim hududidan tashqariga tarqalishi va qadimgi Italiyaning boshqa tillarini siqib chiqarishi miloddan avvalgi 4—3-asrlarga to'g'ri keladi. Apennin yarim orolning lotinlashuvi (yunon tili hukmron bo'lgan Janubiy Italiya va Sitsiliya bundan mustasno) miloddan avvalgi 1-asrda yakunlanadi. Rim imperiyasining gullab-yashnashi, yangi-yangi mustamlakalarning bosib olinishi natijasida Lotin tili Shimoliy Afrika, Ispaniya, Galliya, Germaniya Dunaybo'yi hududlariga tarqaladi. Lotin tilidagi Teng qadimgi yodgorliklar miloddan avvalgi 3-asrga mansub.

Tibbiy terminologiyaning asoschilari qadimgi yunonlar bo'lib, ular miloddan avvalgi VI asrdan boshlab tibbiy amaliyotni sehr-jodudan voz kechib, kuzatuvlar, tajriba va falsafaga asoslangan tibbiyotga o'tkazganlar. Shu sababli, tibbiy terminologiya asosini, birinchi navbatda, yunon tilidagi so'zlar tashkil etadi, keyinchalik lotin tili ham muhim rol o'ynaydi

Insoniyat ilm fan rivojlanar ekan mamlakatimizda chet tillari va ularga bo'lgan etibor ortib bormoqda. Biz so'zlashuvimizda o'zbek, ingliz, rus va boshqa tillardan foydalanar ekanmiz, tibbiyotda lotin tilidan foydalanamiz. Bu til so'zlashuvda qo'llanilmaydigan o'lik til bo'lsada, tibbiyotda o'z o'rni va chuqur tarixga ega. Tibbiyotdagi atamalar, terminlar hamda kasalliklar nomi lotin tili bilan chambarchas bog'liqdir. Lotin tili ya'ni (lingua Latina) hind-yevropa oilasining italiy tillari guruhiga mansub. Lotin tilida birinchi bo'lib Latsiy viloyatida yashovchi lotin qabilasi (Latini), hamda qadimgi Rim ahliva milodiy I asrlarning boshlarida Rim qo'l ostiga o'tgan Apennin yarim orolida yashovchi italiy qabilalari so'zlashganlar. Milloddan avvalgi III asr o'rtalaridan boshlab lotin tili Rim legion bilan birga yanada qadimiyroq madaniyatga ega davlatlar Yunoniston, Karfagen, Misr, Suriya kabilar va Yevropaning u davrdagi madaniyati kam yerlarga ham kirib 173ooris. Lotin tili qadimiy Hind-Yevropa tillariga hos uni Xett tili, Hind-Eron, Kelt tillari bilan yaqinlashtiruvchi hususiyatlarni saqlab qolgan. Asosiy fonetik jihatlari unda unlilar cho'ziqligining fonologik farqlanishga egaligi,urg'u so'zning oxirgi bo'g'iniga tushmasligi,undoshlarning kuchsizlanib borishi kabilardan iborat.



Qadimiy davr Lotin tili tarixi bir biridan u yoki bu darajada farqlanuvchi 5ta davrga ajratiladi:

1.Eng qadimgi lotin tili davri;
2.Klassik davrlargacha bo'lgan lotin tili davri;
3.Klassik OLTIN lotin tili davri;
4.Klassik davrdan keyingi KUMUSH lotin tili davri;
5.So'ngi bosqichdagi lotin tili davri.

V asrda Rim imperiyasi qulaganidan keyin xalq-so'zlashuv tilining mintaqaviy farqlanishi tezlashib, bu narsa IX asrga kelib alohida mustaqil roman tillarining (italyan, fransuz, portugal, ispan, rumin, moldavan va b.) paydo bo'lishiga olib keldi. Yozma lotin tilining birligi saqlab qolindi, u leksik jihatdan rivojlanishda davom etdi, klassik lotin tilining asosiy lug'at tarkibi va grammatik qurilishi barqarorlashdi. Adabiy lotin tili tarqalgan barcha hududlarda u ma'muriy boshqaruv, savdo -tijorat, maktab tili edi; o'rta asrlarda butun G'arbiy Yevropa umumiy yozuv tili bo'lib qo'llandi; XVII-XIX asrlargacha diplomatiya, ilm-fan va falsafa tili, XX asrda esa katalogik cherkov tili.

Lotin tili Vatikanning (italyan tili bilan birga) rasmiy tili bo'lib qoldi. Lotin tili Yevropa madaniyati rivojida ulkan rol o'ynaydi. Yevropa tillaridagi siyosiy, ilmiy va texnik terminologik leksik jihatdan boyishi va ko'payib borishi lotin tili rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi. Lotin

tiliga yunon tili bilan birgalikda, ilmiy terminologiya hanuz baynalmilal terminlarni yaratishda asosiy manba bo'lib hizmat qilmoqda.Va shu bilan birga Xarqaro tibbiyot tili deb tan olingan. Biz tibbiyotda o'z sohamizning mutaxasisi bo'lib yetishishimiz uchun lotin tilini yaxshi o'zlashtirishimiz kerak. Har bir tibbiyot hodimi bilishi kerak bo'lgan dorilar, kasalliklar, inson organlari va suyaklar nomlari lotin tili bilan bog'liq. Lekin hozirda mutaxassislarning fikriga ko'ra, zamonaviy tibbiyotning terminologik fondi 500 000 tibbiy atamalardan oshadi. Agar bundan yuz yil avval bilimdon shifokor zamonaviy texnologiyani yaxshi bilgan bo'lsa, hozirgi kunda bir necha yuz ming tibbiy atamalarni to'liq o'zlashtirishning deyarli imkoni yo'q. Hatto ularni. Hozirgi vaqtda lotin tili faqat Qadimgi Rim faylasuf, olimlari, notiqlari, shoirlari xotirasi emas balki zamonaviy dunyoning ajralmas muhim qismidir. Lotin tili asoslarini o'zlashtirmasdan turib tibbiyot ilmini o'zlashtirib bo'lmaydi. Farmasevtika terminologiyasi bular Ichida yetakchi bo'rinda turadi. Lotin tilining tibbiyotdagi ahamiyati juda katta, chunki u tibbiy terminologiyaning asosiy manbalaridan biri bo'lib, tibbiyot ilm-fanining rivojlanishida muhim rol o'ynaydi. Ushbu tilning tibbiyotdagi ahamiyatini quyidagi nuqtalar orqali ko'rib chiqish mumkin:

Lotin tili tibbiyotda terminlar yaratishda asosiy manba bo'lib xizmat qiladi. Tibbiy atamalar, organlar, tizimlar, kasalliklar, davolash usullari, farmatsevtik preparatlar va boshqa ko'plab tushunchalar Lotin tilida shakllanadi. Misollar: Anatomik atamalar: Ko'plab anatomik atamalar Lotin tilidan olingan. Masalan, "musculus" (mushak), "corpus" (tana), "vena" (tomir). Kasallik nomlari: Kasalliklarning ilmiy nomlari ham asosan Lotin tilida beriladi. Misol uchun, pneumonia (o'pka yallig'lanishi), gastroenteritis (oshqozon va ichaklarning yallig'lanishi) va tuberkulyoz (o'pkada mikroblar tomonidan yuzaga keladigan kasallik). Dori-darmon nomlari va farmatsevtika Lotin tili tibbiyotda faqat kasalliklar yoki organlar nomlarida emas, balki dori-darmonlar va farmatsevtik preparatlarning nomlarida ham qo'llaniladi. Ko'plab dori nomlari va ularning formulalarini yozishda Lotin tili ishlatiladi:

Lotin tili farmatsevtik retseptlarda qo'llanadi. Misol uchun, "Rp." (Recepta) – "retsept" deb tarjima qilinadi, "q.s." (quantum satis) – "zarur miqdor" degan ma'noni anglatadi. Ko'plab dori preparatlari va ularning tarkibi, masalan, Aspirin yoki Penicillin kabi nomlar Lotin tiliga asoslanadi. Tibbiy kommunikatsiya va an'anaviy ilmiy til. Lotin tili ilmiy va tibbiy jamoatchilikning universal tiliga aylangan. Xalqaro miqyosda tibbiyot sohasidagi mutaxassislar o'rtasidagi muloqotda Lotin tilidagi atamalar va terminlar bir xil ma'noga ega bo'lib, bu ilmiy aniq va tushunarli muloqotni ta'minlaydi. Dunyo miqyosida foydalanish: Tibbiyotning har bir sohasida ishlatiladigan umumiy atamalar va iboralar Lotin tilida bo'ladi, bu esa dunyoning har qanday burchagida ishlovchi shifokorlar uchun umumiy tushunchalarni yaratadi.

Anatomik va fiziologik tizimlar Anatomik tuzilmalar va fiziologik tizimlar nomlari, ko'plab biologik sohalar ham Lotin tilida nomlanadi. Masalan, Homo sapiens (inson), Musculus biceps brachii (biseps mushagi), Vena cava (kattakon tomir) kabi nomlar.

Lotin tli orqali ichki organlar, mushaklar, qon tomirlar va boshqa tizimlar o'rtasidagi aloqalar aniq ifodalanadi. Taxonomiya va ilmiy nomenklatura Zoologiya va botanika kabi sohalarda ham, hayvonlar va o'simliklarning ilmiy nomlari Lotin tilida beriladi. Bu nomlar ikki qismlik tizimga asoslanadi: birinchi qismlar tur nomini, ikkinchi qismlar esa o'simlik yoki hayvonning turiga xos nomini bildiradi. Masalan, Rosa damascena (damask guli), Homo sapiens (inson). Tibbiy ta'lim va ilmiy tadqiqotlar Lotin tili tibbiyot talabalari va mutaxassislarining o'qish materiallarida, ilmiy tadqiqotlarda, tibbiy adabiyotlarda keng qo'llaniladi. Tibbiyotdagi ilmiy atamalar va tushunchalar, shuningdek, ilmiy ishlanmalarda Lotin tilida shakllanadi, bu esa yangi bilimlarni yanada tushunarli qilishga yordam beradi.

Tibbiyotning asosiy fanlari, masalan, anatomiya, fiziologiya, farmakologiya kabi sohalarda Lotin tili til o'rganishning muhim qismi hisoblanadi. Lotin tili va tibbiy tarix Lotin tilida yozilgan qadimiy ilmiy asarlar va tibbiyot kitoblari tibbiyot tarixini o'rganishda ham juda muhimdir.

Ko'plab mashhur asarlari (masalan, Gippokrat, Galen, Vesalius) Lotin tilida yozilgan, va ular hozirgi kunda ham tibbiy fanlarning rivojlanishiga asos bo'lib xizmat qiladi. Lotin tilining tibbiyotdagi ahamiyati juda kattadir, chunki u tibbiy terminologiyaning asosi sifatida ishlatiladi. Tibbiyot mutaxassislari, talabalar va ilmiy tadqiqotchilar uchun Lotin tili nafaqat aniq va

tushunarli muloqotning vositasi, balki ilmiy merosni saqlash va yangi ilmiy kashfiyotlarni tasvirlashda muhim rol o'ynaydi. Lotin tilining kelajagi ilm-fan, tibbiyot, diniy va madaniy sohalarda davom etadi. U o'zining tarixiy va madaniy ahamiyatini yo'qotmagan holda, bilim va tadqiqotlarda muhim vosita sifatida ishlatiladi. Demak, lotin tili zamonaviy jamiyatda to'liq yo 'qolmasdan, balki o'zining yangi shakllarida va sohalarda davom etadi.

Xulosa: Lotin tili terminlarining tibbiyotdagi ahamiyati nihoyatta katta. Bugungi kunda tibbiyot fanining barcha sohalarida – anatomiya, farmatsiya, patalogiya, diagnostika va boshqa yo'nalishlari – lotincha atamalar keng qo'llaniladi. Chunki lotin tili tibbiyotning xalqaro tili hisoblanadi va u ilmiy aniqlik, ixchamlik hamda yagona tushuncha tizimini ta'minlaydi. Har bir kasallik nomi, dori vositasi, anatomik tuzilma yoki fiziologik jarayon lotin tilida aniq ifodalanadi, bu esa turli mamlakat olimlari va shifokorlarning bir- birini to'g'ri tushunishiga imkon yaratadi. Lotincha terminlarni bilish tibbiyot xodimlarining kasbiy saviyasini oshiradi, ularni ilmiy manbalarni to'g'ri tushunishga, xalqaro tajribalarni o'zlashtirishga va ilmiy tadqiqotlar olib borishga tayyorlaydi. Shu sababli, tibbiyotda lotin tilini o'rganish nafaqat tarixiy merosni asrash, balki zamonaviy tibbiyot fanida mustahkam bilim va aniq tushunchaga ega bo'lishning muhim omili hisoblanadi. Umuman olganda, lotin tili terminlari tibbiyot ilmida yagona til sifatida xizmat qiladi, tibbiy tafakkurni shakllantiradi hamda ilm fanning rivojiga katta hissa qo'shadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. 1.Lotin tili va tibbiy terminologiya
2. 2."The Latin Language" Leonard Robert Palmer 1954
3. 3."The Oxford Latin Dictinary" P.G.W.Glare

YURAK YETISHMOVCHILIGI BO'LGAN BEMORLARDA REABILITATSIYANING YANGI YONDASHUVLARI

Mamajonov Abrorbek Adiljonovich,
PhD, Qo`qon Universiteti Andijon filiali dotsenti
Email: biomamajonov0021@gmail.com
Toshpo'latova Mubina
talaba, Qo'qon Universiteti Andijon filiali talabasi
, drmubina719@gmail.com

Annotatsiya. Yurak yetishmovchiligi (YY) dunyo miqyosida keng tarqalgan va nogironlikka olib keluvchi kasalliklardan biridir. An'anaviy davolash usullari, jumladan dori vositalari va jarrohlik aralashuvlari bemorlarning hayot sifatini yaxshilashda muhim rol o'ynaydi. Biroq, samarali reabilitatsiya dasturlari yurak yetishmovchiligi bilan yashovchi bemorlarning uzoq muddatli prognozini yaxshilash va kasallik asoratlarini kamaytirishda yanada muhim ahamiyat kasb etadi. So'nggi yillarda reabilitatsiyada yangi yondashuvlar — masofaviy kuzatuv, raqamli texnologiyalar, individual dasturlar, psixososial yordam va telemeditsina xizmatlari keng qo'llanila boshladi.

Kalit so'zlar: Yurak yetishmovchiligi, reabilitatsiya, telemeditsina, mobil sog'liq, raqamli texnologiyalar, psixososial yordam, kognitiv terapiya

Abstract. Heart failure (HF) is one of the most common and disabling diseases worldwide. Traditional treatments, including medications and surgical interventions, play an important role in improving the quality of life of patients. However, effective rehabilitation programs are even more important in improving the long-term prognosis of patients living with heart failure and reducing the complications of the disease. In recent years, new approaches to rehabilitation have become widely used – remote monitoring, digital technologies, individual programs, psychosocial support and telemedicine services.

Keywords: Heart failure, rehabilitation, telemedicine, mobile health, digital technologies, psychosocial support, cognitive therapy

Аннотация. Сердечная недостаточность (СН) – одно из самых распространенных и инвалидизирующих заболеваний во всем мире. Традиционные методы лечения, включая медикаментозную терапию и хирургические вмешательства, играют важную роль в

улучшении качества жизни пациентов. Однако эффективные программы реабилитации играют еще более важную роль в улучшении долгосрочного прогноза пациентов с сердечной недостаточностью и снижении осложнений заболевания. В последние годы широкое распространение получили новые подходы к реабилитации: дистанционный мониторинг, цифровые технологии, индивидуальные программы, психосоциальная поддержка и телемедицинские услуги.

Ключевые слова: Сердечная недостаточность, реабилитация, телемедицина, мобильное здравоохранение, цифровые технологии, психосоциальная поддержка, когнитивная терапия.

Yurak yetishmovchiligi yurakning organizmni yetarli darajada qon bilan ta’minlay olmasligi bilan xarakterlanadi. Bu kasallik nafaqat yuqori o‘lim darajasiga, balki bemorlarning hayot sifatining pasayishiga ham sabab bo‘ladi. Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti ma’lumotlariga ko‘ra, dunyo bo‘yicha millionlab insonlar ushbu kasallikdan aziyat chekmoqda. An’anaviy davolashda dori-darmonlar, jarrohlik usullari va klinik kuzatuv asosiy o‘rin tutadi. Biroq, faqatgina davolash yetarli emas: samarali reabilitatsiya dasturlari bemorlarning hayot sifatini yaxshilash, asoratlarni kamaytirish va qayta kasalxonaga yotqizish holatlarini oldini olishda muhim hisoblanadi. So‘nggi yillarda reabilitatsiyaning yangi yondashuvlari ishlab chiqilmoqda. Telemeditsina, mobil ilovalar, aqlli soatlar va boshqa raqamli texnologiyalar yordamida masofadan monitoring qilish imkoniyatlari paydo bo‘ldi. Shuningdek, reabilitatsiya jarayonida psixologik qo‘llab-quvvatlash, stressni boshqarish, dietoterapiya va jismoniy mashqlar dasturlarining ahamiyati ortmoqda.

Shunday qilib, reabilitatsiyada yangi usullar nafaqat yurak faoliyatini qo‘llab-quvvatlash, balki bemorning umumiy psixofiziologik holatini yaxshilashga qaratilgan.

So‘nggi o‘n yillikda yurak yetishmovchiligi bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar reabilitatsiya dasturlarining samaradorligini tasdiqladi. Piepoli va boshq. Yurak kasalliklari reabilitatsiyasi bo‘yicha Yevropa Kardiologiya Jamiyati tavsiyalarida jismoniy mashqlarni reabilitatsiyaning asosiy qismi sifatida belgilab qo‘ydi [1]. McDonagh va boshqalar telemeditsina va masofaviy monitoringning qayta kasalxonaga yotqizish darajasini kamaytirishda samarali ekanligini ko‘rsatdi [2]. Shuningdek, Inglis va Cleland mobil texnologiyalar yordamida yurak yetishmovchiligi bo‘lgan bemorlarni kuzatish ularning hayot sifatini oshirishi mumkinligini ta’kidlagan. Boshqa tadqiqotlarda psixososial qo‘llab-quvvatlash, stressni kamaytirish va bemorlarning ruhiy salomatligini mustahkamlash reabilitatsiyada muhim ahamiyatga ega ekanligi ta’kidlangan [3]. Shu bois zamonaviy reabilitatsiya multidisiplinar yondashuvni talab etadi.

Reabilitatsiyaning an’anaviy yondashuvlari. Yurak yetishmovchiligi reabilitatsiyasida uzoq yillar davomida klinik kuzatuv, dori vositalari va jismoniy mashqlar asosiy vosita bo‘lib kelgan. Shuningdek, ovqatlanish tartibi va bemorlarni kasallik haqida xabardor qilish dasturlari ham reabilitatsiya jarayonining muhim bo‘lagi hisoblanadi.

Telemeditsina va masofaviy monitoring. So‘nggi yillarda telemeditsina reabilitatsiyaning ajralmas qismiga aylandi. Aqlli soatlar, mobil ilovalar va sensor qurilmalar yordamida bemorlarning yurak urish tezligi, qon bosimi va jismoniy faolligi real vaqt rejimida kuzatilmoqda. Shifokorlar ushbu ma’lumotlarni masofadan nazorat qilib, davolash rejalarini yangilash imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

Raqamli sog‘liq texnologiyalari. Mobil sog‘liq (mHealth) ilovalari orqali bemorlarga dorilarni o‘z vaqtida qabul qilishni eslatish, jismoniy mashqlar bo‘yicha tavsiyalar berish va stressni boshqarish bo‘yicha dasturlar joriy etilmoqda. Sun’iy 177oorish177177 asosida ishlaydigan algoritmlar esa yig‘ilgan ma’lumotlarni tahlil qilib, xavf omillarini oldindan aniqlash imkonini bermoqda.

Jismoniy mashqlar va reabilitatsiya dasturlari. Mashqlar yurak mushaklarining kuchini oshiradi, qon aylanishini yaxshilaydi va bemorlarning umumiy sog‘lig‘iga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Yangi dasturlarda mashqlar bemorning individual salomatlik holatiga moslashtiriladi va ko‘pincha masofadan nazorat qilinadi.

Psixososial yondashuvlar. Yurak yetishmovchiligi nafaqat jismoniy, balki ruhiy salomatlikka ham ta’sir qiladi. Stress, xavotir va depressiya ko‘plab bemorlarda uchraydi. Shu sababli reabilitatsiyada psixologik maslahatlar, kognitiv xulq-atvor terapiyasi va oilaviy qo‘llab-quvvatlash tizimlari keng qo‘llanilmoqda.

Innovatsion yondashuvlarning samaradorligi. So‘nggi klinik sinovlar telemonitoring va mobil ilovalar yordamida reabilitatsiya dasturlarida qayta kasalxonaga yotqizish darajasining kamayganini va bemorlarning hayot sifatining oshganini ko‘rsatmoqda.

Cheklovlar. Bemorlarning raqamli savodxonligi pastligi. Texnik nosozliklar va internetga qaramlik. Ma’lumot xavfsizligi bilan bog’liq muammolar.

Kelajak istiqbollari. Kelgusida reabilitatsiya dasturlarida sun’iy intellekt, genomika va individual sog’liq tahlillari bilan integratsiyalashgan yondashuvlar qo’llanilishi kutilmoqda. Bu esa yurak yetishmovchiligi bilan og’rigan bemorlarga yanada shaxsiylashtirilgan yordam ko’rsatish imkonini beradi.

Ushbu maqolani tayyorlashda tizimli adabiyot sharhi qo’llanildi. PubMed, Scopus va Google Scholar bazalaridan 2015–2024 yillarda chop etilgan maqolalar o‘rganildi. Kalit so‘z sifatida “heart failure rehabilitation”, “telemedicine”, “digital health”, “exercise therapy” va “psychosocial support” ishlatildi. Tanlangan maqolalar klinik sinovlar, reabilitatsiya dasturlari va texnologik innovatsiyalar samaradorligi asosida tahlil qilindi. Shuningdek, turli mamlakatlarda qo‘llanilayotgan yangi reabilitatsiya yondashuvlari solishtirildi.

Adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatdiki, yurak yetishmovchiligi bo‘lgan bemorlar uchun reabilitatsiya dasturlarida telemeditsina, raqamli texnologiyalar va psixososial yondashuvlarning qo‘llanilishi yuqori samaradorlikka ega. Mobil ilovalar yordamida dori-darmonlarni qabul qilishga rioya qilish darajasi oshadi, masofaviy monitoring esa kasalxonaga yotqizish holatlarini kamaytiradi.

Shuningdek, jismoniy mashqlar dasturlari bemorlarning umumiy sog‘liq ko‘rsatkichlarini yaxshilaydi, psixologik qo‘llab-quvvatlash esa ruhiy salomatlikni mustahkamlaydi. Biroq, texnologik qiyinchiliklar, ma’lumot xavfsizligi va bemorlarning raqamli savodxonligi asosiy muammolar bo‘lib qolmoqda.

Yurak yetishmovchiligi global sog‘liq muammosi bo‘lib, bemorlarning umr davomiyligi va hayot sifatiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. An’anaviy davolash usullari kasallikni boshqarishda muhim bo‘lsa-da, samarali reabilitatsiya bemorlarning uzoq muddatli salomatligini ta’minlashda yanada katta ahamiyatga ega.

A pragmatic curriculum begins with high-utility target selection. Corpus-informed lists such as the Medical Academic Word List (MAWL) help instructors prioritize items that recur across medical discourse, enabling principled sequencing and materials design [1, 451]. But lists alone are not enough. Medical vocabulary is unusually morphology-rich and phraseological: learners must decode and compose terms by parts (e.g., tachy-card-ia, hepat-o-megaly) and deploy conventional collocations like presenting complaint, rule out (R/O) pneumonia, adverse drug reaction, or titrate the dose in context. Evidence indicates that explicit instruction in morphemic analysis accelerates vocabulary growth across families of related terms, while direct collocation teaching yields stronger retention and more native-like usage than definition-only methods [6, 136]; [7, 151]; [2, 26].

Because medical content is cognitively heavy and often visually mediated (anatomy images, ECGs, radiographs, flow charts), multimodal design matters as much as lexical choice. Principles from multimedia learning e.g., pairing words with pictures, aligning labels near visuals, and minimizing redundant text reduce extraneous load and support schema-building for complex terms [5, 105]. In practice, this means coupling terminology with labeled diagrams, short case vignettes, and micro-tasks that force precise usage in authentic formats (e.g., two-line SOAP entries, order checks, brief lab-interpretation notes).

Two additional pillars translate knowledge into durable performance. First, retrieval practice with spacing (frequent, low-stakes quizzes; cumulative review) consolidates form–meaning links more effectively than re-study alone, and is especially potent when items recycle across weeks and appear inside meaningful clinical micro-writing [5, 111]; [2, 27]. Second, coverage scaffolding pre-teaching a small set of high-yield terms and collocations before each text

helps classes progressively approach the ~98% threshold required for independent reading while keeping motivation high [4, 79].

This article, therefore, takes a practice-first stance. It synthesizes (a) selection principles grounded in domain frequency [1, 451], (b) teachable routines for morphology-as-system [6, 136]; [7, 151], (c) collocation-focused tasks that mirror real chart language [2, 26], and (d) multimodal activity design to manage cognitive load [5, 105]. To assist busy instructors, it also details ready-to-use classroom strategies, assessment formats, and a six-week implementation plan that balances accuracy, fluency, and transfer to authentic clinical genres (chart notes, orders, lab reports). The goal is straightforward: help learners read, write, and speak like clinicians sooner safely, precisely, and confidently.

What to teach: selecting content that matters

Selecting teachable, high-utility terminology begins with evidence from domain frequency. Corpus-based resources such as the Medical Academic Word List (MAWL) help instructors prioritize items that recur across genres of medical discourse and thus merit early inclusion in a syllabus [1, 451]. Using MAWL as a baseline, teachers can anchor each unit around a small set of high-value terms that appear in charts, orders, lab reports, and abstracts, then extend coverage with locally collected texts.

Because medical vocabulary is unusually morphology-rich, instruction should treat morphology as a generative system. Systematic attention to common Latin/Greek roots, prefixes, and suffixes enables learners to decode and compose families of terms, tachy-card-ia, brady-card-ia; hepat-o-megaly; nephrectomy/nephrotomy, so that one taught element yields many usable derivatives [6, 136]; [7, 152]. Short, recurring routines (analyze → map meaning → expand family → quick application) turn form-meaning links into productive knowledge that transfers across topics.

Equally important is phraseology. Beyond single words, medical English relies on conventional collocations and frames, presenting complaint, rule out (R/O) pneumonia, adverse drug reaction, titrate the dose, positive for X. Explicit work with these pairings in context (gap-fills, reformulations, micro-writing of chart sentences) promotes more native-like usage and measurably improves retention compared with definition-only teaching [2, 26]. In practice, an effective content sequence weaves together high-frequency targets from MAWL, morphology families built from a few high-yield morphemes, and collocation banks tied to common clinical functions (diagnosis, treatment, communication), ensuring that every new item is immediately usable in authentic tasks.

How to teach

The classroom routine treats morphology as a generative system. Short cycles begin with analyzing a few model terms, mapping literal and clinical meanings, expanding the family, and composing brief clinical sentences that force precise usage. This recurring pattern builds transferable strategies for decoding and composing new terminology [7, 151]. Side-by-side with morphology, multimodal input couples terminology to visuals and micro-cases: labeled diagrams for anatomy terms, ECG snapshots for rhythm labels, or X-ray frames for fracture descriptors. Following multimedia principles, spatial contiguity of labels, minimal redundancy, supports schema-building for complex concepts [5, 105]. Throughout, spaced retrieval structures memory: exit tickets that prompt recall of roots, cumulative micro-quizzes that recycle old plus new items, and brief free-recall prompts attached to case vignettes. The steady rise in known-word coverage keeps reading tasks within reach, targeting the ~98% threshold for independent comprehension [4, 79].

Practical classroom routines

In early weeks, classes open with a root–prefix–suffix mini-lesson that introduces one high-yield root and one or two affixes. Students then build legal combinations, paraphrase literal meanings, and compare near-neighbors like hepatitis vs hepatosis or nephrectomy vs nephrotomy, consolidating both form and clinical sense [6, 136]; [7, 152]. To cultivate phraseology, the course maintains collocation banks aligned with core functions: for diagnosis, frames such as presenting

with, positive/negative for, rule out; for treatment, items like dose adjustment, contraindicated in, adverse drug reaction; for communication, informed consent, follow-up visit, pain score of. Learners meet these inside gap-fills, reformulations (e.g., replacing make an operation with perform surgery), and micro-writing of chart sentences; empirical work with medical ESP cohorts suggests that such explicit collocation work outperforms meaning-only approaches [2, 26].

Authenticity comes from genre-based micro-tasks. After a short vignette with labs, students craft two lines for Assessment and Plan using target terminology, check order sets for ambiguous or incorrect abbreviations, or interpret labs concisely, defining leukocytosis, hyperkalemia, hypoglycemia and stating clinical implications in one sentence each. A light concordance "quick-look" (10–12 KWIC lines from research abstracts) raises collocational awareness: which verbs take insulin resistance? which adjectives modify adverse event? Even brief data-driven exposure sharpens lexical depth [2, 26]. Visual–verbal pairing is routine for terminology associated with imaging; captions such as comminuted distal radius fracture are placed adjacent to the image to respect cognitive-load guidelines [5, 105].

Assessment

Assessment is staged to privilege accuracy, fluency, and transfer. Early on, a diagnostic probe samples morpheme knowledge and basic phraseology to inform pacing. Week by week, formative checks include two-minute micro-dictations of chart fragments (to stabilize spelling and morphology) and short oral explanations akin to micro-OSCE stations, for example, articulating why serum K+ 6.0 mmol/L constitutes hyperkalemia and warrants action. A final summative assessment blends morpheme analysis (constructing terms from parts), collocation choice in context, and a short case-note paragraph in which students must use a specified set of items correctly. Rubrics track correctness of form (including morpheme spelling), register and appropriacy, collocational accuracy, and clarity. Reading components are scaffolded toward the ~98% coverage threshold using pre-teaching and limited glosses [4, 79].

Implementation over six weeks

A compact six-week schedule interleaves domains while steadily recycling prior material. Weeks 1–2 center on cardiovascular language: students internalize a core of roots (cardi- and allied affixes), anchor meaning to ECG labels and typical chest-pain presentations, and begin collocation work around diagnosis (presenting with, rule out). Week 3 moves to hepatology and gastroenterology, using genuine LFT reports to motivate terms such as hepatomegaly and hyperbilirubinemia and to practice concise lab-interpretation sentences. Week 4 focuses on endocrine items, pairing morphology (-emia, -uria; poly-; -ectomy/-tomy) with a brief concordance activity on insulin resistance to surface typical verbs and modifiers. Week 5 addresses infectious-disease terminology; students read short case clusters and write chart-style micro-notes using frames like positive for and contraindicated in. Week 6 consolidates learning with cumulative retrieval, a mock chart review, and the mixed-format summative test. Across the term, item load per meeting remains intentionally small (about 10–12 new items) to avoid overload while leveraging family expansion and collocation reuse [6, 137]; [2, 26].

Common problems and workable solutions

Overlong term lists can overwhelm; constraining new items and teaching by families plus collocations preserves depth without sacrificing breadth [6, 137]; [2, 26]. Surface-level memorization fades quickly unless learners must use items; short genre tasks and micro-writing convert recognition into production and stabilize phraseology [2, 26]. Texts can remain too difficult unless known-word coverage is actively managed; pre-teaching high-value items and supplying brief glosses moves classes toward the ~98% mark required for valid comprehension [4, 79]; [3, 403]. Finally, slides packed with redundant prose overload working memory; aligning labels with images and trimming text ameliorates cognitive load in anatomy-heavy topics [5, 105]

Conclusion

A practical course in medical terminology blends frequency-based selection, morphology-as-system, collocation fluency, multimodal input, and spaced retrieval. Using MAWL-style evidence to decide what to teach [1, 451], leveraging morphemes to generalize across families [6,

137]; [7, 151], designing visuals to support understanding [5, 105], and embedding explicit phraseology practice for authentic chart language [2, 26] together raise accuracy and speed while enabling learners to read, write, and speak like clinicians, safely, precisely, and with growing independence. As coverage approaches ~98% on core texts [4, 79], students gain the confidence and competence to engage with the genres that matter most in clinical education.

References

1. Wang, J., Liang, S.-L., & Ge, G.-C. (2008). Establishment of a medical word list (MAWL) for medical English vocabulary instruction. English for Specific Purposes, 27(4), 442–458.
2. Najafi, M., & Talebinezhad, M. R. (2018). The Impact of Teaching EFL Medical Vocabulary Through Collocations on Vocabulary Retention of EFL Medical Students. Advances in Language and Literary Studies, 9(5), 24–27.
3. Hu, M., & Nation, I. S. P. (2000). Unknown Vocabulary Density and Reading Comprehension. Reading in a Foreign Language, 13(1), 403–430.
4. Nation, I. S. P. (2006). How Large a Vocabulary Is Needed for Reading and Listening? The Canadian Modern Language Review, 63(1), 59–82 (esp. p. 79).
5. Mayer, R. E. (2002). Multimedia Learning. In B. Ross (Ed.), The Psychology of Learning and Motivation (Vol. 41, pp. 85–139), esp. 105–111.
6. Rasinski, T. V., Padak, N., Newton, R., & Newton, E. (2011). The Latin–Greek Connection: Building Vocabulary Through Morphological Study. The Reading Teacher, 65(2), 133–143.
7. Baumann, J. F., Edwards, E. C., Tereshinski, C. A., Kame'enui, E. J., & Olejnik, S. (2002). Teaching Morphemic and Contextual Analysis to Fifth-Grade Students. Reading Research Quarterly, 37(2), 150–176.

TIBBIY TERMINOLOGIYA VA TARJIMA: XATOLIKLAR VA ULARNING OQIBATLARI

Ne'matova Gulnigor Yahyobek qizi
Qo'qon universiteti, Andijon filiali, Tibbiyot fakulteti,
Davolash ishi yo'nalishi, 2-bosqich talabasi
nematovagulnigor708@gmail.com

Annotatsiya. Tibbiy terminologiya sog'liqni saqlash tizimida aniq muloqotni ta'minlaydi, biroq tarjima jarayonidagi xatolar klinik va axloqiy oqibatlarga olib kelishi mumkin. Ushbu maqolada tibbiy tarjimalarda uchraydigan asosiy xatoliklar — terminologik nomuvofiqlik, dori nomlarini va diagnostik atamalarni noto'g'ri izohlash holatlari tahlil qilinadi. Bunday xatoliklar bemor xavfsizligi va jamoat salomatligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Tadqiqot tibbiy tarjimonlarning lingvistik va sohaviy tayyorgarligi, shuningdek, terminologik bazalar va avtomatlashtirilgan tarjima vositalaridan foydalanish zarurligini ta'kidlaydi. Natijada, tibbiy tarjima aniqligi xavfsiz va samarali tibbiy xizmatning muhim tarkibiy qismi ekani xulosasiga kelinadi.

Kalit so'zlar: Tibbiy terminologiya, tarjima xatolari, bemor xavfsizligi, lingvistika, noto'g'ri izoh, farmakologiya, aniqlik, sog'liqni saqlash, terminologik baza, CAT tizimlari.

Аннотация. Медицинская терминология обеспечивает точную коммуникацию в системе здравоохранения, однако ошибки, возникающие в процессе перевода, могут привести к серьёзным клиническим и этическим последствиям. В данной статье анализируются основные типы ошибок при переводе медицинских текстов — терминологические несоответствия, неправильное толкование названий лекарственных средств и диагностических терминов. Подобные неточности негативно влияют на безопасность пациентов и общественное здоровье. В исследовании подчёркивается важность лингвистической и профессиональной подготовки медицинских переводчиков, а также необходимость использования терминологических баз данных и автоматизированных систем перевода. Сделан вывод, что точность медицинского перевода является важнейшим компонентом безопасного и эффективного медицинского обслуживания.

Ключевые слова: медицинская терминология, ошибки перевода, безопасность пациента, лингвистика, неправильное толкование, фармакология, точность, здравоохранение, терминологическая база, CAT-системы.

Abstract. Medical terminology ensures precise communication within the healthcare system; however, translation errors can lead to serious clinical and ethical consequences. This article examines the main types of errors encountered in medical translation—terminological inconsistencies, misinterpretation of drug names, and diagnostic terms. Such inaccuracies negatively affect patient safety and public health. The study emphasizes the need for linguistic and domain-specific training of medical translators, as well as the use of terminology databases and computer-assisted translation (CAT) tools. It concludes that translation accuracy is a critical component of safe and effective healthcare delivery.

Keywords: medical terminology, translation errors, patient safety, linguistics, misinterpretation, pharmacology, accuracy, healthcare, terminology database, CAT systems.

Kirish. Tibbiyotda til aniqligi va terminlarning to‘g‘ri qo‘llanilishi hayotiy ahamiyatga ega. Har bir klinik yozuv, dori yorlig‘i yoki bemor rozilik shaklida aniq ifodalanmagan ma’lumot — noto‘g‘ri tashxis, davolashdagi xato yoki hatto inson hayotiga xavf tug‘dirishi mumkin. Shu sababli, tibbiy tarjima — nafaqat til bilimini, balki chuqur kasbiy tayyorgarlikni talab qiladigan mas’uliyatli jarayondir.

Tibbiy terminologiya ko‘p hollarda murakkab va kontekstga bog‘liq bo‘ladi. Masalan, “lesiya” atamasi turli sohalarda (dermatologiya, nevrologiya, kardiologiya) turlicha ma’noni bildiradi. Agar bunday termin noto‘g‘ri tarjima qilinsa, bemor uchun tanlangan davolash usuli ham noto‘g‘ri bo‘lishi mumkin.

Shuningdek, xalqaro ilmiy hamkorlikda yoki ko‘p tilli sog‘liqni saqlash tizimlarida tarjima xatolari ma’lumotlar sifatiga, tibbiy hisobotlarning ishonchliligiga ham salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Shu bois ushbu maqola tibbiy tarjimada uchraydigan asosiy xatoliklar, ularning sabablari va oqibatlarini, shuningdek, ularni kamaytirish yo‘llarini ilmiy nuqtai nazardan tahlil qiladi.

Adabiyotlar sharhi. So‘nggi yillarda olib borilgan tadqiqotlar tibbiy tarjima xatolarining bemor xavfsizligiga bevosita ta’sirini ko‘rsatmoqda (Pérez & Valdés, 2020). Tarjima jarayonida lingvistik va madaniy tafovutlar, shuningdek, terminologik nomuvofiqliklar eng ko‘p uchraydigan muammolardir (Montalt & González, 2019).

Dori vositalari nomlarini yoki dozalarini noto‘g‘ri tarjima qilish natijasida yuzlab klinik xatoliklar qayd etilgan (WHO, 2022). Shu sababli, ko‘plab xalqaro tibbiyot tashkilotlari standart terminologiyalar (masalan, ICD-11, MedDRA, SNOMED CT) dan foydalanishni tavsiya etmoqda.

Yangi tadqiqotlar (Biel, 2021) shuni ta’kidlaydiki, tibbiy tarjimonlar nafaqat lingvist, balki soha mutaxassisi sifatida ham tayyorlanishi zarur. Bu yondashuv tarjima sifatini oshiradi va sog‘liqni saqlashda xatoliklar sonini kamaytiradi.

Asosiy qism. Tibbiy terminologiyaning mohiyati. Tibbiy terminologiya – bu anatomiya, fiziologiya, kasalliklar, davolash va diagnostika jarayonlarini ifodalovchi maxsus so‘zlar tizimidir. U ilmiy aniqlik, qisqalik va universallik tamoyillariga asoslanadi. Ammo har bir tibbiy atama kontekstda o‘ziga xos ma’noga ega bo‘lgani sababli, tarjimada e’tibor talab qiladi.

Tarjima jarayonidagi asosiy xatolar. Tibbiy tarjima xatolarining bir necha asosiy turlari mavjud:

- Terminologik xatolar: terminning ma’nosi noto‘g‘ri tushunilishi yoki mos atama tanlanmasligi.
  Masalan: “infarction”ni “yallig‘lanish” deb tarjima qilish.
- Semantik xatolar: kontekstga mos bo‘lmagan so‘z tanlash.
- Farmatsevtik xatolar: dori nomi yoki dozasi noto‘g‘ri tarjima qilinishi.
- Kulturologik xatolar: madaniy yoki milliy tafovutlar e’tiborga olinmagan holatlar.
- Texnik xatolar: CAT tizimlarida noto‘g‘ri segmentatsiya yoki avtomatik tarjimaga haddan tashqari tayanish.

Tarjima xatolarining oqibatlari

Bunday xatoliklar bemor xavfsizligiga jiddiy ta’sir qiladi. Masalan, dori nomining noto‘g‘ri tarjimasi dozaning oshib ketishiga yoki allergik reaksiyalarga sabab bo‘lishi mumkin. Klinik hujjatlarda noto‘g‘ri atama ishlatilsa, bemorga noo‘rin tashxis qo‘yilishi ehtimoli ortadi.

Ilmiy sohada esa tarjima xatolari natijalarining noto‘g‘ri talqin qilinishiga, xalqaro maqolalarda chalkashliklar paydo bo‘lishiga olib keladi. Shu bois, tibbiy tarjima jarayonida aniqlik, izchillik va terminologik yagona standartlarga amal qilish

Xatoliklarni kamaytirish strategiyalari

- Mutaxassis tarjimonlarni tayyorlash (lingvist + tibbiyot sohasi bo‘yicha bilim).
- Terminologik ma’lumotlar bazalaridan (ICD, SNOMED CT, MedDRA) foydalanish.
- Avtomatlashtirilgan tarjima vositalarini inson nazorati bilan birgalikda qo‘llash.
- Tibbiy hujjatlar uchun ko‘p bosqichli tekshiruv (peer-review) tizimini joriy etish.
- Tarjimonlar va shifokorlar o‘rtasida hamkorlikni kuchaytirish.

Amaliy misollar. 2021-yilda Yevropa farmatsevtika agentligi hisobotiga ko‘ra, noto‘g‘ri tarjima qilingan dori ko‘rsatmalari tufayli 450 dan ortiq noxush holatlar qayd etilgan. Shuningdek, AQShda tibbiy tarjimada xatolik sababli 2 bemor hayotdan ko‘z yumgan holat sud materiallarida qayd etilgan (FDA, 2022).

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqot 2019–2024-yillar davomida chop etilgan 50 ta ilmiy maqola va xalqaro tibbiy hisobotlarga asoslangan. Ma’lumotlar *PubMed*, *ScienceDirect* va *WHO Global Health Observatory* bazalaridan “medical translation”, “terminology errors”, “health communication” kalit so‘zlari orqali tanlab olindi. Tahlil metodikasi sifatida kontent tahlili (content analysis) qo‘llanildi. Asosiy yo‘nalishlar: terminologik xatolar, ularning sabablari, tibbiy oqibatlar va ularni kamaytirish bo‘yicha strategiyalar tahlil qilindi. Shuningdek, 10 ta real klinik holat misolida tarjima xatolarining bemor xavfsizligiga ta’siri o‘rganildi.

Natijalar. Tahlil natijalariga ko‘ra, tibbiy tarjima xatolarining 60% terminologik nomuvofiqlik, 25% farmatsevtik noto‘g‘rilik va 15% madaniy tafovutlarga bog‘liq. Xususan, noto‘g‘ri tarjima qilingan terminlar bemor xavfsizligiga tahdid soluvchi holatlarning 30% ini tashkil qilgan. Mutaxassis tarjimonlardan foydalanilgan holatlarda xato darajasi 5 barobar kamaygani aniqlangan. Shuningdek, terminologik ma’lumotlar bazalaridan foydalanish tarjima aniqligini 80% gacha oshirgan. Ushbu natijalar tibbiy tarjimalarda inson va texnologiya hamkorligi zarurligini tasdiqlaydi.

Xulosa. Tibbiy terminologiya va uning to‘g‘ri tarjima qilinishi sog‘liqni saqlash tizimida muhim ahamiyatga ega. Har bir tibbiy atama o‘ziga xos ma’no yukiga ega bo‘lib, uni noto‘g‘ri tarjima qilish tashxis, davolash va profilaktika jarayonlariga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Tibbiy tarjima xatolarining eng jiddiy oqibatlari — bemor xavfsizligining buzilishi, dori-darmonlarning noto‘g‘ri qo‘llanishi, tashxisdagi xatolar va hatto o‘lim holatlaridir. Shu sababli, tibbiy tarjima jarayoni faqat lingvistik bilimga emas, balki tibbiyot fanlari bo‘yicha chuqur tushunchaga ham tayanishi kerak. Aniqlikni ta’minlash uchun terminologik standartlardan (ICD, MedDRA, SNOMED CT), CAT vositalaridan, shuningdek, mutaxassislararo hamkorlikdan foydalanish zarur. Shuningdek, tibbiy tarjimonlarni tayyorlashda ikki yo‘nalish — til va tibbiyot — bo‘yicha integratsiyalashgan ta’lim muhimdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Pérez, M. & Valdés, C. (2020). *Medical Translation and Patient Safety*. Journal of Health Communication.
2. Montalt, V. & González, I. (2019). *Medical Translation: Discourses and Practices.* Routledge.
3. Biel, Ł. (2021). *Quality in Medical Translation.* Linguistica Antverpiensia.
4. World Health Organization (2022). *Global Patient Safety Report.*
5. European Medicines Agency (2021). *Translation and Labelling Errors in Pharmaceuticals.*
6. FDA (2022). *Medical Communication and Translation Accuracy.*
7. Remael, A. (2020). *Cross-cultural Medical Communication.* Springer.
8. Temmerman, R. (2018). *Terminology in Health Sciences.* Benjamins Publishing.
9. Pym, A. (2021). *Translating Risk in Medicine.* Translation Studies Review.

10. ISO 17100 (2020). *Translation Services: Quality Requirements.*
11. SNOMED International (2023). *Terminology Standards for Global Health.*
12. WHO (2024). *Improving Medical Communication for Safer Healthcare.*

TIBBIY TERMINOLOGIYANI O‘QITISHDA LINGVOKULTUROLOGIYANING AHAMIYATI

Maxmudova Parizoda
Kokand University Andijon filiali Davolash yo’nalishi talabasi

Annotatsiya Mazkur maqolada tibbiy terminologiyani o‘qitishda lingvokulturologik yondashuvning ahamiyati yoritilgan. Tibbiy terminlar nafaqat ilmiy, balki madaniy va tarixiy ma’no yukiga ham ega ekani ta’kidlanadi. Lingvokulturologiya fanining o‘qitish jarayoniga tatbiq etilishi orqali talabalar tibbiy atamalarning kelib chiqishi, semantik tuzilishi, milliy va xalqaro kontekstdagi qo‘llanilishi haqida chuqurroq tasavvurga ega bo‘ladilar. Maqolada tibbiy terminlarning lotin va yunon tillaridagi manbalari, ularni o‘zbek tilida to‘g‘ri talqin qilish va madaniyatlararo kommunikativ kompetensiyani shakllantirish masalalari ham yoritilgan. Shuningdek, tibbiy ta’limda etimologik tahlil, qiyosiy o‘rganish, madaniy kontekstda yondashuv kabi metodlarning samaradorligi ko‘rsatib o‘tilgan. Lingvokulturologiya kontseptsiyasi: til va madaniyat o'rtasidagi munosabatni, madaniy tushunchalarning tilda ifodalanishini o'rganadigan bo'limi

Kalit so’zlar: Lingvokulturologiya, tibbiyot terminologiyasi til va madaniyat tilshunoslik ,madaniy kontseptsiyasi , lingvistik tarjima , madaniy moslashuv , tibbiy talim, kommunikativ kampentatsiya ,tibbiy leksika, lotin va yunon tillari , lingvistik yondashuv.

Keywords: Linguoculturology, medical terminology, language and linguistics, cultural concept, linguistic translation, cultural adaptation, medical education, communicative competence, medical lexicon, Latin and Greek languages, linguistic signs.

Ключевые слова: Лингвокультурология, медицинская терминология, язык и лингвистика, культурный концепт, языковой перевод, культурная адаптация, медицинское образование, коммуникативная компетентность, медицинская лексика, латинский и греческий языки, языковые знаки.

Kirish. Bugungi globallashuv davrida tibbiyot sohasida xorijiy tillarni, xususan, lotin, ingliz va rus tillaridagi tibbiy terminlarni o‘rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Tibbiy terminologiyani o‘qitish jarayonida nafaqat so‘zlarning ma’nosini, balki ularning madaniy va tarixiy ildizlarini o‘rganish ham zarurdir. Shu nuqtai nazardan lingvokulturologiya fanining o‘rni alohida ahamiyatga ega.Tibbiy terminologiya — bu tibbiyot sohasida ishlatiladigan maxsus ilmiy atamalar tizimi bo‘lib, inson organizmi, kasalliklar, davolash usullari, anatomik tuzilmalar va dori vositalariga oid so‘z va iboralardan tashkil topgan. Tibbiy terminologiya — bu tibbiyot fanining tili. U shifokorlar, farmatsevtlar, biokimyogarlar, hamshira va boshqa mutaxassislar o‘rtasidagi aniq, qisqa va universal tushunishni ta’minlaydi.[1]

Asosiy qism. “Tibbiy terminologiyani o‘qitishda lingvokulturologiya” mavzusi til, madaniyat va tibbiyot fanlarining kesishgan nuqtasini o‘rganadi. Quyida ushbu mavzu bo‘yicha asosiy tushuncha va tahliliy ma’lumotlar keltirilgan:[2]

Lingvokulturologiya tushunchasi. Lingvokulturologiya — bu til va madaniyat o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni o‘rganuvchi fan. U so‘zlarning nafaqat lingvistik, balki madaniy, tarixiy va milliy ma’nolarini ham tahlil qiladi. Tibbiy terminologiyada bu yondashuv so‘zlarning kelib chiqishi, ma’nosi va ularning turli madaniyatlarda ifodalanish shaklini o‘rganishni anglatadi.[3]

Tibbiyot terminlari ko‘p hollarda lotin, yunon tillaridan kirib kelgan. Ammo har bir xalqning madaniyati ularni qabul qilish, izohlash va qo‘llash jarayoniga ta’sir ko‘rsatadi.

Masalan:

“Anatomiya” (yun. anatemno — kesmoq, ajratmoq) termini turli tillarda ma’nosi o‘zgarmagan, lekin tibbiy ta’limdagi talqinlari farq qiladi.

“Kasallik” atamasi o‘zbek tilida ruhiy va jismoniy og‘riqni bildiradi, ingliz tilidagi disease esa ko‘proq organizm funksiyasining buzilishi ma’nosida qo‘llanadi.[4]

Tibbiy terminologiyani o‘qitishda lingvokulturologik yondashuv:

- Talabaga terminning semantik ildizini tushunishga yordam beradi;
- Turli tillardagi tibbiy atamalarni qiyosiy tahlil qilish imkonini yaratadi;
- O‘quvchi/yosh mutaxassisda madaniyatlararo kommunikativ kompetensiya shakllantiradi;
- Tibbiyotdagi insonparvarlik qadriyatlarini (sog‘lom turmush, rahmdillik, kasb etikasini) o‘rganishga xizmat qiladi.[5]

Hippokrat qasamyodi Qadimgi Yunoniston Tibbiyotda axloqiy mas’uliyat ramzi
Virus Lotincha virus — zahar Avval zahar ma’nosida, keyin mikroorganizmlarga nisbatan ishlatilgan

Tibbiyot Arabcha tibb — davolash san’ati Islom olimlari orqali o‘zbek tiliga kirgan

Diagnostika yunoncha diagnosis — ajratish, aniqlash Tibbiy madaniyatda ilmiy aniqlik timsoli[6]

O‘qitish usullari. Etimologik tahlil – terminlarning kelib chiqishini o‘rganish.

Qiyosiy tahlil – bir terminning turli tillardagi qo‘llanishini taqqoslash.
Madaniy kontekstda o‘qitish – terminni tarixiy, falsafiy yoki diniy manbalar bilan bog‘lash.

Rol o‘yinlari va klinik ssenariylar – terminlarni real tibbiy vaziyatlarda qo‘llash.[7]

Xulosa. Tibbiy terminologiyani o‘qitishda lingvokulturologik yondashuv zamonaviy tibbiy ta’limning ajralmas qismi hisoblanadi. Chunki tibbiy terminlar faqat ilmiy tushunchalarni emas, balki madaniyat, tarix va insonparvarlik qadriyatlarini ham o‘zida mujassam etadi. Lingvokulturologiya tibbiy tilni o‘rganishda til va madaniyatning o‘zaro bog‘liqligini anglash, terminlarning semantik mohiyatini to‘liq tushunish va ularni milliy hamda xalqaro kontekstda to‘g‘ri qo‘llash imkonini beradi.Bunday yondashuv talabalarda kasbiy madaniyat, axloqiy mas’uliyat va madaniyatlararo muloqot ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Shuningdek, tibbiy terminologiyani lingvokulturologik asosda o‘qitish, tibbiy ta’lim sifatini oshiradi hamda kelajakdagi mutaxassislarning ilmiy va madaniy tafakkurini kengaytiradi.[8]

Foydalanilgan adabiyotlar

1. 1.Nurmatova, M. A. Tibbiy terminologiyani o‘qitishda zamonaviy metodlar. – Toshkent tibbiyot akademiyasi, 2020.
2. 2.Abdulxakimova, D. R. Lingvokulturologiya asoslari. – Toshkent: Universitet nashriyoti, 2019.
3. 3.Oxford, R. Language and Culture in Medical Education. – Cambridge University Press, 2018.
4. Stedman’s Medical Dictionary. – 28th Edition. – Lippincott Williams & Wilkins, 2006.
5. Crystal, D. The Cambridge Encyclopedia of Language. – Cambridge University Press, 2010.
6. Shirinov, M. B. Tibbiyotda terminologik birliklarning shakllanishi va ularning o‘qitilish masalalari. // “Oliy ta’limda innovatsiyalar” ilmiy jurnali, №3, 2022.
7. Sapir, E. Language: An Introduction to the Study of Speech. – New York: Harcourt, Brace & Co., 1921.
8. Xaydarov, A. Lingvokulturologiyaning nazariy asoslari va ta’limdagi ahamiyati. – Toshkent: TDPU nashriyoti, 2021.

TIBBIY TERMINOLOGIYANI O‘QITISHNING AMALIY JIHATLARI

Abduhakimova Muhlisa Abduhalil qizi
Qo‘qon Universiteti Andijon Filliali
Davolash ishi yo‘nalishi 2-kurs talabasi
E-mail:muhlisaabduhakimova650@gmail.com

Annotatsiya: Tibbiy terminologiyani o‘qitishning amaliy jihatlari tibbiyot talabalariga tibbiy atamalar va ularning qo‘llanilishini samarali o‘rgatish usullarini o‘rganadi. Ushbu maqolada tibbiy terminologiyani o‘qitishning zamonaviy yondashuvlari, interaktiv metodlar, texnologik vositalar va natijalarni baholash masalalari ko‘rib chiqiladi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki,

amaliy mashqlar va real hayotiy vaziyatlar orqali o‘qitish talabalarining terminologiyani egallashini sezilarli darajada oshiradi. Maqola tibbiyot o‘qituvchilari va talabalar uchun foydali tavsiyalar beradi.

Kalit so‘zlar: Tibbiy terminologiya, o‘qitish metodlari, amaliy jihatlar, interaktiv ta'lim, texnologik vositalar, talabalar natijalari, tibbiyot ta'limi.

Abstract: Practical aspects of teaching medical terminology explores the methods of effectively teaching medical students medical terms and their use. This article examines modern approaches to teaching medical terminology, interactive methods, technological tools, and assessment of results. The results of the study show that teaching through practical exercises and real-life situations significantly increases students' mastery of terminology. The article provides useful recommendations for medical teachers and students.

Keywords: Medical terminology, teaching methods, practical aspects, interactive learning, technological tools, student outcomes, medical education.

Аннотация: Практические аспекты преподавания медицинской терминологии рассматривают методы эффективного обучения студентов-медиков медицинским терминам и их применение. В статье рассматриваются современные подходы к преподаванию медицинской терминологии, интерактивные методы, технологические инструменты и оценка результатов. Результаты исследования показывают, что обучение посредством практических упражнений и реальных жизненных ситуаций значительно повышает усвоение студентами терминологии. В статье даны полезные рекомендации для преподавателей и студентов-медиков.

Ключевые слова: Медицинская терминология, методы обучения, практические аспекты, интерактивное обучение, технологические инструменты, результаты обучения студентов, медицинское образование.

Kirish: Tibbiy terminologiya tibbiyot sohasining asosiy qismi hisoblanadi, chunki u tibbiy mutaxassislar o‘rtasida aniq va samarali muloqotni ta'minlaydi, shu bilan birga diagnostika jarayonlarida va davolash usullarida xatoliklarning oldini olishga yordam beradi. Tibbiy terminlarni to‘g'ri tushunish va qo‘llash tibbiyot talabalari uchun muhimdir, chunki bu ularning klinik amaliyotida xatoliklarning oldini oladi va bemorlarga sifatli yordam ko‘rsatishni ta'minlaydi, masalan, tibbiy hujjatlarni to‘ldirishda yoki hamkasblar bilan muhokama qilishda [1,123].

Biroq, an'anaviy o‘qitish usullari, masalan, kitoblardan o‘qish va yodlash, ko‘pincha samarasiz bo‘lib, talabalar terminlarni real hayotda qo‘llay olmaydilar, chunki bu usullar faqat nazariy bilimlarni beradi va amaliy ko‘nikmalarni rivojlantirmaydi, natijada talabalar klinik vaziyatlarda qiyinchiliklarga duch keladilar. Ushbu maqola tibbiy terminologiyani o‘qitishning amaliy jihatlariga bag'ishlangan bo‘lib, zamonaviy ta'lim yondashuvlarini ko‘rib chiqadi, jumladan interaktiv mashqlar, texnologik vositalar va real hayotiy simulyatsiyalarni qo‘llash orqali o‘qitishni yaxshilash yo‘llarini taklif etadi. Maqsad – o‘qituvchilarga amaliy usullarni taklif qilish va ularning samaradorligini baholash, shu orqali tibbiyot ta'limini yanada samarali qilishga hissa qo‘shish. Maqola adabiyotlar tahlili, metodologiya, natijalar, muhokama va xulosadan iborat bo‘lib, ular orqali mavzuni batafsil yoritib beradi [2,45].

Adabiyotlar tahlili: Tibbiy terminologiyani o‘qitish bo‘yicha adabiyotlarda bir qancha tadqiqotlar mavjud, masalan, interaktiv o‘qitish usullari orqali tibbiy terminologiyani o‘qitishni yaxshilash loyihasi tibbiyot maktablari uchun o‘quv materiallarining sifatini oshirishga qaratilgan bo‘lib, tajriba asosidagi o‘rganish usullarini qo‘llash orqali natijalarni yaxshilagan. Shu bilan birga, shifokorlik talabalarining tibbiy terminologiyani til sifatida o‘rganish uchun mobil o‘rganish prototipidan foydalanish tajribasi miqdoriy tadqiqot orqali o‘rganilgan bo‘lib, bu usul talabalar tajribasini yaxshilagan. Boshqa tadqiqotlarda rol o‘ynash faoliyati orqali tibbiy terminologiyani o‘qitish talabalarga atamalarni aniqlash, talaffuz qilish va tushunishda yordam bergan, bu onlayn kurslar uchun maxsus ishlab chiqilgan. Shuningdek, teskari elektron o‘rganish modelini tibbiy terminologiya kursiga qo‘llash onlayn ta'limda samarali bo‘lganligi haqida tadqiqotlar mavjud. Aktiv o‘rganish usullarini tibbiy terminologiyani o‘qitishda qo‘llash bo‘yicha tajribalar darslik

materiallarini yozishda ishlatilgan bo‘lib, bu talabalar faolligini oshirgan. Gamifikatsiyalangan elektron o‘rganish vositalari, masalan TERMInator, Moodle platformasida tibbiy terminologiyani o‘qitishda samarali ishlatilgan. Texnologik vositalar, masalan, mobil ilovalar va virtual realik, tibbiy terminlarni o‘qitishda muhim rol o‘ynashi ta'kidlangan, chunki bu usullar talabalarining motivatsiyasini oshiradi va amaliy ko‘nikmalarni shakllantiradi, jumladan virtual realik orqali tibbiyot guruhlarida o‘qitishni yaxshilash bo‘yicha tadqiqotlar natijalari shuni ko‘rsatadiki, bu texnologiya o‘rganishni 74 foizga yaxshilagan va tibbiy amaliyotda aniqlikni oshirgan. Virtual realik tibbiyot talabalari ta'limida ko‘rib chiqilgan bo‘lib, bu 3D muhit yaratish orqali o‘zaro ta'sirni ta'minlaydi. Tibbiyot ta'limida virtual realikni integratsiya qilishning hozirgi holati haqida tizimli ko‘rib chiqishlar mavjud bo‘lib, bu raqamli o‘rganishni yaxshilaydi [3,474].

O‘zbekiston adabiyotlarida ham shunga o‘xshash ishlar bor, masalan, ingliz tilida tibbiy terminologiyani o‘qitishning xususiyatlari bo‘yicha tadqiqotlar kursning amaliyligini ko‘rsatgan. O‘zbek tilida so‘zlashuvchi tibbiyot talabalariga tibbiy terminologiyani o‘qitishning xususiyatlari muhokama qilingan bo‘lib, bu O‘zbekiston tibbiyot universitetlarida qo‘llanilgan. Ingliz va o‘zbek tillari o‘rtasida tibbiy terminlarni tarjima qilishdagi qiyinchiliklar, jumladan semantik nomuvofiqliklar va leksik bo‘shliqlar haqida tadqiqotlar mavjud. Toshkent tibbiyot akademiyasida lotin tili va tibbiy terminologiyani o‘qitish maqsadlari qayd etilgan bo‘lib, bu talabalarga asosiy qoidalarni o‘rgatishga qaratilgan. O‘zbek va rus tillaridagi tibbiy terminlarning lingvistik xususiyatlari va struktural murakkabliklari o‘rganilgan. Biroq, amaliy jihatlar bo‘yicha tadqiqotlar yetarli emas, bu esa ushbu maqolaning dolzarbligini oshiradi, chunki mavjud ishlar ko‘proq nazariy va tarjima masalalariga e'tibor qaratgan [4,12].

Metodologiya: Ushbu tadqiqotda aralash metodlar qo‘llanilgan, ya'ni sifat va miqdoriy yondashuvlar birgalikda ishlatilgan bo‘lib, bu yondashuv orqali o‘qitish jarayonining samaradorligini ham statistik ma'lumotlar, ham ishtirokchilarning shaxsiy tajribalari asosida chuqur baholash imkoniyati yaratilgan, chunki miqdoriy usullar ko‘rsatkichlarni aniq o‘lchasa, sifat yondashuvlari esa talabalar va o‘qituvchilarning fikr-mulohazalarini yoritib beradi. Tadqiqotga jalb qilingan ishtirokchilar soni yuz nafar tibbiyot talabasi va yigirma nafar o‘qituvchidan iborat bo‘lib, ular tasodifiy tanlov asosida, turli kurslar va tajriba darajalarini hisobga olgan holda tanlangan, bu natijalarning ishonchliligini oshirish va guruhlar o‘rtasidagi farqlarni adolatli baholashga yordam bergan.

O‘qitish jarayoni bosqichma-bosqich tashkil etilgan bo‘lib, dastlab an'anaviy usullar qo‘llanilgan, unda talabalar kitoblardan o‘qib, terminlarni yodlash va oddiy testlar orqali bilimlarini sinovdan o‘tkazganlar, keyinchalik amaliy usullarga o‘tilgan, bu yerda rol o‘ynash orqali real klinik vaziyatlarni taqlid qilish, shuningdek maxsus ilovalar yordamida interaktiv mashqlar bajarish kabi yondashuvlar ishlatilgan, va nihoyat texnologik vositalar integratsiya qilingan, masalan Duolingo yoki Anki kabi mobil ilovalar orqali o‘yinlashtirilgan o‘rganish va virtual realik simulyatorlari yordamida immersiv tajribalar yaratilgan, bu jarayonlarning barchasi talabalarining faolligini oshirish, terminlarni real hayotiy kontekstda qo‘llash ko‘nikmalarini rivojlantirish va tibbiy terminologiyani til sifatida o‘rganishga qaratilgan bo‘lib, shu orqali talabalar nafaqat terminlarni eslab qolishadi, balki ularni klinik amaliyotda samarali ishlatishni o‘rganadilar. Natijalarni baholash uchun maxsus ishlab chiqilgan testlar va so‘rovnomalar o‘tkazilgan bo‘lib, testlar terminlarni egallash darajasini, shu jumladan ularni qo‘llash aniqligini o‘lchagan, so‘rovnomalar esa motivatsiya, qoniqish va o‘qitish jarayonidagi qiyinchiliklarni aniqlagan, shu bilan birga barcha ma'lumotlar SPSS dasturi orqali statistik tahlil qilingan, bu orqali o‘rtacha ko‘rsatkichlar, standart og'ishlar, korrelyatsiya va taqqosiy analizlar o‘tkazilgan, natijada tadqiqotning ilmiy asosliligini ta'minlab, o‘qitish usullarining samaradorligini ob'ektiv baholashga imkon bergan [5,20].

Natijalar: Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, amaliy usullar orqali o‘qitilgan talabalar tibbiy terminologiyani an'anaviy usullarga nisbatan sezilarli darajada yaxshiroq egallaganlar, bu esa qirq besh foiz ko‘rsatkich bilan tasdiqlangan, chunki amaliy yondashuvlar talabalarga nafaqat terminlarni yodlash, balki ularni klinik vaziyatlarda to‘g'ri va samarali qo‘llash imkonini bergan, bu esa o‘quv jarayonining real hayotiy sharoitlarga yaqinlashishiga yordam bergan. Masalan, rol

o‘ynash mashqlarida talabalar sakson foiz aniqlik bilan terminlarni qo‘llaganlar, bu jarayonda ular bemorlar bilan muloqot qilish, diagnoz qo‘yish va tibbiy hujjatlarni to‘ldirish kabi vazifalarni taqlid qilish orqali terminlarni amalda sinab ko‘rganlar, natijada ularning klinik ko‘nikmalari va ishonchlari sezilarli darajada oshgan. Texnologik vositalar, masalan, mobil ilovalar va virtual realik simulyatorlari, talabalarning motivatsiyasini oltmish foizga oshirgan, chunki bu vositalar o‘yinlashtirilgan mashqlar va immersiv muhit orqali o‘quv jarayonini qiziqarli va jozibador qilgan, talabalar o‘zlarini xavfsiz muhitda sinab ko‘rish imkoniyatiga ega bo‘lganlar va xatolardan o‘rganish orqali o‘z bilimlarini mustahkamlaganlar. Guruhli ishlar orqali talabalar o‘rtasidagi muloqot sezilarli darajada yaxshilangan, chunki ular birgalikda muammolarni hal qilish, terminlarni muhokama qilish va bir-birlariga tushuntirish orqali jamoaviy ish ko‘nikmalarini rivojlantirganlar, bu esa nafaqat terminologiyani chuqurroq tushunishga, balki klinik amaliyotda zarur bo‘lgan hamkorlik qobiliyatlarini oshirishga yordam bergan. Umumiy natijalar shuni ko‘rsatadiki, interaktiv va texnologik yondashuvlar talabalarning nafaqat bilim darajasini, balki ularning o‘quv jarayoniga bo‘lgan qiziqishini, kritik fikrlash qobiliyatini va o‘z-o‘zini o‘rganish ko‘nikmalarini ham sezilarli darajada yaxshilaydi, bu esa tibbiyot ta'limida uzoq muddatli ijobiy natijalarga olib keladi.

Muhokama: Natijalar adabiyotlar bilan to‘liq mos keladi, chunki interaktiv usullar talabalarining faolligini sezilarli darajada oshiradi va ularni o‘quv jarayoniga faol jalb qilish orqali tibbiy terminologiyani chuqurroq tushunishga va amalda qo‘llashga yordam beradi, masalan, rol o‘ynash, guruhli muhokamalar va o‘yinlashtirilgan mashqlar kabi yondashuvlar talabalarining motivatsiyasini va bilimlarni saqlab qolish qobiliyatini yaxshilaydi, bu esa an'anaviy yodlash usullariga nisbatan ustunlik beradi va tibbiyot ta'limida samaraliroq natijalarga olib keladi, shu bilan birga bu usullar talabalarining kritik fikrlash va muloqot ko‘nikmalarini rivojlantirib, kelajakdagi klinik amaliyotga tayyorlaydi. Biroq, tadqiqotda aniqlangan cheklovlar mavjud bo‘lib, ular orasida texnologik vositalarning yuqori narxi va hamma uchun mavjud bo‘lmasligi asosiy o‘rin egallaydi, chunki bu vositalar, masalan virtual realik simulyatorlari va maxsus ilovalar, qimmatbaho uskunalarni talab qiladi va rivojlanayotgan mamlakatlarda yoki resurslari cheklangan muassasalarda keng qo‘llanilmaydi, bu esa ta'limda tengsizlikka olib keladi va talabalar orasida texnologiyaga kirish imkoniyatlarining farqi o‘quv natijalariga salbiy ta'sir ko‘rsatishi mumkin, shuningdek texnik muammolar, internetning sifatsizligi va o‘qituvchilarning texnologik savodxonligining yetarli emasligi kabi omillar ham ushbu usullarning samaradorligini pasaytiradi, natijada ta'lim jarayonida qiyinchiliklar yuzaga keladi.

Kelajakda bu muammolarni hal qilish kerak bo‘lib, masalan, ochiq manbali texnologiyalarni rivojlantirish, subsidiyalar va grantlar orqali resurslarni taqsimlash, shuningdek o‘qituvchilar uchun texnik treninglarni tashkil etish kabi choralar orqali texnologiyalarning mavjudligini oshirish mumkin, bu esa tibbiyot ta'limini yanada inklyuziv va samarali qilishga yordam beradi va global miqyosda ta'lim sifatini yaxshilaydi. Amaliy jihatlar tibbiyot ta'limini sezilarli darajada yaxshilaydi, chunki ular talabalarining real hayotiy vaziyatlarda terminologiyani qo‘llash ko‘nikmalarini shakllantirib, klinik tajribaga tayyorlaydi va natijada bemorlarga sifatli yordam ko‘rsatish imkoniyatini oshiradi, lekin o‘qituvchilarning malakasi muhim rol o‘ynaydi, chunki faqat yuqori malakali o‘qituvchilar interaktiv usullarni samarali qo‘llay olishadi, talabalarining ehtiyojlariga moslashib, ta'lim jarayonini boshqara olishadi va texnologik vositalarni to‘g'ri integratsiya qila olishadi, shu bilan birga o‘qituvchilarning professional rivojlanishi va doimiy ta'limi tibbiy terminologiya o‘qitishning sifatini ta'minlashda asosiy omil hisoblanadi

Xulosa va takliflar: Xulosada, tibbiy terminologiyani o‘qitishning amaliy jihatlari ta'lim sifatini sezilarli darajada oshiradi, chunki bu yondashuvlar talabalariga nafaqat terminlarni yodlash, balki ularni real klinik vaziyatlarda samarali qo‘llash imkonini berib, tibbiyot mutaxassislarining malakasini yaxshilaydi va bemorlarga ko‘rsatiladigan yordam sifatini oshiradi, shu bilan birga interaktiv metodlar va texnologik vositalar orqali o‘quv jarayonini qiziqarli va samarali qiladi, natijada talabalarining motivatsiyasi va bilimlarni saqlab qolish qobiliyati ortadi. Takliflar sifatida, avvalo o‘qituvchilarga maxsus treninglar o‘tkazish zarur, chunki bu o‘qituvchilarning interaktiv metodlarni qo‘llash ko‘nikmalarini rivojlantirib, ularni zamonaviy

ta'lim yondashuvlariga moslashtiradi va ta'lim jarayonida talabalar bilan samarali muloqot o‘rnatishga yordam beradi, masalan, Google Forms va YouTube livestreaming kabi vositalardan foydalanishni o‘rgatish orqali o‘qituvchilar o‘quv materiallarini yanada jozibador qila olishadi.

Keyinchalik, texnologik vositalarni kengaytirish muhimdir, chunki mobil ilovalar, virtual realik simulyatsiyalari va gamifikatsiyalangan platformalar tibbiy terminologiyani o‘qitishda talabalarining tajribasini yaxshilaydi va ularni til sifatida o‘rganishga yordam beradi, masalan, TERMInator kabi vositalar orqali o‘quv jarayonini individual va moslashuvchan qilish mumkin, bu esa ta'lim muassasalarida resurslarni optimallashtirishga olib keladi. Bundan tashqari, milliy terminologiyani rivojlantirishga e'tibor qaratish kerak, chunki bu o‘zbek tilidagi tibbiy atamalarni standartlashtirib, talabalarining mahalliy kontekstda terminlarni to‘g'ri tushunish va qo‘llashini ta'minlaydi, shu bilan birga milliy ta'lim dasturlarini xalqaro standartlarga moslashtirishga yordam beradi va tibbiyot sohasidagi tarjima masalalarini hal qiladi. Kelajak tadqiqotlari onlayn platformalarga e'tibor qaratishi kerak, chunki onlayn va asinxron kurslar tibbiy terminologiyani o‘qitishda yangi imkoniyatlarni ochib, talabalarining moslashuvchan o‘rganishini ta'minlaydi va raqamli texnologiyalarni integratsiya qilish orqali ta'lim sifatini global miqyosda yaxshilashga hissa qo‘shadi, masalan, mLearning prototiplari va AI yordamida klinik ko‘nikmalarni o‘rgatish bo‘yicha tadqiqotlar kelajakdagi yondashuvlarni shakllantirishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Smith, J., & Jones, A. (2018). Interactive Methods in Medical Terminology Teaching. Journal of Medical Education, 42(3), 123-135.

2.Lee, S. (2020). Technology in Healthcare Education. Health Sciences Review, 15(2), 45-56.

3.Sakamoto, Y., & Sakata, N. (2019). An Investigation of a Medical Terminology Learning Environment with a Robot and a Tablet. International Conference on Computers in Education, pp. 474-479.

4.Asztalos-Zsembery, E. (2024). Building Autonomy and Self-reliance Using Error Analysis. 6th English for Healthcare Conference, pp. 12-15.

5.Džuganová, B. (2024). Is Grammar Important in ESP Teaching? 6th English for Healthcare Conference, pp. 20-2

ISSUES IN TEACHING ENGLISH FOR MEDICAL PURPOSES

Ergasheva Khilola Yunusxanovna
Head of Foreign Languages Department, PhD
Impulse Medical Institute in Namangan
ergasevahilola81@gmail.com

Abstract: This article examines the challenges in teaching English to medical students, focusing on the linguistic, cultural, and methodological barriers that hinder their proficiency in English for medical purposes (EMP). The increasing global nature of healthcare necessitates strong English language skills for medical professionals to interact with international colleagues, access global research, and engage with patients from diverse backgrounds. Despite the importance of English, many medical students struggle with complex medical terminology and cultural adaptation. This essay argues for the need for specialized teaching methods, the incorporation of cultural sensitivity, and the use of modern pedagogical strategies to improve English proficiency in medical education.

Key words: Communication in Healthcare, Cultural Competence, Curriculum Design, English for Medical Purposes (EMP), English for Specific Purposes (ESP), ESP Teachers, Global Healthcare, Language Proficiency, Language Teaching Methods, Linguistic Challenges, Medical Education, Medical English, Medical Terminology, Pedagogical Strategies, Cultural Sensitivity

Introduction: The role of English in medical education has become increasingly important as the healthcare field becomes more globalized. English proficiency is essential for medical

students to access international research, communicate with global peers, and understand medical literature. However, many students face linguistic and cultural challenges that affect their ability to master the specialized language required for medical practice. These challenges are further compounded by the need for effective communication in high-stakes environments, where miscommunication can have severe consequences. This essay explores the challenges in teaching English to medical students and suggests strategies to address these issues.

Method: The study reviews existing literature on the challenges of teaching English to medical students, focusing on multiple countries, including Russia, Pakistan, Saudi Arabia, and other regions. A variety of research methods, such as surveys, questionnaires, and interviews, have been used in studies to assess students' language needs, their proficiency levels, and their preferences for English for Specific Purposes (ESP) courses. Key themes identified across studies include linguistic difficulties with medical terminology, cultural adaptation challenges, and dissatisfaction with current teaching methodologies. The article synthesizes findings from these studies to propose a comprehensive framework for improving English instruction in medical education.

Discussion

Esanova & Buriyev (2023) explored the challenges involved in teaching English to medical students, particularly focusing on linguistic, cultural, and methodological hurdles. The significance of English in medicine is emphasized, as it is essential for effective communication within the global healthcare system, including patient care, research, and international collaboration.

Key Points:

1. **Linguistic Challenges**: Medical students face the challenge of mastering complex medical terminology and discourse. English proficiency is not just about general language skills but also the specialized language required for medical practice and communication.
2. **Cultural Challenges**: Medical students must adapt to new academic and cultural environments, often in foreign countries. This adjustment can impact their language acquisition and their ability to engage with culturally diverse patients and healthcare systems.
3. **High Stakes**: Miscommunications in the medical field can have serious consequences, including misdiagnoses or harm to patients. Thus, medical students need to acquire English proficiency to avoid errors that could endanger lives.
4. **Methodological Challenges**: Teaching English to medical students requires specialized strategies. It’s crucial to incorporate medical terminology and communication skills specific to healthcare, making traditional language teaching methods insufficient.
5. **Ethical Challenges**: Cultural competence is essential for effective communication in healthcare. Medical English instruction should not only focus on language skills but also on promoting empathy, cultural sensitivity, and mutual respect between healthcare professionals and patients.[2]

Rodin&Travnikova(2017) discussed the challenges faced by Russian medical students in learning English, which is crucial for accessing global medical research and participating in international events. Despite the importance of English, the average proficiency in Russia is low, with most students reaching only B1-B2 levels. The authors suggested several solutions, such as making English a key subject in medical programs, increasing study hours at universities, and utilizing online resources like PubMed and Medical English websites. Teachers are also encouraged to focus on speaking practice and create a supportive classroom environment to improve fluency. Ultimately, the goal is to treat English as a vital communication tool, not just a subject, to prepare Russian medical students for international collaboration and advancement.[4]

Alanazi & Curle (2024) studied the challenges faced by medical students in Saudi Arabia when learning medicine through English as a Medium of Instruction (EMI). A mixed-method approach was used, including a questionnaire with 373 students and follow-up interviews with 60. The findings revealed significant linguistic challenges, such as difficulty in reading medical materials, understanding English lectures, and speaking fluently. These challenges were most

prominent in the students' first or second years but diminished as they advanced in their studies. The study highlights the need for tailored pedagogical strategies to address these issues.[1]

In 2014, Younas et al investigated the challenges medical students in Pakistan face due to a lack of linguistic skills, both in their studies and at their workplaces. The sample consisted of 100 students from Nawaz Sharif Medical College in Gujrat, Pakistan, selected using convenience sampling. Data were collected through a questionnaire focused on the importance of English for Specific Purposes (ESP) in medical education. The questionnaire, consisting of 10 items, aimed to explore the role of ESP in teaching English to medical students. The results indicated that the absence of ESP patterns in their English education contributed to medical students' insufficient linguistic skills in their professional settings.[5]

Khalili and Tahririan (2020) explored the challenges of teaching English for Specific Purposes (ESP) to medical students, focusing on their language needs, deficiencies, and preferences. Data were gathered from 140 medical students via questionnaires and interviews. The findings revealed that current English for medical purposes (EMP) courses do not adequately address students' needs, with a preference for ESP courses that cover all four language skills. Students were dissatisfied with the course materials and methods, favoring the use of visual and multimedia aids. Although students were generally satisfied with their ESP teachers, important aspects, such as considering student needs, introducing relevant discourse communities, and using authentic materials, were often overlooked. Students also pointed out issues like limited class time, insufficient credit hours, and heterogeneous classes as obstacles. The study concludes that ESP courses should improve course design, incorporate technology effectively, apply communicative approaches, and optimize time usage to better meet the goals of medical students.[3]

Conclusion: Teaching English to medical students presents unique challenges due to the specialized nature of medical language, cultural diversity, and the high stakes of clear communication in healthcare. The current approach to English for medical purposes (EMP) courses often fails to meet students' needs, leaving them unprepared for the complexities of international medical practice. The importance of fostering English proficiency cannot be overstated, as it directly affects students' ability to access information, collaborate globally, and communicate effectively with patients and colleagues.

REFERENCES

1. Alanazi, K., & Curle, S. (2024). Challenges experienced by students studying medicine through English medium instruction. *Frontiers in Education, 9*, 1364860. https://doi.org/10.3389/feduc.2024.1364860
2. Esanova, M., & Buriyev, D. (2023). THE CHALLENGES IN TEACHING ENGLISH TO MEDICAL STUDENTS. B EURASIAN JOURNAL OF ACADEMIC RESEARCH (Т. 3, Выпуск 10, сс. 255–260). Zenodo. https://doi.org/10.5281/zenodo.10046974
3. Khalili, S. and Tahririan, M. H. (2020). Deciphering Challenges of Teaching English for Specific Purposes to Medical Students: Needs, Lacks, Students' Preferences, and Efficacy of the Courses. *Teaching English Language*, *14*(1), 365-394. doi: 10.22132/tel.2020.112768
4. Rodin E.V., & Travnikova N.G. (2017). Teaching English for medical students. Bulletin of the International Scientific Surgical Association, 6 (2), 22-23.
5. Younas, M., Arshad, S., Abbas, A., Nawaz, M., & Fatima, S. (2014). Teaching English to medical students: An evaluation. *Language in India, 14*(5), 320-332.

TIBBIY TERMINOLOGIYANI O‘QITISH JARAYONIDA AMALIY YONDASHUVLARNING O‘RNI

Boboyeva Iroda O`tkir qizi
Narpay tuman Sanepidqo`mita vrachi
irodaboboyeva35@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada tibbiy terminologiyani o‘qitishning amaliy jihatlari yoritilgan. Maqolada kontekstli o‘qitish, lotin va yunon tilidagi elementlar bilan ishlash, interfaol

o‘qitish usullari, fanlararo integratsiya hamda multimedia va raqamli texnologiyalarni qo‘llash usullari tahlil qilinadi. Har bir metodning afzalliklari va ularning talabalarning kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishdagi o‘rni misollar asosida ko‘rsatilgan. Muallif tibbiy terminologiyani o‘qitishda nazariy bilimlarni amaliy topshiriqlar va raqamli texnologiyalar bilan uyg‘unlashtirish zarurligini asoslaydi.

Kalit so‘zlar: tibbiy terminologiya, kontekstli o‘qitish, interfaol metodlar, fanlararo integratsiya, raqamli texnologiyalar, tibbiyot ta’limi.

Аннотация: В статье рассматриваются практические аспекты преподавания медицинской терминологии. Анализируются методы контекстного обучения, работа с латинскими и греческими элементами, интерактивные методы, междисциплинарная интеграция, а также использование мультимедийных и цифровых технологий. Приведены примеры, демонстрирующие эффективность данных подходов в формировании профессиональной компетенции студентов медицинских вузов. Автор подчеркивает необходимость сочетания теоретических знаний с практическими заданиями и цифровыми инструментами в процессе обучения медицинской терминологии.

Ключевые слова: медицинская терминология, контекстное обучение, интерактивные методы, междисциплинарная интеграция, цифровые технологии, медицинское образование.

Abstract: This article discusses the practical aspects of teaching medical terminology. It analyzes methods such as contextual learning, working with Latin and Greek elements, interactive approaches, interdisciplinary integration, and the use of multimedia and digital technologies. Examples are provided to illustrate the effectiveness of these methods in developing students’ professional competence in medical education. The author emphasizes the importance of combining theoretical knowledge with practical exercises and digital tools for effective teaching of medical terminology.

Keywords: medical terminology, contextual learning, interactive methods, interdisciplinary integration, digital technologies, medical education.

Tibbiy terminologiya — bu shifokor, farmatsevt, hamshira hamda sog‘liqni saqlash sohasida faoliyat yuritayotgan har qanday mutaxassisning kasbiy tili asosidir. Tibbiy atamalarni bilish mutaxassislar o‘rtasidagi muloqotning aniqligini ta’minlaydi, tashxislar, retseptlar va ilmiy matnlarni to‘g‘ri tushunishga yordam beradi. Shu sababli, tibbiy terminologiyani o‘qitish kelajakdagi tibbiyot xodimlarini tayyorlash jarayonida muhim o‘rin tutadi.

Tibbiy terminologiyani o‘qitishning asosiy maqsadi — talabalarni tibbiy amaliyot va ilmiy adabiyotlarda qo‘llaniladigan terminlarni to‘g‘ri tushunish, ularni nutqda va tarjimada to‘g‘ri ishlatish ko‘nikmalariga ega qilishdir. Tibbiy terminlarning tuzilishini (prefiks, ildiz, suffiks, qo‘shimchalar) o‘zlashtirish; terminlarni morfologik va semantik jihatdan tahlil qilish ko‘nikmasini rivojlantirish; professional vaziyatlarda terminlardan og‘zaki va yozma shaklda foydalana olishni shakllantirish; terminlarni lotin, ingliz yoki boshqa tillardan tez va to‘g‘ri tarjima qilish malakasini hosil qilish tibbiyot sohasi vakillari uchun juda muhimdir.

Biroq tibbiy terminologiyani o‘qitishda bir qator muammolar uchraydi:

- terminlarning turlicha kelib chiqishi (lotin, yunon, ingliz tillaridan);
- murakkab tuzilishga ega terminlarning mavjudligi;
- xorijiy tilda kasbiy tafakkurni rivojlantirish zarurati;
- amaliy mashg‘ulotlar uchun vaqtning cheklanganligi.

Bu muammolarni bartaraf etish uchun o‘qituvchi an’anaviy va innovatsion yondashuvlarni uyg‘unlashtirishi, shuningdek, talabalarining individual xususiyatlarini hisobga olishi lozim.

Tibbiy terminologiyani o‘qitishning amaliy jihatlari

1. Kontekstli o‘qitish usuli: Talabalar tibbiy terminlarni alohida yodlab emas, balki haqiqiy tibbiy hujjatlar, kasallik tarixlari, retseptlar, laboratoriya natijalari, maqolalar orqali o‘rganadilar. Bu usul terminning ma’nosini amaliy vaziyatda tushunishga yordam beradi.

Masalan, o‘qituvchi talabaga kasallik tarixidan parcha beradi: *Diagnosis: pneumonia acuta lobaris dextra. Treatment: antibiotica, antipyretica.* Talabalar terminlarni tahlil qiladi: *pneumonia* — o‘pka yallig‘lanishi, *acuta* — o‘tkir, *lobaris dextra* — o‘ng bo‘lakli. Keyin talabalar o‘xshash misollarni o‘zlari tuzadilar. Masalan, “Suyak–mushak tizimi” mavzusida talabalar rentgenologik xulosalarni tahlil qiladi: *fractura humeri, luxatio articulationis humeri* va ularni tarjima qiladi.

2. Lotin va yunon tilidagi elementlar bilan ishlash: Ko‘pchilik tibbiy terminlar lotin va yunon tillaridagi ildiz, prefiks va suffikslardan tuzilgan. Ularning tuzilishini tushunish yangi so‘zlarni o‘qish va eslab qolishni osonlashtiradi.

Terminlarni tahlil qilish: *cardiomegalia = cardio–* (yurak) + *–megalia* (kattalashish) → “yurak kattalashuvi”. *hepatitis = hepat–* (jigar) + *–itis* (yallig‘lanish) → “jigar yallig‘lanishi”.

So‘z yasash mashqlari: O‘qituvchi morfemalar beradi: *gastr–, nephr–, derm–, –algia, –logia, –tomia*. Talabalar yasaydi: *dermatologia, nephrotomia, gastralgia.*

Kartochkalar usuli: Kartochkaning bir tomonida termin, ikkinchi tomonida — uning tarkibi va tarjimasi yoziladi. Talabalar juftlikda mashq qiladilar.

3. Interfaol o‘qitish usullari: Bu usulda o‘yinlar, testlar, rolli mashg‘ulotlar, muhokamalar, viktorinalar orqali faol o‘rganish tashkil etiladi.

Keys–topshiriq: Talabalarga klinik holat beriladi va ular simptomlar va tashxisni ifodalovchi to‘g‘ri terminlarni tanlaydi. Masalan: bemor oshqozon og‘rig‘idan shikoyat qiladi → qanday termin ishlatiladi? (*gastralgia, gastritis, ulceratio ventriculi*).

Krossvord yoki kartochkali o‘yinlar: Terminlarni mustahkamlash uchun. Masalan, “Kasalliklar” mavzusi: gorizontal: o‘pka yallig‘lanishi – *pneumonia*, vertikal: bo‘g‘im yallig‘lanishi – *arthritis*

Rolli o‘yin: Bitta talaba — shifokor, boshqasi — bemor rolida bo‘ladi. Shifokor tashxisni tibbiy terminlardan foydalanib tushuntiradi.

4. Fanlararo integratsiya: Tibbiy terminologiya boshqa fanlar — anatomiya, fiziologiya, patologiya, farmakologiya bilan bog‘liq holda o‘rgatiladi.

Masalan, *“Yurak–qon tomir tizimi”* mavzusida anatomiya terminlari bilan birgalikda o‘rganiladi: *cor, ventriculus cordis, arteria coronaria* – bu atamalardan tibbiy tashxislarda foydalaniladi: *cardiomegalia, myocarditis, infarctus myocardii.* Shuningdek, farmakologiya darslarida dori vositalari terminlari bilan ishlanadi: *Antibiotica, Analgetica, Sedativa, Antipyretica* — ularning tasnifi va qo‘llanilishi o‘rganiladi.

5. Multimedia va raqamli texnologiyalarni qo‘llash: Zamonaviy texnologiyalar terminologiyani yanada qiziqarli va interaktiv o‘rganishga imkon beradi. Masalan, onlayn platformalar: Quizlet, Kahoot, Anki kabi dasturlar orqali kartochkalar va testlar tayyorlanadi. 3D anatomik modellar va videolar: Talabalar organlarni ko‘rish jarayonida ularning lotincha nomlarini o‘rganadi (*cor, hepar, cerebrum*). Elektron lug‘atlar va ma’lumot bazalari: ICD, MedDRA, MeSH — zamonaviy tibbiy terminlarni izlash va tahlil qilish uchun. Audio mashqlar: Lotincha yoki inglizcha terminlarning to‘g‘ri talaffuzini o‘rganish uchun.

Xulosa qilib aytadigan bo’lsak, tibbiy terminologiyani samarali o‘qitish turli usullarni uyg‘unlashtirishni talab qiladi. Kontekstli o‘qitish — amaliy fikrlashni rivojlantiradi, lotin va yunon elementlari bilan ishlash — tildagi mantiqni ochadi, interfaol va raqamli usullar esa darsni qiziqarli va samarali qiladi. O‘qituvchi bu usullarni birlashtirib qo‘llasa, talabalarda nafaqat terminlarni yod olish, balki ularni amaliyotda to‘g‘ri qo‘llash ko‘nikmasi shakllanadi. Tibbiy terminologiyani samarali o‘qitish uchun nazariy bilimlarni amaliy mashqlar, kontekstli topshiriqlar va zamonaviy texnologiyalar bilan uyg‘unlashtirish zarur. Talabalarning o‘quv jarayonida faol ishtiroki orqaligina mustahkam kasbiy til bazasi shakllanadi. Bu esa kelajakdagi tibbiyot mutaxassislarining muvaffaqiyatli faoliyati uchun muhim asos bo‘lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:

1. Burxonova, G. (2025). TIBBIYOT OLIY TA’LIM MUASSASALARIDA LOTIN TILI VA TIBBIY TERMINOLOGIYANI SAMARALI O‘QITISH USLUBLARI. Ижтимоий–

гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари Актуальные проблемы социально–гуманитарных наук Actual Problems of Humanities and Social Sciences., 5(S/7), 111–115.
2. Hamroyeva Sanobar Hasan qizi. (2025). TIBBIYOT SOHASI BILAN BOG‘LIQ TERMINLARNI INGLIZ TILI AMALIY MASHG‘ULOTLARIDA O‘RGATISH USULLARI VA O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI. Medicine, Pedagogy and Technology: Theory and Practice, 3(2), 38–44
3. Jonibekovna, N. D. (2022). INTEGRATION OF THE COURSE OF THE LATIN LANGUAGE COURSE WITH THE COURSE OF NORMAL ANATOMY. Web of Scientist: International Scientific Research Journal, 3(11), 38–40.

O‘ZBEK TILI TIBBIY TERMINLARINING FORMAL STRUKTURASI

Buronova Xolida Toshtemrirovna
O‘zMU Jizzax filiali
xolly8987@gmail.com

Annotatsiya: Zamonaviy jamiyatda ilmiy-texnikaviy taraqqiyot xalqaro miqyosda axborot almashinuvining doimiy rivojlanishi va faollashishiga ko‘maklashadi. Bu esa tillar orqali munosabatlarning mustahkamlanishiga sabab bo‘ladi. Tillararo munosabatning taraqqiyoti esa shu til egalari o‘rtasidagi aloqalar darajasiga bevosita bog‘liq. Mana shu jarayonlar, ayniqsa, fan-texnikaning butun dunyoda umumiy bo‘lgan turlari uchun ushbu sohalar tillari rivojida o‘ziga xoslikka sabab bo‘ladi: soha terminologiyasi genetik, struktur jihatdan milliy tilga to‘liq xos bo‘lmagan, ammo uning elementlarini o‘zida aks ettirgan holda rivojlanib boradi.

Kalit so‘zlar: termin, struktura, sodda termin, qo‘shma termin, jufta termin, takroriy termin, tub termin, yasama termin.

Аннотация: В современном обществе научно-технический прогресс способствует постоянному развитию и активизации информационного обмена в международном масштабе. Это приводит к укреплению связей посредством языков. Развитие межъязыковых отношений напрямую зависит от уровня общения между носителями этих языков. Эти процессы, особенно в отношении распространенных во всем мире видов науки и техники, обусловливают специфическую особенность в развитии языков этих областей: терминология области развивается не генетически и структурно полностью свойственной национальному языку, а отражая его элементы.

Ключевые слова: термин, структура, простой термин, составной термин, парный термин, повторяющийся термин, корневой термин, искусственный термин.

Abstract: In modern society, scientific and technological progress contributes to the constant development and activation of information exchange on an international scale. This leads to the strengthening of relations through languages. The development of interlingual relations directly depends on the level of communication between speakers of these languages. These processes, especially for types of science and technology that are common throughout the world, cause a specific feature in the development of the languages of these fields: the terminology of the field develops, not genetically and structurally completely characteristic of the national language, but reflecting its elements.

Keywords: term, structure, simple term, compound term, pair term, repeated term, root term, artificial term.

Juda uzoq taraqqiyot tarixiga ega bo‘lgan tibbiy terminologiyaning shakllanishi qadimgi Yunoniston va qadimgi Rim sivilizatsiyasi, xususan, bu ikki taraqqiyot o‘chog‘ining Yevropa sivilizatsiyasi rivojidagi beqiyos ahamiyati bilan bog‘liq. Bu taraqqiyot bevosita lotin va qadimgi yunon tillari taraqqiyoti hamdir. Har bir sohani o‘rganish uning terminologiyasini bilish darajasi bilan bevosita bog‘liq. Shu boisdan bo‘lg‘usi tibbiyot xodimlari lotin tilini o‘qish davrida o‘rganishi shart qilib belgilangan. Bu orqali tibbiyot ta’lim muassasalari (hatto kasb-hunar kollejlari)da terminologik savodxon bo‘lgan tibbiy soha xodimini tayyorlash maqsadi ko‘zlanadi. Tibbiyotga oid bo‘lgan har qanday muloqot: rasmiy, ilmiy, kasbiy bo‘ladimi – barchasi tibbiy tushunchalarni nomlash bilan bog‘liq bo‘lgan lotin tili xususiyatlari, bu tilning tibbiy

terminologiyani shakllantirishga oid bo‘lgan struktur jihatlari haqidagi bilimlarni talab qiladi. Shu jihatdan olib qaralsa, lotin tilining tibbiyot terminologiyasini boyitishga xizmat qiladigan tuzilishga oid xususiyatlarini tadqiq etish dolzarb ahamiyat kasb etadi. Terminlarning atroflicha tadqiq etilishi, terminologiyani tartibga solish va barqarorlashtirish uchun ham muhim ahamiyatga ega.

Terminning struktur xususiyati bahsli masalalardan biri bo‘lib, termin tarkibining qancha uzvdan tashkil topishi borasida olimlar tomonidan turli fikrlar bildirilgan. Qolaversa, tarkibiy jihatdan soddalik yoki murakkab birikma shaklida terminlarning tarkibiy tuzilishi ijobiy yoki salbiy hodisa ekanligiga oid fikrlar ham mavjud. Terminga qo‘yilgan talablardan biri bo‘lgan ixchamlik doim ham bajarib yoki erishib bo‘lmaydigan xususiyatdir. Hatto kuzatish mumkinki, termin haqidagi dastlabki ta’riflarda termin ot so‘z turkumiga oid yakka so‘z sifatida izohlangan. Keyingi yillarda olib borilgan tadqiqot xulosalari asosida termin muayyan fan, texnika, madaniyat sohasiga oid tushunchani ifodalovchi so‘z yoki so‘z birikmasi sifatida qaralishini ko‘rish mumkin. O‘zbek tili terminologik sistemalari birliklariga umumiy qaralganda tuzilish jihatdan ikki, uch uzvli terminlar bilan bir qatorda to‘qqiz uzvligacha bo‘lgan terminlar ham mavjudligini kuzatish mumkin. Xususan, tadqiqot obyektimiz – tibbiy terminologiyada ham 8 uzvgacha terminologik birliklar uchraydi. Terminlarning tarkibiy xususiyatiga e’tibor qaratgan V.P.Danilenko so‘z birikmasi shaklidagi terminlar tushunchani to‘liqroq ifodalay olishi, tushuncha haqidagi zaruriy belgilarni mufassalroq ko‘rsatishi mumkinligini ijobiy hodisa sifatida qayd etib, shuningdek, terminning hajmi kattalashib borishi qo‘llash jarayonida noqulaylik tug‘dirishi, ba’zi hollarda esa terminning o‘zi ta’rifga teng kelib qolishini salbiy hodisa sifatida baholaydi. [1.12]

Ushbu tadqiqotda tibbiyot terminologiyasida mavjud terminlarning struktur jihatiga oid tavsifini amalga oshirishda ular so‘zlarning an’anaviy tasnifi, ya’ni sodda, qo‘shma, juft va takror kabi turlarga ko‘ra tahlil qilindi. Bunda birliklar o‘zak miqdoriga ko‘ra sodda, qo‘shma, juft, takror, murakkab kabi turlarga ko‘ra guruhlanadi. Terminlarning ot so‘z turkumiga mansublik xususiyati hisobga olinsa, bu turlar qatoriga abbreviativ shakldagi terminlar ham kiritiladi. Bu shakldagi terminlar tibbiy terminologiyada ham mavjud (masalan, qo‘lning ALW fenotipi, HCV infeksiyasi, COVID-19, OIV kabi).

Shakliy tasnif jarayonida sodda va qo‘shma terminlarni farqlash mumkin. Tilshunoslikda tasnifdagi “qo‘shma” so‘ziga sinonim sifatida “murakkab” so‘zi ham ishlatiladi. Ammo murakkab termin deyilganda nafaqat shakl, balki mazmuniy murakkablik ham tushunilishi mumkin. Aslida murakkab deyilganda komponentlar miqdori nazarda tutiladi. Birdan ortiq tarkibiy qismlardan tashkil topgan har qanday termin murakkab deyiladigan bo‘lsa, qo‘shma terminlar ham murakkab termin tushunchasi tarkibiga kirib qoladi. Ammo qo‘shma termin birdan ortiq so‘zning leksik uyg‘unlashuvi hamda natijada yaxlit lug‘aviy birlikning hosil bo‘lishidir. Shu sababdan “murakkab termin”ni sintaktik aloqa yordamida hosil qilinadigan terminlarga nisbatan qo‘llash maqsadga muvofiq.

Komponentlariga ko‘ra murakkab terminlarning “birikmali termin” shaklida qo‘llanishi kuzatiladi. Sintaktik aloqa asosida hosil bo‘lgan ushbu terminlarni umumiy nom ostida atash uchun qo‘llanadigan “birikmali termin” tushunchasi strukturasida mavjud g‘alizlik sababli T.Valiyevning “O‘zbek tili yo‘lsozlik terminlarining struktur-semantik xususiyatlari va leksikografik talqini” deb nomlangan doktorlik dissertatsiyasi hamda fors tilidagi transport terminlarining struktur tuzilishi va yasalishi muammosini o‘rgangan X.Mirzahmedovaning tadqiqotlarida “birikma termin” atamasi qo‘llanganini ko‘rishimiz mumkin.[2.16]

Umuman olganda, obyektimizda keltirilgan tibbiy terminlarning struktur xususiyatlarini tadqiq qilishda umumiy holda quyidagi guruhlarga ajratish mumkin:

1) sodda;
2) qo‘shma;
3) gibrid;
4) birikma.

O‘zbek tilining ikki tomli va besh jildli izohli lug‘atlaridan o‘rin olgan tibbiy terminlar orasida shakliy xususiyatiga ko‘ra yuqorida keltirilgan qo‘shma termin guruhiga kiruvchi birliklar

milliy terminlar misolida ham, chet tili misolida ham mavjud. Ayrim chalkashliklarni keltirib chiqarishi mumkin bo‘lsa-da, har ikkala turdagi terminlarni qo‘shma termin sifatida tahlilga tortish o‘rinli deb bildik.

Quyida O‘TILda mavjud tibbiy terminlarning yuqorida ko‘rsatilgan har bir struktur turini izohlaymiz.

Sodda terminlar. Bir asosli birliklar, ular yaxlit shakliy hamda semantik tuzilishga ega.

O‘zbek terminosistemasida mavjud tibbiyotga oid sodda terminlarni tarkibiga ko‘ra quyidagi ikki guruhga ajratish mumkin: sodda tub terminlar; sodda yasama so‘z shaklidagi terminlar. Ushbu struktur xususiyat o‘z va o‘zlashgan qatlam birliklari uchun alohida tahlil qilinishi maqsadga muvofiq, aslida. Ammo bu tahlil tibbiyot tili hisoblangan lotin va yunon tillariga oid lingvistik xususiyatlarni bilishni taqozo etadi. Tibbiy terminlarning maxsus izohli lug‘atini tuzishda mazkur jihat inobatga olinishi shart. Tadqiqot obektimiz bo‘lgan O‘TILda keltirilgan terminlarning sodda tub yoki sodda yasama birlik ekaniga oid ma’lumotlarni har bir terminning lug‘at maqolasida yasalishga oid keltirilgan ma’lumot asosidagina ayrim tahlillarini keltirib o‘tamiz.

Quyida ikkala izohli lug‘atda ham keltirilgan o‘z qatlam birliklari shakliy xususiyatiga ko‘ra turlarga ajratilib tahlil qilindi.

5 jildli O‘TILda keltirilgan sodda tub terminlar: *o‘z qatlam: qusish, yara, igna, karash, murtak, tang‘ish, titrash, tutqanoq, bichilish, buyurmoq, gul, yelikish.*

5 jildli O‘TILda keltirilgan sodda yasama terminlar: *xirillash, qaltirama, o‘sma, o‘zgaruvchanlik, qonsizlik, liqildoq, manqalanish, manqalik, soqovlik, terlama, terlash, tepki, oraliq, oqma, bosqich, jonsizlantirmoq, issiqlik, shilpiq, bog‘lov, xantalli*.

2 tomli O‘TILda keltirilgan sodda tub terminlar: *buqoq, yopishish, karash, ko‘kyo‘tal, murtak, tosh, tutqanoq, shilpiq*.

2 tomli O‘TILda keltirilgan sodda yasama terminlar: *bo‘g‘ma, tepki, o‘sma, qaltirama, qonsizlik.*

Sodda yasama so‘z shaklidagi terminlarni yasalish asosi o‘z yoki o‘zlashgan qatlamga oidligiga ko‘ra ham guruhlarga ajratib tahlil qilish mumkin. O‘TILda berilgan yasalish asosi o‘zlashgan qatlamga oid terminlar esa quyidagilar:

5 jildlida: *tolerantlik* (yunoncha so‘zga o‘zbek tilida so‘z yasovchi *-lik* qo‘shimchasini qo‘shish orqali yasalgan), *hushsizlik* (arabcha hush so‘ziga o‘zbekcha siz va lik qo‘shimchalari qo‘shilishi), *shirincha*, (fors tilidagi shir/shirin so‘ziga -cha qo‘shimchasini qo‘shish orqali), *bepushtlik* (fors tilidagi *be-* inkor qo‘shimchasi va pusht so‘ziga *-lik* qo‘shimchasini qo‘shish orqali).

2 jildlida bunday termin sifatida faqat *gipslamoq* (yunon tilidan olingan gips so‘ziga *-la* fe’l yasovchi qo‘shimcha qo‘shilishi) so‘zi keltirilgan.

Yasalish asosi o‘z qatlamga oid birliklar esa yuqorida sodda yasama so‘zlar sifatida keltirildi.

Terminologik so‘z yasalishi, shuningdek, tibbiyot terminologiyasida so‘z yasalish hodisasi alohida e’tiborga molik hodisa. Ixtiyoriy terminologiyaning o‘ziga xosliklaridan biri uning so‘z yasalishida namoyon bo‘ladi.[3.6] Bu haqda Reformatskiy ham: “Terminologiyaning o‘ziga xosligini ko‘rsatishning eng oson yo‘li so‘z yasalishidir”[4.122], – deya mulohaza yuritadi. Gorkovning tadqiqotida, avvalo, tub va yasama so‘zlarning so‘z yasalish paradigmasi tavsiflanadi. Yu.V.Gorkovning fikriga ko‘ra, tibbiy terminologiyada so‘z yasalishi uyalarini tahlil qilish so‘z yasalish paradigmasi uchun umumiylik sifatida tadqiq qilinadi. Bu metodika zamirida bitta g‘oya yotadi: so‘zni boshqaruvchi uyalar (uyadosh birlilar)dagi so‘z yasalish paradigmalari bitta mavzuiy yoki leksik-semantik so‘z guruhiga aloqador bo‘ladi. Bunday birliklar bir xil strukturaga ega va bir tipdagi paradigmaga mansub bo‘ladi. Ishda tibbiy terminologiyadagi otlarning so‘z yasalish uyasining paradigmatik qurilishi va so‘z turkumiga oid tuzilishi to‘liq tavsiflangan.[5.12]

Yuqorida keltirilgan pometali tibbiy terminologik birliklardan tashqari barcha o‘zlashma terminlar agar lug‘at maqolasida yasalganlik keltirilmagan bo‘lsa, sodda termin sifatida qaraldi.

Qo‘shma terminlar. Ikki yoki undan ortiq asosning qo‘shilishi natijasida yasalgan va bir lug‘aviy ma’noni anglatadigan terminlar.

Ushbu yasalish qoidasi asosida hosil bo‘lgan bu struktur turga oid tibbiy terinlar o‘z qatlam asosida tahlil qilindi.

5 jildli O‘TILda keltirilgan qo‘shma terminlar: *ko‘kyo‘tal, ko‘richak, suvchechak.*

2 tomli O‘TILda keltirilgan qo‘shma terminlar: *ko‘kyo‘tal, qoqshol.*

Gibrid terminlar. Terminelementlar yordamida hosil bo‘lgan tibbiy terminlar.

O‘TILda ushbu terminlar yun+lot, lot+yun uslubiy belgisi orqali berilgan.

5 jildli O‘TILda berilgan terminlar: *osteomielit, parametrit, paraproktit, paratit, pielit, pielonefrit, plevrit, proktit, ensefalit, ensefalogramma* kabi birliklar *yunon+lotin* tuzilishidagi tibbiy terminlar bo‘lsa, *fibroma, letargiya, peritonit* birliklari *lotin+yunon* shaklidagi terminlardir. sifatida berilgan.

2 tomli O‘TILda berilgan terminlar (5 jildli izohli lug‘atdan farqli ravishda *yunon* emas, *grek* shaklida berilgan): grek+lotin: avitaminoz; lotin+grek: dispepsiya.

Terminelement yoki biror qo‘shimcha yordamida yasalganligi lug‘at maqolasida keltirilgan terminlar. Terminelement yordamida yasalgan birliklar: *arteriosklerоz, baroterapiya, barotravma, bronxografiya, bronxoskopiya, gematologiya, gipervitaminoz, giperemiya, gipertermiya, gipertoniya, gipertrofiya, gipotermiya, gipotoniya, gipotrofiya, kaxeksiya, leykemiya, leykopeniya, letargiya, logopatiya, nevralgiya, nevrasteniya, nevrologiya, osteomomalyatsiya, osteoxondroz, otofon, pandemiya, paratif, patogenez, patologik, patologiya, piodermiya, pnevmokokklar, polidaktimiya, poliuriya, revmatologiya, rinologiya, rinoskopiya, sarkoma, sklerodermiya, stenokardiya, toksikomaniya, tonometr, transplantant, transplantatsiya, farmakolog, fibroma, fototerapiya, sitodiagnostika, shizofreniya, evtanaziya, eksgumatsiya, elektroterapiya, endokrinologiya, endoskopiya, ensefalit, ensefalogramma, epikriz, exinakokk.*

Affiks yordamida yasalgan birliklar: *avitaminozlar, agnoziya, blefarit, bronxit, gingivit, dermetit, detrit, dizenteriya, dislokatsiya, dispepsiya, dislaziya, distrofiya, kolit, laringit, mastit, meningit, miokardit, neyrodermit, nefrit, osteoma, osteomielit, ostit, pankreatit, parametrit, paraproktit, paratit, peritonit, pielit, pielonefrit, plevrit, poliartrit, polinevrit, poliomislit, proktit, radikulit, reabilitatsiya, reaksiya, reanimatsiya, respirator, stomatit, tonzillit, tromboz, faringit, xoletsistit, sistit*.

Barcha terminosistemalarda birikma terminlar miqdor jihatdan boshqa struktur tuzilishga ega terminlardan ko‘p. Bu holat tibbiy soha termin tizimiga ham tegishli.

Birikma terminlar boshqa murakkab lug‘aviy birliklar singari ikki va undan ortiq leksik birliklarning sintaktik birikuvidan tarkib topadi. Birikma tibbiy terminlar O‘TILda keltirilmagan. Tibbiy terminologiyada keng tarqalgan struktur tur sifatida bu kabi terminlar tibbiyot terminlarining maxsus izohli lug‘atlaridan o‘rin olganligini ko‘rish mumkin. O‘TILning keyingi nashrlarida qaysidir bosh so‘zning lug‘at maqolasi tarkibida bunday tibbiy terminlarni keltirish o‘rinli deb hisoblaymiz.

Aytib o‘tish kerakki, tibbiy terminosistemada ko‘p uzvli birikma terminlarning bosh harflaridan iborat qisqartma tibbiy terminlar ham mavjud. Ammo O‘TILda qisqartma tibbiy terminlar berilmagan. Bundan tashqari, ko‘p yillik taraqqiyot tarixiga ega bo‘lgan tibbiyot terminologiyasida familiyaviy terminlar ham uchraydi. Bu kabi shakldagi tibbiy terminologik birliklar ham lug‘atda keltirilmaganligi bois tahlilga tortilmadi.

Xulosa qilib aytganda, shakliy-struktur jihatdan xilma-xil bo‘lgan tibbiy terminologiyaning sodda, qo‘shma, gibrid turlariga mansub birliklari O‘TILda keltirilgan bo‘lib, ularning struktur xususiyatiga oid ma’lumotlar bu tahlilimiz uchun asos vazifasini o‘tadi. Ammo aytish kerakki, bunday ma’lumotlarning berilishida bir xillik kuzatilmaydi. Birgina *-it* qo‘shimchasining qo‘shilishi yordamida yasalgan so‘zlarnign shakliy tarkibiga oid keltirilgan ma’lumotlar so‘zimizni isbotlaydi. Ba’zi so‘zlarda *-it* affiksi yordamida yasalganlik keltirilgan, ayrimlarida esa yo‘q. Terminelementlar orqali yasalish ma’lumotlari keltirilishida ham xuddi shu holatni kuzatish mumkin. O‘TILning keyingi nashrlarida bu fikrlarni inobatga olish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Даниленко В.П. Об одной модели терминов-словосочетаний // Научно-техническая терминология. – М., 1979. № 10. – С. 11-12.
2. Валиев Т.Қ. Ўзбек тили йўлсозлик терминларининг структур-семантик хусусиятлари ва лексикографик талқини: Филол. фан. фалс. докт. (PhD) … дисс. – Самарқанд, 2018; Мирзаҳмедова Х.В. Форс тили транспорт терминларининг структур қатламлари ва ясалиш усуллари: Филол. фан. фалс. докт. (PhD) … дисс. автореф. – Тошкент, 2017. – Б. 15-16.
3. Горьков Ю.В. Словообразовательные парадигмы имен существительных в медицинской терминологии: Дисс. … канд. филол. наук. – Самарканд, 1993. – С. 6.
4. Реформацкий А.А. Что такое термин и терминология? // Вопросы терминологии. – М., 1961. – С. 122.
5. Горьков Ю.В. Словообразовательные парадигмы имен существительных в медицинской терминологии: Дисс. … канд. филол. наук. – Самарканд, 1993. – С. 12.

TIBBIY TERMINLARNING TUZILISH XUSUSIYATI

Buronova Xolida Toshtemirovna
O‘zMU Jizzax filiali assistenti
Tolipova Odina Husan qizi
O‘zMU Jizzax filiali talabasi
xolly8987@gmail.com

Annotatsiya: Fan-texnikaning butun dunyoda umumiy bo‘lgan turlari uchun ushbu sohalar tillari rivojida o‘ziga xoslikka sabab bo‘ladi: soha terminologiyasi genetik, struktur jihatdan milliy tilga to‘liq xos bo‘lmagan, ammo uning elementlarini o‘zida aks ettirgan holda rivojlanib boradi. Bu fikrning yaqqol dalili sifatida tadqiq qilayotganimiz – tibbiyot terminologiyasining shakliy-struktur xususiyatlari alohida o‘rganish talab qiladigan lingvistik o‘ziga xoslikka ega.

Kalit so‘zlar: termin, formal struktura, sodda termin, qo‘shma termin, juft termin, takroriy termin, yasama termin, tub termin.

Аннотация: Для распространенных во всем мире видов науки и техники это обуславливает специфическое развитие языков этих областей: терминология данной области развивается не полностью генетически и структурно, свойственно национальному языку, а отражает его элементы. В качестве наглядного доказательства этой идеи мы рассматриваем формально-структурные особенности медицинской терминологии, обладающие лингвистической спецификой, требующей отдельного изучения.

Ключевые слова: термин, формальная структура, простой термин, составной термин, парный термин, повторяющийся термин, искусственный термин, корневой термин.

Abstract: For types of science and technology that are common throughout the world, this causes a specific development in the languages of these fields: the terminology of the field develops, not genetically and structurally completely characteristic of the national language, but reflecting its elements. As a clear proof of this idea, we are studying the formal-structural features of medical terminology, which have a linguistic specificity that requires separate study.

Keywords: term, formal structure, simple term, compound term, pair term, repeated term, artificial term, root term.

Avvalo, tibbiy terminologiyaning davriy qiyosiy tahlili tibbiy terminlarning soha taraqqiyoti bilan aloqadorlikda farqli ekanini kuzatish mumkin. Ya’ni qadimgi tibbiyotda mavjud terminlar insoniyatning tibga doir bilimlari doirasida hozirgiga nisbatan ancha tor doirada bo‘lgan, masalan, inson tana tuzilishi haqidagi fan –anatomiyaga doir terminlar umumiy bo‘lgan. Chuqur izlanishlar, texnika asri afzalliklari sifatida kashf etilgan tibbiyotdagi yangiliklar bugungi kun terminologiyasini boyitgani shubhasiz.

Terminologiyaning boyib borishi tilshunoslik uchun ham til uchun ham ahamiyatli hodisadir. Termin yoki terminologiyaning u yoki bu masalasini hal etish fan va texnikaing

muayyan sohalari uchungina emas, tilshunoslik uchun ham ahamiyat kasb etadi. Xususan, so‘z ketayotgan termin tushunchasining o‘zi ham bahsli masala bo‘lib kelayotgani so‘zimizning isboti bo‘ola oladi. Termin muammosi nazariy jihatdan ancha tadqiq etilganiga qaramay, uning ta’rifi, termin va termin bo‘lmagan so‘zlar o‘rtasidagi farqli jihatlar, terminning tarkibiy xususiyatlari kabi masalalar yuzasidan umumiy tilshunoslikda ham, xususan, o‘zbek tilshunosligida ham yagona to‘xtamga kelinmagan.

Terminga berilgan ta’rif masalasining o‘zida bahsli o‘rinlar mavjud. Mazkur tushunchaning o‘zi bir qator ta’riflarga ega. Terminning nominativligini yoxud definitiv xususiyatini alohida ajratib ko‘rsatuvchi ta’riflarni uchratish mumkin. Terminning atash, nomlash xususiyatini birlamchi xususiyat sifatida keltirib, Vinokur G.O.: “Terminning maxsus vazifasi, avvalo, atashdir”,[1.6] – deya mulohaza yuritadi. Reformatskiy A.A., Danilenko V.P. kabi tilshunoslar esa terminning definitivligi – aniqlovchilik xususiyatini, uning tushuncha bilan aloqadorligini alohida ajratib ko‘rsatadi; terminga oddiy so‘zdan farqli ravishda mantiqiy ta’rif vositasi sifatida qaraydi.[2.11] Leksikologik tadqiqotlarda terminga qo‘llanish doirasi chegaralangan leksik birlik sifatida qarash yetakchilik qiladi. Tilshunoslarning ko‘pchiligi[3.5] esa termin tilning leksik qatlamidagi boshqa birliklar kabi teng huquqli a’zo ekanini ta’kidlaydi. Termin va so‘z o‘rtasida shaklan va mazmunan ularni farqlovchi qat’iy chegara mavjud emas, termin so‘zning alohida turidir. Uning asosiy xususiyati shundan iboratki, u fan, texnika va madaniyatning biror sohasida muayyan tushunchani aniq ifoda etadi, maxsus funksiya barjaradi.[3.145] Terminologik sistemalar yagona lisoniy sistema doirasida paydo bo‘ladi, rivojlanadi, shu til sistemasi qonuniyatlariga amal qiladi. Til hodisalarining birortasi terminga begona emas.[4.3]

“O‘zbek tili texnik terminologiyasining ayrim masalalari” nomli tadqiqot muallifi, tilshunos olim R.Doniyorov terminlarning shakliy tuzilish jihatdan tasnifini o‘ziga xos tarzda amalga oshirganini ko‘rish mumkin. Tilshunos olim birdan ortiq leksik uzvdan tarkib topgan terminlarga sintaktik usulda hosil bo‘lgan terminlar sifatida qaraydi. Boshqa tillarda bo‘lgani kabi muhim nominativ manba hisoblangan bunday tipdagi terminlar o‘zbek tili terminologik sistemalarida salqmoqli o‘rinni egallaydi. Doniyorovning terminlarning formal-struktur xususiyatiga oid bunday fikr bildirishining metodologik asosida esa: “Bilish jarayonida ma’lumotlarni mustahkamlashda so‘zdan iborat to‘siq birikmalar orqali bartaraf etiladi”, [5.97]– degan qarashi yotadi.

Texnik soha terminlarini R.Doniyorov o‘z tadqiqotida sintaktik usulda hosil bo‘lgan ot+ot, nisbiy sifat+ot, sifatdosh+ot, jarayon nomi+ot tipidagi ko‘rinishlarga ajratadi. Olim, shuningdek, ot+ot ko‘rinishidagi terminlarni I tip izofali, II tip izofali, III tip izofali turlarga bo‘lgan. Bu kabi terminlar yasalishi jihatidan sintaktik usul bilan yasalgan terminlar sifatida, tuzilishi jihatdan esa qo‘shma terminlar sifatida baholangan.[6.148] R.Doniyorov amalga oshirgan texnik terminlar tasnifida ayrim e’tiborga molik jihatlar mavjud. Olim sintaktik usul bilan hosil bo‘lgan terminlarning qoliplarini ayrim hollarda morfologik (masalan, ot+ot), ba’zi hollarda semantik (jarayon nomi+ot) mezon asosida belgilaydi. Shuningdek, bunday terminlar sirasida fe’l turkumiga mansublarini ajratmagan. Umuman olganda, olim tomonidan texnik terminlar sodda va qo‘shma kabi turlarga ajratilgan.

Shakliy tasnif jarayonida sodda va qo‘shma terminlarni farqlash mumkin. Tilshunoslikda tasnifdagi “qo‘shma” so‘ziga sinonim sifatida “murakkab” so‘zi ham ishlatiladi. Ammo murakkab termin deyilganda nafaqat shakl, balki mazmuniy murakkablik ham tushunilishi mumkin. Aslida murakkab deyilganda komponentlar miqdori nazarda tutiladi. Birdan ortiq tarkibiy qismlardan tashkil topgan har qanday termin murakkab deyiladigan bo‘lsa, qo‘shma terminlar ham murakkab termin tushunchasi tarkibiga kirib qoladi. Ammo qo‘shma termin birdan ortiq so‘zning leksik uyg‘unlashuvi hamda natijada yaxlit lug‘aviy birlikning hosil bo‘lishidir. Shu sababdan “murakkab termin”ni sintaktik aloqa yordamida hosil qilinadigan terminlarga nisbatan qo‘llash maqsadga muvofiq.

N.Qosimov birdan ortiq komponentli ilmiy-texnik terminlarni qo‘shma, juft va gibrid kabi turlarga ajratadi.[7.47] “Gibrid qo‘shma terminlarda asosan baynalmilal terminelementlar sifatida

grekcha va lotincha prefiksal xarakterdagi bog‘liq morfemalar ishtirok etadi. Masalan, avtosanoat, aerofotosurat, gidrotuzlar, ultratovush singari gibrid qo‘shma terminlarning birinchi komponentlari (avia-, aero-, gidro-, ultra-) ana shunday internatsional terminelementlar, ikkinchi komponentlari esa o‘zbekcha so‘zlardir”. Fikrimizcha, gibrid terminlardagi ikkinchi komponent har doim ham o‘zbekcha so‘zlar bo‘lavermaydi. N.Qosimov tadqiqotida juft terminlar ham ajratilgan. Uning fikricha: “Ikki mustaqil leksik ma’noli komponentlarning teng bog‘lanishi asosida tashkil topib, umumlashtirish, jamlik kabi ma’nolarni ifodalovchi so‘z – juft termin. Juftlashuvchi qismlar orasidagi tenglik munosabati yozuvda defis bilan ko‘rsatiladi. Talaffuzda bu qismlar teng fonetik cho‘qqiga ega bo‘ladi, ayni vaqtda ikkinchi yagona leksik urg‘u yordamida leksema bo‘lib birlashadi”.[8.68] Kitobda *elektron-optik, zichlagich-planka, to‘qima-trikotaj, universal-chopiq* kabi terminlar juft terminlar sifatida qayd etilgan. Juft terminlar tibbiyot terminologiyasida mavjud. Ammo bu shakldagi terminlar bizning tadqiqot obektimizda keltirilmagan.

Komponentlariga ko‘ra murakkab terminlarning “birikmali termin” shaklida qo‘llanishi kuzatiladi. Sintaktik aloqa asosida hosil bo‘lgan ushbu terminlarni umumiy nom ostida atash uchun qo‘llanadigan “birikmali termin” tushunchasi strukturasida mavjud g‘alizlik sababli T.Valiyevning “O‘zbek tili yo‘lsozlik terminlarining struktur-semantik xususiyatlari va leksikografik talqini” deb nomlangan doktorlik dissertatsiyasi hamda fors tilidagi transport terminlarining struktur tuzilishi va yasalishi muammosini o‘rgangan X.Mirzahmedovaning tadqiqotlarida “birikma termin” atamasi qo‘llanganini ko‘rishimiz mumkin.[9.15]

Umuman olganda, tibbiy terminlarning struktur xususiyatlarini tadqiq qilishda umumiy holda quyidagi guruhlarga ajratish mumkin:

1) sodda;
2) qo‘shma;
3) gibrid;
4) birikma.

O‘zbek tilining ikki tomli va besh jildli izohli lug‘atlaridan o‘rin olgan tibbiy terminlar orasida shakliy xususiyatiga ko‘ra yuqorida keltirilgan qo‘shma termin guruhiga kiruvchi birliklar milliy terminlar misolida ham, chet tili misolida ham mavjud. Ayrim chalkashliklarni keltirib chiqarishi mumkin bo‘lsa-da, har ikkala turdagi terminlarni qo‘shma termin sifatida tahlilga tortish o‘rinli deb bildik.

Quyida O‘TILda mavjud tibbiy terminlarning yuqorida ko‘rsatilgan har bir struktur turini izohlaymiz.

Sodda terminlar. Bir asosli birliklar, ular yaxlit shakliy hamda semantik tuzilishga ega.

O‘zbek terminosistemasida mavjud tibbiyotga oid sodda terminlarni tarkibiga ko‘ra quyidagi ikki guruhga ajratish mumkin: sodda tub terminlar; sodda yasama so‘z shaklidagi terminlar. Ushbu struktur xususiyat o‘z va o‘zlashgan qatlam birliklari uchun alohida tahlil qilinishi maqsadga muvofiq, aslida. Ammo bu tahlil tibbiyot tili hisoblangan lotin va yunon tillariga oid lingvistik xususiyatlarni bilishni taqozo etadi. Tibbiy terminlarning maxsus izohli lug‘atini tuzishda mazkur jihat inobatga olinishi shart. Tadqiqot obektimiz bo‘lgan O‘TILda keltirilgan terminlarning sodda tub yoki sodda yasama birlik ekaniga oid ma’lumotlarni har bir terminning lug‘at maqolasida yasalishga oid keltirilgan ma’lumot asosidagina ayrim tahlillarini keltirib o‘tamiz.

Quyida ikkala izohli lug‘atda ham keltirilgan o‘z qatlam birliklari shakliy xususiyatiga ko‘ra turlarga ajratilib tahlil qilindi.

5 jildli O‘TILda keltirilgan sodda tub terminlar: *o‘z qatlam: qusish, yara, igna, karash, murtak, tang‘ish, titrash.*

5 jildli O‘TILda keltirilgan sodda yasama terminlar: *xirillash, qaltirama, o‘sma, o‘zgaruvchanlik, qonsizlik, liqildoq, manqalanish, manqalik, soqovlik, terlama*.

2 tomli O‘TILda keltirilgan sodda tub terminlar: *buqoq, yopishish, karash, ko‘kyo‘tal*.

2 tomli O‘TILda keltirilgan sodda yasama terminlar: *bo‘g‘ma, tepki, o‘sma.*

Terminologik so‘z yasalishi, shuningdek, tibbiyot terminologiyasida so‘z yasalish hodisasi alohida e’tiborga molik hodisa. Ixtiyoriy terminologiyaning o‘ziga xosliklaridan biri uning so‘z yasalishida namoyon bo‘ladi.[10.6] Bu haqda Reformatskiy ham: “Terminologiyaning o‘ziga xosligini ko‘rsatishning eng oson yo‘li so‘z yasalishidir”,[11.122] – deya mulohaza yuritadi. Gorkovning tadqiqotida, avvalo, tub va yasama so‘zlarning so‘z yasalish paradigmasi tavsiflanadi. Yu.V.Gorkovning fikriga ko‘ra, tibbiy terminologiyada so‘z yasalishi uyalarini tahlil qilish so‘z yasalish paradigmasi uchun umumiylik sifatida tadqiq qilinadi. Bu metodika zamirida bitta g‘oya yotadi: so‘zni boshqaruvchi uyalar (uyadosh birlilar)dagi so‘z yasalish paradigmalari bitta mavzuiy yoki leksik-semantik so‘z guruhiga aloqador bo‘ladi. Bunday birliklar bir xil strukturaga ega va bir tipdagi paradigmaga mansub bo‘ladi. Ishda tibbiy terminologiyadagi otlarning so‘z yasalish uyasining paradigmatik qurilishi va so‘z turkumiga oid tuzilishi to‘liq tavsiflangan.[12.12]

Yuqorida keltirilgan pometali tibbiy terminologik birliklardan tashqari barcha o‘zlashma terminlar agar lug‘at maqolasida yasalganlik keltirilmagan bo‘lsa, sodda termin sifatida qaraldi.

Qo‘shma terminlar. Ikki yoki undan ortiq asosning qo‘shilishi natijasida yasalgan va bir lug‘aviy ma’noni anglatadigan terminlar.

Ushbu yasalish qoidasi asosida hosil bo‘lgan bu struktur turga oid tibbiy terinlar o‘z qatlam asosida tahlil qilindi.

5 jildli O‘TILda keltirilgan qo‘shma terminlar: *ko‘kyo‘tal, ko‘richak, suvchechak.*

2 tomli O‘TILda keltirilgan qo‘shma terminlar: *ko‘kyo‘tal, qoqshol.*

Gibrid terminlar. Terminelementlar yordamida hosil bo‘lgan tibbiy terminlar.

O‘TILda ushbu terminlar yun+lot, lot+yun uslubiy belgisi orqali berilgan.

5 jildli O‘TILda berilgan terminlar: *osteomielit, parametrit, paraproktit, paratit, pielit, pielonefrit, plevrit, proktit, ensefalit, ensefalogramma* kabi birliklar *yunon+lotin* tuzilishidagi tibbiy terminlar bo‘lsa, *fibroma, letargiya, peritonit* birliklari *lotin+yunon* shaklidagi terminlardir. sifatida berilgan.

Barcha terminosistemalarda birikma terminlar miqdor jihatdan boshqa struktur tuzilishga ega terminlardan ko‘p. Bu holat tibbiy soha termin tizimiga ham tegishli.

Birikma terminlar boshqa murakkab lug‘aviy birliklar singari ikki va undan ortiq leksik birliklarning sintaktik birikuvidan tarkib topadi. Birikma tibbiy terminlar O‘TILda keltirilmagan. Tibbiy terminologiyada keng tarqalgan struktur tur sifatida bu kabi terminlar tibbiyot terminlarining maxsus izohli lug‘atlaridan o‘rin olganligini ko‘rish mumkin. O‘TILning keyingi nashrlarida qaysidir bosh so‘zning lug‘at maqolasi tarkibida bunday tibbiy terminlarni keltirish o‘rinli deb hisoblaymiz.

Shakliy-struktur jihatdan xilma-xil bo‘lgan tibbiy terminologiyaning sodda, qo‘shma, gibrid turlariga mansub birliklari O‘TILda keltirilgan bo‘lib, ularning struktur xususiyatiga oid ma’lumotlar bu tahlilimiz uchun asos vazifasini o‘tadi. Ammo aytish kerakki, bunday ma’lumotlarning berilishida bir xillik kuzatilmaydi. Birgina *-it* qo‘shimchasining qo‘shilishi yordamida yasalgan so‘zlarning shakliy tarkibiga oid keltirilgan ma’lumotlar so‘zimizni isbotlaydi. Ba’zi so‘zlarda *-it* affiksi yordamida yasalganlik keltirilgan, ayrimlarida esa yo‘q. Terminelementlar orqali yasalish ma’lumotlari keltirilishida ham xuddi shu holatni kuzatish mumkin. Qolaversa, tibbiy terminologiyaning anatomik, klinik, farmatsevtik turlariga mansub birliklar ba’zan *tib.* pometasi bilan birga keltirilgan. Vaholanki, *tib.* pometasi yordamida beriladigan terminlarning umumiy uch guruhi bo‘yicha uslubiy belgining qo‘llanishi bo‘yicha yagona prinsipga amal qilish lug‘at uchun muhim hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Винокур Г.О. О некоторых явлениях словообразования в русской технической терминологии. Труды МИФЛИ. Сборник статей по языковедению. – М., 1969. Т. 5.– С. 6
2. Реформатский А.А. Что такое термин и терминология // Вопросы терминологии. – М., 1961. – С. 47; Даниленко В.П. Лингвистические требования к стандартизуемой терминологии // Терминология и норма. – М., 1972. – С. 11.

3. Виноградов В.В. Вступительное слово на Всесоюзным терминологическом совещании Вопросы терминологии. – М., 1961;
4. Кузькин Н.П. К вопросу о сущности термина // ЛГУ. Серия истории, язык и литературы. – Л., 1962. – Вып. 4. № 20. – С. 145.
5. Винокур Г.О. О некоторых явлениях словообразования в русской технической терминологии. Труды МИФЛИ. Сборник статей по языковедению. – М., 1969. Т. 5. – С. 3.
6. Дониёров Р. Ўзбек тили техник терминологиясининг айрим масалалари. – Тошкент, 1977. – Б. 97.
7. Дониёров Р. Ўзбек тили техник терминологиясининг айрим масалалари. – Тошкент, 1977. – Б. 148.
8. Қосимов Н. Ўзбек тили илмий-техникавий терминологияси масалалари (Сўз ўзлаштириш ва аффиксация масалалари). – Тошкент: Фан, 1985. – Б. 47.
Мирзаҳмедова Х.В. Форс тили транспорт терминларининг структур қатламлари ва ясалиш усуллари: Филол. фан. фалс. докт. (PhD) … дисс. автореф. – Тошкент, 2017. – Б. 15-16.
9. Горьков Ю.В. Словообразовательные парадигмы имен существительных в медицинской терминологии: Дисс. … канд. филол. наук. – Самарканд, 1993. – С. 6.
10. Реформацкий А.А. Что такое термин и терминология? // Вопросы терминологии. – М., 1961. – С. 122.
11. Горьков Ю.В. Словообразовательные парадигмы имен существительных в медицинской терминологии: Дисс. … канд. филол. наук. – Самарканд, 1993. – С. 12.

SURUNKALI GLOMERULONEFRIT KASALLIGIDA YURAK RITMI O‘ZGARISHLARINI TAVSIFLASH UCHUN XALQARO TIBBIY ATAMALARNING QO‘LLANILISHI

Dadaboyev Xayrullo Tolibjon o‘g‘li
Andijon davlat tibbiyot instituti Terapiya yo‘nalishi,
1-bosqich magistratura talabasi
E-mail: dadaboyevxayrullo889@gmail.com]

Annotatsiya: Surunkali glomerulonefrit kasalligida yurak ritmi buzilishlari keng tarqalgan va buyrak faoliyatidagi funksional o‘zgarishlar natijasida elektrolitlar disbalansi yuzaga keladi. Bu yurak mushak hujayralarining elektrofiziologik faoliyatini o‘zgartirib, turli aritmiyalarning rivojlanishiga olib keladi. Bu ishda yurak ritmi o‘zgarishlarini tavsiflash uchun xalqaro tibbiy terminologiyaning qo‘llanishi, elektrokardiografik parametrlar va kardiorenal aloqadorlik statistik tahlillar asosida o‘rganilgan. Shuningdek, O‘zbekiston tibbiy amaliyotida xalqaro atamalarni milliy leksikaga moslashtirish va standartlashtirish masalalari ham yoritilgan. Natijalar bemorlarni monitoring qilish, erta tashxis qo‘yish va klinik tavsiyalar ishlab chiqishda amaliy ahamiyatga ega.

Kalit so‘zlar: Surunkali glomerulonefrit, yurak ritmi buzilishi, aritmiya, elektrolit disbalansi, kardiorenal aloqadorlik, xalqaro tibbiy terminologiya, EKG, klinik monitoring.

Ichak mikrobiotasi yurak-qon tomir salomatligining muhim omillaridan biridir. U tomonidan ishlab chiqariladigan metabolitlar ateroskleroz jarayoniga bevosita ta’sir qiladi. TMAO kabi zararli moddalarning ko‘payishi aterosklerozni tezlashtirsa, qisqa zanjirli yog‘ kislotalari yurakni himoya qiladi. Shu sababli, mikrobiotani sog‘lom saqlash aterosklerozning oldini olishda samarali yondashuv hisoblanadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu maqolani tayyorlashda adabiyotlar tahlili metodidan foydalanildi. PubMed, Scopus, Web of Science va Google Scholar bazalaridan 2010–2024 yillarda chop etilgan maqolalar tanlab olindi. Tanlash mezonlari sifatida “mikrobiota”, “ateroskleroz”, “TMAO”, “QZYK” va “yurak salomatligi” kalit so‘zlari qo‘llanildi. Tadqiqotlar orasidan klinik

sinovlar, eksperimental hayvon modellaridagi izlanishlar va meta-tahlillar ustuvorlik qildi. Ma'lumotlar solishtirildi va umumiy xulosalar chiqarildi.

Natijalar. Tahlillar shuni ko'rsatdiki, ichak mikrobiotasi yurak salomatligiga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatadi. TMAO darajasining oshishi ateroskleroz xavfini ko'paytiradi, QZYK esa yurak mushaklari va qon tomirlarini himoya qiladi. Disbioz sharoitida immun tizimning yallig'lanish javobi kuchayib, ateroskleroz jarayoni tezlashadi. Oziqlanish odatlari mikrobiota tarkibiga bevosita ta'sir qilib, yurak kasalliklari xavfini kamaytirishi yoki oshirishi mumkin. Klinik tadqiqotlarda probiotiklar va prebiotiklar qo'llash ateroskleroz rivojlanishini sekinlashtirishi aniqlangan. Shu bois mikrobiota bilan bog'liq yondashuvlar yurak-qon tomir kasalliklarini oldini olish va davolashda istiqbolli yo'nalish hisoblanadi.

Xulosa. Ichak mikrobiotasi inson organizmining ajralmas qismi bo'lib, yurak salomatligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Mikrobiota tomonidan ishlab chiqariladigan metabolitlar ateroskleroz rivojlanishida muhim rol o'ynaydi. Xususan, TMAO darajasining oshishi yurak kasalliklari xavfini kuchaytirsa, QZYK kabi metabolitlar aksincha, yurakni himoya qiladi. Shu bois mikrobiota yurak-qon tomir kasalliklarining rivojlanishida yangi xavf omili sifatida qaralmoqda.

Aterosklerozga qarshi kurashishda mikrobiota asosidagi yondashuvlar — probiotiklar, prebiotiklar, postbiotiklar va parhez terapiyasi samarali natijalar berishi mumkin. Shuningdek, mikrobiota tarkibini tahlil qilish kelajakda ateroskleroz xavfini erta prognozlash uchun biomarker sifatida qo'llanishi kutilmoqda. Farmatsevtika sanoatida esa TMAO ishlab chiqarilishini cheklovchi yangi dori vositalari ishlab chiqilmoqda.

Biroq, ushbu yo'nalishda qator muammolar mavjud: mikrobiota individual farqlarga ega, klinik sinovlar natijalari har doim ham bir xil emas, va uzoq muddatli xavfsizlik hali to'liq o'rganilmagan. Shunga qaramay, mikrobiota va yurak salomatligi o'rtasidagi bog'liqlik kardiologiyada yangi istiqbolli yondashuvlarni ochmoqda.

Xulosa qilib aytganda, mikrobiota yurak-qon tomir kasalliklarida profilaktika va davolashning yangi nishoni sifatida qaralmoqda. Kelajakda ushbu yo'nalish bo'yicha ko'proq fundamental va klinik tadqiqotlar o'tkazilishi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Tang W. H. W. et al. Intestinal microbial metabolism of phosphatidylcholine and cardiovascular risk. *New England Journal of Medicine*, 2013.
2. Karlsson F. H. et al. Symptomatic atherosclerosis is associated with an altered gut metagenome. *Nature Communications*, 2012.
3. Cani P. D. et al. Gut microbiota at the intersection of diet and health. *Science*, 2019.
4. Wang Z. et al. Gut flora metabolism of phosphatidylcholine promotes cardiovascular disease. *Nature*, 2011.
5. Kasahara K., Rey F. E. The emerging role of gut microbiota in cardiovascular disease. *Journal of Cardiology*, 2019.
6. Jie Z. et al. The gut microbiome in atherosclerotic cardiovascular disease. *Nature Communications*, 2017.
7. Koeth R. A. et al. Intestinal microbiota metabolism of L-carnitine, a nutrient in red meat, promotes atherosclerosis. *Nature Medicine*, 2013.
8. Marques F. Z. et al. The gut microbiome and hypertension. *Current Opinion in Nephrology and Hypertension*, 2018.
9. Li J. et al. Gut microbiota dysbiosis contributes to the development of hypertension. *Microbiome*, 2017.
10. Brown J. M., Hazen S. L. The gut microbial endocrine organ: TMAO as a modulator of cardiovascular risk. *Journal of Clinical Investigation*, 2014.
11. Kobyliak N. et al. Probiotics and cardiovascular diseases. *BioMed Research International*, 2016.

12. Wu G. D. et al. Linking long-term dietary patterns with gut microbial enterotypes. *Science*, 2011.
13. Zhernakova A. et al. Population-based metagenomics analysis reveals markers for gut microbiome composition and diversity. *Science*, 2016.
14. Kasahara K. et al. Interactions between the gut microbiome and host lipid metabolism. *Nature Reviews Cardiology*, 2018.

SHIFOKOR VA BEMOR O‘RTASIDAGI TIL: ILMIY YONDASHUV VA EMPATIYA

Nasirova Saodathon
Qo`qon Universiteti Andijon filiali tibbiyot fakulteti
“Davolash ishi yonalishi” 2-kurs 24-11-guruh talabasi
E-mail: nasirovasaodat@gmail.com tel:
Abduraxmonova Dilrabo Bahodirovna
E-mail: dilrabo1090@gmail.com tel:

Annotation. Effective communication between doctors and patients plays a crucial role in the quality of healthcare services. This paper explores how medical terminology and empathetic communication can be balanced to improve patient understanding and trust. It highlights the importance of using a scientifically accurate yet patient-friendly language, and discusses strategies for enhancing communication skills among healthcare professionals. The study also examines the impact of empathy on treatment outcomes and patient satisfaction.

Keywords: doctor-patient communication, medical terminology, empathy, healthcare communication, patient understanding, clinical communication, health literacy, patient-centered care, communication skills, medical ethics

Annotatsiya. Shifokor va bemor o‘rtasidagi samarali muloqot tibbiy xizmatlar sifati uchun juda muhim hisoblanadi. Ushbu maqolada tibbiy terminologiyani to‘g‘ri qo‘llash va empatiya asosida muloqot yuritish orqali bemorning kasallikni tushunishi va shifokorga bo‘lgan ishonchini qanday oshirish mumkinligi o‘rganiladi. Ilmiy aniq, ammo bemor uchun tushunarli tilda so‘zlashish zarurligi ta’kidlanadi hamda tibbiyot xodimlari uchun kommunikatsiya ko‘nikmalarini rivojlantirish strategiyalari tahlil qilinadi. Shuningdek, empatiyaning davolash natijalari va bemor qoniqishiga ta’siri ham ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar: shifokor va bemor muloqoti, tibbiy terminologiya, empatiya, sog‘liqni saqlashda kommunikatsiya, bemor tushunishi, klinik muloqot, tibbiy savodxonlik, bemor markazli yondashuv, aloqa ko‘nikmalari, tibbiy etika.

Аннотация. Эффективная коммуникация между врачом и пациентом имеет решающее значение для качества медицинского обслуживания. В данной работе рассматривается, как можно сбалансировать использование медицинской терминологии и эмпатичного общения для улучшения понимания пациентом своего состояния и укрепления доверия. Подчеркивается важность использования научно точного, но доступного языка, а также обсуждаются стратегии развития коммуникативных навыков у медицинских работников. Также исследуется влияние эмпатии на результаты лечения и удовлетворенность пациентов.

Ключевые слова. врач-пациент коммуникация, медицинская терминология, эмпатия, коммуникация в здравоохранении, понимание пациента, клиническое общение, медицинская грамотность, ориентированность на пациента, коммуникативные навыки, медицинская этика.

Kirish. Zamonaviy tibbiyotda bemor bilan samarali muloqot o‘rnatish sog‘liqni saqlash xizmatlarining ajralmas qismiga aylangan. Shifokor va bemor o‘rtasidagi aloqa nafaqat tashxis va davolash jarayonining muvaffaqiyatiga, balki bemorning kasallikka munosabati, ishonchi va umumiy qoniqish darajasiga ham bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Tibbiy terminologiyaning murakkabligi ko‘plab bemorlar uchun to‘siq bo‘lib xizmat qiladi, bu esa noto‘g‘ri tushunishlar va noaniqliklarga olib keladi. Shu sababli, tibbiy bilimlarni oddiy va tushunarli tilda yetkazish, ilmiy

yondashuv bilan birga empatiyani uyg‘unlashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu maqolada shifokor va bemor o‘rtasidagi kommunikatsiya jarayonida ilmiy asoslangan muloqot hamda insoniylik — ya’ni empatiya muvozanatini ta’minlashning dolzarb jihatlari tahlil qilinadi.

Tibbiy kommunikatsiya — bu shifokor va bemor o‘rtasida axborot almashinuvi orqali sog‘liqni saqlash jarayonlarini yo‘lga qo‘yish san’atidir. U tashxis qo‘yish, davolashni rejalashtirish va bemorning sog‘lig‘i haqida tushuncha hosil qilishda asosiy vosita hisoblanadi. Zamonaviy tadqiqotlar shuni ko‘rsatmoqdaki, bemor bilan to‘g‘ri va ochiq muloqotda bo‘lgan shifokorlar ko‘proq ishonch qozonadi, ularning davolash samaradorligi yuqori bo‘ladi hamda bemorlar ko‘rsatmalarni aniqroq bajaradilar.

Tibbiy aloqa faqat axborot yetkazish emas, balki bemorni ruhiy jihatdan qo‘llab-quvvatlash, uning xavotirlarini kamaytirish va ishonchli muhit yaratishni ham o‘z ichiga oladi. Ayniqsa, surunkali yoki og‘ir kasalliklarda shifokorning empatik yondashuvi bemorning hissiy holatiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi va bu holat klinik natijalarga ham ta’sir qilishi mumkin.

Tibbiy terminologiya — bu shifokorlar va boshqa sog‘liqni saqlash mutaxassislari o‘rtasida ilmiy aniq muloqotni ta’minlaydigan atamalar tizimidir. Biroq, aynan shu ilmiylik ba’zida bemor bilan muloqotni murakkablashtiradi. Oddiy fuqaro uchun tushunarsiz bo‘lgan atamalar, qisqartmalar yoki lotincha iboralar noto‘g‘ri talqin qilinishi yoki xavotir uyg‘otishi mumkin.

Shu sababli, shifokorlar tibbiy terminlarni soddalashtirib, oddiy, ammo to‘g‘ri tilda izohlash ko‘nikmasiga ega bo‘lishlari zarur. Masalan, "gipertoniya" so‘zi o‘rniga "qon bosimining yuqoriligi" deb tushuntirish, yoki "miokard infarkti" o‘rniga "yurak xuruji" degan iboradan foydalanish bemor uchun ancha tushunarli bo‘ladi.

Asosiy qism. Tibbiy xizmatlar samaradorligi nafaqat texnologik rivojlanish yoki shifokorning bilim darajasiga, balki bemor bilan o‘rnatilgan muloqot sifatiga ham bog‘liqdir. Tibbiy kommunikatsiya — bu ikki tomonlama jarayon bo‘lib, unda shifokor axborotni yetkazadi, bemor esa uni qabul qiladi, tushunadi va unga javob qaytaradi. Bunda nafaqat so‘zlar, balki tana tili, ovoz ohangi, yuz ifodalari va tinglash ko‘nikmalari ham muhim rol o‘ynaydi.

Yaxshi tashkil etilgan kommunikatsiya bemorning kasallikni tushunishiga, davolash tartibiga rioya qilishiga va shifokorga bo‘lgan ishonchining ortishiga olib keladi. Aksincha, noto‘g‘ri yoki noaniq muloqot tashxisda kechikish, noto‘g‘ri davolash va bemor norozi bo‘lishi kabi salbiy oqibatlarga sabab bo‘lishi mumkin.

Tibbiy terminologiya — shifokorlar va tibbiy xodimlar o‘rtasida aniq va qisqa aloqa o‘rnatish imkonini beruvchi maxsus til tizimidir. Biroq bu terminlar ko‘p hollarda bemorlar uchun tushunarsiz bo‘ladi. Shifokor tomonidan tibbiy atamalarni izohlamasdan yoki soddalashtirmasdan qo‘llash bemorda chalkashlik, tashvish yoki noto‘g‘ri tushunishga olib keladi.

Tadqiqotlarga ko‘ra, ko‘plab bemorlar o‘zlariga qo‘yilgan tashxisni yoki tavsiya etilgan davolash usullarini to‘liq tushunmaydi. Bu esa sog‘lom qaror qabul qilishga xalaqit beradi. Shuning uchun shifokorlar ilmiy terminologiyani oddiy, sodda va bemorga moslashtirilgan tilda tushuntira olish ko‘nikmasiga ega bo‘lishlari zarur.

Empatiya — bu boshqa insonning hissiyotlarini tushunish va unga hamdard bo‘lish qobiliyatidir. Tibbiyotda empatiya bemorga nafaqat jismoniy, balki ruhiy yengillik beruvchi omil sifatida katta ahamiyatga ega. Empatik yondashuv bemorning o‘zini tushunilgan va qadrlangan his qilishiga sabab bo‘ladi, bu esa shifokorga nisbatan ishonchni oshiradi va davolashga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Klinik amaliyotda empatiya faqat hissiy javob emas, balki muloqot orqali ifoda etiladigan aniq harakatdir. Masalan, bemorning dardini sabr bilan tinglash, uni so‘zini bo‘lmasdan kutish, ko‘zni ko‘zga qaratib gaplashish — bularning barchasi empatik munosabatning unsurlaridir.

Tibbiy oliy ta’lim muassasalarida faqat nazariy bilim emas, balki shifokorlarning muloqot ko‘nikmalarini shakllantirish ham dolzarb masalalardan biridir. Shifokorlar bemor bilan samarali aloqa o‘rnatish, tibbiy terminlarni izohlash, empatiyani ifodalash va murakkab axborotni soddalashtirib yetkazish bo‘yicha maxsus treninglardan o‘tishlari zarur.

Zamonaviy tibbiyotda "soft skills" — ya’ni shaxslararo muloqot, empatiya, tinglash va liderlik kabi ko‘nikmalar texnik bilimlar qatorida muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababli tibbiy ta’limda kommunikatsion kompetensiyalarni shakllantirishga e’tibor kuchaymoqda.

Ko‘p millatli jamiyatlarda shifokor va bemor o‘rtasidagi til va madaniyat farqlari ham kommunikatsiyani murakkablashtirishi mumkin. Bunday holatlarda nafaqat tarjima, balki madaniyatga xos muloqot uslublarini ham hisobga olish kerak. Masalan, ayrim bemorlar ochiqchasiga savol berishdan tortinishi mumkin, ba’zilari esa shifokorning aytganini muqaddas haqiqat deb qabul qilib, qo‘shimcha ma’lumot so‘rashga jur’at etmasligi mumkin.

Shuning uchun har bir bemor individual yondashuvni, madaniy kontekstni hisobga olgan holda tushunarli va empatik muloqotni talab qiladi.

Xulosa. Shifokor va bemor o‘rtasidagi muloqot tibbiy xizmatlar sifatining ajralmas tarkibiy qismi bo‘lib, uning to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilishi tashxis qo‘yish, davolash va profilaktika jarayonlarining muvaffaqiyatli amalga oshirilishiga bevosita ta’sir qiladi. Tibbiy terminologiyaning murakkabligi bemorlar tomonidan noto‘g‘ri tushunilishiga olib kelishi mumkin, bu esa sog‘liq uchun salbiy oqibatlar tug‘diradi. Shu sababli, ilmiy asoslangan, ammo oddiy va tushunarli tilda muloqot qilish shifokorlarning muhim vazifasidir.

Shuningdek, empatiya tibbiy aloqa jarayonining muhim komponenti sifatida shifokor va bemor o‘rtasida ishonchli muhitni shakllantiradi. Empatik yondashuv bemorning ruhiy holatini yengillashtiradi, davolashga bo‘lgan motivatsiyasini oshiradi va umumiy sog‘ayish jarayoniga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Zamonaviy tibbiyotda nafaqat klinik bilim va texnologiyalar, balki kuchli kommunikatsion ko‘nikmalar va insonparvar yondashuv ham shifokor kasbining ajralmas jihatiga aylanishi zarur. Shuning uchun tibbiy ta’lim tizimida kommunikatsiya va empatiya madaniyatini shakllantirishga alohida e’tibor qaratish lozim.

Shifokor va bemor o‘rtasidagi samarali muloqot sog‘liqni saqlash jarayonining muvaffaqiyat kalitidir. Ilmiy tibbiy terminologiyaning to‘g‘ri va bemor uchun tushunarli tarzda taqdim etilishi, shuningdek, empatiya asosida olib boriladigan muloqot bemorning kasallikni yaxshiroq tushunishi va shifokorga bo‘lgan ishonchini mustahkamlashiga yordam beradi. Bemor markazli yondashuv orqali shifokorlar nafaqat tashxis va davolashni, balki bemorning hissiy ehtiyojlarini ham qondira oladi.

Empatiya va kommunikatsiya ko‘nikmalarining rivojlanishi tibbiyot sohasida sifatli xizmat ko‘rsatishning ajralmas qismiga aylangan. Shuning uchun tibbiy ta’lim va amaliyotda ushbu jihatlarga alohida e’tibor qaratish, shifokorlarning bemor bilan to‘g‘ri va samimiy muloqot o‘rnatish qobiliyatini oshirish muhimdir. Bu esa o‘z navbatida bemorlarning sog‘liq holatini yaxshilashga va tibbiy xizmatlarga bo‘lgan ishonchni oshirishga xizmat qiladi.

Shifokor va bemor o‘rtasidagi til — bu faqat axborot almashish vositasi emas, balki ishonch, hurmat va insoniylik asosidagi munosabatlarning shakllanishi demakdir. Tibbiy terminologiyani bemorning tushunish darajasiga moslashtirish va empatiyani qo‘shish orqali muloqot samaradorligi oshadi, bu esa davolash jarayonining muvaffaqiyatiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri ta’sir qiladi.

Shifokorlarning kommunikatsiya ko‘nikmalarini rivojlantirish va empatiyani amaliyotga joriy etish sog‘liqni saqlash tizimining sifatini yaxshilashga xizmat qiladi. Shu sababli, tibbiy ta’lim va amaliyotda bu yo‘nalishga e’tibor kuchaytirilishi, har bir bemorga individual yondashuv asosida tushunarli va samimiy muloqot tashkil etilishi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Silverman, J., Kurtz, S., & Draper, J. (2013). *Skills for Communicating with Patients*. CRC Press.
2. Roter, D. L., & Hall, J. A. (2006). *Doctors Talking with Patients/Patients Talking with Doctors: Improving Communication in Medical Visits*. Praeger Publishers.
3. Levinson, W., Lesser, C. S., & Epstein, R. M. (2010). Developing physician communication skills for patient-centered care. *Health Affairs*, 29(7), 1310-1318.

4. Введенская, Н. С. (2015). *Медицинская коммуникация: теория и практика*. Москва: Издательство «Медицина».
5. Аҳмадов, Ш. (2018). Шифокор ва бемор ўртасидаги коммуникатив муносабатлар. *Тиббий коммуникациялар журнали*, 3(1), 15-22.
6. Stewart, M., Brown, J. B., Weston, W. W., McWhinney, I. R., McWilliam, C. L., & Freeman, T. R. (2014). *Patient-Centered Medicine: Transforming the Clinical Method*. CRC Press.
7. Silverman, J. (2006). *Interpersonal Communication in Clinical Practice*. BMJ Publishing Group.
8. Hall, J. A., & Roter, D. L. (2002). *Patient-centered communication*. In *Handbook of Communication in Medicine and Health Care* (pp. 85-104). Routledge.

VIRUS ETIOLOGIYALI PNEVMONIYA RIVOJLANISHIDA GENETIK POLIMORFIZMLARNING RO'LINI BAHOLASH

O'rinboyev Sarvarbek Oybek o'g'li
Qo'qon Universiteti Andijon Filiali davolash yo'nalishi 2-bosqich talabasi
Komilova Mehrinoz Oybekjon qizi
Andijon davlat tibbiyot instituti 2-akusherlik va ginekologiya kafedrasi assistenti, PhD

Annotatsiya: Ushbu tadqiqotda IL-1b genining rs1143627 polimorfizmining pnevmoniya patogenezi bilan bog'liqligi tahlil qilindi. Pnevmoniya bilan kasallangan bemorlar va sog'lom nazorat guruhida IL-1b genining allel va genotip variantlari real vaqtli PCR usulida o'rganildi. Natijalar T/T genotipining sog'lom donorlar orasida statistik jihatdan ko'proq uchrashini ($p<0,05$) va himoya omili sifatida namoyon bo'lishini ko'rsatdi. T/C genotipi bilan pnevmoniya rivojlanishi o'rtasida bog'liqlik aniqlanmadi ($p>0,05$). C/C genotipi pnevmoniya bilan og'riganlarda ko'proq uchragan bo'lsa-da, statistik ahamiyatli farq kuzatilmadi. Xulosa: IL-1b genining T/T genotipi pnevmoniyaga nisbatan himoya xususiyatiga ega bo'lishi mumkin, C/C genotipi esa kasallikka moyillikni oshiradi

Kalit so'zlar: Polimorfizm, IL-1b geni, genotip, allellar, mutant, sitokin bo'roni.

Аннотация: В данном исследовании проанализирована взаимосвязь полиморфизма rs1143627 гена IL-1b с патогенезом пневмонии. Аллельные и генотипические варианты гена IL-1b были изучены у пациентов с пневмонией и в контрольной группе здоровых доноров методом ПЦР в реальном времени. Результаты показали, что генотип T/T значительно чаще встречался среди здоровых доноров ($p<0,05$), что свидетельствует о его возможной защитной роли. Связи между генотипом T/C и развитием пневмонии не выявлено ($p>0,05$). Хотя генотип C/C чаще встречался у пациентов с пневмонией по сравнению с контролем, статистически значимых различий не обнаружено. Вывод: Генотип T/T гена IL-1b может обладать защитным эффектом против пневмонии, тогда как генотип C/C повышает предрасположенность к заболеванию.

Ключевые слова: полиморфизм, ген IL-1b, генотип, аллели, мутант, цитокиновый шторм.

Abstract: This study analyzed the association of IL-1b gene rs1143627 polymorphism with the pathogenesis of pneumonia. Allelic and genotypic variants of the IL-1b gene were examined in patients with pneumonia and a healthy control group using real-time PCR. The results showed that the T/T genotype was significantly more frequent among healthy donors ($p<0.05$), indicating a potential protective role. No association was found between the T/C genotype and the development of pneumonia ($p>0.05$). Although the C/C genotype was more prevalent among pneumonia patients, the difference was not statistically significant. Conclusion: The T/T genotype of the IL-1b gene may have a protective effect against pneumonia, whereas the C/C genotype may increase susceptibility to the disease.

Keywords: polymorphism, IL-1b gene, genotype, alleles, mutant, cytokine storm.

Kirish. Pnevmoniya – o'pka to'qimasining barcha tarkibiy qismlarini zararlaydigan infeksion-yallig'lanish kasalligi bo'lib, odamlar salomatligi va hayotiga jiddiy tahdid soladigan infeksiya [1]. Pnevmoniyaning kuchayishi odatda simptomlar boshlanganidan keyin bir hafta ichida sodir bo'ladi, bu kasallikning kuchayishi patogenezida tartibga solinmagan yallig'lanish reaktsiyasining rolini ko'rsatadi [4,5]. Hozirgi vaqtda boshqa sitokinlar oilasiga qaraganda IL-1 oilasining roli eng muhim hisoblanadi va u avtoyallig'lanish kasalliklari, yurak-qon tomir kasalliklari spektrida yaxshi o'rganilgan [8]. Kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, IL-1b geni ifodasi past yoki patologik jarayonlar bo'lmaganda aniqlanmaydi, ammo kasallik sharoitida qonda sezilarli darajada oshadi [2]. IL-1b yoki IL-6 genlari og'ir pnevmoniyaning asosiy patologik omillari ekanligi taxmin qilingan va pnevmoniyaning kuchayishi yuqori bo'lgan IL-1b va IL-6 javoblari bilan birlashtirilgan [3]. Bundan tashqari, kasallikdagi giperyallig'lanish holati gemofagotsitik limfogistositozning ayrim jihatlariga o'xshab ketishi aniqlandi, bu holat IL-1b ning terapevtik blokadasi bilan kuchayishi mumkin [7]. Bundan tashqari, eritrotsitlarning cho'kish tezligi klassik CD14 ++ Monositlarda va CD14 ++ IL-1b + kuchli yallig'lanish gen ekspresyoniga ega monositlarda yuqori edi [6]. Ushbu ma'lumotlardan foydalanib, bemorlarda genetik omillarni, xususan, IL-1b genini o'rganish, individual davolash rejalarini ishlab chiqish va kasallikning asoratlari xavfini oldini olishi mumkin.

Tadqiqot maqsadi: IL-1b genining rs1143627 polimorfizmining pnevmoniya patogenezi bilan bog'liqligini tahlil qilish.

Materiallar va tadqiqot usullari. Tadqiqotda IL-1b geni polimorfizmi vaziyatni nazorat qilish modeli yordamida tahlil qilindi. Asosiy guruhga turli darajadagi pnevmoniya bilan kasallangan 110 nafar bemorlar olindi. Ularning 36,4 % ini 18-25 yosh (40), 49,1 % ini 26-35 (54) yoshli ayollar, 14,5 % ini 36 yoshdan (16) oshgan bemorlar tashkil etdi.

Tadqiqotga jalb qilingan bemorlar ikki guruhga bo'lingan: A kichik guruhi - pnevmoniyaning og'ir shakli bo'lgan 70 bemor, B kichik guruhi umumiy simptomlar bilan yengil kasallangan 40 bemordan iborat: isitma, ishtahani yo'qotish, umumiy zaiflik bilan. Nazorat guruhi uchun material sifatida tekshiruvlarda pnevmoniya aniqlanmagan shartli sog'lom 105 nafar donorlardan olingan.

Molekulyar genetik tekshiruv O'zbekiston Respublikasi Gematologiya ilmiy-amaliy markazi negizida "Molekulyar tibbiyot va hujayra texnologiyalari" kafedrasida amalga oshiriladi.

Tekshiruv bir necha bosqichdan iborat bo'lib, dastlab bemorlardan venoz qon namunalari olindi, so'ngra qon namunasidagi limfotsitlardan DNK molekulasi ajratildi, PZR yordamida polimorfizmlar aniqlandi va natijalar aniqlandi. Polimorfizmlar Litex (Rossiya) ko'rsatmalariga muvofiq aniqlandi.

PCR tahlili quyidagi kuchaytirish dasturlariga muvofiq amalga oshirildi:

IL-1b geni rs1143627 polimorfizmi uchun boshlang'ich denaturasiya - $94C^0$ (3 min.1 sikl), 35 kuchaytirish davrlari: $94C^0$ (10 sek) - denaturatsiya, 60C0 (10 min) - yumshatilish (termik ishlov berish), $72C^0$ (so'nggi sintez), $72C^0$ (201) min. 1 tsikl), 10 daqiqa ushlab turiladi.

Tahlil qilingan PCR mahsulotlarining (DNK) bo'laklari o'rnatilgan raqamli kamera bilan UV transilluminatorida (to'lqin uzunligi 310 nm) tasvirlangan. Namunalarning har biri uchun floresan signalni tahlil qilish natijalari har bir allelning geterozigot yoki gomozigot shaklida mavjudligiga javob berishga imkon beradi.

Allelik va genotipik variantlarning bog'lanish darajasi OR va RR qiymatlari bo'yicha 95% ishonch oralig'i (95% CI) bilan baholandi.

Tadqiqotning statistik ahamiyati Epi info va R Microsoft office dasturiy paketi (2021) yordamida o'rganildi.

Natijalar. Olingan oqibatlarga qarab, IL-1b genida rs1143627 polimorfizmning allellari va genotiplarining tarqalish chastotalari o'rganildi va ular orasidagi farqlar pnevmoniya kasalligining kelib chiqishi va bemorlarda klinik holatning og'irlashishi bilan bog'liqligini aniqlash uchun tahlil qilindi.

Qiyosiy taqqoslash natijalari shuni ko'rsatdiki, T allelining ulushi tekshirilgan bemorlarning asosiy guruhida 58,6% va nazorat guruhida 71,4% ni tashkil etdi, bu pnevmoniyadan himoya qilishda statistik ahamiyatga ega (χ^2 = 7,7; p = 0,01; OR = 0,6; 95% CI: 0,385) (T 0,385).

Tekshirilayotgan bemorlarning asosiy guruhida C allelining ulushi 41,4% ni tashkil etdi, bu nazorat guruhidagi shartli sog'lom odamlarga qaraganda sezilarli darajada yuqori, nazorat guruhida allel taqsimoti ulushi 28,6% ni tashkil etdi. IL-1b genining C allelining kasallikning rivojlanishi bilan yuqori statistik korrelyatsiyasini ko'rsatdi (χ^2 =7,7; p=0,01; OR=1,8; 95%CI: 1,18 - 2,63) (1-jadval).

IL-1b geni rs1143627 polimorfizmida genotiplarning tarqalishi asosiy guruhdagi bemorlarda 37,3%, 42,7% va 20,0%, nazorat namunasida esa 53,3%, 36,2% va 10,5% ni tashkil etdi (1-jadval).

1-jadval.

IL-1β genining ko'rsatkichlarining asosiy guruh va nazorat guruhidagi sog'lom namuna o'rtasidagi farqlari.

Allel va genotiplar	Tekshirilgan allellar va genotiplar soni				Statistik farq				
	Asosiy guruh group		Nazorat guruhi		χ^2	nisbiy xavf		Odds nisbati	
	N	%	N	%		RR	95%CI	OR	95%CI
T	129	58,6	150	71,4	7,7	0,8	0,58 - 1,17	0,6	0,38 - 0,85
C	91	41,4	60	28,6	7,7	1,2	0,78 - 1,89	1,8	1,18 - 2,63
T/T	41	37,3	56	53,3	5,6	0,7	0,41 - 1,2	0,5	0,3 - 0,89
T/C	47	42,7	38	36,2	1,0	1,2	0,71 - 1,97	1,3	0,76 - 2,28
C/C	22	20,0	11	10,5	3,8	1,9	1,09 - 3,33	2,1	0,99 - 4,61

IL-1b genining gomozigot T/T genotipining tarqalishi asosiy guruhda 37,3% va nazorat namunasida 53,3% ni tashkil etdi. Statistik ko'rsatkichlar ushbu genotipning yuqori himoya xususiyatlariga ega ekanligini ko'rsatdi: χ^2=5,6; p=0,03; OR=0,5; 95% CI: 0,3 - 0,89.

Asosiy guruhda pnevmoniya bilan kasallangan bemorlarda geterozigotali T/C genotipining kontsentratsiyasi 42,7%, sog'lom odamlarda 36,2% ni tashkil etdi va statistik ishlov berish natijasida quyidagilar aniqlandi: χ^2= 1,0; p=0,40; OR=1,3; 95% CI: 0,76 - 2,28. Pnevmoniyali bemorlar orasida mutant C/C gomozigota genotipining hissasi 20,0%, sog'lom nazorat guruhida esa 10,5% ni tashkil etdi va bu natija shuni ko'rsatadiki, genotip pnevmoniya bilan kasallanganlarda 2,1 marta ko'proq uchraydi va kasallikning rivojlanishiga moyillik yaratadi (χ^2 =1.3; p=0.0; 95% CI: 0,99 - 4,61) (1-jadval).

Tadqiqotimizda, shuningdek, og'ir pnevmoniya bilan kasallangan va sog'lom odamlar guruhida IL-1b genining allellari va genotiplarining tarqalishini o'rganib chiqdik va natijalarni taqqosladik (2-jadval).

Ushbu kichik guruhda IL-1b geni T-allelining ulushi 58,6% ni tashkil etdi, nazorat namunasida u 71,4% ni tashkil etdi, bunda yuqori statistik ishonch bilan pnevmoniya rivojlanishidan sezilarli himoya aniqlangan (p=0.3;p=0.3;p=0.6). 95% CI: 0,36-0,89). Bemorlarning kichik guruhida C allelining ulushi sezilarli darajada 1,8 marta ko'proq uchraydi: mos ravishda 41,4% va 28,6% ni tashkil etdi (χ^2= 6,2; p = 0,03; OR = 1,8; 95% CI: 1,13 - 2,77).

IL-1b geni T/T, T/C va C/C genotiplari asoratlangan pnevmoniya bilan kasallangan og'ir bemorlar guruhida: 34,3%, 48,6%, 17,1% va nazorat guruhida 53,3%, 36,2% va 53,5% ni tashkil etdi. Nazorat guruhi va kichik guruh A da zaiflashgan T/T genotipining aniqlanishi 53,3% ga nisbatan 34,3% ni tashkil etdi va statistik ishlov berishda kasallikdan sezilarli himoya funktsiyasiga ega ekanligi kuzatildi (χ^2=6,1;p=0,03; OR=0,6; 95%CI:0,25-0,85).

Pnevmoniya bilan kasallangan bemorlar guruhida T/C genotipining ulushi 48,6% (χ^2=2,7; p=0,20; OR=1,7; 95% CI: 0,9 - 3,07) ni tashkil etdi, bu kontsentratsiya 36% bo'lgan nazorat guruhidan yuqori. Odds nisbatiga ko'ra, ushbu genotip pnevmoniya rivojlanish xavfini nazorat guruhidagi shartli sog'lom odamlarga nisbatan 1,7 baravar oshirish tendentsiyasiga ega va

gomozigotli C/C genotipi esa kasallik avj olishini 1,8 baravarga ko'paytiradi (χ^2=1,6; p=0,30; -4,8; OR95%; 4.23).

2-jadval.

Og'ir pnevmoniya bilan kasallanganlar guruhi va nazorat guruhidagilarda IL-1b genining allellari va genotiplari o'rtasidagi bog'liqlik.

Allel va genotiplar	Tekshirilgan allellar va genotiplar soni				Statistik farq				
	Og'ir pnevmoniya bilan kasallangan		Nazorat guruhi		χ^2	Nisbiy farq		Odds nisbati	
	n	%	n	%		RR	95%CI	OR	95%CI
T	82	58,6	150	71,4	6,2	0,8	0,5 - 1,35	0,6	0,36 - 0,89
C	58	41,4	60	28,6	6,2	1,2	0,82 - 1,81	1,8	1,13 - 2,77
T/T	24	34,3	56	53,3	6,1	0,6	0,3 - 1,39	0,5	0,25 - 0,85
T/C	34	48,6	38	36,2	2,7	1,3	0,66 - 2,71	1,7	0,9 - 3,07
C/C	12	17,1	11	10,5	1,6	1,6	0,69 - 3,88	1,8	0,74 - 4,23

Munozara. Bir qator tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, interleykin IL-1b darajasi pnevmoniya bilan kasallangan bemorlarda ko'tariladi. Ma'lumki, IL-1b sitokinlar oilasi infeksion kasalliklarda nazoratsiz immun javoblari tufayli sitokin bo'ronini qo'zg'atishda hal qiluvchi rol o'ynaydi [10]. Biroq, ushbu tadqiqotlarga qaramay, pnevmoniya bilan kasallanganlarda ushbu polimorf lokusning roli yetarlicha o'rganilmagan.

Pnevmoniya bilan kasallangan bemorlarning asosiy guruhi va nazorat namunasida IL-1b genining genotiplarining tarqalishini o‘rganish davomida geterozigotali T/C genotipi statistik jihatdan ahamiyatsiz ekanligi aniqlandi (χ^2=1,0; p>0,05). Mutant C/C genotipining aniqlanishi bemorlarda nazorat guruhiga qaraganda 2,1 baravar yuqori bo'lgan va bu genotipga ega bo'lganlarda kasallikning rivojlanish tendentsiyasi mavjud (χ^2 = 3,8; p>0,05).

Kasallikning yengil yoki og'ir shakllarini rivojlanishida IL-1b genining rolini tahlil qilganda, geterozigot T/C genotipi kasallikning og'irligida statistik jihatdan ahamiyatsiz edi (p>0,05). Pnevmoniya bilan kasallangan bemorlar guruhida ushbu genotipning ulushi 48,6% ni tashkil qildi (χ^2=2,7; p>0,05), bir vaqtning o'zida nazorat guruhida T / C genotipining ulushi 36,2% ni tashkil etdi.

Gomozigotli mutant C/C genotipining paydo bo'lish chastotasi pnevmoniya bilan og'rigan bemorlarda 17,1% ni tashkil etdi, bu kasallikning og’irlashish xavfini 1,8 baravar oshirish tendentsiyasini ko'rsatdi (χ^2=1,6; p>0,05). IL-1b genining ushbu genotipi virusli infektsiyaning engil shakli bo'lgan ayollar guruhida 25,0% ga va nazorat namunasida 10,5% ga teng bo'lgan, statistik ishlov berishda yuqori ishonch bilan C/C genotipi kasallikning ushbu shaklining paydo bo'lishini 2,8 martaga oshirishi aniqlandi (p<0.05).

Umumiy parametrlarga asoslanib, tadqiqotimiz natijalari T / T genotipining kasallikdan himoya roliga ega ekanligini ko'rsatdi (p = 0,03). Shuningdek, gomozigotali genotip aniq statistik ishonch bilan pnevmoniyaning og‘ir shaklini rivojlanishida himoya funktsiyasini bajaradi (χ^2=6,1; p<0,05). Shu bilan birga, ushbu genotipning virusli in'eksiyaning yengil shaklidan himoya qilishda statistik ahamiyatli natijalari kuzatilmadi (p>0,05).

Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, pnevmoniya rivojlanishi va yallig'lanish jarayonlarining kuchayishi o'rtasida bog'liqlik mavjud (Huang va boshq. 2020; Bullard va boshq. 2020; Zhang va boshq., 2020). Ularning fikricha, pnevmoniyaning patogenezida interleykinlar va ular uchun mas'ul bo'lgan genlarning o'rni muhim. Shuningdek, Hadjadj va boshqalar. (2020) O’RDS da oqsil sekretsiyasi bilan bog'liq patologik jarayonlarni interleykinlar sekretsiyasi bilan bog'liq deb tushuntirdi. Dalillarga asoslanib, IL-1 yo'li sezilarli antiviral ta'sirga ega va immunitet

tizimiga virusli infektsiyaga qarshi kurashishda yordam beradi [9]. Shuningdek, IL1b darajalari kasalxonaga yotqizilgan bemorlarda kasallikning rivojlanishini bashorat qilmadi, ammo pnevmoniyadan tuzalgan bemorlarda sitokin faolligi pasaygan (Thwaites va boshq., 2020). Yuqoridagi qarama-qarshiliklar pnevmoniyani erta tashxislash uchun kengroq tadqiqotlar zarurligini ko'rsatadi.

Xulosa. Tadqiqotimiz natijalariga ko'ra, IL-1b geni pnevmoniya rivojlanishi va asoratlarining oldini olishda muhim rol o'ynaydi. Ushbu polimorfizmning T allelining tashuvchilari kasallikdan kuchli himoyaga ega, retsessiv C alleli bo'lgan bemorlar esa virusli infektsiyaning yanada og'ir shakliga ega. Genotiplarning tahlili shuni ko'rsatdiki, gomozigot T/T genotipi statistik jihatdan yuqoriroq himoya funktsiyasiga ega, ammo geterozigot T/C genotipining mavjudligi pnevmoniya kasalligining avj olishida muhim rol o'ynamaydi. Gomozigotli mutant C/C genotipi COVID-19da kasallikning kuchayishi xavfini oshirish tendentsiyasiga ega.

Genetika tekshiruvi eng zararsiz va samarali usullardan biri bo'lib, kasallikning boshlanishini erta bashorat qilish noqulay patologik sharoitlar rivojlanishining oldini olishga yordam beradi.

Shuningdek, sitokin bo'roniga aloqador mexanizmlar va vositachilarni tushunish pnevmoniyani davolash va unga qarshi kurashishning samarali usullarini topishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Bell, L. C. K., Meydan, C., Kim, J., et al. (2021). Transcriptional response modules characterize IL-1β and IL-6 activity in COVID-19. iScience, *24*(1), 101896.
2. Bullard, J., Dust, K., Funk, D., Strong, J. E., Alexander, D., Garnett, L., Boodman, C., Bello, A., Hedley, A., Schiffman, Z., Doan, K., Bastien, N., Li, Y., Van Caeseele, P. G., &Poliquin, G. (2020). Predicting Infectious Severe Acute Respiratory Syndrome Coronavirus 2 From Diagnostic Samples. *Clinical infectious diseases : an official publication of the Infectious Diseases Society of America*, *71*(10), 2663–2666.
3. Arend, W. P., Palmer, G., &Gabay, C. (2008). IL-1, IL-18, and IL-33 families of cytokines. *Immunologicalreviews*, *223*, 20–38.
4. Gabay, C., Lamacchia, C., & Palmer, G. (2010). IL-1 pathways in inflammation and human diseases. *Naturereviews. Rheumatology*, *6*(4), 232–241.
5. Abbate, A., Toldo, S., Marchetti, C., Kron, J., Van Tassell, B. W., &Dinarello, C. A. (2020). Interleukin-1 and the Inflammasome as Therapeutic Targets in Cardiovascular Disease. *Circulationresearch*, *126*(9), 1260–1280.
6. Maes, B., Bosteels, C., De Leeuw, E., Declercq, J., Van Damme, K., Delporte, A., Demeyere, B., Vermeersch, S., Vuylsteke, M., Willaert, J., Bollé, L., Vanbiervliet, Y., Decuypere, J., Libeer, F., Vandecasteele, S., Peene, I., &Lambrecht, B. (2020). Treatment ofseverelyill COVID-19 patientswith anti-interleukindrugs (COV-AID): A structuredsummaryof a studyprotocolfor a randomisedcontrolledtrial. Trials, 21(1), 468.
7. Guidotti, L. G., &Chisari, F. V. (2000). Cytokine-mediated control of viral infections. Virology, 273(2), 221–227.
8. Orzalli, M. H., Smith, A., Jurado, K. A., Iwasaki, A., Garlick, J. A., &Kagan, J. C. (2018). An Antiviral Branch of the IL-1 Signaling Pathway Restricts Immune-Evasive Virus Replication. Molecular cell, 71(5), 825–840.e6.
9. Alsayed, B. A., & Mir, R. (2022). Severe COVID-19 Pneumonia and Genetic Susceptibility: A Case Report and Literature Review. Cureus, 14(3), e23636.
10. Mardi, A., Meidaninikjeh, S., Nikfarjam, S., MajidiZolbanin, N., &Jafari, R. (2021). Interleukin-1 in COVID-19 Infection: Immunopathogenesis and Possible Therapeutic Perspective. Viral immunology, 34(10), 679–688.

TIBBIYOT TERMINOLOGIYASI: BUGUNGI MUAMMOLAR VA ULARNI HAL ETISH YO‘LLARI

Fozilova Feruza,
Qo’qon unversiteti Andijon filiali
Davolash ishi 2 – bosqich talabasi
Atamirzayeva Maxliyo Xabibullayevna
Tibbiyotda tillarni o’qitish kafedrasi lotin tili va tibbiy terminologiya fani o’qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada zamonaviy tibbiyot terminologiyasida kuzatilayotgan asosiy muammolar — atamalarni noto‘g‘ri qo‘llash, tillararochalik, standartlashuv yo‘qligi kabi muammolar yoritiladi. Tibbiyot fanining aniq va tushunarli terminologiyaga tayanishi sog‘liqni saqlash tizimi sifatini belgilovchi muhim omillardan biridir. Muallif milliy tibbiy terminlarning rivojlanmaganligi, ruscha va inglizcha so‘zlarning to‘g‘ridan-to‘g‘ri tarjima qilinishi natijasida yuzaga keladigan chalkashliklar, diagnostik tekshiruvlar, laboratoriya natijalari yoki tibbiy hujjatlarda ko‘proq rus tilidagi ifodalar ishlatiladi va ularning ilmiy-amaliy oqibatlarini tahlil qiladi. Muammoni hal etish uchun terminlarni standartlashtirish, elektron lug‘atlar yaratish, tibbiy tarjima sohasi va maxsus darsliklarni ishlab chiqish kabi yechimlar taklif etilgan. Bu takliflar tibbiyot sohasidagi ilmiy birlik va axborot almashuvini yaxshilashga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar; tibbiy terminologiya, o‘zbek tili, rus tili, til siyosati, til madaniyati, diagnostik tekshiruvlar, tibbiyotda til, tibbiy muloqot, bemor-shifokor muloqoti, tibbiy hujjatlar, tibbiyotda til aralashmasi, til milliylashtirish, tibbiyotda o‘zbek tilining o‘rni, til muammolari, milliy til, til va identitet, tibbiy ma’lumotlar, tibbiyotda til standartlari, malaka oshirish, tibbiy terminlarning tarjimasi, tibbiy xizmat sifatini oshirish, o‘zbek tilining rivojlanishi, til va sog‘liqni saqlash, tibbiyotda lotin tili, davlat tili qonuni

Kirish Zamonaviy tibbiyot fani uzluksiz rivojlanib borayotgan, ilmiy va texnologik yutuqlarga boy sohalardan biridir. Uning asosiy vositalaridan biri bu — aniq, to‘g‘ri va tizimli terminologiyadir. Tibbiy terminlar nafaqat mutaxassislar o‘rtasida samarali aloqa vositasi bo‘lib xizmat qiladi, balki sog‘liqni saqlash tizimida tashxis qo‘yish, davolash va ilmiy izlanishlar yuritishda ham muhim rol o‘ynaydi. Biroq, hozirgi kunda tibbiyot terminologiyasida bir qator dolzarb muammolar mavjud bo‘lib, ular tibbiy jarayonlarning sifati va aniqligiga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda.

Ushbu maqolada o‘zbek tilidagi tibbiyot terminologiyasining holati, mavjud muammolar va ularni bartaraf etish yo‘llari tahlil qilinadi.

Tibbiyot terminologiyasining qisqacha rivojlanish tarixi

Tibbiyot atamalarining asosiy qismi tarixan lotin va yunon tillaridan kelib chiqqan. Bu til egalari qadimgi tibbiyot ilm-fanining poydevorini yaratgan. So‘nggi asrlarda esa rus va ingliz tillari ta’siri ortib bordi, ayniqsa, sobiq ittifoq davrida ruscha atamalar tibbiyot fanining barcha sohalarida keng qo‘llanilgan. Mustaqillik yillarida o‘zbek tilining nufuzi ortdi, biroq tibbiyot terminlarini to‘liq milliylashtirish jarayoni sekin kechmoqda.

Bugungi muammolar

Terminlarning bir xillikda bo‘lmasligi sababli , tibbiyot terminlari turli adabiyot va amaliyotda bir necha xil ko‘rinishda uchrashi mumkin. Masalan, "gipertoniya" atamasi ba’zan "yuqori qon bosimi" deb tarjima qilinadi, lekin bu doim ham to‘liq teng kelmaydi. Bunday nomuvofiqliklar chalkashlik keltirib chiqaradi.

Tillararo aralashuv

Hozirgi o‘zbek tibbiyot tilida ruscha va inglizcha terminlar keng tarqalgan. Bunga sabab — ko‘pchilik mutaxassislar rus tilidagi adabiyotlar asosida o‘qigan yoki ishlagan. Misol: “stent”,

“rentgen”, “tomografiya”, “infarkt”, “diagnostika” kabi so‘zlar hali ham o‘zbek muqobilisiz ishlatilmoqda.

Milliy terminlarning yetishmasligi

Ko‘plab zamonaviy tibbiy tushunchalarning o‘zbekcha atamalari mavjud emas. Yoki mavjud bo‘lsa ham, keng ommaga yetib bormagan. Masalan, “obstruktiv bronxit” yoki “onkologik markaz” kabi iboralarni oddiy fuqarolar tushunishda qiynaladi.

Asosiy qisim

Bugungi kunda O‘zbekiston tibbiyot sohasida terminologiyalarning aralashmasi kuzatilmoqda. Vrachlar va tibbiyot xodimlari amaliyotda ko‘pincha lotincha, ruscha va ayrim hollarda o‘zbekcha atamalardan birgalikda foydalanadilar. Ayniqsa, diagnostik tekshiruvlar, laboratoriya natijalari yoki tibbiy hujjatlarda ko‘proq rus tilidagi ifodalar ishlatiladi. Masalan, "УЗИ печени", "анализ крови", "рентген легких" kabi atamalar bemorlar bilan muloqotda ham, rasmiy hujjatlarda ham keng qo‘llaniladi.

Bu holat tibbiy terminologiyada o‘zbek tilining hali to‘liq o‘z o‘rnini topmaganligini ko‘rsatadi. Aholining aksariyat qismi o‘zbek tilida so‘zlashsa-da, ularga tibbiy ma’lumotlar ko‘pincha rus tilida yetkaziladi. Bu esa bemor va shifokor o‘rtasidagi muloqotda tushunmovchiliklarga sabab bo‘lishi mumkin.

Qiyosiy jihatdan qaralganda, boshqa mamlakatlarda – masalan, Turkiya, Eronda yoki Yaponiyada – tibbiy terminologiya milliy til asosida shakllangan. Bu davlatlarda tibbiy ma’lumotlar aholiga ularning ona tilida sodda, aniq va tushunarli tarzda yetkaziladi. Bu esa nafaqat tibbiy xizmat sifatini oshiradi, balki til madaniyatini rivojlantiradi, milliy identitetni mustahkamlaydi.

Lotincha atamalarning murakkabligi

Tibbiyot terminologiyasining katta qismi lotin tilida bo‘lib, bu atamalarni o‘zlashtirish tibbiyot talabalari va yosh shifokorlar uchun qiyinchilik tug‘diradi. Lotincha atamalarning o‘zbek tiliga aniq, ravon tarjimalarini yaratish ishlari hali yetarli darajada olib borilmagan.

Standartlashuv va tizimlashtirish yo‘qligi

Bugungi kunda tibbiy terminlarni yagona shaklda tartibga soluvchi, rasmiylashtirilgan standartlar yetarli emas. Bu esa yozma va og‘zaki nutqda terminlarning har xil shakllarda ishlatilishiga olib keladi.

Elektron hujjatlar va raqamli tizimlarda muvofiqlik muammosi

Zamonaviy sog‘liqni saqlash tizimi tobora raqamlashtirilmoqda. Ammo tibbiy terminlar elektron hujjatlar va bazalarga tizimli kiritilmagani tufayli ma’lumotlar almashinuvida noaniqliklar yuzaga kelmoqda.

Amaliy oqibatlar

Noto‘g‘ri tushunish va tashxis qo‘yish ehtimoli ortadiIlmiy maqolalarda nomuvofiq tarjimalar uchrab turadi. Talabalarda tibbiy atamalarni o‘rganish jarayoni murakkablashadiXalq bilan muloqotda ham noto‘g‘ri yoki tushunarsiz iboralar ishlatiladi

Muammolarning yechimlari

Tibbiy terminlarni standartlashtirish

Mutaxassislar, filologlar va sog‘liqni saqlash vazirligi vakillaridan iborat maxsus komissiya tuzilib, yagona terminlar bazasini ishlab chiqishi zarur.

Elektron tibbiy lug‘atlar yaratish

Lotincha, inglizcha, ruscha va o‘zbekcha terminlarni qamrab olgan interaktiv elektron lug‘atlar tuzilib, barcha tibbiy muassasalarga joriy etilishi kerak.

Tibbiyot va tilshunoslikni birlashtirgan kasb sohasi sifatida tibbiy tarjimonlik yo‘nalishi rivojlantirilishi lozim. Maxsus o‘quv kurslari va darsliklar, tibbiyot universitetlari va kollejlarida tibbiy terminologiyaga oid alohida fan joriy etilishi, zamonaviy darsliklar yaratilishi, milliy atamalarni targ‘ib qilish,mass-media, ilmiy maqolalar, konferensiyalar va seminarlar orqali milliy terminlardan foydalanishni ommalashtirish zarur.

Tibbiyot terminologiyasi — bu nafaqat tilshunoslik masalasi, balki sog‘liq va hayot masalasi hamdir. Tibbiy atamalarning aniq, tushunarli va standart shaklda bo‘lishi — sog‘liqni saqlash tizimining barqarorligi va sifatiga xizmat qiladi. O‘zbek tilida tibbiy terminlarni rivojlantirish orqali nafaqat ilmiy izlanishlar, balki xalq bilan muloqot ham soddalashadi. Bu borada harakatlar tizimli, davlat siyosati darajasida olib borilishi muhim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi “Davlat tili haqida”gi Qonuni. – T.: Lex.uz, 1989 (oxirgi o‘zgartirishlar bilan).

2. Xasanov R., Xudoyberdiyeva N. O‘zbekcha-ruscha-inglizcha tibbiyot terminlari lug‘ati. – Toshkent: “Yangi asr avlodi”, 2018.

3. Jo‘raqulov B. O‘zbek tilida ilmiy uslub va tibbiy terminologiya masalalari // Filologiya masalalari. – Toshkent: O‘zbekiston Milliy Universiteti nashriyoti, 2020.

4. Xodjayev A. Tibbiyotda til madaniyati va kommunikatsiya // Tibbiyot va ta’lim jurnali, 2022, №2, – B. 45–49.

5. O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi. Tibbiy xizmatlar sifati va tillarda muloqot bo‘yicha metodik tavsiyalar. – Toshkent, 2021.

6. Sağlık Bakanlığı (Turkiya). Hasta Hakları ve Sağlık İletişimi Kılavuzu. – Ankara: Sağlık Bakanlığı Yayınları, 2020.

7. Mehrabani, D. et al. Medical Terminology in Persian: Challenges and Standardization Efforts // Iranian Journal of Medical Sciences, 2019.

8. World Health Organization (WHO). Language Access in Healthcare: Global Practices and Recommendations. – Geneva, 2020.

TIBBIY FANLARNI O’QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR

Zoxidov Muslimbek

Kokand University Andijon filiali Davolash yo’nalishi talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada tibbiy fanlarni o‘qitishda innovatsion yondashuvlarning ahamiyati, ularning tibbiy ta’lim jarayonidagi o‘rni va samaradorligi yoritilgan. Innovatsion metodlar – problemali ta’lim, simulyatsion o‘qitish, masofaviy ta’lim, raqamli va interaktiv texnologiyalar orqali talabalar bilimini chuqurlashtirish, amaliy ko‘nikmalarini rivojlantirish hamda klinik fikrlashni shakllantirish imkoniyati ta’minlanadi. Maqolada, shuningdek, o‘qituvchining innovatsion yondashuvlarni qo‘llashdagi roli va bu jarayonning tibbiy ta’lim sifatini oshirishdagi o‘rni tahlil qilingan.

Kalit so’zlar: tibbiy ta’lim, innovatsion yondashuv, interaktiv metodlar, simulyatsion o‘qitish, raqamli texnologiyalar, masofaviy ta’lim, problemali ta’lim, virtual reallik, amaliy ko‘nikmalar, klinik fikrlash, o‘quv jarayoni, tibbiy pedagogika, elektron ta’lim, multimedia vositalari, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari.

Annotatsion. This article highlights the importance of innovative approaches in teaching medical sciences, as well as their role and effectiveness in the process of medical education. Innovative methods — such as problem-based learning, simulation training, distance education, and digital and interactive technologies — provide opportunities to deepen students’ knowledge, enhance practical skills, and develop clinical thinking. The article also analyzes the teacher’s role in applying innovative approaches and their impact on improving the quality of medical education.

Keywords: medical education, innovative approach, interactive methods, simulation training, digital technologies, distance learning, problem-based learning, virtual reality, practical skills, clinical thinking, learning process, medical pedagogy, e-learning, multimedia tools, information and communication technologies.

Аннотация. В данной статье рассматривается значение инновационных подходов в преподавании медицинских наук, их роль и эффективность в процессе медицинского образования. Инновационные методы — проблемное обучение, симуляционное обучение, дистанционное образование, цифровые и интерактивные технологии — обеспечивают возможность углубления знаний студентов, развития практических навыков и формирования клинического мышления. В статье также анализируется роль преподавателя в применении инновационных подходов и их влияние на повышение качества медицинского образования.

Ключевые слова: медицинское образование, инновационный подход, интерактивные методы, симуляционное обучение, цифровые технологии, дистанционное

обучение, проблемное обучение, виртуальная реальность, практические навыки, клиническое мышление, процесс обучения, медицинская педагогика, электронное обучение, мультимедийные средства, информационно-коммуникационные технологии.

Kirish. Bugungi globallashuv davrida Tibbiy ta’lim tizimi zamonaviy davrda ilm-fan, texnologiya va sog‘liqni saqlash sohalaridagi yutuqlar asosida doimiy yangilanib bormoqda. Shuning uchun tibbiy fanlarni o‘qitishda innovatsion yondashuvlar qo‘llash — talabalarning kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishda, mustaqil fikrlash, tahlil qilish va amaliy ko‘nikmalarni shakllantirishda muhim o‘rin tutadi.fanining tili. Innovatsion yondashuv — bu o‘qitish jarayoniga yangi pedagogik texnologiyalar, interaktiv metodlar, raqamli vositalar va amaliy mashg‘ulotlarning ilg‘or shakllarini tatbiq etish orqali ta’lim samaradorligini oshirish jarayonidir [1]

Hozirgi kunda sog‘liqni saqlash tizimi jadal rivojlanmoqda. Yangi kasalliklar, zamonaviy diagnostika usullari va davolash texnologiyalarining paydo bo‘lishi tibbiy ta’limni ham yangicha yondashuv asosida tashkil etishni talab qiladi. Shuning uchun tibbiy oliy ta’lim muassasalarida:

An’anaviy ma’ruza asosidagi ta’limdan faol o‘qitish usullariga o‘tilmoqda;

Talaba markazli ta’limga e’tibor kuchaymoqda;

Amaliyotga yo‘naltirilgan o‘qitish konsepsiyasi joriy qilinmoqda.[2]

Zamonaviy innovatsion o‘qitish texnologiyalari

Klinik holatlar asosida o‘qitish (Case study)da talabalar real bemor holatlari asosida muammoni tahlil qiladi, tashxis qo‘yadi va davolash yo‘lini ishlab chiqadi. Bu metod shifokor sifatida mustaqil qaror qabul qilishni o‘rgatadi.[3]

Simulyatsion markazlar

O‘zbekistonning ko‘plab tibbiyot universitetlarida simulyatsion markazlar tashkil etilgan. Bu markazlarda:

Reanimatsiya, akusherlik, jarrohlik amaliyotlari maxsus manekenlarda bajariladi;

Talabalar xatolardan o‘rganadi, bemorga zarar yetkazmasdan tajriba orttiradi.[4]

Virtual laboratoriyalar va 3D modellash. Masalan, “Anatomage Table” yordamida odam tanasi organlari 3D formatda tahlil qilinadi. Bu nafaqat anatomiya, balki patofiziologiya va farmakologiya fanlarini o‘rganishda ham samarali.

Raqamli test tizimlari

Onlayn test platformalari, elektron reyting tizimlari, diagnostik baholash usullari yordamida ta’lim sifati nazorat qilinadi.[5]

O‘qituvchi faoliyatidagi innovatsion yondashuv

O‘qituvchi:Darsni interaktiv shaklda olib boradi;

Talabalarni mustaqil izlanishga undaydi;

Elektron darsliklar, multimedia materiallar tayyorlaydi;

Baholashda differensial va diagnostik usullarni qo‘llaydi.

O‘qituvchi endilikda bilim manbai emas, ta’lim jarayonining fasilitatori (yo‘naltiruvchi) hisoblanadi.[6]

Innovatsion yondashuv natijalari

Innovatsion usullarni qo‘llash orqali:

Talabalar tibbiy qarorlar qabul qilishni o‘rganadi;

Jamoada ishlash, muloqot qilish, liderlik va tahliliy fikrlash ko‘nikmalari shakllanadi;

Dars jarayonida o‘zaro fikr almashish kuchayadi;

O‘quv motivatsiyasi va mustaqil o‘rganish qobiliyati ortadi.[7]

Xalqaro tajriba

AQSh, Germaniya, Yaponiya, Janubiy Koreya kabi davlatlarda tibbiy ta’limda:

Blended learning (aralash ta’lim),

OSCE (Ob’ektiv tuzilgan klinik imtihon),

E-learning kabi yondashuvlar keng qo‘llaniladi.

O‘zbekiston tibbiyot oliygohlari ham ushbu tajribalarni bosqichma-bosqich joriy etmoqda.[8]

Tibbiy ta’limda innovatsion yondashuvlarni qo‘llash:
O‘quv jarayonining sifatini oshiradi;
Talabalarning amaliy tayyorgarligini kuchaytiradi;
Zamonaviy, raqobatbardosh va ijtimoiy mas’ul shifokor kadrlar tayyorlash imkonini beradi.[9]

Ko‘k ERP lar ko‘pincha bolaning jahli chiqishi yoki xarpasha qilishi, odatda tanbehga javoban kelib chiqadi [1, 8, 26]. Bola qisqa, baland ovozda yig‘laydi va bu nafasni majburan ushlab turishga olib keladi [1]. Ta’sirlangan bola terisi oddiy nafas ushlash holatiga qaraganda tezroq ko‘karadi [8]. Bola tanasi taranglashadi yoki bo‘shashadi va qisqa vaqtga hushidan ketadi [3, 12]. Kamdan-kam hollarda, agar apnoe uzoqroq vaqt davom etsa, bolada epileptik xuruj ham yuzaga kelishi mumkin [3, 8, 12]. Ko‘pchilik holatlarda, bola hushiga keladi, birdan chuqur nafas oladi va teridagi ko‘karish yo‘qoladi. Hushdan ketish odatda bir necha soniyadan oshmaydi. Teri ko‘karish darajasi, hushdan ketish va konvulsiv harakatlarning og‘irligi apnoe davomiyligi va bola organizmi individual xususiyatlariga bog‘liq bo‘ladi. Har bir bosqich odatda 5 soniya yoki undan kam davom etadi va kamdan-kam hollarda 10-15 soniyadan ortadi. Butun epizod odatda 10-60 soniya davom etadi [1]. Bir daqiqadan uzoq davom etadigan holatlar noodatiy hisoblanadi va boshqa sabablarga ishora qilishi mumkin [8].

Oq tipdagi ERP lari ko‘proq og‘riq yoki qo‘rquv natijasida kelib chiqadi [1, 6, 22]. Bolada kuchli yig‘i bo‘lmasligi va apnoe ham qisqa muddatli bo‘lishi mumkin. Shuningdek, odatda, hushdan ketish va tana holati o‘zgarishidan oldin bolada chuqur nafas olish kuzatiladi [1]. Keyingi davomiylik ko‘k turdagiga o‘xshash kechadi, farqi bolaning terisi oqarib ketadi. Har ikkala turda ham, agar hushdan ketish taxminan 45 soniyadan oshsa, tananing taranglashuvi, boshning orqaga egilishi yoki oyoq-qo‘llarda klonik harakatlar bo‘lishi mumkin [6].

Klinik baholash. Batafsil kasallik tarixini o‘rganish tashxis qo‘yshning asosiy usulidir. Voqealarning o‘ziga xos ketma-ketligi bu holatni boshqa kasalliklardan ajratish uchun ko‘pincha yetarli bo‘ladi. Bu ketma-ketlik odatda g‘azab, xarpasha, qo‘rquv yoki shikastlanish bilan boshlanadi. Boshlang‘ich turtkidan keyin kuchli yig‘i, nafas ushlab qolish, ko‘karish yoki oqarish, bo‘shashish yoki taranglashish, hushdan ketish (ba`zan tutqanoq) va postiktal davrsiz tiklanish yuz beradi [1].

Tashxisni tasdiqlashdan oldin boshqa sabablarni inkor qilish uchun ehtiyotkorlik bilan obyektiv tekshiruv o‘tkazish kerak. Oq ERP da xuruj ko‘z soqqasiga 10 soniya davomida bosim berish bilan qayta sodir bo‘lishi va bradikardiya kuzatilishi mumkin. Tez-tez yoki noodatiy oq ERP bo‘lgan bemorlarda epileptik xurujni inkor qilish uchun elektroensefalografiya (EEG) tekshiruvi va yurak ritmi buzilishlarini inkor qilish uchun Holter monitoringi o‘tkazilishi kerak [39].

Qiyosiy tashxis. ERp ni epilepsiya, sepsis, laringospazm kabi bir nechta kasalliklar bilan qiyosiy tashxis qilishga to‘g‘ri keladi [1]. Shulardan ahamiyatlisi epilepsiya kaslligi bo‘lib, ERP ni epileptik xurujdan farqlash, avvalambor, antikonvulsant dorilarni noto‘g‘ri qo‘llanishining oldini oladi. Quyidagi jadvalda asosiy farqlovchi belgilar keltirilgan.

	Emotsional-respirator xuruj	**Epileptik xuruj**
Turtki	XARPasha, yig‘i, qo‘rquv	To‘satdan boshlish, Ba’zan isitma
Xuruj ko‘rinishi	Turtki → apnoe, ko‘karish/oqarish, bo‘shashish	Oyoq-qo‘l mushaklarida tonus oshishi, noixtiyoriy harakatlar
Aura	Yo`q	Bo`lishi mumkin
Xurujdan keyingi (postiktal) holat	Qisqa vaqt, xush chalkashishi yo‘q	Uzoq vaqt, xush chalkashishi bor
EEG da	Topilmaydi	Odatda aniqlanadi

epileptiform o‘zgarishlar

Ba’zan, neonatal davrda sepsis tufayli apnoik epizodlar kuzatilishi mumkin. Shuningdek, muddatidan oldin tug‘ilgan chaqaloqlarda uyqu payti apnoe holati bo‘lishi mumkin. Ammo bu apnoe uyquda ro‘y berib, bradikardiya bilan birga keladi, ko‘karish yoki oqarish yuzaga kelmaydi [8]. Bundan tashqari, oq tipdagi ERP lar yurak ritmi o‘tkazuvchanligining belgisi bo‘lib kelishi ham mumkin. Farqlash uchun yuqorida keltirilgan kabi Holter monitoring tekshiruvi o‘tkazilishi zarur [41-42].

Labarator tahlil. Agar anamnez odatdagi kabi bo‘lsa va jismoniy ko‘rikda hech qanday o‘zgarishlar aniqlanmasa, ko‘k tipdagi ERP bo‘lgan bemorlarda laborator tekshiruvlar talab etilmaydi. Chunki bu tashxisni tasdiqlash uchun maxsus test yo‘q. Agar anemiyaga shubha qilinsa, to‘liq qon tahlili va qon plazmasida ferritin fermenti tekshirilishi kerak. Elektrokardiogramma tekshiruvi, ayniqsa, tez-tez va og‘ir darajada o‘tadigan ERP, xususan, oq tipdagi paroksizmlar bo‘lgan bolalarda o‘tkazilishi mumkin. EEG Uzun QT interval sindromini (long QT syndrome) inkor qilishga imkon beradi [3, 6, 11].

Asoratlar. ERP ota-onalar uchun juda tashvishli holatdek ko‘rininb, ularning hayot sifatiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. ERP tez-tez kuzatiladigan va og‘ir darajada o‘tadigan bolalarning onalari xavotir, depressiya va psixosotsial muammolardan aziyat chekish ehtimoli ko‘proq [34, 44-46].

Bola bilan bog‘liq jihatdan, ERP xavfsiz hisoblanadi va hech qanday asoratlar kutilmaydi [3, 11]. ERP bo‘lgan bolalar miyyasida neyronal shikastlanish belgilari kuzatilmagan [47]. Shuningdek, ERP kuzatilgan bolalar normal aql-idrok va nevrologik rivojlanishga ega bo‘lishi aniqlangan [1, 2, 8]. Kamdan-kam hollarda, ERP bor bolalarda keyinchalik vazovagal sinkope rivojlanishi mumkin [2, 49-51]. Bu bolalarda epilepsiya kasalligi uchrash chastotasi umumiy populyatsiyaniki bilan bir xildir.

Davolash. ERP ota-onalar uchun qo‘rqinchli va stressli kechadi. Ularga boladagi holatni batafsil tushuntirib berish va ularni tinchlantirish davolashning asosiy omillaridir [1, 6, 52]. Ularga bolalar bolalar bilan muloqotda ko‘ngilsizlik, g‘azab va tarbiyalash bilan bog‘liq muammolarni yengib o‘tish bo‘yicha maslahatlar berib o‘tish o‘rinlidir [1]. Shuningdek, ota-onalarga bola bilan munosabatda ortiqcha nizolarga olib keluvchi omillarni kamaytirish tavsiya etiladi [52]. Bundan tashqari, ularga toqatli va tarbiyada qat’iyatli bo‘lishlari ham maslahat berilishi kerak.

ERP va bir vaqtning o‘zida temir tanqisligi anemiyasi yoki temir tanqisligi mavjud bo‘lgan bolalarda temir qo‘shimchasi berish paroksizmlarning tez-tez takrorlanishi va og‘irligini kamaytirishda samarali ekanligi aniqlangan [12, 18-20, 53]. Qo‘shimchasiga, ERP bo‘lgan bolalarda avtonom asab tizimi disfunktsiyasini temir qo‘shimchalari yordamida yaxshilash mumkinligi o‘rganilgan [18, 20]. ERP aniqlangan 6 dan 36 oygacha bo‘lgan 100 nafar bolani o‘z ichiga olgan yaqinda o‘tkazilgan prospektiv tadqiqotda bolalarni 3 mg/kg/sutka dozada elementar temir bilan bir martalik doza shaklida 12 hafta davomida davolashdi [25]. Temir qo‘shimchasini qabul qilishdan oldin, 60 nafar bemorda o‘rta darajadagi anemiya (gemoglobin darajasi 7 dan 9,9 g/dL gacha), 13 nafar bemorda yengil darajadagi anemiya (gemoglobin darajasi 10 dan 10,99 g/dL gacha) mavjud edi, va 27 nafar bolaning anemiyasi yo‘q edi (gemoglobin ≥11 g/dL). 12 hafta o‘tgach, bolalarning 73% da to‘liq remissiyaga erishildi va 23% bolalarda paroksizmlar chastotasi 50% dan ortiq kamaydi. Temir tanqisligi anemiyasi bo‘lmagan 27 nafar bolaning temir qo‘shimchasi qabul qilgandagi holati ham temir tanqisligi anemiyasi bo‘lgan bolalarnikiga o‘xshash bo‘lgan.

Og‘ir bradikardiya va medikamentoz davo ta’siri kam bo‘lgan oq tip ERP lari va uzoq vaqt davom etgan yurak asistolasi bilan birga kelgan ko‘k tipdagi paroksizmlarda yurakka kardiopeysmeyker implant qo‘yish tavsiya qilinishi mumkin.

ERP dan so‘ng qisqa davom etuvchi hushdan ketish va anoksik epileptik xuruj holatlari odatda hayot uchun bezarar bo‘ladi. Bu vaziyatda nafas yo‘llarining ochiq bo‘lishi va aspiratsiyaning oldini olish choralari ko‘rilishi kerak bo‘ladi. Ushbu ko‘rinishdagi paroksizmlar

bo‘lgan bolalarga antikonvulsantlar tavsiya etilmaydi.

Prognoz. ERP bo‘lgan bolalarda prognoz juda yaxshi [1, 8]. Bola ulg‘aygani sari bu paroksizmlar chastotasi kamayib boradi [23]. Ko‘pgina bolalarda paroksizmlar erta maktab yoshiga kelib o‘z-o‘zidan yo‘qoladi [1, 11]. ERP ning davomiyligi yoki tez-tez takrorlanishi prognozga ta’sir qilmaydi.

Xulosa. Emotsional-respirator paroksizmlar odatda 6 oydan 24 oygacha bo‘lgan sog‘lom bolalarda uchraydigan va kechishidan kuchli xavotir uyg‘otadigan holatdir. Garchi bu paroksizmlar zararli bo‘lmasa-da, ular ota-onalar uchun juda tashvishli bo‘lishi mumkin. Ko‘pincha bolalarda paroksizmlar boshlang‘ich maktab yoshiga kelib o‘z-o‘zidan yo‘qoladi. Ota-onalarga holat haqida batafsil tushuncha berib, ularni tinchlantirish davolashning asosiy qismi hisoblanadi. Emotsional-respirator bo‘lgan bolalarda prognoz juda yaxshi - intellektual va nevrologik rivojlanish normal bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Leung AK. Breath-holding spells. In: Leung AK, Ed. Common problems in ambulatory pediatrics: Anticipatory guidance and behavioral pediatrics. New York: Nova Science Publishers, Inc., 2011, 97-102.
2. Azab SF, Siam AG, Saleh SH, *et al*. Novel findings in breath holding spells: A cross-sectional study. Medicine (Baltimore) 2015; 94(28): e1150.
3. Goldman RD. Breath-holding spells in infants. Can Fam Physician 2015; 61(2): 149-150.
4. Abbaskhanian A, Ehteshami S, Sajjadi S, Rezai MS. Effects of piracetam on pediatric breath holding spells: A randomized double blind controlled trial. Iran J Child Neurol 2012; 6(4): 9-15.
5. Carman KB, Ekici A, Yimenicioglu S, Arslantas D, Yakut A. Breath holding spells: Point prevalence and associated factors among Turkish children. Pediatr Int 2013; 55(3): 328-31.
6. Rathore G, Larsen P, Fernandez C, Parakh M. Diverse presentation of breath holding spells: Two case reports with literature review. Case Rep Neurol Med 2013; 2013: 603190.
7. Evans, OB. Breath-holding spells. Pediatr Ann 1997; 26(7): 41014.
8. Nguyen TT, Kaplan PW, Wilfong A. Nonepileptic paroxysmal disorders in infancy. In: Post TW, Ed. UpToDate. Waltham, MA. (Accessed on August 25, 2018)
9. Bhat MA, Ali W. Cyanotic breath holding spell in a neonate. A rare entity. Neurosciences (Riyadh) 2008; 13(2): 190-1.
10. Breukels MA, Plötz FB, van Nieuwenhuizen O, van DiemenSteenvoorde JA. Breath holding spells in a 3-day-old neonate: An unusual early presentation in a family with a history of breath holding spells. Neuropediatrics 2002; 33(1): 41-2.
11. Yilmaz U, Doksoz O, Celik T, Akinci G, Mese T, Sevim YT. The value of neurologic and cardiologic assessment in breath holding spells. Pak J Med Sci 2014; 30(1): 59-64.
12. Hellström Schmidt S, Tedgård U, Pronk CJ. Breath-holding spells occur disproportionately more often in children with transient erythroblastopenia. Acta Paediatr 2016; 105(9): 1088-93.
13. Saad K, Farghaly HS, Badry R, Othman HA. Selenium and antioxidant levels decreased in blood of children with breathholding spells. J Child Neurol 2014; 29(10): 1339-1343.

ВЛИЯНИЕ СУБКЛИНИЧЕСКОГО ГИПОТИРЕОЗА НА ТЯЖЕСТЬ ГИПЕРТЕНЗИВНЫХ СОСТОЯНИЙ ПРИ БЕРЕМЕННОСТИ

Усманова Мохинур Дилшод кизи

ассистент кафедры анатомии, клинической анатомии и патологической анатомии КУАФ

Насирова Феруза Жумабаевна

ассистент кафедры акушерства и гинекологии № 1 АГМИ

Аннотация: Гипертензивные состояния при беременности остаются значимой причиной материнских осложнений, а субклинический гипотиреоз (СГ) в йододефицитных

регионах рассматривается как возможный фактор их утяжеления.

Ключевые слова: субклинический гипотиреоз, беременность, гипертензивные состояния, преэклампсия.

Аннотация: Ҳомиладорликдаги гипертензив ҳолатлар она саломатлиги учун хавфли бўлган асоратларнинг муҳим сабабларидан бири ҳисобланади. Йод танқислиги мавжуд бўлган ҳудудларда субклиник гипотиреоз (СГ) уларнинг оғирлашувига эҳтимолий омил сифатида қаралади.

Калит сўзлар: субклиник гипотиреоз, ҳомиладорлик, гипертензив ҳолатлар, преэклампсия.

Abstract: Hypertensive disorders in pregnancy remain a significant cause of maternal complications, and subclinical hypothyroidism (SCH) in iodine-deficient regions is considered a potential factor that aggravates their course.

Keywords: subclinical hypothyroidism, pregnancy, hypertensive disorders, preeclampsia.

Гипертензивные состояния (ГС) при беременности остаются одной из ведущих причин материнской и перинатальной заболеваемости и смертности. По данным ВОЗ, они встречаются в среднем у 10% беременных, а в странах с низким и средним уровнем дохода этот показатель может превышать 17% [1, 2, 3]. Беременность сопровождается значительными гормональными изменениями, включая перестройку функции щитовидной железы. Даже субклинические формы дисфункции, такие как субклинический гипотиреоз (СГ), могут нарушать гормональный гомеостаз и способствовать развитию осложнений, включая преэклампсию [4, 5]. СГ характеризуется повышенным уровнем ТТГ при нормальном свободном Т4 и рассматривается как один из факторов сосудистой дисфункции.

В Узбекистане, особенно в регионах с дефицитом йода, распространенность СГ среди беременных оценивается от 7% до 15%, и составляет около 12% в Андижанской области [6, 7]. Несмотря на действующие национальные программы профилактики йододефицитных заболеваний, охват йодной профилактикой остается недостаточным.

Андижанская область является эндемичным регионом по дефициту йода, что способствует высокой частоте СГ среди женщин репродуктивного возраста. Однако взаимосвязь между СГ и гипертензивными осложнениями беременности в данном регионе изучена недостаточно. Учитывая многофакторный характер риска ГС, включающий эндокринные, генетические, экологические и социальные факторы, изучение роли СГ в развитии гипертензивных состояний представляет особую актуальность. Это важно для повышения эффективности диагностики, профилактики и ведения беременности в условиях регионального йодного дефицита.

Цель исследования: Определить влияние субклинического гипотиреоза на тяжесть гипертензивных состояний у беременных женщин в Андижанском регионе.

Материалы и методы. Исследование типа «случай–контроль» проведено на базе Андижанского филиала Республиканского специализированного научно-практического медицинского центра акушерства и гинекологии (ноябрь 2022 – апрель 2023 гг.). Включены 272 беременные женщины с гипертензивными состояниями (ГС) после 20-й недели гестации, в возрасте 18–40 лет, с одноплодной беременностью; хроническая артериальная гипертензия исключалась. Сбор данных проводился с использованием онлайн-анкеты KoBoToolbox и клинико-лабораторного обследования. Определяли уровни ТТГ, Т3, Т4, тиреоглобулина, АТ-ТПО и АТ-Тг, выполняли допплерометрию плода и щитовидной железы. Субклинический гипотиреоз диагностировали при ТТГ > 4,2 мкМЕ/мл и нормальном fT4. Статистическая обработка данных проведена в R (v4.2.1), использованы критерии χ^2, Фишера и Вилкоксона ($p < 0,05$). Исследование одобрено этическим комитетом МЗ РУз (№ 1684/6-1 от 27.09.2022).

Результаты исследования: Совместно с эндокринологом все 272 беременные (88 — группа случаев и 184 — контроль) были распределены на две подгруппы по уровням тиреоидных гормонов: субклинический гипотиреоз (n = 124) и эутиреоз (n = 148). Такая

стратификация позволила более точно оценить распространенность субклинического гипотиреоза и его возможную роль в патогенезе гипертензивных состояний при беременности.

Социально-демографические характеристики обследованных женщин не выявили статистически значимых различий между группами. Возрастное распределение было сопоставимым (p = 0,4; q = 0,6), большинство участниц находились в возрасте 18–29 лет. Женщины старше 35 лет составили менее 10% выборки. У большинства обследованных было среднее образование (85–86%), доля лиц с высшим образованием составляла 14–15%, различия между группами были несущественными (p > 0,9). Преобладали сельские жительницы, однако данный показатель не имел статистической значимости (p = 0,15; q = 0,4). Наличие перенесенной COVID-19 отмечено у незначительной части пациенток (до 5%), без межгрупповых различий (p = 0,5), что указывает на низкую распространенность данной инфекции в изученной популяции и минимальное влияние на полученные результаты (таблица 1).

Таблица 1. Сравнительная характеристика социально-демографических показателей участников исследования.

Характеристика |	**СГ** N = 124[1]	**Эутиреоз** N = 148[1]	**p-значение**[2]	**q-значение**[3]
Возраст			0.4	0.6
18–24	44 (36%)	44 (30%)		
25–29	39 (32%)	41 (28%)		
30–34	30 (24%)	49 (33%)		
35 и выше	10 (8.1%)	14 (9.5%)		
Образование			>0.9	>0.9
высшее	18 (15%)	21 (14%)		
среднее	106 (85%)	127 (86%)		
Место проживания			0.15	0.4
город	19 (15%)	33 (22%)		
село	105 (85%)	115 (78%)		
History of COVID-19	6 (4.8%)	4 (2.7%)	0.5	0.7

[1]n (%)

[2] Pearson’s Chi-squared test; Fisher’s exact test

[3]Correction for multiple comparisons using the False Discovery Rate (FDR) method

Анализ соматических симптомов показал значительно более высокую частоту жалоб среди пациенток с субклиническим гипотиреозом (СГ). Тошнота отмечалась у 78% женщин в группе СГ по сравнению с 39% в группе эутиреоза (p < 0.001; q < 0.001). Утомляемость наблюдалась соответственно у 90% и 77% пациенток (p = 0.004; q = 0.025), что, вероятно, связано с нарушением энергетического обмена при тиреоидной дисфункции. Головокружение было зафиксировано у 72% женщин с СГ против 30% при эутиреозе (p < 0.001), а головная боль — у 73% против 22% (p < 0.001), что может отражать сосудистую нестабильность и снижение перфузии.

Метеоризм чаще отмечался в группе СГ (72% против 48%; p < 0.001), что, возможно, обусловлено снижением моторики желудочно-кишечного тракта. Наиболее выраженное различие выявлено по показателю ломкости ногтей — 65% в группе СГ по сравнению всего с 2,7% в группе эутиреоза (p < 0.001), что указывает на нарушение кератинизации и микроциркуляции.

Наличие этих симптомов до беременности отмечалось у 14% женщин с СГ и у 7,5% с эутиреозом, однако различие не достигло статистической значимости (p = 0.10), что может свидетельствовать о гестационном характере клинических проявлений (таблица 2).

Таблица 2. Соматические симптомы, отмеченные участницами исследования.

Характеристика |	СГ N = 124[1]	Эутиреоз N = 148[1]	p-значение[2]	q-значение[3]
Тошнота	96 (78%)	57 (39%)	<0.001	<0.001
Утомляемость	111 (90%)	11 4(77)	0.004	0.025
Головокружение	88 (72%)	44 (30%)	<0.001	<0.001
Метеоризм	88 (72%)	71 (48%)	<0.001	<0.001
Головная боль	90 (73%)	33 (22%)	<0.001	<0.001
Ломкость ногтей	80 (65%)	4 (2.7%)	<0.001	<0.001
Наличие этих симптомов до беременности	17 (14%)	11 (7.5%)	0.10	0.3

[1]n (%)

[2] Pearson's Chi-squared test; Fisher's exact test

[3]Correction for multiple comparisons using the False Discovery Rate (FDR) method

Тип телосложения пациенток в обеих группах преимущественно соответствовал нормостеническому или гиперстеническому. Астенический тип конституции встречался редко — у 4,8% женщин в группе с субклиническим гипотиреозом (СГ) и у 2,0% в группе эутиреоза; различия не были статистически значимыми (p = 0,2). Была выявлена тенденция к различиям по оттенку кожи (p = 0,013): более тёмный тип кожи чаще встречался в группе эутиреоза (18%), тогда как у пациенток с СГ преобладали средние и светлые тона кожи. Однако после поправки на множественные сравнения различие не достигло статистической значимости (q = 0,068).

Что касается текстуры кожи, то в обеих группах преобладали нормальный и сухой её типы. Сухость кожи была отмечена у 40% женщин в группе СГ и у 43% — при эутиреозе (p = 0,4), что позволяет предположить наличие гипотиреоидоподобных изменений в обеих группах независимо от тиреоидного статуса. Пальпируемое увеличение щитовидной железы обнаружено у 36% пациенток с СГ и у 28% — с эутиреозом (p = 0,2), а плотная консистенция выявлена соответственно у 5,7% и 11% (p = 0,3). Эти данные свидетельствуют о незначительных различиях физикальных характеристик щитовидной железы между группами.

Отёки нижних конечностей встречались у 43% и 45% обследованных в группах СГ и эутиреоза соответственно (p = 0,8); отёки верхних конечностей — у 14% и 17% (p = 0,5); отёчность лица отмечалась у 4,2% в обеих группах (p > 0,9). Генерализованные отёки наблюдались исключительно в группе СГ (2,5%), однако различие не достигло

статистической значимости (p = 0.095). У более чем половины женщин в обеих группах отёки отсутствовали, что свидетельствует о компенсированном клиническом состоянии участниц (p > 0,9). Индекс массы тела (ИМТ) также не продемонстрировал существенных различий между группами (p = 0,6). У большинства участниц ИМТ находился в диапазоне от 26 до 35, что указывает на общую тенденцию к избыточной массе тела в обеих группах (таблица 3).

Таблица 3. Морфологические характеристики участников исследования

Характеристика	СГ N = 124[1]	Эутиреоз N = 148[1]	p-значение[2]	q-значение[3]
Конституция			0.2	0.5
Астенический	6 (4.8%)	3 (2.0%)		
Гиперстенический	57 (46%)	80 (54%)		
Нормостенический	61 (49%)	65 (44%)		
Цвет кожи			0.01	0.068
светлый	13 (11%)	11 (7.5%)	3	
средний	102 (83%)	108 (74%)		
тёмный	8 (6.5%)	27 (18%)		
Состояние кожи			0.4	0.6
жирная	3 (2.4%)	8 (5.4%)		
нормальная	72 (58%)	77 (52%)		
сухая	49 (40%)	63 (43%)		
Пальпация ЩЖ			0.2	0.4
Без увеличения	78 (64%)	106 (72%)		
увеличенная	44 (36%)	42 (28%)		
Консистенция ЩЖ			0.3	0.6
мягкая	8 (6.6%)	11 (7.4%)		
нормальная	107 (88%)	121 (82%)		
твёрдая	7 (5.7%)	16 (11%)		
Отёки в нижних конечностях	52 (43%)	64 (45%)	0.8	0.9
Отёки в верхних конечностях	17 (14%)	24 (17%)	0.5	0.7
Отёк лица	5 (4.2%)	6 (4.2%)	>0.9	>0.9
Тотальный отёк	3 (2.5%)	0 (0%)	0.09 5	0.3

Характеристика	СГ N = 124[1]	Эутиреоз N = 148[1]	p-значение[2]	q-значение[3]
Без отёков	64 (53%)	76 (54%)	>0.9	>0.9
ИМТ			0.6	0.8
35	12 (10%)	15 (10%)		
20–25	40 (34%)	43 (29%)		
26–35	64 (55%)	89 (61%)		

[1]n (%)

[2] Pearson's Chi-squared test; Fisher's exact test

[3]Correction for multiple comparisons using the False Discovery Rate (FDR) method

Анализ уровня тиреоглобулина (ТГ) выявил различия между группами (p = 0,015), однако пограничное статистическое значение после поправки на множественные сравнения (q = 0,069) требует осторожной интерпретации результатов. Повышенный уровень ТГ отмечался у 21% женщин с субклиническим гипотиреозом (СГ) по сравнению с 8,7% в группе эутиреоза. Эти данные могут отражать компенсаторные структурные изменения в ткани щитовидной железы, такие как гиперплазия тироцитов или ремоделирование ткани, характерные для ранних стадий тиреоидной дисфункции. Уровни антител к тиреоидной пероксидазе (АТ-ТПО) не имели значимых межгрупповых различий (p = 0,6): их повышение зафиксировано у 12% пациенток с СГ и у 15% женщин с эутиреозом. Это может свидетельствовать о сопоставимой частоте аутоиммунной активности среди участниц исследования.

Свободные фракции трийодтиронина и тироксина (свТ3 и свТ4) были снижены у большинства обследованных женщин (свТ3: 71% при СГ против 72% при эутиреозе; свТ4: 87% против 91%), однако межгрупповые различия не достигли статистической значимости (p > 0,4). Эти результаты подтверждают состояние компенсированного гормонального баланса у беременных женщин с СГ. Общий трийодтиронин (тТ3) продемонстрировал статистически значимые различия между группами (p = 0,027), однако после коррекции по Бонферрони значимость была утрачена (q = 0,11). Низкие уровни оТ3 чаще наблюдались в группе эутиреоза (80%), тогда как нормальные значения регистрировались у 23% пациенток с СГ и 13% женщин в группе эутиреоза. Антитела к тиреоглобулину (АТ-ТГ) оставались в пределах нормы у подавляющего большинства обследованных (более 98% в обеих группах), межгрупповых различий не отмечено (p > 0,9)

Анализ, выполненный с использованием логистической регрессии, выявил ряд клинических и лабораторных признаков, достоверно ассоциированных с риском развития субклинического гипотиреоза (СГ) у беременных женщин. Были установлены как факторы риска, повышающие вероятность СГ, так и протективные предикторы, снижающие частоту данного состояния.

Среди факторов риска наиболее сильным предиктором оказалось уплощение ногтевых пластин, которое увеличивало вероятность СГ в 8,75 раза (OR = 8,75; 95% ДИ: 2,94–32,7). Этот симптом, вероятно, отражает хронический дефицит тиреоидных гормонов, приводящий к нарушению роста и минерализации кератиновых структур. Другими значимыми клиническими предикторами СГ явились: **Утомляемость** — OR = 3,48 (95% ДИ: 1,32–9,78), что может быть связано с нарушением энергетического обмена и снижением митохондриальной активности; **Тошнота** — OR = 2,62 (95% ДИ: 1,11–6,37), вероятно указывающая на гипомоторику желудочно-кишечного тракта и вегетативную дисрегуляцию; **Головная боль** — OR = 2,44 (95% ДИ: 1,04–5,91), что может быть

обусловлено сосудистой дисфункцией и изменениями мозговой перфузии на фоне гормонального дисбаланса.

Также были выявлены **протективные факторы**: **Более старший материнский возраст** ассоциировался с 3,4-кратным снижением риска СГ (OR = 0,29; 95% ДИ: 0,09–0,86), что, вероятно, связано с более стабильной эндокринной адаптацией у женщин старшей возрастной группы; **Токсикоз третьего триместра** — OR = 0,15 (95% ДИ: 0,02–0,69), что может быть обусловлено преобладанием иных патофизиологических механизмов в поздние сроки гестации, не связанных напрямую с тиреоидной дисфункцией. (рисунок 1)



Рисунок 1. Логистический регрессионный анализ

Обсуждение. Полученные результаты подтверждают, что субклинический гипотиреоз (СГ) является значимой клинико-эндокринной проблемой у беременных, особенно в йододефицитных регионах. Выявленная распространённость СГ (45,6% среди женщин с гипертензивными состояниями) соответствует литературным данным о росте тиреоидной дисфункции на фоне недостаточной йодной профилактики [10], [11]. Установлена связь СГ с соматическими симптомами, такими как утомляемость, головная боль, головокружение, тошнота и особенно ломкость ногтей, обладающая высоким прогностическим значением (OR = 8,75), что согласуется с данными Gietka-Czernel и Wilson [12], [13]. Эти проявления вероятно отражают снижение базального метаболизма и тканевой гипоксии при тиреоидной недостаточности [14]. Выявленные протективные факторы (старший возраст матери, токсикоз третьего триместра) подтверждают многофакторность патогенеза и возможную роль адаптационных механизмов [15]. Результаты исследования поддерживают мнение о том, что СГ является независимым фактором риска гипертензивных осложнений беременности [16], а частая выявляемость анти-ТПО указывает на аутоиммунную природу тиреоидной дисфункции [17]. Данные подчеркивают необходимость рутинной оценки функции щитовидной железы у беременных из групп риска для профилактики осложнений.

Литературы:

1. American College of Obstetricians and Gynecologists. Practice Bulletin No. 202: Gestational Hypertension and Preeclampsia. Obstetrics & Gynecology, vol. 133, no. 1, 2019, pp. e1-e25
2. J. Podymow and T. August, “Hypertensive Disorders in Pregnancy,” Adv. Chronic Kidney Dis., vol. 18, no. 2, pp. 146-154, 2011
3. World Health Organization, “WHO Recommendations for Prevention and Treatment of Pre-Eclampsia and Eclampsia,” 2011. [Online]. Available: https://www.who.int/reproductivehealth/publications/maternal_perinatal_health/9789241548335/

en/
4. A. Stagnaro-Green et al., “Thyroid Hormones and Pregnancy: Implications for Hypertensive Disorders,” J. Clin. Endocrinol. Metab., vol. 96, no. 10, pp. 2784-2792, 2011.
5. B. M. Casey, et al., “Subclinical Hypothyroidism and Pregnancy Outcomes,” Obstet. Gynecol., vol. 107, no. 2, Part 1, pp. 337-341, 2006
6. Абдураззакова Дилбар Содиковна, Камолдинов Рахимжон Камолдинович, Нишанова Малика Санжаровна, и Умурзакова Рахилахон Закировна. Субклинический гипотиреоз у женщин в Андижанской области. *Национальная ассоциация ученых*, № 74-2, 2021, сс. 22–25. https://cyberleninka.ru/article/n/subklinicheskiy-gipotireoz-u-zhenschin-v-andizhanskoy-oblasti/viewer
7. Министерство здравоохранения Республики Узбекистан. Национальное исследование здоровья: нарушения функции щитовидной железы. Ташкент, 2020.
8. Национальный клинический протокол Артериальная гипертензия во время беременности. Ташкент, 2021.
URL: https://uzaig.uz/medias/media/other/266/arterial-gipertenziya.pdf
9. Национальные клинические протоколы по нозологии Гипотиреоз. Ташкент, 2024. URL: https://gov.uz/ru/ssv/sections/view/11606.
10. Glinoer D. The regulation of thyroid function during normal pregnancy: importance of the iodine nutrition status. Best Pract Res Clin Endocrinol Metab. 2004;18(2):133–152. DOI: 10.1016/j.beem.2004.03.001.
11. Korevaar TIM, et al. Association of maternal thyroid function during early pregnancy with offspring IQ and brain morphology in childhood: a population-based prospective cohort study. Lancet Diabetes Endocrinol. 2016;4(1):35–43. DOI: 10.1016/S2213-8587(15)00327-7.
12. Gietka-Czernel M, Glinicki P. Subclinical hypothyroidism in pregnancy: controversies on diagnosis and treatment. Pol Arch Intern Med. 2021 Mar;131(3):266-275. DOI: 10.20452/pamw.15626.
13. Wilson KL, Casey BM, McIntire DD, et al. Subclinical thyroid disease and the incidence of hypertension in pregnancy. Obstet Gynecol. 2012;119(2 Pt 1):315-320. DOI: 10.1097/AOG.0b013e318240de6a.

TIBBIY TERMINOLOGIYA VA KOMMUNIKATSIYA

Saloxiddinov Xusanboy Utkirbek o‘g‘li
Qo‘qon Universiteti Andijon filiali
Davolash ishi yo‘nalishi talabasi
Ismoilova Shaxzoda Dilshodbek qizi
Ilmiy Rahbar

Annotatsiya: Maqolada tibbiy terminologiya va kommunikatsiyaning sog‘liqni saqlash tizimidagi o‘rni tahlil qilinadi. Tibbiy atamalar tibbiyot xodimlari o‘rtasida aniq axborot almashinuvini ta’minlaydi, biroq bemorlar bilan muloqotda ularni sodda tilda tushuntirish muhim. Shuningdek, til to‘siqlari, tarjima muammolari va raqamli texnologiyalar davrida terminologiyaning o‘zgarishi masalalari yoritilgan. Xulosa qilib aytganda, tibbiy kommunikatsiyaning samaradorligi to‘g‘ri va tushunarli terminologiyaga bog‘liq.

Kalit so‘zlar: tibbiy terminologiya, tibbiy kommunikatsiya, bemor bilan muloqot, sog‘liqni saqlash, tibbiy tarjima, raqamli tibbiyot.

Abstract: The article analyzes the role of medical terminology and communication in the healthcare system. Medical terms ensure accurate information exchange among healthcare professionals, but their clear explanation to patients is equally important. The paper also discusses language barriers, translation challenges, and the evolution of terminology in the digital era. It concludes that effective medical communication largely depends on the use of clear and precise terminology.

Keywords: medical terminology, medical communication, patient interaction, healthcare, medical translation, digital medicine.

Аннотация: В статье рассматривается роль медицинской терминологии и коммуникации в системе здравоохранения. Медицинские термины обеспечивают точный обмен информацией между специалистами, однако важно их понятное объяснение пациентам. Также затрагиваются языковые барьеры, проблемы перевода и изменения терминологии в эпоху цифровой медицины. Сделан вывод, что эффективность медицинской коммуникации во многом зависит от правильного и ясного использования терминов.

Ключевые слова: медицинская терминология, медицинская коммуникация, общение с пациентом, здравоохранение, медицинский перевод, цифровая медицина.

Kirish. Zamonaviy tibbiyot tizimi nafaqat ilmiy bilimlar, balki samarali kommunikatsiya va aniq terminologiyaga ham tayanadi. Shifokorlar, hamshiralar va boshqa tibbiyot xodimlari o‘rtasidagi to‘g‘ri muloqot bemorga ko‘rsatiladigan tibbiy yordamning sifatini belgilovchi asosiy omillardan biridir. Shu sababli, tibbiy terminologiya sog‘liqni saqlash tizimida axborot almashinuvi, tashxis qo‘yish va davolash jarayonlarida muhim o‘rin tutadi[2].

Biroq, amaliyotda tibbiy atamalarning murakkabligi sababli bemor bilan muloqotda ba’zan tushunmovchiliklar yuzaga keladi. Shuning uchun tibbiy mutaxassislar nafaqat o‘zaro, balki bemorlar bilan ham tushunarli, etik va aniq muloqot olib borishni bilishlari zarur.

Raqamli texnologiyalar va global tibbiyot tizimining rivojlanishi natijasida tibbiy terminologiya doimiy o‘zgarib bormoqda. Shu bois, tibbiyot xodimlari til, madaniyat va texnologik yangiliklarga mos ravishda o‘z kommunikatsiya ko‘nikmalarini takomillashtirib borishlari lozim.[6]

Tibbiy terminologiya — bu nafaqat so‘zlar majmui, balki ilmiy tafakkur va amaliy faoliyatning tili hisoblanadi. Har bir atama o‘z ichida aniq ma’no, klinik holat va fiziologik jarayonni ifodalaydi. Shu sababli, tibbiy terminlarni chuqur o‘rganish va ularni to‘g‘ri qo‘llash shifokorlar, hamshiralar hamda talabalar uchun kasbiy kompetensiyaning ajralmas qismidir[3].

Kommunikatsiya esa tibbiyotda insoniy omilni ifodalovchi eng muhim jihatlardan biridir. Bemor bilan samimiy, empatik va tushunarli muloqot o‘rnatgan mutaxassis davolash jarayonining samaradorligini oshiradi. Ayniqsa, tibbiy terminlarni bemorga oddiy va ravshan tilda tushuntirish kasallik haqida to‘g‘ri tushuncha hosil qilishga yordam beradi.

Shuningdek, tibbiy jamoa ichidagi kommunikatsiya ham sog‘liqni saqlash tizimining uzviy ishlashi uchun zarur. Har bir bo‘lim, laboratoriya yoki shifokorlar guruhi o‘rtasidagi ma’lumot almashinuvi tibbiy xatolarni kamaytiradi, bemorga to‘g‘ri tashxis qo‘yish va muvofiq davolash rejasini tuzish imkonini beradi.

Bugungi kunda globalizatsiya va axborot texnologiyalarining tez sur’atlarda rivojlanishi tibbiy terminologiyani yanada boyitmoqda. Ingliz tili tibbiyotning xalqaro tili sifatida e’tirof etilgan bo‘lsa-da, mahalliy tillarda ham yangi atamalarni to‘g‘ri tarjima qilish va amaliyotda qo‘llash masalalari dolzarb bo‘lib qolmoqda. Bu esa lingvistik moslashuv va madaniy sezgirlikni talab etadi.

Shu nuqtai nazardan, tibbiy terminologiya va kommunikatsiya sohalarida ilmiy tadqiqotlar olib borish, tibbiyot xodimlarining til kompetensiyasini oshirish va tibbiy tarjima sifatini yaxshilash sog‘liqni saqlash tizimining umumiy rivojiga xizmat qiladi.

Ushbu maqolada tibbiy terminologiyaning ahamiyati, tibbiy kommunikatsiyaning asosiy tamoyillari, til to‘siqlari va tarjima jarayonidagi muammolar, shuningdek, tibbiy xatoliklarning kommunikatsiya bilan bog‘liqligi tahlil qilinadi.[4]

Tibbiy terminologiyaning mohiyati va vazifasi. Tibbiy terminologiya — bu tibbiyot fanida ishlatiladigan maxsus atamalar tizimi bo‘lib, u kasalliklarni, anatomik tuzilmalarni, fiziologik jarayonlarni, diagnostika va davolash usullarini aniq ifodalash uchun xizmat qiladi. Tibbiy atamalar odatda lotin va yunon tillaridan olingan bo‘lib, bu ularning xalqaro miqyosda yagona va tushunarli bo‘lishini ta’minlaydi. Shu sababli, tibbiy terminologiyani bilish har bir tibbiyot xodimi

uchun kasbiy savodxonlikning ajralmas qismidir.

Tibbiy terminologiyaning asosiy mohiyati — murakkab ilmiy tushunchalarni qisqa, aniq va universal shaklda ifodalashdir. Masalan, “miokard infarkti”, “bronxial astma” yoki “gipertoniya” kabi atamalar turli tillarda turlicha talaffuz qilinishi mumkin, biroq ularning ilmiy ma’nosi bir xil bo‘lib qoladi. Bu esa xalqaro hamkorlik, ilmiy tadqiqotlar va tajriba almashinuvida muhim ahamiyat kasb etadi.

Fan, texnika va sanoat sohasida muvaffaqiyatli ish olib mutaxassis uchun terminlar mohiyatini maxsus leksika, yoki boshqacha aytganda terminologiyani to„g„ri tushunishi hamda undan aniq foydalanishi zarur.

Terminning (lot. terminus – chegara) asosiy vazifasi ilmiy tushunchani faqat o„ziga xos ifodalashdan iborat. Termin sifatida alohida yakka so„z (organizm, hujayra, organ, gen, kasallik, appenditsit, fluorografiya) bilan bir qatorda so„z birikmasi (ko„krak qafasi, ensa suyagi, gipertonik kasallik, sanitar ishlov berish, radiatsion gigiyena) ham bo„lishi mumkin. Kundalik hayotda ishlatiladigan adabiy tilning ommabop so„zlaridan farqli o„laroq terminlarda ilmiy va ilmiytexnik tushunchalar ifodalanadi.

Tibbiy terminologiyaning vazifalari bir nechta asosiy yo‘nalishni o‘z ichiga oladi:

- Axborot almashinuvi vositasi sifatida: tibbiy mutaxassislar o‘rtasida aniq va qisqa muloqotni ta’minlaydi.
- Ilmiy-tadqiqot faoliyatida: yangi kasalliklar, dori vositalari yoki davolash usullarini tasniflashda yagona atamalar tizimini yaratadi.
- Tibbiy ta’lim jarayonida: talabalarga ilmiy fikrlash va tibbiy tushunchalarni to‘g‘ri ifodalashni o‘rgatadi.
- Amaliy faoliyatda: bemorning holatini aniqlash, tibbiy hujjatlarni to‘ldirish va klinik qarorlar qabul qilishda muhim rol o‘ynaydi.

Shuningdek, tibbiy terminologiyaning to‘g‘ri qo‘llanilishi kommunikatsiya samaradorligini oshiradi. Agar mutaxassislar bir xil terminlardan foydalansa, axborot yo‘qotilishi yoki noto‘g‘ri tushunish holatlari kamayadi. Aksincha, noto‘g‘ri yoki chalkash atamalardan foydalanish tashxis va davolashda jiddiy xatoliklarga olib kelishi mumkin.

Umuman olganda, tibbiy terminologiya — bu tibbiyot fanining “tili” bo‘lib, u orqali nafaqat ilmiy muloqot, balki samarali tibbiy amaliyot ham amalga oshiriladi. To‘g‘ri va aniq terminlardan foydalanish tibbiy jarayonlarning aniqligi, ishonchliligi va xalqaro darajadagi uyg‘unligini ta’minlaydi.

Umuman olganda, tibbiy terminologiya — bu tibbiyot fanining “tili” bo‘lib, u orqali nafaqat ilmiy muloqot, balki samarali tibbiy amaliyot ham amalga oshiriladi. To‘g‘ri va aniq terminlardan foydalanish tibbiy jarayonlarning aniqligi, ishonchliligi va xalqaro darajadagi uyg‘unligini ta’minlaydi[7].

Tibbiy kommunikatsiya turlari. Tibbiy kommunikatsiya — bu shifokorlar, hamshiralar, bemorlar va boshqa tibbiyot xodimlari o‘rtasida ma’lumot almashish jarayonidir. U nafaqat so‘zlashuv vositasi, balki tibbiy xizmat sifatiga, bemorning ruhiy holatiga va davolanish jarayonining samaradorligiga bevosita ta’sir ko‘rsatadigan omil hisoblanadi. Samarali kommunikatsiya tibbiy xatoliklarning oldini olish, bemorning ishonchini mustahkamlash va sog‘liqni saqlash tizimida hamkorlik muhitini yaratishda muhim rol o‘ynaydi.

Tibbiy kommunikatsiya bir nechta asosiy turlarga bo‘linadi:

1. Shifokor va bemor o‘rtasidagi kommunikatsiya. Bu turdagi muloqot tibbiy jarayonning eng muhim qismidir. Shifokorning bemor bilan ochiq, samimiy va empatik tarzda muloqot qilishi tashxis qo‘yish va davolash jarayoniga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Bemorni diqqat bilan tinglash, uning his-tuyg‘ulariga hurmat bilan yondashish, tibbiy terminlarni oddiy tilda tushuntirish — samarali kommunikatsiyaning asosi hisoblanadi. Shu orqali bemor o‘z sog‘lig‘i uchun mas’uliyatni his qiladi va davolanish jarayonida faol ishtirok etadi.

2. Tibbiyot xodimlari o‘rtasidagi professional kommunikatsiya. Bu kommunikatsiya shifokorlar, hamshiralar, laboratoriya mutaxassislari va boshqa tibbiyot xodimlari o‘rtasida sodir bo‘ladi. Professional kommunikatsiya aniq, qisqa va standartlashtirilgan bo‘lishi zarur. Ayniqsa,

shoshilinch tibbiy yordam, jarrohlik amaliyotlari yoki bemor topshirish jarayonlarida bu muhim ahamiyat kasb etadi. Noto‘g‘ri yoki noaniq ma’lumot yetkazish bemor hayoti uchun xavfli bo‘lgan xatoliklarga olib kelishi mumkin.

3. Yozma kommunikatsiya. Yozma shakldagi kommunikatsiyaga tibbiy hujjatlar, epikrizlar, laboratoriya natijalari, elektron tibbiy kartalar va ilmiy maqolalar kiradi. Bu turdagi muloqot aniq, rasmiy va tibbiy terminlarga asoslangan bo‘lishi lozim. Hujjatlarda aniqlik va standart tibbiy terminlardan foydalanish sog‘liqni saqlash tizimida ma’lumotlar almashinuvi va tibbiy tahlilning ishonchliligini ta’minlaydi.

4. Og‘zaki (verbal) va noverbal kommunikatsiya. Og‘zaki kommunikatsiya so‘zlashuv orqali amalga oshiriladi, biroq tibbiyotda noverbal signallar — tana tili, ovoz ohangi, yuz ifodasi va ko‘z bilan aloqa ham katta ahamiyatga ega. Noverbal belgilar ko‘pincha bemorning hissiy holatini aniqlashda yoki ishonch muhitini yaratishda yordam beradi.

Tibbiy terminologiya va kommunikatsiyaning o‘zaro bog‘liqligi. Tibbiy terminologiya va kommunikatsiya bir-biri bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan ikki muhim tushunchadir. Ular birgalikda tibbiyot amaliyotining ilmiy asosini va insoniy jihatini tashkil etadi. To‘g‘ri va aniq terminologiyadan foydalanish kommunikatsiyaning aniqligini ta’minlaydi, bu esa bemor bilan o‘zaro tushunishni, tibbiyot xodimlari o‘rtasidagi hamkorlikni va davolash jarayonining samaradorligini oshiradi.

Tibbiy terminologiya — bu tibbiy bilim va amaliyotni yagona tilda ifodalovchi tizim bo‘lsa, kommunikatsiya esa bu bilimlarni to‘g‘ri yetkazish vositasidir. Agar mutaxassislar o‘rtasida terminlardan noto‘g‘ri foydalanilsa, u holda tibbiy ma’lumot noto‘g‘ri talqin qilinishi, hatto bemor hayotiga xavf tug‘diruvchi xatoliklar yuz berishi mumkin. Masalan, dorilarning nomlari yoki dozalarini noto‘g‘ri tushunish, simptom va tashxis atamalarini adashtirish jiddiy oqibatlarga olib keladi.

Tibbiy kommunikatsiyada terminlarning to‘g‘ri qo‘llanishi nafaqat shifokorlar o‘rtasidagi muloqotni, balki shifokor va bemor o‘rtasidagi ishonchni ham mustahkamlaydi. Bemor tibbiy terminlarni to‘liq tushunmasligi mumkin, shu sababli mutaxassis ularni oddiy, tushunarli tilda izohlab berishi zarur. Bu yondashuv bemorning o‘z sog‘lig‘i haqida to‘g‘ri qaror qabul qilishiga yordam beradi va davolanish jarayoniga ishonchini oshiradi.

Tibbiy ta’limda terminologiya va kommunikatsiyani o‘rgatish usullari. Tibbiy ta’lim tizimida terminologiya va kommunikatsiya ko‘nikmalarini shakllantirish — kelajakdagi mutaxassislarning kasbiy mahoratini rivojlantirishning muhim yo‘nalishidir. Shifokor nafaqat tibbiy bilimga, balki uni to‘g‘ri, aniq va insonparvar tarzda ifodalash qobiliyatiga ham ega bo‘lishi zarur. Shu sababli, tibbiy oliy ta’lim muassasalarida terminologiyani o‘rgatish va kommunikatsiya madaniyatini rivojlantirish bir-biri bilan chambarchas bog‘langan jarayon sifatida qaraladi.

1. Tibbiy terminologiyani o‘rgatish usullari.

Tibbiy terminologiyani o‘qitish jarayonida talabalarni lotin va yunon tillaridagi so‘z ildizlari bilan tanishtirish muhim ahamiyatga ega. Bu ularning yangi atamalarni mustaqil tahlil qilish va to‘g‘ri tushunish qobiliyatini oshiradi. O‘qitishda quyidagi usullar samarali hisoblanadi:

- Analitik usul: terminlarning morfologik tuzilishini tahlil qilish orqali ularning ma’nosini anglash.
- Kontekstual o‘qitish: terminlarni klinik holatlar misolida o‘rganish.
- Amaliy mashg‘ulotlar**:** talabalarni real klinik vaziyatlarda terminlardan to‘g‘ri foydalanishga o‘rgatish.

2. Kommunikatsiya ko‘nikmalarini rivojlantirish usullari

Tibbiyotda samarali muloqot o‘rnatish shifokor uchun kasbiy zaruratdir. Shu bois, tibbiy ta’lim jarayonida kommunikatsiya ko‘nikmalarini shakllantirish maxsus metodlar orqali amalga oshiriladi:

- Simulyatsion mashg‘ulotlar: maxsus tibbiy manekenlar yoki virtual bemorlar yordamida muloqot va klinik qaror qabul qilishni o‘rgatish.
- Etik va empatik muloqot treninglari: talabalarga bemor bilan muloqotda hurmat, sabr-toqat va psixologik sezgirlikni rivojlantirish.

- Reflektiv tahlil: talabalar o‘z muloqotlarini yozma yoki audio shaklda tahlil qilib, xatolarni aniqlash va tuzatish imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

3. Integratsiyalashgan yondashuv

Tibbiy terminologiya va kommunikatsiyani o‘qitish jarayoni integratsiyalashgan bo‘lishi kerak. Ya’ni, talabalar tibbiy terminlarni nafaqat nazariy jihatdan, balki bemor bilan muloqotda amaliy tarzda qo‘llashni o‘rganishlari zarur. Bu yondashuv talabalarda ilmiy tafakkur bilan bir qatorda insoniy qadriyatlarni ham rivojlantiradi.

Natijada, tibbiy ta’limda terminologiya va kommunikatsiyani birgalikda o‘qitish — sog‘liqni saqlash tizimida malakali, aniq so‘zlaydigan, empatik va mas’uliyatli mutaxassislarni tayyorlashning kafolatidir.

Tibbiy kommunikatsiyada uchraydigan muammolar va ularni bartaraf etish yo‘llari. Tibbiy kommunikatsiya jarayonida yuzaga keladigan muammolar sog‘liqni saqlash tizimining samaradorligiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Ular ko‘pincha inson omiliga, til farqlariga, vaqt tanqisligiga yoki noto‘g‘ri tushunishga bog‘liq bo‘ladi. Shu sababli, bu muammolarni chuqur tahlil qilish va ularni bartaraf etish mexanizmlarini ishlab chiqish tibbiy amaliyotda juda muhimdir.

1. Til va terminologiya bilan bog‘liq muammolar

Tibbiy atamalarning murakkabligi yoki xorijiy tillardan kirib kelgan yangi terminlarning to‘liq o‘zlashtirilmaganligi bemorlar bilan muloqotda tushunmovchiliklarni keltirib chiqaradi. Ba’zida shifokorlar ilmiy terminlarni ortiqcha ishlatib, bemor uchun tushunarsiz ma’lumot beradi. Yechim**:** shifokorlar tibbiy terminlarni bemor tili darajasiga moslab, sodda va tushunarli shaklda tushuntirishni o‘rganishlari kerak. Tibbiy ta’limda bu ko‘nikma maxsus mashg‘ulotlar orqali rivojlantirilishi lozim.

2. Emotsional va psixologik to‘siqlar

Bemorning ruhiy holati, qo‘rquv yoki ishonchsizlik hissi muloqotga to‘sqinlik qilishi mumkin. Shuningdek, shifokorning hissiy charchoq yoki befarqlik holatida bo‘lishi ham kommunikatsiya sifatiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Yechim**:** empatik muloqotni rivojlantirish, faol tinglash va ruhiy barqarorlikni saqlash bo‘yicha treninglar o‘tkazish zarur.

3. Madaniy va ijtimoiy tafovutlar

Turli madaniyat, e’tiqod yoki qadriyatlar tizimi tibbiy tavsiyalarni qabul qilishda farqlarga olib kelishi mumkin. Yechim: shifokorlar madaniy sezgirlikni oshirish, turli ijtimoiy guruhlar bilan ishlashda moslashuvchan yondashuvni o‘rganishlari kerak.

4. Axborot texnologiyalari bilan bog‘liq muammolar

Raqamli tibbiyot tizimida elektron hujjatlar, telemeditsina yoki onlayn konsultatsiyalar orqali muloqot kuchaymoqda. Biroq texnik nosozliklar, ma’lumotlarning noto‘g‘ri kiritilishi yoki maxfiylik buzilishi kabi xavflar ham mavjud.

Yechim: tibbiy axborot tizimlaridan foydalanishda malaka oshirish, kiberxavfsizlik qoidalariga rioya qilish va elektron hujjatlarni to‘g‘ri yuritish bo‘yicha doimiy treninglar o‘tkazish zarur.

Umuman olganda, tibbiy kommunikatsiyada uchraydigan muammolarni bartaraf etish uchun kompleks yondashuv zarur. Bu yondashuv tibbiy ta’lim, kasbiy rivojlanish, axloqiy me’yorlarga amal qilish va texnologik yangiliklardan oqilona foydalanishni o‘z ichiga oladi. Faqat shunda tibbiyot sohasida samarali, insonparvar va ishonchli muloqot tizimini shakllantirish mumkin bo‘ladi.

Tibbiy terminologiya va kommunikatsiya zamonaviy sog‘liqni saqlash tizimining ajralmas tarkibiy qismlaridir. Ularning uyg‘unligi tibbiy jarayonlarning aniqligi, samaradorligi va insonparvarlik ruhida olib borilishini ta’minlaydi. To‘g‘ri tanlangan va aniq qo‘llangan tibbiy terminlar shifokorlar o‘rtasidagi muloqotni yengillashtiradi, tibbiy xatoliklar ehtimolini kamaytiradi hamda ilmiy tadqiqotlarning sifatini oshiradi.

Kommunikatsiya esa tibbiyotda insoniy omilni aks ettiruvchi eng muhim vositadir. Bemor bilan samimiy, tushunarli va empatik muloqot o‘rnatgan mutaxassis nafaqat davolash jarayonini samarali tashkil etadi, balki bemorning ruhiy holatiga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Tibbiy ta’lim tizimida terminologiya va kommunikatsiyani birgalikda o‘rgatish kelajakdagi mutaxassislarning kasbiy savodxonligini, madaniy sezgirligini va insoniy qadriyatlarini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, raqamli texnologiyalar sharoitida yangi tibbiy terminlarning paydo bo‘lishi va global tibbiy muloqotning kengayishi mutaxassislardan doimiy o‘rganish, moslashish va yangiliklarni o‘zlashtirishni talab qiladi.

Umuman olganda, tibbiy terminologiya va kommunikatsiya sohasidagi bilim va ko‘nikmalarni rivojlantirish — bu sog‘lom jamiyatni shakllantirish, tibbiyot xizmatlari sifatini oshirish va tibbiy xatoliklarning oldini olishning eng muhim kafolatidir.

Xulosa. Tibbiy terminologiya va kommunikatsiya zamonaviy sog‘liqni saqlash tizimining ajralmas tarkibiy qismlaridir. Ularning uyg‘unligi tibbiy jarayonlarning aniqligi, samaradorligi va insonparvarlik ruhida olib borilishini ta’minlaydi. To‘g‘ri tanlangan va aniq qo‘llangan tibbiy terminlar shifokorlar o‘rtasidagi muloqotni yengillashtiradi, tibbiy xatoliklar ehtimolini kamaytiradi hamda ilmiy tadqiqotlarning sifatini oshiradi.

Kommunikatsiya esa tibbiyotda insoniy omilni aks ettiruvchi eng muhim vositadir. Bemor bilan samimiy, tushunarli va empatik muloqot o‘rnatgan mutaxassis nafaqat davolash jarayonini samarali tashkil etadi, balki bemorning ruhiy holatiga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Tibbiy ta’lim tizimida terminologiya va kommunikatsiyani birgalikda o‘rgatish kelajakdagi mutaxassislarning kasbiy savodxonligini, madaniy sezgirligini va insoniy qadriyatlarini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, raqamli texnologiyalar sharoitida yangi tibbiy terminlarning paydo bo‘lishi va global tibbiy muloqotning kengayishi mutaxassislardan doimiy o‘rganish, moslashish va yangiliklarni o‘zlashtirishni talab qiladi.

Umuman olganda, tibbiy terminologiya va kommunikatsiya sohasidagi bilim va ko‘nikmalarni rivojlantirish — bu sog‘lom jamiyatni shakllantirish, tibbiyot xizmatlari sifatini oshirish va tibbiy xatoliklarning oldini olishning eng muhim kafolatidir.

Adabiyotlar ro’yhati:

1. Loting tili va tibbit teminologiya. Sh.Rustamova, A.Saydullayeva, M.Abdullayeva. Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti. (2023). *Tibbiyotda samarali kommunikatsiya: asosiy tamoyillar va eng yaxshi amaliyotlar*. Jeneva: WHO Press.
2. Abdullaeva M. *Tibbiy terminologiya asoslari.* – Toshkent: Tibbiyot nashriyoti, 2021.
3. Silverman J., Kurtz S., Draper J. *Skills for Communicating with Patients.* – Cambridge: Cambridge University Press, 2013...
4. Abdullaeva, M. (2021). Tibbiy terminologiya asoslari. Toshkent: Tibbiyot nashriyoti.
5. Yusupova, G. (2023). Raqamli texnologiyalar davrida tibbiy muloqotning o‘zgarishi. 'Tibbiyot va innovatsiyalar' jurnali, №4, 55–60-betlar.
6. World Health Organization (WHO). (2019). *Effective communication in healthcare: improving patient safety and quality of care*. Geneva: WHO Press.
7. Karimova, M. (2020). *Tibbiy kommunikatsiya asoslari*. — Toshkent: Tibbiyot nashriyoti.
8. *Tibbiy terminologiya bo‘yicha o‘quv qo‘llanma* — R. Berezovskaya, Z. Rasulova, M. Hamroqulova, M. Mahkamov. Toshkent, 2020.
9. Tibbiyotda axborot texnologiyalari - Bazarbayev N.I. Toshkent, 2004.

ИННОВАЦИОННЫЕ ПОДХОДЫ К ПРЕПОДАВАНИЮ МЕДИЦИНСКИХ НАУК

Хусанов А.Р.
Ферганский медицинский институт общественного здравоохранения, кафедра «Коммунальной гигиены и гигиены труда»

Annotatsiya: Maqolada tibbiyot fanlarini o‘qitishda innovatsion yondashuvlarning ahamiyati tahlil qilinadi. Raqamlashtirish, yangi texnologiyalar va axborot oqimining ortishi sharoitida an’anaviy ta’lim usullari zamonaviy talablarga javob bera olmayapti. Shuning uchun simulyatsion o‘qitish, muammoli ta’lim, raqamli platformalar, telemeditsina va sun’iy intellekt kabi innovatsion usullar talabalarning klinik tafakkuri, mustaqil fikrlashi va kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishda muhim o‘rin tutadi. Xulosa sifatida, innovatsion yondashuvlar

tibbiy ta’lim sifatini oshirish va zamonaviy shifokorlarni tayyorlashda hal qiluvchi omil ekanligi ta’kidlanadi.

Kalit so‘zlar: innovatsion ta’lim, tibbiy fanlar, raqamli texnologiyalar, simulyatsion o‘qitish, telemeditsina, muammoli ta’lim, klinik tafakkur, sun’iy intellekt.

Аннотация: В статье рассматриваются инновационные подходы к преподаванию медицинских наук в условиях цифровизации и быстрого развития технологий. Подчеркивается, что традиционные методы обучения уже не обеспечивают необходимого уровня подготовки врачей. Использование проблемно-ориентированного обучения, симуляционных технологий, цифровых платформ, телемедицины и искусственного интеллекта способствует развитию клинического мышления, самостоятельности и профессиональной компетентности студентов. В заключении отмечается, что внедрение инновационных методов является ключевым фактором повышения качества медицинского образования и подготовки специалистов нового поколения.

Ключевые слова: инновационное обучение, медицинские науки, цифровые технологии, симуляционное обучение, телемедицина, проблемно-ориентированное обучение, клиническое мышление, искусственный интеллект.

Abstract: The article examines innovative approaches to teaching medical sciences in the context of digitalization and technological progress. Traditional teaching methods no longer meet the requirements of modern medical education. The integration of problem-based learning, simulation technologies, digital platforms, telemedicine, and artificial intelligence enhances students’ clinical thinking, independence, and professional competence. The study concludes that innovative teaching methods are crucial for improving the quality of medical education and training a new generation of healthcare professionals ready to meet 21st-century challenges.

Keywords: innovative education, medical sciences, digital technologies, simulation-based learning, telemedicine, problem-based learning, clinical thinking, artificial intelligence.

Современное развитие медицины требует от высших учебных заведений постоянного совершенствования образовательных технологий. В условиях цифровизации, роста объёма информации и внедрения новых медицинских технологий традиционные формы преподавания уже не обеспечивают должного уровня подготовки будущих врачей. В этой связи инновационные подходы становятся ключевым направлением модернизации медицинского образования. Они направлены на повышение эффективности учебного процесса, развитие клинического мышления и формирование компетенций, соответствующих требованиям современной медицины.

1. Сущность инновационного обучения

Инновационное обучение – это процесс, основанный на внедрении новых педагогических технологий, цифровых инструментов и активных форм взаимодействия преподавателя и студента. Его цель – не только передача знаний, но и формирование у будущего специалиста способности к самостоятельному анализу, клиническому мышлению, командной работе и профессиональной ответственности.

2. Основные инновационные методы преподавания медицинских наук

2.1. Проблемно-ориентированное обучение (PBL)

Метод основан на разборе реальных клинических ситуаций, которые требуют от студентов активного поиска решений. Он развивает аналитическое и критическое мышление, способствует формированию клинической логики и поощряет коллективное обсуждение.

2.2. Симуляционное обучение

Симуляционные технологии играют важную роль в формировании практических навыков без риска для пациентов. Используются манекены, VR/AR технологии, симуляционные центры, где студенты отрабатывают действия в реальных условиях.

2.3. Цифровые и интерактивные технологии

Использование образовательных платформ (Moodle, Zoom, Google Classroom) делает

процесс обучения более гибким. Применяются видеолекции, интерактивные тесты, 3D-модели, электронные лаборатории и виртуальные больницы.

2.4. Телемедицина и дистанционное обучение

Телемедицина позволяет студентам участвовать в онлайн-консультациях, наблюдать реальные случаи, обмениваться опытом с коллегами из других регионов и стран.

2.5. Командное и междисциплинарное обучение

Современная медицина основана на командной работе. Важно, чтобы студенты разных направлений — врачи, фармацевты, медсёстры — обучались совместно, развивая навыки коммуникации и ответственности.

2.6. Искусственный интеллект и большие данные (Big Data)

Современные цифровые технологии и ИИ активно внедряются в образовательный процесс. AI помогает анализировать клинические данные, моделировать ситуации и обучать точной диагностике.

3. Роль преподавателя

Преподаватель становится не только источником знаний, но и наставником, модератором, направляющим студентов к самостоятельному мышлению и критическому анализу информации.

4. Эффективность внедрения инноваций

Использование инноваций повышает мотивацию студентов, улучшает качество усвоения знаний, развивает уверенность и профессиональные компетенции.

Заключение. Инновационные подходы к преподаванию медицинских наук обеспечивают высокое качество подготовки специалистов, способных эффективно применять знания, адаптироваться к научно-техническому прогрессу и работать в команде. Они формируют новое поколение медицинских кадров, готовых к вызовам XXI века.

Список литературы / References

1. Motola, I., Devine, L. A., Chung, H. S., Sullivan, J. E., & Issenberg, S. B. (2013). Simulation in healthcare education: A best evidence practical guide. Medical Teacher, 35(10), e1511–e1530. https://doi.org/10.3109/0142159X.2013.818632
2. Nestel, D., Groom, J., Eikeland-Husebø, S., & O'Donnell, J. (2020). Simulation for learning and teaching procedural skills: The state of the science. Medical Education, 54(12), 1249–1261. https://doi.org/10.1111/medu.14205
3. Lateef, F. (2010). Simulation-based learning: Just like the real thing. Journal of Emergencies, Trauma, and Shock, 3(4), 348–352. https://doi.org/10.4103/0974-2700.70743
4. Cant, R. P., & Cooper, S. (2014). Simulation in the Internet age: The place of web-based simulation in nursing education. Nurse Education Today, 34(12), 1435–1442. https://doi.org/10.1016/j.nedt.2014.04.011
5. Issenberg, S. B., McGaghie, W. C., Petrusa, E. R., Gordon, D. L., & Scalese, R. J. (2005). Features and uses of high-fidelity medical simulations that lead to effective learning: A BEME systematic review. Medical Teacher, 27(1), 10–28. https://doi.org/10.1080/01421590500046924

TIBBIYOT KECHA VA BUGUN. RIVOJLANISHDAGI JADALLIKLAR, YUTUQLAR VA KAMCHILIKLAR

Xolibekova Ro`zixon Xusanboy qizi

Qo`qon Universiteti Andijon filiali

Tibbiyot fakulteti talabasi adolatxonmanasova@gmail.com

Annotatsiya: Tibbiot sohasida kecha va bugun orasidagi farq juda katta. Ilgari oddiy usullar va cheklangan imkoniyatlar bilan davolash amalga oshirilgan bo‘lsa, hozirgi kunda zamonaviy texnologiyalar va ilm-fan yutuqlari tufayli kasalliklarni aniqlash va davolash ancha

samarali bo‘lib bormoqda. Shu bilan birga, tibbiyot sohasida mavjud ba’zi kamchiliklar, masalan, tibbiy kadrlar yetishmasligi yoki moliyaviy muammolar ham mavjud. Ushbu annotatsiya tibbiyotning tez rivojlanishini, erishilgan yutuqlarni va hozirgi kunda duch kelayotgan muammolarni o‘rganishga bag‘ishlangan.

Kalit so`zlar: tibbiot tarixi, sog‘liqni saqlash, zamonaviy tibbiyot, ilm-fan yutuqlari, tibbiy texnologiyalar, diagnostika usullari, tibbiy kadrlar, jarrohlik amaliyotlari, dori-darmonlar, tibbiyotdagi yangiliklar, sog‘liqni yaxshilash, tibbiyot kamchiliklari, sog‘liq muammolari, kasalliklarni davolash, inson salomatligi, tibbiyot rivoji, sifatli tibbiy xizmat, innovatsiyalar.

Abstract: The field of medicine has evolved dramatically from the past to the present. While treatments were once based on simple methods and limited resources, today’s healthcare benefits from advanced technologies and scientific breakthroughs, enabling more accurate diagnosis and effective treatment of diseases. However, despite these rapid advancements, challenges such as shortages of medical professionals and financial constraints persist. This annotation explores the rapid development of medicine, its remarkable achievements, and the ongoing challenges faced by the healthcare sector.

Keywords: history of medicine, healthcare, modern medicine, scientific achievements, medical technologies, diagnostic methods, medical staff, surgical operations, pharmaceuticals, medical innovations, health improvement, medical challenges, health issues, disease treatment, human health, medical development, quality medical care, innovations

Аннотация: Медицина претерпела значительные изменения с прошлого до настоящего времени. Ранее лечение проводилось с использованием простых методов и ограниченных ресурсов, тогда как сегодня современные технологии и научные достижения позволяют более точно диагностировать и эффективно лечить болезни. Тем не менее, несмотря на быстрый прогресс, существуют и некоторые проблемы, такие как нехватка медицинских кадров и финансовые трудности. Данная аннотация посвящена изучению стремительного развития медицины, достигнутых успехов и текущих проблем в данной области.

Ключевые слова: история медицины, здравоохранение, современная медицина, научные достижения, медицинские технологии, методы диагностики, медицинский персонал, хирургические операции, лекарственные препараты, медицинские инновации, улучшение здоровья, медицинские проблемы, вопросы здоровья, лечение заболеваний, здоровье человека, развитие медицины, качественное медицинское обслуживание, инновации

Kirish. Tibbiot – insoniyat tarixidagi eng muhim va hayotiy sohalardan biri bo‘lib, u har doim jamiyat taraqqiyotining asosiy ko‘rsatkichlaridan biri hisoblangan. Kecha va bugungi kun tibbiyotining farqi juda katta: avvalgi davrlarda oddiy va ko‘p hollarda noaniq usullar bilan kasalliklarni davolashga urinishlar bo‘lsa, bugun ilm-fan yutuqlari va zamonaviy texnologiyalar tufayli tibbiyot butunlay yangi bosqichga ko‘tarildi. Zamonaviy diagnostika usullari, innovatsion dori vositalari, robotlashtirilgan jarrohlik amaliyotlari inson salomatligini ilg‘or darajada ta’minlamoqda. Shu bilan birga, rivojlanish bilan birga tibbiyotda hal etilishi kerak bo‘lgan muammolar va kamchiliklar ham saqlanib qolmoqda. Ushbu mavzu orqali biz tibbiyotning kechagi va bugungi holatini, uning yutuqlari hamda duch kelayotgan muammolarini chuqurroq tahlil qilamiz.

Bugungi kunda tibbiyot sohasidagi o‘zgarishlar juda tez va keng qamrovli bo‘lib, bu insonlarning hayot sifatiga bevosita ta’sir ko‘rsatmoqda. Ilg‘or texnologiyalar yordamida kasalliklarni erta aniqlash, samarali davolash usullarini joriy etish mumkin bo‘ldi. Sun’iy intellekt, genomika, telemeditsina kabi yangi yo‘nalishlar tibbiyotda inqilobiy o‘zgarishlarga sabab bo‘lmoqda. Shu bilan birga, ilg‘or davrda ham sog‘liqni saqlash sohasida yuzaga kelayotgan murakkab muammolarni e’tiborsiz qoldirib bo‘lmaydi.

Masalan, aholining o‘sishi, surunkali kasalliklarning ko‘payishi, tibbiyot xodimlarining yetishmasligi, sog‘liqni saqlash infratuzilmasidagi nomutanosibliklar kabi kamchiliklar sog‘liq tizimining samaradorligini cheklab qo‘ymoqda. Shuningdek, yangi texnologiyalar va dori

vositalarining narxi ko‘plab mamlakatlar uchun katta moliyaviy yuk bo‘lib qolmoqda. Shu bois, sog‘liqni saqlash sohasida yutuqlar va kamchiliklarni baholash, mavjud muammolarni hal etish uchun yangi strategiyalar ishlab chiqish ayni muddao hisoblanadi.

Ushbu maqola tibbiyotning tarixiy rivojlanish yo‘li, bugungi kundagi yutuqlar, shuningdek, duch kelayotgan muammolarni yoritishga qaratilgan bo‘lib, ushbu sohaning jamiyat hayotidagi o‘rni va ahamiyatini chuqur anglashga yordam beradi. Biz tibbiyot sohasidagi zamonaviy yutuqlar bilan birga, mavjud kamchiliklar va ularni bartaraf etish yo‘llarini ham ko‘rib chiqamiz.

So‘nggi o‘n yilliklarda tibbiyotda yuz bergan yutuqlar insoniyat tarixida misli ko‘rilmagan darajada tezlikda ro‘y berdi. Zamonaviy diagnostika usullari, masalan, magnit-rezonans tomografiya (MRT), kompyuter tomografiyasi (KT) va genetik testlar, kasalliklarni aniq va tez aniqlash imkonini yaratdi. Shuningdek, yangi dori vositalari va vaksinalar yaratilishi bilan yuqumli va surunkali kasalliklarga qarshi kurash kuchaytirildi.

Jarrohlik sohasida robotlashtirilgan tizimlar va minimal invaziv amaliyotlar, bemorlar uchun xavfsizlik va tiklanish vaqtining qisqarishiga olib keldi. Telemeditsina va sun’iy intellekt tibbiy xizmatlarni uzoq hududlarda ham sifatli yetkazib berishni ta’minlayapti. Bularning barchasi tibbiyotning yanada insonparvar va samarali bo‘lishiga xizmat qilmoqda.

Shu bilan birga, tibbiyot sohasida hal etilishi lozim bo‘lgan ko‘plab muammolar mavjud. Eng katta kamchiliklardan biri — malakali tibbiy kadrlar yetishmovchiligi. Ko‘plab mamlakatlarda shifokorlar va hamshiralar yetarli emasligi, ayniqsa qishloq joylarda, sifatli tibbiy xizmat ko‘rsatishda to‘siq yaratmoqda.

Moliyaviy resurslarning yetishmasligi ham sog‘liqni saqlash tizimlarining rivojlanishiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Yuqori texnologiyalar va dori vositalarining narxlari ko‘pchilik uchun qimmat bo‘lib, ular keng ommaga yetkazilmaydi. Bundan tashqari, aholining ma’lumot darajasi pastligi va sog‘lom turmush tarzini olib borishdagi yetishmovchiliklar kasalliklarning oldini olishda qiyinchilik tug‘dirmoqda.

Ushbu muammolarni bartaraf etish uchun nafaqat tibbiyot tizimini rivojlantirish, balki jamiyatda sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilish, ta’lim va ma’naviy tarbiyani mustahkamlash zarur. Shunday qilib, tibbiyotdagi yutuqlarni yanada samarali qilish va sog‘liqni yaxshilash mumkin bo‘ladi.

Zamonaviy tibbiyotning rivojlanishi nafaqat hozirgi muammolarni hal qilishga, balki kelajakdagi kasalliklarni oldini olish va inson umrini uzaytirishga qaratilgan. Bugungi kunda gen terapiyasi, personalizatsiyalangan dori-darmonlar, sun’iy organlar yaratish kabi yo‘nalishlar tez sur’atlarda rivojlanmoqda. Bu yutuqlar tibbiyotda inqilobiy o‘zgarishlarni yuzaga keltiradi va inson salomatligini yanada mustahkamlaydi.

Shuningdek, sun’iy intellekt va katta ma’lumotlar tahlili yordamida shifokorlar kasalliklarning oldindan prognozini tuzish, eng samarali davolash usullarini tanlash imkoniga ega bo‘lmoqda. Telemeditsina esa chekka hududlarda yashovchi insonlarga sifatli tibbiy xizmat ko‘rsatishni kengaytirmoqda.

Biroq, kelajakda tibbiyot oldida yangi qiyinchiliklar ham turibdi. Shular jumlasidan axborot xavfsizligi, shaxsiy ma’lumotlarning himoyasi, yangi texnologiyalarni jamoatchilikka to‘g‘ri tushuntirish va ulardan foydalanishda adolatni ta’minlash kabi masalalar dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Tibbiyot kecha va bugun orasidagi farq insoniyat taraqqiyotining yorqin ko‘rsatkichidir. Ilm-fan va texnologiyalar yutuqlari yordamida sog‘liqni saqlash tizimi ancha samaraliroq va innovatsion tus oldi. Shu bilan birga, tibbiyot sohasidagi mavjud kamchiliklar, moliyaviy va ijtimoiy muammolar hal etilishini talab qiladi.

Sog‘liqni saqlash sohasidagi barcha islohotlar inson hayot sifatini yaxshilashga qaratilgan bo‘lib, jamiyatning farovonligi va barqaror rivoji uchun muhimdir. Kelajakda tibbiyotning yanada rivojlanishi, barcha odamlar uchun sifatli va arzon tibbiy xizmat ko‘rsatish imkoniyatlarini kengaytirish dolzarb vazifa bo‘lib qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Islomda sog‘liqni saqlash va tibbiyot asoslari. Toshkent, 2007.
2. Imom Buxoriy. “Sahih al-Bukhari”. Islomiy hadislar to‘plami. Riyod, 1990.
3. Al-Gazzoliy, Abu Hamid Muhammad. “Ihya Ulumiddin”. Diniy-ma’rifiy asar. Qohira, 2002.
4. Abdullaev, S. “Tibbiot tarixi va rivojlanish yo‘llari”. Toshkent, 2018.
5. Karimova, N. “Zamonaviy tibbiyot texnologiyalari va ularning ahamiyati”. Toshkent, 2020.
6. Smith, J. History of Medicine: From Ancient to Modern Times. New York, 2019.
7. Johnson, M. va Lee, A. Advances in Medical Science and Technology. London, 2021.
8. Ivanov, P. “Современные медицинские технологии и их развитие”. Москва, 2017.
9. Petrov, A. “История медицины и современные достижения”. Санкт-Петербург, 2020.
10. World Health Organization. Global Health Report. Geneva, 2023.
11. National Institutes of Health. Innovations in Medical Treatment and Healthcare. Bethesda, MD, 2022.
12. Aliyev, T. “Tibbiyotdagi innovatsiyalar va ularning jamiyatdagi o‘rni”. Toshkent, 2019.
13. Brown, L. Medical Challenges in Developing Countries: Progress and Barriers. Oxford, 2018.
14. Miller, K. va Singh, R. Telemedicine and Artificial Intelligence in Healthcare. Boston, 2020.
15. Rasulov, D. “Sog‘liqni saqlash tizimining moliyaviy va kadrlar masalalari”. Toshkent, 2021.

TIBBIY TA’LIMDA DAVOLASH VA BIOTIBBIYOT MUHANDISLIGI YO‘NALISHIDAGI TALABALARNI O‘QITISHDA 3D-MODELLASHTIRISH VA VR (VIRTUAL REALLIK) TEXNOLOGIYALARINING AHAMIYATI (FARG‘ONA JAMOAT SALOMATLIGI TIBBIYOT INSTITUTI MISOLIDA)

E.A.Valitov
Farg‘ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti Biotibbiyot muhandisligi, biofizika va axborot texnologiyalar kafedrasi assistenti,
Email: fmioz@mail.ru
M.Q.Shokirov
Farg‘ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti talabasi,
M.I.Mo‘minova.
Istanbul Okan Universiteti talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada tibbiy ta’lim jarayonida 3D-modellashtirish va VR (virtual reallik) texnologiyalarining qo‘llanilishi, ularning Davolash va Biotibbiyot muhandisligi yo‘nalishida tahsil olayotgan talabalar uchun ahamiyati tahlil qilingan. Shuningdek, Farg‘ona jamoat salomatligi tibbiyot institutida mazkur texnologiyalarni o‘qitish jarayoniga integratsiya qilishning afzalliklari, o‘quv natijalari va samaradorligi ko‘rib chiqilgan [1].

Kalit so‘zlar: *3D-modellashtirish, virtual reallik, biotibbiyot muhandisligi, innovatsion ta’lim, tibbiy texnologiyalar.*

Аннотация: В данной статье проанализировано применение технологий 3D-моделирования и VR (виртуальной реальности) в процессе медицинского образования, их значение для студентов, обучающихся в области лечебной и биомедицинской инженерии. Также были рассмотрены преимущества, результаты и эффективность интеграции этих технологий в процесс обучения в Ферганском медицинском институте общественного здоровья [1].

Ключевые слова: *3D-моделирование, виртуальная реальность, биомедицинская инженерия, инновационное образование, медицинские технологии.*

Abstract: This article analyzes the application of 3D modeling and VR (virtual reality) technologies in the process of medical education, and their importance for students studying in the field of medical and biomedical engineering. The benefits, outcomes, and effectiveness of integrating these technologies into the learning process at the Ferghana Medical Institute of Public

Health were also considered [1].

Keywords: *3D modeling, virtual reality, biomedical engineering, innovative education, medical technology.*

Kirish: Zamonaviy tibbiy ta’limda innovatsion texnologiyalarni qo‘llash o‘quv jarayonining sifatini oshirish, talabalarni amaliy ko‘nikmalarga ega bo‘lishiga yordam berish va ilmiy fikrlash qobiliyatini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega [1]. 3D-modellashtirish va virtual reallik (VR) texnologiyalari tibbiy fanlarni o‘qitishda vizual va interaktiv yondashuvlarni ta’minlab, talabalarning murakkab biologik va anatomiya jarayonlarini yaxshiroq anglashiga imkon beradi [2]. Farg‘ona jamoat salomatligi tibbiyot institutida ushbu texnologiyalarni o‘quv jarayoniga tatbiq etish bo‘yicha amaliy ishlar olib borilmoqda [3]. Mazkur yondashuv tibbiy ta’limda texnik tafakkurni rivojlantirish, nazariy bilimni amaliy ko‘nikma bilan uyg‘unlashtirishga xizmat qilmoqda.

Metodlar: Tadqiqotda tibbiy ta’lim jarayonida 3D-modellashtirish va VR texnologiyalarini o‘qitish vositasi sifatida qo‘llashga qaratilgan tajriba tahlil qilindi. 3D-modellashtirish texnologiyasi tibbiy ta’limda murakkab organlar, to‘qimalar va tizimlarning uch o‘lchamli tasvirlarini yaratish imkonini beradi [4]. Bu yondashuv anatomiya, fiziologiya, jarrohlik, biotibbiyot muhandisligi kabi fanlarda real modellar o‘rnini bosuvchi interaktiv vosita sifatida samarali natija beradi. Talabalar inson organizmini anatomik jihatdan chuqur o‘rganish, patologik jarayonlarni simulyatsiya qilish hamda muhandislik asoslarini amaliyotda sinab ko‘rish imkoniyatiga ega bo‘ladilar [5].

Virtual reallik (VR) texnologiyalari yordamida esa talabalar xavfsiz muhitda amaliy mashg‘ulotlarni bajaradilar [6,9]. Masalan, jarrohlik amaliyotlari, reanimatsiya jarayonlari yoki biotibbiyot qurilmalari bilan ishlashda VR simulyatsiyalari orqali real tajriba orttirish imkoniyati yaratiladi. Bu jarayon o‘qitish xavfsizligini ta’minlab, talabalarning xatolarini tahlil qilish, refleksiya qilish va o‘z bilimlarini mustahkamlash imkonini beradi [7].

Natijalar va muhokama: Farg‘ona jamoat salomatligi tibbiyot institutida 2024-yildan boshlab VR laboratoriyalar tashkil etildi. Natijada, talabalar klinik vaziyatlarni simulyatsiya asosida o‘rganish, diagnostika va muolaja jarayonlarini modellashtirish imkoniga ega bo‘ldilar [8]. O‘quv jarayonida 3D-modellar yordamida anatomiya fanlari o‘qitilayotgani, talabalar o‘zlari ishlab chiqqan biotibbiyot modellari asosida laborator tahlillar olib borayotganligi kuzatildi [1,4]. Bu yondashuv nafaqat nazariy bilimlarni mustahkamladi, balki talabalar orasida amaliy tahlil qilish, muhandislik yondashuvlaridan foydalana olish, texnik tafakkur va muammoli fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirdi [5]. Biotibbiyot muhandisligi yo‘nalishida 3D-modellashtirish yordamida sun’iy organlar, protezlar, biomexanik tizimlar va diagnostika asboblarining dizayni o‘rganildi [6]. Bu esa tibbiy qurilmalar ishlash prinsiplarini, ularning ergonomik va xavfsizlik jihatlarini yanada chuqur tahlil qilish imkonini berdi [7,9]. Natijalar shuni ko‘rsatdiki, VR asosidagi interaktiv mashg‘ulotlarda qatnashgan talabalar an’anaviy o‘qitish metodlariga nisbatan 25–30% yuqori o‘zlashtirish ko‘rsatkichlariga ega bo‘lgan.

Xulosa: 3D-modellashtirish va virtual reallik texnologiyalari tibbiy ta’limda yangi bosqichni boshlab berdi [1]. Bu texnologiyalar o‘quv jarayonini vizual, interaktiv va amaliy jihatdan boyitib, talabalar tafakkurini rivojlantirishda, ularni zamonaviy tibbiy amaliyotga tayyorlashda muhim rol o‘ynaydi [2]. Farg‘ona jamoat salomatligi tibbiyot institutida bu texnologiyalarni o‘quv jarayoniga tatbiq etish tajribasi shuni ko‘rsatadiki, talabalar o‘zlashtirish samaradorligi sezilarli darajada oshgan [3]. Kelajakda 3D va VR asosidagi o‘quv dasturlarini yanada kengaytirish, mahalliy tibbiy ta’lim muassasalarida virtual laboratoriyalarni tashkil etish zarur [4].

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Ahmedov, S. (2023). *Innovatsion texnologiyalar tibbiy ta’limda.* **Tibbiyot ta’limi jurnali,** (2), 45–52.
2. Jalolova, N. (2022). *Biotibbiyot muhandisligi sohasida 3D-modellashtirishning o‘rni.*

Toshkent: Innovatsion nashrlar.
3. Raufov, A. (2021). *Virtual reallik texnologiyalarining ta'limdagi afzalliklari*. **O'zbekiston ta'lim jurnali,** (4), 33–40.
4. Patel, V., Kumar, R., & Singh, A. (2020). *Applications of 3D modeling in biomedical education.* **Journal of Medical Simulation**, 12(3), 120–128.
5. World Health Organization. (2022). *Digital transformation in medical education.* Geneva: WHO Press.
6. Smith, R., & Clark, T. (2021). *Virtual reality in healthcare training.* Amsterdam: Elsevier Academic Press.
7. Farg'ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti. (2024). *O'quv jarayonida VR va 3D texnologiyalarini joriy etish bo'yicha yillik hisobot.*
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. (2023, iyul 17). *Tibbiy ta'limni modernizatsiya qilish chora-tadbirlari to'g'risida* (PQ–285-son qaror). Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy veb-sayti.
9. Akimovich, V. E., Qizi, M. Z. T., & Qizi, M. M. M. I. (2024). Innovation to evidence and transformation in digital medicine. *Talqin va tadqiqotlar ilmiy-uslubiy jurnali*, *2*(58), 76-79.

ALTSGEYMER KASALLIGI PATOGENEZI VA PROFILAKTIKA YO'NALISHLARI

Yigitaliyev Fayzullo Shavkatbek o'g'li
talaba, Qo'qon universteti Andijon filiali, fayzuloyigitaliyev@gmail.com
A.Sh.Mamatyusupov
Bfn, dots., Qo`qon Universiteti Andijon filiali
Email: azamat.shm@mail.ru
A.A.Mamajonov
PhD, v/b. dots., Qo`qon Universiteti Andijon filiali
Email: biomamajonov0021@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada Altsgeymer kasalligining patogenez mexanizmlari va zamonaviy profilaktika yo'nalishlari yoritilgan. Altsgeymer kasalligi — markaziy asab tizimining surunkali degenerativ kasalligi bo'lib, u asosan keksa yoshdagi odamlarda uchraydi va xotira, tafakkur, nutq hamda kundalik faoliyatning buzilishi bilan kechadi. Patogenezida amiloid-beta peptidlarning to'planishi, tau-oqsillarining fosforillanishi, oksidlovchi stress, neyronlarning apoptozi va sinaptik uzilishlar muhim o'rin tutadi.

Kalit so'zlar: altsgeymer kasalligi, patogenez, amiloid-beta, tau-oqsili, neyrodegeneratsiya, profilaktika, antioksidantlar.

Abstract. This article discusses the mechanisms of pathogenesis and modern preventive measures of Alzheimer's disease. Alzheimer's disease is a chronic degenerative disease of the central nervous system, which occurs mainly in older people and is characterized by impaired memory, thinking, speech, and daily activities. The accumulation of amyloid-beta peptides, phosphorylation of tau proteins, oxidative stress, neuronal apoptosis, and synaptic disruption play an important role in its pathogenesis.

Keywords: alzheimer's disease, pathogenesis, amyloid-beta, tau protein, neurodegeneration, prevention, antioxidants.

Аннотация. В статье рассматриваются механизмы патогенеза и современные методы профилактики болезни Альцгеймера. Болезнь Альцгеймера — хроническое дегенеративное заболевание центральной нервной системы, встречающееся преимущественно у лиц пожилого возраста и характеризующееся нарушением памяти, мышления, речи и повседневной деятельности. В патогенезе болезни важную роль играют накопление бета-амилоидных пептидов, фосфорилирование тау-белков, окислительный стресс, нейрональный апоптоз и синаптические нарушения.

Ключевые слова: болезнь Альцгеймера, патогенез, бета-амилоид, тау-белок, нейродегенерация, профилактика, антиоксиданты.

Altsgeymer kasalligi (AK) — bu markaziy asab tizimining eng keng tarqalgan surunkali degenerativ kasalliklaridan biri bo‘lib, demensiyaning asosiy sababi hisoblanadi. Ushbu kasallik asta-sekin rivojlanib, xotira, diqqat, tafakkur, nutq va kundalik faoliyatning izchil buzilishi bilan namoyon bo‘ladi. Dastlab kasallik yengil unutuvchanlik bilan boshlanadi, keyinchalik esa bemor shaxsiyatining o‘zgarishi, oriyentatsiya yo‘qolishi va to‘liq mustaqillikni yo‘qotish holatlariga olib keladi. So‘nggi yillarda Altsgeymer kasalligining patogenezi chuqur o‘rganilmoqda. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, kasallikning asosida amiloid-beta peptidlarining miya to‘qimalarida to‘planishi, tau-oqsillarining patologik o‘zgarishi, oksidlovchi stress, energetik buzilishlar va neyronlarning degeneratsiyasi yotadi. Shu bilan birga, irsiy omillar, yoshi ulug‘lik, yurak-qon tomir tizimi kasalliklari, giperxolesterinemiya va past jismoniy faollik ham kasallik rivojlanishida muhim rol o‘ynaydi. Altsgeymer kasalligi nafaqat tibbiy, balki ijtimoiy muammo sifatida ham katta ahamiyat kasb etadi. Chunki u nafaqat bemorning hayot sifatini, balki uning yaqinlari va jamiyatga bo‘lgan ijtimoiy yukni ham keskin oshiradi. Shu sababli, bu kasallikni erta aniqlash, patogenezini chuqur o‘rganish va samarali profilaktika choralari ishlab chiqish bugungi zamon nevrologiyasining eng dolzarb masalalaridan biridir [1].

Kasallik rivojida genetik omillar (APP, PSEN1, PSEN2, APOE genlari) va atrof-muhit ta’sirlari ham ahamiyatlidir. Profilaktika yo‘nalishlari sifatida sog‘lom turmush tarzi, to‘g‘ri ovqatlanish (O‘rta dengiz dietasi), jismoniy faollik, aqliy mashg‘ulotlar va antioksidantlarga boy mahsulotlar iste’moli tavsiya etiladi. Shu bilan birga, erta diagnostika va neyrohimoya terapiyalari orqali kasallikning rivojlanishini sekinlashtirish mumkin.

Altsgeymer kasalligining patogenezi murakkab va ko‘p omilli bo‘lib, asosan neyronlarning degeneratsiyasi va sinaptik uzilishlar natijasida yuzaga keladi. Kasallikning rivojlanishida bir nechta asosiy mexanizmlar ishtirok etadi.

1. Amiloid-beta (Aβ) to‘planishi. Kasallikning asosiy belgilaridan biri — miya to‘qimasida amiloid-beta peptidlarining patologik to‘planishidir. Bu peptidlar APP (amyloid precursor protein) ning noto‘g‘ri parchalanishi natijasida hosil bo‘ladi. To‘plangan amiloid plaqalar neyronlar orasidagi axborot almashinuvni buzadi, yallig‘lanish jarayonlarini faollashtiradi va neyronlarning apoptoziga sabab bo‘ladi [2].

2. Tau-oqsillarining patologik o‘zgarishi. Normada tau-oqsili neyronlarda mikronaychalar (mikrotubulalar) barqarorligini ta’minlaydi. Ammo Altsgeymer kasalligida bu oqsil ortiqcha fosforillanadi, natijada u o‘z funksiyasini yo‘qotib, neyrofibrillyar tangles (tugunlar) hosil qiladi. Bu esa axon ichidagi moddalar transportini buzadi va neyronlarning nobud bo‘lishiga olib keladi [3].

3. Oksidlovchi stress va mitoxondrial disfunktsiya. Oksidlovchi stress natijasida erkin radikallar ko‘payadi, bu esa hujayra membranalari, DNK va oqsillarga zarar yetkazadi. Shu bilan birga, mitoxondriyalar faoliyati buziladi, energiya ishlab chiqarish kamayadi va neyronlar o‘limi tezlashadi.

4. Yallig‘lanish jarayonlari. Miya to‘qimasida mikrogliya hujayralarining ortiqcha faollashuvi natijasida yallig‘lanish sitokinlari (IL-1β, TNF-α va boshqalar) ajralib chiqadi. Bu moddalar neyronlarga toksik ta’sir ko‘rsatib, degeneratsiyani chuqurlashtiradi [4].

5. Neyrotransmitter tizimining buzilishi. Ayniqsa, atsetilxolin miqdorining kamayishi Altsgeymer kasalligi uchun xosdir. Shu sababli xotira va o‘quv jarayonlarida ishtirok etuvchi nerv impulslarining uzatilishi sustlashadi.

6. Genetik omillar. APP, PSEN1, PSEN2 va APOE genlaridagi mutatsiyalar Altsgeymer kasalligining erta boshlanadigan shakllarini chaqiradi. Ayniqsa APOE ε4 alleli kasallikka moyillikni oshiruvchi muhim genetik marker hisoblanadi. Shunday qilib, Altsgeymer kasalligining patogenezi o‘zaro bog‘liq molekulyar va hujayraviy jarayonlar majmuasidan iborat bo‘lib, ularning natijasida miya to‘qimalarida amiloid plaqalar va tau-tugunlar hosil bo‘ladi, neyronlar nobud bo‘ladi va demensiya klinik belgilar bilan namoyon bo‘ladi [5].

Altsgeymer kasalligi — bu markaziy asab tizimining eng keng tarqalgan degenerativ kasalliklaridan biri bo‘lib, uning asosida amiloid-beta plaqalari to‘planishi, tau-oqsilining

giperfosforillanishi, oksidlovchi stress, yallig‘lanish jarayonlari va neyrodegeneratsiya yotadi. Ushbu patologik jarayonlar natijasida neyronlar faoliyati izdan chiqadi, sinaptik uzatish buziladi va asta-sekin demensiya klinik belgilariga olib keladi. Kasallikning hozircha to‘liq davosi yo‘q, ammo erta profilaktika va sog‘lom turmush tarzi uning rivojlanishini sezilarli darajada sekinlashtiradi. Xususan, O‘rta dengiz dietasi, jismoniy faollik, aqliy mashg‘ulotlar, stressni kamaytirish va antioksidantlarga boy mahsulotlar (vitamin E, C, polifenollar, kurkumin, resveratrol) miya hujayralarini himoya qilib, neyrodegeneratsiya jarayonlarini susaytiradi. Shunday qilib, Altsgeymer kasalligiga qarshi kurashda asosiy yo‘nalish — bu patogenezni chuqur tushunish, erta tashxis qo‘yish va profilaktik chora-tadbirlarni kundalik hayot tarziga tatbiq etishdir. Shu yo‘l bilan kognitiv funksiyalarni saqlab qolish va bemor hayot sifatini yaxshilash mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Selkoe D.J., Hardy J. The amyloid hypothesis of Alzheimer’s disease. EMBO Molecular Medicine, 2016
2. Querfurth H.W., LaFerla F.M. Alzheimer’s disease. The New England Journal of Medicine, 2010
3. Alzheimer’s Association. 2024 Alzheimer’s Disease Facts and Figures. Alzheimer’s & Dementia Journal, 2024.
4. Butterfield D.A., Halliwell B. Oxidative stress, amyloid β-peptide, and Alzheimer’s disease: the bystander or culprit? — Free Radical Biology & Medicine, 2019
5. De Strooper B., Karran E. The cellular phase of Alzheimer’s disease. Cell, 2016.

TYPOLOGICAL ANALYSIS OF HUMOR IN CHILDREN'S LITERATURE

Kayimova Zulfiya

Master of OSHMPU

Abstract; This article explores the typological diversity of humor in children's literature, examining its various forms such as verbal, fantastical, parodic, and physical humor. The analysis highlights the role of humor in engaging young readers, fostering creativity, and supporting emotional and social development. Understanding the different types of humor enables authors and educators to create more effective and enjoyable literary works for children, promoting positive attitudes towards reading and learning.

Keywords: children's literature, humor, typological analysis, verbal humor, fantastical humor, satirical humor, physical comedy, emotional development, cognitive growth, literary engagement

Humor plays a vital role in children's literature, serving not only as a source of entertainment but also as a pedagogical tool that fosters emotional development, creativity, and critical thinking. Understanding the various forms and functions of humor in works aimed at young readers can provide valuable insights into how authors engage children and promote positive attitudes toward reading and learning.

Types of Humor in Children's Literature-This category includes puns, jokes, witty dialogues, and playful language. Verbal humor enhances linguistic skills, vocabulary, and language comprehension. It often relies on wordplay, double meanings, and clever expressions that delight children and encourage them to explore language more deeply. Common in fairy tales and fantasy stories, this humor involves breaking logical laws and introducing surreal, exaggerated elements. Such humor stimulates imagination, encouraging children to think beyond reality and fostering creative thinking. This form mocks societal norms, foolish behaviors, or injustice, often through parody or satire. It helps children develop critical awareness and moral judgments by recognizing absurdities and learning to question authority or societal conventions. Involving funny situations, accidents, and exaggerated actions, this humor appeals to children’s love of visual comedy. It is prevalent in cartoons, illustrated books, and comic strips, eliciting spontaneous laughter and joy.

The Importance of Typological Analysis-Analyzing the different types of humor used in

children's literature reveals how authors craft engaging narratives that entertain while also educating. Humor can alleviate tension, foster empathy, and promote positive social skills. Moreover, understanding the typology of humor allows educators and writers to tailor content to specific age groups, developmental stages, and cultural contexts. The history of children's literature reflects the evolving social, cultural, and educational values of societies over centuries. Its origins can be traced back to ancient civilizations, where stories were orally transmitted to teach moral lessons and cultural traditions. In ancient Greece and Rome, fables and didactic tales served to instill virtues and social norms among young audiences.

The Middle Ages saw the emergence of didactic stories and religious texts aimed at instructing children in faith and morality. However, it was during the Renaissance and the subsequent centuries that children's literature began to take a more distinct form, with fairy tales, fables, and adventure stories becoming popular. The publication of works like John Newbery's "A Little Pretty Pocket-Book" in 1744 marked the beginning of dedicated children's publishing.

The 19th century is considered the golden age of children's literature, characterized by the works of authors such as Lewis Carroll, Hans Christian Andersen, and the Brothers Grimm. These writers created timeless stories that combined imagination, moral lessons, and entertainment. The rise of illustrated books also contributed to making literature more accessible and appealing to children.

In the 20th century, children's literature expanded further with the advent of new genres, including fantasy, science fiction, and contemporary realistic fiction. The focus shifted toward addressing children's psychological needs and promoting values such as diversity, equality, and environmental awareness.

Today, children's literature continues to evolve with digital media and global influences, offering a rich diversity of stories that reflect the multicultural world we live in. Its development mirrors broader societal changes and underscores the importance of nurturing the moral, emotional, and cognitive growth of young readers. **Scientists' and Medical Experts' Views on Humor**

Humor has long been recognized as an important part of human life, but what do scientists and medical experts say about its effects? Over the years, researchers from various fields have studied humor to understand its benefits and potential limitations.

Many scientists agree that humor plays a crucial role in mental health. It can reduce stress, improve mood, and strengthen social bonds. According to numerous studies, laughter triggers the release of endorphins—natural feel-good chemicals in the brain—which can help alleviate pain and promote overall well-being. For example, humor therapy is used in hospitals to aid in patient recovery and improve quality of life.

Medical experts also highlight the physical health benefits of humor. Regular laughter has been shown to improve cardiovascular health by increasing blood flow and reducing blood pressure. Additionally, humor can boost the immune system, making individuals more resistant to illness. However, some scientists note that humor must be used carefully. Not all jokes are appropriate in every context, and humor that is offensive or insensitive can cause harm or deepen social divides. Experts emphasize the importance of understanding cultural and individual differences in humor to promote positive social interactions.

In summary, the consensus among scientists and medical professionals is that humor is a valuable tool for improving mental and physical health. When used thoughtfully, humor can be a powerful means of enhancing well-being and fostering social connection.

Conclusion

Humor is an indispensable component of children's literature, enriching texts with multiple layers of meaning and emotional engagement. A typological approach uncovers the diverse ways humor is employed to shape young minds, making reading a joyful and meaningful experience. Future research and literary creation should continue to explore and utilize the rich spectrum of humor to support children's development and love for reading. Humor is a universal aspect of human life that has existed since ancient times. Its origins can be traced back to early human

societies, where laughter and jokes served as social tools to build bonds, diffuse tension, and communicate effectively. Ancient civilizations, such as the Greeks and Romans, recognized humor's importance and incorporated it into their literature, theater, and philosophy.

In ancient Greece, comedians like Aristophanes used satire and parody to critique politics and society, laying the groundwork for comedic arts. The Romans continued this tradition with satirical poetry and humorous plays. During the Middle Ages, humor was often expressed through stories, jests, and puns, frequently intertwined with religious and societal themes.

The Renaissance period saw a revival of humorous literature, with writers like Rabelais and Cervantes employing wit and satire to challenge authority and explore human nature. The invention of the printing press allowed jokes, humorous stories, and satirical works to reach wider audiences.

The 17th and 18th centuries marked the development of comedy as a formal art form, with playwrights like Molière and Shakespeare creating timeless comedic characters and scenarios. The 19th century introduced a focus on observational humor and slapstick comedy, exemplified by figures like Charlie Chaplin and the rise of vaudeville. In the 20th century, humor diversified further with the advent of radio, television, and digital media. Stand-up comedy, sitcoms, and internet memes became new platforms for humor, reflecting societal changes and cultural diversity.

Today, humor remains a vital part of human expression, evolving with technology and global interconnectedness. It continues to serve as a means of entertainment, social commentary, and psychological relief, illustrating its enduring significance throughout history.

REFERENCES

1. Berk, L. S. (2001). *The Humor Advantage: Why Some People Are Funny and Others Are Not*. McGraw-Hill.
2. Martin, R. A. (2007). *The Psychology of Humor: An Integrative Approach*. Elsevier Academic Press.
3. Fry, W. F. (1994). *Laughter and Stress: An Examination of the Therapeutic Effects of Humor*. Journal of Health Psychology, 3(2), 123-135.
4. Provine, R. R. (2000). *Laughter: A Scientific Investigation*. Penguin Books.
5. Bennett, M. P., & Lengacher, C. (2006). Humor and Humor Therapy in Clinical Practice. *Psychosocial Nursing and Mental Health Services*, 44(8), 15-21.
6. Melcher, J. (2013). The Role of Humor in Physical and Mental Health. *Medical Journal of Humor Studies*, 5(1), 45-59.

TRAVMADAN KEYINGI REABLITATSIYA VA FIZOTERAPIYANING AHAMIYATI

Kamolova Muborakxon Otabek qizi

talaba, Qo‘qon universteti Andijon filiali talabasi drmuborak@gmail.com

Qobilov Xojiakbar Baxtiyorjon o‘g‘li

o‘qituvchi, Qo‘qon universteti Andijon filiali o‘qituvchisi bioqobilov@gmail.com

Annotatsiya: Bu maqolada travmadan keyingi reabilitatsiya va fizioterapiyaning tibbiyot amaliyotidagi o‘rni, ahamiyati hamda zamonaviy yondashuvlari haqida so‘z yuritiladi. Travmalar — inson organizmining to‘qima va organlarida mexanik, kimyoviy yoki termik ta’sir natijasida yuzaga keladigan shikastlanishlardir. Ular ko‘pincha harakat funksiyalarining buzilishi, mushak atrofiyasi, og‘riq sindromi va ruhiy iztiroblarga olib keladi. Shu sababli travmadan keyingi davrda kompleks reabilitatsiya muhim ahamiyat kasb etadi.

Kalit so‘zlar: travma, mushak tonusi, harakat funksiyasi, reabilitatsiya, fizioterapiya.

Abstract: This article discusses the role, importance and modern approaches of post-traumatic rehabilitation and physiotherapy in medical practice. Traumas are injuries to the tissues and organs of the human body that occur as a result of mechanical, chemical or thermal effects. They often lead to impaired motor functions, muscle atrophy, pain syndrome and psychological distress. Therefore, complex rehabilitation is of great importance in the post-traumatic period.

Keywords: Trauma, muscle tone, motor function, rehabilitation, physiotherapy.

Аннотация: В статье рассматриваются роль, значение и современные подходы к посттравматической реабилитации и физиотерапии в медицинской практике. Травмы – это повреждения тканей и органов человека, возникающие в результате механического, химического или термического воздействия. Они часто приводят к нарушению двигательных функций, атрофии мышц, болевому синдрому и психологическому стрессу. Поэтому комплексная реабилитация имеет большое значение в посттравматическом периоде.

Ключевые слова: травма, мышечный тонус, двигательная функция, реабилитация, физиотерапия.

Inson hayoti davomida turli xil travmatik holatlar — mexanik shikastlanishlar, yo‘l-transport hodisalari, ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalar, sport jarohatlari yoki uy sharoitidagi yiqilishlar oqibatida turli darajadagi tana shikastlanishlariga duch kelishi mumkin. Travma nafaqat shikastlangan joyning anatomik yaxlitligini, balki butun organizmning funksional holatini ham o‘zgartiradi. Bunday holatlarda bemor nafaqat jismoniy, balki ruhiy jihatdan ham tiklanishni talab qiladi. Shu boisdan travmadan keyingi reabilitatsiya tibbiyotning dolzarb va muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Reabilitatsiya — bu bemorning yo‘qotilgan funksiyalarini tiklash, jismoniy, ruhiy va ijtimoiy moslashuvini ta’minlashga qaratilgan kompleks tibbiy, fizioterapevtik, psixologik va ijtimoiy tadbirlar majmuasidir [1]. Travmadan keyingi reabilitatsiya jarayoni erta boshlangan taqdirda bemorning sog‘ayish sur’ati tezlashadi, asoratlar kamayadi va nogironlik holati oldi olinadi. Reabilitatsiya jarayonida fizioterapiya, davolovchi jismoniy mashqlar, massaj, refleksoterapiya, elektroterapiya kabi usullar keng qo‘llaniladi. Fizioterapiya reabilitatsiya tizimining ajralmas bo‘lagi bo‘lib, u tabiiy va sun’iy fizik omillar yordamida organizmga ta’sir ko‘rsatadi. Elektr toki, ultratovush, issiqlik, lazer, magnit maydoni, suv muolajalari kabi fizioterapevtik usullar bemorning tiklanish jarayonini tezlashtiradi, mushak tonusini normallashtiradi, qon aylanish va nerv tizimi faoliyatini yaxshilaydi. Shu bilan birga, fizioterapiya bemorda og‘riqni kamaytiradi, yallig‘lanish jarayonini pasaytiradi va psixoemotsional holatni barqarorlashtiradi. Bugungi kunda reabilitatsiya va fizioterapiya sohasida ilmiy yondashuvlar, zamonaviy texnologiyalar va individual davolash dasturlari keng rivojlanmoqda. Har bir bemorga alohida reabilitatsion dastur tuzish, shikastlanish turi, og‘irligi va umumiy sog‘liq holatini inobatga olish tiklanish samaradorligini oshiradi. Shu boisdan travmadan keyingi reabilitatsiya va fizioterapiya nafaqat tibbiy, balki ijtimoiy jihatdan ham katta ahamiyatga ega bo‘lib, bemorning hayot sifatini yaxshilashda muhim rol o‘ynaydi.

Mushak tonusi — bu mushaklarning tinch holatda ham ma’lum darajada taranglikda bo‘lishi bilan ifodalanadigan fiziologik holatdir. U markaziy va periferik asab tizimi tomonidan boshqariladi hamda harakatlarni muvofiqlashtirish, tana holatini saqlash va muvozanatni ta’minlashda muhim rol o‘ynaydi. Mushak tonusi normal bo‘lganda inson tanasi erkin harakatlanadi, mushaklar faoliyati uyg‘un bo‘ladi va harakat koordinatsiyasi saqlanib turadi. Travmadan so‘ng mushak tonusi ko‘pincha o‘zgaradi — u gipotonus (mushaklar bo‘shashishi) yoki gipertonus (mushaklarning haddan tashqari taranglashuvi) ko‘rinishida namoyon bo‘ladi. Bu holatlar asosan nerv tolalari, mushak tolalari yoki orqa miya reflektor yoylarining shikastlanishi natijasida yuzaga keladi [2]. Mushak tonusining buzilishi bemorda harakatning cheklanishi, og‘riq, muvozanatning buzilishi va tez charchash kabi belgilar bilan kechadi. Reabilitatsiya jarayonida mushak tonusini normallashtirish asosiy maqsadlardan biridir. Buning uchun fizioterapiya, davolovchi jismoniy mashqlar (LFK), massaj, elektroterapiya va issiqlik muolajalari qo‘llaniladi. Gipotoniyada — elektr stimulyatsiya, faol mashqlar, suv muolajalari mushak faoliyatini rag‘batlantiradi. Gipertoniyada — issiqlik muolajalari, ultratovush, yengil massaj va passiv mashqlar mushakni bo‘shashtiradi. Mushak tonusining tiklanishi bemorning umumiy reabilitatsiyasida muhim ahamiyatga ega, chunki u harakat faoliyatining qayta tiklanishini, qon aylanishning yaxshilanishini va organizmning funksional holatini barqarorlashtiradi. Shuningdek, mushak tonusining me’yorda bo‘lishi og‘riqni kamaytiradi, mushak kuchini oshiradi hamda bemorning mustaqil harakatlanish imkoniyatini kengaytiradi. Mushak tonusi travmadan keyingi

reabilitatsiyada markaziy o‘rin tutadi va uning normallashuvi tiklanish jarayonining muhim ko‘rsatkichlaridan biri hisoblanadi.

Harakat funksiyasi — inson organizmining eng muhim fiziologik jarayonlaridan biri bo‘lib, u skelet mushaklari, nerv tizimi, bo‘g‘imlar va suyaklar o‘rtasidagi uzviy hamkorlik natijasida amalga oshadi. Harakat funksiyasi orqali inson turish, yurish, yugurish, buyumlarni ushlash, egilish kabi harakatlarni bajaradi. Bu funksiyaning normal faoliyati insonning mehnat qobiliyati, kundalik faoliyati va hayot sifatini belgilovchi asosiy omillardan biridir. Travmadan keyin harakat funksiyasi turli darajada buzilishi mumkin. Masalan, suyak sinishi, mushak yoki paylarning uzilishi, bo‘g‘im chiqishi, asab shikastlanishi natijasida harakat hajmi cheklanadi, og‘riq paydo bo‘ladi, muvozanat buziladi va mushak kuchi kamayadi. Bunday holatlarda bemor ko‘p hollarda mustaqil harakatlana olmaydi yoki cheklangan holda yuradi. Travmadan keyingi reabilitatsiyada harakat funksiyasini tiklash eng muhim bosqichlardan biridir. Bu jarayon bosqichma-bosqich amalga oshiriladi va har bir bosqichda bemorning holatiga mos individual yondashuv qo‘llaniladi [3].

Reabilitatsiya davomida quyidagi usullar muhim rol o‘ynaydi: Davolovchi jismoniy mashqlar (LFK) – mushak kuchini oshirish, bo‘g‘imlar harakatchanligini tiklash, muvozanatni yaxshilash. Fizioterapiya – qon aylanishni faollashtirish, yallig‘lanishni kamaytirish, og‘riqni yengillashtirish. Massaj – mushaklarni bo‘shashtirish, qon aylanishini yaxshilash. Suv muolajalari va gidroterapiya – og‘riqsiz harakatni rag‘batlantirish. Psixologik qo‘llab-quvvatlash bemorni ruhiy jihatdan tiklash va harakatga motivatsiyani oshirish. Harakat funksiyasi tiklangan sari bemorning jismoniy mustaqilligi, o‘ziga ishonchi va hayot sifati yaxshilanadi. To‘g‘ri tashkil etilgan reabilitatsiya dasturi yordamida harakat faoliyatining to‘liq tiklanishiga erishish, shuningdek, asoratlar — kontraktura, mushak atrofiyasi va og‘riqli sindromlarning oldini olish mumkin. Harakat funksiyasini tiklash travmadan keyingi reabilitatsiyaning markaziy maqsadi bo‘lib, u bemorni to‘laqonli hayot faoliyatiga qaytarishning eng muhim sharti hisoblanadi.
5. Ilmiy-metodik maqola (Pedagogika): Tursunov A.A. *Oliy tibbiyot ta’limida fizika fanini kasbga yo‘naltirib o‘qitishning didaktik asoslari.* // Oliy ta’lim taraqqiyoti: Ilmiy-metodik jurnal. – 2021. – № 3. *(Fizikani klinik fanlar bilan bog‘lash metodikasiga oid ilmiy yondashuv.)*
6. Xalqaro Adabiyot (Detektorlar texnologiyasi): Podgorsak E.B. *Radiation Physics for Medical Physicists.* – Springer, 2015. *(Tibbiy fizika, radiologiya va dozimetriya sohasidagi detektorlar turlari va ularning ishlash mexanizmlariga bag‘ishlangan xalqaro manba.)*
7. Dissertatsiya/Avtoreferat (Innovatsiya va ta’lim): Karimov I. M. *Oliy ta’limda tabiiy fanlarni o‘qitishda innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo‘llash metodikasini takomillashtirish.* – Pedagogika fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent, 2023. *(Ta’lim jarayoniga zamonaviy texnologiyalarni integratsiya qilishning umumiy prinsiplari.)*

ASALARI MUMI TARKIBINING BIOLOGIK AHAMIYATI VA UNING ORGANIZMGA TA’SIRI

Toshpo'latova Mubina
talaba, Qo’qon Universiteti Andijon filiali,
drmubina719@gmail.com
Fazliddinov Firdavs G‘ayratjon o‘g‘li
doktorant, Qo’qon Universiteti Andijon filiali biofazliddinov@gmail.com
Mamajonov Abrorbek Adiljonovich
dots v/b PhD, Qo`qon Universiteti Andijon filiali biomamajonov0021@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu tezisda asalarichilik mahsuloti hisoblangan asalari mumi (mum) tarkibining kimyoviy va biologik ahamiyati, hamda uning inson organizmiga ko‘rsatadigan ta’siri ilmiy nuqtai nazardan tahlil qilinadi. Asalari mumi asosan efir moylari, uglevodorodlar, eruvchan yog‘ kislotalari, efirlar va karotin, A hamda E vitaminlari kabi biologik faol moddalardan tashkil topgan. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, asalari mumi antibakterial, yallig‘lanishga qarshi, regenerativ va himoya xususiyatlariga ega.

Kalit so‘zlar: Asalari mumi, biologik faol modda, antibakterial ta’sir, lipidlar, efirlar, yallig‘lanishga qarshi, regeneratsiya, vitaminlar

Abstract. This thesis analyzes the chemical and biological significance of the composition of beeswax (wax), a beekeeping product, and its effects on the human body from a scientific perspective. Beeswax is mainly composed of essential oils, hydrocarbons, soluble fatty acids, esters, and biologically active substances such as carotene, vitamins A and E. Studies show that beeswax has antibacterial, anti-inflammatory, regenerative and protective properties.

Keywords: Beeswax, biologically active substance, antibacterial effect, lipids, esters, anti-inflammatory, regeneration, vitamins

Аннотация. В данной диссертации анализируется химическое и биологическое значение состава пчелиного воска (воска), продукта пчеловодства, и его влияние на организм человека с научной точки зрения. Пчелиный воск состоит в основном из эфирных масел, углеводородов, растворимых жирных кислот, сложных эфиров и биологически активных веществ, таких как каротин, витамины А и Е. Исследования показывают, что пчелиный воск обладает антибактериальными, противовоспалительными, регенерирующими и защитными свойствами.

Ключевые слова: пчелиный воск, биологически активное вещество, антибактериальное действие, липиды, сложные эфиры, противовоспалительное, регенерация, витамины

Asalari mumi qadim zamonlardan beri inson hayotida muhim o‘rin egallab kelgan tabiiy mahsulotdir. U asalari tomonidan asal uyalarini qurish uchun ishlab chiqariladigan murakkab organik modda bo‘lib, asosan yog‘ kislotalari, efirlar va uglevodorodlardan tashkil topgan. Ilmiy tadqiqotlar mumning tarkibi 300 dan ortiq organik birikmalarni o‘z ichiga olishini ko‘rsatadi.

Zamonaviy tibbiyot va biologiyada asalari mumi tabiiy antibiotik sifatida e’tirof etiladi. U bakteriyalarga qarshi, yallig‘lanishga qarshi, hamda teri regeneratsiyasini tezlashtiruvchi xususiyatlarga ega. Shu bois mumdan malham, kremlar, surtma va dorivor vositalar tayyorlanadi.

Bundan tashqari, mum kosmetologiyada ham keng qo‘llaniladi. U terini yumshatadi, himoya qatlami hosil qiladi va namlikni saqlab qoladi. Shuningdek, mumning kimyoviy tarkibi organizmdagi lipid almashinuviga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Ushbu maqolada asalari mumining biologik tarkibi, uning fiziologik ta’sir mexanizmi va tibbiy qo‘llanilish istiqbollari ilmiy asosda tahlil qilinadi.

Asalari mumi haqida dastlabki ilmiy ma’lumotlar XVIII asrda Yevropa tabiatshunoslari tomonidan qayd etilgan. So‘nggi yillarda Rossiya, Xitoy, Turkiya va O‘zbekiston olimlari mumning biologik ahamiyati bo‘yicha chuqur tadqiqotlar olib bormoqda. Xususan, A. Qodirov [1] va R. Eshonqulova [2] tadqiqotlarida mumdagi lipid fraksiyalari, karotin va tokoferol moddalari antioksidant xususiyatga egaligi aniqlangan. Shuningdek, G. Gurevich [4] mum asosida tayyorlangan malhamlarning yara bitirish va antimikrob ta’siri yuqoriligini isbotlagan. Xalq tabobatida mum o‘rni haqida O. O‘razbaeva [3] o‘z asarida mumli vositalar immunitetni mustahkamlaydi, degan fikrni ilgari surgan. Adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, asalari mumi ko‘p qirrali biologik faol modda bo‘lib, u tibbiyot, farmatsevtika va kosmetologiyada keng tadbiq etilmoqda.

Asalari mumi (Cera flava) — asalarilar tomonidan maxsus bezlar orqali ajratiladigan murakkab organik modda bo‘lib, u uyalar qurish uchun ishlatiladi. Mumning kimyoviy tarkibi murakkab: 70–75% efirlar, 12–15% uglevodorodlar, 12–15% erkin yog‘ kislotalari, shuningdek, oz miqdorda aromatik modda, karotin, tokoferol, retinol, flavonoidlar, minerallar va fermentlar mavjud.

Biologik jihatdan mum tarkibidagi efir va yog‘ kislotalari hujayra membranalarini tiklashda, lipid almashinuvini normallashtirishda muhim rol o‘ynaydi. A va E vitaminlari esa antioksidant sifatida erkin radikallarni neytrallaydi va teri hujayralarining qarishini sekinlashtiradi.

Mumning antibakterial ta’siri uning tarkibidagi tabiiy fenolik birikmalar bilan izohlanadi. Bu moddalarning faol komponentlari bakteriyalar hujayra devorini buzadi, virus va zamburug‘larga qarshi himoya hosil qiladi. Shu sababli, mum tibbiyotda yara bitiruvchi malhamlar, antiseptik vositalar tayyorlashda qo‘llanadi.

Bundan tashqari, mum nafas yo‘llari kasalliklarida foydali bo‘lib, inhalatsiya vositasi sifatida ishlatiladi. Uning bug‘lari bronxlarni tozalaydi va shilliq qavatni yumshatadi. Xalq tabobatida mum asal, propolis yoki o‘simlik moylari bilan aralashtirilib, teri kasalliklarini davolashda ishlatilgan.

Farmatsevtika sanoatida mum malham, shamcha, kapsula va surtmalar tarkibida keng qo‘llaniladi. Kosmetologiyada esa u krem, lab bo‘yog‘i va niqoblar tayyorlashda asosiy

komponent hisoblanadi. U teri yuzasida himoya qatlamini hosil qilib, tashqi zararli omillardan saqlaydi.

Tibbiy tajribalar shuni ko‘rsatadiki, mum moddalari hujayralar regeneratsiyasini tezlashtiradi, yallig‘lanishni kamaytiradi va mikrotsirkulyatsiyani yaxshilaydi. Shu bois u jarrohlik, dermatologiya, stomatologiya va kosmetologiya sohalarida keng tatbiq topgan.

Umuman olganda, asalari mumi biologik faol, xavfsiz va ko‘p funksiyali tabiiy modda sifatida inson salomatligini mustahkamlashda katta ahamiyat kasb etadi.

Tezisni tayyorlashda tizimli tahlil, taqqoslama va eksperimental ma’lumotlarni o‘rganish metodlari qo‘llanildi. Asosiy e’tibor mumning kimyoviy tarkibi, biologik faol komponentlari va ularning organizmga fiziologik ta’sirini aniqlovchi ilmiy manbalarga qaratildi. Shuningdek, laboratoriya tadqiqotlari natijalaridan foydalanildi, jumladan, mum asosida tayyorlangan malhamlarning antibakterial samarasi va regenerativ xususiyatlari baholandi. Ma’lumotlar O‘zbekiston va xorijiy olimlar tadqiqotlari bilan taqqoslandi. Analitik tahlil orqali mumning farmakologik ahamiyati va qo‘llanilish sohalari aniqlanib, biologik faol modda sifatidagi o‘rni ilmiy asosda yoritildi.

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, asalari mumi yuqori biologik faollikka ega murakkab organik modda ekanligi aniqlandi. Uning tarkibidagi efirlar, yog‘ kislotalari, vitaminlar va fenolik birikmalar inson organizmida antioksidant, antibakterial, yallig‘lanishga qarshi va regeneratsion ta’sir ko‘rsatadi. Mumi asosidagi malhamlar yaralarni tez bitiradi, teri hujayralarini tiklaydi va yallig‘lanish jarayonlarini kamaytiradi. Shuningdek, mum terini himoya qiladi, uning elastikligini saqlaydi va quruqlikni kamaytiradi. Farmatsevtik qo‘llanmalar shuni ko‘rsatadiki, mum tabiiy, allergiya chaqirmaydigan va ekologik toza komponent hisoblanadi.

Asalari mumi biologik faol tabiiy modda sifatida inson organizmi uchun foydali komponentlarga boydir. Uning tarkibidagi lipidlar, efirlar, vitaminlar va mikroelementlar hujayra metabolizmini yaxshilaydi, immun tizimni mustahkamlaydi va teri regeneratsiyasini tezlashtiradi. Mumning antibakterial va yallig‘lanishga qarshi xususiyatlari uni tibbiyotda, xususan, yara bitiruvchi va antiseptik vositalar tayyorlashda muhim xomashyo sifatida ishlatishga imkon beradi.

Kosmetologiyada mum terini himoyalovchi, yumshatuvchi va namlovchi vosita sifatida e’tirof etilgan. Farmatsevtik tadqiqotlar esa uning xavfsiz, tabiiy va allergiyasiz komponent sifatida dorivor mahsulotlarga kiritilishini tavsiya etadi.

Xulosa qilib aytganda, asalari mumi faqat asalarichilik mahsuloti emas, balki tibbiyot, farmatsevtika va biologiya sohalarida istiqbolli tabiiy manba hisoblanadi. Uning ilmiy tadqiqini kengaytirish va zamonaviy biotexnologik jarayonlarda qo‘llash inson salomatligini yaxshilashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Qodirov A. “Asalari mahsulotlarining biologik ahamiyati”. – Toshkent, 2018.
2. Eshonqulova R. “Asalari mumi tarkibi va uning farmatsevtik qo‘llanilishi”. – Samarqand, 2020.
3. O‘razbaeva O. “Xalq tabobatida asalarichilik mahsulotlari”. – Toshkent, 2021.
4. Gurevich G. “Biologicheskaya aktivnost’ pchelinogo voska”. – Moskva, 2019.

TIBBIY FANLARNI O‘QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR

Tolqinjonova Muslimaxon Nodirbek qizi

Qo‘qon University Andijon filiali, Davolash ishi yo‘nalishi, 11-guruh talabasi

surayyaxonxolmatova@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada tibbiy fanlarni o‘qitishda innovatsion yondashuvlarning o‘rni, zamonaviy texnologiyalar, interaktiv metodlar, masofaviy ta’lim tizimlari va simulyatsion mashg‘ulotlarning afzalliklari haqida so‘z yuritiladi. Innovatsion yondashuvlar yordamida talabalar nazariy bilimni amaliy ko‘nikmalar bilan uyg‘unlashtiradi, bu esa ularni kelajakda raqobatbardosh tibbiy mutaxassislar sifatida tayyorlaydi.

Kalit so‘zlar: innovatsiya, tibbiy ta’lim, interaktiv usullar, simulyatsiya, axborot texnologiyasi, masofaviy o‘qitish.

Аннотация. В статье рассматривается роль инновационных подходов в преподавании медицинских наук. Особое внимание уделено применению современных технологий, интерактивных методов обучения, дистанционного образования и симуляционных занятий. Инновационные подходы позволяют студентам соединить теоретические знания с практическими навыками, что способствует формированию конкурентоспособных медицинских специалистов.

Ключевые слова: инновации, медицинское образование, интерактивные методы, симуляция, информационные технологии, дистанционное обучение.

Annotation. This article discusses the role of innovative approaches in teaching medical sciences. It focuses on the use of modern technologies, interactive teaching methods, distance learning systems, and simulation practices. Innovative approaches help students integrate theoretical knowledge with practical skills, thereby preparing them to become competitive and competent medical professionals.

Keywords: innovation, medical education, interactive learning, simulation, digital technology, distance education.

Bugungi kunda tibbiy ta’lim tizimi dunyo miqyosida tubdan o‘zgarib, raqamli transformatsiya bosqichiga o‘tmoqda. Sog‘liqni saqlash sohasida yuz berayotgan tezkor ilmiy-texnik yutuqlar tibbiyot mutaxassislaridan yuqori kasbiy saviya, keng dunyoqarash va tezkor qaror qabul qilish ko‘nikmalarini talab qilmoqda. Shu sababli tibbiy ta’limda an’anaviy usullardan tashqari innovatsion yondashuvlarni joriy etish zaruratga aylandi.

Innovatsion yondashuvlar — bu yangi metod, texnologiya va ta’lim usullarini o‘qitish jarayoniga tatbiq etish orqali samaradorlikni oshirishdir. Ular talabaning faolligini oshirib, mustaqil fikrlash, tahlil qilish, amaliyotda to‘g‘ri qaror qabul qilishga o‘rgatadi.

“Innovatsiya” so‘zi yangilik, o‘zgarish va takomillashuvni anglatadi. Tibbiy ta’limdagi innovatsion yondashuvlar — bu o‘qitish jarayonini raqamli texnologiyalar asosida tashkil etish, interaktiv metodlar orqali talabalarni o‘qitishga faol jalb etishdir. Hozirgi kunda ko‘plab tibbiy universitetlarda virtual laboratoriyalar va simulyatsion markazlar faoliyat yuritmoqda. Bu texnologiyalar yordamida talabalar bemor bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri muloqot qilmasdan, real klinik holatni o‘rganish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Masalan, “Anatomage Table”, “Body Interact” kabi platformalar inson anatomiyasi va fiziologiyasini 3D formatda o‘rganish imkonini beradi.

Elektron o‘quv resurslari, Moodle, Google Classroom, Zoom kabi platformalar tibbiy fanlarni masofadan o‘qitishda keng qo‘llanilmoqda. Shuningdek, sun’iy intellekt yordamida talabaning bilim darajasi va o‘zlashtirish sur’atini aniqlash imkoniyati ham mavjud. Innovatsion o‘qitishda o‘qituvchi — bilim manbai emas, balki yo‘l ko‘rsatuvchi murabbiy sifatida faoliyat yuritadi. “Case-study”, “Problem-based learning (PBL)”, “Role play”, “Team-based learning” kabi usullar orqali talabalar tibbiy holatlarni tahlil qiladi, jamoaviy qaror chiqarish ko‘nikmalarini o‘rganadi.

Raqamli ta’lim muhiti va uning afzalliklariRaqamli ta’lim muhiti — bu o‘quv jarayonini to‘liq elektron shaklda tashkil etish imkonini beruvchi platformadir. Tibbiy fanlar uchun bunday tizimlar davomiy o‘rganish, interaktiv testlar, video-lektsiyalar va klinik amaliyot simulyatsiyalarini o‘z ichiga oladi. Innovatsion yondashuvlar talabalarning ijodkorlik, tanqidiy fikrlash va refleksiya qilish qobiliyatini oshiradi. Ayniqsa, tibbiy holatlarni tahlil qilish, bemor simptomlarini aniqlashda mustaqil fikrlash juda muhimdir.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, tibbiy fanlarni o‘qitishda innovatsion yondashuvlar nafaqat bilim berish, balki talabaning tibbiy tafakkurini shakllantirish, klinik fikrlash qobiliyatini rivojlantirish va kasbiy mas’uliyatni oshirishda muhim ahamiyatga ega.
Tibbiy ta’limda innovatsiyalarni joriy etish orqali sog‘liqni saqlash tizimi uchun zamonaviy, raqobatbardosh va insonparvar mutaxassislarni tayyorlash imkoniyati kengayadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Abdurahmonova M. “Tibbiy ta’limda innovatsion texnologiyalar.” – Toshkent, 2022.
2. Karimov A., Rasulov B. “Tibbiy pedagogika asoslari.” – Andijon, 2021.
3. World Health Organization. “Digital Education for Health Workforce Development.” – Geneva, 2020.
4. Rahmonov I. “Interaktiv metodlar tibbiy ta’limda.” – Qo‘qon University, 2023.
5. UNESCO. “Innovations in Higher Medical Education.” – Paris, 2019.

ИННОВАЦИОННЫЕ ПОДХОДЫ ПРИ ИЗУЧЕНИИ БИОХИМИИ

Тургунова Дилафруз Санжарбековна
Преподаватель кафедры «Биологической химии и фармацевтики»
Андижанского филиала Кокандского Университета
+99891-481-97-91
e-mail: atakhanovadilafruz98@gmail.com

Аннотация. Биохимия является фундаментальной дисциплиной, изучающей химические процессы в живых организмах и формирующей основу для понимания физиологии, патологии и фармакологии. В условиях стремительного развития науки и технологий традиционные методы преподавания уже не полностью отвечают современным образовательным требованиям. Поэтому особое значение приобретает внедрение инновационных подходов, направленных на активизацию познавательной деятельности студентов, повышение мотивации и формирование практических навыков.

Ключевые слова: биохимия, 3D модели, интерактивный, виртуальная лаборатория.

Abstract. Biochemistry is a fundamental discipline that studies chemical processes in living organisms and forms the basis for understanding physiology, pathology, and pharmacology. In the context of rapid scientific and technological development, traditional teaching methods no longer fully meet modern educational requirements. Therefore, the implementation of innovative approaches aimed at enhancing students’ cognitive activity, increasing motivation, and developing practical skills is of particular importance.

Keywords: biochemistry, 3D models, interactive, virtual laboratory.

Annotatsiya. Biokimyo — tirik organizmlardagi kimyoviy jarayonlarni o‘rganuvchi va fiziologiya, patologiya hamda farmakologiyani tushunish asosini tashkil etuvchi fundamental fan hisoblanadi. Fan va texnologiyalar jadal rivojlanayotgan sharoitda an’anaviy o‘qitish usullari zamonaviy ta’lim talablariga to‘liq javob bera olmaydi. Shuning uchun talabalar bilish faoliyatini faollashtirish, ularning motivatsiyasini oshirish va amaliy ko‘nikmalarni shakllantirishga qaratilgan innovatsion yondashuvlarni joriy etish alohida ahamiyat kasb etadi.

Kalit so‘zlar: biokimyo, 3D modellar, interfaol, virtual laboratoriya.

Инновационные методы обучения представляют собой современные педагогические подходы и технологии, которые направлены на повышение эффективности образовательного процесса и ориентированы на развитие у студентов активной познавательной деятельности, аналитического мышления и практических навыков. В отличие от традиционных методов, где преобладают лекции и репродуктивное усвоение знаний, инновационные методы делают акцент на интерактивности, использовании цифровых технологий и индивидуализации обучения.

Ключевыми особенностями инновационных методов являются интерактивность, то есть активное вовлечение студентов в образовательный процесс через дискуссии, деловые и ролевые игры, разбор ситуационных задач и симуляции. Важное место занимает цифровизация, включающая использование мультимедийных ресурсов, онлайн-платформ, электронных учебников и виртуальных лабораторий. Существенное значение имеет визуализация сложных процессов с помощью 3D-моделей, анимаций и технологий дополненной и виртуальной реальности, что позволяет сделать абстрактные биохимические явления более понятными [1,2].

Современное преподавание биохимии требует активного внедрения инновационных

методов, которые делают процесс обучения более интерактивным, доступным и приближённым к реальной практике. Одним из направлений является использование онлайн-курсов и образовательных платформ. Так, курс *“Principles of Biochemistry”* Гарвардского университета на платформе edX позволяет освоить ключевые темы биохимии с применением мультимедийных материалов. Платформа Coursera также предлагает большое количество курсов по биохимии от ведущих мировых университетов, а система OLI (Open Learning Initiative**)** предоставляет открытые и бесплатные курсы с симуляторами и количественным анализом биохимических процессов. Для медицинских студентов востребован курс биохимии на платформе Lecturio, где видеолекции дополняются тестовыми заданиями и клиническими кейсами [2-4].

Отдельное значение имеет использование виртуальных лабораторий. Бесплатная платформа LabXchange (Гарвард, с поддержкой фонда Amgen) предлагает студентам виртуальные симуляции экспериментов, что особенно важно при ограниченном доступе к оборудованию. Платформа Labster предоставляет иммерсивные лабораторные симуляции в 3D-формате, а PraxiLabs и McGraw Hill Virtual Labs дают возможность моделировать реальные опыты с обратной связью и автоматической оценкой результатов [5,6].

Наряду с этим широкое распространение получают специализированные программы для визуализации и моделирования молекулярных структур. Программа Jmol/JSmol позволяет просматривать 3D-структуры белков и нуклеиновых кислот прямо в браузере, а VMD (Visual Molecular Dynamics) используется для анализа молекулярной динамики и симуляций. Для изучения взаимодействия молекул применяются программы молекулярного докинга, такие как rDock, а для работы в виртуальной и дополненной реальности — платформы вроде MolecularWebXR, позволяющие коллективно исследовать молекулы в формате AR/VR. Дополнительно приложения типа Kaemika помогают моделировать химические реакции и процессы микрофлюидики, а eLabFTW используется в качестве электронного лабораторного журнала, что формирует у студентов навыки цифровой научной работы [7-10].

Таким образом, сочетание онлайн-курсов, виртуальных лабораторий и современных программ для моделирования формирует целостную систему инновационного обучения биохимии. Эти технологии позволяют студентам не только лучше усваивать теоретические знания, но и приобретать практические компетенции, развивать исследовательские навыки и готовиться к будущей профессиональной деятельности в условиях цифровой науки и образования.

Список литературы

1. Harvard University. (2025). *Principles of Biochemistry*. edX. Retrieved September 26, 2025, from https://pll.harvard.edu/course/principles-biochemistry-1
2. Coursera. (2025). *Biochemistry Courses*. Retrieved September 26, 2025, from https://www.coursera.org/courses?query=biochemistry
3. Carnegie Mellon University. (2025). *Biochemistry Open & Free (OLI)*. Retrieved September 26, 2025, from https://oli.cmu.edu/courses/biochemistry-open-free
4. Lecturio. (2025). *Biochemistry Course*. Retrieved September 26, 2025, from https://www.lecturio.com/courses/medical/biochemistry
5. Harvard University. (2025). *LabXchange Virtual Lab Simulations*. Retrieved September 26, 2025, from https://about.labxchange.org/featured/virtual-lab-simulations
6. Labster. (2025). *Virtual Labs*. Retrieved September 26, 2025, from https://www.labster.com
7. PraxiLabs. (2025). *3D Virtual Science Labs*. Retrieved September 26, 2025, from https://praxilabs.com
8. McGraw Hill. (2025). *Virtual Labs*. Retrieved September 26, 2025, from https://www.mheducation.com/highered/digital-products/virtual-labs.html
9. Jmol. (2025). *Molecular Visualization Program*. Retrieved September 26, 2025, from

http://jmol.sourceforge.net
10. University of Illinois. (2025). *Visual Molecular Dynamics (VMD)*. Retrieved September 26, 2025, from https://www.ks.uiuc.edu/Research/vmd

ОЦЕНКА ВАЖНОСТИ ЮМОРА В ДЕТСКОЙ ЛИТЕРАТУРЕ

Умурзакова Дильнора Исламовна
магистр-SILL Щвейцария
Кайимова Зульфия
магистр ОШМПУ
Умурзаков Хандамир Исламович
магистр ОШМПУ

Аннотация. В статье рассматривается роль юмора в детской литературе как одного из ключевых художественных средств, способствующих формированию личности ребёнка, развитию его эмоциональной, нравственной и эстетической культуры. Автор анализирует функции юмора, его влияние на восприятие текста и формирование читательского опыта. Особое внимание уделяется психолого-педагогическим аспектам восприятия комического детьми разного возраста, а также вкладу юмора в развитие речи, мышления и воображения.

Ключевые слова: юмор, детская литература, воспитание, развитие личности, эмоциональное восприятие, комическое, смеховая культура.

Аннотация. Бул макалада балдар адабиятындагы юмордун ролу каралат. Юмор — баланын инсан катары калыптанышына, анын эмоционалдык, адеп-ахлактык жана эстетикалык маданиятынын өнүгүшүнө өбөлгө түзгөн негизги көркөм каражаттардын бири катары талданат. Автор юмордун функцияларын, анын текстти кабылдоого жана окуу тажрыйбасын калыптандырууга тийгизген таасирин изилдейт. Айрыкча ар түрдүү жаштагы балдардын күлкүлүү көрүнүштөрдү кабыл алуусунун психологиялык жана педагогикалык аспектилерине, ошондой эле юмордун кеп, ой жүгүртүү жана элестетүү жөндөмүн өнүктүрүүдөгү ролуна көңүл бурулат.

Ачкыч сөздөр: юмор, балдар адабияты, тарбия, инсанды өнүктүрүү, эмоциялык кабыл алуу, күлкү, маданият.

Abstract. The article examines the role of humor in children's literature as one of the key artistic means contributing to the development of a child's personality, emotional, moral, and aesthetic culture. The author analyzes the functions of humor, its impact on text perception, and its influence on the formation of reading experience. Special attention is paid to the psychological and pedagogical aspects of how children of different ages perceive the comic, as well as to the contribution of humor to the development of speech, thinking, and imagination.

Key-words: humor, children's literature, education, personality development, emotional perception, comic, culture of laughter.

Введение

Юмор занимает особое место в детской литературе. Он не только вызывает улыбку, но и выполняет важные воспитательные, познавательные и коммуникативные функции. С первых лет жизни ребёнок воспринимает мир через игру, фантазию и смех, и именно эти формы становятся естественным способом познания окружающей действительности.

Детская литература, насыщенная элементами комического, помогает ребёнку не только развивать чувство юмора, но и учиться различать добро и зло, правильное и неправильное, красивое и смешное. Таким образом, юмор выступает не просто как средство развлечения, но как механизм социализации и обучения. Термин *«юмор»* имеет многозначный характер и в литературоведении трактуется как художественное средство, позволяющее увидеть несоответствие между явлением и его восприятием, подчеркнуть противоречие между внешней формой и внутренним содержанием. В детской литературе юмор чаще всего выражается через игру слов, комические ситуации, преувеличение, гротеск, контраст, что делает его доступным для восприятия юного

читателя. Л.С. Выготский отмечал, что смех — это «высшая форма эмоциональной реакции», связанная с осознанием несоответствия между реальностью и ожиданием. Для ребёнка это осознание становится важным шагом в развитии мышления. Таким образом, юмор в детской литературе выполняет не только эстетическую, но и когнитивную функцию, помогая ребёнку понять устройство мира через лёгкие, весёлые и нередко абсурдные ситуации.

Истоки юмора в детской литературе уходят в народное творчество — сказки, пословицы, загадки, где смех служил способом обучения и наказания зла. Уже в ранних русских народных сказках встречаются персонажи-трикстеры (Иванушка-дурачок, Лиса, Петух), которые побеждают врагов не силой, а умом, хитростью и находчивостью.

В XIX веке юмор становится важным элементом авторской детской литературы. Классические примеры — сказки К. И. Чуковского (*«Муха-Цокотуха»*, *«Мойдодыр»*), С. Я. Маршака (*«Вот какой рассеянный»*), А. Линдгрен (*«Карлсон, который живёт на крыше»*). Эти произведения учат ребёнка смеяться над человеческими слабостями, не причиняя никому вреда.

В XX веке, с развитием психологии и педагогики, юмор начинает рассматриваться как инструмент воспитания эмоционального интеллекта. Он помогает детям адаптироваться к трудным ситуациям, справляться со страхами и осваивать социальные роли. Юмор выполняет в детской литературе несколько взаимосвязанных функций: Воспитательная функция. Юмор помогает ребёнку осознать моральные нормы, показать негативные поступки в комическом свете. Например, в сказках Чуковского смех используется как форма наказания лени, неопрятности, грубости. Познавательная функция. Через шутку и игру ребёнок познаёт логику и нелогичность мира. Юмор стимулирует аналитическое мышление, помогает обнаруживать несоответствия и строить причинно-следственные связи. Эмоционально-регулирующая функция. Смех снимает напряжение, помогает ребёнку справляться со страхом и тревогой. Весёлые истории часто используются психологами и педагогами для снятия стрессовых состояний у детей. Коммуникативная функция. Юмор способствует налаживанию контакта между автором и читателем, между взрослыми и детьми. Он формирует общую эмоциональную атмосферу доверия и радости. Эстетическая функция.

Юмор делает литературное произведение живым и привлекательным, повышает интерес к чтению и способствует развитию чувства вкуса и меры в восприятии комического. Восприятие юмора зависит от возраста. Младший дошкольный возраст (3–5 лет) — ребёнок реагирует на внешние, звуковые и ритмические эффекты (повтор, звукоподражание, нелепые слова). Младший школьный возраст (6–9 лет) — начинает осознавать комизм ситуаций и действий, различать шутку и реальность. Подростковый возраст (10–13 лет) — формируется способность к иронии и самоиронии, осознание внутреннего юмора произведения.

Таким образом, юмор становится важным инструментом когнитивного развития, влияя на становление логического и образного мышления ребёнка. Смех в детской литературе несёт не только развлекательную, но и глубокую воспитательную нагрузку. Благодаря комическим ситуациям ребёнок учится различать добро и зло, видеть последствия неправильных поступков. Юмор помогает понять важные моральные категории: честность, доброту, смелость, уважение к другим. Например, в рассказах Н. Носова (*«Незнайка»*, *«Фантазёры»*) смех используется для обличения глупости и лени, но без злобы — герой смешон, но не порицаем, а способен измениться.

Таким образом, юмор выступает как инструмент мягкого воспитательного воздействия, позволяющий ребёнку учиться на ошибках без давления и страха. Психологи утверждают, что чувство юмора является показателем эмоциональной зрелости личности. Умение смеяться над собой, воспринимать неудачи с оптимизмом формирует устойчивость к стрессу и способствует развитию адаптивного поведения.

Юмор в детской литературе: помогает преодолевать страхи и тревожные

состояния; способствует формированию позитивного восприятия мира; развивает эмпатию и способность понимать чувства других. С педагогической точки зрения, использование юмора в обучении способствует повышению интереса к чтению, активизирует внимание и воображение, формирует мотивацию к обучению. Современная детская литература активно использует иронию, пародию, абсурд и самоиронию. Произведения современных авторов (А. Усачёв, Э. Успенский, Д. Биссет, Д. Дональдсон) отражают стремление соединить игровую форму с глубоким содержанием. Юмор становится способом диалога с ребёнком, где взрослый не поучает, а смеётся вместе с ним, помогая осознать сложные жизненные явления через смех.

Заключение

Юмор в детской литературе — это не просто средство развлечения, а важный компонент духовного, интеллектуального и нравственного воспитания. Он способствует развитию речи, воображения, эмоционального интеллекта, а также помогает формировать позитивное отношение к жизни.
Смех объединяет, воспитывает и лечит, а потому его значение в детской литературе невозможно переоценить.

СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ

1. Выготский Л. С. *Психология искусства.* — М.: Искусство, 1987.
2. Чуковский К. И. *От двух до пяти.* — М.: Детгиз, 1962.
3. Носов Н. Н. *Избранные произведения.* — М.: Детская литература, 1974.
4. Маршак С. Я. *Стихи и сказки.* — М.: Просвещение, 1980.
5. Линдгрен А. *Карлсон, который живёт на крыше.* — Стокгольм, 1955.
6. Усачёв А. *Умная собачка Соня.* — М.: Эксмо, 2018.

ГИГИЕНА РУК – СОВРЕМЕННЫЕ МЕТОДЫ И ЭФФЕКТИВНОСТЬ

Хажиматов Р.С.
Старший преподаватель,
Хожиматов С.Р.
ассистент
кафедры естественных и медицинских наук
Кокандского университета Андижанского филиала,
E-mail: ravsanhozimatov054@gmail.com
E-mail: xojimatovsardorbek7@gmail.com

Аннотация: В статье рассматривается ключевая роль гигиены рук в профилактике инфекционных заболеваний, особенно в свете недавних глобальных эпидемий. Обсуждаются исторические и современные методы, используемые для обеспечения эффективной гигиены рук, включая правильное мытье рук с мылом и водой, а также использование спиртовых антисептиков. Отдельное внимание уделяется научным исследованиям, демонстрирующим эффективность различных подходов к гигиене рук в сокращении распространения инфекций. Также рассматриваются влияние психологии и социокультурных факторов на соблюдение гигиенических норм, а также роль образовательных программ в повышении осведомленности о важности гигиены рук. Статья подчеркивает необходимость интеграции современных методов гигиены, включая использование технологий и практик здоровья, в повседневную жизнь для формирования устойчивых привычек. В заключение подводятся итоги, которые призваны мотивировать читателей к активному соблюдению гигиенических норм и повышению общей безопасности общественного здоровья.

Ключевые слова: гигиена, инфекционное заболевания, эпидемия, бактерия, вирусы.

Введение: Гигиена рук — одна из самых простых, но в то же время самых

эффективных мер по предупреждению распространения инфекционных заболеваний. В условиях глобализации и увеличения мобильности населения вопросы здравоохранения становятся особенно актуальными. С недавними эпидемиями, такими как COVID-19, важно уделять внимание профилактическим мерам, направленным на защиту здоровья как отдельных индивидов, так и общества в целом [3;76-78 стр.].

Правильная гигиена рук позволяет значительно снизить риск заражения множеством патогенов, включая вирусы и бактерии, которые могут вызывать острые респираторные заболевания, гастроэнтериты и прочие инфекции. Эффективность методов гигиены рук была подтверждена множеством научных исследований, подчеркивающих важность регулярного мытья рук и использования антисептиков.

Современные технологии и инновации в области здравоохранения также играют важную роль в внедрении и популяризации практик гигиены рук. Разработка новых антисептиков, создание интерактивных образовательных программ и использование смарт-технологий делают соблюдение гигиенических норм более доступным и эффективным. [1; 134-154 стр.] В данной статье будет рассмотрен широкий спектр современных методов, исследована их эффективность и влияние на общественное здоровье, а также затронуты аспекты, способствующие формированию привычек гигиенического поведения. Также будет уделено внимание психологическим и социальным факторам, влияющим на соблюдение гигиенических практик, и возможным путям повышения осведомленности и мотивации населения



Механизмы передачи инфекции Упомяните механизмы передачи инфекций через загрязнённые руки, например, контактный путь передачи. Клинические исследования показывают, что руки являются основным вектором для распространения патогенов в медицинских учреждениях, школах и общественных местах. Употребляйте статистику случаев инфекционных заболеваний, связанных с недостаточной гигиеной рук. Исследования показывают, что до 80% инфекций передаются именно через руки. Клинические исследования подчеркивают, что руки медицинского персонала служат основным вектором распространения патогенов в медицинских учреждениях, в школах и местах общественного скопления.

Роль образовательных программ Эффективность образовательных программ в области гигиены рук подтверждена многочисленными примерами. В некоторых странах, например в Австралии и США, введение школьных программ по обучению правильному мытью рук привело к значительному снижению заболеваемости острыми респираторными инфекциями среди детей. Инициативы типа "Чистые руки спасают жизни" (Clean Hands Save Lives) и "Глобальный день мытья рук" способствуют формированию привычки регулярного соблюдения гигиены в разных возрастных группах. На рабочих местах образовательные тренинги по гигиене рук повышают приверженность сотрудников соблюдению санитарных норм до 60–80%.[4; 655-673стр.]

Технологические инновации Современные технологии способствуют автоматизации и оптимизации процессов соблюдения гигиены рук: Сенсорные дозаторы антисептиков, уменьшающие необходимость контакта с поверхностями. Мобильные приложения, отправляющие напоминания о необходимости мыть руки. Искусственный интеллект, используемый для мониторинга соблюдения гигиены в медицинских учреждениях, например, через системы видеонаблюдения и анализа поведения персонала. Такие технологии позволяют существенно повысить частоту и качество выполнения гигиенических процедур.

Психологические и социокультурные факторы Психологические аспекты, такие как восприятие риска, чувство тревожности и личная ответственность, напрямую влияют на соблюдение норм гигиены. Люди, осознающие угрозу инфекций, чаще соблюдают

гигиенические рекомендации. Социокультурные особенности также играют роль: в некоторых культурах традиционно уделяется большое внимание чистоте, тогда как в других соблюдение правил гигиены может быть менее строго. Эффективные кампании должны учитывать эти особенности, чтобы успешно внедрять гигиенические привычки. [655-673стр.]

Политические и экономические аспекты Международные организации, такие как ВОЗ и ЮНИСЕФ, активно продвигают стандарты гигиены рук через глобальные инициативы и финансирование программ в развивающихся странах. Государства вводят нормативные акты, обеспечивающие обязательное наличие условий для мытья рук в учреждениях здравоохранения, образования и общественного питания. Экономические выгоды от инвестиций в гигиену рук очевидны: снижение заболеваемости снижает расходы на лечение и повышает продуктивность населения.

Заключение Гигиена рук остается краеугольным камнем профилактики инфекционных заболеваний и важным элементом обеспечения общественного здоровья. Комплексный подход, сочетающий образовательные инициативы, использование современных технологий, учет психологических и социокультурных факторов, а также активную государственную поддержку, является необходимым для эффективного внедрения привычек соблюдения гигиенических норм. Формирование устойчивой привычки к правильной гигиене рук начинается с раннего возраста и требует совместных усилий общества, медицины, науки и власти. Только путем объединения ресурсов и знаний можно добиться снижения уровня инфекционной заболеваемости и повышения качества жизни населения.

Использованные литературы

1. 1. Всемирная организация здравоохранения, Глобальный доклад об эпидемиологии и бремени сепсиса: текущие данные, выявление пробелов и перспективные направления, Женева, ВОЗ, 2020 г 134-154 стр.
2. Уайт С. и др., «Качественное исследование барьеров для доступа к воде, санитарии и гигиене для людей с ограниченными возможностями в Малави», PLoS One, 2016 г., стр. 11(5)
3. Центр коммуникационных программ Джонса Хопкинса, «Анализ тенденций знаний, воззрений и практики в области COVID для 23 стран», оценка от 16 сентября 2021 г., https://ccp.jhu.edu/kap-covidtrend-analysis-for-23-countries/ 76-78 стр.
4. Кертис В., Л.О. Данкуа и Аунгер, Р.В., «Запланированное, мотивированное и привычное поведение в области гигиены: обзор одиннадцати стран», Health Educ Res, 2009 г., 24(4):655-673
5. Всемирная организация здравоохранения и Детский фонд Организации Объединенных Наций, «Основные вопросы СПМ», дата обращения: 10 августа 2021 г., https://washdata.org/monitoring/ methods/core-questions
6. Всемирная организация здравоохранения, «СПАСИТЕ ЖИЗНИ — соблюдайте чистоту рук: ежегодная глобальная кампания», дата обращения: 16 сентября 2021 г., https://www.who.int/campaigns/ world-hand-hygiene-day
7. Матаи Э. и др., «Содействие гигиене рук в здравоохранении посредством национальных/субнациональных кампаний», J Hosp Infect, апрель 2011 г., 77(4) : 294-8.
8. IX Конгресс с международным участием, контроль и профилактика инфекций, связанных с оказанием медицинской помощи (ИСМП-2021) Сборник тезисов Под редакцией академика РАН В.Г. Акимкина Москва ФБУН ЦНИИ Эпидемиологии Роспотребнадзора 2021.
9. «Руководство ВОЗ по гигиене рук в медико-санитарной помощи».2006 год

ANATOMIYA FANINI O'ZLASHTIRISHDA LOTIN TILINING AHAMIYATI

Xodjayeva Dilnoza Bobirovna
Qo‘qon Universiteti Andijon Filiali
Assistent o‘qituvchisi
Email: doc.hodjaeva@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada anatomiya fanini o‘zlashtirishda lotin tilining o‘rni va ahamiyati tahlil qilingan. Lotin tili anatomik terminologiyaning asosiy manbai sifatida tibbiyot ta’limida universal til vazifasini bajaradi. Tadqiqot natijalari lotin tili bilimiga ega bo‘lish anatomiya fanini chuqurroq anglash va xalqaro tibbiy muloqotni rivojlantirish uchun muhimligini ko‘rsatadi.

Kalit so'zlar: anatomiya, lotin tili, morfologiya, terminologiya, tibbiyot ta'limi, leksik birliklar, nomlash tizimi, ilmiy til, lingvistika

Annotation. This article analyzes the role and importance of the Latin language in mastering human anatomy. Latin serves as the universal language of medical education and forms the basis of anatomical terminology. The findings show that knowledge of Latin enhances understanding of anatomy and facilitates professional and international medical communication.

Keywords: anatomy, Latin language, morphology, terminology, medical education, lexical units, naming system, scientific language, linguistics

Аннотация. В статье анализируется роль и значение латинского языка в изучении анатомии. Латынь служит универсальным языком медицинского образования и основой анатомической терминологии. Результаты исследования показывают, что знание латинского языка способствует глубокому пониманию анатомии и развитию профессионального медицинского общения.

Ключевые слова: анатомия, латинский язык, морфология, терминология, медицинское образование, лексические единицы, система наименований, научный язык, лингвистика

Zamonaviy tibbiyot ta'limida anatomiya fani inson tanasining tuzilishi va funksional tamoyillarini o'rgatuvchi eng muhim fundamental yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Bu fan nafaqat nazariy bilimlar tizimini shakllantiradi, balki bo'lajak shifokorlarning klinik tafakkuri, kuzatuvchanligi va amaliy ko'nikmalarini rivojlantirishda ham beqiyos ahamiyatga ega. Anatomiya fanining o'ziga xos jihatlaridan biri - uning boy va murakkab terminologik tizimga ega ekanligidir. Ushbu terminlarning asosiy qismini lotin tili tashkil etadi. Lotincha atamalar tibbiyot fanlari uchun yagona, aniq va xalqaro miqyosda tushunarli ilmiy tilni shakllantiradi. Shu sababli lotin tili anatomiya fanida nafaqat tarixiy meros, balki global tibbiy muloqot va bilim almashinuvi uchun zamonaviy universal vosita sifatida o'z ahamiyatini saqlab kelmoqda. Bugungi kunda tibbiyot ta'limida milliy tillardagi o'quv adabiyotlari kengayib borayotgan bo'lsa-da, lotin terminologiyasini chuqur o'rganish zarurati kamaygani yo'q. Aksincha, ilmiy maqolalar, xalqaro konferensiyalar va global ma'lumotlar bazalari bilan ishlash jarayonida lotin tilini bilish shifokorlar uchun muhim kasbiy ehtiyojga aylanmoqda. Shu bois anatomiya fanini o'zlashtirishda lotin tilining o'rni, tarixiy shakllanish jarayoni, zamonaviy ta'limdagi o'qitish metodlari hamda O'zbekiston tibbiyot oliy o'quv yurtlarida mavjud tajribani tahlil qilish bugungi kunda dolzarb ilmiy vazifa sifatida qaraladi. Mazkur maqola ana shu masalalarni har tomonlama o'rganishga, lotin tilining anatomiya fanidagi ahamiyatini tahlil etishga, mavjud muammolarni aniqlash hamda kelajakda ta'lim tizimini yanada takomillashtirish yo'nalishlarini belgilashga qaratilgan.

Adabiyotlar sharhi

Lotin tili va anatomiya terminologiyasi o'rtasidagi bog'liqlik ko'plab ilmiy tadqiqotlarga mavzu bo'lgan. Mirzayev Sharofiddin o'zining "Tibbiyot terminologiyasi asoslari" (2019) nomli asarida lotin tilining tibbiy terminologiya shakllanishidagi tarixiy va lingvistik jihatlarini chuqur tahlil qilgan. Muallif lotin terminlarining zamonaviy tibbiyot tilida qanday transformatsiyadan o'tganligini va milliy tillarga moslashish jarayonlarini ko'rsatib bergan[1, 125]. Abdullayev Akram tomonidan tayyorlangan "Anatomiya fani asoslari" (2020) darsligida anatomik tuzilmalarning

nomlari, ularning lotin va milliy tilda to'g'ri talaffuz qilinishi, terminlarning etimologik manbalari batafsil yoritilgan. Ushbu asar amaliy jihatdan talabalar uchun muhim qo'llanma bo'lib xizmat qiladi[2, 54]. G'ulomov Rustam "Lotin tili va tibbiyot terminologiyasi" (2018) kitobida lotin tilining o'rganilishi bilan anatomiya fanini o'zlashtirishdagi muvaffaqiyat o'rtasidagi bevosita munosabatni dalillar asosida isbotlagan. Muallifning fikricha, lotin tili asoslarini yaxshi biladigan talabalar anatomik terminlarni tezroq eslab qoladi va ularni amaliyotda to'g'ri qo'llaydi[3, 73]. Rus tilida yozilgan manbalardan Kovalyev V.N. ning "Латинский язык и медицинская терминология" (2016) asari alohida e'tiborga loyiqdir. Ushbu tadqiqotda lotin tilining nafaqat anatomiya, balki barcha tibbiy fanlar uchun asos bo'lib xizmat qilishi ko'rsatilgan. Muallif terminologik lug'atlar yaratish, talabalar uchun o'quv dasturlarini takomillashtirish masalalariga e'tibor bergan[4, 158]. Petrova L.A. o'zining "Основы латинской медицинской терминологии" (2019) kitobida lotin terminlarining grammatik tuzilishi, ularning klinik amaliyotda qo'llanilishi va talabalar uchun o'rganish metodikasi haqida keng ma'lumot bergan. Ushbu asar pedagogik tajriba bilan boyitilgan amaliy tavsiyalar to'plamidir[5, 205]. Karimova Nodira tomonidan tayyorlangan "Lingvistik asoslar va tibbiy terminlar" (2021) asarida milliy til va lotin terminologiyasi o'rtasidagi o'zaro ta'sir masalalari, terminlarning o'zbek tiliga moslashishi jarayonlari tahlil qilingan. Muallif zamonaviy o'zbek tibbiy terminologiyasining shakllanishida lotin tilining ta'sirini alohida ta'kidlagan[6, 83].

Asosiy qism

Lotin tili qadimdan anatomiya fanining ajralmas qismi hisoblanadi. Qadimgi Rim olimlari Kelsius va Galen inson tanasi tuzilishini lotin tilida tasvirlab, anatomik terminologiyaning ilmiy asosini yaratganlar. O'rta asrlarda esa lotin tili Yevropa ilm-fanining asosiy tili bo'lib, Ibn Sino va boshqa sharq mutafakkirlarining asarlari lotinchaga tarjima qilinib, anatomiya tilini yanada boyitgan. Renessans davrida Andreas Vesaliusning "De humani corporis fabrica" (1543) asari zamonaviy anatomiya fanining poydevorini yaratdi va lotin tilining xalqaro maqomini mustahkamladi. XIX asrda esa terminologik xilma-xillikni bartaraf etish maqsadida 1895 yilda Nomina Anatomica qabul qilindi. Keyinchalik u takomillashtirilib, 1998 yilda Terminologia Anatomica shaklida tasdiqlandi va hozirgacha amal qilmoqda.

Anatomik terminlarning aksariyati lotin va yunon tillaridan kelib chiqqan. Lotin tili asosan nomlash uchun, yunon tili esa ta'rif va izohlash uchun qo'llanilgan. Masalan, musculus - "kichik sichqon", vertebra - "aylanuvchi", thorax - "ko'krak qafasi" ma'nosini bildiradi. Etimologiyani bilish talabaga terminlarni mantiqan tushunish va yod olishni osonlashtiradi, bu esa anatomiya hamda boshqa tibbiy fanlarni o'rganishda muhim ahamiyatga ega.

Lotin tili bilimining tibbiyot ta'limidagi ahamiyati beqiyosdir. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, lotin tilini yaxshi bilgan talabalar anatomiya fanini chuqurroq va tezroq o'zlashtiradilar. Buning sababi - terminlarning mantiqiy tuzilishini anglash, xotira faolligini oshirish, xalqaro terminologiyani oson tushunish va ilmiy tafakkurni shakllantirishdir. Masalan, "infraspinatus" termini "infra-" (ostida) va "spina" (tikanli o'simta) so'zlaridan tuzilganini bilgan talaba mushakning joylashuvini tezda tushunadi. Terminlarning mantiqiy ma'nosini o'rganish mexanik yodlashdan ko'ra samaraliroq bo'ladi. Lotin tili, shuningdek, global tibbiyot tilidir - xalqaro maqolalar, konferensiyalar va klinik amaliyotlarda aynan shu terminologiya ishlatiladi. Biroq O'zbekiston tibbiyot oliy o'quv yurtlarida lotin tilini anatomiya bilan integratsiyalashda muammolar mavjud. Talabalarda motivatsiya past, lotin tili ko'pincha alohida fan sifatida o'qitiladi va keyinchalik unutib yuboriladi. O'quv dasturlari va metodik ta'minot yetarli darajada takomillashmagan, o'qituvchilarning ham tayyorgarligi turlicha. Shuningdek, o'zbek tilidagi sifatli, vizual va etimologik izohli darsliklar kam, zamonaviy texnologiyalar - interaktiv platformalar, virtual anatomiya laboratoriyalari - keng qo'llanilmayapti. Shunga ko'ra, lotin tilini anatomiya bilan uzviy bog'lash, innovatsion o'qitish metodlarini joriy etish va o'quv motivatsiyasini oshirish tibbiyot ta'limining muhim vazifalaridan biri hisoblanadi.

O'zbekiston tibbiyot oliy o'quv yurtlarida lotin tili anatomiya bilan uzviy bog'liq holda o'quv dasturining muhim qismi hisoblanadi. Toshkent tibbiyot akademiyasi, Samarqand davlat tibbiyot universiteti, Andijon, Buxoro, Namangan va Farg'ona tibbiyot institutlarida bu fan

birinchi kursdan boshlab o'qitilib, asosan tibbiy terminologiya, grammatik asoslar va anatomiya bilan bog'liq terminlarni o'z ichiga oladi. Talabalar dastlab lotin alifbosi, so'z yasalishi va terminlarning grammatik tuzilishini o'rganadilar. Keyingi bosqichlarda - anatomiya fanini o'zlashtirish jarayonida - bu bilimlarni amaliy qo'llaydilar. Ammo kuzatuvlar shuni ko'rsatadiki, birinchi kursda o'zlashtirilgan lotin tili bilimlari keyingi yillarda yetarlicha mustahkamlanmagani sababli susayib boradi. Buning sababi - fanlararo uzviylikning yetarli emasligidir. So'nggi yillarda ayrim oliy o'quv yurtlarida bu muammoni hal etish yo'lida ijobiy tajribalar to'planmoqda. Masalan, Toshkent tibbiyot akademiyasi anatomiya kafedrasida darslar davomida lotin terminlarini qayta ishlash, ularning etimologik ma'nosini tushuntirish va milliy til bilan taqqoslash amaliyoti joriy etilgan. Shuningdek, talabalar uchun terminologik viktorinalar, qo'shimcha mashg'ulotlar va maxsus o'quv qo'llanmalar tashkil etilmoqda. Biroq bu tajriba hali barcha tibbiyot oliygohlarida keng joriy etilmagan. Aksariyat joylarda lotin tili va anatomiya fanlari hanuz mustaqil tarzda o'qitiladi. Natijada, fanlararo integratsiya to'liq amalga oshmayapti va bu holat talabalarning kasbiy kompetensiyasini shakllantirishda ma'lum darajada to'siq bo'lib qolmoqda.

Lotin tilini bilish kelajakdagi tibbiyot mutaxassislari uchun muhim afzalliklar yaratadi. Avvalo, bu tibbiy hujjatlar - tashxis kartalari, retseptlar va ilmiy xulosalarni to'g'ri tushunish va yozishda yengillik beradi. Bundan tashqari, lotin tili xalqaro ilmiy maqolalarni o'qish va tahlil qilishni osonlashtiradi. Chunki zamonaviy tibbiyot terminologiyasining asosini aynan lotin tili tashkil etadi. Shuningdek, lotin tilini bilish xorijda o'qish, stajirovka o'tash, xalqaro konferensiyalarda qatnashish kabi faoliyatlarda muhim ahamiyatga ega. Anatomik terminlar universal aloqa vositasi sifatida xizmat qiladi. Lotin tilini mukammal bilgan shifokor o'z kasbida madaniyatli, bilimdon va ishonchli mutaxassis sifatida e'tirof etiladi. Shu bilan birga, ilmiy izlanishlar olib borishda ham lotin tili zarur bo'lib, dissertatsiya va maqolalarni xalqaro talablarga mos ravishda tayyorlash imkonini beradi.

Natijalar

5. Ruhiy-emotsional zo‘riqishlar – hozirgi davrda kishilar salomatligiga ta‘‘sir etuvchi asosiy omillardan biri hisoblanadi. Odam organizmning normal faoliyati 89 uning ruhiyati qay darajadaligiga bog'liq. Ruhiyat va kayfiyatdagi har qanday o’zgarishlar a’zo sistemalarining faoliyatiga bevosita ta’sir ko’rsatadi. Odamning ruhan ezilishi, ko’ngliga og'ir botadigan so’zlar va hayotdagi turli salbiy voqealar zo’riqishlarga olib keladi. Ruhiy- zo’riqishlar natijasida odamlarda gipertoniya, stenokardiya va miokard infarkti qolaversa, ruhiy kasalliklar, zararli odatlarga ruju qilish kelib chiqadi. Ayollardagi ruhiy-emosional zo’iqishlar ayniqsa xomiladorlik davrida o’ta havfli asoratlarga sabab bo’ladi. Aholi turmushining yaxshilanishi, ijtimoiy sharoitlarning barqarorlashishi ruhiy emosional zo’riqishlarni oldini olishning asosiy shartlaridir.

Hulosa o’rnida shini ta’kidlash mumkinki, jismoniy mashqlar bilan muntazam shug’illanish salomatlikni mustahkamlashga, o’qish unumdorligini oshirishga yordam beradi. Jismoniy madaniyat elementlarini shakllantiradi. Salomatlik ijtimoiy-iqtisodiy, biologik, ekalogik, tibbiy va psixoemosional ta’sirlarning natijasidir va uni sog’lomlashtiruvchi jismoniy mashqlar yordamida mustahkamlash mumkin. Sog’lomlashtiruvchi jismoniy mashqlar bilan muntazam shug’ullanish organizmning atrof-muhit va infeksiyalar ta’siriga tabiiy qarshiligini oshiradi. Hozirgi vaqtda insonning sog’lomlashishiga bo’lgan ehtiyojni qondiruvchi yo’nalishlar tobora keng tarqalmoqda (ritmikgimnastika, badiiy gimnastika, xitoycha sigun terapeya, terapevtik va sog’lomlashtiruvchi yoga, xitoy gimnastikasi.) keng ko’lamda amalga oshirilmoqda

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O.R Parpiyeva, Ostanaqulov A.D //Health theory// Международный научно-практический журнал “Форум молодых ученых”. Вып №6 (34) 2019. 26- 29 page
2. O.R.Parpiyeva O.O.Dzhaloldinova //The role of Valeology in raising a healthy generation// An American Scientific Journal. Texas Journal of Multidisciplinary Studies https://zienjournals.com SJIF Impact Factor (2022): 5.909. Vol 04-10-2022
3. Parpiyeva O.R, Raimjonova Kh.G. qizi //The role of a nurse in patient care// Международный научно-практический журнал “Мировая наука” Выпуск № 11(32) – 2019. 56-59 page
4. Parpiyeva O.R, Jamoliddinova U.A.Qizi //PROTECTION OF THE HEALTH OF CHILDREN AND ADOLESCENTS// Международный научно-практический журнал “Мировая наука”. Выпуск № 11(32) – 2019. 53-55 c
5. Parpieva Odinaxon Rakhmanovna //Nutrition and diet in breast cancer// Texas Journal of Medical ience. Vol. Sc 7. 04-2022. 27-30 page. 6. O.R.Parpiyeva, Ostanaqulov A.D //SCHIZOPHRENIA DISEASE// Международный научно-практический журнал “Теория и практика современной науки” Выпуск №6 (48) – 2019. 18-21 page

TIBBIYOT OLIY TA’LIMIDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARI (AT) TERMINOLOGIYASINING TUSHUNTIRILISHI VA O‘QUV JARAYONIGA INTEGRATSIYASI

Turaxonova Shaxnoza Odiljonovna
Qo‘qon universiteti Andijon filiali professori-o‘qituvchisi
E-pochta: shaxnozaxan697@gmail.com
Rustamova Nozima Mirxokim qizi
KUAF Kompyuter injiniringi yo’nalishi
2-kusr talabasi E-pochta: rustamovanozimaxon@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada tibbiyot ta’limida AT laridan foydalanishda uchraydigan asosiy atamalar va ularning tibbiyot sohasi kontekstidagi ma’nolari tahlil qilindi. Tibbiyot oliygohlarida raqamli texnologiyalarning joriy etilishi talabalarning axborot savodxonligini oshirish, klinik axborot tizimlari bilan samarali ishlash va elektron ta’lim platformalaridan to‘g‘ri foydalanish ko‘nikmalarini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega ekanligi yana bir bor ko’rib childi. Tadqiqotda AT terminlarining tibbiy talqini, terminologik xatoliklarning o‘quv jarayoniga ta’siri va ularni bartaraf etish bo‘yicha takliflar ishlab chiqildi.

Kalit so‘zlar: AT , tibbiyot ta’limi, terminologiya, raqamli sog‘liq, elektron ta’lim, tibbiy

informatika.

Аннотация: В данной статье проанализированы основные термины, используемые в процессе обучения с применением IT-технологий в медицинском образовании, а также их значение в контексте медицины. Внедрение цифровых технологий в медицинские вузы играет важную роль в повышении цифровой грамотности студентов, формировании навыков эффективной работы с клиническими информационными системами и правильного использования электронных образовательных платформ. В исследовании рассмотрены особенности медицинской интерпретации IT-терминов, влияние терминологических ошибок на учебный процесс и разработаны предложения по их устранению.

Ключевые слова: IT-технологии, медицинское образование, терминология, цифровое здравоохранение, электронное обучение, медицинская информатика.

Abstract: This article analyzes the key IT terms used in the teaching process of medical education and explains their meaning within the medical context. The integration of digital technologies into medical universities plays a crucial role in enhancing students' digital literacy, developing skills for effective use of clinical information systems, and correctly utilizing electronic learning platforms. The study explores the medical interpretation of IT terminology, examines the impact of terminological misunderstandings on the learning process, and proposes practical recommendations for improving terminology use in medical education.

Keywords: IT technologies, medical education, terminology, digital health, e-learning, medical informatics.

Zamonaviy tibbiyot ta'limi tobora raqamli texnologiyalar bilan uyg‘unlashib bormoqda. Natijada talabalar o‘quv jarayonida turli xil axborot texnologiyalariga oid atamalar bilan tez-tez duch kelishadi . Biroq bu atamalar tibbiy kontekstda har doim ham to‘g‘ri talqin qilinmaydi. Shu sababli dars jarayonida ba'zan noto‘g‘ri tushunishlar va xatoliklar yuzaga kelmoqda . Masalan, “cloud storage”, “database”, “interface”, “algorithm” yoki “virtual simulation” kabi atamalar AT sohasida ma'lum texnik ma'nolarga ega bo‘lsa, tibbiyot sohasida ular ko‘pincha klinik jarayonlar, ma'lumotlar bazasi tizimlari yoki sog‘liqni saqlashning raqamli infratuzilmasi bilan bog‘liq holda qo‘llaniladi [3].

Tibbiyot oliygohlarida raqamli texnologiyalardan foydalanish ko‘lami kengayib borar ekan, bu terminlarni tibbiy nuqtai nazardan to‘g‘ri tushunish talabalarning axborot savodxonligi va kasbiy kompetensiyalarini shakllantirishda muhim omilga aylanmoqda . Shuning uchun ham AT terminlarining tibbiyotga xos ma'nolarini aniqlash, yagona tizimga solish va ta'lim jarayoniga to‘g‘ri integratsiya qilish zaruriyati ortib borilmoqda [5].

Tadqiqotda sifatli va miqdoriy tahlil metodlari qo‘llanilganda dastlab, O‘zbekiston va xorijiy tibbiyot oliygohlarida qo‘llaniladigan ta'lim platformalari, elektron darsliklar va simulyatsiya dasturlarida ishlatiladigan 100 dan ortiq AT atamalari to‘plandi . So'ngra, ushbu atamalar tibbiyotdagi qo‘llanilishi bo‘yicha tahlil qilindi va ularning ma'nosi AT hamda klinik jihatdan solishtirildi. Ushbu tadqiqot tibbiyot ta'limida axborot texnologiyalari (AT) terminlarining talabalarga o‘qitilish jarayonidagi o‘rni va mazmunini aniqlash maqsadida olib borildi. Tadqiqotda aralash uslub (mixed-method) qo‘llanildi, ya'ni sifat va miqdoriy tahlil usullari birlashtirildi.

Birinchidan, adabiyotlar sharhi amalga oshirildi. Bunda tibbiyot va axborot texnologiyalari kesishmasida yaratilgan ilmiy maqolalar, xalqaro terminologik bazalar (masalan, WHO Health Terminology, MeSH, IEEE Glossary), o‘quv qo‘llanmalar hamda O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim vazirligi tomonidan tasdiqlangan o‘quv dasturlari o‘rganildi . Ushbu sharh orqali tibbiyot ta'limida keng qo‘llaniladigan asosiy AT terminlari, ularning semantik xususiyatlari va qo‘llanish konteksti aniqlab olindi.

Ikkinchidan, so‘rovnoma usuli qo‘llanildi. So‘rovnomada 3 ta oliy tibbiyot ta'lim muassasasida o‘qiyotgan 120 nafar 2–4 kurs talabalari ishtirok etdi. Savollar AT atamalarini tushunish darajasi, ularni dars jarayonida qo‘llay olish ko‘nikmalari, qaysi terminlar qiyinchilik tug‘dirishi hamda o‘qituvchilar tomonidan ularni tushuntirish usullari haqida bo‘ldi.

So‘rovnomalar anonim shaklda onlayn platforma (Google Forms) orqali tarqatildi.

Uchinchidan, yarim tuzilgan intervyular yordamida 15 nafar tibbiyot fani o‘qituvchilari bilan chuqur suhbatlar tashkil etildi. Intervyular orqali AT terminlarini o‘qitishda uchraydigan metodik muammolar, tushuntirish strategiyalari va fanlar kesishmasida paydo bo‘ladigan terminologik chalkashliklar o‘rganildi [4].

To‘rtinchidan, o‘quv jarayonida foydalanilayotgan darsliklar, slaydlar va elektron platformalar (masalan, Moodle, Microsoft Teams, Google Classroom) kontent tahliliga tortildi. Bunda terminlarning chastotasi, kontekstdagi ishlatilishi va talabalarga moslashtirilganligi aniqlashtirildi.

Olingan ma’lumotlar SPSS Statistics dasturi yordamida tahlil qilindi. So‘rovnoma natijalari uchun deskriptiv statistika, intervyu natijalari uchun esa mavzular bo‘yicha kodlash (thematic coding) usuli qo‘llanildi. Natijalar tahlili orqali terminlarning tibbiyot ta’limiga integratsiyalashganlik darajasi va talabalarning ularni o‘zlashtirishdagi asosiy qiyinchiliklari aniqlab berildi.

Bundan tashqari, 120 nafar tibbiyot talabasi o‘rtasida onlayn so‘rovnoma o‘tkazildi. So‘rovda talabalar AT terminlarini qay darajada to‘g‘ri tushunishi va tibbiy jarayonlarda qo‘llay olish qobiliyati baholandi [8]. Natijalar maxsus Excel va NVivo dasturlari yordamida kodlandi, statistik tahlil uchun χ^2 (chi-kvadrat) testi qo‘llanildi [9].

Tadqiqot natijalari tibbiyot ta’limida axborot texnologiyalari (AT) terminlarini o‘rgatish jarayonida talabalarda sezilarli darajada terminologik tushunmovchiliklar, til to‘siqlari va amaliy qo‘llashdagi uzilishlar mavjudligini ko‘rsatdi.

1. So‘rovnoma natijalari shuni ko‘rsatdiki, respondentlarning 68 foizi “Telemeditsina”, “Big Data”, “Cloud computing”, “Machine learning” kabi atamalarni nazariy jihatdan eshitgan bo‘lsada, ularning tibbiyotdagi aniq qo‘llanilishi va klinik amaliyotdagi roli haqida to‘liq tasavvurga ega emas . 27 foizi esa bu terminlarning inglizcha shaklini tushunishda qiyinchiliklarga duch kelishini bildirdi, bu esa tibbiyot ta’limida chet tilidagi terminlarning to‘g‘ri tarjima qilinmasligi yoki kontekstual izoh yetarli emasligi bilan izohlanadi .

2. Intervyu natijalariga ko‘ra, o‘qituvchilarning 73 foizi AT terminlarini tushuntirishda vaqt yetishmasligi va metodik materiallarning yetarli emasligini ta’kidladi. Ularning ko‘pchiligi terminlarni oddiy texnik ko‘rinishda tushuntirib, ularning tibbiy amaliyotdagi semantik chuqurligini ochib berishga ulgurmaydi [4]. Natijada talabalar terminlarning nazariy qobig‘ini bilsalar-da, ularni klinik holatlar bilan bog‘lash ko‘nikmasi shakllanmay qoladi.

3. O‘quv materiallari tahlilida shuni ko‘rish mumkinki, mavjud darsliklar va slaydlar mazmunida AT terminlarining aksariyati bevosita tarjima shaklida keltirilgan bo‘lib, ularning ilmiy-ta’limiy izohi ko‘pincha yo‘q yoki juda qisqa berilgan. Masalan, “Electronic Health Records (EHR)” atamasi ko‘pchilik materiallarda “elektron tibbiy karta” deb tarjima qilingan, ammo EHR tizimlarining ma’lumot almashish, xavfsizlik va interoperabiliklik tamoyillari haqida deyarli ma’lumot berilmagan [5].

4. Statistik tahlil shuni ko‘rsatdiki, AT terminlarini chuqur tushungan talabalar (ya’ni so‘rovnomada yuqori ball olganlar) amaliy mashg‘ulotlarda klinik holatlarni yechishda ham ancha yuqori natijalarni ko‘rsatgan. Pearson korrelyatsiyasi $r = 0.64$ ($p < 0.01$) darajasida ijobiy bog‘liqlik aniqlangan, bu esa terminologik savodxonlik darajasi va amaliy ko‘nikmalar o‘rtasida sezilarli aloqadorlik mavjudligini ilmiy asoslaydi [6].

5. Tahlil davomida talabalar tomonidan eng ko‘p chalkashtiriladigan terminlar guruhi ham aniqlandi. Bular quyidagilar: “Data mining” va “Machine learning” farqini tushunmaslik (52%), “Cloud computing” va “Server-based storage” terminlarini chalkashtirish (41%) , “Artificial Intelligence” atamasining klinik qaror qabul qilishdagi real roli haqida noto‘g‘ri tasavvur (37%) .

Yakuniy natijalar shuni ko‘rsatadiki, tibbiyot ta’limida AT terminlari o‘qitilishi ko‘pincha formallik darajasida qolmoqda, ularning semantik, kontekstual va amaliy ma’nolari esa yetarlicha yoritilmayapti. Bu esa kelajakdagi shifokorlarning raqamli tibbiyot sharoitiga moslashish imkoniyatlarini cheklab qo‘ymoqda . So‘rov natijalariga ko‘ra, talabalar eng ko‘p chalkashtiradigan terminlar quyidagilar bo‘ldi: “database” (bazaga ma’lumot kiritish jarayonini

klinik kartoteka bilan tenglashtirish) — 62 %, “interface” (faqat dizayn deb tushunish) — 58 %, “algorithm” (faqat matematik formula deb hisoblash) — 71 % [10].
Shuningdek, “virtual simulation” terminini 43 % talaba VR ko‘rgazmalar bilan bog‘lasa-da, ularning 57 % qismi bu texnologiyaning klinik ko‘nikmalarni shakllantirishdagi rolini yetarli tushunmagan . AT atamalarini tibbiyot nuqtayi nazaridan to‘g‘ri tushungan talabalar klinik simulyatsiya mashg‘ulotlarida yuqori natija ko‘rsatgan [12].

Xalqaro tajribalarga ko‘ra, AQSh va Yevropa tibbiyot universitetlarida AT atamalarini o‘rgatish alohida modul sifatida kiritilgan bo‘lib, bu talabalar bilimini oshirganini ko‘rsatadi. Masalan, Germaniyada o‘tkazilgan tadqiqotda terminologik tayyorgarligi yuqori bo‘lgan talabalar elektron sog‘liq tizimlari bilan ishlashda 30 % tezroq moslashgani aniqlangan [14].
Bizning tadqiqot natijalari ushbu xalqaro ma’lumotlar bilan mos keladi: AT terminlarini to‘g‘ri tushungan talabalar amaliy mashg‘ulotlarda klinik axborot tizimlari bilan samarali ishlay olgan [15].

Ushbu tadqiqot natijalari bir qator xalqaro va mahalliy ilmiy ishlar bilan qiyoslanganda, umumiyliklar va farqlar aniq ko‘zga tashlandi. Bu jarayonlar bir necha bosqichda kuzatildi: Xalqaro darajadagi tadqiqotlar, xususan, Smith va boshqalar (2020) tomonidan AQSh va Buyuk Britaniyada tibbiyot oliygohlarida olib borilgan izlanishlarda ham IT terminlarini o‘zlashtirishda talabalarda terminologik va til to‘siqlari mavjudligi ta’kidlangan [1]. Ular o‘quv jarayonida texnik terminlarning to‘g‘ridan-to‘g‘ri tarjimasi yetarli bo‘lmay, tibbiy amaliyotdagi real holatlar bilan bog‘langan semantik tushuntirish talab etilishini qayd etganlar. Bizning tadqiqotda ham ayni holat kuzatildi — talabalarning aksariyati terminlarni nazariy bilsa-da, klinik qo‘llanilishi borasida yetarli tushunchaga ega emasligi aniqlandi. WHO va UNESCO tomonidan 2019–2023 yillarda olib borilgan tahlillarda rivojlanayotgan davlatlarda, xususan, Markaziy Osiyoda, tibbiyot ta’limida raqamli texnologiyalar terminlarini o‘qitishda yagona standartlarning yo‘qligi va tarjimalarning turlicha bo‘lishi natijasida talabalarda chalkashliklar yuzaga kelayotgani ta’kidlangan [2],[3]. Bizning natijalar ham bu xulosani tasdiqlaydi — darslik va slaydlarda terminlarning izohsiz yoki noto‘g‘ri tarjima qilinishi ko‘plab tushunmovchiliklarga olib kelmoqda. Liu va Zhang (2021) tomonidan Xitoy tibbiyot oliygohlarida o‘tkazilgan tadqiqotda talabalar AT terminlarini o‘zlashtirishda multimodal metodlardan (infografika, video, 3D modellash) foydalanilganda sezilarli darajada yuqori natija ko‘rsatgani aniqlangan [4]. Bizning tadqiqotda esa ko‘pchilik o‘qituvchilar bunday vositalardan yetarli darajada foydalanmasligi, bu esa terminlarni chuqur tushunishga to‘sqinlik qilayotgani aniqlandi. Shunday qilib, bizning natijalar bu sohada zamonaviy ta’lim texnologiyalarini kengroq qo‘llash zarurligini yana bir bor ko‘rsatmoqda. Kadirov va boshqa. (2022) tomonidan O‘zbekiston tibbiyot oliygohlarida olib borilgan cheklangan ko‘lamdagi tadqiqotda ham talabalar AT terminlarini o‘zlashtirishda ko‘proq tarjimaga tayanib, ularning mazmuniy va amaliy jihatlarini e’tiborsiz qoldirayotganliklari qayd etilgan [5]. Bizning tadqiqotda bu masala yanada kengroq ko‘lamda (bir nechta oliygoh va katta namuna asosida) tasdiqlandi. Evropa Ittifoqi tomonidan ishlab chiqilgan “eHealth Education Framework” (2022) konsepsiyasida tibbiyot talabalari uchun AT terminologiyasini bosqichma-bosqich, kontekstual yondashuv asosida o‘qitish samaradorligi ilmiy jihatdan asoslab berilgan [6]. Bizning tadqiqotda esa O‘zbekiston ta’lim tizimida bunday tizimli yondashuv hali to‘liq shakllanmaganligi aniqlandi.

Umuman olganda, mazkur tadqiqot xalqaro ilmiy adabiyotlarda qayd etilgan ko‘plab masalalarni tasdiqlaydi:

- AT terminlarini faqat tarjima shaklida emas, balki tibbiyotga xos semantik va amaliy kontekstda tushuntirish zarur;
- Ta’lim jarayonida interaktiv va multimodal metodlar terminologik savodxonlikni oshiradi;
- Standartlashtirilgan terminologik yondashuvning yo‘qligi chalkashliklarga olib keladi;
- Talabalarning terminologik savodxonligi ularning amaliy ko‘nikmalariga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

Olingan natijalar shuni ko‘rsatadiki, axborot texnologiyalariga oid terminlarni to‘g‘ri tushunmaslik va noto‘g‘ri talqin qilish tibbiyot ta’lim jarayonida axborot texnologiyalaridan samarali foydalanishga sezilarli darajada to‘sqinlik qiladi [16]. Terminologik xatoliklar, bir

tomondan, o‘quv jarayonida tushunmovchiliklar keltirib chiqarsa, boshqa tomondan, o‘qituvchilarga ortiqcha tushuntirish, adaptatsiya va qo‘shimcha mashg‘ulotlar o‘tkazish zaruratini yuzaga keltiradi. Natijada o‘qituvchilar yuklamasi oshadi, bu esa ta’lim sifatiga ham salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Shuningdek, AT terminologiyasini chuqur o‘zlashtirmagan talabalar klinik amaliyotda raqamli vositalar va dasturiy yechimlardan to‘g‘ri foydalana olmaydi [17]. Masalan, elektron tibbiy yozuvlar (EMR), raqamli diagnostika tizimlari yoki telemeditsina platformalaridan foydalanishda terminologik xatoliklar klinik qarorlar qabul qilishda kechikishlarga va noaniqliklarga sabab bo‘ladi. Bu esa bemor xavfsizligiga ham ta’sir qilishi mumkin. Mazkur holat shuni ko‘rsatadiki, tibbiy ta’limda IT terminlarini o‘zlashtirishni faqat nazariy tushuntirish bilan cheklab bo‘lmaydi. Aksincha, bu terminlarni real klinik holatlar, interaktiv mashg‘ulotlar va amaliy topshiriqlar bilan chambarchas bog‘lash talab etiladi [18].

Integratsiyalashgan darslar orqali tibbiy va axborot texnologiyalari fanlarini uyg‘unlashtirish, klinik simulyatsiyalar yordamida terminlarni real vaziyatlarda qo‘llashni mashq qilish va elektron hamda bosma interaktiv lug‘atlar yaratish bu jarayonda samarali vosita bo‘lishi mumkin [19]. Bundan tashqari, zamonaviy tibbiy ta’limda raqamli savodxonlikni oshirish bo‘yicha tizimli yondashuv zarur. O‘quv dasturlariga AT terminologiyasiga oid maxsus modul kiritish, muntazam ravishda diagnostik testlar orqali talabalar bilimini baholab borish, hamda xalqaro terminologik standartlarga (masalan, HL7, SNOMED CT) asoslangan o‘quv materiallaridan foydalanish bu borada muhim o‘rin tutadi. Bu esa nafaqat talabalar kompetensiyasini oshiradi, balki ularning kelajakdagi kasbiy faoliyatida raqamli texnologiyalardan to‘laqonli foydalanishiga zamin yaratadi.

Xulosa va takliflar

Tibbiyot ta’limida axborot texnologiyalari (AT) terminlarini o‘qitish jarayoni ko‘plab tizimli va metodik muammolarga duch kelmoqda. Eng asosiy muammolar quyidagilardan iborat:

Terminologik savodxonlik darajasining pastligi — talabalar ko‘plab AT terminlarini nazariy jihatdan eshitgan bo‘lsalar-da, ularning tibbiyotdagi real amaliy ma’nosini yetarli tushunmaydi. Bu ularning kelajakda raqamli sog‘liqni saqlash muhitida samarali ishlashiga to‘sqinlik qiladi [1][2].

Til va tarjima muammolari — ko‘plab terminlar ingliz tilidan to‘g‘ridan-to‘g‘ri tarjima qilinadi yoki umuman tarjima qilinmaydi, bu esa semantik noaniqlik va tushunmovchiliklarga sabab bo‘ladi [3].

Metodik va texnik vositalarning cheklanganligi — o‘qituvchilar ko‘pincha terminlarni izohlashda faqat nazariy yondashuvdan foydalanadilar, zamonaviy interaktiv metodlar (infografika, simulyatsiya, videodarslar, virtual laboratoriyalar) keng qo‘llanilmaydi [4][5].

Yagona standartlashtirilgan terminologik baza va o‘qitish tizimining yo‘qligi — turli darsliklar, slaydlar va platformalarda terminlar turlicha tarjima va talqin qilinadi. Bu esa yagona tushuncha maydonini shakllantirishni qiyinlashtiradi [2][6].

Yuqoridagi muammolar tibbiyot ta’limida AT terminlarini samarali o‘qitish uchun tizimli islohotlar zarurligini ko‘rsatadi. Shunga asoslanib, quyidagi ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqildi

Takliflar

Yagona terminologik lug‘at va o‘quv modulini ishlab chiqish – Oliy ta’lim muassasalari va Sog‘liqni saqlash vazirligi hamkorligida AT terminlariga bag‘ishlangan rasmiy, standartlashtirilgan ikki tilli (ingliz–o‘zbek) terminologik baza yaratilishi lozim. Bu baza WHO, IEEE va MeSH kabi xalqaro tizimlarga moslashtirilgan bo‘lishi kerak [2][6].

Multimodal ta’lim texnologiyalarini joriy etish – AT terminlarini chuqur tushuntirish uchun infografika, interaktiv simulyatsiyalar, 3D modellash va real klinik holatlarga asoslangan video darsliklardan foydalanish samarali bo‘ladi. Xalqaro tadqiqotlar multimodal yondashuv terminologik savodxonlikni 35–40% ga oshirganini ko‘rsatmoqda [4].

O‘qituvchilar uchun maxsus malaka oshirish dasturlari– AT terminologiyasini to‘g‘ri tushuntirish bo‘yicha o‘qituvchilar uchun maxsus metodik treninglar tashkil etish zarur. Bu

nafaqat til masalalarini, balki terminlarning amaliy qo‘llanilishi va klinik integratsiyasini ham qamrab olishi kerak [5].

Terminlarni bosqichma-bosqich o‘qitish tizimini joriy etish – Evropa Ittifoqining “eHealth Education Framework” tajribasiga asoslanib, AT terminlarini 1-kursdan boshlab bosqichma-bosqich, klinik fanlar bilan integratsiyalangan holda o‘qitish tavsiya etiladi [6].

Talabalar uchun interaktiv terminologik platforma yaratish – Mobil ilova yoki veb-portal shaklida testlar, flesh-kartalar va amaliy mashqlar asosida terminlarni mustahkamlash imkonini beruvchi platforma ishlab chiqilishi talabalar bilimini mustahkamlashga yordam beradi [3],[4].

Xulosa qilib aytganda, tibbiyot ta’limida axborot texnologiyalari terminlarini o‘qitish masalasi oddiy tarjima yoki nazariy tushuntirish bilan cheklanmasligi kerak. U ko‘p bosqichli, standartlashtirilgan, zamonaviy metodikalarga asoslangan tizimli yondashuvni talab qiladi. Shundagina kelajakdagi shifokorlar raqamli tibbiyot davrida zarur terminologik savodxonlik va amaliy ko‘nikmalarga ega bo‘lishadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Harden, R. (2021). Digital transformation in medical education. Medical Teacher, 43(6), 585–592.
2. WHO. (2020). Global Strategy on Digital Health 2020–2025. World Health Organization.
3. Greenes, R. A. (2014). Clinical Decision Support: The Road to Broad Adoption. Academic Press.
4. UNESCO. (2022). Digital Learning in Medical Education. Paris: UNESCO Publishing.
5. Cook, D. A. (2021). Technology-enhanced simulation in health professions education. JAMA, 326(10), 931–940.
6. O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi. (2023). Tibbiyot oliygohlarida raqamli ta’lim platformalarini joriy etish bo‘yicha yo‘riqnoma. Toshkent.
7. NVivo User Guide (2022). QSR International.
8. SurveyMonkey. (2023). Medical Education Digital Literacy Survey.
9. Agresti, A. (2018). Statistical Methods for the Social Sciences. Pearson. 10–12. Tadqiqot natijalari bo‘yicha mualliflar tomonidan o‘tkazilgan so‘rovnoma (2025).
10. AMA. (2020). Integration of Health IT Terminology in US Medical Curricula. American Medical Association.
11. Müller, M. et al. (2021). Terminology training improves EHR navigation. Medical Education, 55(12), 1367–1375.
12. OECD. (2022). Health Education Digitalization Report. OECD Publishing. 16–19. Mualliflar tahlili va xalqaro amaliyotlar asosida (2025). 20–22. Mualliflar takliflari asosida (2025).

PRAGMATIC COMPETENCE: THE ROLE OF CONTEXTUAL UNDERSTANDING IN SECOND LANGUAGE ACQUISITION

Abduraimoiva Maftuna

Shahrisabz State Pedagogical Institute

Faculty of Languages, Department of Foreign Language and Literature

2st-year student

Abstract: Pragmatics deals with how meaning is conveyed in communication. This paper explores research on the development of pragmatic competence and its connection to overall communicative ability. Enhancing communication skills in second language learners has been a major topic of study, as pragmatic knowledge is essential for effective interaction. The extent to which learners acquire pragmatic skills depends largely on their learning environments. To communicate accurately and avoid misunderstandings, second language users must understand various pragmatic aspects. Hence, pragmatic competence is a key component of successful

communication, especially for those learning English as an additional language .This article emphasizes the importance of pragmatic competence within communicative competence and examines how it impacts learners' communication both inside the classroom and in everyday contexts. Since communication is the ultimate goal of language learning, mastering pragmatic skills remains a challenging but necessary task.

Keywords: pragmatic competence; communicative competence; second language learners; cultural differences; language expression

Аннотация: прагматика изучает, как передается смысл в коммуникации. В данной статье рассматриваются исследования, посвященные развитию прагматической компетенции и ее связи с общей коммуникативной способностью. Повышение коммуникативных навыков у изучающих второй язык является важной темой исследований, поскольку прагматические знания необходимы для эффективного взаимодействия. Степень усвоения учащимися прагматических навыков в значительной мере зависит от их учебной среды. Чтобы общаться точно и избегать недоразумений, пользователи второго языка должны понимать различные прагматические аспекты. Следовательно, прагматическая компетенция является ключевым элементом успешной коммуникации, особенно для тех, кто изучает английский как дополнительный язык .В статье подчеркивается важность прагматической компетенции в рамках коммуникативной компетенции и рассматривается, как она влияет на коммуникацию учащихся как в классе, так и в повседневных ситуациях. Поскольку коммуникация является конечной целью изучения языка, овладение прагматическими навыками остается сложной, но необходимой задачей.

Ключевые слова: прагматическая компетенция; коммуникативная компетенция; изучающие второй язык; культурные различия; языковое выражение

Annotatsiya: Pragmatika muloqotda ma'noning qanday yetkazilishi bilan shug'ullanadi. Ushbu maqolada pragmatik kompetensiyaning rivojlanishi va uning umumiy kommunikativ qobiliyat bilan bog'liqligi bo'yicha tadqiqotlar o'rganiladi. Ikkinchi til o'rganuvchilarining muloqot ko'nikmalarini rivojlantirish muhim mavzu hisoblanadi, chunki pragmatik bilim samarali muloqot uchun zarurdir. O'rganuvchilarning pragmatik ko'nikmalarni egallash darajasi asosan ularning o'quv muhitiga bog'liq. To'g'ri muloqot qilish va tushunmovchiliklarning oldini olish uchun, ikkinchi til foydalanuvchilari turli pragmatik jihatlarni tushunishlari kerak. Shunday qilib, pragmatik kompetensiya muvaffaqiyatli muloqotning asosiy tarkibiy qismi hisoblanadi, ayniqsa ingliz tilini qo'shimcha til sifatida o'rganuvchilar uchun .Ushbu maqolada kommunikativ kompetensiya doirasida pragmatik kompetensiyaning ahamiyati ta'kidlanadi va u o'rganuvchilarning sinf ichidagi va kundalik muloqotdagi kommunikatsiyasiga qanday ta'sir qilishi tahlil qilinadi. Chunki til o'rganishning asosiy maqsadi muloqotdir, pragmatik ko'nikmalarni egallash murakkab, ammo zarur vazifa bo'lib qolmoqda.

Kalit so'zlar: pragmatik kompetensiya; kommunikativ kompetensiya; ikkinchi til o'rganuvchilari; madaniy farqlar; til ifodasi

Introduction. What is the pragmatic competence? This question actually attracts the interest of many people. Pragmatic competence refers to a person's ability to use linguistic units appropriately within a communicative context. It implies not only grammatical accuracy but also knowing when and how to speak appropriately in a given situation. It includes the following aspects:

1. Understanding and performing speech acts.This involves the ability to make requests, offers, refusals, and appeals, among others.
2. Observing norms of communication. This aspect covers interpersonal communication within society and groups, as well as communication etiquette between individuals. Factors such as context, level of formality, and social status are taken into account.
3. Considering cultural differences. Language learners also become familiar with the culture of the countries where the target language is spoken. It is important to understand that the

culture of one country may differ significantly from that of another.

4. Understanding nonverbal expressions and gestures. This includes interpreting facial expressions and body movements, which play an important role in communication.

According to Chomsky (1980), pragmatic competence can be defined as follows: knowing the conditions and method of proper usage (of the language) in accordance with distinct purposes. Pragmatic competence for second language learners is how to use the correct language for social activities in different social contexts. However, Thomas (1983) considers pragmalinguistic competence as the ability of language users to perform their own speech acts and to achieve communicative extra-linguistic power, divided into pragmalinguistic competence and sociopragmatic competence. Pragmalinguistic competence is often associated with native language interference, and different countries have different grammatical rules. sociopragmatic competence is caused by different cultural backgrounds. Some second language learners have already mastered certain language knowledge, and how to improve communicative competence is the goal of every second language learner. However, pragmatic competence is indispensable in some communication. Initial observations suggest that there may be a link between the development of pragmatic competence for second language learners should be paid more attention. Some Chinese learners believe that pragmatic competence is the use of appropriate speech in specific contexts to communicate and thus achieve the purpose of communication and is divided into pragmatic language competence; social pragmatic competence; pragmatic knowledge competence; and discourse organization competence (Chen, 2009). However, some limitations appear in his division of dimensions, such as having not dealt with the psychological factors of learners. When people are in a different environment, they approach things uniquely. When having a conversation with friends, the atmosphere is relaxed, and the focus is on whether the meaning can be expressed ultimately. They do not care too much about some pragmatic knowledge failure. Therefore, the role of pragmatic competence in communicative expression is vital.

The range of influence of pragmatic competence on the communicative competence of second language acquisition The impact of pragmatic competence on communicative competence is extensive, and the differences in what second language learners learn in the classroom and in a practical setting are concerned. Different learning experiences face different problems, and knowledge context needs to be integrated with the content in the teaching process. However, it needs to be accumulated independently in a practical situation.

Learning in the classroom.

In the process of teaching English at universities, communicative competence has been gradually abstracted and idealized, almost evolving into the oral language competence of well-educated native speakers in their daily lives (Yu & Liu, 2019). A survey analyses some college students of non-English majors of pragmatic competence from Zhengzhou Institute of Aeronautical Industry Management. It is clear that a language learner who is proficient in grammatical competence does not necessarily well pragmatic competence (Li, 2011). Grammatical competence is a part of communicative competence, and grammatical competence cannot be used to judge the second language learners' pragmatics alone. In the paper test, learners do have more time to think, but in a real communication environment, learners do have not much time to think and are better able to judge learners' communicative competence. Thus, communicative competence needs to focus more on oral communication. However, in this process, pragmatic competence is indispensable. Good pragmatic competence enables second language learners to achieve a better level of communicative competence. Communicative competence requires students to be able to express themselves fluently in communication using some local idioms without appearing nervous, speaking too slowly, or hesitating excessively. The key to its realization lies in the improvement of pragmatic competence, which requires linguistic accuracy. However, when students emphasize linguistic accuracy, they must not go into another misunderstanding, that teachers must not interrupt their communicative practice due to pragmatic failure when students are engaged in communicative training in English. Otherwise, for a long time, students' motivation to learn will be seriously frustrated, leading them to be afraid to speak

English and then lose interest in learning English. Teachers teach and students memorize knowledge, ignoring the emotional factor is the biggest factor affecting learning effectiveness causing students to be disinterested and making it difficult to develop students' sense of active learning (Yuan, 2010).

The Development of Pragmatic Competence: The Role of Response Speed, Accuracy, and Authentic Contexts

Recent research on pragmatic competence emphasizes not only what learners say but also how and when they say it. In particular, studies by Taguchi (2007) and Kasper & Blum-Kulka (1993) have deeply analyzed the formation of pragmatic competence and the factors influencing it.

Taguchi (2007): Response Speed and Accuracy in Pragmatic Performance

The study conducted by Noriko Taguchi (2007) involved Japanese learners of English and examined how quickly and accurately participants responded to speech acts such as requests and suggestions. This research identified response speed and accuracy as crucial indicators of pragmatic competence.

The findings revealed that learners with higher pragmatic knowledge could produce contextually appropriate, polite, and accurate responses within a short time frame. Conversely, learners with lower proficiency hesitated in understanding the context or selecting appropriate response forms, often producing incorrect or inappropriate speech acts. This indicates that pragmatic competence is not only a matter of knowledge but also an automatized skill.

Kasper & Blum-Kulka (1993): The Importance of Authentic Contexts

The role of authentic communicative environments in developing pragmatic competence was extensively analyzed by Kasper and Blum-Kulka (1993). They emphasized that pragmatic knowledge develops effectively not only through classroom exercises and theoretical lessons but also through real-life conversations, intercultural communication, and everyday interaction.

They described pragmatic competence as a socially mediated process, meaning it involves not only knowledge of language rules but also the ability to interpret and respond appropriately to social and cultural contexts. Their research showed that learners begin to shape their speech acts according to social norms primarily through authentic conversations—that is, real-life communicative situations rather than artificial or simulated ones.

Conclusion:

Pragmatic competence is a broad and interdisciplinary topic that requires practical communication for its development and application. In classroom settings, learners often try to avoid communication breakdowns by relying on memorization and other strategies, whereas learners in real social environments tend to learn through imitation. Those studying a second language abroad seldom receive direct feedback on their language skills (Shively, 2011). Classrooms typically emphasize input, while real-life situations demand more output. Consequently, learners who acquire pragmatic knowledge through formal instruction often demonstrate better short-term communication skills than those who learn informally in social contexts.

As language evolves, second language acquisition necessitates ongoing and adaptive learning (Zeng & Liu, 2016). According to Jung (2002), from a pragmatic perspective, students should develop skills such as performing speech acts, understanding and producing figurative language, employing politeness strategies, managing discourse functions, and applying cultural knowledge. A thorough understanding and analysis of pragmatic competence and cultural context are essential for improving communicative competence in a second language.

Therefore, this study suggests that continuously enhancing pragmatic competence in real-world settings enables more effective communication. The exploration of pragmatic competence and its impact on language teaching should extend beyond theoretical discussions to include empirical research. Moreover, various approaches to improving communicative competence should be investigated.

REFERENCES

1. Nivis, Deda, The role of Pragmatics in English Language Teaching, Pragmatic Competence, in: Academic Journal of Interdisciplinary Studies, MCSER-CEMAS-Sapienza University of Rome, 2013, pp. 63-70.
2. Hymes D H, On communicative competence, in: Pride J B & Holmes J (Eds.), Sociolinguistics: Selected Readings, Harmondsworth, Penguin, 1972, pp. 269-293.
3. Barron, A, Acquisition in interlanguage pragmatics: Learning how to do things with words in a study - abroad context, in: John Benjamins (Eds.), Philadelphia, John Benjamins Publishing, 2003.
4. Allami, H. &Naeimi. A. (2011). A cross-linguistic study of refusals: An analysis of pragmatic competence development in Iranian EFL learners. Journal of Pragmatics, 43, 385-406.
5. Yang Wenxiu, Pragmatic competence·Linguistic competence·Communicative competence, in: Foreign Language and Their Teaching, 2002, pp. 5- 8.
6. Wang Yanmei, A Study of English Classroom Teaching Context Creation from the Perspective of Pragmatics--- A Study of English Classroom Context Creation from the Perspective of Pragmatics, in: Journal of Zhejiang International Study University, 2015, pp. 40-45.

O'RTA ASR SHARQ MUTAFFAKKIRLARINING INSON SALOMATLIGIGA QO'SHGAN XISSALARI.

Akbarova Barchinoy Baqiyevna,
Hodjayeva Muqaddasxon Sati- Mahammatovna
Q'o'qon universiteti Andijon filiali gistologiya ,
sitologiya va emriologiya kafedrasi o'qituvchi

Annotatsiya. O'rta asr sharq mutaffakkirlarining inson salomatligiga qo'shgan xissalari beqiyosdir.Ularning asarlarida sog'lom turmush tarzining asosiy tamoyillari omillari keng atroflicha yoritilgan.

Kalit so'zlar: Tib qonunlari, Urjuza, Daf al madorr al kulliya an al-abdan al-insoniya, Xorazmshox xazinasi'

Аннотация Оченъ велик вклад средневековых восточных мыслителой в здоровъе человека.В их произведениях обширно били они саниы основные направления и признаки здорового образа жизни.

Ключевые слова: Каноны медицины, Урджуза, Даф аль-мадорр аль-куллия ан аль-абдан аль-инсония, Сокровищница Хорезмшаха

Annotation. In the middle centaries,the eastern scienticts did magnificiant amount of researches about human health and they have achieved lots of achievments that were written on their books.If we read their books we can get and know about healthful life style routine.

Keywords; The Canons of Medicine, Urjuza, Daf al madorr al kulliya an al-abdan al-insonia, The Treasury of Khorezmshah

Salomatlik inson hayotida eng birinchi o'rinda turadi .Inson salomatligini har qancha moddiy boylik va mablag' evaziga sotib olib bo'lmaydi.Har bir kishi o'z salomatligining quruvchisi bo'lib maydonga chiqadi.Uni shunday qurish kerakki, u hech qachon buzilmasin.Har qanday zararli ta'sirlarga bardosh bera olsin. Buning uchun har bir kishi mustahkam salomatlikka qanday erishish yo'lini salomatlikning sir asrorlarini chuqur bilishi va to'laqonlik salomatlikning yagona yo'li sog'lom turmush tarsi ekanligini anglab yetish lozim.Ma'lumki o'rta asrlarda yashab ijod etgan madaniyat va ta'lim - tarbiya, tibbiyot, adabiyot ,san'at va arxitektura sohalariga o'zlarining behisob xissalarini qo'shgan.So'ngi yillarida xalq tabobatiga katta e'tibor berilib, uni qayta tiklash borasida say-xarakatlar odatiy tus oldi. Bugungi kunda xalq tabobati turli mamlakatlar sog'likni saqlash tizimida o'z o'rnini egalladi.Ommaviy axborot vositalari xalq tabobatini keng targ'ib qila boshladilar. Bu davrda

yashab ijod qilgan buyuk allomalar o'zlarining asarlarida aksariyat bosh masalani inson salomatligi,inson manfaatlariga qaratganlar.Quyidagi sharq mutafakkirlarini asarlarida,ilmiy meroslarida inson salomatligi,sog'lom turmush tarzi masalalariga qaratilgan namunalarini ko'rishimiz mumkin.

Abu Ali Ibn Sino 450 ga yaqin asarlar yozgan bo'lib atigi 242 tasi jahondagi turli mamlakat kutubxonalarida saqlanadi.

O'zbekiston Fanlar Akademiyasi Sharqshunoslik insititutituti kutubxonasida 60 ga yaqin asarlari saqlanib kelinmoqda.Tabobat sohalarida qarashlarini u 1012-1014 yillarda yozilgan 5 jildlik va Oltin kitobdan iborat ''Tib qonunlari'' asarida va ''Urjuza''nomli tibbiy dostonida batafsil bayon qilgan.''Tib qonunlari''birinchi jildidagi sog'likni saqlash tartiblari haqidagi maxsus fanida inson salomatligini saqlashga aloqador omillar to'g'risida so'z yuritib bunda asosan quyidagi 7 narsaga e'tibor berish kerakligani ta'kidlagan.Bular quyidagilar;

1.Mijozni mo'tadil qilish
2.Yeyiladigan va ichiladigan narsalarni tanlash;
3.Gavdani chiqindidan tozalash;
4.To'g'ri tuzilishini saqlash;
5.Burunga tortiladigan havoni yetarli va yaxshi qilish;
6.Kiyinishni yaxshilash;
7.Jismoniy va ruhiy xarakatlarni mo'tadillash;

Shu harakatlar jumlasiga ma'lum darajada uyqu va uyg'oqlik ham kiradi deb aytganlar.Ibn Sino fikricha sog'likni saqlashni asosiy tadbiri badantarbiya keyin ovqat tadbiri va uyqu tadbirlari hisoblanadi.Ovqatlanish tadbiri haqida so'z yuritib ovqatni ishtaxa bilan yemoq va ishtaxani qaytarmaslik lozim.Qishda issiq yozda sovuq yoki iliq ovqat yeyish lozim.Juda to'yib ovqat yeyish yoki ichish hamma holda ham o'ldiruvchidir.

Gavdaga eng zararli narsa medada ovqat yetilmasdan turib va hazm bo'lmasdan turib yana kirishdir deb ta'kidlagan.Uyqu vaqtida dastlab biroz maddat o'ng tomon bilan keyin chap tomon bilan so'ngra yana o'ng tomon bilan yotish kerak. Shuni bilish kerakki yostiqni baland qo'yib yotish ovqatning hazm bo'lishiga yordam beradi.

Ibn Sino keksalarga ovqatni kam kam va va ikki yoki uch marotaba ovqat hazmiga qarab iste'mol qilish,achchiq,o'tkir ovqatlarni iste'mol qilmaslikka chaqiradi.Keksa kishilarning gigiyenik kun tartibi voyaga yetgan sog'lom kishilarning kun tartibiga qaraganda tubdan farqlidir.

Agar o'rta yoshdagi odamlar kun tartibida Ibn Sino birinchi o'ringa jismoniy mashqlarni so'ngra esa ovqatlanish va uxlash tartibini qo'ysa,keksa kishilarga kun tartibi avvalo uyqu so'ngra bedorlik [sergaklik],to'g'ri ovqatlanish faqat undan kegingina jismoniy mashqlarni qo'yadi.

Abu Ali Ibn Sinoning inson salomatligiga qo'ygan gigiyenik talablari sog'likni saqlashga doir risola deb nomlangan asarida bayon qilingan.

Inson salomatligi sog'lom turmush tarzi targ'ibotlariga bag'ishlangan ''Daf al madorr al kulliya an al-abdan al-insoniya''sog'likni saqlash va parhez masalalariga bag'ishlangan bu asar 1547-yillardanoq lotin tilida nashr etilgan.Arabchasi 1837-yili Qohirada,o'zbek tilidagi tarjimasi 1978-yili Toshkentda bosib chiqilgan.''Urjuza fit tib fil-fusul al-arba'a''[yilning to'rt fasliga oid tibbiy urjuza] me'yoriy risola ko'rinishida bo'lib yil fasllarida nimalarga e'tibor berish kerak,kiyinish,ovqatlanish,zararli odatlar, ichimliklar dorilar iste'moli haqida so'z boradi.Nashr etilmagan qo'lyozmalari kutubxonalarda saqlanadi

Ismoil Jurjoniy.Ismoil Jurjoniy qalamiga mansub ''Xorazmshoh xazinasi''asari XII asr tib ilmining o'ziga xos qomusi hisoblangan.U inson salomatligiga toza havoning foydasi haqida to'xtalib,shunday yozadi;

Xorazm iqlimi shimol iqlimi hisoblanib bu yerda havo toza va musaffo bo'ladi.Kimki shu havodan nafas olsa tanasi kuchga to'lib zehni o'tkirlashadi''. Jurjoniy tabibga bemorning uyiga borish,yashash sharoitlarini,uy-joyi quruq yoki namligini,toza havo yetarlimi,unga nima yetishmaydi to'ylarga va mehmondorchilikka tez-tez borib turish yoki turmasligibilan

qiziqishni tavsiya etadi va shunga ko'ra davolash lozimligini uqtiradi.

Ismoil Jurjoniy yil fasllariga qarab ogohlantiruvchi tavsiyalar bergan.Ko'klamda organizmni qishda yig'ilib qolgan zararli moddalardan tozalash,qon oldirish,bahorda yengil tez hazm bo'ladigan ovqatlar tanovul qilish;yozda ovqatlarni kam iste'mol qilish,uning nordon turlarini yeyish lozim deb ta'kidlagan.Kuz Jurjoniy fikricha eng havfli fasl hisoblanadi.Shu sababli salqin joylarda bo'lmaslikni,sovuq suvda cho'milmaslikni maslahat beradi.Hammomlar hamma uchun foydali charchoqni chiqaradi,teri teshiklarini ochadi,ovqat hazmini yaxshilaydi,tez-tez hammomga tushish vaznni kamaytiradi deb aytadi.Ovqatlanish haqida so'z yuritib,dasturxon atrofiga faqat ochlikni his qilgandagina kelish,to'yib taom yemaslik,kuniga uch marotaba ovqatlanish kerak deb ta'kidlaydi.

Jurjoniyning may ichish haqidagi tavsiyalari bugungi kungacha o'z ahamiyatini yo'qotmagan.Uning fikricha,me'yoridan oshilmay ichilgan may organizmga foya keltiradi.Uni haddan tashqari ko'p iste'mol qilish ,turli xi kasalliklarga va xastaliklarga jumladan ruhiy kasalliklarga olib keladi.Organizm uchun jismoniy faollik juda zarur hisoblanadi.Jismoniy harakatlarni och qoringa bajarsa yaxshi foyda beradi.Tananing har bir qismi uchun o'ziga xos jismoniy mashg'ulotlari bor; Oyoqlarga-yurish,qo'llarga-nayzabozlik,tosh otish,butun tanaga-kurash foydaliligini ta'kidlaydi.Jismoniy mashg'ulotlardan so'ng iiq suvda cho'milib,tanani uqalatish lozimligini aytadi.

Abu Rayhon Beruniy. Ulug' alloma,ensiklopedist olimAbu Rayhon Beruniy ''**Javohirot kitobi''da** inson salomatligiga oid tozalik haqida qimmatli ma'lumotlar bergan.''Agar inson o'z suratini o'zgartirishga ojiz bo'lsa har mahal u o'z terisini toza saqlashga ojizlik qilmaslik kerak.Agar inson najasdan saqlanishda uy mushuklariga o'xshagan nutqsiz hayvonlardan orqada qolishni istamasa shunday qiladi; Mushuklar o'z chiqindilarini to'shalgan narsalar-kigiz,sholcha gilamlarda yo ko'rpachalarda,odamlar to'planadigan joylarda qoldirishni ep ko'rmaydilar.Mushuklar o'z chiqindilarini ehtiyot shart deb tuproqqa ko'mib, odamlar nazaridan yashirib o'z joylarini pokiza tutishini mulohaza qilib ko'r;Keyin qarasang u huddi tahorat qilganga o'xshab,chiqindi joylarni tozalashga tushadilar tevaragiesa yalab tozalashga tushadilar,yuz yumuqlarini esa yuvadilar.

Beruniy suvning inson salomatligidagi ahamiyatini ta'kidlab ''Inson salomatligi asosan suvda yuvinish bilan bo'ladi.Har qanday badhid bo'lgan ifloslikni suvchalik tozalaydigan narsa bo'lmaydi''deb ta'kidlagan.

Kaykovus. Kaykovus tomonidan XII asrda yozilgan ''Qobusnoma''asarida tibbiyot ilmi va gigiyenaga oid qimmatli ma'lumotlar berilgan.Jumladan asarning ''Nafsni tiyishning sharofati va taom tadbiri'',''Hammomga boorish haqida'',''Uxlamoq va dam olish haqida'',''Tib ilmining tartibi haqida'' boblari bor.

Hammomga borish haqida''gi bobida so'z yuritib shunday deydi;''Ey farzand,bilginki, hammomga borishga hojat sezsang qorning to'q vaqtida borma,bu zararlidir.Ammo hammom jonga rohat va muloyim narsadirki,hakimlar hammomdan boshqa yaxshi narsa yo'q deb biladilar.Xoh yozda,xoh qishda hammomga borsang,avval sovuq xonada o'tir,bu xonada badaning rohat qilsin,so'ngra o'rtadagi xonaga kirib unda bir soat o'tir,toki issiq xonaning ham foydasini ko'rgaysan.Issiq senga ta'sir qilgandan so'ng xivat xonaga kirib, unda yuvingil deb tavsiyalarni yozib qoldirishgan.

Hulosa qilib shuni aytishimiz , ulug allomalarimizning qoldirgan me'rosi hozirgi kunda ham keng ko'lanib kelinmoqda va bu tabiblik sohalarini yoritayotgan mutaxasislarga ilmiy asoslangan davolash choralarini ko'rishga samarali natija bermoqda

Foydlanilgan adabiyotlar

1. 1.Abu Ali Ibn Sinoning ''Tib qonunlari''I-II-III jildi.Toshkent ''Abdulla Qodiriy''nomidagi xalq merosi.1994-yil.
2. 2.O'rta asr sharq allomalari va mutaffakkirlarining tarixiy merosi,uning zamonaviy svilizatsiya rivojidagi roli va ahamiyati xalqaro konferensiya materiallari.Toshkent ''O'zbekiston'' 2014-yil.
3. Abu Rayhon Beruniy ''Tanlangan asarlar''kitobi.1974-yil.

GESTATSION DIABETNING ONA VA BOLA SALOMATLIGIGA UZOQ MUDDATLI METABOLIK OQIBATLARI

Sidiqova Nihola A'loxon qizi
Impuls tibbiyot instituti 4-kurs talabasi

Annotatsiya. Maqolada gestatsion diabetning (GD) ona va chaqaloq sog'lig'iga ta'siri hamda uning uzoq muddatli metabolik oqibatlari yoritiladi. Nazariy manbalar va kuzatuv natijalari asosida GD bilan tug'ilgan bolalarda tug'ruq vazni, o'sish sur'ati va insulinga sezgirlikdagi o'zgarishlar tahlil qilinadi. Olingan dalillar GD faqat homiladorlik davrida emas, balki keyingi avlod salomatligida ham muhim ahamiyatga ega ekanini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: gestatsion diabet, ona salomatligi, chaqaloq, metabolik sindrom, insulin rezistentlik

Kirish. Gestatsion diabet — homiladorlik davrida glyukoza almashinuvining buzilishi bo'lib, dunyo bo'yicha 7–14% homiladorlarda uchraydi. So'nggi yillarda O'zbekistonda ham GD bilan kasallanish holatlari ortib bormoqda. Biroq uning uzoq muddatli oqibatlari yetarli darajada o'rganilmagan. Ushbu tadqiqotning maqsadi — GD onalarida va ularning farzandlarida kelajakda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan metabolik muammolarni aniqlashdir.

Adabiyotlar sharhi. Gestatsion diabet patogenezida homiladorlik davrida oshadigan insulin rezistentligi va platsenta gormonlari (hPL, progesteron, kortizol) muhim rol o'ynaydi. Bu jarayon giperglikemiyaga olib keladi.

- Ona uchun oqibatlar: preeklampsiya, sezaryen ehtimoli ortishi, keyinchalik 2-tip diabet rivojlanishi (10 yil ichida 50% gacha).

- Chaqaloq uchun oqibatlar: makrosomiya (≥4 kg tug'ilish), neonatal gipoglikemiya, uzoq muddatda semirish va insulin rezistentligi xavfi. So'nggi yillardagi (2020–2024) ilmiy izlanishlar GD bilan tug'ilgan bolalarda 5–10 yoshda semirish ikki barobar ko'p uchrashini va epigenetik o'zgarishlar mavjudligini ko'rsatmoqda. Ona sog'lom turmush tarziga amal qilganida bu xavflar sezilarli kamayadi.







Gestatsion diabet (GD) homiladorlik davrida yuzaga keladigan giperglikemiya holati bo'lib, zamonavir perinatologiya va endokrinologiyaning eng dolzarb muammolaridan biridir. Ushbu patologiya nafaqat homiladorlik va tug'ruq davrida asoratlar xavfini oshiradi, balki ona va bola uchun hayot davomidagi metabolik salomatlik trajektoriyasini belgilovchi muhim omil hisoblanadi.

Epidemiologik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, gestatsion diabet anamneziga ega bo'lgan ayollarda 2-tip qandli diabet rivojlanish xavfi umumiy populyatsiyaga nisbatan 7-10 baravar yuqori ekanligi aniqlangan. Bu xavf ayniqsa tug'ruqdan keyingi birinchi 5 yil ichida eng yuqori darajada kuzatiladi va vaqt o'tishi bilan bosqichma-bosqich kamayib boradi. Shu bilan birga, ushbu ayollarda metabolik sindrom, arterial gipertenziya va yurak-qon tomir kasalliklari rivojlanish ehtimoli ham sezilarli darajada ortadi. Muhimi shundaki, insulin rezistentligi va pankreas β-hujayra disfunktsiyasi tug'ruqdan keyin ham uzoq muddatli saqlanib qoladi, bu esa keyinchalik manifestlashuvchi metabolik buzilishlarning patofiziologik asosini tashkil etadi.

Gestatsion diabetning ona organizmiga ta'siridan tashqari, uning bola salomatligiga ko'rsatadigan uzoq muddatli oqibatlari alohida ahamiyat kasb etadi. Intrauterin metabolik dasturlash (fetal metabolic programming) konseptsiyasi asosida, ona giperglikemiyasi sharoitida rivojlanayotgan homilaning metabolik tizimi doimiy ravishda o'zgartiriladi. Ona qonidagi yuqori glyukoza konsentratsiyasi homila pankreasida insulin gipersekretsiyasiga olib keladi, natijada makrosomiya va neonatal gipoglikemiya xavfi ortadi. Ammo bu jarayonning oqibatlari faqat perinatal davrda cheklanmaydi - intrauterin davrda shakllanadigan metabolik o'zgarishlar bolaning butun hayoti davomida saqlanib qoladi.

Molekulyar darajada bu jarayon epigenetik mexanizmlar orqali amalga oshadi. DNK metilatsiyasi, giston modifikatsiyalari va boshqa epigenetik o'zgarishlar gen ekspressiyasini uzoq muddatli o'zgartiradi, bunda genom ketma-ketligi o'zgarmasdan qoladi. Ushbu epigenetik modifikatsiyalar adipogenez, insulin signalizatsiyasi va energiya metabolizmini tartibga soluvchi genlarda yuzaga keladi. Natijada, gestatsion diabet sharoitida tug'ilgan bolalar hayoti davomida

semizlik va 2-tip qandli diabetga 2-4 baravar yuqori moyillik namoyon qiladi. Bu metabolik dasturlash bolalik va o'smirlik davrida insulin rezistentligi, metabolik sindrom komponentlari va kardiovaskulyar xavf omillarining erta shakllanishi bilan tavsiflanadi.

Patogenetik jihatdan, gestatsion diabetning uzoq muddatli oqibatlari bir nechta molekulyar mexanizmlar bilan bog'liq. Birinchidan, davomli oksidativ stress va yallig'lanish jarayonlari hujayra shikastlanishiga va mitoxondrial disfunktsiyaga olib keladi. Ikkinchidan, adipokinlar (leptin, adiponektin) va inkretinlar (GLP-1, GIP) balansining buzilishi insulin ta'sirchanligi va β-hujayra funktsiyasiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Uchinchidan, lipid metabolizmining o'zgarishi va ektopiK yog' to'planishi insulin rezistentligini kuchaytiradi. Ushbu mexanizmlar kompleks tarzda o'zaro ta'sirlashib, progressiv metabolik disfunktsiyaga olib keladi.

Klinik amaliyot nuqtai nazaridan, gestatsion diabetning uzoq muddatli oqibatlarini minimallashtirish uchun evidensga asoslangan interventsiya strategiyalari ishlab chiqilgan. Homiladorlik davrida intensiv glikemik nazorat qo'llash perinatal va uzoq muddatli oqibatlarni sezilarli darajada kamaytirishi isbotlangan. Tug'ruqdan keyin esa doimiy monitoring va turmush tarzini modifikatsiyalash (muvozanatli ovqatlanish, muntazam jismoniy faollik, sog'lom tana vaznini saqlash) 2-tip qandli diabetga progressiyani sekinlashtirish yoki to'xtatish imkonini beradi. Bundan tashqari, keyingi homiladorliklarni rejalashtirish va prekontseptsion maslahat GD takrorlanish xavfini kamaytiradi.

Bolalar uchun esa erta skrining va profilaktik dasturlar juda muhimdir. Gestatsion diabet anamnezi bo'lgan onalardan tug'ilgan bolalar yuqori xavfli guruh sifatida qaralishi va muntazam ravishda antropometrik ko'rsatkichlar, metabolik profillar va rivojlanish parametrlari monitoring qilinishi zarur. Erta interventsiya, shu jumladan oilani sog'lom turmush tarziga o'rgatish, bolalarda metabolik kasalliklar rivojlanishining oldini olishda samarali ekanligi ko'rsatilgan.

Zamonaviy tadqiqotlar gestatsion diabetning transgeneratsion ta'sirini ham ochib berdi - ya'ni ona va bolada kuzatilgan metabolik buzilishlar keyingi avlodlarga ham uzatilishi mumkin. Bu epigenetik o'zgarishlarning avloddan-avlodga uzatilishi mexanizmi orqali amalga oshadi va metabolik kasalliklar epidemiyasining davom etishiga hissa qo'shadi. Shu sababli, gestatsion diabetni faqat homiladorlik muammosi sifatida emas, balki jamoat salomatligi darajasidagi muammo sifatida qarash zarur.

Xulosa qilib aytganda, gestatsion diabet ona va bola uchun hayot davomidagi metabolik xavflarni sezilarli darajada oshiradigan, murakkab patofiziologik mexanizmlarga ega bo'lgan holat hisoblanadi. Intrauterin metabolik dasturlash kontseptsiyasi bu kasallikning avlodlararo ta'sirini tushuntirib, profilaktika va interventsiya strategiyalarini ishlab chiqishda yangi yo'nalishlar ochadi. Kompleks yondashuv - perikontseptsion tayyorgarlik, intensiv prenatal nazorat, tug'ruqdan keyingi uzoq muddatli monitoring va oilaga yo'naltirilgan sog'lomlashtirish dasturlari - gestatsion diabetning uzoq muddatli metabolik oqibatlarini minimallashtirish va kelajak avlodlarning salomatligini ta'minlash uchun zarurdir. Kelajakda shaxsiylashtirilgan tibbiyot yondashuvlari, genomik va epigenomik skrining, hamda ijtimoiy-iqtisodiy omillarni hisobga olgan davlat dasturlari bu muammoni hal qilishda muhim rol o'ynashi kutilmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Bellamy L., Casas J.P., Hingorani A.D., Williams D. Type 2 diabetes mellitus after gestational diabetes: a systematic review and meta-analysis // Lancet. – 2009. – Vol. 373(9677). – P. 1773-1779.
2. Catalano P.M., McIntyre H.D., Cruickshank J.K. et al. The hyperglycemia and adverse pregnancy outcome study: associations of GDM and obesity with pregnancy outcomes // Diabetes Care. – 2012. – Vol. 35(4). – P. 780-786.
3. Dabelea D., Hanson R.L., Lindsay R.S. et al. Intrauterine exposure to diabetes conveys risks for type 2 diabetes and obesity: a study of discordant sibships // Diabetes. – 2000. – Vol. 49(12). – P. 2208-2211.
4. Damm P., Houshmand-Oeregaard A., Kelstrup L. et al. Gestational diabetes mellitus and long-term consequences for mother and offspring: a view from Denmark // Diabetologia. – 2016. – Vol. 59(7). – P. 1396-1399.

5. Fetita L.S., Sobngwi E., Serradas P. et al. Consequences of fetal exposure to maternal diabetes in offspring // Journal of Clinical Endocrinology and Metabolism. – 2006. – Vol. 91(10). – P. 3718-3724.
6. Gillman M.W., Rifas-Shiman S., Berkey C.S. et al. Maternal gestational diabetes, birth weight, and adolescent obesity // Pediatrics. – 2003. – Vol. 111(3). – P. e221-e226.
7. Herring S.J., Oken E. Obesity and diabetes in mothers and their children: can we stop the intergenerational cycle? // Current Diabetes Reports. – 2011. – Vol. 11(1). – P. 20-27.
8. Immanuel J., Simmons D. Screening and treatment for early-onset gestational diabetes mellitus: a systematic review and meta-analysis // Current Diabetes Reports. – 2017. – Vol. 17(11). – P. 115.
9. Kim C., Newton K.M., Knopp R.H. Gestational diabetes and the incidence of type 2 diabetes: a systematic review // Diabetes Care. – 2002. – Vol. 25(10). – P. 1862-1868.
10. Landon M.B., Spong C.Y., Thom E. et al. A multicenter, randomized trial of treatment for mild gestational diabetes // New England Journal of Medicine. – 2009. – Vol. 361(14). – P. 1339-1348.
11. Lowe W.L., Scholtens D.M., Kuang A. et al. Hyperglycemia and Adverse Pregnancy Outcome Follow-up Study (HAPO FUS): maternal gestational diabetes mellitus and childhood glucose metabolism // Diabetes Care. – 2019. – Vol. 42(3). – P. 372-380.
12. Mitanchez D., Yzydorczyk C., Siddeek B. et al. The offspring of the diabetic mother – short- and long-term implications // Best Practice & Research Clinical Obstetrics & Gynaecology. – 2015. – Vol. 29(2). – P. 256-269.
13. Metzger B.E., Lowe L.P., Dyer A.R. et al. Hyperglycemia and adverse pregnancy outcomes // New England Journal of Medicine. – 2008. – Vol. 358(19). – P. 1991-2002.
14. Ornoy A., Reece E.A., Pavlinkova G. et al. Effect of maternal diabetes on the embryo, fetus, and children: congenital anomalies, genetic and epigenetic changes and developmental outcomes // Birth Defects Research Part C: Embryo Today. – 2015. – Vol. 105(1). – P. 53-72.
15. Ratner R.E., Christophi C.A., Metzger B.E. et al. Prevention of diabetes in women with a history of gestational diabetes: effects of metformin and lifestyle interventions // Journal of Clinical Endocrinology and Metabolism. – 2008. – Vol. 93(12). – P. 4774-4779.
16. Vrachnis N., Augoulea A., Iliodromiti Z. et al. Previous gestational diabetes mellitus and markers of cardiovascular risk // International Journal of Endocrinology. – 2012. – Vol. 2012. – Article ID 458610.
17. Wendland E.M., Torloni M.R., Falavigna M. et al. Gestational diabetes and pregnancy outcomes – a systematic review of the World Health Organization (WHO) and the International Association of Diabetes in Pregnancy Study Groups (IADPSG) diagnostic criteria // BMC Pregnancy and Childbirth. – 2012. – Vol. 12. – P. 23.
18. Zhu Y., Zhang C. Prevalence of gestational diabetes and risk of progression to type 2 diabetes: a global perspective // Current Diabetes Reports. – 2016. – Vol. 16(1). – P. 7.

SISTIT KASALLIGIDA QOVUQ TO'QIMASINING GISTOLOGIK O'ZGARISHLARI

Xojimatov Sardorbek Ravshanbek o'g'li
Qo'qon universtiteti Andijon filiali assistenti
E-mail: xojimatovsardorbek7@gmail.com

Anotatsiya. Sistit – bu qovuq shilliq qavatining yallig'lanishi bo'lib, uning asosiy sabablari orasida infeksiyalar, kimyoviy moddalar, travmalar va autoimmun holatlar mavjud. Ushbu holatda qovuq devorining gistologik tuzilmasida muhim o'zgarishlar yuzaga keladi. Shilliq qavatda gipermiya (qon tomirlarning kengayishi), shish, infiltratsiya (limfotsitlar, neyrofillar, plazmatik hujayralar to'planishi), epiteliyal qatlamda degenerativ va distrofik o'zgarishlar kuzatiladi. Og'ir holatlarda yiringli nekroz, yallig'lanish infiltratlari, mikroabsesslar va fibroblastlarning faollashuvi natijasida biriktiruvchi to'qima ko'payishi mumkin. Surunkali sistitda esa qovuq devorining qalinlashuvi, shilliq osti qatlamida tolali biriktiruvchi to'qimaning rivojlanishi va

limfoid infiltratlar doimiy bo‘lishi bilan xarakterlanadi. Ushbu gistologik o‘zgarishlar klinik belgilar va davolash taktikasini aniqlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Kalit so’zlar: yallig’lanish, patogenez, to’qima, xomiladorlik davri, infeksiya, shilliq qavat, epiteliy.

Annotatsion. Cystitis is an inflammation of the urinary bladder mucosa, commonly caused by infections, chemical irritants, trauma, or autoimmune conditions. In this condition, significant histological changes occur in the bladder wall. These include hyperemia (dilation of blood vessels), edema, and infiltration by inflammatory cells such as lymphocytes, neutrophils, and plasma cells. The epithelial layer often shows degenerative and dystrophic changes. In severe cases, purulent necrosis, inflammatory infiltrates, microabscesses, and increased fibroblast activity leading to connective tissue proliferation can be observed. In chronic cystitis, the bladder wall becomes thickened, with fibrous connective tissue growth in the submucosal layer and persistent lymphoid infiltration. These histological changes are important for understanding clinical symptoms and guiding treatment strategies.

Key words: inflammation, pathogenesis, tissue, gestational period, infection, mucous membrane, epithelium.

Sistit – bu qovuq (siydik pufagi) shilliq qavatida sodir bo'ladigan yallig'lanish jarayoni bo'lib, uni ko'pincha infeksiya keltirib chiqaradi. Kasallik bilan erkaklar ham, ayollar ham og`rishi mumkin, ammo ayollarda organizmning o`ziga xos tuzilishi tufayli ko'proq uchraydi. Buning sababi shundaki, ayollarda siydik yo'llari erkaklarnikiga qaraganda ancha qisqaroq va infeksiya siydik pufagiga kirish uchun kamroq to'siqlarga ega.



Sistitning ko`rinishlari

Kasallikning kechishiga qarab sistitning ikki xil ko`rinishi ajratiladi:

Sistitning sabablari har xil bo'lib, ularga qarab rivojlanayotgan yallig'lanishni quyidagicha tasniflash mumkin; [jadval1]

Jadval 1

O'TKIR	SURUNKALI
O'tkir sistit gipotermiya, ya`ni sovqotish tufayli yuzaga kelishi mumkin, uning belgilari:	Surunkali sistit odatda ikkilamchi bo'lib, uning belgilari o'tkir sistitda ham kuzatiladi, ammo unchalik kuchli bo`lmaydi.
og`riqli tez-tez peshob kelishi	o`ziga xos bo`lmagan (patogen mikroflora tufayli hosil bo'lgan - stafilokokk, kandida, klebsiella, enterobakteriya, proteya kabilar)
jinsiy a'zolar, orqa chiqaruv teshigi sohasida, sonlar oralig`ida yoqimsiz hislar	o`ziga xos sil yoki jinsiy yo'l bilan yuqadigan kasalliklar, masalan (sifilis, xlamidiya, ureaplazmoz tufayli shakllangan)
siydik rangining xiralashuvi (bu siydikda leykositlar, shilliq qavat va siydik pufagi hujayralarining ko'pligi, shuningdek	

bakteriyalar tufayli sodir bo`ladi)
yuqori tana harorati

Bundan tashqari shifokorlar quyidagilarni ajratib ko'rsatishadi

radiatsiya terapiyasini o'tkazishdan kelib chiqadigan post-radiatsion turi	interstitsial tip, bu turdagi sistitda butun qovuq zararlanadi, qovuq devori to'qimalarida chandiq paydo bo'ladi

Sistitning sabablari. Sistit turli sabablarga ko'ra yuzaga kelishi mumkin, bunga ko`ra kasallik bakterial va noinfeksion turlarga bo`linadi. Bakterial sistitda qovuqqa infeksiya kirishining to'rtta yo`li bor: 1. Pastga tushish yo'li (yallig'langan buyraklar orqali o`tadi); 2. Ko'tarilish yo'li (infeksiya tashqi muhit orqali kirib boradi); 3. Limfogen (limfa tomirlari orqali, nosog`lom jinsiy a'zolardan yuqadi); 4. Gematogen (organga qon oqimi orqali kiradi). Sistitning noinfeksion sabablari quyidagilardir: qovuq to'qimalarining yallig'lanishi bilan namoyon bo'ladigan allergiya; immunitet yoki asab tizimi faoliyati buzilishi; kimyoviy kuyishlar (qovuqqa shifokor tomonidan belgilanmagan dori vositalarining kiritilishi, shuningdek, tibbiyot xodimlari yoki bemorning ehtiyotsizligi tufayli); qorinning pastki qismi va genital sohalarda radiatsiya terapiyasining o`tkazilishi. Sistit rivojlanishiga bilvosita ta'sir ko'rsatadigan omillar: nofaol turmush tarzi; gipotermiya (sovqotish); noqulay ichki kiyim; jinsiy hamrohlarning doimiy o'zgarishi va kontraseptiv vositalardan voz kechish; shaxsiy gigienaga beparvolik; ichki organlar kasalliklari; charchoq, gipovitaminoz; qovuq bo'shatishning buzilishi; immunitetning pasayishi; siydik qopidagi begona jismlar; katetrlash, uretroskopiya. Ayollar va erkaklarda sistit belgilari sistit erkaklar va ayollarda quyidagi belgilarda namoyon bo'ladi: tana haroratining oshishi; o'zini yomon his qilish, charchoq; peshob chiqarish paytida yoqimsiz yoki og'riqli hislar, oxirida kuchayadi; tez-tez peshob chiqarish hissi; qovuq sohasida og'riq; qovuqning to'liq bo'shatilmaganligi hissi hojatxonaga borganidan keyin darhol paydo bo'ladi; loyqalangan peshob (ba'zida qon aralashmalari bilan); peshob chiqarishda siydik yo‘llaridan yiring chiqishi; ayollarda hayz sikli buzilishi.

Sistit diagnostikasi sistit diagnostikasi laboratoriya va klinikalarda tekshiruvlar o'tkazishni anglatadi. Shifokor anamnezni to'playdi, bemorning qorin bo'shlig'ini ushlab ko`radi (bunda og'riq seziladi) va quyidagilar buyuriladi: siydikning umumiy tahlili (rangi, zichligi va boshqa parametrlarini o'rganish uchun); qonning umumiy tahlili (yallig'lanish belgilari – eritrositlarning cho`kish tezligi ortishi yoki leykositlar sonining ortishini aniqlash uchun); qonning biokimyoviy tekshiruvi (qondagi tuz, oqsil va nitratlarni aniqlash uchun); sistit qo`zg`atuvchi bakteriyalarning dori vositalariga sezuvchanligini aniqlash uchun bakteriologik tekshiruvi; JYYI (kandidoz, mikoplazmoz, trixomoniaz, ureaplazmoz, gonoreya, gardnerellyoz, xlamidiya). Urofloumetriya. buyraklar, siydik pufagining ultratovush tekshiruvi; urologik tekshiruv; Sistoskopiya bilan biopsiya. Siydik qopiga biriktirilgan kamerali trubka kiritiladi, shundan so'ng tekshiruv uchun qovuq to'qimasi bo'lagi olinadi. Sistitni tashxislash va davolash urologiya tibbiyot markazlarida amalga oshiriladi. Sistitni qanday va nima bilan davolash kerak

Sistit kasalligida infeksiyalar tarqalishining oldini olish uchun bemorga antibiotik preparatlari buyuriladi. Dori-darmonlarni qabul qilishning eng maqbul kursi - uch kundan yetti kungacha. Ftorxinolonlar guruhidagi barcha antibiotiklarning aksariyati ko'pchilik bakteriyalarga qarshi samarali bo'ladi. Boshqa dorilar kamroq samarali.

Agar sistit kuchli og'riqlar bilan kechsa, bemorga No-shpa, Baralgin, Papaverin, Nimesil, Diklofenak kabi og'riq qoldiruvchi dorilar buyuriladi. O'simliklar va ularning qismlari asosida tayyorlangan preparatlar siydik hosil bo'lishini oshirish uchun (ya'ni siydik haydovchi ta'sir uchun) sistitni davolashda qo'llaniladi. Dorixonalarda sanoatda ishlab chiqarilgan Siston, Fitolizin, Kanefron kabi dori-darmonlar sotiladi. Kasallikni davolash asosan immunitet holatiga bog'liq bo'lganligi sababli, uni oshirish uchun quyidagi dorilar buyuriladi: "Likopid". Bakteriyalarni o'zlashtiradigan va eritadigan hujayralar faoliyatini kuchaytiradi. Shuningdek, ushbu preparatning ta'siri ostida antitanachalar faolroq ishlab chiqariladi. "Viferon". Immunitet tizimini kuchaytirishga yordam beradi, interferon asosida ishlab chiqariladi, bu esa o'z navbatida

yallig'lanish jarayonlariga qarshi kurashish uchun tabiiy birikma hisoblanadi. "Uro-Vaksom". Sistitni qo'zg'atuvchi eng keng tarqalgan bakteriyalar - E.Coliga qarshi immunitetni kuchaytiradi. Erkak va ayollardagi surunkali sistitni davolashda siydik qopining istillyatsiyasi

Qovuq instilyatsiyasi – siydik pufagiga dori yuborish amaliyotidir. Surunkali sistitni mahalliy davolash uchun ishlatiladi. Bu yoqimsiz jarayon, ammo og'riqli emas. Ushbu davolash tadbiri faqat shifoxonada amalga oshiriladi. Endoskop yordamida siydik qopi tekshiriladi, kerak bo'lsa, gistologik tahlil uchun siydik pufagi devorlarining biopsiyasi olinadi. Instillyatsiyani o`tkazish ketma-ketligi: siydik qopi bo`shatiladi, maxsus kateter o'rnatiladi. Dori vositasi 37 darajaga qadar isitiladi, shundan so'ng uni qovuq bo'shlig'iga ehtiyotkorlik bilan yuboriladi. Xiralashgan suyuqlik ajralgandan so`ng, dori takroran yuboriladi. Bu jarayon toza shaffof suyuqlik ajralib chiqqunicha davom etadi. Kateter ehtiyotkorlik bilan chiqariladi. Davolash tadbiridan so'ng ikki soat davomida peshob ajratmaslik tavsiya qilinadi. Agar lozim bo'lsa, uch kundan keyin bu tadbir takrorlanadi.

Instilyatsiya paytida qo'llaniladigan dorilar

Surunkali sistitni davolashda instilyatsiya paytida quyidagi dorilar qo'llaniladi: antibiotiklar (aminoglikozid, penitsillin, sefalosporin); antiseptik vositalar (Furadonin, Dekasan, Xlorgeksidin, kaliy permanganat, kumush va yod preparatlari); ozonlangan eritmalar (ozon antioksidant hisoblanadi); yallig'lanishga qarshi preparatlar (atsetilsalitsil kislotasi); o'simlik preparatlari (moylar, qaynatmalar); immunostimulyatorlar (Interferon, Sikloferon); og`riqni yengillashtiradigan dorilar (Papaverin, No-shpa); bakteriofaglar. Instilyatsiyaga qarshi ko'rsatmalar Ushbu davolash tadbiri quyidagi hollarda amalga oshirilmaydi: o'tkir shakldagi sistit; siydik-tanosil tizimining sil infeksiyasi; homiladorlik (birinchi trimestrda); siydik-tanosil tizimining boshqa yuqumli jarayonlari.

Homiladorlik davrida sistitni davolash Homiladorlik paytida sistit tez-tez uchraydi. Uning xavfi pielonefritni qo'zg'atishi mumkinligidadir. Pielonefrit buyrak yetishmovchiligi, kech gestoz va boshqa asoratlarga olib kelishi mumkin. Kasallik rivojlanishining dastlabki bosqichida sistitni antibiotiklar bilan davolash mumkin, ammo ko'plab homilador ayollar antibiotiklarni qabul qilishga tavakkal qilmaydilar, ayniqsa homiladorlikning birinchi trimestrida. Ularsiz kasallikni davolash mumkin, ammo bu jarayon uzoq davom etadi va qayta kasallanish xavfi mavjud bo`ladi. Homilador ayollar uchun xavfsiz bo'lgan dorilar No-shpa kabi keng tarqalgan o'simlik preparatlari asosida tayyorlangan spazmni yengillashtiradigan dorilardir. Ular kuchli og'riq paydo bo`lganda buyuriladi. Keyinchalik, homilador ayol sistitni davolash uchun instilyatsiya qildirishi yoki fizioterapiya yordamida davolanishi mumkin.

Sistit kasalligida parhez Kasallik paytida siydik pufagi zararlanishini kuchaytiradigan oziq-ovqatlarni iste'mol qilish taqiqlanadi. Bu ziravorlar, yog'li ovqatlar, souslar, konservalangan mahsulotlar. O'tkir sistit davrida spirtli ichimliklar, choy, qahva va dudlangan mahsulotlar ham taqiqlanadi. Sistit kasalligida siydik pufagini tiklashga yordam beradigan oziq-ovqatlar: sabzavotlar va mevalar; sut mahsulotlari; suyuqliklar (sharbatlar, suv); asal.

Sistit nimasi bilan xavfli?

Sistitning o'tkir shakli vaqtida davolanmasa, surunkali shaklga o'tishi mumkin va undan qutulish bir necha barobar qiyinroq bo`ladi. Dastlabki alomatlar paydo bo`lishi bilan urolog ko`rigidan o`tish kerak. Bundan tashqari vaqtida davolanmagan kasallik quyidagi asratlarga olib kelishi mumkin: buyraklar, ularning atrofdagi to'qimalar, siydik yo'llarining yallig'lanishi; siydik qopi kichrayishi (qovuq hajmi juda kichrayib ketadi); jinsiy hayotning buzilishi.

Xavf ostidagilar sistit bilan kasallanish xavfi quyidagi insonlarda mavjud: yaqinda jinsiy hayot boshlagan yosh ayollar; homiladorlikning istalgan davridagi ayollar; klimaks yoshidagi ayollar; 60 yoshdan oshganlar; qandli diabet bilan kasallanganlar; kontratseptiv diafragmadan foydalanadigan va bir vaqtning o'zida anal jinsiy aloqada bo`lgan ayollar.

Sistit profilaktikasi

Siydik yo`llariga infeksiya tushishi va sistit rivojlanishi ehtimolini kamaytirish uchun shifokorlar quyidagilarni tavsiya qiladilar: hojatxonaga o`z vaqtida borish; haddan tashqari sovqotishga yo`l qo`ymaslik, ob-havoga mos kiyim tanlash; shaxsiy gigiyena qoidalariga doimiy ravishda va to`g`ri amal qilish; hayz paytida ayollarga tampon va tagliklarni vaqtida almashtirish tavsiya etiladi; intim gigiena uchun neytral va yumshoq yuvish vositalaridan foydalanish; kuniga yetarli miqdorda, kamida bir yarim litr, suyuqlik ichish; tabiiy va sifatli matodan tayyorlangan ichki kiyimlarni o'lchamiga qarab ehtiyotkorlik bilan tanlash; to'g'ri ovqatlanish va rejimga rioya qilish; alkogolli ichimliklarni iste'mol qilmaslik.

Hulosa O‘tkir va surunkali sistit holatlarida qovuq shilliq qavatining gistologik tuzilmasida bir qator morfologik o‘zgarishlar kuzatiladi. Asosan, epiteliy qatlamida deskvamatizatsiya, degenerativ-distrofik jarayonlar va yallig‘lanish infiltratlari (limfotsitlar, neyrofillar, plazmatik hujayralar) ning to‘planishi kuzatiladi. Shilliq osti qatlamida esa kapillyarlarning kengayishi (giperemiya), to‘qimalarda shish, mikroabssesslar va yiringli infiltratlar, shuningdek, fibroblastlarning faollashuvi bilan ifodalanuvchi regenerativ va fibroz jarayonlar aniqlanadi.
Surunkali sistit holatlarida qovuq devorining qalinlashuvi, tolali biriktiruvchi to‘qimaning rivojlanishi va limfoid infiltratlar doimiyligi patologik jarayonning davomiyligidan dalolat beradi. Ushbu gistologik o‘zgarishlar kasallik patogenezini, uning bosqichini aniqlashda, shuningdek, samarali davolash va reabilitatsiya taktikasini belgilashda muhim diagnostik mezon bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Mamatqulov, S. (2020). "Urologiya asoslari". Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni Saqlash Vazirligi.
2. Abdullayev, A. (2018). "Siydik yo'llari infeksiyalari va ularning davolash usullari". Toshkent: UzMed Publishing.
3. Sheranova, G. (2019). "Ayollar sog'lig'i va gigiya". Toshkent: FAN.
4. McKinnon, B., & Duffy, K. (2016). "Urinary Tract Infections: A Clinical Overview". Journal of Clinical Urology, 9(4), 222-233. DOI: 10.1177/2051415816657267.
5. Hooton, T. M., & Gupta, K. (2019). "Urinary Tract Infections: Diagnosis and Treatment".

New England Journal of Medicine, 380(5), 440-452. DOI: 10.1056/NEJMra1803101.
6. Raymond I, Vasdev N, Ferguson J, Haskin M, Davis L, Hasan vagon.Curr Urol. 2012 Sep;6 (2): 93-8. doi: 10.1159/000343517. Epub 2012 Sep 27
7. Flores-Carreras O, Gonsales-Ruiz MI, Martines-Espinoza CJ va boshq; interstitsial sistit/og'riqli qovuq sindromi: xususiy uroginekologiya bo'limida diagnostik baholash va terapevtik javob. Transl Androl Urol. 2015 Dec4(6): 620-3. doi: 10.3978 / j. issn.2223-4683.2015.10.11
https://www.vaidam.com/knowledge-center/urology/interstitial-cystitis-and-itstreatment

TA’LIM TIZIMIDAGI O’ZGARISHLAR VA UNING JAMIYATDAGI AHAMIYATI

Mahamqulova Ruhshona Rustam qizi
Sharq tillari fakulteti Filologiya va tillarni o’qitish:koreys tili yo’nalishi talabasi rukhshonamahamqulova@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada ta’lim tizimining jamiyat hayotidagi o’rni va mohiyati haqida atroflicha yoritilgan.Ta’lim nafaqat jamiyatni rivojlantira oladi,balki insonning ilm yo’lidagi harakatini ham dadillashtiradi.Shuning uchun ham hozirgi kunda yurtimizda ta’lim tizimiga katta urg’u berilmoqda hamda ta’lim tizimini yaxshilash maqsadida turli xil ko’nikma va metodlar yaratilmoqda desak adashmagan bo’lamiz.

Kalit so’zlar: individ,ta’lim tashkilotlari,maktabgacha ta’lim,pedagog, «O‘zbekiston – 2030» strategiyasi

Ta'lim insoniyat hayotining muhim omillaridan biri bo‘lib, jamiyat rivoji va barqarorligining asosi hisoblanadi. Har bir jamiyatda ta'lim tizimining rivoji faqat individlarning bilim va ko‘nikmalarini oshirishni emas, balki ijtimoiy tenglikni ta'minlash, iqtisodiy o‘sishni rag‘batlantirish va umuminsoniy qadriyatlarni targ‘ib qilishni ham o‘z ichiga oladi.Talimni rivojlantirish orqali biz iqtisodiy tomonlama o’sish bilan birgalikda zamonaviy bilim va ko’nikmaga ega mutaxassislarni yarata olamiz.Bu esa o’z-o’zidan malakali ishchi kuchining sonini oshirgan bo’lamiz.Qo’shimcha tarzda,jamiyat madaniyati va ong darajasi ko’tariladi,ya’ni insonlar keng fikrlaydiga,ijodkor va bag’rikeng bo’lib boradi.Yoshlar kelajakka ishonch bilan qaraydi va rivojlangan ta’lim tizimi mamlakatni dunyo miqyosida tanitadi.

Darhaqiqat, ta’lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar O‘zbekistonda Uchinchi Renessansga poydevor bo‘ladi. Shu sababli hozirda mamlakatimizda uzluksiz ta’limni takomillashtirish, farzandlarimizni har tomonlama barkamol insonlar etib tarbiyalash, yuqori malakali pedagog kadrlar tayyorlashni tubdan yaxshilashga alohida e’tibor qaratilmoqda. 2017-yili yurtimizda 5 ming 211 ta bog‘cha faoliyat yuritgan bo‘lsa, joriy yilda bu raqam – tasavvur qiling – 19 ming 316 taga yetdi. Davlat-xususiy sheriklik mexanizmlari hamda oilaviy bog‘chalarning joriy etilishi, bir qator imtiyozlar berilishi tufayli 13 mingdan ziyod nodavlat maktabgacha ta’lim tashkilotlari faoliyati yo‘lga qo‘yildi. Ushbu maqsadli islohotlar natijasida maktabgacha ta’limga qamrov darajasini 62 foizga, 6 yoshdagi bolalar o‘rtasida esa 77 foizga yetkazishga erishildi.Shuni baralla ayta olishimiz mumkinki,bu islohotlar albatta o‘zining ijobiy natijasini bermoqda. Buni 2017 — 2020-yillarda o‘quvchilarimiz nufuzli xalqaro fan olimpiadalarida 30 ta medalni qo‘lga kiritgani misolida ham yaqqol ko‘rish mumkin.Yoshlarni talab yuqori bo‘lgan zamonaviy kasb-hunarlarga o‘rgatish uchun o‘tgan o‘quv yilida mamlakatda 339 ta kasb-hunar maktabi, 194 ta kollej va 195 ta texnikum faoliyati yo‘lga qo‘yildi.

Taraqqiyotimiz dasturi bo‘lmish «O‘zbekiston – 2030» strategiyasida ta’lim tizimini yanada rivojlantirish bo‘yicha yangi maqsad va rejalar belgilab olindi. Mazkur hujjatda bolalarni maktabgacha ta’lim va tayyorlov guruhlari bilan to‘liq qamrab olish, olis va chekka hududlarda joylashgan 715 ta umumiy o‘rta ta’lim muassasalari o‘quvchilari uchun bepul avtobuslarni yo‘lga qo‘yish, yoshlarni oliy ta’lim bilan qamrab olish darajasini kamida 50 foizga yetkazish, umumiy o‘rta ta’lim tashkilotlarini oliy ma’lumotli pedagog kadrlar bilan to‘liq ta’minlash, oliy ta’lim muassasalarida ilmiy tadqiqotlar natijadorligini oshirish va ilmiy salohiyatni 70 foizga yetkazish kabi maqsadlar ilgari surilgan.

Ta’lim-tarbiyaning boshlang‘ich bo‘g‘ini bo‘lgan maktabgacha ta’lim tizimidagi

o‘zgarishlardan barchamiz yaxshi xabardormiz. Oxirgi yetti yilda maktabgacha ta’lim bo‘yicha qamrov darajasini 27 foizdan 72 foizga, oliy ta’limda esa 9 foizdan 42 foizga, oliygohlar soni 77 tadan 212 taga yetkazildi.Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan 2024-yil 1-fevral kuni 21 moddadan iborat «Pedagogning maqomi to‘g‘risida»gi qonunning imzolanishi Termiz muhandislik-texnologiya institutining ko‘p ming kishilik jamoasini ham to‘lqinlantirib yubordi. Qonun bilan pedagoglarning huquqlari, majburiyatlari, faoliyatining asosiy kafolatlari, mehnatiga yarasha haq to‘lash, rag‘batlantirish va ijtimoiy himoya qilish tamoyillari belgilandi.Hujjatda pedagogning huquqlari, sha’ni, qadr-qimmati va ishchanlik obro‘si davlat himoyasi ostida bo‘lishi qat’iy belgilab qo‘yildi.

Prezidentimiz tabiri bilan aytganda: – “Bugun ko‘rib chiqilgan masalalar hammadan, maktab direktoridan boshlab Bosh vazirgacha bo‘lgan barcha bo‘g‘indagi rahbarlardan yuksak mas’uliyat va yuqori darajadagi javobgarlikni talab qiladi. Bu – yillar davomida ko‘rinmaydigan, ammo natijasi yaqin 10-15 yilda butun mamlakat qiyofasini tubdan o‘zgartirishga asos bo‘ladigan qudratli manba”. Ma’lumki, mamlakatimiz ta’lim-tarbiya tizimini yana-da takomillashtirish, ilmfan sohasi rivojini jadallashtirish maqsadida Prezident farmoni loyihasi ishlab chiqildi. Mazkur hujjat regulation.gov.uz portaliga qo‘yilib, barcha hududlarda, mahalliy kengashlarda va maktab jamoalarida ota-onalar ishtirokida keng muhokama qilindi. Farmon loyihasida ta’limdagi hozirgi muammolarni hal qiladigan, yaqin besh yilda natijasini ko‘rsatadigan va keyingi taraqqiyot darajasini belgilab beradigan maqsadlar qamrab olingan. Jumladan, jamiyatda muallimning obro‘-e’tibori va maqomini ko‘tarish, o‘quv dasturlari va metodikasini to‘liq qayta ko‘rib chiqish, maktabni ta’limning keyingi bosqichlari bilan uzviy bog‘lash, o‘qituvchilarni ortiqcha qog‘ozbozlikdan xalos etib, o‘z ustida ko‘proq ishlashi uchun sharoit yaratish va shuni rag‘batlantirish, maktab infratuzilmasi va undagi ma’naviy muhitni yaxshilash kabi masalalarning yechimlari aniq belgilab berilmoqda.

Xulosa qilib aytganda,yoshlarimizning har tomonlama:dunyoqarashi,keng fikrlashi va intellektual salohiyatini oshirishga xizmat qilib kelmoqda.Yaqin yillarda ta’lim tizimidagi katta o’zgarishlar yosh avlodni raqobatbardosh va zamonaviy bilimlarga ega bo’lgan shaxs sifatida tarbiyalashga ko’mak berishi darkor deb hisoblaymiz.Demak,ta’lim tizimini doimiy takomillashuvi - kelajagimiz poydevorini mustahkamlashning eng muhim omilidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. https://tdmau.uz/2024/02/05/ozbekiston-2030-strategiyasi-talim-tizimidagi-islohotlar-poydevoridir/
2. https://yuz.uz/uz/news/talim-tizimidagi-islohotlar-buyuk-yangilanishlar-poydevoridir
3. http://journals.sagepub.com/doi/abs/10.1177/1741143217745880#articleCitationDownloadContainer
4. https://Learn.org
5. https://uz.wikipedia.org/wiki/Ta%CA%BBlimni_boshqarish

YURAK-QON TOMIR KASALLIKLARINI ERTA ANIQLASHNING AHAMIYATI.

Tashlanboyeva Mohirabonu Otkirbek qizi
Qo`qon Universiteti Andijon filiali tibbiyot fakulteti
“Davolash ishi yonalishi” 2-kurs 24-10-guruh talabasi
E-mail: otkirbekovna06@gmail.com

Annotatsiya. Yurak-qon tomir kasalliklari — zamonaviy jamiyatda eng ko‘p uchraydigan va insonlarning sog‘lig‘iga katta xavf soluvchi muammolardan biridir. Ular ko‘pincha uzoq yillar davomida alomatlarsiz kechib, birdaniga jiddiy asoratlar, masalan, yurak xurujlari yoki insultlarga olib kelishi mumkin. Shu bois, ushbu kasalliklarni erta aniqlash — hayotni saqlab qolish va sog‘lom umr ko‘rishni ta’minlash uchun juda muhim ahamiyatga ega.

Erta tashxis qo‘yish yordamida shifokorlar bemorga o‘z vaqtida samarali davolash va profilaktik choralarni belgilashi mumkin, bu esa kasallik rivojlanishini sekinlashtiradi yoki umuman oldini oladi. Zamonaviy diagnostika usullari, jumladan, qon bosimini o‘lchash, qon

lipidlari tahlili va yurak ultratovushi, yurak-qon tomir tizimidagi muammolarni o‘z vaqtida aniqlashga imkon beradi. Shu bilan birga, yurak salomatligi haqida ongli fikr yuritish, sog‘lom turmush tarzini olib borish va xavf omillarini kamaytirish — erta aniqlash bilan birgalikda yurak-qon tomir kasalliklari bilan kurashda samarali strategiyadir. Bu mavzu nafaqat tibbiyot sohasida, balki har bir inson hayotida dolzarb va ahamiyatli hisoblanadi.

Kalit so‘zlar. yurak-qon tomir kasalliklari, erta tashxis, profilaktika, yurak xurujlari, insult, diagnostika usullari, qon bosimi, lipidlar, yurak salomatligi, sog‘lom turmush tarzi, xavf omillari, kasallikni oldini olish, sog‘liqni saqlash, kardiologiya, tibbiy tekshiruv, davolash.

Kirish. Yurak-qon tomir kasalliklari (YQTK) — dunyo bo‘ylab o‘lim sabablarining eng yuqori o‘rinlaridan birini egallayotgan jiddiy tibbiy muammo hisoblanadi. Ularning ko‘pchiligi uzoq vaqt davomida alomatlarsiz kechishi, bemorning salomatligi uchun katta xavf tug‘diradi. Shuning uchun, yurak-qon tomir kasalliklarini erta aniqlash va profilaktika choralarini vaqtida qo‘llash — kasalliklarning rivojlanishini oldini olish va insonlarning umrini uzaytirish uchun muhim omil hisoblanadi.

Zamonaviy tibbiyotda diagnostika usullari va texnologiyalarining rivojlanishi erta tashxis qo‘yishni osonlashtirmoqda. Shu bilan birga, yurak salomatligini saqlash uchun sog‘lom turmush tarzi va xavf omillarini kamaytirish bo‘yicha o‘z vaqtida tavsiyalar berish muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu mavzu nafaqat tibbiyot xodimlari, balki har bir inson uchun ham dolzarb bo‘lib, yurak-qon tomir tizimining sog‘lig‘ini himoya qilishga qaratilgan keng qamrovli choralarni talab qiladi.

Yurak-qon tomir kasalliklari ko‘plab omillarga bog‘liq bo‘lib, ularning orasida yuqori qon bosimi, qandli diabet, ortiqcha vazn, chekish, stress va noto‘g‘ri ovqatlanish kabi xavf omillari alohida o‘rin tutadi. Ushbu omillar vaqt o‘tishi bilan yurak va qon tomirlariga zarar yetkazib, surunkali kasalliklarning paydo bo‘lishiga sabab bo‘ladi. Shu sababli, kasalliklarni erta bosqichda aniqlash — to‘g‘ri davolash va profilaktika choralarini qo‘llash uchun zarurdir.

Erta tashxis orqali bemorlarga individual davolash rejalari tuziladi, shuningdek, hayot tarzini o‘zgartirish va xavf omillarini kamaytirishga yo‘naltirilgan tavsiyalar beriladi. Bu esa kasalliklarning og‘ir asoratlarga olib kelish ehtimolini kamaytiradi hamda bemorning hayot sifatini yaxshilaydi. Shu bilan birga, erta aniqlash tibbiyot resurslarini tejash va sog‘liqni saqlash tizimining samaradorligini oshirishga yordam beradi.

Bugungi kunda yurak-qon tomir kasalliklarini erta aniqlash uchun turli diagnostika usullari qo‘llanilmoqda: qon bosimini o‘lchash, lipid profili tahlili, elektrokardiogramma (EKG), stress-testlar va ultratovush tekshiruvlari. Ushbu metodlar orqali kasalliklarni erta bosqichda aniqlash va ularni muvaffaqiyatli davolash imkoniyati kengaymoqda.

Shunday qilib, yurak-qon tomir kasalliklarini erta aniqlash sog‘liqni saqlashning muhim qismidir va bu yo‘nalishda amalga oshiriladigan profilaktika va davolash choralari ko‘plab insonlarning hayotini saqlab qolishga xizmat qiladi.

Asosiy qism. Yurak-qon tomir kasalliklarining sabablari va xavf omillari

Yurak-qon tomir kasalliklari ko‘plab omillarning ta’siri ostida rivojlanadi. Eng ko‘p uchraydigan xavf omillari qatoriga quyidagilar kiradi:

Yuqori qon bosimi (gipertenziya) — qon tomirlarning shikastlanishiga olib keladi.

Qandli diabet — qon shakarining yuqori darajasi tomirlar va yurak faoliyatiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Ortikcha vazn va semizlik — yurak yuklamasini oshiradi, metabolik buzilishlarga sabab bo‘ladi.

Chekish — qon tomirlarni toraytirib, qon aylanishini buzadi.

Noqulay ovqatlanish va jismoniy faollikning yetishmasligi — yurak va qon tomirlariga zarar yetkazadi.

Stress va ruhiy zo‘riqish — yurak faoliyatiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Yurak-qon tomir kasalliklarini erta aniqlash usullari

Erta tashxis kasalliklarni o‘z vaqtida aniqlash va samarali davolashga imkon beradi.

Quyidagi diagnostika usullari keng qo‘llaniladi:

Qon bosimini o‘lchash: Gipertenziya erta aniqlanadigan va davolashga ta’sir qiluvchi asosiy omillardan biridir.

Qon lipidlari tahlili: Xolesterin va triglitseridlar darajasini aniqlash yurak-qon tomir kasalliklari xavfini baholashda muhimdir.

Elektrokardiogramma (EKG): Yurak ritmi va elektr faolligini baholash uchun qo‘llaniladi.

Ekokardiografiya: Yurak tuzilmalarini ko‘rsatib, kasalliklarni aniqlashda yordam beradi.

Stress-test: Yurak faoliyatini jismoniy zo‘riqish ostida tekshirish imkonini beradi.

Erta aniqlashning ahamiyati

Erta tashxis kasalliklarning oldini olish va asoratlarini kamaytirishda muhim rol o‘ynaydi. Uning afzalliklari quyidagilardan iborat:

Kasallik bosqichlarini yengillashtirish va davomiyligini qisqartirish.

Yaxshi davolash rejasi ishlab chiqish va hayot sifatini yaxshilash.

Jiddiy asoratlar, masalan, yurak xurujlari yoki insult xavfini kamaytirish.

Tibbiyot resurslarini samarali ishlatish va bemorlarning iqtisodiy yukini kamaytirish.

Profilaktika va sog‘lom turmush tarzining roli

Yurak-qon tomir kasalliklarini oldini olishda nafaqat diagnostika, balki sog‘lom hayot tarzi ham katta ahamiyatga ega:

Sog‘lom ovqatlanish — meva, sabzavot va to‘yimli yog‘larni iste’mol qilish.

Muntazam jismoniy faollik — yurak va qon tomirlarini mustahkamlash uchun.

Chekishni tashlash va alkogolni cheklash.

Stressni boshqarish va ruhiy salomatlikni saqlash.

Vazn nazoratida bo‘lish va muntazam tibbiy ko‘riklardan o‘tish.

Erta aniqlash va profilaktika birgalikda yurak-qon tomir kasalliklarining oldini olish va ularni muvaffaqiyatli davolashda asosiy omillardir.

Yuqori xavf guruhlarini aniqlash va monitoring

Yurak-qon tomir kasalliklarini erta aniqlashda eng muhim qadamlardan biri — yuqori xavf ostidagi shaxslarni aniqlash va ularni doimiy kuzatuvga olishdir. Bunday guruhga quyidagi toifadagi odamlar kiradi:

40 yoshdan oshgan erkaklar va 50 yoshdan oshgan ayollar;

Ota-onasi yoki qarindoshlarida yurak kasalliklari bo‘lganlar (irsi omillar);

Yuqori xolesterin yoki gipertenziyadan aziyat chekayotganlar;

Qandli diabet bilan og‘riganlar;

Sedentar (harakatsiz) hayot tarzini yurituvchilar.

Bu guruhdagi odamlar uchun yillik yoki yarim yillik yurak sog‘lig‘i tekshiruvlari tavsiya etiladi. Doimiy monitoring orqali hatto kichik o‘zgarishlarni erta bosqichda aniqlab, davolash jarayonini tezlashtirish mumkin bo‘ladi.

6. Zamonaviy texnologiyalar va sun’iy intellekt yordami

Bugungi raqamli davrda yurak-qon tomir kasalliklarini aniqlashda sun’iy intellekt (AI) va ilg‘or texnologiyalar muhim o‘rin egallamoqda. Masalan:

AI asosidagi EKG tahlillari yurakdagi noaniq ritm buzilishlarini aniqlay oladi;

Mobil ilovalar va aqlli soatlar orqali yurak urishi, qon bosimi va kislorod miqdorini real vaqt rejimida kuzatish mumkin;

Tibbiy ma’lumotlarni raqamlashtirish esa shifokorlarga bemorning holatini tezroq baholash va xavf darajasini aniqlashga yordam beradi.

Bu texnologiyalar yurak salomatligini mustaqil ravishda nazorat qilish imkonini berib, kasalliklarning erta bosqichida aniqlanishi ehtimolini oshiradi.

7. Tibbiy savodxonlik va aholining xabardorligi

Yurak-qon tomir kasalliklariga qarshi kurashda faqat tibbiy xizmatlar emas, balki aholining o‘z sog‘lig‘iga nisbatan mas’uliyati ham muhim ahamiyatga ega. Afsuski, ko‘plab odamlar yurak kasalliklarining dastlabki belgilarini e’tiborsiz qoldiradilar. Shu bois:

Tibbiy savodxonlikni oshirish;

Aholi orasida sog‘lom turmush tarzi targ‘ibotini kuchaytirish;

Yurak xuruji va insult alomatlari bo‘yicha tezkor yordam choralarini o‘rgatish;

kabi tashabbuslar yurak-qon tomir tizimi bilan bog‘liq asoratlar va o‘lim holatlarini kamaytirishga yordam beradi.

Xulosa

Yurak-qon tomir kasalliklari bugungi kunda global miqyosda eng ko‘p uchraydigan va o‘limga olib keluvchi kasalliklar sirasiga kiradi. Ularning ko‘pchiligi uzoq vaqt davomida o‘zini sezdirmasligi sababli, erta tashxis qo‘yish ushbu kasalliklarga qarshi kurashda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Vaqtida aniqlangan yurak muammolari bemorga to‘g‘ri davolash rejasi tuzish, sog‘lom hayot tarzini shakllantirish va asoratlarning oldini olish imkonini beradi.

Erta aniqlash faqatgina bemorning sog‘ligini saqlab qolish bilangina cheklanmay, balki sog‘liqni saqlash tizimiga tushadigan iqtisodiy yukni kamaytiradi, jamiyatda sog‘lom turmush tarzini shakllantirishga xizmat qiladi. Yuqori xavf guruhlarini kuzatib borish, zamonaviy diagnostika texnologiyalarini joriy etish, aholi orasida yurak salomatligi bo‘yicha xabardorlikni oshirish — yurak-qon tomir kasalliklarini samarali boshqarishning eng muhim yo‘nalishlaridir.

Shu sababli, yurak-qon tomir tizimi kasalliklarini erta aniqlash nafaqat tibbiy, balki ijtimoiy va iqtisodiy jihatdan ham dolzarb ahamiyatga ega bo‘lib, sog‘lom jamiyat barpo etishda muhim o‘rin tutadi.

Yurak-qon tomir kasalliklarini erta aniqlash nafaqat alohida bemorning sog‘lig‘ini saqlab qolish, balki butun jamiyat salomatligini yaxshilashga xizmat qiladi. Ayniqsa, aholi orasida kasallik xavfini aniqlovchi omillarni erta aniqlash va ularni bartaraf etishga yo‘naltirilgan tizimli yondashuv yurak xurujlari, insult va yurak yetishmovchiligi kabi og‘ir asoratlarning oldini olishda muhim o‘rin tutadi.

Shuningdek, zamonaviy tibbiyotda profilaktik yondashuvning kuchaytirilishi, aholining yurak salomatligi bo‘yicha tibbiy savodxonligini oshirish, muntazam tekshiruvlarni rag‘batlantirish — kasalliklarni erta bosqichda aniqlash darajasini oshiradi. Raqamli texnologiyalar, mobil sog‘liq ilovalari va sun’iy intellekt yordamida yurak faoliyatini real vaqt rejimida kuzatish esa diagnostika jarayonini yangi bosqichga olib chiqmoqda.

Shu jihatdan, yurak-qon tomir kasalliklariga qarshi kurash faqat klinik muolajalar bilan cheklanmay, balki sog‘lom turmush tarzi, psixologik barqarorlik va ijtimoiy madaniyat bilan chambarchas bog‘liq ekani yana bir bor tasdiqlanadi. Ushbu yo‘nalishda olib boriladigan har bir izchil va tizimli ish — sog‘lom va faol jamiyat poydevorini mustahkamlovchi asosiy omillardan biridir.

Shuningdek, yurak-qon tomir kasalliklarini erta aniqlash ahamiyati pandemiyadan keyingi davrda yanada dolzarb tus oldi. COVID-19 infeksiyasi yurak va qon tomirlariga salbiy ta’sir ko‘rsatgani, surunkali yurak kasalliklariga chalingan shaxslar orasida asoratlar va o‘lim holatlari yuqoriligi bu muammoning global tibbiy muhokama mavzusiga aylanishiga sabab bo‘ldi.

Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, ko‘plab yurak kasalliklari aniqlanganda allaqachon rivojlangan bosqichda bo‘ladi. Bu esa davolashning murakkablashishiga, dori vositalariga qaramlikka va hayot sifatining pasayishiga olib keladi. Aynan erta aniqlash orqali ushbu salbiy oqibatlarning oldini olish mumkin. Bu jarayon bemorning o‘zini o‘zi kuzatishi, muntazam tibbiy ko‘riklar, davlat darajasida sog‘lomlashtirish dasturlarini joriy etish orqali amalga oshirilishi lozim.

Shu asosda aytish mumkinki, yurak-qon tomir tizimining barqaror ishlashi inson organizmining umumiy salomatligida markaziy o‘rinni egallaydi. Bu tizimda yuzaga kelgan nosozliklar butun organizm faoliyatiga ta’sir ko‘rsatadi. Shu bois, yurak-qon tomir kasalliklarini erta aniqlash — bu shunchaki tibbiy choradan ko‘ra keng qamrovli sog‘liqni saqlash strategiyasidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. World Health Organization (WHO). Cardiovascular diseases (CVDs). https://www.who.int
2. Yusuf, S., Hawken, S., et al. (2004). Effect of potentially modifiable risk factors associated

with myocardial infarction in 52 countries (the INTERHEART study). *The Lancet*, 364(9438), 937–952.
3. Libby, P., et al. (2019). Atherosclerosis. *Nature Reviews Disease Primers*, 5(1), 56.
4. Braunwald, E. (2015). Heart Disease: A Textbook of Cardiovascular Medicine. 10th ed. Elsevier Saunders.
5. Fuster, V., et al. (2017). Hurst's The Heart. 14th ed. McGraw-Hill Education.
6. O‘zbekiston Respublikasi sog‘liqni saqlash vazirligi. Yurak-qon tomir kasalliklarini erta aniqlash va oldini olish bo‘yicha amaliy qo‘llanma. Toshkent, 2021.
7. Kannel, W.B. (1998). Incidence and epidemiology of heart failure. *Heart Failure Reviews*, 3(1), 5–9.
8. Fox, C.S., et al. (2007). Trends in cardiovascular complications of diabetes. *JAMA*, 297(24), 2654–2659.
9. Lloyd-Jones, D.M., et al. (2010). Defining and setting national goals for cardiovascular health promotion and disease reduction. *Circulation*, 121(4), 586–613.
10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Iqtisodiy tadqiqotlar va islohotlar markazi. Yurak-qon tomir kasalliklari va sog‘liqni saqlash tizimining barqarorligi. Toshkent, 2022.
11. European Society of Cardiology (ESC). Guidelines on cardiovascular disease prevention in clinical practice. 2021.
12. Islam, S.M.S., et al. (2014). Non-communicable diseases in developing countries: A global perspective. *The Lancet*, 384(9945), 413–426.
13. Topol, E. (2019). Deep Medicine: How Artificial Intelligence Can Make Healthcare Human Again. Basic Books.
14. Mensah, G.A., et al. (2017). Decline in cardiovascular mortality: possible causes and implications. *Circulation Research*, 120(2), 366–380.
15. Murray, C.J.L., et al. (2020). Global burden of cardiovascular diseases and risk factors. *Journal of the American College of Cardiology*, 76(25), 2982–3021.

TIBBIY AXBOROTNI YETKAZISH VA TUSHUNTIRISH USULLARI

Baxtiyorov Elbek Farruxbek og’li
Kokand university Andijon filiali davolash yonalishi talabasi

Annotatsiya: maqolada tibbiy axborotni aholiga yetkazish va uni to‘g‘ri tushuntirishning zamonaviy usullari yoritilgan. Tibbiy kommunikatsiya jarayonida shifokor va bemor o‘rtasidagi o‘zaro tushunish muhim o‘rin tutadi. Maqolada og‘zaki, yozma, vizual va raqamli axborot uzatish vositalari tahlil qilinib, ularning samaradorligini oshirish yo‘llari ko‘rsatib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: tibbiy axborot, kommunikatsiya, sog‘lom turmush tarzi, bemor, sog‘liqni saqlash, tushuntirish usullari.

Bugungi kunda tibbiy axborotni aholiga to‘g‘ri va aniq yetkazish masalasi sog‘liqni saqlash tizimining eng muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Axborot texnologiyalari rivojlanishi natijasida tibbiy ma’lumotlar keng ommaga turli shakllarda yetkazilmoqda: internet, ommaviy axborot vositalari, ijtimoiy tarmoqlar va tibbiy muassasalarda targ‘ibot ishlari orqali.

Tibbiy axborotni tushuntirish-bu nafaqat ma’lumot berish, balki uni aholining turli yosh va bilim darajasiga moslashtirish, tibbiy terminlarni soddalashtirib yetkazish jarayonidir. Shu boisdan, har bir tibbiyot xodimi, ayniqsa shifokor, sog‘lomlashtirish ishlari bilan shug‘ullanuvchi mutaxassislar axborot almashinuvi usullarini mukammal bilishlari zarur.

Tibbiy axborot-bu inson salomatligi, kasalliklarning oldini olish, tashxis qo‘yish, davolash, reabilitatsiya va sog‘lom turmush tarzini shakllantirish bilan bog‘liq bo‘lgan ma’lumotlar majmuasidir. U sog‘liqni saqlash tizimida eng muhim resurslardan biri hisoblanadi, chunki har bir tibbiy qaror, shuningdek bemorning o‘z sog‘lig‘iga bo‘lgan munosabati ham aynan axborotga tayanadi.

Tibbiy axborot nafaqat shifokorlar uchun, balki keng jamoatchilik uchun ham ahamiyatlidir. Chunki aholining tibbiy savodxonligi oshsa, u sog‘lom turmush tarziga amal qiladi, kasalliklarni erta aniqlaydi va o‘z vaqtida tibbiy yordamga murojaat qiladi.

Tibbiy axborotning asosiy turlari:

1. Profilaktik axborot-sog‘lom turmush tarzi, to‘g‘ri ovqatlanish, jismoniy faollik va zararli odatlardan voz kechish bo‘yicha tavsiyalar.

2. Tashxisga oid axborot-kasallik belgilari, laborator va instrumental tekshiruvlar natijalari haqidagi ma’lumotlar.

3. Davolashga oid axborot-dori vositalari, ularning qo‘llanish tartibi, fizioterapiya va jarrohlik amaliyotlari haqidagi ma’lumotlar.

4. Ma’muriy axborot-tibbiy muassasalar faoliyati, xizmatlar turlari va ulardan foydalanish tartibi haqida.

Tibbiy axborotning ahamiyati quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

Sog‘lom jamiyatni shakllantirish-aholi o‘z sog‘lig‘ini asrash madaniyatiga ega bo‘ladi.

Kasalliklarning oldini olish-profilaktik chora-tadbirlar to‘g‘risidagi ma’lumotlar erta ogohlantirish imkonini beradi.

Tibbiy xizmat sifati oshadi-shifokor va bemor o‘rtasidagi axborot almashinuvi to‘g‘ri tashkil etilsa, davolash natijalari yaxshilanadi.

Tibbiy ishonch mustahkamlanadi-bemor o‘z kasalligi haqida yetarli tushuncha olganda, shifokor ko‘rsatmalariga sadoqat bilan amal qiladi.

Shunday qilib, tibbiy axborot-bu nafaqat ma’lumotlar to‘plami, balki sog‘lom hayot uchun yo‘lko‘rsatkich hamdir. Uning to‘g‘ri yetkazilishi aholining tibbiy madaniyatini oshiradi, sog‘liqni saqlash tizimining samaradorligini kuchaytiradi va millat salomatligining mustahkam poydevorini yaratadi.

Tibbiy axborotni aholiga yetkazish-bu sog‘lom turmush tarzini shakllantirish, kasalliklarning oldini olish va tibbiy savodxonlikni oshirishda eng muhim jarayonlardan biridir. Axborotni yetkazish usuli tanlanganda, aholining yoshi, savod darajasi, yashash muhiti va texnologik imkoniyatlari inobatga olinishi lozim. To‘g‘ri tanlangan usul tibbiy ma’lumotning samaradorligini oshiradi va uni keng ommaga tushunarli qiladi.

Tibbiy axborotni yetkazishda **og‘zaki, yozma, vizual, raqamli va interaktiv usullar** keng qo‘llaniladi.

Qaror daraxtlari modeli esa har bir xususiyatning kasallikka ta’sirini daraxtsimon tarzda ifodalaydi. Bu model oddiylik va izohlanish (interpretability) xususiyati bilan ajralib turadi. Shuningdek, har bir tarmoqning (node) qaror chiqarish qoidasi sifatida ko‘rib chiqilishi uni tibbiyot sohasida tahlilchilarga tushunarli qiladi.

K yaqin qo‘shnilar algoritmi esa bemorning klinik xususiyatlari asosida unga eng yaqin o‘xshash bemorlar orasida taqqoslash olib boradi. Bu model bemorga eng yaqin statistik jihatdan o‘xshash kasallik holatlariga asoslanib klassifikatsiya qilish imkonini beradi.

Random Forest modeli esa ko‘plab mustaqil qaror daraxtlarining ansambli sifatida ishlaydi va ularning umumiy natijasini baholab, aniqroq klassifikatsiyani ta’minlaydi. Bu usul overfitting muammosini kamaytirishda samarali bo‘lib, o‘zgaruvchanlikka nisbatan barqarorlikni ta’minlaydi.

Gradient Boosting algoritmi esa xatoliklarni minimallashtirish orqali o‘z modelini takomillashtiradi. Bu model ketma-ket ravishda o‘zining oldingi xatolarini inobatga olib, yangi kuchli modellardan foydalanadi. Ayniqsa, bu usul murakkab klassifikatsiya masalalarida yuqori aniqlik ko‘rsatishi bilan mashhur.

Sun’iy neyron tarmoqlar esa inson miyasining ishlash prinsiplariga o‘xshash tarzda ishlaydi. Ko‘p qatlamli neyron tarmoq tuzilmasi yordamida yurak kasalligiga olib keluvchi omillar orasidagi murakkab nolinear bog‘liqliklar aniqlanadi. Ayniqsa, chuqur o‘rganish (deep learning) asosida qurilgan model kasallikning aniqlik bilan bashorat qilinishida yuqori samaradorlik ko‘rsatdi.

Model ishlashi baholashda klassifikatsiyaga oid asosiy ko‘rsatkichlar — aniqlik (accuracy), aniqlik darajasi (precision), sezuvchanlik (recall) va F1-mezonlar ishlatildi. Ayniqsa, sezuvchanlik yurak kasalligiga chalingan bemorlarning qanchasi to‘g‘ri aniqlanganini ko‘rsatgani uchun tibbiyotda eng muhim ko‘rsatkichlardan biri hisoblanadi. Shu bilan birga, har bir model uchun ROC (Receiver Operating Characteristic) egri chizig‘i chizilib, AUC (Area Under the Curve) qiymatlari solishtirildi. Bu yondashuv har bir modelning klassifikatsiyadagi umumiy ishlash darajasini obyektiv baholash imkonini berdi.

Tadqiqot davomida Python dasturlash tilidan foydalanildi. Model qurish, ma’lumotlarni qayta ishlash va vizualizatsiya qilish uchun Scikit-learn, Pandas, NumPy, Matplotlib va Seaborn kutubxonalaridan keng foydalanildi. Har bir model alohida kod bloklarida qurilib, ularning natijalari grafik va jadvallar orqali tahlil qilindi.

Natija va tahlillar

Ushbu tadqiqot davomida yurak kasalliklarini klassifikatsiyalash uchun tanlab olingan mashinali o‘rganish algoritmlarining ishlash samaradorligi sinovdan o‘tkazildi. Har bir model ma’lumotlar bazasida o‘rgatilgach, uning test to‘plamida qanday natija ko‘rsatgani obyektiv mezonlar asosida baholandi. Baholashda aniqlik (accuracy), sezuvchanlik (recall), aniqlik darajasi (precision) va F1-mezonlar hisobga olindi. Bundan tashqari, har bir model uchun ROC-AUC qiymatlari hisoblab chiqildi. Ushbu ko‘rsatkichlar har bir algoritmning yurak kasalligini aniqlashdagi aniqlik va ishonchlilik darajasini ko‘rsatib berdi.

Birinchi navbatda, Logistik regressiya modeli orqali yurak kasalliklarini bashorat qilishga urinildi. Bu modelning afzalligi uning soddaligida va natijalarni tushuntirishda qulayligidadir. Logistik regressiya nisbatan kam vaqt talab qilgan bo‘lsa-da, test to‘plamidagi aniqlik ko‘rsatkichi 84 foizdan oshmadi. Uning sezuvchanligi esa yurak kasalligiga chalingan bemorlarni aniqlashda 80 foiz darajasida bo‘lib, bu modelning klinik nuqtai nazardan yetarli bo‘lishi mumkinligini ko‘rsatadi. Biroq boshqa murakkab modellarga nisbatan u biroz pastroq samaradorlik ko‘rsatdi.

Qaror daraxti modeli esa har bir atribut asosida qaror chiqarishni daraxtsimon tuzilma orqali amalga oshirdi. Bu modelning natijalari logistik regressiyaga qaraganda yaxshiroq bo‘lib chiqdi. Qaror daraxti test to‘plamida 86 foizlik aniqlikka erishdi. Biroq sezuvchanlik ko‘rsatkichi bu modelda 77 foiz atrofida bo‘ldi, bu esa yurak kasalligi mavjud bo‘lgan bemorlarning bir qismini to‘g‘ri aniqlay olmasligini anglatadi.

K yaqin qo‘shnilar algoritmi yordamida amalga oshirilgan sinovlarda esa bemorlar statistik jihatdan o‘xshash holatlarga taqqoslab baholandi. Bu modelning ishlashi uchun atributlar orasidagi masofani to‘g‘ri hisoblash muhim bo‘lgan. Modelning aniqligi 83 foizni tashkil etdi. Biroq sezuvchanlik darajasi 74 foizgacha tushdi. Bu natija, ayniqsa tibbiy sohada, ya’ni xatolik qimmatga tushadigan holatlarda yetarlicha barqaror deb hisoblanmaydi.

Random Forest algoritmi o‘zining yuqori natijasi bilan ajralib turdi. Bu model test to‘plamida 90 foiz aniqlik bilan yurak kasalligini to‘g‘ri klassifikatsiya qildi. Ayniqsa, sezuvchanlik darajasi 88 foizgacha yetdi, bu esa ushbu model yurak kasalligiga chalingan bemorlarni ancha ishonchli aniqlash imkonini berishini ko‘rsatadi. Ayniqsa, atributlar sonining ko‘pligiga qaramay, ushbu modelda overfitting kuzatilmadi, bu esa modelning barqaror ishlayotganidan darak beradi.

Gradient Boosting algoritmi esa barcha modellar orasida eng yuqori natijalarni ko‘rsatdi. Bu model yurak kasalligini aniqlashda 92 foizlik aniqlikni, 89 foizlik sezuvchanlikni va 91 foizlik aniqlik darajasini namoyon etdi. Ayniqsa, F1-mezon ko‘rsatkichi 90 foizga yaqin bo‘lgani modelning muvozanatli va ishonchli ishlashini tasdiqlaydi. Gradient Boosting algoritmi ketma-ket o‘rgatish jarayoni orqali oldingi xatoliklarni tuzatib boradi va shu bilan yakuniy modelni mukammallashtiradi.

Sun’iy neyron tarmoqlar (ANN) ham yuqori natijalar berdi. Ayniqsa, chuqur o‘rganish asosida qurilgan neyron tarmoq yurak kasalligini aniqlashda 91 foizlik aniqlikka erishdi. Ushbu

modelning asosiy ustunligi atributlar orasidagi murakkab bog‘liqliklarni ham aniqlay olishidadir. Biroq modelning o‘rgatilish jarayoni boshqa modellarga qaraganda ko‘proq hisoblash resurslarini talab qildi va natijalarni tushuntirishda ma’lum murakkabliklar yuzaga keldi. Shunga qaramay, sezuvchanlik 87 foizni tashkil etdi, bu esa ushbu modelni ham samarali alternativ deb baholashga asos yaratadi.

Muhokamalar

Tadqiqot natijalari mashinali o‘rganish algoritmlarining yurak kasalliklarini aniqlash va klassifikatsiyalashda muhim rol o‘ynashini yana bir bor tasdiqladi. Tibbiyot sohasida qaror qabul qilish jarayonlarida kompyuter yordamida diagnostika vositalarining qo‘llanilishi diagnostik xatoliklarni kamaytiradi, erta aniqlash imkoniyatini beradi va umumiy sog‘liqni saqlash tizimi samaradorligini oshiradi. Yurak kasalliklari ko‘plab omillarga bog‘liq bo‘lib, ularning orasidagi o‘zaro bog‘liqlik murakkab bo‘lishi mumkin. Shu bois, aynan mashinali o‘rganish algoritmlari kabi intellektual tahlil usullari bunday bog‘liqliklarni aniqlash va ulardan samarali foydalanishda muhim vositaga aylanadi.

Ushbu tadqiqotda qo‘llanilgan turli algoritmlarning samaradorlik darajalari va ularning tibbiy kontekstda qo‘llash imkoniyatlari chuqur muhokama qilinishi zarur. Logistik regressiya modeli o‘zining matematik soddaligi va natijalarning tushunarli bo‘lishi bilan ajralib turgan bo‘lsa-da, undan klinik amaliyotda foydalanish ehtiyotkorlikni talab etadi. Model yuqori aniqlik ko‘rsatgan bo‘lsa-da, sezuvchanlik darajasi biroz past bo‘lgani sababli kasallikni o‘tkazib yuborish xavfi mavjud. Bu esa yurak kasalliklarini aniqlashdek muhim sohada qabul qilinishi mushkul bo‘lgan holatdir.

Qaror daraxti modeli esa tushunarli vizual ko‘rinishga ega bo‘lgani sababli klinik xodimlar tomonidan keng qo‘llanishi mumkin. Biroq, bu modelda sezuvchanlik pastroq bo‘lib, u murakkab tibbiy holatlarda aniq klassifikatsiyani ta’minlay olmasligi mumkin. Ayniqsa, diagnostik xatolikning narxi yuqori bo‘lgan yurak kasalliklarida bunday modellarni qo‘llashda ehtiyotkorlik talab qilinadi. Shu bois, uni mustaqil vosita sifatida emas, balki boshqa modellarning qo‘shimchasi sifatida ishlatish maqsadga muvofiqdir.

K yaqin qo‘shnilar (KNN) algoritmi o‘xshashlikka asoslangan yondashuv bo‘lib, kichik o‘lchamdagi ma’lumotlar to‘plamida foydali bo‘lishi mumkin. Biroq, katta hajmdagi real klinik ma’lumotlar bilan ishlashda bu algoritmning hisoblash murakkabligi va natijalarni umumlashtirishdagi cheklovlari mavjud. Ayniqsa, atributlar soni ortib borganda KNN algoritmi samaradorligini yo‘qota boshlaydi. Yurak kasalliklari kabi ko‘p omilli patologiyalarda esa bu algoritmning mustaqil diagnostik vosita sifatidagi qo‘llanishi cheklangan.

Random Forest algoritmi esa ko‘plab qaror daraxtlarining ansamblidan iborat bo‘lib, natijalarni barqarorlashtirishga xizmat qiladi. Bu modelning yuqori sezuvchanlik va aniqlik ko‘rsatkichlari uni klinik amaliyotda samarali vosita sifatida ko‘rishga asos yaratadi. Ayniqsa, bu algoritm atributlar orasidagi noaniq yoki qisman muhim bo‘lgan aloqalarni ham aniqlay oladi. Random Forest modelining muhim afzalliklaridan biri bu — atributlar ahamiyatini tahlil qilish imkoniyatidir. Bu esa klinik xulosalar chiqarishda shifokorlarga qo‘shimcha tahliliy imkoniyatlar beradi. Shu bilan birga, ushbu modelni real vaqtda ishlash tizimlariga integratsiyalash maqsadida optimallashtirish talab etiladi.

Gradient Boosting algoritmi esa mavjud modellar orasida eng yuqori natijalarni namoyon etdi. Ushbu model ketma-ket o‘qitish yondashuvi asosida ishlaydi va har bir yangi model avvalgi modelning xatolarini bartaraf etishga qaratilgan bo‘ladi. Aynan shu xususiyat uni o‘z sohasida ancha kuchli vositaga aylantiradi. Gradient Boosting ayniqsa yurak kasalligiga olib keluvchi omillar — yosh, qon bosimi, xolesterin darajasi, jismoniy faoliyat yetishmovchiligi kabi ko‘rsatkichlar orasidagi noaniq bog‘liqliklarni aniqlashda yuqori aniqlikni namoyon etdi. Biroq bu modelning murakkabligi natijalarning izohlanishini qiyinlashtiradi, bu esa tibbiyotda shaffoflik

talablari bilan qarama-qarshi holatni yuzaga keltiradi.

Sun’iy neyron tarmoqlari esa inson miya faoliyatiga yaqin tarzda ishlashi bilan e’tiborni tortadi. Ushbu model yordamida atributlar orasidagi chuqur va murakkab bog‘lanishlarni aniqlash imkoniyati yuzaga chiqdi. Bu ayniqsa yurak kasalligini aniqlashda foydali bo‘ldi, chunki yurak faoliyati organizmning turli tizimlari bilan murakkab aloqada ishlaydi. Neyron tarmoqlarning ishlashi davomida yuqori aniqlik va sezuvchanlik natijalari qayd etildi. Biroq bu modelni o‘rgatish uchun katta hajmdagi ma’lumotlar kerak bo‘ldi va ularning izohlanishi oddiy foydalanuvchi yoki shifokor uchun murakkab bo‘lib qolmoqda. Ayniqsa, neyron tarmoqlar “qora quti” (black box) xususiyatiga ega bo‘lgani uchun tibbiyotda uni tanqid qiluvchi mutaxassislar ham mavjud.

Yuqoridagi tahlil va muhokamalardan kelib chiqib aytish mumkinki, tibbiy diagnostikada model tanlashda faqat aniqlik emas, balki izohlanish darajasi, hisoblash samaradorligi va shifokorlar bilan hamkorlik qilishi imkoniyati ham muhim rol o‘ynaydi. Ayniqsa, O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash tizimida raqamli transformatsiya bosqichma-bosqich olib borilayotgan bir paytda, bunday modellarni integratsiyalashda ularning yaroqliligi chuqur tahlil qilinishi zarur.

Shu o‘rinda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PQ–81-sonli qarorida ta’kidlanganidek, “Raqamli texnologiyalar asosida sog‘liqni saqlash sohasida innovatsion echimlarni keng joriy etish” davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida belgilangan. Demak, mashinali o‘rganish algoritmlari yordamida yurak kasalliklarini erta aniqlash va kasallik tarqalishini oldindan prognozlash uchun zarur infratuzilmani shakllantirish ham amaliy ahamiyatga ega bo‘lib bormoqda.

Yakuniy natija sifatida, ushbu muhokamalar mashinali o‘rganish algoritmlarini nafaqat texnik nuqtai nazardan, balki ularni klinik real sharoitda qanday ishlatish mumkinligi, ularning cheklovlari, yaroqliligi va foydaliligi nuqtai nazardan ham baholash zarurligini ko‘rsatmoqda.

Xulosa

Yurak kasalliklarini erta aniqlash va samarali tashxislash bugungi sog‘liqni saqlash tizimining eng muhim ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Tadqiqot davomida turli mashinali o‘rganish algoritmlari tahlil qilinib, ularning yurak kasalligini aniqlashdagi aniqlik, sezuvchanlik va izohlanish darajalari o‘rganildi. Natijalar shuni ko‘rsatdiki, Gradient Boosting va Random Forest algoritmlari eng yuqori aniqlikni namoyon etdi. Ayniqsa, murakkab atributlar orasidagi o‘zaro bog‘liqliklarni aniqlashda ushbu modellar o‘zini samarali vosita sifatida ko‘rsatdi. Shu bilan birga, sun’iy neyron tarmoqlar chuqur tahlil imkoniyati bilan ajralib turdi, ammo ularning “qora quti” xususiyati tibbiy kontekstda izohlanishni qiyinlashtirdi.

Model tanlashda faqat statistik ko‘rsatkichlar emas, balki modelning klinik amaliyotga integratsiyalashuvi, hisoblash samaradorligi va foydalanuvchi uchun tushunarliligi ham muhim hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining sog‘liqni saqlashda raqamli texnologiyalarni rivojlantirish bo‘yicha qabul qilgan qaror va strategiyalari kontekstida bunday algoritmlarning joriy etilishi mamlakatda innovatsion sog‘liqni saqlash tizimini shakllantirishga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, mashinali o‘rganish algoritmlari yurak kasalliklarini klassifikatsiyalashda muhim yordamchi vosita bo‘la oladi. Ularni amaliyotga tatbiq etishda texnik va tibbiy yondashuv uyg‘unligiga alohida e’tibor qaratish zarur. Shu orqali yurak kasalliklarining erta oldini olish va davolash sifati yanada oshirilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-fevraldagi PQ–140-son qarori
2. Alaa, A. M., & van der Schaar, M. (2019). AutoPrognosis: Automated clinical prognostic modeling via Bayesian optimization with structured kernel learning. Artificial Intelligence in Medicine, 99, 101680. https://doi.org/10.1016/j.artmed.2019.101680
3. Dey, N., Ashour, A. S., & Balas, V. E. (2018). Smart medical data sensing and IoT systems

design in healthcare. Springer. https://doi.org/10.1007/978-3-319-77685-9
4. Gudadhe, M., Wankhade, K., & Dongre, S. (2010). Decision support system for heart disease based on support vector machine and artificial neural network. In 2010 International Conference on Computer and Communication Technology (pp. 741–745). IEEE. https://doi.org/10.1109/ICCCT.2010.5640439
5. Krittanawong, C., Zhang, H., Wang, Z., Aydar, M., & Kitai, T. (2017). Artificial intelligence in precision cardiovascular medicine. Journal of the American College of Cardiology, 69(21), 2657–2664. https://doi.org/10.1016/j.jacc.2017.03.571
6. Mohan, S., Thirumalai, C., & Srivastava, G. (2019). Effective heart disease prediction using hybrid machine learning techniques. IEEE Access, 7, 81542–81554. https://doi.org/10.1109/ACCESS.2019.2923707
7. Rajpurkar, P., Hannun, A. Y., Haghpanahi, M., Bourn, C., & Ng, A. Y. (2017). Cardiologist-level arrhythmia detection with convolutional neural networks. arXiv preprint arXiv:1707.01836.
8. Ribeiro, M. T., Singh, S., & Guestrin, C. (2016). "Why should I trust you?": Explaining the predictions of any classifier. In Proceedings of the 22nd ACM SIGKDD International Conference on Knowledge Discovery and Data Mining (pp. 1135–1144). https://doi.org/10.1145/2939672.2939778
9. Shouman, M., Turner, T., & Stocker, R. (2012). Using data mining techniques in heart disease diagnosis and treatment. In Japan-Egypt Conference on Electronics, Communications and Computers (pp. 173–177).
10. Tison, G. H., Sanchez, J. M., Ballinger, B., Singh, A., Olgin, J. E., Pletcher, M. J., & Marcus, G. M. (2018). Passive detection of atrial fibrillation using a commercially available smartwatch. JAMA Cardiology, 3(5), 409–416. https://doi.org/10.1001/jamacardio.2018.0136

“TAYANCH HARAKATANISH SISTEMASI” MAVZUSINI O‘QITISHDA INNOVATSION TA’LIM TEXNOLOGIYALARI VA ILG‘OR TAJRIBALARDAN FOYDALANISH YO‘LLARI.

Kamalova H.Z.
Qoqon Universiteti Andijon filiali o`qituvchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada oliy ta’lim muassasalarida fiziologiya fanidan o‘qitilayotgan “Tayanch harakatanish sistemasi” mavzusini o‘qitishda innovatsion ta’lim texnologiyalari va ilg‘or tajribalardan foydalanish yo‘llari yoritilgan.

Kalit so‘zlar. Interfaol uslublar, innovatsion texnologiya, muammoli o‘qitish, “Zig–zag”, “Bumerang”, B-B-B, “Atamalar xujumi”, “Insert”, “Keys-stadi”, “Klaster”, “FSMU” texnologiyalari.

Zamon talablariga javob bera oladigan mutaxassis kadrlarni tayyorlash, ta’lim tuzimini takomillashtirib borish oldimizda turgan asosiy masalalar qatoriga kiradi. Bu esa, pedagog olimlarimiz zimmasiga o‘quv fanlari bo‘yicha o‘quv adabiyotlarini hozirgi davr talabini hisobga olgan holda yangilab borish, ta’lim jarayoniga innovatsiya va ta’lim texnologiyalarini joriy etishni taqozo etmoqda. Shuning uchun ham ta’lim muassasalarining o‘quv-tarbiyaviy jarayonida zamonaviy o‘qitish uslublari - interfaol uslublar, innovatsion texnologiyalarning o‘rni va ahamiyati beqiyosdir.

Pedagogik texnologiya va ularning ta’limda qo‘llanishi talabalarni bilimli va etuk malakaga ega bo‘lishlarini ta’minlaydi. Innovatsion texnologiyalar pedagogik jarayon hamda o‘qituvchi va talaba faoliyatiga yangilik, o‘zgartirishlar kiritish bo‘lib, uni amalga oshirishda asosan interfaol uslublardan foydalaniladi.

O‘qitishning interfaol uslubiyotlari – bilish va malaka faoliyatni tashkil etishning maxsus shakli bo‘lib, unda ta’lim oluvchilar bilish jarayoniga jalb qilingan bo‘ladilar, ular biladigan va o‘ylayotgan narsalarni tushunish va fikrlash imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Interfaol darslarda o‘qituvchining o‘rni qisman talabalarning faoliyatini dars maqsadlariga erishishga yo‘naltirishga

olib keladi.

Oliy ta’limning barcha yo‘nalishlari o‘quv jarayonlarida ta’lim texnologiyalari qo‘llanilishi kuzatilmoqda jumladan, muammoli o‘qitish; tanqidiy fikrlashish rivojlantiruvchi texnologiyalar; modulli texnologiyalar; hamkorlik texnologiyalari; o‘qitishning tabaqalashtirilgan va individual texnologiyasi;

Oliy ta’lim o‘quv jarayoniga innovatsion ta’lim texnologiyalarini tatbiq etish tizimi.

O‘quv mashg‘ulotlari texnologiyasi	Interfaol metodlar	Grafik organayzerlar
1.Ma’ruza mashg‘ulotlari ta’lim texnologiyasi. 2.Seminar mashg‘ulotlari ta’lim texnologiyasi. 3.Amaliy mashg‘ulotlar ta’lim texnologiyasi. 4.Mustaqil ta’lim texnologiyasi. 5.Keys-stadi ta’lim texnologiyasi. 6. Loyihalash ta’lim texnologiyasi.	1.Aqliy hujum. 2.Erkin yozish. 3.Asoslangan esse. 4.FSMU. 5.Blits-so‘rov. 6.Blits-o‘yin. 7.O‘qitish bo‘yicha qo‘llanma. 8. Yozma va og‘zaki davra suhbati. 9.Tushunchalarni aniqlash. 10.Matnni to`ldir. 11. Chalkashtirilgan mantiqiy zanjirlar ketma ketligi. 12.O`zingga ishon.	1. Klaster. 2. B-B-B chizmasi 3. T-chizma. 4. Venn diagrammasi. 5. Konseptual jadval. 6. Insert jadvali. 7. “Nima uchun” chizmasi 8. “Qanday?” diagrammasi 9. Baliq skeleti. 10. Toifalash jadvali. 11. Nilufar guli

Keys-stadi texnologiyasi- mavzu bo`yicha muammoli vaziyatga asoslangan, talaba topshirilgan muammoli vaziyatdan ilojini topib chiqib ketishi yoki to‘g‘ri qaror qabul qilishi lozim. Muammoning hal bo‘lishidan avval qidiruv, tahlil, qo‘shimcha ma’lumotdan foydalanib farazlarni ilgari surish, nazariy bilimlardan foydalanish va amaliyotga tadbiq qilish kabi faoliyatlar bajariladi.

KEYS-TOPSHIRIG‘INI BAJARISH JARAYONIDA QO‘LLANILADIGAN STRATEGIYALAR

- Insident (axborotni qidirish)
- Ma’lumotlarni tahlil etish (ishbop korrespondensiya)
- O‘yin tarzida loyihalash
- Vaziyatli rolli o‘yin
- Munozara
- SWOT tahlil

1.Keys (Muammoli vaziyat)

Sinifning eng sho`h qizi bo`lgan Komila darsarda umuman to`g`ri o`tirmas, orqa-odingi partalardagi o`rtoqlarini dars davomida chalg`itar edi, oradan 3 yil vaqt o`tib Komila odamovi birov blian gaplashmaydigan bo`lib qodi. Ota-onasining tanbehlariga qaramasdan o`rtoqlariga qo`shilmas edi. Vrach nazoratiga borilganda, Komilada skolioz rivojlanganini, chanoq tashqari tomonga chiqib qolganligi, qadam tashlashini buzilishi, ko`krak qafasining hajmi kichrayganligini aytdi.

2.Muammoli vaziyat bo‘yicha savollar

1. Ushbu vaziyatda qanday muammo ko‘tarilgan?
2.Umurtqa pog`onasining qaysi o‘zgarishi skoliozga olib keladi?
3.Nima uchun o`quv partasida to`g`ri o`tirmaslik umurtqa pog`onasidagi o‘zgarishlarga-skoliozga sabab sabab bo‘ldi?
4.Nima sababdan Komilada tushkunik kayfiyati yuzaga kelgan?

3.Manba:

1. S.X. Aripova., “Yosh fiziologiyasi va gigiyenasi”. T.: “Fan va texnologiya”. 2010 y.
2. K. Almatov.,“Ulg’ayish fiziologiyasi”. T.:M.Ulug’bek nomidagi bosmaxonasi. 2004 y.

3. Sodiqov.Q., Aripova. S.X., Shaxmurova.G.A. “Yosh fiziologiyasi va gigiyenasi”. T.:Yangi asr avlodi. 2009 y.
4. D.A. Mamatqulov., “Bolalar anatomiyasi va fiziologiyasi asoslari”. “O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati”. 2017 y.

Talabalar uchun ko‘rsatmalar:

1. Keys mohiyatini etarlicha anglab oling.
2. Muammoning echimini topishga xizmat qiluvchi omillarni aniqlang.
3. Aniqlangan omillar orasidan muammoga barchasidan ko‘proq dahldor bo‘lgan omil (yoki ikki omil) ni ajrating.
4. Ana shu omillar asosida echimini asoslashga harakat qiling.
5. O‘z fikringizni bayon eting

Keysni echish jarayoni:

1.Tinglovchilar keys moxiyatini u bilan tanishish orqali kichik guruxlarda muhokama qilinadi.

2.Tinglovchi kichik gurux a’zolari bilan xamkorlikda muammoning xal etishga zamin tayyorlaydigan omillarni aniqlaydi.

3.Muamoni xal etishga imkon beradigan omillardan eng muhimlari ajratib olinadi.

4.Kichik gurux a’zolari umumiy fikr asosida eng muxim omillarni bayon etadi.

5.Kichik guruxlarning fikrlari tahlil etiladi va umumiy xulosa yasaladi.

Talabalar Tayanch harakatnish sistemasi mavzusini takroran o‘qib chiqib skoioz hosi bo‘lish jarayonlarini mohiyatini tushinib etadilar.

Keys echimi: (Talabalar variantlari)

1._____

2._____

O‘qituvchining echimi:

Boshang`ich sinfarda partada to`g`ri o`tirmaslik, umurtqa pog`onasining yon tomonga qiyshayishi, Qad-qomatning buzilishidan faqat odamning ko`rinish o`zgarmasdan, balki, ichki a'zolar ( o`pka, yurak , jigar, buyrak, oshqozon va ichak kabilarning) rivojlanishi va funksiyasiga ham salbiy ta'sir ko`rsatadi. Natijada, jismoniy mehnat qilganda, jismoniy tarbiya va sport bilan shug`ullanganda nafas qisadi, yurak urishi tezlashadi, tez charchaydi….

Keysning ilmiy bayoni.

Skolioz umurtqa pog`onasining yon tomonga qiyshayishidir. Aksariyat umurtqa pog`onasi jadal o`sadigan davrga 15 yoshgacha paydo bo`ladi. Hozirgi vaqtda skoliozni dastlabki kunlaridan aniqlash va uni davolash amalga oshirilmoqda.

Keys savollari:

1. Skoioz deganda nimani tushinasiz?
2. Skoioz qanday paydo bo‘ladi?
3. Ishni yakunlab taqdimotga tayyorlash.
4. **Keys bilan ishlash jarayonini baholash mezonlari**

Auditoriyada bajarilgan ish uchun baholash mezonlari va ko‘rsatkichlari.

6-jadval

Guruhlar ro‘yxati	Guruh faolligi. **mak. 1 b**	Ma’lumotlar ko‘rgazmali taqdim etildi. **mak.2b**	Javoblar to‘liq va aniq berildi **mak.2 b**	Jami **mak.5b**
1				
2				
3				

5 ball – a’lo, 4 ball – yaxshi, 3 ball – qoniqarli.

Insert texnologiyasi – lokal darajadagi pedagogik texnologiya bo‘lib, talabalarni, mustaqil o‘qib-o‘rganishiga yordam beradi. Bunda ma’ruza mavzulari, kitob va boshqa materiallar oldindan talabaga vazifa qilib beriladi. Uni o‘qib chiqib, «V; +;-; ?» belgilari orqali o‘z fikrini

ifodalaydi.

Matnni belgilash tizimi:(v) - men bilgan narsani tasdiqlaydi. (+) – yangi ma’lumot.(-) – men bilgan narsaga zid. (?) – meni o‘ylantirdi. Bu borada menga qo‘shimcha ma’lumot zarur.

Insert jadvali.”

Bilaman	Suyakar tayanch vazifasini bajaradi.
To‘g‘ri kelmadi	Ichki sekretsiya bezari funksiyasi pasayganda suyaklanish kechikadi.
Yangi axborot	Yosh davrariga qarab suyaklarning o`zgarishi.
Tushunmadim	Suyaklarning oziqlanishi.

Insert texnologiyasida qo‘llaniladigan maxsus jadval

Abzatslar	“Bilaman”	“Ma’qullayman”+	“O‘rganish lozim”-	“Tushunmadim”?
	Suyakar eng muhim a`zolardan biri bo‘lib, unda tuzlar zahira holatda saqlanadi. Shuning uchun xam suyak asosiy tayanch organ deb ataladi.			

“Bilaman” - √ - abzatsda berilgan ma’lumot shu kungacha o‘zlashtirilgan bilimlarga mos kelsa;
“Ma’qullayman”- **+** - agar ma’lumotlar tushunarli va yangi bo‘lsa;
“O‘rganish lozim” - - agar ma’lumotlar o‘zlashtirilgan bilimlarga mos kelmasa;
“Tushunmadim” - **?** -o‘quv materiallarini o‘zlashtirishi qiyin bo‘lsa shu belgilarni qo‘yadilar.

“Tezkor savollar xujumi” texnologiyasi

Odam skeleti nechta suyakdan tashki topgan,nechtasi juft?	206 ta suyakdan tashkil topgan bulib, shundan 85 ta juft suyaklardan iborat.
Tana massasining necha % ni suyaklar tashkil etadi?	Katta yoshli odamlarda suyaklar erkaklarning tana massasining 18 % ni, ayollarda 17% ni, yangi tugilgan chaqaloqlarda tana massasining 14 % ni suyaklar tashkil qiladi.
Suyaklar shakli va funksiyasiga ko`ra, qanday suyaklarga bo`linadi?	Suyaklar shakli va funksiyasiga ko`ra, naysimon, kalta, ya’ni va xavo saqlaydigan suyaklarga bo`linadi.
Osteonlar nima?	Suyak to`qimasidagi ko`p sonli naychalar.
Bo`g`im nima?	Suyaklar o`zaro nixoyatda chidamli ixcham konstruksiyalar shaklida birikadi. Birikish joyi bo`g`im deyiladi.
Bolalar suyaklarida qaysi moddaar ko`proq uchraydi?	Bolalar suyaklarida katta odamlar suyaklariga qaraganda organik moddalar ko`proq,anorganik moddalar kamroq uchraydi.

O`zingga ishon.

1.Talabalarga tarqatilgan savollar turlicha lekin javoblar bir hil bo`ladi. Javoblar doskaga yozib qo`yiladi, vaqt beligilanadi.
Javoblar: Skolioz , Lardoz, Kekkaygan, Egilgan qad-qomat.

1-topshiriq.

Normal qad-qomat	Bo’yin va belda oldinga tabiiy egrilik bo’ladi.
Egilgan qad-qomat	Hech qanday egilishlar yo’q
Lardoz	Belda biroz oldinga egilish bo’ladi
Kifoz	Ko’krakda orqaga egilish ko’proq
Kekkaygan qad-qomat	Bo’yinda oldinga egiklik ko’proq

2-Topshiriq.

1.Tik turganda boshi oldinga egilgan yelkalari osilgan ko’krak qafasi bosiq

2.Tik turganda ko’krak qafasi qorin qismi oldinga bo’rtib chiqib orqasi yassilashgan

3.Tik turganda orqasi to’g’ri va tekis qorni ichiga tortilgan bo’ladi

4. Tik turganda yelkalarining biri baland biri past.

3-Topshiriq.

1. Kasallik davrida odam qad qomati buziladi ,o’pka , yurak faoliyati qiyinlashadi ,jismoniy ish bajarganda nafas qisadi.Quyidagi belgilar qaysi qomatga tegishli.

Matnni to’ldiring.

1.To’g’ri rivojlangan oyoq kaftining ko’proq qiismi qiyiqroq ozroq qismi……bo’ladi. Javob; gumbaz

2.Skelet (ckeletos - qurutilgan) –……..suyaklardan tashkil topgan bo’lib, tananing tayanchi bo’lib hisoblanadi va passiv harakat qiladi. Javob: 200 ortiq.

3. Yaratuvchanlik funksiyasi – suyaklarning ko’mik qismidan……elementlari ishlab chiqariladi. Javob: qonning shakli.

B-B-B texnologiyasidan foydalanib “Gavda skeleti” mavzusida jadval bilan ishlash.

Mavzuga oid asosiy tushunchalar	**Bilaman+**	**Bilib oldim.++**	**Bilishni hoxlayman.+++**
Umurtqa pog`onasi.	+		
Ko`krak qafasi	+		
Umurtqa pog`onasi 33-34 ta umurtqadan tashkil topgan. Ular 5 ta bo`limdan 7 ta umurtqadan iborat bo`yin, 12 umurtqadan iborat ko`krak bo`limi, 5 ta bel 5 ta dumg`aza va 3-4 ta umurtqadan tuzilgan dum bo`limlariga bo`linadi.	+		
Qo`l suyaklarining suyaklanishi 20-24 yoshda tugallanadi. Yangi tug`ilgan bolalarda kaft usti va barmoq falangachalari, tog`ay tuqimasidan iborat bo`lib suyaklanish 7 yoshga kelib yaqqol ko`rinadi va 16-17 yoshgacha davom etadi.	+	++	
Suyak tuzilishi	+		
Bolalarda xar bir chanoq suyagi tog`ay to`qimasi bilan birikkan uchta suyak: yonbosh, qov, quymich, suyaklaridan tashkil topgan	+	++	
Umurtqa pog`onasi 11-14 yoshgacha juda tez o`sadi		++	

O‘qitish jarayonida innovatsion texnologiyalardan foydalanish mashg‘ulot samaradorligini oshiradi. O‘quv fanlari bo‘yicha ta’lim texnologiyalarini yaratishda xilma-xillik, ijodiylik, innovatsion yondashuvlarga asoslanish, har bir fanning o‘ziga xos xususiyatlari, qonuniyatlarini hisobga olish maqsadga muvofiqdir. Mazkur jarayonda fanlarning, mashg‘ulot shakllari,

mavzularning o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda yondashish o‘rinli bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ishmuhamedov R., Abduqodirov A., Pardaev A. Ta’limda innovatsion texnologiyalar(ta’lim muassasalari pedagog - o’qituvchilari uchun amaliy tavsiyalar). – T.: “Iste’dod” jamg’armasi, 2008. – 180 b.
2. Yo’ldoshev J.G’., Usmonov S.A. Pedagogik texnologiya asoslari. T.: O’qituvchi, 2004.-104 b.
3. Tolipova J.O. Biologiyani o’qitishda pedagogik texnologiyalardan foydalanish. Pedagogika oliy o’quv yurti talabalari uchun o’quv qo’llanma. I-II qismlar. T.: TDPU. 2004. –76 b, 106 b.
4. S. Akhmatjanova, K. Kamalova. The role of advanced pedagogical technologies in the study of academic disciplines.T. Society and innovations.2020.-414p. https://inscience.uz/index.php/socinov/index
5. Akhmadjonova,S, Turkistonova. use of didactic game technology in teaching youth physiology lessons. Прорывные научные исследования проблемы, закономерности, перспективы сборник статей XV Международной научно-практической конференции,Состоявшейся 30 декабря 2020 г. в г. Пенза.

AMERIKA ADABIYOTIDA OILAVIY SADOQAT VA MILLIY XIYONAT TUSHUNCHALARI

Qosimova N.S.
JDPU o’qituvchisi
qosimovan561@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada Amerika adabiyotida oilaviy sadoqat va milliy xiyonat motivlari — ularning she’riy va nasriy asarlardagi ifodasi, ramziy vositalar, metafora va struktura orqali berilishi hamda bu motivlarning individual va ijtimoiy ma’nosi tahlil qilinadi. Anne Bradstreetning “To My Dear and Loving Husband” she’ri asosida oilaviy sadoqatning shaxsiy va ma’naviy jihatlari ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, milliy xiyonat mavzusi tarixiy va siyosiy kontekstlarda qanday namoyon bo‘lishi, hamda oilaviy va milliy sadoqat o‘rtasidagi axloqiy dilemma muhokama qilinadi.

Kalit so‘zlar: Amerika adabiyoti, sadoqat, xiyonat, she’riyat, ramzlar, Anne Bradstreet, oilaviy munosabatlar, milliy identitet.

Аннотация. В статье анализируются мотивы семейной верности и национального предательства в американской литературе — их поэтические и прозаические воплощения, символика, метафорика и структурные приёмы. На материале стихотворения Энн Бредстрит «To My Dear and Loving Husband» рассматриваются личностные и духовные аспекты супружеской верности. Также обсуждается, как тема национальной измены представлена в историко-политическом контексте и какие этические конфликты возникают между семейной и гражданской лояльностью.

Ключевые слова: американская литература, верность, предательство, поэзия, символика, Энн Бредстрит, семейные отношения, национальная идентичность.

Abstract. The article examines the motifs of familial loyalty and national betrayal in American literature — their poetic and prose representations, symbolism, metaphorical devices, and structural techniques. Using Anne Bradstreet’s poem “To My Dear and Loving Husband” as a case study, the paper explores the personal and spiritual dimensions of conjugal fidelity. It also discusses manifestations of national betrayal in historical and political contexts and the ethical dilemmas that arise when familial and civic loyalties conflict.

Keywords: American literature, loyalty, betrayal, poetry, symbolism, Anne Bradstreet, family relations, national identity.

Amerika adabiyotining nazm janrida sadoqat va xiyonat qahramonning ichki kechinmalari, o‘ta shaxsiy va ruhiy holatlari orqali ifodalanadi. Bu motivlar she’rda chuqur og‘riq, sevgi,

umidsizlik yoki ishonchni aks ettiradi. She'riy obrazlar orqali sadoqatning yuksakligi yoki xiyonatning o‘tkirligi o‘quvchining qalbida aks-sado beradi. She’riyat sadoqat va xiyonatning yurakka qilgan zarbasini ifodalash uchun kuchli hissiy vositalardan foydalanadi. Bu, o‘z navbatida, o‘quvchida qahramonning iztiroblarini chuqur his qilish imkonini beradi.

She’riyatda sadoqat va xiyonat ko‘pincha tabiat yoki hayotdagi turli hodisalar bilan ramziy tasvirlanadi. Masalan, gullar sadoqatni, bo‘ron esa xiyonatni ifodalashi mumkin. Bu ramzlar she’rning chuqur ma'nolarini ochib beradi. Sadoqat va xiyonat she’riyatda ko‘pincha metaforalar va allegoriyalar orqali beriladi, bu esa mazmunni yanada kengaytiradi va o‘quvchining tushunchasini boyitadi. Masalan, “sadoqat ildizi” yoki “xiyonat zahri” kabi iboralar o‘quvchi uchun motivning asosiy ma’nosini yorqin tasvirlaydi. She'riyatda sadoqat va xiyonatni ifodalashda qofiya va ritm muhim rol o‘ynaydi. Qofiya va ritm motivning kuchini oshirib, o‘quvchi qalbiga chuqur kirib boradigan melodik ifodani yaratadi. Bu she'riy usul hissiyotlarni yanada kuchliroq etkazadi. Shuningdek, sadoqat va xiyonatning ziddiyatlari she'rning tuzilmasida ham aks etishi mumkin. Masalan, bir she'rda sadoqat va xiyonat o‘rtasidagi qarama-qarshilik she’rning tuzilmasiga ham singdirilgan bo‘lishi mumkin, bu esa motivni yanada kuchliroq va ma’nodor ifodalashga xizmat qiladi. Nazmda sadoqat va xiyonat ko‘pincha ijtimoiy va madaniy ma'noga ega bo‘ladi. She’rlar jamiyatdagi sadoqatga oid qadriyatlarni madh etishi yoki xiyonatni qoralashi orqali ijtimoiy ongni shakllantirishga hissa qo‘shadi. Qolaversa, she’riyatda sadoqat va xiyonat ba'zida tarixiy yoki siyosiy voqealar orqali tasvirlanadi. Bu voqealar she'rning asosiy mavzusi bo‘lishi mumkin va shu orqali ijtimoiy xabar yetkaziladi. Masalan, milliy sadoqat yoki siyosiy xiyonat kabi mavzular she'riyatda keng qo‘llaniladi. She'riyatda sadoqat va xiyonat motivlari insonning ma'naviy yo‘li va ichki dunyosini chuqur o‘rganish uchun xizmat qiladi. Ular kitobxonni hayotning ma’nosi, insoniy burch va axloqiy tanlovlar haqida mulohaza yuritishga undaydi. She’riyat ko‘pincha sadoqat va xiyonat motivlari orqali o‘quvchiga axloqiy saboqlar beradi. Bu saboqlar insonga o‘zini va boshqalarni tushunishga, yaxshilik va yomonlikni ajratishga yordam beradi.

Bredstritning eri Simon Bredstritga bo‘lgan chuqur muhabbat va sadoqatini ifodalaydigan quyidagi she’ri 17-asr Amerika adabiyotining eng qadrlanadigan she'rlaridan biridir. Quyida ushbu she'rni tahlil qilib beramiz:

She’r 12 qatorli bo‘lib, har bir satrda ohangli va ohangsiz bo‘g‘inlar ketma-ket ishlatilgan. Bu ifoda shakli she'rga ritm va musiqiylik beradi. She’rda sadoqat, sevgi va abadiylik g‘oyalari yoritilgan. Bredstrit eri bilan bo‘lgan munosabatlarini ta'riflab, bu sevgini boshqa hech kim bilan taqqoslab bo‘lmasligini ta'kidlaydi.

Masalan:

ASLIYAT	TARJIMA
"If ever two were one, then surely we. If ever man were loved by wife, then thee;"	"Agar hech ikki kishi bitta bo‘lgan bo‘lsa, biz o’shamiz. Agar hech ma’shuqa oshig’ini sevgan bo‘lsa, bu sensan;"

Bu satrlarda Bredstrit o‘zining eri bilan bir butun bo‘lganini tasvirlaydi. "Agar hech qachon ikki kishi bitta bo‘lgan bo‘lsa, biz shundaymiz," deya, u o‘zaro sevgi va sadoqatning kuchini ta'kidlaydi. Bu satrda sevgi faqat hissiyot emas, balki ruhiy birlashuv sifatida ko‘rsatiladi. She’rda ko‘pchilik oddiy so‘zlar orqali chuqur ma'no berilgan. “To My Dear and Loving Husband” she'ri Annening eri Simon Bredstritga bo‘lgan abadiy va cheksiz sevgisi va sadoqatini ifodalovchi

chuqur va samimiy asardir. She'rda sevgi va sadoqatning kuchi, abadiylik g‘oyasi va insonning eng chuqur his-tuyg‘ulari tasvirlangan. Bu she'r Bredstritning o‘z eri bilan bo‘lgan chuqur ruhiy bog‘lanishini, shuningdek, sevgi va sadoqatning qanday qilib inson hayotiga ma'no berishini ko‘rsatadi.

Amerika adabiyotida oilaviy sadoqat va milliy xiyonat mavzulari keng tarqalgan bo‘lib, shaxsiy munosabatlar va kengroq ijtimoiy masalalar o‘rtasidagi murakkab o‘zaro ta'sirni aks ettiradi. Ushbu mavzular qanday qilib turli asarlarda namoyon bo‘lishi haqida bir o‘rganish.Ko‘plab hikoyalar oilaviy sadoqatning ahamiyatini ta'kidlaydi, qahramonlar sevimlilari uchun muhim qurbanliklar qilishadi. Bu sadoqat kuch manbai bo‘lishi mumkin, lekin shaxsiy xohishlar oilaviy majburiyatlar bilan to‘qnashganda nizolarni ham keltirib chiqarishi mumkin. Asarlar ko‘pincha avlodlar o‘rtasidagi ziddiyatni tasvirlaydi, bu erda katta oilaviy a'zolar an’anaviy qadriyatlarni ushlab turishadi, yosh qahramonlar esa buni chaqirishi mumkin. Ushbu kurash oilaviy munosabatlardagi sadoqatning murakkabligini ta'kidlaydi. Milliy xiyonat mavzusi tarixiy voqealar, masalan, urushlar yoki fuqarolik huquqlari harakatlari bilan bog‘liq adabiyotda tez-tez uchraydi. Qahramonlar o‘z hukumatlari yoki jamiyatlari tomonidan erkinlik va adolat g‘oyalari saqlanmayotganidan xiyonat his qilishi mumkin. Ko‘plab mualliflar milliy xiyonatning shaxsiy va kollektiv identitetga ta’sirini o‘rganadilar, ayniqsa, cheklangan jamoalarda. Shaxsiy identitet va milliy g‘oyalar o‘rtasidagi to‘qnashuv ko‘pincha umidsizlik hislarini keltirib chiqaradi. Ikki tomonlama Sadoqat: Qahramonlar ko‘pincha oilaviy sadoqat va o‘z mamlakatlariga bo‘lgan majburiyat o‘rtasida navigatsiya qiladilar. Ushbu ziddiyat axloqiy dilemmani yaratishi mumkin, masalan, urush, immigratsiya yoki fuqarolik huquqlari bilan bog‘liq asarlarda. Ba'zan, bir mamlakatga sadoqat oilaga sadoqat bilan to‘qnashishi mumkin. Qahramonlar ba'zi vaziyatlarda oilaviy a'zoni qo‘llab-quvvatlash va milliy qonunlarga yoki jamiyat kutganlariga amal qilish o‘rtasida tanlov qilishlari kerak bo‘lishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Bradstreet, A. (1650/1678). The Tenth Muse Lately Sprung Up in America — contains the poem “To My Dear and Loving Husband”. (Primary source).
2. Bercovitch, S. (1975). The Puritan Origins of the American Self. New Haven: Yale University Press.
3. Baym, N., et al. (Eds.). (2003). The Norton Anthology of American Literature (Shorter ed.). New York: W. W. Norton & Company.
4. Abrams, M. H. (1999). A Glossary of Literary Terms (7th ed.). Fort Worth: Harcourt.
5. Vendler, H. (1995). The Given and the Made: Strategies of Poetic Redefinition. Cambridge, MA: Harvard University Press.

2-SHO‘BA: GUMANITAR FANLAR VA JAMIYAT

AMALIY AXLOQNING RIVOJLANISHI VA POSTMODERNIZM KONTEKSTIDA AXLOQIY QADRIYATLAR

Muxamedjanova Lalixon
Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston
Milliy universiteti professori, f.f.n.
lalixon@list.ru , lalixonm@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada amaliy axloqning rivojlanish jarayoni va postmodernizm falsafiy oqimi sharoitida axloqiy qadriyatlarning o‘zgarishi tahlil qilinadi. Postmodern davrda an’anaviy axloqiy me’yorlarning qayta ko‘rib chiqilishi, pluralizm va sub’ektivizm asosida yangi axloqiy yondashuvlarning shakllanishi ko‘rsatib o‘tiladi. Tadqiqot metodologiyasi sifatida falsafiy-tahliliy va qiyosiy usullar qo‘llanilgan. Natijalar amaliy axloqning hozirgi zamon ijtimoiy-madaniy jarayonlarga moslashuvi va inson huquqlari, ijtimoiy adolat hamda global qadriyatlarga integratsiyalashuvi bilan belgilanadi.

Kalit so‘zlar: amaliy axloq, postmodernizm, qadriyatlar, pluralizm, axloqiy me’yorlar.

Аннотация: В статье анализируется процесс развития прикладной этики и трансформация моральных ценностей в условиях философии постмодернизма. Подчеркивается пересмотр традиционных моральных норм, формирование новых этических подходов на основе плюрализма и субъективизма. Методология исследования основана на философско-аналитическом и сравнительном подходах. Результаты показывают адаптацию прикладной этики к современным социально-культурным процессам, интеграцию в систему прав человека, социальной справедливости и глобальных ценностей.

Ключевые слова: прикладная этика, постмодернизм, ценности, плюрализм, моральные нормы.

Abstract. This article analyzes the development of applied ethics and the transformation of moral values within the context of postmodern philosophy. It highlights the revision of traditional moral norms and the emergence of new ethical approaches based on pluralism and subjectivism. The research methodology is grounded in philosophical-analytical and comparative methods. The findings demonstrate how applied ethics adapts to contemporary socio-cultural processes and integrates into the framework of human rights, social justice, and global values.

Keywords: applied ethics, postmodernism, values, pluralism, moral norms

Amaliy axloq bugungi kunda falsafaning eng faol rivojlanayotgan yo‘nalishlaridan biri sifatida e’tirof etiladi. Jamiyat taraqqiyoti, ilm-fan va texnologiyaning keskin rivojlanishi, shuningdek, globallashuv jarayonlari axloqiy muammolarga yangicha nigoh bilan qarash zaruratini tug‘dirmoqda. Ayniqsa, postmodernizm davri tafakkurida qadriyatlar tizimi tubdan o‘zgarib, avvalgi davrlarda ustuvor bo‘lgan axloqiy me’yorlarning universalligi shubha ostiga olinmoqda.

Postmodernizm nazariyotchilaridan biri bo‘lgan Jan Fransua Lyotard (1984) “postmodern holat”ni “katta narrativlarning inqirozi” sifatida ta’riflab, insoniyat tarixida hukmron bo‘lgan umumiy qoidalar va yagona haqiqatlar endilikda o‘z ahamiyatini yo‘qotayotganini qayd etadi. Bu esa an’anaviy axloqiy qadriyatlarning qayta ko‘rib chiqilishiga, ular o‘rniga ko‘p ovozli, pluralistik va turfa manbalarga tayangan axloqiy qarashlarning shakllanishiga olib kelmoqda.[1]

Amaliy axloqning zamonaviy rivojlanishi nafaqat falsafiy nazariya doirasida, balki real ijtimoiy hayotdagi muammolarni hal etishda ham namoyon bo‘lmoqda. Bugungi kunda bioetika, ekologik etika, texnologik etika kabi yo‘nalishlar insoniyat oldida turgan eng muhim masalalardan biri sifatida alohida e’tibor qozonmoqda. Shu sababli, amaliy axloq falsafasi jamiyatning ma’naviy yo‘nalishini belgilashda, turli xil ijtimoiy qarama-qarshiliklarni bartaraf etishda va inson huquqlarini ta’minlashda muhim vositaga aylanmoqda.

Modernizm davrining yakunlanishi axloqshunoslikda klassik – an’anaviy axloq normalari va qadriyatlaridan chekinish, nazariyaga nisbatan amaliy axloqning faollashuvi bilan xarakterlandi.[2] Bu jarayon amaliy axloqning shakllanishiga va postmodernizm kontekstida

rivojlanishiga olib keldi. Chunki postmodernizm o‘z tabiatiga ko‘ra qat’iy nazariy tizimlar va murakkab qoidalardan voz kechib, oddiylik, xilma-xillik va ko‘p qirralilikni targ‘ib qiluvchi davr sifatida tarixga kirdi.[3]

Postmodern davrda shakllanayotgan ushbu jarayonlar amaliy axloqning o‘ziga xos dinamik xususiyatini ko‘rsatib, uning qadriyatlar tizimida tutgan o‘rnini yangidan belgilab bermoqda. Shu bois, mazkur maqolada amaliy axloqning rivojlanishi postmodernizm kontekstida tahlil qilinadi hamda axloqiy qadriyatlarning zamonaviy jamiyatda qanday shakllanayotgani ilmiy yondashuv asosida ko‘rib chiqiladi.

Kundalik hayot jarayonida insonlar o‘z xatti-harakatlarining axloqiy nazariyaga to‘g‘ri kelishi yoki kelmasligi haqida o‘ylab o‘tirmaydi. Odatda ular vaziyatga mos keladigan axloqiy bilimlariga yoki hissiy holat ta’siriga tayanadi. Rasmi y munosabatlarda esa umumqabul qilingan qadriyatlar va qoidalarga amal qilinadi, chunki bu qoidalar muloqot ishtirokchilaridan qat’i nazar birdek tan olinadi.[4]

Amaliy axloqning rivojlanishi inson huquqlari va erkinliklarini himoya qilish sohasida yirik yutuqlarga olib keldi. Bu jarayonda erkinlik, tenglik, adolat, insonparvarlik, burch, mas’uliyat va halollik kabi qadriyatlar asosiy tamoyil sifatida qaralmoqda.[5] Natijada davlat va fuqarolar o‘rtasidagi munosabatlarda axloqiy mezonlarga asoslangan huquqiy tamoyillar mustahkamlandi. Vaqt o‘tishi bilan bioetika, tibbiyot, xalqaro diplomatiya kabi sohalarda maxsus axloqiy kodekslar shakllandi.[6]

Postmodernizmning qaror topishi xalqaro munosabatlarda ham tub o‘zgarishlarni yuzaga keltirdi. Davlat siyosatining insonparvarlashuvi, milliy mustaqillikka intilish, yirik davlatlarning parchalanishi yoki birlashishi (masalan, Germaniyaning qayta birlashuvi) siyosiy boshqaruvga nomzod bo‘lgan shaxslarning axloqiy fazilatlariga bo‘lgan talabni kuchaytirdi.[7] (Habermas, 2001). Ommaviy axborot vositalari esa siyosiy kurashning eng ta’sirchan vositasiga aylandi. Bu jarayon globallashuv davrida madaniyatlararo kompetensiya va global axloqiy qadriyatlarning muhimligini yanada oshirdi.[8] (UNESCO, 2013).

Postmodernizm axloqiy tafakkurda eng avvalo relativizm tamoyilini ilgari surishi bilan ajralib turadi. Bu yondashuvga ko‘ra, axloqiy qadriyatlar mutlaq va universal emas, balki ijtimoiy, madaniy va tarixiy kontekstga bog‘liq holda talqin qilinadi. Z. Bauman o‘zining “Postmodern Ethics” asarida “axloqiy suyuqlik” tushunchasini ilgari surib, zamonaviy jamiyatda an’anaviy barqaror me’yorlarning yemirilishi va ularning o‘rnini beqaror, o‘zgaruvchan qadriyatlarning egallashini ta’kidlaydi.[9] Bu fikr amaliy axloqning postmodern davrdagi ahamiyatini chuqurroq anglashga yordam beradi, chunki yangi vaziyatlarda insonning axloqiy tanlovi ko‘proq shaxsiy mas’uliyat va individual qarashlarga asoslanmoqda.

Yana bir muhim olim - Y.Habermas o‘zining kommunikativ harakat nazariyasida axloqiy qarorlar sub’ektiv manfaatlardan tashqarida turib, ijtimoiy muloqot orqali asoslanishi zarurligini qayd etadi.[10] Uningcha, postmodern jamiyatda axloqiy kelishuv umumiy qoidalarga emas, balki erkin kommunikatsiya va o‘zaro muloqot asosida shakllanishi kerak. Shu ma’noda Habermasning yondashuvi postmodern axloqiy tafakkurning nihilistik xususiyatini yumshatib, amaliy axloqqa yangi asos yaratadi.

A. MacIntyre esa axloqiy qadriyatlarning inqirozini “After Virtue” asarida tahlil qilib, zamonaviy jamiyatda axloqiy birlikning yo‘qolishi insonni ma’naviy izolyatsiyaga olib borayotganini ta’kidlaydi.[11] U qadriyatlarning barqarorligi uchun an’anaviy axloqiy tamoyillarni qayta ko‘rib chiqish lozimligini ilgari suradi. Bu qarash amaliy axloq rivojida muhim nuqtai nazar bo‘lib, qadriyatlarning yo‘nalishsiz tarqalishidan saqlanishga yordam beradi.

Shuningdek, P. Singer “Practical Ethics” kitobida amaliy axloqning zamonaviy jamiyatdagi o‘rni haqida gapirib, axloqiy qarorlarning ko‘pincha hayotiy ehtiyojlar, ilmiy-texnologik taraqqiyot va global muammolarga javob sifatida shakllanishini ta’kidlaydi. Uning fikricha, postmodern dunyoda axloq nafaqat falsafiy nazariya, balki insoniyatning hayotiy amaliy faoliyatida markaziy o‘rin tutadi.

Adabiyotlarni tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, postmodernizm davri axloqiy tafakkurni qayta shakllantirdi: barqarorlikdan o‘zgaruvchanlikka, universallikdan ko‘plab kontekstual qarashlarga

o‘tildi. Shu bilan birga, amaliy axloq bu jarayonlarda nafaqat nazariy yondashuv sifatida, balki global muammolarning hal qiluvchi omili sifatida ham shakllanmoqda.

Ushbu tadqiqotda bir nechta ilmiy-uslubiy yondashuvlardan foydalanildi. Avvalo, falsafiy-tahliliy yondashuv tadqiqotning asosiy metodologik tayanchini tashkil etdi. Mazkur yondashuv orqali postmodernizm falsafasidagi asosiy konsepsiyalar, jumladan, relativizm, pluralizm va “katta narrativlar” inqirozi g‘oyalari chuqur o‘rganildi. Shu orqali amaliy axloqning zamonaviy sharoitda qanday shakllanayotgani, uning nazariy asoslari va jamiyatdagi roli aniqlashga intildim. Falsafiy-tahliliy usulning qo‘llanishi mavzuni kengroq doirada anglash imkonini berdi, chunki u turli olimlarning qarashlarini o‘zaro bog‘liq holda sharhlashga yordam beradi.

Ikkinchidan, qiyosiy usul tadqiqotning muhim tarkibiy qismi sifatida qo‘llanildi. Bu usul yordamida an’anaviy axloqiy yondashuvlar bilan postmodern davrga xos axloqiy qarashlar solishtirildi. Natijada qadriyatlarning tarixiy rivojlanishi, ularning barqaror shakldan nisbiy va o‘zgaruvchan shaklga o‘tish jarayoni tahlil qilindi. Shuningdek, qiyosiy yondashuv orqali G‘arb va Sharq falsafiy merosida mavjud bo‘lgan axloqiy konsepsiyalar o‘rtasidagi umumiylik va farqlarga ham e’tibor qaratildi.

Bundan tashqari, tadqiqotda manba tahlili ham muhim o‘rin egalladi. Zamonaviy falsafiy adabiyotlar, klassik axloqiy ta’limotlar va postmodernizm nazariyotchilarining asarlari asosiy ilmiy manbalar sifatida o‘rganildi. Manbalarni tizimli tahlil qilish orqali amaliy axloq rivojining turli bosqichlari va hozirgi davrda yuzaga kelgan muammolar yanada aniqroq yoritildi.

Umuman olganda, tanlangan metodologiya tadqiqot mavzusini nazariy va amaliy jihatdan to‘liqroq yoritishga, shuningdek, axloqiy qadriyatlarning postmodernizm kontekstida qanday o‘zgarayotganini izchil tahlil qilishga xizmat qildi.

Tadqiqot davomida olingan natijalar shuni ko‘rsatadiki, postmodernizm sharoitida axloqiy qadriyatlarning mazmuni va yo‘nalishi tubdan o‘zgarib bormoqda. Avvalo, qadriyatlarning absolyut shakldan nisbiy shaklga o‘tishi kuzatilmoqda. An’anaviy axloqiy tizimlarda qadriyatlar mutlaq haqiqat sifatida talqin qilingan bo‘lsa, postmodern davrda ular ko‘proq sub’ektiv qarashlarga va ijtimoiy kontekstlarga bog‘liq ravishda shakllanmoqda. Bu esa insonning shaxsiy tanloviga kengroq erkinlik berib, axloqiy mas’uliyatni individual darajada kuchaytiradi.

Ikkinchi muhim natija shundan iboratki, inson huquqlari va global adolat tushunchalari hozirgi axloqiy tizimning asosiy o‘qiga aylanmoqda. Globalizatsiya jarayonlari, axborot makonining kengayishi va xalqlararo aloqalarning jadallashuvi natijasida axloqiy qadriyatlar milliy yoki lokal darajada emas, balki umuminsoniy nuqtai nazardan baholanmoqda. Natijada, adolat, tenglik va inson sha’ni kabi tushunchalar jamiyatning turli qatlamlarida ustuvor ahamiyat kasb etmoqda.

Uchinchidan, amaliy axloqning bioetika, ekologik etika va texnologik etika kabi yo‘nalishlarda muhim o‘rin egallayotgani aniqlandi. Masalan, bioetika inson hayoti va sog‘lig‘i bilan bog‘liq murakkab qarorlarni qabul qilishda asosiy yo‘l-yo‘riq vazifasini bajarmoqda. Ekologik etika esa inson va tabiat o‘rtasidagi munosabatlarda mas’uliyatni kuchaytirib, atrof-muhitni muhofaza qilishni axloqiy vazifa sifatida qaramoqda. Texnologik etika esa sun’iy intellekt, raqamli xavfsizlik va axborot erkinligi kabi yangi muammolarni hal etishda zarur konseptual asosni taqdim etmoqda.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, amaliy axloq postmodern davrning murakkab ijtimoiy-madaniy jarayonlariga moslashib, zamonaviy jamiyatning ehtiyojlariga javob bera oladigan ko‘p qirrali va dinamik tizim sifatida shakllanmoqda. Bu jarayon insoniyat taraqqiyotida axloqning o‘rni va ahamiyatini yangidan belgilab bermoqda.

Yuqorida olib borilgan tahlillar shuni ko‘rsatadiki, postmodernizm davri axloqiy tafakkur va qadriyatlar tizimida tub burilish yasagan. Endilikda axloqiy qadriyatlar universallik da’vosidan ko‘ra, ko‘p ovozli, nisbiy va turfa shaklda namoyon bo‘lmoqda. Har bir shaxs yoki jamiyat axloqiy qarorlarni o‘z tajribasi, madaniyati va ijtimoiy sharoitidan kelib chiqib belgilamoqda. Bu esa, bir tomondan, axloqiy erkinlikni kengaytirsa-da, ikkinchi tomondan, ma’lum bir axloqiy birlikning sustlashuviga ham olib kelmoqda.

Amaliy axloq esa ushbu jarayonlarda faol moslashuvchanlik xususiyatini namoyon qilmoqda. U zamonaviy jamiyatning yangi ehtiyojlarini inobatga olib, huquqiy, ijtimoiy va madaniy qadriyatlar bilan integratsiyalashmoqda. Bioetika, ekologik etika va texnologik etika kabi yo‘nalishlarning rivojlanishi amaliy axloqning qanchalik dolzarb ekanini ko‘rsatmoqda. Ayniqsa, inson huquqlari, ijtimoiy adolat va global mas’uliyat tushunchalari amaliy axloqning zamonaviy mezonlariga aylanib bormoqda.

Shu bois, amaliy axloq bugungi kunda nafaqat falsafiy-nazariy masalalarni o‘rganish doirasida, balki jamiyatning kundalik hayotida, ilm-fan, texnologiya va ekologiya kabi sohalarda ham hal qiluvchi ahamiyat kasb etmoqda. Bu esa insoniyatning kelajagini yanada barqaror, adolatli va ma’naviy jihatdan boy yo‘nalishda shakllantirishda muhim o‘rin tutadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Lyotard, J. F. (1984). *The Postmodern Condition: A Report on Knowledge*. University of Minnesota Press.
2. Bauman, Z. (1993). *Postmodern Ethics*. Oxford: Blackwell.
3. Habermas, J. (1990). *Moral Consciousness and Communicative Action*. MIT Press.
4. Taylor, C. (2011). Dilemmas and connections: Selected essays. Cambridge, MA: Harvard University Press.
5. Lyotard, J. F. (1984). The Postmodern Condition: A Report on Knowledge. University of Minnesota Press.
6. Beauchamp, T. L., & Childress, J. F. (2019). Principles of biomedical ethics (8th ed.). New York: Oxford University Press.
7. United Nations. (1948). Universal Declaration of Human Rights. Paris: United Nations.
8. Habermas, J. (2001). The postnational constellation: Political essays (M. Pensky, Trans.). Cambridge: Polity Press.
9. UNESCO. (2013). Intercultural competence: Conceptual and operational framework. Paris: UNESCO.
10. Singer, P. (2011). *Practical Ethics* (3rd ed.). Cambridge University Press.
11. MacIntyre, A. (2007). After Virtue: A Study in Moral Theory. University of Notre Dame Press.

UCHINCHI RENESSANSDA AXLOQIY QADRIYATLAR VA KOMMUNIKATIV TARBIYA

Taylanova Shohida Zayniyevna
p.f.d.prof., Samarqand davlat chet tillar instituti,
Ubayeva Nodira Turdiqulovna,
“ISFT instituti” Samarqand filiali
Pedagogika yo‘nalishi 2-kurs magistranti,
bibixonim.nodira@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada Uchinchi Renessans davrida axloqiy qadriyatlar va kommunikativ tarbiyaning ahamiyati, ularning yoshlar dunyoqarashini shakllantirishdagi o‘rni, zamonaviy ta’lim tizimidagi mavjud muammolar hamda ularning yechimlari yoritilgan. Shuningdek, O‘zbekistonda ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirishga doir taklif va tavsiyalar ilgari surilgan.

Kalit so‘zlar: Uchinchi Renessans, axloqiy qadriyatlar, kommunikativ tarbiya, ma’naviyat, yoshlar tarbiyasi, pedagogika, ijtimoiy mas’uliyat, zamonaviy ta’lim.

Abstract: This article explores the significance of moral values and communicative education in the era of the Third Renaissance in Uzbekistan. It highlights their role in shaping the worldview of the younger generation, analyzes current challenges in the education system, and proposes solutions to improve the effectiveness of spiritual and educational activities.

Keywords: Third Renaissance, moral values, communicative education, spirituality, youth upbringing, pedagogy, social responsibility, modern education.

Аннотация: В данной статье рассматривается значение нравственных ценностей и коммуникативного воспитания в эпоху Третьего Ренессанса в Узбекистане. Подчеркивается их роль в формировании мировоззрения молодежи, анализируются современные проблемы системы образования и предлагаются решения по повышению эффективности духовно-просветительской работы.

Ключевые слова: Третий Ренессанс, нравственные ценности, коммуникативное воспитание, духовность, воспитание молодежи, педагогика, социальная ответственность, современное образование.

O‘zbekiston Respublikasida Uchinchi Renessans g‘oyasi davlat siyosati darajasiga ko‘tarilib, yoshlar ma’naviy-ma’rifiy rivojiga alohida e’tibor qaratilmoqda. Mazkur davrda axloqiy qadriyatlar va kommunikativ tarbiya masalalari jamiyat taraqqiyotining asosiy omili sifatida qaralmoqda. Bugungi globallashuv davrida jamiyatda yuz berayotgan siyosiy, iqtisodiy, madaniy va ijtimoiy jarayonlar inson shaxsini har tomonlama yetuk qilib tarbiyalashni, ayniqsa axloqiy va kommunikativ jihatdan sog‘lom avlodni voyaga yetkazishni dolzarb vazifaga aylantirmoqda. **Yangi O‘zbekiston va Uchinchi Renessans** nafaqat tashqi islohotlar, balki jamiyatning **ichki — ma’naviy, axloqiy va kommunikativ jihatdan ham yuksalishini** nazarda tutadi. Bu jarayonda **axloqiy qadriyatlarni tiklash** va **sog‘lom kommunikatsiya madaniyatini shakllantirish** asosiy o‘rin tutadi [1]. O‘zbekistonda boshlangan Uchinchi Renessans — bu nafaqat ilm-fan va texnologiyalar taraqqiyoti, balki inson omiliga, xususan, uning ma’naviy-axloqiy barkamolligiga qaratilgan e’tiborning yuksak cho‘qqisidir [4,120]. Uchinchi Renessans davri insoniyat tarixida ma’naviyat, axloqiy qadriyatlar va kommunikativ tarbiyaning qayta tiklanishi hamda yanada muhim ahamiyat kasb etishi bilan ajralib turadi. Aynan shu davrda yoshlar dunyoqarashining shakllanishida axloqiy tamoyillar va samarali muloqot vositalari muhim o‘rin tutadi. Zamonaviy ta’lim tizimida esa bu qadriyatlar yetarlicha rivojlanmayotgani, ba’zi muammolar va kamchiliklar mavjudligi ko‘plab tadqiqotlar mavzusiga aylangan. O‘zbekiston esa ma’naviy-ma’rifiy ishlarni yanada takomillashtirish, yoshlarni ijtimoiy va axloqiy jihatdan tarbiyalash borasida faol ish olib bormoqda. Ushbu maqolada Uchinchi Renessans davrida axloqiy qadriyatlar va kommunikativ tarbiyaning yoshlar hayotidagi o‘rni, zamonaviy ta’limdagi muammolar va ularning yechimlari hamda O‘zbekistonda olib borilayotgan ishlar tahlil qilinadi.

Axloqiy qadriyatlar – bu millatning tarixiy xotirasi, uning ma’naviy poydevori hisoblanadi [3,15]. Bu qadriyatlar har bir jamiyatning ijtimoiy hayotini tartibga soluvchi asosiy omil bo‘lib, inson kamoloti va barkamol avlod tarbiyasida beqiyos o‘rin egallaydi [2,37]. Bugungi kunda esa axborot texnologiyalarining tezkor rivojlanishi, globallashuv jarayonlari, madaniyatlararo aralashuv yoshlarda axloqiy mezonlarning o‘zgarishiga olib kelmoqda [9,28]. Ayniqsa, raqamli makonda tarqalayotgan noto‘g‘ri axborotlar, virtual muloqotdagi beg‘amlik va mas’uliyatsizlik axloqiy inqirozga sabab bo‘lishi mumkin [6,63].

Shu bois ta’lim-tarbiya jarayonida kommunikativ kompetensiyalarni rivojlantirish, muloqot madaniyatini shakllantirish, kritik fikrlashni qo‘llab-quvvatlash dolzarb masala hisoblanadi [7,42]. Kommunikativ tarbiya nafaqat og‘zaki nutq, balki tinglash, tushunish, fikr bildirish, ijtimoiy muvozanatni saqlash kabi muhim ko‘nikmalarni shakllantiradi. Bu esa yosh avlodning ijtimoiy hayotga faol integratsiyasini ta’minlaydi [8,79].

Shunday sharoitda oila, maktab va jamiyat hamkorligi muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, ota-onalar va ustozlarning ijtimoiy mas’uliyati oshishi, ularning o‘zaro aloqasi kuchaytirilishi kerak. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganidek, bugungi islohotlar jarayoni — “Uchinchi Renessans” davrida har bir fuqaroda yuksak ma’naviy saviya, ijtimoiy faollik, va insonparvarlik g‘oyalari bo‘lishi zarur [4,57]. Chunki “Yangi O‘zbekiston” degan ulug‘ g‘oya aynan ana shunday sog‘lom, axloqli, tafakkurli avlod bilan bunyod etiladi [1,22].

Renessans va Uchinchi Renessansning qisqacha ta’riflari. Renessans (qayta tug‘ilish) — bu Yevropada 14-16 asrlarda yuzaga kelgan madaniy va ilmiy harakat bo‘lib, inson tafakkuri, san’at va fan sohalarida yangilanishni o‘zida mujassam etgan davrdir. Ushbu davrda qadimiy

yunon-rim madaniyati yangidan o‘rganilib, insonning shaxsiyati va erkinligi markazga qo‘yildi [1,10].

Uchinchi Renessans esa zamonaviy O‘zbekiston rivojlanish strategiyasida ilgari surilgan yangi taraqqiyot bosqichi bo‘lib, bu davrda ma’naviyat, axloqiy qadriyatlar va ilm-fan sohalari birlashib, innovatsion yondashuvlar asosida yangi jamiyat qurilishi maqsad qilingan [4,35; 1,15]. Uchinchi Renessansda insoniylik va ma’naviy me’yorlarga katta e’tibor qaratilib, yoshlarni tarbiyalashda yangi metod va usullar joriy qilinmoqda.

Axloqiy qadriyatlarning yoshlar hayotidagi o‘rni. Axloqiy qadriyatlar yoshlarning shaxs sifatida shakllanishida asosiy rol o‘ynaydi. Ular yoshlarni to‘g‘ri yo‘naltirish, jamiyatga foydali bo‘lishga, o‘z-o‘zini anglashga yordam beradi [3,7]. Axloqiy qadriyatlar yordamida yoshlar mehr-oqibat, hurmat, halollik kabi xususiyatlarni o‘zlashtiradi va bu orqali mustahkam ijtimoiy munosabatlar yuzaga keladi [8,30].

Ma’naviyat va axloqiy qadriyatlarni yuksaltirish orqali yoshlar o‘zining ichki kuchi va yuksak fazilatlarini rivojlantirib, kelajakdagi muvaffaqiyatlari uchun tayyorlanadi. Bu jarayon yoshlarni nafaqat o‘z millatiga, balki butun insoniyatga hurmat bilan qarashga undaydi [2,19; 9,47].

Kommunikativ tarbiyaning shakllanishi va ahamiyati. Yoshlarni tarbiyalashda kommunikativ yondashuv muhim ahamiyatga ega. Kommunikativ tarbiya — bu o‘zaro muloqot madaniyati, kommunikativ kompetensiyalarni rivojlantirish orqali yoshlarni ijtimoiy hayotga muvaffaqiyatli integratsiya qilish usuli hisoblanadi [7,15; 6,63]. Bu jarayon yoshlarning fikrini erkin ifodalash, boshqalar fikrini tushunish va konstruktiv munozaralarda qatnashish ko‘nikmalarini shakllantiradi.

Shuningdek, kommunikativ tarbiya yoshlar o‘rtasida madaniyatlararo muloqotni rivojlantirish, global dunyoda muvaffaqiyatli bo‘lish uchun zarur bo‘lgan ijtimoiy ko‘nikmalarni egallashga yordam beradi [7,28; 9,28]. Bu esa yoshlarning ijtimoiy faolligi va ma’naviy barkamolligi uchun poydevor yaratadi.

Yoshlar ma’naviy-axloqiy rivojlanishining omillari. Yoshlarning ma’naviy-axloqiy rivojlanishi ko‘plab ichki va tashqi omillarga bog‘liq. Eng avvalo, oilaviy muhit, tarbiya, ta’lim tizimi va jamiyatdagi ma’naviy muhit yoshlarning rivojlanishida muhim rol o‘ynaydi [3,12]. Oila yoshlar uchun birinchi tarbiya maktabi bo‘lib, u yerda axloqiy qadriyatlar shakllanadi, insoniylik tamoyillari singdiriladi [8,45].

Shuningdek, davlat siyosati va ma’naviy-ma’rifiy ishlar ham yoshlarning axloqiy rivojlanishiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Yangi O‘zbekiston strategiyasida yoshlarning ma’naviy barkamolligi davlatning ustuvor vazifalaridan biri sifatida belgilangan [4,50; 5,30].

Axloqiy qadriyatlar va kommunikativ malakalar orqali ijtimoiy muammolarni hal etish. Axloqiy qadriyatlar yoshlarni adolat, halollik, hurmat kabi tamoyillarga asoslangan qarorlar qabul qilishga undaydi, bu esa ijtimoiy muammolarning ildiziga borib, ularni hal etishda muhim omil hisoblanadi [3,50; 8,60].

Kommunikativ malakalar esa yoshlarning o‘zaro tushunishni yaxshilashga, nizolarni muloqot yo‘li bilan hal qilishga imkon beradi [6,92]. Bu, ayniqsa, globalizatsiya sharoitida madaniy farqlar va ijtimoiy ziddiyatlarning oldini olishda zarurdir [9,28]. Yoshlar o‘z fikrlarini aniq va ravon ifodalash, boshqalarni tinglash va konstruktiv fikr almashish ko‘nikmalariga ega bo‘lishlari ijtimoiy barqarorlikni ta’minlashga xizmat qiladi.

Axloqiy tarbiya va kommunikativ malakalar yetarlicha rivojlanmasligi. Bugungi kunda yoshlar o‘rtasida axloqiy tarbiya va kommunikativ malakalar yetarlicha rivojlanmasligi muammosi dolzarbdir. Bu esa ko‘plab ijtimoiy ziddiyatlar va tushunmovchiliklarga sabab bo‘lmoqda. Axloqiy qadriyatlarning sustligi yoshlarning o‘zaro hurmati, mas’uliyat hissi va jamiyatga sadoqatini kamaytiradi [8,53]. Shu bilan birga, kommunikativ malakalar yetishmasligi yoshlarni muloqotda qiyinchiliklarga duchor qiladi, bu esa ularning jamiyatda faol ishtirok etishiga to‘sqinlik qiladi [6,45]. Bu muammolarni bartaraf etish uchun axloqiy tarbiya jarayonini kuchaytirish, yoshlarning kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratish zarur [7,22].

Ta’lim jarayonida amaliyot va nazariyaning uyg‘un emasligi. Ta’lim jarayonida nazariy bilimlar bilan amaliy ko‘nikmalar orasidagi uzilish yoshlarning o‘zlashtirish jarayoniga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Nazariy bilimlar ko‘pincha maktab va oliy o‘quv yurtlarida yetarlicha amaliyot bilan boyitilmaydi, bu esa yoshlarni real hayotdagi muammolarga tayyorlamaydi [5,40]. Amaliy ko‘nikmalarni shakllantirishda yetishmovchilik yoshlarning o‘ziga bo‘lgan ishonchini kamaytiradi va ularni ishchi muhitga moslashishiga to‘sqinlik qiladi. Shu bois ta’limda nazariya va amaliyotni uyg‘unlashtirish, kommunikativ va axloqiy tarbiyani real hayotga yaqinlashtirish muhim hisoblanadi [3,14].

Zamonaviy texnologiyalar ta’siri va ularning ijobiy hamda salbiy tomonlari. Zamonaviy texnologiyalar yoshlar hayotida katta o‘rin egallagan. Ularning ijobiy tomonlari sifatida ma’lumotga tezkor kirish, bilimlarni o‘zlashtirishni yengillashtirish va kommunikatsiya imkoniyatlarini kengaytirish sanaladi [9,15]. Shuningdek, texnologiyalar yoshlarning kreativlik va innovatsion fikrlashini rivojlantirishga yordam beradi [4,47].

Biroq, texnologiyalarning salbiy tomonlari ham mavjud. Ulardan noto‘g‘ri foydalanish axloqiy qadriyatlarning sustlashishiga, yoshlar orasida muloqot yetishmasligiga olib keladi [8,60]. Shuningdek, texnologiyalarga qaramlik, ijtimoiy faollikning pasayishi va yolg‘izlik kabi muammolar yuzaga keladi. Shu sababli, yoshlar o‘rtasida texnologiyalarni ongli va me’yorida qo‘llash bo‘yicha tarbiya olib borish, ularni ma’naviy-axloqiy qadriyatlar bilan uyg‘unlashtirish zarur [2,19; 9,28].

Ta’lim tizimida axloqiy qadriyatlar va kommunikativ tarbiyani kuchaytirish yo‘llari. Ta’lim tizimida yoshlarning axloqiy qadriyatlari va kommunikativ ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun avvalo o‘quv dasturlarini mazmunan boyitish lozim. Axloqiy tarbiya fanlari va kommunikatsiya ko‘nikmalarini alohida kurs sifatida kiritish, interfaol metodlardan foydalanish samarali hisoblanadi [3,10; 7,20]. Shuningdek, yoshlarni jamoaviy loyihalar va muammoli vazifalar orqali muloqot qilishga, o‘z fikrini aniq ifodalashga o‘rgatish muhimdir.

Ta’lim jarayonida kommunikativ kompetensiyalarni rivojlantirish uchun o‘quvchilar o‘rtasida faol muloqot muhitini yaratish, dialog va munozaralarni ko‘paytirish zarur [6,50]. Bu nafaqat axloqiy qadrlarni singdirishga, balki yoshlarning jamiyatdagi o‘z o‘rnini anglashi, boshqalar bilan samarali muloqot qilishiga yordam beradi.

Innovatsion metodlar va ma’naviy-ma’rifiy ishlarni takomillashtirish. Zamonaviy ta’lim jarayonida innovatsion metodlarni joriy qilish yoshlarning ma’naviy-axloqiy rivojlanishini tezlashtiradi. Interaktiv metodlar, multimedia vositalari, virtual muhitlar va loyihaviy ishlanmalar ta’lim samaradorligini oshiradi [5,70; 7,35]. Bular yoshlarni faollikka undaydi, mustaqil fikrlashga va axloqiy masalalarni o‘rganishga rag‘batlantiradi.

Shuningdek, ma’naviy-ma’rifiy ishlarni takomillashtirish uchun innovatsion yondashuvlar asosida treninglar, seminarlar, klublar va madaniy tadbirlarni ko‘paytirish kerak [4,55]. Bu esa yoshlarning ma’naviy-axloqiy qobiliyatlarini kuchaytirib, ularni ijtimoiy hayotga tayyorlaydi.

Ijtimoiy va davlat siyosatining yoshlar tarbiyasidagi o‘rni. Davlat siyosati yoshlar tarbiyasida markaziy o‘rin tutadi. O‘zbekiston Respublikasi rahbariyatining yangi O‘zbekiston strategiyasida yoshlar ma’naviyatini yuksaltirish va axloqiy qadriyatlarni mustahkamlash asosiy vazifalardan biri sifatida belgilangan [1,20; 2,37]. Davlat tomonidan yaratilgan ijtimoiy dasturlar va loyihalar yoshlarni ijtimoiy faollikka jalb etish, ularni bilim va ma’naviy barkamollikka erishishiga xizmat qiladi. Shuningdek, ijtimoiy siyosat yoshlar uchun qulay sharoitlar yaratish, ularning ijtimoiy himoyasi va tarbiyaviy muhitni yaxshilashga yo‘naltirilgan. Bu esa yoshlarni ijtimoiy muammolardan himoya qilish, ularning o‘zini o‘zi rivojlantirish imkoniyatlarini kengaytirishga ko‘maklashadi [9,47; 8,70].

Davlat dasturlari va qonunchilik tashabbuslari. Yoshlar tarbiyasini davlat darajasida qo‘llab-quvvatlash bugungi kunda ustuvor vazifalardan biridir. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari va qarorlari asosida yoshlar bilan ishlash bo‘yicha tizimli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, “Yoshlar daftari”, “Yoshlar – kelajagimiz” dasturi, “Temurbeklar maktabi” kabi tashabbuslar yoshlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlashga yo‘naltirilgan [1,30]. Bundan tashqari, O‘zbekiston Respublikasi “Ma’naviyat va ma’rifat

to‘g‘risida”gi qonun, “Davlat tili haqida”gi qonun va boshqa hujjatlarda yoshlarning axloqiy va madaniy tarbiyasiga oid bandlar qat’iy belgilab qo‘yilgan [2,19]. Bular orqali axloqiy qadriyatlar targ‘iboti qonuniy asosda himoya qilinmoqda, yoshlar orasida huquqiy madaniyatni oshirishga xizmat qilmoqda [5,80].

Mahalliy va nodavlat tashkilotlarning roli. Yoshlar tarbiyasida faqat davlat emas, balki mahalliy o‘zini o‘zi boshqarish organlari va nodavlat notijorat tashkilotlari (NNT) ham faol ishtirok etmoqda. Xususan, mahalla institutlari, “Yoshlar ittifoqi”, “Ma’naviyat va ma’rifat markazi”, “Ishonch telefonlari”, “Mehr daftari” kabi tuzilmalar yoshlar muammolarini aniqlash, ijtimoiy yordam ko‘rsatish, ma’naviy-ma’rifiy faoliyatlar tashkil etishda muhim rol o‘ynaydi [5,55; 8,65].

Nodavlat tashkilotlari esa yoshlarning qiziqishlari va ehtiyojlaridan kelib chiqib, ixtisoslashgan loyihalarni amalga oshiradi. Masalan, kommunikativ malakalarni rivojlantirishga qaratilgan treninglar, psixologik maslahat markazlari, ekologik va texnologik to‘garaklar orqali yoshlarni ijtimoiy faollikka jalb etmoqda [1,20; 6,92].

Yoshlar bilan ishlashning yangi metodlari va natijalari. Zamonaviy pedagogika va psixologiya sohalarida yoshlar bilan ishlashda yangicha metodlar tatbiq etilmoqda. Jumladan, klasterli yondashuv**,** loyihaviy o‘qitish**,** case study (vaziyatli tahlil)**,** trening va kouching sessiyalari**,** mentorlik tizimi keng qo‘llanmoqda [7,42]. Bu metodlar yoshlarning mustaqil fikrlashini, muloqotga kirishish ko‘nikmalarini va ijtimoiy faolligini oshiradi. Natijalar esa sezilarli: yoshlar orasida ijtimoiy tashabbus ko‘rsatish holatlari ortmoqda, ko‘plab iqtidorli yoshlar o‘z startap loyihalarini yaratmoqda, yetakchilik salohiyatini namoyon etmoqda [4,57; 9,28]. Ayniqsa, kommunikativ kompetensiyalarni rivojlantirishga qaratilgan trening va mahorat darslari yoshlar o‘rtasida ijtimoiy muammolarga befarqlikni kamaytirgan, jamiyatga daxldorlik hissini oshirgan [6,63].

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, yoshlar — jamiyatning buguni va kelajagini belgilovchi eng muhim ijtimoiy qatlamdir. Ularning ma’naviy-axloqiy kamoloti, ijtimoiy faolligi va intellektual salohiyati yuksak taraqqiyot va barqaror jamiyat poydevoridir. Shu bois, axloqiy qadriyatlarni shakllantirish, kommunikativ malakalarni rivojlantirish, ta’limda nazariya va amaliyot uyg‘unligini ta’minlash bugungi kunda ustuvor vazifa sifatida e’tirof etilmoqda. Yangi O‘zbekiston taraqqiyotida e’lon qilingan Uchinchi Renessans g‘oyasi aynan shunday yondashuvlarga asoslanadi. Bu g‘oya yoshlar ongida milliy va umuminsoniy qadriyatlarni uyg‘unlashtirish, innovatsion tafakkur bilan harakat qilish, ma’naviy yetuklikka erishishga xizmat qiladi [1,15; 4,57].

Shu bilan birga, davlat siyosati, qonunchilik tashabbuslari, mahalliy va nodavlat tashkilotlarning hamkorligi, ta’limda innovatsion metodlar tatbiqi yoshlar tarbiyasining yangi bosqichini belgilab bermoqda. Kommunikativ tarbiya orqali yoshlar jamiyat muammolariga befarq bo‘lmagan, fikrini erkin ifoda etadigan, ijtimoiy mas’uliyatli shaxs sifatida shakllanmoqda [7,42; 6,92]. Kelajakda ushbu yondashuvlarni yanada chuqurlashtirish, ta’lim tizimini takomillashtirish, yoshlarni texnologiyalar dunyosida ma’naviy tanazzuldan asrash orqali kuchli, bilimli, axloqan yetuk avlodni tarbiyalash mumkin. Bu esa nafaqat Uchinchi Renessansning, balki xalqimizning yorqin kelajagining kafolatidir.

Uchinchi Renessans g‘oyasini amalga oshirishda axloqiy qadriyatlarni tiklash va kommunikativ tarbiyani takomillashtirish strategik vazifadir. Buning uchun quyidagi takliflar muhim:

— Ta’lim dasturlarida kommunikativ kompetensiyalarni rivojlantiruvchi maxsus fanlar joriy etish;

— Internet va ommaviy axborot vositalarida ma’naviy-ma’rifiy kontentni ko‘paytirish;

— Oila va maktab o‘rtasida muntazam ma’naviy muloqot platformalarini tashkil etish;

— Yoshlar o‘rtasida media savodxonlik va axborot madaniyatini oshirish bo‘yicha loyihalarni kengaytirish.

Foydalanilgan adabiyotlar va manbalar

1. **Jo‘rayev, B.** (2022). *Yangi O‘zbekiston va Uchinchi Renessans g‘oyasi*. Toshkent: Ma’naviyat. – 10, 15, 22 bet.
2. **Karimov, I.** (2021). *Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch*. Toshkent: O‘zbekiston. – 19, 37 bet.
3. **Karimov, N.** (2020). *Axloqiy qadriyatlar va ma’naviyat asoslari*. Toshkent: Ma’naviyat. – 7, 12, 15, 28, 50 bet.
4. **Mirziyoyev, Sh. M.** (2021). *Yangi O‘zbekiston strategiyasi*. Toshkent: O‘zbekiston. – 35, 50, 57, 120 bet.
5. **Nosirova, M.** (2021). *Ma’naviy-ma’rifiy ishlarning samaradorligi: nazariya va amaliyot*. Toshkent: Ilm ziyo. – 30, 88 bet.
6. **Sodiqova, G.** (2020). *O‘zaro muloqot madaniyati va kommunikativ kompetensiyalar*. Samarqand: Registon. – 63, 92 bet.
7. **Xoliqov, O.** (2022). *Yoshlar tarbiyasida kommunikativ yondashuv*. Toshkent: Fan va texnologiya. – 15, 38, 42 bet.
8. **Xolmatov, R.** (2023). *Axloqiy tarbiya va yoshlar*. Buxoro: Zarafshon. – 30, 45, 60, 79 bet.
9. **Yo‘ldoshev, D.** (2022). *Globallashuv va yoshlar ma’naviyati*. Andijon: Universitet. – 28, 47 bet.

JADID MUTAFAKKIRLARINING DAVLAT BOSHQARUVI TO‘G‘RISIDAGI G‘OYALARI

Shonazarov Jamshid Shuhratovich
f.f.n., dotsent, Shahrisabz davlat pedagogika instituti
e-mail: jshonazarov1981@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada O‘rta Osiyo Sharq mamlakatlarida davlat boshqaruvi to‘g‘risidagi g‘oyalarning rivojlanib borishi, keyingi davrlarda jadid mutafakkirlari tomonidan davlat va jamiyat boshqaruviga oid g‘oyalarning takomillashtirilishiga e’tibor qaratiladi.

Kalit so‘zlar: davlat, jamiyat, boshqaruv, jadid, O‘rta Osiyo, Sharq, mamlakat, davlat boshqaruvi, burjua, Turkiston, ma’rifatparvarlar, davlat boshqaruvi.

Annotation: In this article, attention is given to the development of ideas about state governance in the countries of Central Asia and the East, as well as to how these ideas were later conceptualized and promoted by the Jadid intellectuals in relation to state and social administration.

Keywords: state, society, governance, Jadid, Central Asia, East, country, state administration, bourgeoisie, Turkestan, enlighteners, state management.

Аннотация: В данной статье анализируется формирование и развитие идей о государственном управлении в странах Востока и Средней Азии. Особое внимание уделяется тому, как в последующие периоды джадидские мыслители способствовали теоретическому осмыслению и практическому применению концепций, связанных с государственным и общественным управлением.

Ключевые слова: государство, общество, управление, джадиды, Средняя Азия, Восток, страна, государственное управление,просветители,буржуазия, Туркестан.

Sharqda davlat va jamiyat boshqaruvini, umuman siyosiy munosabatlarning axloqiy qadriyatlarga bo‘ysunishini tasavvuf ta’limotida yaqqol ko‘rishimiz mumkin. Aslida, tasavvufning mohiyati inson va uning Xudoga munosabatidir, ya’ni solihning Xudoga yetishishidir. Ma’lumki, tasavvuf falsafasi O‘rta Osiyo hududiga islom dini kirib kelishi va uning kelajakda rivojlanib, takomillashib borishi natijasida yuzaga keldi. Ya’niki, davlat va jamiyat boshqaruvini demokratlashtirish, erkinlik, erkin fikrlilik va shaxs erkinligiga oid qarashlar, konsepsiyalar tasavvuf ta’limotida o‘zining batafsil ahamiyatini topgan hamda ijtimoiy hayot munosabatlarida keng ma’noda amaliy jihatdan yoritilgan.

Tasavvufning xalq va millat orasidagi eng katta yutug‘i shunda ediki, u avval boshidan boyishga intilish, adolatsizlik, zo‘ravonlik kabi ijtimoiy illatlarni qoralovchi, insonlarning Xudo

oldidagi tengligini, kambag‘al, faqir va yo‘qsillarga nisbatan insoniy munosabatda bo‘lish zarurligi haqidagi demokratik xarakterdagi aqidalarga ega edi. Bu esa, tasavvuf va u bilan bog‘liq madaniyatga yaqqol ifodalangan umuminsoniy erkinlik yo‘nalishini bergan. Shu sababli tasavvuf keng xalq ommasi, ayniqsa quyi tabaqalar orasida chuqur ijtimoiy zamin topgan edi.

Tasavvuf shariatdan tashqarida faoliyat olib borolmas edi. Shariat uning ichki va tashqi nazoratchisi hisoblanar edi. Shariat islomga daxldor bo‘lganligi bois u nafaqat huquqiy, balki diniy, axloqiy va marosimiy jihatlarni ham o‘z doirasiga olgan hamda o‘z nazorati ostida tutgan. Shuningdek, u ijtimoiy va shaxsiy hayotning barcha mayda-chuydalariga o‘ta sinchkovlik va talabchanlik bilan yondashgan.

Shariat insonning erkinlikka ega bo‘lishi, nikoh, oila, ajralish, jamiyat hayoti, mol-mulkka egalik, umuman huquq, xususan jinoiy huquq, davlat xazinasi, soliqlar, meros, moliyaviy tartiblar, tijorat va hokazolar haqidagi qonun-qoidalarni o‘z ichiga olgan. Shariat huquqiy masalalar bilan bir qatorda axloqiy va diniy-hayotiy munosabatlarni, marosim va urf-odatlarni ham o‘z ichiga olgan. Qur’on, Sunna, Ijmo‘ va Qiyos shariat manbalari deb topilgan.

O‘rta Osiyo xalqlari islom dini va uning g‘oyalari sharofati bilan ma’naviy-axloqiy hamda ilmiy-ma’rifiy taraqqiyotda olamshumul yutuqlarga erishdilar, jahon madaniyati hamda sivilizatsiyasi ravnaqiga munosib hissa qo‘shdilar. O‘z navbatida, islom dini va ilohiyotini O‘rta Osiyolik ulug‘ allomalarning ijodiy faoliyatisiz, arab-musulmon madaniyati, ilm-fan va falsafaning tarixiy yutuqlarini Imom Ismoil al-Buxoriy, Imom Iso at-Termiziy singari buyuk muhaddislar, Burhoniddin Marg‘inoniy singari mashhur fiqhshunoslar, Abu Nasr Forobiy, Muso al-Xorazmiy, Ahmad Farg‘oniy, Abu Rayhon Beruniy, Ibn Sino kabi o‘nlab olim va mutafakkirlarning ilmiy-falsafiy merosisiz tasavvur etib bo‘lmaydi.

Yurtimizda XVI asrning ikkinchi yarmida yuzaga kelgan siyosiy turg‘unlik va ixtiloflar haqida muhtaram Yurtboshimiz shunday ta’kidlaydilar: “...yana bir masalaga alohida to‘xtalib o‘tmoqchiman: ming afsuski, o‘n oltinchi asrning ikkinchi yarmidan boshlab Markaziy Osiyo zaminida ichki urush va nizolar, hokimiyat uchun kurash avj oldi. Ayirmachilik va mahalliychilik kuchaydi, ma’rifat o‘rniga johillik ildiz otib bordi. Natijada, bir paytlar gullab-yashnagan o‘lkamizda ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy inqiroz yuzaga keldi, ilm-fan va tafakkur mash’ali so‘na boshladi. Yurtimizning XIX asrga kelib qaramlikka tushib qolishida ana shunday salbiy holatlar hammamizga yaxshi ayon” [1].

Turkiston xalqlarining boy ijtimoiy-falsafiy, diniy-axloqiy va madaniy taraqqiyotida XIX asrning ikkinchi yarmi hamda XX asrning birinchi choragidagi davr o‘zining nihoyatda sermazmun va inqilobiy suronligi, g‘oyaviy-nazariy hamda mafkuraviy harakat shakllarining xilma-xilligi bilan ajralib turadi. Bu holat ijtimoiy taraqqiyotning o‘ziga xos yo‘nalishi edi.

Ayni chog‘da, Turkiston xalqlari Chor Rossiyasining mustamlaka zulmidan qutulish, milliy davlatini barpo etish, o‘z milliy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy taraqqiyoti zamini uchun yo‘l ochishga qat’iy kirishgan edilar. Bu jarayonlarning yetakchi kuchi — milliy savdo va sanoat burjuaziyasi bo‘lib, u juda katta qiyinchiliklar bilan bo‘lsa-da, xalqimizning tub iqtisodiy-siyosiy va ma’naviy manfaatlarini himoya qiladigan nazariy asos — jadidlar ma’rifatchiligini shakllantirib, uni har tomonlama qo‘llab-quvvatlab kelgan.

XIX asrning oxiri va XX asr boshlarida yurtimizda “qadimchilar” va “jadidlar” oqimlari yuzaga keldi. Hayotda ro‘y berayotgan turli o‘zgarishlarni o‘rganish, umummilliy qadriyatlarimizni jahon taraqqiyoti talablari nuqtayi nazaridan tahlil etish borasida Ismoilbek G‘aspiraliy, Mahmudxo‘ja Behbudiy, Sufi-zoda, Saidrasul Aziziy, Munavvarqori, Abdulla Avloniy, Cho‘lpon, Fitrat kabi ilg‘or ziyolilar katta yutuqlarga erishdilar [2, 58].

Aslida, jadidchilik Turkistonda millatning erkinligi va manfaatlarini himoya qilishga, xalqlarning demokratik hamda milliy vatanparvarlik uyg‘onishiga qaratilgan, yuksak ijtimoiy-siyosiy mavqega ega bo‘lgan umummilliy mafkura edi. Uning dastlabki shakllanish kurtaklari Ahmad Donish, Muqimiy, Furqat nomlari bilan bog‘liq bo‘lib, ular asoslab bergan g‘oyaviy maqsadlar Munavvarqori, Behbudiy, Fitrat, Cho‘lpon, Zavqiy, Avloniy, Hamza, Ayniy, Tavallo, Ajziy va boshqalarning ta’limotlarida umumturkiy, umummilliy manfaatlarni aks ettiruvchi mafkura darajasiga ko‘tarilgan edi.

Jumladan, Behbudiy, Fitrat, Avloniy [3,88] va Munavvarqori [4,54] kabi taraqqiyparvar ziyolilarning asarlarida jadidlar milliy g‘oyasining asosiy bo‘g‘ini – Turkistondagi barcha mahalliy xalqlarni birlashtirish g‘oyasi ekani yaqqol ko‘rinadi. Bu haqda Behbudiy shunday degan edi: “Agar biz Turkiston musulmonlari xohlasakki, din va millatimizni ittifoq etib, bugundan islohotga, ittifoqqa qadam qo‘ysak, ziyoli va taraqqiyparvarlarimiz, boylar va ulamolarimiz birlashib, din va millat rivoji uchun xizmat etsak, shunda biz boshqalarga qaram bo‘lmaymiz” [5,60]

Ayni paytda, jadidlar g‘oyasining markazida O‘rta Osiyo xalqlari hayotidagi mustamlakachilik siyosatining asorati, ma’naviy-ma’rifiy va siyosiy qoloqlik hamda milliy istiqlolga erishish orqali davlat va jamiyat boshqaruvini isloh qilish, uning negizida axloqiy qadriyatlar ustuvorligini ta’minlash masalalari ko‘tarilgan edi.

Bunday muammolarning o‘z davri va bugungi kun uchun ham dolzarbligini Turkiston xalqining ozodligi va milliy mustaqilligi uchun kurashchi Alixontura Sog‘uniy quyidagi fikrlari bilan tasdiqlaydi: “Mustamlaka zulmi ostiga tushib qolishimizning birinchi sababi — xonliklar davrida yuzaga kelgan ittifoqsizlikdir. Hozirgi davrda millatimiz manfaatini dunyo siyosati darajasida to‘la himoya qilish uchun Turkiston xalqlari, davlatlari, birinchi navbatda, mintaqaviy ittifoqqa birlashmoqlari zarur. Shundagina, bu ittifoqning yarata oladigan qudratli siyosiy va iqtisodiy salohiyati dunyo siyosatdonlarini undagi davlatlar manfaatini hurmat qilishga majbur eta oladi. Aks holda, tarixiy sharoitda kuchsiz davlatlar yana qudratli davlatlarning qurboniga aylanadi. Turkiston davlatlari birlashishlari uchun tabiiy asos mavjud. Bu — tarix, yurt va madaniyat birligi, umumiy din va til birligidir” [6,343].

Demak, turkiy qavmlar birlashgan, bir-birlarini qo‘llab-quvvatlagan davrlarda ushbu mintaqada qudratli davlatlar shakllanib, dunyo tamadduniga hamda siyosiy muvozanatga ijobiy ta’sir ko‘rsatganlar. Bu holat ayniqsa Kushonlar, Eftali ylar, Turk xoqonligi, Somoniylar, Xorazmshohlar va Temuriylar davrida yaqqol namoyon bo‘lgan. Aynan shu davrlarda Markaziy Osiyo xalqlari jahon siyosiy sahnasida hal qiluvchi mavqe egallagan.

“Millat ozod bo‘lib, o‘zining mustaqil davlatini o‘rnatmaguncha, ijtimoiy adolatni tiklab bo‘lmasligi Behbudiyning birinchi xulosalaridan edi”, — deydi B. Qosimov [7,13].

Ta’kidlash lozimki, bunday g‘oya milliy istiqlolchilik harakatining asosini tashkil etgan. Jadidlarning ijtimoiy-siyosiy faoliyatining asosiy mazmuni mamlakatni mustaqillikka olib chiqish, millatning ongi va tafakkurini tubdan o‘zgartirish, ularni eskirgan diniy tasavvurlardan xalos etib, yangi dunyoviy ilmlar bilan tanishtirish, demokratlashtirish tamoyillarini hayotga joriy etish, inson erkinligi va fikr erkinligi darajasini yuksaltirish kabi ilmiy-amaliy konsepsiyalardan iborat edi.

Bu maqsadlarga erishishning yagona yo‘li millatni ma’rifat sari yetaklash, uni ijtimoiy-siyosiy qatlamlarini tubdan isloh qilish sanalib, turli yangi usuldagi maktablar, nashriyotlar, zarur bo‘lsa, san’at yo‘nalishida teatrchilik faoliyatlarini tashkil etishdan iborat edi.

Bu, avvalo, Turkiston xalqlarining mustaqillikka, istiqlolga bo‘lgan ishonchi va dunyo hamjamiyatiga qo‘shilish orzusining yuksakligidan dalolat beradi. Bu borada jadidlar o‘z oldilariga qo‘ygan maqsadlar yo‘lida jamiyatning barcha qatlamlarini jalb etgan, mustaqillik uchun kurash olib borgan.

Jadidlar Turkistonda respublika vakolatiga kiradigan masalalar bo‘yicha qonunlarni nashr etish, hokimiyat, boshqaruv va sudning oliy organlarini tashkil etish, davlat tuzilmalarini yaratish kabi masalalarga jiddiy e’tibor qaratganlar. Shu tariqa demokratik jamiyatni shakllantirish ustuvor maqsad qilib qo‘yilgan. Unda demokratik huquq va erkinliklarning berilishi hamda konstitutsiyaviy kafolatlanishi masalalari ko‘zda tutilgan.

Bu borada Behbudiyning “Turkiston madaniy muxtoriyati loyihasi” [8,8] nomli dasturi bevosita jadidlarning Turkistonda demokratik davlat qurishning nazariy asoslarini yaratishga bo‘lgan intilishlarini ifoda etadi.

Jadidchilik harakati Turkiston xalqlarining ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma’rifiy va milliy uyg‘onish tarixida tub burilish yasagan hodisa bo‘ldi. Bu harakat millatni jaholatdan xalos etish, uni zamonaviy ilm-fan, demokratiya va erkin fikrlash sari yetaklashni o‘z oldiga maqsad qilib

qo‘ydi. Jadid mutafakkirlari davlat boshqaruvining asosini axloqiy qadriyatlar, ma’rifat, adolat va insonparvarlik tamoyillariga tayanishi zarurligini ilgari surdilar.

Ularning nazarida taraqqiyotning kaliti — xalqning ongi va tafakkurini o‘zgartirish, yangi dunyoqarashni shakllantirish, ilm-ma’rifatni ommalashtirish hamda milliy birlikni mustahkamlashda edi. Behbudiy, Fitrat, Avloniy, Munavvarqori kabi ziyolilar demokratik jamiyat, konstitutsiyaviy boshqaruv, milliy o‘zlikni anglash va Turkiston xalqlarining birligiga asoslangan mustaqil davlat tuzish g‘oyalarini ilgari surdilar.

Jadidlarning fikricha, mustaqil, adolatli va ma’naviy jamiyatni barpo etish uchun siyosiy islohotlar bilan bir qatorda ma’naviy uyg‘onish, axloqiy poklanish va ma’rifatparvarlik zarur edi. Shunday ekan, jadidchilik nafaqat o‘tmishdagi tarixiy hodisa, balki bugungi O‘zbekiston jamiyatida ham dolzarb bo‘lgan erkinlik, adolat, taraqqiyot va ma’naviyat qadriyatlarining mafkuraviy ildizidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Shavkat Mirziyoyevning O‘qituvchi va murabbiylar kuniga bag‘ishlangan tantanali marosimda so‘zlagan “O‘qituvchi va murabbiylar – Yangi O‘zbekistonni barpo etishda katta kuch, tayanch va suyanchimizdir” mavzusidagi nutqi. 2020 yil, 30 sentyabr. https://president.uz/uz/lists/view/3864
2. Nazarov Q. Qadriyatlar falsafasi. Toshkent: 2004. – B. 12.
3. Avloniy A. Tanlangan asarlar. 1–2 jildlar. Toshkent: “Ma’naviyat”, 1998.
4. Behbudiy M. Tanlangan asarlar. Toshkent: “Ma’naviyat”, 1999; Fitrat A. Tanlangan asarlar. 1–3 jildlar. Toshkent: 2000.
5. Abdurashidxonov M. Xotiralarim. Toshkent: “Sharq”, 2001.
6. O‘zbekistonning yangi tarixi. 2-kitob. Toshkent: “Sharq”, 2000. – 343-bet.
7. Sog‘uniy Alixontura. Turkiston qayg‘usi. 1-kitob. Toshkent: “Sharq”, 2003. – 13-bet.
8. Qosimov B. Milliy uyg‘onish. Toshkent: “Ma’naviyat”, 2002. – 8-bet.
9. Behbudiy M. Turkiston madaniy muxtoriyati loyihasi. // Jahon adabiyoti. Toshkent: 2009. – 146-bet.

ПРОБЛЕМЫ ВЗАИМОДЕЙСТВИЯ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА И ОБЩЕСТВА В ФИЛОСОФСКОМ КОНТЕКСТЕ

Межевникова Ольга Петровна
доктор философии (PhD) по философским наукам
доцент кафедры «Философия и национальная идея»
Ташкентский государственный
технический университет (Узбекистан)
olgamejevnikova@gmail.com

Annotatsiya: sun'iy intellekt mavzusi insoniyat kelajagi nuqtai nazaridan eng muhimlaridan biridir. Uning salohiyati insonning tur sifatida mavjudligiga katta tahdid soladi. Ushbu maqolaning dolzarbligi shundaki, insoniyat mavjudligining xavfsizligi robototexnika va jamiyatni axborotlashtirish strategiyasi ajralmas qismi bo'lgan sun'iy intellekt tizimi nuqtai nazaridan ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: sun'iy intellekt, xavfsizlik, robototexnika, nanoindustriya, kiber makon.

Аннотация: тема искусственного интеллекта - одна из самых важных в контексте будущего человечества. Его потенциал представляет большую угрозу существованию человека как вида. Актуальность данной статьи заключается в том, что безопасность бытия человечества рассматривается с точки зрения системы искусственного интеллекта, неотъемлемой частью которой являются сферы робототехники и стратегии информатизации общества.

Ключевые слова: искусственный интеллект, безопасность, робототехника, наноиндустрия, киберпространство.

Abstract: The topic of artificial intelligence is one of the most important in the context of the future of mankind. Its potential poses a great threat to human existence as a species. The

relevance of this article lies in the fact that the security of human existence is considered from the perspective of artificial intelligence, integral parts of which are nanotechnology, robotics, and societal informatization strategies.

Key words: artificial intelligence, security, robotics, nanotechnology, cyberspace.

Сегодня несомненно, что внедрение систем искусственного интеллекта в повседневную жизнь человека имеет фундаментальное значение. Искусственный интеллект не только меняет способы принятия решений и выполнения задач, но и влияет на социальные взаимодействия, экономические модели и даже на философские аспекты нашего существования.

Стремительное развитие наноиндустрии и технологий, связанных с искусственным интеллектом, подрывает традиционные представления о человеке как о биосоциальном существе, «одновременно живущего в разных мирах: не только в мире физических и биологических процессов, но и в мире культуры, не только в мире естественном, но и в мире искусственном» [1, 6]. Возможности систем искусственного интеллекта действительно поражают. Такие системы способны полностью заменить человека, например, при управлении воздушным, наземным, водным транспортом, предоставлении некоторых медицинских услуг (экспертные системы), предоставлении образовательных услуг, производстве и т.д. Но подобное взаимодействие человека с искусственным интеллектом таит в себе угрозы безопасности как личности, так и общества, государства в целом. Обеспечение безопасности человечества четко проявляется в процессах локализации социогенных источников опасности, а именно, «деятельности социальных институтов, структур, субъектов с сознательной или бессознательной деструктивной направленностью» [2, 28].

В этом контексте важно рассмотреть, как новые технологии могут изменять наше восприятие человеческой сущности, а также как они влияют на наши ценности и социальные отношения.

С одной стороны, технологии открывают новые горизонты для научных и социальных достижений, позволяя улучшать качество жизни и расширять возможности. С другой стороны, возникает вопрос о том, как эти изменения могут трансформировать наше понимание себя и окружающего мира. Важно учитывать эти аспекты, чтобы найти баланс между технологическим прогрессом и сохранением человеческой идентичности.

В изучении проблем взаимосвязи искусственного интеллекта и безопасности социума особое внимание уделяется вопросам, связанным со сложностями при создании современной технологической базы (средств, методов) для проектирования компьютерных систем, способных решать интеллектуальные задачи, например, в области робототехники; с весьма неоднозначными процессами, направленными на создание и формирование более эффективной безопасной образовательной среды в целях модификации возможностей головного мозга человека, «перезагрузкой сознания», новыми механизмами мышления, генетическими, психическими и особенностями личности, погружаемой в суперкомпьютер.

Стремление современных ученых изменить траекторию развития и осуществить тотальную переориентацию «человека природного» на «человека техногенного» с применением методов эвристического кибернетического моделирования, вероятно, может привести к качественному изменению природной сущности человека, появлению киборгов и трансформации общественных отношений. Здесь система искусственного интеллекта понимается как результат некой деятельности человека, способного логически размышлять, контролировать и управлять своими действиями, выражать свои чувства и эмоции, способного обосновать и скорректировать свои решения в зависимости от изменяющихся условий окружающей среды. Искусственный интеллект — это высокий результат достижений техногенной цивилизации, сложная система взаимосвязей (глобальные поисковики) и основа для создания всеобъемлющих информационных системных образований. В ближайшей перспективе активное применение компьютерных

технологий, нанобиотехнологий может позволить переформатировать поведение человека, изменить общественные отношения и повлиять на экзистенциональные характеристики личности. «Сегодня экономическое и социальное развитие во всё большей степени начинает определяться нано-, био-, информационными и когнитивными технологиями. Они стали возможны на основе научного изучения соответствующих процессов» [1, 5]. Следовательно, системы искусственного интеллекта, учитывая достижения в сфере современной робототехники, реализуют в полной мере возможности наноиндустрии с возможностью одновременного обучения и взаимодействия с пользователем системы на естественном языке. Данные аспекты рассматривали такие ученые, как И.П. Павлов в концепции обучения и самоорганизации живых организмов; А.А. Ухтомский в работах о доминантах модели поведения; В.М. Бехтерев, на исследованиях которого основываются современные проекты по созданию киборгов, созданию систем искусственного интеллекта, понимающих человеческую речь. Однако остается нераскрытым вопрос о духовной экзистенции, являющейся «самым высоким измерением онтологической структуры человека» [3, 20].

Сегодня также актуален вопрос о создании базы смысловой обработки визуально получаемой информации, которая позволит искусственному интеллекту воспринимать, понимать и расшифровывать графические объекты.

В современном социуме объективно появляется потребность в актуализации концептуальных построений, расширяющих возможности познания киберпространства, так как «с помощью информационно-коммуникационных технологий можно воздействовать на сознание человека и даже программировать его. Вообще, сегодня многие науки о человеке становятся во все большей степени поставщиками средств управления человеческим существом, проектирования его телесности и психики» [1, 4].

Алгоритм социального развития, как сегодня отмечается многими отечественными и зарубежными учеными, свидетельствует о том, что государство может и должно обеспечить стабильность, устойчивый рост и особенно безопасность современного общества только посредством высокого уровня развития науки, информационной культуры, промышленности, т.е. развитой высокоинтеллектуальной индустрии [4, 4]. Действительно, общая цель, форма и содержание информационной образовательной стратегии, формирующей личность человека, претерпевают изрядные изменения и оптимизацию относительно современных условий.

Вопросы проблем эволюции интернет-технологий зиждется на вопросах компьютеризации и развития технической и технологической составляющей процессов информатизации, глобальных процессов модернизации автоматизированных систем организации государственного управления, создания единого киберпространства, изменяя, в некоторой степени, природу человека. В связи с этим в будущем у человека «будут отсутствовать некоторые качества, которые до сих пор осложняли человеческую жизнь: он будет рационален, а не эмоционален, ряд традиционных ценностных установок у него просто исчезнут. В перспективе он может быть бессмертным, а его сознание перенесено с биологического носителя (каким является человеческое тело) на цифровой» [1, 5]. Конечно же, современные информационные технологии способствуют изменению ценностей, стереотипов, форм поведения, модели взаимоотношений индивидов, групп индивидов, политических институтов и органов государственной власти. Поэтому очевидна взаимосвязь сферы обеспечения защиты общества от воздействия систем искусственного интеллекта, их потенциала, применяющихся в области разработки, обеспечения и использования в различных сферах жизнедеятельности человека, в том числе и киберпространстве, оказывающем «огромное влияние на развитие экономики, политической жизни, культуры, техносферы, военного дела. Киберпространство представляет исключительно быстро развивающуюся область, причем все ещё плохо познанную (в значительной мере в силу того, что его познание требует как естественнонаучных и технических знаний, так и гуманитарных и общественнонаучных)»

[6, 19]. Следовательно, в процессе эволюции киберпространства можно выделить некие черты действительности, трансформирующие реальность, тем самым изменяя потенциал, способности личности и общественные отношения в целом. Поэтому процесс обеспечения безопасности достаточно специфичен, в особенности с неповторимой многочисленной палитрой религиозно-культурных особенностей, ценностей, ментальности, провоцирующих новые потребности в формировании интересов и мировоззрения личности в рамках сложившихся условий современного информационного общества.

Процесс формирования и развития сферы безопасности современного информационного общества можно охарактеризовать историей его развития, коммуникационной архитектурой, изменениями геополитики, что приводит к возникновению опасностей, угроз, связанных с киберпространством. Нарастающие темпы развития информационного общества заключаются в интенсивном преобразовании, системности кризисов практически во всех сферах жизнедеятельности человека, а глобализация информационных потоков в киберпространстве - специфическая составляющая не только человека (рефлексия), но и общества в целом. Поэтому можно сделать следующий вывод: знания современного человека, его интеллект должны обеспечивать положительную динамику эволюции цивилизации, а не уничтожать экосистему, в том числе и человечество. Известен тот факт, что человек отличается от всех живых существ, поскольку способен познать социальное пространство, обладает речью, сознанием, интеллектом, способен накапливать знания, воздействовать на окружающий мир и созидать. Но необходимо помнить о постоянном непрерывном изменении сущности человека, а его объективная реальность «скрепляется в подобие целостности религиозными учениями, переселением народов, образованием единого информационного пространства, свободным обращением финансов, капиталов и мозгов. Человечество стремится согласовать деятельность в глобальных размерах, привлекая науку» [7, 105].

В заключение отметим, что системы искусственного интеллекта относятся к плавной, широкомасштабной, глобальной информационной макроэволюции, которые в полной мере трансформируют современного человека в человека техногенного, что влечет за собой применение методов кибернетического моделирования, нейропрограммирования, компьютерного моделирования наносистем. В связи с этим применение компьютерных технологий, использование нанобиотехнологий, глобальная актуализация киберпространства влияет не только на ценности, но и на поведение, форму общения, мировоззрение личности, что видоизменяет сущность бытия человека и оказывает воздействие на сферу безопасности общества, посредством взаимодействия пользователя и искусственного интеллекта на естественном языке в киберпространстве, обусловленном высокими достижениями человечества в сферах наноиндустрии, биоинженерии, биоинформатики и робототехники.

Литература

1. Лекторский В.А. Возможны ли науки о человеке? // Вопросы философии. 2015. № 5. С. 3-16.

2. Бачинин В.А. Политология. Энциклопедический словарь. СПб.: Изд-во Михайлова В.А., 2005. 288 с.

3. Лебедев С.А., Лазарев Ф.В. Многомерный человек: онтология и методология исследования. М.: Изд-во МГУ, 2010. 96 с.

4. Филин С.А. Механизм реализации инновационной политики. М.: ИНИЦ Роспатента, 2005. 286 с.

5. Абдрахманое Д.В. Информационное общество как объект конституционно-правового регулирования: к постановке проблемы // Проблемы права. 2015. № 5. С. 41-47.

6. Кокошин А.А. Национальные интересы, реальный суверенитет и национальная безопасность // Вопросы философии. 2015. № 10. С. 5-21.

7. Букреее В.И. Человек агрессивный (Истоки международного терроризма). М.: Флинта: МПСИ, 2007. 336 с.

JAMIYATDA OILAVIY TADBIRKORLIK VA IQTISODIY QADRIYATLARNI RIVOJLANTIRISHDA XOTIN-QIZLARNING ROLI (IJTIMOIY-FALSAFIY JIHATLARI)

Davletov Jamshid Bekmatovich
Urganch RANCH texnologiya universiteti dotsenti,
falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
davletovjamshid7@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada xotin-qizlarni oilaviy tadbirkorlik sub'ektlariga aylanishiga yordam beruvchi etnomadaniy, etnopsixologik, demografik, aksiologik omillar tahlil qilinadi hamda ularning oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish va jamiyatda iqtisodiy qadriyatlarni mustahkamlashdagi o'rni ijtimoiy-falsafiy jihatlari ochib beriladi.

Kalit so'zlar: Iqtisodiy qadriyatlar, oilaviy tadbirkorlik, gender tenglik, etnomadaniy omil, psixofiziologik omil, aksiologik omil, demografik omil, ijtimoiy faoliyat.

Аннотация: В статье анализируются этнокультурные, этнопсихологические, демографические и аксиологические факторы, способствующие становлению женщин субъектами семейного предпринимательства, раскрываются социально-философские аспекты их роли в развитии семейного предпринимательства и укреплении экономических ценностей в обществе.

Ключевые слова: Экономические ценности, семейное предпринимательство, гендерное равенство, этнокультурный фактор, психофизиологический фактор, аксиологический фактор, демографический фактор, социальная активность.

Abstract: This article analyzes the ethnocultural, ethnopsychological, demographic, and axiological factors that contribute to women becoming family business subjects, and reveals the socio-philosophical aspects of their role in the development of family entrepreneurship and the strengthening of economic values in society.

Key words: Economic values, family entrepreneurship, gender equality, ethnocultural factor, psychophysiological factor, axiological factor, demographic factor, social activity.

Har qanday ijtimoiy faoliyat negizida shaxslarning ehtiyoj, qiziqish va talablari yotadi. Mazkur sub'ektiv hodisalar ijtimoiy faoliyatni kim, qanday shaxslar amalga oshirishini aniqlashni taqozo etadi. Shaxs mexanik tarzda jamiyat hayotiga aralashmaydi, u ijtimoiy faoliyatni o'zining hayotiy maqsadi, mavjudligining sharti, ongli mavjudotligining ifodasi ekanini anglagandagina faollik ko'rsatadi, u yoki bu faoliyat turini tanlaydi. "Insonning vazifasi uning ongli faoliyatidadir" [1; 278.]. Aristotelning bu fikrini davom ettirib, Gegel' yozadi: "Kishi qanday bo'lsa, uning ishi ham shundaydir" [2; 142].

Tadbirkorlik va biznes shaxsning kimligini, u qanday ijtimoiy, ichki ma'naviy fazilatlarga, bilim va dunyoqarashlarga ega ekanini ko'rsatuvchi hodisadir. CHet ellik olimlar J.S.Mill', O.Kont, A.Marshall, G.Menk'yu, J.P.Betbez, Y.Shumpeterlarning fikricha, tadbirkorlik shaxsga erkinlik, o'z ehtiyojlarini qondirish, farovon yashash imkonini beradi [3; 4]. Demak, tadbirkorlik shunchaki iqtisodiy fenomen emas, u siyosiy-huquqiy, madaniy va ruhiy-ma'naviy ahamiyatga ham egadir. Shaxs tadbirkorlikni ijtimoiy zarur faoliyat ekanini anglagan zahoti o'z mehnatiga, ko'rsatadigan xizmatiga mas'ulligini his etadi. Eng muhimi shundaki, uning ijtimoiy faoliyati jamiyatdagi iqtisodiy munosabatlarga, kishilarning, iste'molchilarning davlatning iqtisodiy siyosatiga munosabatlari shakllanishini idrok etadi. O'z paytida Nobel' mukofoti laureati, taniqli jamiyatshunos F.A.Xayek "erk bilan jamiyat farovonligi bir-biriga zid voqeliklar emas, balki ular bir-birini taqozo etadi" [5; 103], - deb yozgan edi. Demak, tadbirkorning erki "o'zi o'zi uchun" emas, balki jamiyat, uning farovonligi uchundir. Bu o'rinda tadbirkor erki bilan jamiyat talabi o'rtasidagi ziddiyat birinchisining mavqeini va erkini mahv etishga, sindirishga olib kelmaydimi? Axir jamiyat talabi mohiyatan shaxs erkidan keng, u har qanday individual erkni o'ziga bo'ysundirishga qodir, degan savol uyg'onadi.

Jamiyat farovonligini ta’minlovchi umummanfaatlarga itoat etish, xizmat qilish tadbirkor erkini kamsitmaydi. Inson erkini umummanfaatlarga xizmat qilish doirasida amalga oshirib o‘z erkini namoyon qiladi, jamiyat esa bunday erkdan manfaatdordir. Manfaatlar uyg‘unligi bo‘lmagan joyda manfaatlar to‘qnashuvi, kurashi yuzaga keladi, bu esa xaosga, boshboshdoqlikka olib keladi. Jamiyat farovonligi shaxsiy va umumiy manfaatlar garmoniyasi tufayli real voqelikka aylanadi. To‘g‘ri, faylasuf, iqtisodchi kollektivizm (umumiy manfaatlar) va totalitarizm (umumiy manfaatlarga etish usuli) o‘rtasida uzviylik bog‘liq, deb biladi, xatto totalitarizm asosini kollektivizmda ko‘radi [1; 106]. lekin u kollektivizmning (kommunitarizm, jamoaviylik, umumiylik) ijobiy tomoni borligini, Sharqona hayot tarzi kollektivizm orqali barqaror ekanini ko‘rmaydi. Umuman, F.A.Xayekning bozor iqtisodiyoti, inson erki, neoliberal g‘oyalari G‘arb iqtisodiyotini tahlil qilishdan kelib chiqqan. Biroq uning “Markazlashgan boshqaruv” haqidagi salbiy fikrlarining to‘g‘riligini sovet mafkurasi va iqtisodiyotining inqirozi tasdiqladi. Bozor iqtisodiyoti bilan markazlashgan boshqaruv, rejalashtirish bir-biriga nafaqat inson erki, jamiyat farovonligiga erishish, shuningdek mohiyatan bir-birlariga zid voqeliklardir. Aynan inson erkini, uning iqtisodiy demokratik huquqini jamiyat farovonligining, zamonaviy цivilizaцiya mavjudligining asosi deb biladi [1; 109]. Ushbu fikrida u neoliberalizm tarafdori R.Dal’ tarafdori, u bilan hammaslakdir [6; 35].

Xotin-qizlarning oilaviy tadbirkorlikdagi ishtiroki o‘zining turli jihatlariga, immanent xususiyatlariga ega. Ularni psixofiziologik, etnomadaniy, etnopsixologik, demografik, aksiologik nuqtai nazardan qarab chiqish mumkin.

Ayol va erkak bir turga oid mavjudotlar bo‘lsa-da, ular psixofiziologik nuqtai nazardan turlichadir. AQShlik tadqiqotchilar Allan va Barbara Pizning yozishicha mazkur psixofiziologik farqlar shunchalik chuqurki, ularni hisobga olmaslik ikki jinsni bir-biriga antogonistlar sifatida qarshi qo‘yishga olib keladi. Har qanday ijtimoiy faoliyatni ayol boshqacha, erkak boshqacha bajaradi [7; 6-10]. Biznes va tadbirkorlikdagi ayol va erkak munosabatlarini tadqiq etgan g‘arb mutaxassislari ham bir xil vazifaga ayol boshqacha, erkak boshqacha yondashishini qayd etadilar. Ularning fikricha, biznes va tadbirkorlikda xotin-qizlar ishtiroki oshayotgan bo‘lsa-da, “erkak biznesda katta o‘yinchi”, ayollar esa “konservativ biznes tarafdorlari sifatida biznesga katta o‘yin sifatida qarashdan qochishga intiladilar. Ayollar, erkaklarga nisbatan bozor strategiyasiga qiyinchilik bilan moslashadilar. Ularning oylik maoshi erkaklar oylik maoshining o‘rtacha 65 % ga yaqindir” [8; 468-469]. Bu farqlarni psixofiziologik omillardan keltirib chiqarish to‘g‘ri emas, albatta. Biroq ishga, faoliyatga munosabatlarda ularning ta’siri borligini inkor qilib bo‘lmaydi.

Xotin-qizlarning tadbirkorlik va biznesda ishtirok etishiga ular o‘zlashtirgan etnomadaniy an’analar, etnomadaniy muhit katta ta’sir etadi. Shaxs mudom ma’lum bir etnomadaniyat mahsuli, ifodachisidir. Ayniqsa Sharq ayollarida, ularning ijtimoiy faoliyatga, vazifalariga munosabatlarida etnomadaniy an’analar ta’siri yaqqol sezilib turadi. O‘zbek etnomadaniyatining ijtimoiy-falsafiy va estettik jihatlarini maxsus tadqiq etgan O.Nishonovaning qayd etishicha, o‘zbek xotin-qizlari etnoan’analarning asosiy asrovchisi, avlodlarga etkazuvchisi va ommaviy targ‘ibotchisi bo‘lib kelgan. Ular etnomadaniyatning ham ob’ektlari, ham chin sub’ektlaridir [9; 124-129]. Agar ushbu fikrdan kelib chiqsak, o‘zbek ayollari o‘zlashtirgan etnomadaniy an’analarni tadbirkorlik va biznesga ham tadbiq etish yoki ularga tayanib faoliyat olib borishi tabiiy hol ekanini anglaymiz. Masalan, respondentlarimizga “Omadingiz kelib bir million AQSh dollari daromad qilsangiz uni nimalarga sarflar edingiz?” degan savol bilan murojaat etdik. Natijada “Uy qurardim” (82 %), “O‘g‘limni uylantirardim” (80 %), “Yubiley, to‘y o‘tkazardim” (71 %), “Linkol’n sotib olardim” (60 %), “Bankka qo‘yardim” (52 %), “Dunyoni aylanardim” (40 %), “Tadbirkorlikni kengaytirardim” (28 %), “Xayr-sadaqa qilardim” 4 % degan javoblarni oldik. “Uy qurardim”, “O‘g‘limni uylantirardim”, “Yubiley, to‘ylar o‘tkazardim” degan javoblar respondentlarimizdagi etnomadaniy an’analarni ifoda etadi. Ularning 28 % biznesini kengaytirishni istaydi.

Etnopsixologik omillar etnomadaniy an’analar bilan uyg‘un keladi. Ular goho sinonim, aynan voqeliklar sifatida talqin etiladi.

Etnopsixologik tadqiqotlar ko‘rsatadiki, shaxs o‘z xalqi, millati mentaliteti ta’siridan xoli yashamaydi, xatto uzoq yillarda boshqa, yot muhitda yashagan kishilar ham undan qutulmaydi.

Masalan 1930 – 1937- yillarda chet ellarga ketib qolgan vatandoshlarimiz hamon o‘z yurti, tug‘ilgan makoni, xalqi an’analarini, tili va turmush tarzini yodida, o‘yida saqlab yashaydi.

O‘zbek xotin-qizlari borlig‘iga singgan etnopsixologik an’analar va tushunchalar goho ularning xalqaro biznesda faol qatnashishiga xalaqit beradi. Bugun transmilliy korporaciyalar tuzib jahon bozorida faoliyat yuritayotgan o‘zbek tadbirkor ayoli yo‘q. Xotin-qizlarimiz salbiy etnostereotiplardan, ayniqsa tadbirkorlikka xalaqit beruvchi uyatchanlik, kamtarlik, erkakka tik qaramaslik, unga itoatda yashash kabilardan voz kechgani ma’qul. Ular shuni esda tutishi kerakki, tadbirkorlik va biznes kishini ishbilarmonlar dunyosiga tanitadi, unga obro‘, mavqe, maqtov olib keladi, eng uddaburonlari, siyosat bilan qiziqqanlari, xuddi AQSh prezidenti Tramp kabi boshqaruvning eng cho‘qqisiga chiqishi mumkin. “General bo‘lishni havas qilmaydigan kishidan yaxshi askar chiqmaydi”.

Demografik omil ziddiyatli ta’sir etadi. U bir tomondan ayolning tabiat in’om etgan tug‘ish va bolani oyoqqa qo‘yish funkciyasi bilan bog‘liq, boshqa tomondan, ayolni uyga, xo‘jalikka bog‘lab, eriga qaram qilib qo‘yadi. Aynan mazkur ziddiyatli omilni hal etish niyatida O‘zbekistonda oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirishga kirishilgan. Keyingi ikki yilda O‘zbekistonda xotin-qizlarni tadbirkorlikka, biznesga jalb etish, oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish maqsadida kreditlar ajratish 2 barobarga oshirildi. 2022 – 2025-yillarda, uch yil ichida xotin-qizlar tadbirkorligiga banklar 7 trillion 800 milliard so‘m kredit ajratgan bo‘lsa, birgina 2025-yili ular 3 trillion 361 milliard so‘m kredit ajratgan. Respublikamiz Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning 2019-yil 7-martda imzo chekkan “Xotin-qizlarning mehnat huquqlari kafolatlarini yanada kuchaytirish va tadbirkorlik faoliyatini qo‘llab-quvvatlashga oid chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarorida xotin-qizlarni ish bilan ta’minlash, oilaviy tadbirkorlikka jalb etish, ularda o‘z biznesini tashkil etish ko‘nikmalarini shakllantirish, o‘qitish, Xotin-qizlarni va oilani qo‘llab-quvvatlash jamoat fondi orqali mablag‘lar bilan yordam berish kabilar dolzarb vazifalar ekani uqtiriladi. Ayollar tadbirkorligi gender tenglik masalasi hamdir [10; 1-2]. Prezidentimiz xotin-qizlarning tadbirkorlik va biznesdagi huquqlarini ta’minlash uchun “Erkaklar va ayollar uchun teng huquqlar va imkoniyatlar kafolatlari to‘g‘risida”, “Xotin-qizlarni tazyiq va zo‘ravonliklardan himoya qilish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonunlarini qabul qilish zarurligini ta’kidlaydi.

Tadbirkorlik va biznes shaxsga obro‘, hurmat, sharaf keltiradi, ular mehnat ahlini qadrlashga va ijtimoiy-iqtisodiy qadriyatlarni ezozlashga o‘rgatadi. Qadrlangan mehnat shaxsda qiziqish, innovaciyaga intilish, yangi xizmat turlarini o‘ylab topish istagini uyg‘otadi. Tadbirkorlik ijtimoiy faoliyat sifatida jamiyat va davlat tomonidan qadrlanganida ijobiy, kreativ voqelikka aylanadi, yoshlarda tadbirkor bo‘lishga qiziqish uyg‘otadi. Bugun oilaviy biznesda faol qatnashayotgan xotin-qizlarlar kam emas. Ikki millionga yaqin oilalar tadbirkorlik va biznesning u yoki bu turlari bilan shug‘ullanishadi. To‘g‘ri, ular ichida madaniy-maishiy xizmat ko‘rsatishga qaratilgan tadbirkor oilalar etakchi o‘rinda turadi. Tikuvchilik, qandolatchilik, kasanachilik kabi xizmat turlari ko‘rsatish keng tarqalgan. Qishloq joylarida asosan oilaviy fermerlik va dehqonchilik ko‘proq uchraydi. Shaharlarda ko‘plab xotin-qizlar ma’rifiy, tibbiy, savdo-sotiq xizmatlari ko‘rsatishda xizmat qilishadi. Biz qaysi shahar va viloyatlarga qanday xizmatlar kerakligini aniq bilishimiz, keyin ushbu “yo‘l xaritasi”ga muvofiq oilaviy tadbirkorlikni shakllantirishimiz zarur.

REFERENCES

1. Аристотель. Сочинения. Т. 2. – Москва: Мысль, 1972.
2. Гегель. Работи разных лет. – Москва: Гослыт из дат, 1957.
3. Милль Ж.С. Основы политической экономии. Т. 1. – Москва: Прогресс, 1980.
4. Шумпетер Й. Теория экономического развития. – Москва: Прогресс, 1982.
5. Хаек Ф.А. Общество свободных. – Москва: АСТ, 1980.
6. Даль Р. Введение в экономическую демократию. – Москва: Наука, СП “ИКПА”, 1991.
7. Аллан и Барбара Пиз. Как заставить мужчину слущать, а женщину мольчать. Почему мы такие разные, но так нужны друг другу. – Москва: Эксмо, 2006.
8. Ильин Э.П. Пол и гендер. – СП. 6.: Питер, 2010.
9. Nishonova O. O‘zbek etnomadaniyatining estetik mohiyati. – T.: Fan, 2013.

10. Qarang: Xalq so‘zi, 2019, 2-mart.

JAMIYAT VA TABIAT DIALEKTIKASI: INSON FAOLIYATINING FALSAFIY TAHLILI

Aripova Zulfiyaxon Solijonovna
Andijon davlat texnika instituti “Tillar va gumanitar fanlar” kafedrasi dotsenti
zulfiyaxonaripova@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur tezisda jamiyat va tabiat o‘rtasidagi dialektik munosabatlar falsafiy tahlil asosida ko‘rib chiqiladi. Inson faoliyatining tabiiy muhitga ta’siri, iqlim o‘zgarishi, barqaror rivojlanish va ekologik ong muammolari zamonaviy ilmiy manbalar asosida tahlil qilinadi. Tadqiqotda IPCC (2023), IPBES (2019) va boshqa xalqaro tashkilotlar hisobotlari, shuningdek O‘zbekiston misolida yashil iqtisodiyotga o‘tish jarayonlari o‘rganilgan. Tezisning asosiy xulosasi shundan iboratki, jamiyat va tabiat o‘rtasidagi uyg‘unlikni ta’minlash insonning ekologik ongini rivojlantirish, axloqiy mas’uliyatni kuchaytirish va barqaror siyosatni shakllantirish bilan chambarchas bog‘liq.

Kalit so‘zlar: jamiyat, tabiat, dialektika, ekologik ong, barqaror rivojlanish, yashil iqtisodiyot, Anthropocene, falsafa.

Аннотация: В данной тезисной работе рассматриваются диалектические отношения между обществом и природой с философской точки зрения. Анализируется влияние человеческой деятельности на природную среду, изменение климата, проблемы устойчивого развития и экологического сознания. Использованы современные источники, включая отчёты IPCC (2023), IPBES (2019), а также примеры перехода к «зелёной экономике» в Узбекистане. Основной вывод исследования заключается в том, что гармония между обществом и природой требует развития экологического сознания, усиления моральной ответственности и формирования устойчивой государственной политики.

Ключевые слова: общество, природа, диалектика, экологическое сознание, устойчивое развитие, зелёная экономика, Антропоцен, философия.

Abstract: This thesis explores the dialectical relationship between society and nature through a philosophical lens. It examines the impact of human activity on the natural environment, climate change, sustainable development, and ecological consciousness. The study draws on modern scientific sources, including IPCC (2023) and IPBES (2019) reports, and analyzes Uzbekistan’s transition toward a green economy. The main conclusion emphasizes that harmony between society and nature depends on the development of ecological awareness, moral responsibility, and sustainable governance policies.

Keywords: society, nature, dialectics, ecological consciousness, sustainable development, green economy, Anthropocene, philosophy.

Jamiyat va tabiat o‘rtasidagi dialektik munosabat — zamonaviy falsafaning markaziy muammolaridan biridir. Inson tabiatning ajralmas qismi bo‘lishi bilan birga, ong va mehnat orqali tabiatni o‘zgartiruvchi, yangi ijtimoiy-madaniy shakllar yaratishga qodir mavjudotdir. So‘nggi o‘n yilliklarda insoniy faoliyat er yuzasining fizik, kimyoviy va biologik jarayonlariga qaratilgan ta’siri shunchalik kengaydiki, olimlar va siyosatchilar “Anthropocene” — inson yaratilgan geologik davr — konsepsiyasini muhokama qilmoqda; bu esa jamiyat-tabiat munosabatlarini falsafiy qayta o‘ylashni talab etadi [7].

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganidek: “Tabiat — bu bizning milliy boyligimiz, uni asrab-avaylash, ekologik muvozanatni saqlash — kelajak avlodlar oldidagi eng muhim burchimizdir. Inson tabiat bilan uyg‘un yashamaguncha, haqiqiy taraqqiyot haqida gap bo‘lishi mumkin emas.”[1]

Mazkur tezisning maqsadi — jamiyat va tabiat dialektikasini falsafiy jihatdan tahlil etish, inson faoliyatining tabiatga ijobiy va salbiy ta’sirlarini ko‘rsatish hamda barqaror rivojlanish va ekologik ongning falsafiy asoslarini muhokama qilishdir.

Tarixiy nuqtai nazar. Antik va zamonaviy falsafa inson-tabiat munosabatiga turlicha yondashgan. An'anaviy tabiat falsafasi insonni tabiatga bog'liq, tabiat qonunlariga bo'ysunuvchi mavjudot sifatida ko'rgan bo'lsa, yangi davrning ba'zi oqimlari insonni tabiatni boshqaruvchi sub'ekt deb ta'rifladi. Biroq XXI asrda paydo bo'lgan ekologik muammolar inson markazchiligini qayta ko'rib chiqishni talab qildi [7].

Anthropocene konsepsiyasi insoniyat tarixini va Yer tizimlarini bir-biriga bog'laydi — ya'ni ijtimoiy jarayonlar endi geosferik oqibatlarga ega. Bu vaziyat insonni yangi axloqiy va epistemologik majburiyatlar oldiga qo'yadi: inson tabiatni o'zgartirish qobiliyatiga ega bo'lgan paytda uning harakatlari butun sayyoraning barqarorligiga ta'sir qilishi mumkin [7].

So'nggi yillarda chiqarilgan global baholashlar insonning tabiatga ta'siri haqidagi dalillarni yanada kuchaytirdi. IPCCning 2023-yilda chiqarilgan AR6 Synthesis Reporti iqlim tizimidagi o'zgarishlarning insoniy faoliyat bilan bevosita bog'liqligini ko'rsatadi [2]. IPBESning 2019-yilgi Global Assessment hisobotida tabiatning keng ko'lamli degradatsiyasi, ko'plab tur turlarining yo'qolish xavfi, yer va dengiz ekosistemalarining keskin o'zgargani ta'kidlangan [3].

Inson o'zining mavjudligini tabiat bilan uyg'unlikda anglasa, u o'z faoliyatida nafaqat foydani, balki muvozanatni ham mezon sifatida tanlaydi [8]. Bu yondashuv zamonaviy ekologik falsafa bilan uyg'un bo'lib, global ekologik muammolarni hal qilishda axloqiy ongning rolini ta'kidlaydi. Inson faoliyatining tabiiy resurslarga qaratilgan intensivligi ijtimoiy strukturalarga ham ta'sir qiladi: migratsiya, resurslar ustidan raqobat, sog'liq muammolari va ijtimoiy notinchliklar paydo bo'lishi mumkin. Shu jihatdan, tabiat bilan munosabatlarni boshqarish siyosati va iqtisodiy institutlar jamiyat barqarorligi uchun markaziy ahamiyat kasb etadi.

2015-yilda BMT tomonidan qabul qilingan Barqaror rivojlanish maqsadlari (SDGlar) iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik omillarni uyg'unlashtirishga qaratilgan universal mexanizmni taklif etadi [4]. Jahon banki O'zbekiston uchun ham "yashil o'tish" strategiyalarini ishlab chiqmoqda: resurs samaradorligini oshirish, landshaftlarni tiklash, past-karbon energiya manbalariga o'tish [5].

So'nggi yillarda O'zbekistonda chiqindilardan energiya olish loyihalari e'lon qilindi. 2024-yilda $1.3 mlrd qiymatdagi chiqindilarni energiyaga aylantirish loyihalari amalga oshirilmoqda [6]. Bu jarayonlar ekologik siyosatning amaliy natijalarini ko'rsatadi.

Ekologik ong — inson tabiatga bo'lgan mas'uliyati, sistemali fikrlash va kelajak avlodlarni inobatga olish majburiyatini anglash darajasi — falsafiy jihatdan insonning o'z-o'zini anglashining yangi bosqichi hisoblanadi [7]. Barqaror siyosat va axloqiy me'yorlar (masalan, kelajak avlod huquqi, ekologik adolat) ijtimoiy institutlar tomonidan qabul qilinishi kerak. Shu yo'sinda falsafa amaliy siyosiy qarorlar uchun nazariy asos bo'lib xizmat qiladi.

Xulosa. Jamiyat va tabiat dialektikasi amaliy, axloqiy va siyosiy qarorlar qabul qilishga bevosita ta'sir ko'rsatadi. So'nggi ilmiy baholashlar insoniy faoliyatning global tizimlarga yetkazayotgan zarari haqida ogohlantiradi [2][3]. Anthropocene davrida insonning mas'uliyati kengayadi va bu mas'uliyat axloqiy va madaniy qayta tuzilishni talab qiladi. Yashil iqtisodiyotga o'tish va resurslarni oqilona boshqarish ustuvor yo'nalishlardir [4][5].

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sh.M. Mirziyoyev, "Yangi O'zbekiston strategiyasi", Toshkent: O'zbekiston, 2021-y.
2. IPCC. Climate Change 2023: Synthesis Report.
3. IPBES. Global Assessment Report on Biodiversity and Ecosystem Services, 2019.
4. United Nations. Sustainable Development Goals (SDGs), 2015.
5. World Bank. Towards a Greener Economy in Uzbekistan.
6. Reuters. "Uzbekistan announces $1.3 bln in waste-to-energy projects", 2024.
7. Hamilton, C. Defiant Earth: The Fate of Humans in the Anthropocene. Polity, 2017.
8. Aripova, Z. (2020). Inson va tabiat o'rtasidagi uyg'unlik falsafasi. O'zbekiston falsafa jurnali, №3, 45–52.

FUQAROLIK JAMIYATIDA HUQUQIY MADANIYATNI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI

Sagdullayeva Dilbar Shuxratovna
falsafa fanlari nomzodi, dotsent
Muhammad al-Xorazmiy nomidagi TATU
sagdullaevadilbar14@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada yoshlar ijtimoiylashuvining omillaridan biri bo‘lgan huquqiy madaniyat, uning demokratik, huquqiy, ijtimoiy davlat barpo etishdagi roli asoslangan. Huquqiy ong, huquqiy madaniyatning tarkibiy tuzilishi, mohiyati falsafiy tahlil etilib, ular elementlarining o‘zaro uzviy aloqasi o‘rganilgan. Maqolada faylasuf olimlarning huquqiy madaniyatga doir qarashlari qiyosiy tahlil etilgan. Jamiyat taraqqiyoti uchun huquqiy ong va huquqiy madaniyat uyg‘unlashuvi zaruriyati asoslanilib, ulardagi buzilishlar, uni keltirib chiqaruvchi omillar, bartaraf etilishiga xizmat qiluvchi vositalar haqida mulohaza yuritilgan.

Kalit so‘zlar: demokratiya, huquqiy davlat, fuqarolik jamiyati, huquqiy ong, huquqiy madaniyat, ijtimoiy ong shakllari, ma'naviyat, iqtisodiyot, madaniyat, huquqiy ong buzilishlari, infantilizm, nigilizm, jinoyatchilik.

Аннотация: Статья посвящена правовой культуре, являющейся одним из факторов социализации молодёжи, её роли в построении демократического, правового, социального государства. Философски анализируются структура и сущность правосознания, правовой культуры, исследуется взаимосвязь их элементов. В статье проводится сравнительный анализ взглядов философов на правовую культуру. Обосновывается необходимость гармонизации правосознания и правовой культуры для развития общества.

Ключевые слова: демократия, правовое государство, гражданское общество, правосознание, правовая культура, формы общественного сознания, духовность, экономика, культура, нарушения правосознания, инфантилизм, нигилизм, преступность.

Abstract: The article is devoted to the legal culture, which is one of the factors of youth socialization, its role in building a democratic, legal, social state. The structural structure and essence of legal consciousness, legal culture are philosophically analyzed, and the interrelationship of their elements is studied. The article provides a comparative analysis of the views of philosophers on legal culture. The necessity of harmonizing legal consciousness and legal culture for the development of society is substantiated, and the violations in them, the factors causing them, and the means of eliminating them are considered.

Keywords: democracy, legal state, civil society, legal consciousness, legal culture, forms of social consciousness, spirituality, economy, culture, violations of legal consciousness, infantilism, nihilism, crime.

Mamlakatimizda demokratik fuqarolik jamiyatini barpo etish yo‘lida olib borilayotgan islohotlar samaradorligi barkamol insonni tarbiyalash jarayonlariga bevosita bog‘liqdir. Zero, fuqaroning ijtimoiy faolligi oshgani sari fuqarolik jamiyati tuzilmalari rivoji shuncha tezlashadi. Ijtimoiy faollik daxldorlik hissining ortishi bilangina cheklanmay, tabiiy va ijtimoiy sohalarga oid bilim va ko‘nikmalar takomilini, ulardan foydalanib yashash malakasini qamrab oladi. Rivojlanayotgan har qanday davlat taraqqiy etishda o‘z ilmiy salohiyatiga tayanadi. Fan va amaliyot intensiv aloqadorligini ta'minlash bizdan nafaqat bilimdon, ijodkor insonni, balki ma'naviy-ma'rifiy salohiyati yuqori mutaxassisni tarbiyalashni talab etadi.

Shuningdek, O‘zbekistonda jamiyat barcha sohalarini modernizatsiya qilish va erkinlashtirish, siyosiy-huquqiy va iqtisodiy tizimni demokratik yangilash vazifasi yoshlarning dunyoqarashi, ongu tafakkuri, siyosiy-huquqiy saviyasi, madaniyatini va ijtimoiy faolligini yuksaltirishni, huquqiy munosabatlar barcha ishtirokchilarining huquqiy savodxonligini yanada oshirish, huquqiy madaniyatini takomillashtirishni talab etmoqda. Zero, fuqarolar ongida «Jamiyatda qonunlarga hurmat ruhini qaror toptirish – demokratik huquqiy davlat qurishning garovidir!» [1] degan hayotiy g‘oyani mustahkamlashning ahamiyati yuqoridir.

Bugungi globallashuv davri imkoniyatlari esa ushbu jarayonga to‘siq bo‘layotgan qator omillarga keng yo‘l ochib bermoqda.

Dunyo miqyosida yoshlar vakillarining ekstremistik, terroristik faoliyatga aralashuvi ular orasida huquqbuzarlik, jinoyatchilik kabi illatlarning o‘sib borayotganligining guvohimiz. O‘zR Prezidenti Sh.Mirziyoyev tomonidan BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasidagi nutqida xalqaro terrorizm va ekstremizmning ildizini boshqa omillar bilan birga jaholat va murosasizlik tashkil etishiga, bunda yoshlar ongu tafakkurini ma'rifat asosida shakllantirish va tarbiyalash eng muhim vazifa ekanligiga urg‘u berildi. “Sayyoramiz ertangi kuni, farovonligi farzandlarimizning qanday inson bo‘lib kamolga yetishi bilan bog‘liq. Bizning asosiy vazifamiz – yoshlarning o‘z salohiyatini namoyon qilishi uchun zarur sharoitlar yaratish, zo‘ravonlik g‘oyasi “virusi” tarqalishining oldini olishdir” [2]. Darhaqiqat, inson hayotiy pozitsiyasining qadriyatlarga asoslanganlik darajasi uning jamiyatdagi mavqyeini belgilaydi. Buni fuqaroning siyosiy-huquqiy borliqqa munosabatidan kelib chiqib yuzaga kelgan huquqiy ong buzilishlari asosida tahlil qilish mumkin. Huquqiy ong buzilishlarini to‘laqonli tadqiq etish esa o‘z navbatida, huquqiy ong, huquqiy madaniyat mohiyatini tahlil etishni talab qiladi.

Ma'lumki, har bir jamiyatda amal qiluvchi ijtimoiy ong shakllarida millatning ruhiy, ma'naviy qiyofasi in'ikos etadi. Ijtimoiy ongning shakllari jamiyat a'zolarining tafakkuri, ruhiyati, ma'naviy dunyosi asta-sekinlik bilan o‘zgarib borishiga olib keladi. Huquqiy ong jamiyatda demokratik tamoyillarning qaror topishi, ularning ijtimoiy munosabatlarga singib borishida katta kuchga egadir. O‘z navbatida, jamiyat huquqiy ongining takomillashuvi yuksak huquqiy ong sub'ekti bo‘lgan, demokratik taraqqiyotga monand yangi tipdagi insonning shakllanishi bilan uyg‘unlikda kechadi.

Huquqiy ong inson ma'naviyatining asosiy bo‘g‘inlaridan biridir. Shu sababli inson ma'naviyatining mohiyati va darajasini huquqiy ongsiz tasavvur etib bo‘lmaydi. Jamiyat rivojlangan sari huquqiy ong, huquqiy madaniyat bilan bog‘lanib, ma'naviy qadriyatlar tizimida toboro muhimroq o‘rin egallab boraveradi.

Ushbu masalani tadqiq etgan olimlarning bir guruhi huquqiy ong va huquqiy madaniyatni inson ma'naviyatining tarkibiy qismi sifatida talqin etadilar. Ular fikricha, huquqiy ong shaxs ongida, jamiyat g‘oyalarida namoyon bo‘lgan huquqdir. Huquqiy ong huquq va qonuniylikka munosabatdagi e'tiqodlar, tasavvurlar, baholar, his-tuyg‘ular va ma'naviyatning boshqa tarkibiy qismlari tizimidir.

S.Otamurodov fikricha, huquqiy madaniyat - qonunni tushunish, bilish, hayotga tadbiq etish, ijrosini ta'minlash va har bir shaxs, fuqaroning ijtimoiy hayotda faol ishtiroki va bunday faollikni boshqalardan ham talab qilish jarayonidir. Huquqiy madaniyatni, avvalo, insonning ichki dunyosi, ichki madaniyati, umuminsoniy an'analarga va huquqiy bilimlarga bo‘lgan munosabatlari belgilaydi [3, 98].

Ushbu nuqtai nazarda, eng avvalo, huquqiy madaniyat inson, uning ichki dunyosi, dunyoqarashidan kelib chiquvchi va uni belgilovchi faoliyatisiz, bunday faoliyat va tafakkurning taraqqiyparvar yo‘nalishisiz mavjud bo‘la olmasligiga urg‘u beriladi. Zero, haqiqiy huquqiy madaniyat tarixiy ijobiy huquqiy tajribani e'tiborga olmasdan mavjud bo‘la olmaydi.

Yuqorida ko‘rilgan nuqtai-nazarning birida huquqiy ongning darajasi jamiyatning iqtisodiy ahvoliga taqalsa, ikkinchisida huquqiy ongni, huquqiy madaniyatni insonning ichki dunyosi belgilashiga urg‘u beriladi. Bizningcha, huquqiy ong va huquqiy madaniyat sub'ekti bo‘lgan inson (fuqaro) iqtisodiy munosabatlar ta'siriga berilmay qolmasligidan kelib chiqib, bu ikki ijtimoiy fenomenning mohiyatini faqat inson ma'naviyatiga olib borib taqash mumkin emas.

Uchinchi nuqtai-nazarga ko‘ra, huquqiy taraqqiyotni madaniy borliqning birgina elementi - xo‘jalik madaniyatidan qidirish iqtisodiy materializmga, yoki uni faqat ma'naviyatga bog‘lab qo‘yish sub'ektivizmga olib kelishi ta'kidlanib, jamiyatning rivojlanish (xususan, huquqiy kamolot) mezoni sifatida madaniy borliqning sifat darajasi ko‘rsatiladi [4, 25].

Uchinchi nuqtai-nazar huquqiy madaniyatni madaniy borliqning tarkibiy qismlaridan biri sifatida baholaydi. “Huquqiy madaniyat huquqiy hayotning ishlov berib yaratilgan qismi, yadrosi, mavjudligi, rivojlanish va amal qilishining asosi. Huquqiy madaniyatning substansional

elementlari: 1) inson va uning mikro va makro birliklarining huquqiy mavjudot – sub'ekt sifatida namoyon bo‘lishlari; 2) anglangan huquqiy ehtiyoj va manfaat; 3) huquqiy ong va bilish; 4) huquqiy faoliyatning birinchi bosqichi – huquq ijodkorligi; 5) huquqiy faoliyat natijalari - rasmiy manbai va vositalari; 6) huquqni realizatsiya qilish (huquqiy faoliyatning ikkinchi bosqichi). Bu elementlarning yuzaga kelishiga ongli, maqsadli harakat xosdir, shuning uchun ham ular huquqiy madaniyatning tub mohiyatini tashkil etuvchi tomonlardir” [5,26].

Ushbu yondashuvda ilgari surilayotgan fikrga ko‘ra, huquqiy ong, bilish, baholash huquqiy borliq, jumladan, huquqiy madaniyatning gnoseologik asoslari va tizimni tashkil etuvchi substansional elementlaridir. Ushbu elementlar huquqiy borliq yuzaga kelishining motivi va yashash usuli o‘rtasidagi bog‘lovchi xalqa rolini o‘taydi. Bunga ko‘ra huquqiy ong madaniy hodisa bo‘lib, huquqiy hayotga ishlov berish jarayonining gnoseologik asosidir. Huquqiy ongning manbai huquqiy ehtiyoj bo‘lib, uning o‘zi navbatdagi fikrlash jarayoni uchun manba vazifasini bajaradi.

To‘rtinchi nuqtai-nazarga ko‘ra, huquqiy madaniyat ikki tarkibiy qism - huquqiy ong va huquqiy ijtimoiylashuvdan iboratdir [6,44-45]. Huquqiy madaniyatga nisbatan ushbu yondashuvni quyidagi nuqtai-nazar bilan asoslash mumkin. Ma'lumki, huquqiy ong asosini tashkil etuvchi huquqiy bilimlar insonga ijobat va ta'qiqlarni farqlash, o‘z qonuniy huquq va manfaatlarini himoya qila olish imkoniyatini beradi. Biroq bu sohada olib borilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, qonunga xilof faoliyat bilan shug‘ullanuvchilar, jinoyatchilarning huquqiy savodxonlik darajasi, qonun doirasida faoliyat yurituvchi fuqarolar huquqiy bilimlaridan yuqoridir. Shundan kelib chiqib, shaxsning o‘z huquqiy ehtiyojlariga erishishda huquqiy madaniyat me'yorlari va an'analarini o‘zlashtirib, faoliyat yuritishi huquqiy madaniyatning asosini tashkil etadi. Bu yondashuvning mohiyati oldingi nuqtai-nazarlardan keskin farq qilmaydi.

Rossiyalik olimlar asarlarida huquqiy ong “ijtimoiy ong shakllaridan biri” yoki “huquqiy voqyelikni aks ettiruvchi ma'naviy ong sohasi” sifatida talqin etiladi [7]. Huquqiy madaniyat esa xilma-xil omillar asosida o‘rganiladi. Mavjud manbalarni o‘rganish asosida aytishimiz mumkinki, huquqiy madaniyat kategoriyasining mohiyatiga doir haligacha aniq, yakdil yondashuv mavjud emas. Mutaxassislarning ko‘rsatishicha, huquqiy madaniyatga 250 dan ortiq ta'riflar berilgan. Bu esa ushbu ijtimoiy hodisaning qanchalik murakkab, serqirra ekanligidan dalolat beradi.

Ma'lumki, fuqaro tomonidan mavjud huquqiy talablarning anglab bajarilishi uning huquqiy madaniyatlilik darajasini namoyon qiladi. Shu nuqtai-nazardan, mavjud yondashuvlarning biriga ko‘ra, “anglab yetilgan huquq – huquqiy madaniyatning asosi bo‘lib xizmat qiladi” [8, 19]. A.Vengerov fikricha, huquqiy madaniyat “huquqiy ongning nisbatan yuksak va keng ko‘lamli shakli” [9, 492] dir. Ushbu ikkita ta'rif o‘zaro yaqin bo‘lib, ularda huquqiy ongning yuqori darajasi huquqiy madaniyatning asosi sifatida e'tirof etiladi. Huquqiy madaniyat faqat ideal sohaga taalluqli deb ko‘rsatilib, bunda ijtimoiy huquqiy faoliyat va uning natijalari inobatga olinmaydi.

T.Sinyukova fikricha, huquqiy madaniyat inson amaliy faoliyatining “muayyan jamiyatda odamlarni ijtimoiy–huquqiy yo‘naltirish funksiyasini bajaruvchi me'yorlar, qadriyatlar, yuridik institutlar, jarayonlar va shakllarni o‘z ichiga oluvchi” [10, 473] sohasidir.

Demak, o‘rganilgan asarlardan kelib chiqib aytish mumkinki, ularda huquqiy madaniyat huquqiy voqyelikka daxldor ham ma'naviy, ham moddiy qadriyatlarni qamrab oluvchi umumiy madaniyatning o‘ziga xos ko‘rinishi sifatida talqin etilgan. Huquqiy madaniyat huquqning amal qilishi, uning inson tafakkuri va xatti-harakatida aks etishini ifodalashiga urg‘u berilgan. Huquqiy madaniyat o‘z vazifalarini to‘liq bajarishi, fuqaroda qonun doirasidagi xulq-atvorning shakllantirilishi uchun faqat huquqiy ongning o‘zi emas, balki huquqiy va axloqiy ongning uyg‘unligiga erishish lozim. Zero, yuksak huquqiy madaniyat demokratik jamiyat poydevori hamda huquqiy tizim yetukligining ifodasidir.

Bizningcha, huquqiy madaniyat jamiyatdagi turli xil hayotiy jarayonlarga faol ta'sir ko‘rsatuvchi, fuqarolarning, barcha ijtimoiy guruhlarning jipslashuviga ko‘maklashuvchi, jamiyatning yaxlitligi hamda batartibligini ta'minlovchi va mustahkamlovchi omildir. Qonunni hurmat qilish huquqiy davlatning, siyosiy va huquqiy tizimlar samarali faoliyat ko‘rsatishining asosiy talablaridan biri hisoblanadi.

Bizningcha, keng va faol huquqiy ong, huquqiy madaniyatning bir qismi bo‘lib, davlat va huquqiy voqyealar haqidagi g‘oyalar, qarashlar, his-tuyg‘ular, fikrlar, kayfiyatlar tizimidir. Huquqiy ongda huquqiy ruhiyat va huquqiy mafkura muhim o‘rin tutadi.

Huquqiy madaniyatning o‘zagini shunchaki muayyan bilimlar yig‘indisigina emas, balki irodaviy va mafkuraviy dastur, fuqarolik faoliyati ko‘nikmalari, xulq-atvorning barqaror ko‘rinishlari ham tashkil etadi. Z.Islomov fikriga ko‘ra, huquqiy madaniyat shaxs kamolotida o‘ziga xos sifat bosqichini namoyon etib, mafkuraviy (tafakkur madaniyati, ijtimoiy tajribani tahlil qilish va umumlashtirish, yangi ijtimoiy hodisalarni ijodiy mushohada etish), hissiy-ruhiy (bilimning chinligiga ishonch), amaliy xulq-atvor (siyosiy va huquqiy yechimlarni realizatsiya qilishga qodirlik va tayyorlik) kabi darajalarni qamrab oladi. Huquqiy madaniyatning o‘zagini, ijtimoiylashuv va fuqaroviy madaniyatning shakllanishi tashkil etadi [11, 421-422].

Fuqaroviy madaniyat fuqarolik jamiyatining muhim unsurlaridan biridir. Fuqarolik jamiyatining negizini tashkil etuvchi iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy, huquqiy va madaniy plyuralizm shaxs va fuqaro huquqlari hamda erkinliklari asosida o‘rnatiladi. Demak, siyosiy va huquqiy madaniyat fuqaroviy madaniyatning negizini tashkil etib, u esa, o‘z navbatida, yuqori darajadagi ma'naviy barkamollikning ifodasi bo‘lib hisoblanadi.

Huquqiy ong huquqiy ruhiyat va huquqiy mafkuradan iborat bo‘lgan murakkab tuzilmadir. Huquqiy xarakterdagi ruhiy his-tuyg‘ularda insonning huquq tajribasi bilan bog‘langan sub'ektiv kechinmalari o‘z ifodasini topadi. Demak, huquqiy ong deformatsiyalari yoshlikdan berilgan tarbiyaning darajasi, fuqaroning huquqqa, amaldagi qonunchilikka munosabatidan kelib chiqadi.

Huquqiy infantilizm (lot.infantilis - bolalarcha) [12, 188] - huquqiy ong buzilishining nisbatan yumshoqroq shakli bo‘lib, huquqiy bilim va dastur yoki e'tiqod tizimining yetarli darajada shakllanmaganligi bilan tavsiflanadi. Bu asosan zararli odatlar ta'sirida voyaga yetgan, yetarli tarbiya va ta'lim olmagan kishilarga xosdir.

Huquqiy nigilizm (lot.nihi-hyech nima) [13, 340] - hech qanday ideallarga bog‘liq bo‘lmagan mutlaq inkor qilish nuqtai-nazaridir. Huquqiy nigilizm mohiyatan huquqqa, qonunlarga, normativ tartibga salbiy inkor etuvchi, hurmatsizlik kayfiyatida bo‘lishdir. Jamiyatimiz a'zolarining ayrim o‘rta yoshdagi vakillari hamda yoshlarning muayyan qismida huquqqa, amaldagi huquq tartibotiga ishonchsizlik, hurmatsizlik bilan munosabatda bo‘lish hollari yaqqol namoyon bo‘layotganligini kuzatish mumkin. Ushbu holat sub'ektiv omillar bilan birga o‘tish davri qiyinchiliklari, huquqiy tizimdagi ayrim kamchiliklar negizida namoyon bo‘lmoqda.

Huquqiy nigilizm qonun talablarini ongli ravishda inkor etish bo‘lsa-da, hyech qanday jinoiy niyatsiz amalga oshiriladi. Yovuz niyatning mavjudligi huquqiy ong deformatsiyasining eng og‘ir shaklini keltirib chiqaradi. Aynigan huquqiy ong qonunni shunchaki inkor etib qolmasdan, balki buni g‘arazlilik, shafqatsizlik, nafs buzuqligidan kelib chiqib amalga oshiradi. Aynigan huquqiy ong namoyon bo‘lishining asosiy shakli jinoyatchilik hisoblanadi.

Davlatimiz boshlig‘i jinoyatchilikning oldini olish, davlat idoralari va jamiyatning bu boradagi mas'uliyatini oshirish masalalariga bag‘ishlangan videoselektor yig‘ilishida shunday degan edi: «Agar hamma birdek jon kuydirib, oilalar muammolaridan to‘liq xabardor bo‘lib, ularni hal etishga ko‘maklashgan, jinoyatchilikning barvaqt oldini olganda edi, bugun natijalar umuman boshqacha bo‘lardi. Har bir jinoyatning ildizigacha yetib borish, jamiyatda jinoyatchilikka qarshi kurashish immunitetini shakllantirish kerak. Aks holda, jinoyatning oqibatlari bilan ovora bo‘lib yuraveramiz» [14].

Huquqiy nigilizm huquqqa nisbatan iste'molchilik munosabati sifatida jinoyatchilar dunyosining madaniyatini belgilab beradi. Huquqiy borliq jarayonlarining tahlili shuni ko‘rsatadiki, yoshlarning bir qismida huquqiy qadriyatlarga nisbatan befarqlik qaror topgan. Yoshlar huquqni bilmasliklarini namoyish qilayotgan bir vaqtda huquqbuzarlar, odatda, o‘zlarining huquqiy jihatdan, ayniqsa, jinoyat huquqi sohasida bilimdonliklarini ko‘rsatmoqdalar. Biroq ular ham bular ham nuqsonli, past huquqiy ongga egadirlar.

Individual hamda ijtimoiy omillarning o‘zaro ta'sirida yuzaga keluvchi huquqiy ong deformatsiyalarining oldini olishda jazolash choralarining kuchaytirilishi ham, huquqiy bilimlarning ko‘r-ko‘rona singdirilishi ham befoyda. Bu jarayonda hamma narsa yana tarbiyaga

borib taqaladi. Zero, axloqsizlik, badxulqlilik o‘z vaqtida ta'sir ko‘rsatilmasa, nigilizmga, uning yuqori ko‘rinishlarishga o‘tadi. Har qanday bilim asosida qadriyatlarga asoslangan tamoyillar, axloq yotsagina, u muayyan qimmatga ega bo‘ladi. Fuqarolar ongida “Jamiyatda qonunga hurmat hissining qaror toptirish – demokratik xuquqiy davlat qurishning garovi”, degan g‘oyani mustahkamlash muhim ahamiyatga ega [15].

O‘zbekiston bugungi kunda insonparvar demokratik fuqarolik jamiyatini barpo etmoqda. Jinoiy jazolarni liberallashrish borasida olamshumul ishlar amalga oshirilmoqda. Inson huquq va manfaatlari ustuvorligi barcha islohotlarning mohiyatini tashkil etadi. Shunday ekan, ta'lim-tarbiyaning, huquqiy targ‘ibotning muayyan usul va vositalarini keng joriy etish, huquqiy madaniyatni takomillashtirish asosida huquqiy ong deformatsiyalari o‘sib borishini kamaytirish davr talabidir.

Xulosa qilib aytganda, ijtimoiy ongning tarkibiy qismi bo‘lgan huquqiy ong jamiyat taraqqiyotiga, ijtimoiy turmush darajasiga aks ta'sir ko‘rsatadi. Huquqiy g‘oyalar, tasavvurlar, nazariyalar ijtimoiy hayotning barcha sohalariga kirib borib, fuqarolar ongida o‘rin olib, ular xulq-atvoriga, amaliy faoliyatiga mafkuraviy ta'sir ko‘rsatadi. Huquqiy ong odamlarni ma'lum tarzda o‘zlarini idora qilishga, qabul qilingan qonun va qoidalar doirasida faoliyat ko‘rsatishga undaydi. Kishilarning huquqiy ongi va bilimining darajasini ularning ijtimoiy-huquqiy faolligiga qarab aniqlash mumkin.

Demak, huquqni inson hayot faoliyatini tashkillashtirishning zaruriy bo‘g‘iniga aylantirish, inson huquqlari ruhida ta'lim-tarbiya berishning keng qamrovli muntazam tizimini yaratish, jamiyatda huquqiy bilimlar targ‘ibotini tubdan yaxshilashga yo‘naltirilgan maqsadli keng ko‘lamli chora-tadbirlar dasturilarida ko‘zlangan maqsadlarni amalga oshirish dolzarbdir. “Adolat - qonun ustuvorligida” shiorini amaliy jihatdan mustahkamlashga qaratilgan sa'y-harakatlarni zamon bilan hamnafas ravishda olib borish, o‘z navbatida fuqarolar huquqiy madaniyati takomillashib borishiga ko‘maklashadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish Konsepsiyasi. PF-5618-son/ QHMMB: 06/19/5618/2452-son 10.01.2019 y.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 72-sessiyasidagi nutqi. 2017 yil 19 sentyabr. https://uza.uz/posts/56413.

3. Qarang: Otamurodov S., Ramatov J., Xusanov S. Ma'naviyat asoslari. - Toshkent, 2000.- 199-bet.

4. Qarang: Abduxoliqov S. O‘zbekiston Respublikasida fuqarolarning vijdon erkinligi huquqining metodologik muammolari.Fals.fan.dok. ... diss. Avtoreferati. - Toshkent, 2002. - 25-bet.

5. Abduxoliqov S. O‘zbekiston Respublikasida fuqarolarning vijdon erkinligi huquqining metodologik muammolari.Fals.fan.dok. ... diss. Avtoreferati. - Toshkent, 2002. - 26-bet.

6. Adilova D. Nekotorыe filosofskie voprosы pravovoy kulturы // Ijtimoiy falsafaning dolzarb muammolari (2-kitob). - Toshkent: Falsafa va huquq instituti, 2009. –44-45-betlar.

7. Qarang:Lazarev V.V., Lipen S.V. Pravovoe soznanie // Teoriya gosudarstva i prava. - M.:Spark, 2000.); Granat L.N. Pravosoznanie i pravovaya kultura // Yurist.-Moskva, 1998. - № 11/12.

8. Pravo i demokratiya. - Minsk: BelGU, 1995. - s.19.

9. Vengerov A.B. Pravosoznanie i pravovaya kultura // Teoriya gosudarstva i prava. - M.: Yurisprudensiya, 1999. - s.492.

10. Sinyukova T.V. Pravovaya kultura // Teoriya gosudarstva i prava. - Saratov, 1995. - s.473.

11. Qarang: Islamov Z. Obщestvo.Gosudarstvo.Pravo. - Tashkent: Adolat, 2001. - s.421-422.

12. O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi.-Toshkent, 4-jild.-188-bet.

13. O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi.-Toshkent, 6-jild.-340-bet.

14. https://www.xabar.uz/siyosat/shavkat-mirziyoyev-bitta-bolsa-ham

15. Jamiyatda huquqiy madaniyatni rivojlantirish konsepsiyasi. PF-5618. QHMMB: 06/19/5618/2452-son 10.01.2019 y.

ANALYSIS OF THE VIEWS ON "SUSTENANCE" IN THE WORKS OF MOTURIDI SCIENTISTS

Abdullo G‘ulomov,
Islomshunoslik fanlari bo‘yicha falsafa doktori(PhD), dotsent v.b.
UNIVERSITY OF ECONOMICS AND PEDAGOGY NOTM
abulfotih1991@gmail.com
(93)-513-64-56

Annotatsiya: Mahmud ibn Zayd Lomishiy hijriy V ar oxiri-VI asr boshida Samarqandda faoliyat yuritgan hanafiy-moturidiy olim hisoblanadi. U mutakallim va usuliy olim sifatida tanilgan. Uning kalom ilmiga oid “at-Tamhid li qovaidit-tavhid”, usulul-fiqhga doir “Kitab fi usulil-fiqh” nomli asarlari bizgacha yetib kelgan. Ushbu maqolada Imom Lomishiyning “at-Tamhid” asari asosida moturidiya ta’limotidagi “rizq” masalasiga doir ma’lumotlar o‘rin olgan.

Kalit so‘zlar: Mahmud Lomishiy, at-Tamhid, rizq, mo‘tazila, kalom

Аннотация: Махмуд ибн Зайд Ламиши - ученый-ханафи-мотуриди, работавший в Самарканде в конце V - начале VI веков хиджры. Он известен как мутакаллим и методист. До нас дошли его работы по теологии ат-Тамхид ли кавайдит-таухид, Китаб-усул аль-фикх по усул аль-фикх. В данной статье содержится информация по вопросу «ризк» в учении Матуридия, основанная на труде имама Ламиши «Ат-Тамхид».

Ключевые слова: Ламиши, теология, Ханафи-Мотуриди, ат-Тамхид, вера.

Abstract: Mahmud ibn Zayd Lamishi is a Hanafi-Moturidi scholar who worked in Samarkand in the late 5th and early 6th centuries AH. He is known as a mutakallim and a methodologist. His works on theology, at-Tamhid li qawaidit-tawhid, Kitab-Usul al-fiqh on usul al-fiqh have come down to us. This article contains information on the issue of "sustenance" in the teachings of Maturidiya, based on Imam Lamishi's work "at-Tamhid".

Keywords: Mahmoud Lamishi, at-Tamhid, sustenance, mu’tazilies, Islamic philosophy.

During the years of independence, special attention was paid to studying the educational foundations of Islam and the unparalleled scientific heritage of our ancestors. Much research is being done on the life and scientific heritage of Mahmud bin Zayd Lomishi, one of the scholars who lived in Ferghana region. Among the scientist's scientific works, the book "at-Tamhid li qawa'id at-tawhid" is of particular importance and is considered an important source of the science of belief.

The work "Tamhid" was written in the 12th century, and it reflected the views of the Maturidy doctrine. In the work, issues such as monotheism, God's names and attributes, message and prophecy, blessings of saints, sustenance, intercession, punishment and destiny are described in the work.

The Mu'tazilites' views on sustenance, which existed in history and rose to the level of state ideology for a while, were an attempt to form an unhealthy belief among the members of society. In particular, the interpretation of the concepts of "halal" and "haram" by the Mu'tazilites within their own ideas, their rejection of the concept of "haram sustenance", and the idea that the account of servants' sustenance is not known in the eyes of Allah, are considered contrary to the beliefs of the people of Sunnah. According to the teachings of Moturidiyyah, there are both halal and haram food, which the majority of scholars of the Sunnah have emphasized in their works. Also, according to the Ahli sunnah, sustenance is distributed and fixed, and it does not decrease due to the piety of the pious or the sin of the poor [1:90].

According to the Mu'tazilites, the haram sustenance is not from Allah, but from the servant is a verb. In this case, the servant will have obtained the haraam sustenance by his actions. In the

belief of Ahl al-Sunnah, haram sustenance also comes from Allah. However, a slave is entitled to punishment for committing a haram act in earning sustenance.

In this regard, Mahmud Lomishi's work "Tamhid" says: "For Ahl al-Sunnah, haram is also considered as sustenance. Because the word "sustenance" lexically means food, food, and property. Food and other goods can be halal or haram. We see that some people have been fed only on unclean morsels throughout their lives. "He left this world without the provision of God. "Is there a more vile word than saying, 'Allah is not Sustainer of him?"' [2:106]. Also, in order to provide information on this topic, the Holy Qur'an cites the 6th verse of Surah "Hud" as evidence: **"There is no moving creature on earth whose provision is not guaranteed by Allah!"** [3:222]

Also, the author refutes the claims of the Mu'tazilites on the issue of sustenance and emphasizes the following: "The Mu'tazilites claim that it is not forbidden sustenance." Because they interpret the word sustenance in the sense of property. Accordingly, a person can eat another's sustenance, and others can also eat his sustenance. We say: Understanding the word Sustenance only in the sense of property has no basis. For example, domestic animals do not have any property, but it is clear as day that Allah provides them with sustenance. If this word is objected to, the Holy Qur'an says: **"There is no moving creature on earth whose provision is not guaranteed by Allah!"** contradicts the verse. We seek refuge in Him from distorting the word of God" [4:136].

Therefore, the word "provision" does not only mean "property", but also means "food, sustenance". According to the Mu'tazilites, one person can eat the sustenance that Allah has given to another or prevent him from that sustenance. According to the belief of Ahl al-Sunnah, a person is not capable of such things.

Regarding the distribution of food to halal or haram, the Sufi Allahyar says: "Sustenance, whether it is halal or haram, belongs to God. But he has given the freedom to the servant in work and in life. Punishment for the wicked and reward for the righteous" [5:45].

Therefore, according to the scholars of Ahli sunna Wal jama'a, both halal and haram are considered equal sustenance. The path taken by a person in seeking and obtaining that sustenance is the main factor in determining its halal.

In conclusion, it can be said that Mahmud Lomishi's work "Tamhid" is a work written about the Hanafi-Maturidi faith, and the issues covered in it, including the issue of sustenance, are important not only in history, but also for today. In the present era, when the struggle of ideas is in full swing, studying and consistently researching the teachings of the people of Sunnah is of great importance in resisting the prejudices of various fanatical currents that threaten the stability of society, and in forming a healthy worldview in young people.

REFERENCES:

1. Oqilov S. Islamic philosophy (Aqaid). - T.: Tashkent Islamic University, 2011. – 160 p.
2. Mahmoud Lomishiy. At-Tamhid li qawa'id at-tawhid (under the review of Abdulmajid Turki). - Beirut: Dor al-gharb al-Islami, 1995. – 262 p.
3. Sheikh Abdulaziz Mansur. Translation and interpretation of the meanings of the Holy Qur'an. - T.: Tashkent Islamic University, 2012. – 624 p.
4. Mahmoud Lomishiy. At-Tamhid li qawa'id at-tawhid (under Ahmad Farid Mizyadi's research). - Beirut: Dor al-kutub al-ilmiyya, 2007.
– 160 p.
5. Sufi Allahyor. Maslak al-Muttaqin. - T.: Publishing house named after Gafur Ghulam, 2016. – 496 p.

AYOLLARGA NISBATAN OILADAGI TAZYIQ VA ZO‘RAVONLIK HOLATLARI

Xolmurotova Shoxista Mirzalievna
Termiz iqtisodiyot va servis universiteti katta o‘qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada ayollarga nisbatan oiladagi tazyiq va zo‘ravonlik muammosining ijtimoiy-psixologik omillari, uning turlari va oqibatlari tahlil qilingan. Shuningdek, oilaviy zo‘ravonlikning takrorlanish mexanizmlari, uning bolalar psixologiyasiga ta’siri hamda ushbu muammoni kamaytirish yo‘llari yoritilgan. O‘zbekiston Respublikasida xotin-

qizlarni tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilishga qaratilgan qonunlar, xalqaro tajribalar va amaliy mexanizmlar asosida tahliliy xulosalar berilgan.

Kalit so‘zlar: oilaviy zo‘ravonlik, tazyiq, ayollar huquqlari, psixologik bosim, reabilitatsiya, gender tenglik.

Аннотация: В данной статье рассматриваются вопросы семейного насилия и давления в отношении женщин, их причины, формы и последствия. Проведён социально-психологический анализ факторов, способствующих проявлению насилия, а также освещено значение государственной политики по защите женщин от притеснения и насилия. В работе анализируется зарубежный опыт противодействия семейному насилию и предлагаются практические рекомендации по совершенствованию системы правовой и психологической защиты женщин.

Ключевые слова: насилие, давление, женщины, семья, социально-психологические факторы, защита, закон, профилактика.

Abstract: This article examines domestic violence and pressure against women, including its causes, forms, and consequences. A socio-psychological analysis of the factors contributing to violence is provided, along with an overview of state policy on protecting women from abuse. The paper also reviews international experiences in combating domestic violence and offers practical recommendations for improving legal and psychological protection systems for women.

Keywords: violence, pressure, women, family, socio-psychological factors, protection, law, prevention.

Mamlakatimizda oilaviy zo‘ravonlik muammosiga alohida e’tibor qaratilmoqda. Ayniqsa, xotin-qizlar zo‘ravonligiga oldini olish va unga qarshi kurashish maqsadida 2019 yil 2 sentyabrda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasi “Xotin-qizlarni tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilish to‘g‘risida“gi Qonunining qabul qilinishi bu masalaning qanchalik ahamiyatli ekanligini yaqqol isbotidir. Bugungi kunda oilaviy zo‘ravonlik muammosi butun jahonning global muammosiga aylangan.

Oiladagi zo‘ravonlik – bu yashirish, bostirish, toqat qilish yoki azob chekish emas. Oiladagi zo‘ravonlik holati, agar yuzaga kelsa, kelajakda uning takrorlanishiga yo‘l qo‘ymaslik uchun uni to‘xtatish kerak. Oiladagi zo‘ravonlik yuzaga kelgan vaziyatda nima qilish kerakligini tushunishga yordam beradigan bir qator oddiy qadamlar mavjud. Oiladagi zo‘ravonlik, xoh bola, xoh kattalar, keksa odam, ayol yoki erkak bo‘lsin, har birimizning qurbonimiz bo‘lishi mumkin. Turmush o‘rtog‘i o‘z xotiniga nisbatan tajovuzni, aksincha, ota-onalar farzandlariga, farzandlar esa ota-onaga, akauka va opa-singillarga bir-biriga nisbatan tajovuzkorlikni namoyon qilishi mumkin. Bolalar o‘zlarining birodarlariga yoki opa-singillariga nisbatan zo‘ravonlik shaklida Oilaviy zo‘ravonlik jinsga asoslangan zo‘ravonlikning eng keng tarqalgan shakli hisoblanadi.

Oilaviy zo‘ravonlik bu – biror-bir oila a’zosiga oilaning boshqa bir a’zosi tomonidan do‘q-po‘pisa qilinishi, bosim o‘tkazilishi, haqorat qilinishi natijasida vujudga keluvchi jarayon bo‘lib, u oiladagi insonlar o‘rtasida sodir bo‘ladi. Har bir inson oiladagi zo‘ravonlikning qurboni yoki ijrochisiga aylanishi mumkin. Biroq, qayd etilgan holatlarning aksariyati erkaklar tomonidan ayollarga nisbatan sodir etiladi. Oilaviy zo‘ravonlik Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan erkaklar va ayollar o‘rtasidagi kuchlarning tengsizligi ifodasi sifatida belgilanadi. Oilada o‘zaro muloqot jarayonida tabiiy ravishda nizolar va janjallar paydo bo‘lishi mumkin, ammo ularning hammasi ham zo‘ravonlik emas

Har yili sayyoramiz bo‘ylab yarim milliondan ortiq odam zo‘ravonlikdan vafot etadi, ko‘pchiligi jamoaviy va shaxslararo nizolar natijasida tan jarohatlari oladi. Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti ma’lumotlariga ko‘ra, zo‘ravonlik dunyo bo‘ylab 15 yoshdan 44 yoshgacha bo‘lgan odamlar o‘limining asosiy sabablaridan biridir[1]. Asosiy qism. Ma’lumki, insoniyat doimo har tomonlama mukammallikka intilib kelgan. Lekin, afsuski, jamiyat bir maromda rivojlanmaydi. Ba’zan - 431 - taraqqiyot turli urush va zo‘ravonliklarbilan o‘rin almashib keladi.

Umuman olganda, zo‘ravonlik ham aynan mana shunday buzilish holatlaridan biri sanaladi. Zo‘ravonliksiz jamiyat mukammal jamiyat bo‘lardi. Shu sababli zo‘ravonlik hodisasini ijtimoiy va individual hayotning ajralmas elementi sifatida ilmiy jihatdan o‘rganish muhim ahamiyat kasb etadi. A.A.Guseinov va R.A.Apresyan kabi bir qator olimlarning fikricha: “Zo‘ravonlikning mohiyati odamlar o‘rtasidagi iroda erkinligini yo‘q qilish jarayoni bo‘lib, bir tomonning kuch ishlatish va tashqi majburlash yo‘li bilan o‘z irodasini boshqalarga yuklashidir”[2]. Zo‘ravonlik va tazyiq tushunchasini har tomonlama o‘rganish va ishlab chiqish muhim ahamiyatga ega. Chunki bunday munosabatlar doimiy ravishda davlatlar, millatlar, alohida guruhlar, shaxslar va oila a’zolari o‘rtasida sodir bo‘lishi kuzatiladi.

Oiladagi zo‘ravonlik va tazyiq holatlarini o‘rganganda uning tarkibiy elementlarini alohida inobatga olish hamda omillarni tahlil qilish dolzarb sanaladi. AQSHda XX asrning ikkinchi yarmida oiladagi zo‘ravonlik milliy muammo sifatida e’tirof etildi va fanlararo ilmiy tahlil obyektiga aylandi. Eng mashhur ilmiy loyihalar qatoriga 1975-yilda amerikalik sotsiologlar tomonidan o‘tkazilgan hamda 1985-yilda A.Strauss[3] boshchiligidagi bir guruh mutaxassislar tomonidan oiladagi zo‘ravonlik muammolarini umummilliy o‘rganishni davom ettirilishi kiradi. Bu sotsiologlar va boshqa bir qator amerikalik olimlar (L. Lerman, L. Sherman, R. Burk, D. Finkelxor, K. Yollo va boshqalar) bugungi kungacha oiladagi zo‘ravonlik sohasini o‘rgangan yetakchi mutaxassislardan hisoblanadi[4].

Bugungi kunda oilaviy zo‘ravonlik jahon miqyosida global ijtimoiy muammo sifatida tan olingan. Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti ma’lumotlariga ko‘ra, har yili dunyo bo‘ylab 15–44 yosh oralig‘idagi insonlarning o‘limining asosiy sababi zo‘ravonlikdir.

Zo‘ravonlikning oldini olish, jabrlanganlarni himoya qilish va ularni reabilitatsiya qilish masalalari har bir davlatning ijtimoiy siyosatida muhim o‘rin egallaydi. O‘zbekiston Respublikasida ham ushbu yo‘nalishda qator huquqiy hujjatlar, reabilitatsion markazlar va psixologik yordam tizimlari yo‘lga qo‘yilgan.

Bugungi kunda ham AQSH hukumati oiladagi zo‘ravonlikni tadqiq qilish va unga qarshi kurashishning yangi yondashuvlarini ishlab chiqishga katta sarmoya kiritib kelmoqda.

Oiladagi zo‘ravonlikda zo‘ravonlik shakllarining takrorlanib turadigan davrlari mavjud.

1-davr. Oilada taranglikning kuchayishi. O‘zaro munosabatlarda norozilik kuchayadi va oila a’zolari o‘rtasidagi aloqa buziladi.

2-davr. Zo‘ravonlik hodisasi. Og‘zaki, hissiy yoki jismoniy zo‘ravonlik avj oladi, g‘azab, tortishuvlar, ayblovlar, tahdidlar, qo‘rqitishlar bilan birga keladi.

3-davr. Yarashish. Zo‘ravon shaxs kechirim so‘raydi, sababini tushuntiradi, aybni jabrlanuvchiga yuklaydi, ba’zida sodir bo‘lgan voqeani rad etadi yoki jabrlanuvchini voqealarni bo‘rttirib ko‘rsatishiga ishontiradi.

4-davr. O‘zaro munosabatlardagi tinch davr («asal oyi»). Zo‘ravonlik davri unutiladi, tajovuzkor kechiriladi. Ushbu bosqich «asal oyi» deb nomlanadi, chunki bu bosqichda sheriklar o‘rtasidagi munosabatlarning sifati asl nusxasiga qaytadi.

Shunga ko‘ra, oiladagi tazyiq va zo‘ravonliklar jismoniy, jinsiy, ruhiy va iqtisodiy turlarga ajratilishi mumkin.. Shubhasiz, oilada ota-ona bolalarning kamol topishida kattata’sir ko‘rsatadi. Farzandlar uchun ota-onaning xulq-atvori,to‘g‘ri va noto‘g‘ri xatti-harakatlari namuna sifatida gavdalanadi.

Har birimiz ota-ona munosabatlarining namunasiga egamiz, lekin afsuski, u har doim ham muhabbat va o‘zaro hurmatni ifodalamaydi. Dunyoda har kuni ko‘plab bolalar oilaviy zo‘ravonlikning guvohi bo‘ladi. Ular jamiyatning eng zaif va yordamga muhtoj qatlami bo‘lib, bu kabi ayanchli holatlarning guvohi, jabrlanuvchisiga aylanadi. Notinch muhitga ega oila farzandlari uchun bu muhit tabiiydek tuyuladi, ular hamma narsa boshqacha bo‘lishi mumkinligini tasavvur ham qilolmaydi. Ayniqsa, kichik yoshdagi bolalar ota-onasiga bog‘liq bo‘ladi, ular otasi nima uchun onasini kaltaklashini tushunolmaydi. Ba’zan sodir bo‘layotgan voqealar uchun o‘zini aybdor sanashi mumkin. Shu bilan birga,bolalarning kattalarga o‘z muammolari haqida gapirishi qiyin bo‘ladi. Ularga bu holatda yordam berish faqat ota-onalarningishtirokida amalga oshirilishi mumkin. Ota-onalarning zo‘ravonligiga guvoh bo‘lgan bolalarda tashvish, ruhiy tushkunlik,

maktabda o‘zlashtirish darajasining pastligi, qo‘rquv, qo‘rqinchli tushlar, ishtahaning yo‘qligi (ortiqcha ovqatlanish yoki ovqatlanmaslik) kabi hissiy va xulq-atvor muammolarining paydo bo‘lish xavfi yuqori bo‘ladi. Bunday bolalar bolalik va o‘smirlik davrida tajovuzkor xatti-harakatlarga moyil bo‘lishi yoki aksincha, atrofdagi voqealarga befarq munosabatda bo‘lishi va kelajakdagi oilaviy munosabatlarni qurishda qiyinchiliklarga duch kelishi mumkin.

Shuning uchun oiladagi tazyiq va zo‘ravonlikka yo‘l qo‘ymaslik, jabrlanganlarni esa reabilitatsiya qilish muhim ahamiyatga ega.. Sharq va G‘arb olimlarining tadqiqotlari doirasida olingan natijalarning umumiy va o‘ziga xos jihatlari borligiga alohida e’tibor qaratilishi barobarida buning sabablari milliy va madaniy xususiyatlarga borib taqalishi mumkinligini inobatga olish lozim. Jamiyatdagi oilaviy zo‘ravonlik va tazyiqning ko‘lamini kamaytirish, oldini olish va oqibatlari bilan kurashish maqsadida xalqaro tajriba hamda amaliyotini o‘rganish, kurash mexanizmlarini tadqiq etish, aniqlangan ustunlik va kamchiliklar ustida ishlash orqali jamiyatdagi holatni yaxshilash borasida amaliy chora-tadbirlar ishlab chiqish va qo‘llash imkoni paydo bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 2 июлдаги “Ижтимоий реабилитация қилиш ва мослаштириш, шунингдек, оилавиймаиший зўрлик ишлатишнинг олдини олиш тизимини такомиллаштириш чора-тадбирлари тҳғрисида”ги ПҚ-3827-сон қарори. https://lex.uz/ru/docs/3804821

2. “Хотин қизларни тазйиқ ва зўравонликдан ҳимоя қилиш тўғрисида”ги ЎРҚ-561-сон Қонуни. https://lex.uz/docs/4494709 - 436 -

3. “Хотин-қизлар ва эркаклар учун тенг ҳуқуқ ҳамда имкониятлар кафолатлари тўғрисида”ги ЎРҚ-562-сон Қонуни. https://lex.uz/docs/4494849

4. Татабадзе Г.С. Насилие как социальное явление. Вестник ВолГУ. Серия 7. Вып. 3. 2003-2004. – С.109– 116. https://cyberleninka.ru/article/n/nasilie-kak-sotsialnoe-yavlenie

5. Pulatova Sh.A, Murodov A.Sh Zo‘ravonlikdan jabrlanganlar huquqlarini himoya qilish va zo‘ravonlikning oldini olish: Uslubiy qo‘llanma. –T.,Baktria press, 2020. –56 B.

ABDURAUF FITRAT FALSAFASIDA INSON VA JAMIYAT MUNOSABATINING MA’NAVIY ASOSLARI

Isomiddinov Yo‘ldosh Yusubboyevich
Samarqand davlat pedagogika instituti
falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
isomiddinov.1986@mail.ru

Annotatsiya. Mazkur maqolada o‘zbek ma’naviy-fikriy taraqqiyotining yirik namoyandalaridan biri Abdurauf Fitratning falsafiy qarashlarida inson va jamiyat munosabatlarining mohiyati tahlil qilingan. Muallifning asarlarida inson tabiati, ma’naviyat, erkinlik va ijtimoiy adolat tushunchalari qanday ifodalangani hamda ularning zamonaviy jamiyat taraqqiyotidagi ahamiyati yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Abdurauf Fitrat, inson, jamiyat, ma’naviyat, falsafa, erkinlik, vatanparvarlik, ma’rifat.

Аннотация В данной статье анализируется сущность взаимоотношений человека и общества в философских воззрениях Абдурауфа Фитрата - одного из выдающихся представителей узбекского духовно-интеллектуального развития. Рассматривается, как в его произведениях отражены понятия человеческой природы, духовности, свободы и социальной справедливости, а также их значение в развитии современного общества.

Ключевые слова: Абдурауф Фитрат, человек, общество, духовность, философия, свобода, патриотизм, просвещение.

Abstract: This article analyzes the essence of the relationship between the individual and society in the philosophical views of Abdurauf Fitrat, one of the prominent representatives of Uzbek spiritual and intellectual development. The paper explores how the concepts of human nature, spirituality, freedom, and social justice are reflected in his works and highlights their significance in the progress of modern society.

Keywords: Abdurauf Fitrat, human, society, spirituality, philosophy, freedom, patriotism, enlightenment.

XX asr boshlari Turkiston tarixida milliy uyg‘onish davri bo‘lib, ushbu jarayonda jadid ziyolilari, xususan, Abdurauf Fitratning falsafiy, ijtimoiy va ma’naviy qarashlari alohida o‘rin tutadi. Uning asarlari jamiyatni yangi tafakkur asosida yangilash, inson qadrini ulug‘lash va ma’rifat orqali millatni ozod qilish g‘oyalariga bag‘ishlangan edi.

Fitrat uchun inson – jamiyatning markazida turgan ma’naviy mavjudotdir. U jamiyatni o‘zgartirishning asosiy kuchi sifatida insonni tarbiyalash, uni fikrlashga, erkinlik va mas’uliyatni anglashga chorlaydi.

Fitratning falsafasida insonning ma’naviy qiyofasi markaziy o‘rinni egallaydi. U “Oila”, “Munozara”, “Rahbari najot”, “Millatni saodat yo‘liga chiqarish” [1,36] kabi asarlarida inson tabiati, uning aqliy va axloqiy imkoniyatlarini chuqur tahlil qiladi.

Muallif fikricha, “ma’naviyatsiz millatning kelajagi yo‘q”. Insonni ma’naviy yetuklikka yetkazish uchun ilm, mehnat, insof va vatanga muhabbat kabi qadriyatlar zarur. Fitrat insonni faqat biologik mavjudot sifatida emas, balki ma’naviy dunyosi chuqur, jamiyatning ma’rifatli a’zosi sifatida ko‘radi.

Fitratning ijtimoiy falsafasida inson va jamiyat munosabati ikki tomonlama jarayon sifatida talqin etiladi. U jamiyatni inson faoliyatining maydoni, insonni esa jamiyat taraqqiyotining mezoni deb biladi.

Uning “Millat”, “Islom” va “Turkistonning eski maktablari va yangi maktablari” asarlarida jamiyatning taraqqiyoti ta’lim va ma’rifat bilan bevosita bog‘liq ekanligi ta’kidlanadi. “Har bir millatning saodati – uning farzandlarining ongli va ma’rifatli bo‘lishidadir”, [2,56] – deb yozadi u.

Shu nuqtai nazardan Fitrat uchun inson jamiyatda ma’naviyatni shakllantiruvchi va uni rivojlantiruvchi asosiy kuchdir. Uning falsafasida inson kamolotining uch asosiy bosqichi ko‘rsatiladi:

1. aqliy va ma’rifiy yetuklikka erishish;
2. axloqiy yuksalish;
3. ijtimoiy faollik va vatanparvarlikni namoyon etish.

Fitrat insonni “iroda sohibi mavjudot” sifatida talqin qiladi. Uning fikricha, inson jamiyat oldida javobgar va mas’ul bo‘lishi lozim. Fitrat “Hurriyat” va “Milliy iroda” g‘oyalarini ilgari surib, millat ozodligini faqat ma’naviy va fikriy mustaqillik orqali erishish mumkinligini ta’kidlaydi.

Uning “Munozara” asarida ikki shaxs – jadid va qadimchi o‘rtasidagi bahs orqali ma’naviy islohot zarurligi ko‘rsatiladi. Asarda jamiyatning taraqqiyoti inson ongining ozodligi bilan bog‘lanadi:

“Biz fikrda erkin bo‘lmasak, amalimiz ham asoratda qolur” [3,46], – deb yozadi muallif.

Fitratning bu fikrlari bugungi kunda ham dolzarb bo‘lib, insonning ijtimoiy ongini va faol fuqarolik pozitsiyasini shakllantirishda muhim nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Bugungi kunda “Yangi O‘zbekiston” g‘oyasi zamirida ham inson qadri, ma’naviyat va fuqarolik mas’uliyati masalalari muhim o‘rin tutadi. Abdurauf Fitratning insonparvarlik g‘oyalari, ma’naviy kamolot va ijtimoiy mas’uliyat haqidagi ta’limotlari bugungi ta’lim va tarbiya tizimi uchun metodologik manba bo‘lib xizmat qilmoqda.

Fitrat falsafasi yoshlarda vatanparvarlik, insonparvarlik va ijtimoiy faollik ruhini shakllantirishda katta ahamiyatga ega. Uning fikricha, har bir millat o‘z ma’naviy qadriyatlariga suyangandagina haqiqiy rivojlanishga erishadi.

Abdurauf Fitratning falsafiy dunyoqarashining markazida **insonning ma’naviy tabiati** turadi. U insonni “aqli va qalbi uyg‘un bo‘lgan mavjudot” sifatida talqin etadi. Fitrat fikricha, inson faqat tanaviy ehtiyojlar bilan emas, balki ma’naviy va axloqiy qadriyatlar bilan yashaydi.

Uning “*Oila*” asarida inson kamolotining ilk bo‘g‘ini oila muhitida shakllanishi ta’kidlanadi. Oila insonning birinchi ijtimoiy maktabi sifatida, unda mehr, sabr, burch va mas’uliyat tuyg‘ulari shakllanadi [4,72].

Fitratning bu qarashi I.Kantning “inson maqsad sifatida, vosita emas” degan g‘oyasi bilan ham uyg‘un. U inson qadrini falsafiy kategoriya sifatida yuksak darajada qo‘yadi.

Fitrat falsafasida jamiyatning ma’naviy qiyofasi insonning axloqiy yetukligi bilan belgilanadi. Uningcha, “ilmsiz ma’rifat bo‘lmas, ma’rifatsiz esa jamiyatda adolat bo‘lmas.”

Fitrat ta’lim va axloqni bir butun jarayon sifatida ko‘radi:

“Ta’lim – aqlni yoritsa, tarbiya – qalbni poklaydi. Ikkisi birlashmasa, inson komil bo‘lolmaydi.”

Shu ma’noda, u insonning ma’naviy kamoloti orqali jamiyatdagi yomonlik va jaholatni yengish mumkinligini ta’kidlaydi.

Fitratning ijtimoiy falsafasi o‘z davri uchun inqilobiy ahamiyatga ega edi. Uning “*Hurriyat*”, “*Millat*” va “*Munozara*” asarlarida insonning shaxsiy erkinligi bilan ijtimoiy mas’uliyati o‘zaro bog‘liq holda tahlil qilinadi [5,48].

Uningcha, haqiqiy erkinlik — bu betartiblik yoki itoatsizlik emas, balki ma’naviy yetuklik bilan chegaralangan iroda erkinligidir.

“Iroda ma’naviyat bilan bog‘lanmasa, u faqat nafsning asoratidir.”

Bu g‘oya zamonaviy jamiyatda fuqarolik pozitsiyasi va mas’uliyatni anglashning ilk nazariy manbai sifatida ahamiyat kasb etadi.

Fitratning fikricha, jamiyat faqat ma’naviy birlik va milliy ong orqali barqaror rivojlanadi.

Uning “*Millatni saodat yo‘liga chiqarish*” asarida millatning yuksalishi uchun quyidagi to‘rt ustunni belgilaydi:

1. Ta’lim va ilmning keng tarqalishi.
2. Milliy til va madaniyatning ehtiromi.
3. Ijtimoiy adolat va insof.
4. Vatanga sadoqat va birdamlik.

Bu tamoyillar bugungi kunda ham O‘zbekistondagi “*Ma’naviyatli avlod – millat poydevori*” g‘oyasi bilan hamohangdir.

Bugungi ta’lim tizimida Fitrat g‘oyalarini amaliy joriy etish muhim pedagogik ahamiyatga ega. Masalan:

- **Insonparvar ta’lim modellari**da Fitratning “komil inson” g‘oyasi asos qilinadi.
- **Kritik fikrlashni rivojlantirish**da “Munozara” asaridagi bahs madaniyati namuna bo‘ladi.
- **Patriotik tarbiya**da “Millat” va “Oila” asarlaridagi vatanga muhabbat g‘oyalari qo‘llaniladi [6,56].

Shu jihatdan, Fitrat falsafasi nafaqat tarixiy yodgorlik, balki zamonaviy ta’limda amaliy qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan konseptual tizimdir.

Fitrat insoniy qadriyatlarni milliy chegaralar bilan cheklamaydi. Uning falsafasida inson ma’naviyati butun insoniyatning umumiy boyligi sifatida talqin qilinadi:

“Ma’rifat – millatga xizmat qilsa, insonparvarlik – butun insoniyatga xizmat qiladi.”

Bu g‘oyalar jahon falsafasidagi gumanistik yo‘nalishlar – Tolstoy, Gandi, Bergson, Nersesovlar falsafasi bilan mushtaraklikka ega[7,36].

Abdurauf Fitratning falsafiy merosi insonni ma’naviy komillikka yetaklaydigan ijtimoiy tizim yaratish g‘oyasiga asoslanadi. Uning fikricha:

- inson va jamiyat munosabati ma’naviy mezonlarga suyanmog‘i lozim;
- ma’naviyatsiz taraqqiyot – ruhsiz jamiyatdir;
- insonning axloqiy yuksalishi – millatning kelajagidir.

Abdurauf Fitrat falsafasida inson va jamiyat munosabati ma’naviy va axloqiy asosda qaraladi. Uning fikricha, inson ma’naviyatsiz jamiyatda o‘z mohiyatini yo‘qotadi, jamiyat esa ma’rifatsiz insonlar bilan taraqqiy etolmaydi. Shu bois, Fitratning inson, jamiyat va ma’naviyat haqidagi falsafiy qarashlari bugun ham milliy tafakkur va ta’lim-tarbiya jarayonlari uchun muhim nazariy poydevor bo‘lib qolmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Fitrat A. *Oila*. – Toshkent: Fan, 1992.

2. Fitrat A. *Munozara*. – Toshkent: “Yangi yo‘l”, 1918.
3. Fitrat A. *Rahbari najot*. – Buxoro, 1919.
4. Haydarov B. *Fitratning falsafiy qarashlari*. – Toshkent: Fan, 2008.
5. Hasanov Sh. *Jadidlar falsafasi va milliy tafakkur*. – Samarqand: SamDU nashriyoti, 2014.
6. Rahmatov X. *O‘zbek ma’naviy merosi va falsafa masalalari*. – Toshkent: Akademnashr, 2020.
7. Karimov I. *Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch*. – Toshkent: Ma’naviyat, 2008.

OLIY TA’LIMDA MILLIY TARBIYA VA AXBOROT XAVFSIZLIGI INTEGRATSIYASI

Abdullayeva Arofatxon Abduvaxobovna
Andijon davlat pedagogika instituti dotsenti
pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
arofatabdullayeva95@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada oliy ta’lim tizimida milliy tarbiya va axborot xavfsizligini ta’lim-tarbiya jarayoniga integratsiya qilish masalalari yoritilgan. Axborot xavfsizligi tahdidlari sharoitida yoshlarning axloqiy immunitetini mustahkamlash, milliy qadriyatlar asosida raqamli madaniyatni shakllantirish yo‘llari tahlil qilinadi. Shuningdek, zamonaviy texnologiyalar vositasida milliy tarbiya komponentlarini o‘quv jarayoniga joriy etishning metodik yondashuvlari taklif etiladi.

Kalit so‘zlar: milliy tarbiya, axborot xavfsizligi, oliy ta’lim, raqamli madaniyat, axloqiy immunitet, ma’naviy qadriyatlar.

Аннотация: В данной статье рассматриваются вопросы интеграции национального воспитания и информационной безопасности в образовательный процесс высших учебных заведений. Анализируются пути укрепления морального иммунитета молодежи в условиях информационных угроз, а также формирования цифровой культуры на основе национальных ценностей. Кроме того, предлагаются методические подходы к внедрению компонентов национального воспитания в учебный процесс с использованием современных технологий.

Ключевые слова: национальное воспитание, информационная безопасность, высшее образование, цифровая культура, моральный иммунитет, духовные ценности.

Abstract: This article examines the integration of national education and information security into the educational process of higher education institutions. It analyzes ways to strengthen the moral immunity of youth in the context of information security threats and to develop digital culture based on national values. Furthermore, methodological approaches are proposed for implementing the components of national education into the learning process through modern technologies.

Keywords: national education, information security, higher education, digital culture, moral immunity, spiritual values.

XXI asrda raqamli texnologiyalar hayotning barcha sohalariga, xususan ta’lim tizimiga chuqur kirib bordi. Shu bilan birga, bu jarayon axborot tahdidlari, ma’naviy inqiroz, g‘oyaviy tazyiqlar kabi xavf-xatarlarni ham yuzaga chiqardi. Oliy ta’lim tizimi yosh avlodni nafaqat kasbiy jihatdan, balki axloqiy va ma’naviy jihatdan ham yetuk shaxs sifatida shakllantirish vazifasini bajaradi. Shu nuqtai nazardan, **milliy tarbiya** va **axborot xavfsizligi** integratsiyasi zamonaviy ta’lim siyosatining strategik yo‘nalishlaridan biridir [1,176] (Karimov, 2019; Mamaraimova, 2023).

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Milliy g‘oya, ma’naviyat va ma’rifat sohasida davlat siyosatini takomillashtirish to‘g‘risida”gi qarorida [2,480] axborot makonida milliy qadriyatlar asosida yoshlarning dunyoqarashini shakllantirish muhim vazifa sifatida belgilangan.

Globallashuv jarayonida axborot texnologiyalarining tez sur’atlarda rivojlanishi inson hayotining barcha jabhalariga chuqur kirib bormoqda. Ayniqsa, oliy ta’lim tizimida raqamli muhitning kengayishi ta’limning samaradorligini oshirish bilan birga, yangi **axborot xavfsizligi tahdidlarini** ham keltirib chiqarmoqda. Shu bilan birga, milliy qadriyatlar, ma’naviyat va tarbiya tizimining zaiflashuvi jamiyatda yoshlarning axloqiy immunitetini pasaytirish xavfini tug‘diradi. Shuning uchun **milliy tarbiya va axborot xavfsizligini integratsiyalash** — oliy ta’lim muassasalari oldida turgan dolzarb pedagogik masalalardan biridir.

Milliy tarbiya nazariy asoslarini A.Avloniy, A.Fitrat, M.Behbudiy kabi jadid ma’rifatparvarlar o‘z asarlarida chuqur yoritgan. Ularning ta’limotida “tarbiya millatni saqlovchi kuch” sifatida talqin etilgan. Zamonaviy davrda esa bu g‘oya axborot xavfsizligi konsepsiyasi bilan uyg‘unlashmoqda. Axborot xavfsizligi sohasida xorijiy tadqiqotchilar [3,156] “axborot makonida shaxs erkinligi va ma’naviy immuniteti” tushunchalarini ilgari surgan. O‘zbek olimlaridan E.G‘oziyev [4,325], N.Shermuhamedova [5,138] milliy tarbiya orqali yoshlarni g‘oyaviy xurujlardan himoya qilish usullarini taklif qilgan.

Demak, ilmiy manbalar tahlili shuni ko‘rsatadiki, axborot xavfsizligi va milliy tarbiya bir-birini to‘ldiruvchi, o‘zaro integrativ pedagogik jarayondir.

Tadqiqot quyidagi metodlarga asoslanadi:

- ✓ **Tahliliy yondashuv:** mavjud axborot xavfsizligi siyosati va milliy tarbiya konsepsiyalarining qiyosiy tahlili;
- ✓ **Sotsiologik so‘rov:** 2024-yilda 200 nafar oliy ta’lim talabalari o‘rtasida “Milliy qadriyatlar va raqamli madaniyat” [6,44-51] mavzusida o‘tkazilgan so‘rovnoma natijalari;
- ✓ **Pedagogik tajriba:** axborot madaniyati faniga milliy tarbiya elementlarini integratsiya qilgan holda o‘quv moduli yaratish.

Tadqiqot asosiy g‘oyasi – milliy tarbiya qadriyatlarini axborot xavfsizligi ko‘nikmalari bilan uyg‘unlashtirish orqali talabalarda axloqiy immunitetni rivojlantirish.Bu natijalar shuni ko‘rsatadiki, axborot xavfsizligi masalasida **milliy qadriyatlar asosidagi tarbiyaviy yondashuv** yetarli darajada shakllanmagan.

Pedagogik tajriba natijasida quyidagi natijalarga erishildi. “Axborot madaniyati” faniga “Milliy qadriyatlar va axborot xavfsizligi” moduli kiritilgach, talabalar orasida g‘oyaviy tahlil ko‘nikmalari 35% ga oshgan. Milliy qadriyatlarga asoslangan muhokama mashg‘ulotlari talabalarning **axloqiy immuniteti**ni kuchaytirgan. Interfaol metodlardan foydalanish (rol o‘yinlari, case-study, media-analiz) samaradorlikni oshirgan.

Oliy ta’limda milliy tarbiya va axborot xavfsizligi integratsiyasi – bu faqat o‘quv jarayoniga yangi fan kiritish emas, balki butun pedagogik muhitni **milliy mafkura va raqamli mas’uliyat** ruhida tashkil etishdir.

Integratsiyaning uch asosiy yo‘nalishi mavjud:

- ✓ **Mazmun integratsiyasi** – ta’lim dasturlarida milliy g‘oyalar, tarixiy meros, ma’naviy qadriyatlar va axborot madaniyati mavzularini uyg‘unlashtirish;
- ✓ **Texnologik integratsiya** – sun’iy intellekt, onlayn platformalar, raqamli etikani milliy tarbiya kontekstida o‘qitish;
- ✓ **Ijtimoiy-psixologik integratsiya** – talabalarda tanqidiy fikrlash, axborot tahlili va g‘oyaviy himoya refleksini shakllantirish.

Globallashuv va raqamli transformatsiya jarayonlari inson tafakkuri, axloqi hamda milliy qadriyatlarga kuchli ta’sir ko‘rsatmoqda. Bugungi kunda oliy ta’lim tizimida milliy tarbiyani mustahkamlash bilan bir qatorda axborot xavfsizligini ta’lim jarayoniga integratsiya qilish masalasi dolzarb bo‘lib bormoqda.

Axborot oqimlari kuchaygan bir davrda yoshlarning ongiga turli g‘oyaviy, axloqiy, diniy va madaniy ta’sirlar kirib kelmoqda. Shunday sharoitda milliy tarbiya asosida axborot xurujlariga qarshi axloqiy immunitetni shakllantirish — ta’lim tizimining muhim maqsadlaridan biridir.

Milliy tarbiya asosida axborot xavfsizligini o‘qitishning pedagogik afzalliklari:

Talabalarda axborot xurujlariga qarshi axloqiy immunitet hosil qiladi. Milliy identitet va g‘oyaviy barqarorlikni mustahkamlaydi. Raqamli fuqarolik madaniyatini shakllantiradi.

Oliy ta’limda milliy tarbiya va axborot xavfsizligi integratsiyasi zamonaviy ta’lim siyosatining muhim yo‘nalishidir. U nafaqat yoshlarni g‘oyaviy va axborot tahdidlaridan himoya qiladi, balki milliy qadriyatlar asosida global raqamli jamiyatda faol va mas’uliyatli shaxsni shakllantirishga xizmat qiladi. Oliy ta’lim muassasalarida “Milliy tarbiya va axborot madaniyati” fanini joriy etish talabalarning axborot etikasi bo‘yicha sertifikat dasturlarini yo‘lga qo‘yildi.Pedagoglar uchun axborot-tarbiyaviy kompetensiyalarni rivojlantiruvchi treninglar tashkil etish tavsiya etiladi.

Milliy tarbiya va axborot xavfsizligini integratsiya qilish — raqamli davrda yoshlarning ongini himoya qilishning eng samarali yo‘lidir. Oliy ta’lim muassasalari bu jarayonda nafaqat bilim beruvchi, balki axloqiy-ma’naviy immunitetni shakllantiruvchi markaz sifatida faoliyat yuritishi lozim.
Integratsion yondashuv milliy g‘oya, raqamli madaniyat va axborot xavfsizligi konsepsiyasini bir butun pedagogik tizimda uyg‘unlashtiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov, I. (2019). *Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch*. Toshkent: Ma’naviyat nashriyoti.
2. Mirziyoyev Sh.M**.** *Yangi O‘zbekiston strategiyasi.* – Toshkent: O‘zbekiston, 2021.
3. UNESCO. *Digital Literacy and Ethics in Higher Education.* – Paris: UNESCO Publishing, 2022. – 156 p.
4. G‘oziyev, E. (2022). *Milliy tarbiya psixologiyasi*. Toshkent: Fan.
5. Shermuhamedova, N.A. (2021). *Axborot makonida yoshlarning ma’naviy himoyasi*. Toshkent.
6. Sharipov, Sh. (2024). *Milliy g‘oya va raqamli madaniyat integratsiyasi muammolari*. Toshkent.

KLASSIK ADABIYOT NAMUNALARIDA MADANIY MEROS G‘OYASI

Samandarova Nigora Erkinovna
RANCH texnologiya universiteti v.b. dotsenti
s.nigora@bk.ru telefon:905574765

Annotatsiya. Maqola klassik adabiyot namunalari orqali madaniy meros tushunchasi tahlil qilinadi. Maqolada madaniy merosning nazariy asoslari, klassik asarlardagi meros g‘oyalari, til va adabiyot orqali merosning uzluksizligini, adabiy misollar (Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, va xalq og‘zaki ijodlari) asosida madaniy merosni saqlash va qayta talqin qilish masalalari ko‘rib chiqiladi. Tadqiqot natijalari madaniy meros mafkurasining adabiyotdagi ifodalanishi va uning zamonaviy jamiyatdagi ahamiyatini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: madaniy meros, klassik adabiyot, lisoniy meros, folklor, nasriy va she’riy meros, merosni saqlash.

Аннотация. В статье анализируется понятие культурного наследия на примере классической литературы. Рассматриваются теоретические основы культурного наследия, идеи наследия в классических произведениях, преемственность наследия через язык и литературу, а также вопросы сохранения и переосмысления культурного наследия на примере литературных произведений (Алишера Навои, Захириддина Мухаммада Бабура и народного устного творчества). Результаты исследования показывают проявление идеологии культурного наследия в литературе и её значение в современном обществе.

Ключевые слова: культурное наследие, классическая литература, языковое наследие, фольклор, прозаическое и поэтическое наследие, сохранение наследия.

Abstract. This article analyzes the concept of cultural heritage using classical literature as an example. It examines the theoretical foundations of cultural heritage, the ideas of heritage in classical works, the continuity of heritage through language and literature, and the preservation and reinterpretation of cultural heritage using specific literary works (Alisher Navoi, Zahiriddin Muhammad Babur, and oral folklore) as examples. The results of the study demonstrate the

manifestation of cultural heritage ideology in literature and its significance in contemporary society.

Keywords: cultural heritage, classical literature, linguistic heritage, folklore, prose and poetic heritage, heritage preservation.

Madaniy meros — milliy va umuminsoniy qadriyatlarning hosilasi bo‘lib, u moddiy va nomoddiy komponentlardan tashkil topadi. Klassik adabiyot esa ushbu merosning eng boy manbalaridan biridir: u tarixiy xotira, dunyoqarash, til va badiiy obrazlar orqali avlodlararo aloqani ta’minlaydi. Madaniy meros atamasi antropologiya, tarixshunoslik, arxitektura, adabiyotshunoslik va boshqa fanlarda turlicha talqin etiladi. Adabiyot — nomoddiy merosni ifodalash va uzatishda markaziy rol o‘ynaydi, chunki adabiy asarlar tilda saqlanadi, ularning matnlari tarixiy kontekstlar, odatlar va tafakkur tuzilmalari haqida bevosita ma’lumot beradi. Nazariy jihatdan, madaniy meros o‘ziga xos identifikator sifatida milliy o‘zlikni shakllantiradi va saqlaydi.

Klassik adabiyotda madaniy meros bir nechta asosiy yo‘llar orqali ifodalanadi. Til — madaniy merosning eng muhim tashuvchisidir. Klassik matnlar nafaqat leksik va grammatik jihatdan, balki metafora, idiomatik birliklar va tilga xos badiiy konstruksiyalar orqali ham davr tafakkurini aks ettiradi. Masalan, ma’lum bir davr sinonimlari, o‘ziga xos frazeologik birliklari orqali o‘sha jamiyatning dunyoqarashi va ijtimoiy munosabatlari seziladi. Tematik obrazlar va motivlar orasida doimiy ravishda uchraydigan g‘oyalar — vatan, ota-ona xotirasi, diniy-etika, axloqiy tarbiya — madaniy merosning markaziy unsurlarini tashkil etadi. Ushbu motivlar yordamida adabiyot avlodlararo munosabatlarni bog‘laydi va milliy xotirani mustahkamlaydi.

Folklor va epos elementlari ham klassik adabiyotning ajralmas qismidir. Afsona, rivoyat, ertak va dostonlarning elementlari klassik matnlarda qayta ishlanib, yozma an’anada yangi shakl topadi — bu merosning uzluksizligini ta’minlaydi. Milliy va ma’naviy qadriyatlar esa insoniy me’yorlar, axloqiy prinsiplar va jamiyat uchun qadrli fazilatlarni targ‘ib etish orqali madaniy merosni ma’naviy darajada saqlaydi.

Alisher Navoiy — turkiy adabiyotning ulkan namoyandasi sifatida o‘zbek madaniy merosida markaziy figura hisoblanadi. Navoiy ijodida milliy tilning ravnaqi, axloqiy me’yorlar, so‘fiyona tasavvufiy va klassik an’analar ko‘plab misollar orqali ifodalanadi. Uning badiiy uslubi, atrof-muhit tasvirlari va aforizmlari orqali xalq folklor an’analari va diniy-ma’naviy qadriyatlar yozma shaklda mustahkamlangan. Zahiriddin Muhammad Boburning “Boburnoma” asari ham madaniy merosni aks ettiruvchi nodir manba bo‘lib, unda jamiyat hayoti, qadriyatlar, urf-odatlar, til va rassomlik tasvirlari orqali o‘sha zamon madaniyati aniq ko‘rinadi. Boburning yozuv uslubi va tafsilotlarga e’tibor berishi merosning kundalik hayotdagi jihatlarini saqlashga xizmat qiladi. Xalq og‘zaki ijodi va yozma adabiyot o‘rtasidagi bog‘liqlik esa madaniy merosning evolyutsiyasini namoyon etadi: xalq dostonlaridagi qahramonlar va ramzlar klassik asarlarda yangi badiiy talqin topib, mazmunan boyiydi.

Klassik adabiyot merosni uzatishda muhim bo‘lsa-da, uning saqlanishi bir qancha qiyinchiliklar bilan bog‘liq. Til o‘zgaradi, eski matnlarni zamonaviy o‘quvchi uchun tushunarli qilish muammosi mavjud. Tarjima va annotatsiyalar yordamida matnni kirish darajasiga moslashtirish kerak, biroq bu jarayon asl mazmunni soddalashtirib yuborishi mumkin. Shuningdek, klassik asarlarda ko‘rsatilgan odat va marosimlarning mazmuni hozirgi jamiyatda noma’lum bo‘lib qolishi mumkin.

Tarix davomida klassik matnlar turli siyosiy va ideologik kontekstlarda qayta talqin qilinganligi ularning asl kontekstini buzib ko‘rsatadi. Raqamli texnologiyalar asl nusxalarni saqlash va ularga kengroq kirishni ta’minlaydi, biroq raqamli arxivlarni tashkil qilish va ularni himoya qilish texnik va huquqiy muammolarni keltirib chiqaradi.

Adabiyotshunoslik madaniy merosni saqlash va targ‘ib qilishda annotatsiyalar va ilmiy tarjimalar, interdisipliner tadqiqotlar, raqamli platformalar va ta’limiy integratsiya orqali muhim rol o‘ynaydi. Klassik matnlarning ilmiy izohli nashrlari ularni keng auditoriyaga yetkazadi; tarix, arxeologiya, etnografiya va lingvistika bilan birgalikda olib borilgan tadqiqotlar esa merosni to‘liqroq yoritadi. Raqamli nashrlar, virtual ekspozitsiyalar va onlayn arxivlar klassik asarlarni kengroq auditoriyaga yetkazish uchun samarali vositadir.

Natijada, klassik adabiyot madaniy merosning nafaqat saqlovchisi, balki uni qayta talqin qiluvchi va yangilovchi omil bo‘lib xizmat qiladi. Til, folklor va milliy qadriyatlar klassik matnlarda bir-biri bilan uzviy bog‘langan holda ifodalanadi, bu esa merosni kompleks obyekt sifatida o‘rganishni talab qiladi. Madaniy merosni zamonaviy jamiyatga moslashtirishda raqamli texnologiyalar va ta’limiy strategiyalar muhim o‘rin tutadi. Shunday qilib, klassik adabiyotdagi madaniy meros g‘oyasi milliy identitet va tarixiy xotirani saqlashda hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Alisher Navoiy. "Xamsa". – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot, 2011.
2. Zahiriddin Muhammad Bobur. “Boburnoma”. – Toshkent: O‘zbekiston, 2010.
3. UNESCO. “Intangible Cultural Heritage and Education.” – Paris, 2020.
4. Xo‘jayev N. “Adabiy meros va zamonaviy talqinlar.” – Toshkent: Fan, 2018.

AXLOQIY TARBIYA: MUAMMO VA YECHIMLAR

Ataxanov Rafikjon Sotvoldiyevich
Qo‘qon universiteti Andijon filiali dotsenti, t.f.f.d (PhD)
ataxanov1966@gmail.com
Sotvoldiyev Muhamadyusuf
Qo‘qon universiteti Andijon filiali talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada bugungi kunda dozarb bo‘lgan axloqiy-ruhiy tarbiya masalasini jamiyat hayotidagi o‘rni va roli ko‘rsatib berilgan. Shuningdek, ahloqiy-ruhiy tarbiyani amalga oshirishda oilaning roli, o‘quv yurtlarida o‘tiladigan fanlarning ahamiyati, buyuk allomalarning tarbiyaviy ishlar bo‘yicha tavsiyalari haqidagi fikrlar keltirilgan. Xususan, ahloqiy-ruhiy tarbiyani amalga oshirishda buyuk allomalarning asarlari va ularda keltirilgan tavsiyalar, xalq maqollari, ertaklar, ibratli rivoyatlardan amalda foydalanish juda muhimligini ta‘kidlash bilan birga, hozirgi glabollashuv davrida internet tarmog‘idagi “hurujlar”, dunyo bo‘yicha migrantlar oqimining yoshlar tarbiyasiga salbiy hamda ijobiy tasirlari bo‘yicha mulohazalar bayon qilingan. Hozirgi murakkab siyosiy va ijtimoiy jarayonlar ummonida yosh avlodning ahloqiy-ruhiy tarbiyasi fundamentini shakllantirishning muhim masalalari muhokama qilingan.

Kalit so‘zlar: Ahloqiy-ruhiy tarbiya, buyuk allomalar, internet, glabollashuv, migratsion jarayonlar, tarbiya, oila, yoshlar, ma‘naviyat.

Аннотация: В статье освещается актуальная проблема нравственного и духовного воспитания, его место и роль в жизни общества. Представлены также размышления о роли семьи в осуществлении нравственного и духовного воспитания, о значении преподаваемых в образовательных учреждениях предметов, а также рекомендации великих предков по вопросам воспитательной работы. В частности, подчеркивая важность практического использования произведений великих мыслителей и их рекомендаций, народных пословиц, сказок и образцовых повествований в осуществлении нравственного и духовного воспитания, представлены комментарии о негативном и положительном влиянии «информационных атак» в Интернете и о влияние потоков мигрантов по всему миру на образование молодёжи в современную эпоху глобализации. Анализируется и описывается теоретическая и практическая значимость формирования основ нравственного и духовного воспитания молодого поколения в семейном кругу в период современных сложных политических и социальных процессах.

Ключевые слова: Нравственное и духовное воспитание, великие мыслители, интернет, глобализация, миграционные процессы, образование, семья, молодёжь, духовность**.**

Abstract: This article explores the pressing issue of moral and spiritual education, its place and role in society. It also presents reflections on the role of the family in moral and spiritual education, the importance of subjects taught in educational institutions, and recommendations from great ancestors on educational matters. In particular, emphasizing the importance of practical use of the works of great thinkers and their recommendations, folk proverbs, fairy tales and exemplary narratives in the implementation of moral and spiritual education, comments are

presented on the negative and positive impact of "information attacks" on the Internet and on the impact of migrant flows around the world on youth education in the modern era of globalization. The article analyzes and describes the theoretical and practical significance of the formation of the foundations of moral and spiritual education of the younger generation in the family circle during the modern complex political and social processes.

Key words: Moral and spiritual education, great thinkers, the Internet, globalization, migration processes, education, family, youth, spirituality.

Bugungi kunda insoniyatning jamiyatga va hayotga bo‘lgan axloqiy-ruhiy munosabatlari borgan sari siyqalashib, ko‘pchilikning yashashdan maqsadi boylik, farovonlik, xashamat va dabdabadan iborat bo‘lib bormoqda. To‘g‘ri yaxshi yashash, farovon hayot kechirishga hammaning ham haqqi bor, ammo bu martabaga erishish o‘zgalarning mulkini egallash, yovuzlik, zo‘ravonlik, qo‘shtirnoq ichidagi epchillik va boshqa shu kabi illatlar hisobiga bo‘lmasligi zarur.

Jamiyatda axloq masalasi eng muhim ahamiyatga ega bo‘lgan kategoriyalardan biridir. Kamina mazkur maqolani yoritishda ushbu kategoriyani insonning axloqiy-ruhiy qarashlari sifatida talqin etishni maqsadga muvofiq deb bildim. Ta’kidlash joizki, axloqiy-ruhiy munosabat tushunchasi ostida shaxsning psixologik holati emas, balki uning hayotga nisbatan ruhan va ma’nan yetukligi, tayyorligini tushunmoq lozim. Chunki, insoniyat turmush tarzining barcha sohalari iqtisodiyotdan tortib siyosatgacha, oddiy muammolardan tortib to dunyo global muammolarigacha bo‘lgan munosabatlar shaxsning bilim va tafakkurlari, malaka va tajribalari, sog‘lom fikrlari bilan bog‘liq. Insonning dunyoqarashi asosida esa uning mazkur jarayonlarga qanchalik javob bera olishi, vaziyatni to‘g‘ri baholay olishi, ushbu jarayonlarga ruhan tayyorgarligi tushuniladi. Quyida mazkur maqola orqali aziz o‘quvchilarimizga insonning eng ulug‘ fazilatlaridan biri bo‘lgan axloq masalasiga to‘xtalib, ushbu kategoriya orqali jamiyatimizdan sodir bo‘layotgan muammolarning bartaraf etishni axloqiy-ruhiy jihatlarini ochib berishni niyat qildik.

Tasavvur qilib ko‘ring, agar kishining axloqiy ruhiy tayyorgarligi yetarli darajada shakllangan bo‘lganda edi, balki butun jahon sivilizatsiyasining bugungi ko‘rinishi urushlar, talofotlar uchun emas, faqat inson hayoti, uning farovon turmushi uchun xizmat qilgan bo‘lar edi. Afsuski, shiddat bilan rivojlanayotgan, ammo mafkuraviy bo‘hronlar, o‘zaro qarama - qarshiliklar, milliy-etnik mojarolar, odamlar tafakkuridagi evrilishlar, turli sivilizatsiya va madaniyatlararo to‘qnashuvlar, g‘oyaviy tahdidlar uning ortidan sodir bo‘lgan yovuzliklar va vahshiyliklar jahon afkor ommasini tobora tashvishga solib bormoqda. Tashvishga solayotgan asosiy muammo bugungi yoshlarning dunyoqarashlari, tafakkurlari va atrof-muhitga bo‘lgan munosabati, bir so‘z bilan aytganda ularning axloqiy-ruhiy qarashlaridadir.

Ushbu muammolar girdobida eng dolzarb hisoblangan va bizlarni xavotirga solayotgan masala bu – yoshlarning fikrlari nihoyatda tor va biqiq holatda ekanligi, havoyi orzulari ummonida ijtimoiy tarmoqni hayotining asosiy mazmuniga aylantirib olganligidir. Jahon internet tarmog‘i (o‘rgimchak to‘ri) dagi tarqalayotgan insonni chalg‘ituvchi noo‘rin, noto‘g‘ri ma’lumotlar, betayin kinolar, fahshni targ‘ib etuvchi axloqsiz tasvirlar, jinoyatga yetaklovchi chaqiriqlar hamda o‘z joniga qasd qilishga olib keluvchi qimor o‘yinlariga mukkasidan ketgan bugungi yoshlarning axloqiy va ruhiy holatlari tobora murakkablashib bormoqda. Bunday ma‘lumotlar bilan **“zaharlangan”** insonlarni sog‘lom fikrga qaytarish profilaktikasi esa juda qiyin kechmoqda.

Ma’lumki, insonlar qadimdan tabiat va jamiyatdagi voqeliklarga o‘z munosabatini bildirib kelgan. Shu bilan birga jamiyatdagi mavjud muammolarni yechimini izlashga urinib kelgan. Tarixiy ma’lumotlarga ko‘ra, ming yillar davomida faylasuflar, donishmandlar, mutafakkirlar olimlar-u ulamolar shaxsning “U aslida kim”, uning asl mohiyati nimadan iborat ekanligi haqidagi savollarga javob qidirib kelganlar. Ammo afsuski, mazkur muammoga haligacha hech kim mufassal javob bergan emas [1]. Yaratilgan minglab nazariyalar, kashfiyotlar, turli ilm maskanlarida o‘tazilgan tajribalar va dissertatsiyalar, ularda bildirilgan fikrlar, taqdim etilgan

xulosalar natija berganda va insonlar ularga amal qilganda hozir shaxs tarbiyasi, ma'naviyati, madaniyati to'g'risida bong urib o'tirmas edik [1].

Agar tarixga sinchiklab nazar tashlaydigan bo'lsak, zardo'shtiylarning muqaddas kitobi – "Avesto"da hamda buyuk ajdodlarimiz – Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali Ibn Sino, Alisher Navoiy kabi allomalar asarlarida insonda yuksak axloqiy fazilatlarni kamol toptirishda oila, milliy qadriyatlar hamda ta'lim, saboq masalalari asosiy o'rinni egallashi qayd etilgan.

Ulug' ma'rifatparvar alloma Mahmudxo'ja Behbudiy o'z zamonasidan turib, o'sha vaqtlardayoq yoshlarga qarata jumladan, bunday degan edi: "...Ushbu taraqqiy etgan zamonda ilmsiz, ma'rifatsiz, quruq taassub bilan yashab bo'lmaydi. Hozirgi zamonaviy taraqqiyot va rivojlanish shunday kuchli bo'lmoqdaki, ozgina fursat o'tar-o'tmas quruq va chirigan taassublarimizni ildizi bilan qo'porib tashlaydi. Shuning uchun barcha yoshlarimiz bu borada bir narsaga tayanishlari mumkin. Bu narsa ilmu ma'rifatdir" [2].

Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev ham ushbu masalada qayg'urib: "Zamonaviy bilim va ko'nikmalarga ega, mamlakatning munosib kelajagi uchun javobgarlikni o'z zimmasiga ola biladigan barkamol, maqsadga intiluvchan va serg'ayrat yoshlarni tarbiyalash mamlakatni barqaror va ildam rivojlantirishning eng muhim shartidir," – degan edi [3, 88].

Xullas, bugungi kunda mazkur masala barcha jamiyatlarda bo'lganidek, bizda ham hal etilishi lozim bo'lgan katta muammolardan biridir. Chunki hayot shiddat bilan rivojlanib bormoqda. Axborot almashinuvi, dunyodagi keng qamrovli integratsiya jarayonlari bizning hohishimizdan qat'iy nazar, shiddat bilan kirib kelmoqdaki, uning yo'lidagi ko'plab milliy va umuminsoniy qadriyatlarni go'yoki xazon kabi chetga surib chiqarmoqda. Shuning uchun ming yillar davomida tarkib topgan sharqona odob, islomiy axloq sifatlari, milliy mentalitetimizga mos bo'lgan axloqiy-ruhiy tarbiyani ta'lim va tarbiya jarayoniga olib kirsak ayni muddao bo'lur edi.

Uzoq yillik tarixiy taraqqiyotning rivojlanishi shuni ko'rsatadi-ki, insoniyatni hamisa o'zidan keying avlod tarbiyasi tashvishga solib kelgan va shu masala ustida jamiyatning ilg'or kishilari – olimu ulamolar, donishmandlar, faylasuflar bosh qotirib kelganlar. Shuning uchun ham jamiki yetuk olimlar, fozil va allomalar, aziz-avliyo kabi zotlarning yozgan asarlarining asosiy masalasi va maqsadi insonlarga ruhiy hamda ahloqiy tarbiya berishdan iborat bo'lgan.

Ulug' allomalar insonlarga ruhiy-ahloqiy tarbiya berishda birinshi navbatta o'z farzanlari va yaqinlaridan boshlab, ularni kamida bitta hunar o'rganishi juda muhimligini ta'kidlaganlar. Abdurahmon Jomiyning o'g'liga qilgan nasihatlari Kayqovusning "Qobusnoma" asaridagi quyidagi fikrlariga hamohangdir: "Agar kishi har qancha oliy nasab asl bo'-yu, ammo hunari bo'lmasa, u xaloyiqning izzat va hurmatidan noumid bo'lur. Ulug'lik aql va bilim bilandir, nasil nasabbilat bilan emas, otni senga ota va onang qo'ymishlar, sen unga g'arra bo'lmagil. Bu ot faqat nishondan boshqa narsa emasdir, ammo sen hunar ila bir nomga ega bo'lg'il" [4]. Yoshlarga tarbiya, ta'lim berish mustahkam va yahlit birlikda amalga oshiriladi. Tarbiyaning o'z vazifasi, mazmuni, shakl hamda uslublari bor. Yoshlarga tarbiya berishda ularning g'oyaviy-siyosiy ongini shakillantirish, atrof-muhitga, jamiyatga ongli munosabatda bo'lish, jonajon vatanni cheksiz sadoqat bilan sevish, xalqimizning milliy qadiryatlarini e'zozlash hissini tarkib toptirish vatanparvarlik tarbiyasining mag'zi bo'lmogi lozim [5].

Yosh avlodga tarbiya va ta'lim berishda birinchi navbatda oilada sog'lom muhit, bola tarbiyasiga jiddiy e'tibor hamda maktabgacha, boshlang'ich ta'lim, o'rta maktab, lirtsey, kollej, texnikumlar, oliy o'quv yurtlaridagi tarbiyaviy jarayonlar o'zaro uzliksiz bo'lishi muhim ahamiyatga ega. Garchand, bugungi kundagi axloqiy-ruhiy tarbiyadan ko'nglimiz to'lmayotgan bo'lsada, biroq bu masalada faqatgina yoshlardan ayb qidirish insofdan emas. Chunki, farzandni tarbiyalash avvalo ota onaning, barcha tarbiya maskanlarining qolaversa, jamiyatning eng katta vazifasidir.

Fikrimizcha, axloqiy-ruhiy tarbiya masalasida ota-onaning o'rni barcha qolgan omillardan ustun hisoblanadi. Chunki, farzandning asosiy vaqti oila davrasida o'tadi. Demak farzandga berilayotgan tarbiya jarayoni ichki muhit bilan bog'liq. Biroq, shuni ham ta'kidlamoq kerak-ki, inson tabiati hamisha o'zga va notanish bo'lgan muhitga, ta'qiqlangan narsalarga qiziqish, xarom

va xalolni pisand qilmaslik va qisqa muddat oralig‘ida boylikka, xashamatli xayotga erishish orzusi bilan ko‘r – ko‘rona turmush kechirish istagi insonni axloqiy-ruhiy tarbiyasini o‘zgartirib yuboradi.

Bil’aks, inson avvalo hayotga ruhiy jihatdan tayyorlanib borishi kerak. Ya’ni shaxsning ruhiyati ilm va ma’rifat bilan boyitilib borishi lozim. Buning uchun insonning mehnatga bo‘lgan ruhiy munosabatini eng oliy qadriyat sifatida shakllantirilishi muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, inson yaxshi kasb egasi, o‘z ishining mohir ustasi bo‘lishi uchun unga sabr ruhiyati kerak bo‘ladi. Yoinki, oila farovonligi ota-ona rizoligi uchun mehr ruhiyatini yaratmoq lozim. Obro‘-e’tibor, yaxshi jamoa o‘zaro hurmat uchun esa muomala ruhiyatini shakllantirish muhim.

Xo‘sh bunday xislatlarga ega bo‘lmoq uchun tarbiyani nimadan boshlamoq kerak? Gap shundaki, aynan insonning ruhiy jihatdan ya’nikim, uning his-tuyg‘ularini, diniy va dunyoviy qarashlarinni, hohish va istaklarini muayyan me’yorga solish maqsadga muvofiqdir. Buning bizning yurtimizda milliy an’analarimiz, ajdodlarimizning o‘g‘itlari, pand-nasihatlari yetarli. Agar joiz bo‘lsa, yapon va xitoy kabi dunyoning yetakchi davlatlari ta’lim tizimidagi tarbiyaviy tajribalarni o‘rganish hamda joriy etish ham foydadan xoli emas.

Xulosa qilib aytganda, millat tarbiyasi, yosh avlodning farovon va boqiy kelajagi bugungi kunda olib borilayotgan axloqiy-ruhiy tarbiyaning qay darajada tashkil etilganligi va uni amalga oshirish mexanizmlarining samarali ishlashiga bog‘liq. Albatta bu o‘rinda muammoni hal etish uchun oila, jamiyat hamda barcha ta'lim maskanlarining o‘zaro hamkorligini qat'iy yo‘lga qo‘yish lozim. Masalaga yondashishda ta'lim jarayonidagi fanlarni o‘qitilishida uning asosiy mazmunini axloqiy-ruhiy muammolar integrasiyasiga qaratish maqsadga muvofiq. Ayniqsa, o‘quvchilarga ta'lim berish bilan birga ularni o‘zlari qiziqtirgan hunar sohalariga yo‘naltirish muhim hisoblanadi. Shuningdek, ajdodlar merosi, ularning boy o‘g‘itlari, tajribalari, tavsiyalari, ibratli hayot yo‘llarini yoshlar ongi-shuuriga ma'naviy ozuqa sifatida singdirish biz ko‘zlayotgan maqsadga etishda xizmat qiladigan omillardan biridir.

ADABIYOTLAR

1. https://yuz.uz/news/axloqsizlik-yangi-axloqmi. A.Маврулов
2. https://ilmiy anjumanlar.uz/uploads/conferences/ pdf Т.Халилов
3. Мирзиёев Ш. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. 2-жилд. – Тошкент: Ўзбекистон, 2019. – Б. 88
4. Qobusnoma/ Kaykovus. Nashirga tayyorlovchi: Subutoy Dolimov, Ylugbek Dolimov,- Toshkent: Yangi asr avlodi, 2016.-224 b
5. Qobusnoma asarida yoshlar tarbiyasi- HURRIYAT Sep 7. 2037

BOSHQARUVNING ZAMONAVIY MUAMMOLARLARI VA STRATEGIK YECHIMLAR

Nizamova Umida Sandjarovna
Andijon davlat texnika instituti dotsenti,
pedagogika fanlari nomzodi
Abdumuxtarova Dilnavoz Umidjon qizi
Andijon davlat texnika instituti talabasi
umidanizamova18@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur ilmiy ishda zamonaviy boshqaruv tizimlarida uchrayotgan dolzarb muammolar tahlil qilingan. Jumladan, texnologik o‘zgarishlarga moslashuv, inson resurslarini boshqarishdagi qiyinchiliklar, tashqi raqobat va ijtimoiy hamda ekologik bosimlar kabi muammolar yoritilgan. Ushbu muammolarning har biriga strategik yechimlar taklif qilinadi. Raqamli transformatsiya, barqarorlik tamoyillari, liderlikni rivojlantirish va korporativ mas’uliyatni oshirish orqali tashkilotlarda samarali boshqaruvni ta’minlash mumkinligi asoslab beriladi

Kalit so‘zlar: boshqaruv, zamonaviy muammolar, strategik rejalashtirish, raqamli transformatsiya, inson resurslari, innovatsiya, barqarorlik, ijtimoiy mas’uliyat.

Аннотация*:* В данной научной работе рассматриваются основные проблемы, с которыми сталкиваются современные системы управления. Внимание уделяется таким аспектам, как цифровая трансформация, сложности в управлении персоналом, глобальная конкуренция, социально-экономическое давление и необходимость экологической устойчивости. Для каждой из проблем предложены стратегические и современные решения: инновационные подходы, гибкие управленческие модели, внедрение цифровых технологий и развитие корпоративной социальной ответственности.

Ключевые слова: управление, современные проблемы, стратегическое планирование, цифровая трансформация, человеческие ресурсы, инновации, устойчивость, социальная ответственность**.**

Abstract: This paper explores key challenges in modern management systems, including technological adaptation, human resource complexities, external market pressures, and growing socio-environmental demands. It offers strategic solutions such as digital transformation, leadership development, and implementation of sustainability principles. The study concludes that only through innovative, flexible, and responsible governance can organizations ensure long-term effectiveness and competitiveness in today's dynamic environment.

Keywords: management, modern challenges, strategic planning, digital transformation, human resources, innovation, sustainability, corporate responsibility.

Boshqaruvning zamonaviy tizimlari doimiy o‘zgarishlar va yangi muammolar bilan yuzlashmoqda. Raqamli texnologiyalarning tez sur'atlarda rivojlanishi, global iqtisodiyotning o‘zgarishi, shuningdek, ijtimoiy va ekologik talablarning kuchayishi boshqaruv jarayonlariga yangi qiyinchiliklar olib kelmoqda. Tashkilotlar uchun bu muammolarni aniqlash, tahlil qilish va ularni samarali hal etish strategiyalarini ishlab chiqish muhimdir.

An'anaviy boshqaruv uslublari zamonaviy sharoitda samaradorligini yo‘qotmoqda. Shu sababli, innovatsion yondashuvlar va zamonaviy texnologiyalar asosida boshqaruvni yangilash zarurati tug‘ilmoqda. Ushbu maqola boshqaruv sohasidagi eng muhim muammolar va ularga taklif etilayotgan strategik yechimlarni ko‘rib chiqadi [1,134].

Zamonaviy boshqaruvdagi asosiy muammolar quyidagilardan iborat: texnologik o‘zgarishlarga moslashishdagi qiyinchiliklar, inson resurslarini boshqarishda yuzaga keladigan muammolar, global raqobat va iqtisodiy beqarorlik, shuningdek ekologik va ijtimoiy mas'uliyat talablarining oshishi.

Texnologik rivojlanish tezligining oshishi ko‘plab tashkilotlarda eski boshqaruv tizimlarining samaradorligini pasaytiradi. Raqamli transformatsiyani to‘liq amalga oshira olmaslik jarayonlarning samaradorligini kamaytiradi va tashkilotning raqobatbardoshligini susaytiradi. Malakali kadrlarning yetishmasligi, moddiy-texnik infratuzilmaning zaifligi ham muammo sifatida qolmoqda[2,62].

Inson resurslari boshqaruvida yangi avlod xodimlarining talab va istaklari an'anaviy tizimlarga mos kelmasligi muhim qiyinchiliklar keltirib chiqarmoqda. Ular ijodiy erkinlik, shaxsiy rivojlanish imkoniyatlarini kutadi, bu esa tashkilotlarda motivatsiya va barqarorlikni saqlashga ta'sir qiladi.

Global raqobat sharoiti doimiy o‘zgaruvchan va murakkab. Geosiyosiy omillar, iqtisodiy beqarorlik, valyuta kurslarining o‘zgarishi boshqaruv jarayonlarida yanada moslashuvchan va tezkor qarorlar qabul qilishni talab qiladi[3,82-24].

Atrof-muhitni muhofaza qilish va ijtimoiy mas'uliyat bugungi boshqaruvning ajralmas qismiga aylangan. Korxonalarning barqaror rivojlanishi uchun ekologik talablarni bajarish va ijtimoiy mas'uliyatni oshirish shart.

Strategik yechimlar

Muammolarni samarali hal etish uchun innovatsion va raqamli transformatsiya strategiyasini joriy qilish zarur. Zamonaviy texnologiyalarni qo‘llash, boshqaruv jarayonlarini avtomatlashtirish va sun'iy intellekt imkoniyatlaridan foydalanish raqobatbardoshlikni oshiradi[4,39].

Kadrlar boshqaruvida zamonaviy motivatsiya tizimlari, rahbarlikni rivojlantirish, xodimlarning malakasini oshirish uchun trening va kurslar tashkil etish muhim hisoblanadi. Bu inson kapitalining samarali ishlatilishiga yordam beradi.

Boshqaruv usullarida moslashuvchanlikni oshirish uchun Agile va Lean kabi yondashuvlarni qo‘llash kerak. Bu tezkor o‘zgarishlarga moslashishga yordam beradi.

Barqarorlik va ijtimoiy mas’uliyatni oshirish maqsadida korporativ ijtimoiy mas’uliyat dasturlarini joriy etish, ekologik standartlarga rioya qilish va yashil texnologiyalarni tatbiq etish tashkilotlarning obro‘sini oshiradi va uzoq muddatli rivojlanishni ta’minlaydi [5,72].

Xulosa qilib aytganda, zamonaviy boshqaruv muammolari murakkab va ko‘p qirrali bo‘lib, ularni yechish uchun strategik va innovatsion yondashuvlar zarur. Raqamli transformatsiya, kadrlar salohiyatini oshirish, boshqaruv usullarini moslashtirish va ijtimoiy-eko mas’uliyatni kuchaytirish tashkilotlarning samaradorligi va barqarorligini ta’minlaydi. Shu yo‘l bilan ular global raqobat muhitida o‘z o‘rnini mustahkamlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Maxmudov A. “Strategik boshqaruv tamoyillari”, Toshkent, 2022.
2. Kaplan R., Norton D. “The Balanced Scorecard: Translating Strategy into Action”, Harvard Business Review, 2004.
3. Nurmatov N., Karimova D. “Raqamli transformatsiya va zamonaviy boshqaruv”, Ilmiy jurnali, 2023.
4. Porter M. “Competitive Strategy”, New York, 2008.
5. Fayziyev A. “Kadrlar boshqaruvi va motivatsiya tizimi”, Toshkent, 2021.

SUN’IY INTELLEKTDAN FOYDALANISH VA INSON TAFAKKURI

Karimova M.A.

KUAF “Tarix va ijtimoiy fanlar” kafedrasi dotsenti

Annotatsiya: Maqolada suniy intelektdan foydalanishda raqamlashtirish hodisasini, jumladan, sohalarni raqamlashtirish va uning raqamli ongni rivojlanishiga ta’siri falsafiy tahlil qilingan. Mahalliy va xorijiy fanlar va falsafada raqamlashtirish jarayonlarini ko‘p qirrali xususiyati ko‘rsatilgan. Raqamli ong fenomeni bilan bog’liq ilmiy aks ettirishning zaifligini ko‘rsatadigan “raqamlilashtirish” tushunchasi va uning tanlangan ta’riflarining tanqidiy tahlili keltirilgan. Mualliflar “SI” ni dunyoning raqamli rasmini, raqamli shaxsni shakllantirish, shuningdek, individual va jamoaviy ongni raqamlashtirish kontekstida ko‘rib chiqadilar. Umumjahon raqamlashtirishning inson va uning tafakkuriga ta’sirining o‘ziga xos xususiyatlari falsafiy tahlil etilgan.

Kalit so‘zlar: axborot, SI, jamiyat, raqamlashtirish, dunyoning raqamli surati, raqamli ong, raqamli shaxs, universal raqamlashtirish, global raqamli muammo.

Аннотация: В статье философски анализируется феномен цифровизации в применении искусственного интеллекта, в том числе цифровизации отраслей промышленности, и его влияние на развитие цифрового сознания. Показана многогранность процессов цифровизации в отечественной и зарубежной науке и философии. Представлен критический анализ понятия «цифровизация» и отдельных его определений, показывающий слабость научной рефлексии над феноменом цифрового сознания. Авторы рассматривают «цифровизацию» в контексте цифровой картины мира, формирования цифровой личности, а также цифровизации индивидуального и коллективного сознания. Философски анализируются особенности воздействия глобальной цифровизации на человека и его мышление.

Ключевые слова: информация, цифровизация, общество, цифровизация, цифровая картина мира, цифровое сознание, цифровая личность, всеобщая цифровизация, глобальная цифровая проблема.

Abstract: This article provides a philosophical analysis of the phenomenon of digitalization in the application of artificial intelligence, including the digitalization of industrial

sectors, and its impact on the development of digital consciousness. The multifaceted nature of digitalization processes in Russian and international science and philosophy is demonstrated. A critical analysis of the concept of "digitalization" and its individual definitions is presented, demonstrating the weakness of scientific reflection on the phenomenon of digital consciousness. The authors examine "digitalization" in the context of the digital worldview, the formation of a digital identity, and the digitalization of individual and collective consciousness. The impact of global digitalization on humans and their thinking is analyzed philosophically.

Keywords: information, digitalization, society, digitalization, digital worldview, digital consciousness, digital identity, universal digitalization, global digital problem

Tafakkur — inson aqliy faoliyatining yuksak shakli, obyektiv voqelikning inson ongida aks etish jarayoni. Tafakkur atrof - muhitni, ijtimoiy hodisalarni, voqelikni bilish quroli, shuningdek, inson faoliyatini amalga oshirishning asosiy sharti sanaladi. U sezgi, idrok, tasavvurlarga qaraganda voqelikni to‘la va aniq aks ettiruvchi yuksak bilish jarayonidir. Tafakkur deb, voqelikdagi narsa va hodisalarni ular o‘rtasidagi bog‘lanishlarni fikran, umumlashtirib, vositali yo‘l bilan aks ettirishga aytiladi. Voqelik tafakkurda, idrok va tasavvuriga nisbatan chuqurroq va to‘laroq aks etadi. Biz sezgi, idrok vositasi bilan bilib olishimiz mumkin bo‘lmagan narsa yoki hodisalarni, narsa yoki hodisalarning xususiyatlarini, ularning bog‘lanish va munosabatlarini tafakkur vositasi bilan bilib olamiz. Tafakkur — inson miyasining alohida funksiyasi. Uning nerv fiziologik asosi birinchi va ikkinchi signal sistemalarining o‘zaro munosabatidan iborat. Tafakkur jarayonida insonda fikr, mulohaza, g‘oya, faraz kabilar vujudga keladi va ular shaxsning ongida tushunchalar, hukmlar, xulosalar shaklida ifodalanadi. Tafakkur til va nutq bilan chambarchas bog‘liq ravishda namoyon bo‘ladi. Fikrlash faoliyati nutq shaklida namoyon bo‘ladi.

Sun’iy intellekt (SI) — bu kompyuterlar va mashinalarga insoniy fikrlash, o‘rganish, muammo yechish va qaror qabul qilish qobiliyatlarini berishga intiladigan texnologiyalar majmuasidir ya’ni jarayon raqamlashtirish asosida namoyon bo‘ladi. Sun’iy intellekt — odamga o‘xshab o‘ylaydigan va harakat qiladigan dastur yoki tizim bo‘lib quyidagi xususiyatlarga ega:

1. Tushunadi (matn, rasm, ovoz)

Masalan, Google Translate yoki ovozdan matnga dasturlar.

2. Reja tuzadi va qaror qabul qiladi

3. Masalan, avtomatik haydovchi tizimlari (avtopilot).

4. Muammolarni hal qiladi

Masalan, sizga eng qisqa yo‘lni topib beradigan GPS tizimi. SIning qo‘llanilishi:

1. Sog‘liqni saqlash – bemorlarni tashxislash, dori topish
2. Transport – avtopilot, yo‘l optimallashtirish
3. Tijorat – xaridor odatlarini tahlil qilish
4. Xavfsizlik – yuzni aniqlash tizimlari
5. Ta’lim – individual o‘quv dasturlari yaratish.

Raqamlashtirish jarayonlari insoniyat tsivilizatsiyasi hayotini shunchalik tez va keng qamrab olmoqdaiki, ularni o‘tmishda sodir bo‘lgan kosmizatsiya va ekologizatsiya jarayonlari bilan solishtirish mumkin bo‘ladi. Raqamlashtirish haqiqatan ham zamonamizning global muammosiga aylanib, nafaqat ilgari paydo bo‘lgan global muammolarni axborot maydonidan siqib chiqarmoqda, balki ularni asta-sekin o‘ziga singdirib, o‘ziga qaram qilib qo‘ymoqda. Raqamlashtirish kontekstidan tashqarida insoniyat transgumanizm davri boshlanishiga olib keladigan global muammolarni konstruktiv hal eta olmasligi haqidagi tezis tobora ishonchli bo‘lib bormoqda: termoyadroviy qirg’in tahdidi va sayyoramizning bo‘ronli ekologik degradatsiyasining oldini olishdan xaotik kosmosizatsiya jarayonlarini optimallashtirishgacha, axborotlashtirish va uyg’unlashtirish usullarini optimallashtirishgacha, texnosfera va ijtimoiy-antroposfera, tabiiy aql va sun’iy intellektning birgalikdagi evolyutsiyasi. Raqamlashtirish global jarayon sifatida ikki asr oldin o‘z-o‘zidan paydo bo‘lgan texnologiya kabidir. Bu bizning zamonamizning global muammosining barcha mezonlariga javob beradi. “Raqamlilashtirish” tushunchasi umumiy qabul qilingan ta’rifga ega emas. Ko‘pincha raqamlashtirishni “katta ma’lumotlar va tegishli

texnologiyalarga asoslangan yangi davr” sifatida ko‘rib chiqish taklif etiladi uning doirasida sun’iy intellekt va mashinani o‘rganish usullari yordamida mahsuldorlikni oshirish va mavjud ma’lumotlar massivlarini tizimlashtirish maqsadida yangi vositalar yaratiladi [1]. Ushbu kontekstdagi ichki falsafiy mulohazalar juda xilma-xildir. Shunday qilib, G. L. Tulchinskiy raqamlashtirishni “diskretlik, hisoblash, dasturlash va algoritmlash g’oyalarini ishlatadigan texnologiyalarni ishlab chiqish va qo‘llash” deb tushunishni taklif qiladi [2,b. 36]. Uning fikricha, raqamli “Kibernetika hodisasi zamonaviy tsivilizatsiyaga o‘zining barcha ko‘rinishlariga kirib boradi: kompyuter va kommunikatsiyalar, ta’lim va biotexnologiya, nanotexnologiya va astrofizika, ekspert tizimlari va internet, haydovchisiz avtomobillar va “ aqlli shaharlar ” [3, 37-bet], umumiy texnologik va kontseptual platformani o‘rnatish. Molchan, antropologik nutqida raqamlashtirishni “inson shaxsining virtual voqelikka chekinishi” sifatida tavsiflaydi, buning natijasida raqamli davrda insoniyatning kasalligi sifatida shaxsiyatning insoniylashuvi, gadjetlar va kompyuter tizimlariga qaramlik paydo bo‘ladi O‘ziga xos madaniyatga ega bo‘lgan, jamiyatning ma’naviy va axloqiy qadriyatlarini shakllantirishga ta’sir qiluvchi global virtual makon, B. V. Martynov, kognitiv nuqtai nazardan, raqamlashtirishni “ insonning raqamli texnologiyalar orqali atrofdagi dunyo bilan bog’lash qobiliyati ” deb tushunadi. Raqamli jamiyat toifalarida dunyoni anglash, ularning yordami bilan hayotiy maqsadlarni shakllantirish va ularga erishish yo‘llarini topish qobiliyati” [4. [84]. T. V. Fomicheva raqamlashtirishni instrumental ma’noda ko‘rib, uni “axborotni raqamli shaklga aylantirish, keyinchalik xarajatlarni optimallashtirish va yangi rivojlanish istiqbollari paydo bo‘lishiga olib keladi” [5,80 b].

Axborot inqilobi inson tizimlarining kommunikativ bog’lanishida sifatli sakrashni rag’batlantiradi, ijtimoiy-madaniy landshaftlarni mustahkamlaydi va kengaytiradi, shu bilan birga zamonaviy ijtimoiy-tabiiy (noosfera) o‘zini-o‘zi tashkil etish sharoitida murakkab o‘ziga xoslikni takomillashtirishga olib keladi . Tarmoqli axborot va raqamli inqilob jamiyatni tashkil etish va aloqaning yangi shakllarini keltirib chiqardi, ular u yoki bu tarzda “raqamlashtirish” atamasi orqali tavsiflanadi. Uning lingvistik tahlili bir xil ildizga ega ikkita inglizcha so‘zni anglatadi. Birinchisi, asosan, ob’ekt shaklini o‘zgartirishni, ya’ni atrofdagi voqelik ob’ektlarini raqamli ekvivalentga aylantirishni anglatadi. (Masalan, iqtisodiyotda “raqamlashtirish” “yaxshiroq ergonomika” metaforasi bilan tavsiflanadi - oson, tezkor kirish, resurslar va xizmatlarning keng tarqalganligi.) Ikkinchi ta’rif davlatlar va boshqa tizimlarning rivojlanish strategiyasi bilan bog’liq - tashkilot, sanoat, mamlakat va boshqalar tomonidan raqamli yoki kompyuter texnologiyalarini qabul qilish yoki ulardan foydalanishni kuchaytirish. Raqamlashtirishning sinonimi) va operatsion (odam tomonidan ilgari bajarilgan vazifalarni kompyuterga o‘tkazish) . Axborot va raqamli inqilobning “ichkariga” rivojlanishi raqamlashtirish haqidagi g’oyalarning asta-sekin kengroq talqin qilinishiga olib keldi. Shu munosabat bilan “universal raqamlashtirish” hodisasini tushunish zarurati paydo bo‘ldi. Ikkinchisi uning muayyan ko‘rinishlarining inson va jamiyatga, jamiyat va davlatga, siyosat va iqtisodiyotga, ta’lim va tarbiyaga qanday ta’sir etishi haqidagi turli munozaralarda o‘rganiladi [6]. Bizning fikrimizcha, keng miqyosli muammolilik hali ham o‘zining “yadrosiga” ega - biz “raqamli odam” va uning ongi haqida gapiramiz. Savolning bunday shakllantirilishiga nafaqat “ongni aniqlash” modelining o‘sib borayotgan ro‘lini tan olish, balki ma’naviy ishlab chiqarishning moddiy ishlab chiqarish ustidan asta-sekin o‘sib borayotgan hukmronligi bilan bog’liq “noosfera burilish” deb ataladigan narsa ham alohida ahamiyat kasb etadi .*Universal raqamlashtirish (yoki bosh harf bilan raqamlashtirish) - bu noosfera supertizimidagi tabiiy intellekt va sun’iy intellekt o‘rtasidagi o‘zaro ta’sirning turli shakllarida ifodalangan raqamli aloqa, ma’lumotlarni yozib olish va uzatish usuliga intensive o‘tish bilan birga bo‘lgan inson axboroti va intellektual faoliyati chegaralarini kengaytirish jarayoni.* Ushbu ta'rif, shu bilan birga, atrofdagi dunyo va raqamli tsivilizatsiyaning raqamli rasmini yaratishga qaratilgan uslubiy yondashuvni ifodalaydi.

Raqamli texnologiyalar hayotimizga shunchalik singib ketdiki, bugungi kunda nafaqat kundalik faoliyatimiz, balki ijtimoiy-iqtisodiy sohalar rivojini ham ularsiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Tabiiyki, boshqa sohalarda bo‘lgani singari raqamli texnologiyalar jahon ta’lim muassasalarida ham bo‘lajak mutaxassislarni raqamli texnologiyalar muhitida mehnat bozoridagi

o‘zgaruvchan tendensiyalarga tezkor moslashish imkonini beruvchi raqamli kompetensiyalar tizimidan foydalanib tayyorlash amaliyotga tadbiq etilgan. YuNESKO tomonidan qabul qilingan 2030 yilgacha xalqaro ta’lim konsepsiyasida “Butun hayot davomida sifatli ta’lim olishga imkoniyat yaratish” dolzarb vazifa sifatida belgilangan. Ilm-fan va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari jadal taraqqiy etib borayotgan bugungi sharoitda dunyoning rivojlangan mamlakatlarida davlat va jamiyat boshqaruvi, iqtisodiyot, sanoat, ijtimoiy himoya, ta’lim, tibbiyot, bandlik, qishloq ho‘jaligi, mudofaa, xavfsizlik, turizm va boshqa sohalarda raqamli texnologiyalar va sun’iy intellekt imkoniyatlaridan keng foydalanish asosiy masalalardan bo‘lib qolmoqda. Respublikamizda ta’lim tizimida, raqamli texnologiyalar sun’iy intellekt texnologiyalari sohalarida katta islohotlar amalga oshirilmoqda. “Raqamli O‘zbekiston — 2030” Strategiyasini amalga oshirish dasturi doirasida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 17.02.2021 yilda “Sun’iy intellekt texnologiyalarini jadal joriy etish uchun shart - sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori qabul qilindi. Prezidentimiz Sh. M. Mirziyoyev tomonidan bu qarorlarni qabul qilinishi albatta respublikamizda raqamli hayotga tadbiq etishga undadi. Raqamlashtirish hamma soha va dunyoni qamrab bormoqda: onlayn xizmatlar orqali siz nafaqat oziq-ovqatga buyurtma berishingiz, suhbatlashishingiz yoki ob-havo ma’lumotlarini bilishingiz, balki tibbiy maslahat olishingiz, bank kartasini chiqarishga buyurtma berishingiz mumkin. Bundan tashqari, xorij amaliyotida bir qator sohallarda elektron hujjat aylanishi juda nozik sohalarda yam qog’oz hujjat aylanishini almashtirdi: masalan, qog’oz sertifikatlarni almashtirish uchun mulk huquqini davlat ro‘yxatidan o‘tkazish to‘g’risida mulk huquqini ko‘chmas mulkning yagona davlat reestrida (YURRE) ro‘yxatdan o‘tkazish, undan zarurat tug’ilganda fuqaro mustaqil ravishda ro‘yxatdan o‘tishi mumkin. Shu sababli, xalqaro munosabatlarda raqamlashtirish o‘sib borayotganidan aql bovar qilmaydigan ko‘rinadi. Xususan, diplomatik vakolatxonalarning ayrim funksiyalarini onlayn rejimga o‘tkazish insoniyat mehnatini takomillashtirishga xizmat qilmoqda. Sezilarli miqdordagi xorijiy diplomatik missiyalar “Virtual elchixonalar”ning tashkil etilishi haqidagi xabar birinchi marta Internetda 2007 yilda paydo bo‘lgan

Umuman olganda, individual ongni raqamlashtirish jarayoni quyidagi o‘zgarishlarga olib keladi: 1) ong sohasining kengayishi miqyosi; 2) bir qutbli ongdan ko‘p qutbli ongga o‘tish; 3) ongning raqamli “virtualligi” darajasining oshishi; 4) fikrlash jarayonlarini algoritmlash (va ma’lum darajada kompyuter unifikatsiyasi); 5) Internetda bilim komponentini ongdan begonalashtirish. Raqamlashtirish real voqelikning virtual (raqamli) voqelikka davom etishi hisobiga zamonaviy inson yashaydigan sferani sezilarli darajada kengaytiradi. Tegishli bilimlarning umri qisqarganidek, jaholat maydoni ham misli ko‘rilmagan darajada o‘sib bormoqda. Rasmiy ravishda ong asta-sekin geterarxik (tarmoq) tuzilishga ega bo‘ladi va markazsizlashadi. Bir tomondan, bu unga xavfli sharoitlarda barqarorlikni beradi, boshqa tomondan, nozidlik ehtimolini oshiradi. Kollektiv bilim boshqa vosita - tarmoqni oladi. Shu munosabat bilan fikrlash jarayonlarining tezligi, tahlilning samaradorligi va evristik xususiyati tubdan o‘zgaradi, aniq muammolarni ijodiy hal qilish va umuman, dunyoni qurish qobiliyati pasayadi. Raqamli virtuallik sifatiga ega bo‘lgan ong “uchinchi tabiat” tushunchalari va toifalari bilan ishlaydi - imkoniyatlarning oshishi va erkinlikning pasayishi kuzatiladi.

Xulosa qilib aytganda, Pifagorning ta’limotiga ko‘ra, raqamlar — olamning asosiy qurilish materiali. U real dunyodagi har qanday jarayon yoki shaklni matematik va arifmetik asosda tushuntirish mumkinligini izohlagan. Bugun insoniyat olami raqamli hayotda yashamoqda. Zero inson tafakkuri, qadriyatlari ham jadallik bilan o‘zgarib bormoqda. Raqamli hayotda faol bo‘lish zamon talabi ekan, biroq SI ga qaramlikdan ogoh bo‘lish asosida inson tafakkurining moslashuvi turmush tarzini yengillashtirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Saxanevich D. Yu. Ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarda sun’iy intellekt va mashinani o‘rganishni qo‘llash yondashuvlari va usullarini tadqiq qilish // Omsk davlat universiteti axborotnomasi. Seriya: Iqtisodiyot. 2020. No 2. B. 65-77.
2. Tulchinskiy G. L. Raqamlashtirilgan gumanizm // Falsafiy fanlar. 2018. No 11. 36-bet.
3. Tulchinskiy G. L. Raqamlashtirilgan gumanizm // Falsafiy fanlar. 2018. No 11. 37-bet.

4. Martynov B. V. Raqamli ongni shakllantirish va kapitallashtirish: ekotizim yondashuvi // Mintaqaviy rivojlanish uchun intellektual resurslar. 2019. No 2. 81-84-betlar.
5. Fomicheva T. V., Kataeva V. I. Rossiya iqtisodiyotini raqamlashtirish sharoitida ruslarning qadriyatlari // Rossiya mintaqalari aholisining turmush darajasi. 2019. No 2. B. 80-84.
6. Kuznetsov N. V. Umumiy raqamlashtirish va ijtimoiy xavflar // Jamiyat: siyosat, iqtisodiyot, huquq. 2020 yil. 10-son (87). 42-47-betlar. 11-16
7. Abduqayumovna, Karimova Muyassarkhan. "Global Threats Today Conquering the Minds and Hearts of Mankind." *Telematique* 22.01 (2023): 1714-1718.
8. Каримова, Муяссархон Абдуқаюмовна. "Ёш авлодга таълим ва тарбия беришда ўқитувчининг инновацион фаолияти ва таълим технологиялари." *Proceedings of International Educators Conference*. Vol. 2. No. 3. 2023.
9. Muyassar, Karimova, and Muhammadjon Salohiddinov Iqboljon o'g'li. "Men uchun bo'lgan olimlar." *Proceedings of International Conference on Educational Discoveries and Humanities*. Vol. 2. No. 5. 2023.
10. Каримова, М. А. "Зардуштийлик динида чорвачилик билан боғлиқ маросимлар." *Proceedings of International Conference on Modern Science and Scientific Studies*. Vol. 2. No. 3. 2023.
11. Muyassar, Karimova, Arabboyeva Feruza Uchqunovna, and Tojiboyev Muhammadjon Muxitdin o'g'li. "Dunyoning eng mashhur kashfiyotlari." *Barqarorlik va yetakchi tadqiqotlar onlayn ilmiy jurnali* 2.12 (2022): 162-166
12. Muyassar, Karimova, and Odilov Islombek. "JAMIYATDA HUQUQIY ONG VA HUQUQIY MADANIYATNI YUKSALTIRISH DEMOKRATIK DAVLAT BARPO ETISH ASOSI." *fan, jamiyat va innovatsiyalar* 1.1 (2023): 179-182.
13. Muyassar, Karimova, and Yulchibayev Omadbek Ulug'bek o'g. "ANDIJON VILOYATIDA XALQARO YUKLARNI TASHISH JARAYONI UCHUN YETKAZIB BERISH ZANJIRIINI BOSHQARISHNI TAKOMILLASHTIRISH." *MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS* 2.2 (2023): 84-93.
14. Abduqayumovna, Karimova Muyassarxon, and Azimov Sarvarbek Qayumjon o'g'li. "MEN SEVGAN YETUK OLIMLAR." *Journal of new century innovations* 19.5 (2022): 125-129..
15. Abduqayumovna, Karimova Muyassarxon. "INSON TAFAKKURI VA ROBOTOTEXNIKA." *Journal of new century innovations* 19.5 (2022): 135-140.
16. Abduqayumovna, Karimova Muyassarxon. "KAMBAG'ALLIKNI KAMAYTIRISH." *Journal of new century innovations* 19.5 (2022): 130-134.
17. Abduqayumovna, Karimova Muyassarxon, and Turgunova Tursunoy Maratovna. "DUNYONING ENG MASHHUR KASHFIYOTLARI." *Journal of new century innovations* 19.5 (2022): 187-190.
18. Abduqayumovna, Karimova Muyassarxon, and Umaraliyev Javlonbek Xamzabek o'g'li. "YOSHLARNI TA'LIMGA BO'LGAN QIZIQISHLARINI KAMAYIB BORISHIGA SABABLAR VA ULAR NIMALARDAN IBORAT." *Journal of new century innovations* 19.8 (2022): 16-19
19. Абдуллаев, У. С., and М. А. Каримова. "Обряды, связанные с посещением мазаров у женщин Ферганы: традиция и современность." *Международный научно-исследовательский журнал* 6-4 (37) (2015): 72-74.
20. Абдуллаев, Улугбек Сайданович, and Муяссархон Абдукаюмовна Каримова. "основные направления традиционных межэтнических процессов в ферганской долине (XIX–XX в. в)." *Социально-гуманитарный вестник Юга России* 4 (2014): 3-7.

ANDIJON VILOYATI MARHAMAT TUMANIDAGI MADANIY MEROS OBYEKTLARI VA ULARNI SAQLASH MUAMMOLARI

Shaxloxon Xusanova Artikaliyevna
Qo‘qon universiteti Andijon filiali katta o‘qituvchisi
Tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
sahlohusanova4@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada Andijon viloyati Marhamat tumanida mavjud bo‘lgan tarixiy obidalar, madaniy meroslar va ziyoratgohlar haqida ma’lumotlar berilgan. Shuningdek, Mingtepa arxeologiya yodgorligi, Alitepa yodgorligi, Mirishkor ota va Bandi ota ziyoratgohlari kabi madaniy-meros obyektlarining tarixiy ahamiyati, respublikamizda turizmni rivojlantirishdagi o‘rni haqida ham fikrlar bildirilgan. Yangi O’zbekistonda tarix fanini o’qitishda hamda yoshlarini yetuk, vatanparvar qilib tarbiyalashda tarixiy yodgorliklarimizni o’rganish, targ’ib qilish zarurati, yoshlarga ajdodlarimizdan qolgan meroslarimizdan faxr va g’ururlanishni o’rgatish majburiyati, yoshlar o’rtasida olib borilgan targ’ibot ishlari natijasi haqidagi takliflar va mulohazalar bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: Madaniy meros, Mingtepa, Buyuk ipak yo‘li, Alitepa, Mirishkor ota, Bandi ota, ziyoratgoh, ekspeditsiya, Farg‘ona.

Аннотация: В статье представлена информация об исторических памятниках, культурном наследии и святынях Мархаматского района Андижанской области. Также рассматривается историческое значение таких объектов культурного наследия, как археологический памятник Мингтепа, памятник Алитепа, святыни Миришкор-ота и Банди-ота, и их роль в развитии туризма в нашей республике. В статье говорится о необходимости изучения и популяризации наших исторических памятников в преподавании истории и воспитании молодёжи как зрелых и патриотичных людей нового Узбекистана, об обязанности воспитывать в молодёжи чувство гордости за наследие, оставленное нашими предками, а также о результатах пропагандистской работы среди молодёжи.

Ключевые слова: Культурное наследие, Мингтепа, Великий Шелковый путь, Алитепа, Миришкор-ота, Банди-ота, место паломничества, экспедиция, Фергана.

Abstract: This article provides information about historical monuments, cultural heritage and shrines in the Marhamat district of Andijan region. It also discusses the historical significance of such cultural heritage sites as the Mingtepa archaeological monument, the Alitepa monument, the Mirishkor Ota and Bandi Ota shrines, and their role in the development of tourism in our republic. The article describes the need to study and promote our historical monuments in teaching history and educating our youth as mature and patriotic people in new Uzbekistan, the obligation to teach young people to be proud of the heritage left by our ancestors, and the results of the propaganda work carried out among young people.

Key words: Cultural heritage, Mingtepa, Great Silk Road, Alitepa, Mirishkor Ota, Bandi Ota, pilgrimage site, expedition, Fergana.

O‘zbekiston tarixi Markaziy Osiyo tarixining ajralmas qismi hisoblanib, bunda Andijon viloyati tarixi va bu yerda joylashgan tarixiy madaniy meroslarning o‘rni alohida ahamiyatga ega. Andijon viloyatida bugungi kunda 400 dan ortiq madaniy meros obyektlari mavjud bo‘lib, ularni o‘rganish, tadqiq etish va saqlash borasida bir qancha ishlar amalga oshirilmoqda. Andijon viloyati Marhamat tumanida olib borilgan tadqiqotlar natijasida hududda joylashgan tarixiy yodgorliklar, madaniy meros obyektlari tarixini o‘rganish nafaqat O‘zbekiston tarixi, balki Jahon tarixini boyitishga xizmat qiladi. Marhamat tumanida 70 ga yaqin madaniy meros obyektlari mavjud bo‘lib, ular sirasiga 40 dan ortiq arxeologiya yodgorliklari, 2 ta arxitektura yodgorligi, 20 ga yaqin ziyoratgoh va diqqatga sazovor joylar, 30 dan ortiq shifobaxsh buloqlar kiradi.

Tumandagi quyidagi madaniy meros obyektlari, ya’ni Mingtepa, Yo‘lbarstepa, Alitepa, Bozorboshi tepaligi, Jingirtepa, Qoravulota, Nortepa, Munchoqtepa, Lo‘mbitepa, Baxovuddintepa, Mo‘minboytepa, Junlitepa, Qo‘rg‘ontepa, Qashqartepa, Qiziloyoqtepa, Lo‘litepa, Mozortepa, Toshtepa va boshqa arxeologiya yodgorliklari [1, 125-128.], Mirishkor ota,

Xo‘ja Bosmon ota, Oqbosh ota, Bandi ota, Go‘zal ota, Oqto‘nli ota, Boboxuroson ota, Qo‘ychi Xalfa, Xotin qum kabi ziyoratgohlar, Qalmoq buloq, To‘qqiz buloq, Lazizbuloq, Quloq buloq, Xonbuvish buloq, Chechak buloq, Oqbosh buloq, Tollik buloq, Qashqar buloq, Tegirmon buloq, Bo‘ron buloq, Chashmai muborak kabi buloqlar [10,17] shular jumlasiga kiradi.

Marhamat tumanidagi madaniy meroslar ichida Mingtepa arxeologiya yodgorligi mahobatliligi va ulug‘vorligi bilan boshqalaridan ajralib turadi. Farg‘ona vodiysining qadimiy shaharlaridan biri Mingtepa shahri O‘zbekiston tarixida qadimiy shaharlarning paydo bo‘lishi, rivojlanishi va xalqaro aloqalar tizimini o‘rganishda alohida ahamiyatga ega. Mingtepa arxeologik yodgorligi Andijon shahri markazidan 38 km. uzoqlikda, hozirgi Marhamat tumanining markazida joylashgan. Mingtepa tarixiy manbalarda yoritilishicha, qadimiy Farg‘ona (Day-yuan, Davan) davlatining markazi, ya’ni poytaxti bo‘lgan [7,55.]. Xitoy yozma manbalarida tilga olingan Buyuk ipak yo‘lida joylashgan bu mahobatli shahar o‘zining hunarmandchiligi, dehqonchiligi va “samoviy tulporlari” bilan dunyoga mashhur bo‘lgan. Bu shahar xarobasi ichki va tashqi shahar qismlaridan iborat bo‘lib, ichki qism, taxminan, 41 gektar, tashqi shahar qismi 273 gektar maydonni egallagan antik (miloddan avvalgi IV – milodiy V asrlar) davr yodgorliklaridan biridir [8,145.].

Mingtepa shahar xarobasida arxeolog olimlar M.E.Masson, A.N.Bernshtam, Yu.A.Zadneprovskiy, B.X.Matboboevlar arxeologik tadqiqotlar olib borganlar [6, 154-155; 3,160-161; 5,62-67.]. 2012 yildan buyon Mingtepa arxeologik yodgorligida O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Arxeologiya instituti hamda Xitoy Xalq Respublikasi Ijtimoiy Fanlar akademiyasi Arxeologiya instituti olimlari hamkorlikdagi qo‘shma ekspeditsiya tashkil etilib, tadqiqot ishlarini olib bormoqdalar [11]. Mingtepa shahar xarobasida olib borilgan arxeologik tadqiqot ishlari natijasida topilgan manbalar Mingtepaning qadimgi o‘tmish tarixi, undagi xalqlar hayoti, turmush-tarzi, urf-odatlari, diniy tasavvurlari haqida ma’lumotlarni asoslashga xizmat qiladi.

Alitepa yodgorligi Mingtepa shahridan 2 km shimoliy-sharqda joylashgan. Arxeologiya yodgorligi markazida ikki qavat qilib qurilgan qal’a bo‘lib, tepalik to‘g‘riburchak shaklida qurilgan. Bu tepalikning sanasi miloddan avvalgi III va milodiy I–VIII asrlar bilan sanalgan [1, 126]. Alitepa yodgorligida A.Asqarov 2010-yilda kichik arxeologik tadqiqot olib borgan va bu yodgorlikni miloddan avvalgi III–II asrlarda o‘troq aholiga tegishli bo‘lgan, qadimgi shahar ekanligini ta’kidlaydi. Olimning fikricha, Alitepa tarixiy topografiyasiga ko‘ra ikki qismdan iborat bo‘lib, balandlikda ark o‘rni va shimoliy-sharqida shahriston joylashgan [2, 145].

Tariximizning olis o‘tmishidan sado beruvchi tabarruk maskanlar bo‘lmish ziyoratgohlar bugungi kunda bebaho madaniy meroslarimiz sifatida e’tirof etilmoqda. Marhamat tumanida joylashgan ziyoratgohlar ichida taxminan XII asrda islom dinini targ‘ib qilish maqsadida kelgan yetti aka-uka otalarning oltitasi- Mirishkor ota, Xo‘ja Bosmon ota, Oqbosh ota, Bandi ota, Go‘zal ota, Oqto‘nli otalar (ularning yettinchisi Asaka tumanidagi Ko‘kto‘nli ota) nomlari bilan ataluvchi ziyoratgohlar madaniy meroslar ro‘yxatiga kiritilgan bo‘lib, ular qo‘nim topgan joylar muqaddas ziyoratgohlar sifatida xalqimiz tomonidan e’zozlanib kelinadi [10,17].

Mirishkor ota ziyoratgohi Marhamat tumani Mirishkor mahallasi xududida joylashgan. “Xoja Mirishkor ota yetti og‘a-ini ichida to‘ng‘ich farzand bo‘lib, zoti sharif voyaga yetganlarida asosan dehqonchilik va ovchilik bilan shug‘ullangan. Mirishkor ota so‘zining ma’nosi – ovchi avliyo, ovchilar amiri (hokimi) deganidir. Bu joyga nafaqat tumanimiz, hatto qo‘shni respublika viloyatlaridan ham ziyoratchilar kelib turadilar”. Mirishkor ota ziyoratgohida mahalliy ustalar tomonidan 1955–1956 yillarda masjid binosi qurilgan. Keyinchalik ko‘rkam darvoza va maqbara qurilgan. Ziyoratgoh tepasida ramziy qabr bor. Qabrning tagida mayin tuproq mavjud. Mahalliy aholining ta’kidlashicha, ushbu tuproq shifobaxsh xususiyatga ega ekan. Mirishkor ota ziyoratgohida qabriston mavjud, bu yerga taxminan XII asrdan boshlab mayyit qo‘yila boshlagan. Davlatimiz tomonidan madaniy meroslarga bo‘lgan e’tibor tufayli Mirishkor ota ziyoratgohi obodonlashtirildi va ziyoratchilar uchun qulay sharoitlar yaratildi [4, 228].

Bandi ota ziyoratgohi Marhamat tumanining Rohat mahallasi hududida joylashgan. Ushbu ziyoratgoh ham uzoq tarixga ega. Bu ziyoratgohda yetti aka-uka otalardan Bandi otaning ramziy

qabri mavjud. Mahalliy xalqning aytishicha, Bandi ota xalq orasida Og‘zi qora ota, Bannam ota, Xo‘ja Ma’ruf ota nomlari bilan tanilgan ekan. SHu yerlik Faxriddin Umarovning aytishicha bu ziyoratgoh haqida nafaqat O‘zbekistonda balki, qo‘shni davlatlarda, xattoki, Saudiya Arabistonida ham bilishar ekan. Uning bobosi Umarali Abdurahmonov 1997-yilda muborak haj safariga borganida Saudiya Arabistonliklardan bir nechtasi uning oldiga kelib, Bandi ota ziyoratgohi haqida so‘ragan ekanlar [10, 17]. Bugungi kunda ushbu ziyoratgoh obodonlashtirilib, ziyoratchilar uchun yetarli sharoitlar yaratib qo‘yilgan.

Maxdum Vosiliy 1898-yili Mingtepa (hozirgi Marhamat tumani)ning Qorabag‘ish qishlog‘ida tavallud topgan. Uning otasi Mulla Muhammad Ibrohim o‘z davrining bilimdon kishilaridan biri bo‘lib, fiqh (islom xuquqshunosligi)ni yaxshi bilgani uchun Mingtepada qozilik vazifasini o‘tagan. Hasanjon Maxdum dastlabki bilimni o‘z padari buzrukuvoridan olgan. So‘ng Buxorodagi Mirarab madrasasida davom ettirib, diniy va dunyoviy bilimlarni puxta egallaydi. U arab, fors va turkiy tillarni yaxshi bilgan. Maxdum Vosiliy adabiyot, tarix, tabobat, Qur’on, tafsir, fiqh ilmlarini mukammal o‘rgangan, shuningdek, she’rlar yozgan va turli asarlarni tarjima qilgan. U tomonidan fanning turli sohalariga oid 44 ta asar yozilgan. Maxdum Vosiliyning noyob durdona asarlari sobiq sovetlar davrida haqiqat yuzini ko‘ra olmagan.

Hasanjon Maxdumning farzandi tarix fanlari doktori Mahmud Xasaniy padari buzrukvori Maxdum Vosiliy hayoti va ijodi haqida asarlardan iborat uy muzeyini va Ma’naviy Meros markazini tashkil etib, otasining xotirasini abadiylashtirishdek, ezgu ishni amalga oshirdi. Ushbu meros markazida bugungi kunda 600 dan ortiq arab, fors va turkiy tillardagi noyob asarlar hamda 2000 jildga yaqin kirill yozuvidagi kitoblar saqlanib kelinmoqda. Ma’naviy Meros markazida turli fan sohalariga bag‘ishlangan qo‘lyozmalarning eng qadimgisi hijriy 906, milodiy 1500-yilda ko‘chirilgan asar bo‘lsa, eng noyob asar deya e’tirof etilayotgan nasta’liq xatida yozilgan 1805-yilda ko‘chirilgan Alisher Navoiyning “Xamsa” asaridir [9,96-98]. Ma’naviy Meros markazida mavjud bo‘lgan noyob asarlar xalqimizning, ayniqsa yoshlarimizning bilimlarini oshirishga, tariximizni o‘rganishga sharoit yaratibgina qolmay, bunday qo‘lyozma va toshbosma asarlarni keng targ‘ib qilish orqali bilim yo‘lida izlanayotganlar uchun to‘liq foydalanish imkoniyatini yaratmoqda.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, Andijon viloyati Marhamat tumanida joylashgan madaniy meros obyektlar ajdodlarimiz tomonidan qoldirilgan boy tarixiy meros sifatida vatanimiz tarixini yoritishda va keng targ‘ib qilishda muhim ahamiyatga ega. Ushbu madaniy meros obyektlarining eng ulug‘vori va qadimiysi hisoblangan Mingtepa arxeologiya yodgorligi qadimda xalqaro transkontinental yo‘l kesimida sharq va g‘arb davlatlarini bir-biri bilan bog‘lagan, hunarmandchilik, bog‘dorchilik, chorvachilik savdo markazlaridan biri sifatida uzoq yillar xizmat qilib kelgan tarixiy shahardir. Shuningdek, Mingtepa shahri Buyuk ipak yo‘li rivojlanishida ham o‘ziga xos o‘ringa egaligi bilan xorijiy olimlarning va sayyohlarning e’tiborini tortib kelmoqda. Bugungi kunga kelib davlatimiz tomonidan madaniy meroslarga, tarixiy yodgorliklarga katta e’tibor berilmoqda. Mamlakatimizdagi madaniy meros obyektlari qatorida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining 2018 yil 29 dekabr kungi «Andijon viloyatining Marhamat tumanidagi “Mingtepa” arxeologiya merosi obyektini muhofaza qilish, tadqiq etish va undan oqilona foydalanish to‘g‘risida»gi 1059-sonli qarorining qabul qilinishi ham bu muqaddas maskanda O‘zbekistonimizning buyuk qadimiy tarixini, dovrug‘ini dunyoga namoyon eta oladigan yodgorlik mavjudligidan dalolat beradi. Bugungi kunda turizm sohasini rivojlanishida ham tarixiy yodgorliklarning o‘rni katta. Marhamat tumanida mavjud bo‘lgan Mingtepa arxeologiya yodgorligi, Alitepa yodgorligi, Mirishkor ota ziyoratgohi, Bandi ota ziyoratgohi, Maxdum Vosiliy nomidagi Ma’naviy Meros markazi kabi madaniy meros obyektlari o‘ziga xos tomonlari bilan turizmning qaynoq nuqtasi bo‘la oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Абдулгазиева Б. Археологические памятники Мархаматского района Андижанского области. ИМКУ – Вып. – № 26. – Ташкент,1992.
2. Асқаров А. Марҳаматга ташриф ва Эрши мудофааси ҳақида мулоҳазалар// Ўзбекистон археологияси. – № 1. – Самарқанд, 2010.

3. Бернштам А.Н. Араванские наскальные изображения и Даванская (Ферганская) столица Эрши. Советская этнография. – № 4. 1948.
4. Довоний.О.М. Кўҳна ва боқий Мингтепа. – Тошкент: Замин нашр, 2018.
5. Заднепровский Ю.А. Матбобоев Б.Х. Городище Мархамат. ИМКУ –Вып. – № 25. – Toshкент, 1991.
6. Массон.М.Е. Из воспоминаний Среднеазиатского археолога. – Ташкент, 1976.
7. Матбобоев Б.Х. Мингтепа: Археологик қазишмалар ва уларнинг таҳлили. “Водийнома”. 2019. – № 3 (14).
8. Матбобоев Б.Х., Джу Yангши., Хошимов Х., Мамиров О., Алиохунов А., Хакимов А. Мингтепада 2018-2019 йилларда олиб борилган археологик ишлар // Археологические исследования в Узбекистане 2018-2019 года. – Самарқанд, 2020.
9. Махмуд Хасаний. Хаётда ном қолдирган зотлар. – Тошкент: Tafakkur qanoti, 2019.
10. Хусанова Ш.Мингтепа зиёратгоҳлари ва қадамжолари. – Наманган: Arjumand media, 2020.
11. Mingtepa ancient walled site in Uzbekistan. From: Chinese Archaeology Writer:2017-01-19. http://www.kaogu.cn/en/Special_Events/ Archaeology_Forum_2016/2017/0119/56898.html/ https://www.lex.uz

РОЛЬ ИЗУЧЕНИЯ ИНОСТРАННОГО (РУССКОГО) ЯЗЫКА В СОВРЕМЕННОМ ОБЩЕСТВЕ

Каримова Зулфия Одилжановна,
(PhD), старший преподаватель факультета филологии ДжГПУ
karimova.zulfiya1104@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada zamonaviy jamiyatning globallashuvi va raqamlashuvi sharoitida xorijiy tillarni, ayniqsa rus tilini o‘rganishning ahamiyati tahlil qilinadi. Tillarni bilish madaniy va kasbiy integratsiyaning eng muhim vositasiga aylanib borayotgani, madaniyatlararo muloqotni rivojlantirish, bag‘rikenglikni shakllantirish va insonparvarlik qadriyatlarini mustahkamlashga yordam berayotgani ko‘rsatib o‘tilgan. Rus tilining millatlararo muloqot vositasi, madaniy merosni asrash hamda ilmiy hamkorlik uchun muhim ahamiyatga ega ekanligi alohida ta’kidlangan.

Kalit so‘zlar: chet tili, rus tili, gumanitar fanlar, madaniyat, muloqot, globallashuv, ta’lim.

Аннотация. В сданной татье рассматривается значение изучения иностранных языков, в частности русского, в условиях глобализации и цифровизации современного общества. Показано, что владение языками становится важнейшим инструментом культурной и профессиональной интеграции, способствует развитию межкультурной коммуникации, формированию толерантности и укреплению гуманитарных ценностей. Особое внимание уделяется роли русского языка как средства межнационального общения, сохранения культурного наследия и научного взаимодействия.

Ключевые слова: иностранный язык, русский язык, гуманитарные науки, культура, коммуникация, глобализация, образование.

Abstract. The article examines the importance of learning foreign languages, particularly Russian, in the context of globalization and digital transformation of modern society. It highlights that language proficiency has become a key tool for cultural and professional integration, promoting intercultural communication, tolerance, and humanitarian values. Special attention is given to the role of the Russian language as a means of intercultural dialogue, preservation of cultural heritage, and scientific cooperation.

Keywords: foreign language, Russian language, culture, communication, globalization, education, society.

Современное общество характеризуется интенсивными процессами глобализации и интернационализации образования и экономики, что означает активное взаимодействие между представителями различных культур. Следовательно, владение иностранными языками важно не только в практическом смысле, но и в качестве важного элемента гуманитарного развития личности. Язык не просто средство общения, но и является важнейшим носителем культуры, менталитета и исторического наследия народа [1]. Среди мировых языков особым положением обладает русский язык. Он является одним из официальных языков ООН, прочно занял свою нишу в области науки, образования и культуры, является средством межнационального общения на постсоветском пространстве и не только.

Изучение языков занимает важное место в гуманитарном образовании, поскольку оно глубоко связано с формированием человека как личности. Благодаря языкам мы можем глубже проникнуть в культуру и менталитет других народов, что способствует развитию эмпатии и умения видеть мир сквозь призму чужого опыта. Это, в свою очередь, обогащает наше собственное мировоззрение и укрепляет критический анализ ценностей, составляющих основу гуманитарных наук [2].

Изучение языков открывает двери в сокровищницу мировых культур и научных открытий. Погружаясь в чужие языки, мы постигаем взаимосвязь между народами и цивилизациями, расширяем свой кругозор и развиваем способность мыслить по-новому. Это способствует формированию более толерантного и многогранного мировоззрения [3].

Иностранный язык является уникальным прибором поддержки не только в профессиональном, но и культурном плане. В настоящий XXI век борьба с языками становится не признаком образованности, а обязательной точкой. Многие компании, образовательные центры и научные институты всё чаще ориентируются на стандарты сотрудничества. В этом контексте знание языков открывает широкие возможности для академической мобильности, карьерного роста и участия в глобальных проектах [4].

Кроме того, изучение иностранного языка улучшает вашу межкультурную компетенцию или возможность эффективно и правильно взаимодействовать с другой культурой. Это крайне важно для мультикультурных обществ, роль диалога культур неоспорима, лежащая в области социальной стабильности и взаимопонимания [5].

Русский язык занимает достойное место среди ведущих мировых языков, оказывая существенное влияние на науку и культуру. Его богатая история породила обширный пласт литературных, научных и художественных шедевров, составляющих неотъемлемую часть всемирного культурного наследия [6].

Русский язык в наши дни играет ключевую роль в связывании стран Евразии, служит мостом для международного взаимодействия, обмена информацией и культурным наследием. Овладение русским языком позволяет людям разных культур проникнуть в глубины русской культуры, литературы и мысли.

Русский язык также является мощным инструментом «мягкой силы» — культурного влияния, которое способствует развитию позитивного имиджа России в международном контексте [7].

Цифровизация и новые горизонты языкового обучения. Современные технологии кардинально изменили подход к изучению языков, открывая перед нами новые возможности. Цифровизация образования предоставляет нам доступ к онлайн-платформам, мультимедийным ресурсам, виртуальным классам и искусственному интеллекту, что позволяет адаптировать обучение под индивидуальные потребности каждого студента. Этот процесс становится более гибким и доступным, что делает изучение языков увлекательным и эффективным.

Использование технологий в языковом обучении развивает навыки самообразования и критического мышления, а также предоставляет возможность взаимодействовать с носителями языка в реальном времени и участвовать в международных образовательных

сообществах. Таким образом, цифровая среда не только способствует улучшению языковых компетенций, но и формирует новую культуру коммуникации.

Гуманитарная миссия русского языка. Русский язык занимает уникальное место в укреплении гуманитарных связей между народами. Он помогает сохранять историческую память, культурное наследие и передавать духовные ценности и традиции. Через русский язык создается общее гуманитарное пространство, которое объединяет различные народы и культуры.

Интерес к изучению русского языка в странах ближнего и дальнего зарубежья продолжает расти, что подчеркивает его значимость как языка международного общения и науки. Программы по продвижению русского языка за границей становятся важной частью культурной дипломатии и образовательной политики.

Изучение иностранных языков, включая русский, в современном обществе приобретает стратегическое значение. Оно способствует не только профессиональному и интеллектуальному развитию личности, но и укреплению культурных связей, развитию толерантности и формированию гуманистических ценностей. Русский язык, как часть мирового культурного наследия, продолжает выполнять важную миссию — объединять людей на основе взаимопонимания и диалога культур.

Таким образом, языковое образование становится не просто инструментом коммуникации, но и важнейшей формой гуманитарного развития общества в XXI веке.

Список использованной литературы

1. Гумбольдт, В. фон. *О различии строения человеческих языков и его влиянии на духовное развитие человечества.* — М.: Прогресс, 1985.
2. Библер, В. С. *От наукоучения — к логике культуры.* — М.: Политиздат, 1991.
3. Лосев, А. Ф. *Философия имени.* — М.: Наука, 1990.
4. Crystal, D. *English as a Global Language.* — Cambridge University Press, 2003.
5. Воробьев, В. В. *Лингвокультурология: Теория и методы.* — М.: Русский язык, 2008.
6. Караулов, Ю. Н. *Русский язык и языковая личность.* — М.: Наука, 1987.
7. Nye, J. *Soft Power: The Means to Success in World Politics.* — New York: PublicAffairs, 2004.
8. Warschauer, M. *Technology and Social Inclusion: Rethinking the Digital Divide.* — MIT Press, 2004.
9. Лаптева, О. А. *Русский язык в цифровую эпоху.* — М.: МГУ, 2019.
10. UNESCO. *The Role of Languages in Building Inclusive Societies.* — Paris: UNESCO Publishing, 2020.

MADANIY MEROSNI SAQLASH VA OMMALASHTIRISHDA SUN'IY INTELLEKTNING AHAMIYATI

Xolmirzaev Xurshid Nakibillaevich
Z.M.Bobur nomli Andijon davlat universiteti dotsenti
Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
sokin3548@umail.uz

Annotatsiya. Global raqamlashtirish jarayonida madaniy merosni asrab-avaylash va uni kelajak avlodga yetkazish masalasi tobora dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Ushbu maqolada sun'iy intellekt texnologiyalarining (kompyuter ko'rish, 3D-modellashtirish, katta ma'lumotlar tahlili, virtual reallik) madaniy meros ob'ektlarini hujjatlash, raqamlashtirish va tiklashdagi imkoniyatlari tahlil etilgan. Shu bilan birga, madaniy merosni raqamlashtirish jarayonida axloqiy mezonlar, intellektual mulk huquqlari va milliy madaniy o'zlikni saqlash bilan bog'liq falsafiy masalalar ko'rib chiqilgan. Tadqiqotda Yevropa Ittifoqi va YuNESKOning xalqaro tajribalari, shuningdek, O'zbekistonda madaniy meros ob'ektlarini raqamlashtirish va ommalashtirish amaliyoti tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar. Sun’iy intellekt, madaniy meros, raqamlashtirish, 3D-modellashtirish, kompyuter ko‘rish, virtual reallik, katta ma’lumotlar, intellektual mulk, milliy madaniy o‘zlik, simulyakr, axloqiy me’yorlar.

Аннотация. В условиях глобальной цифровизации проблема сохранения культурного наследия и передачи его будущим поколениям приобретает всё большую актуальность. В статье анализируются возможности технологий искусственного интеллекта (компьютерное зрение, 3D-моделирование, анализ больших данных, виртуальная реальность) в документировании, цифровизации и реконструкции объектов культурного наследия. Кроме того, рассматриваются философские аспекты, связанные с этическими нормами, правами интеллектуальной собственности и сохранением национальной культурной идентичности в процессе цифровизации культурного наследия. В исследовании анализируется международный опыт Европейского Союза и ЮНЕСКО, а также практика цифровизации и популяризации объектов культурного наследия в Узбекистане.

Ключевые слова. Искусственный интеллект, культурное наследие, цифровизация, 3D-моделирование, компьютерное зрение, виртуальная реальность, большие данные, интеллектуальная собственность, национальная культурная идентичность, симулякр, этические нормы.

Abstract. In the context of global digitalization, the preservation of cultural heritage and its transmission to future generations is becoming increasingly important. This article analyzes the potential of artificial intelligence technologies (computer vision, 3D modeling, big data analytics, virtual reality) in documenting, digitizing, and reconstructing cultural heritage objects. Furthermore, it explores philosophical issues related to ethical standards, intellectual property rights, and the safeguarding of national cultural identity in the process of cultural heritage digitization. The study also examines the international experience of the European Union and UNESCO, as well as Uzbekistan’s practice in digitizing and popularizing cultural heritage objects.

Keywords. Artificial intelligence, cultural heritage, digitization, 3D modeling, computer vision, virtual reality, big data, intellectual property, national cultural identity, simulacrum, ethical standards.

Globallashuv va raqamlashtirish jarayonlari avj olgan zamonaviy davrda madaniy merosni asrab-avaylash va uni avloddan-avlodga yetkazish masalasi insoniyat oldidagi eng dolzarb vazifalardan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda. Madaniy meros — bu ajdodlardan qolgan moddiy va nomoddiy boyliklar majmuasi bo‘lib, unga tarixiy yodgorliklar, me’moriy inshootlar, san’at asarlari, til va adabiyot, urf-odatlar hamda ma’naviy qadriyatlar kiradi. Ushbu meros har bir millatning madaniy o‘zligini belgilabgina qolmay, balki insoniyat sivilizatsiyasi taraqqiyotida umumiy ma’naviy xazina sifatida ham xizmat qiladi [1.B.368].

Sun’iy intellekt madaniy meros ob’ektlarini hujjatlashtirish, raqamlashtirish va ularning saqlanishini ta’minlashda mutlaqo yangi bosqich yaratdi. Kompyuter ko‘rish, 3D-modellashtirish, virtual reallik hamda katta ma’lumotlar tahlili kabi texnologiyalar yordamida tarixiy yodgorliklar, qo‘lyozmalar va san’at asarlarini yuqori aniqlikda raqamlashtirish imkoniyati paydo bo‘ldi [2.B.12-25]. Masalan, Yevropa Ittifoqi tashabbusi bilan amalga oshirilgan Europeana loyihasi millionlab madaniy meros ob’ektlarini raqamlashtirib, ularni keng jamoatchilik uchun ochiq platformada taqdim etdi [3].

Bunday tashabbuslar shuni ko‘rsatadiki, sun’iy intellekt texnologiyalari madaniy merosni asrab-avaylash bilan birga, uning ma’naviy qiymatini yangi avlodlarga yetkazish va global jamoatchilikka ochiqlashda ham o‘ta muhim falsafiy va ijtimoiy ahamiyat kasb etmoqda. Shu ma’noda, madaniy merosni raqamlashtirish jarayoni insoniyatning o‘z tarixi va ma’naviy ildizlarini asrab qolish yo‘lidagi umumiy vazifa sifatida talqin qilinishi mumkin.

Moddiy meros ob’ektlarini – qo‘lyozmalar, qo‘g‘irchoqlar, keramika buyumlari va me’moriy yodgorliklarni saqlash ko‘pincha katta moliyaviy va texnik resurslarni talab qiladi. Sun’iy intellekt bu sohada ham samarali yechimlarni taklif etmoqda. Xususan, mashinani o‘rgatish

algoritmlari yodgorliklarning fizik holatini tahlil qilib, ulardagi mayda shikastlanishlarni oldindan aniqlay oladi. Masalan, Italiyada sun'iy intellekt yordamida Rimdagi Kolizeyning toshlaridagi eroziya jarayonlari kuzatilib, ularni oldindan bartaraf etish choralari ko'rilmoqda [4.B.72]. Bu kabi texnologiyalar moddiy madaniy merosning ko'p asrlar davomida o'z xolaticha saqlanishini ta'minlaydi.

Sun'iy intellekt texnologiyalari nafaqat moddiy, balki nomoddiy madaniy merosni saqlashda ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. Tillar, folklor, milliy qo'shiqlar va urf-odatlarni raqamli arxivlarga joylash va ularni yangi avlodga yetkazish imkoniyati paydo bo'ldi. Masalan, YuNESKOning "*Endangered Languages Project*" loyihasida sun'iy intellekt asosida tillarni raqamlashtirish, ularning lug'atlarini yaratish va virtual tarzda o'rgatish ishlari amalga oshirilmoqda [5.B.64]. Bu jarayon jahonda yo'qolib ketish xavfi ostida turgan minglab tillarning saqlanishiga xizmat qiladi.

Sun'iy intellekt madaniy merosni nafaqat himoya qilish, balki uni ommalashtirish va qayta yaratish imkoniyatlarini ham taqdim etmoqda. Masalan, Google'ning *Arts & Culture* platformasi orqali milliardlab insonlar dunyo muzeylaridagi asarlarni virtual ko'rishi mumkin bo'lmoqda. Shuningdek, sun'iy intellekt yordamida yo'qolgan yoki shikastlangan asarlar rekonstruksiya qilinmoqda. Yaponiya olimlari sun'iy intellekt yordamida 400 yil avval yo'qolgan Budda haykalining 3D-namunalarini qayta tiklashga muvaffaq bo'ldilar [6.B.4].

Madaniy merosni saqlash va rivojlantirish jarayonida sun'iy intellekt texnologiyalarining qo'llanilishi faqat texnik imkoniyatlarni kengaytirish bilan cheklanmaydi, balki u chuqur falsafiy va ijtimoiy masalalarni ham kun tartibiga olib chiqadi. Falsafiy nuqtai nazardan qaralganda, sun'iy intellekt yordamida qayta yaratilgan asarlar haqiqiy "meros" sifatida baholanishi mumkinmi yoki ular faqatgina ilmiy rekonstruksiya, ya'ni tarixiy ob'ektning sun'iy modellashtirilgan shakli sifatidagina qabul qilinishi lozimmi, degan savollar paydo bo'ladi.

Shu bilan birga, madaniy meros ob'ektlarini raqamlashtirish jarayoni bir qator ijtimoiy muammolarni ham yuzaga chiqaradi. Intellektual mulk huquqlarining ta'minlanishi, milliy madaniy o'zlikning asrab qolinishi va globallashuv jarayonida uning transformatsiyasi masalalari bu jarayonning eng muhim jihatlaridan hisoblanadi. Bu holat shundan dalolat beradiki, sun'iy intellekt vositalari orqali amalga oshiriladigan madaniy merosni saqlash faqat texnik yoki texnologik muammo emas, balki keng qamrovli falsafiy va ijtimoiy tahlilni talab etuvchi murakkab masaladir.

O'zbekiston ham madaniy merosni saqlashda SI texnologiyalaridan foydalanishga alohida e'tibor qarata boshladi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025 yilda qabul qilingan "Madaniy meros sohasiga oid ma'muriy reglamentlarni tasdiqlash to'g'risida"gi [7] qaroriga muvofiq, tarixiy yodgorliklarni raqamlashtirish, 3D-modellashtirish va sun'iy intellekt asosida tahlil qilish ishlari yo'lga qo'yilgan. Masalan, Samarqand va Buxorodagi me'moriy inshootlarni raqamli tarzda hujjatlash va virtual turlar orqali namoyish etish amaliyoti qo'llanilmoqda. Bu mamlakatimizdagi madaniy merosning jahon hamjamiyati uchun ochiqligini ta'minlash bilan birga, uni kelajak avlodga butun holda yetkazishga xizmat qiladi.

Shuningdek, sun'iy intellekt texnologiyalari madaniy merosni asrab-avaylash va uning kelgusi avlodlarga yetkazilish jarayonida ilgari mumkin bo'lmagan imkoniyatlarni namoyon etmoqda. Biroq mazkur jarayonni faqat texnik imkoniyatlar doirasida tushunish cheklangan yondashuv bo'ladi. U axloqiy mezonlar, ijtimoiy ehtiyojlar va falsafiy qadriyatlar bilan uyg'un holda amalga oshirilgandagina o'zining to'liq ma'nosini topadi. Chunki madaniy meros insonning tarixiy xotirasi va ma'naviy o'zligining ifodasi sifatida uning ontologik mohiyatini belgilaydi. Shu bois madaniy merosni kelajak avlod uchun saqlash – faqat moddiy yodgorliklarni muhofaza qilish emas, balki inson o'zligini anglash va ma'naviy izchillikni ta'minlash jarayonidir. Bu vazifa esa sun'iy intellekt texnologiyalarini jamiyat manfaatlariga yo'naltirilgan holda oqilona qo'llash orqali amalga oshirilishi mumkin.

Moddiy madaniy meros o'z ichiga me'moriy yodgorliklar, tarixiy ob'ektlar, arxeologik artefaktlar, muzey eksponatlari, rassomlik va haykaltaroshlik asarlari kabi insoniyat taraqqiyotida beqiyos ahamiyatga ega bo'lgan boyliklarni qamrab oladi. Ushbu meros ob'ektlari tabiiy ravishda

vaqt o‘tishi, iqlim ta’sirlari, texnogen omillar va inson faoliyati sababli yo‘qolish yoki zararlanish xavfi ostida turibdi. Shuning uchun ularni muhofaza qilish, hujjatlash va tiklashda zamonaviy texnologiyalarni, ayniqsa sun’iy intellektni qo‘llash juda muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Smith L. (2006) *Uses of Heritage*. London: Routledge. – 368 p.
2. Vincent M., Beraldin J.-A., Cournoyer L. (2021) *Artificial Intelligence and Cultural Heritage: Digitization and Preservation*. Journal of Cultural Heritage. Vol. 50. Pp. 12–25.
3. Europeana (2019) *Europeana Strategy 2020–2025: Empowering Digital Cultural Heritage*. Brussels: European Commission. Available at: https://pro.europeana.eu/page/strategy
4. European Commission. *Artificial Intelligence for Cultural Heritage Preservation: Case Studies from Italy*. – Brussels: Publications Office of the European Union, 2021. – 72 p.
5. UNESCO. *Endangered Languages Project: Safeguarding Linguistic Diversity through Digital Tools*. – Paris: UNESCO Publishing, 2021. – 64 p.
6. Google Arts & Culture. *Bringing the World’s Art and Heritage Online: Annual Report 2022*. – Mountain View: Google Cultural Institute, 2022. – 60 p; NHK World-Japan. *AI Helps Recreate 400-Year-Old Buddha Statue*. – Tokyo: NHK World, 2021. – 4 p.
7. https://lex.uz/docs/-7683470
8. https://journal.fdu.uz/index.php/sjfsu/article/view/7087

ETNOFRAZEMA – MADANIY MEROSNI SAQLASH VA RIVOJLANTIRISH OMILI SIFATIDA

Jumayeva Zubayda Shavkatovna

Jizzax shahridagi Qozon (Volgabo‘yi) Federal Universiteti dotsenti

Annotatsiya: Ushbu maqolada yaxlit butunlik va ma’noni ifoda etadigan frazeologik birliklar haqida mulohaza yuritilgan. Ayrim iboralar tahlilga tortilib, xulosalar chiqarilgan.

Kalit so’zlar: ibora, etnofrazema, jamalak, qirq, tahlil.

Аннотатция: В данной статье рассматриваются фразеологизмы, которые представляют собой целое и значение. Были проанализированы некоторые фразы и сделаны выводы.

Ключевые слова: фраза, этнофраза, джамалак, кирк, анализ.

Annotatsion: This article discusses phraseological units that represent a whole and meaning.Some phrases were analyzed and conclusions were drawn

Keywords: phrase ethnophrase, jamalak, forty, analysis

Xalqimiz madaniy merosini saqlash uchun avvalo, tilimizning sofligini saqlash lozimligi davlatimiz raxbari tomonidan ko‘p bora tilga olingan. Etnos esa tilshunoslikning asosiy o‘rganilish ob‘yektiga tobora aylanib bormoqda. O’zbek tilshunosligida frazeologik birikmalar, etnofrazemalarni o’rganish dolzarb masalal`ardan biri hisoblanadi. Bir qancha tilshunos olimlar, tadqiqotchilar tomonidan ushbu mavzu tadqiq etilgan bo’lsa-da, biroq hali o’rganilishi muhim bo’lgan muammolar talayginadir. Ma’lumki, ibora lingvistik terminalogiya atamasi bilan aytganda - frazeologizmdir. Frazeologizm atamasi qadimgi grek tilidan olingan bo’lib, frasis-ibora, logos –tushuncha, ta’limot [2]. O’zbek tilidagi iboralarni jiddiy o’rganish o’tgan asrning 50-yillaridan boshlangan, bu ishlarning ko’lam va teranlik kasb etishida atoqli tilshunos Sh.Rahmatullayevning xizmatlari beqiyos. Uning, ayniqsa, “O’zbek farzeologiyasining ba’zi masalalari” nomli fundamental monografiyasi frazeologiyaning bir qator ilmiy muammolari hal qilib berilgan.[4.]

Frazeologizmlarni keng miqyosda tadqiq etgan olimlardan biri A.Mamatovdir. Olimning “O’zbek tili frazeologizmlarning shakllanish masalalari” nomli doktorlik dissertatsiyasi alohida ahamiyatga egadir. Bu ishda frazeologizmlarning shakllanish tamoyillari haqida fikr bildirilgan. Frazeologizmlarning seamantik shakllanishida konnotativ va nominativ vazifasiga asosiy e’tiborini qaratadi. Uning fikricha mavjud barcha frazeologizmlar konnotativ manoga ega bo’lmaydi. Misol uchun: umid qilmoq, quloch yoymoq, ma’qul topmoq,qo’l qo’ymoq, kabilar

faqat lug'aviy ma'noga ega bo'lib, nominativ vazifa bajaradi. Ammo aksariyat frazeologizmlar konnotativ ma'no komponentiga ega.[5.29] A.E.Mamatovning quyidagi fikrlari masalaning mohiyatini yana ham oydinlashtiradi: «…frazeologiyani «keng» va «tor» ma'noda tushunish noto'g'ri, uni bitta ma'noda tushunish kerak. Ular qanday til birliklari deb tasnif qilinishidan qat'iy nazar, aforizmmi, maqol yoki matalmi, turg'un so'zlashuv formulalarimi, «qanotli so'zlar»mi, xullas, agar ular frazeologizmning biz bergan ta'rifiga mos tushsa, undagi talablarni bajara olsa, ya'ni tuzilishi jihatidan so'z birikmasiga yoki gapga teng bo'lgan, obrazli, umumlashgan ma'no anglatadigan, leksik elementlari qisman yoki to'liq ko'chma ma'noga ega bo'lgan, lug'atlarda qayd etilgan har qanday turg'un leksik-semantik birliklar birliklar doirasiga kiritilishi shart.

Frazeologik birlikdan yaxlitligicha anglashiladigan ma'no uning tarkibidagi so'z komponentlarga xos leksik ma'nolarning oddiy yig'indisiga teng bo'lmaydi, iboraning ma'nosi umumlashma ma'no, maxraj ma'no sifatida namoyon bo'ladi.[4]. O'zbek xalqining ko'p asrlik hayoti, madaniyati, turmushi, ijtimoiy va ma'naviy faoliyati bilan bog'liq bo'lgan va shu jarayonda yaratilgan har bir marosim, milliy udumlar, an'ana va e'tiqodlarga oid so'z va terminlar borki, ular o'zbek tilining lug'at tarkibida ma'lum leksik guruhni tashkil etadi. Bunday so'zlar rus va o'zbek tilshunosligida "Etnografik leksika", "Etnografik dealiktezimlar", "Etnografizmlar" kabi terminlar bilan nomlanib keladi [3].

Etnografiya fani keng ma'noda xalqning tarixiy tashkil topishi, madiyati rasm-rusumi, urf-odati, an'analari, marosimlari va umuman yashash tarzi va ma'naviy hayoti bilan bog'liq masalalar o'rganiladi. SHu jumladan ham etnofrazema ham ma'lum biror xalqning turmush tarzidan xalq orasida saqlanib kelinayotgan odatlar, marosim va e'tiqodlar, g'ayri tabiiy kuchlarga ishonch, islom dini aqidalari bilan yuzaga keladigan ma'lum hudud aholisi uchun tushunarli bo'lgan frazilogik birikmalarni tadqiq etadi. Etnofrazema aynan xalqning tilidan olinib ma'lum bir hududda yashovchilar xalqlar uchungina tushunarli bo'ladi va unga yondosh bo'lgan xalqlarga ushbu qo'llanilayotgan etnofrazemalarimiz deyarli notanish bo'ladi. Xalq orasida keng qo'llanilib kelinayotgan iboralarimiz tub zaminida ma'lum obraz, konkret hodisa, predmit tasavuri yotadi. Bunday obrazlilik etnofrazemalarni uslubiy imkoniyatlarini oshiradi va ularni tilning kuchli ifoda vositalaridan biriga aylantiradi.

Dunyoda turli millat va elatlar bor va ularning ham o'z milliy urf- odati, rasm –rusumi, an'ana ruhiga kirgan iborlari mavjud. Shu jumladan o'zbekona milliy ruhga yug'rilgan, etnafrazemalarning ham tub zaminida juda katta ma'no va xalqning qadim tarixi yashiringan. Misol uchun Jamalak –Qiz bolallarni hali o'sib yetmagan sochini yechilib ketmasligi uchun odatda paxta pilik qo'shib o'rilgan ko'rinishidir. Shuningdek , sochga qo'shib o'riladigan oq yoki qora rangdagi bo'sh yigirilgan ip. [3] Shuni ham alohida ta'kidlash lozimki, frazeologik birliklarning shakllanishida tarixiy voqea-hodisalar ham o'z ta'siri ko'rsatadi va mavjud iboralar buni isbotlaydi. Jumladan, tilimizda "almisoqdan qolgan" iborasi qo'llaniladi. "Almisoq" so'zi arabcha bo'lib, "ahd, qasam, shartnoma, bitim" ma'nolarini bildiradi[4]. Bu so'z yordamida ma'no jihatdan bir-biriga yaqin bo'lgan almisoqdan beri // almisoqdan buyon va almisoqdan qolgan o'zlashma iboralari shakllangan. Bu iboralar "qadim zamonlardan beri, qadimgi zamondan" kabi ma'nolarni bildirishga xizmat qiladi: Alloh taolo bashariyat otasi – Odam alayhissalomni yerga tushirgach, uning pushtidan to qiyomatgacha tug'iladigan jamiki insonlar ruhini chiqargan va ularga "Men sizlarni Rabbingiz emasmanmi?!" — deb savol bergan. O'shanda hamma inson hali ularning jasadlari yaratilmasdan oldin (dunyoda kofir bo'lib yashaganlar ham) "Ha, Sen bizning Rabbimizsan. Biz esa sening bandalaringmiz" — deb iymon keltirgan va Allohga qullik qilishga va'da bergan. Allohning tanho iloh ekanligini tan olishgan va iqror bo'lib mo'min bo'lishgan. Alloh va insoniyat orasida bo'lib o'tgan shu ahdlashuvni "almisoq" deb aytiladi5 . Manavilarni qo'shini almisoqdan qolgan qo'shin (Tog'ay Murod. "Bu dunyoda o'lib bo'lmaydi"). Frazeologik birliklar va ular bilan bog'liq hodisalar, ularning ma'noviy va vazifaviy xususiyatlari murakkab, sermunozara bo'lib, ular bir necha tadqiqot ishlarini talab qiladi. Ular bir tomondan til birligi sifatida muayyan tushunchani ifodalash xususiyatiga ega bo'lsa, ikkinchi bir tomondan har bir xalqning ko'p asrlik turmush tarzi, madaniyati, ma'naviyati, urf – odatlari va an'analarining badiiy

asarlarda aks ettiruvchi, shu bilan bir paytda badiiy matnda muayyan holatni, voqelikni obrazli, ta‘sirchan bo’lishini ta‘minlovsi vosita ham hisoblanadi.

Dunyoda millat va elatlar ko’p bo’lishiga qaramay har bir jamiyatda yashayotgan insonlarning o’ziga xos an’anasi va qadriyatlari bor. Yuqorida keltirilgan frazemalar o’zbek milliy e’tiqotidan kelib chiqqan holatda xalq orasida juda keng tarqalganligi ma’lum. O’zbek xalqining turmush an’analari uzoq asrlar davomida yuz bergan turli iqtisodiy va siyosiy o’zgarishlarga qaramay milliy o’ziga hoslikni saqlab keldi. Turmush an’analar, shaxsiy va oilaviy hayotning zaruriy va doimiy tomonlari bo’lgan turar joy, oziq ovqat, kiyim bosh, bola tarbiyasi, turmush qurush, o’lim kabi hodisalarni o’z ichiga olgan frazemalar doimo xalq bilan birgadir.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. N. Ulug’ov. Tilshunoslik nazariyasi.” Barkamol fayz mediya”. 2016. 113-bet.
2. Mengliyev .B , Xoliyorov.O’ . O’zbek tili universal qo’llanma. Toshkent 2009 y 83 b.
3.O’zbek tili etnofrazemalarning izohli lug’ati. Toshkent 1991.
4.Rahmatullayev .SH. O’zbek frazealagizimining bazi masalalari. Toshkent 1966 yil 326 b.
5. Mamatov A . O’zbek tili frazeologizmlarining shakllanish masalalari: Filol. Doktr… diss.- Toshkent, 1999. B-29.
6.Rahmatullayev Sh. O’zbek frazeologiyasining bazi masalalari(Frazeologik polisemiya, sinonimiya, antonimiya va omonimlik): Filol.f.doktr…diss. –Toshkent, 1966. -32 b;
7. Yoldoshev.B Hozirgi o’zbek adabiy tilida frazeologik birliklarning funksional- uslubiy xususiyatlari: Filol.f. doktr…diss.- Toshkent,1993.-18.
8. Abduazizov A. Tilshunoslik nazariyasiga kirish.- Toshkent, 2010. –b.88

ЁШЛАРДА МИЛЛИЙ ЎЗЛИКНИ АНГЛАШ ВА МИЛЛАТЛАРАРО МУНОСАБАТЛАР МАДАНИЯТИНИ ШАКЛЛАНТИРИШ

Юсупова Севара Низамитдиновна
Андижон давлат педагогика институти доценти (PhD)
yusupovasevaraa1818@gmail.com
Орипова Шахноза Кодиржон кизи
Андижон давлат педагогика институти стажёр-ўқитувчиси
shahnozka112@gmail.com

Аннотация. Мақола Ўзбекистонда миллатлараро тотувлик ва диний бағрикенглик масалаларига бағишланган. Глобаллашув шароитида миллий ўзликни англашнинг аҳамияти ва ёшларда миллатлараро муносабатлар маданиятини шакллантириш зарурлиги таҳлил қилинади. Сиёсат, дин ва миллий ўзликнинг ўзаро алоқадорлиги, бағрикенгликнинг жамиятдаги ўрни ёритилади. Ўзбекистоннинг кўп миллатли жамиятида бағрикенгликнинг ўзига хос жиҳатлари кўриб чиқилади.

Калит сўзлар: Миллатлараро тотувлик, диний бағрикенглик, миллий ўзлик, миллатлараро муносабатлар, глобаллашув, бағрикенглик, ёшлар, Ўзбекистон.

Аннотация. Статья посвящена вопросам межнационального согласия и религиозной толерантности в Узбекистане. Анализируется значение национального самосознания в условиях глобализации и необходимость формирования культуры межнациональных отношений у молодежи. Освещается взаимосвязь политики, религии и национального самосознания, роль толерантности в обществе. Рассматриваются особенности толерантности в многонациональном обществе Узбекистана.

Ключевые слова: Межнациональное согласие, религиозная толерантность, национальное самосознание, межнациональные отношения, глобализация, толерантность, молодежь, Узбекистан.

Abstract. The article is devoted to the issues of interethnic harmony and religious tolerance in Uzbekistan. The importance of national identity in the context of globalization and the need to develop a culture of interethnic relations among youth are analyzed. The interrelationship of politics, religion, and national identity, and the role of tolerance in society are highlighted. The specific aspects of tolerance in the multiethnic society of Uzbekistan are examined.

Keywords: Interethnic harmony, religious tolerance, national identity, interethnic relations, globalization, tolerance, youth, Uzbekistan.

Бугунги шиддат билан ривожланаётган жамият шароитида, айниқса, Ўзбекистонда демократик давлат ва фуқаролик жамиятини барпо этишнинг янги босқичида миллатлараро тотувлик ва диний бағрикенглик муҳитини мустаҳкамлашнинг ижтимоий-фалсафий масалаларини чуқурроқ англаб етиш муҳим аҳамият касб этмоқда.. Дунё миқёсида кечаётган интеграция жараёнлари этник хусусиятларни сақлаб қолиш ва миллий-этник анъаналарни тадқиқ этишнинг долзарблигини кўрсатмоқда.[1,36]

Ёшлар келажакнинг вориси ва жадал ислоҳотларнинг чинакам иштирокчиси бўлганлиги сабабли, уларда миллий ўзликни англаш ва миллатлараро муносабатлар маданиятини шакллантириш давлат сиёсатининг муҳим устувор йўналишларидан биридир.

Миллий ўзликни англаш бир миллат кишиларининг руҳий, маънавий қиёфаси аста-секинлик билан ўзгариб боришига олиб келадиган жараён бўлиб, бу ўзгаришлар тарихий босқичда прогрессив ёки регрессив бўлиши мумкин. Ватани бор одамнинг ғурур ва ифтиҳори юксак, мақсад ва маслаги аниқ бўлади. Ватанга эга эканлигини ҳис қилган инсон ҳар қандай синовга ва машаққатга доимо тайёр туради.

Шунингдек, сиёсат, дин ва миллий ўзликни англаш ўзаро боғлиқ масалалар сифатида ўрганилган. Ёш авлодни ватанпарварлик, миллий ва умуминсоний қадриятларга ҳурмат, Ватанга муҳаббат ва садоқат руҳида тарбиялаш давлат сиёсатининг муҳим устувор йўналиши ҳисобланади.

Миллатлараро муносабатлар маданияти жамиятнинг, алоҳида ижтимоий гуруҳнинг, шунингдек, шахснинг характеристикаси бўлиши мумкин. Миллатлараро муносабатлар маданиятини ривожлантириш унинг креатив хусусиятини таъкидлайди.

Бағрикенглик (Толерантлик) инсонлар, миллатлар, маданиятлар, эътиқодлар, урф-одатлар, динлар ва мафкуралараро турли ижтимоий-сиёсий муносабатларни мувозанатда сақлаб турувчи меъёр ҳисобланади [4,25]. Толерантлик халқаро майдонда ҳам мамлакатларнинг тинчлиги ва тараққиёти учун энг муҳим тамойиллардан бири бўлиб хизмат қилади.

Бағрикенгликни шакллантиришда сабр-тоқат кўникмаларини ўзлаштириш муҳимдир, бу инсоннинг табиий асоси ва маданияти туташадиган чегарадир. Аксинча, тоқатсизлик турли агрессив, асосий, низолар, экстремизм, терроризм ва миллатчилик манбаи ҳисобланади.

Ўзбекистонда кўп миллатли ва турли маданиятлар шароитида миллий бағрикенгликни англаш азалий қадриятдир. Қадимдан Ўзбекистон ҳудудида турли халқлар ва этник гуруҳлар дўстлик ва ҳамжиҳатликда яшаб келган. Мустақиллик йилларида мамлакатда миллатлараро муносабатлар ривожида янги босқич бошланди, бағрикенглик ва инсонпарварлик маданиятини ривожлантириш устувор вазифага айланди. Ҳозирда юртимизда 130 дан ортиқ турли миллат ва элатлар биргаликда яшаб, Ватанимиз ривожи учун ўз ҳиссаларини қўшмоқдалар.[2,41]

Ёшларни ҳар томонлама мустақил фикрлайдиган, етук дунёқараш эгалари қилиб тарбиялашда, диний бағрикенглик тамойилларини қарор топтиришга алоҳида эътибор қаратиш лозим. Ёшларда толерантлик тафаккурини шакллантиришда оила, мактаб ва маҳалланинг ҳамкорлиги муҳимдир.[3,24]

Таълим-тарбия жараёнида ёшларда толерантлик муносабатларини шакллантириш қуйидагиларга қаратилган бўлиши керак:

- Дунёдаги барча нарсаларнинг ўзига хос хусусиятга эга эканлигини тушунтириш.
- Миллатларнинг ирқи, дини, ҳаёт тарзи ҳар хил эканлигини тушунтириш.
- Бағрикенглик, сабр-тоқатлилик, чидамлилик ва кечиримлиликнинг аҳамиятини сингдириш.
- Фуқароларни ўзаро тинч-тотувликда яшашга ўргатиш, уларда масъулиятлилик ва жавобгарликни тарбиялаш.

Шунингдек, ёшларни миллий ва диний бағрикенглик руҳида тарбиялашда қуйидагиларга алоҳида эътибор қаратиш лозим:

- Ёшларнинг миллий ва диний толерантлик масаласидаги ҳуқуқий маданиятини юксалтириш, халқаро умумэътироф этилган нормалар ҳамда миллий қонунлар мазмун-моҳиятини кенг тарғиб этиш.
- Глобаллашув шароитида турли миллий ва диний можароларнинг асл моҳиятини, улардан кўзланган сиёсий мақсадларни тушунтириш.
- Юртимизда истиқлол йилларида миллатлараро тотувлик ва диний бағрикенглик борасида олиб борилаётган саъй-ҳаракатларнинг моҳиятини ёшлар онгига мунтазам тизимли сингдириб бориш.

Бундан ташқари, маданий мероснинг роли каттадир. Ёшларда миллатлараро муносабатларни шакллантиришда аждодларнинг миллий ва умуминсоний қадриятлари негизида ривожланиб келган тарбия жараёни муҳим. Маданий мероснинг бойиши ва унинг диний ва дунёвий дунёқараш билан уйғунлигини таъминлаш долзарб аҳамиятга эга. Бу, ўз навбатида, ёшларда ўз халқи, тарихи ва маданиятидан фахрланиш, шунингдек, бошқа халқларнинг тили, дини, эътиқоди ва санъат асарларини ҳурмат қилиш туйғуларини уйғотади.

Хулоса қилиб айтганда, ёшларда миллий ўзликни англаш ва миллатлараро муносабатлар маданиятини шакллантириш ғоявий тарбия, маънавий-маърифий ишлар ва толерантлик тафаккурини ривожлантириш орқали амалга оширилади. Бу жараён миллий манфаатларимизга зид бўлган зарарли ғоялар ва мафкуравий, информацион хуружларнинг реакцион моҳиятини очиб бериш, ёшлар қалбида миллатлараро тотувлик, диний бағрикенглик, миллий тафаккур ва соғлом дунёқараш асосларини мустаҳкамлаш, уларни онгли яшашга қодир, иродали ва ватанпарвар инсонлар қилиб тарбиялашни талаб этувчи ўта долзарб вазифадир.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Абдураимова М. Демократия: диний бағрикенглик ва миллий ўзликни англаш. – Т.: ТошДАУ, 2009. – Б.153.
2. Муртазаева Р.Х. Ўзбекистонда миллатлараро муносабатлар ва толерантлик. – Тошкент: ”Mumtoz Soz”, 2019.
3. Саифназаров И. Ёшларда бағрикенглик дунёқарашини шакллантиришнинг омиллари // Демократлаштириш ва инсон ҳуқуқлари -2018.- № 2(78) Б. –46].
4. Толерантность как атрибут современной жизни: понятие и принципы формирования: Методическое пособие / Науч. ред. Н.В. Брызжева, А.И. Григорьева, Е.С. Арбузова. – Тула: ГОУ ДПО ТО «ИПК и ППРО ТО», 2017

JAMIYAT BIRLIGINI TAMINLAYDIGAN IJTIMOIY ADOLATNING FALSAFIY TAHLILI

Jurakulov Jamol Komilovich
ZARMED universiteti dotsenti
jurakulovjamol904@gmail.com

Annotasiya: Jamiyatdagi birdamlik va ijtimoiy adolat o‘rtasidagi munosabatlarni tahlil qilish orqali, biz ijtimoiy taraqqiyot va odamlarning farovonligi uchun qanchalik zarur bo‘lganini anglaymiz. Ijtimoiy adolatning mohiyati va tariqiy konteksti haqida fikir muloxaza yuritamiz.

Kalit so‘zlar: Ijtimoiy adolat, adolat, adolat nazariyasi, ijtimoiy adolatning tamoyillari, teng huquqlik nazariyasi.

Аннотация: Анализируя взаимосвязь между солидарностью в обществе и социальной справедливостью, мы понимаем, насколько они необходимы для социального прогресса и благополучия людей. В работе рассматриваются сущность социальной справедливости и её исторический контекст.

Ключевые слова: социальная справедливость, справедливость, теория справедливости, принципы социальной справедливости, теория равноправия.

Annotation: By analyzing the relationship between solidarity in society and social justice, we realize how essential they are for social development and people's well-being. We reflect on the essence of social justice and its historical context.

Keywords: Social justice, justice, theory of justice, principles of social justice, theory of equality.

Ijtimoiy adolat-bu jamiyatdagi har bir shaxsning teng huquqliligini, imkoniyatlarining barobar ekanligini ta'minlashga qaratilgan tushuncha. U nafaqat iqtisodiy, balki madaniy, siyosiy va psixologik jihatdan ham muhim ahamiyatga ega. Ijtimoiy adolat, avvalambor, jamiyatning asosiy qadriyatlariga asoslanadi. [1.] U qadimgi Yunoniston falsafasidan boshlab, zamonaviy ijtimoiy fanlarga qadar turli nazariyalar bilan boyitilgan. Aristotel ijtimoiy adolatni "barcha shaxslarning o'z o'rnida bo'lishi" sifatida tushuntirgan. Suqrot esa, adolatning burchini tug'ilgan joyi sifatida ko'rgan. Zamonaviy davrda esa, ijtimoiy adolat tushunchasi ko'proq koinotiy, qaramlik va tengsizlik munosabatlari orqali aniqlanadi.

Ijtimoiy adolat, jamiyatning barqarorligi va birdamligini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Bu tushuncha, insonlar o'rtasida tenglik, huquq va imkoniyatlarni ta'minlashga asoslangan. Falsafiy nuqtai nazardan ijtimoiy adolatni tahlil qilish, uning asosiy tamoyillari, tarixiy rivojlanishi va zamonaviy jamiyatdagi ahamiyatini ko'rib chiqishni talab etadi. Ushbu maqolada ijtimoiy adolatning falsafiy asoslari, uning jamiyat birdamligiga ta'siri va zamonaviy muammolar kontekstida tahlil qilinadi.

Ijtimoiy adolatning falsafiy asoslari adolat tushunchasi, qadim zamonlardan buyon falsafiy fikrlar doirasida muhokama qilinib kelinmoqda. Platon, Aristotel, Jon Rolt, Karl Marks kabi faylasuflar ijtimoiy adolatni o'z asarlarida keng yoritganlar. Platon "Davlat" asarida adolatni jamiyatning ideal holati sifatida ko'radi va har bir inson o'z joyida bo'lishi kerakligini ta'kidlaydi. Aristotel esa adolatni "tenglik" va "foydalilik" tamoyillari orqali tushuntiradi. Jon Rolt "Adolat nazariyasi" asarida ijtimoiy adolatni "teng imkoniyatlar" va "farqlanish tamoyili" orqali belgilaydi.[2.]

Unga ko'ra, jamiyatda har bir inson uchun teng imkoniyatlar yaratilishi kerak, shuningdek, resurslar faqat eng kam imkoniyatlarga ega bo'lganlarga yordam berish maqsadida taqsimlanishi lozim. Bunday fikrlar, ijtimoiy adolatning zamonaviy talqinlarini shakllantiradi. Ijtimoiy adolat va jamiyat birdamligi jamiyat birdamligini ta'minlashda muhim omil hisoblanadi va adolatga asoslangan jamiyatlarda odamlar o'rtasidagi ishonch, hamkorlik va o'zaro hurmat kuchayadi. Ijtimoiy adolatning ta'minlanishi, kamsitishni kamaytiradi, bu esa ijtimoiy barqarorlikni oshiradi.

Adolatning yo'qligi esa ijtimoiy taranglikka olib kelishi mumkin, jamiyatda iqtisodiy va ijtimoiy tengsizlik mavjud bo'lsa, bu odamlar o'rtasida nizo va qarama-qarshiliklarni keltirib chiqaradi. Shuning uchun ijtimoiy adolatni ta'minlash jamiyat birdamligini mustahkamlash uchun zarurdir. [3] Jamiyatning birdamligini ta'minlash uchun ijtimoiy adolatni rivojlantirish zarurdir. Ijtimoiy adolat, birinchi navbatda, iqtisodiy tenglikni anglatadi. Iqtisodiy resurslar, imkoniyatlar va majburiyatlar o'rtasida adolatli taqsimot bo'lishi kerak. Bu, nafaqat individlar, balki butun guruhlar, sinflar va ijtimoiy qatlamlar o'rtasida tenglikni yaratadi. Bundan tashqari, ijtimoiy adolat jamiyatda ijtimoiy integratsiyani ta'minlaydi. Har bir shaxsning huquqlari, manfaatlari va qadriyatlarini hurmat qilish, ijtimoiy birdamlikni kuchaytiradi. Ijtimoiy adolatning yuksalishi natijasida, jamiyatda xavfsizlik, barqarorlik va inoyat muhitini yaratish imkoniyati oshadi.

Ijtimoiy adolat tushunchasini anglashda, biz bir nechta asosiy nazariyalarni ko'rib chiqishimiz mumkin. Bu nazariya ijtimoiy adolatni umumiy farovonlikni oshirishga qaratadi. Utilitaristlar, har bir shaxsning manfaatlarini hisobga olib, jamiyatda umumiy manfaatlarga erishish zarurligini ta'kidlaydi. Teng huquqlik nazariyasini John Rawls tomonidan ishlab chiqilgan bu nazariyaga ko'ra, ijtimoiy adolatni ta'minlash uchun jamiyatda har bir shaxsning o'z huquq va imkoniyatlarini e'tiborga olish lozim. Rawls adolatsizlikni minimallashtirish va ijtimoiy taqsimotda eng kamchilik to'g'risida o'ylab ko'rishni taklif etadi. [4] Madaniy pluralizm bu-ijtimoiy adolat jamiyatda turli madaniyatlarning, urf-odatlarning va qadriyatlarning bir-birini hurmat qilishi orqali erishilishi mumkinligini ta'kidlaydi. Madaniy pluralizm jamiyatda birdamlik

va ahillikni kuchaytiradi. Ijtimoiy adolat amaliyotda turli shakllarda ko‘zga tashlanadi. Masalan, ijtimoiy siyosat, ijtimoiy kuchaytirish va reabilitatsiya dasturlari orqali ehtiyojmand qatlamlarga yordam berish ijtimoiy adolatning real namunasidir. Har bir shaxsga ta’lim, sog'liq va iqtisodiy imkoniyatlarni berish orqali, jamiyatning birdamligini ta’minlash mumkin.

Bundan tashqari, ijtimoiy adolat ta'minlanmasa, uning oqibatlari jiddiy bo‘lishi mumkin. Jinsiy, irqi yoki sinfiy tengsizliklar jamiyatda zo‘ravonlik, ayirmachilik va aqidaparastlikka olib kelishi mumkin. Bunday hollarda, ijtimoiy adolatni qayta tiklash, jamiyatning barqarorligi va rivojlanishini ta'minlash uchun zarurdir. Ijtimoiy adolatning tamoyillari bir qancha tamoyillarga asoslanadi:

Tenglik, har bir insonning huquqlari va imkoniyatlari teng bo‘lishi kerak. Bu tamoyil ijtimoiy adolatning asosiy poydevoridir. Adolatli taqsimot, resurslar va imkoniyatlar adolatli ravishda taqsimlanishi lozim va bu tamoyil asosida iqtisodiy va ijtimoiy tengsizlikni kamaytirishga yordam beradi. O‘zaro hurmatda odamlar o‘rtasidagi aloqalarda hurmat va e’tiborning muhimligi hamda bu tamoyil ijtimoiy barqarorlikni ta’minlaydi. Samaradorlik asosida ijtimoiy adolat tizimi samarali ishlashi kerak, resurslardan foydalanish va ularni taqsimlashda samaradorlikni oshirishga yordam beradi.[5]

Ijtimoiy adolat huquq bilan chambarchas bog'liq bo‘lib huquq tizimi ijtimoiy adolatni ta’minlashda asosiy vosita hisoblanadi. Adolatli qonunlar va siyosatlar, fuqarolar o‘rtasidagi tenglikni saqlashga xizmat qiladi. Huquq tizimi orqali odamlar o‘z huquqlarini himoya qilish imkoniyatiga ega bo‘lishi, huquq tizimining o‘zi ijtimoiy adolatni ta’minlashda yetarli emas. Huquq tizimining samaradorligi, uning qanday amalga oshirilishi va qanday ishlashiga bog'liqdir. Agar huquq tizimi jamiyatda va davlatda adolatsiz bo‘lsa yoki uni amalga oshiruvchi organlar o‘z vazifalarini bajarishda samarasiz bo‘lsa, ijtimoiy adolat ta’minlanmaydi.

XX asrda ijtimoiy adolat tushunchasi yanada kengayib, iqtisodiy, siyosiy va madaniy sohalarda ham o‘z aksini topdi. Ijtimoiy harakatlar, feministik harakatlar, irqchilikka qarshi kurash va boshqa ijtimoiy harakatlar ijtimoiy adolatni ta'minlash uchun kurash olib borgan. Ijtimoiy adolatning tarixiy rivojlanishi, adolat tushunchasi tarix davomida rivojlanib kelgan. O‘rta asrlarda diniy qadriyatlar ijtimoiy adolatni belgilovchi asosiy omil bo‘lgan. Yangi davrda esa inson huquqlari va demokratiya tamoyillari ijtimoiy adolatni belgilovchi asosiy omilga aylandi. Zamonaviy Jamiyatda ijtimoiy adolat tushunchasi, zamonaviy jamiyatda ijtimoiy adolat masalalari yanada dolzarb ahamiyatga ega bo‘lib bormoqda. Iqtisodiy globalizatsiya, migratsiya jarayonlari, texnologik rivojlanish kabi omillar ijtimoiy adolatga ta’sir ko‘rsatmoqda. Zamonaviy jamiyatda ijtimoiy adolatni ta’minlash uchun bir qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Davlatlar tomonidan qabul qilingan qonunlar, siyosatlar va dasturlar orqali ijtimoiy tenglikni ta’minlashga harakat qilinmoqda.

Shuningdek, xalqaro tashkilotlar ham ijtimoiy adolatni ta’minlashda muhim rol o‘ynaydi. Jamiyatimizda ijtimoiy adolat va madaniyat masalasiga ham to‘xtalsak demak, madaniyat ham ijtimoiy adolatni ta’minlashda muhim rol o‘ynaydi. Madaniy qadriyatlar, an'analar va urf-odatlar odamlar o‘rtasidagi aloqalarni mustahkamlaydi va umumiy maqsadlarni shakllantiradi. Madaniyat orqali odamlar o‘zaro hurmat va tolerantlikni rivojlantiradilar. Shuningdek, madaniyat ijtimoiy adolatning shakllanishiga ham ta'sir ko‘rsatadi. Madaniyatdagi o‘zgarishlar ijtimoiy munosabatlarga yangicha qarashlarni olib kelishi mumkin. Masalan, feministik harakatlar yoki irqchilikka qarshi kurash madaniyatdagi o‘zgarishlarga sabab bo‘lgan.

Bugungi zamonaviy jamiyatimizda ijtimoiy adolat va ekologiya ham muhum xisoblanadi jumladan zamonaviy muammolar ichida ekologik masalalar ham jiddiy ahamiyat kasb etmoqda. Ekologik barqarorlik ijtimoiy adolat bilan chambarchas bog'liqdir. Ekologik muammolar qashshoqlik va ijtimoiy tengsizlikka olib kelishi mumkin. Shu sababli ekologik barqarorlikni ta’minlash ham ijtimoiy adolatni ta’minlashga xizmat qiladi. Ekologik muammolarni hal etishda barcha jamiyat a’zolari ishtirok etishi zarur. Bu esa jamiyat birdamligini kuchaytiradi va umumiy maqsadlar uchun kurashishga undaydi. Ijtimoiy adolat va texnologiya bu-zamonaviy texnologiyalar ijtimoiy adolatni ta’minlashda yangi imkoniyatlar yaratib qolmasdan internet va axborot texnologiyalarining rivojlanishi odamlarning o‘z fikrlarini ifoda etish imkoniyatini ham

oshirdi. Ijtimoiy tarmoqlar orqali odamlar o‘z huquqlarini himoya qilish uchun birlashishlari ortib bormoqda, bu esa ijtimoiy adolatning zamonamizdagi yangicha ko‘rinishi sifatida olib sodda tartibiga misol deyish mumkin bo‘ladi. Biroq, texnologiyalar ham yangi muammolarni keltirib chiqarishi mumkin. Raqamli tengsizlik, axborot xavfsizligi kabi masalalar ijtimoiy adolatga tahdid soladi. Shu sababli texnologiyalarni to‘g'ri yo‘naltirish va ularni ijtimoiy adolat maqsadlariga xizmat qilishini ta’minlash zarur.[6]

Ijtimoiy adolat jamiyat birdamlida falsafiy nuqtai nazardan tahlil qilinganda, ijtimoiy adolatning asoslari tenglik, adolatli taqsimot, o‘zaro hurmat va samaradorlik kabi tamoyillarga asoslanishini ko‘rsatadi. Zamonaviy jamiyatda ijtimoiy adolat masalalari dolzarb ahamiyatga ega bo‘lib, iqtisodiyot, madaniyat, ekologiya va texnologiya sohalarida yangi chaqiriqlar bilan yuzma-yuz kelmoqda. Ijtimoiy adolatni ta’minlash uchun davlatlar, jamoatchilik va xalqaro tashkilotlar birgalikda harakat qilishlari zarur. Faqat shunday qilibgina biz haqiqatan ham birdamlikka erishamiz va barqaror jamiyat yaratamiz. Jamiyat birdamligini ta'minlaydigan ijtimoiy adolat, nafaqat har bir shaxsning huquq va erkinliklarini himoya qilish, balki umuman jamiyatning taraqqiyotini ta’minlashda muhim rol o‘ynaydi. Ijtimoiy adolat, birinchidan, iqtisodiy va ijtimoiy tenglikni, ikkinchidan, madaniy va ahloqiy qadriyatlarni hurmat qilishni talab qiladi. Kelajakda, ijtimoiy adolatning rivoji orqali, jamiyatda birdamlik va ahillikni kuchaytirish zarurligini tushunishimiz lozim. Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak ijtimoiy adolat va jamiyat birdamligi o‘rtasidagi munosabat, faqat nazariy tushunchalar orqali emas, balki amaliyotda ham qo‘llanilishi zarur bo‘lgan muhim va murakkab jarayonlardir. Ularning bir-biriga bo‘lgan ta’siri va o‘zaro aloqalari, ijtimoiy taraqqiyot va odamlarning farovonligi uchun muhim ahamiyatga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Shermuxamedova N.A. Falsafaga kirish.-T.: Noshir, 2012. 320 b.
2. Sharipov M. Fayzixo‘jaeva D. Mantiq. -T.: Universitet, 2007.
3. Falsafa. Mamashokirov S tahriri ostida. -T.: Sharq, 2005.
4. Falsafa. Axmedova M. tahriri ostida. -T.: UFMJ, 2006.
5. Shermuxamedova N.A. Gnoseologiya-bilish nazariyasi.-T.: Noshir, 2009.
6. Shermuxamedova N.A. Inson falsafasi.T.: Noshir, 2017
7. Izzetova E., Pulatova D. Filosofiya. -T.: Sharqshunoslik, 2012. 340-6
8. www.Ziyonet.uz

KLASSIK XORIJ PSIXOLOGIK MAKTABLARIDA AYBDORLIK HISSINING TASNIFI

Sultanova Saida Muhiddin qizi
Nizomiy nomidagi TDPU v.b. dotsenti
Psixologiya fanlari nomzodi

Annotatsiya. Mazkur maqolada ishlovchi ayollarda namoyon bo’ladigan aybdorlik hissining mazmuni, xorij psixolog olimlarining psixologik nazariyalari, ilmiy qarashlari hamda shaxs hayotida aybdorlik hissining ahamiyatli jihatlari keng yoritilgan. Shuningdek, ishlovchi ayollarda aybdorlik hissining yuzaga kelishiga ta’sir etuvchi ijtimoiy-psixologik omillarni aniqlash bo’yicha o’tkazilgan ilmiy tadqiqot ishining tahlillari keltirilgan.

Tayanch tushunchalar: ishlovchi ayollar, ishga mas’uliyat, hamkasblar o’rtasidagi muloqot, aybdorlik hissi, hissiyot, kechinma, emotsiya, ichki me’yor, jamoatchilik fikri, ijtimoiy me’yor, xulq-atvor, o'zgalar bilan nizolashish.

Аннотация. В данной статье широко освещаются содержание чувства вины, проявляющегося у работающих женщин, психологические теории и научные взгляды зарубежных психологов, важные аспекты чувства вины в личной жизни. Также представлен анализ научно-исследовательской работы, проведенной по определению социально-психологических факторов, влияющих на возникновение чувства вины у работающих женщин.

Основные понятия: работающая женщина, ответственность за работу, общение между коллегами, чувство вины, чувство, переживание, эмоция, внутренняя норма, общественное мнение, социальная норма, поведение, конфликт с окружающими..

Annotation. In this article, the content of the feeling of guilt manifested in working women, the psychological theories and scientific views of foreign psychologists, and the important aspects of the feeling of guilt in personal life are widely covered. Also, the analysis of the scientific research work conducted to determine the socio-psychological factors affecting the emergence of guilt among working women is presented.

Key words: working women, responsibility for work, communication between colleagues, feeling of guilt, feeling, experience, emotion, internal norm, public opinion, social norm, behavior, conflict with others.

Psixoanaliz ko‘ra, odamlar jamiyatga qarshi harakat va impulslar uchun o‘zlarini aybdor his qiladilar.Z.Freyd [94] aybdorlikni «super ego» (vijdon) talablari va «ego» harakatlari o‘rtasidagi keskinlik hissi, super-egoning «ego-tanqidni» idrok etish deb ta’riflaydi. «Super-ego» «Men» dan alohida holatni anglatadi, Freyd aybdorlik ayblovchi («super-ego») va ayblanuvchidagi «Men» o‘rtasidagi bo‘linishni anglatadi: bu bo‘linish o‘z-o‘zidan subyektlararo munosabatlarni internallashtirish jarayoni natijasida sodir bo‘ladi.

Klassik psixoanaliz nazariyasiga ko‘ra, shaxsning asosiy tuzilishi (id, ego va superego) shakllangandagina aybdorlik paydo bo‘lishi mumkin. Z.Freyd [94] bu aybdorlik hissi ikki manbadan kelib chiqadi, deb hisoblagan. Ulardan biri internallashtirish va identifikatsiyadan iborat bo‘lsa, ikkinchisi edip davrida vujudga keladi, uning muvaffaqiyati «super-ego»ning «Id» impulslariga nisbatan doimiy hushyorligiga bog‘liq.

Xuddi MDH psixologlari kabi Z.Freyd [94] uyat va aybdorlikni ijtimoiy formatsiya deb ko‘radi. Biroq bu yondashuvlarda ijtimoiy tushunchaning asosi deb Z.Freyd ongli tajriba sifatida emas, balki avloddan avlodga o‘tadigan ijtimoiy ongsiz xislatni tushunadi. Agar Z.Freyd nuqtayi nazaridan qaraganda, ko‘plab ketma-ket odamlarning kechinmalari ko‘pincha ma’lum tartibda takrorlansa, ular «id», ya’ni irsiyatning, mazmuniga aylanadi. Bundan tashqari, «super-ego» «juda erta yoshda ongsiz ravishda shakllanadi». Demak, aybdorlik va uyat ongsiz - bu ijtimoiy tabiatning mazmunidir, chunki ular meros bo‘lib o‘tadi. An’anaviy psixoanalizda «aybdorlik» atamasi ikkita ma’noga ega:

1) subyektning u yoki bu sabablarga ko‘ra nomaqbul deb hisoblagan harakatdan keyingi affektiv holati yoki subyektning pushaymon bo’lishga sabab bo‘ladigan biron-bir aniq harakat bilan bog‘liq bo‘lmagan o‘zining ahamiyatsizligining noaniq tuyg‘usi;

2) subyektning o‘ziga yetkazadigan muvaffaqiyatsizliklari, jinoiy xatti-harakatlari va azob-uqubatlarini tushuntiruvchi ongsiz motivlar tizimi.

Z.Freydning [94] deyarli barcha shogird va izdoshlari u yoki bu tarzda aybdorlik va uyat tushunchalariga murojaat qilishgan. Neofreydizm vakillarining bir qator asarlarida aybdorlik vijdon toifasi kontekstida ko‘rib chiqiladi. Vijdon fenomenining asl ma’nosi aybdorlik va uyat hissi sifatida tushuniladigan emotsional dinamikada ko‘rinadi. Shuning uchun vijdon va bu kechinmalar odatda turlarga bo‘linadi. Umuman olganda, ikkita asosiy tur farqlanadi: yetuk haqiqiy vijdon va aybdorlik hamda yetuk bo‘lmagan majburlangan vijdon va aybdorlik. Bundan tashqari, «yetuk aybdorlik» atamasi axloqiy reaksiya (K.G.Yung) [102], gumanistik vijdon (E.Fromm) [95] tushunchalariga mos keladi.

Agar Z.Freyd o‘z-o‘zini anglashning hissiy komponentiga urg‘u bergan bo‘lsa, K.G.Yung [102] vijdonni qisman iroda harakatidan, qisman esa oqilona tuyg‘udan iborat murakkab fenomen deb ko‘radi. Uning fikricha, vijdon – bu subyektiv bilan bir qatorda predmetli, obyektiv ham mavjud bo‘lgan qadriyatli fikr.

Psixoanaliz tadqiqotchilarning ta’limotlarida uyat va ayb sust differensiatsiya qilingan. E’tirof etiladiki, aybdorlik hissi uyat shaklida paydo bo‘lishi mumkin. E.Eriksonning [101] fikricha, uyat yetarlicha o‘rganilmagan, chunki «bizning sivilizatsiyamizda uyat tuyg‘usi ancha erta va aybdorlik tuyg‘usiga oson singib ketgan». Z.Freyd [94] uyat masalasini tizimli ravishda o‘rganmagan. U faqat uyat, shuningdek, aybdorlik, «Men» va uni qoralovchi «Super - Men» o‘rtasidagi keskinlikni

ifodalashini ta’kidlaydi. Uyat va aybdorlik tuyg‘ulari o‘rtasidagi bog‘liklikni ta’kidlab, Z.Freyd ularni subyektiv jihatdan «ajratish qiyin» ekanligini qayd etgan.

Ahamiyatli tomoni shundaki, ko‘plab mualliflar aybdorlik va uyat kechinmalarini axloqiy va etik xatti-harakatlar hamda shaxsning rivojlanishi bilan bog‘laydi. G.M.Breslav [26] o‘zining «Emotsiyalar psixologiyasi» kitobida uyat va aybdorlik axloqiy va etik me’yorlarga zid bo‘lgan xatti-harakatlardan kelib chiqadigan his-tuyg‘ular sifatida qaralishini aytadi. Ular axloqiy o‘zini o‘zi nazorat qilish me’yori va haqiqiy harakatlar o‘rtasidagi nomuvofiqlikni bildiradi, shaxsiy javobgarlik hissi va ijtimoiy me’yorlarga rioya qilish zarurligini yaratadi.

R.Mey, E.Fromm, I.Yalom kabi mualliflar uyat va aybdorlik kechinmalarini nafaqat boshqalarga nisbatan harakat, balki o‘ziga nisbatan harakat bilan ham bog‘laydilar [73; 95; 106].

Chet el psixologiyasida aybdorlik ongning bo‘linishiga ko‘maklovchi omil sifatida qaraladi, bu esa shaxsning nevroziga olib keladi. Aybdorlik shartli refleks sifatida qaraladi, uni operant o‘rganish yordamida shakllanishi va jazodan qo‘rqishga tenglashtirish mumkin. Mazkur konsepsiya doirasida ijtimoiy ijobiy xarakter aybdorlik hissi bilan bog‘liq. Aybdorlik birlamchi va mutlaq narsa sifatida ham ko‘riladi, undan hech bir inson qochib ketolmaydi va shuning uchun uni anglash ijobiy holatdir. Shuningdek, aybdorlik subyektiv fenomen va hodisalarni talqin etish usuli sifatida belgilanadi

Ayrim olimlar aybdorlikni «harakat», «mas’uliyat», «tanlov» kabi tushunchalar ma’nosida ko‘rib chiqish kerak deb hisoblaydi. Mualliflarning fikriga ko‘ra, bu tushunchalarni tahlil qilmasdan, aybdorlikni psixologik fenomen sifatida o‘rganish rasmiy va ma’nosiz ko‘rinadi.

MDH mamlakatlari adabiyotlarini tahlil qilish bizga harakatning quyidagi asosiy belgilarini aniqlash imkonini berdi: harakat va shaxsning o‘zaro vositachiligi; shaxsiy munosabatlar bilan bog‘liqlik; ikki subyektlik o‘zaro munosabat sifatida; anglash yoki onglik; ixtiyoriylik; harakat genezi va o‘zini o‘zi anglashning birligi; polimotivatsiya; nizoli munosabatlarning aniqlashtirilganligi; tanlash. Aybdorlik sababi insonning o‘z harakatlari yoki biror narsaga qodir emasligidir. Aybdorlik kechinmasining vujudga kelishiga ham harakat, ham harakatsizlik ta’sir ko’rsatishi mumkin, ya’ni axloqiy me’yorlarga zid bo‘lgan his-tuyg‘u, fikr yoki xatti-harakat ham, ma’lum bir vaqtda va muayyan vaziyatda kerakli va o‘rinli bo‘lgan, lekin mavjud bo‘lmagan his-tuyg‘u, fikr yoki harakat bo‘lishi mumkin.

Taniqli rossiyalik psixolog D.A.Leontev [57] tomonidan tanlovning uchta turi ajratilgan: oddiy, mazmuniy va shaxsiy. Tanlovning har xil turlari mavjudligi tufayli sodir etilgan harakatga munosabatning turli shakllari, shu jumladan, aybdorning turli shakllari bo‘lishi mumkin.

Tanlov insonga o‘z xatti-harakatlarini ijtimoiy me’yoriylik mantig‘i darajasida tartibga solish qobiliyatini rivojlantirganda mavjud bo‘ladi. Bu guruhga mansub bo‘lish istagiga asoslangan me’yorga yo‘naltirilgan oddiy tanlov, ya’ni o‘ziniki sifatida qabul qilinadigan tashqi me’yorlarga yo‘naltirilganlik.

Ushbu turdagi tanlov bilan bog‘liq harakatni baholashda shaxs aybdorlikni his qilish xususiyatini rivojlantiradi. Aybdorlik mazmuniy tanlov sharoitida eng yetuk shakllarga ega bo‘ladi, chunki u shaxsiy qadriyatlarga xiyonat qilishda paydo bo‘ladi. Faqat yetuk shaxs erkin yoki shaxsiy tanlovga da’vo qilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Tangney J. P., Dearing R. L. Shame and Guilt. New York: Guilford Press, 2003. 272 p.
2. Муздыбаев К. Переживание вины и стыда. СПб : СПб, филиал Института социологии РАН, 1995. стр. 39.
3. Ильин Е.П. Психология совести: вина, стыд, раскаяние. – СПб.: Питер, 2016.
4. Изард К. Э. Психология эмоций. – СПб.: Питер, 2008. – 464 с.: ил. – (Серия «Мастера психологии»).

SHARQ ALLOMALARINING ETNOPSIXOLOGIK VA ETNOHUDUDIY QARASHLARI.

Turg‘unboeva Azizaxon G’ulomovna
Namangan davlat pedagogika instituti dotsenti,
Psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya: Mazkur maqolada Sharq allomalari – Forobiy, Ibn Sino, Beruniy, Ibn Xaldun kabi mutafakkirlarning etnopsixologik va etnohududiy qarashlari tahlil qilingan. Unda inson ruhiyatining shakllanishida milliy qadriyatlar, urf-odat va an’analar bilan bir qatorda, geografik muhit va hududiy omillarning ham ta’siri ko‘rsatib berilgan. Shuningdek, Sharq mutafakkirlarining inson ma’naviyati, jamiyat taraqqiyoti va turmush tarziga oid fikrlari zamonaviy etnopsixologik tadqiqotlar uchun muhim nazariy asos bo‘lib xizmat qilishi yoritilgan.

Kalit so‘zlar: etnopsixologiya, etnohududiylik, milliy qadriyatlar, urf-odat, ma’naviyat, Sharq allomalari.

Аннотация: В статье анализируются этнопсихологические и этнотерриториальные взгляды восточных мыслителей – Фараби, Ибн Сино, Беруни, Ибн Халдуна. Показано, что на формирование психологии человека наряду с национальными ценностями, обычаями и традициями значительное влияние оказывают географическая среда и территориальные факторы. Подчеркивается, что идеи восточных ученых о духовности человека, развитии общества и образе жизни являются важной теоретической основой для современных этнопсихологических исследований.

Ключевые слова: этнопсихология, этнотерриториальность, национальные ценности, традиции, духовность, восточные мыслители.

Annotation: This article analyzes the ethnopsychological and ethno-territorial views of Eastern scholars such as Farabi, Ibn Sina, Beruni, and Ibn Khaldun. It is shown that, in addition to national values, customs, and traditions, geographical environment and territorial factors also play a significant role in shaping human psychology. The study emphasizes that the ideas of Eastern thinkers regarding human spirituality, social development, and lifestyle serve as an important theoretical basis for modern ethnopsychological research.

Keywords: ethnopsychology, ethno-territoriality, national values, traditions, spirituality, Eastern scholars.

Jamiyatning turli davrlarida etnik xususiyatlar muammosi olimlarning diqqat markazida bo’lib kelgan. Sharq mutafakkirlari asrlar davomida inson, jamiyat va turmush tarzi masalalariga chuqur yondashib kelganlar. Ularning qarashlarida inson ruhiyatining shakllanishida milliy qadriyatlar, urf-odat va an’analar bilan bir qatorda, tabiiy-geografik muhit va hududiy omillar ham muhim ahamiyat kasb etishi alohida ta’kidlangan. Buyuk allomalar inson ma’naviyati, jamiyat taraqqiyoti hamda turli xalqlar hayot tarziga oid qimmatli mulohazalar bildirib kelganlar. Ularning ilmiy-nazariy qarashlari bugungi kunda etnopsixologiya va etnohududiylik masalalarini tadqiq etishda muhim metodologik asos bo‘lib xizmat qilmoqda. Jumladan, sharq mutafakkirlari va davlat arboblari – Abu Nasr Farobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Yusuf Xos Hojib, Amir Temur, Alisher Navoiy, Ahmad Donish, Abay Qo’nanbaev, Rizouddin ibn Faxruddin, Abdurauf Fitrat va boshqalarning asarlaridagi milliy qadriyatlar, oila-nikoh munosabatlari, oiladagi shaxslararo munosabatlar, ota-onaning vazifalari, farzandlar burchi haqida g’oyatda ibratli maslahat va o’gitlar bayon etilgan. Zardushtiylikning muqaddas kitobi «Avesto»da keltirilgan oila va shar’iy nikoh odoblari, ota-onalar va farzandlar munosabati, ularning burch va vazifalari, uylanish va kelin tanlash xususidagi g’oyatda qimmatli fikrlar bugunda ham o’z ahamiyatini yo’qotmagan. SHuningdek, «Avesto»da oila-nikoh munosabatlari, oilaviy burch va far-zand tarbiyasi xususida bir qator fikrlar bayon qilingan. Unda qarindoshlarning o’zaro oila qurishi qat’iy man etilgan. Qavm va urug’ qonini toza, avlodni benuqson saqlash uchun shunday qilingan. Unda ko’p farzandli oilalarga el hisobidan nafaqa tayinlash lozimligi, ayniqsa bundayin onalar bir extiromga sazovor ekanligi uqtiriladi.

Markaziy Osiyo xalqlarining «Alpomish», «Kuntug'mish», «Go'ro'g'li», «Oysuluv», «Layli va Majnun», «Yusuf va Zulayho», «Manas», «Qizjibek», «Qozi Kurpesh Bayan suluv» kabi dostonlarida erkak va ayol o'rtasidagi sof insoniy munosabatlar, muhabbat, sadoqat, yorga vafo mavzusi tarannum etilgan. Ayol doimo erkak kishiga sodiq do'st va yor, oqila, topqir, oilaviy tinchlikning posboni sifa-tida ulug'langan. Ayol – oilaga fayz kirituvchi farishta timsoliga aylangan. [1,…32 b]

Yuqorida sanab o'tganlarimiz – «Alpomish», «Qizjibek» va «Manas» kabi mashhur dostonlarimizda nikoh tuzishga oid odatlarda yigitning jismoniy qobiliyatlariga alohida ahamiyat berilgan. Yigitning jismoniy qobiliyati sinab ko'rilgan. Masalan, uning qizga munosib yoki nomunosib ekanli-gini aniqlash uchun o'zaro ot poygasi, kamon-dan nishonga urish, uzoqqa o'q uzish, kurash tushish kabi bellashuvlar o'tkazilgan. SHuning-dek, bu tanlov «Qiz quvmoq», «Tortishmachoq», «Oltiboqan» kabi xalq o'yinlarida o'z ifodasini topgan. Bu dostonlar qadimgi davrda yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash an'anala-ri haqida bizga to'liq tasavvur va ma'lumot bera oladi.

Islom dini, uning asosiy manbalari hisoblangan Qur'oni Karim va hadislarda bo'lajak oilaning vujudga kelishiga alohida e'tibor berilgan hamda farzandlarning nas-liy pok bo'lishini hisobga olib, bo'lajak qaynota va qaynonalarni tanlash zaruriyati o'ziga xos tarzda bayon etilgan. Kelin yoki kuyov qilmoqchi bo'lgan har bir ota-onaning bo'lajak qudalar naslini surishtirishlari yoxud har bir musulmon o'zining «etti pushti»ni bili-shi lozim, degan talablar ham islomiy ma'-naviyatdan kelib chiqqan. Qur'oni Karimning ba'zi suralarida oila, oilaviy munosabatlar va oilaviy tarbiya masalalariga alohida urg'u berilgan. Toshga o'yib yozilgan yodgorliklar ichida o'zining ta'lim-tarbiyaviy g'oyalari bilan ma'naviy meros qoldirganlardan biri – Qo'rqit ota o'git-nasihatlaridir. VIII–IX asrning mashhur qozoq kuychisi, musiqashunos olim-lardan biri Qo'rqit ota o'git-nasihatlari, aforizmlarining tarbiyaviy ahamiyati katta. Qo'rqit ota ota-onani hurmat qilish, qadrlash, oilaviy munosabatlar, yigit bilan qiz tar-biyasi, inson xarakterining turli xil sifat-lari xususida keyingi avlodga ibrat bo'larli pand-nasihatlar qoldirgan. Masalan, " Avestoda " aytilishicha onadan ibrat olmagan qiz uquvsizroq, otaning tarbiyasi etmagan o'g'il xam shundayin baxolangan. Bunday o'gil farzand xalq boshini birlashtira olmaydi, qiz farzand esa uyidan ovqat berishga ham yaramaydi deya baxo berilgan. [4,…50 b]

Etnopsixologik muammolar tadqiqot ob'ekti sifatida tarixchilar, antropologlar, faylasuflar, demograflar, arxeologlar, tibbiyot soxasidagi olimlar, sotsiologlar, iqtisodchilar, etnograflar, genetiklar, pedagoglar va psixologlar tomonidan o'rganildi. Etnopsixologik va etnoxududiy omillar bo'yicha mavjud adabiyotlar ko'plab tadqiqotchilar tomonidan turli nuqtai nazardan o'rganilgan. Ijtimoiy psixologiya va etnopsixologiyaning eng muhim yo'nalishi sifatida oila va gender psixologiyasi, oila masalalari, oila – nikoh munosabatlari, oiladagi o'zaro munosabatlar keyingi yillarda rivojlangan xorijiy mamlakatlar psixologiya fanining keng tadqiqot manbaiga aylanib bormoqda. Bu sohada xorijlik psixolog olimlar X.T.Kristensen, G.Petrson, G. Xofsted, E.Tiyd, V.Metьyuza, K.Mixanovich, D. Vagen, S.Golod, Yu.Timofeev, N.Obozevlar tomonidan amalga oshirilgan. Oila -nikoh munosabatlari, o'zbek oilalaridagi milliy o'ziga xoslik, turli ijtimoiy guruh vakillari tasavvurlaridagi gender tafovutlarga xos yo'nalishlarda G'.SHoumarov, E.G'oziev, V.Karimova, A.Jabborov, Z.Rasulova, O'.SHamsiev, N.Sog'inov, X.Karimov, M.Fayzieva, U.Qodirov, M.Isaqova, N.Salaeva, R.Xikmatullaeva, R.Abdullaeva, G.Niyozmetova, I.Gafarova H.Abdusamatovlar, tojik, qoraqalpoq, qirg'iz va qozoq oilalari gender munosabatlari bo'yicha R.Samarov, M.Utepbergenov, R.Dushanov, T.Norimbetov va boshqalar olib borayotgan ilmiy tadqiqot ishlari diqqatga sazavordir.

Xususan G'.B. Shoumarov tadqiqotlarida madaniyatlararo farqlarni taqqoslab, patriarxal va individuallik jamiyatlar o'rtasidagi gender rollari tafovutlariga to'xtalib o'tilgan. Uning fikricha, madaniyat jamiyatdagi rollarni belgilab beradi va har bir jamiyatning qadriyat tizimi ana shu rollarning shakllanishiga ta'sir qiladi. O'zbekistonda genderga oid qarashlar ko'proq an'anaviy qadriyatlarga asoslangan. U.Qodirov (2020) o'z tadqiqotlarida gender madaniyati va milliy xususiyatlarning o'zaro bog'liqligini yoritgan. [2,…20 b]

Etnopsixologik tadqiqotlar asosi bo'lgan axoli turmush tarzi va oila munosabatlari ijtimoiy masala sifatida hamma davrlarda olimlar diqqat markazida bo'lib kelgan. Oila ijtimoiy fanlarning turli sohalari bo'lgan sotsiologiya, falsafa, pedagogika va psixologiyaning o'rganish ob'ekti hisoblanadi. XX asrning 50-yillaridan boshlab, insoniyat turmush tarzi bilan bog'liq jamiyatda yuzaga kelgan ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va ma'naviy o'zgarishlar, aholining ma'lumotlilik darajasining o'sishi, oila sharoitida er-xotin munosabatlarining o'zgarishi o'z navbatida oila-nikoh munosabatlari xususiyatlariga o'zining sezilarli ta'sirini o'tkazdi. Bugungi kunga kelib, oila-nikoh munosabatlarining shaxsga ijobiy ta'siri qanchalik kuzatilsa, shu darajada salbiy oqibatlari ham o'zini namoyon eta boshladi [2; ....21].

O'zbekiston oilalaridagi shaxslararo munosabatlarning turlari, ularning shaxs rivojlanishiga ta'siri, psixologik xususiyatlari, ayniqsa, ajrimlar tufayli oiladagi farzand psixologiyasining transformatsiyasi, oilalardagi yuz berayotgan noxush holatlarni yuzaga keltiruvchi sabablari boshqa yillardagiga nisbatan keskin tafovutga ega ekanligi kuzatilmoqda. Bu esa mazkur muammolarni chuqur va keng qamrovda o'rganishni, ularni bartaraf etishning samarali amaliy chora-tadbirlarini ishlab chiqishni, oilaviy psixologik xizmatni amaliyotda joriy etishni taqazo etmoqda.

Psixologik nuqtai nazardan esa, Kettell (1990) ва Weisman (2008) шахсiy fazilatlar ва o'zini baholash orqali genderga oid ichki kechinmalarni o'lchash imkonini bergan. Bular o'zbek oilalarida ҳам shaxsiy qarashлар ва ijtimoiy me'yorlar o'rtasidagi tafovutlarni o'rganishda muhim vosita bo'ldi. [3,…46 b] Mavjud adabiyotlar gender rollarining madaniy, diniy, psixologik ва ijtimoiy omillar asosida shakllanishini tasdiqlaydi va bu masalani o'zbek oilalari misolida chuqurroq tahlil qilish ehtiyojini ko'rsatadi. O'rta Osiyoning, ayniqsa O'zbekistonning, mahalliy xalqining oila va etnopsixologik o'ziga hos hususiyatlari to'g'risida Abdulla Qodiriy, Muqimiy, Oybek, Maxtumkuli, Xamid Olimjon, Jambul, CHingiz Aytmatov, Uvaysiy, Zulfiya, Berdaq, K.Aimbetov, K.Ermanov va boshqalarning adabiy asarlarida yaxshi aks ettirilgan. O'zbek oilasining ijtimoiy va etnopsixologik tomonlari bugungi kun olimlari va yosh tadqiqotchilarining ilmiy tadqiqotlarining ayniqsa bosh mavzusi bo'lgan. Oilashunos psixologlarning dissertatsiya tadqiqotlarida diniy marosimlar va oilaviy-maishiy yashash tarzi to'g'risidagi tarixiy-etnografik ma'lumotlar chuqur bayon etilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Shoumarov G'.B., Rasulova Z.A. Yoshlarda oilaviy hayot haqidagi tasavvurlar //Oila barqarorligi: muammolar, tajribalar, istiqbollar. Respublika ilmiy-amaliy konferentsiya materiallari to'plami– Toshkent, 2012.–B.116- 118.
2.. Turgunboeva A.G. "Etnopsixologik omillarning o'zbek oilalaridagi gender ro'llarga ta'siri". "Qo'qon DPI ilmiy xabarlari" jurnali №6-son. -2025y/iyul.
3. SHoumarov G'.B., Turgunboeva A.G. va boshqalar.. Oila psixologiyasi. – Toshkent 2022. O'quv qo'llanma, -37-41 b.
4. Oila psixologiyasi: Akademik litseylar va kasb-hunar kollejlari uchun / G'.B. Shoumarov tahr. ost. – Toshkent, 2009. – 338 b.
5.Oila entsiklopediyasi. Tuzuvchilar: F.A.Akramova, Z.Bilolova, I.Jovliev. – T: «Ozbekiston milliy ensiklopediyasi» Davlat ilmiy nashriyoti, 2019. – 240 b.

MILLIY G'OYA VA MA'NAVIY-MA'RIFIY MEROS ASOSIDA TALABALARDA IJTIMOIY-MA'NAVIY ODOBNI SHAKLLANTIRISHNING ZAMONAVIY METODIK TA'MINOTI

Raxmatullayeva Gulnozaxon Mavlanjonovna
Andijon davlat pedagogika instituti dotsenti
Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya: Ushbu maqolada milliy g'oya va ma'naviy-ma'rifiy meros asosida talabalar ijtimoiy-ma'naviy odobni shakllantirish jarayonining zamonaviy metodik ta'minoti masalalari yoritiladi. Talabalar tarbiyasida milliy qadriyatlarni inobatga olgan holda metodik vositalar va pedagogik texnologiyalarning ro'li tahlil qilinadi. Zamonaviy ta'lim muassasalarida axloqiy

tarbiya samaradorligini oshirish uchun innovatsion metodlar va ilg‘or an’analardan foydalanish zarurligi ustida to‘xtaladi.

Kalit so‘zlar: Milliy g‘oya, ma’naviy-ma’rifiy meros, ijtimoiy-ma’naviy odob, talabalar tarbiyasi, metodik ta’minot, innovatsion pedagogik texnologiyalar

Аннотация: В данной статье освещаются вопросы современного методического обеспечения процесса формирования социально-нравственного этикета учащихся на основе национальной идеи и духовно-просветительского наследия. Анализируется роль методических средств и педагогических технологий в воспитании учащихся с учетом национальных ценностей. Остановится на необходимости использования инновационных методов и передовых традиций повышения эффективности нравственного воспитания в современных образовательных учреждениях.

Ключевые слова: национальная идея, духовно-просветительское наследие, социально-духовный этикет, воспитание учащихся, методическое обеспечение, инновационные педагогические технологии

Annotation: this article will cover the issues of modern methodological support of the process of forming socio-spiritual etiquette of students on the basis of national ideology and spiritual and educational heritage. In the education of students, a roll of methodological tools and pedagogical Technologies is analyzed, taking into account national values. He touched on the need to use innovative methods and advanced traditions to improve the effectiveness of moral education in modern educational institutions.

Keywords: National idea, spiritual and educational heritage, socio-spiritual etiquette, student education, methodological support, innovative pedagogical technologies

Bugungi kunda O‘zbekistonning mustahkam milliy o‘zligini shakllantirish, yoshlarni milliy g‘oya asosida tarbiyalash muhim davlat siyosati va pedagogik vazifalardan biridir. Talabalarda ijtimoiy-ma’naviy odobni shakllantirishda ulkan tarixiy va madaniy merosga asoslangan ta’lim metodikasi ayniqsa dolzarb. Zamonaviy davrda esa an’anaviy pedagogik yondashuvlar bilan birga innovatsion metodik vositalardan faol foydalanish lozim. Shu nuqtai nazardan, milliy g‘oya va ma’naviy-ma’rifiy meros talabalarni tarbiyalashda samarali metodik ta’minot bilan uyg‘unlashtirilishi kerak.

Milliy g‘oya va ma’naviy-ma’rifiy meros - bu nafaqat o‘tgan asrlarga oid qadriyatlar yig‘indisi, balki hozirgi kunda yoshlarni axloqiy, ma’naviy jihatdan yetuk etishda poydevor vazifasini bajaradi. Shunday ekan, pedagoglar metodik ishlarni amalga oshirar ekan, milliy qadriyatlarni zamonaviy ta’lim jarayoniga bog‘lash usullarini izlashlari zarur bo‘ladi[1]. Zamonaviy metodik ta’minot quyidagi asosiy tarkibiy qismlardan iborat bo‘lishi mumkin: milliy tarix va an’analar haqida o‘quv dasturlari, interaktiv dars metodlari, axloqiy loyihalar, madaniy tadbirlar, raqamli texnologiyalar yordamida tarbiyaviy ishlar. Shu bilan bir qatorda, talabalar orasida ijtimoiy mas’uliyatni oshirish, mehr-oqibatli munosabatlarni rivojlantirishga qaratilgan treninglar ham samarali hisoblanadi. Milliy g‘oya yosh avlodni milliy istiqlolning barkamol shaxsiga aylantirishda yo‘lboshchi prinsip bo‘lib xizmat qiladi[2]. Tarbiya jarayonida milliy g‘oya, ona tili, milliy madaniyat, urf-odatlar asosida metodik vositalar ishlab chiqilishi zarur. Tarixiy adabiyotlar, badiiy ijod namunalaridan foydalanish, ota-bobolarning hayotiy tajribalari va xalq og‘zaki ijodini talabalar diqqatiga etkazish ijtimoiy-ma’naviy odobni shakllantirishda muhim yondashuvdir.

Bugungi tez sur’atlar bilan rivojlanib borayotgan zamon ta’lim tizimiga ham yangicha yondashuvni, ilg‘or va samarali metodikalarni talab qilmoqda. O‘quvchi yoki talabani faollikka, mustaqil fikrlashga, jamiyatda faol ishtirok etishga undovchi metodik ta’minot vositalari ta’lim jarayonining ajralmas bo‘lagiga aylanmoqda. Bu vositalar nafaqat bilim berish, balki tarbiyaviy, axloqiy, estetik jihatdan ham o‘quvchilarni shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi.

[1] Ergashev, A. “Milliy g‘oya pedagogikada” Toshkent, 2022.

[2] Islomova, N. “Ma’naviy-ma’rifiy meros va yoshlarning tarbiyasi” T., 2023.

Birinchidan, **interaktiv usullar** zamonaviy ta’limning asosiy poydevorlaridan biri sifatida e’tirof etiladi. An’anaviy “o‘qituvchi aytadi – o‘quvchi yozadi” tamoyilidan farqli ravishda, interaktiv metodlar – guruh ishlari, jamoaviy muhokamalar, viktorinalar – o‘quvchilarni fikrlashga, savol berishga, o‘z fikrini himoya qilishga o‘rgatadi. Bu usullar o‘zaro hamkorlikni kuchaytiradi, bilimlarni chuqurroq o‘zlashtirishga yordam beradi. Ayniqsa, zamonaviy jamiyatda jamoa bilan ishlay olish ko‘nikmasi juda muhim ekani inobatga olinsa, bu usullarning ahamiyati yanada ortadi.

Ikkinchidan, raqamli texnologiyalar ta’lim sohasiga kuchli turtki bermoqda. **Raqamli vositalar** – multimedia slaydlar, onlayn platformalar, interaktiv testlar va mobil ilovalar orqali dars o‘tish bugungi kunda dolzarb masalaga aylangan. O‘quvchilar endi nafaqat darsliklar bilan, balki dunyo miqyosidagi o‘quv materiallari bilan ham tanishish imkoniyatiga ega bo‘lib bormoqda. Ayniqsa, masofaviy ta’limning keng yoyilishi bu vositalarning ahamiyatini yanada oshirdi.

Uchinchidan, ta’lim jarayonini faqat dars bilan cheklab bo‘lmaydi. O‘quvchilarni real hayotga tayyorlash, ularni jamiyatda faol bo‘lishga undash maqsadida **loyihaviy faoliyat** keng yo‘lga qo‘yilishi kerak. Masalan, ijtimoiy aksiyalar, ekologik tashabbuslar, ko‘ngilli tadbirlar o‘quvchilarni vatanparvarlik, birdamlik, mehr-oqibat kabi insoniy fazilatlar bilan tarbiyalaydi. Har bir loyiha – bu o‘quvchi uchun amaliyot maktabidir. Nihoyat, **madaniy-ma’rifiy tadbirlar** orqali o‘quvchilarning estetik didini shakllantirish, milliy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash muhim ahamiyatga ega[3]. Milliy bayramlarni nishonlash, teatr tomoshalariga tashrif, mashhur adiblar hayoti va ijodi haqidagi suhbatlar nafaqat ma’naviyatni boyitadi, balki yoshlarda o‘zligini anglash, tarixiy xotiraga hurmat tuyg‘usini kuchaytiradi. Zamonaviy metodik ta’minot vositalari o‘qituvchidan yangicha yondashuv, doimiy izlanish va texnologiyalardan samarali foydalanishni talab qiladi. Har bir o‘quvchi shaxs sifatida rivojlanishi uchun zamonaviy ta’lim uslublaridan unumli foydalanish, ularni o‘zbekona milliy qadriyatlar bilan uyg‘unlashtirish bugungi kun ta’limining dolzarb vazifalaridan biridir. Pedagoglar uchun maxsus treninglar, master-klasslar, ilmiy-amaliy konferensiyalar o‘tkazish metodik jarayonni zamonaviylashtirishga xizmat qiladi. Shuningdek, psixologik nazorat va baholash tizimlarini kuchaytirish talabalar shaxsiy rivojlanishini qo‘llab-quvvatlaydi. Milliy g‘oya va ma’naviy-ma’rifiy meros asosida talabalar ijtimoiy-ma’naviy odobini shakllantirishda zamonaviy metodik ta’minot muhim ahamiyat kasb etadi. Innovatsion pedagogik vositalar, an’anaviy qadriyatlar bilan uyg‘unlashgan metodik yondashuv yoshlar tarbiyasini yanada sifatli va samarali qilish imkonini beradi. Ushbu jarayonni mustahkamlash uchun pedagogik kadrlar malakasini oshirish va metodik ta’minot sistemalarini rivojlantirish zarurdir[4].

Yangi O‘zbekiston taraqqiyot yo‘lida qadam tashlayotgan bugungi kun yoshlari – ertangi kun poydevorini barpo etayotgan avloddir. Ularning qalbida yuksak ijtimoiy mas’uliyat, ma’naviy uyg‘oqlik, milliy g‘urur va odob-axloq mezonlari shakllanmas ekan, mustahkam jamiyat barpo etish mushkul bo‘ladi. Aynan shu bois, milliy g‘oya va ma’naviy-ma’rifiy merosga asoslangan tarbiya – bugungi davrning eng dolzarb, eng strategik masalalaridan biri sifatida maydonga chiqmoqda. Odob – bu shunchaki xulq-atvor me’yorlari emas. Bu – xalqning ruhiy tarixi, or-nomusi, o‘zligini anglash darajasi. Ma’naviyat – bu jamiyatni barqaror tutib turgan ichki kuchdir. Bugun oliy ta’lim muassasalarida tahsil olayotgan yoshlar nafaqat kasb egasi, balki kelajak jamiyatning madaniy va axloqiy yuzidir. Ularni tarbiyalashda esa yondashuv tubdan o‘zgardi – davr taqozosi zamonaviy metodik ta’minotni talab qilmoqda. Yangi O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlar – bu oddiy o‘zgarishlar emas. Bu – ma’naviyatga tayanib, kelajakka dadil yurishning belgisidir. Ayniqsa, ta’lim va tarbiya tizimida milliy g‘oya va ijtimoiy-ma’naviy odobni shakllantirish bo‘yicha olib borilayotgan chora-tadbirlar e’tiborga loyiq. Davlat rahbari tashabbusi bilan ishlab chiqilgan **“Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasi”** bugun oila, mahalla, maktab va oliy ta’lim muassasalarini yagona ma’naviy-ma’rifiy zanjirga birlashtirmoqda. Endi talabaning faqat bilim darajasi emas, balki odobi, axloqi, ijtimoiy faolligi ham

[3] Ergashev, A. “Milliy g‘oya pedagogikada” Toshkent, 2022.
[4] Karimova, L. “Innovatsion metodlar va ma’naviy tarbiya” Toshkent, 2023.

baholanmoqda. Zero, bugungi dunyoda axborot ko‘p, lekin ma’naviyatga asoslangan ongli tanlov qilish – yosh avlodning asosiy quroli bo‘lishi kerak. Oliy ta’lim muassasalarida ijtimoiy-ma’naviy odobni shakllantirish bugun keng ko‘lamli faoliyatga aylangan. Madaniy-ma’rifiy tadbirlar, ma’naviyat soatlari, “Ma’naviyat karvonlari”, teatr tomoshalari, tarixiy qahramonlar hayoti haqidagi suhbatlar, milliy qadriyatlar bo‘yicha seminar-treninglar – bularning barchasi talabaning ichki dunyosini boyitish, uning dunyoqarashini mustahkamlashga xizmat qilmoqda. Ayni vaqtda interaktiv metodlar – guruhli ishlar, ijtimoiy loyihalar, vebinar va forumlar orqali talabalar nafaqat passiv tinglovchi, balki faol ishtirokchi, tashabbuskor yoshlar sifatida maydonga chiqmoqda. Masalan, ko‘ngillilar harakatida qatnashayotgan talabalar nafaqat odob, balki ijtimoiy mas’uliyat, hamdardlik, fuqarolik burchini his qilishni o‘rganmoqda[5].

Yangi O‘zbekistonda yoshlarga qaratilayotgan e’tibor – bu shunchaki siyosiy shior emas, balki amaliy harakatlarda o‘z ifodasini topmoqda. Prezidentimiz tashabbusi bilan qabul qilingan **“Yangi O‘zbekiston yoshlari tarbiyasida milliy qadriyatlar va zamonaviy yondashuvlar uyg‘unligi”** tamoyili asosida har bir oliy ta’lim muassasasida ma’naviy-ma’rifiy faoliyat uchun alohida bo‘limlar tashkil etildi. Shuningdek, “Ma’naviyat va ma’rifat markazlari” faoliyati jonlanmoqda, “Yangi hayot uchun – yangi ma’naviyat” g‘oyasi targ‘ib qilinmoqda. Bu esa talabalarni zamon bilan hamnafas, lekin o‘z ildizidan ajramagan holda tarbiyalashga xizmat qiladi. Tarbiya – bu jamiyatning yuragi. Tarbiya to‘g‘ri bo‘lsa, kelajak porloq. Bugungi talabalar – ertangi O‘zbekiston yetakchilari, pedagoglari, siyosatchilari, ijodkorlari, tadbirkorlari. Ularning qalbida milliy g‘oya, ma’naviy uyg‘oqlik va odob-axloq madaniyatini shakllantirish – bu nafaqat ta’lim tizimining, balki butun jamiyatning umumiy vazifasidir[6]. Milliy g‘oya va ma’naviy-ma’rifiy meros bu yo‘lda bizga yo‘lchi yulduz bo‘lishi shubhasiz. Tarbiya — kechiktirib bo‘lmaydigan, muqaddas mas’uliyatdir. Zero, milliy qadriyatga suyanmagan avlod – ildizsiz daraxt kabidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Ergashev, A. “Milliy g‘oya pedagogikada” Toshkent, 2022.
2. Islomova, N. “Ma’naviy-ma’rifiy meros va yoshlarning tarbiyasi” T., 2023.
3. Saidov, Q. “Zamonaviy pedagogik texnologiyalar” Sam., 2021.
4. Rahimova, D. “Talabalar tarbiyasida milliy qadriyatlar” Pedagogika jurnali, 2024, №2.
5. Karimova, L. “Innovatsion metodlar va ma’naviy tarbiya” Toshkent, 2023.

NAVOIYNING IJTIMOIY-FALSAFIY QARASHLARI MARKAZIDA INSON MUAMMOSI

Xaidarov Rahmatullo Ergashevich,
Qo‘qon universiteti Andijon filiali dotsenti
Falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya. Ushbu maqolada Alisher Navoiyning ijtimoiy-falsafiy qarashlari tizimida inson muammosi haqidagi qarashlarining konseptual tahlihi, uning diniy-falsafiy mohiyati tahlil qilinadi.

Kalit so’zlar: inson, kamolot, konsepsiya, konsept, din, falsafa, Islom, muhit, jamiyat.

Аннотация. В данной статье анализируется концептуальный анализ взглядов Алишера Навои на проблему человека в системе социально-философских взглядов, а также его религиозно-философская сущность.

Ключевые слова: человек, совершенство, концепция, религия, философия, ислам, окружающая среда, общество.

Abstract. This article examines Alisher Navoi's conceptual views on the problem of man within the framework of socio-philosophical views, as well as his religious and philosophical essence.

Keywords: man, perfection, concept, religion, philosophy, Islam, environment, society.

[5] Karimova, L. “Innovatsion metodlar va ma’naviy tarbiya” Toshkent, 2023.
[6] Karimova, L. “Innovatsion metodlar va ma’naviy tarbiya” Toshkent, 2023.

Komil inson masalasi insoniyat taraqqiyotida doimo markaziy o'rinda bo'lib kelgan. U haqida G'arb va Sharq mutafakkirlari turlicha talqin qilgan bo'lsalar-da, umumiy g'oya sifatida insonning ma'naviy va axloqiy yuksalishi, jamiyatdagi munosib o'rni va ijtimoiy mas'uliyatini belgilab berishga intilganlar. Masalan, Arastu insonni "aqlli mavjudot" sifatida ta'riflab, uning kamoloti tabiat va aql uyg'unligida deb bilsa, Islom faylasuflari, jumladan, Forobiy, Ibn Sino va Beruniylar komil insonni ma'naviy-axloqiy fazilatlari va jamiyatga foyda keltirishi bilan baholashgan.

Ajdodlarimiz ham inson tabiatini ulug'lab, uni tirik mavjudotlar ichida eng oliy maqomga ko'tarishgan. Ularning nazaricha, komil insonning vujudga kelishi mukammal jamiyat qurishning asosiy sharti hisoblanadi. Shu bois, ma'rifatli va adolatli shoh, odil rahbar yoki yetuk shaxs sifatida ideallashtirilgan obrazlar ijtimoiy hayotda me'yor sifatida ko'rilgan.

Inson tabiati haqida munosabat bildirib, ichki va tashqi omillarning ta'sirlariga munosabat bildirishni ham inobatga olish lozim. Chunki, har qanday substantsional tuzilmani uning xarakteri belgilaydi. Shu nuqtai nazardan, inson tabiatiga ham mazkur xususiyat xosdir. Unda tashqi muhitning ta'siri asosida shakllanadigan sifatlar tarbiya jarayoni hisoblanib, Alisher Navoiy bu masalaga Islom dinining asosiy kontsepsiyasidan kelib chiqqan holda yondashgan. Chunki, o'zini anglagan insongina Yaratganni anglashi mumkin. Islom falsafasida buni ilmi huzuriy (intiutiv bilim) va ilmi husuliy (diskursiv-empirik bilim) deb ko'rsatgan bo'lsa-da, Navoiy bu masalaga gnostik (orif) tarzda yondashgan. Ya'ni, inson o'zini o'zi (ijobiy va salbiy xususiyatlarni) inobatga olgan holda yondashib, salbiy xususiyatlarni bartaraf etish yo'li bilan komillikka intilishi mumkin. Shu sababli bo'lsa kerakki, Islom antropologiyasi ratsional-empirik antropologiyadan quyidagi jihatlari bilan farqlanadi:

- diniy antropologiyaning o'ziga xosligi bu uning aniqliligi ya'ni, muqaddas manbalar Allohga iymon keltirish kamolot yo'li ekanligini ko'rsatgan;

- universallik diniy antropologiyada insonni maishiy va ma'naviy hayoti aql va tajriba chegaralaridan keng. Chunki aql va tajriba insonni jismoniy o'limi va ruhi orasidagi bog'liqlikni asoslab berolmaydi;

- diniy antropologiyada inson Yaratganga erishish maqsadi bilan hayotguzaronlik qiladi va Alisher Navoiyning asarlarida ham bu masala o'z ifodasini topgandir.

Navoiyning ijodida komil inson moddiy va ma'naviy yaratuvchi sifatida gavdalangan. Bu Navoiyning ijtimoiy-falsafiy qarashlari bevosita Islom ta'limoti bilan bog'liqligini ko'rsatadi. Navoiy tana va ruh tarbiyasini ilgari surib, ruh tananing iste'molchisi emas, balki uning tarkibiy qismi ekanligini ko'rsatib o'tgan.

Uning ijodidagi eng asosiy insonparvarlik va ezgulik g'oyalarining o'ziga hoslik tomoni shundaki, u o'zi yashagan davrgacha faoliyat yuritgan barcha mutafakkir va ijodkorlardan farqli o'laroq ilohiylik va dunyoviylik tamoyilini uyg'unlashtira oldi. Ilohiy g'oyalar, timsollar uning uchun inson hamisha intiladigan ideal olam bo'lsa, dunyo shu ideal olamning ko'zgusi, ibrat hamda saboq maydoni. Zero, insonda koinotning, ilohiy olamning hikmatlari, mohiyati aks etgan. Ayniqsa, bu boradagi qarashlar "Hayrat ul–abror" dostonining asosini tashkil etadi.

Navoiyning antropologik qarashlari islom manbasi asosida Odam Atoning yaratilishi haqidagi rivoyatga borib taqaladi. "Neki olami kubroda bor - olami sug'roda bor", deydi Alisher Navoiy "Hayrat ul-abror" dostonida. Olami kubro - katta olamni anglatib, koinot, borliq nazarda tutiladi. Olami sug'ro esa - kichik olam, ya'ni insonni ifodalaydi. Bunday qarash aslida Qur'oni karimda kelgan, Odam Atoning yaratilishi haqidagi oyatlarda aks etadi. Qur'oni karimning Sod surasi 71-72-oyatlarida "Eslang, Rabbingiz farishtalarga degan edi: "Albatta, men loydan bashar yaratuvchidirman. Bas, qachonki, uni rostlab, unga ruhimdan puflaganimdan so'ng, unga sajda qilgan hollaringizda yiqilinglar!" [1,311] deya insonning tuproqdan yaratilib, keyin unga Alloh o'z ruhini yuborib, jon ato etganligini bilamiz. Demak, inson modda va ruh yoki yoki tabiat va ilohdan vujudga kelgan. Shu bois inson tiynatining o'zida ma'joz va haqiqat, ilohiylik va dunyoviylik mujassam.

Shunga ko’ra, inson avvalo o’zini, keyin Alloh yaratgan jamiki ilmu hikmat, ma’rifat-ma’naviyatini bilib, o’z Xoliqini tanib, musaffo ruh holida qayta vahdoniyatga qo’shilmog’i darkor. Shu yo’lda inson axloqi poklanadi va u komillik darajasiga ko’tariladi.

Alisher Navoiy soxta dindorlik, dindan o’z shaxsiy manfaatlari yo’lida foydalanish, botiniy olamga qaramay, zohiriy rasm–rusumlarni bajarish bilan kerilish, riyokorlik, shavqatsizlikni qoralaydi. Inson avvalo yaxshi axloqi, niyatining (himmatining) ulug’vorligi, ilohiyligi bilan inson. Agar bunday bo’lmasa, yani kishi qalbida ezgulikka, hayrga muhabbat bo’lmasa, uning iymoniga ishonish qiyin. Iymon botiniy olamning tozaligi va butunligi, haqqa yaqinligini namoyon etib turishi kerak.

Shuni aytish o’rinliki, hazrat Navoiy “Hayrat ul–abror” dostonida tasavvuf falsafasidagi axloq, xulq-odob qoidalari, insonparvarlik va odamiylik, nafsni tiyish, adolat va marifat, tabiat va insonni sevish, ularni e’zozlash, talim-tarbiya to’g’risidagi g’oyalardan unumli foydalandi. Bu g’oyalar mutafakkirning boshqa g’azal va ruboiylari, dostonlari, nasriy asarlariga ham singib ketgan. I. Haqqul ta’kidlaganidek, “Navoiyning tasavvufga yondashuvi va bu ta’limotdan ko’zda tutgan maqsadi – shaxs va millat taqdiriga mas’ul, yurt taraqqiyotiga suv va havoday zarur tushunchalarning istiqboli uchun yonib kurashgan, haqiqatni faqat tanish emas, haqiqatni sevish salohiyatini ham ko’zlagan mutafakkir san’atkorning yondashuv va maqsadi edi”.

Navoiyning umuminsoniy mazmunga ega bo’lgan gumanistik qarashlari islom dini falsafasidan oziqlangan bo’lib, mutafakkir o’zining asarlarida insonning diniy va dunyoviy jihatlari, zohiriy va botiniy tomonlarini har tomonlama yoritib berishga harakat qilgan.

Shu sababli bo’lsa kerakki, inson kamolotida iymon va e’tiqod belgilovchi ekanligini ko’rsatib o’tgan. Navoiy falsafasida ma’naviy yaratuvchanlik inson kamolotining asosi ekanligi belgilangan. Chunki, ma’naviy va aqliy faoliyat insonni bilish imkoniyatlarini ta’minlash bilan birga o’zini anglash satxini (doirasini) kengaytiradi. Shu sababli, Alisher Navoiy inson faoliyatini rivojlanuvchi va o’zining vositalarini maqsadga aylantiruvchi, maqsadini esa vositaga keltiruvchi xilqat hisoblanadi. A.Karmin va G. Bernatsskiy ta’kidlashicha, hech qachon bir maromda bo’lmaydi, balki, uni harakatga keltiruvchi o’zida ifodalangan bo’ladi [2.159].

Navoiy insonni ijtimoiy munosabatlar tizimida kamol topishini inobatga olib, “ijtimoiy reallik – hayot tarzi - inson – turtki – munosabat” kabi o’zaro aloqadorlikda ekanligini tavsif etadi. Bunda ijtimoiy borliqning dominantligi kuzatiladi.

Navoiy insonni aqlsiz tasavvur qilmaydi. Inson qanday ish bilan shug’ullanmasin aqlga, tafakkurga, uning kuchiga ishonishi kerak, degan fikr mutafakkir asarlarining muhim jihatini tashkil qiladi. Mutafakkirning yana bir muhim xususiyati, bizning fikrimizcha, shundan iboratki, ul zot o’zining g’azal, ruboiy va dostonlarida insonparvarlikka oid qarashlarni bayon qilish bilan cheklanib qolmasdan, balki o’zi buyuk insonparvar shoir degan nom qozondi, odamiylikda boshqalarga o’rnak bo’ldi. U doimo oddiy xalq g’am-tashvishiga sherik bo’ldi, ularga homiylik qildi.

Jumladan, “Hayrat ul-abror” dostonining 63-bobidagi “Oyogi toyib ketib kosadagi oshni shohning kosadek boshiga to’kib yuborgan va olijanob shoh oldida o’z oshini pishirgan bir qul hikoyasi [3.238]” haqidagi hikoyatida podshohning xizmatchiga ko’rsatgan lutf, avf, karam sifatlari insoniylikning ziynati sifatida madh qilinadi.

Alisher Navoiyning “Xamsa”ga kirgan dostonlarining har birida insonparvarlik g’oyalari yaqqol namoyon bo’ladi. Uning “Farhod va Shirin”, “Layli va Majnun”, “Saddi Iskandariy” va boshqa dostonlaridagi Farhod, Shirin, Layli, Majnun, Iskandar, Suqrot, Aflotun timsollarida vatanparvarlik, insonparvarlik kabi yuksak axloqiy fazilatlar, olijanob qadriyatlar jamlangan. Bu obrazlar allomaning ijtimoiy-falsafiy, axloqiy va gumanistik qarashlariga mos holda bayon qilinadi. Hazrat Navoiy odamiylik, vafodorlik, mehr-oqibat, xalq g’amida yashash, uning farovonligi, baxt-saodati yo’lida hatto jonini fido qilish, xayr-ehson, o’zgalarga saxiylik qilish kabi fazilatlarni hamma narsadan yuqori qo’yadi. Mutafakkir bu bilan insonni, uning xislatlarini ulug’laydi, uni boshqa jonzotlardan a’lo ekanligini ishonarli tarzda isbotlab beradi.

Xulosa qilib aytganda, inson yuksak axloqiy fazilatlar va insoniy qadriyatlarni o’zlashtirmasdan, ma’naviy yuksalishga erishishi qiyin. Go’zal xulq, odob va insonparvarlik

tuyg'ulari shaxsni yetuklikka yetaklaydi, komil inson maqomini belgilaydi va uni jamiyatdagi barqarorlik hamda taraqqiyotning asosiy tayanchiga aylantiradi. Hazrat Navoiy ijodining mazmun-mohiyati umuminsoniy va gumanistik ruh bilan sug'orilgan bo'lib, mutafakkir insonparvarlik tushunchasiga ijtimoiy mazmun beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Qur'oni karim ma'nolari tarjimasi. Tarjimon: Abdulaziz Mansur www.ziyouz.com кутубхонаси -B.483 https://wayu.uz/media/services/book/1_XklEfI67uMZfdNUE-5DQbsFT9l0nDvAt-2022-12-25_090639.pdf

2. Кармин А., Бернацкий Г. Философия. Учебник для вузов. 2-е изд – СПб.: Питер, 2009. Стр.560

3. Хамса: Ҳайрат ул-аброр: насрий табдил / Алишер Навоий. Манзар Абдулҳайр табдили. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2021. Б. 240

GEGEMONLIK MAFKURASI TARG'IBOTIDA "AQL MARKAZLAR"NING ROLI

Turayev Abrar Saloxiddinovich
Siyosiy fanlar bo'yicha falsafa doktori(PhD), dotsent
Jizzax davlat pedagogika universiteti
ijtimoiy2017@mail.ru

Annotatsiya. Ushbu maqolada AQShdagi neokonservativ "aql markazlar"ning global gegemonlik g'oyalari targ'ibotidagi o'rni, shakllanish omillari va talqinlari muhokamaga tortilgan bo'lib, bu go'yalarning tahlil markazlar tomonidan asoslanishi va dasturiy manbalari ko'rib chiqilgan.

Kalit so'zlar: AQSh, "aql markazlar", global gegemonlik, Pax Americana, neokonservatizm, aql markazlari (think tanks), AQSh tashqi siyosati, Yangi Amerika asri loyihasi (PNAC), Amerika tadbirkorlik instituti (AEI), Gudzon instituti (Hudson Institute), xalqaro xavfsizlik, muruvvatli gegemonlik (benevolent hegemony), xalqaro tartibot.

Abstract. This article examines the role of U.S. neoconservative think tanks in advancing concepts of global hegemony, highlighting the factors behind their emergence and the interpretations they offer. Particular attention is given to the ways in which these ideas are substantiated by analytical institutions and to the programmatic sources that underpin them.

Keywords: United States, think tanks, global hegemony, *Pax Americana*, neoconservatism, policy institutes, U.S. foreign policy, Project for the New American Century (PNAC), American Enterprise Institute (AEI), Hudson Institute, international security, benevolent hegemony, international order.

Аннотация. В статье анализируется роль неоконсервативных мозговых центров США в продвижении идей глобальной гегемонии, рассматриваются факторы их возникновения и трактовки, предлагаемые данными институтами. Особое внимание уделяется обоснованию этих идей аналитическими центрами, а также их программным источникам.

Ключевые слова: США, мозговые центры, глобальная гегемония, *Pax Americana*, неоконсерватизм, аналитические институты, внешняя политика США, проект «Новый американский век» (PNAC), Американский институт предпринимательства (AEI), Гудзоновский институт (Hudson Institute), международная безопасность, «доброжелательная гегемония» (*benevolent hegemony*), международный порядок.

Dunyodagi davlatlarning iqtisodiy, harbiy-siyosiy va madaniy salohiyati sezilarli darajada farq qiladi. Ba'zi davlatlar iqtisodiy rivojlanish yo'nalishida yetakchi bo'lsa, boshqalar harbiy qudrat va siyosiy ta'sir nuqtayi nazaridan ustun hisoblanadi. Madaniyat, ilm-fan, texnologiya va ilmiy kashfiyotlardagi yetakchilik ham davlatlarning xalqaro maydondagi mavqeyini belgilovchi muhim omillardandir.

XX asr oxiri-XXI asr boshiga kelib gegemonlik mafkurasi yangi shaklda, ya'ni neokonservativ yondashuv orqali o'z ifodasini topa boshladi. Neokonservativ "aql markazlari"

global yetakchilikni mustahkamlash uchun tarixiy gegemonlik tamoyillarini qayta ishlab chiqib, ularni demokratik qadriyatlar, xavfsizlik siyosati va xalqaro tartibni boshqarish konsepsiyasi bilan uyg‘unlashtirmoqda.

Neokonservativ yondashuvga muvofiq, dunyo bo‘ylab hukmronlikka da’vo qiluvchi shovinistik va radikal mafkuralarning kuchayishi xalqaro xavfsizlik va barqarorlik uchun asosiy tahdid hisoblanadi. Shu bois, neokonservativ “aql markazlari” global xavfsizlikni ta’minlash maqsadida demokratik qadriyatlar va erkin bozor iqtisodiyoti asosida xalqaro tartibni himoya qilish va zarur bo‘lsa, harbiy kuchdan foydalanishni ham legitim vosita deb hisoblaydi. Ushbu yondashuvlar, ayniqsa, **Yangi Amerika asri loyihasi (PNAC), Amerika tadbirkorlik instituti (AEI)** va **Demokratiyani himoya qilish jamg‘armasi (FDD)** kabi neokonservativ markazlarda keng targ‘ib qilinadi. Ular global tahdidlarni, xususan terrorizm, totalitar rejimlarning agressiv siyosati va radikal mafkuraviy harakatlarni AQSh yetakchiligida hal etish zarurligini ilgari suradi. Natijada, neokonservativ “aql markazlari”ning asosiy siyosiy taklifi shuki, demokratik va liberallashtirilgan xalqaro tartibni saqlab qolish uchun AQSh o‘zining global liderlik rolini saqlashi va zarur bo‘lganda bu rolni harbiy, siyosiy va iqtisodiy vositalar yordamida mustahkamlashi lozim[4]. Shu nuqtayi nazardan, ular nazdida bugungi murakkab va ziddiyatli global mafkuraviy manzarada neokonservativ “aql markazlari” yondashuvi xalqaro hamjamiyat uchun yangi xavfsizlik strategiyalarini ishlab chiqishda va dunyoda demokratik tamoyillarni himoya qilishda muhim konseptual poydevor bo‘lib xizmat qiladi.

Gegemonlik AQSh neokonservativ mafkurasining markaziy g‘oyaviy tamoyillaridan biriga aylandi va bu mafkura neokonservativ “aql markazlari”ning ilmiy va siyosiy faoliyatining asosiy ustuni sifatida ilgari surildi.

Bugungi kunda AQSh harbiy, iqtisodiy, madaniy va texnologik sohalarda yetakchi davlat sifatida tan olingan. Neokonservativ “aql markazlari” ushbu yetakchilikni saqlab qolish va kengaytirish uchun quyidagi asosiy yondashuvlarni ilgari suradi:

Birinchidan, global gegemonlik va “AQSh globalizmi” konsepsiyasi. Neokonservativ markazlar AQShni dunyodagi yagona superkuch sifatida e’tirof etib, global siyosatning asosiy yo‘nalishlarini belgilash va global xavfsizlikni ta’minlash uchun yetakchi rolni saqlab qolish zarurligini ta’kidlaydi. Bu konsepsiyaning markazida AQShning demokratik qadriyatlar va erkin bozor iqtisodiyoti asosidagi global tartibni himoya qilishi turadi;

Ikkinchidan, milliy manfaatlarni global darajada himoya qilish. Neokonservativ “aql markazlari” uchun har qanday davlat yoki kuch AQShning milliy manfaatlariga qarshi turganda, u global xavf sifatida qabul qilinadi va unga qarshi har qanday vositalar – siyosiy, iqtisodiy yoki harbiy – ishlatilishi ma’qullanadi. Bu yondashuv “sovuq urush” davridan boshlab, ayniqsa, 1970–80-yillarda shakllangan va keyinchalik mustahkamlangan;

Uchinchidan, demokratik globalizm va axloqiy-geosiyosiy integratsiya. Neokonservativ markazlar AQShning demokratik globalizmini nafaqat axloqiy vazifa, balki geosiyosiy strategiya sifatida ko‘radi. Ular global demokratik tartibni o‘rnatish jarayonida xom ashyo resurslari va ularni tashish yo‘laklari ustidan nazoratni mustahkamlash muhimligini ta’kidlaydi;

To’rtinchidan, harbiy kuchdan faol foydalanish va zarurat tug‘ilganda biryoqlama qarorlar qabul qilish. Neokonservativ “aql markazlari” AQShga xalqaro maydonda yetakchilikni saqlash uchun harbiy kuchni samarali vosita sifatida ishlatish, shuningdek, zarur hollarda boshqa davlatlar bilan maslahatlashmasdan harakat qilishni tavsiya qiladi;

Beshinchidan, g‘oyaviy va mafkuraviy yetakchilik. Neokonservativ markazlar AQShning global yetakchiligini faqat harbiy yoki iqtisodiy kuchga asoslangan emas, balki g‘oyaviy va madaniy gegemonlikka ham bog‘liq deb hisoblaydi. Shu bois ular demokratik qadriyatlar, inson huquqlari va erkinlik tamoyillarini targ‘ib qilishga katta e’tibor qaratadi.

Neokonservativ “aql markazlari”, jumladan Yangi Amerika asri loyihasi(PNAC), Amerika tadbirkorlik instituti(AEI) va Demokratiyani himoya qilish jamg‘armasi(FDD) kabi tashkilotlar ushbu yondashuvlarni amaliy siyosatga aylantirishda hal qiluvchi rol o‘ynadi. Ular orqali neokonservativ g‘oyalar AQSh siyosiy elitasida keng tarqaldi va ayniqsa 2000-yillarning boshida AQShning tashqi siyosatida, jumladan, 2003-yilgi Iroq urushi qarorida aniq ifoda topdi. Shunday

qilib, neokonservativ “aql markazlari” AQShning global gegemonlik strategiyasini ilmiy-tahliliy asoslar bilan ta’minlab, uning amalga oshirilishida siyosiy va strategik ko‘rsatmalar beruvchi markazga aylandi. Ularning yondashuvlari dunyo siyosatida kuchlar muvozanati va xalqaro munosabatlar tizimining shakllanishida muhim omil hisoblandi.

Global gegemonlik mazmunining muhim konsepsiyalaridan biri sifatida Yangi Amerika asri loyihasi(PNAC) asoschilari **U.Kristol** va R.Kagan tomonidan ilgari surilgan **“Muruvvatli global gegemonlik”** (Benevolent Global Gegemony) g‘oyasi tan olinadi. Ushbu konsepsiyaning asosiy mazmuni shundaki, dunyodagi boshqa qudratli davlatlar ham AQShning global hukmronligini ijobiy qabul qilishi, Vashington homiyligida o‘z manfaatlarini ta’minlashi va boshqa tahdidli gegemon kuchlar tajovuzidan himoyalanishi mumkin[5].

“Muruvvatli global gegemonlik” – bu AQSh neokonservatorlari tomonidan ilgari surilgan global siyosiy konsepsiya bo‘lib, unda AQShning dunyoda yetakchi, hukmron kuch sifatida o‘z rolini “muruvvatli” ya’ni, adolatli, demokratik qadriyatlarni targ‘ib qiluvchi va xavfsizlikni ta’minlovchi kuch sifatida namoyon etishi ta’kidlanadi. “Muruvvatli gegemonlik”da AQSh global yetakchiligini faqat kuch orqali emas, balki barqarorlik, adolat va demokratik qadriyatlarni himoya qilishga asoslangan muruvvatli boshqaruv shakli sifatida ko‘radi. U.Kristol va R.Kagan AQShning bu roli o‘zgarishsiz davom etishi, yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan tahdidlarni oldindan bartaraf etish uchun proaktiv siyosat yuritishi kerakligini ta’kidlaydilar.

1990-yillardan boshlab neokonservativ chaqiriqlar kuchayib, Pol Vulfovits tomonidan 1992-yilda ishlab chiqilgan “Hukmronlik strategiyasi” Yaqin Sharqdagi qurolli aralashuv zaruratini asoslashga qaratildi.

Global gegemonlik konsepsiyasining asosiy maqsadi, ayniqsa neokonservativ yondashuvlarda, dunyodagi tabiiy resurslar xususan, neft va gaz kabi strategik tabiiy zaxiralarga to‘siqsiz kirish va ulardan ustunlik bilan foydalanishni ta’minlashdir. Bu ustunlikni saqlab qolish va mustahkamlash uchun zarurat tug‘ilganda harbiy aralashuv va urushga kirish ham asoslangan. Ammo bu yondashuv, ayniqsa, neokonservativ “aql markazlari” orqali targ‘ib etilgan global hukmronlik siyosati, jahon hamjamiyati tomonidan har doim ijobiy baholanmaydi. “Sovuq urush”dan keyingi davrda AQSh tashqi siyosatining barqaror emasligi, tez-tez va keskin o‘zgaruvchan qarorlar qabul qilinishi, ko‘plab davlatlar va ekspertlar o‘rtasida ishonchsizlik va ikkilanishlarga sabab bo‘ldi.

Neokonservativ tahlil markazlari 2000-yillarda AQSh tashqi siyosatini shakllantirishda muhim ta’sir ko‘rsatdi. U tomonidan ishlab chiqilgan **“Amerika mudofaasini qayta qurish: yangi asr uchun kuchlar va resurslar”** konsepsiyasi[7] neokonservativ strategiyaning amaliy yo‘nalishini belgiladi. Ushbu hujjatda ta’kidlanishicha, o‘n yilliklar davomida AQSh Fors ko‘rfazi hududida o‘zining harbiy va siyosiy ta’sirini mustahkamlashga intilib keldi. Mintaqada AQShning harbiy mavjudligi nafaqat strategik resurslar xususan neft zaxiralari ustidan nazoratni ta’minlash uchun zarur, balki global barqarorlikni saqlashda muhim vosita sifatida ham namoyon bo‘ladi. Ayni paytda, **Iroq konflikti** neokonservatorlar uchun Fors ko‘rfazi siyosatini davom ettirish va mustahkamlashga xizmat qiladigan asosiy omil bo‘lib qoldi. Saddam Husayn rejimini ag‘darish orqali AQSh mintaqadagi raqobatchilarining iqtisodiy va siyosiy ta’sirini susaytirish, shuningdek, demokratiya va erkinlik tamoyillarini yoyish niyatida ekanligi targ‘ib qilindi[3].

Neokonservativ “aql markazlari” AQShning tashqi siyosatida xalqaro hamjamiyat fikrlarini ikkinchi darajali omil deb hisoblaydi. Amerika Tadbirkorlik Instituti(AEI) tomonidan 2000-yilda chop etilgan “Amerika ustunligi va uning geostrategik zaruratlari” (“American Primacy and Its Geostrategic Imperatives”) nomli hisobotda ta’kidlanishicha, “AQSh o‘zining global yetakchiligini saqlab qolish uchun barcha vositalardan foydalanishi, jumladan, harbiy qudratini oshirish va iqtisodiy ta’sirni kengaytirishi zarur”[2]. Ushbu hisobotda “xalqaro hamjamiyatning erkin va demokratik tamoyillar asosida birlashishi” neokonservativ tashabbus sifatida ko‘rsatiladi, biroq AQSh milliy manfaatlari asosiy ustunlikka ega bo‘lishi lozimligi alohida qayd etilgan.

Me’ros Fondi esa huquqiy va siyosiy nuqtai nazardan AQShning xalqaro maydondagi faoliyatini himoya qildi va doktrinaning global xavfsizlikni mustahkamlashdagi o‘rnini yuqori

baholadi. Jumladan, “Merosi ta’minoti: Bush Doktrinasini mustahkamlash” (“Ensuring a Legacy: Solidifying the Bush Doctrin”)[9] maqolasida “Bush Doktrinasi”ning davomiyligini ta’minlash va uni yanada mustahkamlash zarurligini ta’kidlaydi. Mualliflar fikricha, Bush Doktrinasi AQShning global xavfsizligi va siyosiy liderligini saqlab qolishda muhim rol o‘ynaydi. Shuning uchun uni doimiy ravishda yangilab, amaliyotga joriy etish va uning tamoyillarini yuksaltirish zarur.

AQSh neokonservativ mafkurasining markaziy g‘oyalaridan biri **“Amerika asri”** yoki **“Pax Americana”** (“Amerika tinchligi”) konsepsiyasini qurish imkoniyatiga bo‘lgan qat’iy ishonchdir. Neokonservatorlar global siyosatda ko‘p qutbli dunyo va ko‘pmarkazlilik g‘oyalariga qarshi chiqib, bunday tartibotning real va samarali bo‘la olmasligini ta’kidlaydilar. Ularning fikricha, “ko‘p qutbli dunyo” modeli AQShdan tashqari boshqa davlatlar tomonidan teng huquqli hamkorlikka asoslangan global boshqaruv tizimi sifatida **haqqoniy va samarali bo‘la olmaydi[6].** Sababi, boshqa davlatlar hech bir to‘lovsiz, ya’ni global inqirozlarni boshqarish va jiddiy xalqaro masalalarda javobgarlikni o‘z zimmasiga olishga tayyor emaslar. Bundan tashqari, neokonservatorlar “ko‘pmarkazlilik”ni dunyo tartiboti uchun **tartibsizlik manbai** sifatida ko‘radilar. Ular fikricha, ko‘p markazli xalqaro tizimda mas’uliyatni bo‘lishish yetarli emas, bu esa global tahdidlar va yangi chaqiriqlarga munosib javob berishni qiyinlashtiradi. Shu sababdan, neokonservativlar uchun yagona samarali va barqaror yechim – bu “muruvvatli global gegemonlik”dir. Ular AQShning global yetakchiligini nafaqat o‘z manfaatlarini himoya qilish uchun, balki dunyo tinchligi, barqarorligi va global xavfsizlikni saqlash uchun zarur vosita deb hisoblaydilar. Bu yondashuv avvalo qurollanish raqobatini, avtoritar tuzumlar ta’sirining ortishini va yangi bloklar shakllanishini oldini olishda muhim deb ko‘riladi.

Neokonservativ “aql markazlari”dan **Amerika Tadbirkorlik Instituti, Me’ros Fondi** va **Gudzon instituti** kabi ilmiy-tahliliy muassasalar Krautxammer kabi yetakchilar tomonidan ilgari surilgan ushbu g‘oyalarni ilmiy asoslash va siyosiy strategiyalarga aylantirishda faol ishtirok etadilar. Ularning yordami bilan, AQSh hukumati global gegemonlik siyosatini ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash uchun keng ko‘lamli ommaviy axborot kampaniyalari, siyosiy tadbirlar va ekspert muhokamalarini tashkil qiladi.

Neokonservativ “aql markazlari” ushbu konsepsiyani rivojlantirish va unga asoslangan siyosatni ilgari surishda muhim rol o‘ynaydi. Masalan, **Yangi Amerika asri loyihasi(PNAC)ning** “Rebuilding America’s Defenses” (2000) hujjatida “Pax Americana” bevosita tilga olinadi va uni saqlash uchun **harbiy-modernizatsiya** va **doimiy aralashuv siyosati** zarurligi aytiladi[7]. Yoki **Amerika Tadbirkorlik Instituti(AEI) ham** “Pax Americana”ni saqlash uchun strategiyalar ishlab chiqadi, global xavfsizlik siyosatini ilmiy asoslaydi va hukumat siyosatiga ta’sir ko‘rsatadi.Uning yetakchi tahlilchilari ishlarida ham ko’rish mumkin[8]. **Me’ros Fondi va Gudzon instituti** ham “Pax Americana” konsepsiyasini siyosiy va ommaviy axborot maydonida targ‘ib qilishda faol. Ular AQShning global yetakchilik roli to‘g‘risida keng qamrovli tahlillar olib boradi va siyosiy hujjatlar tayyorlaydi[1]. Ushbu markazlarning ta’siri bilan AQSh siyosiy elitasida va ommaviy fikrda AQShning yagona global yetakchi sifatida roli mustahkamlanib bordi. Shu bilan birga, ular neokonservativ tashqi siyosatning harbiy aralashuvlarini ham asoslab berdi.

Xulosa qilib aytganda, neokonservativ gegemonlik mafkurasi XX asr oxiri va XXI asr boshlarida AQSh tashqi siyosati strategiyasining shakllanishiga chuqur ta’sir ko‘rsatgan asosiy omillardan biri bo‘lib xizmat qildi. Ushbu mafkura nafaqat nazariy qarashlar tizimini shakllantirdi, balki uni amalga oshirish uchun siyosiy, iqtisodiy, axboriy va madaniy vositalar majmuasidan foydalanishga zamin yaratdi. Ayniqsa, neokonservativ “aql markazlari” bu jarayonda hal qiluvchi rol o‘ynadi, ular AQShning global yetakchilik da’vosini mafkuraviy jihatdan asoslab berish va amaliy siyosiy strategiyalarga tatbiq qilish bilan shug‘ullandi. Bunday markazlar qatoriga kiruvchi PNAC, Amerika Tadbirkorlik Instituti va Me’ros Fondi kabi institutlar AQShning harbiy va siyosiy ustunligini global barqarorlik va tartibning asosiy kafolati sifatida ilgari surdilar hamda asosiy dasturlari, ilmiy xulosa va hisobotlarida AQSh gegemonligi g’oyasi keng targ’ib qilindi

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati:

1. Abrams E. Leadership for America: Restarting the Freedom Agenda [Electronic resource]. – Washington, DC: Foreign Policy Initiative, 2012. – Access mode: https://www.foreignpolicyi.org/content/leadership-america-restarting-freedom-agenda. – Access date: 19.07.2025.
2. Allison G. T. American Primacy and Its Geostrategic Imperatives. – Washington, DC: American Enterprise Institute, 2000. – 32 p.
3. Donnelly T., Kagan D., Schmitt G. Rebuilding America's Defenses: Strategy, Forces and Resources for a New Century. – Washington, D.C.: Project for the New American Century, 2000. – 76 p.
4. Gerecht, R.M. *The Islamic paradox: Shiite clerics, Sunni fundamentalists, and the coming of Arab democracy.* – AEI Press, 2004.
5. Kristol W., Kagan R. Toward a Neo-Reaganite Foreign Policy [Electronic resource] // Foreign Affairs. – 1996. – July/August. – Access mode: https://www.foreignaffairs.com/articles/1996-07-01/toward-neo-reaganite-foreign-policy. – Access date: 19.07.2025.
6. Kagan R. The Benevolent Empire // Foreign Policy. – 1998. – P.24-35.
7. Project for the New American Century. Rebuilding America's Defenses: Strategy, Forces and Resources for a New Century [Electronic resource]. – Washington, DC: Project for the New American Century, 2000. – Access mode: https://www.newamericancentury.org/RebuildingAmericasDefenses.pdf. – Access date: 19.07.2025.
8. Rubin M., Pletka D. Confronting Iran: The Failure of American Foreign Policy and the Next Great Conflict in the Middle East. – Washington, DC: AEI Press, 2008. – 240 p.
9. The Heritage Foundation. Ensuring a Legacy: Solidifying the Bush Doctrine [Electronic resource]. – 2008. – Access mode: https://www.heritage.org/political-process/commentary/ensuring-legacy-solidifying-the-bush-doctrine. – Access date: 19.07.2025.

YOSHLAR IJTIMOIYLASHUVIDA MILLIY QADRIYATLAR TRANSFORMATSIYASINING AHAMIYATI

Ismoilova Xayitxon Maxammadjonovna
Qo'qon universiteti Andijon filiali katta o'qituvchisi
hayitxon.ismoilova@bk.ru

Annotatsiya: Maqolada milliy qadriyatlar transformatsiyasining yoshlar ijtimoiylashuviga ta'siri ilmiy yondashuvlar asosida bayon qilingan. Globallashuv davrida sodir bo'layotgan jarayonlar va ularning salbiy oqibatlari orqali bugungi zamonaviy muammolar va ularni yechimiga takliflar bayon qilingan.

Kalit so'zlar: qadriyat, milliy qadriyat, umumbashariy qadriyat, yoshlar ijtimoiylashuvi, hurmat, mehr-oqibat.

Аннотация: В статье рассматривается влияние трансформации национальных ценностей на социализацию молодёжи на основе научных подходов. Процессы, происходящие в эпоху глобализации, и их негативные последствия описывают современные проблемы и предложения по их решению.

Ключевые слова: ценность, национальная ценность, общечеловеческая ценность, социализация молодёжи, уважение, доброта.

Abstract: The article describes the impact of the transformation of national values on the socialization of youth based on scientific approaches. The processes taking place in the era of globalization and their negative consequences describe today's modern problems and proposals for their solutions.

Key words: value, national value, universal value, youth socialization, respect, kindness.

Qadriyat [قدريت] – qiymat, ahamiyat, qimmatbaho buyumlar, xalq boyligi degan ma’nolarni anglatib, voqelikdagi muayyan hodisalarning umuminsoniy, ijtimoiy-axloqiy, madaniy, ma’naviy ahamiyatini ko‘rsatish uchun qo‘llaniladigan tushuncha [2.207]. Qadriyat umuminsoniy va milliy qadriyatlarga bo‘linishi mumkin. Umuminsoniy qadriyatlar bashariyat uchun muhim hisoblansa, milliy qadriyatlar ma’lum bir millatga hududga tegishliligini ifodalaydi. Milliy qadriyatlar ma’lum hududda zamonlar osha insonlar tomonidan e’zozlanib, avloddan avlodga o‘tib sayqallanib boradi.

Milliy qadriyatlar orqali millat iftixori, o‘zaro munosabatlari, turmush-tarzi, millatning boshqa millatlardan ajratib turuvchi hususiyatlari namoyon bo‘ladi. Milliy qadriyatlar insonlarni bir g‘oya ostida birlashtiradi, mehr-oqibat, insoniylik fazilatlarini rivojlantiradi. O‘zaro hurmat, mehr-oqibat bor jamiyatda voyaga yetgan farzandlar ham kelajakda shu jamiyatga munosib inson bo‘lishga intiladilar. Yoshlar ongida milliy qadriyatlarga hurmatni shakllantirish orqali, ularda vatanparvarlik tuyg‘ulari ham shakllanib boradi. Natijada jamiyat hamfikrlikda rivojlanadi.

O‘zbek xalqining o‘ziga xos milliy qadriyatlari bo‘lib, ular or, nomus, andisha, ibo, hayo, hurmat kabi bir qator me’yorlarda namoyon bo‘ladi.

Qadimdan hozirgacha yetib kelgan milliy qadriyatlar mavjud bo‘lib, ularni biz toshbitik yodgorliklarida, xalq og‘zaki ijodidan, jumladan, “Alpomish”, “Tohir va Zuhra”, “Farhod va Shirin”, “Layli va Majnun” kabi dostonlarda saqlanib kelganligini ko‘rishimiz mumkin. Ushbu ma’naviy me’ros orqali o‘zbek xalqining o‘ziga xos jihatlarini ko‘rishimiz mumkin. O‘zbek xalqiga xos bo‘lgan, mardlik, jo‘mardlik, halollik, insonparvarlik, mehmondo‘stlik, adolatlilik kabi bir qator xislatlar borligini ifodalaydi. Ushbu yurt insonlari haqida gapirilganda o‘zidanda o‘zgalarni manfaatini ustun qo‘ya oladigan mard insonlar, bir so‘zli alp o‘g‘lonlar, ibo-hayosi go‘zal lobar qizlar, vafodor va sadoqatli bekalar, uyning farishtasi bo‘lgan nur yuzli otaxonu-onaxonlar ko‘z oldimizda gavdalanadi.

Tarixdan ma’lumki o‘zbek xalqi ko‘plab qora kunlarni, bosqinchiliklarni, qaramlikni, urush va boshqa mashaqqatli kunlarni ko‘rdi. Lekin shunday vaziyatlarda ham o‘z milliy qadriyatlariga va xalqiga bo‘lgan sadoqatni saqlay oldi.

Bugungi kunga kelib o‘zbek milliy qadriyatlarida Sharq va G‘arb madaniyatining o‘zaro uyg‘unligini ko‘rishimiz mumkin. Modernizatsiya jarayonlarida milliy qadriyatlar transformatsiyasi kuzatilmoqda. Muayyan qadriyatlarga kundalik hayotda ehtiyojning kamayishi sababli ayrimlari o‘zgarib, ba’zilari butunlay yo‘q bo‘lib ketmoqda.

G‘arbdan kirib kelayotgan ilmiy texnikaviy yutuqlar bilan bir qatorda ommaviy madaniyat milliy qadriyatlarga putur yetkazuvchi, milliy mentalitetimizga xos bo‘lmagan va butunlay teskari bo‘lgan g‘arb madaniyati O‘zbekistonga ham o‘z ta’sirini o‘tkazmoqda. O‘zbek milliy mentalitetiga xos bo‘lgan milliy qadriyatlarga salbiy ta’sir ko‘rsatilishi natijasida ayrim yoshlar orasida o‘zaro hurmatsizlik, kiyinish madaniyatidagi salbiy holatlar, ota-onalar va farzandlar orasidagi o‘zaro munosabatlariga salbiy ta’sir etmoqda.

Keyingi vaqtlarda yoshlar hayotida muhim o‘rinni egallab kelayotgan ijtimoiy tarmoqlar ham milliy qadriyatlar transformatsiyasiga sabab bo‘lmoqda. Ijtimoiy tarmoqlarda faol bo‘lgan yoshlarga turli milliy mentalitetga to‘g‘ri kelmaydigan yot g‘oyalar targ‘ibotini uchratish mumkin. Yot g‘oyalar orqali yoshlar ongiga milliy mentalitetga xos bo‘lmagan qarashlar shakllanib borishi, bunday g‘oyalar iskanjasiga tushgan yoshlar kelajakda o‘z vatanini qadrlamasliklari mumkin.

Bugun avlodlar davomiyligini ta’minlash, yosh avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, oilada sog‘lom muhitni yaratish, shu bilan birga, millat kelajagini saqlab qolishni davr taqozo etmoqda. Ana shu zaruriyatdan kelib chiqqan holda, oilada bolalarni ma’naviy-axloqiy tarbiyalashda milliy qadriyatlardan foydalanish masalasi ijtimoiy-siyosiy va madaniy-ma’rifiy ahamiyat kasb etmoqda [3.141].

Shu munosabat bilan mustaqillik yillarida O‘zbekistonda yoshlar siyosatiga alohida e’tibor qaratilib kelinmoqda. O‘zbekiston aholisining 60 foizdan ortig‘ini yoshlar tashkil etar ekan, bugun yoshlarni bilim olishi, kasb-hunar egallashlari, jamiyatda o‘z o‘rniga ega bo‘lishlari uchun keng imkoniyatlar yaratilgan.

O‘zbekiston rivojlanish yo‘lida bir qator islohotlarni amalga oshirar ekan, eng ko‘p e’tibor qaratilayotgan soha yoshlar masalasi ekanligini ko‘rishimiz mumkin.

Jumladan 2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishlari bo‘yicha Harakatlar strategiyasining 4-yo‘nalishida jismonan sog‘lom, ruhiy va intellektual rivojlangan, mustaqil fikrlaydigan, qat’iy hayotiy nuqtai-nazariga ega, Vatanga sodiq yoshlarni tarbiyalash, demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish jarayonida ularning ijtimoiy faolligini oshirish kabi masalalar belgilab berildi.

2022-2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida Yoshlarni vatanparvarlik, fuqarolik tuyg‘usi, bag‘rikenglik, qonunlarga, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida, zararli ta’sirlar va oqimlarga qarshi tura oladigan, hayotga bo‘lgan qat’iy ishonch va qarashlarga ega shaxs sifatida tarbiyalash, yoshlarni axloqiy negizlarni buzishga olib keladigan hatti-harakatlardan, terrorizm va diniy ekstremizm, separatizm, fundamentalizm, zo‘ravonlik va shafqatsizlik g‘oyalaridan himoya qilish kabi bir qator islohotlarni amalga oshirish belgilab olindi.

Yoshlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash va ularning ijtimoiy faolligini yanada oshirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risidagi, Yoshlarning bandligiga ko‘maklashish hamda ularni doimiy ish bilan ta’minlashga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risidagi kabi bir qator Prezident Farmonlari, Yoshlarni ma’naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta’lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi kabi Prezident Qarorlari qabul qilindi.

Yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash ishlari samaradorligini yanada oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida, 2022-2023 yillarda O‘zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirish dasturini tasdiqlash to‘g‘risidagi kabi bir qator Vazirlar Mahkamasi Qarorlari qabul qilindi.

Ushbu islohotlar orqali yoshlarga keng imkoniyatlar yaratib berish, ularni bo‘sh vaqtini qoldirmaslik, O‘zbekiston yoshlarini boshqa yoshlardan kam bo‘lmasligini ta’minlash maqsad qilib olingan. Zero yoshlarga beriladigan bunday imkoniyatlar kelajakda ularni o‘z ona vataniga muhabbat, sadoqat kabi tuyg‘ularini rivojlantiradi. Xalqaro maydonda o‘z obro-e’tiboriga, hurmatiga ega bo‘lishlariga zamin yaratadi.

Yoshlari milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalangan yurt o‘z milliy mentalitetini saqlab qola oladi. Va aynan milliy qadriyatlar yoshlarni bir g‘oya ostida birlashtira oladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mirziyoev Sh., “Erkin va farovon demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz”. Toshkent, O‘zbekiston nashriyoti 2016-y.
2. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. A.Madvaliev tahriri ostida “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi”. Toshkent.
3. Fayzieva M., Jabborov A. Oilaviy munosabatlar psixologiyasi. –Toshkent, 2007-y.
4. Hayitxon Ismoilova, Oila qadriyatlari va va urf-odatlarining huquqiy-falsafiy tahlili. Eurasian journal of academic research. https://doi.org/10.5281/zenodo.6798324
5. LEX.Uz

RAQAMLI DAVRDA YOSHLARNING MA’NAVIY IMMUNITETINI SHAKLLANTIRISH MASALALARI

To‘lanov Mamasidiq

Qo‘qon Universiteti Andijon filiali katta o‘qituvchisi

Annotatsiya: Raqamli davr insoniyat tafakkurini yangilab, axborot oqimini hayotning barcha jabhalariga singdirib yubordi. Bugungi yoshlar global virtual makonning faol subyekti sifatida turli madaniy, mafkuraviy va axborot ta’sirlariga duch kelmoqda. Ushbu maqolada raqamli jamiyat sharoitida yoshlarning ma’naviy immunitetini shakllantirish masalalari tahlil qilinadi. Axborot makonidagi tahdidlar, ommaviy madaniyat oqimlari, ma’naviy qadriyatlar transformatsiyasi hamda yoshlarni bu jarayonlardan himoya qilish mexanizmlari falsafiy nuqtayi

nazardan yoritiladi. Shuningdek, oila, ta’lim, mahalla hamda ijtimoiy institutlarning ma’naviy barqarorlikni ta’minlashdagi o‘rni yoritilgan.

Kalit so‘zlar: raqamli davr, yoshlar, ma’naviyat, axborot xavfsizligi, ma’naviy immunitet, ommaviy madaniyat, raqamli tafakkur.

Аннотация: В статье рассматриваются проблемы формирования духовного иммунитета молодежи в условиях цифровой эпохи. Анализируется влияние информационного пространства, виртуальной среды и массовой культуры на мировоззрение молодежи. Особое внимание уделено вопросам укрепления духовных ценностей, роли семьи, образования и социума в процессе противостояния глобальным информационным вызовам.

Ключевые слова: цифровая эпоха, молодежь, духовность, информационная безопасность, массовая культура, духовный иммунитет, цифровое мышление.

Abstract: The article explores the process of developing moral immunity among young people in the digital era. It examines how information flow, mass culture, and virtual communication affect the moral consciousness of youth. The study emphasizes the importance of education, family, and social institutions in preserving spiritual stability and preventing informational manipulation in the digital environment.

Keywords: digital age, youth, spirituality, information security, moral immunity, virtual culture, social awareness.

Raqamli inqilob insoniyat hayotiga tub o‘zgarishlar olib kirdi. Bugungi kunda internet, sun’iy intellekt, ijtimoiy tarmoqlar inson tafakkuri va xulq-atvorining ajralmas qismiga aylandi. Bu jarayon jamiyat taraqqiyotini tezlashtirgan bo‘lsa-da, ayniqsa yoshlar ongida ma’naviy bo‘shliqlar, g‘oyaviy beqarorlik va madaniy qarama-qarshiliklarni ham keltirib chiqarmoqda. Shu sababli, raqamli davrda ma’naviy immunitet masalasi har qachongidan ham dolzarbdir. Davlat rahbari o‘z nutqlarida yoshlarning ongini zararli g‘oyalardan himoya qilishni jamiyat barqarorligining asosi deb ta’kidlagan [4]. Ma’naviy immunitet — bu insonning ichki barqarorligi, mustaqil fikrlashi, to‘g‘rini noto‘g‘ridan ajrata olishi va o‘z qadriyatlariga sodiq qolish qobiliyatidir.

Bugungi global axborot makonida har bir inson, ayniqsa yoshlar, turli madaniy va mafkuraviy oqimlar ta’sirida qolmoqda. Internet, ijtimoiy tarmoqlar va ommaviy axborot vositalari orqali tarqatilayotgan axborotlar inson ongini tezda o‘zgartiradi. Shu bois, axborot savodxonligi bilan bir qatorda, ma’naviy barqarorlikni shakllantirish zarur.

Axborot oqimining kuchayishi insonni fikrlar mojarosiga olib kirmoqda. Har bir axborotning orqasida maqsad, g‘oya yoki manfaat yotadi. Shavkat Mirziyoyevning Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari asarida ta’kidlanganidek, fikr, tafakkur va ong o‘zgarmaguncha amallar o‘zgarmaydi, rivojlanish kelmaydi [1]. Agar inson ongida mustahkam e’tiqod, tahliliy fikrlash va ma’naviy qadriyatlar bo‘lmasa, u bu jarayonlarda osonlikcha yo‘lini yo‘qotadi [2].

Ma’naviy immunitet insonning ichki ruhiy barqarorligini, g‘oyaviy mustaqilligini ta’minlaydi. U nafaqat zararli g‘oyalardan himoya, balki o‘zligini anglashning poydevoridir. Inson ma’naviy jihatdan yetuk bo‘lsa, har qanday axborotni tanqidiy baholay oladi, unga to‘g‘ri munosabat bildiradi.

Raqamli muhitda inson shaxsiyatining transformatsiyasi kuzatilmoqda. Ba’zilar ijtimoiy tarmoqlarda o‘z “virtual shaxsini” yaratib, real hayotdagi qadriyatlarni unutmoqda. Bunday holatlar insonning ruhiy turg‘unligiga, ijtimoiy faollikdan chekinishiga olib keladi [3]. Shu bois, yoshlar ongida ma’naviy immunitetni shakllantirish — nafaqat axborot xavfsizligi, balki milliy xavfsizlik masalasidir.

Ommaviy madaniyat global kommunikatsiyaning mahsuli sifatida, inson qalbiga oson kiradi. U ko‘pincha yengil hayot, zavq, boylik, tanaviylik g‘oyalarini ilgari suradi. Yoshlarning ongida bu jarayonlar milliy madaniyat va qadriyatlarning zaiflashishiga olib keladi. Shu bilan birga, virtual makonning o‘ziga xos “estetikasi” mavjud: tezkor axborot, qisqa postlar, sun’iy diqqat jalb qilish mexanizmlari inson tafakkurining chuqurligini kamaytiradi [6]. Bunday

sharoitda yoshlarning o‘z milliy o‘zligini anglash, ma’naviy tayanchini topish qobiliyati yanada muhimlashadi.

Yoshlarning ma’naviy immuniteti, avvalo, oilada shakllanadi. Oila va ta’lim tizimi yoshlarning ma’naviy immunitetini shakllantiradi. Zamonaviy texnologiyalar yordamida ta’lim jarayoni yanada interaktiv va qiziqarli bo‘lishi, yoshlarni tanqidiy fikrlashga o‘rgatishi mumkin [7]. Ota-ona farzandga nafaqat moddiy, balki ruhiy tayanch berishi lozim. Ta’lim tizimida esa raqamli madaniyatni tanqidiy o‘rganish, axborot etikasi, inson qadriyati va ma’naviyat fanlarini kuchaytirish zarur. Jamiyatda esa ijtimoiy institutlarning ma’naviy faoliyatini kuchaytirish, yoshlar bilan to‘g‘ridan to‘g‘ri muloqotda bo‘ladigan platformalarni yaratish muhim. Ma’naviy immunitetni shakllantirishda davlat siyosati, mahalla tizimi va ta’lim muassasalari bir yo‘nalishda ishlashi zarur [5].

Axborot xavfsizligini ta’minlash faqat texnik vositalar bilan emas, balki inson ongini himoya qilish orqali amalga oshiriladi. Har bir shaxs o‘z fikrini mustaqil shakllantira olsa, tashqi ta’sirga berilmaydi. Shu jihatdan, axborot xavfsizligi bilan ma’naviyat bir-birini to‘ldiruvchi tushunchalardir. Bunda davlat siyosati, ta’lim tizimi va fuqarolik jamiyati institutlari o‘zaro hamkorlikda harakat qilishi zarur. Raqamli madaniyatni to‘g‘ri boshqarish, yoshlarni g‘oyaviy himoya qilish, milliy qadriyatlar asosida axborot madaniyatini shakllantirish — barqaror jamiyat poydevoridir.

Xulosa. Raqamli davrda yoshlarning ma’naviy immuniteti – milliy xavfsizlikning eng muhim tarkibiy qismidir. U yoshlarni yot g‘oyalardan, madaniy begonalashuvdan, axborot manipulyatsiyasidan himoya qiladi. Ma’naviy immunitetni shakllantirishda uch yo‘nalish muhim:

1. Oila va ta’lim tizimida ma’naviy tarbiya mexanizmlarini kuchaytirish;
2. Ommaviy madaniyat va internet makonida milliy qadriyatlarni targ‘ib qilish;
3. Yoshlarni tanqidiy fikrlash va axborot savodxonligiga o‘rgatish.

Bularning barchasi yosh avlodni mustahkam irodali, fikrida sobit va ma’naviy jihatdan bardam insonlar etib tarbiyalashning falsafiy asosini tashkil etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh.M. Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari. – T.: O’zbekiston, 2020. Manba: yuz.uz
2. Karimov I. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – T.: Ma’naviyat, 2008. Manba: e-library.sammu.uz
3. Karimov I. O’zbekiston XXI asr bo’sag’asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. – T.: O’zbekiston, 2009. Manba: arxiv.uz
4. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O’zbekiston strategiyasi. – T.: O’zbekiston, 2021. Manba: library.academy.uz
5. Mirziyoyev Sh.M. Yoshlar – kelajagimiz. – T.: O’zbekiston, 2020. Manba: yuz.uz
6. To’xtayev R. Ommaviy madaniyat va yoshlar tafakkuri. – T.: Akademiya, 2015. Manba: oriens.uz
7. Aripova Z. Modern Information Technologies - A Factor Of Increasing Youth Education, Potential And Spirituality. – The American Journal of Social Science and Education Innovations, 2020. Manba: researchgate.net

KAMBAG`ALLIKNING IJTIMOIY HODISA SIFATIDAGI XUSUSIYATI

Suyarov Zokirjon Ergashevich
Qo‘qon universiteti Andijon filiali katta o‘qituvchisi
e-mail: suyarovzokirjon12@gmail.com

Annotatsiya: Kambag’allikning yuqori darajasi ham jamiyatdagi ijtimoiy ziddiyatlarning kuchayishiga sababdir. Bu, eng avvalo, hukumatga ishonchning kamligi va kam daromadli guruhlarning mavjud muammolarini hal qilishga qodir emasligi bilan bog’liq. Mazkur maqolada kambag’allikni kamaytirishning ijtimoiy-falsafiy asoslari bayon qilinadi.

Kalit soz'lar: kambag'allik, qashshoqlik, tadbirkorlik, ijtimoiy qatlam, kambag'allikni qisqartirish.

Аннотация: высокий уровень бедности также является причиной обострения социальных конфликтов в обществе. Это связано, прежде всего, с недостаточным доверием к правительству и неспособностью решить существующие проблемы групп с низкими доходами. В данной статье излагаются социально-философские основы сокращения бедности.

Ключевые слова: бедность, нищета, сокращение, предпринимательства, социальные слои, сокращения бедности.

Abstract: High levels of poverty are also a factor in social tensions. This is primarily due to a lack of trust in the government and the inability of low-income groups to address existing problems. This article discusses the socio-philosophical foundations of poverty reduction.

Keywords: poverty, entrepreneurship development, poverty reduction concept.

Kambag'allikni jarayon va belgi sifatida ko'rib chiqishda o'rganilayotgan hodisaning idrokini aks ettiruvchi frazeologik birliklarga e'tibor qaratish lozim: bir tiyin olish - oz pul topish; non topmoq; non olish - zarur tirikchilik qilish; tilanchilik qilish; qo‘l uzatmoq; sadaqa so'rash ma'nosi bilan yashash, sadaqa bilan yashash, tilanchilik o'zlarining haqiqiy ma'nosida ikkita lisoniy ma'noni o'z ichiga oladi.

Yuqoridagi kambag’allik tushunchasiga ma’lum mezonlar asosida berilgan ta’riflar ushbu ijtimoiy hodisaning mohiyatidan faqat bittasini aks ettiradi. Albatta, hodisaning mohiyati qarama-qarshiliklarning birligi va o‘zaro kirib borishi sifatida ochilmaguncha, hodisaning talqini haqida gapirish to‘g‘riroqdir. Faqat shu holatdagina hodisaning chegarasini, uning boshqa shunga o‘xshash hodisalardan farqini topish mumkin. Hodisa chegarasi uning mezoni bilan almashtirilmasligi kerak. Shuning uchun kambag’allik tushunchasining ta’rifi, albatta, uning substantiv asosini – y’ani ijtimoiylikni o‘z ichiga olishi kerak. Kambag’allik bu shaxs imkoniyati ijtimoiy cheklanganligining asosiy holatidir. Shuning uchun bu sotsiallik holatining mohiyatini topish, sotsiallikning o'zini, shu jumladan uning darajalarini aniqlashni talab etadi. Bundan tashqari, kambag‘allik uning qarama-qarshi tomoni - boylik tushunchasi orqali mavjud. Faqat ijtimoiy falsafa o‘zining umumiy uslubiy funksiyasi, ijtimoiy bilishning fanlararo darajasiga chiqish qobiliyati bilan qarama-qarshiliklarning birligi sifatidagi hodisaning mohiyatini ularning boshqa hodisalar bilan xilma-xil munosabatlarida namoyon bo‘lishi orqali ochib berish imkonini beradi. Kambag’allik inson mavjudligining belgisi sifatida tirikchilik, pul, uy-joy, oziq-ovqat, mulkning yetishmasligi, turmush darajasining juda pastligi bilan tavsiflanadi, shuningdek, halokat va qashshoqlik darajasiga yetish xususiyatiga ega shuningdek kambag’allikning juda og’ir darajasi qashshoqlik tushunchasi bilan izohlanadi.

Ijtimoiy-psixologik jihatdan kambag’allik umidsizlik, iqtidorsizlik, qiyin vaziyatdan chiqishning mumkin emasligini anglatishi mumkin. Bir so‘z bilan aytganda, inson hayotidagi iqtisodiy va ijtimoiy muammolarni o’z ichiga oladi.

Kambag’allikka ijtimoiy-iqtisodiy jarayon sifatida qaralganda - “farovonlikdan mahrum bo`lish”, “tushkunlik” kabi ma’nolarni anglatadi.

O‘rganilgan adabiyotlarga asoslanib, shuni ta‘kidlash kerakki, kambag‘allik tushunchasi asosan ijtimoiylikning individual darajasida tahlil qilingan. Biroq, bunday yondashuv to‘liq emas, chunki u hodisaning mohiyatini ham, uning dolzarbligini ham ochib bera olmaydi. Qashshoqlik esa individual ijtimoiylik sifatida kambag'allarning majoziy xususiyatlari bilan mustahkamlangan iqtisodiy maqom va ularning turmush tarzi asosida belgilanadi. Shu nuqtayi nazardan, kambag‘allikning umumiy ta’rifi quyidagicha bo‘ladi.

Kambag‘allik - bu shaxsning pul, uy-joy, oziq-ovqat, kiyim-kechakning zarur miqdorda yo'qligi yoki ularning to'liq yo'qligida namoyon bo'ladigan holati bo‘lib bu holatda yashash qiyin, quvonchsiz va ma’nosiz shiningdek bunday hayot - baxtsizlik, qay‘uni keltirib chiqaradi.

Aslida kambag‘allik yoki muhtojlik - shaxs va jamiyat o‘rtasidagi ijtimoiy o‘zaro ta‘sir, jamiyat tomonidan to‘plangan ne’matlardan yetarli darajada foydalana olmaslik shuningdek, ijtimoiylik sifatida qashshoqlikning barcha darajalariga xos xususiyatdir.

Kambag’allik tushunchasiga to‘liqroq ta’rif berish uchun ushbu hodisaning iqtisodiy va ijtimoiy-psixologik tarkibiy qismlariga murojaat qilishning o‘zi yetarli emas. Kambag‘allik holatidagi insonning ijtimoiy farovonligi, ijtimoiy og‘ishlar, ijtimoiy chetlanish, ijtimoiy keskinlik insonning o‘z mavqeyiga, uning hayotiy strategiyasiga munosabatini shakllantirish jarayonini belgilovchi omillardan biridir. Biroq, inson, ijtimoiy guruh, jamiyat, sivilizatsiya mavjudligida moddiy va ma’naviyatning birligini tushunishi muhim, aks holda qashshoqlik tushunchasi uning ijtimoiy hodisasini aks ettirmaydi. Aytish mumkinki, qashshoqlik vaqtinchalik dolzarb hodisadir, ya'ni u butun insoniyat tarixi davomida ijtimoiylikning bir qismi sifatida mavjud bo‘lib, muayyan shaxslarga, hatto xalqlarga nisbatan ham vaqtinchalik, beqaror bo‘lishi mumkin. Qashshoqlik o‘ziga xos ijtimoiy makonga ega, chunki u daromadlar birligi, moddiy va ma’naviy hayot darajasi, ijtimoiy, jumladan, shaxslararo munosabatlar tizimidagi o‘rni obro‘-e’tibori orqali belgilanadi.

Agar kambag’allik o‘zining ma’naviy tabiati bilan tavsiflansa, u yuksak axloq, ezgulik yaratish, haqiqatni izlash, go‘zallikni ta’kidlashda namoyon bo‘ladigan insonning yaxlit tizimining tushkun holatini bildiradi.

Individuallikning barcha darajalarida kambag'allikning tashuvchisi shaxs bo'lib, uning qashshoqligi kambag'al jamiyat, oila, kambag'al odamlar yoki millatning oqibatidir.

Kambag'allikning tabiati uning tarkibiy elementlarining integratsiyalashuv asoslari bilan belgilanadi. Bunday holda, qashshoqlik va boylik har qanday tizimning atributiv xususiyatlari sifatida tabiiy va ijtimoiylikni aks ettiradi.

Demak, kambag‘allikning individual ijtimoiylik sifatidagi tabiati antroposotsiologik va sotsial-antropologik xususiyat kasb etadi. Birinchi holda, u insonning biosotsial mavjudligini ko`rsatsa, ikkinchi holatda esa sotsiobiologik xususiyati bilan bog‘liqligini anglatadi.

Individlararo ijtimoiylik sifatida kambag‘allikning tabiati etnosotsial va sotsial-etnik mohiyatga ega. Etnik guruhlarning qashshoqligi asosan tabiiy resurslarning mavjudligi va ishlatilishi, iqlim xususiyatlari, yashash tarzi bilan belgilanadi va an’ana va urf-odatlarga bog'liq bo‘ladi. Biroq, insoniyat sivilizatsiyasining rivojlanishi bilan ijtimoiy munosabatlar shaxslararo ijtimoiylik xarakterida kuchayib boradi. Kambag’allik (shuningdek, boylik) o‘z mohiyatiga ko‘ra moddiy-ma’naviy va ma’naviy-moddiy hodisadir yig’indisidir. Birinchisi, hayotiy vaziyatlar bilan belgilanadi: moddiy va ma'naviy qadriyatlarga kirish, ularni iste'mol qilish imkoniyati bilan bog’liq bo`lsa, ikkinchisi - tarixiy, umuman vaqtinchalik sharoitlar, ularda asosiysi ma'naviy amaliy ehtiyojlar ishlab chiqilganligi bilan bog’liq.

Kambag'allikka xos xususiyatlar	**Boylikka xos xususiyatlar**
Past va qoniqarsiz turmush darajasi; mahsulotlarning qisman erishib bo'lmasligi sababli kam iste'mol qilish va buning natijasida ehtiyojlarni qondirishning past darajasi; oz miqdorda yoki hatto bo'sh vaqtning to'liq yetishmasligi; daromadlarni irratsional taqsimlash; ijtimoiy izolyatsiyaning yuqori darajasi; "o'z-o'zidan chekinish" reaksiyasi va sodir bo'layotgan narsaga passiv munosabat.	yuqori hayot sifati; ularning daromadlarini to’laqonli taqsimlash; yetarli miqdorda bo'sh vaqtning mavjudligi va undan bepul foydalanish, shu jumladan jamiyatda o'z mavqeyini saqlab qolish va bilim darajasini oshirish uchun sarmoya; faol hayot pozitsiyasi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Сидорова В.А. Влияние адресной социальной помощи на изменение уровня, глубины и остроты бедности. 2004г.
2. Словарь гендерных терминов (Интернет-версия под ред. В.И. Калабихина)

3. Бедность: взгляд ученых на проблему. М., 1994
4. Воронков В.М. Фомин Э.А. Типологические критерии бедности. – Социологический журнал. 1995, № 2
5. Сычова В.С. Определение и измерение бедности: история вопроса. – Социологические исследования. 1996, № 3
6. Ярошенко С. Теоретические модели бедности. – Рубеж. 1996, № 8–9

АҲОЛИ БАНДЛИГИНИ КЎП ВАРИАНТЛИ СТАТИСТИК ПРОГНОЗЛАШ УСУЛИ

Иминов Зафаржон Махамматиброхимович
катта ўқитувчи, Қўқон университети Андижон филиали
e-mail: z.iminoff@yandex.com
Содиқжонова Мадинабону Фахриддин қизи
2-курс талаба, Қўқон университети Андижон филиали

Аннотация: Кўп вариантлилик асосида Ўзбекистондаги бандлик моделини ишлаб чиқиш ва моделни эконометрик асослаш амалга оширилган. Бандлик кўрсаткичини ялпи ички маҳсулот ва бошқа макроиқтисодий кўрсткичларга боғлиқ ҳолда модели илгари сурилган.

Калит сўзлар: Бандлик, макроиқтисодий кўрсаткичлар, кўпвариантлилик, ишончлилик коэффициентлари, регрессия модели, ўзаро боғлиқлик.

Аннотация: Разработана многомерная модель занятости для Узбекистана и проведено её эконометрическое обоснование. Предложена модель, связывающая показатель занятости с валовым внутренним продуктом и другими макроэкономическими показателями.

Ключевые слова: Занятость, макроэкономические показатели, многомерный, коэффициенты надежности, регрессионная модель, корреляция.

Abstract: A multidimensional employment model for Uzbekistan was developed and econometrically validated. A model linking employment to gross domestic product and other macroeconomic indicators is proposed.

Key words: Employment, macroeconomic indicators, multivariate, reliability coefficients, regression model, correlation.

Аҳоли бандлигини таъминлаш, бандлик даражасини ошириш қайси омиллар таъсирида янада ижобий бўлиши мумкинлигини аниқлаш, қандай омилларнинг салбий таъсирини олдиндан кўра билиш, ушбу омиллар таъсирини илмий жиҳатдан асослаб, тегишли хулосалар чиқариш доимо муҳим масала бўлган. Ўзбекистонда аҳоли банлигини кўп вариантли прогнозларини амалга оширишда мамлакат статистика ташкилотлари ва илмий изланишлар давомида йиғилган маълумотлардан фойдаланиб аҳоли бандлигини аниқлаш бўйича регрессия тенгламасини аниқлашга уринамиз. Бунда, аҳолининг бандлик даражаси иқтисодиётдаги банд аҳоли динамикаси, янги ташкил этилаётган корхоналар динамикаси ва айрим макроиқтисодий кўрсаткичларга боғлиқ деб оламиз.[4]

Ўзбекистонда иқтисодиётда бандлар сони ва аҳоли бандлигини таъминлаш орқали ялпи ички маҳсулот ҳажмини ифодаловчи асосий кўрсаткичларни қуйидагича белгилаб олдик:

Иқтисодиётда бандлар сони ўзгариши, % – Y;
Янги ташкил этилган корхоналар сонининг ўзгариши, % - X_1
Ялпи ички маҳсулот ҳажми ўзгариши, % – X_2;
Экспорт ўзгариши, % – X_3;
Саноат маҳсулотларининг ишлаб чиқаришни ўзгариши, % – X_4.

1-жадвал

Ўзбекистонда аҳоли бандлигини ифодаловчи асосий кўрсаткичлар динамикаси[7]

Йиллар	**Y**	X_1	X_2	X_3	X_4
2000	101,50	110,21	103,84	101,20	101,25
2001	101,70	110,23	104,16	101,53	102,68
2002	102,16	107,34	103,97	90,38	103,40
2003	102,74	97,33	104,23	117,35	103,00
2004	103,35	99,85	107,45	129,60	106,40
2005	102,88	100,56	106,95	109,59	103,85
2006	102,65	108,36	107,45	117,59	106,25
2007	102,56	116,68	109,47	140,71	106,60
2008	102,79	104,56	109,03	134,85	106,80
2009	102,65	110,71	108,05	100,06	104,10
2010	102,65	106,54	107,09	104,67	105,94
2011	102,50	106,84	107,53	118,77	104,40
2012	102,56	100,19	107,10	100,19	105,70
2013	102,45	105,25	107,30	107,02	107,50
2014	102,36	102,27	106,87	97,38	104,50
2015	101,87	104,49	107,22	90,53	105,30
2016	101,84	104,14	105,93	97,22	105,40
2017	101,67	106,37	104,40	109,63	105,20
2018	98,17	113,30	105,52	125,84	110,80
2019	102,02	123,06	105,98	124,89	105,00
2020	97,75	119,36	102,00	86,84	100,90
2021	102,29	111,31	107,40	116,31	108,76
2022	102,59	111,99	105,67	126,77	105,34
2023	102,64	111,49	106,83	114,12	104,01

Мамлакатда яратилаётган ялпи ички маҳсулот кўрсаткичлари жорий нархлардан таққослама қийматларга ўтказиб оламиз ва бунда базис давр сифатида 2023 йилни асос қилиб олинди. Номинал кўрсаткичларга таяниб хулосалар қилишга нисбатан қиёсий баҳолардаги макроиқтисодий кўрсаткичларни базис йил сифатида ҳисоблаш эконометрик модел ишончлилигини янада оширади. [5]

Дастлаб, ялпи ички маҳсулот ҳажмининг аҳоли бандлиги орқали ривожланиш жараёнларини баҳолашда регрессия моделидан фойдаланамиз.. Бунда n-кўрсаткичли ва чизиқли кўринишда регрессион моделларини ҳосил қилдик. Бунинг учун жараённи регрессион моделларини ҳосил қилишда энг кичик квадратлар усулидан фойдаландик.

$Y_x = a_0 + a_1x + a_2x^2 + \cdots + a_kx^k$ регрессион моделини ҳосил қилиш учун қуйидаги ишни амалга ошириш лозим:

$F = \sum(Y - Y_x)^2 \to min$ ёки $F = \sum(Y - a_0 - a_1x - a_2x^2 - \cdots - a_kx^k)^2 \to min$

бундан хусусий ҳосила олсак, қуйидаги кўринишдаги тенгламалар системаси ҳосил бўлади.

[7] ЎзР Миллий статистика қўмитаси маълумотлари асосида муаллиф томонидан тайёрланди.

$$\begin{cases} \sum Y = a_0 n + a_1 \sum x + a_2 \sum x^2 + \cdots + a_k \sum x^k \\ \sum Yx = a_0 \sum x + a_1 \sum x^2 + a_2 \sum x^3 + \cdots + a_k \sum x^{k+1} \\ \cdots\cdots\cdots\cdots\cdots\cdots\cdots\cdots\cdots\cdots\cdots\cdots \\ \sum Yx^k = a_0 \sum x^k + a_1 \sum x^{k+1} + a_2 \sum x^{k+2} + \cdots + a_k \sum x^{2k} \end{cases} \quad (1)$$

Регрессия тенгламасининг “аҳамиятлилигини” баҳолаш учун Фишернинг F-мезонидан фойдаланилади. Фишернинг F-мезони миқдори детерминация коэффициенти билан қуйидагича боғланган:

$$F_{haqiqiy} = \frac{r_{xy}^2}{1 - r_{xy}^2} \cdot (n-2), \quad n \geq 3. \quad (2)$$

Агар $\alpha = 0{,}05$ (беш фоизли аҳамиятлилик даражаси) ва эркинлик даражаси $k_1 = 1$ ва $k_2 = n-2$ бўлса, тасодифий миқдорлар Фишернинг тақсимоти келтирилган жадваллардан F – белгисининг жадвал қиймати (F_{jadv}) топилади. Агар ушбу $F_{haqiqiy} > F_{jadv}$ тенгсизлик ўринли бўлса, регрессия тенгламаси статистик аҳамиятли ҳисобланади. [1,12]

Регрессия тенгламасидаги хатоликларга "a" va"b" параметрларни ҳамда r_{xy}-корреляция коэффицентини ҳисоблашдаги тасодифий хатоликлар ҳам таъсир этади. Шунинг учун "a" va "b"параметрларни ҳисоблашдаги стандарт хатоликлар m_a, m_b лар билан аниқланди.

Регрессия коэффициентининг тасодифий хатолиги қуйидаги формула билан аниқланди:

$$m_b = \sqrt{\frac{\sum (y - y_x)^2 / (n-2)}{\sum (x - \bar{x})^2}}. \quad (3)$$

Регрессия тенгламасининг "a" параметри тасодифий хатолиги қуйидаги формула билан аниқланди:

$$m_a = \sqrt{\frac{\sum (y - y_x)^2}{n-2} \cdot \frac{\sum x^2}{n \cdot \sum (x - \bar{x})^2}}. \quad (4)$$

Чизиқли корреляция коэффициентининг тасодифий хатолиги эса қуйидаги формула асосида аниқланди:

$$m_r = \sqrt{\frac{1 - r^2}{n-2}} \quad (5)$$

Регрессия тенгламаси параметрларининг статистик маънодорлигини баҳолаш Стьюдентнинг *t*-мезони ёрдамида ҳам амалга оширилиши мумкин (эркинлик даражаси сони *n-2* ва $\alpha = 0{,}05$ бўлганда *t* белгининг жадвал қийматлари Стьюдент тақсимоти жадвалидан топилади). Унда қуйидагилар ҳисобланади:

$$t_a = \frac{a}{m_a}, \quad t_b = \frac{b}{m_b}, \quad t_r = \frac{r_{xy}}{m_r}. \quad (6)$$

Агар *t* белгининг топилган асл қийматлари унинг жадвал қийматидан катта бўлса (яъни, $t_a > t_{jadv}$, $t_b > t_{jadv}$, $t_{rxy} > t_{jadv}$), "a" ва"b" параметрлар статистик маънодор ҳисобланади.

Y	Coef.	St.Err.	t-value	p-value	[95% Conf	Interval]	Sig
N_E	.489	.03	2.95	.008	.151	.726	***
GDP	.503	.131	3.84	.001	.229	.778	***
Export	.222	.015	1.44	.166	.01	.055	***
industry	.304	.104	2.92	.009	.521	.786	***

Constant	87.522	14.075	6.22	0	58.062	116.982	***

Mean dependent var	102.015	SD dependent var	1.325
R-squared	0.861	Number of obs	24
F-test	9.261	Prob > F	0.000
Akaike crit. (AIC)	64.624	Bayesian crit. (BIC)	70.514

*** *p<.01*, ** *p<.05*, * *p<.1*

1-расм. Ўзбекистонда ЯИМ ҳажмига таъсир этувчи аҳоли бандлиги билан боғлиқ омиллар таҳлили[8]

Кўп омилли регрессион модель тузишнинг асосий қоидаларидан бири моделга танланиб олинадиган омиллар ўртасида боғланиш зичликларини аниқлаш, яъни танланиб олинаётган омиллар ўртасида боғланиш мультиколленеарлик муаммосини текшириш ҳисобланади. [8,7]

Натижавий омил учун таъсир этувчи омиллар ўртасидаги корреляцион матрицаси СТАТА дастурида ҳисобланди. Бу омиллар ўртасида мультиколлениарлик мавжуд эмаслигини аниқлашда автокорреляцион таҳлил ўтказамиз (2-жадвал).

2-жадвал

Ўзбекистонда ЯИМ ҳажмига таъсир этувчи аҳоли бандлиги билан боғлиқ омиллар ўртасидаги корреляцион боғланиш матрицаси[9]

Variables	(1)	(2)	(3)	(4)	(5)
(1) Y	1.000				
(2) N_E	0.491	1.000			
(3) GDP	0.592	0.178	1.000		
(4) Export	0.263	0.150	0.508	1.000	
(5) industry	0.023	-0.021	0.572	0.526	1.000

Республика ялпи ички маҳсулоти ҳажми ўсишига таъсир этувчи омиллар бўйича кўп омилли эмпирик модель тузиш учун, корреляцион матрицадаги қийматлардан келиб чиқиб юқорида келтирилган барча омиллар олинади ва уларнинг моделда ўзларини қандай тутишлари текшириб кўрилади.

Одатда, детерминация коэффициенти [0;1] кесмадаги қийматларни қабул қилади. Коэффициент қиймати 1 га қанчалик яқин бўлса, боғлиқлик шунчалик кучли ҳисобланади. Мазкур ҳолатда детерминация коэффициентининг *0,86* қийматга тенг бўлиши моделда мазкур иқтисодий кўрсаткичлар ўртасида етарли даражада кучли боғлиқлик мавжудлигини билдиради. [6]

Тузилган кўп омилли эконометрик моделнинг статистик аҳамиятлилиги ва ўрганилаётган жараёнга мос келишини аниқлаш учун Фишернинг *F*-мезонидан фойдаланамиз.

F-мезоннинг жадвал қиймати F_t = 3,01 га тенг, F_a = *9.2*.

$F_a >> F_t$ шартни қаноатлантиради, бу эса, *F*-мезоннинг ҳисобланган қиймати жадвалдаги қийматидан катта эканлигидан статистик аҳамиятли бўлиб, ундан бандлик даражасини келгуси даврларга прогноз қилишда фойдаланиш мумкин.

Кўп омилли эконометрик модель параметрлари ва корреляция коэффициентларининг ишончлилигини текширишда Стьюдентнинг *t*-мезонидан

[8] Муаллиф томонидан тузилган.

[9] Муаллиф томонидан тузилган.

фойдаланилади. Бунда уларнинг қиймати тасодифий хатолар қийматлари билан таққосланади. [7]

Стьюдентнинг t-мезони ҳисобланган (t_a) ва жадвал (t_t) қийматларини таққослаб, H_0 гипотезани қабул қиламиз ёки рад этамиз. Бунинг учун t-мезонинг жадвал қийматини танланган ишончлилик эҳтимоли (α) ва озодлик даражаси ($\text{d.f.} = n - m - 1$) шартлар асосида топамиз. Бу ерда n –кузатувлар сони; m – омиллар сони.

Ишончлилик эҳтимоли $\alpha = 0{,}05$ ва озодлик даражаси d.f.=21-4-1=16 бўлганда, t-мезонинг жадвал қиймати t_t=2,1448 га тенг бўлади.

Модел қолдиқлари унинг мос қийматлари билан боғланмаслиги гетероскадастлилик мавжуд бўлмаслиги Гаус Марковнинг кейинги асосий шартларидан бири ҳисобланади. Бунда уч асосий текшириш усули ва Брош Паган тести кўп фойдаланилади.



1-расм. Модел қиймати ва қолидиғининг боғлиқлиги.

Модел қолдиқлари гомоген бўлиб, мос қийматлари билан боғланмаган, ҳамда Брош Паган тести қиймати 51.03 га тенг.

```
Breusch-Pagan / Cook-Weisberg test for heteroskedasticity
         Ho: Constant variance
         Variables: fitted values of Howwouldyouratethehospit

         chi2(1)      =    51.03
         Prob > chi2  =   0.0000
```

Модел қолдиқлари автокорреляцияси учун Дурбин Уотсин тести қўлланилади. Унинг 2 га тенглиги автокорреляциянинг мавжуд эмаслигини ифодалайди.

Барча моделлар Гаус Марков шартларига текширилди, ҳамда моделнинг ишончли эканлиги аниқланди. Хусусан, модел қолдиқлари ва мос қийматлари ўзаро боғланмаган. Буни қуйидаги чизмада ҳам кўришимиз мумкин бўлади.



2-расм. Гетероскадастликка текшириш натижаси

Бу ерда биз қолдиқлардаги нормалликни текшириш учун учта графикдан, биринчидан, ядро зичлиги тахмини ва ядро зичлиги гистограммаси чизмаларидан фойдаланамиз. Ядро зичлиги графиги қолдиқлар учун ўзига хос гистограмма ҳосил қилади, нормал вариант солиштириш учун нормал тақсимотни қоплайди. Ядро зичлигини баҳолаш графиги шуни кўрсатадики, қолдиқлар амалда нормал тақсимотга амал қилади. Гистограмма (ядро зичлиги графиги) қолдиқларнинг деярли нормал тақсимланишини кўрсатади. Иккинчидан, стандартлаштирилган нормал эҳтимоллик графиги (pnorm) ёрдамида қолдиқларнинг ўрта диапазонидаги нонормалликни текширамиз ва квинтил-нормал чизмалар (qnorm) ёрдамида маълумотларнинг экстремал қисмларида нонормалликни текширамиз. Qnorm қолдиқларининг квинтилларини нормал тақсимот квинтилларига қарши чиқади.



Ядро зичлигини баҳолаш



Ядро зичлиги графиги (гистограмма)

3-расм. Ядро зичлиги натижалари

Pnorm сюжети қолдиқлар чизиқдан бироз узоқда эканлигини кўрсатади, лекин умуман олганда нормалликни кўрсатади. Шунингдек, qnorm сюжетлари думлар одатдагидан бироз пастроқ эканлигини кўрсатади, умуман олганда мақбулдир.

График нормаллик тестларидан сўнг, биз қолдиқларнинг тақсимланиши нормал деган нол гипотеза билан нормаллик учун график бўлмаган Shapiro-Wilk тестидан фойдаланамиз. [2,15]

Натижалар р-қиймати 0,00 эканлигини ва 95 %да нол гипотезани рад эта олмаслигини кўрсатади. Шундай қилиб, биз қолдиқлар нормал тақсимланган деган хулосага келамиз.

Нол гипотеза шундан иборатки, учта коэффициент моделларга ҳеч қандай таъсир кўрсатмайди. Бироқ, тест натижалари шуни кўрсатадики, р-қиймати 0.0000 ва биз нол гипотезани рад қиламиз ва учта ўзгарувчининг Юқоридаги модель бўйича натижавий омилнинг қолдиқларида автокорреляцияни текшириш учун Дарбин-Уотсон (DW) мезонидан фойдаланамиз.

$$DW = \frac{\sum_{t=2}^{T}(e_t - e_{t-1})^2}{\sum_{t=1}^{T} e_t^2} = \frac{\sum_{t=2}^{T} e_t^2 + \sum_{t=2}^{T} e_{t-1}^2 - 2\sum_{t=2}^{T} e_t e_{t-1}}{\sum_{t=1}^{T} e_t^2} =$$

$$= 2 - 2\frac{\sum_{t=2}^{T} e_t e_{t-1}}{\sum_{t=1}^{T} e_t^2} \approx 2(1-\rho_1), \qquad (7)$$

Бу ерда, ρ_1 – биринчи тартибдаги корреляция коэффициенти.

Натижавий омил қолдиқлари қаторида автокорреляция мавжуд бўлмаса, $DW = 2$, мусбат автокорреляцияда DW нолга, манфий автокорреляцияда эса 4 га интилади.

$$\begin{cases} \rho_1 = 0 \to DW = 2; \\ \rho_1 = 1 \to DW = 0; \\ \rho_1 = -1 \to DW = 4. \end{cases} \qquad (8)$$

Агар натижавий омилнинг қолдиқларида автокорреляция мавжуд бўлмаса, у ҳолда ҳисобланган DW мезонининг қиймати 2 атрофида бўлади. Мазкур моделда ҳисобланган DW мезонининг қиймати 1.78 га тенг. Бу эса натижавий омил қолдиқларидан автокорреляция мавжуд эмаслигини кўрсатади.

Якунда, динамик қатор маълумотлари асосида, қуйидагича эмпирик моделни ҳосил қилдик:

$$Y = 87.522 + 0.48*X_1 + 0.50*X_2 + 0.22*X_3 + 0.30*X_4 \qquad (9)$$

Турли статистик аҳамиятлилик мезонларида текширилган моделлардаги регрессия тенгламаларига прогноз варианти ишлаб чиқилди (3-жадвал).

3-жадвал

Ўзбекистонда аҳоли бандлиги ўсиш даражаси 2024-2028 йиллардаги прогноз қийматлари[10]

Йиллар	ўртача	оптимистик	пессимистик
2024	103,38	102,10	104,66
2025	104,40	103,12	105,68
2026	105,41	104,13	106,69
2027	105,92	104,64	107,20
2028	107,43	106,15	108,71

[10] Муаллиф томонидан тузилган.

Танлаб олинган кўрсаткичлар ЯИМ, янги ташкил этилган корхоналар, экспорт ҳамда саноат маҳсулотларининг тўғри бошқарилиши республикада аҳолининг бандлигини таъминлаши исботланди.

2028 йилга бориб аҳоли бандлиги олдинги даврга қараганда 7.43 фоизга ортади ҳамда меҳнатга лаёқатли аҳолининг иқтисодиётда банд бўлиши амалга ошади.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Салин В.Н., Шпаковская Е.П. Социально-экономическая статистика: Учебник. - М.: Юрист, 2011. – С.62.
2. Боташева Л.С. Оценка устойчивости развития отраслей региона / Л.С. Боташева // Аудит и финансовый анализ. - 2009. - №1. - С. 1 -4.
3. Мхитарян В.С. Статистическое исследование развития экономики региона / С.Мхитарян, О.А.Хохлова // Вопросы статистики. - 2008. - №8. - С. 53-59
4. Елхина И.А. Оценка структурных сдвигов и различий региональных хозяйственных систем юга России / И.А. Елхина // Региональная экономика.2015. - Т. 6. - № 4. - С. 103-110.
5. Makhammatibrokhimovich, I. Z. . (2024). WAYS TO DEVELOP POPULATION STATISTICS AND IMPROVE EMPLOYMENT INDICATORS IN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN. JOURNAL OF EDUCATION, ETHICS AND VALUE, 3(2), 55–57. Retrieved from https://jeev.innovascience.uz/index.php/jeev/article/view/497
6. Иминов З.М. “Яшил иқтисодиётда аҳоли бандлигини таъминлашнинг статистик таҳлили”. Science and education in the modern world: challenges of the XXI century. Astana, XIV Международная научно-практическая конференцияKazakhstan, october 2023
7. З.М.Иминов. “Аҳоли бандлигини таъминлашда яшил иқтисодиётнинг аҳамияти”. Yangi O‘zbekiston: “Makroiqtisodiy barqarorlik va inklyuziv o‘sish omillari. Respublika ilmiy-amaliy anjumani ilmiy maqola va tezislar to‘plami (2023-yil 5-oktabr). – T.: TDIU, 2023. – 310 b.
8. Юлдошев З.Т. Аҳоли турмуш даражасини оширишда меҳнат ресурсларидан самарали фойдаланиш йўллари. “Ўзбекистон статистика ахборотномаси” илмий электрон журнали. 2019 йил, 1-сон.
9. Асракулов А.С. Неформальная занятость и анализ факторов, влияющих на неформальную занятость в Узбекистане. / Региональная экономика: теория и практика - 2019. №12. Россия. С.2328-2336.
10. Лукьянова К.К. Зарубежный опыт регулирования занятости населения. Вестник ЮУрГУ. Серия “Экономика и менеджмент”. 2016. Т. 10, №3. С.109-115.

СОЦИАЛЬНАЯ СТРУКТУРА СЕМЬИ И СТРАТЕГИИ ВЕЖЛИВОСТИ В КОММУНИКАЦИИ: РУССКО-УЗБЕКСКО-АНГЛИЙСКИЙ КОНТЕКСТ КАК ОТРАЖЕНИЕ ВЗГЛЯДОВ НА ПРИРОДУ ЧЕЛОВЕКА

Артикова Шахноза Махамадовна
преподаватель Ферганского государственного университета
e-mail: raphael.nadal@mail.ru

Аннотация. В статье анализируется влияние социальной структуры семьи на стратегии вежливости в коммуникации в русском, узбекском и английском языках. На материале семейной риторики рассматриваются культурные различия, отражающие восточно-западные взгляды на природу человека. Выявлены ключевые стратегии: иерархическая вежливость в узбекской, русской семьях и индивидуалистическая в английской. Исследование подчеркивает роль вежливости в сохранении гармонии и культурного наследия.

Ключевые слова: социальная структура семьи, стратегии вежливости, семейная риторика, русский, узбекский, английский языки, взгляды на природу человека, культурные различия.

Annotatsiya. Maqolada oila ijtimoiy tuzilishining rus, o‘zbek va ingliz tillarida muloqot qilishda xushmuomalalik strategiyalariga ta’siri ko‘rib chiqiladi. Oilaviy ritorika asosida madaniy farqlar tahlil qilinadi, inson tabiatiga nisbatan Sharq-G‘arb qarashlari aks ettiriladi. Aniqlangan

asosiy strategiyalar: o‘zbek va rus oilalarida ierarxik xushmuomalalik va ingliz tilidagi individuallik. Tadqiqot ahillik va madaniy merosni saqlashda xushmuomalalik rolini ta'kidlaydi.

Kalit so'zlar: Oila ijtimoiy tuzilishi, xushmuomalalik strategiyalari, oilaviy ritorika, rus, o'zbek, ingliz tillari, inson tabiatiga qarashlar, madaniy farqlar.

Abstract. The article examines the impact of family social structure on politeness strategies in communication in Russian, Uzbek, and English. Based on family rhetoric, cultural differences are analyzed, reflecting East-West views on human nature. Key strategies identified: hierarchical politeness in Uzbek and Russian families versus individualistic in English. The study highlights the role of politeness in maintaining harmony and cultural heritage.

Keywords: Family social structure, politeness strategies, family rhetoric, Russian, Uzbek, English languages, views on human nature, cultural differences.

Социальная структура семьи как базовый институт общества определяет не только повседневные взаимодействия, но и формы выражения вежливости в коммуникации. Вежливость, согласно прагматической теории, выступает инструментом смягчения face-threatening acts (угрожающих лицу действий), способствуя сохранению социальной гармонии [1.45]. В русско-узбекско-английском контексте эти стратегии отражают фундаментальные взгляды на природу человека: коллективистские (Восток) и индивидуалистические (Запад). Цель – выявить, как иерархия и равенство в семье влияют на лингвокультурные маркеры вежливости, на материале семейной риторики (диалоги родителей и детей, супругов). Методология включает сравнительный анализ корпусов устной речи и этнолингвистические описания.

Социальная структура семьи в сравниваемых культурах

Семья в узбекской культуре традиционно патриархальна и коллективистская, где иерархия (отец – глава, старшие – авторитет) подчеркивает уважение к старшим как основу гармонии [2.12]. Это отражает восточный взгляд на человека как на часть коллектива, где индивидуальные желания подчиняются групповым нормам [2.5]. В русской семье сохраняется смешанная структура: патриархальные элементы (уважение к родителям) сочетаются с советским наследием равенства, но вежливость часто выражает эмоциональную близость через уменьшительно-ласкательные формы [3.78]. Английская семья более нуклеарная и эгалитарная, где равенство членов подчеркивает индивидуализм, видя человека как автономного индивида, стремящегося к самоактуализации [2.3].

Эти структуры влияют на коммуникацию: в узбекской семье диалоги подчинены этикету (например, "ota-ona" – обращение с почтением), в русской – эмоциональной теплоте ("мамочка"), в английской – прямолинейности ("honey", но без иерархии) [1.20].

Стратегии вежливости в семейной коммуникации

Стратегии вежливости по Брауну и Левинсону делятся на позитивные (поддержка лица) и негативные (уважение дистанции) [2.10]. В узбекской семейной риторике преобладают позитивные стратегии: гиперболы в комплиментах ("Sizning mehmondo'stligingiz – osmon kabi keng!") для укрепления коллектива. Негативная вежливость проявляется в избегании прямых отказов, особенно детям перед старшими, что отражает коллективистский взгляд на человека как на существо, нуждающееся в гармонии.

В русском контексте стратегии балансируют: позитивные – через юмор и ласку ("Ну, солнышко, не сердись"), негативные – в формальных обращениях к свекрови ("мама") [5.240]. Это связано с дуализмом русской культуры: коллективизм с элементами индивидуализма. Английская коммуникация favors негативную вежливость: косвенные просьбы ("Could you possibly...?") даже в семье, подчеркивая автономию. В семейных диалогах, например, родитель-ребенок: "Would you mind tidying up?" вместо прямого приказа, что отражает западный идеал человека как рационального индивида.

Сравнение показывает: в узбекско-русском контексте вежливость иерархична (стратегии), в английском – симметрична.

Отражение взглядов на природу человека

Восточные культуры (узбекская, русская с азиатскими влияниями) видят человека как социальную личность, в отношениях, где вежливость – инструмент предотвращения конфликтов для коллектива. Это видно в семейной риторике: отказ от эгоцентричных выражений в пользу групповой гармонии. Западный (английский) взгляд – человек как автономный агент, где вежливость защищает личное пространство, но позволяет открытое выражение.

В межкультурном контексте миграция стратегий (например, в диаспорах) приводит к гибридизации: узбекские семьи в Англии сочетают иерархию с косвенностью . Это подчеркивает универсальность вежливости как отражения антропологических взглядов.

Заключение. Анализ показывает, что социальная структура семьи определяет стратегии вежливости, отражая культурные концепты человеческой природы. В русско-узбекско-английском сравнении коллективизм Востока благосклонности позитивную вежливость для гармонии, индивидуализм Запада – негативную для автономии. Рекомендуется интеграция этих знаний в образование для межкультурной компетенции. Дальнейшие исследования – корпусный анализ диалогов.

Список использованной литературы

1. Brown P., Levinson S. Politeness: Some Universals in Language Usage. Cambridge: Cambridge University Press, 1987. 345 с.

2. Rakhimova U. Politeness and Speech Etiquette in Uzbek Linguoculture // Zenodo. 2024. С. 351-355.

3. Saidova M. Cross-Cultural View on Communicative Behaviours of English, German, Uzbek and Russian Language Speakers // ResearchGate. 2024.

4. Leech G. Politeness: Is there an East-West Divide? // Lancaster University. 2007.

5. Муратов Ю. Категория вежливости в аспекте межкультурной коммуникации // Dissercat. 2000. С. 240-241.

6. Karimova D. Comparative Analysis of Politeness Strategies in English and Uzbek // Semant Journals. 2025.

7. Ishuvvatova G. Принцип вежливости в английской и узбекской речевой адаптации // InScience. 2024.

8. Eshonqulova N. Socio-cultural specificity of the etiquette forms of greetings and addresses in the Uzbek and Russian languages // ResearchGate. 2024.

ЦИФРОВАЯ ФИЛОСОФИЯ В СОВРЕМЕННОМ МИРЕ И ИХ ОСОБЕННОСТИ

Кутлымуратов Бахытбай Хожабаевич, старший
преподаватель кафедры «Языки и гуманитарные науки», Нукусского государственного технического университета
Qutlimuratovbaxa@gmail.com
Шелепов Илья Александрович
студент 2 курса, Нукусского государственного технического университета

Annotatsiya: Texnologiyalarning jadal rivojlanishi sharoitida raqamli falsafa zamonaviy gumanitar diskursning ajralmas qismiga aylanmoqda. Ushbu ishda raqamli falsafaning shakllanishi va mazmuni falsafa, axborot texnologiyalari va kibermadaniyat kesishmasida paydo bo‘lgan yangi bilim sohasi sifatida ko‘rib chiqiladi. Raqamli kontekstda subyektivlik, haqiqat, vaqt va makon tushunchalarining transformatsiyasi, shuningdek, tafakkurni algoritmlash, tajribani virtuallashtirish va sun’iy intellekt rolining o‘sishining falsafiy oqibatlariga alohida e’tibor qaratilmoqda. Ish raqamli voqelik, inson, jamiyat va falsafa oldiga qo‘yayotgan muammolar va imkoniyatlarni anglashga qaratilgan.

Kalit so‘zlar: raqamli falsafa, axborot texnologiyalari, kibermadaniyat, voqelik, tajribani virtuallashtirish, sun’iy intellekt.

Abstract: In the context of the rapid development of technologies, digital philosophy is becoming an integral part of modern humanitarian discourse. This work examines the formation

and content of digital philosophy as a new field of knowledge that has emerged at the intersection of philosophy, information technology, and cyberculture. Particular attention is paid to the transformation of the concepts of subjectivity, truth, time, and space in the digital context, as well as the philosophical consequences of the algorithmization of thinking, the virtualization of experience, and the growth of the role of artificial intelligence. The work is aimed at understanding the problems and opportunities that digital reality poses to man, society, and philosophy.

Keywords: digital philosophy, information technology, cyberculture, reality, virtualization of experience, artificial intelligence.

Аннотация: В условиях стремительного развития технологий цифровая философия становится неотъемлемой частью современного гуманитарного дискурса. В данной работе рассматривается становление и содержание цифровой философии как новой области знания, возникающей на стыке философии, информационных технологий и киберкультуры. Особое внимание уделяется трансформации понятий субъективности, истины, времени и пространства в цифровом контексте, а также философским последствиям алгоритмизации мышления, виртуализации опыта и роста роли искусственного интеллекта. Работа направлена на осмысление вызовов и возможностей, которые цифровая реальность ставит перед человеком, обществом и философией как таковой.

Ключевые слова: Цифровая философия, информационные технологии, киберкультура, реальность, виртуализация опыта, искусственный интеллект.

В XIX веке О.Конт предложил человечеству для того времени поистине революционную теорию 3-х стадий эволюции человечества: теологическую, метафизическую и научную. Ранжирование всех мировых процессов на протяжении всего известного человечеству времени никого не устроило в тот момент. Причем критика «позитивной философии» обрушившаяся на О.Конта сделало его нерукопожатным в высшем обществе как религиозных деятелей, так и в среде философов-преподавателей. Очевидно что миросуществование не может быть ограничена 3-мя стадиями эволюции человечества, и научно-технический прогресс вывел нас на новую – 4-ю стадию эволюции человечества: цифровую (цифровая философия). [1,3]

Цифровая философия ставит перед собой ряд фундаментальных вопросов, касающихся взаимодействия человека с цифровыми технологиями и их влияния на различные аспекты человеческой жизни и общества.

1. **Что такое реальность в цифровом мире?** Один из самых острых философских вопросов, возникающих в цифровую эпоху, — это проблема реальности. Как изменяется понимание реальности, если большая часть нашего опыта становится виртуальной? Виртуальные миры, созданные с помощью технологий, ставят под сомнение традиционные представления о реальном и вымышленном. Цифровая реальность, существующая вне физического пространства, становится не менее значимой, чем реальный мир. Поэтому цифровая философия изучает, что можно считать реальностью в эпоху цифровых технологий и как это влияет на человеческое восприятие.

2. **Как цифровые технологии влияют на сознание и самосознание?** Цифровая философия рассматривает влияние технологий на человеческое сознание. Как использование интернета, социальных сетей и искусственного интеллекта изменяет восприятие самого себя? Человек, взаимодействуя с цифровыми технологиями, постепенно меняет восприятие своего «я», включая личные данные, поведение и даже сознание, которое может стать неотъемлемой частью цифровых систем. Это поднимает важные вопросы об идентичности и само понимании в условиях цифрового мира.

"Магнаты корпораций социальных медиа должны перестать притворяться дружелюбными богами-ботаниками, строящими лучший мир, и признаться, что они всего лишь простые табачные фермеры в футболках, продающие детям товары, вызывающие привыкание. Давайте будем честны с собой: проверка лайков стала эквивалентом курения". [2,9]

3. **Как цифровые технологии изменяют социальные отношения и общественные структуры?** Цифровые технологии влияют на все сферы жизни, включая социальные отношения. Социальные сети, мобильные приложения и другие формы цифрового общения меняют способы, которыми люди взаимодействуют друг с другом. Виртуальные сообщества становятся не только пространством для обмена информацией, но и формируют новые способы организации социальных и политических движений, новые формы солидарности и, наоборот, разобщенности. Важно рассматривать, как эти технологии влияют на социальную структуру, политику и организацию общества. «Гаджеты и приложения отнимают у нас все больше и больше времени, лишают радости общения и пребывания в реальности.» [3,3]

4. **Этические и политические последствия цифровых технологий.** Цифровая философия поднимает важные этические и политические вопросы, связанные с развитием технологий. Как гарантировать безопасность личных данных в условиях глобальной цифровизации? Как обеспечить справедливое использование искусственного интеллекта, чтобы избежать дискриминации и манипуляций? Также важными являются вопросы, связанные с регулированием интернета, правами на информацию и искусственным интеллектом. Эти вопросы требуют не только философских размышлений, но и разработку практических политических решений.

Цифровые технологии и культура. Осенью 2017 года Шон Паркер, один из создателей Facebook, открыто рассказал об «инженерии внимания», которой пользовалась его бывшая компания: Мысли, которые стояли за созданием приложений, первым из которых был Facebook… касались лишь вопроса «Как заставить пользователей уделять нашей продукции как можно больше времени и внимания?» Это значит, что нам нужно иногда вызывать небольшой приток дофамина, ведь кто-то лайкнул или прокомментировал ваш пост или фотографию, что-то в этом духе**.** [4,13]. Цифровые технологии не только изменяют способы общения и работы, но и затрагивают культуру, искусство и творчество. Виртуальная реальность, цифровое искусство, интернет-платформы для распространения произведений и взаимодействие с ними — все эти технологии становятся основой новых форм художественного самовыражения. Вопросы о том, как технологии меняют культурные формы и как они влияют на восприятие искусства, становятся важными в контексте цифровой философии.

Футуролог Джарон Ланье считает, что злость и оскорбления в интернете – в некотором смысле неизбежная черта всех медиа. На открытом пространстве негативные эмоции привлекают больше внимания, чем позитивные и конструктивные мысли. Частых пользователей интернета изматывает постоянное столкновение с непрерывным потоком негатива. Это крайне высокая цена, которую многие, сами того не подозревая, платят за свое неудержимое желание общаться. Все вышеперечисленные риски (частота использования приложений, их дьявольская способность вызывать зависимость, снижать уровень счастья, пробуждать темные инстинкты и отвлекать от более важных занятий) раскрыли мои глаза. Необходимо признать, что технологии доминируют над культурой. Я стал лучше понимать, что имел в виду Эндрю Салливан, говоря с горечью: «Когда-то я был человеком…» [5,5]

Цифровая философия охватывает множество исследовательских направлений, каждое из которых исследует влияние цифровых технологий на различные аспекты человеческой жизни. **Философия киберпространства** Исследование природы и роли киберпространства в жизни человека, его влияние на социальные и культурные процессы, а также философские вопросы о виртуальной идентичности и приватности.

1. **Философия искусственного интеллекта** Изучение и ограничений искусственного интеллекта, а также философских, этических и социальных вопросов, связанных с его применением. Важно понять, как ИИ меняет представление о разуме и сознании, а также его влияние на повседневную жизнь.

2. **Философия виртуальной реальности.** Это направление изучает философские аспекты взаимодействия человека с искусственными мирами и его восприятие в условиях виртуальных пространств. Вопросы о реальности и иллюзии, о субъективном опыте и возможностях расширения человеческих возможностей через виртуальные среды.

3. **Философия данных,** этот раздел философии рассматривает природу данных, их роль в формировании современного общества и влияние на восприятие мира. Вопросы о праве на данные, манипуляции и защите частной жизни становятся важными для будущего цифрового общества.

4. **Философия трансгуманизма.** Исследование этических и философских проблем, связанных с развитием технологий, направленных на улучшение человеческих способностей. Вопросы об улучшении разума, тела и долговечности жизни становятся предметом активных дискуссий среди философов и ученых. Как написал Кэл Ньюпорт, в своем произведении «Цифровой минимализм»: «Нам нужна философия, которая воссоединит наши желания и ценности с повседневной реальностью и «свергнет с престола» животные прихоти и бизнес-модели Кремниевой долины. Нам нужен подход, принимающий новые технологии, но не ценой обесчеловечивания.» [6,7]

С целью расширить тему мы бы хотели высказать своё мнение насчёт названных выше направлений. **Во-первых,** хотелось бы затронуть философию киберпространства. Как писал Сенека «Нашей жизни больше всего мешает спешка и ожидания будущего.»[7,37]. Искусственный интеллект появился относительно недавно и уже смог всколыхнуть мир, как когда то интернет. С его появлением открылось большое количество путей, ведь на данный момент когда искусственный интеллект только развивается, люди уже получили возможность моделировать какие либо ситуации, возможные катастрофы и так же предотвращать их при помощи полученных данных от того же искусственного интеллекта. Так же искусственный интеллект уже используется для нахождения возможных заболеваний у человека на ранней стадии что здорово упрощает работу мед. работников и конечно же упрощает жизнь обычных людей, ведь они могут жить спокойно даже не держа и капли мысли сомнения того, что уже завтра у них могут обнаружить какое либо заболевание, но так же с появлением искусственного интеллекта многие люди потеряли работу. Большое количество людей работающих в сферах искусства, могут быть в любой день заменены на более “профессионального” работника, который не знает усталости, так ещё и которому можно не платить. Вопрос того, может ли захватить искусственный интеллект мир интересует достаточно длительное время человечество, насколько же будет превосходить нас код, способный к вечному самосовершенствованию. Он подобно двигателю способен разогнать наш прогресс в разных отраслях до небывалых скоростей, но не посчитает ли он врагами тех, кто его сотворил, что и происходило в фильмах, как мне кажется, нет. Отвечая же на **третье** направление, на данный момент если виртуальная реальность что была когда то лишь сказкой, окажется по итогу гораздо лучше реальной жизни, большинство людей будут часами сидеть в шлемах виртуальной реальности и уже отвергая реальность, они признают реальностью виртуальный мир, ведь гораздо проще уйти туда, где как тебе кажется всё лучше. После чего социальный аспект может вовсе исчезнуть и большинство людей будут сидеть одни дома, боясь выйти на улицу. Развитие технологий виртуальной реальности сыграют большую роль в жизни людей, как в хорошую так и в плохую сторону, большинство людей, могут принять виртуальный мир за реальный, что не есть хорошо, некоторые люди в свою очередь захотят наживаться на людском желании и как раз таки будут создавать программы под эти шлемы, и что люди сделают правильный выбор представ пред двумя мирами и выберут реальный, ведь не так уж и хорошо жить в красочном мире, ведь конечно хорошо жить там, где ты можешь быть или же выглядит так, как ты сам этого захочешь, многие люди будут зависимы от этой реальности но при этом не стоит и забывать про реальный мир. Ведь да, пусть реальный мир не такой совершенный как мы думаем, пусть он не идеален, но вся не идеальность и

придаёт ему ценности, показывая, что мы можем повлиять на некоторые аспекты. Рассматривая **4** направление, а именно философию данных хотелось бы отметить что в данное время очень важно сохранять свою личную информацию при себе. До появления социальных сетей люди могли не беспокоится о том, что о каких-либо их глупых поступках может узнать большинство, обычно это всё не выходило за рамки компании, или если поступок был громким, то района, теперь же в свою очередь если что то, произошло, то об этом будут знать все. В этом то и беда современного мира, ведь некоторые люди видя то как какому либо человеку плохо или он вытворяет какую либо глупость, просто начинают снимать его на видео, за место того что бы ему помочь или же проигнорировать. В данное время информацию почти о любом человеке можно легко раздобыть, найти в интернете, если он ввязался во что-то крупное, некоторые же люди даже не беспокоясь за свою безопасность, безопасность своих данных, открыто выкладывают фотографии в соцсети где после чего уже не хорошие люди могут использовать уже эту информацию в своих целях.

Все эти направления играют огромную роль в новом направлении философии и имеют важное значение в развитии и прогресса человечества. В конце нашего тезиса приведем пример из книг двух писателей-исследователей: «…в самом начале развития совершенно новой индустрии направить её – средства массовой информации, способы коммуникации, архивы знаний, профессиональную креативность, пыл, с которым создаётся каждый продукт, – на благо общества. То же самое происходило с книгопечатанием, радио, телевидением, а сейчас, с появлением Google, Amazon, YouTube и соцсетей, происходит и с интернетом.»[8,13], и ещё «…вместе с появлением информационного общества зарождаются противоречия между свободой и назначением человеческой жизни. Благодаря высоким технологиям создается пространство досуга, актуализирующее проблему смыслового наполнения этого пространства. Информационное общество сегодня сталкивается с духовной и нравственной проблемой экзистенциального смысла существования человека, которая требует не технологических, а этических решений.».[9,2]

Литература**:**

1. Цифровой интеллект на пути замещения человека. Цифровая философия – концепция формирования 4-й стадии эволюции человечества. Владимир Сметана. Москва, 2024 г. Digital Philosophy, в 1. с. 5-6.

2. «Цифровой минимализм. Фокус и осознанность в шумном мире» Кэл Ньюпорт, Cal Newport **,** DIGITAL MINIMALISM, Choosing a Focused Life in a Noisyworld, **Portfolio/Penguin,** 2019, в 2. с. 9., в 3. с 3., в 4. с 13., в 5. с 5., в 6. с 7.

3. «Нравственные письма к Луцилию», Перевод и примечания С.А.Ошерова., М.: "Наука", 1977., в 7. с. 37.

4. «Новое Просвещение и борьба за свободу знания»., Питер Кауфман. Издание на русском языке, оформление. ООО «Альпина нон-фикшн», 2024., в 8. с 13.

5. Глобализация и моральные противоречия информационного общества. Багаутдинов А.М, Багаутдинов Р.М., https://cyberleninka.ru/article/n/globalizatsiya-i-moralnye-protivorechiya-informatsionnogo-obschestva/viewer., в. 9. с 2.

ИННОВАЦИИ В ЗЕЛЕНОЙ ЭКОНОМИКЕ КАК ФАКТОР ЗАЩИТЫ ОКРУЖАЮЩЕЙ СРЕДЫ

Махамаджанов Мухаммадали Музаффарович
ассистент Андижанский филиал Кокандского Университета
Бутабекова Муслима Дониёр кизи
Студентка Андижанский Филиал Кокандского Университета
E-mail: mmuxammadali98@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu ilmiy tezis yashil iqtisodiyotda yashil texnologiyalarni joriy etish va uning atrof-muhit muhofazasiga ta'sirini o'rganadi. Shuningdek, ushbu natijalarga erishish uchun

mamlakatda ko‘rilayotgan chora-tadbirlar va yashil iqtisodiyotga o‘tish yo‘lidagi ayrim to‘siqlar ko’rib chiqilgan.

Kalit so’zlar. Yashil iqtisodiyot, resurslar, gaz emissiyasi, iqtisodiy o'sish, atrof-muhit, qayta tiklanadigan energiya.

Abstract: This research paper examines the implementation of green technologies in a green economy and its impact on environmental protection. It also observes the measures taken in the country to achieve these results and some barriers in the transition to a green economy.

Key words. Green economy, resources, gas emissions, economic growth, environment, renewable energy.

Аннотация: Данный научный тезис рассматривает вопросы внедрения зеленых технологий в зеленой экономике и ее отражение на качестве защиты окружающей среды. Рассматриваются также меры, предпринимаемые в стране для достижения результатов и некоторые барьеры при переходе на зеленую экономику.

Ключевые слова. Зеленая экономика, ресурсы, выбросы газов, экономический рост, окружающая среда, возобновляемая энергия.

С возникновением и активным внедрением передовых технологий за последние несколько столетий человечество оказывает достаточно негативное и ощутимое влияние на окружающую среду, что отражается на изменении климата, загрязнения окружающей среды газовыми выбросами и химикатами, истощения природных ресурсов вследствие их нарастающей добычи, снижение биоразнообразия. Тем не менее, общество не стоит на месте, экономики стран развиваются, появляются новые технологии и люди сталкиваются с серьезным вызовом обеспечения гармоничного сосуществования экономики и природы и установления баланса[1,116]. Здесь на передовой план выходит зелёная экономика, подразумевающей собой использование средств для развития экономики путем снижения экологических рисков, и сохранения природных ресурсов для будущих поколений.

Зеленая экономика строится на общих принципах эффективного использования природных ресурсов, снижения выбросов и отходов и внедрение чистых “зеленых” технологий. Среди подобных практик можно отметить популяризацию электромобилей вместо бензиновых, производство и использование биоразлагающихся материалов для упаковки и покрытия товаров, установка солнечных батарей для безопасной выработки электроэнергии, переход к системе капельного орошения в сельском хозяйстве для экономии пресноводных ресурсов.

В Республике Узбекистан проводятся масштабные реформы в сфере зеленой экономике, охватывающих энергетику, промышленность и аграрный сектор и направленных на сокращение энергоемкости экономики и постепенной замены традиционной добычи возобновляемыми источниками, а также ускорение цифровизации всех отраслей, в особенности государственное управление, банковский сектор и деятельность компаний. Все это позволит непременно повысить конкурентоспособность страны на глобальной арене и обеспечить устойчивый экономический рост.

Согласно Стратегии Республики Узбекистан по переходу к зеленой экономике к 2030 году, ожидается снижение удельных выбросов парниковых газов на 35% от уровня 2010 года, доведение доли возобновляемых источников энергии до более чем 30% от общего объема производства энергии в стране, а также повышение энергоэффективности промышленности.

Достижения страны в данной области, в то же самое время и некоторые проблемы отчетлива рассматриваются в Отчете Университета Дублина, связанных с ЦУР (Целями Устойчивого Развития), где Узбекистан занимает 62 место среди 167 стран, достигнув отметки в 73,1 и прибавив в таких показателях как искоренение бедности, улучшение качества здравоохранения, обеспечение населения чистой питьевой водой и хорошим качеством санитарии[2,12]. Так, наша страна значительно улучшила свои показатели за последние 10 лет.

Рис 1. Цели устойчивого развития страны (17 направлений)

Инновации в зелёной экономике являются стратегическим фактором защиты природы и достижения климатической устойчивости. Их успешное внедрение требует синергии между государством, бизнесом и научным сообществом, создания стимулов для экологического предпринимательства и развития международного сотрудничества. В долгосрочной перспективе именно «зелёные» технологии определяют новую парадигму экономического роста, ориентированного не на эксплуатацию, а на сохранение природного капитала.

Для достижения целей национальной стратегии по переходу к зеленой экономике и повышения рейтинга страны в мире необходимо и дальше заниматься внедрением зеленых технологий и разрешить определенные проблемы и возможные барьеры:

Таблица 1

Проблемы и возможные барьеры
Недостаточное финансирование зеленых проектов
Малое количество опытных кадров в данной сфере
Сниженная координация между секторами экономики и отдельными институтами
Сниженная экологическая культура населения
Слабая нормативно-правовая база

Далее представлен обзор последних технологий (2024-2025) активно осваиваемых и внедряемых различными странами по всему миру:

1. Развитие водородной энергетики (получение водорода из возобновляемых источников энергии
2. Next-Gen солнечные панели с повышенным КПД (более 30%)
3. Дальнейшее развитие индустрии электромобилей
4. Технологии улавливания углерода и использование углекислого газа в строительных материалах
5. Зеленые агротехнологии (биопластик, аэропоника и гидропоника, использование искусственного интеллекта при орошении)
6. Строительство “умных” городов оптимизированных и подстроенных под зеленую экономику
7. Финансовые зеленые инновации

Разрешение вышеуказанных проблем и внедрение новых технологий непременно повысит долю и значимость зеленой экономики в целом и станет гарантом защиты окружающей среды.

Использованная литература

1. С.Алибекова. Инновации в зеленой экономике. Журнал “Aktuar Moliya va Buxgalteriya Hisobi”, 2025, V5, № 6, p116-121.

2. J. D. Sachs, L. Guillaume, G Fulle. Sustainable Development Report, 2025, Dublin University Press, p12.

3. Porter, M., & van der Linde, C. *Green Innovation and Competitive Advantage.* Journal of Clean Production, 2024, p 132-135.

3. www.lex.uz Постановление Президента Республики Узбекистан от 04.10.2019 (ПП-4477) “Об утверждении стратегии по переходу Республики Узбекистан на “зеленую экономику” на период 2019-2030 годов”

SHARQ VA G’ARB FALSAFASIDA AXLOQIY QADRIYATLAR VA TARBIYA SOHASIDAGI UMUMIYLIK VA FARQLAR

Abdullayev Bahromjon Xoshimdjonovich
KUAF Taix va ijtimoiy fanlar kafedrasi katta o’qituvchisi
e-mail: abdullayev.baxromjon.72@gmail.com
Abdupattoyeva Xayotxon Abdusaid qizi
KUAF Tarix (masofaviy ta’lim) yo’nalishi
1-bosqich 25-06 guruh talabasi

Annotatsiya: ushbu tezisda Sharq va G’arb falsafasida axloqiy qadriyatlar va tarbiya haqida fikr yuritilgan. Bunda Sharq va G’arb falsafasidagi umumiylik va farqlar tahlil qilingan hamda xulosalar chiqarilgan.

Kalit so’zlar: Sharq va G’arb falsafasi, axloqiy qadriyatlar, tarbiya tamoyillari, insonparvarlik, mehr-oqibat, komil inson, ijtimoiy urf-odatlar, diniy me’yorlar.

Аннотация: В тезисе рассматриваются нравственные ценности и воспитание в восточной и западной философии. Анализируются общие черты и различия в восточной и западной философии, делаются выводы.

Ключевые слова: восточная и западная философия, нравственные ценности, принципы воспитания, гуманность, доброта, совершенный человек, общественные нормы, религиозные нормы.

Abstract: This thesis examines moral values and education in Eastern and Western philosophy. The similarities and differences between Eastern and Western philosophy are analyzed, and conclusions are drawn.

Keywords: Eastern and Western philosophy, moral values, principles of education, humanity, kindness, the perfect person, social norms, religious norms.

Insoniyat tarixida axloq va tarbiya masalalari har doim markaziy o’rinda turgan. Har bir sivilizatsiya – Sharq yoki G’arb bo’lishidan qat’i nazar – o’zining ma’naviy qadriyat tizimini yaratgan. Axloqiy qadriyatlar va tarbiya masalalari har qanday jamiyatning ma’naviy-ruhiy tayanchini tashkil etadi. Falsafiy tafakkur tarixida Sharq va G’arb an’analari bu masalaga o’ziga xos yondashgan. Sharq falsafasida axloq, odob va tarbiya masalalari insonning ichki kamoloti, ruhiy tozaligi, ijtimoiy uyg’unligi bilan bog’liq tarzda talqin qilinsa, G’arb falsafasida bu masala ko’proq aql, erkinlik, individuallik va ijtimoiy javobgarlik nuqtai nazaridan yoritiladi.

Sharq tafakkuri ko’proq ma’naviy-ruhiy poklik, jamiyatga sadoqat va insonparvarlik g’oyalariga asoslangan bo’lsa, G’arb falsafasi ratsional tafakkur, shaxs erkinligi va individual mas’uliyat tamoyillarini ilgari suradi. Ushbu maqolada Sharq va G’arb axloqiy qadriyatlari hamda tarbiya tizimlari o’rtasidagi umumiylik va farqlar tahlil qilinadi.

Avvalo, Sharq falsafasida axloqiy qadriyatlar va tarbiya tamoyillari haqida fikrlasak, Sharq falsafasi — xususan, Xitoy, Hind va Islom falsafiy maktablari — axloqni inson hayotining markaziga qo’yadi. Sharq axloqiy tafakkuri qadimdan diniy va falsafiy g’oyalar bilan chambarchas bog’liq. Masalan, “Avesto”, Konfutsiy ta’limoti, islom falsafasi, hind Vedalari va Buddaviy an’analar axloqiy komillikka erishishni inson hayotining asosiy maqsadi sifatida talqin etadi [4].

Konfutsiy ta’limotida “jen” (insonparvarlik) va “li” (marosim, odob) tushunchalari axloqiy tarbiyaning asosi sifatida qaraladi. Konfutsiyga ko’ra, haqiqiy inson o’zini jamiyat bilan uyg’un holda, boshqalar farovonligi uchun yashashi lozim. Shu bois, Sharq axloqiy tizimi ko’proq kollektivizm, iroda tarbiyasi va axloqiy mas’uliyat tamoyillariga asoslanadi. Konfutsiy ta’limotida axloqiy tarbiyaning markazida “jen” – insonparvarlik, mehr-oqibat tushunchasi turadi. Unga ko’ra, inson o’zini jamiyatdagi o’rnini anglab, ota-onaga hurmat, kattalarga itoat va davlatga sadoqat bilan yashashi kerak.

Hind falsafasida esa axloq “dharma” konsepsiyasi bilan bog’liq bo’lib, u insonning jamiyatdagi o’rni, burchi va ruhiy tozaligini belgilovchi asosiy g’oyadir. Buddaviylikda esa “to’g’ri fikrlash”, “to’g’ri so’zlash”, “to’g’ri xatti-harakat” kabi qadriyatlar insonni nafsdan ozod qilib, ma’naviy najotga eltadi.

Islom falsafasida esa axloqiy qadriyatlar Qur’on va hadis ta’limotiga asoslanadi. Islom falsafasida axloq Alloh tomonidan belgilangan ilohiy qonuniyatlar bilan uzviy bog’liq bo’lib, Qur’on va Hadisda axloqiy fazilatlar – halollik, sabr, adolat, shukronalik va mehr-shafqat eng yuksak qadriyatlar sifatida qaraladi. Forobiy, Ibn Sino, Al-G’azzoliy kabi mutafakkirlar inson kamolotini axloqiy tarbiyasiz tasavvur etmaganlar, axloqni insonning ma’naviy yetuklik darajasi sifatida talqin etganlar. Al-Farobiyning “Fozil shahar ahli” asarida jamiyatning farovonligi axloqiy yetuk insonlarga bog’liq ekani ta’kidlanadi [1]. Islomda tarbiya jarayoni nafaqat aqliy, balki ruhiy-poklanish (tazkiya) bilan ham uzviy bog’liqdir.

Sharqdagi tarbiya tizimining mohiyati – “komil inson” g’oyasiga tayanadi. Bu g’oya nafaqat shaxsiy barkamollik, balki ijtimoiy mas’uliyat, oilaviy burch va ma’naviy uyg’unlikni ham nazarda tutadi [3].

G’arb falsafasida axloqiy qadriyatlar va tarbiya tamoyillari gapiradigan bo’lsak, G’arb falsafasi tarixida axloq masalasi qadimiy yunon faylasuflaridan boshlab markaziy mavzulardan biri bo’lib kelgan. Sokrat axloqni bilim bilan tenglashtirgan: “Kim yaxshini bilsa, u yomonlik qilmaydi” degan g’oya orqali u axloqiylikni aqliy anglash bilan bog’laydi. Suqrot “axloqiy bilim – bu fazilat” deb ta’kidlab, insonni o’zini bilishga chaqirgan. Aristotel esa “Nikomax axloqi” asarida axloqiy fazilatlarni “me’yorga amal qilish” orqali hosil bo’ladigan odat sifatida talqin etadi. Uning fikricha, axloqiy kamolot “oltin o’rtalik”ni saqlashdir — masalan, jasurlik qo’rqoqlik va manmanlik orasidagi o’rta fazilatdir. Aflotun va Arastu axloqni insonning “eng oliy maqsadi – baxtga erishish” bilan bog’lagan. Arastu nazarida axloqiylik “me’yorli xulq” – haddan oshmaslikdir.

Uyg’onish davridan boshlab axloqiy tafakkur inson erkinligi va individual javobgarlik masalalari bilan bog’liq holda rivojlandi. Immanuil Kant axloqni insonning ichki “burch qonuni” sifatida izohlab, “axloqiy harakatning haqiqiy qiymati niyatda yotadi” deydi. Kant uchun axloqiylik — bu insonning o’z ichki aqliga binoan harakat qilishi, tashqi mukofot yoki jazodan mustaqil holda to’g’rini tanlashdir.

Yangi davr G’arb falsafasida esa axloqiy qadriyatlar ratsionalizm va individualizm tamoyillari asosida shakllandi. I.Kant “Axloq metafizikasi” asarida axloqni inson aqlining ichki qonuni – “katta imperativ” orqali izohlaydi: “Inson harakatlari universal qonun sifatida qabul qilinishi mumkin bo’lgan tarzda bo’lishi kerak”.

J.S.Mill va B.Bentam kabi faylasuflar esa axloqni utilitarizm nuqtai nazaridan talqin etganlar: axloqiy xatti-harakatning mezoni — u keltirgan “eng katta baxt”dir. Shu bois G’arb axloqiy tizimi ko’proq aql, erkin tanlov va foydalilik tamoyillariga tayangan.

Shuningdek, J.Lokk, J.-J.Russo, I.G.Fihte, J.Dewey kabi faylasuflar tarbiyada inson erkinligi, tajriba, tanqidiy fikrlash tamoyillariga urg’u berganlar. G’arb pedagogikasida shaxsning ijtimoiy moslashuvi emas, balki haxsiy o’zligini rivojlantirish ustuvor hisoblanadi.

Sharq va G’arb axloqiy qadriyatlari o’rtasida quyidagi umumiy jihatlar mavjud:

- Insonparvarlik – har ikkala madaniyatda insonning sha’ni, qadr-qimmati yuksak qadrlanadi.

- Adolat va halollik – barcha axloqiy tizimlarda bu qadriyatlar jamiyat barqarorligining asosi sifatida qaraladi.

- Tarbiyaning muhim o’rni – inson axloqini shakllantirishda ta’lim-tarbiya hal qiluvchi omil deb qaraladi.

- Jamiyatga xizmat qilish – shaxs o’z manfaatlarini ijtimoiy farovonlik bilan uyg’unlashtirishi kerak [9].

Sharq va G’arb axloqiy qadriyatlaridagi asosiy farqlarni esa qiyidagi jadvalda ko’rishimiz ham mumkin:

Asosiy mezon	*Sharq an’analari*	*G’arb an’analari*
Axloq manbai	Ilohiylik, diniy ta’limot, an’ana	Aql, individual tajriba, ratsionalizm
Tarbiya maqsadi	Komil insonni yetishtirish (axloq va ruhiy poklik)	Mustaqil, erkin fikrlovchi shaxsni shakllantirish
Jamiyat va shaxs munosabati	Jamoa manfaatlari ustuvor	Shaxs erkinligi ustuvor
Tarbiya shakli	Oila, jamoa, diniy muhit orqali	Maktab, ilmiy-tajriba va demokratik muhit orqali
Axloqiy nazorat	Ijtimoiy urf-odatlar, diniy me’yorlar	Qonun, shaxsiy mas’uliyat va ijtimoiy ong

Shu tarzda, Sharq axloqiy tizimi an’anaviy va jamoaviy, G’arb tizimi esa ratsional va individualistik xarakterga ega. Biroq bugungi globallashuv davrida bu tizimlar tobora yaqinlashib bormoqda: G’arbda Sharqona ruhiyatga, Sharqda esa zamonaviy pedagogika va huquqiy qadriyatlarga qiziqish ortmoqda.

Umuman olganda, Sharq falsafasida axloq va tarbiya insonning ichki dunyosini poklash, jamiyat bilan uyg’unlikda yashashga qaratilgan bo’lsa, G’arb falsafasida u insonning mustaqil fikrlashi, erkin tanlov qilishi va o’z harakati uchun javob berish qobiliyatiga tayanadi.

Tarbiya masalalari borasidagi Sharq va G’arb pedagogik an’analarida o’ziga xoslikni ko’rishimiz mumkin.

Tarbiya masalasi Sharq falsafasida axloqiy komillikka erishish vositasi sifatida ko’riladi. Yusuf Xos Hojib “Qutadg’u bilig” asarida tarbiyani davlat va jamiyat barqarorligining asosi sifatida ta’riflaydi [5]. Islom pedagogikasida esa tarbiya “ta’lim” (bilim berish) va “tazkiya” (poklanish) jarayonlarini o’z ichiga oladi. Tarbiya faqat tashqi xatti-harakatni emas, balki inson qalbini, niyatini ham shakllantirishga qaratilgan.

G’arb falsafasida esa tarbiya insonni aqliy va axloqiy jihatdan mustaqil shaxs sifatida shakllantirish vositasi hisoblanadi. J.-J.Russo “Emil yoki tarbiya haqida” asarida bolani tabiiy yo’l bilan, erkinlik asosida tarbiyalash g’oyasini ilgari surgan. Shuningdek, D.Dyuining pragmatik pedagogikasi ta’lim va tarbiyani amaliy hayot tajribasi bilan bog’laydi, bunda axloqiy qadriyatlar ijtimoiy tajriba orqali shakllanadi.

Bugungi kunda Sharq va G’arb axloqiy qadriyatlari o’rtasidagi chegaralar nisbatan yumshamoqda. UNESCO, UNICEF kabi xalqaro tashkilotlar tomonidan ilgari surilgan “inson huquqlari”, “barqaror taraqqiyot”, “umumiy axloqiy qadriyatlar” konsepsiyalari universal etika tamoyillarini shakllantirmoqda.

Masalan, O’zbekiston ta’lim tizimida ham Sharqona axloqiy qadriyatlar – ota-onaga hurmat, kattalarni e’zozlash, va G’arb pedagogikasining ilg’or yondashuvlari – tanqidiy fikrlash, ijodkorlik uyg’unlashmoqda. Bu esa global axloqiy madaniyatni shakllantirishga xizmat qilmoqda.

Xulosa qilib aytsak, Sharq va G’arb axloqiy qadriyatlari o’z ildizlari, shakllanish manbalari hamda tarbiya tizimlari jihatidan farq qilsa-da, ularning asosiy maqsadi – insonni ma’naviy va ijtimoiy barkamol mavjudot sifatida tarbiyalashdir. Sharqning ma’naviyatga tayanadigan axloqi bilan G’arbning aql va erkinlikka asoslangan axloqiy konsepsiyalari bir-birini boyitadi. Shu bois zamonaviy ta’lim va tarbiya jarayonida bu ikki madaniyatning ijobiy jihatlarini uyg’unlashtirish insoniyat taraqqiyotining muhim omillaridan biridir.

Sharq va G’arb falsafalarida axloqiy qadriyatlar va tarbiya masalalariga yondashuv bir-birini to’ldiruvchi, lekin o’ziga xos yo’nalishlarga ega. Sharqda axloqiylik — bu ichki uyg’unlik, ma’naviy poklanish, jamiyat bilan birlikni ifodalaydi; G’arbda esa — aql, erkinlik va shaxsiy javobgarlikka asoslanadi. Hozirgi globallashuv sharoitida ushbu ikki yo’nalishning sintezi — ya’ni Sharqning ruhiy-ma’naviy qadriyatlari bilan G’arbning erkinlik va ratsionalizm tamoyillarini uyg’unlashtirish — insoniyat tarbiyasining zamonaviy yo’nalishini belgilab bermoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. – T.: Xalq merosi. 1993.
2. Rahimov M. Axloq falsafasi asoslari. Toshkent: Yangi asr avlodi. 2018.
3. Toshov, A. Sharq falsafasida axloqiy qadriyatlar va inson kamoloti muammosi. – T.: O’zbekiston Milliy universiteti nashriyoti. 2021.
4. Sharofiddinov A. Sharq falsafasi va ma’naviyat manbalari. Toshkent: TDPU nashriyoti. 2020.
5. Юсуф Хос Ҳожиб. Қутадғу билик. Тошкент: Фан. 1971.

SHARQ FALSAFASIDA AXLOQIY QADRIYATLAR: INSON KAMOLOTI VA UYG’UNLIK G’OYASI MASALALARI

Abdullayev Bahromjon Xoshimdjonovich
KUAF Taix va ijtimoiy fanlar kafedrasi katta o’qituvchisi
e-mail: abdullayev.baxromjon.72@gmail.com
Qasimova Dilnoza Numan qizi
KUAF Tarix (masofaviy ta’lim) yo’nalishi
1-bosqich 25-08 guruh talabasi

Annotatsiya: ushbu tezisda Sharq falsafasidagi axloqiy qadriyatlar, ya’ni inson kamoloti va uyg’unlik g’oyasi masalalari haqida fikr yuritilgan. Bunda sharq falsafasida axloqiy qadriyatlarning shakllanishi, inson kamoloti g’oyasi, uyg’unlik g’oyasi va ijtimoiy axloq kabi masalalar tahlil qilingan hamda xulosalar chiqarilgan.

Kalit so’zlar: Sharq falsafasi, vedalar, konfutsiychilik, daosizm, zardushtiylik, islom falsafasi, insonparvarlik, ijtimoiy axloq, inson kamoloti.

Аннотация: В данной тезисе рассматриваются вопросы нравственных ценностей в восточной философии, а именно идеи совершенства человека и гармонии. В статье анализируется формирование нравственных ценностей в восточной философии, идеи совершенства человека, идеи гармонии и социальной этики, а также делаются выводы.

Ключевые слова: восточная философия, Веды, конфуцианство, даосизм, зороастризм, исламская философия, гуманизм, социальная этика, совершенство человека.

Abstract: This thesis examines moral values in Eastern philosophy, specifically the ideas of human perfection and harmony. It analyzes the development of moral values in Eastern philosophy, the ideas of human perfection, harmony, and social ethics, and draws conclusions.

Keywords: Eastern philosophy, Vedas, Confucianism, Taoism, Zoroastrianism, Islamic philosophy, humanism, social ethics, human perfection.

Sharq falsafasi insonni borliqning markazida emas, balki uning bir qismi sifatida ko’radi. Sharq tafakkurida axloq, kamolot va uyg’unlik tushunchalari o’zaro uzviy bog’liq bo’lib, ular insonning ruhiy-axloqiy yetukligi, ijtimoiy burchi va tabiat bilan uyg’un hayot kechirish g’oyalariga asoslanadi. Sharq donishmandlari — Konfutsiy, Lao Szi Zardusht, Forobiy, Ibn Sino, Al-G’azzoliy kabi mutafakkirlar ta’limotlarida axloqiy komillikka erishish, insonni ichki tinchlik va ijtimoiy mas’uliyat ruhida tarbiyalash g’oyasi markaziy o’rinni egallaydi.

Avvalo, Sharq falsafasida axloqiy qadriyatlarning shakllanishiga to’htalib o’tamiz. Sharq falsafasi tarixan qadimgi sivilizatsiyalar — Hindiston, Xitoy, Eron va Markaziy Osiyo zaminida shakllangan. Unda axloqiy qadriyatlarning manbai diniy-falsafiy tizimlar (vedalar, konfutsiychilik, daosizm, zardushtiylik, islom falsafasi) bilan chambarchas bog’liq.

Masalan, Zardushtiylikda ezgulik va yovuzlik o'rtasidagi kurash inson axloqiy tanlovining markazida turadi. "Avesto"da insonning hayotdagi vazifasi — "haqiqatni (asha) tanlab, yolg'ondan (druj) saqlanish" deb talqin etiladi. Bu fikr Sharq falsafasida axloqiy dualizmning ilk shakli sifatida ko'riladi.

Hind falsafasida esa axloqiy kamolot karma va dharma g'oyalariga asoslanadi. Insonning har bir amali uning kelajak hayotini belgilaydi. "Bhagavad Gita"da axloqiy yetuklik – nafaqat tashqi xatti-harakatlar, balki ichki poklik va o'z nafsini nazorat qilish bilan belgilanadi [5.11].

Xitoy falsafasida, ayniqsa Konfutsiy ta'limotida, axloqiy qadriyatlar ijtimoiy tartib va insonlararo munosabatlar uyg'unligini ta'minlovchi asos sifatida qaraladi. Konfutsiyning "Jen" (insonparvarlik), "Li" (odob), "Xiao" (ota-onaga hurmat) g'oyalari orqali jamiyatda axloqiy uyg'unlikni saqlash zarurligi ta'kidlanadi.

Sharq tafakkurining markaziy tamoyilida inson kamoloti g'oyasi turadi: Sharq mutafakkirlari insonni ruhiy-axloqiy yetuklikka eltuvchi yo'lni izlaganlar. Bu jarayon "kamolot", "ma'naviyat", "hikmat", "nafsni poklash" kabi tushunchalar bilan ifodalangan[2].

Abu Nasr Forobiy inson kamolotining asosini bilim va axloqiy fazilatlarda ko'radi. U "Fozil shahar ahli" asarida ideal jamiyatni axloqiy jihatdan yetuk, ma'naviy barkamol shaxslar boshqarishi kerakligini ta'kidlaydi. Forobiy uchun haqiqiy baxt — bu ruhiy uyg'unlik, ya'ni insonning o'z aqli, vijdoni va amaliy faoliyatini uyg'unlashtira olishi[5.11-12].

Ibn Sino "Axloq risolasi"da inson kamolotini uch bosqichda ko'rsatadi: jismoniy, ruhiy va aqliy. Uningcha, haqiqiy komillikka aql va axloq uyg'unligi orqali erishiladi.

Al-G'azzoliy esa insonning kamoloti tasavvufiy yo'l bilan — nafsni poklash, Allohga yaqinlashish orqali ro'y berishini aytadi. U "Ihyo ulum ad-din" asarida axloqiy fazilatlar (sabr, shukr, halollik, kamtarlik)ni inson qalbining go'zalligi sifatida izohlaydi [4].

Sharq falsafasida insonning kamoloti (uyg'unlik g'oyasi va ijtimoiy axloq) faqat individual ruhiy holat emas, balki ijtimoiy uyg'unlik bilan bog'liq. Inson — jamiyat, tabiat va ilohiylik o'rtasida uyg'unlik yaratuvchi mavjudot sifatida talqin etiladi.

Konfutsiychilikda "Jen" g'oyasi orqali inson boshqalar bilan uyg'unlikda yashashi lozimligi, o'z xatti-harakatlarini ijtimoiy me'yorlarga moslashtirishi zarurligi ko'rsatiladi.

Islom falsafasida esa uyg'unlik "adl" (adolat), "ihson" (yaxshilik) va "tasamuh" (bag'rikenglik) tushunchalari orqali ifodalanadi. Qur'onda inson "eng go'zal qiyofada yaratilgan" (At-Tin, 4) bo'lsa-da, u axloqiy sinovlardan o'tib, o'zini mukammallashtirishi kerakligi ta'kidlanadi.

Markaziy Osiyo mutafakkirlari — Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yassaviy, Alisher Navoiy asarlarida insonning komillikka intilishi, jamiyatdagi totuvlik va adolatni ta'minlash g'oyalari ustuvor o'rin tutadi. Masalan, Navoiy "Mahbub ul-qulub"da insoniy fazilatlarni (halollik, saxovat, adolat) eng oliy axloqiy qadriyat sifatida ko'rsatadi [1].

Inson kamoloti va zamonaviy Sharq falsafasining ahamiyati xususida aytadigan bo'lsak, bugungi globallashuv davrida Sharq falsafasidagi axloqiy qadriyatlar va uyg'unlik g'oyalari insoniyat uchun muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ma'naviy tanazzul, ekologik muvozanat buzilishi va ijtimoiy ziddiyatlar sharoitida Sharq tafakkurining "inson va tabiat uyg'unligi", "ichki tinchlik" va "axloqiy mas'uliyat" tamoyillari universal ahamiyat kasb etadi [3].

Sharq falsafasidagi bu qadriyatlar insonni nafaqat ijtimoiy mavjudot, balki ruhiy-axloqiy mavjudot sifatida anglashga, har bir insonning o'zini tarbiyalashi orqali jamiyatdagi uyg'unlikni ta'minlashga da'vat etadi.

Xulosa shundan iborat-ki, Sharq falsafasida axloqiy qadriyatlar — inson kamolotining asosi, jamiyatning ma'naviy poydevori hisoblanadi. Uyg'unlik g'oyasi esa inson, tabiat va jamiyat o'rtasidagi mutanosiblikni ta'minlovchi tamoyildir. Forobiy, Ibn Sino, Al-G'azzoliy, Konfutsiy, Zardusht kabi mutafakkirlarning axloqiy merosi bugungi kunda ham dolzarb bo'lib, insonni ma'naviy uyg'onish va ijtimoiy mas'uliyat sari yetaklaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Алишер Навоий. Махбуб ул-қулуб. – Т.: Фан. 1991.
2. Rahimov M. Axloq falsafasi asoslari. – T.: Yangi asr avlodi. 2018.

3. Toshov, A. Sharq falsafasida axloqiy qadriyatlar va inson kamoloti muammosi. – T.: O'zbekiston Milliy universiteti nashriyoti. 2021.
4. Sharofiddinov A. Sharq falsafasi va ma'naviyat manbalari. – T. TDPU nashriyoti. 2020.
5. Shermuxamedova N.A. Inson falsafasi. – T.: Innovatsiya-Ziyo. 2021.

MADANIY MEROSNI SAQLASHNING IJTIMOIY-FALSAFIY AHAMIYATI

Abdullayev Bahromjon Xoshimdjonovich
KUAF Taix va ijtimoiy fanlar kafedrasi katta o'qituvchisi
e-mail: abdullayev.baxromjon.72@gmail.com
Sobirjonova Mukarramoy O'tkirbek qizi
KUAF Kompyuter injiniringi yo'nalishi
1-bosqich 25-04 guruh talabasi

Annotatsiya: ushbu tezisda madaniy merosni saqlashning ijtimoiy-falsafiy ahamiyati masalasnii yoritishga harakat qiligan. Shuningdek, madaniy meros tushunchasining falsafiy talqini, madaniy meros funksiyalari, globallashuv va madaniy meros o'rtasidagi ziddiyatlar kabi masalalarga to'htalib o'tilgan.

Kalit so'zlar: madaniy meros, me'morchilik yodgorliklari, san'at asarlari, qadimiy qo'lyozmalar, urflar, marosimlar, tilda, musiqada, xalq og'zaki ijodi, qadriyatlar.

Аннотация: В данной тезисе предпринята попытка пролить свет на социально-философское значение сохранения культурного наследия. В ней также затрагиваются такие вопросы, как философская интерпретация понятия культурного наследия, функции культурного наследия и противоречия между глобализацией и культурным наследием.

Ключевые слова: культурное наследие, памятники архитектуры, произведения искусства, древние рукописи, обычаи, ритуалы, язык, музыка, устное народное творчество, ценности.

Abstract: This thesis attempts to shed light on the socio-philosophical significance of cultural heritage preservation. It also addresses issues such as the philosophical interpretation of the concept of cultural heritage, the functions of cultural heritage, and the contradictions between globalization and cultural heritage.

Keywords: cultural heritage, architectural monuments, works of art, ancient manuscripts, customs, rituals, language, music, oral folklore, values.

Har bir xalqning o'ziga xos madaniy merosi uning tarixiy xotirasi, milliy o'zligining ildizidir. Madaniy merosni asrab-avaylash masalasi nafaqat tarixiy yoki madaniy, balki chuqur ijtimoiy-falsafiy mazmunga ham ega. U xalqning o'zligini anglash, madaniy identitetni mustahkamlash, jamiyatda ma'naviy barqarorlikni ta'minlashda hal qiluvchi o'rin tutadi. Shu bois, bugungi globallashuv jarayonida madaniy merosni saqlash masalasi nafaqat tarixchilar, balki faylasuflar, sotsiologlar va siyosatshunoslar uchun ham dolzarb masalalardan biridir.

Avvalo, madaniy meros tushunchasining falsafiy talqiniga to'htalib o'tamiz. Falsafiy nuqtayi nazardan, madaniy meros insoniyatning tarixiy tajribasini, estetik qadriyatlarini, axloqiy tamoyillarini, bilim va ma'naviyat yutuqlarini o'zida mujassamlashtiradi. U ijtimoiy mavjudot sifatida inson faoliyatining natijasi bo'lib, o'zida "moddiy" (me'morchilik yodgorliklari, san'at asarlari, qadimiy qo'lyozmalar) va "nomoddiy" (urflar, marosimlar, tilda, musiqada, xalq og'zaki ijodida aks etgan qadriyatlar) qatlamlarni birlashtiradi [2].

Faylasuf M.Xaydeggerning fikricha, madaniy meros insonning "bo'lish" tajribasini o'zida aks ettiradi, chunki u insoniyat tafakkurining tarixiy izlarini saqlaydi va o'zini anglash imkonini beradi. Shuningdek, Sharq falsafasida ham meros "hikmatning davomiyligi" sifatida talqin qilinadi. Ibn Sino, Al-Farobiy va Beruniy asarlarida madaniy merosni saqlash - ilm va axloqiy qadriyatlarni uzluksiz rivojlantirish vositasi sifatida ko'riladi.

Madaniy meros jamiyat hayotida bir nechta asosiy ijtimoiy funksiyalarni bajaradi:

- Identifikatsion (o'zlikni anglash) - madaniy meros orqali xalq o'z tarixiy ildizlarini anglaydi, milliy g'urur shakllanadi.

- Tarixiy xotira - u jamiyatni o'tmish tajribasidan o'rganishga, xatolarni takrorlamaslikka undaydi.

- Integrativ - madaniy meros turli ijtimoiy guruhlarni umumiy qadriyatlar atrofida birlashtiradi.

- Tarbiyaviy - yosh avlodni milliy ruhda tarbiyalashda beqiyos ahamiyatga ega.

Shu nuqtai nazardan, O'zbekiston Respublikasida qabul qilingan "Madaniy merosni muhofaza qilish to'g'risida"gi qonun (2019-yil 13-may) ushbu merosni nafaqat saqlash, balki uni ijtimoiy hayotga faol integratsiya qilishni ham nazarda tutadi [6].

Globallashuv va madaniy meros o'rtasidagi ziddiyatni tanqidiy tahlil shundan iboratki, globallashuv jarayoni madaniy merosni saqlash bilan bog'liq yangi muammolarni yuzaga keltirdi. Texnologik modernizatsiya, urbanizatsiya, ommaviy madaniyatning kengayishi milliy merosni siqib chiqarmoqda. Shu jihatdan, faylasuf J.Habermas ta'kidlaganidek, "madaniyatni tijoratlashtirish" hodisasi insoniyatning ma'naviy merosiga tahdid solmoqda.

Tanqidiy yondashuvga ko'ra, madaniy merosni saqlash faqat yodgorliklarni ta'mirlash emas, balki "ma'naviy rezistentlik" - ya'ni g'oyaviy va axloqiy immunitetni shakllantirishdir. Aks holda, milliy qadriyatlar global iste'mol madaniyatida yo'qolib ketish xavfi ostida qoladi.

Sharq falsafasida madaniy meros ko'proq axloqiy-milliy qadriyatlarning uzluksizligi sifatida talqin qilinadi. Masalan, Konfutsiy ta'limotida o'tmishni hurmat qilish, ajdodlar an'analarini davom ettirish ijtimoiy uyg'unlikning asosi deb qaralgan.

G'arb falsafasida esa, merosni saqlash ko'proq estetik va institutsional qadriyat sifatida talqin qilinadi. E.Kassirer madaniyatni "ramzlar tizimi" sifatida tahlil qilib, uning uzluksiz rivoji uchun "madaniy tafakkur"ni yangilab borish zarurligini ta'kidlagan.

Zamonaviy falsafiy tahlilda esa, madaniy merosga ijtimoiy dinamika nuqtayi nazaridan qarash keng tarqalgan. Ya'ni, meros — bu muzey eksponati emas, balki jamiyatning o'zini qayta kashf etish jarayoni sifatida talqin etiladi.

O'zbekiston mustaqillikka erishgach, madaniy merosni tiklash masalasi davlat siyosatining ustuvor yo'nalishiga aylandi. Xususan, "Yangi O'zbekiston" davrida Buxoro, Xiva, Samarqand kabi shaharlarning tarixiy markazlari UNESCO ro'yxatiga kiritildi, "O'zbekiston madaniy merosi jahon to'plamlarida" loyihasi amalga oshirildi.

Falsafiy jihatdan bu jarayon milliy uyg'onishning aksi bo'lib, xalqning o'z tarixiy o'zligini qayta anglash jarayonini ifodalaydi. Bu borada Prezidentimiz Sh. Mirziyoyevning "Madaniy merosni asrash - bu o'zligimizni, tariximizni, kelajagimizni asrashdir" degan so'zlari bu falsafaning mazmunini chuqur ochib beradi [12].

Bugungi kunda madaniy merosni saqlashda quyidagi falsafiy tamoyillar muhimdir:

- Antropotsentrik tamoyil - merosni inson ma'naviy kamoloti bilan bog'lash;

- Dialogik tamoyil - turli madaniyatlar o'rtasida muloqot orqali merosni boyitish;

- Innovatsion tamoyil - merosni saqlashda raqamli texnologiyalarni qo'llash (virtual muzeylar, 3D modellar);

- Barqarorlik falsafasi - madaniy, ekologik va iqtisodiy qadriyatlar o'rtasida uyg'unlikni ta'minlash.

Madaniy merosni saqlash masalasi bo'yicha xulosa shundan iboratki, madaniy merosni saqlash masalasi faqat tarixiy yoki estetik jarayon emas, balki chuqur ijtimoiy-falsafiy muammo hisoblanadi. U jamiyatning o'zligini anglash, milliy g'oya va ma'naviy qadriyatlar tizimini shakllantirish, insonni barkamol etish jarayonida bevosita ishtirok etadi. Shu sababli, madaniy merosni saqlash - bu faqat o'tmishni emas, balki kelajakni himoya qilish, madaniyatlar dialogini davom ettirish, milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg'unligini ta'minlashdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

2. Назаров Қ. Маданий мерос ва фалсафа: назарий асослар. - Тошкент: Фан. 2019.

6. O'zbekiston Respublikasi Qonuni. "Madaniy merosni muhofaza qilish to'g'risida". (2019-yil 13-may). - Тошкент: 2019.

12. Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси. - Тошкент: Ўзбекистон. 2021.

THE HISTORY OF MAHALLA IN INDEPENDENT UZBEKISTAN: YESTERDAY AND TODAY

Xudoyberdiev Sherzodbek Rahimberdi o'gli
Andijan State Technical Institute
Assistant of the Department of Languages and Humanities
khudoyberdievsherzodbek@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari yoxud mahalla institutining jamiyatimizdagi roli, shuningdek hukumat tomonidan aholiga ko'rsatilayotgan moddiy yordamlarni o'z vaqtida, adolatli taqsimlash, aholiga zarur ko'rsatmalarni yetkazish va ularning o'rnatilgan cheklovlarga amal qilishini ta'minlashda ham mahallalar muhim roli, o'tmishi va bugunini qanday qiyofada aks etirish mumkinligi tahlil qilinib, Prezidentimiz boshchiligidagi davlatimizda olib borilayotgan islohotlar haqida batafsil tanishib chiqishingiz mumkin.

Kalit so'zlar: mahalla, o'zini-o'zi boshqarish organlari, fuqarolik, jamiyat, demokratiya, inson, tizim, xodimlar, huquq, erkinlik, gorizontal boshqaruv, jamoatchilik nazorati.

Аннотация: В данной статье анализируется роль органов самоуправления граждан или института махалли в нашем обществе, а также важная роль махаллей в своевременном и справедливом распределении материальной помощи, предоставляемой правительством населению, доведении необходимых инструкций до населения и обеспечении соблюдения установленных ограничений, как можно отразить их прошлое и настоящее, и вы можете подробно ознакомиться с реформами, проводимыми в нашей стране под руководством нашего Президента.

Ключевые слова: махалля, органы самоуправления, гражданство, общество, демократия, человек, система, сотрудники, право, свобода, горизонтальное управление, общественный контроль.

Abstract: In this article, it is indicated that the bodies of citizen self-government or the role of the mahalla institution in our society, as well as by the government timely, fair provision of material assistance to the population distribution, delivery of necessary instructions to the population and their installation makhallas also play an important role in ensuring compliance with restrictions, analyzing how the past and present can be reflected, Reforms carried out in the country under the leadership of the President of our country You can learn more about.

Keywords: mahalla, self-governing bodies, citizenship, society, democracy, human, system, employees, rights, freedom, horizontal governance, public control.

In the more than three thousand years of historical experience of the development of our statehood, diverse centers of culture, customs, and traditions have been formed not only in Uzbekistan, but also in Central Asia. First of all, regarding the word mahalla itself, the word "Mahalla" comes from the Arabic word "Mahallun," which means a place of residence, guzar, residential area. Mahalla (Arabic place, place, space) - 1) a socio-territorial part of the city, which includes a certain territory and the population of which is united into one community, based on self-government;

2) residents of the same territory, members of the mahalla;

3) the mahalla council and the building where it is located, the mahalla guzar.

The history of our homeland testifies to the fact that the mahalla is a tested form of collective life in Uzbek society. The history of the mahalla goes back to ancient times. According to historical sources, 8 families lived in Sopollitepa, a monument of the Bronze Age. Later, more than 100 families joined them on the basis of the patriarchal system. The community of large families was headed by elders, who, in turn, were united into a council of elders. Consequently, the mahalla in ancient times functioned as a unique form of local government.

The history of our homeland testifies to the fact that the mahalla is a tested form of collective life in Uzbek society. The history of the mahalla goes back to ancient times. According to historical sources, 8 families lived in Sopollitepa, a monument of the Bronze Age. Later, more

than 100 families joined them on the basis of the patriarchal system. The community of large families was headed by elders, who, in turn, were united into a council of elders. Consequently, the mahalla in ancient times functioned as a unique form of local government. Also, one of the most widespread forms of democracy is citizen self-government, and the main link in the system of citizen self-government in Uzbekistan is the mahalla [1,18]. Therefore, to better understand citizens' self-governance, we must first study the history of mahallas, which are its main link, because without knowing true history, it is impossible to understand one's identity. In the work "History of Bukhara" by Narshakhi alone, it is noted that there were more than a thousand mahallas in the territory of our country, which became even more cultured during the Samanid period. History testifies to the flourishing of prosperity and bustling life in the neighborhood during the Timurid era. Based on professional unity, artisans, blacksmiths, carpenters, bakers, craftsmen, etc., representatives of a certain field lived as a common street or mahalla. Self-governing bodies were formed several centuries ago as a political organization performing the functions of the lower local government of the state. French politician, leader of the Conservative Order Party, **As Alexis de Tocqueville noted, "a nation can form a free government even without collective institutions, but it cannot have a true spirit of freedom"**[2,25].

Local self-government (municipal - "municipal" (English) self-government) refers to the management of local affairs carried out by elected bodies representing the powers of the population of a particular administrative-territorial unit and their administrative apparatus. After gaining state independence, Uzbekistan set itself the goal of creating a system of self-governing bodies that corresponded to the traditions and values of national statehood and formed the will of the people. With the help of measures implemented by the state as the main reformer in further deepening reforms to liberalize self-governing bodies, the foundation of civil society was formed in our republic.

Citizens' participation in legal and political decision-making processes, as an important democratic value, is implemented in any country through self-governing bodies. Therefore, the democratization of society and achieving the status of a state governed by the rule of law largely depends on the degree to which citizens participate in self-governance. Meanwhile, the essence of democracy is expressed in the ability of citizens to self-govern, in which legal decisions are made on the basis of the majority vote, taking into account the equality of their participation in the decision-making process and the protection of the rights of the minority in these processes.

Main Part: After our state gained independence, much work worth a century has been accomplished in a short time. Thanks to independence, from the beginning of 1992, neighborhoods (quarter) were also granted the status of mahallas, and processes were carried out to analyze the history of each of their territories and give them appropriate names. In the new mahallas, citizens' assemblies were held, and the aksakals and executive secretaries of the mahallas were elected. After Uzbekistan gained state independence, the attitude towards the mahalla changed radically, and the system of local self-government was fundamentally reformed. We believe that this can also be seen in the separation of the system of citizens' self-government bodies from the system of state power. Noting that the independence of the activities of citizens' self-governing bodies in state and public administration is enshrined in the Constitution of the Republic of Uzbekistan (Articles 34, 36, 40, 69, 127) and in Chapter 21 of our Basic Law "Fundamentals of Local State Power. Citizens' self-governing bodies" [3,12]. This, naturally, indicates that citizens' self-governing bodies are not part of the system of state bodies. Also, Article 127 of the Constitution fully enshrines the concept and system of citizens' self-government bodies, as well as their main tasks and status.

The number of mahalla management staff has increased from 5 to 7 due to the addition of a tax officer and a social worker. More than 70 issues, including material assistance and loans, will be resolved in the mahalla itself. Also, in order to further expand the powers of mahalla chairpersons, Shavkat Miromonovich Mirziyoyev, at a video conference on strengthening the mahalla-based work system held on September 26, 2023, emphasized that all socio-economic programs in the country are being implemented locally based on the needs of the population, for

which mahallas are given many powers, organizational and financial opportunities. It was noted that a "system of five" has been created, consisting of the chairman of the mahalla, the assistant khokim, a women's activist, a youth leader, and a prevention inspector. The President specifically criticized the lack of criteria for evaluating the activities of mahalla workers, the fact that they spend a lot of time "filling out paperwork" and attending meetings. After this meeting, Shavkat Mirziyoyev noted that the "five" in the mahalla has been transformed into the "seven" of the mahalla, and it is time to work in a new system. It was noted that a representative of the tax inspectorate and a social worker would be included among them. In addition, more than 70 issues, such as the registration of low-income families, the allocation of material assistance, subsidies, and loans, are resolved collectively in the mahalla itself, without going to district and regional departments. It was also determined that the funds of the Employment, Entrepreneurship, and Home-Based Work Funds would be distributed to each mahalla [4,30].

As the head of our state Sh.Mirziyoyev noted, today, when the times are changing rapidly, we need to turn mahallas into an institution that truly solves problems, if we want to find solutions to current problems, our only way is to develop the mahalla, to increase the prestige of the mahalla system, to justify the trust of people and make them satisfied with us. "How many papers did teachers and doctors have to process? We've almost eliminated them. "Bureaucracy should be completely eliminated in the mahalla system," the head of state emphasized at a meeting with mahalla activists. Shavkat Mirziyoyev emphasized the need to learn how to work with the "mahalla seven" for the sustainable development of the social sphere. "At the beginning of 2024, the head of state, expressing his opinion that we will create a good system and people will be satisfied with us, gave a high assessment of mahalla organizations and expressed great confidence. In their reports, they confidently stated that the introduction of republican, regional, and district (city) councils for the development and support of mahallas will lead the Republican Council - the Prime Minister, and regional councils - the khokims, and local councils will be the main decisive factor in finding financial sources for solving issues raised by the "mahalla seven" [5,12].

"Since the day our head of state was elected president, he has been solving all issues in the mahalla, together with our people. This system is being gradually developed, and additional forces and opportunities are being sought. Recognizing that this is both a mandate and a responsibility, the head of our state emphasized: "Neighborhoods are the greatest foundation of our state," and preserving them is our primary task. It would not be an exaggeration to say that the implementation of the "Mahallabay" system in remote areas of our country is an integral continuation of reforms in this area. Because in our country, the role of the "Mahalla Seven," consisting of the chairman of the mahalla, the assistant to the hokim, the women's activist, the youth leader, the prevention inspector, the tax officer, and the social worker, is increasing in the implementation of all socio-economic programs based on the needs of the population. The past short period has shown that the introduction of these positions in mahallas will help solve a number of important issues facing the state civil service at the primary level and improve results. In addition, a number of institutional changes have been implemented in mahallas.

These are:

– The Ministry for Mahalla and Family Support - the authorized body of state administration for supporting the family, women and the elderly, and establishing cooperation with citizens' assemblies - has been created;

- The Research Institute "Mahalla and Family" was created;

- a system of interaction based on the principle of "Mahalla - sector - public reception - mahalla" has been introduced in identifying and solving appeals and problems of the population;

- A new system based on the principle of "Prosperous and Safe Mahalla" has been introduced;

- 3 positions of deputy chairmen of mahallas for law enforcement, family, women's affairs, socio-spiritual and landscaping, household plots and entrepreneurship have been introduced in mahallas;

- 2 positions of advisor to the chairman of the mahalla on youth affairs, on the affairs of the elderly and veterans, operating on a voluntary basis, have been introduced;

- commissions for strengthening family values, social support and public control in mahallas, groups "Keksalar Maslahati," councils "Buvijonlar Maktabi," and the public structure "Ota-onalar Universiteti" have been created. Also, within the framework of the new system based on the principle of "Prosperous and Safe Mahalla":

- A "Action Formula" aimed at preventing offenses in mahallas has been developed and implemented;

- a system of monthly reporting of prevention inspectors to the population of the mahalla has been established;

- the positions of assistant prevention inspectors for the protection of public order, inspector for working with women were introduced;

- Every Thursday of the week is designated as "Crime Prevention Day"; - Public Control Centers were established in 8,233 mahallas; - mahalla activists reconciled more than 21 thousand families on the verge of divorce;

- a decrease in the number of crimes in mahallas was achieved. In particular, in 2016, the number of mahallas where no crimes were committed was 9.5% (853), and in 2019 - 33.7% (3,074).In the first 5 months of 2020, 69.9% (6,393) of mahallas did not commit crimes. A number of works have also been carried out to strengthen the material and technical base of mahallas, including:

- 730 mahalla offices were newly built, 2,343 were reconstructed and repaired;

- Libraries were created in 4,178 mahalla buildings;

- "Mahalla Center" complexes have been built in 102 district and city centers;

- 2,078 makhallas with furniture, 1,249 with computers, 2,965 with telephone communication.

provided,

1,293 have been connected to the Internet; - citizens' gatherings have the opportunity to use the resources of the National Library of Uzbekistan online;

- more than 1,300 creative clubs were established in mahallas [6,20].

Measures have also been defined to provide comprehensive support to employees working in the system.In particular, the salaries of mahalla institute employees have been increased threefold, the "Mahalla Iftikhori" badge has been established, and to date, 632 activists have been awarded this badge. March 22 was designated as "Mahalla Workers' Day." The attention paid to mahallas, the laws and regulations related to the system, increase their responsibility. Indeed, most mahallas now have all the necessary conditions for more effective work than ever before. Recently, there have been reports in the media and social networks about those who are dissatisfied with the activities of mahallas, about injustice and corruption in the system. Especially during the quarantine period, the dissatisfaction of mahallas with the distribution of social assistance funds intensified. This, in turn, undermined the trust in mahallas that conscientiously fulfill their duties. Self-governing bodies should draw the right conclusions from such situations, reduce mistakes, serve the interests of the population within the framework of their powers, in a word, become a bridge between the state and society.

In accordance with the Decree of the President of the Republic of Uzbekistan Sh.Mirziyoyev dated February 18, 2020, "On Measures to Improve the Socio-Spiritual Atmosphere in Society, Further Support the Mahalla Institute, and Raise the System of Work with Families and Women to a New Level," the Ministry of Mahalla and Family Support has been designated as the authorized state governing body for developing and implementing a unified state policy in the field of supporting families, women, and the elderly, protecting their rights and legitimate interests, and establishing cooperation with citizens' self-governing bodies. Taking into account the role of the mahalla institution in the socio-spiritual life of our society, March 22 was declared "Mahalla System Workers' Day" in order to support workers in the field.

Conclusion. In the Decree of the President of the Republic of Uzbekistan dated February 18, 2020 No. UP-5938 "On Measures to Improve the Socio-Spiritual Atmosphere in Society, Further Support the Mahalla Institute, and Raise the System of Work with Families and Women to a New Level," an important aspect related to the guarantee of the activities of the mahalla cannot be overlooked. Paragraph 1 of the Decree guarantees the inadmissibility of interference by state bodies and their officials in the activities of citizens' self-government bodies. According to paragraph 6 of the Decree of the President of the Republic of Uzbekistan dated December 21, 2023 No. UP-209 "On Measures Aimed at Radically Enhancing the Role of the Mahalla Institute in Society and Ensuring its Work as the First Link in Solving the Problems of the Population," the implementation of the "Mahalla Budget" system throughout the republic from March 1, 2024, is defined as a separate new legal guarantee. Also, amendments were made to Article 23 of the Law "On Citizens' Self-Government Bodies," extending the term of office of the chairperson of the citizens' assembly from 3 to 5 years [6.12]. From our early civilization to the present day, we have formed and developed the mahalla institution. Even in the first days of our independence, this system was not neglected. However, in today's rapidly developing era, discoveries and various changes are being implemented. Such positive changes are, of course, beneficial for the whole society, but, unfortunately, such a society is not without its vices. Such vices or crimes cause great harm to all developing countries and societies. As these problems develop year after year, the status and functions of the mahalla institution cannot remain unchanged. Because we should view the mahalla institution not just as an organizational unit, but as an organization in the social movement that constantly develops and can quickly and fully provide practical assistance to individuals and citizens in their appeals, solving the problems of the people. Think about how the mahalla, considered as a single subsystem, becomes the starting point and subsequently the hotbed of all problems and offenses. This small link alone prevents many crimes, while also helping those who commit crimes adapt to society and find their place.

As noted in Shavkat Mirziyoyev's book "Modern Times and New Uzbekistan" in a separate chapter entitled "Neighborhood - a small homeland within the Motherland," "the development of society and the state can be ensured through sustainable development based on the principle of "individual - household - neighborhood - district - region - republic"" [7,24]. Deep research and reforms carried out in the sphere through sustainable development based on this principle will further enhance the role of the mahalla institution in the future.

Mahallas have ample opportunities for the comprehensive study, respect, and consistent promotion of historically formed national and spiritual values. Therefore, from the very first days of independence in Uzbekistan, great importance was attached to the mahalla institution, and on September 12, 1992, the Decree "On the Establishment of the Republican Mahalla Fund" and in September 1993, the Law "On Citizens' Self-Government Bodies" were adopted. The mahalla is a non-governmental organization that shapes the spiritual and moral world, ideological consciousness and thinking of its inhabitants, human relationships, family relations, and solves problems and issues such as neighborly relations and in-lawship. It is a social phenomenon that can find solutions to any existing problems through such methods as kindness, compassion, and mercy in maintaining peace and tranquility, solidarity, and cooperation in the life of society [8,16].

The mahalla is, first of all, a healthy social environment. Public opinion, which has a strong influence here, regulates the behavior and relationships of mahalla residents based on justice and moral criteria. There are great opportunities for the effective organization of spiritual work among the general public in the mahalla. In particular, the mahalla plays an invaluable role in the development of such qualities as national values, kindness, and the struggle for the honor of the country.

Organization of educational and literacy courses within the mahalla, providing assistance to families in need during traditional holidays and events, encouraging talented youth, enhancing the status of women, preventing various injustices, using the capabilities of the media, improving interaction with other institutions, through the organization of joint events, improvement of relations between representatives of different generations, promotion is carried out in a unique

way. That is, social advertising, organizing various courses, establishing psychological services for families, supporting entrepreneurship, widespread use in the upbringing of youth based on fathers' advice, conducting a psycholinguistic analysis of information provided through the media, and monitoring public opinion in mahallas are also important as means of influence [9.22]. Then the mahalla will become a truly effective center for educating citizens, primarily young people, in the spirit of the national idea.

References

1. А.Токвиль Сторый порядок и революция – М:1991. В 1 – 18.
2.https://uz.wikipedia.org/wiki/Foydalanuvchi:Dinara_Muhitdinova/Aleksis_de_Tokvi. В 2 – 25.
3. https://lex.uz/docs/-6445145. В 3 – 12.
4. https://www.gazeta.uz/uz/2023/09/27/mahalla/. В 4 – 30.
5. Shavkat Mirziyoyevning “Hozirgi zamon va Yangi O‘zbekiston”. Toshkent: “O‘zbekiston” nashriyoti,2024. В 5 – 12.
6. https://lex.uz/docs/-4740345. В 6 – 12.
7. https://lex.uz/docs/-2156899. В 7 – 24.
8. Sh.Mirziyoyev. Yangi O‘zbekiston Strategiyasi.-Toshkent: “O‘zbekiston” nashriyoti,2021. В 8 – 16.
9. https://oyina.uz/uz/teahause/1950. В 9 – 22.

G’ARB FALSAFASIDA AXLOQIY QADRIYATLAR: AQL, ERKINLIK VA JAVOBGARLIK MASALALARI

Abdullayev Bahromjon Xoshimdjonovich
KUAF Taix va ijtimoiy fanlar kafedrasi katta o’qituvchisi
(e-mail: abdullayev.baxromjon.72@gmail.com
Sobirova Nargizaxon Nazirjonovna
KUAF Tarix (masofaviy ta’lim) yo’nalishi
1-bosqich 25-03 guruh talabasi

Annotatsiya: ushbu tezisda g’arb falsafasida axloqiy qadriyatlar: aql, erkinlik va javobgarlik masalalari haqida fikr yuritishga harakat qilingan. Shuningdek, G’arbning antik davrdagi axloqiy tafakkuri, O’rta asr G’arb falsafasida, ya’ni xristian falsafasida erkinlik va javobgarlik, axloq masalalari kabilarga ham to’htalib o’tilgan.

Kalit so’zlar: g’arb falsafasi, antik davr, axloqiy qadriyatlar, aql, erkinlik, javobgarlik.

Аннотация: В данной тезисе предпринята попытка осмыслить вопросы моральных ценностей в западной философии: разум, свобода и ответственность. В ней также затрагиваются вопросы западной моральной мысли в античности, свободы и ответственности в средневековой западной философии, а именно христианской философии, и морали.

Ключевые слова: западная философия, античность, моральные ценности, разум, свобода, ответственность.

Abstract: This thesis attempts to understand issues of moral values in Western philosophy: reason, freedom, and responsibility. It also touches on issues of Western moral thought in antiquity, freedom and responsibility in medieval Western philosophy, specifically Christian philosophy, and morality.

Keywords: Western philosophy, antiquity, moral values, reason, freedom, responsibility.

Axloqiy qadriyatlar insoniyat madaniyatining asosiy tayanchlaridan biridir. G’arb falsafasi tarixida aql, erkinlik va javobgarlik tushunchalari nafaqat axloqiy tafakkurning, balki ijtimoiy va siyosiy g’oyalarning ham markazida turadi. Antik davrdan to zamonaviy davrgacha bo’lgan falsafiy tafakkurda bu qadriyatlar insonning mavjudligi, erkin tanlov qilish huquqi va axloqiy qarorlar uchun javobgarlikni anglash bilan uzviy bog’liqdir.

G’arbning antik davrdagi axloqiy tafakkurining poydevori, axloqiy qadriyatlar va aqlning ustuvorligi qadimgi Yunon falsafasida yaratilgan. Sokrat axloqiy bilimni insonning ichki mohiyatini anglash orqali topish mumkinligini ta’kidlagan. Uning “bilim - ezgulik” tamoyiliga ko’ra, inson yomonlikni bilimsizlik tufayli qiladi. Shu sababli, aql - axloqiy hayotning mezoni sifatida talqin etilgan [1.91-92].

Platon esa aqlni ruhning eng oliy qismi deb biladi. U “Davlat” asarida adolatli jamiyat va shaxsning asosini ruhiy uyg’unlikda - aql, g’azab va istak o’rtasidagi muvozanatda ko’radi. Aristotel esa “Nikomax axloqi”da axloqiy fazilatlarni “oltin o’rtalik” tamoyiliga asoslaydi, ya’ni insonning aqliy faoliyati orqali me’yorni topish axloqiy mukammallikni ta’minlaydi [3.66-67].

O’rta asr G’arb falsafasida, ya’ni xristian falsafasida erkinlik va javobgarlik, axloq masalalari diniy e’tiqod bilan bog’liq holda shakllandi. Avreliy Avgustin inson irodasining erkinligini gunoh bilan bog’lab, insonning axloqiy tanlovi Xudoning marhamati bilan amalga oshishini ilgari suradi. Shu bilan birga, inson o’z xatti-harakatlari uchun javobgarlikni o’z zimmasiga oladi.

Foma Akvinskiy esa inson aqlini ilohiy qonunlarni anglash vositasi sifatida talqin etadi. Unga ko’ra, erkinlik insonning tabiiy huquqi bo’lib, aql orqali ezgulikni tanlash imkonini beradi Shu tarzda G’arb axloqiy tafakkurida aql va imon o’rtasidagi uyg’unlik muhim o’rin egallaydi [2.101].

Yangi davr falsafasida aql va axloqning ratsional asoslanishi sifatida inson tafakkuri markaziy o’ringa chiqdi. R.Dekartning “Men o’ylayman, demak, mavjudman” g’oyasi aqlni mavjudlikning asosi sifatida belgilab berdi. Shu davrda axloq masalalari ham ratsional asosda tahlil qilina boshlandi.

Immanuil Kant axloqiy qadriyatlarni “aql amri” (kategorik imperativ) orqali asoslab, insonni maqsad sifatida qadrlash zarurligini ta’kidladi. Kantga ko’ra, haqiqiy axloq insonning ichki burch hissi va aqliy qaroriga asoslanadi, tashqi ta’sirlarga emas. Shu sababli, u erkinlikni insonning axloqiy o’zini o’zi boshqarish qobiliyati deb talqin etadi. Javobgarlik esa bu erkinlikning tabiiy oqibatidir [2.112-113].

XX–XXI asr falsafasida falsafasida erkinlik va javobgarlikning yangi talqinlari: ekzistensializm, fenomenologiya va analitik falsafa oqimlari axloqiy qadriyatlarni insonning shaxsiy tajribasi orqali qayta talqin etadi.

J.-P.Sartr “inson erkinlikka mahkum” degan mashhur g’oyasi bilan insonning erkin tanlovi - uning mavjudlik mohiyatini belgilashini ta’kidlaydi. Biroq bu erkinlik cheksiz emas; u doimo javobgarlik bilan bog’liqdir. Sartrga ko’ra, inson har bir tanlovi orqali butun insoniyat nomidan javob beradi.

A.Kamyu esa inson hayotining ma’nosizligiga qaramay, axloqiy tanlov qilish zarur deb hisoblaydi. Uning “absurd” falsafasi insonning axloqiy javobgarligini hayotning ma’nosizligiga qarshi qo’yadi. Shunday qilib, zamonaviy G’arb falsafasida erkinlik - bu insonning ma’nosiz dunyoda ma’no yaratish jarayonidir.

G’arb falsafasida bu uch tushuncha - aql, erkinlik, javobgarlik - insonning axloqiy mavjudligini ifodalaydi. Aql insonni tanlov qilishga, erkinlik tanlov imkoniyatini beradi, javobgarlik esa tanlov oqibatlarini anglashni talab etadi. Kantdan Sartrgacha bo’lgan falsafiy yo’nalishlarda bu bog’liqlik insoniyat axloqiy tafakkurining asosiy g’oyasi sifatida namoyon bo’ladi [5.47].

Xulosa qilib aytadigan bo’lsak, G’arb falsafasida axloqiy qadriyatlar - insonning aql bilan asoslangan erkin faoliyati va o’z tanlovi uchun javob berish qobiliyati bilan belgilanadi. Sokratdan Sartrgacha bo’lgan falsafiy yo’l shuni ko’rsatadiki, axloq inson tabiatining eng muhim belgisi sifatida doimo aql va erkinlik asosida shakllanib kelgan. Bugungi global axloqiy muammolar sharoitida bu qadriyatlar insoniyatning barqaror rivojlanishi uchun hamon dolzarbligini saqlab qolmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Madayeva Sh.O. va boshq. Falsafa. – T.: 2019.
2. Tulenov J. va boshq. Falsafa. – T.: Innovatsiya-Ziyo. 2022.

3. Falsafa (1-qism). Darslik. – T.: Fan va texnologiya. 2019.
4. Фалсафа қисқача изоҳли луғат. – Т.: Шарқ. 2004.
5. Shermuxamedova N. Falsafa. – T.: IDRIS ABDURAUF NASHR. 2020.

MADANIY MEROSNI SAQLASH VA RIVOJLANTIRISH: ILMIY-NAZARIY ASOSLAR VA AMALIY MUAMMOLAR

Abdullayev Bahromjon Xoshimdjonovich
KUAF Taix va ijtimoiy fanlar kafedrasi katta o'qituvchisi
abdullayev.baxromjon.72@gmail.com
Toxirjonova Ummu Gulsum,
O'lmasbekova Musharraf
KUAF FTO' (o'zbek tili) yo'nalishi
1-bosqich 25-18 guruh talabalari

Annotatsiya: ushbu tezisda madaniy merosni saqlash va rivojlantirish: ilmiy-nazariy asoslar va amaliy muammolar haqida fikr yuritilgan. Shuningdek, madaniy meros tushunchasining nazariy asoslari, madaniy merosni saqlashning ijtimoiy-falsafiy ahamiyati, madaniy merosni saqlashdagi muammolar tahlil qilingan hamda xulosalar chiqarilgan.

Kalit so'zlar: madaniy meros, tarixiy xotira, milliy o'zlik, me'moriy yodgorliklar, ashyoviy topilmalar, san'at asarlari, til, urf-odat, og'zaki ijod, an'anaviy bilimlar.

Аннотация: В тезисе рассматриваются вопросы сохранения и развития культурного наследия: научно-теоретические основы и практические проблемы. Анализируются теоретические основы понятия культурного наследия, социально-философское значение сохранения культурного наследия, проблемы сохранения культурного наследия, делаются выводы.

Ключевые слова: культурное наследие, историческая память, национальная идентичность, памятники архитектуры, материальные находки, произведения искусства, язык, обычаи, устное творчество, традиционные знания.

Abstract: This thesis examines the preservation and development of cultural heritage, including its scientific and theoretical foundations and practical challenges. It analyzes the theoretical foundations of the concept of cultural heritage, the socio-philosophical significance of preserving cultural heritage, and the challenges of preserving cultural heritage, and draws conclusions.

Keywords: cultural heritage, historical memory, national identity, architectural monuments, material finds, works of art, language, customs, oral tradition, traditional knowledge.

Madaniy meros - har bir xalqning tarixiy xotirasi, milliy o'zligining asosiy ko'rsatkichi va ma'naviy boyligidir. U o'z ichiga moddiy (me'moriy yodgorliklar, ashyoviy topilmalar, san'at asarlari) hamda nomoddiy (til, urf-odat, og'zaki ijod, an'anaviy bilimlar) unsurlarni qamrab oladi. Madaniy merosni saqlash va rivojlantirish masalasi bugungi globallashuv davrida dolzarb bo'lib, u nafaqat milliy identitetni mustahkamlash, balki xalqaro madaniy aloqalarni rivojlantirishda ham muhim omil hisoblanadi [3].

Avvalo, madaniy meros tushunchasining nazariy asoslari haqida fikr yuritamiz. Madaniy meros tushunchasi XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab ilmiy muomalaga keng kirib keldi. UNESCO (1972) tomonidan "Jahon madaniy va tabiiy merosini muhofaza qilish to'g'risida"gi konvensiya qabul qilinishi bu sohada global me'yorlarni belgilab berdi. Shu bilan birga, "nomoddiy madaniy meros" atamasi 2003-yilda qabul qilingan alohida konvensiyada mustahkamlandi.

O'zbekistonda madaniy merosni saqlash masalasi davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biridir. Shu nuqtai nazardan, O'zbekiston Respublikasida qabul qilingan "Madaniy merosni muhofaza qilish to'g'risida"gi qonun (2019-yil 13-may) ushbu merosni nafaqat saqlash, balki uni ijtimoiy hayotga faol integratsiya qilishni ham nazarda tutadi [1].

“Madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish to’g’risida”gi Qonun (2001-yil, yangi tahrirda 2020-yil) bu borada huquqiy asoslarni yaratdi [2].

Madaniy merosning nazariy tahlilida ikki asosiy yondashuv mavjud:

- Konservatsion (saqlashga yo’naltirilgan) yondashuv, ya’ni mavjud merosni imkon qadar asl holatda saqlab qolish;

- Dinamik (rivojlantirishga yo’naltirilgan) yondashuv, ya’ni merosni zamonaviy sharoitda qayta talqin etish va ijtimoiy hayotga faol kiritish.

Madaniy merosni saqlashning ijtimoiy-falsafiy ahamiyati haqida garirganimizda, madaniy meros – bu xalqning tarixiy xotirasi va ijtimoiy identitetini shakllantiruvchi omil unutmasligimiz shart. U orqali insoniyat o’z o’tmishini anglaydi va kelajakka yo’nalish beradi. Falsafiy jihatdan madaniy meros inson va jamiyat o’rtasidagi vaqt uzviyligini ta’minlaydi.

Masalan, O’zbekiston hududidagi qadimiy shaharlar - Samarqand, Buxoro, Xiva, Shahrisabz - nafaqat arxitektura yodgorliklari, balki madaniyatlar chorrahasi sifatida Sharq va G’arb uyg’unligini ifodalaydi. Shu bois, madaniy merosni saqlash nafaqat tarixni asrash, balki hozirgi jamiyatning ma’naviy yangilanishi uchun ham zarurdir.

Madaniy merosni saqlashdagi muammolarni tanqidiy tahlil qiladigan bo’lsak, madaniy merosni asrash bo’yicha xalqaro va milliy darajada sezilarli ishlar amalga oshirilgan bo’lsa-da, bu jarayonda bir qator muammolar mavjud:

Birinchidan, texnik va infratuzilmaviy muammolar: ko’plab tarixiy obidalar texnik jihatdan yemirilgan holatda. Restavratsiya ishlarining sifatsizligi, tarixiy manbalarga asoslanmagan yangilanishlar madaniy merosning asl qiyofasiga zarar yetkazmoqda [4].

Ikkinchidan, institutsional va huquqiy nomuvofiqliklar: ba’zida mahalliy hokimiyat organlari tomonidan turizmni rivojlantirish maqsadida obidalar atrofida yangi qurilishlar amalga oshiriladi. Bu esa tarixiy landshaftning buzilishiga olib keladi. UNESCOning 2022-yilgi hisobotida Buxoro va Shahrisabz shaharlarida bu holat qayd etilgan.

Uchinchidan, nomoddiy merosning yo’qolib borishi: globallashuv va ommaviy madaniyat ta’sirida xalq og’zaki ijodi, milliy qo’shiqlar, amaliy san’at turlari yo’qolish xavfi ostida. Yosh avlod orasida milliy qadriyatlarga qiziqishning pasayishi madaniy uzviylikni susaytiradi [5].

Madaniy merosni rivojlantirishning zamonaviy yo’nalishlari borasida quyidagilarni ayta olamiz:

- Raqamlashtirish va axborot texnologiyalari. So’nggi yillarda raqamli muzeylar, 3D modellashtirish va virtual rekonstruksiya loyihalari madaniy merosni saqlashda yangi bosqichni boshlab berdi. Masalan, O’zbekiston Fanlar akademiyasi huzuridagi “Madaniy meros” markazi tomonidan 2023-yilda 500 dan ortiq yodgorliklar raqamli formatda arxivlashtirildi.

- Mahalliy jamoalar ishtiroki. UNESCO tavsiyasiga ko’ra, merosni saqlash jarayonida faqat mutaxassislar emas, balki mahalliy aholining o’zi ham faol ishtirok etishi lozim. Chunki ular bu merosning bevosita sohiblaridir.

- Turizm orqali merosni iqtisodiy faollashtirish. Madaniy meros obyektlari asosida barqaror turizmni rivojlantirish orqali nafaqat iqtisodiy foyda, balki madaniy ongni yuksaltirish ham mumkin. Ammo bu jarayon “savdo uchun tarix”ga aylanmasligi kerak - ya’ni meros tijoratlashtirilganda, uning ma’naviy qiymati saqlanishi lozim.

Xulosa qiladigan bo’lsak, madaniy merosni saqlash va rivojlantirish - bu faqat tarixiy obidalarni restavratsiya qilish emas, balki millatning ma’naviy, falsafiy, ijtimoiy ongini mustahkamlash jarayonidir. Zamonaviy texnologiyalar, huquqiy mexanizmlar va jamoatchilik ishtirokini uyg’unlashtirish orqali madaniy merosni asrashning yangi modelini yaratish zarur.

Shuningdek, tanqidiy tahlil shuni ko’rsatadiki, madaniy meros siyosati faqat himoya emas, balki rivojlantirish konsepsiyasi asosida yo’lga qo’yilishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O’zbekiston Respublikasi Qonuni. Madaniy merosni muhofaza qilish to’g’risida. - Toshkent: Adliya vazirligi. 2019.

2. O’zbekiston Respublikasi Qonuni. Madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish to’g’risida. - Toshkent: Adliya vazirligi. 2020.

3. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat - yengilmas kuch. - Toshkent: O’zbekiston. 1996.
4. Yusupov R. O’zbekiston madaniy merosini saqlashning zamonaviy muammolari. - Toshkent: Fan. 2021.
5. Hasanova D. Nomoddiy meros va yoshlar madaniy identiteti. // O’zbekiston madaniy hayoti. 2019. №3, 22–27-betlar.

SHARQ VA G’ARB FALSAFASIDA INSON TABIATIGA QARASHLAR: UMUMIYLIK VA FARQLAR

Abdullayev Bahromjon Xoshimdjonovich
KUAF Taix va ijtimoiy fanlar kafedrasi katta o’qituvchisi
(e-mail: abdullayev.baxromjon.72@gmail.com
Usmonova Feruza Soibjonovna
KUAF Tarix (masofaviy ta’lim) yo’nalishi
1-bosqich 25-01 guruh talabasi

Annotatsiya: ushbu tezisda Sharq va G’arb falsafasida inson tabiatiga oid falsafiy qarashlar asosiy o’rinda bo’lganligi haqida fikr yuritilgan. Bunda Sharq va G’arb falsafasida insonga bo’lgan qarashlar, umumiylik va farqlar tahlil qilingan hamda xulosalar chiqarilgan.

Kalit so’zlar: Sharq va G’arb falsafasi, biologik va ijtimoiy mavjudot, ruh, aql, axloq, uyg’unlik, iymon, kosmotsentrizm, teotsentrizm, ratsionalizm, empirizm, idealizm, ekzistensializm.

Аннотация: В тезисе рассматриваются основные философские взгляды на природу человека в восточной и западной философии. В статье рассматриваются взгляды на человека в восточной и западной философии, их сходства и различия, а также делаются выводы.

Ключевые слова: восточная и западная философия, биологическое и социальное существование, дух, разум, мораль, гармония, вера, космоцентризм, теоцентризм, рационализм, эмпиризм, идеализм, экзистенциализм.

Abstract: This thesis examines the main philosophical views on human nature in Eastern and Western philosophy. The article examines views of human nature in Eastern and Western philosophy, their similarities and differences, and draws conclusions.

Keywords: Eastern and Western philosophy, biological and social existence, spirit, reason, morality, harmony, faith, cosmocentrism, theocentrism, rationalism, empiricism, idealism, existentialism.

Inson tabiatiga oid falsafiy qarashlar qadimdan Sharq va G’arb tafakkurining markazida bo’lgan. Har ikki sivilizatsiyada inson mohiyati, maqsadi va dunyodagi o’rni masalasi turlicha talqin etilgan. Sharq falsafasi ko’proq axloq, ma’naviyat va uyg’unlik tamoyillariga asoslangan bo’lsa, G’arb falsafasi insonni ratsional mavjudot, tafakkur subyekti sifatida talqin etadi. Ushbu maqolada Sharq va G’arb falsafalarida inson tabiatiga doir qarashlarning umumiy jihatlari hamda farqli xususiyatlari tahlil qilinadi.

Birinchidan, Sharq falsafasida inson tabiatiga qarashlar haqida gapiradigan bo’lsak, Sharq falsafasida inson tabiatining markazida ruhiy komillik, ma’naviy poklanish va tabiat bilan uyg’unlik g’oyalari turadi.

Inson tabiatiga oid falsafiy izlanishlar Sharq tafakkurining eng muhim yo’nalishlaridan biridir. Sharq falsafasi insonni faqat biologik yoki ijtimoiy mavjudot sifatida emas, balki ruhiy, axloqiy va metafizik jihatdan yuksak mavjudot sifatida talqin etadi. Bu qarashlar hind, xitoy, islom, buddaviy va fors falsafiy an’analarida o’ziga xos tarzda namoyon bo’ladi. Sharq tafakkurida inson mohiyati — bu nafaqat “borliqning bir qismi”, balki “borliq bilan uyg’un yashovchi mavjudot”dir.

Sharq falsafasida inson tabiatini tushunishning asosi — ruh, aql, axloq va uyg’unlik tushunchalariga tayanadi.

Masalan, hind falsafasida inson tabiatining markazida Atman (ruhiy “Men”) tushunchasi turadi. Upanishadlar ta’limotiga ko’ra, insonning chin mohiyati bu jismiy tanada emas, balki oliy haqiqat — Brahman bilan birlashuvchi ruhiy mohiyatdadir. Hind falsafasida, masalan, inson “atman” (ruh) sifatida ko’riladi va u oliy haqiqat – “Brahman” bilan birlashishga intiladi. Bu yondashuvda insonning mohiyati jismoniy emas, balki metafizik xarakterga ega. Demak, insonning tabiati ruhiy ozodlik (moksha) sari yo’naltirilgan mavjudlik sifatida ko’riladi [2.57].

Buddaviylikda esa inson tabiatida anatman — “men”ning yo’qligi g’oyasi ilgari suriladi. Insonning asl mohiyati doimiy o’zgarishdagi ong jarayonidir, shuning uchun najot (nirvana) — bu “men” g’oyasidan xalos bo’lishdir. Bu yondashuv insonni o’zini bilish va ichki uyg’unlikka erishish orqali mukammallikka yetkazadi.

Xitoy falsafasida, ayniqsa Konfutsiychilik va Daosizmda inson tabiatiga axloqiy va tabiiy yondashuv birlashadi. Konfutsiy insonni tabiatan yaxshilik sari moyil mavjudot deb bilgan. Unga ko’ra, insonning mohiyati “jen” (insonparvarlik), “li” (odob) va “i" (adolat) kabi axloqiy fazilatlar orqali namoyon bo’ladi [2.62-63]. Xitoy falsafasida Konfutsiy insonni axloqiy mavjudot sifatida ko’rgan. Unga ko’ra, insonning tabiatidagi yaxshilik va mehr-oqibat ijtimoiy uyg’unlikning asosi hisoblanadi. Aksincha, Lao Szi ta’limotida inson tabiatining asosi “Dao” — tabiat qonuni bilan uyg’un yashashdadir. U insonni tabiatni zabt etuvchi emas, balki uning oqimiga moslashuvchi mavjudot sifatida tasvirlaydi. Lao Szining “Dao” konsepsiyasi esa insonni tabiiy oqim – “Dao”ga mos yashashga chaqiradi, bu esa ichki tinchlikni anglatadi [4.34].

Islom falsafasida inson tabiatining markazida aql, ruh va iymon birligi turadi. Islom falsafasida inson Alloh yaratgan eng mukammal mavjudot sifatida talqin etiladi: “Biz Odam farzandlarini aziz qildik” (Qur’on, Isro surasi, 70-oyat). Forobiy, Ibn Sino, G’azzoliy singari mutafakkirlar inson tabiatini aql va ruhning uyg’unligi deb bilganlar [1]. Insonning vazifasi – aqlni kamolga yetkazish, nafsni poklash va jamiyatga foyda keltirishdir.

Shunigdek, Forobiy, Ibn Sino, G’azzoliy va Ibn Rushd asarlarida inson tabiatining ma’naviy-axloqiy kamoloti, aqlni poklash va ilohiy haqiqatga yaqinlashish masalalari chuqur tahlil qilingan [1].

Sharq falsafasidagi turli maktablar inson mohiyatini turlicha talqin qilgan bo’lsa-da, ularni birlashtiruvchi jihatlar mavjud. Quyidagi jadval asosida qiyosiy tahlilni ko’ramiz:

Falsafiy an’ana	*Inson tabiatining mohiyati*	*Maqsad (komillik yo’li)*	*Asosiy vosita*
Hind falsafasi (Vedanta)	Ruhiy mohiyat – Atman	Moksha (ozodlik)	Meditatsiya va bilim
Buddaviylik	O’zgaruvchan ong, anatman	Nirvana	Ongni tozalash, o’zini bilish
Xitoy (Konfutsiy, Lao Szi)	Axloqiy yaxshilik, tabiiy uyg’unlik	Ichki uyg’unlik, tartib	Axloq, muvozanat
Islom falsafasi (Forobiy, Ibn Sino)	Ruh va aql birligi	Ilohiy haqiqatni anglash	Aql, iymon, axloq

Ushbu tahlildan ko’rinadiki, Sharq falsafasida inson tabiatining markazida ruhiy mukammallik yotadi. Inson o’zining oliy maqsadiga — kamolot, nirvana yoki haqiqatni anglash orqali yetadi.

Sharqda insonning tabiatini bilish — bu uni o’z ichki dunyosi orqali anglashdir. G’arbda esa bilish ob’yektiv tahlil, tajriba va tafakkur orqali amalga oshadi. Shu jihatdan Sharq falsafasi intuitiv va axloqiy, G’arb esa ratsional va analitik yondashuvga ega.

Demak, Sharq falsafasida inson tabiatiga oid qarashlar insonni komillikka eltuvchi yo’lni belgilaydi. Hind falsafasida bu ozodlik, buddaviylikda — ruhiy xotirjamlik, xitoy tafakkurida — axloqiy uyg’unlik, islom falsafasida esa — ilohiy haqiqatni anglashdir. Barcha yo’nalishlarda inson o’z “men”ini yengib, oliy haqiqat bilan uyg’unlikka erishadi. Shu bois, Sharq falsafasi insonni nafaqat bilish ob’yekti, balki ma’naviy kamolot subyekti sifatida ko’radi.

Ikkinchidan, G’arb falsafasida inson tabiatiga qarashlar haqida quyidagilarni ayta olamiz. G’arb falsafasida inson tabiatiga yondashuv tarix davomida sezilarli o’zgarishlarga uchradi.

G’arb falsafasi inson tabiatini anglash masalasini qadimgi yunon davridan boshlab asosiy falsafiy muammolardan biri sifatida ko’rib kelgan. Har bir davrda — antik, xristian, yangi davr va zamonaviy falsafada — inson mohiyatiga berilgan talqin o’ziga xos xususiyatga ega bo’lgan. G’arb tafakkurida insonni anglash yo’lidagi evolyutsiya, bir tomondan, aql va erkinlik, ikkinchi tomondan, axloqiy mas’uliyat va ekzistensial tanlov o’rtasidagi dialektik ziddiyatni aks ettiradi. Quyida ushbu davrlarning asosiy falsafiy konsepsiyalari qiyosiy tahlil qilinadi.

- Antik davr falsafasida inson tabiatiga qarashlarda Sokrat, Platon va Aristotel inson mohiyatiga oid g’arb tafakkurining poydevorini yaratganlar [3.92-95].

Sokratning “O’zingni bil” g’oyasi insonning ichki dunyosini anglash zaruratini ifodalaydi. U insonning mohiyatini axloqiy o’zini anglash bilan bog’lagan. Platon esa insonni ruh va tana dualizmi asosida talqin qilib, ruhni abadiy, tanani esa o’tkinchi deb hisoblagan. Aristotel bu qarashni muvozanatlashtirib, insonni ratsional mavjudot (zoon logikon) sifatida ta’riflagan va aqlni inson tabiatining eng oliy belgisi deb bilgan .

Qadimgi Yunon falsafasida inson “mikrokosmos” – koinotning kichik modeli sifatida qaralgan. Sokrat “O’zingni bil” shiori orqali insonni o’z aqli va vijdoni orqali anglashga undagan. Platon insonni “ruh va tana” dualizmi asosida talqin etgan, Aristotel esa insonni “ratsional mavjudot” sifatida belgilagan .

Antik davr falsafasida inson tabiatiga qarashlar kosmotsentrik bo’lib, inson koinotning bir qismi, ammo u orqali koinot o’zini anglay oladigan mavjudot sifatida tushunilgan.

- O’rta asr G’arb falsafasida inson tabiatiga diniy yondashuv bo’yicha Xristian falsafasida insonning tabiati gunohkorlik va najotga intilish orqali tushuntirilgan. Avgustin va Foma Akvinskiy insonni Xudoning timsoli deb bilgan, ammo u faqat ilohiy inoyat orqali mukammallikka erishadi, degan g’oyani ilgari surganlar.

Xristian falsafasi davrida inson tabiatiga oid masalalar ilohiylik va gunohkorlik konsepsiyasi bilan chambarchas bog’langan.

Avreliy Avgustin inson tabiatini “gunoh orqali zaiflashgan, ammo Xudoning inoyati orqali najot topuvchi mavjudot” sifatida ko’radi.

Foma Akvinskiy esa insonni “Xudoning timsoli” (imago Dei) deb bilib, uning aqliy va axloqiy tabiati orqali Yaratuvchiga yaqinlashishini ta’kidlaydi [3.101].

Bu davrda insonning mohiyati teotsentrik yondashuv asosida talqin qilinadi, ya’ni inson o’zini anglashni emas, balki Xudoga xizmat qilishni oliy maqsad deb biladi. Shu sababli insonning tabiatiga yondashuv metafizik va diniy xarakterda bo’lgan.

- Yangi davr falsafasida inson tabiatining ratsional talqini. Yangi davr falsafasida inson tabiatiga bo’lgan qarashlar ratsionalizm va empirizm asosida yangicha mazmun kasb etdi. Dekart insonni “fikrlovchi substansiya” sifatida tasvirlasa, Hobbs uni “tabiatan o’z manfaatini ko’zlovchi mavjudot” deb bilgan. Keyingi davrlarda, Kant insonni axloqiy qonunga itoat etuvchi erkin mavjudot deb belgilagan. Ekzistensialistlar (Kamyu, Sartr, Xaydegger) esa inson tabiatini erkinlik, tanlov va mas’uliyat bilan bog’lashgan.

XVII–XVIII asrlardan boshlab inson tabiatiga yondashuv ilmiy-ratsionalistik asosda yangicha mazmun kasb etdi.

Rene Dekart insonni “fikrlovchi substansiya” (res cogitans) sifatida ta’riflab, “Men o’ylayman, demak, men mavjudman” (Cogito ergo sum) degan mashhur iborasi orqali insonning mohiyatini tafakkur bilan bog’ladi [3.105-106].

Tomas Hobbs esa insonni “tabiatan o’z manfaatini ko’zlovchi mavjudot” sifatida tavsiflagan va uning tabiiy holatini “hamma hammaga qarshi urush” deb ta’riflagan.

Jon Lokk insonni “tajriba orqali shakllanuvchi ong” deb bilib, uning tabiatini ijtimoiy-muomala natijasi sifatida talqin qilgan.

Bu davrda inson tabiatiga qarashlar empirik va individualistiktus oldi. Inson o’z hayotining subyekti, bilim va ijtimoiy munosabatlarning markaziga aylandi.

- Nemis klassik falsafasida inson tabiatining axloqiy va erkinlik jihatlari. Immanuil Kant inson tabiatini axloqiy ong va erkinlik asosida talqin etgan. Unga ko'ra, inson "axloqiy qonunga itoat etuvchi erkin mavjudot"dir. Kant uchun insonning mohiyati — avtonomiya, ya'ni o'z xatti-harakatlarini ongli tarzda boshqarish qobiliyatidir [7.113-114].

Gegel esa insonni tarixiy jarayonning subyekti deb bilgan va uning tabiatini "ruhning o'zini anglash jarayoni" sifatida talqin etgan.

Nemis klassik falsafasida inson tabiatiga qarashlar ratsionalizm va idealizm uyg'unligida shakllanib, insonning aqliy va ijtimoiy mohiyati markazga qo'yilgan.

- Zamonaviy G'arb falsafasida inson tabiatining ekzistensial talqini. XX asr falsafasida inson tabiatiga yondashuv ekzistensializm, psixoanaliz va postmodernizm oqimlarida yangicha mazmun oldi.

Martin Xaydegger insonni "dunyo ichida mavjud bo'lgan mavjudot" (Dasein) sifatida ta'riflab, insonning mohiyati uning mavjudlik tarzida, ya'ni dunyoga tashlangan holatida namoyon bo'ladi, deydi.

Jan-Pol Sartr insonni "avval mavjud, keyin o'z mohiyatini yaratadigan mavjudot" sifatida ko'rsatgan. Uning fikricha, inson tabiatini hech qanday tayyor mohiyat belgilamaydi — inson o'z tanlovi orqali o'zligini yaratadi.

Zamonaviy G'arb falsafasida inson tabiatiga sub'yektiv erkinlik, ma'naviy mas'uliyat va mavjudlikning individual tajribasi asosida yondashiladi.

G'arb falsafasida inson tabiatiga qarashlarning qiyosiy tahlili:

Falsafiy davr	*Inson mohiyatining asosiy talqini*	*Asosiy vakillar*	*Yo'nalish*
Antik davr	Aql va axloqiy komillik orqali mukammallikka erishish	Sokrat, Platon, Aristotel	Kosmotsentrizm
O'rta asrlar	Inson – Xudoning yaratuvchilik timsoli	Avgustin, Akvinskiy	Teotsentrizm
Yangi davr	Tafakkur va tajriba orqali o'zini anglash	Dekart, Lokk, Hobbs	Ratsionalizm/Empirizm
Nemis klassik falsafasi	Axloqiy ong va erkinlik orqali o'zlikni belgilash	Kant, Gegel	Idealizm
Zamonaviy falsafa	Erkinlik va mas'uliyat orqali o'z mohiyatini yaratish	Xaydegger, Sartr	Ekzistensializm

Demak, bu davrlar tahlili shuni ko'rsatadiki, G'arb falsafasida inson tabiatiga yondashuv metafizik-diniy asosdan ratsional, individual va ekzistensial talqinga o'tgan.

G'arb falsafasi inson tabiatini anglashda aqliy bilishdan mavjudlikni boshdan kechirish darajasigacha bo'lgan evolyutsiyani bosib o'tgan. Antik davrda inson kosmosning aqliy qismi sifatida talqin etilgan bo'lsa, zamonaviy falsafada u o'z mohiyatini o'zi yaratuvchi mavjudot sifatida tushuniladi. Shunday qilib, G'arb falsafasi insonni tafakkur, erkinlik va mas'uliyat uyg'unligida ko'radi.

Uchinchidan, Sharq va G'arb falsafalaridagi umumiylik va farqlar haqida fikrlasak, G'arb falsafasida inson tabiatini tushuntirishda ratsionalizm (Dekart, Kant) va empirizm (Lokk, Gobbs) asosiy o'rinda tursa [7.108], Sharqda bu tushuncha axloq, uyg'unlik va ruhiyat bilan izohlanadi.

Masalan, G'arbda inson "fikrlovchi subyekt", individual mavjudot sifatida qaraladi, Sharqda esa u "tabiat va jamiyat bilan bir butun" bo'lgan mavjudotdir.

Sharq va G'arb falsafalaridagi umumiyliklar:

- Har ikki falsafiy an'ana insonni markaziy mavzu sifatida ko'radi.

- Insonning mohiyati faqat jismoniy emas, balki axloqiy va ruhiy jihatlarga ham ega deb e'tirof etiladi.

- Komillikka erishish, o'zini anglash va jamiyatga foydali bo'lish g'oyalari asosiy o'rinda turadi.

Sharq va G'arb falsafalaridagi farqlar:

- Sharq falsafasi uyg'unlik, ma'naviyat va ruhiy poklikni inson tabiatining asosi deb biladi, G'arb esa ratsional tafakkur, individualizm va erkinlikni markazga qo'yadi.

- Sharqda inson jamiyat va tabiat bilan uyg'unlikda mavjud bo'lsa, G'arbda u ko'proq mustaqil subyekt sifatida talqin etiladi.

- Sharq falsafasida ma'naviy komillikka ichki o'zgarish orqali erishilsa, G'arb falsafasida bu bilim va faoliyat orqali amalga oshadi.

Xulosa qiladigan bo'lsak, Sharq va G'arb falsafalarida inson tabiatiga doir qarashlar turlicha yo'nalishda rivojlangan bo'lsa-da, ularning umumiy maqsadi insonning mohiyatini anglash, uning jamiyatdagi o'rnini belgilash va komillik yo'lini ko'rsatishdan iborat. Sharq insonni ruhiy uyg'unlik orqali mukammallikka yetishadigan mavjudot sifatida tasvirlasa, G'arb falsafasi uni tafakkur, erkinlik va mas'uliyat orqali o'zligini yaratadigan subyekt sifatida ko'radi. Demak, har ikki tafakkur insoniyatning o'zini anglash yo'lida bir-birini to'ldiruvchi ikki qanotdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. – T.: Xalq merosi. 1993.
2. Madayeva Sh.O. va boshq. Falsafa. – T.: 2019.
3. Tulenov J. va boshq. Falsafa. – T.: Innovatsiya-Ziyo. 2022.
4. Falsafa (1-qism). Darslik. – T.: fan va texnologiya. 2019.
5. Фалсафа қисқача изоҳли луғат. – Т.: Шарқ. 2004.
6. Shermuxamedova N. Falsafa. – T.: IDRIS ABDURAUF NASHR. 2020.
7. Shermuxamedova N.A. Inson falsafasi. – T.: Innovatsiya-Ziyo. 2021.

AXLOQIY QADRIYATLAR VA TARBIYA: O'ZBEKISTON JAMIYATIDA IJTIMOIY APATIYAGA QARSHI KURASH OMILI SIFATIDA

Tadjibayev Zoxidjon Xatamovich

Andijon davlat pedagogika instituti o'qituvchisi

Email: ztadjibayev@inbox.ru

Annotatsiya: Maqolada O'zbekiston jamiyatida kuzatilayotgan ijtimoiy apatiya holatlarining sabablari va oqibatlari tahlil qilinadi. Shuningdek, axloqiy qadriyatlar va tarbiya tizimining ushbu holatga qarshi kurashdagi o'rni ilmiy-nazariy jihatdan asoslanadi. Muallif axloqiy qadriyatlarni tiklash, tarbiya jarayonini insonparvarlik, vatanparvarlik va ma'naviy yangilanish tamoyillari asosida tashkil etish ijtimoiy befarqlikni yengishning muhim omili ekanligini ta'kidlaydi.

Kalit so'zlar: axloqiy qadriyatlar, tarbiya, ijtimoiy apatiya, komil inson, ma'naviyat, fuqarolik faolligi, jamiyat.

Abstract: The article analyzes the causes and consequences of social apathy observed in Uzbek society. It also scientifically and theoretically substantiates the role of moral values and the education system in combating this phenomenon. The author emphasizes that restoring moral values and organizing the educational process based on the principles of humanism, patriotism, and spiritual renewal are important factors in overcoming social indifference.

Keywords: moral values, education, social apathy, perfect person, spirituality, civic engagement, society.

Аннотация: В статье анализируются причины и последствия социальной апатии, наблюдаемой в узбекском обществе. Также научно и теоретически обосновывается роль нравственных ценностей и системы воспитания в борьбе с данным явлением. Автор подчёркивает, что восстановление нравственных ценностей и организация воспитательного процесса на принципах гуманизма, патриотизма и духовного обновления являются важными факторами преодоления социальной безразличности.

Ключевые слова: нравственные ценности, воспитание, совершенный человек, социальная апатия, духовность, гражданская активность, общество.

Insoniyat azaldan komillikka, mukammallikka intilib yashab keladi. Har bir jamiyatning eng oliy maqsadi — ma’naviy barkamol, aqlan yetuk, axloqan pok shaxsni voyaga yetkazishdir. Komil inson — bu bilimli, vijdonli, halol, odobli va mas’uliyatli shaxsdir. U o‘zini va jamiyatni yanada yuksak ma’naviy darajaga olib chiqishga intiladi.

Komil inson shaxs kamolotining eng yuksak bosqichi bo‘lib, u aqliy, axloqiy, jismoniy va ma’naviy jihatdan uyg‘un rivojlangan shaxsni anglatadi. Insonning komillikka erishuvida axloqiy qadriyatlar, ta’lim va tarbiya muhim o‘rin tutadi. Chunki komil inson — bu o‘zini anglagan, halollik, adolat, vijdon, mehr-shafqat kabi fazilatlarni hayot mezoniga aylantirgan insondir. Shu ma’noda A.Avloniy o‘zining “Turkiy guliston yohuq axloq” asarida “Komillik — insonning aql, axloq va ma’naviyat jihatidan barkamol bo‘lishidir” [1, 52.], - deb ta’kidlagan edi.

Globallashuv jarayonlari, raqamli madaniyat va iste’molchilik qadriyatlarining kuchayishi natijasida ko‘plab mamlakatlarda, jumladan, O‘zbekistonda ham jamiyat a’zolarining ijtimoiy hayotga nisbatan befarqligi — ijtimoiy apatiya holatlari kuzatilmoqda. Bu holat fuqarolik faolligining pasayishi, ijtimoiy tashabbuslarning sustlashuvi va ma’naviy qadriyatlarga bo‘lgan ishonchning zaiflashuvi kabi oqibatlarga olib keladi. O‘zbekiston Respublikasida olib borilayotgan ma’naviy-ma’rifiy siyosatning asosiy maqsadlaridan biri — faol, ongli, axloqan yetuk shaxsni tarbiyalashdir. Shu sababli, axloqiy qadriyatlar va tarbiya tizimini ijtimoiy apatiyaga qarshi kurashda samarali mexanizm sifatida ko‘rib chiqish muhim ahamiyat kasb etadi.

Hozirgi zamonda global muammolar, jumladan, iqtisodiy inqirozlar, madaniy tanazzul va ma’naviy bo‘shliqlar jamiyatlarda ijtimoiy apatiya holatlarini kuchaytirmoqda. Ijtimoiy apatiya – bu jamiyat a’zolarining faolligi pasayishi, fuqarolik mas’uliyatidan chetlanishi, bee’tiborlik, ruhiy tushkunlik va umumiy befarqlik holatidir. Bu muammo nafaqat shaxs, balki jamiyat rivojiga ham jiddiy tahdid soladi. Global tendensiyalar shiddat bilan kechayotgan murakkab paytda apatiya yoki ijtimoiy apatiya tushunchasi nisbatan yangi, ammo har qachongidan ham dolzarb ahamiyat kasb etib kelayotgan ilmiy masalalardan biridir. Ilmiy jamoatchilik orasida, ya’ni sotsiolog, psixolog, faylasuf va pedagoglar tomonidan fanning turli tarmoqlari doirasida keng muhokama mavzusiga aylanib ulgurdi. Buning asosiy sabablari “...hozirgi jamiyatda apatiya fenomenining tahlili nafaqat sotsiologik, psixologik, iqtisodiy-siyosiy, ijtimoiy-falsafiy fan tarmoqlarida, balki iqtisodiy, siyosiy sohalar va ijtimoiy tuzulmadagi, diniy va siyosiy g‘oyalardagi inqirozli hodisalar bilan “apatiya” tushunchasining an’anaviy talqiniga nisbatan ancha kengroq va o‘zgacharoq talqin qilinishi bilan ham izohlanadi” [2, 24-25].

Jahon falsafasi qomusi kitobida “Apatiya – (yunoncha apatheia – beparvolik) – insondagi emotsional passivlik, befarqlik, hissiy loqaydlik kabi kayfiyatni ifoda etadi. Bunday holatda inson yon atrofdagi voqea-hodisalarga e’tiborsiz bo‘ladi, hech narasaga qiziqish bildirmaydi, uning jismoniy, ruhiy va ma’naviy faolligi pasayadi” [3, 91], deb ta’rif berilgan. Apatiya fenomeni XX asrga kelib jamiyatda salbiy ijtimoiy hodisa sifatida namoyon bo‘la boshladi. Jumladan, u insonlardagi emotsional passivlik, jamiyatda sodir bo‘layotgan voqea-hodisalarga nisbatan befarqlik, loqaydlik kabi kayfiyatni ifoda etadigan buzg‘unchi tamoyilga aylandi. Natijada insonning jismoniy, ruhiy va ma’naviy faolligi pasayib, iqtisodiy, siyosiy hamda ruhiy-ma’naviy befarqliklar oqibatida insonlar bilan ijtimoiy muomalalari sovuqlashib, xatto yaqinlari, oilasi, farzandlariga ham loqayd bo‘lib qoladi.

Axloqiy qadriyatlar — bu insonning xulq-atvori, muomala madaniyati, jamiyatga munosabati va ichki e’tiqodini belgilovchi ma’naviy mezonlardir. **Tarbiya** esa bu qadriyatlarni yosh avlod ongiga singdirish, ularni amaliy hayotda qo‘llash ko‘nikmasini shakllantirish jarayonidir.

“Axloqimizning binosining go‘zal va chiroyli bo‘lishiga tarbiyaning zo‘r ta’siri bordur, ba’zilar “tarbiyaning axloqqa ta’siri yo‘q, insonlar asl yaratilishida qanday bo‘lsalar, shunday o‘sarlar, tabiat o‘zgarmas”, – demishlar.” [1, 3].

“Axloq - insonlarni yaxshilikg‘a chaqirguvchi, yomonlikdan qaytarguvchi bir ilmdur. Yaxshi xulqlarning yaxshiligini, yomon xulqlarning yomonligini dalil va misollar ila bayon qiladurgan kitobni axloq deyilur. Axloq ilmini o‘qub, bilub amal qilgan kishilar o‘zining kim ekanin, janobi Haq na uchun xalq qilganin, yer yuzida nima ish qilmak uchun yurganin bilur.” [1. 2]. Avloniy axloqni insonning ma’naviy nuri deb bilgan. Tarbiya jarayonida axloqiy qadriyatlar (halollik, adolat, sabr, mehr, vijdon) yetakchi o‘rin tutishini ta’kidlaydi.

I.Karimov o‘zining “Yuksak ma’naviyat — yengilmas kuch” asarida axloqiy qadriyatlar — bu millatning ma’naviy immuniteti. Ular bo‘lmasa, jamiyatda befarqlik, ma’naviy inqiroz, ishonchsizlik kuchayishini ta’kidlaydi [4, 29].

Tarbiya jarayonida **axloqiy qadriyatlar integratsiyasi** muhim: o‘quvchi fanga oid bilimni o‘zlashtirar ekan, shu jarayonda halollik, mas’uliyat, hurmat, hamkorlik qadriyatlarini ham his etadi. **Empatiya**, **ijtimoiy mas’uliyat**, **e’tibor**, **o‘zini tahlil qilish** — XXI asrda asosiy axloqiy kompetensiyalardir. UNESCO (2022) ma’lumotlariga ko‘ra, tarbiyaning maqsadi faqat bilim emas, balki “axloqiy tafakkur”ni shakllantirishdir.

Tarbiya jarayonida quyidagi metodlar faol qo‘llaniladi. Shaxsiy namuna – o‘qituvchi yoki ota-ona o‘z xulqi bilan ibrat bo‘lishi. Munozara va suhbatlar – axloqiy masalalar bo‘yicha ochiq fikr almashish. Ijtimoiy loyihalar – mehr-shafqat aksiyalari, ekologik tadbirlar orqali qadriyatlarni amalda ko‘rsatish. Badiiy adabiyot – Alisher Navoiy, Avloniy, Oybek, Abdulla Qahhor asarlari orqali axloqiy tahlil.

Axloqiy qadriyatlar — bu insonni inson qiladigan, jamiyatni birlashtiradigan ma’naviy ustunlardir. Tarbiya esa bu qadriyatlarni avloddan-avlodga uzatish vositasi. Zamonaviy ta’limda axloqiy tarbiya faqat “odat” emas, balki **shaxsni ijtimoiy ongli, mas’uliyatli, hamdard inson** sifatida shakllantirishning ilmiy tizimidir.

Axloqiy qadriyatlar — bu jamiyat a’zolarining xatti-harakatini tartibga soluvchi, inson va jamiyat o‘rtasidagi munosabatlarni belgilovchi me’yoriy-ma’naviy tizimdir. Ular shaxsda halollik, vijdonlilik, mas’uliyat, adolatparvarlik, insonparvarlik, fidoyilik va mehnatsevarlik kabi sifatlarni shakllantiradi. O‘zbekiston xalqining tarixiy-madaniy merosida axloqiy qadriyatlar markaziy o‘rin tutadi. Abu Nasr Forobiy, Alisher Navoiy, Ahmad Donish, Abdulla Avloniy kabi mutafakkirlar asarlarida axloqiy komillikka da’vat insonning jamiyatdagi faol pozitsiyasining asosi sifatida talqin qilingan.

Tarbiya jarayoni insonda ijtimoiy mas’uliyat, vatanparvarlik va fuqarolik burchini anglashni shakllantiradi. Zamonaviy pedagogik yondashuvlarga ko‘ra, tarbiya nafaqat bilim berish, balki insonning axloqiy ongini rivojlantirish jarayonidir. O‘zbekiston ta’lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar, xususan, “Yoshlar daftari”, “Ma’naviyat va ma’rifat” markazlari faoliyati, “Milliy g‘oya” fanining joriy etilishi yosh avlodni ijtimoiy faollikka undashda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Yuqoridagi islohotlar samarasiga qarshi o’laroq, ijtimoiy apatiya — bu shaxsning ijtimoiy jarayonlarda ishtirok etishdan voz kechishi, jamiyat muammolariga befarq bo‘lishi holatini anglatadi. Uning sabablari ko‘p qirrali bo‘lib, iqtisodiy beqarorlik yoki ishonchsizlik hissi, ijtimoiy adolatsizlikka nisbatan norozilik, ta’lim va tarbiya tizimida ma’naviy yondashuvning sustligi, o‘zlikni anglash va maqsad qo‘yish motivatsiyasining pasayishi kabi omillarni o‘z ichiga oladi.

Axloqiy qadriyatlarni tiklash va tarbiya tizimini ma’naviy asosda takomillashtirish ijtimoiy apatiyani bartaraf etishda quyidagi yo‘nalishlarda samarali natija beradi: oilaviy tarbiya tizimini mustahkamlash, ma’naviy-ma’rifiy ta’limni kuchaytirish, ijtimoiy faollikni rag‘batlantirish, OAVning axloqiy missiyasini kuchaytirish. Shuningdek, mahalla institutining tarbiyaviy salohiyatini oshirish orqali ham jamiyatda birdamlik va ijtimoiy mas’uliyatni kuchaytirish mumkin.

Axloqiy qadriyatlar va tarbiya tizimi O‘zbekiston jamiyatida ijtimoiy apatiyaga qarshi kurashning eng muhim ma’naviy resursidir. Ular shaxsni ijtimoiy faol, mas’uliyatli va ongli hayotga tayyorlaydi. Shu sababli, jamiyatda tarbiya siyosatini faqat ta’lim muassasalarida emas, balki oilada, jamiyatda va davlat boshqaruvi darajasida ham tizimli ravishda olib borish zarur, deb hisoblaymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Avloniy A. Turkiy guliston yoxud axloq. — Toshkent: Ma’naviyat, 1992. b. 52.

2. Tashanov A. Vayronkor g‘oyalar va buzg‘unchi mafkuralar [mant] / T.: “Turon zamin ziyo” nashriyoti. 2015. b. 24-24.

3. Nazarov Q. Jahon falsafasi qomusi. 1-kitob – T.: “O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati” nashriyoti, 2023. b. 91.

4. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat — yengilmas kuch. — Toshkent: Ma’naviyat, 2008. b. 29.

AXLOQIY TARBIYANING YETISHMASLIGI – BULLINGNING PSIXOLOGIK ILDIZLARIDAN BIRI SIFATIDA

G’afforova Madixa Ixtiyor qizi
O‘zbekiston Respublikasi Xalqaro Nordik universiteti o‘qituvchisi
e-mail: madikharad@mail.ru

Annotatsiya. Ushbu maqolada ta’lim muassasalarida bulling (bezorilik) hodisasi jiddiy ijtimoiy-pedagogik muammo sifatida tahlil qilinadi. Bulling tushunchasiga psixologik ta’rif beriladi, uning asosiy turlari va ko‘rinishlari yoritiladi. Mualliflar tomonidan o‘tkazilgan so‘rovnomalar natijalari asosida o‘quvchilar va talabalar orasida bullingning tarqalish darajasi tahlil qilinadi. Shuningdek, bezorilikning oldini olishda axloqiy tarbiya, empatiya va ijtimoiy mas’uliyatni shakllantirishning ahamiyati ko‘rsatib beriladi. Bullingning oldini olishga qaratilgan samarali psixologik-pedagogik usullar va xorijiy tajriba misollari tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: bulling, axloqiy qadriyatlar, psixologik ildizlar, tarbiya, empatiya, o‘smirlar, bezorilik, profilaktika.

Abstract: This article examines the phenomenon of bullying in educational institutions as a serious socio-pedagogical problem. A psychological definition of bullying is provided, and its main types and manifestations are discussed. Based on surveys conducted by the authors, the article analyzes the prevalence of bullying among students and pupils. The importance of moral education, empathy, and the development of social responsibility in preventing bullying is emphasized. Effective psychological and pedagogical methods and examples of international experience aimed at preventing bullying are also analyzed.

Keywords: bullying, moral values, psychological roots, education, empathy, adolescents, harassment, prevention.

Аннотация. В данной статье явление буллинга (травли) в образовательных учреждениях рассматривается как серьёзная социально-педагогическая проблема. Даётся психологическое определение понятия «буллинг», раскрываются его основные виды и формы проявления. На основе проведённых авторами опросов анализируется уровень распространённости буллинга среди учащихся и студентов. Также подчёркивается значение нравственного воспитания, формирования эмпатии и социальной ответственности в профилактике травли. Рассматриваются эффективные психолого-педагогические методы и зарубежный опыт, направленные на предотвращение буллинга.

Ключевые слова: буллинг, нравственные ценности, психологические корни, воспитание, эмпатия, подростки, травля, профилактика.

Shaxsning uyg‘un rivojlanishi, bolalar va o‘smirlarning optimal shakllanishi uchun sharoit yaratish masalalari ko‘plab mamlakatlarda davlat ijtimoiy siyosatining markaziy yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. O‘zbekistonda ham sog‘lom va har tomonlama rivojlangan shaxsni shakllantirish masalalari normativ-huquqiy hujjatlar va davlat dasturlarida o‘z aksini topgan. Jumladan, 2022-yilda tasdiqlangan “Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi – 2022–2026 yillar” davlat dasturining beshinchi yo‘nalishi ma’naviy-axloqiy tarbiyani takomillashtirishga bag‘ishlangan. Unda oila, ta’lim muassasalari va mahallalarda ma’naviy tarbiyaning uzviy bog‘liqligini ta’minlash, interaktiv metodlardan foydalanib maktablarni haqiqiy ma’naviyat va ma’rifat markazlariga aylantirish vazifalari belgilangan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev o‘z nutqlarida yosh avlodni har tomonlama kamol toptirish masalasiga alohida e’tibor qaratadi:

“Biz bolalar bog‘chalari, maktablar va oliy ta’lim muassasalarida o‘sib kelayotgan avlodga sifatli ta’lim va tarbiya berishni tashkil etamiz, ularning jismonan sog‘lom, ma’naviy yetuk, Vatanga sadoqatli insonlar bo‘lib voyaga yetishlari uchun barcha kuch va imkoniyatlarni safarbar qilamiz. Zamonaviy bilim va tajriba, milliy hamda umuminsoniy qadriyatlar asosida mustaqil fikrlaydigan, yuksak insoniy fazilatlarga ega yoshlarni tarbiyalaymiz.”

Psixologiya fanida shaxsning optimal rivojlanishi odatda insonning atrofdagilar bilan o‘zaro munosabat modeli orqali tushuntiriladi. Shu nuqtai nazardan, bolalar va o‘smirlar uchun psixologik xavfsiz muhit yaratish masalasi alohida ahamiyat kasb etadi. Bolalar hayotining katta qismi maktab muhitida o‘tadi, shuning uchun maktab muhiti xavfsiz, samimiy va bolaga do‘stona bo‘lishi zarur. Xavfsizlik hissi o‘quvchining o‘zini rivojlantirishiga, ijodiy salohiyatini namoyon etishiga yordam beradi, xavfsizlikning buzilishi esa bolaning jismoniy va ruhiy salomatligiga bevosita salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Xavfsiz muhitni buzuvchi asosiy omillardan biri bulling – bu guruh a’zolari tomonidan bir shaxsga nisbatan muntazam ravishda tajovuzkor harakatlarning amalga oshirilishidir. Bullingning quyidagi turlari farqlanadi: psixologik, jismoniy, bevosita va bilvosita. Kichik yoshdagi bolalar orasida ko‘proq jismoniy tajovuz uchrasa, o‘smirlar orasida psixologik bosim – masxara qilish, kamsitish, ijtimoiy izolyatsiya qilish holatlari keng tarqalgan.

UNESCOning 2017-yilgi hisobotida qayd etilishicha, maktab zo‘ravonligi va bulling dunyo miqyosida keng tarqalgan bo‘lib, har yili 246 million bola yoki o‘smir bu turdagi zo‘ravonlikning qurboni bo‘ladi. BMTning Bolalar jamg‘armasi (UNICEF) tomonidan o‘tkazilgan so‘rov natijalariga ko‘ra, 18 mamlakatda 100 ming nafar yoshlar ishtirokida o‘tkazilgan tadqiqotda ularning uchdan ikki qismi o‘zlari bulling holatiga duch kelganini bildirgan.

Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, Shvetsiyada o‘quvchilarning 8,6 foizi, Litvada 45,2 foizi, Rossiyada 30,8 foizi, AQShda esa 30 foiz o‘quvchi maktabda bulling holatini boshidan kechirgan. Tadqiqotchilarning fikricha, o‘quvchilarning har ikkitadan biri biror tarzda bulling jarayonida ishtirok etadi — u tajovuzkor, jabrlanuvchi yoki kuzatuvchi rolida bo‘lishi mumkin.

Bullingning oqibatlari nafaqat jabrlanuvchiga, balki barcha ishtirokchilarga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Doimiy bosim va tahqir holatida bo‘lish o‘quvchining o‘qishga bo‘lgan motivatsiyasini pasaytiradi, maktabdan qo‘rqish, tashvish va depressiya simptomlarini keltirib chiqaradi, hatto o‘z joniga qasd qilish xavfini oshiradi.

Shu sababli, maktab muhitida bullingning oldini olishda axloqiy qadriyatlar asosidagi tarbiya, empatiya va ijtimoiy mas’uliyatni rivojlantirish, psixologik profilaktika ishlarini tizimli yo‘lga qo‘yish dolzarb masalaga aylanmoqda. O‘quvchilarda mehr-oqibat, hurmat, adolat, bag‘rikenglik kabi qadriyatlarni shakllantirish bullingni kamaytirishning eng samarali yo‘llaridan biridir.

Bugungi kunda zo‘ravonlik va tajovuzkorlik hodisalari inson faoliyatining ko‘plab sohalarida kuzatilmoqda. Ularning eng xavfli ko‘rinishlaridan biri bu – bulling, ya’ni bir shaxsning yoki guruhning boshqa bir shaxsga nisbatan jismoniy yoki ruhiy tazyiq o‘tkazishidir. Ushbu hodisa nafaqat psixologik, balki axloqiy-ijtimoiy muammo sifatida ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqotchilar ta’kidlaganidek (Gorlova I.Yu., Kuznetsova O.Z., 2019), bulling hodisasi falsafa, sotsiologiya, psixologiya va pedagogika sohalarida keng o‘rganilmoqda. Ayniqsa, ta’lim muassasalarida u o‘quvchi shaxsining ma’naviy va axloqiy shakllanish jarayoniga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Axloqiy tarbiyaning sustligi va qadriyatlar tizimining yetarli shakllanmagani bulling uchun qulay psixologik zamin yaratadi.

Bulling tushunchasi va psixologik mazmuni**.** Psixologik adabiyotlarda bulling (inglizcha *bully* – bezori, tajovuzkor) deganda o‘zini himoya qila olmaydigan shaxsga nisbatan uzoq muddatli, muntazam jismoniy yoki ruhiy tazyiq ko‘rsatish jarayoni tushuniladi. Bu holatda jabrlanuvchi o‘zini himoya qila olmaydi, tajovuzkor esa ustunlik va nazorat tuyg‘usidan zavqlanadi. D.Olveus (1993) bullingning quyidagi turlarini ajratadi[8, 43-b]:

- Og‘zaki bulling – haqorat, masxara, kamsituvchi so‘zlar ishlatish;

- Ijtimoiy izolyatsiya – guruhdan chetlatish yoki e’tiborsizlik;
- Jismoniy tazyiq – urish, itarish, narsalarni tortib olish;
- Yolg‘on mish-mishlar tarqatish orqali sha’niga tajovuz qilish;
- Psixologik bosim – qo‘rqitish, majburlash, tahdid;
- Irsiy, milliy yoki jinsiy kamsitish;
- Kiber tazyiq (kiberbulling) – internet orqali haqorat qilish yoki obro‘sini to‘kish.

D.Leyn (2001) esa bullingni ruhiy va jismoniy turlarga ajratadi. Bu ikki shaklning umumiy ildizi – tajovuzkorlik va axloqiy nazoratning zaifligidir.

Bullingning axloqiy ildizlari. Bulling ko‘pincha axloqiy qadriyatlarning yo‘qolishi yoki tarbiyadagi bo‘shliq oqibatida yuzaga keladi. Bolalar va o‘smirlar tarbiyaviy jarayonda empatiya, mehr-oqibat, adolat, hurmat kabi qadriyatlarni yetarlicha egallamaganda, ular o‘zini tasdiqlashni kuch va ustunlik orqali ifodalashga urinadi. Psixologik jihatdan bu emosional sovuqlik, past empatiya darajasi, ijtimoiy mas’uliyatning shakllanmaganligi va ichki axloqiy nazoratning sustligi bilan tavsiflanadi. O‘smirlik davrida guruh ichidagi maqom muhim ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun, bulling holatlarida o‘smir o‘z obro‘sini saqlash yoki mustahkamlash uchun tajovuzkorlikni qo‘llashi mumkin. Bu holatda axloqiy me’yorlarning yetishmasligi asosiy psixologik omil bo‘lib xizmat qiladi.

Empirik tadqiqotlar natijalari. Gorlova va Kuznetsova (2019) tomonidan o‘tkazilgan tadqiqotda “VKontakte” ijtimoiy tarmog‘i orqali anonim so‘rovnoma o‘tkazilgan. So‘rovda respondentlardan “siz yoki farzandingiz maktabda yoki internetda bullingga duch keldingizmi?” deb so‘ralgan. Natijalar quyidagicha bo‘lgan:

Javob variantlari	Natija (%)
Ha, doimo	22,86
Bo‘lgan	22,86
Tanishlar duch kelgan	28,57
Yo‘q, hech qachon	20,00
O‘zim bullerman	5,71

Umumiy tahlil shuni ko‘rsatadiki, 74,29% respondentlar bevosita yoki bilvosita bulling holatlariga duch kelgan. Bu esa bezorilikning keng tarqalganligini ko‘rsatadi. Shuningdek, Omsk davlat agrar universitetida o‘tkazilgan so‘rovda 70% dan ortiq talabalar maktab davrida bullingni boshdan kechirganini, biroq oliy ta’limda bu holat nisbatan kamligini bildirgan. Demak, yosh ortgani sari axloqiy ong va o‘zini nazorat qilish darajasi oshadi, bu esa bullingni kamaytiruvchi omil sifatida ko‘riladi.

Bulling ishtirokchilarining rollari. Ko‘plab tadqiqotchilar (Butenko, Sidorenko, 2015) bulling ishtirokchilarini uch guruhga ajratadi:

1. Jabrlanuvchi– o‘zini himoya qila olmaydigan, ko‘pincha sust, o‘ziga ishonchsiz shaxs;
2. Tajovuzkor– kuch orqali nazoratni saqlashga intiluvchi, axloqiy chegaralarni e’tiborga olmaydigan shaxs;
3. Guvohlar– vaziyatni kuzatib turuvchi, lekin aralashmaydigan shaxslar.

Tarbiyaviy jihatdan eng xavfli holat – guvohlarning befarqligi, chunki bu bullingni “me’yoriy” holat sifatida mustahkamlaydi. [5, 72-b]

Bullingning oldini olishda axloqiy tarbiyaning roli. Axloqiy tarbiya orqali o‘quvchilarda:

- empatiya (boshqani tushunish),
- ijtimoiy mas’uliyat,
- hamdardlik,
- o‘z xatti-harakatlari uchun javobgarlik hissi shakllantiriladi.

Ta’lim muassasalarida bullingga qarshi psixologik-pedagogik profilaktika usullari qo‘llaniladi. Gorlova va Kuznetsova quyidagi samarali metodlarni keltiradi:

1. “Aloqalar jamoasi”– yetakchi o‘quvchilar bulling holatlarini kuzatadi va jabrlanuvchilarni himoya qiladi.

2. “Otalar maslahati” – ota-onalar kengashi bulling holatlarini ko‘rib chiqadi va sanksiyalarni qo‘llaydi (Qozog‘iston tajribasi).
3. “Farsta” usuli – maxsus tayyorgarlikdan o‘tgan pedagoglar guruhi bulling vaziyatlariga tezkor javob beradi.
4. “Pillapoyali g‘ildirak” metodi – ishtirokchilar (jabrlanuvchi, bulller, kuzatuvchi) bilan alohida suhbat orqali sabablar aniqlanadi.
5. “Maktab qoidalari” tizimi – ota-onalar va o‘quvchilar bullingga qarshi qat’iy qoidalar bilan tanishtiriladi. [4, 78-b]

Bu metodlar orqali bolalarda axloqiy immunitet shakllanadi, ya’ni ular tajovuzkorlikni ijtimoiy jihatdan nomaqbul deb bilishni o‘rganadi.

Bulling – bu shunchaki bezorilik emas, balki axloqiy-psixologik buzilishning ko‘rinishidir. Axloqiy qadriyatlarning yetishmasligi, empatiyaning pastligi va tarbiya tizimidagi bo‘shliq bullingning psixologik ildizlarini tashkil etadi. Ta’lim tizimida axloqiy tarbiya, ijtimoiy qadriyatlar va shaxslararo hurmatni rivojlantirish bullingning oldini olishning eng muhim yo‘lidir. Har bir o‘qituvchi, ota-ona va jamiyat a’zosi yoshlar ongida “boshqalarga zarar yetkazish – kuch emas, zaiflik” degan tushunchani shakllantirishi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Бутенко В. Н., Сидоренко О. А. Буллинг в школьной образовательной среде: опыт исследования психологических особенностей «обидчиков» и «жертв» // Вестник красноярского государственного педагогического университета им. В. П. Астафьева – 2015 – № 3 (33) – С. 138-143.
2. Бутовская М. Л., Русакова Г. С. Буллинг и буллеры в современной российской школе // Этнографическое обозрение – 2016 – №2 – С.99-115.
3. Истомина А. А., Морнов К. А. Методы профилактики буллинга в современной школе // Труды Братского Государственного Университета. Серия: Гуманитарные и социальные науки – 2018 – № 1 (12) – С. 15-20
4. Лейн Д. А. Школьная травля (буллинг) // Детская и подростковая психотерапия / Под ред. Дэвида Лейна и Эндрю Миллера. – СПб.: Питер, 2001. – С. 240–274.
5. Собакин В. С., Смыслова М. М. Буллинг в стенах школы: влияние социокультурного контекста // Социальная психология и общество – 2014 – Т.5 – №2 – с. 71-86.
6. Социальная группа во «ВКонтакте»: «НОВОСТИ. Антенна-7», запись от 30 ноября 2018 года. URL: https://vk.com/novostia
7. Требина Е. А. Основные направления психолого-педагогической профилактики буллинга в начальной школе // Мир детства в современном образовательном пространстве – 2017 – С. 152-154.
8. Olweus D. Bullying at School: What We Know what We Can Do. N. Y.: Blackwell, 1993. 140 p.

ER VA XOTIN O‘RTASIDAGI MUNOSABATLAR XUSUSIYATLARI VA DINAMIKASI

Komilova Zulfiyaxon Poziljonovna
“University of economics and pedagogy” NOTM
“Maktabgacha va boshlang‘ich ta’lim”
kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya. Oila instituti insoniyat jamiyatining asosiy poydevorlaridan biri hisoblanadi. Er va xotin o‘rtasidagi munosabatlarning xususiyatlari va dinamikasi oilaning barqarorligini belgilaydi. Biroq, zamonaviy hayotning tez o‘zgaruvchanligi, ijtimoiy-iqtisodiy bosimlar va psixologik omillar tufayli nikoh ajrimlari ko‘payib bormoqda. Ushbu maqola er-xotin munosabatlarining nazariy asoslarini, ajrimlarning sabablarini va dinamikasini tahlil qiladi. Tadqiqotda psixologik, sotsiologik va ijtimoiy nuqtai nazarlar asosida Sharq mamlakatlarida, xususan, O‘zbekistonda oila institutining o‘ziga xos xususiyatlari ko‘rib chiqiladi. Shuningdek,

yangi statistik ma’lumotlar asosida nikoh ajrimlarining zamonaviy tendensiyalari tahlil etiladi. Maqolaning maqsadi – oila munosabatlarining mustahkamligini ta’minlash uchun zarur bo‘lgan psixologik va ijtimoiy mexanizmlarni aniqlash.

Kalit so‘zlar. Er va xotin munosabatlari, nikoh ajrimlari, psixologik qovushuv, oila instituti

Abstract. The institution of the family is one of the main foundations of human society. The characteristics and dynamics of the relationship between a husband and wife determine the stability of the family. However, due to the rapid changes in modern life, socio-economic pressures and psychological factors, divorces are increasing. This article analyzes the theoretical foundations of marital relations, the reasons and dynamics of divorces. The study examines the specific features of the family institution in Eastern countries, in particular in Uzbekistan, based on psychological, sociological and social perspectives. It also analyzes modern trends in divorces based on new statistical data. The purpose of the article is to identify the psychological and social mechanisms necessary to ensure the strength of family relations.

Keywords. Relationships between husband and wife, divorces, psychological integration, family institution

Аннотация. Институт семьи является одной из основ человеческого общества. Характер и динамика отношений между мужем и женой определяют стабильность семьи. Однако в связи со стремительными изменениями современной жизни, социально-экономическим давлением и психологическими факторами число разводов растёт. В данной статье анализируются теоретические основы брачных отношений, причины и динамика разводов. В исследовании рассматриваются особенности института семьи в странах Востока, в частности в Узбекистане, с точки зрения психологии, социологии и социальных аспектов. Также анализируются современные тенденции в области разводов на основе новых статистических данных. Цель статьи – выявить психологические и социальные механизмы, необходимые для обеспечения прочности семейных отношений.

Ключевые слова: Отношения между мужем и женой, разводы, психологическая интеграция, институт семьи

Kirish. Oila jamiyatning mustahkam asosi bo‘lib, unda shaxs birlamchi ijtimoiylashuvga ega bo‘ladi, kelgusida jamiyatda yashash va faoliyat yuritish uchun asosiy ijtimoiy me’yorlarni o‘zlashtiradi, turli xil madaniy va iqtisodiy jarayonlarda faol ishtirok etadi. Er va xotin o‘rtasidagi munosabatlar ko‘pincha emotsional va psixologik jihatdan mustahkam bog‘liqlikni o‘zida mujassam etadi. Sevgi, hurmat, ishonch va muloqot bu munosabatlarning poydevori hisoblanadi. Nikoh qonuniy asosda erishiladi va bu munosabatlarga huquqiy mas’uliyatlar ham yuklaydi.

Er va xotin bir-birini to‘ldiruvchi, yordam beruvchi hamda birgalikda muammolarni hal qilishga intiluvchi sifatlarda bo‘lishi kerak. Ularning o‘zaro kommunikatsiyasi samarali bo‘lishi oilada tinchlik va farovonlikni ta’minlaydi. Ammo er va xotinning munosabatlari vaqt davomida o‘zgarib boradi. Oilaviy munosabatlarning yana bir muhim jihati — vaqt o‘tishi bilan o‘zaro hurmat va tushunishni saqlay olishdir. Yillar davomida har ikki tomonning shaxsiyati va ehtiyojlari o‘zgaradi, shuning uchun moslashish va yangi hayot bosqichlariga moslashish talab etiladi.

Hayotiy qiyin vaziyatlar, tadqir taqozosi bilan ayrim oilalarda nizolar kelib chiqadi va uning oqibati sifatida nikoh barbod bo‘lishigacha olib keladi. Olimlar nikohdagi ajrimlarni oz tadqiqotlarida o‘rganib, uning sabablari turlicha bo‘lishi mumkinligi to‘g‘risida o‘z nazariy qarashlarini bayon etganlar. Masalan, ba’zi psixologlar ajrimlarni “turtki” kontseptsiyasi orqali izohlashga urinadilar. Ya’ni, yaxshi tinch-totuv yashayotgan oilada tasodifan xiyonat, o‘lim, xastalik, rashk va shunga o‘xshash voqealar turki bo‘ldayu, oila ustuni qulaydi. Aslida bunday silkinish yoki turtki bilan oila birdan buzilib ketishi kam uchraydi.

Yana bir holat esa “orqaga ketish” deb nomlanadi. Bu shunday holatki, unga ko‘ra, er va xotinni yaxshi, iliq munosabatlar bog‘lab turgan, lekin aynan muhabbat birdan sovib, er-xotin bir-birini ko‘rsa g‘ashi keladigan, gaplari yoqmaydigan, nizokash bo‘lib qoladi. Bunday voqealar hayotda tez-tez uchraydi. Sababi – birdan yongan olov, ya’ni, muhabbat, ma’lum vaqt o‘tgach

o‘chishi, so‘nib qolishi mumkin. Shu kabi holatlar va undan boshqa sabablar tufayli oila ajrimlarining sodir bo‘lishi barcha zamonlar va davrlarda ham kuzatilgan. Faqat nikohning barbod bo‘lishi shakllari va sabablarida har bir davrda o‘ziga xos asoslar bo‘lgan deyish mumkin.

Masalan, Sharq mamlakatlarida qadimdan nikohning barbod bo‘lishi eng kam uchraydi, deb hisoblab kelingan. Chunki oila institutining poydevori mustahkam bo‘lishiga ajdodlarimiz qayg‘urganlar. Yetti pushtini surishtirish, sovchilik instituti orqali bir-biriga mos keladigan yoshlarning taqdirini bog‘lash, hattoki, uzoq qarindoshlar o‘rtasidagi nikohlar, ya’ni, oldindan birbirlarini bilgan odamlarning o‘zaro kelishuvi, mehr va muhabbat rishtalari orqali oila qurish o‘zbekchilikka xos odatlar sifatida qadrlangan va ta’kidlab o‘tilgan nikoh motivlarining barchasida oqilona fikr yuritish, yoshlar va ular ota-onalarining “yetti o‘lchab bir kesishi” oilaning mustahkam bo‘lishi uchun zamin hisoblangan.

Respublikamizning yetakchi psixolog olimlaridan G‘.B.Shoumarov o‘z tadqiqotlarida oilaning mustahkam bo‘lishi, er-xotin munosabatlarida o‘zaro qovushish muhim rol o‘ynaydi deb ko‘rsatadi. U o‘zaro qovushuvlarni shartli ravishda 3 tarkibiy qismga bo‘linishni e’tirof etadi. Ular: 1) biologik qovushuv, 2)psixologik qovushuv, 3)sotsial qovushuv.

Ba’zi hollarda mijoz turi jihatidan kelin-kuyovlar mos kelmasa-da, lekin ular orasidagi hissiyot kuchi, psixologik-pedagogik bilim saviyasi, oilaviy hayotni mustahkamlashga intilish, tarbiya va madaniy saviya darajasi, o‘zaro munosabat maromlari ularning o‘zaro qovushishini, oilaning mustahkamligini ta’minlay oladi.

Kelin-kuyovlarda alturizm (mehr-muhabbat) xudbinlikdan ustun bo‘lsa, har qanday tafovut, kelishmovchilik oilaviy turmush uchun xavf tug‘dirmaydi. Shuningdek, psixologik qovushuvda markaziy o‘rinni shaxs psixologiyasining tarkibiy qismlaridan biri bo‘lgan fe’l-atvor va xarakter egallashi alohida ta’kidlanadi.

G.Roland o‘z tadqiqotlarida oiladagi shaxslararo munosabatdan qoniqish uchun zarur kommunikativ sifatlarni ajratib ko‘rsatgan:

1.Muloqotmandlik.

2.Oilada yuqori darajadagi o‘zaro tushunish.

3.Er-xotinlarning jinsiy qoniqqanligi.

4.Emotsional qo‘llabquvvatlashning mavjudligi va ishonch.

5."Uy" ni oiladagi hamjihatlikni belgilovchi maskan deb qarash

Psixologik adabiyotlarda ajrimlarning tabiati, bu jarayonga oid qonuniyatlar ilmiy nuqtai nazardan beriladi. Masalan, S.Kraxotvil ajrim jarayonining quyidagi bosqichlarini ajratadi:

- Bosh ko‘tarish bosqichi: xo‘rlangan va norozi ayol o‘z faolligini oshirib, ajrim sodir bo‘lmasligining oldini olib uchun muayyan say’iharakatlarga kirishadi. Lekin barcha ishlarni xavotirlik va hayajon bilan amalga oshirgani sababli, ko‘p xatolarga yo‘l qo‘yadi va noma’qul ishlar ham qilib qo‘yishi mumkin;
- Tushkunlikka tushish bosqichi: ajralishni xohlamagan tomon vaziyatni boshqara olmaganligini tan olib, tushkunlik, depressiya holatiga tushadi, va endi o‘zini ham ayblay boshlaydi;
- Bo‘yinga olish bosqichi: ajralishni xohlamagan tomon endi mavjud holat bilan kelishib, bunday nikohning bo‘lganidan bo‘lmagani ma’qulligi fikriga keladi.

Albatta, shuni ta’kidlash joizki, ayrim hollarda ikkala tomon ongli ravishda, o‘zaro kelishib, bir-birlariga tana-dashnom bermaydilar va bunday ajrimlar yuqorida ko‘rsatilgan bosqichlarsiz sodir bo‘ladi. Demokratik huquqiy davlat, erkin fuqarolik jamiyati qurilayotgan davlatlarda ajrimlar masalasiga ham demokratik tarzda qaraladi, ya’ni, bu ikki tomonning yoki birining manfaatiga mos kelishi inobatga olinib, ajrim sodir etiladi, lekin bunday holatlarda, ayniqsa, yosh bolasi bilan qolgan ona ijtimoiy-psixologik yordamga, jamiyat tomonidan ko‘rsatiladigan madadga muhtoj bo‘ladi.

Rossiyada o‘tkazilgan oxirgi tadqiqotlarda nikoh ajrimlarining asosiy sabalari sifatida quyidagilar qayd etilmoqda (turli yoshli so‘raluvchilarning jami soniga nisbatan foiz hisobida):

- ✓ moddiy, maishiy muammolar – 55;
- ✓ er yoki xotinning ichkilikka ruju qo‘yishi – 39;

- ✓ yoshlar uchun oilaviy qadriyatlarning pastlab ketishi – 27;
- ✓ er-xotin xiyonati – 19;
- ✓ psixologik mos kelmaslik – 17;
- ✓ oilaviy hayotning mazmunsizligi – 12;
- ✓ boshqa birovni sevish qolish – 11;
- ✓ farzandlarning yo‘qligi – 7;
- ✓ boshqa sabablar – 2;
- ✓ javob berishga qiynalganlar – 6

Respublika “Oila” ilmiy-amaliy markazi tomonidan nikoh ajrimlarining sabablari o‘rganilganda, aksariyat holatlarda bu birinchi o‘rinda er-xotinlarning o‘zaro kelishmovchiliklari, fe’l-atvorning bir-biriga mos kelmasliklari, rashk, xiyonat, kelin bilan qaynona va boshqa yaqin qarindoshlarning chiqishmasliklari, erkakning zararli odatlarga berilib ketishi (ichkilikka, giyohvand moddalarga va shu kabi), moddiy qiyinchiliklar (asosan erning ishlamasligi, mustaqil oilani boshqara olmasligi), qudalarning to‘ydan keyin o‘zaro kelishmay qolishlari, erning daraksiz ketib qolishi kabilar qayd etiladi. Poytaxt bo‘yicha ajrimlar sabablari o‘rganilganda, iqtisodiy qiyinchiliklar tufayli oilaning buzilishi eng oxirgi o‘rinda qayd etiladi, chunki aksariyat o‘ziga to‘q, boybadavlat oilalarda yoshlar asosan uch sabab tufayli ajrishib ketmoqda: rashk va xiyonat, kelin-qaynona munosabatlaridagi kelishmovchilik va turmush sharoitidagi noqulayliklar. Umuman olganda, nikoh ajrimlarining bosh omili yoshlarni ma’naviy jihatdan turmush qurishga tayyor emasliklaridir.

O‘zbekiston Statistika qo‘mitasi ma’lumotlariga ko‘ra,mamlakatimizda nikoh ajrimlari asosiy sabablari sifatida psixologik mos kelmaslik (28%), moddiy qiyinchiliklar (25%) va xiyonat (18%) ko‘rsatilgan. Yosh oilalarda (18-25 yosh) ajrimlarning 40% dan ortig‘i “ma’naviy tayyorgarlik yo‘qligi” bilan bog‘liq.

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash joizki, er va xotin o‘rtasidagi munosabatlarning xususiyatlari va dinamikasi oila institutining barqarorligini aniqlovchi asosiy omillardan biridir. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, nikoh ajrimlari “turtki” va “orqaga ketish” kabi nazariyalar orqali tushuntiriladi, lekin asosiy sabablar psixologik, sotsial va iqtisodiy omillar bilan bog‘liq. Sharq mamlakatlarida, jumladan, O‘zbekistonda oila mustahkamligi uchun altruizm, o‘zaro qovushuv va kommunikativ sifatlar muhim rol o‘ynaydi. Er va xotin o‘rtasidagi munosabatlar oilaning asosiy poydevori hisoblanadi. Ularning xususiyatlari va dinamikasini yaxshi anglash, oilani mustahkam, baxtli va bardoshli qilish yo‘lida muhim ahamiyatga ega. Har ikki tomonning bir-biriga bo‘lgan hurmati, ishonchi va samimiy muloqoti oila umrini uzoq va mazmunli qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Karimova V. Oila psixologiyasi: Pedagogika oliy o‘quv yurtlari talabalari uchun darslik. – T.: 2008 – 152 b.

2. Shoumarov G‘.B. va b. Oila psixologiyasi. - T.: “Sharq”,2001 y.-272 б.

3. Андреева Т.В. Семейная психология. – СПб.: Речь, 2004.-244 с.

4. Карабанова О.А. Психология семейных отношений и основы семейного консультирования: Учебное пособие. М.: Гардарики, 2005. 320 с.

5. Шнайдер Л.Б. Семейная психология: Учебное пособие для вузов.2-е изд. М.: Академический проект. 2006. – 768 с.

6. Эйдемиллер Э.Г., Добряков И.Б., Никольская И.М. Семейный диагноз и семейная психотерапия. Учеб. пособие для врачей и психологов. СПб.: Речь, 2003. 336 с.

7. Алешина Ю.Е. Индивидуальное и семейное психологическое консультирование. – М.: Класс, 2004.

8. Каппенберг Р.П. Семейное кризисы // Психологическая энциклопедия. Изд. 2-е / Под ред. Р. Корсини, А. Ауэрбаха. – СПб.: 2003. – С. 795-796.

9. Осипова А.А. Общая психокоррекция. Учеб. пособие. М.: СФЕРА, 2002 г. 510 с.

EKOLOGIK GLOBALLASHUV DAVRIDA EKOLOGIK MADANIYATNI SHAKLLANTIRISHNING METODOLOGIK ASOSLARI

Azamova Sitora Ayonovna
Shahrisabz davlat pedagogika instituti
Ijtimoiy fanlar kafedrasi f.f.f.d (PhD)
azamovasitora04@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada ekologik globallashuv jarayonlarining ijtimoiy-falsafiy mohiyati, inson tafakkurida ekologik ong va ekologik madaniyatning shakllanish jarayoni hamda ularning o‘zaro bog‘liqligi tahlil qilinadi. Tadqiqotda ekologik madaniyatni rivojlantirishning metodologik asoslari, uning axloqiy, pedagogik, va aksiologik o‘lchovlari yoritilgan. Shuningdek, O‘zbekiston sharoitida ekologik ongni kuchaytirishning strategik yo‘nalishlari ham o‘rganiladi.

Kalit so’zlar:ekologiya,globallashuv, ekologik madaniyat, biosfera, ekologik ong, ehtiyoj, ekologik ta’lim, ma’naviyat,ekologik vaziyat.

Abstract. The article analyzes the socio-philosophical essence of the processes of ecological globalization, the process of formation of ecological consciousness and ecological culture in human thinking and their interrelation. The methodological foundations of the development of ecological culture, its ethical, pedagogical and axiological aspects, as well as strategic directions for strengthening environmental awareness in Uzbekistan are considered.

Key words: ecology, globalization, ecological culture, biosphere, environmental consciousness, need, environmental education,spirituality, environmental situation.

Аннотация. В статье анализируется социально-философская сущность процессов экологической глобализации, процесс формирования экологического сознания и экологической культуры в мышлении человека и их взаимосвязь. Рассматриваются методологические основы развития экологической культуры, её этические, педагогические и аксиологические аспекты, а также стратегические направления укрепления экологического сознания в условиях Узбекистана.

Ключевые слова: экология, глобализация, экологическая культура, биосфера, экологическое сознание, потребность, экологическое образование, духовность, экологическая ситуация.

XXI asrda globallashuv jarayonlari insoniyat hayotining barcha jabhalarini qamrab oldi. Texnologik taraqqiyot, urbanizatsiya, raqamli iqtisodiyotning kengayishi bilan bir qatorda ekologik muvozanatga bo‘lgan xavf ham ortib bormoqda. Bugun insoniyat nafaqat iqtisodiy, balki ekologik jihatdan ham bir butun global tizimga aylangan. Shu bois “ekologik globallashuv” tushunchasi zamonaviy falsafa va ijtimoiy fanlarda alohida ilmiy kategoriya sifatida shakllanmoqda.Inson hayotini tabiiy muhitsiz tasavvur etish qiyin. Shuning uchun ham tabiatni muhofaza qilish,uning sof va musaffoligini saqlash insonning muqaddas burchi hisoblanadi.Tabiat dunyosidagi yil faslarining o’zgarib turishi ma’lum tabiiy qonuniyatlari asosida ro’y beradi. Insoniyat oldida turgan eng katta muammolardan biri tabiatni tabiiy holda saqlab qolishdir. Bugungi kunda deyarli barcha fan sohalarida ham ekologiya muammolarini hal etish masalalari bo’yicha ish olib borilmoqda. Fan texnika taraqqiyotining jadallashuvi, ishlab chiqarish texnologiyalarining nomukammalligi, insonlarning tabiatga nisbatan iste’molchilik ehtiyojining ortib borishi jamiyat bilan tabiatning o’zaro aloqalarining yomonlashuvu sababidir. Jamiyatning tabiatga ta’sir o’tkazish kuchi shu darajaga yetib bordiki, ular o’rtasidagi o’zaro uyg’unlikka zarar yetib, tabiiy muvozanatning buzilishiga olib keldi.Bu muammolarni hal etishning asosiy yo’li o’sib kelayotgan yosh avlodni ekologik madaniyatli qilib tarbiyalashdir.

Davlatimiz rahbari Sh.Mirziyoyev ta’kidlaganidek ,’’Eng muhim masala-aholining ekologik madaniyatini oshirish haqida jiddiy bosh qotirishimiz zarur. Albatta, bunday muammolarni faqat ma’muriy yo’l bilan hal etib bo’lmaydi, yosh avlod qalbida ona tabiatga mehr-muhabbat, unga daxldorlik hissini tarbiyalash orqali erishish mumkin’’[1;570].Hozirgi kundagi ekologik muammolar, ekologik muhitning ahvoli, bolalardagi kamqonlik, turli yuqumli kasalliklar, alleriya, nuqsonli tug’ilishlar ekologiyaning ta’siri haqidagi adabiyotlarni o’rganib

chiqish, zamonaviy pedagogik izlanishlarni tahlil qilish va ular asosida yangi metodlarni ishlab chiqish bolalarda yoshlikdanoq ekologik tarbiyaga bo'lgan ehtiyojni oshirib bormoqda

"Inson tomonidan biosferaga ko'rsatilayotgan ta'sirni tartibga solish, ijtimoiy taraqqiyot bilan qulay tabiiy muhitni saqlab qolishning o'zaro ta'sirini uyg'unlashtirish, inson va tabiatning o'zaro munosabatlarida muvozanatga erishish muammolari borgan sari dolzarb bo'lib qolmoqda. Ekologik xavfsizlik kishilik jamiyatining buguni va ertasi uchun dolzarbligi, uning zarurligi bois eng muhim muammolar jumlasiga kiradi. Bu muammolar amaliy tarzda hal etilsa, ko'p jihatdan hozirgi va kelgusi avlod turmushining ahvoli va sifatini belgila imkonini beradi"
[2,b 8]

Ekologik madaniyatni shakllantirishga mutassaddi muassasalar kishilarning tabiatni muhofaza qilish imkoniyatlarini namoyon etishlari uchun, zarur shart-sharoitlarni yaratish borasida, davlat yoki nodavlat tashkilotlari, jamoat tashkilotlari bilan hamkorlikdagi faoliyati bu boradagi ishlarning samarasini oshiradi. Shu ma'noda, ekologik madaniyat tarixi: xalq ijodiyoti rivoji, ekologik tafakkur, ijodiy izlanish, ekologik ishlab chiqarish madaniyatini, aholining dam olish madaniyatini, jismoniy tarbiyani takomillashtirish, yangi bayram va marosimlarni joriy qilish jarayonidagi mazmun va shakllarga ega bo'lib boradi.

Yoshlarda ekologik madaniyatni shakllantirish va barkamol avlod qilib tarbiyalash yoshlarga oid davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi bo'lib, bu borada nazariy va amaliy shart-sharoitlar yaratilgan.O'zbekistonda islohotlarning birinchi bosqichida davlat ekologik siyosatining huquqiy negizlari ishlab chiqilishiga alohida e'tibor berildi. Chunki, demokratik huquqiy davlat qurish, ya'ni ekologik munosabatlarga mos keluvchi huquqiy qonunlarni qabul qilishni taqozo qilmoqda.[3,b 209]

Ekologik munosabatlarning yer sayyorasi bo'ylab shiddatli tarqalishi, tabiiy resurslar sarfining haddan ziyod ortishi,atmosfera havosining ifloslanishi,hamda fan va texnika yutuqlaridan tor manfaatlar yo'lida foydalanish ortidan iqtisodiy,madaniy, ijtimoiy muammolarning tug'ilishi bilan bir vaqtda mintaqalarda murakkab ekologik vaziyatni keltirib chiqardi.

Ekologik vaziyat deganda muayyan hududdagi tabiiy shart-sharoitlar va resurslar,shart-sharoitlarning inson turmushi uchun maqbulligi darajasi,uni ijobiy yoki salbiy tomonga o'zgartirayotgan va o'zgartirishi mumkin bo'lgan omillar yig'indisi nazarda tutiladi.[4,b 34]

Bu esa aholi ongida ekologik vaziyatni xavf ostida ekanligini tezroq singdirish va uni yaxshilash chora tadbirlarini ishlab chiqish kabi muammolarni hal etishni taqozo etmoqda.

Ma'lumki ota-bobolarimiz qadimdan bebaho boylik bo'lmish ilmu ma'rifat, ta'lim va tarbiyani inson kamoloti va millat ravnaqining eng asosiy sharti deb bilgan. Birinchi prezidentimiz I.A.Karimov ta'kidlab o'tganidek ''Ko'p yillik ilmiy kuzatish va tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, inson o'z umri davomida oladigan barcha informatsiyaning 70 foizini 5 yoshgacha bo'lgan davrida olar ekan''[5,b 53]. Shundan kelib chiqqan holda aytish mumkinki ekologik ta'lim haqidagi ilk saboqlarni singdirishni aynan mana shu davrdan boshlash kerak.Chunki bu yoshda bolaning beg'ubor ongi bamisoli bosma qog'oz singari oiladagi,yon-atrofdagi barcha voqea-hodisalarni,ularning zamiridagi taassurotlarni o'ziga singdirib oladi. Atrof-muhit,urf-odatlarda tan olingan me'yorlar va tartib-qoidalar oilada bolalarning shaxs sifatida shakllanishiga kuchli ta'sir qiladi. Sog'lom turmush tarzini shakillantirishni toza atrof muhitsiz, boshqacha qilib aytganda ekologik xavfsiz tabiiy muhitsiz bir yoqlama tasavvur etib bo'lmaydi. Sog'lom tur-mush tarzi hamda atrof tabiiy muhit bir-biri bilan o'zaro chambarchas bog'langandir. Sog'lom atrof tabiiy muhit, tabiiy muhitning toza va musoffoligi bolalarning sog'lom va yetuk voyaga yetishining asosiy omillaridan biridir. Ekologik muammo taraqqiyot, xavfsizlik, aholining turmushi va bevosita odamlar hayotining davomiyligiga ta'sir ko'rsatib, ayniqsa aholining eng yosh qismi bo'lgan bolalar hayotiga katta xavf soladi. Sir emaski ifloslangan, zaxarlangan atrof –muhit birinchi navbatda hali yosh, endi rivojlanib shakillanib borayotgan organizmga katta ta'sir ko'rsatadi, uning fiziologik va ruhiy rivojlanish holatiga ham ta'sir etmay qolmaydi. Oxirgi yuz yillikda respublikamiz ekologik tizimiga katta sa'lbiy ta'sir yetkazildi, ajdodlarimizning tabiatdan foydalanish borasidagi xalq udumlari va an'anaviy odob-axloq qoidalari unitib yuborildi.

Xalqimiz boy ekologik madaniyatga ega. Asrlar davomida shakillanib kelgan boy milliy ma'naviy qadriyatlarimiz va merosimiz shundan dalolat berdiki, ota –bobolarimiz, ajdodlarimiz ona zaminga o'zgacha munosabatda bo'lib suv, tuproq, havoni qadrlaganlar. Atrof-muhitni, uyni, mahallani, ko'cha-kuyni, shahar, qishloq,ovullarini,bozorlarni, ariqlarni, hovuzlarni, toza, saronjom-sarishta tutganlar.

Boshqacha aytganda, ekologik ma'naviyatga, ekologik, qoida va mezonlarga to'la amal qilganlar. Oilada farzand tug'ilsa, unga atab daraxt ekilgan. Tirik jonivorlarga ozor yetkazilmagan. Ma'lumki hozirgi zamon fan texnikasining jadal rivojlanishi tabiiy muhitga sal'biy ta'sir ko'rsatadi. Natijada murakkab ekologik muammolar kelib chiqdi. Ayniqsa hozirgi paytda oilada ekologik omil va talablarga asoslanib sog'lom turmush tarzini shakillantirish masalalari muhim kasb etmoqda. Bizning nazarimizda, oila –oila a'zolari o'rtasida sog'lom turmush tarzini shakillantirish, unga rioya qilish va targ'ib qilish, zararli odatlarni oldini olish, toza musoffo tabiiy muhitni qaror toptirishning kichik yorqin modeli hisoblanadi. Oila a'zolarining munosabati, xo'jalik yuritish uslubi, tartib qoidalari va odat ko'nik-malari oilaning qadriyatlarini belgilaydi. Ko'p mingyillik jamiyatimiz tarixi shundan dalolat berdiki oilada ma'naviy–ekologik qadryatlarga va uning qaror topishiga katta e'tibor berilgan. Bola, asosan, oilada o'sib-ulg'ayadi, rivojlanadi, o'z his-tuyg'ulari va xatti-harakatlarini nazorat qilishni o'rganadi.Ota-onalar bolaning kayfiyati,ahvoli va xulqi yashayotgan sharoitga bog'liq bo'lishini yaxshi bilishi kerak.Shu bilan birga, farzandlariga sog'lom bo'lish uchun gigiena qoiadalariga rioya qilish shartligini uqtirib borishlari lozim.Bu esa oilada sog'lom turmush tarzining shakllanishiga olib keladi. Bolalarni yoshligidan hayotga qiziqish va mehrni uyg'otishda ota-onaning tutgan o'rni beqiyos.Bola ko'p vaqtini uyda o'tkazadi.Shunday ekan, ota onaning farzandiga ozodalik, saranjom-sarishtalik, nima yaxshiyu, nima yomonligini, o'rgatib borishi, hovlini supurish, o'simliklar-u jonivorlarga o'z vaqtida qarab, ularni parvarishlab o'stirish va e'zozlash ruhida tarbiyalashi muhim pedagogik ahamiyat kasb etadi.Ekologik madaniyat axloqiy burch va qonun ustuvorligiga muvofiq ma'suliyatli xatti harakatlar va faoliyatga tayyorgarlikda namoyon bo'ladi.

Ekologik tarbiya insonning tabiatga,biosferaga bo'lgan yangicha munosabatlarini shakllantirishda muhim bosqich hisoblanadi. Bu, o'z navbatida, mustaqil respublikamizda yuksak ekologik madainiyatli, o'z Vataniga ,eliga xizmat qiladigan insonning shakllanishida asos bo'lib xizmat qilishi mumkin[6,b 2].

Ekologik tarbiyaning maqsadi inson va tabiatni o'zaro uyg'unlashtirib, ekologiyani anglatish va o'quvchilarda ekologik ma'suliyat va madaniyatni shakllantirishdan iborat. Ekologik ta'lim va tarbiyadan maqsad maktab o'quvchilarida atrof-muhitga ma'sullik munosabatini tarkib toptirishning ta'minlovchi ilmiy bilim qarash va e'tiqodlar tizimini shakllantirishdan iborat. Ekologik ta'limda dunyoqarashni ekologiyalashtirish ham muhim yo'nalishlardandir.Bunga erishishning muhim vositasi insonlarning o'z ustida ishlashlari, tabiat sirlarini o'rganishga va ekologik bilimlarni oshirib borishga bo'lgan intilishlaridir.[7,b 222].

Ekologik ta'lim-o'quvchilarda inson va tabiat o'rtasidagi munosabatlar haqidagi bilimlar bo'lsa, ekologik tarbiya-esa insonning atrof muhitga nisbatan munosabatni tarbiyalashdir.

Xulosa: Tabiatni muhofaza qilish va ekologik tarbiya masalasi pedagogika fanlarining ham eng muhim tarbiyaviy qismidir.Insonlarda tabiatning qonunlariga rioya etish to'g'risida va bu sohada vatan, xalq, davlat, kelajak avlod oldidagi burch tuyg'usi va ma'suliyat yaratilmasa, ularda ekologik ong va madaniyat hosil bo'lmaydi. Ekologik ong va tafakkurga ega inson o'z mehnat faoliyati davomida tabiatga ehtiyotkorona munosabatda bo'ladi, tabiatga noto'g'ri munosabat qanday oqibatlarga olib kelishini oldindan bilib, ongli ravishda ish ko'radi.Kishilarda ekologik ong hamda tafakkurni, ekologik dunyoqarashni shakllantirish tabiatni to'g'ri tushunishga yordam beradi va kelajakda sog'lom muhitni yaratishga kafolat beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1.Mirziyoyev SH.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz.-T; O'zbekiston,NMIU,2018,-B.570

2.Mirziyoev Sh.M. "Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish to'g'risida" gi Farmoni 21-aprel 2017 yil Toshkent.

3. Omonov.B.N. “Ekologik tarbiya tizimida ongli ehtiyojni shakllantirish masalalari” O‘zMU xabarlari. –T.: -№ 1/2. 2017. –B.206-210

4. Omonov.B.N ‘’Ekologik globallashuv va uning O’zbekistondagi ekologik muhitga ta’siri’’,T-2021 Monografiya 34-bet.

5.I.A.Karimov Yuksak ma’naviyat yengilmas kuch.-T;Toshkent,Ma’naviyat,2010,53-bet.

6.A.To’xtayev. Ekologiya.T., “O’qituvchi”., 1998 y.

7. P.S.Sultonov. B.P.Axmedov. Ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish asoslari.-T.:2004 yil,-222 bet.

VOYAGA YETMAGANLARNING MEHNAT QILISH HUQUQI: CHEKLOVLAR VA HIMOYA

Xalxodjayeva Nargiza Yusupjonovna
O‘zbekiston xalqaro islomshunoslik doktoranti
e-mail: nxolxojayeva@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada bolalar mehnatining salbiy oqibatlari, bu borada xalqaro huquqiy hujjatlar va O‘zbekiston qonunchiligidagi normalar ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, maqolada islom dinining bolalar huquqlarini himoya qilishga qaratilgan ko‘rsatmalari, bolaning mehnat qilish va ta’lim olish huquqlarining muvozanati masalalari yoritiladi. O‘zbekistonda bolalar mehnatiga qarshi kurashish borasida erishilgan yutuqlar va bu sohada amalga oshirilayotgan islohotlar xalqaro ekspertlar tomonidan e’tirof etilganligi ta’kidlanadi.

Kalit so‘zlar: bola huquqlari, bolalar mehnati, mehnat huquqi, shariat, islom, bolalar ta’limi.

Abstract. This article examines the negative consequences of child labor, international legal documents in this area, and norms in the legislation of Uzbekistan. The article also highlights the guidelines of Islam aimed at protecting children's rights and issues of balancing children's rights to work and education. It is noted that the achievements in combating child labor in Uzbekistan and the reforms being implemented in this area have been recognized by international experts.

Keywords: children's rights, child labor, labor law, Sharia, Islam, children's education.

Аннотация. В данной статье рассматриваются негативные последствия детского труда, международно-правовые документы и нормы законодательства Узбекистана в этой области. Также в статье освещаются руководящие принципы ислама, направленные на защиту прав детей, вопросы баланса прав ребенка на труд и образование. Отмечается, что достижения Узбекистана в борьбе с детским трудом и проводимые в этой сфере реформы получили признание международных экспертов.

Ключевые слова: права ребенка, детский труд, трудовое право, шариат, ислам, детское образование.

Mehnat - inson hayotining ajralmas qismi bo‘lib, jamiyatning rivojlanishiga va farovonligiga xizmat qiladi. Biroq, bolalar mehnatiga kelganda, vaziyat o‘zgaradi. Chunki bolalar jismoniy va aqliy jihatdan zaif bo‘lib, ularning ekspluatatsiya qilinishi, ta’lim olish huquqidan mahrum etilishi va sog‘lig‘iga zarar yetkazilishi mumkin. Shuning uchun islom dini bolalarning mehnat qilish huquqini tartibga solishda qat’iy cheklovlar va himoya choralarini belgilab bergan.

Bolalar barcha jamiyatlarning eng zaif qatlamidir. Bu qatlam ko‘plab muammo va qiyinchiliklarga duch kelmoqda. Og‘ir va mashaqqatli mehnat, ruhiy va jismoniy zo‘ravonlik, jinsiy tajovuzga uchrash va tegishli ta’lim hamda tarbiya imkoniyatlaridan foydalana olmaslik bolalar duch keladigan eng muhim muammolardir. Bolalarni himoya qilish esa hukumat va ota-onalarning asosiy vazifalaridan biridir. Ushbu himoya huquqlaridan biri bolalarni og‘ir ishlarga jalb qilmaslikdir. [1].

“Bolalar mehnati” ko‘pincha bolalarni bolalik davrini o‘tkazishdan mahrum qiladigan, ularning salohiyati va qadr-qimmatini pasaytiradigan, jismoniy va aqliy rivojlanishi uchun zararli bo‘lgan ishlar sifatida tavsiflanadi. Unga ko‘ra, bolalar mehnati quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- bolalar uchun aqliy, jismoniy, ijtimoiy yoki axloqiy jihatdan xavfli va zararli ishlar;
- ularning maktabga muntazam qatnashiga to‘sqinlik qilib, ta’lim olish huquqidan mahrum bo‘lishiga, maktabni erta tark etishiga olib keladigan ishlar;
- bolalar maktab bilan birgalikda bajarishlari kerak bo‘lgan og‘ir ishlar [2].

Bolalar mehnati bola huquqlariga ta’sir ko‘rsatadigan jiddiy global muammodir. Umuman olganda, bolalar mehnati bolalarning xavfli yoki xavfsiz bo‘lishidan qat’i nazar, har qanday ish faoliyatini o‘z ichiga oladi. Millionlab bolalar butun dunyo bo‘ylab o‘z oilalariga yoki o‘zlariga yordam berish uchun ishlaydilar. Afsuski, ko‘pchilik bolalar qurolli kuchlar, giyohvand moddalar savdosi va jinsiy ekspluatatsiya kabi xavfli ishlarga jalb qilinishga majbur bo‘lmoqda. Bu bolalar huquqlarini, ayniqsa mehribonlik bilan muomala qilish, ta’minot, sog‘lom hayot va ta’lim olish huquqlarini ochiqdan-ochiq buzadi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, bolalar bandligining taxminan to‘qson foizi bolalar mehnati toifasiga kiritilishi mumkin. Bolalar mehnati bo‘yicha Jahon hisobotiga ko‘ra, taxminan 168 million bola hamon bolalar mehnatiga jalb qilingan. 5-17 yosh guruhi bo‘yicha bolalar mehnati qizlarga nisbatan o‘g‘il bolalar orasida ancha yuqori bo‘lib, 99,8 million o‘g‘il bola va 68,2 million qizni tashkil etadi [3,7]. Ishlayotgan bolalarning 41 foizi Shimoliy Afrikada, 21 foizi esa Osiyo va Lotin Amerikasida mehnat qilmoqda [4].

YUNISEF tashkiloti bolalarga mos keladigan ishlarga quyidagicha izoh bergan: “Bolani haddan tashqari charchatmaydigan va zarar yetkazmaydigan, uning jismoniy va ruhiy rivojlanishi hamda mustahkamlanishini ta’minlaydigan ish - bolalar ishlashi mumkin bo‘lgan ishlardir. Bu ish uning ta’lim olishi va o‘yin-kulgi qilishiga zarar yetkazmasligi kerak”.

YUNISEFning fikricha, bolalarga mos ishlar ham mavjud bo‘lib, ular taqiqlanmaydi. Ushbu tashkilotga ko‘ra, yosh bolalarni to‘liq ish kuniga jalb qilish, kunlik ish vaqtining uzoqligi, jismoniy, ruhiy yoki ijtimoiy jihatdan chidab bo‘lmas bosimlar, ko‘chada uxlash va ishlash, yetarli bo‘lmagan ish haqi, ta’lim olishga to‘sqinlik qiladigan mehnat, bolaning shaxsiyati va tanasiga zarar yetkazadigan ishlar, bolalarni quldek ishlatish va jinsiy zo‘ravonlikka olib keladigan ishlar taqiqlangan sohalar hisoblanadi.

Bola huquqlari to‘g‘risidagi xalqaro konvensiyaning 32-moddasida esa quyidagicha izoh berilgan: “Konvensiyaga a’zo davlatlar bolalarni har qanday iqtisodiy suiiste’moldan, ta’lim jarayoniga, sog‘lig‘iga, ruhiy, jismoniy, ma’naviy, axloqiy va ijtimoiy rivojlanishiga zarar yetkazadigan ishlarda ishlashdan himoya qilish huquqini tan oladilar”.

Bundan tashqari, konvensiya ishtirokchilari bo‘lgan davlatlar ushbu moddani amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan huquqiy, ijtimoiy, ta’limiy va ijro etish choralarini ko‘rishni kafolatlashlari kerak. Boshqa xalqaro hujjatlarda qayd etilganidek, bolalar mehnati bilan bog‘liq quyidagilarga ham e’tibor qaratish lozim:

-ishlash uchun zarur bo‘lgan minimal yoshni belgilash;

-ish sharoitlari va vaqtini belgilash bilan bog‘liq qonunlarni tasdiqlash;

-mazkur moddalar ijrosini ta’minlash maqsadida muayyan jazo choralarini belgilash.

Ushbu moddalarda bolaning minimal yoshi va mehnat sharoitlariga alohida e’tibor qaratilib, hukumatlardan bolaga zarar yetkazadigan har qanday mehnat turini oldini olish talab qilingan.

Ko‘rsatilgan moddalarda, shuningdek, a’zo davlatlarning boshqa xalqaro hujjatlarga ham e’tibor qaratishi zarurligi eslatib o‘tilgan.

Xalqaro Mehnat Tashkilotining tavsiyalari va konvensiyalari bolalarni mehnatga jalb qilishni taqiqlovchi eng muhim xalqaro hujjatlardir. Xalqaro Mehnat Tashkiloti 1919-yildan hozirgi kungacha bolalar mehnati bilan bog‘liq bir nechta konvensiyalarni ishlab chiqdi. Ushbu konvensiyalar orasida quyidagilarni ta’kidlash mumkin:

1919-yilda tasdiqlangan Minimal yosh to‘g‘risidagi 5-sonli konvensiya: Ushbu hujjatda 14 yoshdan kichik bolalarni sanoat zonalarida ishlashi taqiqlangan deb e’lon qilingan.

1919-yilda tasdiqlangan “Yoshlarni tungi smenada ishlashi to‘g‘risida”gi 6-sonli konvensiya. Ushbu hujjatda 18 yoshdan kichik yoshlarning sanoat sohasida ishlashi taqiqlangan. Biroq, favqulodda vaziyatlarda jamiyat manfaati uchun 16 yoshdan 18 yoshgacha bo‘lgan yoshlar ushbu sohada ishlashi mumkin. Ushbu konvensiya 1921-yilda majburiy ravishda kuchga kirgan.

1920-yilda tasdiqlangan Dengizchilikda minimal yosh to‘g‘risidagi 7-sonli konvensiya: Ushbu hujjatda bolalarning dengizda ishlashi uchun minimal yoshni belgilash nazarda tutilgan. Ushbu hujjatga ko‘ra, 14 yoshdan kichik bolalar dengizchilikda ishlamasligi kerak.

1921-yilda tasdiqlangan Qishloq xo‘jaligida minimal yosh to‘g‘risidagi 10-sonli konvensiya. Ushbu hujjat 1931-yilda majburiy ravishda amalga kiritilgan. Mazmuniga ko‘ra, 14 yoshdan kichik bolalarni xoh davlat, xoh xususiy sektor bo‘lsin, qishloq xo‘jaligi sohasida ishlatish mumkin emas. Ushbu hujjatga ko‘ra, qishloq xo‘jaligi bo‘yicha ta’lim bolalarga dars soatlaridan tashqari vaqtda berilishi mumkin.

Bolalarni mehnatga jalb qilish bilan bog‘liq masalalarni tartibga soluvchi xalqaro konvensiyalar va hujjatlar mavjudligiga qaramay, dunyoning ko‘plab joylarida hali ham ishlaydigan bolalar inqirozi kuzatilmoqda [5].

Bola huquqlari to‘g‘risidagi xalqaro konvensiyaga O‘zbekiston Respublikasi 1992-yil 9-dekabrda qo‘shilgan. Konvensiyani ratifikatsiya qilgan yoki unga qo‘shilgan davlatlar uni bajarish yuzasidan tadbirlar bo‘yicha Bola huquqlari qo‘mitasiga muntazam ravishda milliy ma’ruzalar yuborib turadi.

Mamlakatimizda bolalar mehnatining har qanday shakllariga barham berishda ko‘rilgan choralar o‘z samarasini bermoqda. Buni nufuzli xalqaro va xorijiy ekspertlar hamjamiyati ma’lumotlari ham tasdiqlaydi.

Jumladan, 2018-yil AQSH O'zbekistonning paxta mahsulotlarini bolalar mehnati orqali yetishtiriladigan mahsulotlar ro‘yxatidan chiqardi. 2020-yil 30- sentyabrda AQSH Mehnat vazirligi O‘zbekistonda bolalar mehnatining eng yomon shakllariga barham berishga qaratilgan sa’y-harakatlar muvaffaqiyatga erishganligini e’tirof etdi.

2021-yil 27-yanvarda “Kotton Kompeyn” xalqaro kaolitsiyasi o'z rasmiy veb-saytida “O‘zbek paxtachiligida o‘zgarayotgan manzara” sarlavhasida O'zbekistonda 2020-yilgi paxta yig‘im terimi mavsumi davomida bolalar mehnati va majburiy mehnatning oldini olish bo‘yicha ko‘rilayotgan choralar o‘z samarasini berganini e’tirof etdi.

2020-yilda Xalqaro mehnat tashkiloti tomonidan mustaqil jamoatchilik tashkilotlari bilan birgalikda “Uchinchi tomon monitoringi” o‘tkazildi. Uning natijalariga ko‘ra, xalqaro ekspertlar 2019-2020-yillardagi paxta yig‘im-terimi davomida bolalar mehnatidan umuman foydalanilmaganligi to‘g‘risidagi qat’iy xulosalarini e’lon qildi.

Bolalar mehnatiga qarshi kurashish sohasida erishilgan yutuqlar, shubhasiz, O‘zbekistondagi islohotlar muvaffaqiyatining muhim ko‘rsatkichi bo‘lib, mamlakatning xalqaro nufuzi va ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti sur’atlari o‘sishiga o‘zining ijobiy ta’sirini o‘tkazmoqda [6].

Bundan tashqari, O‘zbekiston Respublikasining “Bola huquqlari kafolatlari to‘g‘risida”gi qonunining 20-moddasida ham bolalarning mehnat huquqlari kafolatlab qo‘yilgan.

Har bir bola o‘zining yoshi, sog‘lig‘ining holati va kasbiy tayyorgarligiga muvofiq qonunchilikda belgilangan tartibda mehnat qilish, faoliyat turini va kasbni erkin tanlash, adolatli mehnat sharoitlarida ishlash huquqiga ega.

Ishga qabul qilishga o‘n olti yoshdan yo‘l qo‘yiladi.

Bolalarni mehnatga tayyorlash uchun umumiy o‘rta, o‘rta maxsus, professional ta’lim tashkilotlarining o‘quvchilarini ularning sog‘lig‘iga hamda ma’naviy va axloqiy kamol topishiga ziyon yetkazmaydigan, ta’lim olish jarayonini buzmaydigan yengil ishni o‘qishdan bo‘sh vaqtida bajarishi uchun — ular o‘n besh yoshga to‘lganidan keyin ota-onasidan birining yoki ota-onasining o‘rnini bosuvchi shaxslardan birining yozma roziligi bilan ishga qabul qilishga yo‘l qo‘yiladi.

Davlat o‘n sakkiz yoshga to‘lmagan ishlovchi shaxslarga ishni ta’lim bilan qo‘shib olib borishi uchun zarur sharoitlarni yaratib berish va qonunchilikda nazarda tutilgan boshqa choralarni ko‘rish orqali bolaning mehnat qilish huquqi ta’minlanishini kafolatlaydi [7].

Islom huquqida bolalar huquqining ta’minlanishiga keladigan bo‘lsak, islom dinining asosiy maqsadlaridan biri insoniyatning manfaatlarini ta’minlash, adolatni o‘rnatish va jamiyatda har bir a’zoning farovonligini ta’minlashdan iboratdir. Bu maqsadga erishishda bolalar alohida o‘rin tutadi, chunki ular jamiyatning kelajagi, umidi va poydevoridir. Shuning uchun ham islom dini bolalarning huquqlarini himoya qilishga, ularning sog‘lom o‘sishi va kamol topishiga alohida e’tibor qaratadi. Bu borada bolaning mehnat qilish huquqi ham muhim ahamiyat kasb etadi. Islomda bolalar mehnatiga oid bevosita ko‘rsatmalar bo‘lmasa-da, Qur’oni karim va hadisi shariflarda bolalarga g‘amxo‘rlik qilish, ularning huquqlarini himoya qilish va ularga zarar yetkazmaslik haqida ko‘plab ko‘rsatmalar mavjud. Islom ulamolari ana shu ko‘rsatmalarga asoslanib, bolalar mehnatiga oid qoidalar va cheklovlarni ishlab chiqqanlar.

Islom bolani nozik shaxs sifatida ko‘radi va shuning uchun u himoyaga munosib deb hisoblaydi. Bolalarning manfaatlarini himoya qilish maqsadida, islom huquqi ota-onalar, kattalar, jamiyat yoki hukumat tomonidan bajarilishi kerak bo‘lgan bolalar huquqlarini batafsil belgilab bergan. Bu huquqlar bola hali homilalik davridandan boshlab himoya qilinadi. Eng muhimi, islom bolaga nisbatan hech qanday zo‘ravonlik yoki zarar yetkazishni tan olmaydi. Payg‘ambarimiz (s.a.v.) ning bir hadislarida shunday deyiladi: “Kichiklariga mehribonlik ko‘rsatmagan va kattalarni ulug‘lamagan kishi bizdan emas” [8,597].

Islom olamining yirik olimlaridan Shayx Yusuf Qarzoviy bolalar mehnati xususida shunday degan: “Asosiy tamoyil shundan iboratki, bola o‘z bolaligidan zavqlanish huquqiga ega va uning bolaligi erta voyaga yetishga aylantirilmasligi kerak. Chunki bu bolaga salbiy ta’sir ko‘rsatadi va uni hayotining muhim bosqichi bo‘lgan bolalikdan mahrum qiladi. Bola bolaligida o‘ynashi va iloji boricha o‘rganishi kerak, ayniqsa aqlli va iste’dodli bolalar toifasiga kirsa. Ba’zi jamiyatlarning bolalarni ta’limdan mahrum qilishi yoki ta’lim ololmaydigan bolalarga yordam bermasligi mutlaqo to‘g‘ri emas.

Bolalar qila oladigan ishlar bor va bular tabiiy ishlardir. Masalan, otasi dehqon bo‘lsa, uni dalalarga, ta’til paytlarida yoki bo‘sh vaqtlarida o‘zi bilan olib boradi. Yoki otasining ustaxonasi bo‘lsa, otasining kasbini o‘rganish uchun u bilan birga borishi mumkin. Bunday hollarda bu taqiqlangan ish deb hisoblanmaydi.

Agar bolaning oilasi kambag‘al bo‘lsa va o‘z ehtiyojlarini qondirish uchun yetarli mablag‘ga ega bo‘lmasa, bolaning ishlashida muammo yo‘q. Lekin bu ish bolaning yoshi va mehnat qobiliyatiga mos bo‘lishi kerak. Shuning uchun unga qobiliyati va yoshidan ortiq yuk yuklamaslik kerak.

Bolaning tabiatiga zid bo‘lgan, qattiq mehnatga asoslangan ishga mutlaqo yo‘l qo‘yib bo‘lmaydi. Bunday ish, undagi qat’iy vaqt va bajarilishi shart bo‘lgan vazifalar hajmi bilan bolaning o‘yin-kulgi va erkalanishga bo‘lgan tabiiy ehtiyojini cheklaydi. Ayniqsa, hayotining o‘yinqaroq bosqichida bola qattiq mehnatga emas, balki quvnoq vaqt o‘tkazishga muhtoj. Shuning uchun bunday og‘ir mehnat bolaga hech qanday holatda ruxsat etilmasligi kerak [9].

Bolalar mehnati bilan bog‘liq masalalarni tasvirlovchi va muhokama qiluvchi cheklangan hadislardan tashqari, bolalarga zarar yetkazishni taqiqlovchi ko‘plab qoidalar mavjud. Bu islom huquqining maqsadlariga (maqosid ash-shari’a) muvofiq bo‘lib, inson manfaatini saqlash va ularga yetishi mumkin bo‘lgan har qanday qiyinchilikni bartaraf etishga qaratilgan. Islom shariati otaga farzandlarini ta’minlash mas’uliyatini yuklaydi Rasulolloh (s.a.v) shunday deganlar: “Insonning sarflagan puli ichida eng yaxshisi oilasiga sarflagan pulidir”.

Bolalarni og‘ir va xavfli mehnatga jalb qilish ularga azob berish va zarar yetkazish toifasiga kiradi, hatto bu niyatsiz yoki oqibatlarini bilmasdan qilingan bo‘lsa ham. Agar biz shariatga ko‘ra zarar yetkazish taqiqlangan deb aytsak, bundan bolalar og‘ir mehnat bilan shug‘ullanmasligi kerak degan xulosa kelib chiqadi. Aslida, biz shariat insonlardan mashaqqatli vazifalarni talab qilmasligini ko‘ramiz va bu Qur’onda aniq bayon qilingan:

“U sizlarni tanlab oldi. Va sizga bu dinda hech tanglik qilmadi” [10,54].

Boshqa bir oyatda yana shunday deyiladi: “Alloh sizlarga yengillikni xohlaydi va sizlarga qiyinchilikni xohlamas” [11,165]

“Alloh hech bir jonni toqatidan tashqari narsaga taklif qilmas” [12,303].

Yuqoridagi oyatlardan ko‘rinib turibdiki, Alloh taolo ma’lum diniy vazifalarni yuklayotganda insonlarni qiyin ahvolga solishni nazarda tutmaydi. Shuningdek, bu tamoyil Alloh taolo insonlar tomonidan boshqa insonlarga yuklanadigan har qanday qiyinchilikni xohlamasligini aks ettiradi. Bundan kelib chiqadiki, musulmon kishiga boshqa odamga qiyinchiliklar tug‘dirish yoki mashaqqatga solish taqiqlanadi [13,14].

Bundan tashqari, islom huquqi bolaning huquqlarini u homilaga tushgan kundan boshlab himoya qiladi. Bu huquqlarga yashash, ta’lim olish, yaxshi nom va shaxsiyat, dinga e’tiqod qilish, oilaviy munosabatlardagi huquqlar, xususan nasl-nasab, g‘amxo‘rlik va tarbiya, ta’minot va zarardan himoyalanish kabi asosiy huquqlar kiradi.

Bolalar mehnatiga nisbatan islom huquqi bolalarni otaga ta’minot berish majburiyatini yuklash orqali himoya qiladi. Asosiy ta’minot oziq-ovqat, boshpana va kiyim-kechakni o‘z ichiga oladi.

Faqir yosh bolaning nafaqasi otasiga vojib bo‘ladi. Bu hukmning dalili Qur’oni Karimdan olingan. Alloh taolo Baqara surasida bunday deb marhamat qiladi:

“U(ona)larni ma’ruf ila yedirib, kiyintirish tug‘dirganning zimmasidadir” (233-oyat).

Bolaning sababidan onaga nafaqa berish vojib bo‘l-ganidan keyin, bolaning o‘ziga nafaqa berish vojib bo‘lishida hech shubha qolmaydi.

Oisha roziyallohu anhodan rivoyat qilinadi:

“Hind bint Utba:

“Ey Allohning Rasuli, Abu Sufyon o‘ta baxil odam, unga bildirmay olganimdan boshqa menga va bolamga kifoya qiladigan hech narsa bermaydi”, dedi. “O‘zingga va bolangga yetarlisini to‘g‘rilikcha ol”, dedilar u zot”.

Ikki shayx rivoyat qilishgan [14,71].

Otaning mulkini maxfiy ravishda olishga ruxsat berilishi bolalarni ta’minlash vazifasini bajarish juda muhim ekanligini va bolalar huquqlarini himoya qilish zarurligini yana bir bor ta’kidlaydi. Shu sababli, agar ota oilasini ta’minlash vazifasini bajarsa, bolalar mehnati masalasi yuzaga kelmaydi.

Bundan tashqari, islom ulamolari ta’lim olishning muhimligini doimo ta’kidlab kelganlar. Ular bolalarning ta’lim olishi ota-onalar va jamiyatning asosiy vazifalaridan biri ekanligini aytishgan. Shuningdek, ta’lim olish bolaning kelajagi uchun eng yaxshi sarmoya ekanligini ta’kidlashgan.

Qur’onning ilk nozil bo‘lgan oyatlari ham o‘qish, va ilm olishga undaydi. Bu ta’limning islom dinidagi asosiy o‘rnini ko‘rsatadi. Alloh taolo “Alaq” surasi 1-oyatida shunday marhamat qiladi:

“Yaratgan Robbing nomi bilan o‘qi” [15,505].

Shuningdek, “Zumar” surasi 9-oyatida:

“Biladiganlar bilan bilmaydiganlar teng bo‘larmidi?!” [16,200]. Bu savol ilmning jaholatdan afzalligini ta’kidlaydi.

Shuningdek “Sunan Ibn Moja” da kelgan hadisda payg‘ambarimiz Muhammad (s.a.v.) shunday deganlar: “Ilm talab qilish har bir musulmon erkak va ayolga farzdir”. Bu hadis ilm olishning majburiy ekanligini aniq ko‘rsatadi.

Imom Termiziy o‘zlarining “Sunan” kitoblarida keltirgan hadisda: “Kim ilm olish yo‘lida yurgan bo‘lsa, Alloh unga jannat yo‘lini oson qilib qo‘yadi” deyilgan. Bundan tashqari, “Kim ilm talab qilish uchun chiqsa, u qaytib kelguncha Allohning yo‘lida yurgan bo‘ladi”, deyilgan [17,795].

Bu dalillar va manbalar islomda ta’lim olishning ustuvorligini yaqqol ko‘rsatadi. Shuning uchun, bola mehnati masalasida ham, uning ta’lim olish huquqi doimo birinchi o‘rinda turishi kerak.

Xulosa qilib aytganda, Islom bolaning mehnat qilish huquqini mutlaqo rad etmaydi, lekin bu huquqni qat’iy cheklovlar va himoya choralari bilan tartibga soladi. Asosiy maqsad - bolaning jismoniy va ruhiy salomatligini, ta’lim olish imkoniyatini va umumiy farovonligini ta’minlashdir. Shariat bolaga zarar yetkazadigan, uni ekspluatatsiya qiladigan va tabiiy rivojlanishiga to‘sqinlik

qiladigan har qanday mehnat shaklini qoralaydi. Shu bilan birga, bolaning o‘z oilasiga yordam berish va halol rizq topishga bo‘lgan urinishlari, agar yuqoridagi mezonlarga javob bersa, rag‘batlantiriladi. Jamiyat va davlat bolalar mehnatining oldini olish, ularning huquqlarini himoya qilish va ularga munosib ta’lim olish imkoniyatini yaratish uchun birgalikda harakat qilishlari zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. https://parstoday.ir/tr/radio/programs-i129864-Islam'da_Çocuk_hakları_19
2. https://www.ilo.org/tr/regions-and-countries/europe-and-central-asia/ilo-turkiye-ofisi/politika-alanlari/cocuk-isciligi
3. Mohd, Azizah Nik Mahmod, Nik Muhammad, A.A. Amuda, Yusuff Che Mohd Salleh, Marhanum. (2018). Child labor under islamic law (The shari’ah): An overview. Al-Shajarah. 23. 295-314.
4. https://parstoday.ir/tr/radio/programs-i129864-Islam'da_Çocuk_hakları_19
5. https://parstoday.ir/tr/radio/programs-i129864-Islam'da_Çocuk_hakları_19
6. http://nhrc.uz/oz/news/ozbekiston-bolalar-mehnatini-bartaraf-etish-boyicha-muhim-natijalarga-erishdi
7. O‘zbekiston Respublikasining “Bola huquqlari kafolatlai to‘g‘risida”gi qonuni. https://lex.uz/docs/
8. Imom Termiziy (2015). Sunan al-Termiziy. – Saudiya Arabistoni: “Dar al-siddiq”. 1919-hadis.
9. https://fiqh.islamonline.net/6147. Amalul atfal. Al-hukm va al-zavobit.
10. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf (2013). Tafsiri Hilol. 4-juz. Toshkent: “Hilol-nashr”. – 640 b.
11. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf (2013). Tafsiri Hilol. 1-juz. Toshkent: “Hilol-nashr”. – 664 b.
12. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf (2013). Tafsiri Hilol. 1-juz. Toshkent: “Hilol-nashr”. – 664 b.
13. Mohd, Azizah Nik Mahmod, Nik Muhammad, A.A. Amuda, Yusuff Che Mohd Salleh, Marhanum. (2018). Child labor under islamic law (The shari’ah): An overview. Al-Shajarah. 23. 295-314.
14. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf (2024) Toshkent: “Hilol-nashr”. – 152 b.
15. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf (2013). Tafsiri Hilol. 6-juz. Toshkent: “Hilol-nashr”. – 664 b.
16. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf (2013). Tafsiri Hilol. 5-juz. Toshkent: “Hilol-nashr”. – 664 b.
17. Imom Termiziy (2015). Sunan al-Termiziy. – Saudiya Arabistoni: “Dar al-siddiq”. 2646-2647-hadislar.

ХУДОЖЕСТВЕННАЯ ЛИТЕРАТУРА И СОВРЕМЕННАЯ МОЛОДЕЖЬ

Каримов Намаз Мамасолиевич

старший преподаватель факультета филологии ДжГПУ

mega.namaz@mail.ru

Annotatsiya. Ushbu maqolada zamonaviy yoshlar hayotida badiiy adabiyotning ahamiyati, uning ma’naviy va axloqiy qadriyatlarni shakllantirishdagi, tanqidiy fikrlash va estetik didni o‘stirishdagi o‘rni ko‘rib chiqiladi. Kitob o‘qishga qiziqishning pasayish tendensiyalari va buning sabablari tahlil qilinib, raqamli asrda kitobxonlik madaniyatini qayta tiklash yo‘llari muhokama etiladi. Ta’lim muassasalari va ommaviy axborot vositalarining yoshlarda adabiyotga bilim manbai va shaxsiy rivojlanish vositasi sifatida barqaror qiziqishni shakllantirishdagi roliga alohida e’tibor qaratiladi.

Kalit so‘zlar: badiiy adabiyot, yoshlar, kitobxonlik, madaniyat, dunyoqarash, ta’lim, qadriyatlar.

Аннотация. В статье рассматривается значение художественной литературы в жизни современной молодежи, её влияние на формирование духовных и нравственных ориентиров, развитие критического мышления и эстетического вкуса. Анализируются тенденции снижения интереса к чтению и причины этого процесса, а также пути возрождения читательской культуры в цифровую эпоху. Особое внимание уделяется роли образовательных институтов и средств массовой информации в формировании у молодых людей устойчивого интереса к литературе как к источнику познания и личностного роста.

Ключевые слова: художественная литература, молодежь, чтение, культура, мировоззрение, образование, ценности.

Abstract. The article explores the role of fiction in the lives of contemporary youth and its influence on shaping their spiritual and moral values, critical thinking, and aesthetic perception. The author analyzes the decline of reading interest among young people, its causes, and possible ways to revive reading culture in the digital era. Special attention is paid to the role of educational institutions and mass media in promoting literature as a vital tool for intellectual and personal development.

Keywords: fiction, youth, reading, culture, worldview, education, values.

Современная эпоха, в которой мы живем, характеризуется стремительным развитием технологий, информационной перенасыщенностью и значительными изменениями в культурных практиках. Молодое поколение, выросшее в условиях повсеместной цифровизации, все чаще отдает предпочтение визуальным и интерактивным формам досуга, что приводит к снижению интереса к традиционному чтению книг. Это явление вызывает серьезную обеспокоенность среди педагогов, культурологов и социологов, поскольку художественная литература на протяжении веков служила одним из важнейших средств воспитания личности, формирования нравственных и эстетических идеалов [1].

Художественное слово обладает уникальной способностью не только развивать воображение и критическое мышление, но и оказывать глубокое влияние на внутренний мир человека. Оно формирует у читателя способность к сопереживанию, пониманию других людей и осмыслению своего места в мире. В этом контексте вопрос о роли художественной литературы в жизни современной молодежи становится особенно актуальным и требует внимательного рассмотрения.

Литература как форма духовного и культурного опыта представляет собой не просто отражение действительности, а творческое осмысление окружающего мира. Через литературные произведения человек вступает в диалог с культурой, историей и другими личностями. Как отмечал известный философ и литературовед М.М. Бахтин, литература является «диалогической формой» культуры, в которой раскрывается многообразие человеческих голосов и смыслов [2].

Для молодежи чтение художественных произведений становится важным путем самопознания и самоопределения. Через образы, сюжеты и конфликты литературных героев читатель постигает глубинные закономерности человеческих отношений и переживает чужой опыт как свой собственный [3]. Литература становится зеркалом, в котором молодой человек видит не только общество, но и самого себя, что способствует его личностному развитию.

Влияние художественной литературы на формирование мировоззрения молодежи нельзя переоценить. Формирование мировоззрения — это сложный процесс, включающий в себя систему взглядов, убеждений, моральных и эстетических ценностей. Литература, воздействуя на эмоциональную и интеллектуальную сферы, играет в этом процессе особую роль.

Классические произведения русской и мировой литературы помогают молодому поколению осмыслить важнейшие проблемы добра и зла, свободы и ответственности,

любви и долга. Герои романов таких великих авторов, как Достоевский, Толстой и Булгаков, побуждают задуматься о природе человека, смысле страдания и веры [4].

Современная литература, в свою очередь, отражает реалии XXI века, включая социальную нестабильность, кризис идентичности и противоречия между традиционными и постмодернистскими ценностями. Произведения современных авторов, таких как Л. Улицкая, Г. Яхина и В. Пелевин, предоставляют молодым людям возможность осмыслить свое место в стремительно меняющемся мире. Эти книги становятся важным инструментом для формирования критического мышления и понимания сложных социальных процессов, что делает их незаменимыми в образовательном контексте и в жизни каждого человека [5].

Литература и развитие эмоционального интеллекта. В условиях стремительного развития цифровых технологий эмоциональный интеллект становится особенно важным. Это способность не только осознавать и управлять собственными эмоциями, но и чувствовать эмоциональное состояние окружающих. Чтение художественной литературы играет ключевую роль в развитии эмпатии и эмоциональной зрелости.

Психологи подчеркивают, что регулярное чтение, особенно художественной прозы, значительно улучшает способность идентифицировать себя с другими людьми, развивает навыки межличностного общения и эмоциональной саморегуляции [6]. Литература помогает молодым людям осознать многообразие человеческих чувств, пережить катарсис и научиться искреннему сочувствию.

Причины снижения интереса молодежи к чтению. Несмотря на огромный культурный потенциал, который несет в себе литература, современная молодежь все реже обращается к книгам. Исследователи выделяют несколько основных причин этого явления:

- Цифровизация досуга, которая приводит к преобладанию визуальных форм контента, таких как видео, игры и социальные сети.
- Ускоренный темп жизни, который снижает способность к вдумчивому и сосредоточенному чтению.
- Снижение престижа гуманитарных знаний в пользу более прикладных и технических дисциплин.
- Недостаточная мотивация со стороны семьи и образовательных учреждений [7].

Однако важно отметить, что интерес к чтению не исчезает полностью — он просто трансформируется. Молодежь все чаще обращается к электронным книгам, аудиоформатам, литературным пабликам и сообществам фанфикшна, где формируются новые читательские практики [8].

Пути возрождения интереса к литературе. Для возрождения читательской культуры необходим комплексный подход, который включает в себя образовательные, социальные и культурные инициативы.

1. *Образовательные программы.* Важно обновить методику преподавания литературы в школах и вузах. Современные формы работы, такие как дискуссии, квесты, литературные клубы и творческие проекты, делают процесс чтения более привлекательным и увлекательным.

2. *Медиа и цифровая среда.* Необходимо использовать потенциал интернета и социальных сетей для продвижения книг и популяризации чтения через блоги, буктьюбы и литературные фестивали [9].

3. *Семья и сообщество.* Формирование привычки читать начинается в семье. Совместное чтение и обсуждение книг способствует развитию эмоциональной близости и культурной преемственности между поколениями.

Художественная литература как пространство диалога поколений. Литература служит связующим звеном между прошлым и настоящим, формируя прочные связи между поколениями. Классические произведения, такие как «Война и мир» Льва Толстого или «Преступление и наказание» Федора Достоевского, продолжают оставаться актуальными, так как поднимают вечные вопросы человеческого существования.

Современные интерпретации классики в кино, театре и новых медиа предоставляют молодежи возможность переосмыслить знакомые образы и увидеть их в контексте современности [10]. Такое взаимодействие культурных эпох способствует сохранению национальной памяти и формированию культурной идентичности, что является важным аспектом в развитии общества.

Литература и личностное развитие молодежи представляют собой важную и многогранную тему, которая заслуживает глубокого анализа. В современном мире, где информация доступна в огромных объемах, литература продолжает оставаться одним из самых эффективных средств формирования самостоятельного мышления.

Чтение книг развивает способность к саморефлексии, что позволяет молодым людям лучше понимать себя и окружающий мир. Кроме того, литература стимулирует творческое воображение, открывая новые горизонты для фантазии и креативности [11].

Таким образом, художественная литература выступает не только как источник знаний, но и как мощное средство личностного и духовного роста. Она помогает молодым людям формировать свои взгляды на жизнь, развивать критическое мышление и эмоциональную интеллигенцию.

Чтение не только обогащает внутренний мир молодежи, но и помогает им ставить перед собой жизненные цели. Оно учит анализировать свои поступки, делать осознанный моральный выбор и принимать ответственные решения. Исследования подтверждают, что регулярное чтение способствует развитию когнитивных функций, улучшает концентрацию внимания и память. Молодежь, которая активно читает книги, как правило, демонстрирует более высокий уровень академической успеваемости и активного участия в социальной жизни.

Несмотря на глобальные изменения в культурной среде, художественная литература продолжает играть важную роль в жизни современной молодежи. Она остаётся уникальным пространством для диалога, самопознания и нравственного становления. Возрождение интереса к чтению возможно лишь при осознании обществом ценности литературы как основы духовной культуры. Важно, чтобы государство, образовательные учреждения и культурные организации совместно работали над популяризацией чтения, поддержкой библиотек и развитием творческих инициатив.

Литература — это не просто часть нашего культурного наследия, но и живой инструмент воспитания человека, способного мыслить, чувствовать и понимать других. В условиях современности, когда личностное развитие становится особенно актуальным, литература может стать тем маяком, который направляет молодежь на путь самосовершенствования и гармоничного сосуществования в обществе.

Список использованной литературы

1. Бахтин, М. М. *Эстетика словесного творчества.* — М.: Искусство, 1986.
2. Лосев, А. Ф. *Проблема символа и реалистическое искусство.* — М.: Искусство, 1995.
3. Толстой, Л. Н. *О искусстве и литературе.* — М.: Республика, 1994.
4. Достоевский, Ф. М. *Дневник писателя.* — М.: Наука, 1993.
5. Улицкая, Л. *Зелёный шатёр.* — М.: Эксмо, 2012.
6. Mar, R. A., Oatley, K. *The Function of Fiction is the Abstraction and Simulation of Social Experience. — Perspectives on Psychological Science*, 2008.
7. Розанов, В. В. *О чтении и нечитателях.* — СПб.: Азбука, 2010.
8. Jenkins, H. *Convergence Culture: Where Old and New Media Collide.* — New York: NYU Press, 2006.
9. Nussbaum, M. C. *Not for Profit: Why Democracy Needs the Humanities.* — Princeton University Press, 2010.
10. Eco, U. *Six Walks in the Fictional Woods.* — Cambridge: Harvard University Press, 1994.
11. UNESCO. *Reading the Past, Writing the Future: Fifty Years of Promoting Literacy.* — Paris: UNESCO Publishing, 2017.

ВЗАИМООТНОШЕНИЯ ЧЕЛОВЕКА С ПРИРОДОЙ В ДОШКОЛЬНОМ ОБРАЗОВАНИИ: ОСНОВЫ ЭКОЛОГО-НРАВСТВЕННОГО ВОСПИТАНИЯ

Мустафаева Замира Саидкуловна
Преподаватель, Джизакского государственного педагогического университета имени А.Кадыри
Эрматова Чарос Олимовна,
Студент, Джизакского государственного педагогического университета имени А.Кадыри
carosermatova270@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarning tabiatga nisbatan ijobiy munosabatini shakllantirish masalalari yoritiladi. Inson va tabiat o‘rtasidagi bog‘liqlikni tushuntirish orqali bolalarda ekologik madaniyatning dastlabki bosqichlarini rivojlantirish zarurligi ta’kidlanadi. Maqolada o‘yin, kuzatish, ertak, rasm chizish va amaliy mashg‘ulotlar kabi vositalar orqali bolalarga tabiatni sevish, uni asrash, hayvonot va o‘simlik olamiga g‘amxo‘rlik qilish ko‘nikmalarini shakllantirish usullari ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, o‘qituvchi va ota-onalarning hamkorligi bolaning tabiatga nisbatan ongli munosabatini rivojlantirishda muhim omil ekani qayd etiladi.

Kalit so‘zlar: maktabgacha ta’lim, tabiat, ekologik tarbiya, g‘amxo‘rlik, bolalarda ongli munosabat, axloqiy tarbiya, o‘yinli metodlar.

Abstract: This article discusses the importance of fostering a caring and respectful attitude toward nature in preschool-aged children as a foundation for developing an environmentally conscious worldview. Through observing natural objects, engaging in stories, games, creative activities, and hands-on experiences, children begin to understand the relationship between humans and the natural world. The article outlines effective pedagogical methods that promote responsibility, empathy toward animals and plants, and basic ecological habits. It also emphasizes the role of collaboration between educators and parents in the process of ecological and moral education.

Keywords: preschool education, nature, environmental education, moral development, care for nature, play-based methods, responsibility.

Аннотация: В статье рассматривается важность формирования у детей дошкольного возраста бережного отношения к природе как основы экологически ориентированного мировоззрения. Через знакомство с окружающим миром, наблюдение за природными объектами, игры, сказки, творческие и практические занятия у дошкольников развиваются представления о взаимосвязи человека и природы. Раскрываются эффективные методы педагогического воздействия, способствующие воспитанию у детей чувства заботы о растениях и животных, ответственности за окружающую среду и элементарных экологических привычек. Подчёркивается значимость сотрудничества воспитателя и родителей в процессе экологического и нравственного воспитания.

Ключевые слова: дошкольное образование, природа, экологическое воспитание, нравственное развитие, забота о природе, игровые методы, воспитание ответственности.

Введение: Формирование бережного отношения к природе у детей дошкольного возраста является важной составляющей нравственного и экологического воспитания, закладывающей основу для ответственного поведения в будущем. В дошкольном возрасте дети особенно восприимчивы к окружающему миру, проявляют живой интерес к растениям, животным, природным явлениям и активно стремятся к взаимодействию с ними. Именно в этот период важно заложить фундаментальные представления о взаимосвязи человека с природой, о том, как поведение человека влияет на состояние окружающей среды. Задача педагога — не только познакомить детей с элементами природы, но и сформировать у них чувство заботы, ответственности, благодарности и уважения к живому миру. Через игровые и практические формы работы, сказки, наблюдения, рисование и трудовую деятельность дети учатся видеть в природе не только источник красоты и познания, но и важную часть своей жизни. Актуальность данной темы обусловлена

необходимостью воспитания экологической культуры с раннего возраста, когда формируются основы личности, мировоззрения и моделей поведения. Поэтому разработка эффективных методик формирования экологически направленного мышления у дошкольников приобретает особую значимость в условиях современного образования.

Методология: Методологической основой исследования стало сочетание личностно-ориентированного, деятельностного и экологического подходов, обеспечивающих всестороннее развитие ребёнка и формирование у него позитивного отношения к природе. В процессе работы использовались методы наблюдения, беседы, игры, экспериментирования, художественного и трудового творчества, направленные на активное включение дошкольников в практическое взаимодействие с природной средой. Особое внимание уделялось эмоциональному отклику детей, формированию нравственно-ценностных ориентиров через сказки, иллюстративные материалы, инсценировки и коллективные проекты. Исследование проводилось в условиях дошкольной образовательной организации и предусматривало участие воспитанников старших и подготовительных групп, что позволило учитывать возрастные и индивидуальные особенности восприятия. Использовались методы анализа педагогического опыта и анкетирования родителей для выявления уровня экологической культуры в семейном воспитании. Такой комплексный подход обеспечил системность, наблюдаемость и практическую применимость полученных результатов.

Задачи и решение: Одной из ключевых задач в рамках темы «Взаимоотношения человека с природой» в системе дошкольного образования является формирование у детей осознанного и эмоционально окрашенного отношения к природе как к живому и ценному миру, требующему заботы, внимания и бережного отношения. Для решения этой задачи в образовательный процесс были включены специально организованные формы работы: наблюдение за сезонными изменениями в природе во время прогулок, игры с элементами моделирования природных ситуаций (например, «Помоги дереву», «Спаси птицу»), чтение и обсуждение сказок и рассказов с экологическим содержанием, творческая деятельность (рисование природы, изготовление аппликаций, поделок из природного материала). Большое внимание уделялось речевому развитию через экологические беседы, где воспитатель стимулировал детей к высказываниям о том, как они могут помочь природе. Воспитанники участвовали в посадке комнатных растений, изготовлении кормушек для птиц, уборке участка детского сада, что способствовало не только пониманию значимости природы, но и формированию навыков заботы и ответственности. Активное вовлечение родителей в совместные экологические проекты усилило эффект педагогического воздействия, позволив создать единое эколого-воспитательное пространство «детский сад – семья». Такой комплексный подход позволил эффективно решить поставленную задачу и создать прочную основу для развития экологического сознания и нравственного отношения к природе у дошкольников.

Таблица 1.

Формы работы по формированию бережного отношения к природе у дошкольников

Направление воспитания	Формы и методы работы	Ожидаемые результаты
Ознакомление с природой	Прогулки, наблюдения, беседы, мини-экскурсии	Знание элементов природы, понимание её красоты и ценности
Эмоциональное восприятие природы	Чтение сказок и рассказов, просмотр иллюстраций	Эмпатия, сочувствие, эмоциональная отзывчивость
Экологические действия	Посадка растений, уход за клумбами, кормление птиц	Навыки заботы, бережное поведение, активное участие

Творческое отражение впечатлений	Рисование, лепка, аппликация на природную тематику	Развитие образного мышления, выражение отношения к природе
Игра и моделирование	Сюжетно-ролевые и экологические игры	Закрепление экологических норм поведения через игру
Взаимодействие с родителями	Семейные задания, проекты, выставки из природных материалов	Согласованность воспитания, включённость семьи

Заключение: Воспитание бережного и ответственного отношения к природе у детей дошкольного возраста является важнейшей задачей современного дошкольного образования, способствующей формированию экологической культуры и нравственных ценностей с ранних лет. Проведённый анализ и практическая реализация программ и методик, включающих игровые, творческие, наблюдательные и практические формы работы, показывают высокую эффективность в развитии у детей понимания взаимосвязи человека и окружающей среды. Особое значение имеет эмоциональное вовлечение малышей, которое достигается через сказки, рассказы, совместные занятия и семейное участие. Формирование у детей навыков заботы о природе, умения наблюдать и беречь живой мир создает прочную основу для дальнейшего экологического образования и воспитания, направленного на устойчивое развитие общества. Важно, чтобы воспитатели и родители совместно создавали благоприятные условия для экологического воспитания, воспитывая у детей ценностное отношение к природе как к неотъемлемой части жизни человека. Системный подход в дошкольном образовании к формированию позитивного отношения к природе является залогом устойчивого развития экологической культуры будущих поколений.

Список литературы:

1. Розенберг Г. С. Ещё раз к вопросу о том, что такое «экология»? // Междисциплинарный и прикладной журнал «Биосфера». 2010. № 3 // URL: Ы^:// cyberlewnka.ru/article/n/esche-raz-k-voprosu-o-tom-chto-takoe-ekologiya (дата обращения: 19.04.2023).
2. Бачинский Г. А. Социоэкология: теоретические и прикладные аспекты / АН УССР, Львов. отд-ние ин-та экономики. Киев: Наук. думка, 1991. 151с.
3. Павлов Д. С., Стриганов Б. Р., Бук-варева Е. Н. Экологоцентрическая концепция природопользования // Вестник РАН. 2010. Т. 80, № 2. С. 139.
4. Савченко, В.И. Авторизованная "Программа нравственно-патриотического и духовного воспитания дошкольников" / В.И. Савченко. - М.: Детство-Пресс, 2022. - 184 с.
5. Алексеев С. В. Линии сопряжения компетентностного и деятельностно-го подходов в системе экологического образования// Модернизация современного образования: к экологической компетентности - через экологическую деятельность: Материалы V Всероссийского научно-методического семинара 8-12 ноября 2006, г. Санкт-Петербург. СПб.: «Крисмас+», 2006. С. 11-17.

INSON VA TABIAT MUNOSABATI

Djumatova Hilola Xamraevna,
Toshkent amaliy fanlar universiteti
Boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi talabasi
hdzumatova92@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada inson va tabiat o‘rtasidagi munosabatlar, ekologik madaniyat, ekologik xavflar va ularning inson organizmiga bo‘layotgan ta'siri, Orol fojeasi, atmosferadagi ozon qatlamining emirilishi, atmosfera havosining inson tomonidan ifloslanib borayotgani va uni oldini olish o‘z aksini topgan.

Kalit so‘zlar: inson va tabiat, ekologik xavf, Orol fojeasi, ozon qatlami emirilishi, atmosfera havosining ifloslanishi.

Abstract. This article reflects the relationship between man and nature, ecological culture, environmental hazards and their impact on the human body, the Aral Sea tragedy, the depletion of the ozone layer in the atmosphere, the increasing pollution of atmospheric air by humans, and its prevention.

Key words: man and nature, ecological risk, Aral Sea disaster, ozone layer depletion, atmospheric air pollution.

Аннотация. В статье рассматриваются вопросы взаимоотношений человека и природы, экологической культуры, экологических опасностей и их влияния на организм человека, трагедии Аральского моря, истощения озонового слоя атмосферы, возрастающего загрязнения атмосферного воздуха человеком и его профилактики.

Ключевые слова: человек и природа, экологический риск, катастрофа Арала, разрушение озонового слоя, загрязнение атмосферного воздуха.

Insonning yashashi, rivojlanishi va salomatligi tabiat bilan bevosita bog‘liq.

Tabiat boyliklari – suv, havo, yer, o‘rmon, hayvonot va o‘simlik dunyosi – inson uchun zarur manbalardir.

Insonning tabiatga ta’siri: Ijobiy ta’sir; daraxt ekish, yerlarni obodonlashtirish, suv manbalarini tozalash. Salbiy ta’sir; sanoat chiqindilari, transport gazlari, o‘rmonlarning kesilishi, ekologik muammolar.

Inson va tabiat uyg‘unligi. Tabiatni asrash – insonning o‘zini asrashi demakdir. “Yashil iqtisodiyot”, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish.

Inson dunyoga kelibdiki, tabiat bilan chambarchas bog‘liq holda voyaga yetadi, rivojlanadi, kamol topadi. Tabiat va inson bir-biriga uzviy bog‘liq va ular bir-birini to’ldirib turadi. Bejiz tabiatni onaga qiyoslamaymiz. Chunki tabiat ham insonni ona kabi parvarishlaydi, oziqlantiradi, kiyintiradi, issiq va sovuqdan asraydi. Insonning shakllanishida tabiatning roli qanchalik muhim bo‘lsa, tabiat uchun ham insonning ta’siri shunchalik muhimdir. Bugungi kunda tabiat va inson hayotining ekologik xavf ostida qolish jarayoni yanada kuchayib borayotgani sir emas. Tabiatning barqarorligiga, turg‘unligiga putur yetayotganligining asosiy sabablaridan biri, kishilarda ekologik madaniyatning, atrof-muhit muhofazasi haqidagi bilimlarning yetishmasligidir. Shu bois, ekologik muammolar yildan-yilga oshib bormoqda. Atmosferadagi ozon qatlamining yemirilishi, daryolar suvining ifloslanishi, o‘rmon va chakalakzorlarning yo‘q qilinishi, o‘simlik va hayvonot olamining qirilishi hali ham davom etayapti. Ona-tabiatga bunday munosabat o‘sib kelayotgan avlodga ekologik ta’limtarbiya berish o‘ta muhimligidan dalolat. Ekologik muammolarning oldini olish uchun inson o‘zida ekologik tarbiya va madaniyatni shakllantirishi zarur. Ekologik tarbiya oiladan boshlanadi[1, 2].

Inson va tabiat o‘rtasidagi munosabat azaldan davom etib kelmoqda. Inson tabiatdan oziq-ovqat, kiyim-kechak, turar joy, xom-ashyo oladi. Shu bilan birga, tabiatning go‘zalligi va boyliklari inson ma’naviyati hamda ruhiyati uchun ham muhim o‘rin tutadi. Oddiygina uy, hovlini ozoda tutishga odatlanish yashash uchun qulay muhitni yaratishning boshlanishi bo‘lib xizmat qiladi. So‘ngra ekologik ta’limning bog‘chada, maktabda, oliy o‘quv yurtlarida olib borilishi maqsadga muvofiqdir. Aslida, ekologik madaniyat tabiatni barcha go'zalliklari bilan his qilishdan, sevishdan boshlanadi. Insonning tabiat kuchlari-sovuq va issiq, qurg‘oqchilik, yong‘inlar, turli ofatlar ustidan g‘alabasi unga bo'lgan munosabatini o‘zgartiradi[8]. Bu ko‘r-ko‘ronalikdan asta-sekin ongli munosabatga aylana boradi. Tabiatga bo'lgan mehr tuyg‘usi boyib, unga munosabat shaxs madaniyatining ajralmas bir bo'lagini tashkil etadi. Har bir inson tabiatdan bahra oladi. Ammo bu hali tabiatga muhabbat degani emas. Tabiatga muhabbat uni tushunishdan, uning go'zalliklarini anglashdan, tabiat bilan munosabatga kirishishdan boshlanadi. O'z navbatida, tabiat insonda kuzatuvchanlik, sezgirlik, nazokatlilik kabi tuyg'ularni tarbiyalaydi. Bu-insonda ikki ko‘rinishda: tabiatga va o‘ziga bo‘lgan munosabatlarda namoyon bo‘ladi. Tabiat insonda vatan tuyg'usini uyg'otadi, uni mehnat va jasoratga undaydi, juda ko‘p tuyg'ularni kamol toptiradi hamda ko‘p narsalarni talab etadi. Madaniyatli kishi tabiat va jamiyat o'rtasidagi muvozanatni saqlaydi, bu borada boshqalarni ham to‘g‘ri faoliyat ko‘rsatishga da’vat etadi, hech bo'lmaganda ko'chalarga

axlat tashlanmasligiga, suv va havo ifloslanmasligiga, tabiat in’om etgan etgan ne’matlardan oqilona foydalanishga, unga ziyon yetkazmaslikka harakat qiladi. Ekologik madaniyat tarkibiga tabiatni muhofaza qilish madaniyati, tabiat boyliklaridan foydalanish madaniyati, ekologik tizimni qaytadan o'zgartirish madaniyati ham kiradi. Bular bir kishining yoki hududning vazifasi bo'la olmaydi. Umum insoniyat bunday vazifalarni yechishga birgalikda kirishsagina ekologik muammolar hal bo'ladi. Masalan, birgina Orol muammosi bunga yaqqol dalil bo'la oladi. Orol dengizining suvi kamayib ketishi haqida dastlabki xavotirlar bildirilganidan beri yarim asrdan ortiq vaqt o'tdi. O'zbekiston mustaqilligi e'lon qilinishidan oldingi yillarda dengizning sathi keskin kamayib ketayotganligi baralla gapirilib, bu masalaga butun dunyo mamlakatlari va suvchi mutaxassislarning e'tibori tortildi. Birgina Orol dengizining qurishi shu hudud aholisi uchun qanchadan-qancha zarar keltirmoqda, ularning sog’lig’iga ziyon yetkazmoqda. Orolning qurib ketishi faqatgina uning atrofida joylashgan O'zbekiston, Qozog'iston, Turkmaniston emas, butun dunyo iqlimiga salbiy ta'sir etadi. Shuning uchun Orolni saqlab qolish dunyo ahamiyatidagi muammoga aylandi. Orol dengizining qurishi oqibatida mahsuldorligi yiliga 45 ming tonnagacha ovlangan baliqchilik sanoati, tub aholining doimiy hayot manbai bo‘lgan ovchilik va mo‘ynachilik sohalari inqirozga uchradi. Yana bir qancha ekologik muammolar, jumladan, Ozon qatlamining yemirilishi, global isib ketish, atmosferaning ifloslanishi kabilar borki bularga hali hanuz yechim topilmagan. Butun dunyo ana shu muammolar bilan kurashmoqda, ularga yechim topishga harakat qilmoqda. Atmosferaning ifloslanishi ayniqsa aholi zich joylashgan va ishlab chiqarish rivojlangan davlatlarda ko’proq kuzatiladi. Aslida barcha ekologik muammolar va tabiatga yetkazilayotgan zararlar manbai texnika, texnologiyaning rivojlanishi hamda insondir. Ehtijoylar ortgani sari shlab chiqarish ham ortmoqda. Bu esa o’z navbatida zavod va fabrikalarning yanada shiddat bilan ishlashini talab etadi[5,7]. Natijada ulardan chiqayotgan zaxarli gazlar va chiqindilar miqdori oshadi. Ekologiyaning buzilishi o’z navbatida aholi salomatligi yomonlshuviga olib keladi. Shunin uchun ham hozirgi kunda turli xil kasalliklar avj olmoqda, bolalarning nimjon tug’ilishi kuzatilmoqda. Dunyo aholisining muntazam ko’payib borishi, rivojlangan davlatlar o’rtasidagi ishlab chiqarishga bo’lgan raqobatning kuchayishi tabiatni muhofaza qilish muommosi naqadar zarur ekanligini ko’rsatmoqda. Bu masalaning mohiyati shundaki, keyingi yillarda atmosferada karbonat angidrid va radiatsiyaning ko‘payishi, yashil o’simliklar maydonining keskin kamayishi biosferaning o’zgarishiga, yer yuzida hayotning borishiga halaqit bermoqda, hatto uni butunlay yo’q bo’lib ketish xavfini tug’diryapti. Shuning uchun ham tabiatni himoya qilish, atrof-muhitni ifloslanishdan saqlash ilmiy masalagina bo’lib qolmay, balki muhim sotsial va siyosiy muammoga aylanmoqda. Biosferaning ifloslanishi texnika jarayonlari mahsuli hisoblanadi. Katta foyda olish maqsadida tabiat boyliklaridan o’ylamasdan, vaxshiyona foydalanish inson yashab turgan muhitni ifloslanishiga olib kelmoqda. Tabiatning tengi yo’q go’zalligi, boyliklari - umumxalq mulki. Shuning uchun ham uni himoya qilish umumxalq ishi. Tabiat bizga berayotgan ne’matlardan bahra olib, uni suiste’mol qilmaslik, unga ziyon yetkazmaslik bizning burchimizdir.

Inson va tabiat o‘rtasidagi munosabat doimiy va o‘zaro bog‘liq. Agar inson tabiatni asrab-avaylasa, kelajak avlodlar uchun sog‘lom muhit, farovon hayot va barqaror taraqqiyot ta’minlanadi. Biz kelajak avlodlarga yaratgan ma'naviy va moddiy boyliklarimizni, bizgacha mavjud bolgan tabiatni va unga munosabatimizni, ya'ni ekologik madaniyatimizni ham meros qoldiramiz. Ekologik madaniyat, bu-faqat tabiatga zarar keltirmaslik emas, balki uning tiklanishi, yanada go‘zallashuvi, gullab- yashnashiga hissa qo'shish, atrof-muhitni g'orat etuvchilarga qarshi beayov kurash olib borish degani hamdir.

Литература

1. Z.Abdalova, D.Yormatova , Ekologiya, o‘quv qo‘llanma, Toshkent 2013 yil

2. X.S.Xushvaktova, D.Yormatova, Ekologiya va tabiatni muhofaza qilish, darslik, Toshkent 2022 yil.

3. Qudratova, S., & To‘rabekova, D. (2023). THE ROLE OF STEAM EDUCATION IN THE FORMATION OF THE FUTURE TEACHER'S PERSONALITY. Modern Science and Research, 2(9), 40-44.

4. Qudratova, S. B., Atenov, J. D., & Normurodov, S. Z. (2025). BOSHLANG ‘ICH TA’LIMDA STEAM TA’LIM TEXNOLOGIYASI FANINING UMUMIY ASOSLARI, PREDMETI VA VAZIFALARI. Inter education & global study, (2), 142-153.

5. Qudratova, S., & Hakimova, D. (2025). TEACHING METHODOLOGY OF NATURAL SCIENCES IN PRIMARY GRADES. International Journal of Artificial Intelligence, 1(1), 1420-1423.

6. Qudratova, S., & Tilovboyeva, S. (2024). BOSHLANG‘ICH TA’LIMDA TAHSIL OLUVCHI TALABALARGA ZAMONAVIY BILIMLAR BERISH. Modern Science and Research, 3(12), 378-382.

7. https://www.google.co.uz

8. http://kitob.uz

TURKISTONDA POCHTA VA TELEKOMMUNIKATSIYA XIZMATLARINING BOSHQARUV TIZIMI

Odilov Azizillo Qamardin o‘g‘li
Andijon davlat texnika instituti, assistanti
e-mail: odilovazizillo60@gmail.com

Anotatsiya: Maqolada XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Turkiston general-gubernatorligi hududida pochta va telegraf xizmatlarining tashkil etilishi, boshqaruv tizimining tuzilishi, moliyaviy-iqtisodiy mexanizmlari hamda ijtimoiy ta’siri o‘rganilgan. Tadqiqot markazlashtirilgan boshqaruv modelini, kadrlar siyosati va texnik modernizatsiya jarayonlarini tahlil qiladi.

Kalit so‘zlar: Turkiston, pochta tizimi, telegraf, boshqaruv, aloqa infratuzilmasi, Rossiya imperiyasi, kolonial siyosat.

Annotation: The article examines the organization of postal and telegraph services in the Turkestan Governor-Generalship during the late 19th and early 20th centuries, management system structure, financial-economic mechanisms, and social impact. The research analyzes the centralized management model, personnel policy, and technical modernization processes.

Keywords: Turkestan, postal system, telegraph, management, communication infrastructure, Russian Empire, colonial policy.

Аннотация: В статье исследуется организация почтово-телеграфных служб на территории Туркестанского генерал-губернаторства в конце XIX – начале XX веков, структура системы управления, финансово-экономические механизмы и социальное влияние. Исследование анализирует централизованную модель управления, кадровую политику и процессы технической модернизации.

Ключевые слова: Туркестан, почтовая система, телеграф, управление, коммуникационная инфраструктура, Российская империя, колониальная политика.

XIX asrning ikkinchi yarmida Turkiston Rossiya imperiyasining tarkibiga kiritilgandan so‘ng, mintaqada pochta va telekommunikatsiya tizimini yo‘lga qo‘yish strategik ahamiyatga ega bo‘ldi. Bu davrda aloqa infratuzilmasining rivojlanishi nafaqat ma’muriy boshqaruvni ta’minlash, balki iqtisodiy va harbiy-strategik maqsadlarni amalga oshirish uchun zaruriy shart edi. Turkiston general-gubernatorligi hududida pochta va telegraf xizmatlarining tashkil etilishi, ularning boshqaruv mexanizmlari va funktsional xususiyatlari bugungi kunda ham tadqiqotchilar e’tiborini tortib kelmoqda.

Turkiston o‘lkasida muntazam pochta aloqasining tashkil etilishi 1860-yillarning oxiridan boshlanib, 1866-yilda Toshkent shahrida Turkiston pochta okrugi boshqarmasi rasman tashkil etildi[1,19].

Dastlab harbiy pochta stantsiyalari tashkil etilgan bo‘lib, ular asosan ma’muriy markazlar o‘rtasidagi xat-xabar almashinuvini ta’minlashga qaratilgan edi. Pochta tizimining boshqaruvida markazlashtirilgan model qo‘llanildi va Turkiston general-gubernatori apparati ostida faoliyat yuritgan pochta-telegraf boshqarmasi barcha pochta muassasalari ustidan to‘g‘ridan- to‘g‘ri nazoratni amalga oshirdi. 1870-yillarning o‘rtalarida Turkistonda pochta yo‘llarining tarmoq

tizimi kengaytirildi. Toshkent-Orenburg, Toshkent-Qo‘qon, Toshkent-Samarqand yo'nalishlari bo'ylab muntazam pochta xizmati yo'lga qo'yildi. Pochta stantsiyalarining joylashishi va ularning funktsional imkoniyatlari geografik va demografik omillarni hisobga olgan holda rejalashtirildi. Pochta xodimlarining soni va stantsiyalarning texnik ta'minoti doimiy ravishda yaxshilanib bordi. Telegraf aloqasi Turkistonda 1873-yilda Toshkent-Qo‘qon yo'nalishida birinchi telegraf liniyasining ochilishi bilan amaliy faoliyat boshladi[2,32].

Telegraf tizimini qurish va rivojlantirish harbiy-strategik ehtiyojlar bilan bevosita bog‘liq bo'lib, 1876-yilga kelib Toshkent Peterburgga telegraf liniyasi orqali bog‘landi, bu esa markazlashtirilgan boshqaruv samaradorligini tubdan oshirdi. Telegraf tizimining boshqaruvida ikki darajali ierarxik tuzilma shakllantirildi: markaziy (Turkiston pochta-telegraf okrugi boshqarmasi) va mahalliy (shahar va tuman telegraf stantsiyalari). Telegraf tizimi orqali nafaqat rasmiy ma’muriy xabarlar, balki tijorat va shaxsiy xabarlari ham yuborilgan, bu esa mintaqaning iqtisodiy hayotiga ijobiy ta'sir ko‘rsatdi. 1880-yillarga kelib, telegraf liniyalari keng tarmoq shakliga keldi va Toshkent, Samarqand, Farg‘ona, Qashqadaryo va boshqa hududlarni qamrab oldi.

Turkiston pochta-telegraf boshqarmasi murakkab ierarxik tuzilmaga ega bo‘lib, yuqori pog‘onada Rossiya imperiyasining Pochta-telegraf departamenti turardi va u Ichki ishlar vazirligiga bevosita bo'ysungan[3,40].

Mahalliy darajada pochta-telegraf okrugi mudiri general-gubernatorning bevosita nazorati ostida faoliyat yuritdi. Okrug hududida bir necha hududiy bo‘linmalar tashkil etilgan bo‘lib, ularning har biri o‘z zonasidagi pochta-telegraf xizmatlarini tashkil etish va nazorat qilish uchun mas’ul edi.

Boshqaruv tizimida qat’iy nazorat va monitoring mexanizmlari joriy etilgan edi. Muntazam inspeksiya tekshiruvlari o'tkazildi, xizmat ko‘rsatish sifati ko‘rsatkichlari va xodimlarning mehnat intizomi doimo baholandi. Pochta-telegraf xodimlarining malaka talablari yuqori bo‘lib, ular maxsus o'quv kurslaridan o'tishlari shart edi. Nazorat tizimi nafaqat texnik jihatlarga, balki moliyaviy hisobot va xizmat ko‘rsatish standartlariga ham qat’iy e’tibor berdi. Pochta va telegraf xizmatlarining moliyaviy ta'minoti ikki yo‘nalishda amalga oshirildi: imperiya byudjetidan ajratmalar va xizmatlardan olingan daromadlar[4,11].

Turkistonda pochta tariflari imperiyaning markaziy hududlariga nisbatan yuqoriroq belgilangan edi, bu uzoq masofalar, transport qiyinchiliklari va infratuzilma xarajatlari bilan bog‘liq edi. Telegraf xizmatlari ham pul evaziga ko‘rsatilgan bo‘lib, tariflar so‘zlar soni va masofa asosida differensiallashtirilgan edi. Moliyaviy hisobot tizimi markazlashtirilgan bo‘lib, barcha daromadlar va xarajatlar to‘g‘risida oylik va yillik hisobotlar tayyorlanib, yuqori boshqaruv organlariga taqdim etilardi. Tijorat telegrammalaridan olingan daromadlar pochta-telegraf infratuzilmasini yanada rivojlantirish uchun qayta investitsiya qilindi. Byudjet mablag‘lari asosan xodimlar maoshini, texnik ta‘minotni va yangi stantsiyalar qurishni moliyalashtirish uchun yo‘naltirildi.

Pochta-telegraf xizmatida ishlash uchun aniq malaka talablari va maxsus tayyorgarlik zarur edi[5,35].

Telegraf operatorlari, pochta xodimalari va boshqa mutaxassislar uchun maxsus o'quv kurslar va seminarlar muntazam ravishda tashkil etildi. Xodimlar tizimi milliy tarkibi jihatidan asosan rossiyaliklar va slavyan kelib chiqishli xodimlardan iborat bo'lgan, mahalliy aholi pochta-telegraf sohasida kam band bo‘lib, asosan yordamchi va texnik lavozimlarni egalladi.

Kadrlar siyosati kolonial ma’muriyatning umumiy yo‘nalishini aks ettirdi va lider lavozimlar faqat imperiya fuqarolariga berildi. Xodimlarning ish haqi va ijtimoiy kafolatlari lavozimga va xizmat stajiga qarab farqlangan. Pochta-telegraf xodimlarining huquqiy holati maxsus reglamentlar bilan tartibga solingan bo'lib, ular qat'iy mehnat intizomi va axloqiy talablarga rioya qilishlari kerak edi.

XIX asr oxirida Turkiston pochta-telegraf tizimida texnik yangiliklar bosqichma-bosqich joriy etila boshlandi[6,18]. Telefon aloqasi birinchi marta 1890-yillarda Toshkent shahrida sinab ko‘rildi va dastlab ma’muriy muassasalar o‘rtasida o‘rnatildi. Telegraf apparatlari muntazam

yangilanib turdi, Morze apparatlaridan keyin zamonaviyroq avtomat telegraf uskunalari ishlatila boshlandi, bu esa xabar uzatish tezligi va aniqligini sezilarli darajada oshirdi.

Texnik ta’minotni yaxshilash uchun Rossiyaning markaziy hududlaridan zamonaviy uskunalar olib kelinardi. Stantsiyalar elektr ta’minoti bilan jihozlandi va xabar uzatishning yangi texnologiyalari sinab ko‘rildi. Texnik xizmat ko‘rsatish uchun maxsus mutaxassislar tayyorlandi va ular nafaqat joriy ta‘mirlashni, balki murakkab texnik muammolarni ham hal qilishga qodir edilar. Infratuzilma rivojlanishi Turkiston pochta-telegraf tizimini imperiyaning ilg‘or standartlari darajasiga yetkazishga qaratilgan edi.

Pochta va telegraf aloqalari ustidan qat’iy maxfiy nazorat amalga oshirildi[7,56]. Maxfiy politsiya (jandarmeriya) barcha muhim va siyosiy ahamiyatga ega yozishmalar ustidan doimiy kuzatuvni olib bordi. Telegrammalar, ayniqsa shubhali yoki siyosiy mazmunli xabarlar, maxsus nazorat punktlarida tekshirildi va zarur hollarda ushlab qolindi yoki chetlab o‘tildi.

General-gubernatorlikning maxfiy bo‘limi barcha davlat xavfsizligiga tegishli yozishmalarni monitoringdan o‘tkazdi. Pochta senzurasi tizimi rasmiy ravishda rasmiylashtirilgan bo‘lib, maxsus buyruqlar va instruktsilarga muvofiq faoliyat ko‘rsatdi. Nazorat tizimi nafaqat siyosiy maqsadlarga, balki jinoyat faoliyatining oldini olishga ham qaratilgan edi. Xavfsizlik choralari pochta va telegraf xizmatlarining ishonchliligini ta’minlashda muhim rol o'ynadi. Mahalliy aholi pochta va telegraf xizmatlaridan nisbatan cheklangan foydalangan[8,13].

Savodsizlik darajasining yuqoriligi, xizmatlarning qimmat bo‘lishi va til to‘siqlari asosiy muammolar sifatida namoyon bo'ldi. Mahalliy savdogarlar, boy dehqonlar va ziyolilar qatlami telegraf xizmatlaridan nisbatan faol foydalanganlar, ayniqsa tijorat maqsadlarida. Shahar va qishloq o‘rtasida xizmatlardan foydalanishda katta tafovut mavjud edi. Qishloq joylarda pochta xizmati kam rivojlangan bo‘lib, an’anaviy aloqa usullari (shaxsiy elchilar, mahalliy pochta chilar) keng qo‘llanilardi. Shahar aholisi esa pochta-telegraf xizmatlariga ko‘proq kirish imkoniyatiga ega edi. Xizmatlarning narxi va mavjudligi ijtimoiy tabaqalanishni yanada chuqurlashtirdi, chunki faqat ta'minlangan qatlamlar muntazam foydalana oldi. Pochta va telegraf tizimining rivojlanishi Turkiston iqtisodiyotiga sezilarli ta’sir ko'rsatdi[9,43].

Tez va ishonchli aloqa imkoniyatlari savdo aloqalarini kengaytirdi, bozor ma’lumotlarini tezda almashish imkonini berdi va tijorat operatsiyalarining samaradorligini oshirdi. Paxta savdosi, ipak ishlab chiqarish va boshqa eksport yo'nalishlarida telegraf aloqasi muhim rol o‘ynadi.

Ijtimoiy jihatdan, pochta-telegraf tizimi Turkistonning Rossiya imperiyasiga integratsiyalashuvini tezlashtirdi. Madaniy aloqalar, ma’lumot almashinuvi va zamonaviy kommunikatsiya usullarining tarqalishi modernizatsiya jarayonlarini rag‘batlantirdi. Biroq, bu jarayon notekis bo‘lib, asosan shahar markazlari va asosiylashgan hududlarni qamrab oldi, qishloq joylari esa an’anaviy tarzda qolishda davom etdi. Pochta-telegraf boshqaruv tizimi nisbatan samarali ishlagan bo‘lsa-da, bir qator tizimli muammolar mavjud edi[10,24].

Uzoq masofalar va transport infratuzilmasining zaifligi xizmat ko‘rsatish tezligiga salbiy ta‘sir ko'rsatdi. Mahalliy xodimlarning yetishmasligi va malakali kadrlarni markazdan olib kelish zarurati xarajatlarni oshirdi.

Kommunikatsiya to‘siqlari, mahalliy tillarni bilmaydigan xodimlar va madaniy farqlar xizmat sifatini pasaytirdi. Moliyaviy resurslarning cheklanganligi infratuzilmani tezda kengaytirishga to‘sqinlik qildi. Nazorat tizimining haddan tashqari qat’iyligi ba'zan birokratik qotishmalarga olib keldi va xizmat ko‘rsatish tezligini susaytirdi. Shunga qaramay, umumiy holda tizim o‘z asosiy vazifalarini – ma’muriy boshqaruvni ta’minlash va iqtisodiy aloqalarni qo‘llab-quvvatlashni - muvaffaqiyatli bajargan.

Turkistonda pochta va telekommunikatsiya xizmatlarining boshqaruv tizimi Rossiya imperiyasining kolonial siyosatining muhim komponenti sifatida shakllandi va rivojlandi. Markazlashtirilgan, ierarxik boshqaruv tizimi samarali nazorat va aloqa tezligini ta’minladi, ammo mahalliy aholining keng ehtiyojlarini to‘liq qondirolmadi. Pochta-telegraf infratuzilmasi mintaqaning imperiya tizimiga siyosiy, iqtisodiy va ma’muriy integratsiyalashuvida muhim vosita bo'lib xizmat qildi.

Tizimning rivojlanishi modernizatsiya jarayonlarini rag‘batlantirdi, zamonaviy kommunikatsiya texnologiyalarini joriy qildi va iqtisodiy aloqalarni mustahkamladi. Biroq, u asosan kolonial ma’muriyat va shaharli elitaning manfaatlariga xizmat qildi, keng mahalliy aholi uchun cheklangan foyda keltirdi. Turkiston pochta-telegraf tizimining tajribasi keyinchalik Markaziy Osiyo respublikalarida milliy aloqa tizimlarini qurishda asos bo'lib xizmat qildi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Федченко, А. П. Путешествие в Туркестан. – Санкт-Петербург: Типография Императорской Академии наук, 1875. – С. 234–267.
2. Маев, Н. А. Очерки Туркестанского края. – Санкт-Петербург: Военная типография, 1876. – С. 156–189.
3. Бартольд, В. В. История культурной жизни Туркестана. – Ленинград: Издательство Академии наук СССР, 1927. – С. 198–215.
4. Гейер, И. И. Туркестан: Заметки о экономическом состоянии. – Ташкент: Типография Туркестанского генерал-губернаторства, 1909. – С. 312–345.
5. Рожкова, М. К. Экономическая политика царского правительства на Среднем Востоке во второй четверти XIX века. – Москва–Ленинград: АН СССР, 1949. – С. 267–289.
6. Остроумов, Н. П. Сарты: Этнографические материалы. – Ташкент: Типо-литография С. И. Лахтина, 1896. – С. 423–451.
7. Костенко, Л. Ф. Туркестанский край: Опыт военно-статистического обозрения. – Санкт-Петербург: Военная типография, 1880. – Т. 2. – С. 178–203.
8. Семёнов, П. П. Географическо-статистический словарь Российской Империи. – Санкт-Петербург: Типография В. Безобразова, 1885. – Т. 5. – С. 89–112.
9. Каримов, Ш. К. O‘rta Osiyoda aloqa vositalari tarixi. – Toshkent: O‘zbekiston, 1995. – 187–210 b.
10. Абдураимов, М. А. Туркистон генерал-губернаторлигининг маъмурий тузилиши. – Тошкент: Фан, 2010. – 234–268 б.

1916-YILGI JIZZAX QO‘ZG‘OLONIDA TEMIRYO‘LLARNING VAYRON ETILISHI SABABLARI VA OQIBATLARI

Javokhir Ergashov Inomjon o‘g‘li

Jizzax shahar 29-maktab tarix fani o‘qituvchisi

ergashevjavohirjon@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu tezis 1916-yilgi Jizzax qo‘zg‘olonida temiryo‘llarning buzilishi sabablari va oqibatlari qanday ahamiyat kasb etganligi haqidagi savollarga javoblarni tahlil qiladi. Bu jarayonda Eduard Dennis Sokolning “1916-yilgi Markaziy Osiyoda noroziliklar” deb atalgan tadqiqot ishi hamda 1932-yilda tayyorlangan Kompartiya hujjatlariga asosiy manbalar sifatida tayanildi.

Kalit so‘zlar: Jizzax qo‘zg‘oloni, 1916-yil, temiryo‘l, telegraf, Rossiya imperiyasi, Turkiston, mustamlakachilik, sabotaj, aloqa tizimi, jazolovchi qo‘shinlar.

Abstract: This thesis analyzes the answers to questions regarding the causes and consequences of the destruction of railways during the 1916 Jizzakh uprising. In this process, Eduard Dennis Sokol’s research work *“The Revolt in Central Asia: 1916”* and the Communist Party documents prepared in 1932 were used as the main sources.

Keywords: Jizzakh uprising, 1916, railway, telegraph, Russian Empire, Turkestan, colonialism, sabotage, communication system, punitive troops.

Аннотация. Данный тезис анализирует ответы на вопросы о причинах и последствиях разрушения железных дорог во время Джизакского восстания 1916 года. В ходе исследования основное внимание уделено труду Эдуарда Денниса Сокола «Волнения в Средней Азии в 1916 году», а также партийным документам 1932 года, использованным в качестве основных источников.

Ключевые слова: Джизакское восстание, 1916 год, железная дорога, телеграф, Российская империя, Туркестан, колониализм, саботаж, система связи, карательные войска.

1916-yilgi Jizzax qo‘zg‘oloni Turkiston o‘lkasida Rossiya mustamlakachilik siyosatiga qarshi yuzaga kelgan eng yirik harakatlardan biri sifatida tarixda alohida o‘rin tutadi. Qo‘zg‘olonning boshlanishi Rossiya imperatorining 25-iyun farmoni (mahalliy aholini harbiy mardikorlikka safarbar qilish qarori) bilan bog‘liq bo‘lsa-da, uning dinamikasini va hududiy taqdirini belgilab bergan omillardan biri temiryo‘l transporti va telegraf tarmoqlariga qilingan hujumlardir. Mazkur tezisning maqsadi – “Jizzax qo‘zg‘olonida temiryo‘llarning buzilishi va oqibatlari qanday bo‘lgan?”- degan savolga javob topishdir.

Jizzax qo‘zg‘oloni va bunda temiryo‘llarning ahamiyati haqida bir qancha tadqiqot ishlari mavjud. Ulardan biri **Edward Dennis Sokol tomonidan yozilgan** *“The Revolt of 1916 in Russian Central Asia” deb nomlanib* Johns Hopkins Press nashriyotida 1954-yil nashr qilingan. Bu tadqiqot ishida qo‘zg‘olonchilarning temiryo‘llarni buzishi, telegraf liniyalarini kesishi va natijada rus qo‘shinlarining kechikishi haqida batafsil ma`lumot beriladi. Ayniqsa, kitobning 89–95-betlarda Jizzaxdagi voqealar, temiryo‘lning buzilishi va hukumat kuchlari harakatining sekinlashgani haqida aniq dalilar mavjud. Keyingi muhim manbalardan biri **“Восстание 1916 г. в Средней Азии. Сборник документов”** deb nomlangan hujjatlar to‘plami bo‘lib, 1932-yil Toshkentda Markaziy Kompartiya yig‘ilishida e‘lon qilingan. Bu hujjatlar to‘plamida 1916-yilgi qo‘zg‘olonga oid rasmiy telegrammalar, raportlar va hukumat hujjatlari jamlangan. 16–27-raqamli hujjatlar Jizzax va atrofidagi voqealarni tasvirlaydi. Aynan bu yerda temiryo‘l va telegrafning vaqtincha yaroqsiz bo‘lib qolishi haqida dalillar bor.

Qo‘zg‘olonchilarning temiryo‘llarni buzishi va aloqa liniyalarini kesishi natijasida Toshkent va Samarqanddan qo‘zg‘olonni bostirish uchun yuborilgan qo‘shinlar Jizzaxga o‘z vaqtida yetib bora olmadi. Bu esa qo‘zg‘olonchilarning vaqtdan yutishiga sabab bo‘ldi. Arxiv hujjatlarida qayd etilishicha, 4–16 iyul oralig‘ida Jizzax bilan aloqa uzilgan, faqat 16-iyulda temiryo‘l va telegraf tiklangachgina muntazam xabarlar almashinuvi qayta tiklangan [2; 160–172].

Temiryo‘l va telegrafning buzilishi hukumat qo‘shinlarining kechikishiga sabab bo‘lgani uchun qo‘zg‘olonchilar Jizzax va uning atroflarida qisqa muddat hukmronlikni qo‘lga oldilar. Bu vaqtda ular nafaqat mahalliy rus posyolkalariga, balki boshqa strategik obyektlarga ham hujum qilish imkoniga ega bo‘ldi.

Temiryo‘l Rossiya imperiyasi uchun Turkistonda asosiy harbiy va iqtisodiy tayanch edi. Uning qisqa muddat buzilishi butun boshqaruv tizimining zaifligini ochib berdi. Bu voqea mustamlakachilik siyosatida transport va aloqa infratuzilmasining qanchalik muhim rol o‘ynaganini ko‘rsatadi[5; 3]

Temiryo‘l va aloqa tarmoqlarini qayta tiklash uchun maxsus muhandislar, ishchilar va qo‘shimcha qo‘shinlar safarbar qilindi. Bu esa qo‘zg‘olon bostirilishidan oldin hukumatning moddiy va harbiy xarajatlarini oshirdi.

Jizzax qo‘zg‘oloni – 1916-yil iyul oyida Jizzax va uning atrofi aholisining chor mustamlakachilariga qarshi olib borgan milliy ozodlik harakati bo‘lib, qo‘zg‘olonchilar Jizzax va uning atroflarida asosiy strategik obyekt sifatida temiryo‘l stansiyalari va aloqa tarmoqlarini nishonga oldilar[1; p.89]. Bundan tashqari, qo‘zg‘olonchilarning telegraf liniyalarini kesib tashlashi hukumat kuchlari o‘rtasidagi tezkor aloqa tizimini izdan chiqardi. Bu esa hukumatning Jizzaxdagi voqealardan xabar topishi kechikishiga sabab bo‘ldi. [1; p.93].

Qo‘zg‘olonchilarning temiryo‘l va telegraf tarmoqlarini buzishi natijasida hukumat bir necha kun davomida Jizzax bilan to‘liq aloqasiz qolgan. Bundan tashqari, umumiy miqyosda qo‘zg‘olonchilar Jizzax-Obruchov(hozirgi Dashtabod shahri) temiryo‘l yo‘nalishining 65 verst(1 verst = 1.06 km) qismini vayron qilishdi. Bu jarayonda 16 nafar temiryo‘l xodimlari ham o‘ldirildi.

Rossiya imperiyasi Turkiston o‘lkasida qo‘shinlarning tezkor harakatlanishi uchun temiryo‘llarga tayanar edi. Jizzaxdagi temiryo‘lning buzilishi natijasida Toshkent va Samarqanddan yuborilgan jazolovchi kuchlarning yetib borishi kechikdi. Sokolning qayd etishicha: “Temiryo‘lning buzilishi qo‘zg‘olonchilarning amalga oshirgan eng katta ishlari boldi. Jizzax boshqa hududlardan to‘liq uzib qo‘yildi” (1; p.95). Shu sababli hukumat qo‘shimcha

kuchlarni safarbar etishga, temiryo‘l va aloqa tarmoqlarini qayta tiklashga majbur bo‘ldi. Bu esa jazolovchi amaliyotlarning boshlanishini bir necha kun kechiktirdi.

1932-yilda chop etilgan “Восстание 1916 г. в Средней Азии. Сборник документов” to‘plamida Jizzax voqealariga oid ko‘plab rasmiy telegramma va raportlar jamlangan. Mazkur hujjatlarning 16–27-raqamlilari (4–19 iyul) bevosita Jizzax va atrofidagi vaziyatni yoritadi. Ularda temiryo‘lning buzilgani, telegrafning ishlamayotgani va markaziy hokimiyatning qo‘shimcha qo‘shin yuborish choralari haqida ma’lumotlar mavjud(2; pp.160–172). Bu rasmiy hujjatlar qo‘zg‘olonchilarning temiryo‘l va aloqa tarmoqlarini izdan chiqarishi hukumat uchun qanday jiddiy oqibatlarga olib kelganini hujjatlashtirib beradi.

Xulosa qilib aytganda, 1916-yilgi Jizzax qo‘zg‘olonida temiryo‘l va telegrafning buzilishi oddiy sabotaj emas, balki mustamlakachilik tizimining harbiy-siyosiy boshqaruviga qarshi qaratilgan ongli qarshilik shakli edi. Xususan:

1. Strategik ahamiyat — Jizzax qo‘zg‘olonchilari temiryo‘l va telegrafni buzish orqali mustamlaka hokimiyatining eng muhim tayanchini izdan chiqardilar.
2. Harbiy oqibatlar — Jazolovchi qo‘shinlarning yetib kelishi kechikdi, bu esa qo‘zg‘olonchilarga vaqtincha tashabbus berdi.
3. Mustamlaka siyosatining zaif nuqtasi — Rossiya imperiyasining Turkistondagi harbiy boshqaruvi temiryo‘llarga mutlaq bog‘liq bo‘lgani isbotlandi.
4. Tarixiy ahamiyat — Jizzax voqealari keyingi tarixiy jarayonlarda ham temiryo‘l va aloqa tizimlarining strategik ahamiyatini yoritib berdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Edward Dennis Sokol. The Revolt of 1916 in Russian Central Asia. Baltimore: Johns Hopkins Press, 1954. (pp. 89–95).
2. Восстание 1916 г. в Средней Азии. Сборник документов. Ташкент: Средазбюро ЦК ВКП(б), 1932. (doc. №16–27, pp.160–172).
3. https://www.vostlit.info/Texts/Dokumenty/M.Asien/XX/1900-1920/Djizak_vosst_1916
4. https://rev-lib.com/vosstanie-1916-g-v-srednej-azii-sbornik-dokumentov
5. https://www.degruyterbrill.com/document/doi/10.7765/9781526129437.00012

ФОРМИРОВАНИЕ НРАВСТВЕННЫХ ЦЕННОСТЕЙ У ДЕТЕЙ ДОШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА

Мустафаева Замира Саидкуловна
Преподаватель, Джизакского государственного педагогического университета имени А.Кадыри
Илхомова Маърифат Сирож кизи
Студент, Джизакского государственного педагогического университета имени А.Кадыри
marifatilkhomova88@gmail.com

Annotatsiya: Maktabgacha ta’lim jarayonida axloqiy qadriyatlarni shakllantirish bolalarning shaxsiy kamoloti va ijtimoiy moslashuvini ta’minlaydigan eng muhim yo‘nalishlardan biridir. Ushbu maqolada tarbiyachilarning pedagogik faoliyatida badiiy adabiyot namunalaridan foydalanish, milliy o‘yinlar, suhbat va rolli mashg‘ulotlar orqali bolalarda mehribonlik, hurmat, mas’uliyat, halollik va hamkorlik kabi axloqiy sifatlarni rivojlantirishning samarali usullari yoritiladi. Tadqiqot davomida amaliy tajriba, kuzatuv, interfaol metodlar va integratsiyalashgan yondashuvlar asosida axloqiy tarbiyaning ta’sirchanligi tahlil qilindi. Maqolada shuningdek, tarbiyachilar uchun metodik tavsiyalar, ota-onalar bilan hamkorlikning ahamiyati hamda bolalarning ijtimoiy-emotsional rivojlanishiga ta’sir etuvchi omillar ko‘rsatib beriladi.

Kalit so‘zlar: Axloqiy tarbiya, maktabgacha yoshdagi bolalar, qadriyatlar, ijtimoiylashuv, hamdardlik, mas’uliyat, badiiy adabiyot, rolli o‘yin, pedagogik usullar, emotsional rivojlanish.

Аннотация: Формирование нравственных ценностей в дошкольном образовании рассматривается как одно из важнейших условий личностного становления ребёнка и его успешной социализации. В данной статье раскрываются эффективные методы

воспитательной работы, направленные на развитие у дошкольников таких качеств, как доброжелательность, уважение, ответственность, честность, эмпатия и сотрудничество. Особое внимание уделено использованию художественной литературы, народных игр, ситуационно-ролевых упражнений и речевого взаимодействия как ключевых средств нравственного воспитания. В ходе анализа рассматриваются практические примеры, педагогические наблюдения, интегрированные подходы и специфика взаимодействия с родителями. Также подчёркивается значимость эмоционального благополучия ребёнка, коммуникативной среды и модели поведения взрослых в процессе формирования моральных ориентиров.

Ключевые слова: Нравственное воспитание, дошкольники, ценности, социализация, эмпатия, ответственность, художественная литература, ролевая игра, педагогические методы, эмоциональное развитие.

Abstract: The development of moral values in preschool education is considered a fundamental factor in shaping a child's personality and facilitating successful social adaptation. This article examines effective pedagogical strategies aimed at fostering such moral qualities as kindness, respect, responsibility, honesty, empathy, and cooperation in young children. Special emphasis is placed on the use of children's literature, traditional games, situational role-play activities, and guided communication as practical tools for moral education. The study analyzes real-life preschool practices, teacher observations, integrated approaches, and collaboration with families. Additionally, the article highlights the importance of emotional well-being, the influence of adult role models, and the social environment in supporting the moral and socio-emotional development of preschoolers.

Keywords: Moral education, preschool children, values, socialization, empathy, responsibility, children's literature, role play, pedagogical methods, emotional development.

Введение: Нравственное воспитание детей дошкольного возраста является одним из ключевых направлений современного образования и играет фундаментальную роль в формировании личности, системы ценностей и моделей социального поведения. Именно в дошкольный период закладываются основы будущего мировоззрения, понимания добра и зла, ответственности, взаимоуважения и гуманного отношения к окружающим. Учитывая, что ребёнок в этом возрасте активно познаёт мир через эмоции, подражание и игровой опыт, задача педагогов и семьи заключается в создании таких условий, при которых нравственные нормы не только объясняются, но и проживаются ребёнком в общении, деятельности и взаимодействии со сверстниками. Современные стандарты дошкольного образования подчёркивают значимость развития социальных и личностных качеств наравне с интеллектуальными, что требует применения эффективных методов, адекватных возрастным особенностям. Особое значение приобретают художественная литература, народные традиции, ролевая игра, театрализация, моделирование жизненных ситуаций и совместная деятельность, позволяющие формировать доброжелательность, эмпатию, справедливость, ответственность и культуру общения естественным и ненасильственным путём. В условиях динамических социальных изменений и роста информационного влияния важно обеспечить целостный подход, включающий сотрудничество дошкольной организации с семьёй, создание нравственно-развивающей среды и поддержку эмоционального благополучия ребёнка. Исследование данной проблемы имеет как теоретическую актуальность, так и практическую значимость, поскольку нравственные ориентиры, сформированные в детстве, становятся основой успешной социализации, предупреждения конфликтного поведения, развития самостоятельности и внутренней мотивации к добрым поступкам. Необходимость разработки эффективных педагогических средств, обеспечивающих устойчивое нравственное развитие дошкольников, определила выбор темы и содержание данной работы.

Методология: Методологическую основу исследования составляют личностно-ориентированный, деятельностный, культурологический и аксиологический подходы, позволяющие рассматривать ребёнка как активного участника процесса формирования

нравственных качеств в условиях дошкольного образования. Исследование строилось на принципах возрастной адекватности, гуманизации воспитательного процесса, опоры на эмоциональное восприятие и игровой опыт детей. В ходе работы применялись методы педагогического наблюдения, анализ поведенческих реакций, ситуативно-ролевые игры, моделирование нравственных ситуаций, беседы, художественное слово, использование национальных сказок, иллюстраций и фольклорных форм. Для получения объективных данных проводились опросы и анкетирование воспитателей и родителей, а также сравнительный анализ проявлений нравственных качеств у детей до и после педагогического воздействия. Практическая часть исследования включала организацию целенаправленных занятий, свободную и организованную игру, театрализацию, чтение и обсуждение произведений детской литературы, а также совместные воспитательные мероприятия с семьёй. Особое внимание уделялось динамике изменений в социальном поведении детей, их эмоциональной отзывчивости, уровне коммуникативности, способности к сопереживанию и соблюдению норм взаимодействия. Выбор таких методов позволил обеспечить комплексный подход к формированию нравственных ценностей и провести анализ образовательного процесса с учётом психолого-педагогических закономерностей развития дошкольников.

Задачи: В рамках исследования была поставлена комплексная система задач, направленных на всестороннее изучение и практическую реализацию процесса формирования нравственных ценностей у детей дошкольного возраста. Предстояло проанализировать психолого-педагогические, культурологические и методические источники, чтобы уточнить сущность нравственного воспитания и определить его ключевые компоненты в дошкольной педагогике; выявить исходный уровень сформированности нравственных представлений, поведенческих установок и социально-эмоциональных проявлений у детей; определить возрастные и индивидуальные особенности восприятия детьми таких ценностей, как доброжелательность, честность, ответственность, уважение, эмпатия и справедливость; исследовать потенциал художественной литературы, народного творчества, ролевой игры, диалогового общения и ситуационного моделирования в развитии моральных качеств; разработать и внедрить систему педагогических мероприятий, направленных на укрепление нравственных ориентиров через взаимодействие со сверстниками, взрослыми и семьей; обеспечить включение родителей в воспитательный процесс для создания единого нравственно-воспитательного пространства; наблюдать динамику изменений в поведении, эмоциональной сфере и коммуникативных навыках детей в ходе реализации педагогического воздействия; а также обобщить результаты с целью выявления наиболее эффективных средств, приёмов и условий, обеспечивающих устойчивое нравственное развитие дошкольников.

Решение: Решение поставленных задач заключалось в построении поэтапной, методически продуманной системы нравственного воспитания, основанной на принципах гуманизации, деятельностного подхода, эмоциональной включённости и сотрудничества с семьёй. В практическую работу были интегрированы художественная литература, народные сказки, инсценировки, театрализованные постановки, ситуативно-ролевые и дидактические игры, обсуждения моральных выборов персонажей, моделирование жизненных ситуаций и совместные творческие задания. Воспитатель создавал эмоционально благоприятную и безопасную среду, в которой ребёнок мог не только слышать нравственные нормы, но и проживать их через поведение, игру, диалог и взаимодействие со сверстниками. Особое внимание уделялось поощрению доброжелательности, взаимопомощи, ответственности, честности, эмпатии и справедливого поведения в естественных ситуациях. Родители включались в процесс через консультации, домашние задания, семейное чтение, наблюдения и совместные мероприятия, что обеспечивало преемственность воспитательных воздействий. Наблюдение за детьми, анализ их эмоциональных реакций, коммуникативных навыков и

поведения позволяли своевременно корректировать методы, усиливать положительные изменения и поддерживать детей, испытывающих трудности. Такой комплексный подход обеспечил не только усвоение нравственных норм, но и их проявление в повседневной жизни, способствуя развитию устойчивых ценностных ориентиров и социально одобряемых моделей поведения у дошкольников.

Таблица 1.

Формирование нравственных качеств у дошкольников

Направление	**Методы и формы**	**Примеры деятельности**	**Результат**
Доброжелательность и уважение	Чтение, обсуждение, театрализация	Сказки, инсценировки	Вежливость, доброжелательность
Эмпатия и сочувствие	Ролевые и ситуативные игры	«Семья», «Больница»	Понимание чувств других
Ответственность	Поручения, дежурства	Уход за растениями, уборка	Выполнение обязанностей
Честность и справедливость	Обсуждение поведения, сказки	«Колобок», «Журавль и лиса»	Отрицание обмана, справедливость
Культура общения	Речевые игры, диалог	«Вежливые слова», хоровод	Умение слушать, говорить корректно
Сотрудничество	Коллективные игры, проекты	«Строители», творчество	Взаимопомощь, согласованность

Заключение: Формирование нравственных ценностей в дошкольном возрасте представляет собой важнейшее направление современного воспитательно-образовательного процесса и служит фундаментом для дальнейшего личностного и социального развития ребёнка. Результаты исследования подтверждают, что нравственные качества не формируются стихийно, а требуют целенаправленной педагогической работы, насыщенной эмоционально значимыми ситуациями, практическим взаимодействием и доступными детям формами общения. Использование художественной литературы, народных игр, театрализации, ситуативно-ролевых упражнений, совместной деятельности и диалоговых форм общения способствует осмысленному усвоению детьми таких ценностей, как честность, уважение, сопереживание, взаимопомощь, ответственность и справедливость. Особую роль играет личность воспитателя как носителя моральных ориентиров, а также сотрудничество с семьёй, обеспечивающее преемственность воспитательных воздействий. Практическая работа показала, что создание морально насыщенной среды, опора на эмоциональное восприятие, моделирование реальных жизненных ситуаций и организация взаимодействия со сверстниками стимулируют развитие у детей социально одобряемого поведения и стойких нравственных установок.

Комплексный подход, включающий наблюдение, поддержку, поощрение и обсуждение, оказался наиболее результативным в формировании позитивного поведения и осознанного отношения к окружающим. Внедрение таких педагогических методов не только оказывает положительное влияние на эмоциональное и коммуникативное развитие дошкольников, но и способствует профилактике агрессивности, конфликтности и замкнутости. Научно-обоснованная организация воспитательного процесса в данном направлении позволяет рассматривать нравственное развитие как один из ключевых факторов успешной социализации. Полученные выводы подчёркивают необходимость дальнейших исследований, направленных на совершенствование методик, обновление содержания дошкольного образования и расширение взаимодействия с семьёй для формирования ценностных ориентиров у детей.

Список литературы:

1. Вера, Васильевна Малова Конспекты занятий по духовно-нравственному воспитанию дошкольников / Вера Васильевна Малова. - М.: Владос, 2016. - 920 с;

2. Вульфсон, Б.Л. Марксизм и проблемы нравственного воспитания: Страницы истории: Учебное пособие для студентов высших учебных заведений / Б.Л. Вульфсон. - Москва: Машиностроение, 2017. - 429 с;

3. Дивногорцева, С. Ю. Духовно-нравственное воспитание в теории и опыте православной педагогической культуры / С.Ю. Дивногорцева. - М.: ПСТГУ, 2016. - 602 с;

4. Савченко, В.И. Авторизованная "Программа нравственно-патриотического и духовного воспитания дошкольников" / В.И. Савченко. - М.: Детство-Пресс, 2022. - 184 с.

5. Зырянова С. М., Каратаева Н. А., Киселева Г. М. Социально-нравственное воспитание детей дошкольного возраста: учебное пособие / под ред. С. М. Зыряновой. Сургут, 2019. - 231 с.

РАҲБАР ХОДИМНИНГ ИЖТИМОИЙ-ПСИХОЛОГИК СИФАТЛАРИ

Инатуллаева Раъно Юнусовна
Наманган давлат университети катта ўқитувчиси
Каримова Зебо Қодировна
Тошкент Кимё Халқаро университети
Наманган филиали 2-босқич магистранти.

Аннотация: Мазкур мақолада замонавий раҳбар шахсининг жамият тараққиётидаги ўрни ва уларнинг касбий ҳамда шахсий сифатлари ёритилган. Раҳбарлардан нафақат бошқарув кўникмалари, балки маданият, мустақил фикрлаш, ижтимоий-сиёсий фаоллик ва энг аввало, мулоқот маданияти талаб этилиши таъкидланади. Мулоқот маданияти етарлича шаклланмаган шароитда соғлом ижтимоий муносабатларни йўлга қўйиш мушкул экани қайд этилган.

Калит сўзлар: замонавий раҳбар, мулоқот маданияти, касбий маҳорат, психологик-педагогик жиҳатлар, ижтимоий фаоллик.

Аннотация: В статье рассматривается роль современного руководителя в развитии общества, а также его профессиональные и личные качества. Подчеркивается, что от руководителей требуется не только управленческое мастерство, но и культура, независимое мышление, социально-политическая активность и прежде всего культура общения. Отмечается, что без сформированной культуры общения сложно наладить здоровые социальные отношения.

Ключевые слова: современный руководитель, культура общения, профессиональное мастерство, психолого-педагогические аспекты, социальная активность.

Abstract: This article analyzes the role of modern leaders in the development of society, highlighting both their professional and personal qualities. It emphasizes that leaders are required to demonstrate not only managerial skills but also culture, independent thinking, socio-political

activity, and, most importantly, communication culture. It is noted that without a well-developed culture of communication, it is difficult to establish healthy social relations.

Key words: modern leader, communication culture, professional competence, psychological-pedagogical aspects, social activity.

Юртимизда амалга оширилаётган кенг қамровли ислоҳотлар раҳбар ходимлардан юксак маданият, касбий маҳорат, ташаббускорлик ва жамоа манфаатларини ҳимоя қилиш қобилиятини талаб этмоқда. Замонавий раҳбар шахс фақат маъмурий вазифаларни бажариш билан чекланиб қолмай, балки турли тоифадаги аҳоли билан самарали мулоқот қила олиши, ижтимоий-сиёсий ҳаётда онгли равишда иштирок этиши ва мустақил фикр юритиши зарур. Бу жараён эса демократия тамойилларини ҳаётга жорий этиш, фуқаролик жамияти ва ҳуқуқий давлат қуришни жадаллаштириш имконини беради.

Шу нуқтаи назардан, замонавий раҳбарнинг қандай сифатларга эга бўлиши, унинг касбий ва шахсий фазилатлари, айниқса мулоқот маданиятининг ўрни алоҳида аҳамиятга эга. Чунки етарлича шаклланмаган мулоқот маданиятисиз соғлом ижтимоий муносабатларни йўлга қўйиш қийин. Психология фанида бу йўналишда катта ҳажмда илмий билим тўпланган бўлиб, улардан самарали фойдаланиш раҳбар кадрлар тайёрлаш тизимини такомиллаштиришга хизмат қилади. Бу борада нафақат ишбилармонлик, тадбиркорлик, ташаббускорлик сифатлари билан бир қаторда касбий фаолиятнинг *психологик-педагогик жиқатларини ҳамда тарбияланганлик сифатларини ҳам намоён қила олиши* лозим.

Касбий фаолиятнинг *психологик жиқатлари раҳбар* ходимларнинг келажакда ўз бурч ва мажбуриятларини самарали бажаришлари учун уларга зарур психологик-педагогик принциплар, категориялар ва тушунчаларни сингдириш ҳамда касб маданияти ва этикаси талабларига мувофиқ хатти-қаракатларини изоҳлаш, хизмат вазифаларини тўғри бажаришга ўргатиш, ўз касбига меҳр-муҳаббат, ҳурмат билан қарашни тарбиялашда намоён бўлади.

Касбий фаолиятнинг *педагогик жиҳатлари* эса *раҳбар* ходим хулқидаги мавжуд ахлоқий-сиёсий хусусиятларда акс этиб, ахлоқий меъёрлар ва принципларнинг шахс онгида қандай ҳосил бўлиши билан белгиланади. Ахлоқнинг шаклланишида атрофдаги турли хулқ-атвордаги кишилар, шахсий тажриба, муайян типлар тўғрисидаги маълумотлар,оммавий ахборот воситаларида ёритилаётган фактлар катта аҳамиятга эга.

Жумладан, Давлат сиёсатига ишонч ўрнатилган принципларга содиқликда, давлат сиёсатининг аҳоли ўртасида кенг тарғиб қилинишида ва амалда қўлланиш жараёнига талабчанликда кўринади. Талабчанлик хусусияти психологияда шахсий намуна бўлиш орқали атрофдагиларга таъсир ўтказа олиш, уларни мақсад сари йўллай олишда ҳосил бўлади.

*Принципиаллик.Ш*ахснинг ўз ишига содиқлиги, ирода хусусиятларида намоён бўлади ва булар қатъиятлилик, жавобгарлик ҳиссининг юқорилиги, кўзланган мақсадга эришишда самарадорликнинг юқорилиги билан белгиланади;

*Ватан олдидаги бурч.Ж*амият учун сидқидилдан ҳалол меҳнат қилиш, хизмат бурчига содиқлик, топширилган вазифалар учун жавобгарликни талаб этади. Ватанга содиқлик эса уни севиш, ҳар қандай шароитда ўз бурчини бажаришга тайёрлик, бутун куч ва имкониятини Ватан ҳимоясига сарфлашни билдиради.

*Жавобгарлик ҳиссини тарбиялаш. Ў*з шахсий ҳаракатлари учун жавоб бериш билан чекланмай, балки жамоатчилик ёрдамида умумий ишларга биргаликда жавобгар бўлишни ҳам англатади. Жамиятимизда жамоа олдидаги бурчни сезиш муҳим ҳисобланиб, ўртоқлик муносабатлари ва жамоатчилик ҳисси юқори бўлиши зарур. Ходимнинг ўз камчиликларини тан олиши, таълим-тарбия вақтида уларни илғай олиши уни ўз вақтида бартараф этишга ёрдам беради. Камчиликларни яшириш, қийинчиликларни кўрсатмаслик фаолият самарадорлигини сусайтиради.Ҳар бир ходим Ватан олдида қасамёд қилади. Бу шунчаки

расмиятчилик эмас, балки Ватан, халққа садоқат, ўз олдига қўйилган вазифаларини сидқидилдан бажаришга тайёр бўлиш демакдир.

*Интизом.И*нсонлар хулқининг махсус шакли бўлиб, жамиятда қабул қилинган қоидаларга амал қилишни билдиради. Ҳарбий тартиб- интизомнинг фарқли томони ахлоқий хусусиятларни буйруқ ва низом талабларига бўйсундиришдан иборат.

Хиссийлик ҳолати. Ўз кучи ва маҳоратига ишониш, жиноятчиликка қарши кураш жараёнида учраши мумкин бўлган объектив ва субъектив тўсиқларни енгиш учун ўз ҳиссиётларини бошқара олиш, ижтимоий тенглик ва қонун ғалаба қозонганидан қониқишни сезиш.

Иродалилик – қалтис вазият ва ҳолатларда ирода кучини жамлай олиш, жуда катта куч ва матонат талаб этадиган шароитларда сабрли, қатъиятли бўлиш,. ўз вазифасини бажаришга, касбий мақоратни эгаллашга бутун диққатини тўплай олишда намоён бўлади.

Юксак инсоний хислатлар – тажриба, шахсий намуна, жамоада обрў-эътиборга эга бўлиш.

Обрў – юқори даражадаги ахлоқ белгиси бўлиб, билим ва тажриба асосида бошқа инсонларга (ихтиёрий) таъсир ўтказиш, жамоа аъзоларининг бирлиги, бирдамлиги ва бошлиқнинг мавқеи билан белгиланади.

Хулоса қилиб айтганда, жамоанинг фаолияти ва асосий урғу раҳбар ходимлар зиммасига юклатилган масъулият, уларда зарур бўлган сифатлар ва компетенциялар ҳақида. Хусусан, бугунги жамиятда раҳбар шахсидан нафақат касбий маҳоратни, балки маданият, мулоқот ва жамоа билан ишлаш қобилияти талаб этилиши таъкидланган.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Рубинштейн С.Л. Принципы и пути развития психологии. М. 1997 г. РСФСР. ПФА нашр.180-бет.
2. Давлетшин М.Г. Ёш психологияси ва педагогик психология Т.2002 й.-19 б.
3. Иванов П.И. Зуфарова М. Умумий психология Т.2008й
4. Каримова В.Ижтимоий психология ва ижтимоий амалиёт Т.2009й.-80 б.

O‘ZBEKISTONDA JURNALISTIKA VA BLOGSOHA: TARAQQIYOT, IJTIMOIY-SIYOSIY TA’SIR VA HUQUQIY ASOSLAR

Murodova Nilufar

O‘zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti mustaqil tadqiqotchisi,

nilufarmurodovaa@gmail.com

Annotatsiya. Tezisda O‘zbekistonda blogerlik faoliyatining shakllanishi va rivojlanishi tahlil qilingan bo‘lib, uning jurnalistika tizimidagi o‘rni hamda ahamiyati erishilgan natijalar asosida yoritib berilgan. Tadqiqotning maqsadi — O‘zbekistonda blogerlik faoliyatining shakllanishi, rivojlanish bosqichlari va jurnalistika tizimidagi o‘rnini tahlil qilish, blogosferaning ijtimoiy-siyosiy jarayonlarga ta’sirini hamda an’anaviy OAV bilan o‘zaro aloqalarini o‘rganish, shuningdek, blogerlikning huquqiy va axloqiy asoslarini xalqaro tajriba bilan qiyoslab, uning milliy jurnalistikaga integratsiya jarayonini aniqlashdan iborat.

Kalit so‘zlar: O‘zbekiston blogosferasi; internet jurnalistikasi; fuqarolik jurnalistikasi; ijtimoiy tarmoqlar; huquqiy-axloqiy me’yorlar; axborot siyosati; media madaniyat; telegram; fact-checking.

Аннотация В тезисе проводится анализ формирования и развития блогерской деятельности в Узбекистане, раскрываются её место и значение в системе журналистики на основе достигнутых результатов.

Цель исследования — проанализировать процесс становления, этапы развития и роль блогерской деятельности в системе журналистики Узбекистана, изучить влияние блогосферы на социально-политические процессы и её взаимодействие с традиционными средствами массовой информации, а также, сопоставив правовые и этические основы

блогерства с международным опытом, определить особенности интеграции блогосферы в национальную журналистику.

Ключевые слова: блогосфера Узбекистана; интернет-журналистика; гражданская журналистика; социальные сети; правовые и этические нормы; информационная политика; медиакультура; telegram; фактчекинг.

Abstract. The thesis analyzes the formation and development of blogging activity in Uzbekistan, highlighting its place and significance within the journalism system based on the obtained results.

The aim of the study is to examine the process of formation, stages of development, and the role of blogging within Uzbekistan's journalism system; to explore the influence of the blogosphere on socio-political processes and its interaction with traditional mass media; and, by comparing the legal and ethical foundations of blogging with international experience, to identify the patterns of its integration into national journalism.

Keywords: Uzbek blogosphere; online journalism; citizen journalism; social media; legal and ethical standards; information policy; media culture; telegram; fact-checking.

Kirish. So‘nggi yillarda texnologiyalar taraqqiyoti natijasida blogerlik faoliyati ommalashib, ijtimoiy-siyosiy hayotga sezilarli ta’sir ko‘rsata boshladi. Blog — bu shaxsiy fikrlarni e’lon qilish va o‘quvchilar bilan muloqot qilish imkonini beruvchi onlayn platforma bo‘lib, unda matn, rasm, video yoki audio ko‘rinishidagi kontent teskari xronologik tartibda joylashtiriladi [4]. “Blog” atamasi dastlab 1997-yilda Jon Berger tomonidan “weblog” shaklida ishlatilgan, 1999-yilda esa Piter Merxolz tomonidan “we blog” (“biz blog yuritamiz”) tarzida qisqartirilib, zamonaviy “blog” shaklida ommalashgan [3]. O‘sha yili “Blogger” platformasining yaratilishi esa bu jarayonni avtomatlashtirib, blogerlik madaniyatini keng yoyilishiga sabab bo‘ldi.

O‘zbekistonda so‘nggi o‘n besh yillikda axborot texnologiyalarining taraqqiy etishi va internetning keng qo‘llanilishi natijasida jurnalistika sohasida sezilarli o‘zgarishlar kuzatildi. Ana shunday o‘zgarishlardan biri blogerlar harakatining paydo bo‘lishi bo‘lib, u media-industriya rivojlanishining yangi bosqichini shakllantirdi. Blogerlar mamlakat axborot makonida asta-sekinlik bilan muhim o‘rin egallay boshladi. Natijada ham an’anaviy jurnalistikaga, ham jamoatchilik fikriga ma’lum ma’noda o‘z ta’sirini ko‘rsatdi.

Asosiy qism

O‘zbekistonda blogerlik harakatining ilk qadamlarini 2000-yillarning o‘rtalariga borib taqaldi, ya’ni, yangi siyosiy boshqaruv tizimi va internetning yanada ommalashuvi davrga to‘g‘ri keldi. Dastavval blog yuritish asosan shaxsiy kundaliklar shaklida rivojlanib, mualliflar o‘z fikri, tajribalari va shaxsiy hayotiga oid ma’lumotlarni auditoriya bilan o‘rtoqlashdi [2]. Facebook, Odnoklassnik, Instagram, Telegram va YouTube kabi ijtimoiy tarmoqlar blogerlik madaniyatining tarqalishida asosiy rol o‘ynadi. Shuni qayd etish joizki, blogerlar an’anaviy ommaviy axborot vositalarini chetlab o‘tib, o‘z auditoriyasi bilan bevosita muloqot qilish imkoniyatiga ega bo‘ldi.

2010-yillarning boshlariga kelib, blogerlar ijtimoiy muammolar, korrupsiya, ekologiya va inson huquqlari kabi ijtimoiy ahamiyatga molik muammolarni faol yoritishni boshladi. Ularning aksariyati foydalanuvchilar tomonidan an’anaviy ommaviy axborot vositalariga qaraganda mustaqilroq va ishonchliroq deb hisoblagan muqobil axborot manbasiga aylandi. Shu bilan birga, blogerlar ommaviy muhokamalarda ham faol ishtirok etib, rasmiy OAV nazaridan chetda qolgan mavzularni ham yoza boshladi. Internetning jadallashuvi va mobil texnologiya taraqqiyoti blogsohaning rivojiga ijobiy ta’sir ko‘rsatdi. Kontent formatlari xilma-xil bo‘lib, mavzu ko‘lami kengaydi: matnli postlardan tortib video sharhlar, jonli efirlar va podkastlargacha. Blogerlar hukumat darajasidagi o‘zgarishlarga erishib, mahalliy muammolarga ham e’tibor qarata boshladi. Bu ularni jamoatchilik nazoratida muhim vositachiga aylantirdi.

Zamonaviy o‘zbek jurnalistikasida blogerlar vazifaviy nuqtayi nazardan ikki xil rol o‘ynaydi. Bir tomondan, ular an’anaviy ommaviy axborot vositalarining raqobatchisi bo‘lsa, boshqa tomondan OAV uchun hamkor bo‘lib, birgalikda keng ko‘lamli qo‘shma loyihalarni amalga oshiradi. Ayrim blogerlar asta-sekin professional jurnalistika sohasiga o‘tib, axborot resurslari va tahliliy materiallarni yaratishda ham faol ishtirok etmoqda.

O‘zbekistonda ham blog va blogsohaning rivojlanib kelayotganiga ko‘p bo‘lgani yo‘q. Uning o‘tmishini uzoq yillik tarixdan qidirishga hojat yo‘q. 2014-yilda ilk marotaba tashkillashtirilgan o‘zbek blogerlari chempionatida 116 ta ishtirokchi qatnashdi. Qariyb 3 oy davom etgan turnirning yakuniy bosqichidagi natijalar 21-mart arafasida e’lon qilindi. 12-aprelda esa sovrindorlarni taqdirlash marosimi bo‘lib o‘tdi, deyiladi bbc.com xabarida [1]. O‘zbekistonlik blogerlar faoliyatida katta burilish yasagan mazkur tanlov, ushbu sohaning rivojiga ham o‘ziga xos hissa qo‘shdi.

O‘zbekistonda prezidentning hukumat mulozimlarini halol tanqid qilishi jamoatchilikni, shu jumladan, jurnalistlarni mamlakatning ayrim nohalol mansabdorlariga nisbatan shubha bilan qarashga undadi. Jurnalistlar ko‘lami keng mavzularni yanada teran va chuqur tahlil qilish, mamlakatda kechayotgan voqea-hodisalarga xolisona baho berish orqali murojaat qila boshladi. Ammo bu harakatlar yangi davr bosma ommaviy axborot vositalarini shov-shuvli rivojlanish nuqtasiga olib kelmadi, faqat yangiliklar saytlarida biroz bo‘lsa-da, olg‘a siljishlar kuzatildi, xolos. Bu holat media muhitida yangi mualliflar, ya’ni blogerlar sinfi paydo bo‘lishiga turtki bo‘ldi.

Fuqarolar faolligi ortidan rivojlana boshlagan blogsoha ko‘plab ommaviy axborot vositalaridan holi tarzda shakllandi va ularning ba’zilari o‘z muxlislari – sodiq o‘quvchilariga, muqim auditoriga ega bo‘lib ulgurdi. Hukumat yangi tendensiyani rivojlanishida hech qanday rol o‘ynamadi, bunda bloglar faoliyati to‘siqlarsiz media maydoniga chiqib keldi.

Prezident farmoni bilan mamlakat tarixida ilk marotaba o‘zbek blogerlari rasman tan olindi. 2019-yil matbuot erkinligi kuni – 27 iyunda bosh vazir Abdulla Aripov O‘zbekistonning eng kuchli ikki nafar blogerlarini – @xushnudbek (Xushnudbek Xudayberdiyev) va @davletovuz (Qobil Xidirov)ni mukofotladi. Ularning blogerlik faoliyati an’anaviy OAVning boshqa vakillari singari alohida e’tirof etildi. Ushbu blogerlar Pavel Durov asos solgan Telegram ijtimoiy tarmog‘i orqali o‘z xabarlarini ommaga taqdim etdi va ijtimoiy-siyosiy hayotda faol ishtirok eta boshladi. 2025-yil 10-yanvar holatiga ko‘ra @xushnudbekuzning 674 973 nafar, @davletovuzning esa 84 018 dan ortiq kuzatuvchisi bor edi. Har ikkala blogerning auditoriyasi mos ravishda kun sayin ortib bormoqda.

2024-yilga kelib, mamlakatimiz media makonida yana bir qator faol blogerlar shakllanib ulgurdi. Ular yozayotgan har bir post va xabarlar chuqur tahliliy nuqtayi nazarga ega bo‘lib, qonun va huquqiy doirada asoslar bilan sharhlanadi. Ular qatoriga Rasul Qo‘shirboyav (@r_kusherbayev: 120 854), Vafo Mo‘min (@nishondagi_gaplar_tegadi: 147 048) va (@adolat_kuychisi: 60 895), Zafarbek Solijonov (Zafarbek_Solijonov: 23 708), Karimberdi Turamurod (@molxonauzb 46 777), Umid G‘ofurov (@trolluz: 98 105), (@RaisBuva: 35 325), Temur Malik (@fayzboguz 22 854), Nikita Makarenko (@makarenko_channel: 35 427), Farhod Fayzullayev (@tentakminds: 17 108), Eldar Asanov (@AsanovEldar: 14 204), Shaxnoza Soatova (@shahnozxon: 6 304), Irina Matviyenko (@SukutSaqlama: 11 892) va boshqa blogerlarni ham kiritishimiz mumkinki, ular aynan Telegram tarmog‘ida o‘z fikr va mulohazalarini dadil ayta olayotgan blogerlardir.

2019-yil 22-noyabrda Toshkent shahrida bo‘lib o‘tgan Mobicon 2019 konferensiyasida Troll.uz saytining muallifi, bloger Umid G‘ofurov O‘zbekistonda blogsoha rivojlanishiga oid shunday fikrlarni bildirgan edi: “Bugungi kundagi o‘zbekistonlik bloger – bundan besh yil oldingi qozog‘istonlik yoki 8-9-yil oldingi rossiyalik blogerga qiyos. Biz blogosferaning rivojlanishi jihatidan biroz orqada qoldik, bu soha mutlaqo bo‘sh qoldi. Ko‘p yillar davomida bizga blogsoha uchun zarur bo‘lgan foto va videolarni olishga ruxsat berilmadi. Umuman olganda, bizning mentalitetimiz va turmush tarzimiz kimnidir suratga olishga yo‘l qo‘ymaydi, yo‘qsa mahalla yoki qo‘ni-qo‘shnilar nima deydi? Bundan tashqari, matbuot uzoq vaqt senzuraga uchragan va bosim ostida bo‘lib kelgan bir paytda blogsoha haqida gapirishning hojati ham yo‘q. Bizda agar bloger bo‘lsang, unda adolat uchun kurashasan, biror muammoni hal qilish uchun yonib-kuyasan, degan tendentsiya shakllandi. Chet elda, bu biroz boshqacha, bloger – bu selebrity, o‘z kontentini yaratish uchun turli qiziqarli eksperimentlar uyushtiradigan mashhur odam deb qaraladi. Bizda esa bu tushuncha hali odamlarga yovvoyi. Ular bu narsaga odatlanmagan” [5].

Yuqorida keltirilgan fikrlardan xulosa qilib aytish mumkinki, uzoq yillik sukutdan keyin O‘zbekistonda OAV qatoriga qo‘shilgan blogsoha bugun internet jurnalistikaning ajralmas bir qismi sifatida ijtimoiy, siyosiy va iqtisodiy hayotga o‘z ta’sirini ko‘rsatmoqda.

Xulosa va takliflar

O‘zbekistonda blogosferaning rivojlanishi raqamli jurnalistikaning yangi bosqichini belgilab berdi. Blogerlik harakati qisqa davr ichida fuqarolik faolligi, erkin fikr ifodasi va jamoatchilik nazorati vositasiga aylandi. Internet texnologiyalari va ijtimoiy tarmoqlarning keng qo‘llanilishi, ayniqsa Telegram platformasining ommalashuvi, blogerlarning milliy axborot makonidagi o‘rnini mustahkamladi. Bugungi kunda blogerlar nafaqat yangiliklarni tezkor yoritish, balki tahliliy va ijtimoiy-siyosiy muhokamalarda ham faol ishtirok etib, jamoatchilik fikrini shakllantiruvchi kuchli omilga aylangan. Shuningdek, ularning faoliyati an’anaviy ommaviy axborot vositalari bilan ham raqobat, ham hamkorlik munosabatlarini vujudga keltirdi. Natijada, blogerlik jurnalistik tahlil, faktcheking, ijtimoiy javobgarlik va media savodxonlik kabi yangi tendensiyalarni kuchaytirdi.

Biroq blogerlik faoliyatining tez sur’atlarda kengayib borishi sohada huquqiy va axloqiy me’yorlarni ishlab chiqish zaruratini kuchaytirmoqda. Amaldagi “Axborotlashtirish to‘g‘risida”gi qonun va ishlab chiqilayotgan “Axborot kodeksi” loyihasi bu borada muhim qadam bo‘lsa-da, unda blogerlikning huquqiy maqomi, javobgarlik mezonlari va axloqiy standartlari aniq belgilanmagan. Shu sababli blogerlik faoliyatini tartibga soluvchi hujjatlarni xalqaro tajriba asosida takomillashtirish, axborot erkinligi va mas’uliyat muvozanatini ta’minlash dolzarb masalaga aylanmoqda.

Blogerlik madaniyatini rivojlantirishda media savodxonlikni oshirish, kontent yaratishda faktlarni tekshirish, shaxsiy hayot daxlsizligi va mualliflik huquqlariga rioya qilish kabi masalalar ustuvor yo‘nalishlardan bo‘lishi lozim. Shu bilan birga, blogerlar uchun ixtiyoriy “Etika kodeksi” ishlab chiqish, axborot manbalarini aniqlash va tekshirishda professional yondashuvni kuchaytirish taklif etiladi. Platformalar (ayniqsa Telegram) bilan hamkorlikda soxta akkauntlar, manipulyativ postlar va axborot xurujlariga qarshi shaffof monitoring tizimini yo‘lga qo‘yish ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa qilib aytganda, O‘zbekistonda blogosferaning rivojlanishi milliy jurnalistikaning yangi yo‘nalishini shakllantirdi. Uning ijtimoiy-siyosiy jarayonlardagi faolligi, jamoatchilik nazoratidagi o‘rni va axborot erkinligi tamoyillariga tayanishi fuqarolik jamiyatining pishib borayotganidan dalolat beradi. Kelgusida blogerlik harakatini institutsional jihatdan qo‘llab-quvvatlash, media etikani kuchaytirish va huquqiy bazani takomillashtirish mamlakatda ochiq, mas’ul va barqaror axborot muhitini shakllantirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. BBC News. Uzbek blogerlari chempionati natijalari e’lon qilindi. – 2014. – URL: https://www.bbc.com/uzbek/uzbekistan/2014/04/140423_uzbek_bloggers_championship (murojaat sanasi: 07.10.2025).

2. Goldstein, A. M. Blogging Evolution [Elektron resurs] / A. M. Goldstein. — 2009. — URL: https://www.researchgate.net/publication/225496539_Blogging_Evolution (murojaat sanasi: 07.10.2025).

3. Jones, M.; Alony, I. Blogs – the New Source of Data Analysis [Elektron resurs]. – 2008. – URL: http://ro.uow.edu.au/commpapers/469
(murojaat sanasi: 07.10.2025).

4. Leu, J.; Chi, Y.; Shih, W. Design and implementation of Blog Rendering and Accessing INstantly system // Journal of Network and Computer Applications. – 2007. – Vol. 30, No. 1. – P. 296–307. – DOI: https://doi.org/10.1016/j.jnca.2005.08.001

5. Mobicon 2019. Главные мобайл-тренды, итоги года и кейсы международных спикеров: как прошла последняя конференция Mobicon 2019 [Elektron resurs]. – Kun.uz, 25.11.2019. – URL: https://kun.uz/ru/53615695 (murojaat sanasi: 07.10.2025).

QATAG‘ON QILINGAN JADIDLARNING AXLOQIY TARBIYA HAQIDAGI QARASHLARI VA ULARNING ZAMONAVIY TA’LIMDAGI AHAMIYATI

Abdulxayev Elyorbek Kaxramonjon o‘g‘li
Andijon davlat texnika instituti assistenti
E-mail:elyorbekabdulxayev@gmail.com.

Annotatsiya: Ushbu maqolada XX asr boshlarida faoliyat yuritgan jadid ziyolilarining axloqiy-tarbiyaviy g‘oyalari, ularning insonparvarlik, ma’rifat va milliy qadriyatlarga asoslangan qarashlari tahlil qilinadi. Qatag‘on davrida yo‘qotilgan bu ma’naviy merosning hozirgi ta’lim tizimi uchun ahamiyati ochib beriladi. Jadidlarning asarlarida ilgari surilgan axloqiy qadriyatlar yosh avlodni barkamol, vatanparvar va ma’naviy yetuk qilib tarbiyalashda muhim manba sifatida baholanadi.

Kalit so‘zlar: jadidchilik, qatag‘on, axloqiy tarbiya, ma’naviy qadriyatlar, ta’lim, ma’rifat.

Аннотация: В статье рассматриваются нравственно-воспитательные идеи репрессированных джадидов начала XX века, основанные на гуманизме, просвещении и национальных ценностях. Анализируется значение их духовного наследия для современной системы образования. Подчеркивается роль идей джадидов в формировании нравственно зрелого и патриотического поколения.

Ключевые слова: джадидизм, репрессии, нравственные ценности, просвещение, воспитание, духовность.

Abstract: This article examines the moral and educational ideas of the repressed Jadid intellectuals of the early 20th century, which were based on humanism, enlightenment, and national values. It analyzes the importance of their spiritual heritage for the modern education system and emphasizes their role in shaping morally mature and patriotic youth.

Keywords: Jadidism, repression, moral education, enlightenment, spirituality, education.

XX asr boshlarida Turkiston o‘lkasida shakllangan jadidchilik harakati milliy uyg‘onish va ma’naviy yangilanish davrining mahsuli bo‘lib, xalqni jaholatdan qutqarish, ilm-ma’rifat va madaniyat orqali taraqqiyot sari yetaklashni o‘z oldiga maqsad qilgan edi xalqni ma’rifat va zamonaviylik sari yetaklashni maqsad qilgan edi. Bu harakatning yetakchi vakillari – Mahmudxo‘ja Behbudiy, Abdulla Avloniy, Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdurauf Fitrat, Cho‘lpon kabi ziyolilar xalqni jaholatdan chiqarish, milliy uyg‘onish ruhini shakllantirish yo‘lida fidokorona mehnat qildilar. Ularning ta’lim-tarbiyaga, axloqiy qadriyatlarga oid qarashlari nafaqat o‘z davri uchun, balki bugungi ta’lim tizimi uchun ham bebaho manba hisoblanadi. [1. B – 145].

Jadidlarning pedagogik qarashlari chuqur falsafiy mazmunga ega bo‘lib, ular uchun ta’lim — bu nafaqat bilim berish, balki shaxsni axloqan, iymonan va ma’naviy jihatdan yetuk qilib shakllantirish jarayonidir

Jadidlar faoliyatining markazida insonni komil, axloqan pok, iymonli va vatanparvar qilib tarbiyalash g‘oyasi yotadi. Ular uchun ta’lim faqat bilim berish emas, balki milliy o‘zlikni anglash va axloqiy kamolot yo‘lidir. Afsuski, 1930-yillar qatag‘on siyosati tufayli ushbu ziyolilar “xalq dushmani” deb e’lon qilinib, ko‘pchiligi qatl etildi yoki surgun qilindi. [2. B – 62]. Natijada, bir avlodning axloqiy-ma’naviy merosi uzilib qoldi.

Qatag‘on davri siyosati natijasida bu ziyolilarning nomlari qora ro‘yxatga kiritilib, ularning asarlari man etildi, jamiyatdan ularning axloqiy merosi uzib tashlandi. Bugun esa ularning asarlariga qaytish, fikrlarini tahlil qilish va ularni zamonaviy ta’lim konsepsiyasiga singdirish — ma’naviy tiklanishning ajralmas qismidir.

Bugungi kunda jadidlarning axloqiy tarbiya haqidagi qarashlarini qayta tiklash, ularni zamonaviy ta’lim jarayoniga singdirish milliy ma’naviyatni boyitadi va yoshlar ongida milliy o‘zlikni mustahkamlaydi.

Jadidlarning axloqiy qarashlari islom ma’naviy qadriyatlariga, Qur’on va hadisdagi insonparvarlik tamoyillariga, hamda Yevropa ma’rifatparvarlik harakatlarining ilg‘or g‘oyalariga tayanadi. Ular ilmni jamiyatni yuksaltiruvchi kuch, axloqni esa shaxsni komillikka yetkazuvchi mezon sifatida talqin qilganlar.

Jadidchilik harakati g‘oyalarining asosida Qur’on, hadis, islom axloqiy qadriyatlari va Yevropa ma’rifatparvarlik an’analari uyg‘unlashgan edi. Abdulla Avloniy o‘zining “Turkiy guliston yoxud axloq” asarida:

“Axloq insonni inson qilur, axloqsiz kishi jamiyat uchun zararli bir mavjuddir”, [3. B – 48]. — deya yozgan edi.

Avloniy axloqni ijtimoiy hayotning asosi sifatida talqin qiladi. Uningcha, ta’lim jarayonida ilm bilan bir qatorda axloqiy tarbiya ham muhim o‘rin tutishi zarur.

Mahmudxo‘ja Behbudiy esa “Padarkush” dramasi orqali axloqsizlik va jaholatning jamiyatga qanday halokat keltirishini ko‘rsatadi. U o‘z asarlarida axloqiy inqirozning sababi — ilm va ma’rifatning yo‘qligida deb biladi.

Munavvarqori Abdurashidxonovning “Muallimi soniy” asarida o‘qituvchining ma’naviy mas’uliyati, yoshlarni halollik, rostgo‘ylik, adolat va diyonat ruhida tarbiyalash zarurligi ta’kidlanadi.

Fitrat esa “Oila” risolasida axloqiy barkamollikning negizi oilaviy tarbiyada ekanini ko‘rsatadi. Uningcha, har bir ota-ona farzandiga faqat moddiy emas, ma’naviy meros ham qoldirishi kerak. [4. B – 75]. Bu tamoyillar o‘z davrida jamiyatni yangilash, shaxsni komillikka yo‘naltirish, milliy g‘ururni tiklash uchun kuchli ma’naviy asos yaratdi.

1930-yillarda sovet mustabid tuzumi o‘zining mafkuraviy siyosati orqali milliy uyg‘onish tarafdorlarini yo‘q qildi. Jadidlarning ma’rifat, milliy g‘urur, e’tiqod, axloq va mustaqil fikr haqidagi qarashlari kommunistik ideologiyaga zid deb topildi. [5. B – 112].

Natijada, ularning kitoblari yoqildi, asarlari man qilindi, nomlari tilga olinmadi. Bu esa bir necha avlodning axloqiy-ma’naviy uzilishiga sabab bo‘ldi.

Bugungi kunda bu tarixiy haqiqatni o‘rganish, qatag‘on qurboni bo‘lgan jadidlarning axloqiy merosini ta’lim tizimiga qaytarish — ma’naviy tiklanishning muhim qismidir. [6. B – 90].

Hozirgi ta’lim jarayonida jadidlarning quyidagi g‘oyalari alohida e’tiborga loyiq:

- Ta’limni axloqiy tarbiya bilan uyg‘unlashtirish;
- O‘qituvchini jamiyatning ma’naviy yetakchisi sifatida ko‘rish;
- Vatanparvarlikni axloqiy mas’uliyat darajasiga ko‘tarish;
- Oila va maktabning tarbiya jarayonidagi birligini ta’minlash.

Bu g‘oyalar hozirgi “Yangi O‘zbekiston” ta’lim konsepsiyasi, “Ma’naviyat va ma’rifat” dasturlari bilan hamohangdir. Jadidlar merosini o‘rganish yoshlar dunyoqarashini boyitadi, ularni o‘z milliy ildizlariga sodiq, shu bilan birga zamonaviy tafakkurli inson sifatida shakllantirishga yordam beradi.

Xulosa qilib aytganda qatag‘on qilingan jadidlarning axloqiy-tarbiyaviy qarashlari bugungi kun uchun ham dolzarbligini yo‘qotmagan. Ular insonparvarlik, halollik, vatanparvarlik va mehnatsevarlik kabi qadriyatlarni ta’lim jarayonining asosi sifatida ilgari surganlar. Qatag‘on qilingan jadidlarning axloqiy tarbiya haqidagi qarashlari nafaqat o‘z davrida, balki bugungi kunda ham ma’naviy va ilmiy ahamiyatini saqlab qolmoqda. Ularning ta’lim haqidagi qarashlari zamonaviy pedagogik fikrning asosiy g‘oyalariga uyg‘un keladi.

Ularning asarlarini ta’lim tizimida keng tatbiq etish yoshlar ongida ma’naviy immunitetni shakllantiradi. Shu bois jadidlarning axloqiy merosini chuqur o‘rganish, ularni zamonaviy pedagogik yondashuvlar bilan uyg‘unlashtirish milliy ta’lim tizimining rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Jadidlar yoshlarni komil inson sifatida tarbiyalash uchun uch omilni muhim deb bilganlar: ilm, axloq va vatan muhabbati. Bugungi ta’lim jarayonida ushbu g‘oyalarni qayta tatbiq etish, o‘qituvchilar va talabalarning ma’naviy yetukligini oshirish orqali milliy ma’naviyatimizni mustahkamlash mumkin.

Shunday ekan, jadidlarning axloqiy merosini o‘rganish, ularning g‘oyalarini zamonaviy ta’lim dasturlariga singdirish nafaqat tarixiy adolatni tiklash, balki kelajak avlodni barkamol inson sifatida voyaga yetkazish yo‘lida muhim qadamlardan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Qodirov, R. Jadidchilik harakati va uning tarixiy ahamiyati. – Toshkent: Fan, 2019. – 145 b.
2. Karimov, I. Tarixiy xotirasiz kelajak yo‘q. – Toshkent: O‘zbekiston, 1998. – 62 b.
3. Avloniy, A. Turkiy guliston yoxud axloq. – Toshkent: Ma’naviyat, 1992. – 48 b.
4. Fitrat, A. Oila. – Toshkent: Ma’naviyat, 1998. – 75 b.
5. Rajabov, R. Jadidlar va sovet mafkurasi. – Toshkent: Fan, 2003. – 112 b.
6. Ochildiev, S. Qatag‘on davri saboqlari. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2020. – 90 b.
7. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ma’naviyat markazi. Milliy qadriyatlar va ta’lim tizimi integratsiyasi konsepsiyasi. – Toshkent, 2022.

ЭКОЛОГИЧЕСКАЯ КУЛЬТУРА И РОЛЬ ЧЕЛОВЕКА

Пак Диана Александровна,
преподаватель, Джизакского государственного педагогического университета имени А. Кадыри,
tumangroz@gmail.com
Асатова Ирода Икром кизи
студент, Джизакского государственного педагогического университета имени А. Кадыри
irodanarzullaeva00@gmail.com

Аннотация: В данной работе рассматривается формирование экологической культуры и роль человека в сохранении окружающей среды. Анализируются причины снижения экологической ответственности и пути её повышения через воспитательные и образовательные процессы. Особое внимание уделяется методике «Tabiat bilan do‘stlik», направленной на развитие экологического сознания у детей и взрослых посредством практических действий, наблюдений и сотрудничества с природой. В статье предоставляются результаты исследования, подтверждающие эффективность данной методики в формировании устойчивых экологических привычек.

Ключевые слова: экология, природа, культура, человек, воспитание, ответственность, образование, сознание, гармония, развитие.

Annotatsiya: Ushbu ishda ekologik madaniyatni shakllantirish va insonning atrof-muhitni asrashdagi roli ko‘rib chiqiladi. Ekologik mas’uliyatning pasayish sabablari va uni tarbiya hamda ta’lim jarayonlari orqali oshirish yo‘llari tahlil qilinadi. Ayniqsa, «Tabiat bilan do‘stlik» metodikasi bolalar va kattalarda ekologik ongni amaliy faoliyat, kuzatuv va tabiat bilan hamkorlik orqali rivojlantirishga qaratilgan. Maqolada ushbu metodikaning barqaror ekologik odatlarni shakllantirishdagi samaradorligini tasdiqlovchi tadqiqot natijalari keltirilgan.

Kalit so‘zlar: ekologiya, tabiat, madaniyat, inson, tarbiya, mas’uliyat, ta’lim, ong, uyg‘unlik, rivojlanish.

Abstract: This paper examines the formation of ecological culture and the role of humans in preserving the environment. It analyzes the causes of declining environmental responsibility and the ways to enhance it through educational and upbringing processes. Special attention is given to the “Tabiat bilan do‘stlik” (“Friendship with Nature”) methodology, aimed at developing ecological awareness among children and adults through practical activities, observation, and interaction with nature. The article presents research results confirming the effectiveness of this methodology in forming sustainable ecological habits.

Keywords: ecology, nature, culture, human, education, responsibility, awareness, harmony, development.

Современный мир сталкивается с глобальными экологическими вызовами, которые напрямую связаны с деятельностью человека. Загрязнение воздуха и воды, вырубка лесов, исчезновение редких видов растений и животных — всё это последствия низкого уровня экологической культуры общества. Формирование экологического сознания и бережного

отношения к природе становится одной из важнейших задач современного образования и воспитания.

Данная методика направлена на формирование у детей и взрослых экологической культуры через эмоциональное и деятельностное взаимодействие с природой. Основная идея заключается в том, чтобы человек почувствовал себя не хозяином, а другом природы. В процессе работы участники наблюдают за природными явлениями, ухаживают за растениями и животными, проводят экологические игры и творческие занятия на свежем воздухе. Это помогает развивать чувство заботы, ответственности и любви к окружающему миру. Практическая часть методики включает проведение тематических недель («Неделя чистоты», «День деревьев»), участие в посадке растений, сборе мусора и создании поделок из природных материалов. Через такие формы деятельности участники учатся бережно относиться к ресурсам, осознают последствия своих поступков и приобретают навыки экологически правильного поведения. Методика «Tabiat bilan do‘stlik» способствует воспитанию осознанного, экологически грамотного человека, способного сохранять и приумножать природное богатство.

Методика «Tabiat bilan do‘stlik» предполагает тесное сотрудничество между педагогами, родителями и детьми. Взрослые подают личный пример экологически ответственного поведения — показывают, как правильно сортировать отходы, экономить воду и электроэнергию, бережно относиться к растениям и животным. Такая совместная деятельность способствует укреплению семейных и коллективных ценностей, развивает чувство единства и взаимопомощи в заботе о природе.

Результатом применения данной методики становится постепенное формирование устойчивых экологических привычек, повышение интереса к природе и осознание своей роли в её сохранении. Участники начинают воспринимать окружающий мир как живую систему, в которой человек является не потребителем, а активным защитником и другом природы. Таким образом, «Tabiat bilan do‘stlik» превращается не просто в воспитательный инструмент, а в стиль жизни, основанный на уважении, заботе и гармонии с природой. В результате проведённого исследования по методике «Tabiat bilan do‘stlik» было выявлено заметное повышение уровня экологической культуры у участников. Согласно данным анкетирования и наблюдений, у 85% детей сформировалось более ответственное отношение к растениям и животным, 78% стали активно участвовать в природоохранных мероприятиях, а 70% начали самостоятельно предлагать идеи по сохранению чистоты в окружающей среде. Участники стали чаще использовать экологически правильные привычки — экономить воду, не бросать мусор на улице, бережно относиться к природным материалам. Наблюдалось укрепление взаимодействия между педагогами и родителями: 82% семей приняли участие в экологических акциях, совместных посадках растений и мероприятиях на свежем воздухе. Это способствовало формированию единого воспитательного пространства, в котором ценности любви и заботы о природе стали частью повседневной жизни. Применение методики «Tabiat bilan do‘stlik» доказало свою эффективность в развитии экологического сознания и формировании устойчивых положительных привычек у детей и взрослых.

Дополнительный анализ результатов показал, что методика положительно повлияла не только на знания, но и на эмоциональное отношение участников к природе. После реализации программы 88% детей начали проявлять интерес к наблюдениям за природными явлениями, с удовольствием ухаживали за растениями и животными, а также с энтузиазмом участвовали в экологических играх и конкурсах. Уровень экологической осведомлённости педагогов также вырос: 76% отметили, что стали чаще применять экологические темы в образовательной деятельности и беседах с детьми. Можно сделать вывод, что методика «Tabiat bilan do‘stlik» способствует формированию гармоничных отношений человека с природой через практическую, познавательную и эмоциональную деятельность. Она укрепляет чувство личной ответственности за состояние окружающего

мира, формирует основы экологического мышления и воспитывает у подрастающего поколения активную жизненную позицию в защите природы.

Анализ эффективности методики «Tabiat bilan do‘stlik»

№	Показатели исследования	Положительные результаты (%)	Отрицательные результаты (%)	Выводы и комментарии
1	Повышение экологических знаний участников	85%	15%	Уровень знаний значительно вырос, большинство участников усвоили основные экологические понятия
2	Активное участие в природоохранных мероприятиях	78%	22%	Большинство проявили инициативу, но часть участников нуждается в дополнительной мотивации
3	Формирование экологически правильных привычек	70%	30%	Наблюдается положительная динамика, требуется закрепление полученных навыков
4	Вовлечение родителей в совместные экологические действия	82%	18%	Семейное участие усилило воспитательный эффект и повысило результативность методики
5	Повышение интереса к наблюдению за природой	88%	12%	Эмоциональное восприятие природы улучшилось, дети проявляют инициативу
6	Активное использование экологических тем в педагогической работе	76%	24%	Педагоги стали чаще применять экологические подходы в обучении
7	Общая эффективность методики	83%	17%	Методика показала высокий результат, доказав свою практическую ценность

СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННЫХ ЛИТЕРАТУР:

1. Ситаров В.А., Пустовойтов В.В. Социальная экология.- М., 2015.
2. Фортунатов А.А. Функции экологической культуры: анализ определений // Знание. Понимание. Умение. 2015. № 4. С. 110-117.
3. Мухина, В. С. (1999) Возрастная психология: феноменология развития, детство, отрочество. М. : Издательский центр «Академия». 456 с.

4. Кряж, И. В. (2013) Психология смысловой регуляции экологически релевантного поведения : дис. ... д-ра психол. наук. Харьков. 435 с
5. Урекешова, Л. (2013) Роль географии в развитии экологического сознания школьников // Знание. Понимание. Умение. № 4. С. 287-290.

QADRIYATLAR FALSAFASI VA UNING CHET TILINI O'QITISH JARAYONIDAGI AHAMIYATI

Raxmatova Marjona Uktamovna
Qarshi davlat universiteti tayanch doktoranti
e-mail: rakhmatova.marjon6640@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada aksiologiya fanining shakllanishi, rivojlanish bosqichlari va asosiy xususiyatlari tahlil qilinadi. Aksiologiya qadriyatlar haqidagi fan sifatida falsafiy tafakkur tarixida muhim o'rin egallaydi. Unda qadriyatlarning ijtimoiy, madaniy va ta'limiy jarayonlardagi roli ko'rib chiqiladi. Maqola davomida aksiologiyaning falsafiy ildizlari, Yevropa va Sharq mutafakkirlarining qarashlari hamda uning zamonaviy pedagogikada qo'llanilishi yoritilgan.

Kalit so'zlar: *aksiologiya, qadriyat, falsafa, ta'lim, metodologiya, rivojlanish, chet tili.*

Abstract: This article analyzes the emergence, stages of development, and main characteristics of axiology as a philosophical discipline. Axiology, as the science of values, occupies an important place in the history of philosophical thought. It examines the role of values in social, cultural, and educational processes. The article highlights the philosophical roots of axiology, the views of European and Eastern thinkers, as well as its application in modern pedagogy.

Keywords: *axiology, value, philosophy, education, methodology, development, foreign language.*

Аннотация: В данной статье анализируются формирование, этапы развития и основные характеристики аксиологии. Как наука о ценностях, аксиология занимает важное место в истории философской мысли. Рассматривается роль ценностей в социальных, культурных и образовательных процессах. В статье освещаются философские корни аксиологии, взгляды европейских и восточных мыслителей, а также её применение в современной педагогике.

Ключевые слова: аксиология, ценность, философия, образование, методология, развитие.

Aksiologiya qadriyatlar haqidagi fan bo'lib, uning mazmuni qadimdan falsafiy muammolar doirasida ko'rib chiqilgan. Insoniyat tarixida qadriyat tushunchasi axloq, estetika, din, madaniyat va ta'lim bilan uzviy bog'liq bo'lgan. XIX asr oxiri va XX asr boshlarida aksiologiya alohida falsafiy yo'nalish sifatida shakllandi. Bugungi kunda esa u nafaqat falsafa, balki pedagogika, psixologiya va sotsiologiyada ham qo'llanilmoqda [6, 77]. Maqolada aksiologiyaning tarixiy ildizlari, rivojlanish jarayonlari va hozirgi davrdagi o'ziga xos jihatlari keng yoritiladi.

Aksiologiyaning paydo bo'lishi. "Axios" (qadriyat) va "logos" (ta'limot) so'zlaridan tarkib topgan "aksiologiya" atamasi ilk bor XIX asr oxirida nemis va fransuz faylasuflari tomonidan qo'llanila boshlagan [8, 21]. Lekin qadriyatlar haqidagi fikrlar qadim yunon falsafasidan boshlangan. Aristotel axloqiy qadriyatlarni "oltin o'rtalik" tamoyili orqali izohlagan. Sharqda esa Forobiy, Ibn Sino, Jaloliddin Rumiy kabi mutafakkirlar qadriyatlarni ma'naviy barkamollik bilan bog'laganlar.

Aksiologiyaning rivojlanishi. XX asrda aksiologiya mustaqil falsafiy fan sifatida shakllandi. Max Scheler va Nicolai Hartmann qadriyatlarning ierarxik tizimini ishlab chiqdi. Unga ko'ra, qadriyatlar: sezgi va moddiy qadriyatlar, hayotiy qadriyatlar, ruhiy qadriyatlar, mutlaq qadriyatlar (diniy, abadiy) tarzida tasniflandi [7, 65]. Pedagogikada esa qadriyatlarni o'qitish jarayoniga integratsiya qilish orqali tarbiyaviy va metodologik yondashuvlar shakllandi.

Aksiologiyaning xususiyatlari. Aksiologiyaning asosiy xususiyatlari quyidagilardan iborat:

Xususiyatlar	Izoh
Normativlik	Qadriyatlar inson xulqini tartibga soladi.

Universallik	Qadriyatlar barcha jamiyatlarda mavjud.
Dinamiklik	Qadriyatlar vaqt o‘tishi bilan o‘zgaradi.
Madaniy bog‘liqlik	Har bir jamiyat qadriyatlarni o‘z madaniyatiga mos shakllantiradi.
Pedagogik ahamiyat	Qadriyatlar ta’lim va tarbiya jarayonida shaxs rivojiga xizmat qiladi.

Bugungi kunda aksiologik yondashuv xorijiy tillarni o‘qitishda, shuningdek, talabalarda milliy va umuminsoniy qadriyatlarni shakllantirishda keng qo‘llanilmoqda [1, 47].. Zamonaviy ta’lim jarayonida chet tillarini o‘qitish nafaqat kommunikativ ko‘nikmalarni shakllantirish, balki talabalarda qadriyatlar tizimini rivojlantirish bilan ham bog‘liq. Aksiologik yondashuv xorijiy tillarni o‘rgatishda quyidagi jihatlarda ahamiyatlidir:

1. Madaniyatlararo muloqot – Chet tilini bilish orqali talabalar boshqa xalqlar qadriyatlari, mentaliteti va an’analarini anglaydi. Bu esa tolerantlik, hurmat va hamkorlik qadriyatlarini shakllantiradi.
2. Umuminsoniy qadriyatlar – Chet tilini o‘rganish jarayonida inson huquqlari, erkinlik, tinchlik, adolat kabi qadriyatlar ta’lim mazmuniga integratsiya qilinadi.
3. Shaxsiy rivojlanish – Talaba nafaqat lingvistik bilim oladi, balki o‘zining axloqiy, estetik va ijtimoiy qadriyatlarini boyitadi. Bu jarayon uni global dunyo fuqarosiga aylantiradi.
4. O‘quv jarayonida motivatsiya – Aksiologik yondashuv asosida tuzilgan mashg‘ulotlar talabalarni til o‘rganishga ruhlantiradi, chunki til faqat grammatik tizim emas, balki qadriyatlar tashuvchisi sifatida namoyon bo‘ladi

Aksiologik yondashuv orqali talabalar boshqa xalqlar qadriyatlarini anglaydi va hurmat qiladi, til o‘rganuvchilarda axloqiy va estetik qarashlar boyiydi. O‘quvchilar motivatsiyasi oshadi, til o‘rganish qiziqarli bo‘ladi hamda talaba global dunyo fuqarosi sifatida shakllanadi.

Bugungi globallashuv davrida ta’lim tizimi nafaqat bilim berish, balki shaxsni barkamol qilib tarbiyalash vazifasini ham bajaradi. Shu nuqtai nazardan aksiologiya ta’lim jarayonida metodologik asos sifatida qaralmoqda. Aksiologik yondashuv quyidagi afzalliklarni taqdim etadi:

1. Integrativlik – Aksiologiya falsafa, pedagogika, psixologiya va sotsiologiyani birlashtiruvchi metodologik maydon yaratadi. Bu yondashuv shaxsni har tomonlama rivojlantirishga xizmat qiladi.
2. Kompetensiyaviy yondashuv bilan uyg‘unlik – bugungi ta’limda kompetensiyaga asoslangan o‘qitish yetakchi o‘rin tutmoqda. Aksiologik yondashuv kompetensiyalarni shakllantirishda qadriyatlarni asosiy omil sifatida belgilaydi.
3. Tarbiya va ta’lim birligi – aksiologiya bilimlarni o‘rgatishda axloqiy va estetik qadriyatlarni ham o‘z ichiga oladi. Bu esa ta’lim va tarbiyaning yaxlitligini ta’minlaydi
4. Innovatsion texnologiyalar bilan uyg‘unlashuv – zamonaviy ta’lim texnologiyalari (masalan, AKT, interaktiv metodlar, virtual ta’lim platformalari) qadriyatlarni o‘qitish jarayoniga samarali integratsiya qilish imkonini beradi. Shu orqali nafaqat til, balki madaniyat, axloq va umuminsoniy qadriyatlar ham o‘rgatiladi.
5. Global fuqarolik tarbiyasi – UNESCO ta’lim siyosatida ta’kidlanganidek, yoshlarni global fuqarolik ruhida tarbiyalash XXI asrning eng muhim vazifalaridan biridir. Aksiologiya bu jarayonda nazariy va amaliy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Aksiologik yondashuv nafaqat nazariy tushunchalar bilan chegaralanib qolmay, balki ta’lim jarayonida bevosita qo‘llanilishi bilan ham alohida ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, chet tilini o‘qitishda bu yondashuv nafaqat til kompetensiyasini, balki axloqiy, estetik va ijtimoiy qadriyatlarni ham shakllantirish imkonini beradi.

Chet tilini o‘qitishda qadriyatlarni integratsiya qilish quyidagi usullar orqali amalga oshirilishi mumkin:

Matn tanlash – o‘quv materiallari nafaqat lingvistik, balki axloqiy va madaniy qadriyatlarni aks ettirishi kerak. Masalan, tolerantlik, insonparvarlik, tabiatga ehtirom mavzularidagi matnlar. Rol o‘ynash mashqlari – talabalar qadriyatlarga oid real hayotiy vaziyatlarda muloqotga kirishib,

nafaqat tilni, balki qadriyatlarni ham o‘rganadilar. Munozaralar – ijtimoiy va madaniy qadriyatlarga oid mavzularda ingliz tilida bahs-munozaralar tashkil etish orqali shaxsiy fikr va qadriyatlarni shakllantirish.

O‘qituvchi nafaqat bilim beruvchi, balki qadriyatlarni shakllantiruvchi shaxs sifatida namoyon bo‘ladi. Uning vazifasi:

- ta’lim jarayonida qadriyatlarni ongli ravishda singdirish;
- o‘quvchilarda axloqiy tanlov qilish malakasini shakllantirish;
- milliy qadriyatlarni umuminsoniy qadriyatlar bilan uyg‘unlashtirish.

Aksiologik yondashuv asosida tashkil etilgan chet tili darslari quyidagi natijalarni beradi:
Lingvistik rivojlanish – o‘quvchi mustahkam til bilimiga ega bo‘ladi.
Qadriyaviy ong – shaxs o‘zini global dunyoda anglaydi va qadriyatlarga sodiq bo‘ladi.
Motivatsiya – tilni faqat grammatik bilim sifatida emas, balki qadriyatlar manbai sifatida qabul qiladi.

Xulosa. Aksiologiya qadriyatlarni falsafiy va amaliy nuqtai nazardan o‘rganadigan fan sifatida jamiyat hayotida muhim o‘rin tutadi. Uning rivojlanishi qadimdan boshlangan bo‘lsa-da, mustaqil yo‘nalish sifatida XX asrda shakllandi. Bugungi kunda aksiologik yondashuv ta’lim jarayonida dolzarb bo‘lib, shaxs kamolotini ta’minlashda katta ahamiyat kasb etadi. Shu bois, qadriyatlarni o‘quv jarayoniga integratsiya qilish ta’lim samaradorligini oshirishning muhim shartidir. Shuningdek, chet tilini o‘qitishda aksiologik yondashuv nafaqat bilim berish, balki shaxsni qadriyatlarga yo‘naltirish orqali uning barkamol rivojlanishini ta’minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdullaeva, N. (2020). Ta’lim jarayonida qadriyatlarning o‘rni. Toshkent: Fan nashriyoti.
2. Byram, M. (1997). Teaching and assessing intercultural communicative competence. Clevedon: Multilingual Matters.
3. Hartmann, N. (1962). Aesthetics. Berlin: De Gruyter.
4. Kagan, M. S. (1997). Filosofiya kul’tury. Sankt-Peterburg: Petropolis.
5. Rickert, H. (1913). The limits of concept formation in natural science. Cambridge: Cambridge University Press.
6.Scheler, M. (1913). Formalism in ethics and non-formal ethics of values. Halle: Niemeyer.
7. Windelband, W. (1901). A History of Philosophy. New York: Macmillan.
8. Zaripova, D. (2021). Foreign language education and values: Methodological perspectives. Kazan: KFU Press.

HUQUQIY DAVLAT VA FUQAROLIK JAMIYATI KONSEPSIYALARINING O‘ZARO BOG‘LIQLIGI VA O‘ZBEKISTON TAJRIBASI.

Marimov Muzaffar Erkinovich
Urganch Ranch texnologiya universiteti
“Ijtimoiy fanlar” kafedrasi o‘qituvchisi
muzaffarmarimov700@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati konsepsiyalarining nazariy asoslari hamda ularning o‘zaro bog‘liqligi yoritilgan. Shuningdek, O‘zbekistonda huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatining shakllanish jarayoni tahlil qilingan. Maqolada xalqaro tajriba, nazariy g‘oyalar va amaliy misollar asosida ilmiy xulosalar chiqarilgan.

Kalit so‘zlar: huquqiy davlat, fuqarolik jamiyati, Konstitutsiya, inson huquqlari, demokratiya, globallashuv.

Аннотация: В данной статье раскрываются теоретические основы концепций правового государства и гражданского общества, а также их взаимосвязь. Рассмотрен процесс формирования правового государства и гражданского общества в Узбекистане. На основе международного опыта, теоретических идей и практических примеров сделаны научные выводы.

Ключевые слова: правовое государство, гражданское общество, Конституция, права человека, демократия, глобализация.

Abstract: This article explores the theoretical foundations of the concepts of the rule of law and civil society, as well as their interrelation. It analyzes the historical development of the rule of law and civil society in Uzbekistan. Based on international experience, theoretical ideas, and practical examples, scientific conclusions are drawn.

Keywords: rule of law, civil society, Constitution, human rights, democracy, globalization.

Har bir jamiyat taraqqiyoti, avvalo, undagi boshqaruv tizimining qanchalik samarali va adolatli ekanligiga bog‘liq. Insoniyat tarixida davlat va jamiyat munosabatlarini uyg‘unlashtirish, shaxs erkinligini ta’minlash va ijtimoiy barqarorlikni kafolatlash masalasi doimo markaziy o‘rinda bo‘lib kelgan. Shu nuqtai nazardan, zamonaviy davrda huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati tushunchalari nafaqat nazariy, balki amaliy ahamiyatga ham ega bo‘lib, ular demokratik rivojlanishning ikki tayanch ustuni sifatida e’tirof etiladi.

Bugungi globallashuv sharoitida inson huquqlarining kafolatlanishi, jamiyatning siyosiy madaniyati hamda davlat boshqaruvining shaffofligi xalqaro maydonda davlat obro‘sini belgilovchi asosiy mezonlardan biriga aylandi. Shuning uchun ham har bir mamlakat o‘z taraqqiyot yo‘lida huquqiy davlat barpo etish va fuqarolik jamiyatini shakllantirish masalasiga alohida e’tibor qaratmoqda.

Mazkur mavzuning dolzarbligi shundan iboratki, huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatining uyg‘un rivoji nafaqat siyosiy tizim barqarorligini, balki iqtisodiy islohotlarning samaradorligini, ijtimoiy adolat va fuqarolarning faol hayotiy pozitsiyasini ta’minlashda ham muhim omil bo‘lib xizmat qiladi. Shu bois bu masalani ilmiy jihatdan o‘rganish, nazariy qarashlarni tahlil qilish va milliy tajriba asosida baholash hozirgi kunda dolzarb ilmiy vazifalardan biri hisoblanadi.

Huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati – zamonaviy demokratik boshqaruv tizimlarining ikki asosiy poydevori hisoblanadi. Huquqiy davlat – qonun ustuvorligi va inson huquqlarini kafolatlaydigan siyosiy tuzum bo‘lsa, fuqarolik jamiyati – davlatdan mustaqil ravishda faoliyat yurituvchi jamoat institutlari majmuasidir [1, s.1; 4, s.399].

Huquqiy davlat konsepsiyasi qadimiy falsafiy ildizlarga ega bo‘lib, Aristotel, Monteske va Kant asarlarida shakllangan. Monteske hokimiyatlar bo‘linishi tamoyilini ilgari surib, sud hokimiyati mustaqilligini erkinlikning kafolati deb hisoblagan [2, s.115–116]. BMT va UNDP huquqiy davlatni barcha shaxslar va institutlarning qonun oldida tengligi sifatida ta’riflaydi [1, s.1].

Fuqarolik jamiyati – davlatdan mustaqil, ammo ijtimoiy hayotga ta’sir ko‘rsatadigan nodavlat tashkilotlar, kasaba uyushmalari, OAV va boshqa jamoat institutlari majmuasi. Tocqueville demokratik jamiyatlarda assotsiatsiyalarning hokimiyatni nazorat qilishdagi ahamiyatini alohida ta’kidlagan [3, Vol.I, Ch.XII]. Habermas esa fuqarolik jamiyatini ommaviy maydon sifatida talqin qilib, demokratik qarorlar legitimligini ta’minlovchi omil sifatida ko‘rsatadi [4, s.399–415]. Huquqiy davlat fuqarolik jamiyati faoliyatini huquqiy asoslar bilan kafolatlaydi. Fuqarolik jamiyati esa davlatni ijtimoiy nazorat ostida ushlab turadi va qonunlarning legitimligini mustahkamlaydi [4, s.435]. Bunday o‘zaro uyg‘unlik barqaror taraqqiyotning kafolatidir.

O‘zbekiston mustaqillikka erishgach, huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini barpo etish milliy taraqqiyotning ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida belgilandi. 1992-yilda qabul qilingan Konstitutsiya huquqiy davlat qurilishi uchun asos bo‘ldi. Unda hokimiyatlar bo‘linishi prinsipi, inson huquq va erkinliklari, shaxsning daxlsizligi, fuqarolarning tengligi kabi tamoyillar mustahkamlandi. 1990-yillarda nodavlat notijorat tashkilotlar, ommaviy axborot vositalari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari shakllana boshladi. 1999-yillarda fuqarolik jamiyatini rivojlantirish bo‘yicha qator davlat dasturlari ishlab chiqildi, jumladan: “Nodavlat notijorat tashkilotlari to‘g‘risida”gi qonun, “Ommaviy axborot vositalari to‘g‘risida”gi qonun kabi normativ hujjatlar qabul qilindi.

2017-yildan keyin esa fuqarolik jamiyatini rivojlantirish yangi bosqichga ko‘tarildi. Prezident Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan “Inson qadri uchun” g‘oyasi davlat siyosatining asosiy mezoniga aylandi. Bu jarayonda inson huquqlari himoyasini kuchaytirish, fuqarolik

jamiyati institutlarini qo‘llab-quvvatlash, jamoatchilik nazoratini kuchaytirish bo‘yicha muhim qadamlar tashlandi.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida hokimiyatlar bo‘linishi va inson huquqlari tamoyillari mustahkamlangan (Konstitutsiya, 11 modda) [5, s.3]. Shu bilan birga, xalqaro tashkilotlar kuzatuvlarida mustaqil fuqarolik jamiyati faoliyatini ro‘yxatga olish va erkin faoliyat yuritishdagi muammolar qayd etilgan [6, s.4; 7, s.38]. Bugungi kunda O‘zbekistonda fuqarolik jamiyati institutlari tobora kengayib, ular davlat organlari faoliyatining ochiqligi va samaradorligini ta’minlashda muhim rol o‘ynamoqda. Bu esa mamlakatda huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatining uyg‘un rivojlanishini ta’minlayapti.

Xulosa qiladigan bo‘lsak huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati konsepsiyalari bir-birini to‘ldiruvchi tizimlar bo‘lib, ularning uyg‘unligi demokratik jamiyat taraqqiyotining asosi hisoblanadi. Nazariy asoslar Monteske va Habermas asarlarida, amaliy asoslar esa O‘zbekiston tajribasi va xalqaro kuzatuv hisobotlarida o‘z ifodasini topgan. Huquqiy davlat konsepsiyasi inson huquqlarini kafolatlash, qonun ustuvorligini ta’minlash hamda davlat organlarining faoliyatini xalq manfaatlariga bo‘ysundirishni ko‘zda tutadi. Bu esa fuqarolik jamiyatining mustaqil institutlari uchun erkin faoliyat yuritish sharoitlarini yaratadi. Fuqarolik jamiyati esa o‘z navbatida davlat hokimiyatini demokratik nazorat ostida ushlab turadi, siyosiy jarayonlarning shaffofligi va hisobdorligini ta’minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. UNDP. Rule of Law Approach. United Nations Development Programme, 2012. – p.1.
2. Montesquieu, C.-L. The Spirit of the Laws. Book XI. – pp.115–116.
3. Tocqueville, A. Democracy in America. Vol.I, Ch.XII.
4. Habermas, J. Faktizität und Geltung. Suhrkamp, 1992. – pp.399–435.
5. Constitution of the Republic of Uzbekistan (2023). – p.3 (Article 11).
6. OSCE/ODIHR. Uzbekistan Constitutional Referendum 2023: Final Report. – p.4.
7. UNCAC Coalition. Civil Society Report on Implementation in Uzbekistan, 2021. – p.38.

AXLOQIY VA FALSAFIY QADRIYATLARNI RIVOJLANTIRISHDA IJTIMOIY PISIXALOGIYANING O’RNI

Raximova Dilbar Muxitdinovna
UMFT universiteti katta o‘qituvchisi
e-mail: raximova@umft.uz
Menziyoyeva Gulinur Olim qizi
UMFT universiteti 4-bosqich talabasi

Annotatsiya. Axloqiy qadriyatlar insonlarning ijtimoiy munosabatlari, o‘zaro hurmat va mehr-oqibat asosida shakllanadi. Falsafa esa insonlarning dunyoqarashi, tafakkuri va axloqiy tamoyillarini chuqurlashtiradi.

Kalit so‘zlar: Axloqiy qadriyatlar,falsafa, ma’naviyat, axloq, dunyoqarash, tafakkur adolat, erkinlik,tinchlik, ijtimoiy birdamlik, madaniy muloqot, shaxsiy rivojlanish.

Annotation. Moral values are formed on the basis of social relations of people, mutual respect and kindness. And philosophy deepens the worldview, thinking and moral principles of people.

Keywords: moral values,philosophy, spirituality, ethics, worldview, thinking justice, freedom,peace, social solidarity, cultural dialogue, personal development.

Аннотация. Моральные ценности формируются на основе социальных отношений людей, взаимного уважения и доброты. С другой стороны, философия углубляет мировоззрение, мышление и моральные принципы людей.

Ключевые слова: моральные ценности, философия, духовность, мораль, мировоззрение, мышление справедливость,свобода, МИР, Социальная сплоченность, культурный диалог, личностное развитие.

Axloqiy va falsafiy qadriyatlarni shakllantirish, rivojlantirish va mustahkamlash jarayonida ijtimoiy psixologiyaning o‘rni beqiyosdir. Bu sohada O‘zbekistonda faoliyat

yuritayotgan olimlar o‘z nazariy va amaliy izlanishlari orqali ijtimoiy muhitning shaxs ma’naviyatiga ta’sirini keng yoritib berishdi.

ijtimoiy psixologiya – bu insonlarning o‘zaro munosabatlari, guruhlarning ijtimoiy ta’siri hamda jamiyatdagi axloqiy qadriyatlarning shakllanish mexanizmlarini o‘rganadigan fan. Axloqiy qadriyatlarning shakllanishida asosiy omil — ijtimoiy muhitdir. Ijtimoiy muhitning ijobiy ta’siri shaxsning axloqiy me’yorlarga moslashuvi va shu bilan birga, jamiyatdagi tartib-intizomni ta’minlashga xizmat qiladi. Shuning uchun tarbiyaviy jarayonlarda ijtimoiy psixologik usullarni qo‘llash muhimdir.

Bugungi kunda yoshlar orasida yuzaga keladigan ma’naviy bo‘shliqlarni to‘ldirishda, ularni to‘g‘ri yo‘lga boshlashda ijtimoiy psixologiyaning o‘rganishlari va yondashuvlari juda samarali vosita bo‘lib xizmat qilmoqda. Ijtimoiy psixologiya nazariyalari yordamida shaxsni ijtimoiy muhitga moslashishga o‘rgatish, unga axloqiy qarorlar qabul qilishda yordam berish mumkin.[1]

Shaxs o‘zini atrofdagi guruhlar orqali anglaydi va shakllantiradi. Guruh bosimi va ijtimoiy me’yorlar shaxsning axloqiy qarorlari va qadriyatlarini shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi. Ijtimoiy guruhlarning faoliyati tarbiyaviy jarayonda yo‘naltiruvchi va ushlab turuvchi kuchdir. Shuning uchun yoshlarni tarbiyalashda guruh ichidagi ijtimoiy ta’sirlarni ijobiy yo‘nalishda boshqarish zarur.

Yoshlarning ijtimoiy faol bo‘lishi va jamiyatga moslashishi uchun ularga axloqiy tamoyillarni singdirish lozim. Bu tamoyillar ijtimoiy psixologiya orqali samarali tarzda shakllantiriladi. Shaxsning o‘zini jamiyatdagi o‘rni va vazifasini tushunishi, ijtimoiy mas’uliyatni anglashida ijtimoiy psixologiya yondashuvlari katta ahamiyatga ega. [2]

Axloqiy tarbiya jarayonida shaxsning ijtimoiy muhit bilan o‘zaro aloqasi, uning ichki psixologik holati va guruh ta’siri muhim omillar hisoblanadi. Ijtimoiy psixologiyaning nazariy metodlari bu jarayonni chuqurroq tushunishga imkon beradi. Masalan, guruh ichidagi ijtimoiy bosim shaxsni ma’lum bir axloqiy qadriyatlar yo‘lida harakat qilishga undashi mumkin

Tarbiya jarayonida ijtimoiy psixologik treninglar, guruh ishlari, rol o‘yinlari kabi usullarni qo‘llash shaxsning axloqiy qaror qabul qilish qobiliyatini oshiradi. Bu usullar yordamida yoshlarni axloqiy vaziyatlarda o‘zlarini qanday tutishni o‘rgatish mumkin [3]

Ключевые слова: подрастающее поколение, воспитание, игра, экология, природа, дети, личность, воспитание.

Tabiatni muhofaza qilish tabiat va uning boyliklaridan oqilona foydalanishga, tabiatni inson manfaatlarini ko‘zlab ongli ravishda o‘zgartirishga, tabiat boyliklari va umuman tabiatni, uning go‘zalligi, musaffoligini saqlab qolishga va yanada boyitishga qaratilgan barcha tadbirlar majmuasi.

Yosh avlodni har tomonlama kamol toptirishda bolalarni tabiat bilan tanishtirishning ahamiyati kattadir. Yoshlarga tarbiya berar ekanmiz, eng avvalo tarbiyaning shu kecha-kunduzdagi ahamiyatini, zarurligini, ham jamiyatimiz uchun, ham insonning shakllanishidagi rolini ilmiy asosda tushuntirib berish kerak. Yoshlarni tarbiyalashda, dastlab umumiy tarbiyaning o’z oldiga qo’ygan maqsad va vazifalarini bilib olish kerak.

Yosh avlodni har tomonlama tarbiyalash bolalar bog’chalarining va maktablarning oldida turgan eng muhim vazifadir. Bu g’oyani amalga oshirishda ularni tabiat bilan tanishtirish ham asosiy vositalardan biri hisoblanadi.

Boshlang'ich sinflarda samarali qo'llanilishi mumkin bo'lgan ekologik ta'limga ko'plab yondashuvlar mavjud. Ularning har biri bolalarda tabiat bilan barqaror muloqot qilish uchun zarur bo'lgan ko'nikma va ko'nikmalarni shakllantirishga qaratilgan.

Bolalar ekologik ongning asosiy tushunchalari bilan tanishishlari kerak. Ekotizim, biosfera nima ekanligini, tabiat qanday ishlashini, inson faoliyati atrof-muhitga qanday ta'sir qilishini tushuntirish muhimdir. Kitoblar, multimedia resurslari va interaktiv o'yinlarni o'z ichiga olgan o'quv materiallari o'rganishni yanada qiziqarli qilishga yordam beradi.

Ochiq havoda amaliy mashg'ulotlar, tabiat qo'riqxonalariga ekskursiyalar, hududlarni tozalash tadbirlarida qatnashish bolalarning tabiatning inson hayotidagi rolini chuqur anglashlariga yordam beradi. Masalan, parkga sayohatni tashkil qilish orqali siz nafaqat tabiatdan zavqlanishingiz, balki bolalarni turli xil o'simliklar va hayvonlar bilan tanishtirishingiz, ularni axlat yig'ishga o'rgatishingiz mumkin.

Ekologik ta'limni turli fanlarga birlashtirish mumkin: adabiyot darslarida ekologik muammolarni muhokama qilish, tabiat haqidagi she'rlar va ertaklarni o'rganish, rasm darslarida — tabiatni muhofaza qilishga bag'ishlangan loyihalarni yaratish. Bu o'rganishni yanada yaxlit qiladi va bolalarga turli xil bilim sohalari qanday bog'liqligini tushunishga imkon beradi.

*Rolli o'yinlar va ertaklar yosh o'quvchilarni ekologik t*arbiyalashning yana bir samarali usuli hisoblanadi. O'yin shakllari orqali bolalar tabiat bilan qanday munosabatda bo'lishni va uning qadr-qimmatini tushunishni o'rganadilar. Masalan darslar quyidagilarni o'z ichiga olishi mumkin:

1. Suv va uning ma'nosi haqida suhbatlar. Talabalar toza suvning hayot uchun ahamiyati haqida bilib olishadi va uni kundalik hayotda qanday saqlash kerakligini muhokama qilishadi.
2. Axlat va uni qayta ishlash bo'yicha darslar. Bunday mashg'ulotlar davomida bolalar chiqindilar turlarini o'rganadilar, ularni alohida yig'ish va qayta ishlash zarurligini muhokama qiladilar.
3. Hayvonlarni himoya qilish darslari. O'qituvchi yo'qolib ketish xavfi ostida turgan hayvonlar turlari haqida gapiradi, bolalar bilan biologik xilma-xillikni saqlashga qanday yordam berish mumkinligini muhokama qiladi.

Ushbu darslar bolalarda tabiiy resurslarga ongli munosabatni shakllantirishga yordam beradi va atrofdagi dunyo uchun mas'uliyat hissini tarbiyalaydi.

Xulosa qilib shuni ta'kidlash kerakki, boshlang'ich maktabda ekologik ta'lim bolalarda tabiatga hurmatni shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Loyiha faoliyati, ekskursiyalar, rolli o'yinlar va ijodiy topshiriqlar kabi turli xil usullardan foydalanish ota-ona jarayonini qiziqarli va samarali qilish imkonini beradi. O'qituvchilar bolalarning tabiatga bo'lgan qiziqishini doimiy ravishda saqlab turishlari, amalda har bir inson uni saqlashga qanday hissa qo'shishi mumkinligini ko'rsatishi muhimdir. Boshlang'ich maktabda singdirilgan ekologik xabardorlik bolalarning kelajakdagi mas'uliyatli xatti-harakatlari va ularning ekologik muammolarni hal qilishda faol ishtirok etishlari uchun asos bo'ladi.

Foydanilgan adabiyotlar

1. Siddikov Ilyosjon B., Maxamadaliev Lutfillo. Development of Ecological Culture in Students in the Process of Education of History of Uzbekistan. European Journal of Humanities and Educational Advancements, 2021.
2. Кузьмина, О. Н. Экскурсионные методы в экологическом воспитании детей. Казань: Таткнигоиздат, 2021.
3. Петрова, И. М. Методы и приёмы экологического воспитания в начальной школе. Екатеринбург: Уральский университет, 2018.
4. Соколова, А. П. Экологические игры и занятия для младших школьников. Москва: Академия, 2022.

ISLOM DUNYOSIDA FALSAFA FANINING RIVOJLANISHI

Azizova Mohira Anvarovna
Muhammad Al-Xorazmiy nomidagi
Toshkent axborot texnologiyalari universiteti katta o'qituvchisi
e-mail: azizovam71@gmail.com

Annotatsiya: Islom dunyosida falsafa fanining rivojlanishi Markaziy Osiyo olimlari va mutafakkirlarining ilmiy merosi katta ahamiyatga hisoblanadi. VIII–XII asrlar oralig'ida Muhammad Muso al-Xorazmiy, Ahmad al-Farg'oniy, Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali Ibn Sino kabi qomusiy olimlarning ilmiy merosi nafaqat Sharq, balki butun insoniyat taraqqiyotiga ulkan hissa qo'shganligi ushbu maqolada keltirib o'tilgan, bu olimlar o'zalrining bilim va tarjibalari oraqali Islom dunyosida falsafa fannida ham ajralmas bo'lagini kashf etishganini ko'rish mumkin.

Kalit so'zlar: falsafa, islom dini, Markaziy Osiyo, olim, asar, tasavvuf, ta'limot.

Abstract: The development of the science of philosophy in the Islamic world is of great importance the scientific heritage of scientists and thinkers of Central Asia. The scientific heritage of qomusian scholars such as Muhammad Musa al–Khwarazmiy, Ahmad al-Farghani, Abu Nasr Farabi, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali Ibn Sino between the 8th and 12th centuries has been cited in this article as a huge contribution to the development of not only the East, but all mankind, it can be seen that scientists have discovered an integral part of their knowledge and.

Keywords: philosophy, Islam, Central Asia, scholar, work, mysticism, doctrine.

Аннотация: Большое значение для развития философской науки в исламском мире имеет научное наследие ученых и мыслителей Центральной Азии. В этой статье цитируется, что научное наследие ученых–камуси, таких как Мухаммад Муса аль-Хорезми, Ахмад аль-Фергани, Абу Наср Фараби, Абу Райхан Беруни, Абу Али ибн Сина, между VIII и XII веками внесло огромный вклад в развитие не только Востока, но и всего человечества. можно увидеть, что они открыли неотъемлемый фрагмент.

Ключевые слова: философия, ислам, Центральная Азия, ученый, труд, мистика, учение.

VIII asrning boshlarida Markaziy Osiyo xalqlarini arablar bosib olib, ular o'zlari istilo qilgan bu xalqlarga yangi din-islom dinini zo'rlik bilan joriy qildilar. Bu davrlarda Markaziy Osiyo hududida Sug'd, Xorazm, Farg'ona, Ustrushana, Chag'aniyon o'lkalari Sharq bilan G'arbni Shimol bilan Janubni bog'lovchi Ipak Yo'lining markazlardan bo'lib ular ma'daniy jihatdan ancha rivojlangan bo'lishadi. Lekin arablar bu o'lkalarni bosib olgach, ularni arab xalifaligiga bo'y sindiradi bu hududlarda o'zlarining bosqinchilik siyosatini olib borib, mahaliy xalqlarning madaniyati, dinlari, yozuvlari, bilimdon kishilarini butunlay yo'o'tishga harakat qildilar.

Tasavvuf (so'fiylik yoki so'fizm) islom falsafasida diniy falsafiy yo'nalish sifatida VIII asrning o'rtalarida arab xalifaligi mamlakatlarida vujudga keldi. U asosan, shu mamlakatlarning ijtimoiy, iqtisodiy va ma'naviy taraqqiyotining xususiyatlari bilan taqozo qilingan bo'lsa ham, lekin undan neoplatonizm ta'limotining, iudaizm, xristianlik, zardushtiylik va ayniqsa buddizm diniy ta'limotlarining ta'sirini yaqqol ko'rish mumkin.

Tasavvuf islom ta'limoti olamidagi mazhablar, oqimlar silsilasi ichida o'zining demokratik qarashlariga izn bergani, inson qalbi va ruhiyatini nishonga olib, ahloqiy poklikni targ'ib qilishi

bilan, jaholat va xudbinlikka qarshi maydonga chiqqanligi jihatidan ilmi vahdat yoki ilmi tavhid nomini oladi.

Abu Rayxon Beruniy shunday sharh keltiradi: Yunoncha ”suf” so’zi bizcha hikmatdir. Shuning uchun faylasufga ”filosufa”, ya’ni ”hikmatni suyuvchi” deb ism berilgan. Musulmonlardan bir guruhi o’sha tushunchaga yaqin fikrga borgandan ular ham ”suffiya” deb ataldilar. Musulmonlarning ba’zilari ”suffiya” so’zining termin ekanini bilmasdan uni «sod» xarfi bilan yozib, uni suffa so’ziga nisbat berib: Suffa suhbatdoshlari - ashobi suffadan iborat kishilar, deydilar. Undan keyin bu so’zni Sufatuyus - ya’ni taka juni so’zidan qisqartirilgan deb tushunishdilar deydi.

Ozarbayjon olimi A.G.Aliev o’zining tasavvufga bag’ishlangan maqolasida Yaxyo Suxravardinning bu haqda: Qur’onda ”so’fi” so’zi yo’q va bu so’z turkiydir. Islom mamlakatlarining ikkala qismida ham bu so’zdan bexabar bo’lishgan, degan fikrlarni keltirib, u qadimiy turklarning dunyoqarashida suv kulti muhim o’rin tutganligini, suf so’zi ana shu suv so’zidan yaralgan degan fikrni ilgari suradi.

Tasavvuf ta’limotining ilk davrlarida maqomat va tariqat asoslarini ishlab chiqish, so’fiylik yo’riqlarini va vazifalarini belgilash, ilohiy haqiqatlarni xalq orasida yoyishda Zunnun Misriy (796-861), Boyazid Bistomiy (vafoti 875), Junayd Bag’dodiy (vafoti 910), Hakim at-Termiziy (vafoti IX asr oxiri) va Mansur Xalloj (858-922) larning xizmatlari katta bo’ladi. Keyinchalik Abusaid Abulxayr (967- 1049), Abdulloh Ansoriy (1006-1089), Axmad Yassaviy (vafoti 1166), Yax’yo Shaxobiddin Suxrovardiy (1155-1191), Ibn-al-Arabiy (1165-1240), Najmiddin Kubro (1145-1221), Bahovutdin Naqshband (1318-1389) va shular kabi shayx - ul - mashoyixlar tasavvuf ilmini o’zlarining yangi fikr va qarashlari bilan boyitadilar. Ular tasavvufda yangi oqimlar, yangi silsilalarni vujudga keltiradilar. Natijada, tasavvuf haqida ko’plab risolalar va kitoblar yozila boshlaydi. Tasavvuf ta’limoti bu davrlar shoirlari badiiy tafakkuriga ham ta’sir qilib, natijada, tasavvuf g’oyalarini qizg’in targ’ib etuvchi ulkan she’riyat ham vujudga keladi.

Naqshbandiy tariqati XIV asrda paydo bo’lgan bo’lsa ham, Afg’oniston, Hindiston, Indoneziya va boshqa Yaqin va O’rta Sharq xalqlari o’rtasida keng tarqalgan. Bu tasavvuf tariqati Sharq xalqlari ijtimoiy, siyosiy va ma’naviy-madaniy hayotida juda katta rol o’ynaydi. Bu ta’limotda o’z mehnati bilan kun ko’rish, yashash, adolat ulug’lanib, boshqalar mehnati bilan kun kechirish, tekinxo’rlik kishilarga qilinadigan ijtimoiy zulm, istibdod qat’iyan qoralandi.

IX-XII asrlarda insoniyat tsivilizatsiyasiga o’zlarning munosib hissalarini qo’shgan Markaziy Osiyolik buyuk mutafakkirlardan biri Muhammad Muso al- Xorazmiy (1783-850) dir. Xorazmiyning algebraga oid ”Al-kitob al-muxtasarfi hisob al-jabr va al- muqobala” risolasi uch qismdan iborat bo’lib, 1-qismning oxirida kichik bir bo’lim savdo muomalasiga oid masalalar; 2-qism-geometrik qism-algebraik usullar qo’llangan o’lchashlar haqida, nihoyat, 3-qism-vasiyatlar haqidagi qism. Bu qismni u ”Vasiyatlar kitobi” ham deb atagan, astronomiyaga oid ”Zij”dir bu asari 37 bob, 116 ta jadvaldan iborat.

IX-XII asrlarda yashab ijod etgan Markaziy Osiyo xalqlari va butun dunyo tabiiy-ilmiy fiqrlarning rivojlanishiga juda katta hissa qo’shgan buyuk mutafakkirlarning ikkinchisi Ahmad Ibn Muhammad al-Farg’oniy (798-865) dir. Ahmad Farg’oniy O’rta asrlarda yashagan Markaziy Osiyolik olimlar orasida buyuk astronom, matematik, geograf sifatida asosiy o’rinni egallaydi. Hozirgi kunda Ahmad al-Farg’oniyning 8 ta asari bizga ma’lum bo’lib, ularning hammasi astronomiyaga oiddir.

O’rta asrlar Markaziy Osiyo xalqlari falsafiy fikrining rivojlanishda, ayniqsa, Abu Nasr Ibn Muhammad al-Forobiy (870-950) faxrli o’rin tutadi. Al-Forobiy 160 dan ortiq asarlar yozgan bo’lib, bizga ularning bir qismigina etib kelgan. U yaratgan asarlarni ularning xarakteriga qarab ikki guruhga ajratish mumkin:

a) qadimgi yunon tabiatshunos olimlari va faylasuflari ilmiy merosini o’rganish, tarjima qilish va sharhlashga oid asarlar. Bulardan Aristotelning ”Kategoriyalar”, ”kkinchi analitika”, ”Topika”, ”Poetika”, ”Ritorika”, ”Sofistika” va shu kabi asarlariga yozilgan sharhlarni keltirish mumkin;

b) O’rta asr fanining tabiiy-ilmiy, ijtimoiy-siyosiy va falsafiy masalalariga oid risolalar.

O’rta asr Sharqining, xususan, Markaziy Osiyo ilk uyg’onish davrining qomusiy olimlaridan yana biri Abu Rayxon Muhammad Ibn Ahmad Beruniy (973- 1048) dir. Beruniy o’z davridagi deyarli hamma ilm sohalarini egallaydi va ularga oid o’zi ham ko’plab asarlar yozadi. Natijada, u o’zidan keyingi avlodlarga katta va boy ilmiy meros 160 dan ortiq asarlar, tarjimalar, yozishmalar qoldiradi. Uning bu asarlarining 45 dan ortig’i astronomiyaga, qolganlari tabiatshunoslik, tarixshunoslik, filologiya va falsafiy muammolarga bag’ishlangan bo’lib, ularning bir qismigina bizgacha etib kelgan.

IX-XII asrlar musulmon Sharqi, xususan Markaziy Osiyo xalqlari tabiiy-ilmiy va ijtimoiy-falsafiy fikrlarining rivojiga o’zining buyuk hissasini qo’shgan qomusiy olimlardan yana biri Abu Ali Husayn Ibn Abdulloh Ibn Sino (980- 1037) dir. Abu Ali Ibn Sino tibbiyot, falsafa, qator tabiiy-ilmiy fanlar, ijtimoiy-gumanitar bilimlar, sohalarida, falsafiy mazmundagi badiiy adabiyot sohalari bo’yicha ham ko’plab asarlar muallifi, mashhur qomusiy olim bo’lib etishadi. U bizga o’zidan 450 dan ortiq asarlar qoldiradi, shulardan 190 ga yaqini falsafa, mantiq psihologiya, ahloqshunoslik va boshqa ijtimoiy-siyosiy hamda ma’naviyat masalalariga bag’ishlangan.

Yuqorida ko’rib chiqqan O’rta asr arab falsafasi deyilganda, islom dinini qabul qilgan va o’z asarlarini arab tilida yozgan, arab xalifaligiga qarshi hududlarda yashovchi mutafakkirlari tomonidan ishlab chiqarilgan ”Qur’oni Karim” va ”Hadisi Sharif”ga asoslanuvchiga, falsafiy ta’minotlar majmuini tushunish mumkin. O’rta asr arab falsafasining paydo bo’lishi ”Qur’oni Karim” (”Kalom”)ning paydo bo’lishi bilan va keynchalik islom ilohiyayotida yuzaga kelgan ortodoksal kalomchilar-mutakallimchilar va ratsional ilohiyot namoyandalari mu’tazilliylar faoliyatlari bilan bog’liq holda yuz berdi deyish mumkin.

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, Islom dunyosida falsafa fanining rivojlanishi Markaziy Osiyo olimlari va mutafakkirlarining ilmiy merosi bilan chambarchas bog‘liqdir. VIII–XII asrlar oralig‘ida tasavvuf ta’limoti diniy-falsafiy oqim sifatida shakllanib, inson qalbi, ruhiy poklik va axloqiy mukammallikka intilish g‘oyalarini ilgari surdi. Shu bilan birga, Muhammad Muso al-Xorazmiy, Ahmad al-Farg‘oniy, Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali Ibn Sino kabi qomusiy olimlarning ilmiy merosi nafaqat Sharq, balki butun insoniyat taraqqiyotiga ulkan hissa qo‘shdi. Ularning matematik, astronomik, tibbiy va falsafiy izlanishlari Yevropa Uyg‘onish davri uchun ham asosiy manba bo‘lib xizmat qilgan. Shu tariqa, islom falsafasi va Markaziy Osiyo mutafakkirlari ilmiy merosi jahon falsafiy tafakkurining ajralmas qismi sifatida qadrlanadi.

Foydanilgan adabiyotlar

1. G’olibjon Saydullayev. Qadriyat falsafasi. – 2024.
2. Gulnoz Ruzmatova. Sharq va G‘arb mutafakkirlari inson ruhiy tabiati haqidagi qarashlarining qiyosiy tahlili. – 2024.
3. Nomozov A. Islomiy tadqiqotlarda o‘zbek-arab olimlarining hissasi // International Journal on Academic Research in Innovative Applied Education. – 2025. – №3.
4. Saipova M.K. Fazl ibn Ahmad asarlarida qalb va poklik tushunchalarining falsafiy-etik tahlili // Bulletin of Advanced International Humanities Studies. – 2025. – №2.

KONFUTSIY VA ARISTOTEL TA’LIMOTIDA INSON AXLOQI VA JAMIYATDAGI O‘RNI

Azizova Mohira Anvarovna
Muhammad Al-Xorazmiy nomidagi
Toshkent axborot texnologiyalari universiteti katta o’qituvchisi
e-mail: azizovam71@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada Konfutsiy, Aristotellarning ayrim tarbiya, oila, inson axloqlariga doir firklari kletirilgan bo’lib, bu fikrlar nafaqat yosh avlod, balki barcha uchun jamiyatni rivojlantirishda katta mohiyat kasb etadi.

Kalit so‘zlar: Konfutsiy, Aristotel, oila, jamiyat, tarbiya, davlat, inson axloqlari.

Abstract: In this article, Confucius, some of the Aristotelian factions of upbringing, family, human ethics are cut down, and these thoughts have a great essence in the development of society not only for the younger generation, but for all.

Keywords: Confucius, Aristotle, family, society, upbringing, state, human morality.

Аннотация: В этой статье изложены некоторые воззрения Конфуция, Аристотеля на воспитание, семью, человеческую мораль, которые имеют большое значение в развитии общества не только для молодого поколения, но и для всех.

Ключевые слова: Конфуций, Аристотель, семья, общество, воспитание, государство, нравы человека.

Konfutsiy axloq ta'limotida axloqning qo'llanishi. Konfutsiy ta'limotining markazida axloq dastlabki o'rinlarda turadi. Biz buni ko'plab g'oyalari orqali o'qishimiz mumkin. "O'zingga ravo ko'rmaganni o'zgaga ham ravo ko'rma". Bu shior Konfutsiy g'oyasining markazida turadi. "Yuqori axloqli inson aslo yolg'iz bo'lmas, uning albatta, o'z yaqinlari bo'lur". Bundan ko'rinadiki, axloqli inson faqat o'zini emas, yaqin insonlari bilan ham birga bo'lishi va har doim o'zgalarni ham o'ylaydigan yuksak fazilat egasidir. Biz axloqning inson tabiyatining eng kerakli jihat deb bilishimiz darkor. Uni har bir xatti-harakatimizda namoyon etishimiz kerak. Jamiyatdagi barcha insonlar ijtimoiy mavqeyi qanday bo'lishidan qat'i nazar axloq kategoriyalariga rioya qilsa, unga bo'lgan munosabat o'zgacha ko'rinishda bo'ladi. Konfutsiychilikning axloqiy ta'limoti shunchaki nazariy emas, balki jamiyat va davlatda o'z ekvivalentiga ega bo'lgan amaliy ta'limotdir. Konfutsiy o'zi erishmoqchi bo'lgan ideal jamiyat va davlat tuzilishiga faqat ideal va ezgu insonlar bilan erishish mumkin, deb hisoblaydi. Shu munosabat bilan u ijtimoiy tarqoqlik davrida odamlarni bir-biriga yaqin tutadigan, tartibsiz muhitni bartaraf etadigan shaxs fazilatli hukmdor bo'lishini ta'kidlaydi.

Aristotelning tarbiya nazariyasi zamirida axloqiy va ruhiy qarashlari yotadi: tarbiyadan maqsad ruhning oliy jihatlari bo'lmish aql-zakovat va irodani kamol toptirishdir. Tarbiyaning o'zaro chambarchas bog'liq uch jihati jismoniy, axloqiy va aqliy tarbiya ruhning uch turiga muvofiq keladi, ya'ni kamolatga erishishning harakatlantiruvchi kuchlari tabiiy qobiliyat, ko'nikma va aqlidrokdan iborat hamda tarbiya ishi ayni shu kuchlarga asoslanishi zarur. Aristotel o'z iqtisodiy ta'limotida qullik tabiiy bir hodisa va u doimo ishlab chiqarish negizi bo'lishi lozim, degan nuqtai nazarga suyanadi. Aristotel oilaviy va ijtimoiy tarbiyani davlat tuzumini mustahkamlash vositasi, deb biladi, binobarin maktab faqat davlatniki bo'lishi, unda barcha fuqarolar (qullardan tashqari) avvalo davlat tuzuk tartibotidan saboq beruvchi ilmlarni egallashi shart. Aristotel davlat masalasida har qanday arbob qulay siyosiy shart-sharoit vujudga kelishini kutib o'tirmay, mavjud imkoniyatdan kelib chiqib, yaxshi Konstitutsiya asosida kishilarni boshqara bilishi, birinchi galda yosh avlodning jismoniy va aqliy tarbiyasi haqida qayg'urishi lozim, deb hisoblaydi. Aristotel davlatni idora etishning uchta ma'qul va uchta noma'qul shakli mavjud, degan g'oyani olg'a suradi.

Aristotel va Konfutsiy juda aniq va ajralib turadigan faylasuflar bo'lgan. Konfutsiy g'oyalari va ta'limotlari uning mavjudligi va Xitoy madaniyatiga sho'ng'ishidan kelib chiqqan. Boshqa tomondan, Aristotelning g'oyalari va ta'limotlari uning mavjudligi va yunon madaniyatiga singib ketishidan hosil bo'lgan. Ikkala faylasuf ham o'xshash va o'xshash bo'lmagan mavzularga, ular orasida fazilat tushunchasiga to'xtaldi. Ushbu shaxslarning fazilat tushunchasi bo'yicha ta'limotini taqqoslash orqali ba'zi o'xshashliklar va farqlar tushuniladi. Ushbu ma'lumot yunon va Xitoy madaniyati o'rtasidagi tafovutlarni aniqlashda muhim ahamiyatga ega bo'ladi. Axborot, shuningdek, zamonaviy sharoitlarda axloq qoidalariga tatbiq etilishi mumkin bo'lgan g'oyalarni taklif qilishda juda muhimdir.

Fazilat yoki yaxshi axloqiy xulq-atvor va xarakterni o'rganish Aristotel va Konfutsiyning axloqiy asarlarini muhim paradigmalar sifatida qabul qiladi. Aristotel fazilatlar va axloq haqida o'ylash zamonaviy G'arbning axloqiy falsafasiga ziddir.

Konfutsiy va Aristotelning fazilat va axloq haqidagi ta'limotlari o'rtasida o'xshashliklarni tushunish mumkin, chunki ular ikkalasi ham shaxslarning axloqiy xarakteri va siyosiy hayotda axloqiy etikani qo'llash bilan bog'liq edi. Biroq, Konfutsiyning tafakkur haqidagi g'oyalari Aristotelga qaraganda hozirgi psixologik g'oyalarga yaqinroq. Shuning uchun Konfutsiy g'oyalari yanada qulayroq, chunki uning tafakkur ko'rinishi chuqur ichki o'zlikka qarashga intiladi.

Konfutsiy, shuningdek, axloqning to'g'riligiga yo'l sifatida o'zini tekshirish va o'zini bilishga qat'iy ishongan.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, Ikkita tafakkur egalarining bilim va tajribalari, bergan goyalari hozirda ham inson axloqi va jamiyatga katta ahmiyatga hisoblanib, mukammal jamiyat qurish poydevori deyisa ham xato bo'lmaydi.

Foydanilgan adabiyotlar

1. Aristoteles, & Ross, W. D. (2020). The Nicomachean ethics of Aristotle. London: Oxford Univ. Press.
2. Chang, L. (2021). Aristotle on happiness: A comparison with Confucius. Saarbrücken: VDM Verlag Dr. Muller.
3. Norden, B. V. (2020). Confucius and the Analects: New Essays. New York: Oxford University Press.
4. "Confucius, Cyberpunk and Mr. Science: Comparing AI ethics between China and the EU" (2021) – Pascale Fung, Hubert Etienne.
5. "Ethics Lessons In The History Of The Ancient World (Comparative Analysis)", Journal of Pedagogical Inventions and Practices, 2024.

KONSEPTOLOGIYA FANINING TRANSFORMATSIYA JARAYONLARI VA UNING ISTIQBOLLARI

Mirzayeva Nargizoy Sanjarovna,
Andijon davlat texnika instituti katta o'qituvchisi
mirzayevaandmi@gmail.com

Annotatsiya: Maqola kelajakdagi tadqiqotlar yo'nalishlari va sun'iy intellekt sohasida konseptual tizimlarni rivojlantirish istiqbollarini ahamiyatini o'rganishi, sun'iy intellekt tizimlari insoniy tushunchaga yaqinroq ma'nolarni tahlil qilish uchun konsepsiyalarni aniqlashtirish va tartibga solish zarurligi, konsepsiyalarni takomillashtirish metodlari, xususan, ontologiyalar, kognitiv strukturalar va insonga markazlashgan sun'iy intellekt yondashuvlarini muhokama qiladi.

Kalit so'zlar: konseptologiya, sun'iy intellekt, kognitiv fanlar, ontologiyalar, semantik veb, kognitiv struktura.

Abstract: The article discusses the importance of future research directions and prospects for the development of conceptual systems in the field of artificial intelligence, the need to clarify and organize concepts to analyze meanings closer to the human understanding of artificial intelligence systems, methods for improving concepts, in particular, ontologies, cognitive structures, and approaches to human-centered artificial intelligence.

Keywords: conceptology, artificial intelligence, cognitive sciences, ontologies, semantic web, cognitive structure.

Аннотация: В статье рассматриваются будущие исследовательские направления и важность перспектив развития концептуальных систем в области искусственного интеллекта, необходимость уточнения и систематизации концепций для анализа значений, более близких к человеческому пониманию, систем искусственного интеллекта, методы совершенствования концепций, в частности, онтологии, когнитивные структуры и подходы к искусственному интеллекту, ориентированные на человека.

Ключевые слова: концептология, искусственный интеллект, когнитивные науки, онтологии, семантическая сеть, когнитивная структура.

Zamonaviy texnologik taraqqiyotning lokomotivi bo'lmish sun'iy intellekt tizimlarining jadal rivojlanishi, ushbu sohada konseptual asoslarning takomillashtirilishiga bo'lgan ehtiyojni yanada kuchaytirmoqda. [1] Ayniqsa, katta til modellari kabi murakkab algoritmlarning paydo bo'lishi, sun'iy intellektning oddiy ma'lumotlarni qayta ishlashdan ko'ra, insoniy tushuncha darajasiga yaqinroq ma'nolarni anglash zaruratini keltirib chiqarmoqda. Ushbu kontekstda, konseptologiya fanining vazifasi – nafaqat mavjud tushunchalarni aniqlashtirish va tartibga solish, balki ularni SI tizimlarining talablariga moslashtirish, shu orqali mashinalarning atrof-muhitni adekvat idrok etishi va murakkab vaziyatlarda adolatli qarorlar qabul qilishini ta'minlashdan

iborat. [4] “Konseptologiya - tushunchalar va ularning o‘zaro aloqalarini o‘rganuvchi fan” hisoblanadi. [3]

Konseptologiyaning ildizlari falsafa tarixiga chuqur kirib borgan. Platon ideal shakllar haqidagi ta’limoti bilan har bir obyekt va g‘oyaning mukammal, o‘zgarmas arxetiplari mavjudligini ilgari surgan. Aristotel esa tabiat olamining murakkabliklarini tartibga solishga intilib, mavjudotlarni tizimli ravishda tasniflagan. Ushbu ikki buyuk mutafakkirning g‘oyalari nafaqat faylasuflarning abstrakt konsepsiyalarni idrok etish uslubiga ta’sir ko‘rsatdi, balki zamonaviy nazariy tuzilmalarda saqlanib qolgan tahliliy yondashuvlar uchun asos yaratdi. **Masalan, Aristotelning “sifat” (quality) va “miqdor” (quantity) bo‘yicha klassifikatsiyalari bugungi kundagi ma’lumotlar bazalarini tuzishda kategoriyalash tamoyiliga bevosita asos bo‘lib xizmat qiladi.** Shuningdek, ularning merosi metafizik taxminlar va epistemologik izlanishlar o‘rtasidagi uzluksiz dialogni shakllantirib, bugungi kunda ham konseptologiyani boyitishda davom etmoqda.

Kognitiv fanlar inson miyasida konsepsiyalar qanday shakllanishini modellashtirishga urinadi. “Konsepsiya - muayyan narsa, hodisa haqidagi tushuncha, fikr”. [2] Neyrologiya, psixologiya va kompyuter fanlarining integratsiyalashuvi natijasida, sun’iy intellekt tizimlari uchun bevosita foyda keltiradigan yangi modellash yondashuvlari paydo bo‘lmoqda. [5] Kognitiv strukturalar, semantik tarmoqlar va bilimlarni ifodalashning boshqa usullari orqali inson tushunchasining asosiy elementlari sun’iy intellekt tizimlariga kiritiladi. Ushbu yondashuv sun’iy intellekt tizimlariga nafaqat ma’lumotlarni qayta ishlash, balki ularni tushunish va ma’noli xulosalar chiqarish imkoniyatini beradi. **Misol uchun, kognitiv fanlar asosida yaratilgan “framing” nazariyasi, sun’iy intellektga bir xil ma’lumotni turli kontekstlarda qanday qilib turli xil ma’noda talqin qilish kerakligini o‘rgatadi, bu esa LLMlarda “bias” (mayillik) muammosini hal qilishda muhimdir.**

Konsepsiyalar ikki asosiy turga bo‘linadi: tabiiy (insoniy) va sun’iy (hisoblash). Tabiiy konsepsiyalar ko‘pincha noaniq, intuitiv va kontekstga bog‘liqdir. Ular insonning tajribasi, his-tuyg‘ulari va madaniy omillari bilan shakllanadi. Sun’iy konsepsiyalar esa formal, mantiqiy tizimda aniq ifodalanadi. Masalan, ontologiyalar va semantik tarmoqlar konsepsiyalarni aniq belgilangan munosabatlar va atributlar orqali tavsiflaydi. **Masalan, inson “mehribonlik” (kindness) konsepsiyasini biror kishining fe’l-atvoriga qarab intuitiv anglaydi va u tabiiy konsepsiya. Biroq, sun’iy intellekt uchun bu tushuncha “agar A shaxs B shaxsga yordam bersa, harakat = +1 ball, agar xafa qilsa = -1 ball” kabi aniq mantiqiy qoidalar, ya’ni ontologiya bilan formalizatsiya qilinadi.** Ushbu aniqlik sun’iy intellekt tizimlariga ma’lumotlarni qayta ishlash, xulosalar chiqarish va qaror qabul qilish imkoniyatini beradi. Biroq, tabiiy konsepsiyalarning noaniqligi va moslashuvchanligi sun’iy intellekt tizimlarida takrorlanishi qiyin bo‘lgan insonning ijodiy va intuitiv fikrlash qobiliyatini ta’minlaydi.

Sun’iy intellekt tizimlarining samarali ishlashi uchun konsepsiyalarni takomillashtirishga qator talablar qo’yiladi. Birinchidan, aniqlik muhim ahamiyatga ega. Sun’iy intellekt tizimlari, xususan, avtonom transport vositalari va tibbiy diagnostika kabi sohalarda, kontekstdan qat’i nazar, bir xil tushunchalarni bir xil talqin qilishi shart. Misol uchun, avtomobillar uchun “to‘xtash” belgisini har qanday ob-havo sharoitida va istalgan vaqtda bir xil aniqlik bilan tushunishi kerak. Ikkinchidan, integratsiya va qayta ishlash talabi turli xil ma’lumotlar bazalari va dasturlar o‘rtasida umumiy lug‘at zarurligini anglatadi. Bu turli tizimlarning bir-biri bilan samarali muloqot qilishini va ma’lumotlarni qayta ishlatish imkoniyatini oshiradi. Masalan, sog‘liqni saqlash sohasida turli xil shifoxonalarning ma’lumotlar bazalari bir xil tibbiy terminologiyadan foydalanishi kerak, shunda ma’lumotlar almashinuvi oson va xatosiz bo‘ladi.

Bundan tashqari, sun’iy intellekt tizimlari noodatiy vaziyatlarni boshqarish qobiliyatiga ega bo’lishi kerak. Sun’iy intellekt o‘rganilmagan vaziyatlarga duch kelganda, mavjud konsepsiyalarni qanday kengaytira olishi muhim ahamiyatga ega. Bu yerda inson kognitiv moslashuvchanligini sun’iy intellektga o‘rgatish masalasi ko‘tariladi. Misol uchun, agar avtomobil yo‘lda ilgari ko‘rmagan to‘siqqa duch kelsa, u o‘zining mavjud bilimlari asosida yangi vaziyatga moslashishi va to‘g‘ri qaror qabul qilishi kerak. Bu esa sun’iy intellekt tizimlarida adaptivlik va o‘z-o‘zini

o‘rganish mexanizmlarini joriy etishni talab qiladi. Shuningdek, sun’iy intellekt tizimlari noaniqlik va ziddiyatli ma’lumotlarni qayta ishlash qobiliyatiga ega bo‘lishi kerak, bu ularning real dunyo sharoitlarida samarali ishlashini ta’minlaydi.

Konsepsiyalarni takomillashtirishning muhim metodlaridan biri ontologiyalar va semantik veb texnologiyalaridan foydalanishdir. Ontologiyalar konsepsiyalarni rasmiy, mantiqiy tizimlar orqali ifodalash imkoniyatini beradi. Bu konsepsiyalar o‘rtasidagi munosabatlarni aniq belgilash va ularni qayta ishlatish imkoniyatini yaratadi. Semantik veb esa ontologiyalarga asoslangan ma’lumotlarni vebda nashr etish va almashish uchun standartlar to‘plamidir. OWL (Web Ontology Language) va RDF (Resource Description Framework) kabi texnologiyalar konsepsiyalarni ifodalash va ular bilan bog‘liq ma’lumotlarni tuzish uchun keng qo‘llaniladi. Misol uchun, tibbiyot sohasida kasalliklar, simptomlar va davolash usullarini ifodalash uchun ontologiyalardan foydalanish tibbiy ma’lumotlarni avtomatik ravishda qayta ishlash va xulosalar chiqarish imkoniyatini beradi.

Kognitiv struktura inson kognitiv jarayonlarini modellashtirish orqali sun’iy intellektning tushunishini boyitishga qaratilgan yana bir samarali metoddir. Kognitiv strukturalar inson miyasining asosiy funktsiyalarini, xususan, xotira, diqqat va qaror qabul qilish jarayonlarini modellashtiradi. Ushbu modellar SI tizimlariga inson kabi fikrlash va xulosalar chiqarish imkoniyatini beradi. Misol uchun, Adaptive Control of Thought-Rational kognitiv strukturasi insonning bilish qobiliyatlarini modellashtirish uchun keng qo ‘llaniladi va sun’iy intellekt tizimlariga o’rganish, rejalashtirish va muammolarni hal qilish kabi vazifalarni bajarishga yordam beradi. Kognitiv strukturalar sun’iy intellekt tizimlariga insonning intuitiv fikrlash qobiliyatini o‘rgatish va ularning qaror qabul qilish sifatini oshirish imkoniyatini beradi.

Insonga markazlashgan sun’iy intellekt yondashuvi sun’iy intellekt tizimlarini yaratishda insonning ishtirokini ta’minlashga qaratilgan. Bu yondashuvda inson o’qituvchi va fikr yurituvchi sifatida ishtirok etadi, sun’iy intellekt tizimi esa insonning qayta aloqasidan o‘rganadi. Insonga markazlashgan sun’iy intellekt tizimlari insonning bilimi va tajribasidan foydalanib, o‘zining ishlashini yaxshilaydi va xatolarni tuzatadi. Misol uchun, tibbiy diagnostika tizimlarida shifokorlar sun’iy intellekt tizimining xulosalarini tekshirib, unga qayta aloqa beradi. Bu esa sun’iy intellekt tizimiga tibbiy bilimlarni o‘rganish va diagnostika aniqligini oshirish imkoniyatini beradi. Insonga markazlashgan sun’iy intellekt tizimlariga insonning axloqiy qadriyatlarini va ehtiyojlarini hisobga olishga yordam beradi, bu ularning jamiyatda qabul qilinishini va ishonchliligini oshiradi. [7]

Konseptologiya o‘zining falsafiy ildizlaridan tortib to kognitiv fanlar va sun’iy intellektdagi zamonaviy qo‘llanilishigacha, nazariy va amaliy sohalarni birlashtiruvchi muhim fanlararo soha sifatida namoyon bo‘ladi. Turli fanlardan olingan bilimlarni birlashtirish qobiliyati bilan konseptologiya inson bilimi, fikrlash jarayonlari va texnologik innovatsiyalar haqida qimmatli nuqtai nazarlarni taqdim etadi.

Konseptologiya doirasini aniqlash va murakkab real hayot masalalariga amaliy ahamiyatini oshirishda qiyinchiliklar saqlanib qolsa ham, intellektual taraqqiyot va muammolarni hal qilish qobiliyatlarini rivojlantirishda uning ahamiyati beqiyosdir. [6] Kelajakdagi tadqiqotlar yaxlit va integratsiyalashgan tizimlarni ishlab chiqishga, turli akademik va amaliy sohalardan olingan mustahkam metodologiyalarni birlashtirishga ustuvor ahamiyat berishi mumkin. Bundan tashqari, ko‘p tarmoqli yondashuvlardan foydalanish uning foydaliligini oshirishga va ta’limdan tortib texnologiyagacha bo‘lgan sohalarda yaxshilangan, ta’sirli va samarali real dunyo qo‘llanilishini amalga oshirish imkonini beradi. Sun’iy intellektning jadal rivojlanishi sharoitida konseptual tizimlarni takomillashtirish inson va mashina o‘rtasidagi hamkorlikni rivojlantirish, innovatsiyalarni tezlashtirish va kelajak avlodlar uchun barqaror jamiyat qurishda muhim rol o‘ynaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mirzayeva, N. S. Konsepsiyaning takomillashuvi: zamonaviy sun’iy intellekt istiqbollari. Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar, 2023. - *11*(4), 12-23.

2. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. Toshkent: O’zbekiston milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti. - 2006
3. To‘xliev, N.. Konseptologiya asoslari. Toshkent: - Tafakkur nashriyoti. 2022.
4. Russell, S., & Norvig, P. Artificial Intelligence: A Modern Approach (4th ed.). Pearson. – 2021., p.21.
5. Lake, B. M., Ullman, T. D., Tenenbaum, J. B., & Gershman, S. J. Building machines that learn and think like people. Behavioral and Brain Sciences, 40, e253. 2017, p. 1.
6. Hofstadter, D. R. Gödel, Escher, Bach: An Eternal Golden Braid. Basic Books. 1979, p. 27.
7. Pearl, J. Theoretical impediments to machine learning with seven sparks from the causal revolution. *arXiv preprint arXiv:1801.04056*. 2018, p. 1.

O‘ZBEKISTON VA GERMANIYA O‘RTASIDAGI MADANIY FARQLAR

Shamsiddinova Sevara Ilhom qizi
Chirchiq davlat pedagogika universiteti talabasi
sevarashamsiddinova77@gmail.com
Ilmiy rahbar: **Turonboyeva Xilola Erkiyor qizi**
hilolaerkiyorovna@gmail.com

Annotatsiya *(o'zbek)*Mazkur maqolada O‘zbekiston va Germaniya madaniyatlarini qiyoslash orqali turli jamiyatlarning hayot tarzi, qadriyatlari va urf-odatlarini chuqurroq tushunishga urinish qilingan. Maqola ikki xalq madaniy merosi o‘rtasidagi farqlarni ko‘rsatish bilan birga, ularning umumiy jihatlari ham yoritilgan. Ushbu izlanishning asosiy maqsadi – madaniyatlararo tafakkurni rivojlantirish va yoshlarni turli xalqlarning qadriyatlariga hurmat ruhida tarbiyalashdir. O‘zbekiston va Germaniya misolida olib borilgan tahlil shuni ko‘rsatadiki, turli madaniyatlarni solishtirish insonning dunyoqarashini kengaytiradi hamda xalqlar o‘rtasida do‘stona munosabatlarni mustahkamlaydi.

Kalit so‘zlar *(o‘zbek)*: O‘zbekiston, Germaniya, madaniyat, urf-odatlar, milliy taomlar, kundalik hayot, oilaviy qadriyatlar, ta’lim tizimi, madaniyatlararo muloqot, farqlar va o‘xshashliklar.

Annotation *(ingliz)*This article attempts to gain a deeper understanding of the lifestyles, values, and traditions of different societies by comparing the cultures of Uzbekistan and Germany. The article highlights not only the differences between the cultural heritage of the two nations but also their common features. The main goal of this research is to foster intercultural thinking and to educate young people in the spirit of respect for the values of different nations. The analysis conducted on the example of Uzbekistan and Germany shows that comparing various cultures broadens human outlook and strengthens friendly relations among peoples.

Keywords (ingliz): Uzbekistan, Germany, culture, traditions, national dishes, daily life, family values, education system, intercultural communication, differences and similarities.

Аннотация *(rus)* В данной статье предпринята попытка более глубоко понять образ жизни, ценности и традиции различных обществ через сравнение культур Узбекистана и Германии. В статье показаны не только различия в культурном наследии двух народов, но и их общие черты. Основная цель данного исследования – развитие межкультурного мышления и воспитание молодежи в духе уважения к ценностям разных народов. Анализ, проведенный на примере Узбекистана и Германии, показывает, что сравнение различных культур расширяет мировоззрение человека и укрепляет дружественные отношения между народами.

Ключевые слова (rus): Узбекистан, Германия, культура, традиции, национальные блюда, повседневная жизнь, семейные ценности, система образования, межкультурное общение, различия и сходства.

MUHOKAMA VA NATIJALAR. Dunyo mamlakatlari madaniyati xilma-xil va rang-barangdir. Har bir xalq o‘zining tarixi, urf-odati, qadriyatlari hamda yashash tarzi bilan boshqalardan ajralib turadi. O‘zbekiston va Germaniya ham o‘ziga xos madaniy meros va turmush tarzi bilan mashhur bo‘lib, ularni solishtirish orqali ko‘plab qiziqarli farqlarni ko‘rish mumkin.

Birinchidan, urf-odatlar va an’analar haqida to‘xtaladigan bo‘lsak, o‘zbek xalqi qadimdan mehmondo‘stligi bilan tanilgan. Har bir uyga kelgan mehmon albatta dasturxonga chorlanadi va unga eng yaxshi taomlar tortiladi. Bayramlar, ayniqsa Navro‘z va mustaqillik bayrami, katta tantana bilan nishonlanadi. To‘ylar esa yuzlab odamlarni to‘plab, milliy raqslar, kuy-qo‘shiqlar bilan bezatiladi. Germaniyada esa bayramlar ko‘proq diniy va tarixiy mazmunga ega: Rojdestvo (Weihnachten) va Oktyabr bayrami (Oktoberfest) mashxurdir. Germaniya to‘ylari ko‘proq oilaviy doirada, yaqin qarindoshlar ishtirokida o‘tadi.

Ikkinchidan, milliy taomlar madaniyatida ham katta farqlar mavjud. O‘zbekistonning palovi, somsa, manti, lag‘mon kabi taomlari dunyoga mashhur bo‘lib, mehmonlarni doim hayratda qoldiradi. O‘zbek dasturxoni kenglik, bag‘rikenglik va mehrni ifodalaydi. Germaniya oshxonasi esa kolbasalar (Bratwurst), turli xil non mahsulotlari (Brezel) va pishloqlar bilan mashhur. Nemis taomlari soddaligi va amaliyoti bilan ajralib turadi, biroq ular ham milliy madaniyatning muhim qismidir.

Uchinchidan, kundalik hayot va qadriyatlarda sezilarli farqlar mavjud. O‘zbekistonda oila qadriyatlari juda muhim o‘rin tutadi. Ko‘pincha bir necha avlod birga yashaydi, qarindosh-urug‘chilik rishtalari mustahkam bo‘ladi. Germaniyada esa yoshlar 18 yoshdan keyin mustaqil yashashni afzal ko‘rishadi. O‘zbekistonda vaqt tushunchasi ko‘proq insoniy munosabatlarga bog‘liq bo‘lsa, nemislar vaqtni juda qadrlashadi va aniq rejalarga amal qiladilar. Shu sababli, nemis jamiyati intizom va tartib bilan mashhur.

To‘rtinchidan, ta’lim va til ham madaniyatning muhim qismlaridan biridir. O‘zbekistonda ta’lim jarayonida ko‘pincha jamoaviylik va hamkorlikka urg‘u beriladi. Nemis ta’lim tizimi esa mustaqil fikrlash va erkin izlanishga asoslanadi. Shuningdek, tillarda ham farq bor: o‘zbek tili turkiy tillar oilasiga mansub bo‘lsa, nemis tili roman-german tillar guruhiga kiradi. Har ikkisi o‘zining boy lug‘atiga va murakkab grammatik tizimiga ega.

XULOSA. Xulosa qilib aytganda, O‘zbekiston va Germaniya madaniyatlari turli jihatlarda bir-biridan keskin farq qilsa-da, ikkalasi ham o‘ziga xos qadriyat va go‘zalliklarga ega. O‘zbekiston madaniyati mehmondo‘stlik, mehr va bag‘rikenglikni ifodalasa, Germaniya madaniyati intizom, tartib va an’analarni qadrlashni ko‘rsatadi. Ushbu farqlar xalqlarni bir-biridan uzoqlashtirmaydi, aksincha, ularni bir-biriga yaqinlashtiradi va o‘zaro hurmatni kuchaytiradi. Madaniy farqlarni bilish, o‘rganish va qadrlash har bir insonni yanada dunyoqarashi keng, ochiqko‘ngil va madaniyatli inson qilib tarbiyalaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Abdurahmonova, M. (2020). O‘zbek xalqining milliy urf-odatlari va qadriyatlari. Toshkent: O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi.
2. Becker, H. (2018). German Culture and Traditions. Berlin: Springer Verlag.
3. Karimov, A. (2019). Madaniyatlararo muloqot asoslari. Toshkent: Fan nashriyoti.
4. Müller, F. (2021). Life in Modern Germany: Society and Education. Munich: C.H. Beck.
5. UNESCO. (2022). Cultural Diversity and Intercultural Dialogue. Paris: UNESCO Publishing.

QADRIYATLARNING YOSHLAR HAYOTIDAGI AHAMIYATI

Yusupova Shoxida Abdiyevna
Jizzax politexnika instituti
“Sanoat texnologiyalari” fakulteti tyutori

Annotatsiya: Ushbu maqolada muallif tomonidan qadriyatlarning yoshlar hayotida tutgan o‘rni va ahamiyati chuqur ilmiy tahlil qilinadi. Maqolada yoshlarning qadriyatlarga bo‘lgan munosabati va ularning shaxsiy, ijtimoiy rivojlanishida qadriyatlarning tutgan o‘rni tadqiq etiladi. Jizzax politexnika institutining talabalariga o‘tkazilgan so‘rovnoma va adabiyotlar tahlili usullari orqali yoshlarning oilaviy, ijtimoiy va madaniy qadriyatlarni qanday qabul qilishi va ularni kundalik hayotida qo‘llash darajasi o‘rganildi. Tadqiqot natijalari yoshlar orasida qadriyatlarning muhimligi va ular orqali ijtimoiy barqarorlikni ta’minlash ehtiyoji mavjudligini ko‘rsatdi. Muallif

ishonadiki, ushbu maqola yoshlarni ma’naviy yetuklikka yo‘naltirishda qadriyatlarning ahamiyatini yuksaltirishda dasturulamal bo‘ladi.

Kalit so‘zlar: qadriyatlar, yoshlar, ijtimoiy rivojlanish, shaxsiy rivojlanish, ma’naviyat, ijtimoiy barqarorlik.

Аннотация: В данной статье автор проводит глубокий научный анализ роли и значения ценностей в жизни молодежи. Рассматривается отношение молодежи к ценностям и их роль в личностном и социальном развитии. На основе опроса студентов Джизакского политехнического института и анализа литературы изучается, каким образом молодежь воспринимает семейные, социальные и культурные ценности, а также степень их применения в повседневной жизни. Результаты исследования показали важность ценностей среди молодежи и необходимость обеспечения социальной стабильности через них. Автор убежден, что данная статья станет руководством в повышении значения ценностей для духовного воспитания молодежи.

Ключевые слова: ценности, молодежь, социальное развитие, личностное развитие, духовность, социальная стабильность.

Abstract: This article presents a thorough scientific analysis of the role and significance of values in the lives of young people. It explores youths’ attitudes towards values and the role of values in their personal and social development. Through a survey conducted among students of Jizzakh Polytechnic Institute and literature analysis, the study examines how young people perceive family, social, and cultural values and the extent to which they apply these values in their daily lives. The research findings highlight the importance of values among youth and the need to ensure social stability through them. The author believes that this article will serve as a guide in enhancing the significance of values in guiding youth toward spiritual maturity.

Keywords: values, youth, social development, personal development, spirituality, social stability.

Kirish: Qadriyatlar jamiyatning ma’naviy va axloqiy poydevorini tashkil etuvchi asosiy tushunchalardan biridir. Ular shaxslarning dunyoqarashi, xulq-atvori va ijtimoiy munosabatlarini boshqaradi. Ayniqsa, yoshlar hayotida qadriyatlarning tutgan o‘rni beqiyos hamda katta ahamiyatga ega desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Chunki ular kelajak avlod sifatida jamiyatni rivojlantirishda asosiy rol o‘ynaydi Isroillik mashxur psixolog (Shalom. H Schwartz, 2012) yilda. ‘Qadriyatlar nazariyasi” kitobini yozgan va minglab muhlislarinig olqishiga sazovvor bo‘lgan. Qadriyatlar modelini rivojlantirish va madaniyatlararo qadriyatlar tadqiqotini keng yoyish bo‘yicha o‘zining ilmiy tadqiqotlari bilan bizgacha psixologning teran fikrlari yetib kelgan. Yoshlarning ma’naviy tamoyillari va qadriyatlararo tizimi jamiyat barqarorligi hamda madaniy merosni saqlashda muhim omil hisoblanadi. Zamonaviy dunyoda globalizatsiya, texnologik taraqqiyot, madaniy almashinuv jarayonlari yoshlarning qadriyatlar tizimida o‘zgarishlarga sabab bo‘lmoqda Amerikalik psixolog (Jeffrey Jensen Arnett, 2014) yilda yoshlarning voyaga yetish jarayonida psixologik va ijtimoiy o‘zgarishlarni chuqur tahlil etgan. Bu esa yoshlarni millat ravnaqi qadriyatlar beshigini tebratishga sababchi bo‘lgan. Bu o‘zgarishlar yoshlar orasida qadriyatlarning zaiflashishi, ijtimoiy barqarorlikning kamayishi xavfini keltirib chiqarmaligi uchun sabab bo‘ladi. Shu bois, qadriyatlarning yoshlar hayotidagi ahamiyatini ilmiy asosda o‘rganish va ularni mustahkamlash yo‘llarini topish dolzarbdir[1].

Tadqiqot usullari: Ushbu tadqiqotda ikki asosiy metod qo‘llanildi: adabiyotlar tahlili va so‘rovnoma. Adabiyotlar tahlili orqali xalqaro va mahalliy ilmiy maqolalar, kitoblar, ilmiy konferensiya materiallari tadqiq qilindi. Bu orqali qadriyatlar va yoshlar mavzusidagi ilg‘or ilmiy qarashlar aniqlab olindi. Jizzax politexnika instituti “Sanoat texnologiyalari” fakultetining talabalari uchun so‘rovnoma usuli orqali 18-25 yoshdagi 120 nafar

yoshlar orasida qadriyatlarning shaxsiy va ijtimoiy hayotdagi o‘rni o‘rganildi. So‘rovnoma savollari oilaviy qadriyatlar, do‘stlik, halollik, mehnatsevarlik kabi qadriyatlarni qabul qilish va hayotga tatbiq etishga qaratildi. Shuningdek, yoshlarning qadriyatlarning ta’lim, ish faoliyati va jamiyatdagi roli haqidagi fikrlari o‘rganildi. Olingan natijalar statistik tahlil (foiz hisoblash, taqsimlash) orqali qayta ishlanib, maqola uchun asos yaratildi.

Natijalar: So‘rovnoma natijalari yoshlarning 85% qadriyatlarni hayotining muhim qismi deb bilishini ko‘rsatdi. Ulardan 10% oilaviy qadriyatlarni, xususan, hurmat, mehr-oqibat va mas’uliyatni eng ustuvor deb hisoblagan. 3% do‘stlik, halollik, adolat kabi ijtimoiy qadriyatlarni qadrlaydi. Shuningdek, 2% yoshlar qadriyatlarning ta’lim olish, kasbiy tanlov va ijtimoiy munosabatlarda hal qiluvchi rol o‘ynashini ta’kidlagan. Bu yoshlarning qadriyatlarni faqat nazariy tushunish emas, balki amalda qo‘llashini anglatadi[2].

Muhokama vaNatijalar: shuni ko‘rsatadiki, qadriyatlar yoshlarning shaxsiy va ijtimoiy rivojlanishida hal qiluvchi ahamiyatga ega. Psixologik tadqiqotlar shaxsning motivatsiyasi, qaror qabul qilish jarayonlari va ijtimoiy moslashuvida qadriyatlarning rolini tasdiqlaydi. Yoshlar qadriyatlarni o‘z hayotlariga tatbiq etganda, ular yanada ijtimoiy faollashadi va jamiyat uchun foydali fuqarolarga aylanadi. Biroq, globalizatsiya va texnologik taraqqiyot yoshlar orasida qadriyatlarning yo‘qolishi yoki buzilishi xavfini oshiradi. Ijtimoiy tarmoqlardagi salbiy ta’sirlar yoshlarning axloqiy me’yorlariga zarar yetkazishi mumkin. Shu sababdan, ta’lim tizimi va ijtimoiy muhit yoshlarni qadriyatlarni mustahkamlashga yo‘naltirishi kerak. Yoshlar orasida qadriyatlarni saqlash va rivojlantirish uchun oilaviy tarbiya, maktab ta’limi, oliy ta’lim tizimida o‘tkazilayotgan madaniy-ma’rifiy tadbirlar muhim omil hisoblanadi[3].

Xulosa: Qadriyatlar yoshlarning shaxsiy va ijtimoiy hayotida asosiy rol o‘ynaydi. Ular shaxsning axloqiy qarorlarini shakllantiradi, ijtimoiy barqarorlikni ta’minlaydi hamda yoshlarni ma’naviy yetuk fuqarolarga aylantiradi. Zamonaviy dunyo sharoitida qadriyatlarni mustahkamlash va yoshlarni ijtimoiy-ma’naviy rivojlantirishga qaratilgan chora-tadbirlarni kuchaytirish zarur. Jamiyat va ta’lim muassasalari yoshlarni qadriyatlar asosida tarbiyalashga alohida e’tibor qaratishi lozim, chunki kelajak avlodning ijtimoiy barqarorligi shular orqali kafolatlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1-Arnett, J. J. (2014). Emerging Adulthood: The Winding Road from the Late Teens Through the Twenties. Oxford University Press.

2-Hitlin, S., & Piliavin, J. A. (2004). Values: Reviving a dormant concept. Annual Review of Sociology, 30, 359-393.

3-Rokeach, M. (1973). The Nature of Human Values. Free Press.

LINGVOMADANIYATSHUNOSLIKDA OLAMNING LISONIY MANZARASI TALQINI

Mamadjanova Maftuna Uktamovna
Doctor of Philosophy in Philological Sciences (PhD),
Senior teacher of Applied English department
Fergana State university
maftuna.mamadjanova85@mail.ru

Annotatsiya: Mazkur maqolada lingvomadaniyatshunoslikning markaziy tushunchalaridan biri bo‘lgan olamning lisoniy manzarasi nazariy jihatdan yoritiladi. Olamning lisoniy manzarasi til va madaniyatning o‘zaro aloqasi natijasida shakllanadigan, milliy tafakkur va qadriyatlarni ifoda etuvchi konseptual hodisa sifatida talqin etiladi. Tadqiqot davomida lisoniy manzaraning shakllanish omillari, xalqning milliy dunyoqarashi, qadriyatlari va mentaliteti til vositasida aks etishi ko‘rsatib beriladi. Shuningdek, o‘zbek va jahon tilshunosligida ushbu masalani o‘rgangan olimlarning nazariy qarashlari tahlil qilinadi. Olamning lisoniy manzarasi lingvomadaniyatshunoslikning metodologik bazasi sifatida milliy identitetni belgilash va madaniy tafakkurni shakllantirishdagi ahamiyati ochib beriladi.

Kalit so‘zlar: lingvomadaniyatshunoslik, olamning lisoniy manzarasi, milliy tafakkur, qadriyat, konsept, dunyoqarash, milliy identitet, til va madaniyat, xalq tafakkuri, mentalitet.

Интерпретация языковой картины мира в лингвокультурологии

Аннотация: В данной статье рассматривается одно из центральных понятий лингвокультурологии – языковая картина мира. Языковая картина мира интерпретируется как концептуальное явление, возникающее в результате взаимодействия языка и культуры, отражающее национальное мышление и ценности. В исследовании освещаются факторы, формирующие языковую картину мира, проявление мировоззрения, ценностей и менталитета народа через языковые средства. Анализируются теоретические взгляды ученых узбекской и мировой лингвистики по данной проблеме. Языковая картина мира, как методологическая основа лингвокультурологии, раскрывается с точки зрения ее значения для определения национальной идентичности и формирования культурного мышления.

Ключевые слова: лингвокультурология, языковая картина мира, национальное мышление, ценности, концепт, мировоззрение, национальная идентичность, язык и культура, народный менталитет.

The interpretation of the linguistic picture of the world in linguoculturology

Annotation: This article examines one of the central concepts of linguoculturology – the linguistic picture of the world. The linguistic picture of the world is interpreted as a conceptual phenomenon that emerges as a result of the interaction between language and culture, reflecting national thinking and values. The study highlights the factors shaping the linguistic worldview, the manifestation of people’s worldview, values and mentality through linguistic means. The theoretical perspectives of scholars from Uzbek and world linguistics on this issue are analyzed. The linguistic picture of the world, as a methodological basis of linguoculturology, is revealed in terms of its significance for defining national identity and shaping cultural thinking.

Key words: linguoculturology, linguistic picture of the world, national thinking, values, concept, worldview, national identity, language and culture, folk mentality.

Kirish

Til nafaqat aloqa vositasi, balki xalqning tarixiy xotirasi, madaniy merosi va milliy tafakkurining uzviy qismi sifatida qaraladi. Til orqali xalqning qadriyatlari, dunyoqarashi, urf-odatlari va mentaliteti ifodalanadi hamda avloddan-avlodga yetkaziladi. Shu bois lingvistik tadqiqotlarda tilning kommunikativ vazifasi bilan bir qatorda uning madaniy-ma’naviy yukini o‘rganish masalasi ham alohida dolzarblik kasb etadi. Lingvomadaniyatshunoslik fani aynan shu nuqtada til va madaniyatning uzviy bog‘liqligini tadqiq etadi. Ushbu sohada alohida e’tibor qaratiladigan tushunchalardan biri bu olamning lisoniy manzarasidir. Olamning lisoniy manzarasi

milliy ong va madaniy tafakkurning o‘zaro aloqasidan hosil bo‘lib, xalqning tarixiy-madaniy tajribasi, qadriyatlari va ijtimoiy dunyoqarashini o‘zida mujassamlashtiradi. Har bir millat tili orqali atrof-muhitni o‘zicha idrok etadi va uni milliy tasavvur shaklida ifodalaydi. Ushbu maqolada olamning lisoniy manzarasi tushunchasining ilmiy-nazariy asoslari, uni o‘rganishning metodologik jihatlari hamda o‘zbek tilshunosligida amalga oshirilgan izlanishlar yoritiladi. Shuningdek, xalq maqollari, iboralari, badiiy matnlar va konseptual birliklar asosida milliy dunyoqarash qanday ifodalanishi tahlil qilinadi. Mazkur tadqiqot nafaqat nazariy, balki amaliy ahamiyatga ham ega bo‘lib, u milliy identitetni anglash, madaniy qadriyatlarni asrab-avaylash hamda til orqali milliy tafakkurni chuqurroq o‘rganishga xizmat qiladi.

Metadologiya

Maqola tayyorlash jarayonida bir nechta ilmiy usullardan kompleks tarzda foydalanildi. Avvalo, tavsifiy tahlil usuli yordamida olamning lisoniy manzarasiga oid nazariy qarashlar umumlashtirildi, mavjud ilmiy adabiyotlar ko‘rib chiqildi va asosiy tushunchalarning mazmun-mohiyati aniqlashtirildi. Shuningdek, qiyosiy tahlil usuli asosida rus, g‘arb va o‘zbek tilshunosligidagi nazariy qarashlar solishtirilib, ularning umumiy va farqli jihatlari belgilab berildi. Bu yondashuv turli madaniy va lingvistik muhitlarda lisoniy manzaraning shakllanish xususiyatlarini aniqlash imkonini berdi. Bundan tashqari, konseptual tahlil usuli qo‘llanib, xalq tafakkurida muhim o‘rin tutadigan konseptlar — “ona”, “vatan”, “mehmon”, “duo” kabi birliklarning til manzarasidagi ifodalanish mexanizmlari o‘rganildi. Ushbu konseptlar asosida milliy qadriyatlarning lisoniy aks-sadosi, ularning madaniy konnotatsiyalari hamda xalq tafakkuridagi o‘rni tahlil qilindi. Amaliy material sifatida o‘zbek xalq maqollari, iboralari, matallari, shuningdek, badiiy matnlardan olingan namunalar asosiy manba bo‘lib xizmat qildi. Mazkur misollar yordamida milliy dunyoqarashning til birliklari orqali qanday namoyon bo‘lishi ko‘rsatib berildi. Metodologik yondashuv sifatida lingvomadaniyatshunoslikning asosiy prinsiplari, ya’ni til va madaniyatning o‘zaro ta’sirini o‘rganish, milliy tafakkur va qadriyatlarni til birliklari orqali tahlil qilish hamda konseptual birliklarni madaniy konnotatsiyalar bilan birga talqin etish yo‘nalishlari asos qilib olindi. Bu esa tadqiqot natijalarining ilmiy ishonchliligini ta’minlash bilan birga, lingvomadaniyatshunoslikka oid yangi xulosalar chiqarishga yordam berdi.

Natijalar va muhokama

Olamning lisoniy manzarasi (lingvisticheskaya kartina mira) tushunchasi tilshunoslikda XX asrdan boshlab faol qo‘llanila boshlandi. Bu tushuncha xalqning tilida aks etgan bilimlari, qadriyatlari, dunyoqarashi va ijtimoiy tajribasini o‘zida jamlaydi. Har bir til jamoasi o‘z madaniyatiga xos bo‘lgan tasavvurlarni til vositasida shakllantiradi va saqlab qoladi [1,3]. Masalan, ingliz tilida keng tarqalgan *“time is money”* iborasi g‘arb jamiyatining iqtisodiy dunyoqarashini ifodalaydi. O‘zbek tilida esa “vaqt oltindan qadrli” degan maqol uchrasa-da, unda moddiy boylikdan ko‘ra, vaqtning qadri va hayotiy zarurati ta’kidlanadi. Bu ikki til bir xil konseptni ifodalasa ham, ularning semantik yukida milliy tafakkur farqlari ko‘rinadi. Lingvomadaniyatshunoslik til va madaniyat o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni tadqiq qiladi. Olamning lisoniy manzarasi bu jarayonda metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi. Chunki til birliklari orqali xalqning qadriyatlari, urf-odatlari va milliy xususiyatlari ifoda etiladi. Masalan, o‘zbek tilida “ota-ona duosi” iborasi xalq tafakkurida muhim qadriyat sifatida namoyon bo‘ladi. Ingliz tilida esa *“blessing”* so‘zi keng qo‘llanadi, biroq “ota-ona duosi” darajasidagi milliy-madaniy o‘ziga xoslikka ega emas.

Har bir xalqning milliy tafakkuri ularning lisoniy manzarasida yaqqol ko‘rinadi. O‘zbek xalqining dunyoqarashida oilaviy qadriyatlar, mehmondo‘stlik va mehr-oqibat alohida o‘rin tutadi. Masalan, “Mehmon otangdan ulug‘” yoki “Mehmonga izzat – Xudoga izzat” kabi maqollar xalqning mehmondo‘stlik an’anasini til orqali ifodalaydi. Ingliz tilida ham mehmondo‘stlikni bildiruvchi *“My house is your house”* kabi iboralar mavjud, ammo ularning qo‘llanish ko‘lami va madaniy vazni o‘zbek tilidagi maqollardan farq qiladi. Olamning lisoniy manzarasi nazariyasi ko‘plab olimlarning tadqiqotlarida muhim mavzu sifatida qaralgan. Rus tilshunosligida [2,4], g‘arb tilshunosligida [3,1]; [4,2], o‘zbek tilshunosligida [5,6] mazkur hodisa til va tafakkur

o‘rtasidagi aloqani o‘rganishda qo‘llanilgan. Masalan, Sapir va Whorfning “lingvistik nisbiylik nazariyasi”ga ko‘ra, insonning dunyoqarashi u yashayotgan til orqali shakllanadi.

O‘zbek tilida olamning lisoniy manzarasini o‘rganishda xalq maqollari, iboralar, matallar va badiiy matnlar asosiy manba sifatida qo‘llaniladi. Alisher Navoiy asarlarida “ko‘ngil” konsepti juda keng qo‘llanadi va u xalqning ruhiy-ma’naviy dunyoqarashini ifodalaydi: “Ko‘ngil ko‘zgusini dog‘dan saqla” kabi misralar ruhiy poklik va ma’naviy yetuklikni anglatadi. Shuningdek, “ko‘ngilni ovlash”, “ko‘ngli sinmoq” kabi iboralar ham milliy tafakkurdagi ruhiy-axloqiy qadriyatlarning til orqali ifodasidir. Shu sababli olamning lisoniy manzarasi nafaqat lingvistik, balki madaniy-estetik hodisa sifatida ham talqin qilinadi. U orqali xalqning nafaqat muloqot usullari, balki ijtimoiy-madaniy qadriyatlari, urf-odatlari va hayotiy falsafasi ham ochib beriladi.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, lingvomadaniyatshunoslikda olamning lisoniy manzarasi xalqning madaniy merosi, qadriyatlari va tafakkurining til orqali aks etishidir. Bu tushuncha milliy mentalitetni shakllantirishda, til va madaniyat o‘rtasidagi uzviy aloqani anglashda muhim ahamiyat kasb etadi. Lisoniy manzara har bir xalqning o‘ziga xos dunyoqarashini, qadriyatlar tizimini va ijtimoiy tajribasini til birliklari orqali ifodalashga xizmat qiladi. Shu jihatdan, til nafaqat aloqa vositasi, balki milliy o‘zlikni saqlash va avloddan-avlodga yetkazishning eng muhim vositalaridan biri sifatida qaraladi. Tadqiqotlar ko‘rsatadiki, olamning lisoniy manzarasini chuqur o‘rganish orqali xalq tafakkuridagi konseptlar, ramzlar va milliy qadriyatlarni tizimli ravishda tahlil qilish imkoniyati tug‘iladi. O‘zbek tilidagi maqollar, matallar, iboralar, badiiy matnlardagi obrazlar millatning madaniy tafakkurini yaqqol ifoda etibgina qolmay, balki xalqning ijtimoiy-ma’naviy hayot tarzini ham namoyon qiladi. Shuningdek, lisoniy manzara nazariyasi globalizatsiya davrida milliy madaniyatlarni asrab-avaylash va ularning o‘ziga xosligini namoyon etishda ham katta ahamiyatga ega. Chunki har bir til jamoasi o‘zining dunyoqarashini tili orqali anglatadi va shu orqali boshqa madaniyatlardan farqlanadi. Demak, olamning lisoniy manzarasini lingvomadaniyatshunoslik doirasida o‘rganish nafaqat nazariy, balki amaliy ahamiyatga ega bo‘lib, u tilshunoslik, madaniyatshunoslik va ta’lim sohalarida muhim metodologik manba sifatida xizmat qilishi mumkin. Shu bois mazkur hodisani yanada kengroq qamrovda, zamonaviy ilmiy yondashuvlar asosida tadqiq etish bugungi kunning dolzarb ilmiy vazifalaridan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Sapir, E. (1921). *Language: An introduction to the study of speech*. New York: Harcourt, Brace.
2. Whorf, B. L. (1956). *Language, thought, and reality*. Cambridge, MA: MIT Press.
3. Wierzbicka, A. (1992). *Semantics, culture, and cognition*. New York: Oxford University Press.
4. Stepanov, Yu. S. (2001). *Constants: Slovar russkoy kultury*. Moskva: Akademicheskiy Proyekt.
5. Нурмонов, А. (2002). *Ўзбек тилшунослиги тарихи*. Тошкент: Fan.
6. Нурмухаммедов, Х. (2015). *Ўзбек тилшунослигида лисоний манзара масалалари*. Тошкент: ТДЎТАУ нашриёти.
7. Абдурахмонов, А. (1984). *Ўзбек тили семантикаси*. Тошкент: Fan.
8. Bobojonov, F. (2022). O‘zbek tilida nomlash va neyming xizmati. In *Davlat tili taraqqiyoti: muammo va yechimlar* (pp. 71–75). Toshkent: TDO‘TAU.
9. Azimov, I. (2023). Lotin alifbosi asosida tuzilgan o‘zbek alifbolar xususida. *Buxoro davlat universiteti ilmiy axborotlari*, 42–48. Buxoro: BuxDU nashriyoti.

SHARQ VA G’ARB TAFAKKURI UYG’UNLIGIDA IBN XALDUN MEROSI.

Nazirov Sherzodbek Rustamsher o’g’li
Andijon Davlat Universiteti Falsafa fakulteti,
ijtimoiy falsafa yo’nalishi mustaqil tadqiqotchisi.
+998-88-163-26-66
e-mail: sherzodbeknazirov90@gmail.com

Annotatsiya: Ibn Xaldunning “Muqaddima” asarida Sharq va G‘arb tafakkurida inson, jamiyat va davlat haqidagi qarashlar tahlil qilinadi. Unda insonning ijtimoiy mohiyati, asabiyya

konsepsiyasi, davlat va jamiyat o‘rtasidagi hamkorlik hamda axloqiy qadriyatlarning sivilizatsiya taraqqiyotidagi o‘rni yoritiladi. Ibn Xaldun qarashlari tarixiy-falsafiy meros sifatida nafaqat o‘z davrida, balki bugungi kunda ham globallashuv, madaniy xilma-xillik va ijtimoiy muammolar kontekstida dolzarbligini saqlab qolmoqda. Shuningdek, tezisda Yangi O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlar va “Uchinchi Renessans” konsepsiyasi Ibn Xaldunning umron nazariyasi bilan uyg‘unlikda tahlil qilinadi.

Kalit so’zlar: Ibn Xaldun, Muqaddima, asabiyya, inson tabiati, jamiyat, davlat, sivilizatsiya, axloqiy qadriyatlar, Sharq falsafasi, G‘arb tafakkuri, umron nazariyasi, Uchinchi Renessans, Yangi O‘zbekiston.

Abstract: The article analyzes the views on human beings, society, and the state in Eastern and Western thought as reflected in Ibn Khaldun’s Muqaddimah. It highlights the social essence of human nature, the concept of asabiyyah, cooperation between state and society, as well as the role of moral values in the progress of civilization. Ibn Khaldun’s ideas, as a historical-philosophical legacy, remain relevant not only in his time but also today in the context of globalization, cultural diversity, and social challenges. Furthermore, the paper examines the reforms being carried out in New Uzbekistan and the concept of the “Third Renaissance” in relation to Ibn Khaldun’s theory of umran.

Keywords: Ibn Khaldun, Muqaddimah, asabiyyah, human nature, society, state, civilization, moral values, Eastern philosophy, Western thought, theory of umran, Third Renaissance, New Uzbekistan.

Аннотация: В статье анализируются взгляды на человека, общество и государство в восточной и западной мысли, отражённые в «Мукаддиме» Ибн Халдуна. Подчёркивается социальная сущность человеческой природы, концепция асабии, сотрудничество между государством и обществом, а также роль нравственных ценностей в развитии цивилизации. Идеи Ибн Халдуна как историко-философское наследие остаются актуальными не только в его время, но и сегодня — в контексте глобализации, культурного многообразия и социальных проблем. Кроме того, в работе рассматриваются реформы, проводимые в Новом Узбекистане, и концепция «Третьего Ренессанса» в соотнесении с теорией умрана Ибн Халдуна.

Ключевые слова: Ибн Халдун, «Мукаддима», асабия, человеческая природа, общество, государство, цивилизация, нравственные ценности, восточная философия, западная мысль, теория умрана, Третий Ренессанс, Новый Узбекистан.

Sharq va G‘arb tafakkuri tarixida inson, jamiyat va davlat haqidagi qarashlar doimo markaziy o‘rin egallagan. Bu jarayonda Ibn Xaldun (1332–1406) alohida o‘rin tutadi. Uning mashhur “Muqaddima” asari nafaqat tarixshunoslik va ijtimoiy falsafa rivojiga, balki inson tabiatini, jamiyat tuzilishini, axloqiy qadriyatlarni va madaniy merosni tahlil qilishda ham muhim manba sifatida maydonga chiqadi. Ibn Xaldun qarashlari Sharqdagi ma’naviy-falsafiy an’analar hamda G‘arb tafakkurida shakllangan ijtimoiy-siyosiy konsepsiyalarni uyg‘unlashtirgan holda universal xulosalarga yo‘l ochadi.

Bugungi kunda globallashuv, madaniy xilma-xillik va ijtimoiy muammolar sharoitida Ibn Xaldunning inson va jamiyat haqidagi fikrlari alohida dolzarblik kasb etmoqda. Uning ta’limotida axloqiy tarbiya, davlat va jamiyat o‘rtasidagi hamkorlik, inson va tabiat munosabati, shuningdek madaniy merosni saqlash va rivojlantirish masalalari chuqur falsafiy asoslangan. Shu bois Ibn Xaldun qarashlarini Sharq va G‘arb falsafasi kontekstida tahlil qilish bugungi ilmiy izlanishlar uchun ham nazariy, ham amaliy ahamiyat kasb etadi.

Ibn Xaldun nazariyalari faqat o‘z davrida emas, balki keyingi asrlarda ham turli olimlar, siyosatchilar va tadqiqotchilar tomonidan chuqur o‘rganilgan. Tadqiqotchilar va olimlar Ibn Xaldun asarini o’ziga xos eng buyuk asar sifatida e’tirof etishgan. Britaniyalik Arnold Toynbi Ibn Xaldunning asarini quyidagicga ta’riflagan:

“O’zi tanlagan intelektual faoliyat sohasida u hech qanday salaflardan ilhomlanmaganga o’xshaydi, Prolegomena… shubhasiz har qanday vaqtda yoki har qanday joyda haligacha har

qanday aql tomonidan yaratilgan eng buyuk asar". [1.b.322] Arnold Toynbi uni "tarix falsafasining buyuk dahosi" deya baholagan.

Sorokin esa Ibn Xaldunning "Muqaddima" asarini "Sotsiologiyada ham, qishloq xo'jaligida ham, qishloq-shahar sotsiologiyasida ham eng qadimgi tizimli risola" deb hisoblagan". [2.b.20]

Ibn Xaldun, jamiyat tasodifiy mavjudod emas. U insoniyat jamiyatning diniy, siyosiy, iqtisodiy, harbiy va madaniy sohalarning o'zaro bog'liqligini kuzatadi. Ular ajralmas va bir-biri bilan bog'liq bo'lib, u yoki bu sohadagio'zgarishlar boshqalarga ta'sir qiladi. [3.b.15]

Ibn Xaldun ta'limotida inson "ijtimoiy mavjudot" sifatida qaraladi. Unga ko'ra, inson yolg'iz holda yashashga qodir emas, chunki uning hayoti ham moddiy, ham ma'naviy jihatdan boshqalar bilan hamkorlikni talab qiladi. Shu sababli jamiyat inson tabiatining tabiiy shakli sifatida maydonga chiqadi. Ibn Xaldun fikricha, insonning ehtiyojlari va ularni qondirish yo'lidagi hamkorligi jamiyatni shakllantiradi, kuch va birdamlik (asabiyya) esa uni barqaror qiladi.

"Asabiyya beduin turmush tarziga xos ijtimoiy bog'lanish va kollektiv sifat sifatida talqin qilingan bo'lsa, ayrim mualliflar uni "kollektiv iroda shakllantirish qobiliyati" sifatida izohlaydilar. Bu jarayonda a'zolar muayyan umumiy maqsadga yo'naltirilgan barqaror harakatlarga sodiq bo'ladilar. [4.b.29-47]

Sharq tafakkurida ham insonning ijtimoiy mohiyati doimo ta'kidlab kelingan. Masalan, Forobiy insonni "ijtimoiy mavjudot" deb ta'riflagan bo'lsa, Ibn Sino axloqiy kamolot va tarbiya orqali jamiyatning uyg'unligini ko'rsatgan. Alisher Navoiy esa insonni ma'naviy barkamol bo'lishga chorlagan holda, uni jamiyatning eng muhim halqasi sifatida tasvirlagan.

G'arb falsafasida esa bu masala Aristotel tomonidan "inson siyosiy mavjudot" degan ta'rif bilan ifodalangan. [5.b.53] Keyinchalik Gobbs inson tabiatini "tabiiy holatdagi kurash" orqali talqin qilib, jamiyatni inson xulqini tartibga soluvchi tuzilma sifatida ko'rgan. Russo esa inson aslida erkin va ezgu, ammo jamiyat uni o'z qoidalari bilan cheklashini ta'kidlagan.

Ibn Xaldun esa bu ikki yondashuvni o'ziga xos tarzda uyg'unlashtiradi: inson tabiatan jamiyatda yashashga majbur va bu jamiyat birdamlik (asabiyya) orqali mustahkamlanadi. Demak, u nafaqat insonning biologik va ruhiy ehtiyojlarini, balki uni ijtimoiy tizimning faol ishtirokchisi sifatida ham izohlagan.

Ibn Xaldun sivilizatsiya taraqqiyotini odamlarning axloqiy qadryatlari orqali tushintiradi. Faylasufning fikriga ko'ra, odamlarning ma'naviy hayoti, moddiy hayotidagi turmush tarziga ham ta'sir qiladi. Insonlarning axloqiy qarashlari ortib borishi, qadryatlari va axloqqa sodiqligi natijasida avvalo jamiyat va davlat, keyin esa sivilizatsiya rivojlanishiga imkon beradi. [5.b.53]

Ibn Xaldun sivilizatsiya rivojida uchta asosiy ehtiyojni qayd etadi: oziq-ovqat, xavfsizlik va do'stlikka bo'lgan ehtiyoj. Bu ehtiyojlar zaruratdan va insonning yaratilishidan kelib chiqadi, unda ma'lum guruxlar birgalikda yashashi kerak deb ta'kidlaydi. [6.b.27]

Bugungi Yangi O'zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlar ham aslida umron tushunchasining zamonaviy ifodasidir. Prezidentimiz Sh.M. Mirziyoyev ta'kidlaganidek, "Uchinchi Renessans poydevorini yaratish"[7.b.1] asosiy vazifalardan biridir. Bu g'oya ta'lim, fan, madaniyat va ma'naviyat sohalarini rivojlantirishga qaratilgan keng qamrovli strategik dasturlarda o'z ifodasini topmoqda. Ayniqsa, yoshlarni ilm-fanga jalb qilish, ularning salohiyatini rivojlantirish, chet elda o'qishi va zamonaviy bilimlarni egallashiga sharoit yaratish bevosita umron nazariyasi bilan uyg'unlashadi.

Demak, Ibn Xaldun ta'kidlaganidek, sivilizatsiya faqat moddiy ne'matlar orqali emas, balki ilm, ma'naviyat va axloqiy qadriyatlarga asoslangan holda rivojlanadi. Yangi O'zbekistonning "Uchinchi Renessans" konsepsiyasi ham aynan shu umron tushunchasiga mos ravishda taraqqiyotning yangi bosqichini boshlab berdi.

Xulosa qilib aytganda, Ibn Xaldun insonni "ijtimoiy mavjudot" sifatida talqin etib, jamiyat taraqqiyotini birdamlik (asabiyya), axloqiy qadriyatlar va ijtimoiy hamkorlik orqali izohlaydi. Uning qarashlarida insonning nafaqat biologik yoki individual ehtiyojlari, balki ijtimoiy tizimdagi o'rni va mas'uliyati ham alohida ta'kidlanadi. Inson tabiatidagi hamkorlik va birlashuvga intilish

jamiyatning tabiiy asosini tashkil etadi, birdamlik esa uning barqarorligining poydevori bo‘lib xizmat qiladi.

Ibn Xaldunning ta’limoti sivilizatsiyalararo muloqot, Sharq va G‘arb tafakkuri uyg‘unligida universal qoidalarni shakllantirish imkonini beradi. U axloqiy qadriyatlar va ma’naviy tarbiyani sivilizatsiya taraqqiyotining eng muhim omillari sifatida ko‘rsatadi. Uning nazariy qarashlari nafaqat o‘z davri tarixiy sharoitini, balki zamonaviy globallashuv, ijtimoiy muammolar va madaniy xilma-xillik sharoitida ham dolzarbligini yo‘qotmagan.

Bugungi Yangi O‘zbekiston islohotlari, xususan, “Uchinchi Renessans” konsepsiyasi Ibn Xaldun ilgari surgan umron nazariyasi bilan hamohangdir. Bu jarayonda ilm-fan, ta’lim, ma’naviyat va madaniyat sohalariga alohida e’tibor qaratilishi jamiyatning har tomonlama taraqqiyotini ta’minlashga xizmat qilmoqda. Yoshlarning ilmiy va intellektual salohiyatini oshirish, ularni jahon miqyosida raqobatbardosh qilish masalalari ham aynan Ibn Xaldun ta’limotidagi ijtimoiy birdamlik, axloqiy kamolot va ma’naviy birlik g‘oyalari bilan uyg‘unlashadi.

Shunday qilib, Ibn Xaldun merosi nafaqat tarixiy-falsafiy ahamiyatga, balki bugungi ijtimoiy-siyosiy jarayonlarni tushuntirish va rivojlantirishda ham amaliy ahamiyatga ega. Uning g‘oyalari sivilizatsiyalararo hamkorlik, jamiyatning barqarorligi va adolatli boshqaruv tizimini shakllantirish uchun muhim nazariy asos bo‘lib qolmoqda. Shu jihatdan, Ibn Xaldunning “Muqaddima”si va unda ilgari surilgan konsepsiyalar nafaqat Sharq, balki G‘arb tafakkurida ham o‘z o‘rnini topib, insoniyat taraqqiyotining umumiy qadriyatlariga hissa qo‘shadi.

Adabiyotlar ro’yxati:

1. Arnold J. Toynbee, A Study of History, New York: Oxford Unversity Press, 1962.
2. P. A. Sorokin, Society, Culture,and Personality, New York: Cooper Square Publishers, 1962.
3. Fuad Baali and Ali Wardi, Ibn Khaldun and Islamic Thought-Styles: A Social Perspective, Boston, 1981
4. Johann P. Arnason and Georg Stauth, “Civilization and State Formation in the Islamic Context: ReReading Ibn Khaldun,” Thesis Eleven 76 (2004).
5. Аристотель Метафизика. Сочинения.-М.: Мысль.1976.Т.1. – 53 с.
6. Aytekin Demircioğlu, “İbn Xaldun’un İnsan Düşüncesi ve Medeniyet Algısı” Gazi Üniversitesi Yayımlanmış Doktora Tezi, Ankara 2013.
7. https://oyina.uz/uz/teahause/2435 “Uchinchi Renessans poydevorini yaratish”.

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA NUTQNI RIVOJLANTIRISH MASHG‘ULOTLARI ORQALI TANQIDIY FIKRLASHNI SHAKLLANTIRISH

Nafasova Jamila Turg‘un qizi

Shahrisabz davlat pedagogika institute magistranti

Shahrisabz, O‘zbekiston

E-mail : jnafasova@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur ilmiy maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarda nutqni rivojlantirish mashg‘ulotlari orqali tanqidiy va mustaqil fikrlash kompetensiyalarini shakllantirish masalasi tadqiq qilingan. Unda tanqidiy fikrlash tushunchasining psixologik-pedagogik va metodologik asoslari, uning maktabgacha ta’lim tizimidagi ahamiyati hamda og‘zaki nutq faoliyati bilan uzviy bog‘liqligi ilmiy jihatdan tahlil etiladi. Tadqiqot jarayonida mantiqiy tahlil, qiyoslash, dalillash, muammoli vaziyatlarni yechish va ijodiy yondashuvni talab qiluvchi mashg‘ulotlarning bolalar tafakkur taraqqiyotiga ijobiy ta’siri aniqlangan. Shuningdek, interfaol metodlar, innovatsion pedagogik texnologiyalar va ijodiy o‘yinlar vositasida nutqiy faoliyatni rivojlantirish hamda tanqidiy fikrlashni kuchaytirish imkoniyatlari yoritilgan. Natijada maktabgacha ta’lim tashkilotlarida nutqni rivojlantirish mashg‘ulotlarini to‘g‘ri tashkil etish bolalarda erkin, asosli, mantiqiy va mustaqil qaror qabul qilish qobiliyatlarini shakllantirishda muhim omil ekanligi asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: maktabgacha ta’lim tizimi, bolalar nutqiy rivojlanishi, tanqidiy va mustaqil fikrlash kompetensiyalari, og‘zaki nutq faoliyati, tafakkur jarayonlari, mantiqiy tahlil va qiyoslash, muammoli vaziyat metodlari, ijodiy va interfaol mashg‘ulotlar, pedagogik innovatsiyalar, zamonaviy ta’lim texnologiyalari, shaxsiy rivojlanish omillari, milliy va xorijiy tajriba.

Аннотация:В данной научной статье исследуется вопрос формирования у детей дошкольного возраста критического и самостоятельного мышления через занятия по развитию речи. Анализируются психологико-педагогические и методологические основы понятия критического мышления, его значение в системе дошкольного образования, а также тесная взаимосвязь с устной речевой деятельностью. В ходе исследования выявлено положительное влияние на развитие мышления детей занятий, требующих логического анализа, сопоставления, аргументации, решения проблемных ситуаций и творческого подхода. Также освещены возможности развития речевой деятельности и укрепления критического мышления с помощью интерактивных методов, инновационных педагогических технологий и творческих игр. В результате обосновано, что правильная организация занятий по развитию речи в дошкольных образовательных организациях является важным фактором формирования у детей свободного, аргументированного, логического и самостоятельного принятия решений.

Ключевые слова: система дошкольного образования, речевое развитие детей, компетенции критического и самостоятельного мышления, устная речевая деятельность, процессы мышления, логический анализ и сопоставление, методы проблемных ситуаций, творческие и интерактивные занятия, педагогические инновации, современные образовательные технологии, факторы личностного развития, национальный и международный опыт.

Abstract:This scientific article explores the issue of developing critical and independent thinking competencies in preschool children through speech development activities. It provides a scientific analysis of the psychological, pedagogical, and methodological foundations of critical thinking, its significance in the preschool education system, and its close connection with oral speech activity. The study reveals the positive impact of activities that require logical analysis, comparison, reasoning, problem-solving, and creative approaches on the cognitive development of children. The possibilities of enhancing oral speech activity and strengthening critical thinking through interactive methods, innovative pedagogical technologies, and creative games are also highlighted. As a result, it is substantiated that the proper organization of speech development activities in preschool institutions is an essential factor in fostering children’s ability to make free, reasoned, logical, and independent decisions.

Keywords: preschool education system, children’s speech development, critical and independent thinking competencies, oral speech activity, cognitive processes, logical analysis and comparison, problem-based methods, creative and interactive activities, pedagogical innovations, modern educational technologies, personal development factors, national and international experience.

Kirish: Zamonaviy jamiyatda maktabgacha ta'lim tizimi shaxsning ijtimoiylashuvi va intellektual rivojlanishining eng muhim bosqichi hisoblanadi. Bugungi kunda bolalarni nafaqat bilim va ko'nikmalar bilan ta'minlash, balki ularni mustaqil va tanqidiy fikrlashga o'rgatish masalasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Tanqidiy fikrlash – bu ma'lumotlarni tahlil qilish, baholash va ular asosida asosli xulosalar chiqarish qobiliyatidir. Bu ko'nikma insonning keyingi hayoti va ta'lim olishida, muammolarni hal qilish va to'g'ri qarorlar qabul qilishda muhim rol o'ynaydi [1].

Maktabgacha yoshdagi bolalarda tanqidiy fikrlashni shakllantirish o'z oldiga qator murakkab vazifalarni qo'yadi. Chunki bu davrda bolalar hali abstrakt tushunchalar bilan ishlashga to'liq qodir emaslar, ammo aynan shu yoshda tanqidiy fikrlashning poydevori shakllanadi. Ko'plab tadqiqotchilar ta'kidlaganidek, 3-7 yoshdagi bolalar o'z tafakkurlarining o'ziga xos xususiyatlariga ega bo'lib, bu xususiyatlarni hisobga olgan holda tegishli metodlar qo'llanilsa, ularda tanqidiy fikrlash samarali rivojlanadi [2]. Shu yosh davrida nutqni rivojlantirish mashg‘ulotlari bolalarda

tanqidiy fikrlashning shakllanishida muhim vosita hisoblanadi. Nutq faolligi bolaning tafakkur jarayonlarini faollashtirib, voqealarni tahlil qilish, hodisalar o‘rtasida sabab-oqibat munosabatlarini anglash va o‘z fikrini asoslab ifodalash qobiliyatini rivojlantiradi. Masalan, muammoli vaziyatlarni muhokama qilish, hikoya tuzish, ertaklarni qayta ishlash va interfaol o‘yinlar orqali savol-javob mashqlari bolalarda mantiqiy fikrlash va tanqidiy qaror qabul qilish ko‘nikmalarini mustahkamlaydi. Shu jihatdan nutqni rivojlantirish mashg‘ulotlari nafaqat og‘zaki ifoda va muloqot madaniyatini oshiradi, balki bolalarda mustaqil fikrlashni rag‘batlantiradi va tanqidiy fikrlash poydevorini mustahkamlaydi.

Shu asosda, mazkur tadqiqotning maqsadi – maktabgacha yoshdagi bolalarda nutqni rivojlantirish mashg‘ulotlari orqali tanqidiy fikrlashni shakllantirishning nazariy va amaliy asoslarini aniqlash, samarali pedagogik metod va interfaol yondashuvlarni ishlab chiqishdir. Tadqiqot natijalari pedagoglarga bolalarda tafakkur va nutqiy faoliyatni uyg‘un rivojlantirishga yordam beradi, shuningdek maktabgacha ta’lim jarayonini innovatsion va ijodiy yondashuvlar asosida tashkil etishga imkon yaratadi.

Shu maqsadga erishish uchun tadqiqot bir qator vazifalarni o‘z ichiga oladi:

1. Maktabgacha yoshdagi bolalarda tanqidiy fikrlash va nutq rivojlanishining nazariy asoslarini o‘rganish;
2. Nutqni rivojlantirish mashg‘ulotlari orqali bolalarda tafakkur va tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirishning samarali metod va texnologiyalarini aniqlash;
3. Interfaol va ijodiy pedagogik yondashuvlarni qo‘llash orqali mashg‘ulotlarni optimallashtirish;
4. Ota-ona va pedagoglarning maktabgacha ta’lim jarayonidagi hamkorligini kuchaytirish orqali bolalarda mustaqil fikrlashni rag‘batlantirish;
5. Tadqiqot natijalarini amaliy tavsiyalar shaklida ishlab chiqish va maktabgacha ta’lim tashkilotlarida joriy etish imkoniyatlarini tahlil qilish.

Mazkur tadqiqot dolzarbligi shundaki, bolalarda nutqni rivojlantirish orqali tanqidiy fikrlashni shakllantirish nafaqat ularning muloqot madaniyatini oshiradi, balki tafakkur faoliyatini faollashtiradi, voqealarni tahlil qilish va mustaqil xulosalar chiqarish qobiliyatini rivojlantiradi. Shu bilan birga, interfaol va ijodiy mashg‘ulotlar bolaning o‘z bilimini izlashga bo‘lgan qiziqishini oshiradi, uni faol ishtirokchiga aylantiradi va keyingi ta’lim bosqichlariga tayyorlaydi.

Shu nuqtai nazardan, nutqni rivojlantirish mashg‘ulotlarini tanqidiy fikrlashni shakllantirish bilan uyg‘unlashtirish pedagogik jarayonning samaradorligini sezilarli darajada oshiradi, bolalarni ijodiy, mustaqil va tafakkurga boy shaxs sifatida tarbiyalashga xizmat qiladi.

Asosiy qism : Tanqidiy fikrlash – bu ma’lumotlarni tahlil qilish, ularni baholash, muammolarni aniqlash va asosli xulosalar chiqarish qobiliyatidir. Zamonaviy jamiyatda bu ko‘nikma insonning shaxsiy, ijtimoiy va akademik rivojlanishi uchun muhim hisoblanadi. Maktabgacha yoshdagi bolalarda tanqidiy fikrlashni shakllantirish ularning mustaqil qaror qabul qilish, mantiqiy tafakkur va ijodiy yondashuvlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Shu bois pedagogik jarayonda bolalarning tafakkurini faollashtiradigan va nutqiy faoliyat bilan uyg‘unlashadigan metodlar joriy etish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Faqatgina turli xil o'qitish usullaridan malakali foydalanish maktabgacha yoshdagi bolalarning o'zlarini bilim olishga undaydigan sharoitlarni yaratadi. Ko'pgina tarbiyachi-pedagoglarning bir qator savollari bor:

- zamonaviy maktabgacha yoshdagi bolalarda o'qish uchun motivatsiyani qanday oshirish kerak;
– bolalarni o‘quv jarayoniga qanday jalb etish;
- bilimlarni qanday o'rgatish kerak? Bu savollarni har bir tarbiyachi o'ziga bir necha marta bergan. Insonning fikrlash qobiliyati tufayli murakkab muammolar hal qilinadi, kashfiyotlar qilinadi, ixtirolar paydo bo'ladi. Ammo samaraliroq fikrlashni o'rganish mumkinmi? Albatta mumkin. Bundan tashqari, ongning boshqa fazilatlari kabi, fikrlash ham rivojlanishi mumkin. Tafakkurni rivojlantirish fikrlash qobiliyatini rivojlantirish demakdir. Maktabgacha yoshdagi bolalarning aqliy faoliyatini shakllantirishda ijobiy natijalarga erishishga imkon beradigan innovatsion usullardan biri tanqidiy fikrlashni rivojlantirish texnologiyasi hisoblanadi.[3] Taqidiy fikrlash

orqali bolalar mustaqil fikr yuritishni, muloqotga kirishishni , malum bir hodisa, voqea yoki narsaga o’z shaxsiy qarashlarini bayon qilishni o’rganadi.

Tanqidiy fikrlash texnologiyasi Jinni Stil, Kertis Meredit, Charlz Templ va Skott Uolter kabi bir qator amerikalik olimlar tomonidan ishlab chiqilgan. Tanqidiy fikrlash deganda bolalarning qiziquvchanligining namoyon bo'lishi, ma'lum bir masala bo'yicha o'z nuqtai nazarini rivojlantirish, uni mantiqiy dalillar bilan himoya qilish qobiliyati va tadqiqot usullaridan foydalanish tushuniladi.[3]

O'zbekiston maktabgacha ta'lim tizimida islohotlar doirasida ishlab chiqilgan yangi konsepsiya (2021) tanqidiy fikrlashni rivojlantirishga ustuvor ahamiyat beradi [4]. Bu konsepsiya bolalarga tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini egallash imkoniyatini yaratish, pedagoglarga esa tegishli zamonaviy metodlarni qo'llash uchun shart-sharoitlar yaratishni nazarda tutadi.

Nutqni rivojlantirish mashg‘ulotlari orqali tanqidiy fikrlashni shakllantirish

Maktabgacha yoshdagi bolalarda tanqidiy fikrlashni shakllantirish jarayonida nutq mashg‘ulotlari markaziy o‘rin tutadi. Nutq bolaning tafakkur faoliyatini faollashtiradi, voqealarni tahlil qilish, hodisalar o‘rtasida sabab-oqibat munosabatlarini anglash va o‘z fikrini asoslab ifodalash imkonini yaratadi. Shu bois pedagogik jarayonda nutqni rivojlantirish mashg‘ulotlari tanqidiy fikrlashni shakllantirishning eng samarali vositalaridan biri hisoblanadi.

Nutq mashg‘ulotlarini samarali tashkil etish uchun pedagoglar quyidagi metodlardan foydalanadilar:

1. Muammoli vaziyatlarni yaratish: Bolalarni fikrlashga undaydigan voqealar va vaziyatlar orqali ularda sabab-oqibat munosabatlarini aniqlash, muammoni hal qilish va turli yechimlarni qiyoslash qobiliyatlarini rivojlantirish.
2. Savol-javob mashqlari: Pedagogning maqsadli savollari bolaning tafakkur faoliyatini faollashtiradi, mantiqiy tahlil va dalillash ko‘nikmalarini shakllantiradi.
3. Hikoya va ertak tuzish: Bolalar o‘z tasavvurlarini nutq orqali bayon qilganda, ularning mantiqiy bog‘lanishlar, voqealarni izchil ifodalash va tahlil qilish qobiliyatlari rivojlanadi.
4. O‘yin va interfaol mashg‘ulotlar: Rol o‘yinlari, dramatizatsiya, didaktik o‘yinlar va guruhli faoliyat bolalarda mustaqil fikrlash, tanqidiy yondashuv va ijodiy qaror qabul qilish ko‘nikmalarini mustahkamlaydi.
5. Ijodiy topshiriqlar: Tasviriy, dramatik yoki so‘zli ijodiy vazifalar bolaning fikrini rivojlantirish, ularni erkin ifoda etishga rag‘batlantiradi va tanqidiy fikrlashni qo‘llash imkonini beradi.

Shu tarzda, nutqni rivojlantirish mashg‘ulotlari nafaqat bolalarning og‘zaki nutqini boyitadi, balki ularning tafakkur jarayonini uyg‘unlashtiradi, voqealarni tahlil qilish, o‘z fikrini asoslash va boshqa bolalarning fikrini qiyoslash qobiliyatlarini rivojlantiradi. Shu bilan birga, interfaol va ijodiy pedagogik yondashuvlar bolalarni faol ishtirokchiga aylantiradi, ularni mustaqil bilim olishga undaydi va tanqidiy fikrlashning poydevorini mustahkamlaydi Natijada, nutqni rivojlantirish mashg‘ulotlarini tanqidiy fikrlashni shakllantirish bilan uyg‘unlashtirish maktabgacha ta’lim jarayonining samaradorligini oshiradi, bolalarni ijodiy, mustaqil va tafakkurga boy shaxs sifatida tarbiyalashga xizmat qiladi.

Bu metodlar ham bir qator olimlar tomonidan o’rganib chiqilgan . L. Vygotskiy maktabgacha yoshdagi bolalarda tafakkur va nutq rivojlanishini ijtimoiy muloqot orqali shakllanishi bilan izohlaydi. Unga ko‘ra, nutq bolaning tafakkur faoliyatini uyg‘unlashtiruvchi vosita bo‘lib, tanqidiy fikrlashning poydevorini yaratadi.

So'roq-javob strategiyalari tanqidiy fikrlashni rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. McGuinness (2021) ta'kidlaganidek, ochiq savollar berish orqali bolalarning o'ylash qobiliyati stimullanadi [5]. "Nega?", "Qanday qilib?", "Agar... bo'lsa nima bo'ladi?" kabi savollar bolalarni chuqurroq fikrlashga undaydi. Bu yondashuv Sokratning so'roq-javob metodiga asoslangan bo'lib, bolalarga tayyor javoblarni berish o'rniga, ularni mustaqil ravishda javob topishga yo'naltirishni nazarda tutadi.

D. Johnson va P. Johnson interfaol va muammoli o‘qitish metodlarini tanqidiy fikrlashni rivojlantirishda samarali deb hisoblaydi. Ularning tadqiqotlariga ko‘ra, guruhli faoliyat va muammoli vaziyatlar bolalarda tafakkur va muloqot ko‘nikmalarini sezilarli darajada oshiradi.

Xulosa . Tadqiqot natijalaridan ko‘rinib turibdiki, nutq faoliyati bolaning tafakkurini faollashtiruvchi va tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini shakllantiruvchi markaziy vosita hisoblanadi. Nutqni rivojlantirish mashg‘ulotlari, jumladan muammoli vaziyatlar, savol-javob mashqlari, hikoya va ertak tuzish, o‘yin va interfaol mashg‘ulotlar, shuningdek ijodiy topshiriqlar bolalarda mantiqiy tafakkur, sabab-oqibat munosabatlarini anglash, mustaqil qaror qabul qilish va fikrini asoslab ifodalash qobiliyatlarini rivojlantiradi.

Shu bilan birga, zamonaviy pedagogik metodlar va innovatsion texnologiyalarni qo‘llash bolalarni faol ishtirokchiga aylantiradi, ularni mustaqil bilim olishga rag‘batlantiradi va tanqidiy fikrlashning poydevorini mustahkamlaydi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, maktabgacha ta’lim jarayonida nutqni rivojlantirish mashg‘ulotlarini tanqidiy fikrlashni shakllantirish bilan uyg‘unlashtirish pedagogik jarayonning samaradorligini sezilarli darajada oshiradi.

Natijada, bolalarni ijodiy, mustaqil va tafakkurga boy shaxs sifatida tarbiyalash, ularning shaxsiy va akademik rivojlanishiga hissa qo‘shish mumkin. Shu nuqtai nazardan, nutq faoliyati va tanqidiy fikrlashni rivojlantirish pedagogik jarayonning ajralmas qismi bo‘lib, maktabgacha ta’lim sifatini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. Smith, J. (2020). Critical thinking in early childhood education. Early Childhood Education Journal, 48(1), 121-130.
2. Vygotskiy, L.S. (2019). Tafakkur va nutq. Toshkent: "Ta'lim" nashriyoti.
3. “Maktabgacha yoshdagi bolalarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirish texnologiyasi” Rayimqulova Maftuna Abduhakim qizi, International scientific and practical conference “rapid development of multilateral international relations from a pedagogical point of view” 4 june, 2024.390-392-betlar
4. O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi. (2021). O'zbekiston Respublikasida maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish konsepsiyasi. Toshkent.
5. McGuinness, C. (2021). The role of questioning in developing critical thinking skills in early childhood. International Journal of Early Years Education, 29(3), 212-225.
6. Vygotsky, L. S. Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. Cambridge, MA: Harvard University Press, 1978.
7. Johnson, D. W., & Johnson, R. T. Learning Together and Alone: Cooperative, Competitive, and Individualistic Learning. Boston: Allyn & Bacon, 1994.
8. Shadiev, R. & Usmonova, D. Maktabgacha yoshdagi bolalarda tafakkur va nutq rivojlanishi. Toshkent: Pedagogika, 2018.
9. Karimov, A. Maktabgacha ta’limda tanqidiy fikrlashni rivojlantirish metodlari. Toshkent: Fan va Ta’lim, 2020.
10. Paul, R., & Elder, L. Critical Thinking: Tools for Taking Charge of Your Learning and Your Life. Pearson, 2006.

11.

ERKIN IQTISODIY ZONALAR IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHNING ASOSIY OMILI SIFATIDA

Iminov Zafarjon Maxammatibroximovich
Katta o‘qituvchi, Qo‘qon universiteti Andijon filiali
e-mail: z.iminoff@yandex.com
Iminova Odinaxon Shavkatbekovna, magistrant
Magistrant, Turon universiteti Andijon filiali

Annotatsiya: Maqolada erkin iqtisodiy hududlarning iqtisodiy roli ochib berilgan. Erkin iqtisodiy zonalarning o‘ziga xos jihatlari va iqtisodiy mexanizmlari, shuningdek ushbu hududlarni rivojlantirishda davlat tomonidan amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar va kafolatlar, hudud ishtirokchilari uchun yaratiladigan imkoniyatlar yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Erkin iqtisodiy zonalar, iqtisodiy rivojlanish, imtiyozlar, kafolatlar, imtiyozlar, eksport, investitsiyalar, anklav.

Аннотация: В статье раскрывается экономическая роль свободных экономических зон. Освещены особенности и экономические механизмы деятельности свободных экономических зон, а также меры и гарантии, реализуемые государством при их развитии, и возможности, создаваемые для участников зоны.

Ключевые слова: Свободные экономические зоны, экономическое развитие, льготы, гарантии, привилегии, экспорт, инвестиции, анклав.

Abstract: This article explores the economic role of free economic zones. It highlights the characteristics and economic mechanisms of free economic zones, as well as the measures and guarantees implemented by the state during their development, and the opportunities created for zone participants.

Key words: Free economic zones, economic development, benefits, guarantees, privileges, export, investment, enclave.

Erkin iqtisodiy hudud xo‘jalik yuritishning nisbatan yangi shakllaridan biri bo‘lib, xalqaro maydonda 1950 – yillarning oxiri va 60 – yillarning boshlarida paydo bo‘lgan. 1970 - yillarning o‘rtalariga kelib esa jahon maydonida keng ommalasha boshladi. Bunday hududlar dastlab sanoat ishlab chiqarishi rivojlangan mamlakatlar hisoblangan – AQSH, Yaponiya, Germaniya va Buyuk Britaniyada keyinchalik esa Polsha, Vengriya, Bolgariya kabi mamlakatlarda tashkil yetildi. Jaxon tajribasidan ma’lumki erkin iqtisodiy hududlar dastlab daryo va dengiz portlarida, xalqaro aeraportlarda, temir va avtomobil yo‘llariga yaqin joylarda, sayyohlik va alohida olingan sanoat markazlarida tashkil yetilgan. Chunki tovar moddiy boyliklarni chet el bozorlariga olib chiqishda va chet el investitsiyalarini iqtisodiyotga jalb yetishda erkin iqtisodiy hududlarning roli muhim ahamiyat kasb etadi. Xalqning farovonligi, xayotning ko‘rkamlashib borishi, ko‘p jixatdan shu mamlakat erkin iqtisodiy hududlarining tashkil etilishi va muvaffaqiyatli faoliyat ko‘rsatishi bilan bog‘liqdir. Chunki bunday holatlarni iqtisodiyoti rivojlangan va erkin iqtisodiy hududlar tashkil etgan mamlakatlar faoliyatida ko‘plab kuzatish mumkin. Negaki qaysi mamlakatda chet el investorlari va tadbirkorlar faoliyati uchun keng imtiyozlar yaratilsa, ularning o‘zlarini tiklab olishlari uchun amaliy yordam berilsa va imkoniyatlar yaratilsa – investitsiya miqdori ham, tadbirkorlikning ishchanlik qobilyati ham o‘sha yerda yuqori bo‘ladi. [1,8]

Erkin iqtisodiy hudud xaqida tushuncha birinchi marta 1973 yil 18 maydagi Kioto konvetsiyasida berilgan. Unga ko‘ra **erkin iqtisodiy hudud deb – mamlakatning bir qismini ya’ni tovarlar importi va eksportini, bojxona va soliq cheklovlarisiz olib kirish mumkin bo‘lgan hududga** aytiladi.

Xozirgi kunda dunyoda 5000 dan ortiq turli ko‘rinishdagi erkin iqtisodiy hudud mavjud. Bular orasida ayniqsa, Xitoy, AQSH, Janubiy Koreya, Rossiya davlatlari tajribasi alohida ko‘rsatish mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi 1996 yil 25 aprelda qabul qilingan “Erkin iqtisodiy hudud to‘g‘risida”gi qonunning 1 – moddasida esa quydagicha tarif berilgan: - **“Erkin iqtisodiy hududlar deb – mintaqani jadal ijtimoiy iqtisodiy rivojlantirish uchun ichki va tashqi kapitalni, istiqbolli texnologiyalar va boshqaruvga oid tajribalarni jalb etish maqsadida tuziladigan, aniq belgilangan ma’muriy chegaralari va alohida xuquqiy tartiboti bo‘lgan maxsus ajratilgan hududga aytiladi”.**

O‘zbekiston Respublikasida erkin iqtisodiy hududlarni barpo etish ishlari ilk bor “Erkin iqtisodiy zonalar to‘g‘risida”gi Qonun 1996 yil 26 aprel kuni qabul qilinishidan boshlandi. Shundan so‘ng, “Jizzax erkin iqtisodiy hududi” (1996 yil), “Samarqand” xalqaro turizm bo‘yicha maxsus ochiq iqtisodiy hudud (1997 yil) va Nukus shahrida erkin ishlab chiqarish hududi (1998 yil) barpo etildi. Ammo qonunni amaliyotda joriy etish bo‘yicha yetarli meyoriy hujjatlar ishlab chiqilmaganligi bu sohada zarur bo‘lgan tajriba va bilimning yetarli darajada bo‘lmaganligi hamda infrastukturalarning zaifligi kabi omillar bunday erkin iqtisodiy hududlarning samarali ishlashiga salbiy ta’sir ko‘rsatdi. Jahon iqtisodiyotidagi 2008 yildagi inqirozdan keyin ilk bor O‘zbekiston

Respublikasida erkin iqtisodiy hududlarni barpo etish bo‘yicha ishlar Janubiy Koreya bilan hamkorlikda muhokama etildi va «Navoiy» erkin iqtisodiy zonasi tashkil etildi. [2,6]

Hozirda O‘zbekistonda 22 ta erkin iqtisodiy zona faoliyat yuritmoqda. Ularda ro‘yxatdan o‘tgan rezidentlar O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 26.10.2016 yildagi PF-4853-son Farmoni, Soliq kodeksiga asosan:

yer solig‘i, daromad solig‘i, yuridik shaxslar mulk solig‘i, obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig‘i, mikrofirmalar va kichik korxonalar uchun yagona soliq to‘lovi, shuningdek, Respublika yo‘l jamg‘armasi va O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi budjetdan tashqari O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi ta’lim va tibbiyot muassasalarining moddiy-texnika bazasini rivojlantirish jamg‘armasiga majburiy ajratmalaridan;

bo‘shab qoladigan mablag‘larni yangi korxonalarni tashkil etish, shuningdek, mavjud ishlab chiqarishlarni modernizatsiyalash, rekonstruksiya qilish va texnik, texnologik qayta jihozlash, kengaytirish, ishlab chiqarish binolarini qurish, o‘z ishlab chiqarish ehtiyojlari uchun zarur xom ashyo va materiallar xarid qilishga maqsadli yo‘naltirgan holda o‘z ishlab chiqarish ehtiyojlari uchun olib kiriladigan uskunalar, xom ashyo, materiallar hamda butlovchi buyumlarni, mahsulot eksport qilinganda vujudga keladigan qo‘shilgan qiymat solig‘ining manfiy summasi qaytarilmasligi huquqi bilan bojxona to‘lovlaridan (bojxona rasmiylashtiruvi yig‘imlaridan tashqari);

mamlakatimizda ishlab chiqarilmaydigan va loyihalarni amalga oshirish doirasida O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va sanoat vazirligi huzuridagi «Loyihalar va import kontraktlarini kompleks ekspertiza qilish markazi» DUKning tovarlar ro‘yxatini kompleks ekspertiza qilish natijalari bo‘yicha ijobiy xulosasi bo‘lgan taqdirda chetdan keltiriladigan qurilish materiallarini bojxona to‘lovlaridan (bojxonada rasmiylashtirish yig‘imlari bundan mustasno) ozod etilgan.

Erkin iqtisodiy zonada imtiyozlar, kiritilgan investitsiyalar hajmiga qarab, 3 yildan 10 yil muddatgacha, jumladan:

300 ming AQSH dollaridan 3 million AQSH dollarigacha hajmdagi investitsiyalar — 3 yil muddatga;

3 million AQSH dollaridan 5 million AQSH dollarigacha hajmdagi investitsiyalar — 5 yil muddatga;

5 million AQSH dollaridan 10 million AQSH dollarigacha hajmdagi investitsiyalar — 7 yil muddatga;

10 million va undan ko‘p AQSH dollari hajmidagi investitsiyalar so‘nggi 5 yilda amaldagi stavkalardan 50 foiz kam hajmdagi daromad solig‘i va yagona soliq to‘lovi stavkalari qo‘llangan holda — 10 yil muddatga beriladi.

EIZda ishtirok etayotgan korxonalar erkin iqtisodiy zonalar faoliyati davomida eksportga yo‘naltiriladigan mahsulotlar ishlab chiqarish uchun olib kelinadigan xom ashyo, material va butlovchi buyumlar uchun bojxona to‘lovlari to‘lashdan (bojxona rasmiylashtiruvi yig‘imlaridan tashqari) ozod etiladi. [6,12]

Erkin iqtisodiy zonalar milliy iqtisodiyotga integratsiyalashuv darajasi bo‘yicha quyidagilarga ajratiladi:

- Milliy iqtisodiyotga integratsiyalashgan zonalar. Mo‘ljal: zonaga kirmagan milliy iqtisodiyot tarmoqlari bilan aloqalarni rivojlantirish, ular eksport ishlab chiqarish muammolarini yechish, ishlab chiqarish texnologik darajasini ko‘tarish, mahsulot sifatini oshirish, ichki iste’molni qoniqtirishda ko‘maklashish.
- Anklav (eksportga yo‘naltirilgan).

Maxsus iqtisodiy zonalar to‘g‘risidagi Qonunga ko‘ra mamlakatimizda:

- Maxsus iqtisodiy zonalar bo‘sh turgan va faoliyat ko‘rsatmayotgan davlat mulki ob’ektlari, ma’muriy-hududiy tuzilmalar hududlari negizida, shuningdek qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan erlarda tashkil etiladi.

- Maxsus iqtisodiy zona hududida joylashgan davlat mulki ob’ektlari mahalliy davlat hokimiyati organlarining o‘z vakolati doirasidagi qaroriga ko‘ra maxsus iqtisodiy zona direktsiyasiga davlat aktivlarini boshqarish bo‘yicha vakolatli organ bilan kelishgan holda operativ boshqaruvga berilishi mumkin, bundan xususiylashtirilmaydigan strategik davlat mulki ob’ektlari mustasno.

Davlat mulki ob’ektlari maxsus iqtisodiy zona direktsiyasiga maxsus iqtisodiy zona faoliyat ko‘rsatadigan butun davr uchun operativ boshqaruvga beriladi.

- Maxsus iqtisodiy zonalar turlari:
- erkin iqtisodiy zonalar;
- maxsus ilmiy-texnologik zonalar;
- turistik-rekreatsion zonalar;
- erkin savdo zonalari;
- maxsus sanoat zonalari.

O‘zbekiston uchun hozirda erkin iqtisodiy zonalarni tashkil etishda eksport masalasi ustuvor yo‘nalishga aylandi va 2025 yil 16-fevral kungi Prezidentimiz Sh.Mirziyayev tomonidan o‘tkazilgan videoselektorda ushbu vazifa qo‘yildi. Eksportga ishlovchi dastlabki bunday zona Namanganda tashkil qilinib, to‘qimachilikka ixtisoslashishi belgilab olindi.

Shuningdek hozirda turzim va sanoatni rivojlantirish masalalarida ham erkin iqtisodiy zonalardan foydalanish dolzarblikka aylanmoqda va istiqbolda Andijon viloyati Xonobod shahrida turistik, viloyatning Buloqboshi innovatsion tumani va Xo‘jaobod tumanlarida sanoat va turistik yo‘nalishlarda erkin iqtisodiy zonalar tashkil etilishi rejalashtirilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasida erkin iqtisodiy zonalarni 2020-2025 yillarda rivojlantirish konsepsiyasi. Manba: O‘zbekiston Respublikasi investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi ma’lumotlari asosida. Manba: https://mift.uz

2. Danko T.L. (1998) Svobodniye ekonomicheskiye zoni v mirovom xozyaystve// INFRA-M.-. S:168.

3. Mirzaliyeva S.S. (2001) Erkin iqtisodiy zonalarni rivojlantirishning xorij tajribasi: I.f.n. ilmiy darajasini olish uchun taqdim etilgan dissertatsiya Avtoreferati . Toshkent. TDIU. 8-bet.

4. Karimqulov J.I. (2019) Erkin iqtisodiy hududlarga xorijiy investitsiyalarni jalb qilishni rivojlantirish yo‘nalishlari. Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati. TMI. 24 b.

5. Mannopova Sh. (2021) Investitsion faollikni ta’minlashning nazariy-uslubiy asoslari “Xalqaro moliya va hisob” ilmiy jurnali. №2, aprel, 6-bet.

6. I.Z.Makhammatibrokhimovich. (2024) “Ways to develop population statistics and improve employment indicators in the republic of Uzbekistan”. Journal of education, ethics and value 3 (2), 55-57

INSON HUQUQLARIGA HURMAT — ADOLATLI JAMIYATNING POYDEVORI

Zayniddinova Vasila Bakievna
Muhammad Al-Xorazmiy nomidagi
Toshkent axborot texnologiyalari universiteti katta o’qituvchisi
e-mail: zayniddinovadilya@gmail.com

Annotatsiya: Inson huquqlari adolatli va adolatli jamiyatning asosi bo’lib, aholi tendentsiyalari va ijtimoiy natijalarni shakllantirishda hal qiluvchi rol o’ynaydi. Inson huquqlarini ilgari surish va himoya qilish insonlar qadr-qimmat, erkinlik va tenglikda yashashi mumkin bo‘lgan dunyoni rivojlantirish uchun zarurdir. Ushbu maqolada inson huquqlarining aholi dinamikasi va jamiyat natijalariga ta’sir etishdagi muhim roli va inson huquqlarini targ'ib qilish, adolatli jamiyatga olib kelishi mumkinligi ko'rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar: inson huquqlari, farmon, qonun, O’zbekiston Respublikasi, adolat, jamiyat, shaxs.

Abstract: Human rights are the foundation of a just and equitable society and play a crucial role in shaping population trends and societal outcomes. Promoting and protecting human rights is essential for developing a world in which people can live in dignity, freedom and equality. This article examines the important role of human rights in influencing population dynamics and societal outcomes, and how promoting human rights can lead to a just and equitable society.

Keywords: human rights, decree, law, Republic of Uzbekistan, justice, society, individual.

Аннотация: Права человека являются основой справедливого и равноправного общества и играют решающую роль в формировании демографических тенденций и социальных результатов. Поощрение и защита прав человека необходимы для развития мира, в котором люди могут жить достойно, свободно и равноправно. В данной статье рассматривается важная роль прав человека в динамике народонаселения и социальных результатах, а также то, как поощрение прав человека может привести к построению справедливого и равноправного общества.

Ключевые слова: права человека, указ, закон, Республика Узбекистан, правосудие, общество, личность.

Inson huquqlari nafaqat ma'naviy talab, balki jamiyatdagi ijobiy o'zgarishlarning harakatlantiruvchisi hamdir. Ijtimoiy adolatni targ‘ib qilish orqali inson huquqlarini targ‘ib qilish shaxslar va jamiyatlar hayotida sezilarli yaxshilanishlarga olib kelishi mumkin.

Inson huquqlari ijtimoiy adolatni ta'minlashda asosiy ahamiyatga ega, chunki ular odamlarga hurmat va hurmat bilan munosabatda bo'lishini ta'minlash uchun asos yaratadi. 1948 yilda Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan qabul qilingan Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi (UDHR) universal va ajralmas bo'lgan fuqarolik, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlarning keng doirasini belgilaydi. Ushbu huquqlarni targ'ib qilish orqali shaxslar va tashkilotlar yanada adolatli va adolatli jamiyat yaratish yo'lida harakat qilishlari mumkin.

Inson huquqlari ijtimoiy adolatni targ'ib qilishning ba'zi asosiy usullarini o'z ichiga oladi:

1. Aholining zaif qatlamlarini ekspluatatsiya va zo'ravonlikdan himoya qilish.
2. Tenglik va diskriminatsiyaga yo'l qo'ymaslik.
3. Ta'lim, sog'liqni saqlash va boshqa muhim xizmatlardan foydalanishni ta'minlash.
4. Shaxslar va jamoalarga qaror qabul qilish jarayonlarida ishtirok etish huquqini berish.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning 2017 yil 19 sentyabrda BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasidagi ma’ruzasini tinglagan davlatlar rahbarlari, dunyo jamoatchiligi O‘zbekistondagi inson huquqlarini himoya qilish borasidagi o‘zgarishlarga o‘z bahosini berdi. Bu esa, mamlakatda davlat, jamiyat va fuqarolarning Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining tamoyillari va qadriyatlariga e’tiborini kuchaytirish, inson huquqlari va erkinliklarini ishonchli himoya qilishni ta’minlashga qaratilgan samarali tadbirlar amalga oshirilayotganidan dalolatdir. Davlatimiz rahbari BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasi doirasida tuzilma rahbarlari bilan uchrashuvlari chog‘ida 2018 yilda Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi qabul qilinganining 70 yilligi munosabati bilan Samarqand shahrida inson huquqlari bo‘yicha Osiyo forumini o‘tkazish tashabbusini bildirganligi ham bejiz emas, albatta.

Inson huquqlari va erkinliklarini himoya qilishning samarali mexanizmini yaratish, inson huquqlari madaniyatini shakllantrish bo‘yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar samaradorligini oshirish, shuningdek, 2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishlari bo‘yicha Harakatlar strategiyasini ijro etish maqsadida 22 iyun 2020 yilda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Inson huquqlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasining milliy strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-6012-son Farmoni tasdiqlandi.

Ta’kidlash joizki, ushbu hujjatning tayyorlanishi jarayonida 50 dan ortiq davlat organlari va fuqarolik jamiyati institutlari tomonidan taqdim qilingan 200 dan ziyod taklif va mulohaza hisobga olindi. Farmonga muvofiq, Inson huquqlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasining milliy strategiyasi va uni amalga oshirish bo‘yicha “Yo‘l xaritasi” tasdiqlanadi.

2022 — 2026-yillarga mo‘ljallangan ”Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi” to‘g‘risida farmon tasdiqlandi. Ushbu strategiyada ko’plab sohalar qamrab olindi, ulardan ayrimlarni misol keltirish mumkin. Taraqqiyot strategiyasida ta’lim sifatini oshirish bo‘yicha belgilangan vazifalar doirasida 2022-yilda:

1. 1-apreldan boshlab nodavlat maktabgacha ta’lim tashkilotlari va maktablarga farzandlarini yuborayotgan ota-onalarning oyiga 3 million so‘mgacha bo‘lgan to‘lovlari daromad solig‘idan ozod etish.
2. o‘rta ta’lim tizimini zamon talablariga moslashtirish maqsadida, umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida darsliklarni yangilash dasturini amalga oshirish uchun Davlat budjetidan 605 mlrd so‘m ajratish, 141 mingta yangi o‘quv o‘rinlari yaratish va ularning soni 2026-yil yakuniga qadar 6,4 milliongacha yetkazish.

Hozirgi kundagi ijtimoiy hayotning barcha sohalaridagi islohotlarni hayotga muvaffaqiyatli tatbiq etishda xalqqa yuridik bilimlar berish, ya’ni jamiyatdagi ijtimoiy-huquqiy faollikning zaruriy shartlari bo‘lgan demokratik tamoyillarni kishilar ongiga chuqurroq singdirish muhim ahamiyat kasb etadi. Huquqiy tarbiya bu shaxsga nisbatan huquqiy ongni, shaxsning qonunga bo‘lgan xizmatini, qonunga itoatkor xulq-atvor ko‘nikmalari va odatlarini shakllantiruvchi uyushgan, bir tizimli, aniq maqsadni ko‘zlagan holda ta’sir etishdir. Inson huquqlari adolatli va adolatli jamiyatning asosi bo'lib, aholi tendentsiyalari va ijtimoiy natijalarni shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Inson huquqlarini himoya qilish orqali hukumatlar va fuqarolik jamiyati yanada barqaror va farovon dunyo yaratishi mumkin. Bunga erishish uchun inson huquqlarini siyosat va amaliyotga integratsiya qilish, aholi dasturlarining inson huquqlariga ta'sirini kuzatish va baholash muhim ahamiyatga ega.

Ushbu masalalarni ko’zda tuutgan holda yuqorida ko’plab farmonlar, qonunlar misol tariqasida ayrimlari keltirib o’tildi, asilida O’zkeiston Respublikasida inson huquqlariga katta e’tibor berish maqsadida bundan ko’proq qonun va farmonlar, qoidalar ishlab chiqiladi, jamiyatga tabdiq etiladi. Bu esa inson huquqlari ustunligi jamiyatni adalot bilan boshqaarishdan dalolatdir.

Foydanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. 2023-yilda qabul qilingan yangi tahrir. – Toshkent, 2023.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev. “Yangi O‘zbekiston strategiyasi”. – Toshkent: O‘zbekiston, 2022.
3. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 22.06.2020 yildagi “Inson huquqlari bo’yicha O‘zbekiston Respublikasining Milliy strategiyasini tasdiqlash to’g’risida”gi PF-6012-sonli Farmoni.
4. “Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi” (Nyu-york 10.12.1948 yil) BMT Bosh Assambleyasining 10.12.1948 yildagi 217 A (III) ko’rsatmasi asosida https://www.un.org.
5. . “Irqiy kamsitishning barcha shakllariga barham berish haqidagi Konvensiya” BMT Bosh Assambleyasining 20.11.1963 yildagi 1904/XVSH/rezolyutsiyasi asosida https://www.un.org, https://.unic.un.org/.

AXLOQIY QADRIYATLAR VA ULARNING JAMIYATDAGI O‘RNI

Zayniddinova Vasila Bakievna

Muhammad Al-Xorazmiy nomidagi

Toshkent axborot texnologiyalari universiteti katta o’qituvchisi

e-mail: zayniddinovadilya@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada ma'naviy-axloqiy qadriyatlar va ularning jamiyatning ijtimoiy barqarorligiga qo'shgan hissasi tahlil qilinadi. Maqolada ma'naviy qadriyatlar va axloqiy me'yorlar jamiyat hayotining turli jabhalariga, jumladan, fuqarolarning huquqiy g'oyalari, oilaviy qadriyatlari va ijtimoiy adolat tuyg'usini shakllantirishga qanday ta'sir qilishi ko'rib chiqiladi.

Shuningdek, jamiyatdagi adolatsizlik va korruptsiyaga qarshi kurashda axloqiy qadriyatlar qanday yordam berishi va ularning ijtimoiy muhitni yaxshilashdagi ahamiyati tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: Axloqiy qadriyatlar, halollik, adolat, mehr-oqibat, hurmat, mas’uliyat, vijdonlilik, yoshlar tarbiyasi, diniy manbalar, milliy urf-odatlar, Farobiy at’limoti, Konfutsiy ta’limoti.

Abstract: This article analyzes spiritual and moral values and their contribution to the social stability of society. The article examines how spiritual values and moral standards affect various aspects of society's life, including the formation of citizens ' legal ideas, family values and a sense of social justice. It also analyzes how moral values help in the fight against injustice and corruption in society and their importance in improving the social environment.

Keywords: Moral values, honesty, justice, kindness, respect, responsibility, conscientiousness, youth education, religious sources, national customs, Farabi doctrine, Confucian doctrine.

Аннотация: В данной статье будут проанализированы духовно-нравственные ценности и их вклад в социальную стабильность общества. В статье рассматривается, как духовные ценности и этические нормы влияют на различные аспекты жизни общества, в том числе на формирование у граждан правовых представлений, семейных ценностей, чувства социальной справедливости. Также будет проанализировано, как моральные ценности помогают бороться с несправедливостью и коррупцией в обществе и их значение для улучшения социальной среды.

Ключевые слова: Нравственные ценности, честность, справедливость, доброта, уважение, ответственность, добросовестность, воспитание молодежи, религиозные источники, национальные традиции, учение Фараби, учение Конфуция.

Qadriyat voqelikdagi muayyan hodisalarning umuminsoniy, ijtimoiy-axloqiy, madaniy-ma’naviy ahamiyatini ko‘rsatish uchun qo‘llanadigan tushuncha. Inson va insoniyat uchun ahamiyatli bo‘lgan barcha narsalar, masalan, erkinlik, tinchlik, adolat, ijtimoiy tenglik, ma’rifat, haqiqat, yaxshilik, go‘zallik, moddiy va ma’naviy boyliklar, an’ana, urf-odat va boshqalar qadriyatlar hisoblanadi.

Axloqiy qadriyatlar shaxsning xulq-atvorini tartibga soluvchi xulq-atvor ko'rsatmalari. Birinchi navbatda, axloqshunoslik axloqiylikni o'rganadigan va individual va ijtimoiy darajada qo'llaniladigan axloqiy tizimning tahlilini olib boradigan falsafaning bo'limi.

Eng dolzarb axloqiy qadriyatlarni eslatib o‘tish mumkin: adolat, erkinlik, hurmat, javobgarlik, halollik, sadoqat, halollik, tenglik va boshqalar.

Axloqiy qadriyatlar har bir insonning individual rivojlanishi jarayonida oilada, ijtimoiy, maktab sharoitida va hatto ommaviy axborot vositalari orqali tajribaga ega bo'ladi.

Axloqiy qadriyatlar shaxsning shaxsiyati, ijobiy yoki salbiy qiyofasini, ularning xulq-atvori natijasida namoyon bo'ladi. Shuningdek, odamda bo'lgan ishonch, his-tuyg'ular va qiziqishlarni qadrlash mumkin.

Masalan, adolat va erkinlik uchun kurashadigan shaxs, ijobiy deb hisoblangan qadriyatlar odil insonning aksidir. Ammo, aks holda, inson bu qadriyatlarga beparvo munosabatda bo'lib, adolatsizliklarni bir oz qo'llab-quvvatlaydi.

Shuning uchun axloqiy qadriyatlar jamiyatdagi jamoaviy farovonlik va uyg'un va tinch hayotga erishish uchun shaxsning xatti-harakatlarini tartibga solishga imkon beradi.

Muhim axloqiy qadriyatlar:

1. Nisbiy axloqiy qadriyatlar. Axloqiy qadriyatlar har bir shaxsning qarashlari nuqtai nazaridan nisbiy bo'lishi mumkin. Masalan, bir kishi uchun o'z ish joyiga o'z vaqtida etib borish mas'uliyat bilan sinonimdir. Biroq, boshqasi uchun bu holat dolzarb narsa deb hisoblanmaydi, shuning uchun ular ishlariga kech kelishlari va mas'uliyatsiz bo'lishlari mumkin. Shu sababli, fikrlarni baham ko'rmaydigan yoki boshqalarning turli xil qarashlarini hurmat qiladigan odamlar ko'pligini eslatib o'tish lozim. Ya'ni, kimdir uchun axloqiy yoki ijobiy munosabat, boshqalarga tegishli bo'lishi shart emas.
2. Mutlaq axloqiy qadriyatlar. Axloqiy qadriyatlar butun jamiyat tomonidan odatlanadigan odat yoki odat deb hisoblanganligi tufayli ham mutlaq bo'lishi mumkin. Ular sub'ektiv emas va

ularning ma'nosi shaxsiy yoki jamoaviy tajribalardan tashqari o'zgarmaydi. Ya'ni, umuman olganda va odamlar o'rtasidagi mavjud madaniy farqlardan tashqarida, biz hammamiz birdamlik yoki hurmat nima ekanligini tushunishga, shuningdek, yaxshi yoki yomon deb hisoblangan harakatlarni aniqlashga qodirmiz. Masalan, samimiylik nima ekanligini ular atrofdagilar bilan amalda qo'llagan-qilmaganligidan qat'i nazar, hamma biladi yoki tan oladi.

Jamiyatda yuksak axloqli shaxslar sonining ko'payishi ijtimoiy muammolarga qarshi turish qobiliyatini sezilarli darajada oshiradi. Yuksak ma'naviyatli insonlar hayotga qarashlari, qaror qabul qilish jarayonlari va munosabatlari orqali boshqalarga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Bunday shaxslar adolatli, halol va bag'rikeng bo'lib, jamiyatdagi turli ijtimoiy muammolarga samarali yechim topishga yordam beradi. Ma'naviy qadriyatlar odamlarni bir-biriga hurmat va tushunish ruhida tarbiyalash orqali jamiyatdagi nizo va nizolarni kamaytirishga yordam beradi. Shu bilan birga, yuksak ma'naviyatli shaxslar jamiyatdagi adolatsizlik va korrupsiyaga qarshi kurashda faol ishtirok etib, o'z axloqiy me'yor va tamoyillariga sodiq qoladilar. Binobarin, ular jamiyatdagi o'zgarish va islohotlarda ishtirok etib, ijtimoiy barqarorlik va adolatni ta'minlashda muhim o'rin tutmoqda.

Konfutsiy ta'limotining markazida axloq dastlabki o'rinlarda turadi. Biz buni ko'plab g'oyalari orqali o'qishimiz mumkin. "O'zingga ravo ko'rmaganni o'zgaga ham ravo ko'rma". Bu shior Konfutsiy g'oyasining markazida turadi. "Yuqori axloqli inson aslo yolg'iz bo'lmas, uning albatta, o'z yaqinlari bo'lur". Bundan ko'rinadiki, axloqli inson faqat o'zini emas, yaqin insonlari bilan ham birga bo'lishi va har doim o'zgalarni ham o'ylaydigan yuksak fazilat egasidir.

Konfutsiy axloqiy qadriyatlar tanazzulga yuz tutayotgan va ma'naviy tanazzul boshlangan bir paytda an'analarga qat'iy amal qilishga asoslangan g'oyalari bilan ovozini baland ko'tardi. U o'z hayoti va g'oyalari bilan jamiyat ahvolini yaxshilashga intildi. U o'z hukmdorlarini va xalqini azaldan mavjud bo'lgan va olijanob munosabat bilan o'zini isbotlagan ijtimoiy tamoyillarga qaytishga, o'zini va hayotini shu odatlar asosida shakllantirishga chaqirdi. Shu nuqtayi nazardan uning fikrining mazmun-mohiyati quyidagicha ifodalanadi: Qadimgilar saltanatda ma'rifatli fazilatni ochib bermoqchi bo'lganlarida, avvalo, davlatni tartibga solganlar, davlatni tartibga solmoqchi bo'lsalar, avvalo, uylarini tartibga solib qo'ydilar. Ular uylarini tartibga solmoqchi bo'lganlarida, ular birinchi navbatda o'zlarining shaxsiyatlarini mukammal qildilar. Ular o'zlarining shaxsiyatlarini mukammallashtirishni xohlaganlarida, birinchi navbatda, qalblarini halol qildilar.

Konfutsiy xalqning, avvalo, ta'lim-tarbiya orqali, so'ngra mana shu ta'lim va saylanishni isbotlash orqali o'z fazilatini da'vo qilishini, nafaqat hukmdorga, balki jamiyat va insoniyatga ham xizmat qilishini istardi. U zodagonlar tushunchasi va qon yoki merosga asoslangan boshqaruv emas, balki axloq, bilim, qobiliyat va iste'dodga asoslangan tuzumni orzu qilgan.

Farobiyning adolat, axloq va ijtimoiy uyg'unlik haqidagi qarashlari insoniyatning axloqiy va ijtimoiy rivojlanishiga katta hissa qo'shgan. Uning falsafiy qarashlari orqali inson va jamiyatning ideal holatini izlash, adolatli va axloqli jamiyat qurishning yo'llari ko'rsatilgan. Farobiy adolatni insoniyatning eng oliy qadriyati sifatida ko'rib, uni jamiyatning asosiy ustuni deb hisoblagan. Uning fikricha, adolat – bu har bir insonning huquq va majburiyatlarini to'g'ri taqsimlanishi, hamda barcha ijtimoiy munosabatlarda tenglik va halollikni ta'minlashdir.

Farobiy adolatni ikki asosiy jihatni kletiradi:

1. Individual adolat – bu insonning o'ziga nisbatan adolatli bo'lishi, ya'ni o'zining aqliy, ruhiy va jismoniy qobiliyatlarini to'g'ri yo'naltirishi. Farobiyning fikricha, inson o'zini bilishi, o'z qobiliyatlarini rivojlantirishi va ularni to'g'ri yo'naltirishi orqali adolatga erisha oladi. Uning fikricha, inson o'zining ichki dunyosida adolatni ta'minlash orqali tashqi dunyoda ham adolatli munosabatlar qurishi mumkin.

2. Ijtimoiy adolat – bu jamiyatda barcha a'zolar huquq va imkoniyatlar tengligi asosida yashashi. Farobiyning fikricha, adolatli jamiyat – bu barcha insonlar o'z qobiliyatlariga mos ravishda rivojlanishi va jamiyatning umumiy farovonligiga hissa qo'shishi mumkin bo'lgan muhitdir. U adolatni ta'minlashda davlatning muhim rolini ta'kidlaydi. Farobiyning fikricha, davlat rahbari adolatli, dono va axloqiy jihatdan mukammal bo'lishi kerak. Bunday rahbar jamiyatning barcha a'zolarining manfaatlarini hisobga olib, adolatni ta'minlashi mumkin.

Xulosa qilib aytganda esa, Axloqiy qadriyatlar jamiyatda muhim rol o'ynaydi, ular nafaqat shaxsni yaxshi fuqaro qilib tarbiyalashda, balki ijtimoiy barqarorlik va adolatni ta'minlashda ham asosiy omil hisoblanadi; Ana shu qadriyatlar tufayli odamlar o‘z imkoniyatlarini to‘la ro‘yobga chiqarmoqda, turli ijtimoiy muammolarni hal etishda faol ishtirok etmoqda. Yuqori ma’naviyat va axloqiy me’yorlar shaxslararo ziddiyatlarni kamaytirish va yarashuvga ko‘maklashishda muhim rol o‘ynaydi. Bu qadriyatlar odamlarni bir birini tushunish va hurmat qilishga undaydi, bu turli qarashlar va fikrlar o'rtasidagi tafovutlarni bartaraf etishda samarali vositadir. Ma'naviy yuksak shaxslar umumiy manfaatni shaxsiy manfaatlaridan ustun qo'yishga moyil bo'lib, bu ularni boshqalar bilan konstruktiv muloqot qilishga va kelishmovchiliklarni tinch yo'l bilan hal qilishga undaydi. Shuningdek, ma'naviy qadriyatlar odamlarga sabr-toqatli bo'lishga va o'zaro kelishuvlarga erishish uchun zarur bo'lgan ufqlarini kengaytirishga yordam beradi. Bu, o‘z navbatida, jamiyatda murosa muhitini shakllantirishga xizmat qilmoqda Qadriyatlar shaxslarning o'zini va o'z atrofidagi dunyoni qanday tushunishini shakllantirishda va o'z harakatlarini yo'naltirishda qanday qilib yordam berishi muhimdir. Bu qadriyatlar turli ijtimoiy, siyosiy va iqtisodiy vaziyatlarda muhim rol o'ynaydi va jamiyatning barqarorligini ta'minlashda yordam beradi[5]. Kuchli ma’naviy-axloqiy qadriyatlarga ega jamiyatlar ijtimoiy adolatsizlik va korruptsiyaga qarshi kurashda samaraliroqdir. Ushbu turdagi jamiyat odatda yuqori darajadagi fuqarolik mas'uliyati, shaffoflik va hisobot berish madaniyatiga ega jamiyat hisoblanadi. Axloqiy qadriyatlar odamlarni o'z vazifalarini vijdonan bajarishga undaydi, bu esa ularni korruptsiya va adolatsizlikka qarshi turishga tayyor qiladi. Jamiyatda axloqiy qadriyatlar rivojlangan bo'lsa, odamlar adolatsizlik va adolatsizlikni ochiqchasiga tanqid qilish va gapirishga moyil bo'ladi. Shu bilan birga, kuchli ma'naviy va axloqiy qadriyatlarga ega jamiyatlar o'z a'zolarini korrupsiyaga qarshi kurashda faol ishtirok etishga undaydi, bu nafaqat shaxslar, balki butun jamiyat manfaatlarini himoya qilishga yordam beradi. Demak, yuksak ma’naviy-axloqiy me’yorlarga asoslangan jamiyatlar o‘z a’zolarining hayot sifatini oshirishga qaratilgan ko‘plab ijtimoiy muammolarni samarali hal etishda muhim o‘rin tutadi. Ana shu qadriyatlar tufayli jamiyatda adolat va tenglik g‘oyalari mustahkamlanib, fuqarolarning huquq va erkinliklari himoya qilinmoqda.

Foydanilgan adabiyotlar

1. A.Sharma. A Decade Of Research On Moral Values: Trends And Insights. International Journal of Creative Research Thoughts, Volume 12, Issue 3, March 2024, ISSN: 2320-2882, www.ijcrt.org. pp-518-527.
2. Abu Nasr Farobiy. “Fozil odamlar shahri”, Toshkent “Abdulla Qodiriy nomidagi Xalq merosi”, 1993.
3. Abu Nasr Farobiy. “Aflotun qonunlari mohiyati haqida”, Toshkent “Xalq merosi”, 1993.
4. Jurayev, S. S. U. (2021). Abu Ali ibn Sinoning falsafiy qarashlarida axloq masalasi va uning bugungi kundagi ahamiyati. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 1(3), 11-14.
5. Jurayev, S. S. U. (2024). ”Farobiy falsafasida inson shaxsi va axloqiy fazilatlari to‘g‘risida”, oriental renaissance: innovative, educational, natural and social sciences, 4(11), dek.

O‘ZBEKISTONNING MODDIY VA NOMODDIY MADANIY MEROSI: HOLATI VA ISTIQBOLLARI

Boymatova Zulxumorxon Anvarjonovna
Qo‘qon universiteti Andijon filiali
Tarix va ijtimoiy fanlar kafedrasi o‘qituvchisi
Zulxumorxonboymatova41@mail.ru

Annotatsiya: Mazkur maqola O‘zbekistonning moddiy va nomoddiy madaniy merosini saqlash va rivojlantirish masalalariga bag‘ishlangan. Maqolada madaniy merosni saqlash va rivojlantirishda zamonaviy texnologiyalarning o‘rni, madaniy turizmning ahamiyati va yosh avlodni madaniy qadriyatlarni o‘rganishga jalb qilish zarurligi haqida so‘z boradi. O‘zbekistonning madaniy merosini saqlashda xalqaro hamkorlik va ilmiy tadqiqotlarning roli ham muhokama qilinadi.

Kalit so‘zlar: Moddiy madaniy meros, Nomoddiy madaniy meros, Madaniy turizm, Raqamlashtirish, Konservatsiya, Tarixiy obidalar, Madaniy qadriyatlar, Madaniy an’analar, O‘zbekiston

Abstract: This article is dedicated to the preservation and development of Uzbekistan's tangible and intangible cultural heritage. The article discusses the role of modern technologies in the preservation and development of cultural heritage, the importance of cultural tourism, and the necessity of involving the younger generation in learning about cultural values. The role of international cooperation and scientific research in preserving Uzbekistan’s cultural heritage is also discussed.

Keywords: Tangible cultural heritage, Intangible cultural heritage, Cultural tourism, Digitization, Conservation, Historical monuments, Cultural values, Cultural traditions, Uzbekistan

Аннотация: Данная статья посвящена сохранению и развитию материального и нематериального культурного наследия Узбекистана. В статье обсуждаются роль современных технологий в сохранении и развитии культурного наследия, важность культурного туризма и необходимость вовлечения молодежи в изучение культурных ценностей. Также обсуждается роль международного сотрудничества и научных исследований в сохранении культурного наследия Узбекистана.

Ключевые слова: Материальное культурное наследие, Нематериальное культурное наследие, Культурный туризм, Цифровизация, Консервация, Исторические памятники, Культурные ценности, Культурные традиции, Узбекистан

Madaniy meros — bu xalqning tarixiy, madaniy, ilmiy, san’atkorlik va ma’naviy yutuqlarining jamlanmasi bo‘lib, har bir millat uchun uning o‘zlikni, tarixni va qadriyatlarni anglashida asosiy ahamiyatga ega. Har bir davlat va jamiyat o‘zining o‘tmishini, an’analari va madaniyatini asrashga intilishi, kelajak avlodlarga yetkazish uchun mas'uliyatni his qilishi kerak. Bunday boy va rang-barang meros nafaqat bir xalqning, balki butun insoniyatning umumiy yutug‘i sifatida qadrlanadi. Shunday ekan, madaniy merosni saqlash va rivojlantirish jarayonlari jamiyatning barqarorligi, ma’naviy va ijtimoiy taraqqiyotining ajralmas qismiga aylanishi zarur.

O‘zbekistonning moddiy va nomoddiy madaniy merosi, shu jumladan, uning saqlanishi va rivojlanishi bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar va adabiyotlar keng tarqalgan. Ular, asosan, tarixiy obidalar, san’at asarlari, xalq urf-odatlari, madaniy an’analar va boshqa ko‘plab sohalarda o‘rganilgan. Quyida ushbu sohalardagi asosiy adabiyotlar tahlil qilinadi.

O‘zbekistonning moddiy madaniy merosi, xususan, tarixiy obidalar, me'moriy yodgorliklar, arxeologik topilmalar haqida bir nechta muhim ilmiy ishlar mavjud. Masalan, B.Islomovning **Samarqand va Buxoro shaharlaridagi tarixiy obidalar va ularning saqlanishi** asarida Samarqand va Buxorodagi tarixiy obidalar va yodgorliklar tahlil qilinadi. Ushbu tadqiqotda, yodgorliklarning saqlanishidagi asosiy muammolar va ularni qayta tiklashga doir muhim amaliyotlar ta’kidlanadi.[1,3-b]

Shuningdek, asarda arxitektura obidalarining konservatsiya jarayonlari va ularga zamonaviy texnologiyalarni qo‘llash masalalari yoritilgan.[1,22-b] Ushbu manba, madaniy merosni saqlashda raqamli texnologiyalarning ahamiyatini o‘rganib, O‘zbekistonning tarixiy obidalarini raqamli formatda saqlash va ularni xalqaro miqyosda targ‘ib qilish imkoniyatlarini ko‘rsatadi.

O‘zbekistonning nomoddiy madaniy merosi, xususan, urf-odatlar, an’analar, til va adabiyot sohalari bo‘yicha ham ko‘plab ilmiy ishlar mavjud. D.Xasanovning “**O‘zbek adabiyoti va madaniy meros”** asarida xalqning xalqaro miqyosdagi madaniy merosi, xususan, o‘zbek adabiyoti va musiqasi, uning saqlanishi va rivoji haqida so‘z boradi. Adabiyotlar tahlili nomoddiy madaniy merosni asrashda, xalqning musiqiy va madaniy qadriyatlarini yosh avlodga yetkazishdagi dolzarb masalalarni ko‘rsatadi. M.Karimovning “**Nomoddiy madaniy meros va uning saqlanishi**” asarida esa o‘zbek tilining zamonaviy rivoji va uning madaniy meros sifatida ahamiyati haqida batafsil ma'lumotlar berilgan.[2,4-b]

Madaniy turizm va uning O‘zbekistonning moddiy va nomoddiy madaniy merosiga ta’siri bo‘yicha bir qator ilmiy maqolalar mavjud. Masalan, [8]da O‘zbekistonning tarixiy shaharlaridagi madaniy meros obidalariga turistlarning e'tibori va ularning iqtisodiy va madaniy rivojlanishga

qo‘shadigan hissasi tahlil qilinadi. Ushbu tadqiqotda madaniy turizmning o‘sishi va u orqali davlat iqtisodiyotining rivoji haqida ijobiy tahlillar keltirilgan.

O‘zbekistonning moddiy va nomoddiy madaniy merosi, uning boy tarixiy va madaniy qadriyatlari bilan nafaqat mamlakat, balki butun insoniyat uchun beqiyos ahamiyatga ega. O‘zbekistonda joylashgan tarixiy shaharlar va yodgorliklar, me'moriy inshootlar, xalq musiqasi, adabiyoti va urf-odatlari, ularning saqlanishi va kelajak avlodlarga yetkazilishi zarur bo‘lgan yirik madaniy xazinadir. Biroq, zamonaviy globalizatsiya jarayonlari, texnologik o‘zgarishlar va tabiiy ofatlar kabi omillar madaniy merosni saqlashni murakkablashtiradi, bu esa madaniy merosni asrashda yangi yondashuvlar va strategiyalarni ishlab chiqish zaruratini tug‘diradi.

Nomoddiy madaniy merosni saqlashda esa, xalqning urf-odatlari, adabiyoti va san’atiga bo‘lgan e’tibor yanada ortishi kerak. O‘zbekistonning o‘ziga xos madaniy qadriyatlari yosh avlodlar tomonidan o‘rganilishi, ularga ta’lim va madaniy dasturlar orqali yoshlarning qiziqishini oshirish zarur. Bu yo‘nalishda ta’lim tizimi va jamoatchilik bilan hamkorlik alohida ahamiyatga ega.

Adabiyotlar ro‘yxati

1.Islomov B. **Samarqand va Buxoro shaharlaridagi tarixiy obidalar va ularning saqlanishi.** Toshkent: O‘zbekiston Nashriyoti (2020).

2.Karimov M. **Nomoddiy madaniy meros va uning saqlanishi.** Tashkent: FAN. (2019).

3.Nizamov T. **Raqamli madaniyat va tarixiy obidalar**. Tashkent: O‘zbekiston Matbuoti (2021).

4.Akramov Sh. **O‘zbekistonning xalq musiqasi va folklori**. Toshkent: Madaniyat va san’at. (2018).

5.Xasanov D. **O‘zbek adabiyoti va madaniy meros**. Buxoro: Adabiyot nashriyoti. (2022).

6.Xolmatov F. **Madaniy turizm va O‘zbekistonning iqtisodiy rivojlanishi.** Toshkent: Iqtisodiyot nashriyoti. (2020).

YOSHLARNINR YOT G’OYALARGA QARSHI KURASHIDA “MAHALLALARDA YOSHLAR BILAN ISHLASH TIZIMI SAMARADORLIGINI OSHIRISHGA DOIR CHORA-TADBIRLAR TO‘G’RISIDA”GI PREZIDENT FARMONINING AHAMIYATI

Mukhtarova Tutixon

Toshkent davlat texnika universiteti dotsenti

Annotatsiya: Ushbu maqolada Prezident Farmonining amalga oshirilishini ta’minlashga, shu jumladan mamlakatimiz hududlarida barkamol avlodni shakllantirishga, ma’naviy, axloqiy va jismonan sog’lom yoshlarni tarbiyalashga, amalga oshirilayotgan islohotlarda faol ishtirok etishga qaratilgan chora-tadbirlar belgilab berilgan.

Kalit so‘zlar: diniy zo‘ravonlik, diniy qadriyatlar, barqarorlik, diniy erkinlik, mafkuraviy tahdidlar, ekstremizm, terrorizm, buzg'unchi g’oyalar.

Annotatsiya: The document outlines measures aimed at ensuring the implementation of the Presidential Decree, including the formation of a harmonious generation in the neighborhoods of our country, raising young people to be spiritually, morally and physically healthy, and making them active participants in the ongoing reforms.

Keywords: religious violence, religious values, stability, freedom of belief, ideological threats, extremism, terrorism, destructive ideas.

Аннотация: В документе обозначены меры, направленные на обеспечение реализации Указа Президента, в том числе на формирование гармоничного поколения в регионах нашей страны, воспитание духовно, нравственно и физически здоровой молодежи, ее активное участие в проводимых реформах.

Ключевые слова: религиозное насилие, религиозные ценности, стабильность, свобода вероисповедания, идеологические угрозы, экстремизм, терроризм, деструктивные идеи.

Yuqoridagi chora-tadbirlardan kozlangan asosiy maqsad, yoshlarning ong-u tafakkurini shakllantirish, diniy zo‘ravonlik va qon to‘kish bilan bir qatorga qo‘yadigan buzg‘unchi yot

g‘oyalarning asl mohiyati va maqsadlari haqida yoshlarning xabardorlik darajasini oshirish, jamiyatda milliy va diniy qadriyatlarimizga yot bo‘lgan g‘oyalarga nisbatan toqatsizlik muhitini shakllantirish, jamiyatda bag‘rikenglik, o‘zaro hurmat, mehr-oqibat, tinchlik va totuvlikni, ijtimoiy-ma’naviy muhit barqarorligini ta’minlashda diniy-ma’rifiy soha vakillarining daxldorlik hissi va ishtirokini yanada oshirish, globallashuv sharoitida jamiyatimizdagi ijtimoiy-ma’naviy muhit barqarorligi va e’tiqod erkinligiga tahdid tug‘dirishi mumkin bo‘lgan omillarni barvaqt aniqlash va oldini olishga qaratilgan axborot-tahliliy faoliyatni kuchaytirish, diniy va dunyoviy bilimlar uyg‘unligini rivojlantirish asosida maktab, oliy o‘quv yurti va mahalla hamkorligida ta’lim sifatini oshirishning yaxlit tizimini yaratish bo‘yicha barcha zarur choralar ko‘rilmoqda.

Shunday ekan, yosh avlodda mustaqil teran fikrlash, sog‘lom dunyoqarash va mustahkam iroda, qalbi va ongida sog‘lom hayot tarzi, milliy va umummilliy qadriyatlarga hurmat-ehtirom, mafkuraviy tahdidlarga qarshi doimo sergak, ogoh va hushor bo‘lib yashash tuyg‘usini bolalikdan shakllantirish lozimdir.

Bugungi globallashuv hamda texnika asrida yoshlarni chuqur bilimli, yuksak salohiyatli, mehnatsevar, halol va vatanparvar insonlar etib tarbiyalash har doimgidanda dolzarblashib bormoqda. Ayniqsa, yoshlar tarbiyasi va ongiga tahdidlar kuchayib borayotganini bular orasida eng dolzarbi, deyish mumkin.

Dunyoning turli mintaqalarida yuz berayotgan turli xunrezliklar, janjal-to‘polonlar, terrorchilik harakatlari, qonli to‘qnashuvlarning asosiy ishtirokchilari bu – yoshlar ekanligi shubhasiz. Achinarlisi, ularning aksariyati qilayotgan ishining maqsadini ham, ayanchli oqibatlarini ham anglab yetmayotganidadir. Shu o‘rinda, kelajagimiz egalari bo‘lgan bolalarimizni boshi berk ko‘chaga boshlayotganlar ularni o‘z domiga qanday ilintirmoqda?, degan o‘rinli savol tug‘iladi. Buning yo‘li, ayni internet zamonida anchayin osonlashgan. Bugun yoshlarning o‘rtasida turli saytlardan, ijtimoiy tarmoqlardan foydalanmaydigani yo‘q, mubolag‘a bo‘lmaydi. Ularning ko‘pchiligi sodda, g‘o‘r, hali hayotning baland-pastini ko‘rib, oq-qorani tanib ulgurmagani, hoyu havaslarga o‘chligi esa nopok niyatli kimsalar uchun ayni muddao bo‘lmoqda. Mana shunday murakkab va tahlikali zamonda yoshlarni o‘z holiga tashlab qo‘yish, ularni begonalar qo‘liga topshirish, ertamiz egalarining dushman quroliga aylanishiga shart-sharoit yaratish, deganidir. [1]

Bugungi globallashuv davrida yoshlarni ma’naviy tahdidlardan asrash masalalariga katta e’tibor qaratish zarur. Shuningdek, ma’naviy tahdid tushunchasi, uning turli yo‘llar bilan kirib kelishi, yoshlar tarbiyasiga ko‘rsatayotgan salbiy ta’siri hamda ma’naviy tahdidlarning oldini olishga qaratilgan tarbiyaviy ishlarni maktablarda, oliy o‘quv yurtlarida, mahallalarda kuchaytirib, uni yangi pog‘onalarga ko‘tarish zarur. Bunday ishlarni amalga oshirishda nimalarga e’tibor qaratish kerak?

- yosh avlod ongiga Vatanga sodiqlik va uning taqdiri uchun daxldorlik hissini, shuningdek, ularda yot g‘oya va qarashlarning salbiy ta’siriga nisbatan mafkuraviy immunitetni shakllantirishga qaratilgan chora-tadbirlarni yetarli darajada samara bermayotganligi;

- milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik, diniy bag‘rikenglik va millatlararo totuvlikni mustahkamlash, shuningdek, ekstremizm, terrorizm va boshqa buzg‘unchi g‘oyalarga nisbatan murosasizlikni shakllantirish yuzasidan maktab, oliy ta’lim va mahallalar va jamoat tashkilotlarining hamkorlik faoliyati talab darajasida emasligi;

- o‘quvchi-oshlarning bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etish uchun zarur bo‘lgan madaniy-ko‘ngilochar obyektlar, maktabdan tashqari ta’lim muassasalari, shu jumladan, joylarda turli ijodiy va ta’lim to‘garaklari, sport seksiyalarining yetishmasligi bolalarning sog‘lom ruhda tarbiyalanishiga va to‘g‘ri hayot yo‘lini tanlashiga salbiy ta’sir ko‘rsatayotganligi;

- o‘qituvchi va murabbiylarning ijtimoiy mavqeyi va nufuzi pasayib ketganligi, ularni moddiy va ma’naviy rag‘batlantirish tizimi bugungi kun talabiga mutlaqo javob bermaslik holatlari yosh avlodni o‘qitish va tarbiyalash hamda mustaqil dunyoqarashini shakllantirish borasida jiddiy muammolarni keltirib chiqarayotganligi;

- yoshlarning oliy ta’lim muassasalariga qamrab olinish darajasi pastligi, yetakchi xorijiy oliy ta’lim muassasalari bilan o‘zaro hamkorlik yetarlicha yo‘lga qo‘yilmaganligi malakali

kadrlarning yetishmasligiga va olib borilayotgan islohotlardan ko‘zlangan maqsadga to‘liq erishilmasligiga sabab bo‘layotganligi;

- sohada qonun buzilishi holatlarining saqlanib qolayotganligi, shu jumladan, yoshlarni qo‘llab-quvvatlashga ajratilayotgan mablag‘larning maqsadli sarflanishida nazoratning yetarli darajada emasligi tizimli muammolarni yuzaga chiqarmoqda.

Qayd etilgan muammolarni bartaraf etish, yosh avlodni tarbiyalash borasidagi ishlarni yanada takomillashtirish, ta’lim-tarbiya sifatini mazmun jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish, o‘qituvchilik kasbining nufuzini oshirish maqsadida, shuningdek, 2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasiga muvofiq, quyidagi ustuvor yo‘nalishlarni nazarda tutuvchi Yoshlarni ma’naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta’lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi ishlab chiqildi:

- yuksak ma’naviyatli, qat’iy hayotiy pozitsiya, keng dunyoqarashga ega bo‘lgan fidoiy va vatanparvar yoshlarni tarbiyalash;
- yoshlarni yot g‘oyalar ta’siridan himoya qilish, ularni milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik, diniy bag‘rikenglik va millatlararo totuvlik ruhida tarbiyalash;
- pedagog xodimlarning qadr-qimmati va nufuzini oshirish, ularning moddiy-ma’naviy va ijtimoiy himoyasini kuchaytirish;
- yoshlarning huquqiy madaniyatini yuksaltirish, ular o‘rtasida huquqbuzarliklar va jinoyatlar sodir etilishining oldini olish;
- yoshlar jismoniy tarbiya va sport bilan muntazam shug‘ullanishi uchun shart-sharoitlar yaratish, ular o‘rtasida sog‘lom turmush tarzini shakllantirish;
- o‘quvchi-oshlarni ijtimoiy muhofaza qilish, ijtimoiy ehtiyojmand oilalar farzandlarini moddiy va ma’naviy qo‘llab-quvvatlash [2].

Bularning barchasi yoshlarning ma’naviy kamolotini oshirishda va ularning malakali kadrlar bo‘lib yetishishlarida muhim ahamiyat kasb etadi. Hozirgi kunda, ya’ni jamiyat hayotining modernizatsiyalashish sharoitida jamiyatda ma’naviy sohada quyidagi vazifalarni bajarishimiz lozim:

- yoshlarimizni ma’naviy yangilanish va islohotlar jarayonining faol ishtirokchisiga aylantirish, ularning kuch va salohiyatini ijtimoiy hamkorlik va millatlararo totuvlik, diniy bag‘rikenglik kabi ezgu maqsadlarga xizmat qildirish, ma’naviyatning kuch-qudratidan ezgu maqsadlar yo‘lida samarali foydalanish, ijtimoiy munosabatlarni insoniylik g‘oyalari asosida rivojlantirish;
- turli qarash va fikrga ega bo‘lgan ijtimoiy qatlamlar, siyosiy kuch va harakatlarning o‘ziga xos orzu-intilishlarini uyg‘unlashtiruvchi g‘oyalar Vatan ravnaqi, yurt tinchligi, xalq farovonligi barcha yurtdoshlarimiz uchun muqaddas maqsadga aylanishiga erishish, ko‘ppartiyaviylik va plyuralizm tamoyillariga amalda rioya qilgan holda milliy hamjihatlikni yanada mustahkamlash;
- ota-bobolarimiz dinining gumanistik mohiyatini keng jamoatchilikka tushuntirish borasidagi ishlarni davom ettirish, din xalqimizning ming yillik tarixi, bugungi ma’naviy hayotimizning asosi, Alloh doimo qalbimizda, yuragimizda ekanligining yurtdoshlarimiz ongiga singdirib borish. Buning uchun, avvalo:
- ommaviy axborot vositalarida milliy ma’naviyatimiz aks etgan turli xil sifatli hamda qiziqarli raqobatbardosh ko‘rsatuvlar, seriallar, kino va badiiy filmlar namoyishini omma e’tiboriga taqdim qilish;
- raqobatbardosh telekanallarni ko‘paytirib, haqiqiy raqobat maydonini vujudga keltirish;
- internet tizimidan foydalangan holda milliy saytlar ko‘paytirish hamda yoshlarbop ruknlarni ochish va ular orqali milliy g‘oyalarni singdirib borishni ta’minlash;
- jamiyatda ma’naviyatni takomillashtirish imkoniyatlari va istiqbollari mavzuyida ilmiy loyihalar joriy etish hamda qonun ustuvorligini ta’minlash zarurdir.

XXI asrda davlatimizning ravnaqi, uning kuchi hamda salohiyati ko‘p jihatdan xalq ma’naviyatining yuksakligi va pokligiga, yoshlarimizning intellektual savodxonligiga, ular ongida va qalbida milliy g‘oyaning shakllanganligiga bog‘liqdir.

Yoshlar bilan doimiy muloqot qilish, mazkur sohadagi dolzarb muammolarni aniqlash va hal etish, bo‘sh vaqtini mazmunli o‘tkazish davlatimiz siyosatining ustuvor masalalaridan biriga aylanib bormoqda. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 10-sentyabrdagi “Mahallalarda yoshlar bilan ishlash tizimi samaradorligini oshirishga doir chora-tadbirlar to’g’risida”gi PF-163-sonli Farmonining qabul qilinishi shular jumlasilandir. Farmonning Maqsadlar bo’limnng B bandida yoshlarga oid ma’lumotlarni yig‘ish, tahlil qilish va doimiy ravishda yangilab borish jarayonlarini raqamlashtirish orqali yoshlarning ijtimoiy ahvoli haqidagi ma’lumotlar bazasini shakllantirishga jalb etiladigan mehnat resurslari samaradorligini oshirish; V bandida “yoshlarning mafkuraviy immunitetini kuchaytirish orqali ular ongiga turli salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi g‘oyaviy tahdidlarga mahalla darajasida qarshi kurashish”[11] mahallalarda yoshlar bilan ishlash tizimini takomillashtirishning asosiy maqsadlaridan biri etib belgilandi.

Farmonning “Yoshlar bilan ishlash tizimining asosiy vazifalari” bo’limining ikkinchi bandida Umummilliy rivojlanish maqsadlariga erishishda yoshlar salohiyatidan unumli foydalanish mahallalarda yoshlar bilan ishlash tizimining ustuvor vazifasi etib belgilandi.

Bunda “Ulkan maqsadlar, samarali mehnat, oqilona turmush” g‘oyasi asosida yoshlarda ulkan marralarni zabt etishda o‘ziga bo‘lgan ishonch va iroda shakllantiriladi, bilim va intizom bilan mehnat qilish ko‘nikmalari kuchaytiriladi, ular o‘rtasida sog‘lom turmush tarzi va o‘z axloqi bilan boshqalarga o‘rnak bo‘lish kabi hayotiy qadriyatlar ommalashtiriladi[3].

- Farmonning uchinchi bandida “yoshlarning shaxsiy rivojlanishiga, ularning iqtidori va iste’dodini ro‘yobga chiqarishga qaratilgan tadbirlarni tashkil etish, “Besh tashabbus olimpiadasi”ni yoshlar o‘rtasida keng targ‘ib qilish” [4]ni mahallalardagi yoshlar yetakchilarining asosiy vazifalaridan biri etib belgilandi ;

Farmonning to’rtinchi bandida “Mahalla yettiligi” va ta’lim muassasalari o‘rtasida yoshlar, jumladan, umumta’lim maktablarining bitiruvchi sinf o‘quvchilarini qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha hamkorlik qilish tizimini joriy etilisi” [5] belgilab qo’yildi.

Bunga ko’ra, 1) maktablarning ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo‘yicha direktor o‘rinbosarlari har oyda sinf rahbari va maktab psixologi hamkorligida xulq-atvorida muayyan murakkabliklar kuzatilgan o‘quvchilar hamda bitiruvchi sinf o‘quvchilari o‘rtasida qo‘shimcha fanlar, xorijiy tillar va kasblarni o‘rganish, sport turlari bilan shug‘ullanish hamda mehnat faoliyatiga qiziqish bildirgan o‘quvchilarni aniqlaydi. Ushbu o‘quvchilarning ro‘yxati shakllantirilib, belgilangan tartibda yoshlar yetakchisi va mahalla raisiga taqdim etiladi;

2) yoshlar yetakchilari:

- maktablarning ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo‘yicha direktor o‘rinbosarlari tomonidan taqdim etilgan ro‘yxat asosida bitiruvchi sinf o‘quvchilarining fan, xorijiy tillar, sport turlari bilan shug‘ullanishiga va kasblarni o‘rganish istagi bo‘lgan o‘quvchilarning “Kelajak” markazlari hamda xususiy o‘quv markazlarida tahsil olishiga ko‘maklashadi;

- xulq-atvorida muayyan murakkabliklar kuzatilgan o‘quvchilar uchun ularning qiziqishlari va ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda individual rivojlanish yo‘nalishlarini belgilaydi;

- mahalla hududidagi murabbiylar, kasb egalari va tadbirkorlar bilan hamkorlikda o‘quvchilar uchun ustozlik tizimini yo‘lga qo‘yadi;

- xulq-atvorida muayyan murakkabliklar kuzatilgan o‘quvchilarni davlat va nodavlat ta’lim muassasalaridagi to‘garaklarga yo‘naltiradi;

- hokim yordamchilari mehnat faoliyatini olib borish istagi bo‘lgan maktab o‘quvchilarini tegishli mahalla hududida joylashgan korxonalarga yo‘naltirib, ularning kasb o‘rganishiga va kelgusida ishga joylashishiga, tadbirkorlik faoliyatini yo‘lga qo‘yish uchun zarur vositalar bilan ta’minlashga ko‘maklashadi;

3) mahalla raislari:

11

- xulq-atvorida muayyan murakkabliklar kuzatilgan o‘quvchilarning ota-onalari bilan doimiy muloqot o‘rnatadi hamda ularning mas’uliyatini oshirish bo‘yicha chora-tadbirlarni amalga oshiradi;

- ota-onalarga farzand tarbiyasi, ma’naviy-axloqiy qo‘llab-quvvatlash va xulq-atvordagi muammolarni bartaraf etish yuzasidan tavsiyalar taqdim etadi;

- yoshlar bilan doimiy muloqot o‘tkazib, ularning kasbiy qiziqishini o‘rganadi, mehnat bozoriga raqobatbardosh kadr sifatida kirib borish jarayonida ularga yo‘l-yo‘riq ko‘rsatib boradi;

- ishsiz yoshlarni ularning qiziqishidan kelib chiqqan holda mahalladagi tajribali tadbirkorlarga kasb-hunar o‘rganish uchun yo‘naltiradi, kasbiy o‘sishini kuzatib boradi hamda o‘zining mustaqil tadbirkorlik faoliyatini boshlashiga ko‘maklashadi;

- yoshlarning fanlarni o‘rganishi, axborot texnologiyalarini o‘zlashtirishi, kitobxonlik, sport bilan shug‘ullanishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish bo‘yicha tashabbuslar ishlab chiqadi[12][6].

Farmonning ijrosini ta’minlash borasida mamlakatimiz mahallalarida barkamol avlodni shakllantirish, yoshlarni ma’naviy-axloqiy va jismonan sog‘lom etib tarbiyalash, ularni olib borilayotgan islohotlarning faol ishtirokchisiga aylantirishga qaratilgan chora-tadbirlar izchil amalga oshirilmoqda

Yuqoridagi chora-tadbirlardan kozlangan asosiy maqsad, yoshlarning ong-u tafakkurini shakllantirish, dinni zo‘ravonlik va qon to‘kish bilan bir qatorga qo‘yadigan buzg‘unchi yot g‘oyalarning asl mohiyati va maqsadlari haqida yoshlarning xabardorlik darajasini oshirish, jamiyatda milliy va diniy qadriyatlarimizga yot bo‘lgan g‘oyalarga nisbatan toqatsizlik muhitini shakllantirish, jamiyatda bag‘rikenglik, o‘zaro hurmat, mehr-oqibat, tinchlik va totuvlikni, ijtimoiy-ma’naviy muhit barqarorligini ta’minlashda diniy-ma’rifiy soha vakillarining daxldorlik hissi va ishtirokini yanada oshirish, globallashuv sharoitida jamiyatimizdagi ijtimoiy-ma’naviy muhit barqarorligi va e’tiqod erkinligiga tahdid tug‘dirishi mumkin bo‘lgan omillarni barvaqt aniqlash va oldini olishga qaratilgan axborot-tahliliy faoliyatni kuchaytirish, diniy va dunyoviy bilimlar uyg‘unligini rivojlantirish asosida maktab, oliy o‘quv yurti va mahalla hamkorligida ta’lim sifatini oshirishning yaxlit tizimini yaratish bo‘yicha barcha zarur choralar ko‘rilmoqda.

Shunday ekan, yosh avlodda mustaqil teran fikrlash, sog‘lom dunyoqarash va mustahkam iroda, qalbi va ongida sog‘lom hayot tarzi, milliy va umummilliy qadriyatlarga hurmat-ehtirom, mafkuraviy tahdidlarga qarshi doimo sergak, ogoh va hushor bo‘lib yashash tuyg‘usini bolalikdan shakllantirish lozimdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Sh. Sharipov. Millat saodati – yoshlar tarbiyasiga bog‘liq. Internet materiallari. / 13.05.2023/

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi farmoni. 2017-yil 7-fevral.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Mahallalarda yoshlar bilan ishlash tizimi samaradorligini oshirishga doir chora-tadbirlar to’g’risida”gi Farmoni. Toshkent sh., 2025-yil 10-sentabr, PF-163-son.

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Mahallalarda yoshlar bilan ishlash tizimi samaradorligini oshirishga doir chora-tadbirlar to’g’risida”gi Farmoni. Toshkent sh., 2025-yil 10-sentabr, PF-163-son.

5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Mahallalarda yoshlar bilan ishlash tizimi samaradorligini oshirishga doir chora-tadbirlar to’g’risida”gi Farmoni. Toshkent sh., 2025-yil 10-sentabr, PF-163-son.

6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Mahallalarda yoshlar bilan ishlash tizimi samaradorligini oshirishga doir chora-tadbirlar to’g’risida”gi Farmoni. Toshkent sh., 2025-yil 10-sentabr, PF-163-son.

[12] O’sha joy.

TOSHHOVLI SAROYI OBYEKTINI SAQLASH VA RIVOJLANTIRISH

Axmedova Firuza Ma'rufjonovna
Chirchiq Davlat Pedagogika Universiteti o'qtuvchisi
e-mail: firuzaxuz@gmail.com

Annotatsiya. *Toshhovli (Tash-Hauli) saroyi — Xivaning Ichan-qal'asi hududidagi XIX asrga mansub muhim me'moriy majmualardan biridir. Ushbu maqolada saroyning tarixiy-me'moriy ahamiyati, hozirgi saqlash holati, asosiy degradatsiya omillari tahlil qilinadi va uning madaniy meros obyekti sifatida himoya qilinishi hamda rivojlantirilishi bo'yicha amaliy tavsiyalar taklif etiladi. Shuningdek, restavratsiya, materialshunoslik va turizm boshqaruvi masalalari bo'yicha xalqaro va mahalliy tajribalar ham ko'rib chiqildi.*

Kalit so'zlar: *Toshhovli, Tash-Hauli, konservatsiya, restavratsiya, Ichan-qal'a, madaniy meros.*

Annotation*: Tash-Hauli Palace is one of the most important architectural complexes of the 19th century in the Ichan-Kala area of Khiva. This article analyzes the historical and architectural significance of the palace, its current state of preservation, the main factors of degradation, and offers practical recommendations for its protection and development as a cultural heritage site. International and local experiences in restoration, materials science, and tourism management are also reviewed.*

Keywords*: Toshhovli, Tash-Hauli, conservation, restoration, Ichan-Kala, cultural heritage.*

Аннотация: *Дворец Таш-Хаули – один из важнейших архитектурных комплексов XIX века в районе Ичан-Кала в Хиве. В статье анализируется историко-архитектурное значение дворца, его современное состояние сохранности, основные факторы разрушения, а также предлагаются практические рекомендации по его сохранению и развитию как объекта культурного наследия. Также рассматривается международный и местный опыт в области реставрации, материаловедения и организации туризма.*

Ключевые слова: *Тошховли, Таш-Хаули, консервация, реставрация, Ичан-Кала, культурное наследие.*

O'zbekiston hududida qadimdan yirik madaniy va me'moriy markazlar mavjud bo'lib, ular orasida Xiva shahri o'zining tarixiy obidalari bilan alohida ajralib turadi. Shahar markazidagi **Ichan qal'a** YUNESKOning Butunjahon merosi ro'yxatiga kiritilgan bo'lib, unda joylashgan **Toshhovli saroyi** o'z davrining noyob me'moriy yodgorliklaridan biridir. Toshhovli saroyi — Xiva shahrining Ichan-qal'a qismi ichida joylashgan tarixiy saroy bo'lib, Xorazm xonligi paytida davlat boshqaruvi, ijtimoiy va madaniy hayot markazi sifatida xizmat qilgan. Fasad bezaklari, yog'och va ganch o'ymakorligi san'ati, mayolika plitkalar bilan bezatilgan ichki hududlari saroyning noyobligini ko'rsatadi. Bugungi kunda ob-havo, namlik, turistlar bosimi va noto'g'ri restavratsiya ishlarining natijasida ba'zi hollarda degradatsiya yuzaga kelmoqda [4].

So'nggi yillarda konservatsiya ishlari olib borilgan: AQSH Elchixonasi mablag'lari, mahalliy ustalar yordamida bezak elementlarini tiklash, fasad va ichki dekorlarni saqlash bo'yicha chora-tadbirlar o'tkazilgan. Lekin ayrim joylarda autentiq materiallardan chetga chiqish, turistlar harakati va texnik xizmat yetishmovchiligi kabi muammolar mavjud.

Tosh-Xauli saroyi og'ir ob-havo sharoiti va avvaldan noto'g'ri olib borilgan restavratsiya ishlari tufayli ta'mirlashga juda muhtoj bo'lib, uning bezakli koshinlari va g'ishtlari parchalanib ketgan. AQSh Davlat departamentining Madaniy merosni asrash elchilari jamg'armasi (AFCP) orqali saroyning bezakli mayolika koshinlarini tiklash va etishmayotganlarini bir xil, yangi ishlab chiqarilgan plitkalar bilan almashtirish uchun ushbu hududdagi yuqori malakali kulolchilarning avlodlari jalb qilindi [3].

- Materiallarning degradatsiyasi — bezak plitkalari (mayolika), yog'och o'ymakorlik, ganch elementlari yomg'ir, namlik va yuqori harorat farqlari tufayli zarar ko'radi.
- Oldingi restavratsiya metodlarining ba'zilari autentiq uslublarni saqlamagan — aralash materiallar yoki texnologiyalar ishlatilib, bezak yoki konstruksiya qismlarining asl shakli buzilgan.

- Turizm bosimi — katta tashriflar, yo‘laklar va ehtimoliy noto‘g‘ri foydalanish restavratsiya ishlari bilan bog‘liq qo‘shimcha stress keltirib chiqaradi.
- Mikroiqlim va salomatli foydalanish — binolar ichidagi shamollash, yorug‘lik yetishmasligi yoki issiqlikdan himoya yetishmasligi [1].
- Moliyaviy va texnik jihatdan doimiy xizmat ko‘rsatish zarurati — restavratsiya vaqtinchalik bo‘lmasligi, muntazam saqlash, monitoring va nazorat muhim.

Takliflar: Toshhovli saroyini saqlash va rivojlantirish yo‘llari.

Yo‘nalish	Taklif
Mikroiqlimni yaxshilash	Saroy hovlilarini toza qiladi, bezak elementlari soyabon bilan himoyalanadi; deraza va eshik orientatsiyasini qayta ko‘rib chiqish; tashqi devor va tom qismida issiqlik izolatsiyasi va shamollatish yo‘llarini kuchaytirish
Material va dekor elementlarini autentik usulda tiklash	Mayolik a, ganch va yog‘och elementlarini tiklashda an’anaviy metodlar va mahalliy ustalardan foydalanish; laborator tahlillar bilan material tanlash.
Hovli, ichki makon va tashqarigi muvozanatini saqlash	Markaziy hovli makonlarini toza saqlash, shamollash kanallarini (oyna, eshiklar) estetik jihatdan saqlash, tashqi to‘siqlarni kamaytirish
Turizm va foydalanish boshqaruvi	Tashrifchilarning oqimini nazorat qilish, noqulay zonalarni himoya qilish, interaktiv va ma’rifiy yo‘riqnomalar, audio-vizual ko‘rsatmalar kiritish.
Barqaror moliyalashtirish va monitoring	Davlat va donorlar yordamida doimiy restavratsion fond tashkil etish; loyiha sifatida monitoring, texnik xizmat ko‘rsatish; jamoatchilik ishtirokini jalb qilish.

Toshhovli saroyi Xorazm arxitekturasining noyob namunasidir. “Territorial Characteristics of Traditional Residential Buildings in Uzbekistan (Khorezm and Bukhara)” maqolasidagi hududiy va mikroiqlimga oid an’anaviy arxitektura yechimlari saroyni saqlash va rivojlantirishda muhim manba bo‘la oladi. Agar bu bilimlar autentik restavratsiya va konservatsiya jarayonlariga tatbiq etilsa, Toshhovli saroyi nafaqat tarixiy obida sifatida saqlanadi, balki turizm, madaniy ta’lim va mahalliy hunarmandchilik rivoji uchun markazga aylanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Akhmedova Firuza Ma'rufjonovna, & Nazarova Dinara. (2024). TERRITORIAL CHARACTERISTICS OF TRADITIONAL RESIDENTIAL BUILDINGS IN UZBEKISTAN (KHORAZM AND BUKHARA). Journal of Universal Science Research, 2(5), 194–198.
2. U.S. Embassy Tashkent, Preservation Work at Khiva’s Tash-Hauli Palace.
3. madaniymeros.uz

MADANIY MEROS TUSHUNCHASINING NAZARIY ASOSLARI

Abdullayev Bahromjon Xoshimdjonovich
KUAF Taix va ijtimoiy fanlar kafedrasi katta o’qituvchisi
e-mail: abdullayev.baxromjon.72@gmail.com
Abdullayeva Oysha Abdumajid qizi
KUAF Kompyuter injiniringi yo’nalishi
1-bosqich talabasi

Annotatsiya: ushbu tezisda madaniy meros tushunchasining nazariy asoslari haqida fikr yuritiladi. Unda madaniy meros tushunchasining mazmun-mohiyati, madaniy meros tushunchasining falsafiy asoslari, madaniy merosning ijtimoiy-falsafiy funksiyalari, zamonaviy

yondashuvlar va muammolarni tanqidiy tahlili, O‘zbekiston misolida madaniy merosning nazariy asoslari va amaliy tatbiqi haqida to’htalib o’tilgan.

Kalit so’zlar: madaniy meros, UNESCO, ISESCO, me’moriy yodgorliklar, san’at asarlari, arxeologik topilmalar, yozma manbalar, til, og‘zaki ijod, urf-odat, an’ana, xalq qo‘shiqlari, marosimlar va diniy qadriyatlar.

Аннотация: В тезисе рассматриваются теоретические основы концепции культурного наследия. Рассматриваются сущность концепции культурного наследия, философские основы концепции культурного наследия, социально-философские функции культурного наследия, критический анализ современных подходов и проблем, а также теоретические основы и практическое применение концепции культурного наследия на примере Узбекистана.

Ключевые слова: культурное наследие, ЮНЕСКО, ИСЕСКО, архитектурные памятники, произведения искусства, археологические находки, письменные источники, язык, устное творчество, обычаи, традиции, народные песни, обряды и религиозные ценности.

Abstract: This thesis examines the theoretical foundations of the concept of cultural heritage. It examines the essence of the concept of cultural heritage, its philosophical foundations, the socio-philosophical functions of cultural heritage, a critical analysis of modern approaches and problems, as well as the theoretical foundations and practical application of the concept of cultural heritage using the example of Uzbekistan.

Keywords: cultural heritage, UNESCO, ISESCO, architectural monuments, works of art, archaeological finds, written sources, language, oral tradition, customs, traditions, folk songs, rituals, and religious values.

Madaniy meros insoniyat sivilizatsiyasining asosi, xalqning tarixiy xotirasi va milliy o‘zligining ifodasidir. Har bir jamiyat o‘zining mavjudligini va istiqbolini aynan madaniy meros orqali anglaydi. Shu bois “madaniy meros” tushunchasining nazariy asoslarini o‘rganish nafaqat tarixiy, balki falsafiy, ijtimoiy va ma’naviy ahamiyatga ega. Bu tushuncha bugungi kunda UNESCO, ISESCO kabi xalqaro tashkilotlar darajasida ham global muhokama va himoya obyekti sifatida qaralmoqda.

Birinchidan, madaniy meros tushunchasining mazmun-mohiyatiga to’htalib o’tamiz: “Madaniy meros” termini lotincha “patrimonium culturalis” so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib, “ajdodlardan qolgan boylik” ma’nosini anglatadi. Uning ilmiy talqinida moddiy va nomoddiy meros turlari ajratiladi.

Moddiy meros - me’moriy yodgorliklar, san’at asarlari, arxeologik topilmalar, yozma manbalar;

Nomoddiy meros esa – til, og‘zaki ijod, urf-odat, an’ana, xalq qo‘shiqlari, marosimlar va diniy qadriyatlarni o‘z ichiga oladi.

Madaniy meros tushunchasining ilmiy shakllanishi XX asr o‘rtalarida UNESCO tomonidan “Insoniyatning madaniy merosi” konsepsiyasini ishlab chiqish bilan mustahkamlandi (1972-yilgi “Butunjahon madaniy va tabiiy merosni himoya qilish to‘g‘risidagi konventsiya”).

Bu hujjatda madaniy merosga “inson ijodining betakror yodgorliklari, me’morchilik inshootlari, tarixiy joylar va tabiiy landshaftlar” kirishi belgilangan.

Ikkinchidan, madaniy meros tushunchasining falsafiy asoslari haqida fikr yuritamiz: falsafiy nuqtai nazardan, madaniy meros - bu insoniyatning tarixiy tajribasi, ma’naviy o‘zligini ifodalovchi umumiy fenomen. G.Gegel madaniyatni “ruhning tarixiy taraqqiyot bosqichlari” sifatida tahlil qilgan bo‘lsa, O.Shpengler sivilizatsiyani madaniyatning “qulash davri” deb atagan, bunda meros – yo‘qolayotgan qadriyatlarni saqlovchi “so‘nggi esdaliklar” sifatida namoyon bo‘ladi.

Sharq falsafasida esa madaniy meros g‘oyasi ko‘proq “avlodlar davomiyligi”, “ilmning merosi” va “ahlakiy tajriba” tushunchalari bilan uyg‘unlashadi. Masalan, Forobiy “Fozil shahar ahli” asarida madaniyatni insonni komillikka eltuvchi meros sifatida talqin etadi [2]. Ibn Sino esa ilmiy va ma’naviy tajribaning avloddan avlodga o‘tishini insoniyat kamolotining asosi deb bilgan.

Uchinchidan, madaniy merosning ijtimoiy-falsafiy funksiyalari masalasiga to’htalamiz: madaniy merosning ijtimoiy funksiyalari quyidagicha izohlanadi:

1. Identifikatsion (o‘zlikni anglash) - millatning o‘z tarixiy ildizlarini tan olishi va o‘zligini shakllantirishi jarayonida madaniy meros muhim omildir.

2. Kommunikativ (avlodlararo aloqa) - meros orqali avlodlar o‘zaro tajriba almashadi, tarixiy xotira uzilmaydi.

3.Tarixiy-didaktik (ta’limiy) - madaniy meros yosh avlodni tarbiyalash, milliy g‘urur va vatanparvarlikni shakllantirish vositasidir.

4. Estetik va axloqiy - u xalqning go‘zallik haqidagi qarashlarini, ma’naviy qadriyatlarini saqlab qoladi.

Demak, madaniy meros faqat o‘tmishning “qoldig‘i” emas, balki jamiyatning hozirgi va kelajak taraqqiyotiga xizmat qiluvchi ijtimoiy mexanizmdir.

To’rtinchidan, zamonaviy yondashuvlar va muammolarni tanqidiy tahlil qilganimizda bugungi kunda madaniy merosga nisbatan ikki asosiy nazariy yondashuv mavjudligi ma’lum bo’ladi:

- Klassik yondashuv - madaniy merosni saqlash va himoya qilish obyekti sifatida ko‘radi. Bunda asosiy e’tibor yodgorliklarni konservatsiya qilish, restavratsiya va ro‘yxatga olishga qaratiladi.

- Postmodern yondashuv - madaniy merosni dinamik, ijtimoiy jarayon sifatida talqin etadi. Bu yondashuvda meros doimo qayta talqin qilinadi, zamonaviy madaniyat bilan integratsiyada yashaydi.

Tanqidiy jihatdan qaraganda, birinchi yondashuv merosni “muzeylashtirish” xavfini tug‘diradi - ya’ni, uni faqat o‘tmishga tegishli, zamonaviy hayotdan ajratilgan narsa sifatida ko‘rsatadi. Ikkinchi yondashuv esa, aksincha, merosni haddan ortiq “modernizatsiya” qilib, uning asl mazmunini yo‘qotish xavfini tug‘diradi.

Shuning uchun hozirgi ilmiy tafakkurda integrativ yondashuv ustuvor bo‘lib, bunda madaniy merosni saqlash va uni zamonaviy hayot bilan uyg‘unlashtirish muhim yo‘nalish sifatida qaraladi. Masalan, O‘zbekiston tajribasida madaniy meros ob’yektlarini turizm, ta’lim va raqamli texnologiyalar bilan uyg‘unlashtirish amaliyoti shunday yondashuvning ifodasidir [3].

Shuningdek, O‘zbekiston misolida madaniy merosning nazariy asoslari va amaliy tatbiqi haqida biroz to’htalib o’tamiz.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida (48-modda) “Fuqarolar madaniy meros ob’yektlarini saqlash va asrab-avaylashga majbur”ligi belgilangan.

Shuningdek, 2020-yilda qabul qilingan “Madaniy merosni muhofaza qilish to‘g‘risida”gi Qonun [1] milliy merosni saqlashning huquqiy asoslarini mustahkamladi.

O‘zbekiston olimlari - A.Asqarov, A.Qayumov, M.Rahimov va boshqalar - madaniy merosni sivilizatsion taraqqiyotning o‘zagi sifatida tahlil qilib, uni “milliy o‘zlikning ijtimoiy-falsafiy konsepsiyasi” deb ta’riflaydilar [3].

Raqamli texnologiyalar davrida madaniy merosni saqlashning yangi nazariy paradigmasi — “raqamli meros” tushunchasi ham shakllanmoqda. Bu yo‘nalish tarixiy manbalarni 3D formatda saqlash, raqamlashtirish va internet orqali ommaga taqdim etishni nazarda tutadi [5].

Xulosa shundan iboratki, madaniy meros tushunchasi murakkab, ko‘p qirrali ijtimoiy-falsafiy fenomen bo‘lib, u insoniyatning tarixiy tajribasi, ma’naviy o‘zligi va sivilizatsion taraqqiyotining ajralmas qismi hisoblanadi. Uning nazariy asoslari falsafiy, tarixiy va ijtimoiy yondashuvlar uyg‘unligida shakllanadi.

Bugungi kunda madaniy merosni faqat o‘tmishni saqlovchi tizim sifatida emas, balki innovatsion, dinamik, avlodlararo ma’naviy aloqani mustahkamlovchi jarayon sifatida tahlil etish ilmiy dolzarb masala bo‘lib qolmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Qonuni. “Madaniy merosni muhofaza qilish to‘g‘risida” (2020-yil 11-mart). - T.: 2020.
2. Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. – T.: Xalq merosi. 1993.

3. Asqarov A. O‘zbek xalqining madaniy merosi va tarixiy xotirasi. – T.: Fan. (2016).
4. Qayumov A. O‘zbek madaniy merosi: tarix va zamonaviylik uyg‘unligi. – T.: O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. 2018.
5. Rahimov M. Raqamli madaniy meros: yangi yondashuvlar. “Madaniyat va san’at”, // 2021. №3, 45–52-betlar.

MAHMUDXO‘JA BEHBUDIY ASARLARIDA VATANPARVARLIK TARBIYASINING PEDAGOGIK ASOSLARI

Nyutonova Xilola Lochinbekovna
Urganch Ranch texnologiya universiteti o‘qituvchisi
nyutonovaxilola@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada Mahmudxo‘ja Behbudiy asarlarida ifoda etilgan vatanparvarlik g‘oyalari, ularning o‘quvchilarni milliy ruhda tarbiyalashdagi ahamiyati hamda bu jarayonning pedagogik asoslari tahlil qilingan. Jadidchilik davri ma’rifatparvarlari ijodida yurt, xalq va millat taqdiri masalalariga yondashuv pedagogik nuqtai nazardan yoritiladi.

Kalit so‘zlar: Mahmudxo‘ja Behbudiy, vatanparvarlik, tarbiya, jadidchilik, ma’rifat, pedagogik asos, milliy g‘oya.

Abstract: This article analyzes the patriotic ideas expressed in the works of Mahmudkhoj Behbudi, their importance in educating students in the national spirit, and the pedagogical foundations of this process. The approach to the issues of the fate of the country, people, and nation in the works of the enlighteners of the Jadid period is highlighted from a pedagogical perspective.

Keywords: Mahmudkhodja Behbudiy, patriotism, education, Jadidism, enlightenment, pedagogical basis, national idea.

Аннотация: В статье анализируются патриотические идеи, выраженные в произведениях Махмудходжа Бехбуди, их значение в воспитании учащихся в национальном духе и педагогические основы этого процесса. С педагогической точки зрения освещается подход к проблемам судьбы страны, народа и нации в произведениях просветителей джадидского периода.

Ключевые слова: Махмудходжа Бехбудий, патриотизм, образование, джадидизм, просветительство, педагогическая основа, национальная идея.

Mahmudxo‘ja Behbudiy — o‘zbek xalqining uyg‘onish davrida millat taqdiri, taraqqiyot va ozodlik masalalarini ilgari surgan buyuk ma’rifatparvar, pedagog, yozuvchi va dramaturgdir. Uning butun ijodi xalqni o‘zligini anglashga, milliy g‘urur va vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga xizmat qilgan.

XX asr boshlarida Turkiston mustamlaka siyosati ostida ezilib turgan bir paytda Behbudiy “Vatanni sevmoq — iymondandir” degan g‘oyani hayotiy shior darajasiga ko‘tardi. U millat taraqqiyoti uchun avvalo yoshlarning ma’rifatli, ongli va vatanparvar bo‘lishini asosiy maqsad qilib qo‘ygan [4,78].

Bugungi kunda ham yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash jarayonida Behbudiy merosini o‘rganish dolzarb ahamiyatga ega. Chunki u o‘z asarlarida millatni uyg‘otuvchi, inson qalbida yurtga muhabbat uyg‘otuvchi pedagogik g‘oyalarni ilgari surgan.

Mahmudxo‘ja Behbudiy o‘z asarlarida tarbiyani jamiyat taraqqiyotining asosi deb bilgan. U “Risolai asbobi saodat”, “Muntaxabi jug‘rofiyai umumiy”, “Padarkush” dramasi, maqola va nutqlarida yoshlarni bilimga, mehnatsevarlikka, millatni sevishga chaqirgan [1,23]. Bu g‘oya hozirgi zamon pedagogikasining “shaxsni vatanparvarlik ruhida shakllantirish” tamoyiliga uyg‘un keladi. Behbudiyning “Padarkush” dramasi o‘zbek adabiyotidagi birinchi sahna asari bo‘lib, unda jaholat, e’tiborsizlik va ma’naviy zaiflik oqibatlari fojiali tarzda ochib beriladi. Toshmurod obrazida ma’naviy tarbiyasiz, ongsiz yoshning fojeasi orqali muallif xalqni o‘ylashga, farzand tarbiyasiga mas’uliyat bilan yondashishga chaqiradi.

Asarda ota-ona, o‘qituvchi, jamiyatning tarbiyadagi roli yoritilib, yoshlarni Vatanga, ota-onaga, millatga sadoqatli qilib tarbiyalash g‘oyasi ilgari suriladi. Bu jihat bilan “Padarkush” pedagogik

asar sifatida ham katta ahamiyatga ega. Behbudiy merosida vatanparvarlik tarbiyasi quyidagi pedagogik asoslarda ifoda etiladi[2,41]:

- Ma’rifat orqali vatanparvarlik – bilimli inson Vatan taqdiriga befarq bo‘lmaydi;
- Axloqiy-ruhiy tarbiya – halollik, sadoqat, milliy g‘urur tuyg‘ularini shakllantirish;
- Amaliy faoliyat orqali tarbiya – yoshlarda mehnat, jamoatchilik, ijtimoiy mas’uliyatni rivojlantirish;
- Milliy qadriyatlarga tayanish – xalq an’analari, tarixiy xotira va diniy qadriyatlarni saqlash.

Xulosa qilib aytganda ushbu g‘oyalar bugungi pedagogika fanidagi “vatanparvarlik tarbiyasining tamoyillari” bilan uyg‘unlikda ko‘riladi. Behbudiy qarashlari shaxsni har tomonlama rivojlantirishda milliy g‘oya va ma’naviy tarbiyani asosiy omil sifatida ko‘radi. Mahmudxo‘ja Behbudiy asarlarida vatanparvarlik tarbiyasi milliy pedagogikaning yuksak namunasi sifatida namoyon bo‘ladi. U yoshlarni ilm-ma’rifat, axloq, mehnatsevarlik, mas’uliyat, milliy g‘urur va xalq manfaatiga sadoqat ruhida tarbiyalashni asosiy maqsad qilib qo‘ygan. Bugungi kunda ta’lim jarayonida Behbudiy merosiga tayanish yoshlar ongida milliy o‘zlik, tarixiy xotira va Vatanga sadoqatni shakllantirishda muhim vosita bo‘lib xizmat qilmoqda.

Behbudiy merosini o‘quv jarayoniga singdirish quyidagi natijalarga olib keladi:

- o‘quvchilarda vatanparvarlik va milliy g‘urur tuyg‘ulari mustahkamlanadi;
- tarixiy tafakkur va ma’naviy o‘zlik uyg‘onadi;
- yoshlar jamiyat hayotida faol fuqarolik pozitsiyasini egallaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Behbudiy M. *Padarkush* (Dramma). – Samarqand: 1913.
2. Kocaoğlu T. *Türkistan’da Türkçe İlk Tiyatro Eseri: Mahmud Hoca Behbudî’nin “Pederküş” (Baba Katili) Piyesi – 1913.* – CJAT, 2004.
3. Karimov I.A. *Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch.* – T.: Ma’naviyat, 2008.
4. Yo‘ldoshev Q., Hasanboeva O. *Pedagogika.* – T.: O‘qituvchi, 2015.
5. Shodmonov E., Qodirov A. *Milliy g‘oya va ma’naviyat asoslari.* – T.: Iqtisod-moliya, 2019.
6. Xodjayev A. *Mahmudxo‘ja Behbudiy pedagogik qarashlari.* – T.: Fan, 2021.

JAMIYATDA UMUMINSONIY AXLOQIY QADRIYATLARNI MUSTAHKAMLASH

Nurmatov Oybek Turdimamatovich
Qo‘qon universiteti Andijon filiali,
Tarix va ijtimoiy fanlar kafedrasi katta o‘qituvchisi
e-mail: oybeknurmatov.tarixuz@gmail.com

Annotatsiya. Ijtimoiy munosabatlarda umuminsoniy axloqiy qadriyatlarni qaror toptirish O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlar va demokratik o‘zgarishlar markazida turgan vazifalardan biridir. Mamlakatimiz rahbariyati mustaqillikning dastlabki davridayoq dunyo mamlakatlari bilan integratsiyalashish, ular yaratgan moddiy va ma’naviy boyliklardan foydalanish, taraqqiyotning xalqaro tajribasini o‘zlashtirishni o‘zining demokratik taraqqiyot yo‘li deb e’lon qildi. Shundan buyon xalqimiz jahon xalqlari bilan o‘zaro manfaatli aloqalarni kengaytirib, umuminsoniy qadriyatlarni hayot tarziga aylantirishga intilib yashamoqda.

Kalit so‘zlar: ma’naviyat, tarbiya, ma’naviy me’ros, ahloqiy qadriyatlar, o‘zlikni anglash.

Abstract. The establishment of universal moral values in social relations is one of the tasks at the heart of the reforms and democratic changes being implemented in Uzbekistan. In the early days of independence, the leadership of our country declared integration with the countries of the world, the use of the material and spiritual wealth they have created, and the assimilation of international experience in development as its path to democratic development. Since then, our people have been striving to expand mutually beneficial relations with the peoples of the world and turn universal human values into a way of life.

Keywords: spirituality, upbringing, spiritual heritage, moral values, self-awareness.

Аннотация. Утверждение общечеловеческих нравственных сенностей в общественных отношениях является одной из основных задач реформ и демократических преобразований, осуществляемых в Узбекистане. С первых лет независимости руководство нашей страны провозгласило своим путем к демократическому развитию интегратсию со странами мира, исползование созданных ими материалных и духовных богатств, усвоение международного опыта развития. С тех пор наш народ стремится расширят взаимовыгодные связи с народами мира и превращат общечеловеческие сенности в образ жизни.

Ключевые слова: духовност, воспитание, духовное наследие, нравственные сенности, самосознание.

Ijtimoiy munosabatlar butun jamiyat hayotiga taalluqli voqelik sifatida iqtisodiy, siyosiy, xalqaro, madaniy, etnik-sotsial, demografik, huquqiy nuqtai nazardan o‘rganiladi. Har bir sohadagi ijtimoiy munosabatlar jamiyat talablariga muvofiq shakllanadi va namoyon bo‘ladi.

Masalan, iqtisodiy sohaga to‘xtalib, bozor munosabatlarini olaylik. Bu munosabatlar fuqarolarning iqtisodiy hayotda erkin faoliyat ko‘rsatuvchi, mustaqil ish yurituvchi sub’ekt sifatida o‘zining insoniy huquqlarini namoyon qilishida aks etadi. O‘zi istagan iqtisodiy faoliyat bilan shug‘ullanish fuqaroning iqtisodiy huquqidir. Bu huquqini ro‘yobga chiqarish jarayonida fuqarolar shartnoma tuzish, sotish yoki xarid qilish, yollanib ishlash, ijaraga olib yerdan, mulkdan foydalanish, tovar ayirboshlash, qayta ishlab chiqarish kabi harakatlarga kirishadilar. Bu o‘rinda foyda olishga, o‘z tovarini tezroq, qimmatroq sotishga intilish bozor munosabatlariga xos holdir. Lekin bu insoniylikni, umuminsoniy axloqiy qadriyatlarga rioya etish majburiyatini rad qilmaydi. To‘g‘ri, aslida bozor iqtisodiyoti raqobat va ko‘proq foyda olish tamoyillari, shaxsdagi topqirlik va ishbilarmonlik asosiga qurilgan, goho u ma’naviy-axloqiy tasavvurlarga, tushunchalarga zid keladi.

Ijtimoiy munosabatlarda axloqiy qadriyatlarning ustuvorligini ta’minlash umumiy taraqqiyotga aks ta’sir ko‘rsatmasligi darkor. Masalan, mahalla-ko‘ychilik, qarindosh-urug‘chilik xalqimizning qon-qoniga singib ketgan. Lekin ba’zan ezgulik bayrog‘i ostida bu qadriyatlar suiiste’mol ham qilinadi — umumiy manfaatlar unutilib yaqin kishilarga yaxshilik qilish avj oladi[1].

Ijtimoiy-ma’naviy qadriyatlarni tadqiq etishda diniy qarashlar bilan dunyoviy bilimlarning mushtarak jihatlarini o‘rganish katta ahamiyatga ega. Sharq xalqlari hayotida din, diniy ta’limotlar, afsona va rivoyatlar, muhim o‘rin tutadi.

N. Komilovning “Tasavvuf” asarida bunday satrlarni o‘qiymiz: “Qaysi bir xalqning og‘zaki yoki yozma yodgorligini olib qaramaylik, unda bani bashar xotirasida elas-elas saqlanib kelayotgan asotir-afsonalar, uzoq tarix qa’ridagi ibtidoiy tasavvurlar va tushunchalar, asrlar davomidagi kuzatishlardan hosil bo‘lmish hayotiy hikmatlar qaymog‘i — insoniy tafakkur tajribasining in’ikosini ko‘ramiz. Muqaddas kitoblar Avesto, Rigveda, Tavrot, Zabur, Injil va Qur’on ham ana shunday ming yillar ichida yig‘ilib, sarxillanib, sayqal topgan ilmiy-badiiy tafakkur hosilasi sifatida yuzaga kelgan o‘lmas obidalardir. Ulug‘ tarixiy burilishlar davri mafkurasini belgilagan jahoniy dinlar insoniyat taraqqiyotining muayyan bosqichida yangi ma’naviy ruhiy zarurat, fikriy va hissiy izlanishlar ehtiyojiga javob tariqasida paydo bo‘lganligi sababli madaniy-ma’naviy hayotning hamma sohasini qamrab olib, ijodiy yuksalishga, taxayyul va tasavvurot olamiga, aqliy va badiiy faoliyat tarziga ta’sir etib keladi. Ayni vaqtda insonning uzluksiz ijodiy faoliyati dinlarning o‘ziga ta’sir o‘tkazib, ulardagi sinkretiklik (omuxtalik) xususiyatini kuchaytirib turadi, yangi ta’limotlar, mazhablar, qarashlar silsilasini vujudga keltiradi”[2,195].

O‘zbekistonda qaytadan ob’ektiv baholanib, ajdodlarimizning tarixiy-madaniy merosi sifatida o‘rganilayotgan zardo‘shtiylik (“Avesto”) va islom (“Qur’oni Karim”, Hadislar) dini ham mamlakatimizning tub burilish pallasida, xalqimizning o‘z mustaqilligini mustahkamlash va kelajagini belgilab olishida tayanch vazifasini o‘tamoqda.

Din shunchaki tarixiy-madaniy meros, qadriyatgina emas, u olam haqidagi tasavvurlarning ifodasi, insonning o‘z “men”-ini topishga intilishi, ma’naviy-ruhiy komillikni izlash usuli hamdir.

“Aql”, “ruh”, “qalb”, “e’tiqod” degan tushunchalar mavjud ekan, inson mavjud borliqdan ziyodroq, ulug‘roq, yuksakroq bir narsani qidirishdan tinmaydi.

Milliy demokratik taraqqiyot dindagi real hayotiy talablarga javob beradigan qadriyatlarni dunyoviy qadriyatlar bilan uyg‘unlashtirishni taqozo etadi. Diniy qarashlar insonning real hayotiy muammolarni yechishiga xalaqit bermasligi, boshqalarning huquqlarini toptamasligi, mavjud hayot tarzini, siyosiy tizimni kuch bilan o‘zgartirishga da’vat etmasligi lozim. O‘zbekistonda din davlatdan ajratilgan. Fuqarolar qaysi dinga e’tiqod qilishni ixtiyoriy tanlaydilar. Bu qoida fuqarolarning konstitutsiyaviy huquqlaridan kelib chiqib o‘rnatilgan. Demak, dinga e’tiqod qilish har bir fuqaroning o‘z ixtiyoriy ishidir.

Shu bilan birga, davlat va jamiyat dindorlarning ijtimoiy faoliyatiga, xatti-harakatlariga befarq qaray olmasligiga ham e’tibor qarataylik. Din odamzod ongi va turmush tarziga intensiv ta’sir qilishning ko‘p asrlik tajribasiga, usullariga ega, u inson ruhi, qalbi va ongini tez o‘ziga jalb eta oladi. Ayniqsa, ijtimoiy hayotdagi ziddiyatlar yaqqol o‘zini namoyon qilganida, insonning ma’naviy-ruhiy izlanishlarga ishtiyoqi, qiziqishi kuchayganida din faol harakatga keladi. Dinda axloqiy-ma’naviy masalalar keng muhokama qilinishi, ijtimoiy adolat bilan bog‘lab talqin etilishi insonda diniy qarashlarga ishonch uyg‘otadi.

Sharq islom falsafasi shunisi bilan qimmatliki, u diniy ilm va tabiiy fanlar o‘rtasidagi ixtiloflarni bartaraf etib, ularning o‘zaro uyg‘un rivojlanish yo‘llarini kashf etgan, fan va din bir-biriga qarama-qarshi emas, balki bir-birini to‘ldirishini asoslab bergan.

Bu o‘rinda G‘azzoliy, Najmiddin Kubro, Fariduddin Attor, Rumiy, Bedil kabi yetuk mutafakkirlarning ijodidan ko‘p misol keltirish mumkin. Masalan, G‘azzoliy deydi: “Inson javhari avval yaralishdan noqislik va kamlik birla xalq qilinubdir. Inson mehnat va mashaqqatsiz bu nuqsonlaridan qutulib, kamolga yetmagi mumkin emas”. U dilni mamlakat (tana, vujud) podshohi, aqlni vazir deb biladi. “Odamning haqiqati ul nimarsadurki, kamoli va sharofati aning birla bordur, ya’ni aql birladur. Va o‘zga sifatlar g‘arib va oriyatdurki, aqlning madadi va chokarligi bilan amalga oshmasa”. Demak, G‘azzoliy kishi mehnat, mashaqqat va aqli bilan komillikka yetishishi, o‘z nuqsonlaridan qutulib kimiyoi saodatga erishishi mumkin, deb hisoblaydi.

Insonning ijtimoiy-ma’naviy kamoloti demokratik islohotlarimizga ham, fuqarolik jamiyati va huquqiy davlat qurishdan iborat strategik maqsadimizga ham bab-barobar taalluqlidir. Aslida din ham shu maqsadga xizmat qiladi. Bu o‘rinda yana N.Komilovning fikrlariga murojaat qilamiz. “Tasavvufdagi komil inson tushunchasi bilan bizning tushunchalarimiz o‘rtasida farq bor, albatta. Hatto ma’rifatli har kishini komil inson deya olmaymiz. Tasavvuf ta’limoti bo‘yicha komil inson allaqanday ideal, Xudoga yaqin bir vujud. O‘sha g‘ayb olamidan oddiy odamlarga xabar beradigan, ilmi o‘sha g‘ayb ilmiga ulangan kishidir. Albatta, ma’naviy barkamollikni niyat qilar ekanmiz, idealga intilishimiz kerak bo‘ladi. Xo‘sh, idealga intilish nima degani o‘zi? Menimcha, bu idealning xislatlarini o‘ziga singdira borish, o‘zida kashf etish, paydo qilish, shakllantirish deganidir”[3,3]. Demak, ma’naviy komillikda kishi idealni axloqan eng pok, eng musaffo, eng yetuk timsol sifatida xayol etadi va ushbu idealga umr bo‘yi talpinib yashaydi.

Ma’naviy hayot shaxsning butun borlig‘ida, odamlar va jamiyat bilan munosabatlarida aks etadi. Bu murakkab munosabatlar shaxsga turlicha ta’sir etadi va uning ma’naviy hayotini turlicha shakllantiradi[1,64]. Shuning uchun ham ma’naviy dunyosi mutlaq bir xil odamlar yo‘q - inson boshqa insondan ruhiy-ma’naviy dunyosi bilan farq qiladi. Lekin umumiy ijtimoiy-ma’naviy me’yorlar mavjud, ular insoniylik, poklik, mehr-muhabbat, ezgulik, xalqparvarlik, axloqparvarlik, qanoat kabi fazilatlardir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1.I.A.Karimov. Yuksak ma’naviyat-yengilmas kuch. T., “O‘zbekiston” 2008, 13-bet
2.N. Komilov. Tasavvuf. Ikkinchi kitob. T., G‘ofur G‘ulom nomidagi adabiyot va san’at hamda “O‘zbekiston” nashriyotlari, 1999., 195-bet
3.N. Komilov. Tasavvuf. Birinchi kitob. T., “Yozuvchi”, 1996. 3-bet
4. “Ijtimoiy falsafa” T., SHARQ nashriyoti, 2012., 143-144-bet

ZAMONAVIY O‘ZBEK OILALARINING AN’ANAVIY MUNOSABATLARI

Xudoyberdiyev Sherzodbek Rahimberdi o‘g‘li
Andijon davlat texnika instituti
“Tillar va gumanitar fanlar” kafedrasi assistenti
khudoyberdievsherzodbek@gmail.com

Annotatsiya: Oila va u bilan bog’liq bo‘lgan jarayonlar Etnografiyada har doim dolzarb mavzulardan bo‘lib kelgan. Chunki har bir millat oilasi o‘ziga xos xususiyatlar bilan bir biridan farq qiladi. Shu jumladan o‘zbek oilalari ham o‘ziga xos turmush va madaniyat tarziga ega hisoblanadi. O‘zbek oilalaridagi qon-qarindoshlik, oila-nikoh munosabatlarini o‘rganar ekanmiz bu munosabatlarda an'anaviylik va zamonaviylik belgilarini kuzatamiz. Oilalardagi qarindoshlik munosabatlarining asosini er-xotin, farzandlar va oilaga eng yaqin bo‘lgan qarindoshlar guruhi tashkil etadi. Shuning uchun o‘zbek oilalarida azaldan rivojlanib kelayotgan qarindoshchilik munosabatlari bugungi kunga kelib zamonaviy xususiyatlarga ham aylanib bormoqda. Chunki oilaviy munosabatlar va ular bilan bog’liq urf-odatlar rivojlanib borgani sari qarindosh urug’ munosabatlari ham shunchalik zamonaviy tusga kira boradi.

Kalit so`zlar: Oila, nikoh, an’ana, qarindoshik, kelin, kuyov, Qashqadaryo, o‘zbeklar, milliy qadriyat, harakter, axloq, marosim, “qunin-qo‘noq”.

Annotation: The family and the processes associated with it have always been a topical issue in ethnography. Because the family of each nation is different from each other with its own characteristics. In particular, Uzbek families have their own way of life and culture. When studying the kinship, family and marriage relations in Uzbek families, we observe the signs of tradition and modernity in these relations. When studying the kinship, family and marriage relations in Uzbek families, we observe the signs of tradition and modernity in these relations. The basis of kinship in families is the couple, children and the group of relatives closest to the family. That is why kinship relations, which have been developing in Uzbek families for a long time, are becoming modern. Because as family relationships and the traditions associated with them develop, so do kinship relationships.

Keywords: Family, marriage, tradition, kinship, bride, groom, Kashkadarya, Uzbeks, national values, character, morality, ceremony, "qunin-qo'noq".

Аннотация: Семья и связанные с ней процессы всегда были актуальной темой в этнографии. Потому что каждая национальная семья отличается друг от друга своими особенностями. В том числе узбекские семьи имеют свой образ жизни и культуру. Изучая кровно- родственные, семейно-брачные отношения в узбекских семьях, мы наблюдаем в этих отношениях признаки традиционализма и современности. Основу родственных отношений в семьях составляют супруги, дети и группа родственников, наиболее близких к семье. Поэтому родственные отношения, издавна складывающиеся в узбекских семьях, на сегодняшний день приобретают и современные черты. Потому что по мере развития семейных отношений и связанных с ними традиций родственные родовые отношения становятся все более современными.

Ключевые слова: Семья, брак, традиция, родство, невеста, жених, Кашкадарья, узбеки, национальные ценности, характер, мораль, обряд, "кунин-кунок"**.**

Bugun biz uchun muqaddas hisoblangan oila ijtimoiy tizim sifatida «ota–ona va farzandlar», «er-xotin va qaynona-qaynota», «kelin-kuyov va ularning yaqin qarindoshlari» kabi munosabatlar majmuidan tarkib topgan bo‘lib, nabiralar, kelin va quda-andalarga bo‘lgan munosabatlar harakteri tomonidan, oilaviy hayot tartibi, oilaviy an'analar va qadriyatlarga ega ekanligi, muloqot shakli, milliy odatlarga rioya etilishi jihatlaridan etnomadaniy xususiyatlarni o‘zida mujassamlashtiradi. Bu jihatlar esa xalqimizda, aholida milliy harakter, milliy temperament, milliy orzu, milliy istak, milliy g’urur, milliy sharaf, milliy e'tiqod, milliy qadriyat va milliy xotira tarkib topishida muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘zbek oilalaridagi o‘zaro hurmat, ehtirom, ota-onaga e’zoz, farzandlarga mehr-shafqat va kichiklarga izzat-ikrom bu kishini barkamol inson, mukammal shaxs sifatida shakllantiradigan, axloqiy va ma'naviy jihatdan go‘zal hamda yetuk qiladigan, insoniy fazilatlarni rivojlantiradigan

qadriyatlar bo‘lib hisoblanadi. Bu qadriyatlarning mazmun-mohiyati farzandlar ongiga dastlab oilada singdiriladi.[1,7]

Sharq oilalari, shu jumladan, o‘zbek oilasiga xos bo‘lgan quyidagi xususiyatlar mavjud.

Birinchidan, oilada erkak mavqeining ustunligi;

Ikkinchidan, oila a'zolari orasida yoshiga, jinsiga, oiladagi maqomi (buva, buvi, ota, ona, o‘g‘il, qiz, qaynona, qaynota, qayinsingil, qayinopa, ovsin, kelin, aka, uka, opa, singil va hokazo)ga ko‘ra aniq ifodalangan va qat'iy amal qilinadigan ierarxiyaning mavjudligi;

Uchinchidan, an’anaviy oilalarda farzandlar uchun ota-ona, ayniqsa, ota obro‘sining yuqoriligi;

To‘rtinchidan, serfarzandlik, bolajonlik, yoshi ulug‘ avlod vakillarini hurmat

qilish kabi sifatlarning yuqori darajada ifodalanishi;

Beshinchidan, abxaz, osetin, qabardin-bolqor singari xalqlarga ham xos bo‘lgan, hurmat yuzasidan ota-onasi va katta yoshdagi yaqinlar oldida bolasiga mehrini ochiq ifoda etmaslik, ota tomonidan yosh bolasini odamlar oldida qo‘lga olmaslik, farzandini ko‘tarmaslik, u bilan o‘ynamaslik kabi jihatlarning bugungi kunda ko‘pchilik an'anaviy o‘zbek oilalalariga ham xosligini ko‘rishimiz mumkinligi (bu bilan erkaklar o‘zlarining hissiy turg’unligini, ortiqcha hissiyottga berilmasligini, haqiqiy erkak shaxsiga xos xislatlarga ega ekanligini namoyish qilishga harakat qilishadi);

Oltinchidan, oiladagi munosabatlarning vertikal harakterga ega ekanligi, ya’ni ayolning erga, farzandlarning ota-onaga, ukaning akaga, singilning opaga bo‘ysunishi. [2,32]

Mamlakat iqtisodiy imkoniyatlari hamda aholi moddiy va turmush darajasining o‘sishi o‘z navbatida oilaviy munosabatlardagi o‘zgarishlarga, unda yangi munosabatlarning shakllanishiga, qon-qarindoshchilik munosabatlari doirasining kengayib borishiga olib keldi. Ammo shuni ta'kidlash lozimki,an'anaviy oilaviy-qarindoshchilik munosabatlari hozir ham yetakchi bo‘lib qolishda davom etmoqda.

O‘zbeklarda qadimdan qarindoshlar o‘rtasida doimo mustahkam aloqalar mavjud bo‘lib kelgan. Oilada qarindoshlar qancha ko‘p bo‘lsa, shuncha yaxshi bo‘ladi, deb hisoblashadi. Qarindoshchilikning yaqinligi uzoq va yaqin qarindoshlar doirasida belgilangan bo‘lib, ular orasida onaning aka-ukalari (tog’asi), otaning aka-ukalari (amakisi), onaning opa-singillari (xolasi), otaning

opa-singillari (ammasi), ularning farzandlari alohida e'zozlanib, ulardan so‘ng boshqa qarindoshlar turadi.

Ushbu qarindoshlar bilan aloqalar hozir ham kuchlidir. Ayniqsa, bobosi va buvisi, shuningdek, aka-ukalar, opa-singillar hamda ham ota, ham ona tarafdan yaqin qarindoshlar o‘rtasida mustahkam aloqalar mavjud. O‘zbek oilalari, qoida bo‘yicha, o‘z joylaridan uzoqqa ketishmaydi va bir joyda yashab, bir-birlari bilan doimiy muloqotda bo‘lish imkoniyatiga egadirlar. Hozirgi davrda xotin taraf qarindoshlar (qudalar) bilan aloqalar o‘sib bormoqda.

Qarindoshlar o‘rtasida mehnat qilishda o‘zaro yordam an'anasi mavjud bo‘lib, buni ayniqsa, oilaviy marosimlarda yoki qandaydir bir turmush qiyinchiliklarida yaqqol kuzatish mumkin.

Qishloq sharoitida qarindoshlar hovlilari ba'zan bir-biriga yaqin joylashgan bo‘ladi yoki masofa uncha uzoq bo‘lmaydi. Shuning uchun er-xotin ham ishlaydigan ko‘plab oilalarda bolalar odatda buvi yoki ishlamaydigan biron ayolning umumiy nazorati ostida bo‘ladi.

Qashqadaryo viloyatining bir qator tumanlarida hozirgacha «qunin»-«qo‘noq» odatining keng tarqalganligini kuzatish mumkin. Muddatidan oldinroq kelib qolgan mehmonlarni qarindoshlar va qo‘shnilar marosim boshlanguniga qadar o‘z uylariga olib ketishib, uyda suhbatlashib o‘tirishadi. Marosim tashkilotchisi ularga taomlar uzatib turishi lozim bo‘ladi. Ammo kamdan kam hollarda ularni (go‘shtdan tashqari) olishadi. Shu tariqa yaqin qarindoshlar yoki qo‘shnilar mehmon taklif etib, marosim o‘tkazayotgan oilaga yordam berishadi. [3,48]

Bundan tashqari, qarindoshlar doirasi baxtsizlik va og’ir damlarda yanada jipslashadi. Mustahkam qarindoshchilik aloqalari an'anasi, ayniqsa, yirik oilaviy tantanalarni nishonlash (masalan, nikoh to‘yida) vaqtida aniq ko‘zga tashlanadi. Agar kattaroq marosim qilinadigan bo‘lsa, odatda dastlab eng yaqin qarindoshlar oilaviy maslahatga taklif qilinadi. Unda tor doirada

asosiy masalalar hal qilinadi: xonadonning mehmonlarni kutib olishga tayyorgarligi, nikoh tantanalarining o‘tkazilish tartibi, qanday masalalarda yordam kerakligi. Shundan so‘ng uyga qarindoshlar o‘rtasida hurmati baland keksalar, mahalla vakillari taklif kilinib, nikoh marosimini o‘tkazishning aniq tartibi (kuni belgilanadi, nishonlash muddati, mehmonlar soni, taomlar turlari) kelishib olinadi. Odatda har bir oilaviy-qarindoshchilik guruhlarida hamma tomonidan tan olingan mavqei baland, «yetakchi» kishisi bo‘lib, tashkilotchilik xususiyatlari bilan ajralib turgan. Uni hurmat qilishadi, quloq solishadi va u barcha ishlar tashkiliga rahbarlik qiladi. Ba'zan ushbu vazifani mahalla vakillari bajaradi. [4,27]

Yuqoridagi fikrlarimizdan kelib chiqib shuni xulosa qilishimiz mumkinki, oilaning jamiyat bilan aloqasi qarindoshchilik, qo‘shnichilik va mahallachilik orqali namoyon bo‘ladi. Bu aloqa ming yillar davomida vujudga kelgan bo‘lib, oila u orqali jamiyat ma’naviy hayotida muhim rol o‘ynaydi. Oila shakli, tuzilishi hamda oilaviy munosabatlar so‘nggi 150 yil davomida muhim o‘rganish ob’ekti sifatida tadqiqotchilar diqqat makazida edi. Bugungi kunda etnologiyaning oilashunoslikka doir tadqiqotlar natijalariga tayanib endilikda bu muammolarni bir butunlikda o‘rganish imkoniyati paydo bo‘ldi. Oila shakllari, turlari va demografik holatidagi o‘zgarishlar etnik jarayonlarning ta’sirida sodir bo‘lmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati:

1. Iso Jabborov. O‘zbeklar.(an’anaviy xo‘jaligi, turmush tarsi va etnomadaniyati) “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati. Toshkent-2008. B 1 – 7.
2. Shoumarov G’., Rasulova Z. Oila ensiklopediyasi. Toshkent-2016. B 2 – 32.
3. Шаниязов.К.Ш. этнической истори и узбекского народа. Т., Фан, 1974. B 3 – 48.
4. Shoumarov G’., Sharqona oila., T.-2012. B 4 – 27.

QADIMGI SHARQ VA G‘ARB FALSAFASIDA AYOLLAR HAQIDAGI QARASHLAR GENEZISI

Kuanishova Dilmira Tuychiyevna
I.Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
“Falsafa va milliy g‘oya” kafedrasi katta o‘qituvchisi
kuanishovadilmira@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada qadimgi sharq va g‘arb faylasuflarining jamiyatda ayolning o‘rni haqidagi qarashlari, hamda gender munosabatlarining shakllanib borish evolyutsiyasi tahlil qilingan. Shuningdek sharq faylasuflari Lao Szi va Konfutsiy, hamda g‘arb faylasuflari Platon va Aristotelning gender masalalari bo‘yicha ta’limotlarini o‘rganishda tanqidiy tahlil o‘tkazildi.

Kalit so‘zlar: Ayol mavqei, erkak mavqei, Qadimgi Sharq, Qadimgi G‘arb, matriarxat, patriarxat, nikoh va oila, huquq va erkinliklar, qonun hujjatlari, konfutsiylik va daosizm, gender tengsizlik, gender tenglik.

Аннотация: статье анализируются взгляды древневосточных и западных философов о роли женщины в обществе, а также эволюция гендерных отношений. Кроме этого проводится критический анализ при изучении взглядов восточных философов Лао-цзы и Конфуция, в том числе западных философов Платона и Аристотеля по гендерной проблематике.

Ключевые слова: Статус женщины, статус мужчины, Древний Восток, Древний Запад, матриархат, патриархат, брак и семья, права и свободы, законодательство, конфуцианство и даосизм, гендерное неравенство, гендерное равенство.

Abstract: This article analyzes the views of ancient Eastern and Western philosophers on the role of women in society, as well as the evolution of gender relations. It also provides a critical analysis of the views of Eastern philosophers Laozi and Confucius, as well as Western philosophers Plato and Aristotle, on gender issues.

Key words: Status of women, status of men, Ancient East, Ancient West, matriarchy, patriarchy, marriage and family, rights and freedoms, legislation, Confucianism and Taoism, gender inequality, gender equality.

Hozirgi davrda davlat va jamiyat hayotida insonning huquq va erkinliklari ustuvorligi omili ijtimoiy falsafaning asosiy o‘rganish masalasidir, ammo har doim ham bunday holat mavjud bo‘lmagan. Qadimgi davrda asosiy e’tibor shaxsga emas, balki odamlarni o‘rab turgan dunyoga qaratilgan. Dunyoning yaratilish sirlari afsonalar bilan, tabiiy ofatlar sodir bo‘lishi esa xudolar irodasi bilan tushuntirilgan. Shuningdek qadimgi davrlarda davlat va jamiyat hayotida erkaklarning ustuvor o‘rniga, ayollarning esa asosan ikkinchi darajali o‘rniga, ya’ni ularning farzandni dunyoga keltirish va uy ishlarini bajarish vazifasiga asosiy e’tibor qaratilgan.

Masalan, ko‘pgina tarixiy va arxeologik manbalar insoniyatning eng ilk ibtidoiy jamoa tuzumida oila boshqaruvi, oziq-ovqat bilan ta’minlash, oilani qo‘riqlash, avlodni davom ettirish va bolalarni voyaga yetkazishda ayol-onalarning ustunligi – matriarxat mavjud bo‘lganligini isbotlamoqda. Masalan, shved huquqshunos-olimi, professor Iogann Bagofen Yakob (1815-1887 y.y.) 1861 yilda o‘zining “Onalikning huquqiy nazariyasi” asarida, arxelogik qazishmalar va o‘tkazilgan ilmiy tadqiqotlar asosida patriarxatgacha, ya’ni otalar xukmronligiga qadar onalar xukmronligi, ya’ni matriarxat bo‘lganligini isbotlab bergan [1]. Shuningdek, ko‘plab arxeologlar dunyoning turli mamlakatlarida o‘tkazilgan qazishmalar paytida tarixan eng avvalo, matriarxat ya’ni ayollar xukmronligi mavjud bo‘lganligi to‘g‘risidagi xulosaga kelishdi. Keyinchalik, tabiat va jamiyat rivojlanishi natijasida mehnat taqsimoti shakllanishi, ishlab chiqarish qurollari va manbalari rivojlanishi, tabiatga qarshi kurashish va mulkiy qadriyatlarga jismoniy kuch bilan erishilishi natijasida jamiyatda erkaklar mavqeining oshishiga olib keldi, hamda shuning bilan birga ayollarning mavqei ikkinchi o‘ringa joylashtirildi. Lekin, shunga qaramay qadimgi dinlar va afsonalarda ayollarning ona roli muqaddas hisoblanib, qadimgi shumerliklar ayol-onani boylik, davlat, xatto farzandlardan ustun qo‘yishgan. Qadimgi shumerliklar fikriga ko‘ra, hayotda barcha narsani qo‘lga kiritish mumkin, lekin faqat onani emas. Shuning uchun ona muqaddas sanalib, onalik sha’ni va huquqi inson jinsidan qat’iy nazar, barcha farzandlar uchun abadiy va o‘zgarmas hisoblangan.

Keyinchalik Qadimgi Sharq mamlakatlarida uzoq davr mobaynida patriarxal oila kabi jamiyat ijtimoiy shakllarining mavjud bo‘lishi sababli nikoh, oila va meros huquqining barcha me’yorlarida ayollarning bo‘ysunuvchanlik va kamsitilgan ijtimoiy mavqei, ya’ni ona va bolalarning meros huquqlari erkaklar huquqlari bilan tengsizligi kabi an’anaviy xususiyatlar kuzatilgan.

Sharq davlatlaridagi eng qadimgi nikoh va oilaviy munosabatlarni tartibga soluvchi eng muhim huquqiy manbalari Hammurapi (Bobil) qonunlari, Manu va Vishnu-smriti (Hindiston) urf-odatlari, Qadimgi Misr qonunlari edi. Afsuski, bu manbalar bizning davrimizgacha to‘liq saqlanib qolmagan va ular haqida saqlanib qolgan alohida parchalarda o‘sha davrdagi ayollarning jamiyatdagi ijtimoiy mavqei va huquqi ko‘proq din va diniy axloq bilan chambarchas bog‘liq ekanligini ko‘rishimiz mumkin.

Ushbu qonun hujjatlarini tahlil qilish shuni aytishga imkon beradiki, Qadimgi Sharq mamlakatlarida ayollarning jamiyatdagi mavqei va holati erkaklarga nisbatan bo‘ysunuvchan bo‘lgan. Vishnu Smritining 25-bobida aytilishicha, "ayol bolaligida otasiga, yoshligida eriga, qariganda o‘g‘illariga bo‘ysunadi". Biroq, ayol butunlay kuchsiz emas edi. Bobil shohi Hammurapi (e.a. 1792-1750 yillar) qonunlari ayollarning ayrim huquqlarini, shu jumladan mulkiy huquqlarini ham mustahkamlab qo‘ygan. Shunday qilib, ayol nikohga kirayotganda shartnomaga uni qarzlar uchun garovga qo‘yishni ta’qiqlovchi maxsus moddani kiritishni talab qilishi mumkin bo‘lgan (Xammurapi Qonunlarining 151-moddasi) [2]. Shuningdek obyektiv sabablarga ko‘ra ayol o‘z turmush o‘rtog‘ini tark etishi mumkin bo‘lgan va bunday holatda uning sepi o‘z shaxsiy mulki sifatida saqlanib qolgan. Avi-luma qavmidan bo‘lgan ayol o‘z mahrini tasarruf qilishi, eri yoki o‘g‘lining huzurida bitimlar tuzishi mumkin bo‘lgan. Qadimgi Misrda matriarxat an’analari saqlab qolinganligi uchun ayollarning mavqei ancha mustaqil edi. Ammo keyinchalik erkaklar huquqlarining kuchayishi bilan ayollarning obro‘si pasayib borgan.

Qadimgi Sharq davlatlarining qonunchiligida ko‘pxotinlilikka ruxsat berilgan. Bundan tashqari, Xammurapi va Misr qonunlariga ko‘ra, qullar xotinlikka olinishi mumkin edi. Qadimgi Sharqning barcha mamlakatlari uchun umumiy qoida bo‘lib, unga ko‘ra eriga xiyonat qilgan xotin

qattiq jazolangan. Misrda buning uchun erning xotinini olomon oldida kaltaklashi nazarda tutilgan, Xammurapi qonunlariga ko‘ra, agar ayol eriga xiyonat qilsa, unda ayolga o‘lim jazosi berilgan (141-modda), Manu qonunlarida aytilishicha, "eriga xiyonat qilgani uchun xotin bu dunyoda jazoga mahkum, u dunyoda esa shoqol qornida qayta tug‘iladi va dahshatli kasalliklarga chalinadi” (IX bob, Manu qonunlarining 15-moddasi) [3].

Shunday qilib, Qadimgi Sharq mamlakatlarida ayolning oiladagi huquqiy maqomi umumiy belgi va o‘ziga xos xususiyatlarga ega edi. Hindistonda ayol erkakka qaram edi, u hamma narsada unga ergashishga majbur edi. Aynan shu mamlakatda erini dafn qilish paytida tirik ayollarini ham qo‘shib yoqib yuborish marosimi urf bo‘lgan. Bobilda ayol kengroq mavqe va huquqlarga ega bo‘lib, birinchi navbatda bu mulkiy munosabatlar sohasi va ajralish huquqiga tegishli edi. Misrda ayollarning oila va jamiyatdagi holati ancha mustaqil edi.

G‘arbda antik davrlardan boshlab, o‘rta asrlar, Uyg‘onish davri va to hozirgi vaqtgacha bo‘lgan uzoq tarixiy davrlar davomida gender tengsizlik to‘g‘risidagi ijtimoiy-falsafiy va huquqiy fikrlar hamda qarashlar o‘z rivojining bir qancha xronologik ketma-ketlik bosqichlarini bosib o‘tdi. Ushbu tarixiy davrlar davomida yaratilgan ta’limot va qarashlar jamiyatda xotin-qizlar ijtimoiy mavqei shakllanishi va rivojlanishining asosini tashkil qildi.

Antik davrlardan boshlab, ayolning jamiyatda egallagan mavqeidan qat’iy nazar, erkak va ayolning gender tengsizligi qadriyatlari tan olingan edi. Bunday holatning mohiyati shu bilan asoslangan ediki, ayollar va erkaklar “turli tabiiy xususiyatlarga ega va ular teng bo‘lishi mumkin emas” edi. Gender tengsizlik tushunchasining klassik tarafdori yirik yunon faylasufi Platon (e.a. 427-374 y.y.) bo‘lib, u ayolni quyi mavjudot, unga bo‘lgan muhabbatni esa – hayvonlarga xos hissiyot, ya’ni avlodni davom ettirish va ko‘paytirish ehtiyojidan bo‘lak boshqa hech narsa emas, deb hisoblagan.

Platonning erkak va ayolning kelib chiqishi to‘g‘risidagi qarashlari “Bazm” asarida keltirilgan bo‘lib, bu qarash gender nuqtayi nazaridan alohida qiziqishni uyg‘otadi. U bu asarida insonning bir butun, keyinchalik ikki turdagi jinsga ajralish tabiatini ifodalab beradi. Platon ta’kidlaydiki: “Eng avvalo insonlar uch turdagi jinsdan iborat edi ..., chunki uchinchi jins ... – androginlar ham mavjud edi..., ular o‘zlarida ayol va erkak kabi ikkala jinsning ko‘rinishi va ifodasini o‘zida mujjassamlashtirgan edi. Lekin bu insonlar xudoga qarshi chiqqandan so‘ng Zevs ularning tanasini ikkiga ajratib yuborgan edi, shu kundan boshlab ular birlashish maqsadida o‘zining ikkinchi bo‘lagini qidirishmoqda” [4].

Aristotel (e.a. 384-322 y.y.) ham gender tengsizlik nazariyasi tarafdori edi. Uning ta’kidlashicha, bolani yaratish jarayonida erkak farzandiga “shakl”ni, ya’ni ruhni beradi, ayol esa “materiya”, ya’ni tanani beradi. “Ruh” o‘zining tabiatiga ko‘ra tanadan afzal va ilohiy xususiyat bo‘lganligi sababli, ayol va erkakning bir-biridan ajratilganligi to‘g‘ridir. Faqat shu sabab bilan ikki jinsning mavjudligini tushuntirib berish mumkin” [5]. Ushbu nazariyadan kelib chiqqan holda, jinslarning mavjudligi – bu dunyoning yaratilishi tizimidagi o‘z qonuniy o‘rniga ega bo‘lmagan tasodifiy hodisadir, ya’ni erkakning mavjudligi me’yoriy holat, ayolning mavjudligi esa me’yordan og‘ishdir. Shuningdek jinslar ajratilishining yagona mohiyati farzandlar tug‘ilishi bilan bog‘liq bo‘lib, ayollarning jamiyatdagi yagona mas’uliyati - bu avlodni dunyoga keltirish bo‘lgan.

Yuqorida keltirilgan g‘arb mutafakkirlarining fikrlarga asoslangan holda, shunday xulosaga kelish mumkinki, gender tengsizlik to‘g‘risidagi antik davr qarashlari aqliy salohiyatning tabiiy tengsizligiga asoslangandir. Ushbu nazariya hozir kunda ham, jumladan ilmiy muhitda ham keng tarqalgan bo‘lib, gender muammolariga bag‘ishlangan ilmiy ishlarda erkak va ayolning biologik farqlanishi to‘g‘risidagi qarashlar mavjud.

Qadimgi Xitoyda esa asosan daosizm va konfutsiylik falsafiy-diniy ta’limoti jamiyat hayotida hukmronlik qilgan bo‘lib, Lao Szi va Konfutsiy ushbu ikkita asosiy ta’limotining asoschilaridir. Har ikkala donishmand ham miloddan avvalgi 1-ming yillik o‘rtalarida Chjou sulolasi davrida yashagan bo‘lib, ularning falsafiy-diniy ta’limoti jamiyatda arxaik madaniy qadriyatlari o‘z obro‘sini yo‘qotib, uning o‘rniga o‘ziga xos ijtimoiy-huquqiy qarashlar hukmronlik qilishiga sababchi bo‘lishgan.

Lao Szi (Li Er) - qadimgi xitoy faylasufi, miloddan avvalgi VI-V asrlarda yashagan, hamda klassik “Lao Szi” yoki “Dao De Szin” nomi bilan ham tanilgan daosizm risolasining muallifidir. “Dao De Szin” ta’limotining markazida butun Xitoy madaniyati uchun asos bo‘lgan Dao (yo‘l) va De (uning yaxshi kuchi; inoyat) tushunchalari joylashgan. “Dao De Szin” dagi Dao - bu eng oliy asos, butun borliqning asosi ("Samoviy imperiyaning onasi") va shu bilan birga – butun borliqning mavjudligi qonunidir. Lao Szi ushbu asarida butun olamning yaratuvchisi Xudoning siymosini erkak kishi ko‘rinishida emas, balki ayol kishi timsolida tasvirlagan. Masalan, “Dao De Szin”ning bir qator parchalarida hayotning buyuk manbai sifatida Daoda ishtirok etish orqali umrni uzaytirish, abadiylik va mustahkamlikka ega bo‘lish mumkinligi haqida ishoralar mavjud. Bu asarning bir necha joylarida Dao - ayollik ibtidosi bo‘lgan samoviy imperiyaning onasi, muqaddas yaratguvchi, tirik jonzot yaratuvchisi va boshqalarga o‘xshatiladi [6].

Keyinchalik daosizm ta’limoti Qadimgi Xitoyda buyuk samoviy imperiyalarning shakllanishi va rivojlanishiga o‘zining ulkan ta’sirini ko‘rsatdi. Masalan, milodiy 215 yilda Xitoyda uchinchi Samoviy ustoz Chjan Lu harbiy diktator general Sao Sao qo‘shinlariga taslim bo‘lgandan so‘ng ushbu davlatni 24 ta tumanga (chji) bo‘lingan bo‘lib, ularning har biriga 24 ta amaldor boshchilik qilgan. Ushbu 24 nafar mansabdor shaxslar orasida 12 erkak va 12 ayol bor edi [7].

Shuningdek Konfutsiyning falsafiy fikrlari ikki ming yildan ortiq vaqt mobaynida Xitoy hayotining siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy va boshqa jabhalariga chuqur ta’sir ko‘rsatdi. Lekin ushbu ta’limotning aksariyat qismi hukmdorlarning ehtiyojlari asosida va keyinchalik konfutsiylikni tadqiq qilgan olimlar tomonidan noto‘g‘ri talqin qilingan. Bu o‘zgarishlar, ayniqsa, "ayollarning ijtimoiy holati" mavzusiga tegishli edi. Bu noto‘g‘ri talqinlar nafaqat Konfutsiyning dastlabki fikrlari va qarashlarini buzib ko‘rsatdi, shuningdek, Xitoyda jamiyatning ijtimoiy-siyosiy taraqqiyotiga, ayniqsa, ayollar ijtimoiy mavqeiga yomon ta’sir ko‘rsatdi.

Konfutsiylikdagi asosiy g‘oya bu “insonparvar hukumat” bo‘lib, ya’ni unga ko‘ra hukmdor o‘z fuqarolariga e’tibor berishi kerak deyiladi hamda bu g‘oya hozirgi zamonaviy jamiyatda “fuqarolik jamiyati” tushunchasiga mos keladi. Konfutsiy g‘oyalarida erkaklar, ayollar, qariyalar va bolalar jamiyatda bir xil darajada muhim va hukmdorning g‘amxo‘rligiga muhtoj deyiladi. Keyinchalik hukmdorlar patriarxal hokimiyatni mustahkamlash va saqlab qolish uchun ayollarning mavqeini pasaytiruvchi qarashlarga ega bo‘lib, Konfutsiyning jamiyatdagi ayollar mavqei va o‘rni haqidagi g‘oyalaridan chetga chiqib, o‘z ehtiyojlarini qondirish uchun noto‘g‘ri talqin qildilar.

Xitoydagi In va Yan nazariyasiga ko‘ra, "I-szin"da dunyo Yan va Inning birlashuvidan yaratilgan deb yozilgan. “Odob haqida eslatmalar”da ham shunday deyilgan: “Biz bir yerdanmiz, bu yer osmonu yerga, ya’ni In va Yanga bo‘lingan, keyin esa to‘rt faslga bo‘lingan” [8]. Shuni ta’kidlash kerakki, Konfutsiylik ta’limoti jamiyat ikki qarama-qarshi qismdan - osmon va yerdan, erkak va ayoldan, kunduz va tundan iborat deb hisoblaydi. G‘arb falsafasidagi erkak va ayolning dualistik idrokidan farqli o‘laroq, In va Yan qarama-qarshi bo‘lmagan, bir-birini to‘ldiruvchi ikki tushuncha sifatida mavjud bo‘lgan. Shuning uchun an’anaviy Xitoydagi ushbu yondashuv gender zulmini oqlash uchun yetarli asoslar bermaydi, ya’ni unda erkakning ayol ustidan hukmronlik tushunchasi mavjud emas [9].

Qadimgi Xitoy va Sharqiy Osiyo madaniyatida ayollarga nisbatan asosan past o‘rin berilgan va buning uchun asosan konfutsiylik ta’limoti aybdor deb hisoblanadi. Darhaqiqat, Konfutsiy ta’limotida ayollarga kam e’tibor qaratilgan, ammo faylasuf ularga salbiy munosabatda bo‘lgan deb ishonish uchun hech qanday asos yo‘q. Chunki Konfutsiyning “Ming so‘z” asarida shunday ibora bor: “Uyda onangning donishmand nasihatini hurmat qil”. Shu bilan birga, Konfutsiy ta’lim olishning umumiy g‘oyasini yaratdi va u "odamlar o‘rtasida ta’lim olishda farq yo‘q” [10] deb hisoblaydi.

“I-szin”da aytiladiki, erkak va ayollar ham insondir hamda ular teng mavqega ega, ammo "erkaklar va ayollar o‘rtasida farqlar mavjud" deyiladi. Bu g‘oyada asosan erkaklar va ayollar o‘rtasidagi farq ularning jismoniy xususiyatlariga nisbatan aytilgan bo‘lib, ya’ni Qadimgi Xitoyda feodal munosabatlar ustunlik qilganligi uchun erkaklar harbiy, siyosiy va qishloq xo‘jaligi sohalari

bilan, ayollar esa ko‘proq jismoniy yengilroq vazifalar, ya’ni uy xo‘jaligi ishlari va to‘qimachilik sohasi bilan shug‘ullanishgan.

Ba’zi olimlarning fikricha, Qadimgi Xitoyda ayollarning davlat boshqaruvida qatnashishi ta’qiqlangan, hamda bu holat erkak va ayollarning tengsizligini aks ettiradi. Lekin Konfutsiy ayollar davlat ishlarini bajarishga qodir emas deb hisoblamagan. Masalan Konfutsiy “Lun Yu” asarida mamlakatni boshqarayotgan o‘n nafar amaldor orasida ichki ishlarga bir ayol mas’ul bo‘lishi kerak, ya’ni oliyjanob mamlakat uchun to‘qqizta ma’muriy amaldor yetarli emas deb hisoblaydi [11]. Shundan ko‘rish mumkinki, Konfutsiy g‘oyalarida ayollar erkaklar bilan bir xil maqomga ega bo‘lib, ular ham mamlakatni erkaklar kabi boshqara oladilar deyiladi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, qadimgi sharq faylasuflari Lao Szi va Konfutsiy, shuningdek g‘arb faylasuflari Platon va Aristotelning gender masalalari bo‘yicha ta’limotlarini tanqidiy tahlil qiladigan bo‘lsak, o‘sha davrda mavjud bo‘lgan feodal va patriarxal jamiyat xususiyatlaridan kelib chiqqan holda ijtimoiy munosabatlarning ayrim masalalarida erkaklarning ayollarga nisbatan ustunligi targ‘ib qilingan. Lekin shunga qaramay, ushbu tarixiy davrlar davomida yaratilgan ta’limot va qarashlar jamiyatda xotin-qizlar ijtimoiy mavqeining ilk shakllanib borishi va rivojlanishining evolyutsion jarayonini tashkil qiladi. Jamiyatning barcha tarixiy davrlarida gender tenglik masalalari ya’ni ayolning jamiyatdagi ijtimoiy mavqei va o‘rni to‘g‘risida bahslar mavjud bo‘lgan, lekin tarixiy taraqqiyotning har bir bosqichida bu muammo o‘zining dolzarbligi va xususiyati bilan ajralib turgan.

Jamiyat rivoji turli bosqichlarida gender tenglik masalalari falsafa va boshqa ijtimoiy fanlarning ilmiy tadqiqot obyekti bo‘lib kelganligiga qaramasdan, bugungi zamonaviy davrga kelib ham bu masala o‘zining to‘liq yechimini topdi deb ayta olmaymiz. Chunki gender tenglik muammosi, ayniqsa xotin-qizlarning ijtimoiy mavqei masalasi davr va zamon o‘tgan sayin yanada yangi tus olib jadallashib bormoqda. Lekin ushbu muammolarga qaramay zamonaviy fuqarolik jamiyatida gender tenglik masalalari bosqichma-bosqich o‘z yechimini topib bormoqda, ya’ni bugungi kunda xotin-qizlarning jamiyatdagi o‘rni va mavqei jadal ravishda oshib bormoqda. Jumladan, bu jarayonni dunyoning deyarli barcha mamlakatlari iqtisodiy, siyosiy, madaniy va ijtimoiy hayotida xotin-qizlarning hajmi ortib borishida kuzatish mumkin. Lekin shunga qaramay xotin-qizlarning zamonaviy jamiyatning siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlariga moslashuv jarayonida ba’zi bir kamchiliklar ham mavjuddir. Ushbu masalaning yechimini topish esa hozirgi kunda nafaqat davlat arboblari va nodavlat notijorat tashkilotlar tashabbuskor vakillarining, balki yetuk olimlar, faylasuflar hamda barcha jamiyat a’zolarining oldida turgan ulkan vazifasidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Dubinin N.P. Genetika. Povedeniye. Otvetstvennost. – M.: Politizdat, 1992, 304 s.
2. Vardiman Ye. “Jenshina v drevnem mire” Moskva “Nauka” 2006.
3. Komorotsi G. Drevniy Vostok i mirovaya kultura. Moskva 2003.
4. Bergel Ye. Sotsialnaya stratifikatsiya. - Yekaterinburg.1998, 209-221 s.
5. Aristotel. Sobraniye sochineniy. / pod redaksiyey A.I.Dovatur, F.X.Kessidi. M.: Misl, 1983, 832 s.
6. Torchinov E. A. Daosizm. «Dao-De szin». — SPb.: «Azbuka-klassika»; «Peterburgskoye Vostokovedeniye», 2004. — 256 s. – 96 s.
7. O‘sha yerda. – 35 s.
8. I-szin // Gao Xen kommentiroval, izdatelstvo universiteta Sinxua, 01.02.2005. -735 s.
9. Confucianism for the Modern World / Cheng Qianyi // Bell and Chaibong eds. New York: Cambridge University Press, 2003, p. 312-333.
10. Sin Yee Chan, Gender and Relationship Roles in the Analects and the Mencius // An International Journal of the Philosophical Traditions of the East, 2000. p. 115-132.
11. Alison Black, Gender and Cosmology in Chinese Correlative Thinking // Gender and Religion, Caroline Bynum, Stevan Harrell, Paula Richman (Boston: Beacon Press), 1986. p. 594-598.

PARTICIPATION OF UZBEK SOLDIERS IN THE MILITARY OPERATIONS BETWEEN THE SOVIET LIMITED CONTINGENT AND AFGHAN OPPOSITION FORCES DURING THE AFGHAN WAR

Shoyimov Sanjarbek Saidmurod ogli
Tashkent State University of Economics
Senior Lecturer, Department of Social Sciences,
sanjarbekshoyimov@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada o‘zbek askarlarining Afg‘onistondagi harbiy amaliyotlarda Sovet armiyasi tarkibida ishtirok etishi, afg‘on muxolifat kuchlariga qarshi yirik janglar, bu urushda o‘zbeklarning ishtiroki haqida kerakli ma’lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: Afg'oniston, Afg'onistondagi harbiy amaliyotlar, Sovet armiyasi, afg'on muxolifat kuchlari, Afg'onistondagi siyosiy vaziyat

Аннотация: В статье представлена необходимая информация об участии узбекских военнослужащих в боевых действиях в Афганистане в составе Советской армии, основных сражениях с афганской оппозицией и роли узбеков в этой войне.

Ключевые слова: Афганистан, военные операции в Афганистане, Советская армия, афганская оппозиция, политическая ситуация в Афганистане

Abstract: This article provides necessary information about the participation of Uzbek soldiers in the military operations in Afghanistan as part of the Soviet army, the major battles against Afghan opposition forces, and the role of Uzbeks in this war.

Keywords: Afghanistan, military operations in Afghanistan, Soviet army, Afghan opposition forces, political situation in Afghanistan

During the 1980s, the war in Afghanistan became a tragic loss not only for the Afghan people but also for the Soviet nations, particularly for Uzbeks. The conflict began in the 1970s with the escalation of political tensions in Afghanistan, the rise to power of the pro-Soviet PDPA, and its support from the USSR government. The rapprochement of Afghan leader Hafizullah Amin with the United States and his betrayal toward the Soviets led to the meeting of the CPSU Central Committee on December 12, 1979, titled “On the Situation in Afghanistan.” As a result, the USSR deployed its Armed Forces into Afghanistan at the request of the Afghan government and in accordance with the Soviet-Afghan Treaty of Friendship and Cooperation. Historians note that from March to December 1979, the Afghan government requested Soviet military assistance 19 times. On December 27, 1979, Hafizullah Amin’s residence, the Tajbeg Palace, was besieged by Soviet forces, and the Afghan leader was killed. Soon afterward, the Democratic Republic of Afghanistan was proclaimed, and Babrak Karmal, former PDPA leader and ex-ambassador of the USSR to Prague, was appointed head of state[1:38].

The Soviet 40th Army, officially known as the “Limited Contingent of Soviet Forces in Afghanistan,” was introduced into the country under the command of Lieutenant General Y. V. Tukhariov, First Deputy Commander of the Turkestan Military District. By 1985, the number of Soviet troops reached 108,800 (106,000 military personnel), with 73,600 in direct combat units. Soviet troops, together with Afghan security forces (Sarandoy), were tasked with protecting highways and strategic facilities, including gas industries in Jarkuduk and Shibirghan, power stations in Surubi, Naghlu, Puli Khumri, and Kabul, a fertilizer plant in Mazar-i-Sharif, the Salang tunnel, and several educational institutions in Kabul.

Between 1979 and 1989, more than 64,500 Uzbeks served in Afghanistan, of whom 1,545 were killed and 3,067 returned home disabled. Among them, Captain Rofi Pardayev, deputy chief of staff in Asadabad (1981–1983), played a notable role. Under his leadership, operations in Jalalabad and Kunar provinces involved installing signal sensors and recording enemy coordinates. Battalion commander Bakhitjon Ertaev led these missions[2:134].

Other Uzbeks, such as translator-officer Tal’at Pardayevich Muradov, who served in Afghanistan (1984–1985), were decorated with the Order of the Red Star for bravery. Meanwhile, Gulmirza Sheranov from Khorezm lost both legs due to a mine explosion in 1986 while serving near Bagram. Officer Rustam Sultonovich demonstrated outstanding service in border protection

and logistics operations, leading the 107th Border Detachment, and survived several ambushes. For his bravery, he was awarded the “Veteran of the Afghan War” medal and the “Afghan Glory” order.

Former serviceman Oleg Valentinovich participated in the military operations in Kandahar, Alikhayl, and Panjshir during the 1980s. He was wounded in Kandahar. From 1985 to 1986, Uzbek sergeant Abdurazzoq Abdujalilovich Samatov served in the village of Rukha in the Panjshir Valley. Recalling his experience, he states:

“My first injury occurred as a result of a mine explosion and was relatively minor. The second injury happened when our infantry fighting vehicle, carrying five men, was surrounded, and I was defending it. During that moment, I carried out my comrade, sniper Sh. Mamadaliyev, who had been shot in the head, while I was wounded by two explosive bullets. This event took place on October 10, 1986. For this, I was awarded the Order of the Red Star[3:39].

He further notes that Afghan soldiers who fought alongside the Soviets against opposition forces were not always reliable, remarking:

“In Sarandoy, they participated in many joint operations with Soviet troops. However, when they acted separately, there was always the risk of betrayal.”

Between 1985 and 1987, Samatov served in Afghanistan. After undergoing three months of military training in Turkmenistan, he was assigned as a medical instructor to the 102nd Regiment in Tashkurgan, and shortly thereafter transferred to the regiment in Hairaton. He served as a machine gunner in reconnaissance units, where he was responsible for guarding three major gas pipelines (GSM) near Hairaton. For his service, he was awarded the Medal “For Combat Service,” the Medal “70 Years of the Soviet Armed Forces,” and several other decorations[4:56].

Between 1979 and 1989, more than 64,500 young men and women from Uzbekistan served in the armed conflict in Afghanistan; of these, 1,545 were killed, and 3,067 returned home disabled.

Uzbek soldiers who participated in the Afghan war were awarded various state medals and orders in recognition of their bravery and dedication. These awards were primarily conferred during the Soviet era to honor acts of courage and commitment. The main awards included:

1. Order of the Red Banner – One of the highest Soviet orders, awarded for exceptional bravery and distinguished service in battle. Many Uzbek participants of the Afghan war received this order.
2. Order of the October Revolution – The second-highest Soviet order, awarded to those who demonstrated heroism during the war.
3. Order of the Red Star – Granted for special military service, courage, or devotion. A considerable number of Uzbek soldiers were recipients of this order.
4. Medal “For Courage” – Awarded to soldiers who demonstrated bravery and dedication on the battlefield. Many Uzbeks who served in Afghanistan received this medal.
5. Medal “For the Final Objective” – Bestowed upon soldiers who successfully completed the ultimate mission in combat. This medal was well-known among Afghan war veterans.
6. Medal “For Service in Afghanistan” – A special medal awarded to every soldier who served in Afghanistan, serving as official recognition of their participation.
7. Medal “For Combat Service” – Awarded for active engagement in military operations[5:230].

These decorations were conferred to acknowledge the heroism and sacrifice of Uzbek servicemen who fulfilled their military duty during the Afghan war. For further details, one may refer to specialized archives or publications on Soviet military awards.

References:

1. Их выбрала Родина / Авт.-сост. Олейников В. В. – Рыбинск: Изд-во О53 АО «РДП», 2020. С. 30-31.

2. Топорков В.М. Советско-афганские отношения в 1975-1991 гг.: исторический опыт разработки и реализации военно-политической стратегии СССР. Чебоксары: 2014. С. 316.

3. Richard Cohen (1988-04-24). "Afghanistan was Soviets' Vietnam" . Boca RatonNewshttps://news.google.com/newspapers?nid=1291&dat=19880424&id=DIBUAAAAIBAJ&sjid=nI0DAAAAIBAJ&pg=4618,8684307&hl=en

4. № П177 /220. ЦХСД 89, Перечень 14, Док 34, Стр 1-5, 22 I 3.

5. Риа Новости // Участие Советского Союза в войне в Афганистане в 1979-1989 годах. и https://ria.ru/20180515/1520504670.html

IQTISODIY ISLOHOTLARDA IJTIMOIY KOMMUNIKATSIYA VA MADANIY ONGNING AHAMIYATI

Mo‘ydinov Xurshidbek Abdullayevich
Qo‘qon universiteti Andijon filiali dotsenti
Axmadjonov Abduvoxidjon Zafarbek o‘g‘li
Qo‘qon universiteti Andijon filiali talabasi
E-mail: xurshidbekabdullayevich80@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish jarayonida ijtimoiy kommunikatsiya va madaniy ongning o‘rni tahlil qilinadi. Tadqiqotda jamiyatdagi axborot oqimi, muloqot madaniyati va fuqarolarning iqtisodiy islohotlarga bo‘lgan ishonchi o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik yoritiladi. Ijtimoiy kommunikatsiya mexanizmlari orqali iqtisodiy siyosatning samarali amalga oshirilishi, aholining iqtisodiy faoliyatga jalb etilishi va islohotlarning barqarorligi ta’minlanishi ko‘rsatib berilgan.

Kalit so‘zlar: ijtimoiy kommunikatsiya, madaniy ong, iqtisodiy islohotlar, fuqarolik jamiyati, axborot madaniyati, iqtisodiy tafakkur, barqaror rivojlanish.

Аннотация. В данной статье анализируется роль социальной коммуникации и культурного сознания в процессе реализации экономических реформ. В исследовании освещается взаимосвязь между информационными потоками в обществе, культурой общения и доверием граждан к экономическим преобразованиям. Показано, что посредством механизмов социальной коммуникации обеспечивается эффективная реализация экономической политики, вовлечение населения в экономическую деятельность и устойчивость реформ.

Ключевые слова: социальная коммуникация, культурное сознание, экономические реформы, гражданское общество, информационная культура, экономическое мышление, устойчивое развитие.

Abstract. This article analyzes the role of social communication and cultural consciousness in the implementation of economic reforms. The study highlights the interrelation between the flow of information in society, communication culture, and citizens’ trust in economic transformations. It is shown that through social communication mechanisms, effective implementation of economic policy, public engagement in economic activities, and the sustainability of reforms can be ensured.

Keywords: social communication, cultural consciousness, economic reforms, civil society, information culture, economic thinking, sustainable development.

Bugungi globallashuv va raqamli transformatsiya davrida har bir mamlakatning iqtisodiy taraqqiyoti nafaqat moliyaviy resurslar, balki inson omili, ijtimoiy kommunikatsiya va madaniy ong darajasi bilan ham chambarchas bog‘liqdir. Iqtisodiy islohotlarning muvaffaqiyati ko‘p jihatdan fuqarolarning yangilikka ochiqligi, axborot almashinuvi samaradorligi va jamiyatdagi madaniy qadriyatlarning uyg‘unligiga tayanadi. Shu bois, ijtimoiy kommunikatsiyani samarali yo‘lga qo‘yish va madaniy ongni oshirish iqtisodiy siyosatning ajralmas qismiga aylanmoqda [1,61].

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev ta’kidlaganidek, “islohot islohot uchun emas, avvalo inson manfaatlari uchun xizmat qilishi kerak”. Ushbu yondashuv iqtisodiy islohotlarni jamiyatning ma’naviy va ijtimoiy ehtiyojlari bilan uyg‘un holda olib borish zarurligini ko‘rsatadi. Zero, har qanday iqtisodiy o‘zgarishlarning natijasi inson tafakkuri, madaniy qadriyatlar va ijtimoiy ong orqali shakllanadi [2,45].

Ijtimoiy kommunikatsiya tizimi iqtisodiy siyosatning mazmunini aholiga to‘g‘ri yetkazish, islohotlarga nisbatan ishonchni mustahkamlash va fuqarolarning faol ishtirokini ta’minlashda muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi. Shu nuqtai nazardan, iqtisodiy islohotlarning samaradorligi ularni qanday tushuntirish, jamiyat bilan qanday muloqot o‘rnatilishiga bevosita bog‘liqdir [3,28].

Madaniy ong esa iqtisodiy islohotlarga ijtimoiy tayanch yaratadi — u insonlarni yangilikni qabul qilishga, iqtisodiy mas’uliyatni anglashga va barqaror rivojlanishga undaydi. Rivojlangan davlatlar tajribasi shuni ko‘rsatadiki, iqtisodiy o‘sish faqat texnologiyalar yoki kapital oqimiga emas, balki jamiyatdagi madaniy birlik va ijtimoiy ishonch darajasiga ham tayanadi [4,102].

Iqtisodiy islohotlarni muvaffaqiyatli amalga oshirishda ijtimoiy kommunikatsiya va madaniy ongning o‘rni so‘nggi yillarda xalqaro ilmiy doiralarda alohida tadqiqot yo‘nalishiga aylandi. Chunki iqtisodiy o‘sish faqat moddiy ishlab chiqarish va kapital bilan emas, balki jamiyatdagi ijtimoiy kayfiyat, axborot madaniyati hamda ishonch muhitiga bevosita bog‘liqdir.

G‘arb tadqiqotchilaridan Y. Habermas o‘zining “Kommunikativ harakatlar nazariyasi” asarida iqtisodiy siyosatni amalga oshirishda ijtimoiy muloqot, ochiqlik va fuqarolarning ishtirokini demokratik jamiyatning asosiy sharti sifatida talqin etgan [5,87]. Uning fikricha, iqtisodiy qarorlar faqat markazlashgan boshqaruv emas, balki ijtimoiy kommunikatsiya orqali jamoaviy anglashuv natijasida samarali bo‘ladi.

A. Toffler esa “Uchinchi to‘lqin” asarida madaniyat va texnologiyaning uyg‘unlashuvi jamiyatning iqtisodiy rivojlanish sur’atini belgilashini ta’kidlagan. Unga ko‘ra, yangi iqtisodiyot modeli — bu “axborotga asoslangan madaniy iqtisodiyot” bo‘lib, unda ijtimoiy ong va kommunikatsiya asosiy ishlab chiqarish kuchiga aylanadi [6,54].

Shuningdek, P. Drucker tomonidan ilgari surilgan “bilim iqtisodiyoti” konsepsiyasida insonning madaniy qadriyatlari, kasbiy tafakkuri va ijtimoiy mas’uliyati iqtisodiy samaradorlikning markazida turadi. Drucker inson kapitalini shakllantirishda gumanitar fanlar, xususan kommunikativ kompetensiya va madaniy moslashuvchanlikni hal qiluvchi omil sifatida ko‘rsatadi [7,73].

Mahalliy tadqiqotlarda ham bu masalaga e’tibor kuchaymoqda. Jumladan, A. Vohidov iqtisodiy islohotlarning barqarorligini ta’minlashda ijtimoiy kommunikatsiya tizimining ochiqligi va samaradorligini alohida omil sifatida belgilaydi. Unga ko‘ra, davlat siyosatining muvaffaqiyati aholining uni qanday qabul qilishiga va qanday muloqot orqali yetkazilishiga bog‘liqdir.

Shuningdek, M. Raximova o‘z tadqiqotida madaniy ong va iqtisodiy tafakkur o‘rtasidagi o‘zaro aloqani tahlil qilib, fuqarolarning madaniy saviyasi iqtisodiy islohotlarni qo‘llab-quvvatlash darajasiga bevosita ta’sir ko‘rsatishini aniqlagan [8,112]. Uning fikricha, iqtisodiy islohotlar faqat “yuqoridan pastga” yo‘nalishdagi tashabbus emas, balki “pastdan yuqoriga” — jamiyat madaniy tayyorgarligiga asoslangan jarayon bo‘lishi kerak.

Umuman olganda, mavjud adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, iqtisodiy islohotlarning samaradorligi faqat iqtisodiy mexanizmlar bilan emas, balki kommunikatsion madaniyat, ijtimoiy ishonch va madaniy ong darajasi bilan belgilanadi. Shu sababli, iqtisodiy siyosatni ishlab chiqishda gumanitar fanlarning ilmiy yondashuvlari, xususan sotsiologik, psixologik va kommunikativ tahlil metodlarini integratsiyalash dolzarb hisoblanadi.

O‘zbekiston iqtisodiyotida amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar jarayonida ijtimoiy kommunikatsiya va madaniy ongning o‘rni tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Zero, har qanday iqtisodiy o‘zgarishlar faqat qonun, farmon yoki strategik dasturlar orqali emas, balki ularning mazmuni va mohiyati aholi tomonidan qanday qabul qilinishiga ham bog‘liqdir. Shu sababli, ijtimoiy kommunikatsiya tizimi iqtisodiy siyosatni tushuntirish, fuqarolarga yangilanish jarayonini to‘g‘ri yetkazish va ularni faol ishtirok etishga undashda hal qiluvchi rol o‘ynaydi.

So‘nggi yillarda mamlakatda ochiqlik siyosati, davlat organlarining jamoatchilik bilan muloqoti va axborot almashinuvi mexanizmlarini rivojlantirishga katta e’tibor qaratilmoqda. Ayniqsa, “Ochiq byudjet”, “Mening fikrim” kabi loyihalar orqali iqtisodiy qarorlar yuzasidan aholining fikrini o‘rganish, fuqarolarning takliflarini iqtisodiy dasturlarga kiritish amaliyoti joriy etildi. Bu holat ijtimoiy kommunikatsiya vositalarining davlat va jamiyat o‘rtasidagi o‘zaro ishonchni mustahkamlashdagi samaradorligini yaqqol namoyon etadi.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, kommunikatsiya tizimining rivojlanishi bilan birga iqtisodiy islohotlarga nisbatan aholining ishonchi, ularning islohotlarda ishtirok etish istagi ham ortib bormoqda. Aholi o‘rtasida olib borilgan sotsiologik so‘rovlar natijalariga ko‘ra, iqtisodiy o‘zgarishlarning maqsadi va natijalari haqida yetarli ma’lumotga ega fuqarolar o‘z faoliyatida innovatsion g‘oyalarni ilgari surish, yangi iqtisodiy tashabbuslarni qo‘llab-quvvatlashga ko‘proq moyil bo‘ladi. Demak, ijtimoiy kommunikatsiya nafaqat axborot tarqatish vositasi, balki iqtisodiy tafakkur va ijtimoiy faollikni shakllantiruvchi omildir.

Madaniy ongning iqtisodiy jarayonlardagi roli ham o‘ziga xosdir. Insonlarning iqtisodiy faoliyatga, mehnatga, jamiyatdagi boylik yaratish jarayoniga bo‘lgan munosabati — ularning madaniy dunyoqarashi bilan belgilanadi. Agar fuqarolarda iqtisodiy madaniyat, mehnat etikasiga hurmat, halollik va ijtimoiy mas’uliyat qadriyatlari mustahkam bo‘lsa, iqtisodiy islohotlar samaradorligi yuqori bo‘ladi [9,102]. Shu sababli iqtisodiy islohotlar bilan bir qatorda ma’naviy-ma’rifiy islohotlarning ham bir vaqtda olib borilishi g‘oyat muhimdir. Chunki iqtisodiy yangilanish inson ongidagi o‘zgarishlarsiz to‘liq natija bermaydi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, madaniy ong va iqtisodiy tafakkur o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik iqtisodiy o‘sish sur’atlariga bevosita ta’sir qiladi. Aholining madaniy saviyasi, ta’lim darajasi va axborotga ochiqligi oshgan sari ularning iqtisodiy faoliyati, innovatsiyaga moyilligi va moliyaviy intizomi ham kuchayadi. Rivojlangan mamlakatlar tajribasida ham iqtisodiy yuksalishning poydevori sifatida fuqarolarning madaniy tayyorgarligi va ijtimoiy ishonch muhim o‘rin tutadi. Shu bois, O‘zbekistonda ham iqtisodiy islohotlarni madaniyat siyosati, ta’lim islohotlari va kommunikatsiya strategiyasi bilan uyg‘unlashtirish zarurati mavjud.

Shuningdek, ijtimoiy kommunikatsiyaning madaniy jihatdan asoslanmagan shakli iqtisodiy siyosat samaradorligini pasaytirishi mumkin. Agar axborot tarqatish jarayoni bir tomonlama bo‘lsa, aholida ishonchsizlik paydo bo‘ladi, bu esa iqtisodiy islohotlarning barqarorligini xavf ostiga qo‘yadi. Shu sababli kommunikatsiya jarayoni ikki yo‘nalishda — ya’ni “davlatdan jamiyatga” va “jamiyatdan davlatga” bo‘lishi kerak. O‘zaro muloqot, fikr almashish, ijtimoiy tahlil va teskari aloqa iqtisodiy siyosatni takomillashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Natijalar shuni ko‘rsatadiki, iqtisodiy islohotlarning ijtimoiy samaradorligi asosan uchta omilga tayanadi: birinchidan, iqtisodiy siyosatning mazmunini aholiga to‘g‘ri yetkazuvchi kommunikatsiya mexanizmlarining mavjudligi; ikkinchidan, madaniy ong va iqtisodiy tafakkurning uyg‘un rivojlanishi; uchinchidan, davlat va jamiyat o‘rtasidagi o‘zaro ishonch muhitining shakllanganligi. Ushbu omillar uyg‘unlashgandagina iqtisodiy o‘sish barqaror, islohotlar esa xalq tomonidan qo‘llab-quvvatlanadigan jarayonga aylanadi.

Iqtisodiy islohotlarning muvaffaqiyati kommunikatsiya sifati va madaniy ong darajasi bilan chambarchas bog‘liqdir. Bu ikki omil jamiyatda iqtisodiy tafakkurni yangilaydi, fuqarolarning davlat islohotlariga nisbatan mas’uliyatini kuchaytiradi va natijada mamlakatning barqaror iqtisodiy rivojlanishiga xizmat qiladi.

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, iqtisodiy islohotlarning muvaffaqiyati jamiyatdagi ijtimoiy kommunikatsiya tizimi va fuqarolarning madaniy ongi bilan chambarchas bog‘liq. Iqtisodiy o‘zgarishlar inson tafakkuri, qadriyatlari va ijtimoiy muhit orqali shakllanadi. Agar islohotlarning mazmuni aholiga to‘g‘ri tushuntirilmasa, eng yaxshi iqtisodiy chora-tadbirlar ham kutilgan natijani bermaydi. Shu bois, davlat siyosati kommunikatsion jihatdan ochiq, aholiga yaqin va tushunarli bo‘lishi zarur.

Ijtimoiy kommunikatsiya tizimi hukumat bilan jamiyat o‘rtasidagi aloqa vositasi bo‘lib, fuqarolarning islohotlarga nisbatan ishonchini oshiradi. Ommaviy axborot vositalari, ta’lim muassasalari va ijtimoiy tarmoqlar orqali olib boriladigan tushuntirish ishlari islohotlarni qo‘llab-quvvatlovchi muhit yaratadi. Ayniqsa, raqamli kommunikatsiya vositalari zamonaviy sharoitda iqtisodiy siyosatni samarali tushuntirishning muhim omilidir.

Madaniy ong esa iqtisodiy islohotlarning ijtimoiy poydevorini tashkil etadi. Fuqarolarda iqtisodiy mas’uliyat, mehnatsevarlik va yangilikka ochiqlik shakllanmas ekan, islohotlar to‘liq samaraga erisha olmaydi. Shu sababli, ta’lim tizimida iqtisodiy madaniyatni rivojlantirish,

ma’naviy-ma’rifiy dasturlarni kuchaytirish va yoshlar ongida iqtisodiy tafakkurni shakllantirish dolzarb vazifa hisoblanadi.

O‘zbekiston sharoitida ijtimoiy kommunikatsiyani kuchaytirish va madaniy ongni rivojlantirish islohotlarning barqarorligini ta’minlaydi. Davlat organlari va fuqarolik jamiyati o‘rtasida ochiq muloqot yo‘lga qo‘yilishi, islohotlarning maqsadi va natijalari haqida aniq axborot berilishi aholining ishonchini mustahkamlaydi. Natijada, iqtisodiy o‘zgarishlar faqat davlat tashabbusi bilan emas, balki keng jamoatchilik ishtirokida muvaffaqiyatli amalga oshadi.

Umuman olganda, iqtisodiy islohotlar samaradorligi inson omiliga, ya’ni ongli, madaniyatli va faol fuqaroning mavjudligiga tayanadi. Shu sababli, har bir islohot dasturi iqtisodiy manfaatlar bilan bir qatorda ijtimoiy kommunikatsiya va madaniy qadriyatlar uyg‘unligida ishlab chiqilishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Mirziyoyev Sh.M. *Yangi O‘zbekiston strategiyasi.* – T.: O‘zbekiston, 2021. – 456 b.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Iqtisodiy islohotlarni yanada chuqurlashtirish va milliy iqtisodiyotni transformatsiya qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni. – Toshkent: Prezident.uz, 2023.
3. Toffler A. *The Third Wave.* – New York: Bantam Books, 1980. – 537 p.
4. Habermas J. *The Theory of Communicative Action.* – Boston: Beacon Press, 1984. – Vol. 1–2.
5. Inglehart R. *Culture Shift in Advanced Industrial Society.* – Princeton: Princeton University Press, 1990. – 484 p.
6. Rahmatov B. *Iqtisodiy islohotlarning ijtimoiy-iqtisodiy asoslari.* – T.: Iqtisodiyot, 2019. – 288 b.
7. Abdullaev A. *Iqtisodiy tafakkur va uning milliy xususiyatlari.* // “Iqtisodiyot va ta’lim” jurnali. – 2022. – №3. – B. 45–52.
8. Karimov A. *Ijtimoiy kommunikatsiya va davlat boshqaruvi: nazariy yondashuvlar.* // “O‘zbekiston ijtimoiy fanlari axborotnomasi”. – 2021. – №2. – B. 17–25.
9. Schramm W. *Communication and Change: The Last Ten Years and the Next.* – Honolulu: East-West Center Press, 1964. – 126 p.
10. Nazarov Q. *Milliy madaniyat va iqtisodiy taraqqiyot o‘zaro bog‘liqligi masalalari.* – T.: Fan, 2020. – 210 b.
11. O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish vazirligi rasmiy sayti – https://www.mineconomy.uz (murojaat sanasi: 10.10.2025).
12. OECD. *Culture and Local Development: Maximising the Impact.* – Paris: OECD Publishing, 2020. – 86 p.
13. Porter M.E. *The Competitive Advantage of Nations.* – New York: Free Press, 1990. – 875 p.
14. Vohidov J. *Iqtisodiy madaniyat va islohotlarning ijtimoiy asoslari.* – T.: Iqtisod, 2018. – 195 b.
15. Castells M. *The Rise of the Network Society.* – Oxford: Blackwell Publishers, 1996. – 556 p.

РОЛЬ СМИ В ОХРАНЕ ОКРУЖАЮЩЕЙ СРЕДЫ И ЭКОЛОГИЧЕСКОМ ОБРАЗОВАНИИ

Аберкулов Эгамберди Абдураимович
Преподаватель Джизакского государственного педагогического университета
Email: aberqulov1966@gmail.com

Annotatsiya: Atrof muhitni muhofaza qilish, tabiat va tabiiy yodgorliklar haqidagi ma’lumotlar ommaviy axborot vositalari, kompyuter texnikasi yordamida ishlab chiqilishi kerak. Bu ma’lumotlar asosida har bir o’quvchi, tinglovchi yetarli darajada tushunchaga ega bo‘lishi, o‘zi

yashab turgan hududning ekologik holati, tabiati, undagi o‘simlik va hayvonlar dunyosi, yo‘qolib ketayotgan noyob turlari, ko‘llari, soylari, g‘orlari, vodiylari, havo, tuproq, hamda ularning ifloslanishi haqida to‘g‘ri va to‘la ma’lumot olishlari kerak.

Kalit so‘z iboralar: Atrof muhit, ekologik ta’lim, ommoviy axborot vositalari, tabiat yodgorliklari, o‘simliklar dunyosi, hayvonot dunyosi, noyob turlar, koordinatlar, ekologik axborotlar, ekologik muammolar.

Аннотация: Информация об охране окружающей среды, природе и памятниках природы должна разрабатываться с использованием средств массовой информации и компьютерных технологий. На основе этой информации каждый студент и слушатель должен иметь достаточное представление, получать точные и полные сведения об экологической обстановке местности, в которой он проживает, её природе, флоре и фауне, редких и исчезающих видах, озёрах, ручьях, пещерах, долинах, воздухе, почве и их загрязнении.

Ключевые слова и фразы: Окружающая среда, экологическое образование, средства массовой информации, памятники природы, флора, фауна, редкие виды, координаты, экологическая информация, экологические проблемы.

Abstract: Information about environmental protection, nature and natural monuments should be developed using mass media and computer technology. Based on this information, each student and listener should have a sufficient understanding, receive accurate and complete information about the ecological situation of the area in which he lives, its nature, its flora and fauna, rare and endangered species, lakes, streams, caves, valleys, air, soil, and their pollution.

Key words and phrases: Environment, environmental education, mass media, natural monuments, flora, fauna, rare species, coordinates, environmental information, environmental problems.

Роль средств массовой информации в системе экологического образования в области охраны окружающей среды весьма значима. Информацию о природе и памятниках природы каждого района, области, природной зоны необходимо разрабатывать с использованием компьютерных технологий.[1.3]

Каждый слушатель, познающий природу, должен получить достаточно точную и полную информацию о местности, в которой он проживает, естественно-экологическом состоянии соседних районов, характере природных зон, их флоре и фауне, редких и исчезающих видах, озерах, ручьях, пещерах, долинах, воздухе, почве и их загрязнении.

При реализации указанных мер большое значение имеет постоянное освещение результатов работы по охране природы и экологическому образованию в средствах массовой информации, в частности, на телевидении, радио и в печати, а также постоянное освещение роли тех, кто пожертвовал своим трудом, и их самоотверженности перед населением и учащимся. В этой связи целесообразно готовить учителей, общественных аудиторов-экологов, способных проводить такую работу, и повышать их ответственность в деле охраны природы на экологической основе во взаимодействии с журналистами, библиотеками и другими общественными организациями.

К основным задачам, которые необходимо решить для улучшения охраны окружающей среды, относятся: кто предоставляет информацию об экологическом состоянии природы, кого и каким образом информируют, какие меры были приняты и как их реализовать.

Все виды экологической информации, получаемой о состоянии природы, должны быть рассмотрены и обобщены соответствующими специалистами, что позволит сделать общий вывод об экологической ситуации в конкретном месте и мерах, которые необходимо принять.

Полученная информация об экологическом состоянии окружающей среды должна быть точной, точной, а место, координаты, время, кто ее сообщил и кто ее получил должны быть зафиксированы в журналах учета информации об экологическом состоянии (пожар, наводнение, оползень, землетрясение, применение химикатов, миграция вредных

насекомых или некоторых животных с одного места на другое, шум, засуха или болезнь растений и животных, размыв берегов рек, обильный снегопад и т. д.).[2,3,4]

Важно, чтобы лица, предоставляющие и получающие экологическую информацию, имели опыт и квалификацию в области передачи и получения информации, определения уровня её важности и разработки соответствующих мер. Экологическая информация о состоянии природы может быть получена из различных источников: письмом, телеграфом, телефоном, радио или путём нанесения различных отметок на карту. Такая информация может быть получена и устно. Для того чтобы соответствующие организации на основе полученной информации могли разработать меры по улучшению экологического состояния окружающей среды, все, кто может принять необходимые меры, должны принимать меры не только по предотвращению экологических изменений в природе, но и по охране людей и памятников природы в данном месте.[2.5]

Роль и участие молодёжи в решении экологических проблем, связанных с определением состояния окружающей среды, её улучшением и сохранением памятников природы, имеет большое значение. Участие молодёжи в охране окружающей среды имеет глобальное значение. Известно, что деятельность молодёжи неразрывно связана с вопросами установления прочного мира на планете, сохранения жизни на Земле и обеспечения экологической стабильности. В этой связи нынешний высокий интерес молодёжи к средствам информации и телекоммуникационному оборудованию весьма полезен. Проводимая в этом направлении пропагандистская и агитационная работа весьма эффективна.

СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ

1. Атабаева Н., Кадирхужаев О. «Растениеводство». Ташкент. 2006.
2. О.Э. Ходжаназаров, Ш. Якубжонова. Экология и охрана природы. Учебник. Издательство «Баркамол файз медиа», 2018. — 208 с.
3. А.Н. Ходжиматов, Н.Р. Алимкулов, Ш.А. Холмуродов, М.Э. Джураев. Экология и охрана природы. Учебник. Т.: «Издательство Инновационного Развития», 2020. — 228 с.
4. Х.Т. Турсунов, Т.У. Рахимова. Экология. Учебник. Ташкент-2006.
5. П.С. Султонов. Основы экологии и охраны окружающей среды. Учебник. Издательство «Музыка». Ташкент 2007. 7. Эгамбердиев Р., Эшчанов Р. «Основы экологии» — Т.: Зар Калам, 2004.

TALABALARDA O‘Z-O‘ZINI BAHOLASH VA O‘ZIGA ISHONCHNI SHAKLLANTIRISH MEXANIZMLARI.

Sotvoldiyeva Zebuniso Abbosbek qizi,
Qo‘qon universiteti Andijon filiali o‘qituvchisi
zebunisomamadaliyeva99@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada talabalarda o‘z-o‘zini baholash ko‘nikmalarini rivojlantirish hamda o‘ziga ishonchni shakllantirishning psixologik-pedagogik mexanizmlari yoritilgan. Unda o‘z-o‘zini baholash talabaning shaxsiy rivojlanishida va ta’lim jarayonidagi faolligini oshirishdagi o‘rni ilmiy asosda tahlil qilingan. Shuningdek, o‘ziga ishonchning shakllanishiga ta’sir etuvchi ichki va tashqi omillar, ta’lim muhitining roli hamda mustaqil fikrlashni rivojlantirishga xizmat qiluvchi strategiyalar ko‘rib chiqilgan. Maqolada talabalarda o‘z-o‘zini baholash madaniyatini rivojlantirish orqali ularning mustaqilligi, ijtimoiy faolligi va hayotga bo‘lgan ijobiy munosabatini kuchaytirish yo‘llari taklif etilgan. Tadqiqot natijalari asosida amaliy tavsiyalar va psixologik yondashuvlar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: shaxsiy rivojlanish , o‘zini anglash, motivatsiya. o‘zini tarbiyalash, psixologik barqarorlik , o‘zaro ta’sir, ijtimoiy moslashuv, o‘zini qadrlash, emotsional intellekt, mustaqil fikrlash, rivojlanish strategiyalari.

Аннотация: В статье рассматриваются психолого-педагогические механизмы развития навыков самооценки и формирования уверенности в себе у студентов. На научной

основе анализируется роль самооценки в личностном развитии студентов и повышении их активности в образовательном процессе. Рассматриваются внутренние и внешние факторы, влияющие на формирование уверенности в себе, роль образовательной среды и стратегии развития самостоятельности мышления. В статье предлагаются пути укрепления самостоятельности, социальной активности и позитивного отношения к жизни студентов посредством развития культуры самооценки. На основе результатов исследования разработаны практические рекомендации и психологические подходы.

Ключевые слова: личностное развитие, самосознание, мотивация, самообразование, психологическая устойчивость, взаимодействие, социальная адаптация, самооценка, эмоциональный интеллект, самостоятельность мышления, стратегии развития.

Abstract: This article discusses the psychological and pedagogical mechanisms for developing self-assessment skills and building self-confidence in students. It analyzes the role of self-assessment in the personal development of students and increasing their activity in the educational process on a scientific basis. It also considers internal and external factors affecting the formation of self-confidence, the role of the educational environment, and strategies for developing independent thinking. The article suggests ways to strengthen students' independence, social activity, and positive attitude to life by developing a culture of self-assessment. Based on the results of the study, practical recommendations and psychological approaches have been developed.

Keywords: personal development, self-awareness, motivation. self-education, psychological stability, interaction, social adaptation, self-esteem, emotional intelligence, independent thinking, development strategies.

Bugungi globallashuv jarayonlari — iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy, ma’naviy-axloqiy, madaniy va tarbiyaviy yo‘nalishlarda keskin o‘zgarishlarni boshlab berdi. Bu o‘zgarishlar har bir shaxsning psixologik holatiga, dunyoqarashiga va o‘z o‘rnini anglashiga bevosita ta’sir ko‘rsatmoqda. Eng murakkab va dolzarb muammolardan biri bu — ta’lim muassasalarida, ayniqsa oliy ta’lim va kasb-hunar kollejlari darajasida o‘qituvchi va talaba o‘rtasidagi nizolardir. Bu nizolar ko‘p holatlarda shaxsning psixologik rivojlanish darajasi, o‘zini anglash, ijtimoiy rollarni to‘g‘ri qabul qilmaslik, madaniyatsizlik yoki tarbiyaning yetarli emasligi bilan chambarchas bog‘liq.

Psixologik nuqtai nazardan qaralganda, har bir shaxsda o‘ziga nisbatan baho o‘z-o‘zini baholash (self-esteem) shakllanadi. Bu baho uning o‘zini qanday qabul qilishi, o‘ziga bo‘lgan ishonchi va o‘zini jamiyatdagi o‘rnini qanday ko‘rishi bilan belgilanadi. O‘z-o‘zini baholash past bo‘lgan shaxslar ko‘pincha atrofdagilar bilan nizolarga kirishadi, o‘zini ifoda etishda qiyinchilikka duch keladi, tanqidga toqat qilmaydi yoki o‘z nuqsonlarini inkor etishga harakat qiladi.Aksincha, o‘zini to‘g‘ri baholay oladigan, o‘z qadrini anglaydigan shaxslar o‘zgalarni tushunishga harakat qiladi, ziddiyatlarni konstruktiv hal etadi va ijtimoiy moslashuvchan bo‘ladi. Bu yerda talabaning psixologik yetukligi va o‘qituvchining psixopedagogik yondashuvi o‘ta muhim ahamiyat kasb etadi.

Bugungi yoshlar zamonaviy axborot oqimi, ijtimoiy tarmoqlar va global madaniyat bosimi ostida o‘z imidjini shakllantirishga intilmoqda. Biroq bu imidj ko‘pincha tashqi omillar ta’sirida yuzaki, ijtimoiy taqlid mahsuli sifatida vujudga keladi. Bu esa shaxsiy va kasbiy yo‘nalishni to‘g‘ri tanlashda chalkashliklarga olib keladi. Psixologik jihatdan o‘z imidjini shakllantirish — bu ichki “Men” ni anglash, o‘z qiziqishlari, qobiliyatlari va hayotiy maqsadlarini aniqlab olish demakdir. Bu jarayon psixologik maslahat, yo‘naltirish, kuzatish va tajriba orqali o‘rganilishi kerak bo‘lgan murakkab bosqichdir. Shaxsiy rivojlanish, o‘z-o‘zini baholash va kasbiy yo‘nalishni belgilash kabi psixologik jarayonlar ustida eksperimental tadqiqotlar olib borish katta ahamiyatga ega. Bu orqali biz shaxsning o‘zgaruvchan ijtimoiy muhitga qanday moslashayotganini, qanday psixologik to‘siqlar va omillar mavjudligini aniqlashimiz mumkin.

Shuningdek, eksperiment orqali shaxsning o‘zini anglash darajasi, psixologik barqarorligi, ichki resurslardan qanday foydalanishi, stressga chidamliligi va ijtimoiy moslashuvchanligi kabi

jihatlar o‘rganiladi. Bu esa o‘z navbatida, ta’lim-tarbiya tizimiga yangicha yondashuvlar, psixologik xizmatlar va profilaktik dasturlarni joriy etishda muhim asos bo‘lib xizmat qiladi.

Tadqiqot muammosiga doir mavjud manbalarni chuqur o‘rganish, ularda ilgari surilgan nazariy qarashlar va amaliy tajribalarni tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, hozirgi kunga kelib ta’lim sohasida sezilarli darajada ilmiy-nazariy tajriba to‘plangan. Ammo bu tajribalar, asosan, ta’lim nazariyasining asoslarini ishlab chiqishga, uning mazmuniy va tizimli jihatlarini izohlashga qaratilgan bo‘lib, aynan talabalar orasidagi ta’lim sifati jarayonini zamonaviy psixologik yondashuvlar asosida rivojlantirish, ularni o‘z-o‘zini baholash va boshqarish malakalarini shakllantirish masalalari mustaqil tadqiqot mavzusi sifatida yetarli darajada yoritilmagan.

Shu sababli, bu boradagi izlanishlar nafaqat ta’limning nazariy asoslarini, balki uning milliy xususiyatlari, psixologik, ijtimoiy-ruhiy o‘ziga xosliklari, jamiyatdagi rollari, shuningdek, oliy ta’lim va kasb-hunar kollejlaridagi shaxslararo munosabatlar, ayniqsa o‘qituvchi va talaba o‘rtasidagi psixologik aloqa mexanizmlarini chuqur tahlil qilishni talab qiladi. Bu jihatlar esa ko‘plab ilmiy tadqiqotchilar diqqat markazida bo‘lib kelmoqda.

Bugungi kunda ta’lim tizimida yuzaga kelayotgan inqirozlar — motivatsiya yetishmasligi, o‘ziga past baho berish, tashqi baholarga haddan ortiq bog‘lanish, shaxsiy mas’uliyat hissining susayishi — talabalar orasida shaxsiy o‘sish jarayoniga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Ayniqsa, o‘z-o‘zini baholash va o‘zini boshqarish ko‘nikmalarining yetishmasligi, o‘quv faoliyatiga va kelajak kasbiy yo‘nalishiga bo‘lgan munosabatda beqarorlikni keltirib chiqaradi.

Psixologik tadqiqotlar shuni ko‘rsatmoqdaki, o‘z-o‘zini baholash shaxsning ichki psixik holati, ijtimoiy maqomi, o‘zini anglash darajasi va atrofdagi insonlar bilan munosabatlariga bevosita bog‘liq. Masalan, A. Maslou “o‘rganishni butun umr davom etadigan va sinf devorlari bilan cheklanmagan jarayon” deb ta’riflab, inson shaxsining rivojlanishida ichki motivatsiya va o‘zini anglashga asoslangan yondashuvning ustuvorligini ta’kidlaydi. Bu esa shuni bildiradiki, ta’lim jarayonida talabaning o‘zini anglash, baholash va boshqarish qobiliyatlari asosiy psixologik tayanch nuqtalaridan biri hisoblanadi.

Ushbu tadqiqotda biz quyidagi xorijiy olimlarning psixologik metodikalaridan foydalanishni lozim topdik:

T.V. Dembo va S.L. Rubinshteynning “O‘zini o‘zi baholashni aniqlash” metodikasi – bu metodika orqali talabalar o‘z qobiliyatlariga va natijalariga qanday baho berishini aniqlash mumkin. U o‘z-o‘zini baholash darajasini aniqlab beruvchi asosiy psixometrik vosita hisoblanadi. Past yoki haddan tashqari yuqori baho berish holatlari psixologik muammolarning borligidan darak beradi.

S.A. Budassining “Shaxsning o‘zini o‘zi baholash” testi – bu test shaxsning o‘zini anglash, o‘zining ichki va tashqi sifatlariga bergan bahosini aniqlash imkonini beradi. Test natijalari talabalarning o‘ziga nisbatan ob’ektiv yoki sub’ektiv munosabatini ochib beradi.

V.V. Stolin va S.R. Panteleyevlarning “O‘z-o‘ziga munosabat so‘rovnomasi” – bu so‘rovnoma orqali shaxsning o‘ziga nisbatan hissiy, motivatsion va kognitiv munosabatlari aniqlanadi. Talabaning o‘z qadr-qimmati, o‘z rolini anglash darajasi, o‘z-o‘ziga bo‘lgan ishonch va befarqlik darajalari bu metodika orqali baholanadi.

Mazkur metodikalar yordamida olingan natijalar shuni ko‘rsatmoqdaki, talabalar orasida o‘ziga nisbatan yetarli darajada sog‘lom psixologik baho shakllantirish — faqatgina o‘qituvchi yoki muhitga emas, balki o‘zini anglash, o‘zini boshqarish ko‘nikmalarini rivojlantirish orqali amalga oshiriladi.

Bu boradagi psixologik yondashuvlar ta’lim sifatidagi bo‘shliqlarni aniqlashga, ularga sabab bo‘layotgan shaxsiy va ijtimoiy omillarni tahlil qilishga, ularni bartaraf etish strategiyalarini ishlab chiqishga imkon yaratadi.

O‘z-o‘zini bilish — bu insonning o‘z shaxsiyatiga, ichki kechinmalari, motivatsiyalari, qadriyatlari va xulq-atvoriga nisbatan ongli ravishda munosabat bildirish jarayonidir. Bu jarayon orqali shaxs o‘zini kimligini, qanday imkoniyatlarga ega ekanini, o‘zining ijtimoiy rollari va hayotdagi o‘rnini tushunishga harakat qiladi. Psixologiyada o‘z-o‘zini bilish insonning ichki

refleksiyasi (ya’ni, o‘zini kuzatishi) orqali amalga oshadi va bu jarayon har bir shaxsning rivojlanishida muhim o‘rin tutadi.

B.G. Ananyev ta’kidlaganidek, o‘z-o‘zini bilish jarayoni nafaqat oson kechadigan, bevosita anglash, balki ko‘p hollarda murakkab, bilvosita anglash shaklida bo‘ladi. Bunda inson o‘zini tashqi vaziyatlar, boshqalarning unga bergan bahosi, ijtimoiy ta’sirlar orqali bilib boradi. Ananyevning fikricha, o‘z-o‘zini hurmat qilish — bu o‘z-o‘zini anglashning eng murakkab va ko‘p qirrali tarkibiy qismidir. Chunki bu jarayonda inson o‘zining qanday inson ekanligi haqidagi situatsion tasvirlarni umumlashtirib, o‘ziga nisbatan barqaror fikr hosil qiladi. O‘z-o‘zini hurmat qilish — bu shaxsning o‘zini qadrlashi, o‘ziga ijobiy munosabatda bo‘lishi, o‘zining ijtimoiy, axloqiy, kasbiy yoki boshqa jihatlardagi fazilatlarini tan olishi va qadrlash darajasidir. Bu tuyg‘u inson ruhiy salomatligining asosi bo‘lib, o‘ziga ishonch, motivatsiya, hayotiy faoliyatga bo‘lgan ijobiy munosabatni shakllantiradi.

I.S. Kon o‘z-o‘zini hurmat qilishni "Men" konsepsiyasining yakuniy o‘lchovi deb ataydi. Ya’ni, bu insonning o‘ziga nisbatan shakllantirgan munosabatlar majmuasining natijasidir. Inson o‘zini qabul qiladimi yoki rad etadimi – bu holat u qanday inson sifatida o‘zini anglashiga bog‘liq. O‘z-o‘zini qabul qilish yuqori bo‘lsa, u holda odam o‘zining kamchiliklarini ham tan olib, ular ustida ishlashga harakat qiladi. Aks holda, o‘zini rad etish, o‘zidan norozilik, psixologik noqulayliklar, hatto depressiv holatlarga olib kelishi mumkin.

A.N. Leontev esa o‘z-o‘zini hurmat qilishni hissiyot sifatida baholaydi. Bu juda muhim yondashuv bo‘lib, o‘z-o‘zini hurmat qilish faqat ongli baholash emas, balki chuqur emosional tajriba ekanini ko‘rsatadi. Bu hissiyot insonga o‘zini himoyalangan, muhim va qadrli deb his qilish imkonini beradi. Shunday qilib, bu tuyg‘u insonning umumiy ruhiy holatini belgilovchi asosiy omillardan biridir. O‘z-o‘zini baholash — bu shaxsning o‘zini anglash jarayonidagi muhim bosqichlardan biri bo‘lib, inson o‘zini qanday baholashi uning o‘z-o‘zini hurmat qilishi va ijtimoiy munosabatlarida qanday harakat qilishiga bevosita ta’sir qiladi. Yuqori yoki past o‘z-o‘zini baholash darajasi shaxsning o‘ziga bo‘lgan ishonchini, tashabbuskorligini, boshqalarga bo‘lgan munosabatini belgilaydi.

Talabalarda o‘z-o‘zini baholash, o‘ziga bo‘lgan munosabat, psixologik barqarorlik va o‘zini boshqarish darajalarini aniqlash hamda bu ko‘rsatkichlar asosida ta’lim sifati bilan bog‘liq muammolarni aniqlash.

Tadqiqot ishtirokchilari: Oliy ta’lim muassasasining turli yo‘nalishlarida tahsil olayotgan 100 nafar talaba (50 nafar yigit, 50 nafar qiz). Tadqiqotda quyidagi metodikalar qo‘llanildi:

1.T.V. Dembo va S.Ya. Rubinshteyn metodikasi – o‘zini baholash darajasi

2. S.A. Budassi testi – shaxsning o‘ziga berayotgan bahosi

3. V.V. Stolin va S.R. Panteleevning "O‘z-o‘ziga munosabat" so‘rovnomasi – emotsional, kognitiv va motivatsion baholash

1. Dembo-Rubinshteyn Metodikasi Bo‘yicha Natijalar

Baholash darajasi Talabalar foizi



Past darajadagi baholash 34% O‘rtacha baholash 46% Yuqori baholash 20%

Tahlil: 34% talabalar o‘z imkoniyatlariga past baho berishadi. Bu esa motivatsiyaning pastligi, ichki ishonch yetishmasligi va o‘zini rivojlantirishda sustlik bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin. Yuqori baholovchilar esa ba’zida real voqelikdan uzoq bo‘lishi mumkin.

2. S.A. Budassi Testi Bo‘yicha Natijalar



Ob’ektiv baho 28% Ijobiy-sub’ektiv baho 40% Salbiy-sub’ektiv baho 32%

Diagramma 3: Shaxsiy ko‘rsatkichlar (Stolin va Panteleev)



O‘z-o‘ziga ishonch:
Yuqori 22%
O‘rtacha 50%
Past 28%

O‘z-o‘ziga ishonchi past talabalar (28%) akademik faoliyatda passiv, tashabbussiz bo‘lishi mumkin.

38% talabada boshqalarga (ota-ona, o‘qituvchi, guruhdosh) haddan ortiq psixologik qaramlik bor. Bu holat shaxsiy mustaqillikning shakllanmaganini ko‘rsatadi.

O‘z qadrini anglashning past darajasi esa depressiv holatlar va ijtimoiy ishtirok etishda sustlik bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin.

Psixologik jihatdan sog‘lom o‘zini baholash, o‘zini boshqarish va ijtimoiy moslashuv ko‘nikmalarini rivojlantirish — talabaning shaxsiy va kasbiy muvaffaqiyati uchun zarur.

O‘qituvchilar bu yo‘nalishda psixologik treninglar, refleksiya mashg‘ulotlari va shaxsiy rivojlanish dasturlarini tashkil etishlari lozim.

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, talabalarning taxminan 30–40% qismida o‘zini baholash, o‘ziga bo‘lgan munosabat va shaxsiy barqarorlik borasida muammolar mavjud. Bu holatlar: o‘quv faoliyatidagi muvaffaqiyatsizliklar, past motivatsiya, stress va tashqi ta’sirlarga yuqori sezuvchanlik bilan bog‘liq.

Takliflar: Psixologik trening va seminarlar: Talabalarda sog‘lom o‘zini baholash, o‘ziga ishonchni rivojlantirish, stressni boshqarish bo‘yicha muntazam treninglar o‘tkazish. “Men kimman va nimaga qodirman?” mavzusida reflektiv mashg‘ulotlar joriy qilish. O‘quv jarayoniga psixologik yondashuvni integratsiya qilish.

Talabalar uchun psixologik-pedagogik malaka oshirish kurslari yo‘lga qo‘yilishi lozim. Dars jarayonida ijobiy motivatsiya beruvchi metodlar (masalan, STIMUL yondashuvi, shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv) qo‘llanishi kerak. Individual psixologik maslahatlar va monitoring: Past baholovchi yoki salbiy-sub’ektiv bahoga ega talabalar bilan individual psixologik suhbatlar tashkil etish.

O‘zini past baholovchi talabalarning psixologik holatini doimiy monitoring qilish.

Ijtimoiy ko‘nikmalarni rivojlantirish: Jamoaviy loyihalar, psixodrama, rolli o‘yinlar yordamida talabalar o‘rtasida o‘zaro ishonch va moslashuvchanlikni rivojlantirish. Kasbiy yo‘naltirish va shaxsiy rejalashtirish: Talabalar bilan shaxsiy hayotiy va kasbiy reja tuzish bo‘yicha ishlar olib borish, ularni o‘z maqsadlarini aniq belgilashga o‘rgatish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 7 iyundagi № 472-sonli “Psixologiya sohasida kadrlarni tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish va jamiyatda huquqbuzarlikning oldini olish chora tadbirlari to’g’risida”gi qarori / htpp://lex.uz.]
2. G’oziyev E.G’. “Ontogenez psixologiyasi”.-T.: Noshir. 2010
3. Yusupov E. Yoshlar o'rtasida vatanparvarlik tarbiyasini amalga oshirish yo'llari.- T.: O'qituvchi, 1996. – B. 187.
4. X.Xekxauzen “Yutuq motivi o‘z-o‘zini baholash” 2003
5. Davletshin, M. (2002). Umumiy psixologiya. TDPU.
6. Akramova F.A., Lutfullaeva N.X, Xaydarova X.P. «Pedagogik psixologiya» fani (ma’ruzalar matni). - T.: TDIU, 2005 - 201 bet.
7. Axmedova M.T. Pedagogik kompetentlik.Uslubiy qo’llanma. -T.: BROK SLASS SERVIS, 2016. – 84b.
8. Umarova M.X., Axmadaliev A.U., To‘raev A.B., Imomov M.P. Pedagogikaning taraqqiyot tendensiyalari.

GENEALOGICAL TOURISM AND YOUTH DIPLOMACY: A FACTOR IN THE PRESERVATION AND DEVELOPMENT OF CULTURAL HERITAGE

Ismoilova Khumora Jamoliddin qizi
Institute for Tourism Development
Research doctoral Candidate
E-mail: ismoilovaxj@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada genealogik turizm madaniy merosga asoslangan sayohat shakli sifatida hamda uning yoshlar diplomatiyasini mustahkamlashdagi o‘rni tahlil qilinadi. Shuningdek, moddiy va nomoddiy madaniy merosni saqlash va rivojlantirishga e’tibor qaratilib, genealogik marshrutlar, ajdodlar manzillari va arxiv manbalari nafaqat turizm obyektlari, balki madaniyatlararo muloqot vositasi sifatida ham ko‘rsatib o‘tiladi. Yoshlar tashabbuslari genealogik turizm imkoniyatlaridan xalqaro muloqotni rivojlantirish, identitetni shakllantirish hamda merosni barqaror saqlash yo‘lida qanday foydalanishi mumkinligi o‘rganiladi. Maqola genealogik turizm va yoshlar o‘rtasidagi madaniy uzluksizlikni ta’minlash, tarixiy xotirani asrab-avaylash va globallashuv sharoitida madaniyatlararo tushunishni rivojlantirishga sezilarli hissa qo‘shishini asoslaydi.

Kalit so‘zlar: genealogik turizm, yoshlar, madaniy meros, saqlash, rivojlantirish, madaniyatlararo muloqot.

Annotation: The article analyzes genealogical tourism as a form of cultural heritage-based travel and its role in strengthening youth diplomacy. Particular attention is paid to the preservation and development of tangible and intangible cultural heritage, emphasizing that genealogical routes, ancestral sites, and archival sources serve not only as tourism objects but also as

instruments of intercultural communication. The study explores how youth initiatives can utilize the potential of genealogical tourism to foster international dialogue, shape identity, and ensure the sustainable safeguarding of heritage. The article argues that genealogical tourism and youth diplomacy make a significant contribution to maintaining cultural continuity, preserving historical memory, and fostering intercultural understanding in the context of globalization.

Keywords: genealogical tourism, youth, cultural heritage, preservation, development, intercultural communication.

Аннотация. В статье генеалогический туризм рассматривается как форма путешествий, основанных на культурном наследии, и анализируется его роль в укреплении молодежной дипломатии. Особое внимание уделяется сохранению и развитию материального и нематериального культурного наследия. Подчеркивается, что генеалогические маршруты, родовые места и архивные источники выступают не только объектами туризма, но и инструментами межкультурной коммуникации. Изучается, каким образом молодежные инициативы могут использовать потенциал генеалогического туризма для развития международного диалога, формирования идентичности и устойчивого сохранения наследия. Обосновывается, что генеалогический туризм и молодежная дипломатия вносят значительный вклад в обеспечение культурной преемственности, сохранение исторической памяти и развитие межкультурного взаимопонимания в условиях глобализации.

Ключевые слова: генеалогический туризм, молодежь, культурное наследие, сохранение, развитие, межкультурная коммуникация.

INTRODUCTION

In the 21st century, one of the key trends in international politics, economics, and social life is the globalization of international communication and the transition to multipolarity. In this process, not only states and international organizations, but also youth diplomacy has begun to play an increasingly important role. In academic literature, youth diplomacy is often interpreted as the active participation of young people at the international level in the promotion of peace, cooperation, and mutual understanding.

At the same time, tourism has become an important socio-cultural instrument of contemporary diplomacy. Tourism is not only a sector that generates economic benefits, but it is also regarded as a vital means of strengthening cultural dialogue between nations. In recent years, genealogical tourism (travel based on ancestry and family heritage) has emerged as a growing segment of international tourism.

Genealogical tourism refers to the practice of traveling motivated by an individual's interest in their ancestral roots and the desire to understand family heritage. Most often, this phenomenon manifests itself in visits of diaspora members to the homeland of their ancestors. As P. Gilroy emphasizes, "this type of tourism is not only about nostalgia and the preservation of cultural heritage, but also serves to connect young members of the diaspora with their homeland and to enable them to play an active role in international relations" [4].

The Fergana Valley, and Central Asia more broadly, is particularly rich in genealogical sources, where merchant, artisan, religious, and political elites have documented their genealogies for centuries. Therefore, exploring genealogical tourism in the context of the Fergana Valley and linking it with youth diplomacy is both scientifically and practically relevant.

The purpose of this article is to analyze the role and potential of genealogical tourism within youth diplomacy and to demonstrate how it can serve as a mechanism for strengthening international mutual understanding. Since the late 20th century, genealogical tourism has developed as an independent direction within tourism studies. Its essence lies in journeys motivated by individuals' interest in their family trees, ancestors, places of birth, and family history. E. S. Mills defines genealogical research as "the art and science of collecting, evaluating, and reconstructing the lives of past people" [3]. This perspective demonstrates that genealogical tourism is not merely a form of travel, but also a process of scholarly and historical inquiry.

Genealogical tourism holds particular significance among diasporas. As P. Gilroy has emphasized, appeals to ancestry and historical roots serve to strengthen the global identification and transnational connections of diaspora communities [4]. This dimension directly intersects with youth diplomacy.

The theory of youth diplomacy has been advanced by numerous international organizations. In the United Nations resolutions on "Youth and Sustainable Development," it is specifically highlighted that young generations are regarded as a vital and leading social force in the development of international communication, in strengthening mutual understanding among peoples, and in establishing peace. These documents interpret youth participation in contemporary global processes not merely as a promising factor, but as an indispensable condition for ensuring sustainable development. Similarly, D. Nash views tourism as an effective instrument of youth diplomacy [1].

Within Central Asia, genealogical heritage has occupied an important place in the socio-cultural structure of society. O. Ismagulov notes that Kazakh genealogies make it possible to reconstruct not only kinship relations but also the broader social structure of society [7]. Uzbek scholars have likewise studied genealogical heritage in depth, particularly in the context of the Fergana Valley. Karimov demonstrates that the genealogies of Margilan merchant families serve as crucial sources for analyzing economic activity and international trade relations [5]. Yo'ldoshev, meanwhile, examines the genealogies of Kokand khans and sayyids as instruments of political legitimation [8].

Y. Zerubavel interprets ancestral memory as "a means of reinforcing social time and collective memory"[2]. Accordingly, through genealogical tourism, young people study their roots and thereby define their place not only at the national but also at the global level. A number of scholars highlight that cultural tourism plays a significant role in promoting international cooperation. From this perspective, genealogical tourism should be understood not merely as a process of restoring personal or familial memories, but as an innovative form of tourism that contributes to the creation of new arenas of intercultural communication. Through ancestral journeys, individuals not only engage with the histories of their forebears but also strengthen ties with other cultural communities, sharing historical heritage on an international scale. In this sense, genealogical tourism constitutes one of the contemporary forms of cultural tourism and makes a substantial contribution to fostering intercultural cooperation and global integration.

METHODS

This study applies a combination of the historical-comparative method, collective memory theory, a tourism studies approach, and diplomatic theory. Together, these methodological tools provide a basis for identifying the role of genealogical tourism in youth diplomacy.

The analysis draws on genealogical sources from the Fergana Valley, including the genealogies of Margilan merchants, the lineages of Kokand khans and sayyids, and the genealogical records of the ulama of Andijan and Namangan. These sources are central for genealogical tourism as they facilitate the reconstruction of historical realities, provide insights into the social positioning of local elites, and shed light on religious and political legitimacy. Source analysis, particularly within a comparative-regional framework, is applied across the cases of Margilan, Kokand, and Andijan.

From a methodological perspective, genealogical tourism operates in youth diplomacy through three primary mechanisms:

1. **Engagement of diaspora youth.** For generations living abroad, genealogical heritage strengthens the motivation to reconnect with their homeland. As Karimov notes, the genealogies of Margilan merchant families reveal not only the economic history of the region, but also serve as a vital resource for restoring identity and patriotism among diaspora youth [10]. The study of this mechanism employs sociological surveys, observation of diaspora associations, and assessments of the cultural and psychological outcomes of return journeys.

2. **Intercultural dialogue.** The second mechanism of genealogical tourism lies in fostering cultural integration among youth from different countries. As Zerubavel highlights, ancestral memories and genealogical traditions provide an essential arena for understanding other peoples and comparing historical experiences [2]. This dimension is analyzed using the **comparative method,** ethnographic observation, and interview-based analysis. Through genealogical travel, young people gain awareness of diverse cultural roots and shape multi-layered identities.
3. **Alignment with the United Nations Sustainable Development Goals (SDGs).** The compatibility of genealogical tourism with global objectives further reinforces its methodological foundations. As emphasized in UN resolutions, youth participation in peacebuilding and sustainable development is a critical factor. Genealogical tourism directly contributes to SDG 11 ("Sustainable Cities and Communities") and SDG 16 ("Peace, Justice and Strong Institutions"). To substantiate this alignment scientifically, methods such as indicator analysis, cross-national comparison, and linking sustainability indicators with the practices of genealogical tourism are applied.

Overall, the methodological study of genealogical tourism requires a **multidimensional approach.** Within this framework, source studies, sociology, ethnography, historiography, and international relations intersect. As a result, genealogical tourism emerges not only as a means of preserving local cultural heritage, but also as an effective conceptual model for actively involving youth in international diplomacy and peace initiatives.

RESULTS

The research reveals that genealogical tourism in the Fergana Valley can be conceptualized as a bridge between cultural heritage preservation and youth diplomacy. The analysis demonstrates that genealogical sources not only provide valuable historical and cultural insights but also foster youth engagement in international cooperation.

- The genealogies of Margilan merchant families strengthen diaspora youth identity and encourage return travel.
- The lineages of Kokand khans and sayyids illustrate how genealogy legitimized political authority, which today provides opportunities for heritage-driven dialogue.
- The genealogical records of Andijan and Namangan ulama highlight religious and intellectual continuity, making them resources for intercultural dialogue.

Moreover, genealogical tourism initiatives align with UN Sustainable Development Goals, particularly in promoting sustainable communities (SDG 11) and peace, justice, and strong institutions (SDG 16).

DISCUSSION

The findings suggest that genealogical tourism holds significant potential as a soft-power instrument in youth diplomacy. By attracting diaspora youth, it contributes to the restoration of collective memory and the strengthening of national identity. Through intercultural dialogue, genealogical tourism offers a platform for mutual understanding among young people of different cultural backgrounds. Its alignment with global agendas such as the SDGs positions genealogical tourism as a modern tool for peacebuilding and sustainable development.

The Fergana Valley case study illustrates how regional genealogical sources can be transformed into international diplomatic resources. Practical applications include organizing youth expeditions, digitizing genealogical archives for diaspora access, integrating genealogical tourism into cultural festivals and youth diplomacy forums, and establishing university-level modules on "Genealogical Tourism and International Dialogue."

CONCLUSION AND RECOMMENDATIONS

In conclusion, genealogical tourism in today's era of globalization is not merely a means of preserving cultural heritage or fulfilling nostalgia; it is also emerging as an effective instrument of youth diplomacy. By linking national roots with global contexts, it fosters new forms of international cooperation. Particularly in heritage-rich regions such as the Fergana Valley, genealogical tourism can serve as a practical and academic laboratory for youth. In this process,

the engagement of diaspora youth contributes to the restoration of collective memory and identity, while simultaneously broadening opportunities for intercultural dialogue.

Through genealogical tourism, young people become active participants in international cooperation and play a direct role in strengthening global peace and mutual understanding. Therefore, initiatives based on the genealogical resources of the Fergana Valley—such as youth expeditions, joint research projects, and international programs—can be highly effective both regionally and globally. Incorporating such initiatives into the frameworks of organizations like the United Nations and UNESCO would elevate genealogical tourism as a key component of peacebuilding, sustainable development, and intercultural diplomacy.

Thus, genealogical tourism not only reconnects young people with their ancestral roots but also integrates them into the global community as active actors. It aligns with the **UN Sustainable Development Goals** (SDG 11 – "Sustainable Cities and Communities" and SDG 16 – "Peace, Justice, and Strong Institutions"), thereby functioning as a constructive platform for international diplomacy and intercultural peace initiatives [6].

Based on the above analysis and conclusions, several practical recommendations can be proposed for the sustainable development of genealogical tourism in the Fergana Valley. First, it is advisable to organize **international research expeditions and student exchange programs** based on the region's genealogical heritage. Such initiatives would not only deepen the study of genealogical sources but also actively involve youth in international dialogue processes that strengthen both national and global identities.

Second, it is essential to **digitize genealogical records in Kokand, Margilan, and Andijan** and make them accessible as open information resources for diaspora youth abroad. This would ensure the preservation of genealogical heritage while transforming it into a valuable asset of youth diplomacy and global heritage diplomacy.

Third, to further promote genealogical tourism, it is necessary to **integrate it into international cultural festivals and youth diplomacy forums.** This would expand the global reach of genealogical tourism and enhance the role of youth in international cooperation.

Fourth, to create a strong academic foundation, universities should introduce **modules on "Genealogical Tourism and International Dialogue."** Such programs would prepare young generations to study genealogical heritage while linking it with tourism and diplomacy.

Fifth, it is important to **develop joint genealogical tourism programs with Uzbek diaspora associations abroad.** These programs would strengthen the ties of diaspora communities with their homeland while reinforcing intercultural dialogue and peace initiatives.

Overall, these recommendations highlight that genealogical tourism, under modern conditions, is not only a tool for cultural heritage preservation and nostalgic connection, but also a significant instrument for youth diplomacy, international dialogue, and the achievement of sustainable development goals. Consequently, the genealogical resources of the Fergana Valley should be regarded not only as a unique repository of regional history, but also as an effective foundation for global peace and cooperation initiatives.

REFERENCES

1. Nash D. *Tourism and Cultural Change*. – London: Routledge, 2017. – P. 64.
2. Zerubavel Y. *Recovered Roots: Collective Memory and the Making of Israeli National Tradition*. – Chicago: University of Chicago Press, 2011. – P. 33.
3. Mills E. S. *Evidence Explained: Citing History Sources from Artifacts to Cyberspace*. – Baltimore: Genealogical Publishing, 2015. – P. 27.
4. Gilroy P. "It ain't where you're from, it's where you're at: The dialectics of diasporic identification." *Cultural Studies*. – 1991. – Vol. 5, no. 3. – P. 120.
5. Karimov Kh. *Marg'ilon savdogarlari nasabnomasi va ularning ijtimoiy hayotdagi roli*. – Tashkent: Fan, 2007. – P. 55.
6. Ismagulov O. *Etnicheskaya genealogiya kazakhov*. – Alma-Ata: Nauka, 1977. – P. 42.
7. Yo'ldoshev Sh. *Qo'qon tarixi va siyosiy elita shajarlari*. – Farg'ona: Nashr, 2010. – P. 78.
8. Eski masjid qo'lyozmalar fondi. Marg'ilon. Inv. № 214. – 18th century.

9. Karimov Kh. *Marg‘ilon savdogarlari nasabnomasi va ularning ijtimoiy hayotdagi roli*. – Tashkent: Fan, 2007. – P. 59.

OLIY TA’LIM SIFATINI OSHIRISHNI MODELLASHTIRISH METODI ORQALI O‘RGANISH (ZAMONAVIY YONDASHUVLAR)

Turatosheva S.R.
Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti o’qituvchisi
E-mail: turatosheva@mail.ru

Annotatsiya. Ushbu maqolada yuqori malakali mutaxassislar tayyorlashda ta’lim jarayonining sifatini belgilovchi asosiy xususiyatlar ko‘rsatib berilgan hamda oliy ta’lim muassasasidagi sifat tizimi tushunchasini asosini ifodalovchi qoidalar va oliy ta’lim tizimini sifatini oshirishni matematik modellashtirish metodi orqali o‘rganish sotsiologik tahlil qilingan. Shuningdek maqolada sotsiol boshqaruvning ta’lim sifatini oshirishdagi roli, mazmuni, mohiyati, tizimlari va vazifalari hamda ta’lim sifatini oshirishda ijtimoiy mexanizmlarning nazariy va metodologik asoslari tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: ta’lim sifati, qonuniyatlar, mohiyat, pedagogika, metod, monitoring, raqobat, ziddiyat, nazariyalar, baholash.

Abstract. This article highlights the main features that determine the quality of the educational process in the training of highly qualified specialists and presents the principles that form the basis of the concept of the quality system in higher education institutions. It also provides a sociological analysis of improving the quality of higher education through the method of mathematical modeling. Furthermore, the article examines the role, content, essence, systems, and tasks of social management in enhancing education quality, as well as the theoretical and methodological foundations of social mechanisms in improving the quality of education.

Keywords: quality of education, regularities, essence, pedagogy, method, monitoring, competition, contradiction, theories, evaluation.

Аннотация. В данной статье раскрываются основные характеристики, определяющие качество образовательного процесса при подготовке высококвалифицированных специалистов, а также представлены положения, выражающие сущность понятия системы качества в высшем учебном заведении. Проведен социологический анализ повышения качества системы высшего образования с использованием метода математического моделирования. Кроме того, в статье рассмотрены роль, содержание, сущность, системы и задачи социального управления в повышении качества образования, а также теоретические и методологические основы социальных механизмов улучшения качества образования.

Ключевые слова: качество образования, закономерности, сущность, педагогика, метод, мониторинг, конкуренция, противоречие, теории, оценка.

KIRISH Hozirgi vaqtda ta'lim-tarbiya sifati o‘ta muhim, muammoli va dolzarb masala hisoblanadi. Chunki, boshqa barcha ijtimoiy masalalar, siyosiy muammolar va iqtisodiy ko‘rsatkichlar aynan ta'lim sifati darajasiga bog‘liq holda rivojlanadi. Qolaversa, ta'lim sifati davlat va jamiyat taqdirini, butun insoniyat taqdirini belgilab beradi.

Shu sababli ham ta'lim sifatini-hayot sifati deb izohlash xato bo‘lmaydi. Ta'lim sifatini boshqarishning oliy ta'lim muassasalari ichki modellari turli sifat tushunchalarini birlashtirishga (kelishtirishga), davlat nazorat tizimidagi “nuqsonlarni yamashga” urinishmoqda. Ushbu modellarning zohiriy ko‘pligi sifatni boshqarishning uchta uslubidan (yondashuvidan) biriga asoslanadi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni modellashtirish va prognozlashtirish – bu o‘tmishni, hozirgi zamonning rivojlanish qonuniyatlari, tendensiyalariga asoslangan holatda kelajakni oldindan ilmiy bilish va istiqboldagi rivojlanish maqsadlarini va vazifalarini aniq o‘tashdan iborat. Modellashtirish mamlakat iqtisodiyotini boshqarish nazariyasi va amaliyotida katta ahamiyatga ega. Bu boshqaruv yechimlarini tanlashda asos bo‘lib xizmat

qiladi, kelajak maqsadlariga erishish uchun hozirgi paytda iqtisodiy jarayonlarga ta’sir etish yo‘llarini aniq o‘taydi. Ijtimoiy hodisa va jarayon tabiatini aks ettiruvchi modellarni ishlab chiqish va qo‘llash haqqoniy va asosli natijalarni olish imkonini beradi. Tadqiqotlarning bosh maqsadi o‘rganilayotgan jarayonni samarali va to‘g‘ri boshqarishga qaratilgan zaruriy chora-tadbirlarni ishlab chiqishdir. Turli darajadagi umumlashgan ma’lumotlar, nisbiy ko‘rsatkichlar, indikatorlar, indekslar va boshqalar aynan shu maqsadga qaratilgandir. Bu o‘rinda modellashtirish va prognoz qilish usullarini qo‘llash alohida ahamiyatga egadir. Modellashtirish asosidagi prognoz qilish mutaxassislar uchun katta imkoniyatlarni vujudga keltiradi. Hozirgi kunda oliy ta’limning sifatini baholash qo‘shimcha statistik ko‘rsatkichlar va indikatorlarni aniqlash usullariga muhtoj: mehnat bozori ehtiyojlari va ish beruvchilari talablari nuqtai nazaridan baholanishi kerak. O‘zbekiston Respublikasi ijtimoiy taraqqiyoti «milliy modeli» ning yadrosi sifatida namoyon bo‘ladigan jamiyatning ma’naviy-axloqiy va madaniy rivojlanishini, o‘zbek xalqining tarixi va davlatchiligini, ta’limning uzluksizligi va izchilligini, barkamol avlodni tarbiyalash masalalarini o‘rganish mamlakatimiz ijtimoiy fanlarida barqaror tarzda tadqiq qilib kelinayapti. Shu bilan birgalikda, muammoning matematik modellashtirish fani doirasida, nazariy va amaliy uyg‘unlikda, sotsiologik xususiyatdagi ilmiy tadqiqotlari hali yetarli darajada olib borilmaganligini alohida ta’kidlash lozim. Bugungi kunda fan va jamiyat taraqqiyotida matematik modellashtirish usuli ilmiy bilish usuli sifatida katta rol o‘ynaydi. Modellashtirish deganda, biz haqiqiy obyektning eng muhim bo‘lgan birlamchi xususiyatlarini saqlab qolgan holda, uning nusxasini (modelini) yaratish va o‘rganishni nazarda tutamiz. Hozirgi kunda bu ilmiy tadqiqotning eng samarali va eng ko‘p ishlatiladigan usullaridan biri hisoblanadi. Bu “matematik dunyo” tuzilmalari bilan “eksperimental dunyo”ni muvaffaqiyatli tahlil qilish imkoniyati bilan izohlanadi. Matematik modellashtirish metodlari dastlab mexanika, fizikada boshlangan bo‘lsa, bugungi kunda deyarli barcha tabiiy va ko‘plab gumanitar fanlarni qamrab olmoqda. Matematik modellashtirish kuzatilayotgan jarayonning alohida bosqichlarining o‘ziga xos xususiyatlari haqida tasavvurga ega bo‘lish, amaliy muammolarni hal qilishda qo‘llash bo‘yicha umumiy ko‘nikmalarni rivojlantirishga yordam beradi. Bundan tashqari, matematik modellashtirish yuzaga keladigan masalalar va ularning yechimlari ko‘rsatishga, bir sohada yuz bergan hodisaning boshqa sohalarning rivojlanishiga qanday ta’sir qilishini aniqlashga imkon beradi. Haqiqiy obyektning xususiyatlari, tadqiq qilish masalalari, muammoni hal qilish vazifalari va ishonchliligi matematik modelning turiga bog‘liq bo‘ladi. Matematik model – bu obyektning ekvivalenti bo‘lib, uning matematik shakldagi eng muhim xususiyatlari matematik qonunlarda aks ettiriladi. Uning tarkibiy qismlari o‘zaro birbiriga bog‘liqdir. Odatda matematik modelda modellashtirilayotgan obyektning tuzilishi aks ettirilib, unda obyekt tarkibiy qismlarining tadqiqot xususiyatlari va o‘zaro aloqadorligi ifodalanadi. Model bilan nazariya o‘zaro dialektik munosabatda bo‘ladi. Model, kuzatish,tajriba, eksperimental ma’lumotlar bilan bir qatorda mavjud nazariyalarning rivojlanishi va yangi nazariyalar yaratishning asosini tashkil qiladi. Har bir ilmiy nazariya yangi model yaratish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi. Ya’ni, modellashtirish usulining bilish jarayonida yangi nazariyaning negizi, impulsi hisoblanadi. Ayrim hollarda nazariya dastlab model ko‘rinishida vujudga kelib, ilk ishchi gipoteza rolini o‘ynaydi. Yuqoridagilardan shu ma’lumki, matematik modellashtirish faoliyati ancha murakkab va ko‘p qirrali bo‘lib, ta’riflarning hech biri uni to‘liq aks ettira olmaydi. Matematik modellar ilmiy bilimlarning yaxlitligini namoyish etadi. Hozirgi bosqichda ular fanning umumiy tili bo‘lib, tabiat, jamiyat va ongda sodir bo‘layotgan hodisalarning mohiyatini chuqurroq anglashga imkon beradi. Matematik modellashtirish sohasi bo‘yicha A.N.Bogolyubov, A.B.Gorstko, V.S.Zarubin, P.Korobeinikov, A.D.Mishkis, G.I.Ruzavin, A.A.Samarskiy va boshqa olimlar ilmiy tadqiqotlar olib borishgan. Rossiyada oliy ta'lim sifati 90-yillar oxiridan boshlab o‘rganilgan.

Adabiyotlar tahlili. Ta'lim sohasidagi dunyo etakchilarining tajribasi shuni ko‘rsatadiki, raqobatbardosh strategiyaning asosi ISO 9001 seriyasining xalqaro standartlari talablariga javob beradigan sifat menejmenti tizimi orqali sifatga yo‘naltirilgan. Shu munosabat bilan o‘quvchi-yoshlarni ta'lim muassasalarining ta'lim xizmatlari sifatini oshirish davlat vazifalari doirasida strategik maqsad sifatida hamda o‘quvchi-yoshlarni ta'lim muassasalarining vazifalari doirasida

hayotiy faoliyati, rivojlanishi va farovonligini ta'minlash vositasi sifatida qaraladi. Bugungi kunda o‘quvchi-yoshlarni ta'lim muassasalari o‘z mavqeini “bozor subyekti” sifatida tan olishi kerak va shu sababli bozor iqtisodiyotining barcha qonunlari, yashash uchun kurash qonunlari va “tabiiy tanlov” ta'lim xizmatlari bozorida ham amal amal qilishini e'tirof etishi kerak [1].

Jamiyatning bir butunligini ta'minlovchi ijtimoiy mexanizmlarni ilmiy o‘rganishga, ijtimoiy boshqaruv va ta'lim sifatini takomillashtirish masalalariga g‘arb pedagog olimlaridan Kachalov, B.D.Shadrikovlar fikriga ko‘ra ta'lim sifati iste'molchilar ehtiyojlariga qanchalik mos kelishini, M.B.Rejakov ta'lim xizmatlarini jamiyat ehtiyojlari va talablariga mosligi darajasi sifatida izohlaydilar. Pedagog olim N.F.Efremovaning tadqiqotida ta'lim sifati nafaqat natija tariqasida, balki ta'lim muassasalari faoliyatida ham, shaxsning o‘zida ham, ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik va siyosiy muhitda ham o‘zgarishlar tufayli murakkab rivojlanish dinamikasiga ega bo‘lgan jarayon sifatida qaralgan [2]. Jahon tajribasidan ma’lumki, bugungi kunda insoniyat uchun meyorda yashash sharti, sotsiol rivojlanish sur’atini jadallashtirish, ijtimoiy muammolarni hal etishda mushtarak intellektual salohiyatni jalb etish, sotsiol makonni boshqarishning innovatsion resurslaridan foydalanish, butun mamlakat bo‘ylab sotsial muvozanatga erishishdan iboratdir. A.Bratko modellashtirishni tabbiy va sun’iy tizimlar yordamida bevosita bilish metodi, deb talqin etadi.U o‘rganilayotgan obyektga nisbatan ma’lum munosabatda bo‘lib, bu haqida yangi tushunchalar berish imkoniyatiga ega. Modellashtirish aniq obyekt, shuningdek, mavhum obyektlar, o‘rganilgan va o‘rganilmagan hodisalar ham bo‘lishi mumkin [3]. Ijtimoiy boshqaruv, ma’naviyat va axloqiy tarbiya masalalari, ta’limning hamda ijtimoiy munosabatlarning shaxs ijtimoiylashuvida o‘rni to‘g‘risidagi g‘oyalar O‘rta Osiyo mutafakkirlaridan Imom al-Buxoriy, Abu Nasr Forobiy, Abu Ali ibn Sino, Abdulholiq G‘ijduvoniy, Abu Rayhon Beruniy, Hoja Ahmad Yassaviy, Jaloliddin Davoniy, Kaykovus, Najmiddin Kubro Xivaqiy, Bahouddin Naqshband, Husayn Voiz Koshifiy, Amir Temur, Alisher Navoiy, Jaloliddin Rumiy, Yusuf Xos Xojib, Imom G‘azzoliy asarlarida talqin qilingan bo‘lib, ularning asarlaridagi sotsiologik nuqtai-nazar va qarashlarida o‘z aksini topgan. Jamiyatdagi ijtimoiy jarayonlarda ta’lim-tarbiya sifatini oshirish orqali komil, yetuk ma’naviyatli inson qiyofasini yaratish masalalarini muqaddas Qur’oni Karim va hadislardan foydalangan holda o‘rganishimiz kerak. Rossiya oliy ta'limi muammolari S.Abramova, N.V.Bordovskiy [4], V.A. Bolotov [5], L.I.Varenova, A.A.Vetrova, V.I.Vovna, O.A. Granichina [6], L.A.Golub, G. L. Gromiko, S.P.Dokina, S.S.Doneskaya, S.P. Erkovich, N.F.Efremova, D.F.Zakirova, Yu.A.Zaxarov, I.A.Zimnaya, B.I.Iskakov, V.G.Kazanovich, S.M.Kalabin, N.P.Kalashnikov, Z.I.Kapelyuk, O.M.Karpenko, V.G.Kinelev, A.A.Kirinyuk, N.V.Kovaleva, B.K.Kolomies, S.V.Korshunov, V.J.Kuklin [7], A.A.Kushel, B.X.Land, A.G.Levinson, B.G.Litvak, A.N.Mayorov, T.V.Makarova, V.V.Melnik, V.I.Meshalkin[8], ,V.A.Moskinov, R.V.Muzichenko, O.G.Nefedova, O.N.Onishenko, B.P.Plishevskiy, N.I.Popov, A.Prokofev [9], B.A.Savelev, N.A.Selezneva [10], O.A.Silaev, L.M.Struminskaya, A.I.Subetto [11], E.V.Sumarokova, Yu.G.Tatur, D.A.Tatyanchenko, I.I.Trubina, K.S.Farino, I.B.Fedorov, E.V.Filyuk, A.A.Frenkel, E.Xrikov, M.B. Chelishkova, A.I.Chuchalin, V.D.Shadrikov, E.N.Shuvalov, E.M.Yurtanova va boshqalar asarlarida o‘z aksini topgan. Ushbu tadqiqotchilar oliy ta'lim sifatini aniqlashda turli yondashuvlarni aniqlaganlar va uni baholashning turli mezonlarini taklif qilganlar. Mamlakatimiz taraqqiyotining Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev rahbarligida islohotlar olib borilayotgan hozirgi yangi bosqichida o‘zgarishlar va yangilanishlarning boshqa sohalar qatori, ma’naviy taraqqiyot jarayonlariga ta’sir ko‘rsatish dialektikasidagi o‘rni va ahamiyati yanada ortib bormoqda. zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”[12], 2019 yil 8 oktabrdagi PF-5847-son “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi[13], 2020 yil 6 noyabrdagi PF-6108-son “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”[14], 2020 yil 5 oktabrdagi PF-6079-son “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlarini belgilash to‘g‘risida”gi farmonlari[15], 2020 yil 6 oktabrdagi PQ-4851-son “Axborot texnologiyalari sohasida ta’lim tizimini yanada takomillashtirish, ilmiy tadqiqotlarni

rivojlantirish va ularni IT-industriya bilan integratsiya qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori[16] hamda Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 15 iyundagi “Raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatning rivojlanish holatini reyting baholash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 373-sonli qarori[17]da belgilangan ustuvor vazifalar oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va uni modellashtirishga qaratilgan strategik yo‘nalishlarni amalga oshirishni nazarda tutadi.

TADQIQOTNING MAQSADI. Oliy ta’lim tizimini sifatini oshirishni matematik modellashtirish metodi orqali o‘rganishning sotsiologik-pedogogik tahlilini ko‘rsatish va uning funksiyalarini tadqiq va tahlil etishdan iborat.

TADQIQOTNING USULI VA OBYEKTI. Mazkur jarayonda retrospektiv va qiyosiy tahlil, faoliyat mahsulini o‘rganish, kuzatuv, hujjatlarni o‘rganish kabi ilmiy tadqiqot usullaridan foydalanildi. Tadqiqot obyekti sifatida oliy ta’lim tizimini sifatini oshirishni matematik modellashtirish metodi orqali o‘rganish masalalari tadqiq etildi.

TADQIQOT NATIJALARI VA ULARNING MUHOKAMASI. Ta'lim tizimining ajralmas xarakteristikasi, haqiqiy erishilgan ta'lim natijalarining me'yoriy talablarga, ijtimoiy va shaxsiy kutilgan natijalarga va umuman jamiyatning kutilgan natijalariga muvofiqligi darajasini aks ettiradi.

Globallashuv davrining murakkab sharoitida mamlakatimizda ta’limning yangi innovasion tizimini shakllantirish borasida bir qancha ijobiy islohotlar amalga oshirildi. Bu esa, jamiyat oldiga oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini yanada oshirishning sosial mexanizmlarini takomillashtirish va hayotga joriy etishdek muhim muammolarni ko‘ndalang qo‘ydi. Bu muammolarni hal qilish uchun oliy o‘quv yurtlarida sosial boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirishning nazariy-metodologik asoslarini chuqur ilmiy tadqiq etishni taqozo etadi. Ta’lim-tarbiya jarayonida yuzaga keladigan ijtimoiy munosabatlar va talablarning muhimligini hisobga olgan holda, bu sohaga mansub o‘tkazilgan sosiologik tadqiqotlarning kamligi tufayli ta’lim tizimidagi ijtimoiy mexanizmlar tezroq takomillashtirilishi maqsadga muvofiqdir.

Shu jihatdan, professor-o‘qituvchilar faoliyatining ijtimoiy jihatlarini sotsiologik nuqtai-nazardan tadqiq etish, talabalar faolligiga ta’sir etuvchi ijtimoiy omillarni ilmiy tadqiq etish, professor-o‘qituvchilar bilan talabalar o‘rtasidagi ijtimoiy munosabatlar va sosial talablarni o‘rganish hamda sosiologik monitoring tizimini yaratish va amaliyotga joriy etish bilan bog‘liq sosiologik tadqiqotlarni muntazam o‘tkazib turish oliy ta’lim muassasalarining jamiyatdagi mavqeini yanada yuqori darajaga ko‘tarishga ko‘maklashadi. XXI asrda jahon hamjamiyatida ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarning o‘zgarishi ta’lim va fan sohalarida islohotlarning chuqurlashuviga olib keldi. Shu bois, oliy ta’limni modernizasiyalash zarurati paydo bo‘ldi. Bu masalalarni ilmiy hal qilishda muhim omil bo‘lgan ijtimoiy axborot bazasini shakllantirish va uni mustahkamlash, oliy ta’lim muassasalarida ta’lim-tarbiya samaradorligini oshirish, ijtimoiy-matematik modellarni yaratish hamda uni hayotga joriy qilish amaliy ahamiyat kasb etib, ta’limning bugungi mazmunini yuksaklikka ko‘tarishga va sifatini oshirishga olib keladi. Jahonda ta’lim eng noyob kapital sifatida qadrlanayotgan bugungi sharoitda ta’limning hamma bosqichlarida,ta’lim natijalarini baholash samaradorligini oshirish va usullarini takomillashtirish mexanizmlarini joriy etish orqali barcha insonlar uchun ularning hayoti davomida sifatli ta’lim olish imkoniyatini yaratishni dolzarb vazifa qilib qo‘ymoqda.Ta’lim inson ijtimoiylashuvining muhim tarkibiy qismi hisoblanib, jamiyatdagi muammolarni hal etishda asosiy o‘rin egallaydi. Ta’limni rivojlantirish bilan bir qatorda jamiyatni yana bir muhim masala – ta’lim sifatini oshirish muammosi doimo tashvishga solib kelgan. Zero, ta’lim mahsuloti hisoblangan mutaxassislarning salohiyati jamiyat ijtimoiy- iqtisodiy rivoji bilan chambarchas bog‘liq. Oliy o‘quv yurtlarida o‘quv jarayonining asosiy vazifasi yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlashdir. Shu bilan birga, asosiy e’tibor ta’lim sifatini oshirishga qaratiladi, bu esa nafaqat moddiy-texnik bazaning holati balki professoro‘qituvchilar tarkibining malakasi, talabalar o‘rtasidagi munosabatlar bilan ham belgilanadi. Ta’limning, shu jumladan, oliy ta’limning yakuniy natijasi – bu ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlarga moslashaoladigan va zamonaviy jamiyatda o‘z o‘rnini topishga qodir bo‘lgan mobil, ko‘p qirrali shaxs hisoblanadi.Ta’lim tizimida amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohatlar, ta’lim sifati va samaradorligini oshirish

maqsadida ta’lim muassasalari faoliyatini takomillashtirishga yo‘naltirilgan davlat dasturlari, qarorlari,ta’lim-tarbiya ishtirokchilariga qaratilayotgan e’tibor,ular uchun yaratilayotgan shart-sharoitlar, ta’lim sifatini oshirishdagi mavjud muammolarning yechimini topish,ta’lim mazmunini takomillashtirish bilan bir qatorda,uning sifatini ham ilmiy asosda boshqarishni ham taqozo etmoqda. Oliy ta’lim sifatini oshirish respublikaning strategik maqsadiga aylanib, mamlakatdagi oliy ta’lim muassasalari faoliyatining toboro muhim shartiga aylanmoqda. Xususan, O‘zbekiston Respublikasida oliy ta’limni tizimli isloh qilishning ustuvor yo‘nalishlarini belgilash, mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayonini sifat jihatdan yangi bosqichga ko‘tarish, oliy ta’limni modernizasiya qilish ,ilgor ta’lim texnologiyalariga asoslangan holda ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktabrdagi farmoni bilan tasdiqlangan O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi mazkur sohadagi yangi islohatlar uchun dasturiamal vazifasini bajarib bermoqda. Ushbu hujjatda intellektual taraqqiyotni jadallashtirish, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash, ilmiy va innovasion faoliyatni samarali tashkil etish hamda xalqaro hamkorlikni mustahkamlash maqsadida fan, ta’lim va ishlab chiqarish integrasiyasini rivojlantirish singari vazifalar asos qilib olindi. Oliy ta’lim muassasalarida sifat menejmenti tizimini yaratish yoki takomillashtirishdan oldin, ushbu konsepsiya aynan nimalardan iborat ekanligini aniqlash lozim. Oliygohdagi sifat menejmenti tizimi unga yuklangan vazifalar, shuningdek, uning ushbu tizim bilan ishlashga tayyorligi asosida yaratiladi. Oliy ta’lim muassasasalarida sifat menejmenti tizimi – ta’lim sifatini doimiy boshqarish, rejalashtirish, ta’minlash orqali amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan tashkiliy tuzilma, metodologiyalar, jarayonlar va manbalar majmuidir. Sifat tizimning asosiy hujjati hisoblanadi. U sifat menejmenti tizimini yaratish va uning maqsadi, shuningdek, yuqori rahbariyat tomonidan ushbu maqsadlarga erishish majburiyatini belgilaydi. Sifat menejmenti tizimi oliy o‘quv yurtlari faoliyatining pedagogik,ilmiy, ma’muriy va iqtisodiy sohalarini qamrab oladi. Ushbu sohalar bir-biri bilan bog‘liq bo‘lib, ko‘p holatlarda o‘zaro kesishadi.Sifat menejmenti tizimining faoliyati butun oliygoh xodimlarining ushbu jarayonga jalb etilishi bilan amalga oshiriladi, bunda albatta,rahbariyat sifat sohasidagi maqsadlarga erishish uchun to‘liq javobgarlikni o‘z zimmasiga olishi lozim. Ta’lim sifati konsepsiyasini ishlab chiqishda quyidagi savollarga javob berishimiz kerak bo‘ladi: 1) ta’lim sifati nimani anglatadi;

2) ta’lim sifatini oshirishning umumiy vazifalarini hal qilishda oliy o‘quv yurtlarining sifat tizimi qanday rol o‘ynashi kerak;

3) bunday tizimni qanday yaratish kerak? Ta’lim sifatini oshirish omillarini matematik modellashtirish orqali qaysi omil qanday, qanchalik ta’sir etishini korrelyasiya orqali aniqlash mumkin. Ta’lim sifatini oshirish omillarini matematik tilda qo‘yidagicha ifodalaymiz: a1- o‘qituvchilar tarkibining bilimi, a2- o‘qituvchilar tarkibining malakasi, a3-moddiytexnik bazaning holati , a10-talabalar faolligiga ta’sir etuvchi ijtimoiy omillar. Bu ta’lim sifatini oshirish omillarini 10-ballik shkalada baholaymiz. A=a1+a2+a3…+a10 A - bu ta’lim sifatini oshirish indikatori, deb nomlaymiz. Xuddi shuningdek, ta’lim sifatiga salbiy ta’sir qiluvchi omillarni ham ko‘rib chiqamiz: b1- o‘qituvchilar tarkibining ma’suliyatsizligi; b2- o‘qituvchilar ilmiy salohiyatning pastligi;b3- …b10 - adolatsizlik. B=b1+b2+b3…+b10 I=A-B I - bu umumiy ta’lim sifatini oshirish indikatorlari, deb nomlaymiz. Ta’lim sifatini oshirishda A-ni maksimallashtirish, B-ni minimallashtirish kerak. Ta’lim sifatini baholash, o‘lchashda quyidagi funksiyani qo‘llash mumkin: f=a1*x1+ a2*x2+ a3*x3……+ a10 * x10 Biz f-funksiyani ma’lum bir shartlar ostida bo‘lganda maksimumini topishimiz kerak. Buning uchun matematik modellashtirishda chiziqli simpleks usulidan foydalanib, topiladi. Ijtimoiy jarayonlarni modellashtirishda korrelyasion va regression modellashtirish usullaridan ham foydalaniladi. Modellashtirishning korrelyasion va regression usullari dinamik jarayonlarga nisbatan, ya’ni vaqt bo‘yicha o‘zgaruvchi jarayonlarga qo‘llaniladi. Korrellyasion modellar o‘rganilayotgan jarayonlar o‘rtasida bog‘lanish shakllarini o‘rgansa, regression modellar yordamida ushbu jarayonlarning regression tenglamalarini olish mumkin [5]. Ijtimoiy jarayonlarni boshqarish uchun ishlatiladigan eng oddiy matematik model bu ballar modelidir. Uning mohiyati quyidagicha: biron bir obyektni kuzataylik. X1, X2 ,. ... ... , Xn

tanlangan obyektning berilgan t vaqtdagi holatini va uning oldingi nazorat davri uchun faoliyati natijalarini tavsiflovchi miqdoriy ko‘rsatkichlar to‘plamidir. Bunday holda tanlangan obyektning umumiy reytingini quyidagi formula yordamida hisoblash mumkin: R = _1X1 + _2X2 + _ _ _ + _nXn; Sosiologik tadqiqotlarda so‘rov natijalarini umumlashtirishda matematik apparatni qo‘llash uchun o‘lchov tushunchasi kiritiladi. Respondentlar bildirgan fikrlarni qanday o‘lchash mumkinligi o‘lchov tushunchasini ishlab chiqishni taqozo etadi. Matematik apparat hosil bo‘lgan axborot bazasidan turli darajadagi umumlashgan ma’lumotlarni tayyorlash uchun xizmat qiladi. Misol tariqasida: Talabalar o‘rtasida o‘tkazilgan sosiologik so‘rovda qo‘yilgan “Siz tanlagan mutaxassisligingizdan mamnunmisiz?” savoli bo‘yicha olingan javoblarda “Mamnunman” deb, so‘rovda qatnashgan 200 respondentdan 120 respondent (60%) javob berdi va “Mamnun emasman” deb, 80 (40%) respondent fikr bildirdi. Bu yerda savol dixotomik shkala o‘lchovida shakllantirilgan edi. Ikkinchi pog‘onada ko‘rilgan bo‘lsin. “Siz tanlagan mutaxassisligingizdan mamnun bo‘lsangiz, qanchalik mamnunsiz?” savoliga 120 ta respondentdan 80 tasi (67%) “To‘la mamnunman”, deb hamda 40 tasi (33%) “Qisman mamnunman “ deb javob berdi. “Siz tanlagan mutaxassisligingizdan mamnun bo‘lmasangiz, qanchalik mamnun emassiz?” deb qo‘yilgan savolga 80 ta respondentdan 60 tasi (75%) “Qisman mamnun emasman?” tarzida javob berdi. Aynan shu ma’lumotlarni to‘rt darajali baholash shkala o‘lchovida ko‘radigan bo‘lsak, 80+40+60+20=200 (40%+20%+30%+10%=100%) ko‘rinishidagi natijani olamiz. Mamnunlik koeffisiyentini topadigan bo‘lsak, 120/80=1,5 ko‘rinishidagi natijani olamiz. Ko‘rsatilgan misoldan respondentlar tomonidan bildirilgan javoblarni qanchalik turli ko‘rinishda interpretasiya qilish mumkinligi ko‘rinmoqda.

XULOSA. Oliy ta'lim sifatini oshirish davlatimizning strategik maqsadiga aylanib, mamlakatdagi oliy ta'lim muassasalari faoliyatining muhim shartiga aylangan. Ta'lim doimiy harakatdagi dinamik ijtimoiy tizim sifatida boshqaruv obyekti hisoblanadi va u ijtimoiy oshirilayotgan iqtisodiy va ijtimoiy o‘zgarishlar, iqtisodiyotning innovasion yo‘nalishda shakllantirilishi, jahon iqtisodiyotiga integrallashuvi ta'lim tizimi oldiga dolzarb masalalardan biri bo‘lgan sifatli mutaxassislarni tayyorlash, tizimlarga xos bo‘lgan barcha xususiyatlarni o‘zida jamlaydi. Tizim sifatida ta'lim ham faoliyat ko‘rsatish, rivojlanish, inqiroz va taraqqiyot bosqichlarida bo‘ladi. Inson kapitali sifatini oshirmasdan turib, keyingi iqtisodiy o‘sishni ta'minlash qiyin kechadi. Shu bois, zarur kuch va resurslarni ta'lim sifatini oshirishga, malakali kadrlar tayyorlashga yo‘naltirish nafaqat bugun, balki ertangi kunning ham ustuvor vazifasiga aylanmoqda.

Mamlakat ta'lim tizimida sifatni doimiy ko‘tarib borish barcha rivojlangan mamlakatlarning ta'lim jarayonini yaxshilash sohasida olib borilayotgan tajribalarini chuqur tahlil qilgan holda, o‘zimizga xos va mos bo‘lgan yo‘nalishlarni takomillashtirib borishimiz kerak.

“Ta'limning yangi modeli jamiyatda mustaqil fikrlovchi erkin shaxsning shakllanishiga olib keladi, o‘zining qadr-qimmatini anglaydigan, irodasi baquvvat, iymoni butun, hayotda aniq maqsadga ega bo‘lgan insonlarni tarbiyalash imkoniga ega bo‘lamiz. Ana shundan keyin ongli turmush kechirish jamiyat hayotining bosh mezoniga aylanadi.”[18]

Jamoatchilik fikrini o‘rganish so‘rovlari ma’lumotlarini matematik modellashtirish metodini qo‘llash orqali tadqiqotlarni chuqurlashtirish imkoniyati mavjud.Modellashtirish va istiqbolni baholash ma’lumotlari asosida zaruriy,tahliliy va grafik ko‘rinishdagi matematik ishlanmalar yaratiladi.Bu o‘rinda birlamchi ma’lumotlar bazasi yana ko‘plab qo‘shimcha ma’lumotlar olishga imkon berishini ko‘zda tutish kerak. Bugungi kunda ta’lim sifatini yanada yuksaklikka ko‘tarish eng ustuvor muammolar qatoriga kirar ekan, uni tizimli va ilmiy o‘rganish, ayniqsa, inson omili va unga oid ijtimoiy muammolarni sosiologik tadqiq qilish hamda ularni ilmiy asosda hal qilish dolzarb masalalardan biridir. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar va bunyodkorlik ishlari natijasida xalqimizning tafakkuri, dunyoqarashi o‘zgarmoqda. Tadqiqotlar natijasida ta’lim sifatini baholash ikkita tarkibiy qismdan, ya’ni ichki (o‘z-o‘zini baholash) va tashqi baholashdan iborat bo‘lishi lozimligi, shuningdek, mazkur tashkil etuvchilarning aniq mexanizmlari har xil bo‘lishi mumkin va ta’lim sifatini ta’minlashda ichki baholash hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanligi aniqlandi. Tashqi baholash tizimi sifatni ko‘proq standartlar va iqtisodiy

samaradorlik bilan, ichki baholash tizimi esa raqobatbardoshlik va rivojlanishga yo‘naltirilgan takomillashtirishni nazarda tutadi. Odatda, tashqi baholash o‘zini-o‘zi baholash elementlarini ham qamrab oladi. Xorijda sifatni ta’minlash tizimlarini qo‘llashda ichki va tashqi baholash o‘rtasidagi balans,baholashning maqbul metodlarini axtarish kabi hanuzgacha hal etilmagan ko‘plab muammolar mavjud. Oliy ta’lim tizimi jahon standartlariga javob beradigan davlatlar bilan fan, ta’lim sohalarida o‘zaro manfaatli hamkorlik masalasini yo‘lga qo‘yilishi o‘ylaymizki o‘zini ijobiy natijalarini beradi.

Adabiyotlar

1.Азарьева, В.В. Самооценка научно-исследовательской деятельности в вузе на базе принципов менеджмента качества/ В.В. Азарьева // Экономика и менеджмент организации. – 2015. – Вып. 2. – С. 62 – 67.

2.Нейман, Ю.М. Педагогическое тестирование как измерение : учеб. пособие /Ю.М. Нейман, В.А. Хлебников//.- Центр тестирования М-ва образования Рос. Федерации. - 1997.

3.Братко А.А. Моделирование психической деятельности – М: Мысль, 1969. – 384 с.

4.Бордовская, Н. В. Системная методология современных педагогических исследований /.В. Бордовская // Педагогика. - 2005. - С. 21-29.

5. Болотов, В.А. Основные подходы к построению общероссийской системы оценки качества образования // Наука, высшее образование и развитие современного мира: сб. науч. ст. Архангельск. 2007. – С. 6-11

6.Граничина О. А. Контроль качества образовательного процесса в вузах России и зарубежом.- СПБ.: - Изд-во 2006 – С.115

7. Куклин В.Ж., Беляков С.А. Системные аспекты образовательной политики и управления образованием // Университетское управление. – М., 2003. – №3(26). – С.10-23

8.Мешалкин В. И. Учреждения высшего и среднего профессионального образования в Российской Федерации. Аккредитация - самообследование – рейтинг// М.: изд-во РУДН. 1995. 136 с.

9.Прокофьев, А. А. дис.... д-ра пед. наук /А. А. Прокофьев//: 13. 00. 08. / А. А, Прокофьев. /- Москва, 2005. - 375 с.

10.Селезнева Н. А. Качество высшего образования как объект системного исследования. Лекция-доклад./ -. Изд – во М., 2002. - 95 с.

11. Субетто А. И. Качество непрерывного образования в Российской Федерации./ - СПб. - М.: Исследовательский центр. 2000.- 448

12.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son Farmoni "Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida": https://lex.uz/docs/5841063

13.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktabrdagi PF-5847-son Farmoni "O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida": https://lex.uz/docs/4545884

14.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 6 noyabrdagi PF-6108-son Farmoni "O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida": https://lex.uz/docs/5086547

15.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 5 oktabrdagi PF-6079-son Farmoni "Raqamli O‘zbekiston – 2030 strategiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida": https://lex.uz/docs/5010995

16.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 6 oktabrdagi PQ-4851-son Qarori "Axborot texnologiyalari sohasida ta’lim tizimini yanada takomillashtirish, ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish va ularni IT-industriya bilan integratsiya qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida": https://lex.uz/docs/5011151

17.O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 15 iyundagi 373-son Qarori "Raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatning rivojlanish holatini reyting baholash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida": https://lex.uz/docs/5454811

18. Каримов И.А. Адолатли жамият сари./ И.А. Каримов – Т., 1998. – Б.21-23

YANGI O‘ZBEKISTONDA OILA-MAHALLA-MAKTAB IJTIMOIY MUNOSABATLARI

Rasulov Jamshidbek Maxammadimin o‘g‘li
Andijon davlat pedagogika instituti mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya: Yangi O‘zbekistonni barpo etish jarayonlarida an’anaviy ijtimoiy institutlarning jamiyat taraqqiyotidagi o‘rni va roli ham o‘zgarib bormoqda. Ularning rivojlanishi uchun yangi imkoniyatlar yaratilmoqda va o‘z navbatida yangi vazifalarga ham ega bo‘lmoqdalar. Oila-mahalla-maktab munosabatlari yangi ijtimoiy munosabatlar tizimida nafaqat ham tomonlama barkamol shaxsni tarbiyalab voyaga yetkazish, balki, jamiyat barqarorligi, ijtimoiy va ma’naviy xavfsizligining muhim omillaridan birini tashkil etmoqda. Mazkur maqolada so‘z O‘zbekistonda shakllanayotgan yangi ijtimoiy munosabatlar tizimida uchta muhim ijtimoiy institut hamkorligining ayrim masalalariga bag‘ishlanadi.

Kalit so‘zlar: Yangi O‘zbekiston, ijtimoiy munosabatlar, maktab, mahalla, oila, ta’lim-tarbiya, ijtimoiylashuv, ijtimoiy hamkorlik

Аннотация: В процессе строительства нового Узбекистана меняются место и роль традиционных социальных институтов в развитии общества. Создаются новые возможности для их развития, и, в свою очередь, перед ними встают новые задачи. Социальные отношения семьи, махалли и школы в новой системе общественных отношений являются не только одним из важных факторов воспитания всесторонне развитой личности, но и обеспечения стабильности общества, социальной и духовной безопасности. В данной статье рассматриваются вопросы взаимодействия трёх важнейших социальных институтов в формирующейся в Узбекистане новой системе общественных отношений.

Ключевые слова: Новый Узбекистан, социальные отношения, школа, махалля, семья, образование, социализация, социальное взаимодействие.

Abstract: As the New Uzbekistan is being built, the place and role of traditional social institutions in societal development are changing. New opportunities for their development are being created, and, in turn, they are facing new challenges. Social relations between the family, mahalla, and school in the new system of social relations are not only important factors in nurturing a well-rounded individual but also in ensuring social stability and social and spiritual security. This article examines the interactions between three key social institutions in the new system of social relations emerging in Uzbekistan.

Keywords: New Uzbekistan, social relations, school, mahalla, family, education, socialization, social interaction.

Yangi O‘zbekistonni barpo etish jarayonlarida “Inson qadri uchun!” g‘oyasi yetakchilik qilmoqda. Bu g‘oya nafaqat yangi shakllanayotgan jamiyat maqsadlari, balki, uning barcha rivojlanish jarayonlaridagi mohiyatini ham ifoda etadi. “*Hayot qanchalik mashaqqatli bo‘lmasin, mamlakatimizda demokratik islohotlarni izchil davom ettirib, xalqimizni rozi qilishga, tinchlik va barqarorlikni mustahkamlashga bor kuch va imkoniyatlarimizni safarbar etamiz”[1],- deya ta’kidlagan edi davlatimiz rahbari Sh. Mirziyoyev.*

Ma’lumki, ijtimoiy munosabatlar “ijtimoiy aloqalarning barcha turlariga xos bo‘lgan umuminsoniy xususiyatlar bilan bir qatorda o‘ziga xos xususiyatga, o‘ziga xos sifat aniqligiga ega. Bu moddiy harakatning ijtimoiy shakli sifatida odamlarning o'zaro ta'siri va harakatning boshqa shakllari, shu jumladan odamlarning o'zaro ta'sirining boshqa turlari o'rtasidagi farqni ifodalaydi” [2;7].

Yangi O‘zbekistonda ijtimoiy munosabatlarda birinchi galda shaxsning huquq va manfaatlarini ifoda etish, munosib hayot va mehnat sharoitlarini yaratish va turmush tarzini yanada yaxshilash maqsadlari yetakchilik qiladi. “Xalq davlat idoralariga emas, davlat idoralari xalqqa xizmat qilishi lozim”, degan tamoyil ham ayni shuni ifoda etadi.

“Jahon qomusiy lug‘ati”da “o‘zbek” atamasiga “O‘zbek – jahon xalqlari orasida birinchilardan bo‘lib, turkiy xalqlar ichida esa birinchi bo‘lib o‘troqlashgan, madaniy hayot kechirgan va jahon sivilizatsiyasiga munosib hissa qo‘shgan millat” [3;53], deya ta’riflanadi.

Oilaning muqaddasligi, jamoa bo‘lib, o‘zaro ahil-inoqlikda hayot kechirish va ma’rifatparvarlik xalqimizning azaliy qadriyatlaridan biridir. Oila - ta’lim va tarbiyaning negizi ekanligi, mahalla esa dunyoning boshqa xalqlarida uchramaydigan o‘ziga xoslikka ega bo‘lgan shaxs kamolotining muhim o‘chog‘i ekanligi va bilim olish va kasb-hunar egallash xalqimizda oliy maslaklardan biri bo‘lib kelganligi uchala ijtimoiy institut munosabatlari azaliy mustahkam poydevorga qurilganligidan dalolat beradi.

Yangi O‘zbekistonni barpo etish jarayonlari yurtimizda Uchinchi Renessansni shakllantirish jarayonlari bilan uzviy kechmoqda. Uchinchi Renessans bu tarixiy xotira va tajriba asoslangan va ayni paytda davlatimiz va xalqimizning bugungi taraqqiyot darajasi va istiqboldagi rivojlanish maqsadlari uyg‘unligini ma’naviyat va ma’rifat orqali ta’minlash g‘oyalarini ifoda etadi.

Mazkur jarayonlarida har uchala institut yangi ijtimoiy munosabatlarga kirishmoqda va ularning samarasi amaliy hayotda o‘zining ma’lum ijobiy natijalarini bermoqda.

Falsafiy jihatdan olib qaraganda, Yangi O‘zbekistonda yangi qadriyatlar tizimi shakllanmoqda. Mavjud qadriyatlar esa yangi ma’no-mazmun va ruh bilan sayqallanmoqda. Ma’lumki, “Qadriyat deyilganda inson va insoniyat uchun ahamiyatli bo‘lgan millat, elat va ijtimoiy guruhlarning manfaatlari va maqsadlariga xizmat qiladigan va ular tomonidan baholanib, qadrlanadigan tabiat va jamiyat ne’matlari, hodisalari majmuini tushunmog‘imiz lozim” [4;198] bo‘ladi.

Ta’lim-tarbiya Yangi O‘zbekistonda yangi mazmun va ahamiyat kasb etgan, sayqallanayotgani va takomillashayotgan qadriyatlardan biridir. Buning asosiy omillari sifatida davlatning ta’lim-tarbiya sohasiga berayotgan yuksak e’tibori va keng imkoniyatlarni yaratayotganligini ko‘rsatish mumkin. Keyingi yillarda insonlar tafakkurida kechayotgan o‘zgarishlar sirasida ta’limga va maktabga bo‘lgan hurmat va e’tiborni alohida ta’kidlash mumkin. Jumladan, ota-onalar o‘rtasida farzandini ixtisoslashtirilgan maktablar, Prezident maktablari, ijod maktablari, shuningdek, xususiy sektordagi yuqori salohiyatli maktablarda, nufuzli oliy ta’lim muassasalari va chet davlatlarda o‘qitishga bo‘lgan talab va ehtiyojning yuqorilab borayotganligi ham fikrimiz dalilidir.

Bunday sharoitda, **oila** - farzandida milliy va umuminsoniy qadriyatlarni, jamiyatda umume’tirof etilgan axloq meyo’rlarini shakllantiradi, ayni paytda ham ma’naviy, ham qonuniy burchi sifatida uning ta’lim-tarbiyasi uchun to‘liq mas’uliyatni o‘z zimmasiga oladi, zarur sharoitlar yaratadi va qo‘llab-quvvatlaydi, ta’limni qadriyat sifatida singdiradi.

Mahalla - oiladagi sog‘lom ijtimoiy-ma’naviy va ruhiy muhit barqarorligi, moddiy turmush darajasining yaxshilanib borishi, farzand ta’limi va tarbiyasi bilan bog‘liq muammolarini xal qilish, yoshlarni tarbiyalash, to‘g‘ri yo‘l ko‘rsatish, huquqbuzarliklar profilaktikasi, bo‘sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish, ilg‘or tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash, alohida ijtimoiy muhofazaga muhtoj oilalar farzandlarini o‘qitish va kasb-hunar o‘rtatishda ko‘maklashish kabi vazifalarni amalga oshiradi.

Maktab - o‘quvchilarga davlat ta’lim standartlari, o‘quv dasturlari va rejalari asosida zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalari vositasida ta’lim beradi, ularni tarbiyaviy konsepsiya va dasturlar asosida ma’naviy-axloqiy jihatdan yetuk shaxs sifatida tarbiyalaydi, ta’limning keyingi bosqichlariga va kasb-hunarga yo‘naltiradi, tayyorlaydi va o‘rgatadi.

E’tiborlisi shundaki, mazkur vazifalarni amalga oshirishda har uchalasining hamkorlik yo‘nalishlari, vazifalari va mexanizmlari qator normativ-huquqiy hujjatlar bilan tartibga solingan, tizimli jarayon sifatida amalga oshirilmoqda. Shu bilan birgalikda, mazkur hamkorlikning moddiy-moliyaviy rag‘batlantirish asoslari ham tizimli ishlab chiqilgan va samaradorligini ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Ijtimoiy falsafiy nuqtai nazardan, ta’lim-tarbiya murakkab ijtimoiy jarayon hisoblanadi. Unda katta avlodning bilim va tajribasi yosh avlodga o‘tadi, shaxsga jamiyatning ijtimoiy layoqatli va faol a’zosi sifatida kamolga yetishi uchun umumjamiyat ta’sirini ko‘rsatishda oila, mahalla va maktab hamkorligidan kuchliroq mexanizm, ta’bir joiz bo‘lsa, xali shakllanmagan.

Xulosa. Yangi O‘zbekistonda oila, mahalla va maktab hamkorligining huquqiy, tashkiliy va moliyaviy asoslarga ega bo‘lgan, davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlanadigan yangi tizimi vujudga

keldi. Bu o‘z navbatida fuqarolar va ijtimoiy institutlarning davlat bilan, jamiyat bilan munosabatlari sifati va samaradorligini oshirishga mustahkam zamin yaratdi. Ta’lim-tarbiya ijtimoiy munosabatlarning yangi yo‘nalish va maqsadlardagi muhim tarkibiy qismiga aylandi hamda shaxs kamoloti va jamiyat barqarorligining muhim sharti sifatida belgilandi. Yangi O‘zbekiston va Uchinchi Renesans g‘oyalari esa mazkur munosabatlarning konseptual mazmun-mohiyatini tashkil etmoqda. O‘z navbatida mazkur masalalar ijtimoiy falsafada yana bir dolzarb tadqiqot mavzusini belgilaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Шавкат Мирзиёев: Юртнинг кучи бирликда, қадри эса тинчликдадир. https://president.uz/uz/lists/view/7520

2. Кацай А.В. Социальные отношения: философско-методологический аспект. Автореферат диссертации кандидата философских наук. Санкт-Петербург. 1999.

3. The World encyclopedia dictionary book. Chicago, IL : World Book, Inc. 2008.

4. Қадриятлар ва ижтимоий тараққиёт (илмий ишлар тўплами). Тошкент. “Ўзбекистон”. 1997.

YANGI O‘ZBEKISTON YOSHLARINING DUNYOQARASHINI SHAKLLANTIRISHDA FALSAFANING RO‘LI

Xazirov Bobirjon Burxaniddinovich
Qo‘qon universiteti Andijon filiali o‘qituvchisi
Yuldasheva Matluba Avazbek qizi
Qo‘qon universiteti Andijon filiali talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqola Yangi O‘zbekiston yoshlarining dunyoqarashini shakllantirishda falsafaning muhim o‘rni va ahamiyatini tahlil qilishga bag‘ishlangan. Tadqiqot falsafaning yosh avlodning intellektual va ma’naviy rivojlanishiga ta’sirini, milliy qadriyatlar-til, adabiyot, urf-odatlar va universal tamoyillar-inson huquqlari, adolat, tolerantlik o‘rtasidagi uyg‘unlikni ta’minlashdagi rolini o‘rganadi. Maqola ijtimoiy institutlar – oila, ta’lim tizimi va diniy muhit – falsafiy yondashuvlarni amalda qo‘llashdagi ahamiyatini muhokama qiladi.

Kalit so‘zlar: Falsafa, dunyoqarash, yoshlar, Yangi O‘zbekiston, milliy qadriyatlar, universal qadriyatlar, ta’lim.

Аннотация: Статья посвящена всестороннему анализу роли философии в формировании мировоззрения молодежи Нового Узбекистана. Исследование рассматривает влияние философии на интеллектуальное и духовное развитие молодого поколения, подчеркивая ее значение в обеспечении гармонии между национальными ценностями -язык, литература, традиции и универсальными принципами- права человека, справедливость, толерантность. Особое внимание уделяется роли социальных институтов – семьи, системы образования и религиозной среды – в практическом применении философских подходов.

Ключевые слова: Философия, мировоззрение, молодежь, Новый Узбекистан, национальные ценности, универсальные ценности, образование.

Abstract: This article provides a comprehensive analysis of the role and significance of philosophy in shaping the worldview of youth in New Uzbekistan. The study explores the impact of philosophy on the intellectual and spiritual development of the younger generation, emphasizing its role in fostering harmony between national values- language, literature, traditions and universal principles -human rights, justice, tolerance. Particular attention is given to the contributions of social institutions—family, education system, and religious environment—in implementing philosophical approaches.

Keywords: Philosophy, worldview, youth, New Uzbekistan, national values, universal values, education.

Kirish: Yangi O‘zbekistonning rivojlanish strategiyasida yoshlarning o‘rni markaziy hisoblanadi. Prezident Shavkat Mirziyoyev rahbarligida amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar yosh avlodni mamlakat kelajagining asosiy harakatlantiruvchi kuchi sifatida ko‘radi.

Ushbu islohotlar yoshlar siyosatini tubdan o‘zgartirib, ularning ta’lim, bandlik, ma’naviy va ijtimoiy rivojlanishiga katta e’tibor qaratmoqda. Masalan, 2016-2022 yillarda yoshlar siyosati doirasida amalga oshirilgan tadbirlar yoshlarning siyosiy va huquqiy ongini oshirish, madaniy merosni o‘rganish va xalqaro hamkorlikni kuchaytirishga qaratilgan [1,5-b]. Prezident Mirziyoyev BMT minbarida taqdim etgan “Jahon yoshlari tinchlik harakati” tashabbusi tinchliksiz rivojlanish mumkin emasligini ta’kidlab, yoshlarni global muammolarni hal etishda faol ishtirok etishga chaqiradi.

Yangi O‘zbekiston yoshlar siyosatining asosiy yo‘nalishlari orasida 5 ta muhim tashabbus mavjud bo‘lib, ular ta’lim va kasbiy o‘sish, bandlik va tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash, ma’naviy tarbiya va sportni rivojlantirish, shuningdek, yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirishni o‘z ichiga oladi [2,3-b]. Ushbu tashabbuslar natijasida yoshlar orasida ishsizlik darajasi 50% ga kamaygan, yosh tadbirkorlar soni uch baravar ortgan va xorijda tahsil olayotgan talabalar soni sezilarli darajada ko‘paygan. Masalan, “Yoshlar daftari” dasturi orqali 155 mingdan ortiq yoshlarga 345 milliard so‘mdan ziyod moliyaviy yordam ko‘rsatilgan bo‘lib, bu ularning jamiyatdagi faolligini oshirishga xizmat qilmoqda [3,8-b].

Bunday islohotlar fonida falsafaning yoshlar dunyoqarashini shakllantirishdagi roli ayniqsa muhim ahamiyat kasb etadi. Falsafa yoshlarga tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini berib, milliy va universal qadriyatlarning uyg‘unligini ta’minlaydi, axloqiy immunitetni kuchaytiradi va global integratsiyaga yordam beradi [4,12-b]. Xususan, falsafiy ta’lim orqali yoshlar individualizm va raqamli madaniyatning salbiy ta’sirlaridan himoyalanib, jamiyat rivojiga hissa qo‘shish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Ushbu jarayonda ijtimoiy institutlar – oila, ta’lim tizimi va diniy muhit – muhim rol o‘ynaydi, chunki ular yoshlarning ruhiy va ma’naviy rivojlanishini ta’minlaydi [5,10-b].

Asosiy qism: “Youth Policy in Uzbekistan (For the Example of 2016-2022)” (2023), O‘zbekiston yoshlar siyosatining 2016-2022 yillardagi rivojlanishini tahlil qiladi. Ushbu ishda yoshlar siyosati demokratik islohotlarning asosiy elementi sifatida ko‘riladi, yoshlarni jamiyatning faol ishtirokchisi qilishga qaratilgan. Mualliflar yoshlarning intellektual va ruhiy rivojlanishini ta’kidlab, falsafiy yondashuvlar orqali ularning dunyoqarashini shakllantirish zarurligini ta’kidlaydi. Masalan, yoshlar orasida ishsizlikni 50% ga kamaytirish va yosh tadbirkorlar sonini uch baravar oshirish kabi natijalar keltiriladi, ammo falsafiy jihatdan bu jarayon yoshlarni milliy va universal qadriyatlar bilan bog‘lash orqali ruhiy immunitetni kuchaytirishga asoslangan deb hisoblanadi. Biroq, adabiyot empirik ma’lumotlar bilan cheklangan bo‘lib, falsafiy tahlilni chuqurlashtirish kerak [1,4-6-b].

“Uzbekistan’s 5 Important Initiatives on Youth Policy” (2024), O‘zbekistonning yoshlar siyosatidagi beshta muhim tashabbusni batafsil yoritadi. Ushbu tashabbuslar ta’lim va kasbiy o‘sish, bandlik va tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash, ma’naviy tarbiya va sport rivoji, shuningdek, yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirishni o‘z ichiga oladi. Tahlilda falsafaning roli yoshlarning dunyoqarashini shakllantirishda muhim deb ko‘rsatiladi, chunki tashabbuslar yoshlarni individualizm va raqamli madaniyatning salbiy ta’siridan himoya qilishga qaratilgan. Masalan, “Yoshlar daftari” dasturi orqali 155 mingdan ortiq yoshlarga 345 milliard so‘m moliyaviy yordam ko‘rsatilgani ta’kidlanadi, bu ularning ruhiy va falsafiy rivojlanishiga hissa qo‘shadi. Adabiyot falsafiy yondashuvlarni milliy qadriyatlar bilan bog‘lash orqali yoshlarning global raqobatbardoshligini oshirishni taklif etadi, ammo statistik ma’lumotlarning chuqurligi yetarli emas [2,2-4-b].

“Uzbekistan president unveils new initiatives for youth education and employment” (2025), Prezident Shavkat Mirziyoyevning yoshlar ta’limi va bandligiga oid yangi tashabbuslarini tahlil qiladi. Ushbu ishda falsafaning roli yoshlar dunyoqarashini shakllantirishda markaziy o‘rin tutadi, xususan, Prezidentning “Agar bitta qizni o‘qitsak, butun oilani o‘qitamiz. Oila ma’rifatli bo‘lsa, butun jamiyat ma’rifatli bo‘ladi” degan so‘zlari ruhiy va falsafiy ma’rifatni ta’kidlaydi. Asosiy tashabbuslar orasida “Alokabank”ning 200 million dollar bilan ta’minlanishi, Yoshlar tadbirkorligini rivojlantirish jamg‘armasining 100 million dollar ajratilishi va soliq imtiyozlari mavjud. Statistik jihatdan, yoshlar orasida ishsizlik 50% ga kamaygani, yosh tadbirkorlar soni uch

baravar ortgani va xorijda tahsil olayotgan talabalar soni 2300 taga yetgani keltiriladi. Tahlilda falsafa yoshlarni inson huquqlari, adolat va tolerantlikka o‘rgatish vositasi sifatida ko‘riladi, bu Yangi O‘zbekistonning xalqaro integratsiyasiga yordam beradi. Adabiyotning kuchli tomoni – empirik misollar, ammo falsafiy kontseptsiyalar yanada chuqurlashtirilishi mumkin [3,3-5-b].

“Necessity of Formation of Socio-Philosophical Thinking of Youth in Years of Independence” (2024), O‘zbekiston mustaqillik yillarida yoshlarda ijtimoiy-falsafiy fikrlashni shakllantirish zarurligini tahlil qiladi. Ushbu ishda falsafa yoshlarning dunyoqarashini kengaytirish, ruhiy ehtiyojlarni shakllantirish va milliy hamda universal qadriyatlar orqali vatanparvarlikni rivojlantirish vositasi sifatida ko‘riladi. Mualliflar yoshlarni “ijodiy aql, ijtimoiy va siyosiy zaxira” deb hisoblashadi, ularning intellektual darajasi jamiyat rivojini belgilaydi. Prezident Mirziyoyevning farmonlari asosida ruhiy va ma’rifiy ishlar ta’kidlanadi, masalan, 1989 yildan boshlangan uyg‘onish davri va mustaqillikdan keyingi o‘zgarishlar. Falsafiy kontseptsiyalar orasida fikrlashni isloh qilish, ideologik immunitetni kuchaytirish va demokratik qadriyatlar mavjud. Misollar: milliy qadriyatlar - til, adabiyot, urf-odatlar va universal tamoyillar -insonparvarlik, adolat. Adabiyotning afzalligi – falsafiy chuqurlik, ammo statistik ma’lumotlar yetarli emas [4,5-7-b].

Xulosa: Yangi O‘zbekiston yoshlarining dunyoqarashini shakllantirishda falsafaning roli beqiyos ahamiyatga ega. Falsafa yoshlarga tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini singdirib, milliy va universal qadriyatlarning uyg‘unligini ta’minlaydi, ularning axloqiy va ruhiy immunitetini kuchaytiradi. O‘zbekistonning 2016-2022 yillardagi yoshlar siyosati, xususan, Prezident Shavkat Mirziyoyevning “Yoshlar – bizning kelajagimiz” tashabbuslari, “Yoshlar daftari” va “El-Yurt Umidi” kabi dasturlar orqali yoshlarning ijtimoiy faolligi va intellektual salohiyati sezilarli darajada oshdi. Falsafiy ta’lim, ayniqsa, Al-Forobiy, Avitsenna kabi Sharq mutafakkirlarining merosi va global falsafiy tamoyillar (inson huquqlari, adolat, tolerantlik) asosida yoshlarni global raqobatbardosh qiladi.

Kelajakda falsafiy tadqiqotlar va ta’limni rivojlantirish orqali yoshlar mamlakatning iqtisodiy, ijtimoiy va ma’naviy rivojlanishining asosiy kuchi sifatida yanada mustahkamlanadi. Falsafa nafaqat yoshlarning dunyoqarashini shakllantiradi, balki ularni global muammolarni hal qilishda faol ishtirokchiga aylantiradi, bu esa Yangi O‘zbekistonning xalqaro maydondagi obro‘sini oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Youth Policy in Uzbekistan (For the Example of 2016-2022). (2023). *Res Militaris*. https://resmilitaris.net/uploads/paper/ba9601627cc34d7e7ef6196a7c29603c.pdf

2.Uzbekistan’s 5 Important Initiatives on Youth Policy. (2024). *Uzbek Embassy in India*. https://www.uzbekembassy.in/uzbekistans-5-important-initiatives-on-youth-policy/

3.Uzbekistan president unveils new initiatives for youth education and employment. (2025). *Modern Diplomacy*. https://moderndiplomacy.eu/2025/02/16/uzbekistan-president-unveils-new-initiatives-for-youth-education-and-employment/

4.Necessity of Formation of Socio-Philosophical Thinking of Youth in Years of Independence. (2024). *ResearchGate*. https://www.researchgate.net/publication/386291991_NECESSITY_OF_FORMATION_OF_SOCIO-PHILOSOPHICAL_THINKING_OF_YOUTH_IN_YEARS_OF_INDEPENDENCE

5.Youth Policy and Educating Young People in the Spirit of Spiritual Enlightenment. (2020). *ID Publications*. https://www.idpublications.org/wp-content/uploads/2020/10/Full-Paper-YOUTH-POLICY-AND-EDUCATING-YOUNG-PEOPLE-IN-THE-SPIRIT-OF-SPIRITUAL-ENLIGHTENMENT.pdf

SAMARQAND VILOYATI AHOLISINING MILLIY TARKIBI (XIX-ASRNING IKKINCHI YARMIDA)

Urinboyeva Jamila Ulug‘bek qizi
Oriental universiteti magistri
jamilaurinboyeva43@gmail.com

Annotatsiya: O‘rta Osiyo mintaqasi XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asr boshlarida jiddiy siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlarni boshidan kechirdi. Shular jumlasidan, mustamlaka Turkiston xalqlari va o‘lkada ko‘pmillatlilikning shakllanish masalalarini tarixiy tahlil qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Tadqiq etilayotgan davrda Samarqand viloyati hududi va Samarqand shahri Turkiston o‘lkasining eng ko‘p millat vakillari yashagan hududlardan biri bo‘ldi. XIX-asrning ikkinchi yarmiga kelganda Samarqand hududida o‘zbek va tojik aholi vakillaridan tashqari, hind, eroniy, yahudiy va afg‘on xalqlari ham yashab kelgan.

Kalit so‘zlar: O‘rta Osiyo mintaqasi, Turkiston xalqlari, Samarqand viloyati, o‘lkada ko‘pmillatlilik, demorafik jarayonlar

Abstract: The region of Central Asia experienced serious political, socio – economic changes in the second half of the XIX-early XX centuries. Among these, a historical analysis of the issues of formation of the peoples of colonial Turkestan and multinational in the territory is important. During the period under study, the territory of the Samarkand region and the city of Samarkand became one of the regions of the Turkestan region inhabited by the greatest number of nationalities. In addition to representatives of the Uzbek and Tajik population, Indian, Iranian, Jewish and Afghan peoples also lived on the territory of Samarkand when it came to the second half of the 19th century.

Keywords: Central Asian region, Turkestan peoples, Samarkand region, multinational in the country, demoraphic processes

Аннотация: Среднеазиатский регион пережил серьезные политические, социально – экономические изменения во второй половине XIX-начале XX века. Среди них важное значение приобретает исторический анализ вопросов формирования народов колониального Туркестана и многонациональности в стране. В исследуемый период территория Самаркандской области и город Самарканд были одними из самых густонаселенных районов Туркестанского края. Ко второй половине XIX века территория Самарканда помимо узбекского и таджикского населения была заселена индийцами, иранцами, евреями и афганцами.

Ключевые слова: Среднеазиатский регион, народы Туркестана, Самаркандская область, многонациональность, демографические процессы в стране

Tadqiq etilayotgan davrda Samarqand viloyati hududi va Samarqand shahri Turkiston o‘lkasining eng ko‘p millat vakillari yashagan hududlardan biri bo‘ldi. XIX-asrning ikkinchi yarmiga kelganda Samarqand hududida o‘zbek va tojik aholi vakillaridan tashqari, hind, eroniy, yahudiy va afg‘on xalqlari ham yashab kelgan. T.Saidqulov XIX-asr o‘rtalarida esa Samarqandda 17 millat vakillari yashaganligini qayd etib o‘tadi[1,109].

Samarqand viloyati boshlig‘i mahkamasida xizmat qilgan A.P.Xoroshxin tomonidan viloyat aholisining etnik tarkibi to‘g‘risida ma’lumotlar keltirilgan. Masalan, Samarqand bo‘limining Sug‘d tumanida o‘zbek urug‘lari (qipchoq, saroy, qang‘li, nayman, qirq, yuz, xitoy, turkman, burqut, mang‘it, uyshun, tuyoqli va boshq.), shuningdek, xo‘jalar, tojiklar, eronilar, qoraqalpoqlar va lo‘lilar istiqomat qilishgan. Xo‘jalar o‘zbek yoki tojiklardan qaysi biriga yaqin yashasa, o‘shalardan hisoblangan. Lo‘lilar bu erda mazang yoki jo‘gi nomlari bilan mashhur bo‘lib, butun Sug‘d tumani bo‘ylab sochilib ketgan[2,146]. Xoroshxinga ko‘ra, Samarqand shahar aholisining asosiy qismini o‘zbeklar, tojiklar, eronilar va turli urug‘larga mansub aholi va qolgan qismini yahudiylar tashkil etgan. Hindlarning soni esa Samarqandda yuz kishidan oshmagan va ularning barchasi karvonsaroylarda yashaganlar[3,215]. Lo‘lilar (jo‘gilar yoki ma’zanglar) Samarqandda bir necha o‘nlab kishini tashkil etgan va ularni asosan bozorlarda ko‘rish mumkin bo‘lgan. Ularning bir qismi chorvachilik bilan ham shug‘ullangan. Afg‘onlar Samarqandda tijoriy

mehmonlar bo‘lib, ular bu erga turli mahsulotlarni olib kelishgan. Ayrim afg‘onlar Samarqandda doimiy yashagan.

Tadqiq etilayotgan davrda Samarqand viloyati aholisining demografiyasidagi asosiy jarayonlardan biri uning milliy tarkibi bilan bog‘liq jihatlar edi. Samarqand viloyati aholisining etnik xilma-xilligi va tarkibi tahlil qilingan Samarqand viloyati bo‘yicha 1899-yilda tayyorlangan spravochnik ma’lumotlarida tahlil qilinadi. Viloyatning aholisi etnik tarkibi jihatdan juda rang-barang bo‘lib ma’lum muddatgacha ularning aniq raqamlari qayd etilmagan.

1899-yilgi raqamlar tahliliga ko‘ra, viloyatning 6 ta shahar aholisining soni 135.568 kishini tashkil etgan holda umumiy viloyat aholisining 15,7 foiz qismiga teng bo‘lgan.

Shuningdek, ushbu davrda 1899-yilgi qaydnomalarda viloyat aholisining joylashuvdagi o‘rtacha zichlik ko‘rsatkichlari qayd etib o‘tilgan. Viloyatdagi aholi zichligi nihoyatda notekis ko‘rinishga ega bo‘lib daryo vodiylarida u zichroq, dasht va tog‘li hududlarda biroz kattaroq edi. Jumladan, viloyatning Samarqand va Kattaqo‘rg‘on shaharlari, Samarqandning 18 volosti va Kattaqo‘rg‘on okruglarining 10 volostida aholining o‘rtacha zichligda istiqomat qilishgan[4,21].

XIX – asr oxiri – XX asr boshlariga doir tadqiqqotlarda keltirib o‘tilganidek, Samarqand viloyati uzoq asrlardan buyon o‘lkaning ko‘p millatli aholi yashovchi hududlaridan biri hisoblangan. Mazkur jarayon Samarqand hududining asrlar davomida Buyuk ipak yo‘li asosida shaharlardan biri sifatida mintaqada olib borilgan savdo-sotiq munosabatlaridagi asosiy shaharlardan biri ekanligi bilan bog‘liq edi. XIX asrga kelib, birgina Samarqandda o‘zbek va tojik millatlaridan tashqari, hind, eroniy, yahudiy va afg‘on xalqlari ham paydo bo‘ldi.

Keltirib o‘tilgan ma’lumotlardan ma’lum bo‘ladiki, mahalliy aholining asosiy qismi qishloq hududlariga to‘g‘ri kelganligini ko‘rish mumkin. Bugungi kunda Samarqand viloyati aholisining etnik tuzilishi va uning geografiyasiga doir ma’lumotlar aks etirilgan ma’lumotlar arxiv fondlarida saqlanmoqda. Tahlilga tortilgan arxiv hujjatlaridan ma’lum bo‘ladiki, bu davrda viloyatda o‘zbek va tojik, eroni kabi xalqlardan tashqari, arab, afg‘on, hind, yahudiy va boshqa milliy guruhlar yashagan.

1872-yilda Zarafshon okrugida jami aholi soni 280.950 ming kishini tashkil etgan bo‘lsa, 1886-yildan so‘ng okrugning viloyatga aylantirilishi va unga boshqa tumanlarning qo‘shilishi natijasida 1897-yilga kelib, viloyat aholisi 860.021 ming nafardan iborat bo‘lgan. Samarqand viloyati aholisining asosini o‘zbeklar, tojiklar so‘ngra yahudiylar, arablar, forslar, lo‘lilar, afg‘onlar, qipchoqlar, hindlar tashkil etgan bo‘lsa, keyinchalik boshqa mintaqadagi migrantlarning ko‘chirib keltirilishi bilan aholi etnik tarkibi turlicha bo‘lib bordi[5,71].

L.F.Kostenko tomonidan tayyorlangan hisobotda Zarafshon okrugi aholisi etnik tarkibida quyidagi xalqlar sanab o‘tiladi. Jumladan, ruslar-3,838, sart-132,138, tojik-67862, o‘zbek-140 154-qirg‘iz-695, forslar-2211, hindlar-3352 nafarni tashkil qilgan[6,326]. Ushbu raqamlar tahliliga ko‘ra, ruslar okrugning shahar qismida hammasi bo‘lib 1000 nafarni yoki aholining 1 %ni tashkil etgan. Sartlar esa o‘lka hududlarida 22%dan 44%gacha aholini tashkil etgan holda Sirdaryoning janubiy uezdlari, Farg‘ona vodiysi va Zarafshon okrugida yashovchi aholining yadrosini tashkil etgan. Qirg‘iz yoki qora qirg‘izlar Zarafshon okrugida o‘lkaning boshqa hududlariga nisbatan ozchilikni tashkil etgan. Bu erda umumiy aholi sonining 0,02%ga teng kelgan. O‘troq turmush-tarziga ega bo‘lgan o‘zbeklarning salmoqli qismini tojiklar, qirg‘izlar tashkil etgan. O‘zbeklarning eng asosiy qismi aynan Zarafshon okrugida istiqomat qilgan holda umumiy aholi sonining 40%dan ortig‘ini tashkil qilgan[7,329]. Turkiston o‘lkasida yashab kelgan asosiy aholi vakillaridan biri tojiklar bo‘lgan. Ular asosan ikki qismdan vohada va tog‘li hududlarda yashab kelgan. Samarqand, Farg‘ona va Sirdaryo viloyatining Xo‘jand hududlarida yashab kelishgan. A.P.Xoroshxinning taxminiy ma’lumotlariga ko‘ra, Samarqand hududlarida 750 ming kishidan iborat bo‘lib, umummiy aholining 19% qismiga teng bo‘lgan[8,533].

Xulosa qilib aytganda, tadqiq etilayotgan davrda Samarqand viloyati aholisi Turkiston o‘lkasining boshqa hududlariga nisbatan olib qaraganda demorafik jarayonlardagi xilma-xillik va rang-barangligi bilan ajralib turganligini qayd etib o‘tish mumkin. Mazkur jihat quyidagi xususiyatlarda yaqqol namoyon bo‘ladi. Birinchidan, viloyat aholisining etnik tarkibi tadqiq etilayotgan davrdayoq ko‘p millatli hudud ekanligi, ikkinchidan viloyatda shahar va qishloq

hududlarining nisbatan tekislik qismida joylashganligi ularning dinamikasidagi tizimni saqlab turishdagi asosiy omillardan biri bo‘ldi.

Samarqand viloyati o‘troq va ko‘chmanchi aholisi ishlab chiqarish tizimi tadqiq etilayotgan davrda mahalliy turmush tarzi va yashash muhitini birlamchi substansiya sifatida barcha ijtimoiy hodisalarning, ko‘chmanchi aholi o‘rtasidagi ijtimoiy iqtisodiy jarayonlarning o‘zgaarishi va ularnning o‘troqlashuv holatini tezlashishiga turtki bo‘ldi. Samarqand viloyati o‘troq va ko‘chmanchi aholisining rivojlanish xususiyatlarini o‘rganish masalalari, bugungi kunga qadar o‘zining dolzarb ahamiyatini yo‘qotmagan holda ilmiy hamjamiyatda o‘ziga xos maxsus ko‘chmanchishunoslikning muhim ilmiy-nazariy muammolaridan biridir. Mazkur jihat eng avvalo, o‘troq va ko‘chmanchi aholi tarixiy taraqqiyotning mohiyati va darajasini baholash, ularrning tadqiq qilinayotggan davr ijtimoiy-iqqtisodiy munosabatlariida tutgan o‘rni va rolini baholash uchun xizmat qiladi. Shunga ko‘ra, Samarqand viloyatida mavjud bo‘lgan ko‘chmanchi aholi vakillari ham muayyan tabiiy, ekologik va tarixiy sharoitlarda shakllangan o‘ziga xos turmush sharoitida yashaganlar.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Саидкулов Т.С. Самарканд во второй половине XIX и начале XX вв. Самарканд. 1970. – С. 109.
2. А.П. Хорошкин. Сборник статей касающихся до Туркестанского края. – СПб., 1876. С.146
3. А.П. Хорошкин. Сборник статей касающихся до Туркестанского края. – СПб., 1876. С.215
4. Справочник Самаркандской области на 1899 год. Выпуск. I. Составиль М.Вирский. – Самарканд: Типография И.А.Белобородова. 1899. – С. 21.
5. Y.U.Xolxujayeva. Turkiston o‘lkasi aholisi va uning milliy tarkibi:tarixiy tahlil (1867-1917 yillar). Avtoreferat-2024. Samarqand. B-71.
6. *Костенко Л.Ф. Туркестанский край*. Опыт военно-статистического обозрения туркестанского военного округа: Материалы для географии и статистики России. - *СПб., 1880. т. 1*, - С. 326.
7. *Костенко Л.Ф. Туркестанский край*. Опыт военно-статистического обозрения туркестанского военного округа: Материалы для географии и статистики России. - *СПб., 1880. т. 1*, - С. 329.
8. Хорошхин А.П. Сборник статей касаюшихся до Туркестанского края. – СПб., 1876. – 533 с.

QIZLARNI OLIY TA’LIMGA YO‘NALTIRISHNING IJTIMOIY PEDAGOGIK MASALALARI

Egamberdiyev Umidbek Xo‘jayevich
Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy instituti mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya. O‘zbekiston xotin-qizlar ta’limiga katta e’tibor berayotgan va bu borada tizimli chora-tadbirlarni amalga oshirayotgan davlatdir. Shu bilan birgalikda jamiyatda qizlar o‘rtasida oliy ta’lim olishga bo‘lgan ehtiyoj ham o‘sib bormoqda. Mazkur maqolada so‘z qizlarni oliy ta’limga yo‘naltirishning ayrim ijtimoiy pedagogik muammolari to‘g‘risida boradi.

Kalit so‘zlar: ijtimoiy pedagogika, qizlar ta’limi, oliy ta’lim, jamiyat, oila, oliy ta’limga yo‘naltirish.

Аннотация. Узбекистан – страна, уделяющая большое внимание образованию женщин и реализующая системные меры в этом направлении. В то же время в обществе растёт потребность в высшем образовании среди девушек. В данной статье рассматриваются некоторые социально-педагогические проблемы, связанные с направлением девушек в высшие учебные заведения.

Ключевые слова: социальная педагогика, образование девушек, высшее образование, общество, семья, направление в высшие учебные заведения.

Abstract. Uzbekistan places significant emphasis on female education and implements systemic measures in this area. At the same time, there is a growing demand for higher education

among girls. This article examines some of the socio-pedagogical issues associated with sending girls to higher education.

Keywords: social pedagogy, girls' education, higher education, society, family, placement in higher education.

Yangi O‘zbekistonda ilgari surilgan “Inson qadri uchun, el-yurt baxti uchun!” g‘oyasi ijtimoiy islohotlarning konseptual asosini tashkil etmoqda. Inson qadri, nafaqat, uning munosib turmush tarzi uchun g‘amxo‘rlik qilish barobarida, ajralmas huquqlari bo‘lgan ta’lim olish, kasb-hunar egallash va o‘z qobiliyati va iqtidorini erkin ro‘yobga chiqarishi uchun zarur imkoniyatlarini yaratish bilan ham belgilanadi.

Keyingi yillarda yosh avlodning zamonaviy talablar va xalqaro andozalar asosida uzluksiz ta’lim olishi uchun yaratilayotgan shart-sharoitlar qatorida xotin-qizlar ta’limi yo‘nalishi muhim ahamiyatga egadir.

“Men bir hayotiy fikrni takrorlashdan charchamayman: bitta qizni o‘qitsak, butun oilani o‘qitgan bo‘lamiz. Oila bilimli, ma’rifatli bo‘lsa, butun jamiyat bilimli, ma’rifatli bo‘ladi. Bu boradagi ishlarni yanada jadal davom ettiramiz”, degan edi davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev [1].

Qizlarni oqila va fozila qilib tarbiyalash xalqimizningg azaliy qadriyatlaridan biri hisoblanadi. Xalqimiz azaldan qiz bola tarbiyasiga alohida e’tibor qaratgan, unga nafaqat uy-ro‘zg‘or sirlari va turmush tajribasini o‘rgatish, balki savodli va bilimli bo‘lishiga ham alohida e’tibor qaratgan.

Tarixan ma’lumki, temuriy shahzodalarning deyarli barchasi buvilarining nazoratida o‘z davrining yetuk olimlari va harbiylaridan ta’lim olganlar. Bu esa o‘z navbatida malikalarning bilimi va tarbiya salohiyati yuqori bo‘lganligidan dalolat beradi.

Bugungi kelib, Yangi O‘zbekiston jamiyatida ta’lim yangi ijtimoiy qadriyat sifatida sayqallanmoqda. Endi ta’lim munosib hayot kechirish, oila va jamiyatda o‘z o‘rniga ega bo‘lishning zarur sharti sifatida qabul qilinmoqda. Farzandlarini, shu jumladan, qizlarini oliy ta’limda o‘qitish istagi va ehtiyoji ota-onalar o‘rtasida o‘sib bormoqda.

Ma’lumki, “amaliy faoliyat sifatida ijtimoiy pedagogikaning maqsadi insonning ijtimoiy faolligini saqlash, tiklash, qo‘llab-quvvatlash va rivojlantirish uchun shaxs va jamiyat o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarni uyg‘unlashtirishdir” [2;9].

YUNISEF xalqaro tashkiloti O‘zbekistonda qizlar ta’limi sohasida olib borilayotgan siyosatni yuqori baholagan holda, o‘z navbatida 2024 yilda mashinasozlik, sanoat, qurilish va AKT sohasida ayollar ulushi 17% ni tashkil etishini keltirib o‘tgan edi.

Bundan ma’lum bo‘ladiki, qizlarni oliy ta’limga yo‘naltirish jarayonida yurtimizda gender tengligi imkoniyatlari kengayib borayotganligi, qizlarning jamiyatdagi o‘rni faqat an’naviy ayol kasblari bilan emas, yangi istiqbolli kasblar bilan belgilanishi, qizlar o‘rtasida zamonaviy mutaxassisliklarning keng targ‘ib qilinishi, oliy ta’lim muassasalari bilan hamkorlikda maqsadli loyihalarni amalga oshirish, ota-onalarning zamonaviy kasblar to‘g‘risidagi tushunchalarini boyitish va qizlarni oliy ta’limga yo‘naltirish va tayyorlash metodikalarini takomillashtirish kabi bir qator masalalar kun tartibiga chiqmoqda. Mazkur masalalarni samarali nazariy va amaliy tadqiq qilish, ta’lim sifati va xotin-qizlar huquqlarini ta’minlashda muhim ahamiyatga egadir.

Xulosa sifatida aytganda, qizlar ta’limi masalalari bugungi kunda ijtimoiy pedagogikada yangi tadqiqotlar istiqbollarini ochib bermoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Elektron manbaa: “Bitta qizni o‘qitsak, butun oilani o‘qitgan bo‘lamiz - Shavkat Mirziyoyev”. “Xalq so‘zi” gazetasi. 14.02.2025.

2. Социальная педагогика: учебное пособие / авт.-сост. С.Г.Григорьева. – Казань: Казан.ун-т, 2018.

3. Инвестиции в образование и развитие навыков девочек имеют основополагающее значение для укрепления экономики. Международный женский день обращает внимание на ключевые вопросы гендерного равенства. ЮНИСЕФ. 07.03.2024. https://www.unicef.org/uzbekistan

NEMIS TILINI O'RGANISHDA MULTIMEDIA VOSITALARNING O'RNI

Tosheva Ruxsora Ravshan qizi
Turizm fakulteti, Xorijiy til va adabiyoti:
nemis tili ta'lim yo'nalishi XTA-24/1-guruh talabasi
Toshevaruxsora721@gmail.com
Ilmiy rahbar: **f.f.f.d. (PhD), dots. Z.I.Sanakulov**

Аннотация. В данной тезисной работе освещается роль мультимедийных средств в изучении немецкого языка. Аудио-, видео- и онлайн-ресурсы приближают учащихся к языковой среде, развивают навыки аудирования и устной речи. Мультимедийные средства расширяют возможности учебного процесса и самостоятельного обучения, ускоряя процесс освоения языка. В результате можно относительно быстро изучать не только немецкий, но и другие иностранные языки, не выходя из дома.

Ключевые слова: мультимедиа, языковые навыки, коммуникация, Европейский союз, мобильные приложения.

Abstract. This thesis discusses the role of multimedia tools in learning the German language. Audio, video, and online resources help learners feel closer to the language environment and develop their listening and speaking skills. Multimedia tools make the learning process more effective and also support independent study. They speed up language learning and give learners more opportunities. As a result, it is possible to study not only German but also other foreign languages more quickly and comfortably at home.

Keywords: multimedia, language skills, communication, European Union, mobile applications

Annotatsiya. Ushbu tezisda nemis tilini o'rganishda multimedia vositalarining o'rni yoritiladi. Audio, video va onlaym resurslar o'quvchilarning til muhitiga yaqinlashtirishi, eshitish va so'zlashuv ko'nikmalarini rivojlantiradi. Multimedial vositalar dars jarayoni va mustaqil ta'lim olish imkoniyatlarini kengaytirib, til o'rganish jarayonini tezlashtiradi. Natijada nafaqat nemis tili, boshqa chet tillarini be'malol uyda turgan holda nisbatan tez o'rganishingiz mumkin bo'ladi.

Kalit so'zlar: multimedia, til ko'nikmalari, muloqot, Yevropa ittifoqi, mobil ilovalar.

Bugungi kunda chet tillarini o'rganish shaxsiy va professional rivojlanishning muhim qismi hissoblanadi. Nelson Mandella bu borada shunday fikr yuritadi: "Tilsiz odamlar bilan gaplashib, ularni tushunib bo'lmaydi; ularning orzu-umidlarini bo'lishib bo'lmaydi, tarixlarini anglab bo'lmaydi, she'riyatlarini qadrlab bo'lmaydi yoki qo'shiqlaridan zavqlanib bo'lmaydi."[1,56] Bu jumlada Mandela tilning insonlarni bir-biriga bog'lovchi, ularning madaniyati va ruhiy olamini anglash imkonini beruvchi kuchini ta'kidlaydi. Mashhur shaxslarning fikricha, chet tillarni o'rganish faqat muloqot vositasi bo'lib qolmay, insonning dunyoqarashini kengaytiradigan, madaniy ko'priklarni quradigan va shaxsiy rivojlanishga yordam beradigan qudratli vosita hissoblanadi. Xususan, nemis tilini bilish Yevropa Ittifoqida Ta'lim olish va ishlash imkoniyatini kengaytiradi. Nemis tili dunyodagi ilmiy tillardan biridir. Ayniqsa, texnika va tabiiy fanlar sohasida ko'plab tadqiqotlar nemis tilida olib boriladi. Nemis tilini bilgan mutaxassislar xalqaro tashkilotlar va Yevropa Ittifoqi idoralarida talab yuqori. Toshkentdagi va boshqa yurtlardagi nemis kompaniyalari uchun nemis tilida muloqot qilish katta avzallik hissoblanadi. Nemis tilini o'rganish nafaqat shaxsiy rivojlanish, balki millatlararo yangi imkoniyatlarni ochishga xizmat qiladi. Nemis tili Germaniyaning davlat tili va asosiy madaniy ramzi hissoblanadi. Germaniyada dunyodagi kuchli unversitetlar joylashgan, masalan, Myunxen texnika unversiteti (Technical University of Munich)[13], Berlindagi Humboldt unversiteti (Humboldt Unversity of Berlin) va boshqalar. Bu yerda o'qish uchun nemis tilini yaxshi bilish katta ustunlik beradi. Nemis tili nafaqat Germaniya balki Shveytsariya, Luksemburg va Lixtenshtayn kabi mamlakatlarda ham davlat tili hissoblanadi. Shuningdek Polsha, Chexiya,Vengriya va boshqa Sharqiy Yevropa davlatlarida ham ko'plab odamlar nemis tilidan kundalik hayotda foydalanishadi. Zamonaviy texnalogiyalar rivojlanishi bilan til o'rganish ancha osonlashdi. Multimedia vositalari, jumladan,

[13] https://www.tum.de/en/
2 https://www.hu-berlin.de/en

audio, video va ilovalar yordamida o'quvchilar tilni tez va bo'lishmoqda o'rganish imkoniyatiga ega. Ushbu maqolada nemis tilini o'rganishda multimedia vositalarining o'rni va ahamiyatni tahlil qilamiz.

Multimedia vositalari - bu turli xil o'quv va axborot materiallarini taqdim etishda bir nechta ma'lumot shakillarini birlashtirgan texnalogiya va platformalardir. Ushbu vositalar axborotni tushunarli, qiziqarli va oson o'zlashtirishga yordam beradi. Multimedia vositalari til organish va ta'lim sohalaridan tashqari biznes, o'yin-kulgu, madaniyat, sog'liqni saqlash va ko'plab boshqa sohalarda muvoffaqiyatli qo'llaniladi. Xususan dars o'zlashtirishda multimedia vositalaridan foydalanish bilim egallashni yaxshilaydi. Internet va multimedia vositalari til o'rganishda cheksiz imkoniyatlar yaratadi, chunki ular har bir foydalanuvchini tezda o'ziga jalb qiladi va qiziqtiradi. Multimedia vositalari zamonaviy o'quv jarayonini interaktiv, samarali va qiziqarli qilish imkonini beradi. Ular nafaqat o'quvchilarni faol o'rganishga jalb etadi, balki ta'lim sifatini oshiradi va murakkab mavzularni oson tushuntirishga yordam beradi. Shu bilan birga, multimedia vositalari o'quvchilarning ijodkorlik qobilyatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Multimedialarning asosiy turlari: audio va video materiallar, mobil ilovalar va platformalar, interaktiv saytlar va onlayn kurslar, o'yinlar va virtual texnalogiyalar kiradi.

Multimedia vositalarini nemis tilini o'rganishda qanday o'rni va ular qanday foydalanilishi nemis tili metodikasida ko'p o'rganilayotgan mavzulardan biri sanaladi. Nemis tilini o'rganishda multimedialar o'quvchini motivatsiyasini oshirib, qiziqishni orttiradi. Ammo multimedia vositalarini to'g'ri qo'llay olish juda muhum. Masalan, audio materiallar bilan o'rganish nemis tilidagi yangi so'zlar va iboralarni eslab qolishni osonlashtiradi, talaffuz va tinglash qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradi. Darajasi A1-A2 bo'lgan o'rganuvchilar uchun "Coffe break German"[14] ilovasini tavsiya qilamiz. Bu ilovada audio podkastlar boshlang'ich va o'rta darajadagi o'rganuvchilar uchun mo'ljallangan bo'lib har bir auidio fayl taxminan 10-15 daqiqa davom etadi. Undan tashqari nemis tilini endi o'rganish niyatida bo'lgan o'quvchilarga ko'proq nemis tilidagi musiqalar eshitish tavsiya beramiz. Bu ularning nutqini rivojlanishiga yordam beradi. Interaktiv multimedia vositalari o'quvchilarga mashqlarni mustaqil ravishda bajarishga, o'z xatolarini tahlil qilishga va eslab qolishga yordam beradi. Misol uchun "eXelearning" interaktiv ilovasi bepul va ochiq manbali bo'lib unda kreativ matnlar, rasmlar, kliplar va turli test va mashqlar bor. Nemis tili uchun ishlab chiqilgan onlayn dasturlar orqali so'zlashuv va grammatika bo'yicha mashqlarni o'rganish mumkin. Bu bo'yicha "Duolingo" yaxshi tanlov. Bu ilova butun dunyoda mashhur bepul ilova bo'lib unda ko'p tillar bor. O'rganmoqchi bo'lgan tilni, o'zingiz hohlagan yilda organishingiz mumkin va unda ham audio, ham o'yin, ham mant va dialoglar bilan o'rgatadi. Bu ilova ham asosan boshlang'ich o'rganuvchilar uchum juda qulay. Undan tashqari nemis tilini o'rganishda madaniy aloqalarni tushunish muhim. Bu uchun ham maxsus ilovalar ishlab chiqilgan. Bunga "Langua" ilova mos keladi. Chunki bu ilovada Al asosida suhbatlar, real nutqiy senariylar orqali til va nemis madaniyatini o'rganish mumkin. Bu vositalari o'quvchilarga nemis madaniyati, urf-odatlari va hayot tarzi haqida tasavvur hosil qilishga imkon beradi. Yana nemis tilidagi filmlar, multfilmlar yoki hujjatli filmlarni tomosha qilish orqali bularni amaliyotda o'rganish ham juda katta yordam beradi.

O'quv platformalari nemis tili kurslari mavjud bo'lib, ular turli xil ilmiy videolar, qiziqarli metodikalar va o'yinlar bilan boyitilgan. Bu bo'yicha "Ibrat Academy" platformasini mos keladi. Bu platformada avval video darslik orqali mavzu tushuntirib beriladi, so'ng turli mashqlar bilan mustahkamlab boriladi. Yana bir foydali tomoni shundaki bu platformada darajani aniqlash testlari mavjud.

Onlayn suhbat platformalari ham nemis tilida muloqot qilish qobilyatini rivojlantirishga katta yordam beradi. Bu vositalar nafaqat muloqot ko'nikmalarini, balki madaniy almashuvga ham yaxshi imkon beradi. Ba'zi ilovalar orqali esa boshqa millatlardan do'stlar orttirib birga raqobatlashib nemis tilini o'rganishingiz mumkin. Multimedia vositalarini qulayligi shundaki,

[3] https://coffeebreaklanguages.com/coffeebreakgerman/
4 https://ru.duolingo.com
5 https://learningcenter.unc.edu/tips-and-tools/learning-a-second-language/

o’quvchilar istalgan joyda va istalgan vaqtda foydalanishlari mumkin. Mobil ilovalar va onlayn platformalar bu borada katta qulaylik yaratadi. Siz bemolol bog’da, yo’lda va avtobuslarda ham vaqtni zoya ketqazay til o’rganishingiz mumkin. Shu orqali o’rganish jarayoni yanada erkin va qulay bo’ladi. Ushbu vositalar nemis tilini o’ganishni nafaqat samarali, balki qiziqarli jarayonga aylantiradi va o’quvchining til o’rganishga bo’lgan ishtiyoqini kuchaytirishiga ishonchim komil. Multimedia vositalari o’quvchilarni turli uslublar orqali jalb qilib, ularning bilimlarini tezroq va mustahkamroq o’zlashtirishga yordam beradi. Shu sababli, nemis tilini o’rganish multimedia vositalarini qo’llashni tavsiya qilaman.

Multimedia vositalarining qanday kamchiliklari borligni o‘rganish maqsadga muvofiqdir. Hamma narsa mukammal bo’lmaganidek multimedia vositalarining ham kamchiliklari mavjud. Texnik uskunalar yoki internet ulanishining sifati past bo’lsa, o’quv jarayoni buzulishi mumkin. Ba’zi o’quvchilar multimedia vositalaridan foydalanishda tajribaga ega bo’lmasligi mumkin, bu esa o’rganish jarayonini murakkablashtiradi. Xavfli platformalar va multimedia vositalaridan foydalanish o’quvchining asosiy vazifasidan chalg’itadi. Undan tashqari, zamonaviy multimedia vositalarini sotib olish yoki ulardan foydalanish uchun mablag’ talab qilinadi, bu esa ba’zan qimmatga tushadi. Shuningdek, bu vositalardan doim foydalanish insonlar bilan muloqotni kamayishiga olib keladi. Ayniqsa, til o’rganishda insonlar bilan muloqot katta ahamiyatga ega. Hamma multimedia vositalari ham sifatli emas va o’quvchilar noto’g’ri vositalardan foydalanishlari mumkin va bu ta’lim olish jarayonini pasaytiradi. Bu vositalarning avzalliklari ularning kamchiliklaridan ustun turadi, qachonki ulardan to’g’ri foydalanilsa. Multimedia vositlaridan to’g’ri foydalanishning yana bir yo’li uni an’anaviy uslublar bilan birgalikda qo’llashdir. To’g’ri va samarali qo’llangan multimedialar nafaqat til o’rganish, balki madaniyatlararo muloqot qilish qobilyatini ham yaxshilaydi. Shunday ekan, multimedia texnologiyalari ta’lim sifatini oshiruvchi muhim vosita bo’lib qoladi. En yaxshi natijaga erishish uchun esa ularni an’anaviy o’qitish usullari bilan uyg’unlashtirish lozim. Zamon rivojlanmoqda: yangi ixtirolar, kashfiyotlar yaratilmoqda. Ta’lim olish uchun keng imkoniyatlar va qulayliklar yaratilayotgan bir davrda yashayotgan ekanmiz bu imkoniyatlardan to’g’ri va oqilona foydalanish maqsadga muvofiq bo’ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Nelson Mandela “Long Walk to Freedom” (1994) Little Brawn and Company. 56-sahifa
2. World.uz https://world.uz sayiti
3. Wikipedia https://uz.wikipedia.org sayiti
4. https://www.tum.de/en/
5. https://www.hu-berlin.de/en
6. https://ru.duolingo.com
7. https://learningcenter.unc.edu/tips-and-tools/learning-a-second-language/

“BOBURNOMA”DAGI –PUR INDIKATORLI OYKONIMLARNING SOTSIOLINGVISTIK XUSUSIYATLARI

Jalilova Madina Murotovna
NamDU 10.00.01-O‘zbek tili ixtisosligi
bo‘yicha mustaqil izlanuvchi
Ganievkomilzon073@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada Zahiriddin Muhammad Boburning “Boburnoma” asaridagi -pur indikatorli oykonimlarning sotsiolingvistik xususiyatlari tadqiq etilgan.

Kalit so‘zlar: toponim, oykonim, indikator, variant, areal, sotsiolingvistika, antropotoponim.

Аннотация. В статье изучаются социолингвистические особенности индикативных ойконимов с окончанием -пур в произведении в “Бобурноме” Захириддина Мухаммада Бабура.

Ключевые слова: топоним, ойконим, индикатор, вариант, ареал, социолингвистическа, антропотопоним.

Abstrakt. The article, studies the sociolinguistic features of the -pur indicative oikonyms in Zahiriddin Muhammad Babur's work "Boburnoma".

Key words: toponym, oikonym, indicator, variant, areal, sociolinguistic, anthropotoponym.

Sotsiolingvistika – tilning ichki qurilishini o'rganuvchi lingvistika va jamiyatshunoslik fanlari oralig'ida vujudga kelgan yangi fan. Shuning uchun bu fan til qurilishining ijtimoiy tomonini o'rganadi. [1,5] Til ijtimoiy hodisa bo'lib, uning paydo bo'lishi ham, rivoj topishi ham, muayyan davrda bajaradigan vazifasi ham jamiyat hayoti bilan uzviy bog'liq. Shuningdek, aholi yashovchi joylar atoqli oti – oykonimlar [2,58] ham jamiyat tarixining yorqin ko'zgusidir. Chunki joylarga qo'yilgan nomlar va ularning nolisoniy asoslari insoniyat tarixining har bir davrida o'ziga xos ijtimoiy tomonlari bilan farqlanadi. Bunda joyga qo'yiladigan nomlar har bir davrning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy-ruhiy olami in'ikos etadi.

"Boburnoma" asarini o'rganar ekanmiz, asarda *-pur* indikatorining asosan, Hindiston, qisman Kobul (Afg'oniston) hududidagi oykonimlar tarkibida faol qo'llanilganligini guvohi bo'lamiz. *Pur* – bir necha tarafi suv bilan tutash joy (sanskrit tilida). Aholi yashaydigan qishloq va shaharlar tarkibiga kiradi. [3,423] Memuarda jami 21 ta Hindiston hududidagi *-pur* aniqlagichli oykonimlar (*Abapur, Burhonpur, Bujpur, Bahlo'lpur, Dipalpur, Dahpur, Diydapur, Do'lpur, Jo'npur, Manikpur, Nanupur, Odampur, Piro'zpur, Sultonpur, Sarangpur, Ratanbo'r (Qozon bosmasida Ratanpur) Sekandarpur, Udaypur (Dungarpur), Fatxpur, G'ozipur, Hojipur)* va 1 ta Kobuldagi *(Odinapur) oykonimlar* tilga olingan. Bugungi kunda ham *-pur* bilan yasalgan oykonimlar mavjud bo'lib, V.A.Juchkevichning fikricha, Hindiston xaritasida *pur* indikatorli 500 dan ortiq shahar nomi mavjud. [4,309]

Hindiston toponimiyasi dunyodagi eng murakkab va shu bilan birgalikda kam o'rganilgan. Bu aholining etnik va til xilma-xilligi hamda murakkab ming yillik tarixga egaligi bilan izohlanadi. Mintaqadagi ko'pgina geografik nomlar qadimgi hind tili sanskritiga borib taqaladi. Janubiy Osiyoning ko'plab zamonaviy tillari (hind, bengal, panjob, urdu va boshqalar) sanskrit tili asosida shakllangan. Shuning uchun joy nomlari ushbu til bilan bog'liq, masalan, *pur – shahar* (*Hindistonda Kanpur, Jabalpur, Jodxpur, Pokistonda Bhavalpur, Nepalda Lalitpur, Bangladeshda Chandpur*) uchratish mumkin. [5,148]

V.A.Kocherginaning "Санскритско-русский словар" kitobi 30000 so'zni o'z ichiga oladi va ular orasida biz quyidagilarni topamiz: *"puru"-shaxs, qabila; "puru"-urug', qabila, "paura"-shaharlik* degan ma'noni anglatadi. [6,402] Shuningdek, V.A.Kocherginaning "Учебник санскрита" kitobida *"pur"* so'zi *shahar*, *"pura" –qal'a* degan ma'nolarni anglatishini qayd etgan. [7,22,60]

Shunday qilib, shahar va qishloq nomlari tarkibidagi *-pur* indikatori, asosan, hind joy nomlari tarkibida kelgan. Qadimgi Aryan madaniyatining muqaddas tili bo'lgan sanskrit tilida *shahar* va *qal'a* degan ma'nolarni anglatib, u sanskrit tilidagi *pura* so'zidan olingan. Masalan, asardagi *Fathpur* shahri tahlilida ko'rishimiz mumkin: *O'rdu **Fathpur**da tushub edi, **Fathpur**da bir kun turub, shanba sahari vuzu qilib, otlanib, Rapriyning yovug'ida namozi bomdodni jamoat bila o'taduk.* [8,248] Jamna daryosi sohilida joylashgan bu shahar ikki so'zdan tashkil topgan bo'lib, *"fath"* arabcha ochish, ochilish, egallash, zabt etish, g'alaba, bosib olish kabi ma'nolarni anglatadi. [9,335] Demak, *Fathpur – g'alaba shahri* degan ma'noni ifodalab, arabcha va sanskritcha so'zlar birikmasidan hosil bo'lgan. Demak, Hindiston hududidagi shaharlar uzoq vaqt davomida turli xil madaniyatlar va svilizatsiyalar ta'sirida bo'lganligi sababli, ularning nomlari ko'pincha, turli tillar va an'analar birlashuvini aks ettiradi. Fathpur shahri tarkibidagi indikatorlar asrlar davomida shahar aholi maskanlarini atash uchun ishlatilgan. U eng qadimgi hind matnlaridan biri Ringvedada uchraydi va uning chuqur ildiz otganligini ta'kidlaydi. *Pur* indikatorining chuqur tarixiy ildizlari uning Mahabharata davridagi *Xastinapur* kabi joylar bilan bog'lanishida ham yaqqol namoyon bo'ladi.

Hind shaharlari nomidagi *-pur* faqatgina lingvistik element emas, bu mamlakatning boy o'tmishi bilan bog'liqdir. Qadimgi an'analardan kelib chiqqan bu indikator shaharlarning o'ziga

xosligini shakllantirishda davom etib, ularni tarixiy, madaniy va til ildizlari, umuman olganda jamiyat hayoti bilan ham mustahkam bog‘lab turadi.

V.P. Lemtyugovaning fikricha, turar joy nomi nafaqat til va geografiya haqida, balki ijtimoiy-iqtisodiy tarix haqida ham so‘zlaydi. Hindiston shaharlarini o‘rganar ekanmiz, ular tarkibidagi *-pur* ma’lum ma’noda har bir joy haqida noyob hikoyalar bayon etadi. Jumladan: *Pahorxonni bosib Laho‘r va* ***Dipalpurii*** *fath qilg‘ai yili keyla kelturub, ekturub edim, sabz bo‘lub edi.* [8,110]. Dipalpur buyuk tarixiy o‘tmishga ega va juda qadimiy shahardir. U hozirgi Pokistonning Panjob viloyatida, Ravi daryosi bo‘yida joylashgan. 2000 yillik tarixga ega shahar [3,225] Ko‘pgina *-pur* indikatorli shaharlarga qirollar tomonidan nom berilgan. Ular ko‘pincha qirollik nomlariga *-pur* so‘zini qo‘shib yangi nomlar (oykonimlar) hosil qilishgan. Masalan, Dipalpur so‘zma so‘z tarjimada *Dipa shahri* deb tarjima qilingan bo‘lib, uning asoschisi Paramara sulolasi hukmdori Raja Depa Chand Bhatti (hukmronlik qilgan 1216-40) sharafiga nomlangan. Bunday kishi atoqli otlari (ism, familiya, laqab, taxallus va b.) dan yasalgan joy nomi antropotoponimlar [2,16] deb ataladi.

Yana shunday o‘z ismini tarixga muhrlagan shohlarni nomi aks etgan oykonimlarga memuarda keltirilgan Bahlo‘lpur misol bo‘ladi: *Yo‘ldin borib,* ***Bahlo‘lpurkim****, xolisa edi, sayr qilduk.* [8,186] Bahlo‘lpur Chinob daryosi bo‘yidagi baland jarlik ustida joylashgan qal’a (hozir Pokistonning Panjob viloyatida) bo‘lib, bu qal’aning nomi Lo‘diylar sulolasining asoschisi, Ibrohim Lo‘diyning bobosi Bahlul Lo‘diy (1451-1489) nomi bilan bog‘liq.

Keltirilgan dalillarga asoslanib, Udaypur shahri ham uning hokimi nomi bilan bog‘liq deb ayta olamiz: *Az jumla Raval Uday Sing Bagariyki, volii viloyati* ***Udaypur*** *buda va duvozdah hazor suvor doshta…* [8,229] Udaypur Hindistonning Rojastan shtati hududidagi viloyat va shahar bo‘lib, bizningcha, shahar nomi uning rojasi *Raval Uday Sing Bagariy* nomi bilan atalgan. Demak, Hindiston hududidagi oykonimlar asar leksik tarkibining bir qismi bo‘lib, tarixiy voqealar va hukmronlik qilgan shoh va rojalar taqdirining ko‘zgusidir.

Yuqoridagi toponimlar, talqinlar *-pur* indikatorining sanskrit tili bilan bog‘liqligini isbotlasa-da, ba’zilar bu so‘zni arab tilida ham mavjud deb hisoblashadi. Bu bog‘liqlik Afg‘oniston, Eron kabi mamlakatlardagi shaharlarda o‘z aksini topganini dalil sifatida keltirishadi. Memuarda Afg‘oniston hududida joylashgan Odinapur shahri keltirilgan: *Dorug‘anishin yeri* ***Odinapur****dur. Kobuldin sharq sari o‘n uch yig‘och yo‘ldur.* [8,109] Odinapur Kobul viloyatidagi shahar bo‘lib, hozir Afg‘onistonning Ningnahor viloyati markazidir. [3,405] Guvohi bo‘lganimizdek, *-pur*dan foydalanish Hindiston hududidan chetga chiqadi. Biz bunday joy nomlarini Afg‘oniston, Eron va hatto Nepaldagi shahar nomlaridan topamiz. Bu esa, bizningcha, o‘z navbatida, mintaqadagi tarixiy aloqalar, madaniy almashinuvlarning mustahkam bo‘lganligini ta’kidlaydi.

Xulosa qilib aytganda, shahar va qishloq nomlari tarkibidagi *-pur* indikatori, asosan, hind joy nomlari tarkibida kelgan bo‘lib, bu aniqlagich faqatgina lingvistik element emas, bu mamlakatning boy o‘tmishi bilan bog‘liqdir. Demak, Hindiston hududidagi oykonimlar asar leksik tarkibining bir qismi bo‘lib, tarixiy voqealar va hukmronlik qilgan shoh va rojalar taqdirining yorqin ko‘zgusidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. A.Berdialiyev, M.Turdibekov. Sotsiolingvistika. – Toshkent: Nodirabegim, 2022. – B. 5.
2. Бегматов Э., Улуқов Н. Ўзбек ономастикаси терминларининг изоҳли луғати.– Наманган, 2006. – Б.81.
3. Бобур энциклопедияси. – Тошкент: Шарқ, 2014.
4. Жучкевич В.А. Общая топонимика. – Минск: Вышейшая школа, 1968.
5. Басик С.Н. Общая топонимика. – Минск, 2006.
6. Кочергина В.А. Учебник санскрита. – М: Филология, 1994.
7. Заҳириддин Муҳаммад Бобур. Бобурнома. –Тошкент: Шарқ , 2002.
8. Ўзбек тилининг изоҳли луғати.www.ziyouz.com kutubxonasi.

HOZIRGI DAVRDA TARIXIY VOQEALAR RIVOJINING O'RGANILISH MASALALARI

Bahromjon Abdullayev
KUAF Taix va ijtimoiy fanlar kafedrasi katta o'qituvchisi
e-mail: abdullayev.baxromjon.72@gmail.com

Annotatsiya: ushbu maqolada hozirgi davrda tarixiy voqealarning rivoji mavzusida so'z yuritilib, unda tarixiy voqealar rivojini o'rganishning nazariy asoslari, hozirgi davrda tarixiy voqealarning o'ziga xosligi, zamonaviy tarixiy voqealar rivojining dolzarb muammolari, tarixiy xotira va milliy tarixni asrash hamda uni yosh avlod ongiga yetkazish masalalari atroflicha yoritilgan.

Kalit so'zlar: tarixiy xotira, milliy tarix, xronologiya, deterministik yondashuv, sinergetik yondashuv sivilizatsion yondashuv, Versal sharnomasi, fashizm, Ikkinchi jahon urushi, BMT, Nato, sovuq urush, ikki qutbli dunyo, YeI, BRICS, ShHT.

Аннотация: В статье рассматривается развитие исторических событий в современную эпоху, в которой всесторонне рассматриваются теоретические основы изучения развития исторических событий, своеобразие исторических событий в современную эпоху, актуальные проблемы развития современных исторических событий, сохранения исторической памяти и национальной истории и их донесения до сознания подрастающего поколения.

Ключевые слова: историческая память, национальная история, хронология, детерминистский подход, синергетический подход, цивилизационный подход, Версальский договор, фашизм, Вторая мировая война, ООН, НАТО, холодная война, биполярный мир, ЕС, БРИКС, ШОС.

Abstract: The article examines the development of historical events in the modern era, which comprehensively examines the theoretical foundations of studying the development of historical events, the uniqueness of historical events in the modern era, current problems of the development of modern historical events, the preservation of historical memory and national history and their communication to the consciousness of the younger generation.

Key words: historical memory, national history, chronology, deterministic approach, synergetic approach, civilizational approach, Treaty of Versailles, fascism, World War II, UN, NATO, Cold War, bipolar world, EU, BRICS, SCO.

Tarix insoniyat jamiyatining eng muhim bilim manbalaridan biri bo'lib, bugungi davrda ham siyosiy, ijtimoiy, madaniy jarayonlarni tushunishda asosiy omil hisoblanadi. Tarixiy voqealar rivojini o'rganish, avvalo, jamiyatning o'z-o'zini anglash jarayonini ifodalaydi. Zamonaviy tarixshunoslikda tarixiy voqealar nafaqat xronologik ketma-ketlikda, balki ijtimoiy, siyosiy va madaniy kontekstda tahlil qilinadi.

Ma'lumki, tarixiy voqealar rivojini o'rganishning nazariy asoslari haqida gapiradigan bo'lsak, tarixiy voqealar rivojini o'rganishda uch asosiy tamoyil mavjud:

Birinchidan, xronologiklik – voqealarni vaqt tartibida o'rganish;

Tarixiy jarayonlarni ilmiy tadqiq etishda asosiy metodlardan biri bu – xronologik yondashuvdir. Xronologiklik voqealarni ketma-ketlikda o'rganish, ularning vaqt jihatidan joylashishini aniqlash hamda tarixiy taraqqiyotning izchilligini ko'rsatishga qaratilgan. Tarix fanida voqealarni aniq vaqtga bog'lamasdan tadqiq etish ularning sabab–oqibat bog'lanishini tushunishni qiyinlashtiradi. Shu bois, tarixchi olimlar voqealarni avvalo vaqt tartibida joylashtiradilar, so'ng ularni mazmunan tahlil qiladilar [9].

"Xronologiya" (yunoncha chronos – vaqt, logos – ta'limot) tushunchasi voqealarning sodir bo'lish ketma-ketligini aniqlashni bildiradi. Tarixiy tadqiqotlarda xronologiklik nafaqat vaqt sanalarini aniqlash, balki voqealar rivojidagi mantiqiy bog'liqlikni ochib berishda ham muhim ahamiyatga ega [3].

Xronologik usul tarixiy voqealar:

- qachon sodir bo'lganini aniqlash;
- ularning vaqt jihatidan bir-biriga munosabatini ko'rsatish;

- davrlashtirish jarayoniga asos yaratish;
- sabab–oqibat aloqalarini izchil yoritish imkonini beradi [2].

Tarixiy tadqiqotlarda xronologiya maxsus yordamchi tarix fanlaridan biri sifatida shakllangan. Qadimgi dunyo tarixchilaridan Gerodot va Fukidid voqealarni vaqt tartibida joylashtirishga alohida e'tibor berganlar. Sharq tarixshunosligida ham xronologik yozuvlar keng tarqalgan. Masalan, "Tarixi Tabariy", "Zafarnoma", "Boburnoma" kabi asarlar xronologik asosda qurilgan.

Shuningdek, O'zbekiston tarixshunosligida ham xronologik ketma-ketlik asosida yondashish ilmiy izlanishlarda yetakchi metodlardan biri hisoblanadi. Masalan, Amir Temur va Temuriylar davlati tarixini o'rganishda voqealarni ketma-ketlikda tahlil qilish davlat boshqaruvi va siyosiy jarayonlarni chuqurroq anglash imkonini beradi [10].

Xronologik metod tarixiy voqealarning umumiy manzarasini tiklashda eng asosiy vosita sanaladi. Chunki:

- Tarixiy jarayonlarning rivojlanish bosqichlari izchil ko'rinadi.
- Har bir davr voqealari o'z vaqtida joylashtirilgan holda sabab–oqibat bog'liqligi aniqlanadi.
- Voqealar izchilligi asosida davrlashtirish imkoniyati kengayadi.
- Tarixiy voqealarni boshqa ijtimoiy fanlar bilan taqqoslash qulaylashadi [6].

Demak, xronologiklik – tarixni o'rganishda asosiy ilmiy metodlardan biri bo'lib, voqealarni vaqt tartibida joylashtirish va ularning tarixiy izchilligini ochishda muhim o'rin tutadi. Tarixiy hodisalarni xronologik ketma-ketlikda tadqiq etish orqali jamiyat taraqqiyotining umumiy qonuniyatlari yoritiladi.

Ikkinchidan, sabab-oqibat bog'liqligi – har bir tarixiy jarayonning manbalari va oqibatlarini tahlil qilish;

Tarixiy jarayonlarni o'rganishda sabab–oqibat bog'liqligi tamoyili muhim metodologik asoslardan biridir. Chunki har bir tarixiy voqea tasodifiy emas, balki aniq shart-sharoitlar, sabablar ta'sirida yuz beradi va o'zining oqibatlariga ega bo'ladi. Tarixchi olim voqeani faqat tasvirlabgina qolmay, balki uning vujudga kelish omillari va natijalarini ham ilmiy tahlil qilishi lozim [9].

Sabab - voqea yoki hodisaning yuzaga kelishiga olib keluvchi omillar yig'indisi; oqibat esa – sababning natijasida yuzaga chiqqan yangi holatdir. Tarixiy fanlarda sabab–oqibat munosabatini aniqlash quyidagilarni talab etadi:

- voqeaning asosiy sabablarini boshqa ikkinchi darajali omillardan ajratib olish;
- bevosita sabablar va shart-sharoitlar o'rtasidagi farqni anglash;
- voqeaning yaqin oqibatlari va uzoq muddatli natijalarini tahlil qilish [4].

Masalan, Fransuz inqilobining sabablari sifatida feodal tartiblarning saqlanib qolishi, iqtisodiy tanglik, siyosiy inqiroz va ma'rifatparvar g'oyalar ko'rsatiladi. Oqibat sifatida esa respublika boshqaruvi, milliy ongning kuchayishi va yangi ijtimoiy-siyosiy tizimning shakllanishi yuz bergan [5].

Tarixshunoslikda sabab-oqibat bog'liqligini tahlil qilish jarayoni bir necha metodologik yo'nalishlarga asoslanadi:

- Deterministik yondashuv - tarixiy voqealar qat'iy sabab–oqibat zanjiri asosida yuz beradi, tasodifga o'rin yo'q.
- Sinergetik yondashuv - tarixiy jarayonlarda sabab–oqibat munosabatlari murakkab, tasodif va ehtimollik ham muhim rol o'ynaydi.
- Sivilizatsion yondashuv - tarixiy jarayonlarning sabablari ma'lum sivilizatsiyaning ichki taraqqiyot qonuniyatlari bilan bog'liq holda tushuntiriladi.

Sharq tarixshunosligi ham sabab-oqibat bog'liqligiga katta e'tibor qaratgan. Masalan, Ibn Xaldun o'zining "Muqaddima" asarida davlatlarning paydo bo'lishi va inqirozini ijtimoiy, iqtisodiy hamda madaniy omillar orqali izohlaydi.

Tarixiy voqealarni sabab–oqibat bog'liqligida o'rganish quyidagi imkoniyatlarni beradi:

- tarixiy jarayonlarning ichki mexanizmini ochadi;
- har bir davrning asosiy omillarini ko'rsatadi;

- voqealar rivojidagi uzviy izchillikni tushunishga yordam beradi;
- tarixiy tajribadan kelajak uchun ilmiy xulosalar chiqarishga imkon yaratadi [2].

Masalan, Ikkinchi jahon urushining sabablari – Versal shartnomasining adolatsizligi, fashizmning kuchayishi va iqtisodiy inqiroz bo'lsa, oqibatlari – BMTning tashkil etilishi, ikki qutbli dunyo tizimining shakllanishi va mustamlakachilik tizimining yemirilishidir.

Shunday qilib, sabab-oqibat bog'liqligi tarixiy metodologiyaning asosiy tamoyillaridan biri bo'lib, voqealarni chuqur tahlil qilishga, ularning kelib chiqish manbalari va natijalarini ochishga xizmat qiladi. Bu tamoyil tarixiy jarayonlarning tasodifiy emas, balki izchil va mantiqiy qonuniyatlar asosida yuz berishini ko'rsatadi.

Uchinchidan, sivilizatsion yondashuv – tarixiy voqealarni insoniyat taraqqiyoti kontekstida o'rganish.

Tarixiy voqealarni ilmiy tadqiq etishda turli metodologik yondashuvlar qo'llanadi. Ularning ichida sivilizatsion yondashuv alohida ahamiyatga ega. Bu yondashuv tarixiy jarayonlarni faqat siyosiy yoki iqtisodiy omillar orqali emas, balki insoniyat taraqqiyoti, ma'naviyat, madaniyat va ijtimoiy qadriyatlar kontekstida o'rganishga imkon yaratadi [9].

"Sivilizatsiya" atamasi lotincha civilis - "fuqaroviy, madaniy" so'zidan kelib chiqqan. Ilmiy adabiyotlarda sivilizatsiya jamiyat taraqqiyotining muayyan bosqichi, insoniyatning moddiy va ma'naviy yutuqlar majmui sifatida talqin qilinadi [9].

Sivilizatsion yondashuv quyidagilarni nazarda tutadi:
- tarixiy jarayonlarni ma'lum sivilizatsiya doirasida o'rganish;
- madaniyat, diniy qadriyatlar, axloqiy tamoyillar va urf-odatlarning rivojlanishiga e'tibor qaratish;
- turli sivilizatsiyalar o'rtasidagi o'zaro ta'sir va almashinuvni tahlil qilish.

Tarixiy fanlarda bu yondashuv XIX–XX asrlarda shakllandi. Birinchi bo'lib O. Shpengler o'zining "Yevropa qulashi" asarida sivilizatsiyalar mustaqil tug'ilib, rivojlanib, so'ng inqirozga uchraydi, deb ta'kidladi [8]. A.Toynbi esa "Tarixiy tadqiqot" asarida insoniyat tarixini turli sivilizatsiyalarning paydo bo'lishi, rivojlanishi va inqirozi nuqtai nazaridan tahlil qildi.

Sharq tarixshunosligida ham sivilizatsion qarashlar mavjud bo'lib, masalan, Ibn Xaldun jamiyat rivojini siyosiy hokimiyat, iqtisod va madaniyatning o'zaro aloqasi orqali izohlagan.

Sivilizatsion yondashuvning ilmiy ahamiyati quyidagilarda ko'rinadi:

a) Tarixiy jarayonlarni umuminsoniy taraqqiyot kontekstida ko'rib chiqadi.

b) Turli xalqlarning moddiy va ma'naviy qadriyatlarini taqqoslab o'rganish imkonini beradi.

c) Tarixni faqat siyosiy voqealar ketma-ketligi sifatida emas, balki madaniyat va qadriyatlar evolyutsiyasi sifatida talqin qiladi.

d) Insoniyatning turli sivilizatsiyalari o'rtasidagi hamkorlik va ziddiyatlarni ochib beradi.

Masalan, Sharq va G'arb sivilizatsiyalari o'rtasidagi ilmiy va madaniy almashinuv Uyg'onish davri Yevropa madaniyatining shakllanishida muhim rol o'ynagan.

Aytish mumkinki, sivilizatsion yondashuv – tarixiy voqealarni kengroq, umuminsoniy taraqqiyot kontekstida tahlil qilishga imkon beruvchi metodologik yo'nalishdir. Bu yondashuv insoniyat tarixini faqat siyosiy voqealar yoki iqtisodiy jarayonlar orqali emas, balki sivilizatsiyalararo almashinuv va qadriyatlar tizimi doirasida tushunishga xizmat qiladi.

Bugungi kunda tarixshunoslikda voqealarni tahlil qilishda faqat faktlarga emas, balki ijtimoiy ong, mafkura va madaniyat omillariga ham katta e'tibor berilmoqda [7].

Hozirgi davrda tarixiy voqealarning o'ziga xosligi shundan iboratki, XX–XXI asr boshida tarixiy voqealarning rivoji jahon miqyosida chuqur o'zgarishlar bilan kechdi:

Avvalo, Ikkinchi jahon urushi oqibatlari – geosiyosiy muvozanatning o'zgarishi, xalqaro tashkilotlarning shakllanishi (BMT, NATO, Yevropa Ittifoqi).

XX asr tarixidagi eng yirik va halokatli voqea – Ikkinchi jahon urushi (1939–1945 yy.) insoniyat taraqqiyotiga ulkan ta'sir ko'rsatdi. Bu urush nafaqat millionlab insonlar hayotiga zomin bo'ldi, balki siyosiy chegaralarning qayta shakllanishiga, geosiyosiy muvozanatning tubdan o'zgarishiga, xalqaro tashkilotlarning paydo bo'lishiga ham olib keldi.

Urush yakunida dunyo ikki asosiy siyosiy markaz – AQSh va SSSR o'rtasida taqsimlandi. Natijada:

a) ikki qutbli tizim – kapitalistik G'arb va sotsialistik Sharq bloklari vujudga keldi;

b) "sovuq urush" davri boshlandi va ideologik qarama-qarshilik global tus oldi;

c) mustamlakachilik tizimi yemirila boshladi, Osiyo va Afrikadagi ko'plab mamlakatlar mustaqillikka erishdi [9].

Shuningdek, Germaniya mag'lub davlat sifatida to'rt zona (AQSh, SSSR, Buyuk Britaniya va keyinchalik Fransiya nazorati)ga bo'lindi va keyinchalik ikki davlat – G'arbiy Germaniya (FRG) hamda Sharqiy Germaniya (GDR)ga ajraldi.

Urushdan so'ng xalqaro xavfsizlikni ta'minlash va yangi global urushlarning oldini olish maqsadida 1945-yil San-Fransisko konferensiyasida BMT tashkil etildi.

BMTning asosiy maqsadlari:

- xalqaro tinchlik va xavfsizlikni saqlash;
- davlatlar o'rtasida hamkorlikni rivojlantirish;
- inson huquqlari va asosiy erkinliklarni himoya qilish.

BMT qisqa vaqt ichida global miqyosdagi asosiy xalqaro tashkilotga aylandi.

Geosiyosiy qarama-qarshilik kuchaygani sababli G'arb davlatlari 1949-yilda Shimoliy Atlantika Shartnomasi Tashkiloti (NATO)ni tuzdilar. NATOning asosiy vazifasi – a'zo davlatlarning kollektiv mudofaasi va sovet tahdidiga qarshi turish edi. Bu tashkilot "sovuq urush" davrida G'arb blokining harbiy-siyosiy tayanchi bo'lib xizmat qildi.

Ikkinchi jahon urushi Yevropada siyosiy va iqtisodiy integratsiyaga zamin yaratdi. Avvalo 1951-yilda Yevropa ko'mir va po'lat hamjamiyati, so'ng 1957-yilda Yevropa iqtisodiy hamjamiyati (Rim shartnomasi) tashkil topdi. Bu jarayon keyinchalik Yevropa Ittifoqining shakllanishiga olib keldi. Integratsiyaning asosiy maqsadi – Yevropada urushlarning qayta yuz berishiga yo'l qo'ymaslik, iqtisodiy taraqqiyotni ta'minlash va siyosiy birlikni mustahkamlash edi.

Demak, Ikkinchi jahon urushi oqibatlari nafaqat insoniyatga ulkan talafotlar yetkazdi, balki jahon siyosiy manzarasini ham tubdan o'zgartirdi. Urushdan keyingi davrda:

a) ikki qutbli tizim shakllandi;

b) BMT global xavfsizlikning asosiy mexanizmi sifatida maydonga chiqdi;

c) NATO G'arb davlatlari uchun harbiy-siyosiy blok bo'ldi;

d) Yevropa Ittifoqi integratsion tuzilma sifatida paydo bo'ldi.

Shunday qilib, Ikkinchi jahon urushi oqibatlari bugungi xalqaro munosabatlar tizimining shakllanishida hal qiluvchi omil bo'ldi.

So'ngra esa, Sovuq urush davri va uning tugashi – ikki qutbli dunyo tizimidan ko'p qutbli tizimga o'tish.

XX asrning ikkinchi yarmida jahon siyosiy manzarasi Sovuq urush bilan belgilanadi. Bu davrda AQSh boshchiligidagi G'arb kapitalistik bloki va SSSR yetakchiligidagi Sharq sotsialistik bloki o'rtasida keskin qarama-qarshilik yuzaga keldi. Sovuq urush (1946–1991 yy.) global miqyosda xalqaro munosabatlar tizimini belgilab berdi va insoniyat tarixida ikki qutbli dunyo tizimining shakllanishiga olib keldi [9].

Ikkinchi jahon urushi tugagach, g'olib davlatlar o'rtasidagi ittifoq tez orada geosiyosiy raqobatga aylandi. Uning asosiy sabablari:

- AQSh va SSSR o'rtasida ideologik qarama-qarshilik (kapitalizm va sotsializm);
- geosiyosiy manfaatlar to'qnashuvi (Yevropa va Osiyo hududida ta'sir doiralarini nazorat qilish);
- yadroviy qurollanish poygasi va harbiy ittifoqlar (NATO va Varshava shartnomasi tashkilotlari).

1947-yilda AQSh prezidenti Garri Truman tomonidan e'lon qilingan Truman doktrinasi va 1949-yilda NATOning tashkil topishi G'arb bloki shakllanishiga asos bo'ldi. Bunga javoban 1955-yilda Varshava shartnomasi tashkiloti tuzildi. Shundan so'ng:

- dunyo ikki qutbli tizimga bo'lindi;

- “sovuq urush”ning asosiy maydonlari – Germaniya, Koreya, Vetnam va Kubada keskin ziddiyatlar yuz berdi;

- qurollanish poygasi global xavfsizlikka tahdid soluvchi darajaga yetdi.

1980-yillarda SSSR ichki iqtisodiy va siyosiy inqirozga yuz tutdi. M.Gorbachyov tomonidan e’lon qilingan “perestroyka” va “glasnost” siyosati sovuq urushning yumshashiga olib keldi. 1989-yilda Berlin devorining qulashi Yevropadagi geosiyosiy muvozanatni tubdan o’zgartirdi. Nihoyat, 1991-yilda SSSR parchalanishi bilan sovuq urush yakunlandi.

Sovuq urush tugagach, jahon siyosati ko’p qutbli tizim tomon yo’naldi. Endilikda xalqaro munosabatlarda quyidagi markazlar faol bo’ldi:

a) AQSh – yagona superdavlat sifatida;

b) Yevropa Ittifoqi – iqtisodiy va siyosiy markaz;

c) Rossiya – SSSR merosxo’ri sifatida geosiyosiy ta’sirini saqlab qolishga intildi;

d) Xitoy – yangi global kuch sifatida tez rivojlana boshladi;

e) rivojlanayotgan davlatlar asosida shakllangan BRICS, Shanxay hamkorlik tashkiloti (ShHT) kabi ko’p tomonlama ittifoqlar paydo bo’ldi.

Demak, Sovuq urush davri insoniyat tarixida global qarama-qarshilik va yadroviy xavf bilan kechgan davr bo’ldi. Uning tugashi ikki qutbli tizimni barham toptirib, xalqaro munosabatlarni ko’p qutbli tizimga olib keldi. Bugungi kunda xalqaro tizimda turli kuch markazlari – AQSh, Yevropa Ittifoqi, Rossiya, Xitoy va boshqa davlatlar o’zaro hamkorlik va raqobat asosida yangi geosiyosiy muvozanatni shakllantirmoqda.

Shuningdek, tarixiy voqealarni o’rganishda zamonaviy yondashuvlardan – statistik tahlil, komparativ metod, tarixiy-sotsiologik tadqiqotlar va digital tarixshunoslik vositalaridan keng foydalanilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo’q. – Toshkent: Sharq, 1998.

2. Berdimurodov B. Tarix metodologiyasi. – Toshkent: Fan, 2020.

3. Колесников С.В. Источниковедение и вспомогательные исторические дисциплины. – Москва: Наука, 2017.

4. Колесников С. В. Методология истории. – Москва: Наука, 2018.

5. Sobirov R. Jahon tarixidan saboqlar. – Toshkent: Fan, 2016.

6. Toshov J. Tarixni o’rganish metodlari. – Samarqand: SamDU nashri, 2021.

7. Toshqulov, B. Tarix falsafasi. – Toshkent: Universitet nashriyoti, 2019.

8. Шпенглер О. Закат Европы. – Москва: Мысль, 1993.

9. Юлдашев А. Тарихшунослик назарияси ва методологияси. – Тошкент: Университет, 2019.

10. Yo’ldoshev H. Amir Temur va temuriylar davlati tarixi. – Toshkent: O’zbekiston, 2001.

11. O’zbekiston tarixi. Akademik nashr. – Toshkent: O’zbekiston Milliy Ensiklopediyasi, 2020.

НОВЫЕ УЧИТЕЛЯ НОВОГО УЗБЕКИСТАНА

Хушбоков Ойбек Уралович

Старший преподаватель кафедры Немецкого языка

Чирчикского Государственного Педагогического Университета

oibekh@yahoo.de

Аннотация: В данной статье отражена важность социального статуса учителя в обществе. Ценность традиции «учитель — ученик» всегда бережно сохранялась. В современную эпоху глобализации обязанности учителя значительно расширились.

Понятие «учитель» включает в себя богатое историческое и культурное наследие. В нём заключён не только смысл передачи знаний, но и формирования мировоззрения, нравственных ценностей и духовных ориентиров учеников. Великий узбекский поэт и мыслитель Алишер Навои ещё в XV веке подчёркивал важную социальную роль учителей,

отмечая, что педагогическая деятельность крайне сложна и требует личной ответственности не только за обучение, но и за воспитание детей.

Ключевые слова: Социальный статус, учитель, Новый Узбекистан, миссия, учитель-ученик, педагог

Annotatsiya. Ushbu maqolada o’qituvchining ijtimoiy statusi jamiyatda muhimligi aks etgan. Ustoz-shogird qadriyati doimo asrab kelingan. Hozirgi globallashuv davrida o’qituvchining vazifalari kupaydi. "Устоз" тушунчаси ўз ичига бой тарихий ва маданий меросни олади, унда фақат билим бериш эмас, балки ўқувчиларнинг дунёқараши, ахлоқий қадриятлари ва маънавий йўналишларини шакллантириш маънолари ҳам мужассам. Улуғ ўзбек шоири ва мутафаккири Алишер Навоий аллақачон XV асрдаёқ муаллимларнинг жамиятдаги муҳим ижтимоий ўрнини таъкидлаб, устозлик фаолияти жуда машаққатли эканини, у фақат таълим эмас, балки тарбия учун ҳам шахсий масъулиятни талаб қилишини қайд этган."

Kalit so’zlar: ijtimoiy status, oq’tuvchi, Yangi O’zbekiston, missiya, ustoz-shogird, pedagog,

Annotation. The article highlights the importance of the teacher’s social status in society. The value of the “teacher–student” tradition has always been carefully preserved. In the modern era of globalization, the responsibilities of teachers have significantly expanded.

The concept of a “teacher” encompasses a rich historical and cultural heritage. It involves not only the transmission of knowledge but also the shaping of students’ worldviews, moral values, and spiritual orientations. The great Uzbek poet and thinker Alisher Navoi, as early as the 15th century, emphasized the significant social role of teachers, noting that teaching is an extremely demanding profession that requires personal responsibility not only for educating but also for raising children.

Keywords: Social status, teacher, New Uzbekistan, mission, teacher-student, pedagogue

ВВЕДЕНИЕ

В истории мировой науки немало трудов великих ученых древнего Турана, Моворуннахра, Туркестана и Хорасана, написанных золотыми буквами. Имам Мухаммад ибн Исмаил Бухари, Имам Термизи, Абу Райхан Беруни, Абу Али ибн Сина, Ахмад Фаргани, Мухаммад Муса Хоразми, Абу Наср Фараби, Имам Мотуриди, Бурхануддин Маргилани, Амир Темур, Мирза Улугбек, Алишер Навои, Захириддин Мухаммад Бабур внесли большой вклад для развития человечества.

Фараби в X веке выделял важность роли учителя в формировании нравственных принципов, практических навыков у молодых людей: развитии творческих начал. В его взгляде на учителей отражалось понимание их ответственности в рамках формировании ценностных ориентиров будущего поколения. Согласно его позиции, педагоги должны выполнять свою профессиональную роль с должным вниманием и ответственностью.

Узбекский народ имеет давнюю историю традиции «Учитель-ученик». В памятниках «Авесте», созданных 3000 лет назад, особое внимание уделяется вопросам образования и наставничества. Традиция «Устоз-шогирд» имеет в узбекском культурном мире многовековые корни. «Устоз-шогирд» (перевод с узбекского языка «Наставник-ученик») так и называется богатая узбекская традиция в рамках соблюдения и уважения традиционных ценностей. Глава государства подчеркнул важность их развития для последующего прогресса и укрепления авторитета страны на мировой арене. В Концепции развития высшего образования до 2030 года запланировано развитие государственно-частного партнерства в высшем образовании и повышение уровня охвата высшим образованием до 50% на основе организации деятельности государственных и негосударственных высших образовательных учреждений в регионах. На основе зарубежного опыта будут усовершенствованы стандарты высшего образования и структура изучаемых дисциплин. Вдвое сократится количество дисциплин, не имеющих отношение к приобретаемой специальности. По словам Президента, Узбекистан обладает прекрасными традициями, которые необходимо преумножать и создать условия для воспитания новых Хорезми, Беруни, Ибн Сино, Улугбеков, Навои и Бабуров[1.86].

Немаловажным является и то, что правительством учтены глобальные вызовы и возможности, которые несет в себе молодежь Узбекистана, осуществляя инновационную деятельность и внося вклад в развитие потенциала страны. Используя свои креативные способности, идеи, предложения, молодые люди создают новые организации, объединения и движения. В современном обществе, как и во все времена, считается, что школа начинается с учителя, и в первую очередь внимание обращается на эту ключевую фигуру. В настоящее время роль учителя меняется, время предъявляет новые требования к его личности[2.18].

Быть учителем – отличная должность. Таким образом, можно утверждать, что в Узбекистане отношение к учителям и наставникам всегда было особым, и сегодня людей этой профессии по-прежнему безмерно уважают, ценя их труд и самоотверженную заботу о подрастающем поколении.

Узбекистан уверенно вступает в новый этап своего развития. Огромные изменения происходят во всех сферах жизни. В Узбекистане закладывается фундамент новой эпохи Возрождения – третьего Ренессанса[3.16]. Вековые обычаи и традиции узбеков бережно хранятся и передаются из поколения в поколение, в том числе и узбекская традиция учительства “Устоз-шогирд”.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ

Культура учителя имеет в Узбекистане долгую историю. Первое Возрождение, связанное с именами Беруни, Фараби, Ибн Сины и других, занимает в этой области уникальное положение. Это служит научному обоснованию места и роли узбекского народа в развитии человечества, его огромного мирового служения. В это же время реализация национальной идентичности приводит к возникновению третьего феномена Возрождения совершенно нового типа, складывающегося на основе национальных ценностей.

Следует подчеркнуть, что в современном обществе учительство является социально-значимой профессией. И в этом направлении государство Узбекистана законодательно определяет права и обязанности учителя.

СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ:

1. Мирзиёев Ш.М. Уверенно продолжим путь национального развития на новом этапе. Узбекистан. Ташкент-2018
2. Мирзиёев Ш.М. От национального возрождения к национальному прогрессу. Узбекистан. Ташкент-2020
3. Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси. Ташкент-2021
4. Мирзиёев Ш.М. Одобрение народа – высшая оценка нашей деятельности. Узбекистан. Ташкент-2018
5. Мирзиёев Ш.М. Светлой и благополучной будет жизнь народа, имеющего благородные устремления и великие цели. Узбекистан. Ташкент-2019
6. Послание Президента Республики Узбекистан Олий Мажлису
7. Закон Республики Узбекистан об образования от 23.09.2022 г.
8. Тоффлер Э. Шок будущего. пер. с англ. –М.:-АСТ, 2002.-С.557.

O‘ZBEKISTONDA MILLIY QADRIYATLAR VA MILLATLARARO TOTUVLIK

Rayimov Begali Urolovich

Termiz davlat pedagogika instituti o‘qituvchisi

Annotatsiya. Qadriyatlar deganda biz narsa va voqealar, jamiyat moddiy va ma’naviy boyliklarning ahamiyatini ifodalash uchun qo‘llaniladigan tushuncha. Milliy-ma’naviy qadriyatlar – “milliylik” “ma’naviyat” va “qadriyat” tushunchalari kesishgan nuqtada jamlashgan ijtimoiy xodisalarni o‘z ichiga oladi. Deylik ayrim millatlar tarixiy taraqqiyot davomida ishlab chiqarishning ma’lum sahasida yuksak layoqatni shakllantirgan tarbiya, tafakkurning ta’siri yo‘nalishiga e’tibor beradi. Milliy xarakterida, hayotga, ijtimoiy hodisalarga munosabatida o‘ziga xosliklari bor. Axloqiy, huquqiy, siyosiy madaniyat sohalaridagi xatti - harakatlarda ham ma’lum

ijobiy tafovutlar uchraydi. Bunga o‘xshash rangbaranglik nafaqat boyligimiz, balki taraqqiyotimiz sur’atini tezlashtiruvchi omil bo‘lishi mumkin.

Kalit so‘zlar: qadriyat, millatlararo, elat, baynaminallik, milliy markazlar, demokratiya peinsiplari, tarixiy ildizlar, umuminsoniy.

Abstract. Values are the concepts we use to describe the importance of things and events, the material and spiritual riches of society. National-spiritual values - social phenomena that are concentrated at the intersection of the concepts of “nationality”, “spirituality” and “value”. For example, some nations focus on the direction of the influence of education, thinking, which has formed a high capacity in a particular field of production during the course of historical development. It has its own national character, attitude to life and social events. There are also some positive differences in behavior in the areas of moral, legal and political culture. Such diversity can be a factor not only in our wealth, but also in the pace of our development.

Keywords: values, interethnic, ethnicity, inter-ethnicity, national centers, principles of democracy, historical roots, universal.

Абстрактный. Ценности — понятие, используемое для выражения важности вещей и событий, материальных и духовных богатств общества. Национально-духовные ценности – понятия «народность», «духовность» и «ценность» включают в себя социальные явления, сосредоточенные в точках пересечения. Допустим, некоторые народы обращают внимание на направление влияния образования и мышления, сформировавших в ходе исторического развития высокие способности в определенной области производства. Они имеют свои особенности в национальном характере, отношении к жизни и общественным событиям. Существуют определенные положительные различия в поведении в сфере моральной, правовой и политической культуры. Подобное разнообразие может стать фактором, ускоряющим не только наше благосостояние, но и наше развитие.

Ключевые слова: ценности, интернационал, народ, интернационализм, национальные центры, принципы демократии, исторические корни, общечеловеческие.

Qadriyat tushunchasi nihoyatda xilma-xil ma’noda, turli sohalarda qo‘llaniladi.

Qadriyatning kundalik hayotdagi ma’nosi kishilar o‘rtasidagi muloqotlarda, ommaviy axborot vositalarining xabarlarida o‘ziga xos tarzda namoyon bo‘lmoqda. Kundalik hayotda, ko‘pchilik nazarida narsalar (masalan, qimmatbaho buyumlar, taqinchoqlar), tabiat hodisalari, ijtimoiy voqealar, jamiyatdagi talablar, orzu-umidlar, an’ana va marosimlar, madaniy boyliklar va boshqalar qadriyat sifatida tushuniladi. Bundan tashqari, odamlar o‘zlari ishonib, gohida intilib, qiziqib yoki orzu qilib yashaydigan maqsad, orzu yoki ideallarga ham “qadriyat” tushunchasini qo‘llaydilar. Xullas, kundalik hayotda ko‘pchilik tomonidan qo‘llaniladigan “qadriyat” iborasi, odamlar uchun biror zarur ahamiyat kasb tadigan ob’ekt, narsa, hodisa va boshqalarga nisbatan ishlatiladi.

Qadriyatlar deganda biz narsa va voqealar, jamiyat moddiy va ma’naviy boyliklarning ahamiyatini ifodalash uchun qo‘llaniladigan tushuncha. Milliy-ma’naviy qadriyatlar – “milliylik” “ma’naviyat” va “qadriyat” tushunchalari kesishgan nuqtada jamlashgan ijtimoiy xodisalarni o‘z ichiga oladi. Deylik ayrim millatlar tarixiy taraqqiyot davomida ishlab chiqarishning ma’lum sahasida yuksak layoqatni shakllantirgan tarbiya, tafakkurning ta’siri yo‘nalishiga e’tibor beradi. Milliy xarakterida, hayotga, ijtimoiy hodisalarga munosabatida o‘ziga xosliklari bor. Axloqiy, huquqiy, siyosiy madaniyat sohalaridagi xatti-harakatlarda ham ma’lum ijobiy tafovutlar uchraydi. Bunga o‘xshash rangbaranglik nafaqat boyligimiz, balki taraqqiyotimiz sur’atini tezlashtiruvchi omil bo‘lishi mumkin.

Birinchi Prezidenti I.A.Karimov “Tabiiyki, milliy g‘oyamiz shu yurtda yashayotgan barcha odamlarning olijanob niyatlarini, hayotiy manfaatlarini mujassam etadidigan yurt tinchligi, Vatan ravnaqi, xalq farovonligi degan yuksak tushunchalarni o‘z ichiga oladi” degan fikrni aytib o‘tgan [3,2-46].

Bugun biz tarixiy bir davrda – xalqimiz o‘z oldiga ezgu va ulug‘ maqsadlar qo‘yib, tinch-osoyishta hayot kechirayotgan, avvalambor o‘z kuch va imkoniyatlariga tayanib, demokratik

davlat va fuqarolik jamiyati qurish yo‘lida ulkan natijalarni qo‘lga kiritayotgan bir zamonda yashamoqdamiz.

Biz bugun azaliy qadriyatlarimizga suyanib, shu bilan birga, taraqqiy topgan davlatlar tajribasini hisobga olgan holda, mana shunday olijanob intilishlar bilan yashayotganimiz, xalqimiz asrlar davomida orziqib kutgan ozod, erkin va farovon hayotni barpo etayotganimiz, bu yo‘lda erishayotgan yutuqlarimizni xalqaro hamjamiyat tan olganini bugun hammamiz chuqur anglaymiz.

Ezgu fazilat va intilishlar xalqimizning qon-qoni va suyak-suyagiga singib ketgan. Uning tabiatiga xos bo‘lgan yuksak ma’naviyat necha asrlarki bizni ne-ne balo-qazolardan, to‘fon va bo‘ronlardan sog‘-omon asrab kelmoqda. Har qanday bosqin va istilolarga qaramasdan, har qanday og‘ir va murakkab sharoitda ham ota-bobolarimiz o‘zligini yo‘qotmasdan, ma’naviy hayot mezonlari, odob-axloq qoidalariga amal qilib, komillik sari intilib yashagan.

Har qaysi xalq yoki millatning tafakkuri, turmush tarzi, ma’naviy qarashlari o‘z-o‘zidan, bo‘sh joyda shakllanib qolmaydi. Ularning vujudga kelishi va rivojlanishida aniq tarixiy, tabiiy va ijtimoiy omillar asos bo‘lishini hammamiz yaxshi bilamiz.

Sharq olamida, jumladan, o‘zimizning O‘rta Osiyo sharoitida jamoa bo‘lib yashash tuyg‘usi g‘oyat muhim ahamiyat kasb etadi va odamlarni bir-biriga yaqinlashtirishga, bir-birini qo‘llab-quvvatlab hayot kechirishga zamin tug‘diradi. Shu ma’noda, xalqimizning turmush va tafakkur tarziga nazar tashlaydigan bo‘lsak, boshqalarga hech o‘xshamaydigan, ming yillar davomida shakllangan, nafaqat o‘zaro muomala, balki hayotimizning uzviy bir qismi sifatida namoyon bo‘ladigan bir qator o‘ziga xos xususiyatlarni ko‘ramiz.

Ezgu odatimizga aylanib ketgan mehr-oqibat tushunchasini oladigan bo‘lsak, uning juda teran tarixiy, milliy, diniy ildizlari borligini ko‘rish mumkin. Bu avvalo insonning inson bilan, qo‘shnining qo‘shni bilan, qarindoshning qarindosh, oilaning oila bilan, eng muhimi, shaxsning jamiyat bilan uyg‘un bo‘lib yashashini, yetim-yesir, beva-bechora va nogironlarga, musofirlarga saxovat ko‘rsatish, sidqidildan, beg‘araz yordam berishni anglatadi va bunday xususiyat xalqimizning ma’naviy olamiga singib ketgan.

Qadriyat insonning qon-qoni, suyak-suyagiga yillar davomida ona suti, oila tarbiyasi, ajdodlar o‘giti, Vatan tuyg‘usi, bu hayotning ba’zida achchiq, ba’zida quvonchli saboqlari bilan qatraqatra bo‘lib singib boradi. Ayniqsa, tabiatga, odamlarga yaqinlik, doimo yaxshilikni o‘ylab yashash, halol mehnat qilish, dunyoning tengsiz ne’mat va go‘zalliklaridan bahramand bo‘lish ma’naviyatga oziq beradi, uni yanada kuchaytiradi.

Jahon xalqlari tajribasi, ularning bosib o‘tgan murakkab rivojlanish yo‘llari, bu boradagi saboq va xulosalar shundan dalolat beradiki, qayerda davlat va jamiyat taraqqiy topsa, xalqning tinch-osoyishta hayot kechirishi, o‘z oldiga ezgu va buyuk maqsadlar qo‘yib yashashi uchun yetarli shart-sharoitlar yaratilgan bo‘lsa, o‘sha yerda erkin fikrlash muhiti va shu asosda qadriyatning yuksalishi uchun yangi imkoniyatlar tug‘iladi.

Umuman olganda, insoniyat tarixi ma’naviyat – insonning, xalqning, jamiyat va davlatning buyuk boyligi va kuch-qudrat manbai ekanini, bu hayotda ma’naviyatsiz hech qachon odamiylik va mehr-oqibat, baxt va saodat bo‘lmasligini yaqqol tasdiqlaydi.

O‘ylaymanki, yer yuzida qancha inson, qancha taqdir bo‘lsa, har birining o‘z ma’naviy olami bor. Inson o‘z qadriyatini va ma’naviyatini tushunish, anglash uchun avvalo inson o‘zini tushunishi, o‘zligini anglashi kerak. Shuning uchun ham o‘zligini, insoniy qadr- qimmatini anglab yetgan har qanday odam qadriyatsiz yashashini tasavvur qilish qiyin.

Ota-bobolarimizning asrlar davomida to‘plagan hayotiy tajribasi, diniy, axloqiy, ilmiy, adabiy qarashlarini ifoda etadigan bu kabi tarixiy yodgorliklar orasida bundan qariyb uch ming yil muqaddam Xorazm vohasi hududida yaratilgan, “Avesto” deb atalgan bebaho ma’naviy obida alohida o‘rin tutadi. Avvalambor, shuni aytish joizki, olis ota-bobolarimizning aqlzakovati, qalb qo‘ri mahsuli bo‘lmish bu noyob yodgorlikning zamon to‘fonlaridan, qanchadan-qancha og‘ir sinovlardan o‘tib, bizning davrimizgacha yetib kelganining o‘zida katta ma’no mujassam. Bunday o‘lmas osori atiqalar bu ko‘hna o‘lkada, bugun biz yashab turgan tuproqda qadimdan buyuk madaniyat mavjud bo‘lganidan guvohlik beradi.

Ana shunday tarixiy yodgorlik namunalari bilan yaqindan tanishar ekanmiz, ularda ifoda etilgan teran fikr va g‘oyalar, hayot falsafasi bizni bugun ham hayratda qoldirishiga yana bir karra amin bo‘lamiz.

Misol uchun, “Avesto”ning tub ma’no-mohiyatini belgilab beradigan “Ezgu fikr, ezgu so‘z, ezgu amal” degan tamoyilni oladigan bo‘lsak, unda hozirgi zamon uchun ham behad ibratli bo‘lgan saboqlar borligini ko‘rish mumkin. Ana shunday fikrlar, ya’ni, ezgu niyat, so‘z va ish birligini jamiyat hayotining ustuvor g‘oyasi sifatida talqin etish bizning bugungi ma’naviy ideallarimiz bilan naqadar uzviy bog‘liq, nechog‘liq mustahkam hayotiy asosga ega ekani ayniqsa e’tiborlidir.

“Avesto”da borliqning yaxlitligi va bir butunligi, inson hayotining tabiat bilan uyg‘unligi masalasi odamning ruhiy olamiga chambarchas bog‘liq holda ko‘rsatilgani ko‘p narsani anglatadi. Bu holat insonning ma’naviy dunyosini shakllantirishda atrof-muhit qadim zamonlardan buyon qanday kuchli ta’sir o‘tkazib kelganiga yana bir bor e’tiborimizni jalb qiladi.

Ma’lumki, bu dunyoda har qaysi millatning o‘z afsonaviy qahramonlari, o‘zi sevib ardoqlaydigan pahlavonlari bo‘ladi. Xalqimiz azaldan o‘z vujudi, o‘z tomirida mavjud ilohiy qudratga munosib bo‘lmoqqa intilib, o‘z o‘g‘lonlarini mardlik va halollik, jasurlik ruhida, el-yurt uchun jonini ham ayamaydigan asl pahlavonlar etib tarbiyalab kelgan.

Shu ma’noda, xalq og‘zaki ijodining noyob durdonasi bo‘lmish «Alpomish» dostoni millatimizning o‘zligini namoyon etadigan, avlodlardan avlodlarga o‘tib kelayotgan qahramonlik qo‘shig‘idir. Agarki xalqimizning qadimiy va shonli tarixi tuganmas bir doston bo‘lsa, «Alpomish» ana shu dostonning shoh bayti, desak, to‘g‘ri bo‘ladi. Bu mumtoz asarda tarix to‘fonlaridan, hayot-mamot sinovlaridan omon chiqib, o‘zligini doimo saqlagan el-yurtimizning bag‘rikenglik, matonat, olijanoblik, vafo va sadoqat kabi ezgu fazilatlari o‘z ifodasini topgan.

Shu bois “Alpomish” dostoni bizga vatanparvarlik fazilatlaridan saboq beradi. Odil va haqgo‘y bo‘lishga, o‘z yurtimizni, oilamiz qo‘rg‘onini qo‘riqlashga, do‘stu yorimizni, ornomusimizni, ota-bobolarimizning muqaddas mozorlarini har qanday tajovuzdan himoya qilishga o‘rgatadi.

Bir paytlar, aniqrog‘i, o‘tgan asrning 50-yillarida, milliy merosimizning ko‘pgina namunalari kabi, «Alpomish» dostoni ham millatchilik ruhidagi asar sifatida qoralanib, qatag‘onga uchragan edi. O‘sha og‘ir yillarda fidoyi ziyolilarimiz jasorat ko‘rsatib, uni saqdab qolishga muvaffaq bo‘lganliklarini bugun minnatdorlik bilan eslaymiz.

Bu o‘lmas asarni xalqimiz asrlar davomida yaratgan, o‘z iymon-e’tiqodidek asrab-avaylagan, qancha avlod-ajdodlarimiz “Alpomish” dostoni asosida tarbiya topgan, o‘zligini anglagan, ma’naviy boylikka ega bo‘lgan. Demak, xalqimiz bor ekan, Alpomish siymosi ham barhayotdir.

Zaminimizda turli millat va elat vakillarining yagona oila farzandlaridek yashab kelmoqda. Bunday ahillik, do‘stlik va hamkorlik o‘zining chuqur tarixiy ildizlariga va asosiga ham ega. Adolatli milliy siyosat olib borilganida ko‘p millatlilik maqsadimiz yagonaligini, taqdirimiz birligini, hamjihatlik zarurligini tushunishta yordam beradi, umuminsoniy g‘oyalarning ustuvor bo‘lishini, shaxsiy manfaatlarni to‘g‘ri anglab olishni osonlashtiradi. Aksincha, milliy munosabatlarga ziyraklik va noziklik bilan yondashmaslik umummilliy tamoyillarga biroz e’tiborsizlik ham tinchlik va barqarorlikka salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida ham ushbu masala o‘z ifodasini topgan bo‘lib, Konstitutsiyasining 4-moddasi 2-xat boshida: “O‘zbekiston Respublikasi o‘z hududida istiqomat qiluvchi millat va elatlarning tillari, urf-odatlari va an’analari hurmat qilinishini ta’minlaydi, ularning rivojlanishi uchun sharoit yaratadi” deb belgilangan ana shu bag‘rikenglikning zamonaviy siyosiy-huquqiy ifodasidir [1].

Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov shunday yozadi: “Biz xalqni nomi bilan emas, balki madaniyati, ma’naviyati orqali bilamiz, tarixning tag-tomirigacha nazar tashlaymiz” [4].

Millatlararo hamjihatlik qaror topmasa, tajovuzkor Millatchilik va shovinizmning halokatli g‘oyalari tarqalishi uchun qulay vaziyat yaratiladi. Milliy istiqlol royasining amal qilishiga,

kishilar qalbi va ongiga singdirilishiga jiddiy zarar yetkazadi. Shuni hisobga olib, mamlakatimizda bu muammo ilmiy asosda, xolisona hal qilinmoqda.

Mamlakatimizda statistik ma'lumotlarga ko'ra, 136 millat, elat, xalq va etnik guruhlarning vakillari yashaydi. Ularning har biri o'z milliy madaniy urfodatlari, an'analari, tiliga, konstitusiyaviy huquqiy tenglikka ega. O'zbekistonda bugungi kunda 100 dan ortiq milliymadaniy markaz faoliyat ko'rsatmoqda. Shu yo'nalishda markazlar tuzish bo'yicha 15 ta tashabbuskor guruh ish olib bormoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2022-yil 20-dekabrdagi Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasi shunday yozadi: "**Albatta, erishayotgan barcha yutuqlarimiz, inson qadri ulug' bo'lgan diyor – Yangi O'zbekistonni barpo etish yo'lidagi dastlabki natijalardir"** [5].

Turli millat vakillarining ijodiy tadbirlari, badiiy ko'rgazmalari, bir tomondan, ayni millatning O'zbekiston fuqarosi sifatida o'z o'rni borligini ko'rsatsa, ikkinchi tomondan, shu zaminda yashovchi barcha millatlarning O'zbekiston xalqi-O'zbekiston fuqarosi ekanligani namoyon etuvchi, mustahkamlovchi milliy g'oya atrofida birlashuviga olib boradi.

Ulug' bobokalonimiz Abu Nasr Forobiy ham "Agar fikrlari va harakatlari jamiyat manfaatlariga xizmat qilmaydigan bo'lsa, mamlakatni bunday kishilardan tozalash kerak", degan fikrni bejiz aytmagan. Bashariyat tushunchasi rangorang millatlar va elatlar, shuningdek turli din va irqqa mansub insonlarni o'ziga qamrab oladi. Demak har bir inson bashariyat va ayni vaqtda o'z xalqi, o'z Vatanining farzandi hamdir. Har bir kishida o'z xalqining tili, ruhiyati, an'analari, qadriyatlari barq urib turadi.

E'tibor berilsa, mazkur qoidada milliy hayotga, fuqarolarning milliy histuygulariga daxldor muhym ahamiyatga ega bir qator tamoyillar belgilab qo'yilganiga ishonch hosil qilish mumkin.

Tarixiy tajriba ko'p millatli davlatning barqarorligi millatlararo munosabatlarga daxldor huquq va erkinliklarni to'gri belgilab qo'yish bilan bir qatorda amaliyotda unga qanchalik rioya qilishga ham bog'liqligini ko'rsatadi.

Xususan, millatlararo munosabatlar sohasidagi amaliyot haqida gap ketar ekan, istiqlol yurtimizdagi turli millat va elat vakillariga o'zining tarixiy vatanlari bilan aloqalar o'rnatishga imkon berganini qayd etish lozim. O'rnatilgan aloqalar ona tilini o'qitish va o'rganishni yo'lga qo'yish, turli qo'llanmalar va adabiyotlarni o'z vaqtida olish, yoshlarni ta'lim olish uchun rivojlangan mamlakatlar, ba'zan esa ularning tarixiy vataniga yuborish imkoniyatlarini yaratdi. Shuningdek keng qamrovli madaniyma'rifiy dasturlarni amalga oshirish uchun sharoit yuzaga keldi.

O'zbekiston hozir va bundan keyin ham o'z mustaqilligini himoya qila olishi uchun ko'p millatli o'zbekistonliklarning har bir avlodi milliy istiqlol g'oyalari ruhida tarbiyalab borishi barqarorlik va umummilliy totuvlik va bag'rikevtlikni yanada mustaxdsamlab boradi. Zero, milliy g'oya - barcha o'zbekistonliklarning manfaatlarini ham ifodalovchi g'oyadir.

Respublikada istiqomat qilib turgan 136 millat va elatning har biri o'ziga xos madaniyatga va ko'p asrlik an'analarga ega. O'zbekiston Respublikasi o'tkazayotgan milliy siyosatning eng muhim ustuvor yo'nalishi barcha millatlarning ravnaqi uchun tinch sharoit va imkoniyat yaratish, millatlararo munosabatlarni uygunlashtirishdan iborat. Bu sohada keyingi yillardagi eng katta yutug'imiz umumiy uyimizdagi tinchlik va barqarorlik millatlararo va fuqarolararo totuvlikdir. Odamlarimiz ongida ana shu qadriyat va uning o'zgarmas ahamiyati tushunchasi kun sayin oshib borayotganligidir deyish mumkin.

Bugun O'zbekiston diniy bag'rikenglik (tolerantlik) va millatlararo murosa borasida faqat MDH davlatlariga emas, balki butun dunyoga namuna bo'lmoqda.

Tariximizning har qaysi davrida din doimo odamlarda yaxshi hislatlarni ko'paytirib, yomonlaridan halos bo'lishga chorlagan, yuksak umuminsoniy qadriyatlarga asoslangan. Bugungi kunda ma'naviy va diniy jabhalarda kechayotgan murakkab jarayonda barcha millat va din vakillari bir-birlariga nisbatan hamjihatlik bag`rikenglik va o'zaro hurmat tamoyillariga amal qilishlari doimiy barqarorlikning muhim omillaridan biridir.

So‘nggi yillarda butun dunyo, shu jumladan, mintaqamizda kuchayib borayotgan diniy aqidaparastlik va jangarilik islomning asl mohiyati bo‘lgan bag‘rikenglikka zid bo‘lgaya harakatlarga sabab bo‘lmoqda.

Hozirgi zamonda milliy va diniy bag‘rikenglik dunyoda tinchlik va barqarorlikni asrash hamda diniy ekstremizm, fundamentalizm va aqidaparastlikka qarshi kurashni, butun jahon hamjamiyatining hamKorligini nazarda tutadi. Shu tamoyilga asoslangan O‘zbekiston turli dinlarga mansub qadriyatlarni asrabavaylash, barcha fuqarolar o‘z e’tiqodini amalga oshirishi uchun zarur sharoitlarni yaratib berish, dinlar va millatlararo hamjihatlikni yanada mustahkamlash, ular o‘rtasidagi qadimiy mushtarak an’analarini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratmoqda.

Diniy bagrikenglik ham dinlararo hamda har bir dinning ichidagi turli xil yo‘nalishlar va mazhablarning ezgu g‘oyalarini qadrlash, birbirlarini hurmat qilish asosida amalga oshadi.

Bu milliy g‘oya amal qiladigan ustuvor g‘oyalar sifatida milliy bag‘rikenglik va dinlararo bag‘rikenglikka asoslash turli xalqlar va millatlar o‘rtasida o‘zaro hamjihatlik totuvlikni ta’minlash orqali erkin va farovon hayot qurishga, insonlarning tub hayotiy maqsadlari bilan mushtarakdir. Chunki milliy g`oya «aholining barcha qatlamlarida mafkuraviy, madaniy-ma’rifiy, tarbiyaviy ishlarni izchil ravishda olib borish - bu zamon talabidir. Mafkura har qanday jamiyat hayotida zarur, chunki mafkura bo‘lmasa odam, jamiyat, davlat yo`lini yo`qotishi muqarrar».

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, milliy bagrikenglik - turli milatga mansub kishilarning birbirlarining tilini, dinini, turmush tarzi, urfodati va an’analarini, milliymadaniy merosini hurmat qilishni, ularning sha’ni, qadrqimmatini, ornomusini qadrlash orqali amalga oshadigan o‘ziga xos ma’naviy kenglikni (bagrikenglikni) anglatadi. Milliy bagrikenglik bunga zid bo‘lgan, milliy manfaatga ziyon yetkazish hisobiga ta’minlanmaydi. U turli millat manfaatlarini uygun ko‘rish va ta’minlash asosida mustahkamlanib boradi.

ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. T., O‘zbekiston 2018-yil.
2. Shavkat M.M. “Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz”. T., O‘zbekiston 2017-yil.
3. Karimov I.A “Yuksak ma’naviyat yengilmas kuch” T., Ma’naviyat 2008-yil.
4. Karimov I.A “Tarixiy xotirasiz kelajak yo‘q” T., Sharq 1998-yil
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga Murojaatnomasi, 20.12.2022-y., https://president.uz/oz/lists/view/5774.
6. Mutalipova M.J “Xalq pedagogikasi” T., - “Fan va texnologiya” - 2015

JAMIYATDA BARKAMOL SHAXS TARBIYALASHDA AXLOQIY QADRIYATLARNING DOLZARBLIGI

Karimova Malohatoy Mo’minjonovna
Andijon pedagogika instituti o’qituvchisi
malohatoykarimova2203@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqola orqali jamiyatning resursi hisoblangan insonlarning tarbiyasi va mavjud axloqiy qadriyatlardan samarali foydalanish zamonaviy ta’lim tizimiga axloqiy mezonlarni tatbiq etish zarurati bilan bir qatorda ularning ta’lim muhitidagi samaradorligi, jamiyat rivojiga ta’siri yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Jamiyat, tarbiya, barkamol shaxs, axloqiy qadriyatlar.

Аннотация: В данной статье рассматривается необходимость внедрения этических критериев в современную систему образования, а также их эффективность в образовательной среде и влияние на развитие общества в целях воспитания людей, которые рассматриваются как ресурс общества и эффективно используют существующие этические ценности.

Ключевые слова: Общество, образование, гармоничная личность, этические ценности.

Abstract: This article discusses the need to introduce ethical criteria into the modern education system, as well as their effectiveness in the educational environment and their impact

on the development of society, in order to educate people who are considered a resource of society and effectively use existing ethical values.

Keywords: Society, education, harmonious personality, ethical values.

Jamiyatda ijtimoiylashuv jarayonining globallashuvi Shaxs ijtimoiy munosabatlar jarayonida shakllanishi bejiz emas, chunki ta'lim jarayonida yosh avlodga jamiyatda yashash bilan bog'liq bo'lgan holat va hodisalar o'rgatiladi. Bu jarayonda inson jamiyatga "kirishadi" va u bilan o'zaro munosabatda bo'ladi hamda ma'lum ijtimoiy ko'rinishdagi - bilim, qadriyat, axloqiy qoida, ko'rsatmalarga ega bo'ladilar.

Dastlab globallashuv hamda ijtimoiylashuv tushunchalarining mazmun-mohiyatini anglash lozim. Globallashuv (globalizatsiya) - lotincha globe so'zidan olingan bolib, aynan uni yerning dumaloqlashuvi, kurralashuvi deb tarjima qilish mumkin. Yer sharining, Yer kurrasining fan-texnika yutuqlari tufayli insoniyat ixtiyoridagi xuddi bir butun sharga, kurraga aylanishini tushuntirish uchun ishlatiladi. Globallashuv tushunchasi lug'aviy ma'nosi nuqtai nazaridan fransuz tilida umumiylashuv, lotin tilida esa globus - Yer shari ma'nolarini bildiradi. Demak, globalizm tushunchasi ana shu ikki ma'noda ham bevosita insoniyat hayoti va taqdiri bilan bogliq bolgan katta muammolarni, sayyoraviy, - dunyoviy muammolarni, global taraqqiyot istiqbollarini oziga qamrab oladi. Globallashuv atamasi birinchi bor 1960 yil Giddins tomonidan foydalanilgan[1.25]. Bu atama XX asrning 90-yillarigicha deyarli foydalanilmagan yilga kelib amerikalik sotsiolog R.Robertson «globallashuv» atamasiga tushuncha bergan. Globalizatsiya atamasi birinchi bo'lib iqtisodchi olimlar tomonidan 1981 yildan beri qo'llanilib kelingan. Ammo bu sozning toliq manosi, konsepsiyasi 1990 yilning yarmida amerikalik olim CHarlz Taz Rassel tomonidan to'liq ochib berilgan. Globallashuv atamasi dastlab amerikalik olim T.Levitt tomonidan 1983 yili «Garvard biznes rev'yu» jurnalida chop qilgan maqolasida qo'llangan. T.Levitt yirik transmilliy korporatsiyalar ishlab chiqaradigan turli-tuman mahsulot bozorlarining birlashuv jarayonlarini globallashuv deb atagan. Mazkur ta'rifda globallashuv jarayonining iqtisodiy tamonlariga e'tibor berilgan. O'z davrida frantsuz faylasufi Rene Dekart - tushunchalar ma'nosini aniqlashtiring va bu insoniyatning yarmini adashishdan saqlaydi - deb yozgan edi. [2.25] Globallashuv - turli mamlakatlar iqtisodi, madaniyati, ma'naviyati, odamlari ortasidagi ozaro ta'sir va bog'liqlikning kuchayishidir. Globallashuvga berilgan ta'riflar juda ko'p. Rossiyalik A.Parshev globallashuvga quyidagicha ta'rif beradi: "Aslida, globallashuvning asosiy mazmuni boshqa mamlakatlarda ishlab chiqarilgan mahsulotning qoshimcha qiymatini, dunyodagi asosiy zahiralarini ozlashtirishdan iborat"[3.25]. Globallashuvning mamlakatlar iqtisodiy siyosati va ma'naviyatiga otkazishi mumkin bolgan ijobiy va salbiy ta'siri xususida Hindistonning mashhur davlat arbobi Mahatma Gandining quyidagi so'zlarida yaxshi ifodalangan: «Men uyimning darvoza va eshiklarini doim mahkam berkitib o'tira olmayman, chunki uyimga toza havo kirib turishi kerak. Shu bilan birga, ochilgan eshik va derazalarimdan kirayotgan havo dovul bo'lib uyimni ag'dar-to'ntar qilib tashlashi, o'zimni esa yiqitib yuborishini ham istamayman».

Chunki har qanday jamiyat rivojlanish jarayonida ijtimoiy va axloqiy qadriyatlar, ideallar, axloqiy me'yorlar va qoidalar tizimini ishlab chiqadi, har bir kelajak a'zosi yuqoridagi qoidalarni qabul qilib, o'rganib mazkur jamiyatda yashash, imkoniyatiga ega bo'ladi. Buning uchun jamiyat u yoki bu shaklda shaxsga maqsadga muvofiq ta'sir etadi. Bu ta'sir ta'lim vositasida amalga oshadi. Ijtimoiylashuv uzoq davom etadigan murakkab jarayon.

Jamiyat, axloqiy qadriyatlar va barkamol shaxs tushunchalari o'zaro bog'liq bo'lgan muhim ijtimoiy va psixologik konseptlar bo'lib, Ushbu tushunchalarni chuqurroq o'rganish uchun quyidagi ilmiy ma'lumotlarni keltiramiz:

Jamiyat — bu birgalikda yashovchi va o'zaro aloqada bo'lgan insonlar to'plami. U ijtimoiy tuzilmalar, madaniyat, an'analar va axloqiy qadriyatlar bilan belgilanadi. Jamiyatning asosiy funktsiyalari:

1. Ijtimoiy tashkilot: Insonlar o'rtasidagi aloqalarni va munosabatlarni tartibga solish.

2. Madaniyatni saqlash: O'ziga xos an'analar, urf-odatlar va qadriyatlarni avloddan-avlodga o'tkazish.

3. Ijtimoiy nazorat: Ijtimoiy normativlar va axloqiy me’yorlarni belgilash orqali insonlarning xulq-atvorini tartibga solishdan iborat.

Jamiyatni sog‘lom bo’lishida axloqiy qadriyatlarning muhim o‘rni bo‘lib, axloqiy qadriyatlar — bu jamiyatda qabul qilingan va insonlarning xulq-atvorini belgilovchi me’yorlar, tamoyillar va idealarga asoslangan tushunchalar. Ular quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

Yaxshilik va yomonlik: Insonlarning harakatlarini baholashda asosiy mezonlar.

Adolat: Har bir insonning huquqlari va majburiyatlarini hisobga olinishi.

Samaradorlik: Resurslarni oqilona ishlatish va ijtimoiy manfaatlarni ko‘zlash.

Axloqiy qadriyatlar jamiyatda ijtimoiy barqarorlikni ta’minlaydi va insonlarning o‘zaro munosabatlarini tartibga soladi.

Biz yuqorida ta’kidlaganinmizdek, jamiyatning asosiy resursi inson hisoblanadi. O‘z imkoniyatlarini to‘g‘ri baholaydigan, mas’uliyatli, oila, ijtimoiy muhitda o‘zaro uyg’un tarbiya topgan insonlarni barkamol shaxslar deb atay olamiz.

Barkamol shaxs — bu nafaqat intellektual jihatdan rivojlangan, balki axloqiy va ruhiy jihatdan ham yetuk inson. Barkamol shaxsning asosiy xususiyatlari:

Axloqiy mas’uliyat: O‘z harakatlari uchun javobgarlikni his qilish.

Ijodkorlik: Yangi g’oyalar va yechimlarni ishlab chiqish qobiliyati.

Ijtimoiy faoliyat: Jamiyatda ijtimoiy muammolarni hal qilishda ishtirok etish.

Barkamol shaxsni tarbiyalash jarayonida axloqiy qadriyatlar va jamiyatning ijtimoiy normalari muhim ahamiyatga ega. Bu jarayon oilada, ta’lim muassasalarida va jamiyatda amalga oshiriladi.

Xulosa.

Jamiyat, axloqiy qadriyatlar va barkamol shaxs o‘rtasidagi o‘zaro bog’liqlik ijtimoiy hayotning asosini tashkil etadi. Axloqiy qadriyatlar jamiyatda barkamol shaxslarni tarbiyalashda muhim rol o‘ynaydi, bu esa o‘z navbatida jamiyatning barqarorligini ta’minlaydi. Barkamol shaxs esa jamiyatning rivojlanishiga hissa qo’shadi, axloqiy qadriyatlarni saqlaydi va ularga amal qiladi.

Ikkinchi tomondan, shaxsning shakllanishiga turli g’oyalar, ijtimoiy muhit ta’sir ko‘rsatadi. Odamlar ijtimoiy me’yorlar va axloqiy qoidalar bilan munosabatga kirishadilar va uni o‘rganadilar. Ijtimoiylashuv jarayoni ichki qarama-qarshiliklarga ega. Ijtimoiylashgan inson jamiyat talablariga mos kelishi, unga “kirishib” ketishi, jamiyat rivojlanishidagi salbiy jihatlarga, shaxsning individual rivojlanishiga to’sqinlik qiluvchi hayotiy holatlarga qarshi turishi kerak. Lekin hayotda ba’zan aksi ham bo’ladi: to’liq ijtimoiylashgan, jamiyatga kirishib ketadigan, ammo muhitda ba’zi salbiy holatlarga qarshi kurashishda faollik ko‘rsatmaydigan odamlar ham mavjud. Bu holat ko‘p jihatdan butun jamiyat, tarbiya muassasalari, o’qituvchilar hamda ota-onalarga ham taalluqli. Tarbiyada qarama-qarshilik insonparvarlik g’oyasi yordamidagina bartaraf etilishi mumkin. Zero, ta’lim oluvchilarda estetik boy dunyoqarashni shakllantirish, ularda yuksak ma’naviyat, madaniyat va ijodiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish kabilar muhim ijtimoiy talablar hisoblanadi.

Adabiayotlar ro‘yxati

1.Egamberdieva N. M. Ijtimoiy pedagogika. Darslik.T.2009

2. Mavlonova R. Ijtimoiy predagogika.o‘quv qo‘llanmaT. Istiqlol 2009

3. Галагузова М.А. история сотциалъной педагогики. Ўқув қўлланма М.Владос 2006

“BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARIGA INSON VA TABIAT O‘RTASIDAGI UYG‘UNLIK SABOQLARINI O‘RGATISH (TABIIY FANLAR MISOLIDA)”

Sanobar Abdullayeva Ibadullayevna

Urganch davlat pedagogika instituti o‘qituvchisi

e-mail:abdullayevasanobar41@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu ishda boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga inson va tabiat o‘rtasidagi uyg‘unlik haqida tushuncha berishning usullari, shakllari va tabiiy fanlar darslari orqali bu mavzuni qanday singdirish mumkinligi yoritilgan. Tabiatni asrash, uni qadrlash, ekologik tarbiya berish, kuzatuvlar o‘tkazish va tajribalar orqali bolalarning ekologik ongini shakllantirish

muhimligi asoslab berilgan. Dars jarayonida o‘yinlar, vizual vositalar, guruhli ishlar va amaliy mashg‘ulotlar yordamida o‘quvchilarda tabiatga nisbatan hurmat, mas’uliyat va g‘amxo‘rlik tuyg‘ularini uyg‘otish yo‘llari ko‘rsatib o‘tilgan. Mazkur mavzu orqali o‘quvchilarda sog‘lom turmush tarziga, tabiat bilan uyg‘un yashashga bo‘lgan qiziqish va intilish kuchaytiriladi.

Kalit so‘zlar: Inson va tabiat,uyg‘unlik, ekologik tarbiya, tabiatni asrash, ekologik ong, tabiiy resurslar, sog‘lom turmush tarzi, tabiiy muvozanat.

Abstract: This article describes methods, forms, and how this topic can be instilled in science lessons to give elementary school students an idea of the harmony between man and nature. The importance of nature conservation, its assessment, environmental education, and the formation of children’s ecological consciousness through observations and experiments is substantiated.That article talks about methods, forms, and how this topic can be instilled in science lessons to give elementary school students an idea of the harmony between man and nature. The importance of nature conservation, its assessment, environmental education, and the formation of children's ecological consciousness through observations and experiments is substantiated. During the lesson, through games, visual aids, group work, and practical exercises, ways are shown to foster students’ feelings of respect, responsibility, and concern for nature. Thanks to this topic, students will have an increased interest and desire for a healthy lifestyle, living in harmony with nature.

Keywords: man and nature,harmony, ecological education, nature conservation, ecological awareness, natural resources, healthy lifestyle, natural balance.

Аннотация: В этой статье рассказывается о методах, формах и о том, как эту тему можно привить на уроках естествознания, чтобы дать ученикам начальной школы представление о гармонии между человеком и природой. Обоснована важность сохранения природы, ее оценки, экологического воспитания, формирования экологического сознания детей посредством наблюдений и экспериментов.той статье рассказывается о методах, формах и о том, как эту тему можно привить на уроках естествознания, чтобы дать ученикам начальной школы представление о гармонии между человеком и природой. Обоснована важность сохранения природы, ее оценки, экологического воспитания, формирования экологического сознания детей посредством наблюдений и экспериментов. В ходе урока с помощью игр, наглядных пособий, групповой работы и практических занятий показаны способы воспитания у учащихся чувства уважения, ответственности и заботы о природе. Благодаря данной теме у учащихся будет повышен интерес и стремление к здоровому образу жизни, жизни в гармонии с природой.

Ключевые слова: человек и природа,гармония, экологическое воспитание, сохранение природы, экологическое сознание, природные ресурсы, здоровый образ жизни, природный баланс.

Tabiat — insonning ona beshigi, hayot manbai va tiriklik asosidir. Inson har doim tabiat bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib kelgan. U nafaqat tabiatdan oziq-ovqat, toza havo va suv oladi, balki ruhiy xotirjamlik va go‘zallik tuyg‘usini ham aynan tabiatdan topadi. Shu bois, yosh avlodni tabiatni sevishga, uni asrashga o‘rgatish har bir o‘qituvchining muhim vazifasidir.Boshlang‘ich ta’lim — bolaning dunyoqarashi shakllanishi boshlanadigan poydevor davridir. Aynan shu davrda berilgan saboqlar bolalarning kelajakdagi hayot tarziga, tabiatga bo‘lgan munosabatiga kuchli ta’sir ko‘rsatadi. Tabiiy fanlar darslari esa bu jarayonda yetakchi o‘rin tutadi. Bu darslar orqali o‘quvchilar nafaqat atrof-muhit haqida ma’lumotga ega bo‘ladilar, balki tabiat bilan uyg‘un yashash, uni asrash va muhofaza qilish zarurligini anglay boshlaydilar. Mazkur mavzu doirasida olib borilgan tadqiqot ishlari, asosan, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ekologik ong, tabiatga nisbatan mehr-muhabbat va mas’uliyat tuyg‘usini shakllantirish yo‘llarini aniqlashga qaratilgan. O‘rganilgan ilmiy va amaliy manbalar shuni ko‘rsatadiki, tabiiy fanlar darslari bolalarda tabiat haqidagi bilimlarni chuqurlashtirish, ekologik madaniyatni oshirish va ijtimoiy faol pozitsiyani shakllantirishda muhim vosita hisoblanadi. Tadqiqotlar davomida quyidagi jihatlarga alohida e’tibor qaratildi: Dars jarayonida interfaol metodlardan foydalanish, jumladan guruhli ishlar, rolli o‘yinlar, kuzatish va tajriba asosida o‘rganish orqali o‘quvchilarda tabiatga bo‘lgan qiziqishni oshirish; Real hayotiy misollar va mahalliy ekologik muammolarni o‘rganish orqali o‘quvchilarda

ijtimoiy faollikni shakllantirish; Amaliy faoliyatga asoslangan topshiriqlar (masalan, daraxt ekish, chiqindilarni ajratib yig‘ish, toza havo ahamiyati haqida loyiha ishlari) orqali o‘quvchilarning bilimlarini mustahkamlash; O‘quvchilarning ekologik qarashlarini baholash uchun so‘rovnomalar va testlar o‘tkazish orqali darslarning samaradorligini aniqlash. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, tabiiy fanlar darslarida zamonaviy o‘qitish uslublaridan foydalangan holda bolalarda nafaqat bilim, balki ijtimoiy va axloqiy qadriyatlar – tabiatga nisbatan hurmat, mas’uliyat, g‘amxo‘rlik kabi fazilatlarni shakllantirish mumkin. Shuningdek, ba’zi maktablarda tajriba-sinov tariqasida o‘tkazilgan maxsus ekologik mashg‘ulotlar darslarning qiziqarli va samarali o‘tishiga olib kelgani, o‘quvchilarning faolligi oshgani qayd etildi. Tabiat – insoniyatning bebaho boyligi, hayot manbai hisoblanadi. Insonning sog‘lom yashashi, to‘g‘ri rivojlanishi, ma’naviy kamol topishi tabiat bilan uyg‘un munosabatda bo‘lishiga chambarchas bog‘liq. Shu sababli inson va tabiat o‘rtasidagi uyg‘unlikni bolalikdan o‘rgatish – jamiyat oldidagi eng dolzarb vazifalardan biridir. Ayniqsa, bu saboqlarni boshlang‘ich ta’lim bosqichidan boshlab berish o‘quvchining ekologik dunyoqarashi va mas’uliyatini shakllantirishda muhim o‘rin tutadi. Tabiiy fanlar – bu o‘quvchilarni atrof-muhit, tirik organizmlar, suv, havo, tuproq kabi muhim omillar bilan tanishtiradigan asosiy fanlardan biridir. Bu darslar orqali o‘quvchilar nafaqat bilim oladi, balki o‘z atrofini kuzatadi, fikrlaydi, sabab-oqibat munosabatini tushunadi. Tabiatni o‘rganish orqali o‘quvchilar quyidagi saboqlarni oladilar: Tabiatga g‘amxo‘rlik qilish; Resurslardan oqilona foydalanish; Ekologik muammolarni tan olish va ularga yechim izlash; Hayvonlar va o‘simliklarga nisbatan mehr-muhabbat bilan munosabatda bo‘lish; O‘z yashash muhitiga befarq bo‘lmaslik.

O‘quvchilar bilan qanday ishlash mumkin? Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari bilan quyidagi interfaol va amaliy metodlar orqali inson va tabiat o‘rtasidagi uyg‘unlik saboqlari samarali o‘rgatiladi: **Kuzatuvlar** – o‘quvchilar daraxtlar, qushlar, ob-havo, suv havzalari haqida real hayotdan kuzatuv olib boradi. **Amaliy mashg‘ulotlar** – daraxt ekish, suvni tejash, chiqindilarni ajratish, bog‘ yaratish kabi topshiriqlar orqali o‘rgatish. **Didaktik o‘yinlar** – “To‘g‘ri yoki noto‘g‘ri”, “Tabiatni asraymiz”, “Ekologik yo‘l top” kabi o‘yinlar orqali bilim mustahkamlanadi. **Suhbat va bahs-munozaralar** – “Tabiat bizga nima beradi?”, “Inson tabiatga nima qaytaradi?” kabi savollar orqali fikrlashga undash. **Loyiha ishlari** – o‘quvchilar kichik ekologik loyiha ustida ishlaydi, masalan, maktabda “Toza havo burchagi” tashkil etish. Tabiiy fanlar nafaqat ilmiy tushunchalar beradi, balki ekologik tarbiya, axloqiy qadriyatlar va ijtimoiy mas’uliyat kabi sifatlarni ham singdiradi. Bu darslar o‘quvchilarni mustaqil fikrlashga, qaror qabul qilishga, tabiat oldidagi javobgarligini his qilishga o‘rgatadi. O‘z navbatida, o‘qituvchining yondashuvi, darsni qiziqarli va hayotga bog‘liq o‘tkazishi natijasida bolalar tabiatga nisbatan ongli munosabatni shakllantiradilar. Ushbu mavzu doirasida olib borilgan tadqiqotlar asosida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining tabiatga bo‘lgan munosabati, ekologik bilim darajasi va amaliy ko‘nikmalari o‘rganildi. Tadqiqot quyidagi bosqichlarda tashkil etildi: **Diagnostik bosqich** – o‘quvchilarning dastlabki bilim va tushunchalari aniqlab olinadi; **Amaliy eksperiment bosqichi** – ekologik yo‘naltirilgan darslar, o‘yinlar, loyihalar va kuzatuvlar tashkil etiladi; **Natijaviy tahlil bosqichi** – o‘zgarishlar va erishilgan yutuqlar baholanadi. Bu bosqichlarning natijalari quyidagicha tahlil qilinishi mumkin: O‘quvchilarning ekologik bilim darajasi dastlabki bosqichda 45–50% ni tashkil etgan bo‘lsa, tajriba yakunida bu ko‘rsatkich 80–85% gacha oshishi kuzatilishi mumkin. O‘quvchilarning tabiatga bo‘lgan shaxsiy munosabatida ijobiy o‘zgarishlar kuzatilishi mumkin: o‘z fikrlarini aniq ifoda eta olish, atrof-muhitga ehtiyotkorlik bilan yondashish, axlatni belgilangan joyga tashlash kabi ko‘nikmalar shakllanadi. Guruhli va amaliy ishlar orqali darslarga qiziqish va ishtirok faolligi oshgani kuzatiladi. Ayniqsa, real hayotga bog‘liq mashg‘ulotlar o‘quvchilarda mas’uliyat hissini kuchaytiradi. Ota-onalarning fikriga ko‘ra, bolalarda uyda ham tabiatga mehr, tartib va gigiyenaga e’tibor oshgani kuzatilgan.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, inson va tabiat o‘rtasidagi uyg‘unlikni anglash va saqlash – zamonaviy ta’limning muhim yo‘nalishlaridan biridir. Ayniqsa, bu tushunchalarni boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga erta yoshdan boshlab o‘rgatish, ularning ekologik ongi, axloqiy tarbiyasi va mas’uliyat hissini shakllantirishda katta ahamiyat kasb etadi. Tabiiy fanlar darslari o‘quvchilarni atrof-muhit bilan tanishtirish, tabiat ne’matlarini qadrlash, uni asrash va undan

oqilona foydalanish ko‘nikmalarini shakllantirishda samarali vosita bo‘lib xizmat qiladi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, agar darslar interfaol metodlar, amaliy mashg‘ulotlar va hayotga bog‘liq topshiriqlar asosida tashkil etilsa, o‘quvchilarda nafaqat bilim, balki tabiatga nisbatan ijobiy munosabat va mas’uliyat tuyg‘usi rivojlanadi. Shu boisdan, boshlang‘ich sinflarda inson va tabiat uyg‘unligi mavzusiga alohida e’tibor berish, o‘quvchilarni tabiatga mehr bilan qarashga, uni asrashga o‘rgatish orqali sog‘lom, ekologik madaniyatli avlodni tarbiyalashga xizmat qiladi.

Adabiyotlar:

1.Tabiiy fanlar darsligi. Boshlang‘ich sinf. — Toshkent, 2022.
2.Qayumova, M. Inson va tabiat: ekologik tarbiya asoslari. — Toshkent: O‘zbekiston, 2020.
3.Akbarov, N. Boshlang‘ich sinflarda tabiiy fanlarni o‘qitish metodikasi. — Toshkent, 2019.
4. Abdurahmonova, S. Ekologik madaniyat va ta’lim: boshlang‘ich sinf uchun metodik qo‘llanma. — Toshkent, 2021.
5. Sultonova, Z. Boshlang‘ich sinflar uchun tabiatshunoslik darslari: o‘quv qo‘llanma. — Toshkent, 2022.

INGLIZ TILLI TADQIQOTLARDA ILK O`RTA ASRLAR MARKAZIY OSIYO TARIXINING O`RGANISH BOSQICHLARI

Xolmatov Shukurillo Ziyovidin o`g`li
Farg`ona Davlat Universteti
Tarix fakulteti tayanch doktoranti
alpinisth@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada Arab xalifaligi tomonidan Markaziy Osiyo istilosining o`rganilish boshqichlari haqida va unga bag‘ishlangan ingliz tilida yaratilgan ilmiy adabiyotlar haqidagi ayrim fikr mulohazalar va tahlillar ilgari surilgan. Jumladan, Ser Tomas Arnold,Fred M. Donner, Patrisiya Kroun, C.E. Bosworth kabi tadqiqotchilar asarlarining mazmuni hamda ulardagi e’tiborga molik fikrlar keltirilgan.

Kalit so`zlar: Markaziy Osiyo, Yevropa, Sharq mamlakatlari, Angliya, Arab xalifaligi,Sharqshunoslik ,Ser Tomas Arnold,Fred M. Donner, Patrisiya Kroun, C.E. Bosworth, G‘arbiy Yevropa, Buyuk Britaniya, Ost Indiya,Britaniyalik sharqshunos A.D.

Abstract. This article offers an examination of the stages in the study of the Arab Caliphate’s conquest of Central Asia, along with an analysis of selected English-language scholarly works devoted to the subject. Particular attention is given to the contributions of researchers such as Sir Thomas Arnold, Fred M. Donner, Patricia Crone, and C.E. Bosworth, highlighting the content of their works and the noteworthy perspectives they advance.

Key words: Central Asia, Europe, Eastern countries, England, Arab Caliphate, Orientalism, Sir Thomas Arnold, Fred M. Donner, Patricia Crown, C.E. Bosworth, Western Europe, UK, East Indies,British Orientalist A.D. H. Bivar, Qutayba ibn Muslim

Аннотация. В этой статье предлагается обзор этапов изучения завоевания Центральной Азии Арабским халифатом, а также анализ избранных англоязычных научных работ, посвященных данной теме. Особое внимание уделяется вкладу таких исследователей, как сэр Томас Арнольд, Фред М. Доннер, Патриция Кроун и К.Э. Босворт, подчеркивается содержание их работ и интересные перспективы, которые они выдвигают..

Ключевые слова: Центральная Азия, Европа, Восточные страны, Англия, Арабский халифат, ориентализм, сэр Томас Арнольд, Фред М. Доннер, Патриция Краун, К.Э. Босворт, Западная Европа, Великобритания, Ост-Индия, британский востоковед А. Д. Х. Бивар, Кутайба ибн Муслим

Markaziy Osiyo qadim va o'rta asrlarda sivilizatsiyalar chorrahasi bo‘lib, Xitoyni G'arb bilan bog'lagan muhim savdo va madaniy aloqalar markazi bo‘lgan. Hozirgi O‘zbekiston, Tojikiston, Turkmaniston, Qozog‘iston, Qirg‘iziston va Xitoyning Sintszyan viloyati hududlarini o‘z ichiga olgan ushbu mintaqa, tarix davomida Kambiz, Iskandar Zulqarnayn (Aleksandr Makedonskiy), Temur va ularning vorislari tomonidan zabt etilgan. Bu hududda siyosiy hokimiyat turk xalqlariga tegishli bo‘lsa-da, madaniyat asosan eroniy ta’sirida bo‘lib qolgan. Dastlabki

polyteistik dinlar o‘rniga Zaratushtiylik, Buddizm va Islom kirib kelgan. Savdogarlar afsonaviy ipak yo‘li atrofida savdo imperiyalarini barpo etgan. Sovet Ittifoqi parchalanishidan keyin Markaziy Osiyo xalqlari o‘z meroslarini qayta kashf etishga harakat qilmoqda, bu esa Eron, Xitoy va Hindiston madaniy elementlarining uyg‘unlashganligini ko‘rsatadi.[1]

Ma’lumki, Yevropada o‘rta asrlarning oxirlarida yuzaga kelgan Renessans boshqa sohalar bilan birgalikda sharqshunoslik fanining ham rivojlanishiga, sharq mamlakatlariga bo‘lgan qiziqishlarning oshishiga, undan tashqari, mintaqada yuz bergan sanoat taraqqiyoti siyosiy va iqtisodiy maqsadlarga ko‘ra sharq mamlakatlarini tadqiq etish uchun muhim omil bo‘ldi. Yevropada sharq mamlakatlarini o‘rganishni dastlab fransuzlar boshlagan bo‘lsalar, keyinchalik ingliz va nemislar katta hajmdagi tadqiqot ishlarini olib borib, sharqshunoslikka oid yirik ilmiy manbaga ega bo‘ldilar.

Ilk o‘rta asrlardan boshlab esa Yevropa jamiyatida Sharq mamlakatlariga qiziqish tobora ortib borgan. Markaziy Osiyo tarixi va tarixshunosligi ingliz tilida keng o‘rganilmoqda. Bu mintaqaning boy va rang-barang o‘tmishi ko‘plab ilmiy tadqiqotlarga asos bo‘lgan. Markaziy Osiyo qadimdan Sharq va G‘arbni, Shimol va Janubni bog‘laydigan yo‘llarning kesishuvida joylashgan bo‘lib, strategik ahamiyatga ega hudud hisoblanib kelgan. Shuning uchun jahonning qudratli va buyuk davlatlari, shu jumladan, Yevropa mamlakatlari bu mintaqaning tarixi va madaniyatiga har doim qiziqish bildirib kelgan va haligacha qiziqishda davom etmoqda.

Hozirgi kunga qadar jahon tarixshunosligida va mamlakatimizda Markaziy Osiyo tarixi to‘g‘risida salmoqli ilmiy asarlar yaratilgan. Ushbu tadqiqotlarda Markaziy Osiyo tarixining ayrim jihatlari xususida jiddiy mulohazalar uchraydi.

Sharq davlatlari tarixi to‘g‘risida ma’lumot yozib qoldirgan fransuz orientalistlarining asarlarini Angliyada o‘rganish XVIII asrda avj oldi. Bunga Afrika va Osiyo kabi qit’alarda yer-mulk uchun kurash asosiy omillardan biri bo‘lgan. Ingliz shaqshunoslik maktabi ham davlat siyosatiga monand tarzda sharqning buyuk hukmdorlari faoliyatini haqida tadqiqot olib borishni kuchaytirgan.

Shotlandiyalik olim ser William Muir ingliz sharqshunosligida Arab xalifaligi va Islom tarixiga oid yirik manbalar yaratgan sharqshunos hisoblanadi. Ser Tomas Arnoldning “Xalifalik (1924)” asari, Fred M. Donner — amerikalik mashhur tarixchi va islomshunos bo‘lib, u dastlabki islom tarixi, xalifalik davridagi siyosiy va harbiy jarayonlar bo‘yicha yetuk mutaxassislardan biri hisoblanadi. Donnerning eng muhim asarlaridan biri bo‘lgan *The Early Islamic Conquests* (1981) asari,o`sha davr haqida Patrisiya Kroun o‘zining “Slaves on Horses: The Evolution of the Islamic Polity (1980)”nomli asarida xalifalik tuzilmalarining shakllanishi, markaziy va mahalliy hokimiyat o‘rtasidagi murakkab aloqalari, , Britaniyalik mashhur sharqshunos C.E. Bosworth (1928–2015) “The History of the Saffarids of Sistan and the Maliks of Nimruz”(Seiston Safforiylari va Nimruz maliklari tarixi)(1992) asari, Britaniyalik sharqshunos A. D. H. Bivarning asarlarida arablarning Markaziy Osiyoga bosqini haqida muhim ma'lumotlar keltirilgan.

Ma’lumki, Yevropada o‘rta asrlarning oxirlarida yuzaga kelgan Renessans boshqa sohalar bilan birgalikda sharqshunoslik fanining ham rivojlanishiga, sharq mamlakatlariga bo‘lgan qiziqishlarning oshishiga, undan tashqari, mintaqada yuz bergan sanoat taraqqiyoti siyosiy va iqtisodiy maqsadlarga ko‘ra sharq mamlakatlarini tadqiq etish uchun muhim omil bo‘ldi. Yevropada sharq mamlakatlarini o‘rganishni dastlab fransuzlar boshlagan bo‘lsalar, keyinchalik ingliz va nemislar katta hajmdagi tadqiqot ishlarini olib borib, sharqshunoslikka oid yirik ilmiy manbaga ega bo‘ldilar.

XV-asrning o'rtalarida Mayntsda harakatlanuvchi turdagi bosmaxona ixtirosi keyingi o'n yilliklarda Yevropaning german va roman til sohalarida kitoblarning misli ko'rilmagan tarqalishiga olib keldi.

Sharq davlatlari tarixi to‘g‘risida ma’lumot yozib qoldirgan fransuz orientalistlarining asarlarini Angliyada o‘rganish XVIII asrda avj oldi. Bunga Afrika va Osiyo kabi qit’alarda yer-mulk uchun kurash asosiy omillardan biri bo‘lgan. Ingliz shaqshunoslik maktabi ham davlat siyosatiga monand tarzda sharqning buyuk hukmdorlari faoliyatini haqida tadqiqot olib borishni kuchaytirgan.

Yevropa qit'asida millatlarni, ularning tarixi va madaniyatini o'rganishga qiziqish 18-asrda boshlangan va bir nechta ixtisoslashgan ilmiy tadqiqot markazlari tashkil etilgan. "XVIII asrga kelib rus, arab va g'arbiy Yevropa mualliflarining o'zbeklar, qirg'izlar, qozoqlar, tojiklar va boshqalarga oid asarlari — tarix, etnografiya va boshqa mavzularni qamrab olgan asarlari allaqachon tarjima qilingan edi".[2]

XVIII-asr oxiri, XIX-asr va XX-asr boshlarida sharqshunos atamasi Sharq dunyosining tillari va adabiyotlariga ixtisoslashgan olimni anglatardi. Bunday olimlar orasida amaldorlar ham bor edi Ost India kompaniyasi, Arab madaniyati, Hind madaniyati va Islom madaniyati Evropa madaniyati bilan teng ravishda o'rganilishi kerakligini aytgan.Bunday olimlar orasida filolog ham bor Uilyam Jons tadqiqotlari Hind-Yevropa tillari zamonaviy filologiya asoslarini boshlab berdi.Ost Indiya kompaniyasi qoidasi Sharqshunoslik hindlar bilan ijobiy munosabatlarni rivojlantirish va saqlash vositasi sifatida 1820 yillarga qadar, "anglikistlar" ning ta'siri Tomas Babington Makoley va Jon Styuart Mill G'arb uslubidagi ta'limni targ'ib qilishga olib keldi.[3]

XIX asr oxiri va XX asr boshlarida G‘arbda, xususan Angliya va Fransiyada Sharqshunoslik (Orientalism) ilmiy maktablari shakllandi. Bu maktablar Islom dunyosi, jumladan Markaziy Osiyo bo‘yicha olib borilgan dastlabki tizimli tadqiqotlarning asosi bo‘ldi. Ingliz tilidagi tadqiqotlar asosan arab manbalariga tayangan holda yozilgan bo‘lib, ular ko‘pincha mustamlakachilik ruhidagi yondashuvlarni o‘z ichiga olgan. Bu davr tadqiqotchilari – masalan, E.G. Browne, William Muir, va Hamilton Gibb kabi olimlar – Islom va musulmon tarixiga asosan filologik, sivilizatsion va ba'zan missionerlik nuqtayi nazaridan qaraganlar.[4]

Britaniyadagi musulmon jamoalarining oshishi Markaziy Osiyodagi xalifalik faoliyatiga qiziqishni kuchaytirdi. Olimlar Qutayba ibn Muslim kabi shaxslarning harbiy yurishlari va istilodan keyingi madaniy sintezni o‘rganishni boshladilar. Bu davrda ingliz tilida chop etilgan asarlar, masalan, Ser Tomas Arnoldning “Xalifalik (1924)” asari, xalifalikning ko‘p millatli islomiy tsivilizatsiyani shakllantirishdagi rolini ta’kidladi. Al-Tabariy xronikalarining tarjimalarining mavjudligi ushbu tadqiqotlarni yanada boyitdi va istilolar hamda ularning uzoq muddatli ta’sirlarini batafsil tahlil qilish imkonini berdi.[5]

XX-asrning ikkinchi yarmidan boshlab Markaziy Osiyoga arablar bosqini haqidagi tadqiqotlar bilan Amerikalik olimlar ham tadqiqot olib borishgan.Hususan, Fred M. Donner — amerikalik mashhur tarixchi va islomshunos bo‘lib, u dastlabki islom tarixi, xalifalik davridagi siyosiy va harbiy jarayonlar bo‘yicha yetuk mutaxassislardan biri hisoblanadi. U Chikago universiteti professori bo‘lib, shuningdek, u Harvard va Yale universitetlarida ham dars bergan. Uning ilmiy yondashuvi zamonaviy tarixiy metodologiyaga asoslangan bo‘lib, ayniqsa musulmon jamiyatlarining shakllanishi va ularning siyosiy-madaniy tuzilmalarini manbaviy asosda chuqur tahlil qilishga qaratilgan.

Donnerning eng muhim asarlaridan biri bo‘lgan *The Early Islamic Conquests* (1981) kitobida u musulmonlar tomonidan amalga oshirilgan VII–VIII asrlar istilolarini keng qamrovli tarzda tahlil qiladi. Asarda arab istilolari nafaqat harbiy yurishlar doirasida, balki ularning orqasidagi siyosiy, iqtisodiy va diniy motivlar nuqtayi nazaridan ko‘rib chiqiladi. Muallifga ko‘ra, arab istilolari yagona diniy sabablarga emas, balki xalifalikning moliyaviy barqarorligini saqlab qolish, yangi soliq bazalarini egallash va savdo yo‘llarini nazorat qilish zarurati bilan ham bog‘liq bo‘lgan.

Amerikalik tadqiqotchilardan yana biri Daniyada tug`ilib AQShga ko`chib ketgan Patrisia Kroun hisoblanadi.U zamonaviy g‘arb tarixshunosligining yetakchi vakillaridan biri bo‘lib, u islomiy siyosiy institutlar va ilk musulmon davlatchiligi tarixini o‘rganishda o‘ziga xos, tanqidiy metodologiyasi bilan ajralib turadi. U ayniqsa islom sivilizatsiyasining shakllanish bosqichlari, xalifalik boshqaruvi va arablar tomonidan amalga oshirilgan istilolarni siyosiy-iqtisodiy va ijtimoiy kontekstda izohlagan.[6]

Kroun o‘zining “Slaves on Horses: The Evolution of the Islamic Polity (1980)”nomli asarida xalifalik tuzilmalarining shakllanishi, markaziy va mahalliy hokimiyat o‘rtasidagi murakkab aloqalar, harbiy elitalarning siyosiy rolini keng tahlil qiladi. 18–26-betlarda u xalifalikdagi viloyatlar boshqaruvi va arab istilolari natijasida yuzaga kelgan yangi siyosiy muvozanatlar haqida fikr yuritadi. Garchi bu sahifalarda Markaziy Osiyo haqida bevosita ko‘p misollar keltirilmagan

bo‘lsa-da, Kroun tomonidan ilgari surilgan nazariy g‘oyalar, xususan, markaziy hokimiyatning mahalliy kuchlarga bog‘liqligi, harbiy elitalarning davlat boshqaruvidagi ta’siri, viloyat hokimlari va ularning siyosiy avtonomiyasi masalalari Movarounnahr istilosining mohiyatini chuqur tushunishda juda muhimdir.[7]

XX-asrdan boshlab G‘arbiy Yevropada Arab xalifaligiga oid yo‘nalishidagi ilmiy tadqiqotlarning yanada rivojlanishiga mustamlakachilik siyosati turtki bo‘ldi. Xususan, Buyuk Britaniya sharqshunoslari tomonidan Arab xalifaligiga to‘g‘risida ilmiy mulohazalarni o‘z ichiga qamrab olgan adabiyotlar yaratish kuchaydi.Masalan, Britaniyalik mashhur sharqshunos C.E. Bosworth (1928–2015) islomshunoslik va Eron hamda Markaziy Osiyo tarixiga oid tadqiqotlari bilan tanilgan. U uzoq yillar Birmingham universitetida professor lavozimida ishlagan va nufuzli Encyclopaedia of Islam nashrining ko‘plab maqolalari muallifi hisoblanadi. Uning “The History of the Saffarids of Sistan and the Maliks of Nimruz”(Seiston Safforiylari va Nimruz maliklari tarixi)(1992) nomli fundamental asari arab istilosidan keyingi davrda Eronning janubi-sharqiy qismida (xususan, Seiston va Xuroson atrofida) shakllangan ilk mustaqil mahalliy sulolalardan biri bo‘lgan Safforiylar davlatini tahlil qiladi. Asarning 80–95-betlarida arablar tomonidan joriy etilgan boshqaruv tizimining bu hududda qanday o‘zlashtirilgani, mahalliy elitalar tomonidan qanday qayta talqin qilingani va bu tajribaning keyingi G‘aznaviylar kabi sulolalar tomonidan qanday davom ettirilgani muhokama qilinadi. Bosworth ushbu sulolalarning o‘z hokimiyatlarini qonuniylashtirishda arab–islomiy siyosiy merosdan foydalanganliklarini, lekin mahalliy urf-odatlarni ham saqlab qolishga intilganliklarini ko‘rsatadi.[8]

Bu davrda ingliz tilli taqdqiqotlar soni nihoyatda ko`p edi.Bunga sabab sifatida mustamlakachilik hududlarining katta qismida islomning ta`siri g`oyatda kattaligi sharqshunoslar tomonidan o`rganilishiga sabab bo`ladi.Ya`na bir mashhur olim Britaniyalik sharqshunos A.D. H. Bivar arablarning Markaziy Osiyodagi istilolari tarixiga oid muhim tadqiqotlar muallifidir. Uning “The Arab Conquests in Central Asia”(Markaziy Osiyoga Arab istilosi)(1971) nomli maqolasi VII–VIII asrlarda arab qo‘shinlarining Movarounnahrga qilgan yurishlarini tafsilotli tarzda yoritadi. Bivar o‘z asarida ayniqsa Qutayba ibn Muslimning harbiy strategiyasiga e’tibor qaratadi.Asarning 35–47-betlarida u Sug‘d, Buxoro va Samarqand viloyatlariga qilingan yurishlarni muhokama qiladi. U Qutaybaning yurishlarini nafaqat harbiy g‘alabalar, balki murakkab muzokaralar, mahalliy zodagonlar bilan kelishuvlar va madaniy aloqalar nuqtayi nazaridan tahlil qiladi.[9]

XX asrning boshlari Buyuk Britaniyada Islom madaniyatiga qiziqishning oshgan davri sifatida e’tirof etiladi, bu esa mustamlakachilik munosabatlari, migratsiya va intellektual qiziqishlarning birlashuvi natijasida yuzaga keldi. Britaniyada, ayniqsa Janubiy Osiyo va Yaqin Sharqdan kelgan musulmon jamoalar sonining ko‘payishi, Arab xalifaligining tarixiy va madaniy merosini o‘rganishga bo‘lgan qiziqishni oshirdi.

Xulosa sifatida shunday deyish mumkin: ingliz tilli tadqiqotlarda Markaziy Osiyoning Arab xalifaligi tomonidan istilo qilinishi voqealari nafaqat mintaqa tarixining muhim burilish nuqtasi, balki global tarixiy jarayonlarning ajralmas qismi sifatida talqin etiladi. Ushbu tadqiqotlarda istilo jarayoni harbiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy jihatlari bilan birga, islom sivilizatsiyasining mintaqaga kirib kelishi va uning keyingi taraqqiyotga ta’siri keng yoritiladi. Shuningdek, mualliflar mintaqa xalqlarining qarshiligi, mahalliy boshqaruv tizimlarining moslashuvi hamda arab istilosining uzoq muddatli ijtimoiy-madaniy merosi haqida turli ilmiy yondashuvlarni taqdim etadilar. Natijada, bu mavzu Markaziy Osiyo tarixini o‘rganishda xalqaro ilmiy muloqotning muhim yo‘nalishlaridan biri sifatida o‘z o‘rniga ega bo‘lib qolmoqda. Ingliz tilidagi tadqiqotlar va manbalar tahlili shuni ko‘rsatadiki: Arab xalifaligi istilosi Markaziy Osiyoda nafaqat harbiy yurishlar, balki hududiy siyosiy transformatsiya, dini hamda madaniy asimilatsiya jarayonini boshlab berdi. Bu jarayon bir nechta bosqichdan iborat bo‘lib, dastlabgi kuchli harbiy yurishlar, keyin esa mahalliy elitalarning integratsiyasi, iqtisodiy-ijtimoiy islohotlar orqali islomiy davlat shakllanishiga olib bordi. Talas jangi orqali esa G‘arb bilan Sharq hukmronlik uchun birinchi marta to‘qnashgan va Markaziy Osiyo tarixining muhim burilishini bildirgan.

Shunday qilib, Arab xalifaligi istilosi regionda yangi siyosiy, dini va madaniy tuzumning shakllanishiga zamin yaratdi, bu esa Samanidlar davrida o‘zining eng yuqori cho‘qqisiga yetdi.

Ayniqsa ser William Muir,ser Tomas Arnold, Fred M. Donner, Patrisiya Kroun, C.E. Bosworth va A.D.H. Bivar kabi tadqiqotchilar ning asarlarida ushbu masala arab, fors va xitoy tilli manbalar asosida jiddiy tahlil qilinadi hamda ilmiy xulosalar beriladi.

Yevropa, Rossiya va arab olimlarining izlanishlarida Markaziy Osiyo,arablar uchun nafaqat geosiyosiy, balki mafkuraviy qulay hudud sifatida ham talqin etiladi. Bu munosabatlar musulmon olamining shimoliy chegaralarida Islomning yoyilish jarayoni va unga bo‘lgan mahalliy qarshilik kontekstida o‘rganiladi.

Xorijiy adabiyotlarda bu davr hodisalari ko‘plab manba va uslublar asosida yoritilgan bo‘lib, ular asosida Markaziy Osiyoni arablar tomonidan bosib olinishi emas, balki murakkab diplomatik, madaniy va iqtisodiy aloqalar tizimi sifatida ham ko‘rilmoqda. Shunday qilib, bu munosabatlar tarixini chuqur va ko‘p qirrali tahlil qilish, Markaziy Osiyo tarixini global kontekstda to‘g‘ri anglashga xizmat qiladi. Mazkur tadqiqot ishida Buyuk Britaniyada Markaziy Osiyoni o‘rganish bilan shug‘ullanuvchi tadqiqot muassasalari hamda mintaqaga oid tadqiqot materiaalarini chop etuvchi nashriyotlar faoliyati yoritiladi. Geografik va strategik muhim nuqtada joylashgan mamlakat manfaati nuqtai-nazaridan qaraganda, mintaqani turli tomonlama o‘rganayotgan va tadqiq qilayotgan muassasalarning faoliyatini o‘rganish mavzuning dolzarb tomonlaridan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. The Heritage of Central Asia: From Antiquity to the Turkish Expansion - Richard N. Frye 1998
2. Masaliyeva O. XX asr ingliz-amerika tarixshunosligida Buxoro, Xiva va Qo‘qon xonliklari tarixi. Tarix fanlari nomzodi i. d. ... diss. – T., 1999. 16-b
3. Macfie, A. L. (2002). Orientalism. London: Longman. P 1-2
4. https://en.wikipedia.org/wiki/Orientalism
5. Arnold, Thomas. The Caliphate. Oxford University Press, 1924
6. https://ru.wikipedia.org/wiki/Кроун,_Патрисия
7. Crone, Slaves on Horses: The Evolution of the Islamic Polity 1980, pp. 18–26
8. Bosworth, The History of the Saffarids of Sistan and the Maliks of Nimruz 1992, p. 84
9. Bivar,The Arab Conquests in Central Asia 1971, p. 39

IBN SINO MEROSINING YOSHLAR TA’LIM-TARBIYASIDAGI O‘RNI

Rahmatov Abdulaziz Baxtiyor o‘g‘li
Shahrisabz davlat pedagogika instituti talabasi
rahmatovabdulaziz@mail.ru

Annotatsiya Mazkur maqolada Sharq uyg‘onish davrining buyuk allomasi Abu Ali ibn Sinoning (980–1037) ta’lim va tarbiya haqidagi qarashlari tahlil qilinadi. Unda olimning ilm va aqlning ustuvorligi, bosqichma-bosqich ta’lim metodikasi, ustoz shaxsining o‘quvchi kamolotiga ta’siri hamda axloqiy va jismoniy tarbiyaning o‘zaro bog‘liqligi yoritilgan. Ibn Sino asarlarida ilgari surilgan g‘oyalar zamonaviy ta’lim tizimining falsafiy va metodologik asoslarini mustahkamlashda muhim o‘rin tutadi. Shuningdek, maqolada olim merosining Yevropa pedagogik fikriga ko‘rsatgan ta’siri hamda komil inson konsepsiyasining bugungi pedagogika bilan uzviy aloqadorligi ilmiy asosda ko‘rsatib berilgan.

Kalit so‘zlar: Ibn Sino, ta’lim, tarbiya, aql, ilm, ustoz shaxsi, axloq, komil inson, pedagogika, sog‘lom turmush tarzi.

Annotation This article analyzes the views of the great scholar of the Eastern Renaissance, Abu Ali Ibn Sina (980–1037), on education and upbringing. It highlights the philosopher’s emphasis on the supremacy of intellect and knowledge, the step-by-step teaching methodology, the teacher’s role in the moral and intellectual development of students, as well as the interrelation between ethical and physical education. The ideas expressed in Ibn Sina’s works serve as an important foundation for strengthening the philosophical and methodological bases of modern

education. Moreover, the article scientifically substantiates the influence of his legacy on European pedagogical thought and reveals the connection between Ibn Sina's concept of a perfect person and contemporary pedagogy.

Keywords: Ibn Sina, education, upbringing, intellect, knowledge, teacher's personality, morality, perfect person, pedagogy, healthy lifestyle.

Аннотация В данной статье анализируются взгляды великого мыслителя эпохи Восточного Возрождения Абу Али ибн Сины (980–1037) на вопросы образования и воспитания. Освещается приоритет разума и знаний в его учении, методика поэтапного обучения, влияние личности учителя на формирование учащегося, а также взаимосвязь нравственного и физического воспитания. Идеи, изложенные в трудах Ибн Сины, играют важную роль в укреплении философских и методологических основ современной системы образования. Кроме того, в статье раскрывается влияние наследия ученого на европейскую педагогическую мысль и научно обосновывается взаимосвязь концепции совершенного человека Ибн Сины с современными педагогическими принципами.

Ключевые слова: Ибн Сина, образование, воспитание, разум, знание, личность учителя, нравственность, совершенный человек, педагогика, здоровый образ жизни.

Sharq uyg‘onish davri inson tafakkurining eng yuksak cho‘qqilaridan biridir. Bu davrda ilm-fan, falsafa, tibbiyot, mantiq va adabiyot yangi taraqqiyot bosqichiga ko‘tarildi. Aynan shu davrda yetishib chiqqan buyuk allomalar ichida Abu Ali ibn Sino alohida o‘rin tutadi. U o‘z davrining eng bilimdon, keng tafakkurli, ko‘p qirrali olimi bo‘lib, tibbiyot, falsafa, mantiq, adabiyot va pedagogika sohalarida jahon ilmiga beqiyos hissa qo‘shgan.

Ibn Sino nafaqat tabobat ilmining asoschisi, balki inson kamoloti, ta’lim va tarbiya nazariyasining chuqur tahlilchisi sifatida ham mashhurdir. Uning ilmiy-falsafiy qarashlarida insonni komillikka yetaklovchi uch asosiy yo‘nalish – ilm, aql va axloq bir butun tizim sifatida namoyon bo‘ladi. Shu sababli ham Ibn Sinoning ta’limga doir qarashlari bugungi kunda ham o‘z dolzarbligini yo‘qotmagan.

O‘zbekiston ta’lim tizimida yoshlarni ma’naviy barkamol, aqliy jihatdan yetuk, jismoniy sog‘lom shaxslar etib tarbiyalashda Ibn Sino merosi bebaho manba, nazariy asos va amaliy yo‘nalish sifatida katta ahamiyat kasb etadi.

Ushbu maqolada buyuk mutafakkir, tibbiyot ilmida ulkan yangilik va o‘zgarishlarni amalga oshirgan Abu Ali ibn Sinoning (980–1037) ta’lim va tarbiya haqidagi qarashlari tahlil qilingan. Unda olimning aql-zakovati, ta’lim-tarbiyadagi islohotlari, bosqichma-bosqich ta’lim metodlari hamda ustoz shaxsining o‘quvchiga ta’siri haqida so‘z yuritiladi. Shuningdek, Ibn Sino asarlarining o‘rta asrlardan to hozirgacha bo‘lgan ta’siri, ularning zamonaviy ta’lim va pedagogika tizimidagi dolzarbligi va amaliy ahamiyati keng yoritilgan. Maqola tarix, falsafa va pedagogika sohalarini boyituvchi ilmiy manba sifatida katta qimmatga ega.

X asrda, ya’ni Sharq uyg‘onish davrida yashab ijod qilgan buyuk mutafakkir Abu Ali ibn Sino o‘z davrining eng yirik ensiklopedik olimlaridan biri edi. U nafaqat tabobat ilmining asoschisi, balki falsafa, tarix, mantiq, matematika, adabiyotshunoslik va pedagogika fanlarining rivojiga ham ulkan hissa qo‘shgan. Ibn Sino o‘z davrida “Shayx ur-rais” – “ustozlar ustozi” degan yuksak unvonga sazovor bo‘lgan. Bugungi kunda ta’lim tizimini rivojlantirish, yoshlarni intellektual, barkamol va ma’naviyati boy insonlar etib tarbiyalashda Ibn Sinoning qarashlari muhim metodologik asos bo‘lib xizmat qilmoqda.

U ilm va aqlning ustuvorligini shunday ta’riflaydi:

“Insonning komilligi uning bilimga chanqoqligi va aql-idrokiga bog‘liq” [2,62].

Ya’ni inson komil shaxs darajasiga yetishishi uchun doimo ilmga chanqoq, izlanuvchan va yuksak aql egasi bo‘lishi zarur. Ibn Sino ilmni “insonni hayvondan ajratib turuvchi eng oliy ne’mat” deb ta’kidlaydi [2,62]. Bu fikrdan kelib chiqadiki, insonni boshqa mavjudotlardan ajratib turuvchi asosiy farq – bu bilimdir. Inson aynan bilim orqali mehnat qiladi, jamiyatda o‘z o‘rnini topadi, sog‘lig‘iga e’tibor beradi.

Olimning “Donishnoma” asarida:

“Ilmni egallamagan kishi zulmatda qoladi, ilm esa uni nurga eltadi,” — deb yoziladi [2,45]

Bu so‘zlar inson hayotining mazmunini ochib beradi: ilmga intilmagan, izlanmagan odam jaholat zulmatida qoladi; ilmli, o‘qimishli inson esa o‘z hayotini nur bilan to‘ldiradi. Shu ma’noda, Ibn Sino ilmni insonni muvaffaqiyat va nurga yetaklovchi yo‘l sifatida talqin qiladi.

Ibn Sino ilgari surgan muhim pedagogik tamoyillardan biri — bosqichma-bosqich ta’lim metodidir. U yoshlarning qobiliyati va tafakkur darajasini inobatga olib, murakkab masalalarni oson mavzulardan boshlab o‘rgatishni taklif etgan. Bunday bosqichma-bosqichlik prinsipi bugungi ta’lim tizimida ham keng qo‘llanilib, o‘z samaradorligini isbotlamoqda.

Mutafakkir ta’limning axloqiy jihatlariga ham katta e’tibor qaratadi. Uning fikricha, agar axloqiy tarbiya bo‘lmasa, o‘rganilgan bilim zararli qurolga aylanishi mumkin. Shu bois Ibn Sino yoshlarni rostgo‘ylik, mehnatsevarlik, sabr, saxiylik va halollik ruhida tarbiyalashni muhim deb bilgan.

Ibn Sino jismoniy tarbiya va sog‘liqni saqlash masalalariga ham alohida e’tibor qaratgan. Uning eng mashhur asari — “Al-Qonun fit-tibb” sog‘lom turmush tarzi, gigiyena, to‘g‘ri ovqatlanish va jismoniy faollikning ahamiyatiga bag‘ishlangan. Olimning fikricha, har qanday ilmiy faoliyat sog‘lom tana bilan uyg‘unlikda bo‘lishi lozim.

Ustoz shaxsiga oid fikrlari ham bugungi pedagogika uchun g‘oyat muhim. Ibn Sino yozadi: “Ta’lim jarayonida ustozning shaxsiy fazilatlari juda muhim. Ustoz bilimli, adolatli va axloqan pok bo‘lishi kerak, chunki u o‘quvchi uchun eng yaqin namuna hisoblanadi. Ustozning nutqi, odobi va muomalasi bevosita tarbiya vositasidir”. [5,40]

Darhaqiqat, o‘quvchi ustozning har bir so‘zidan, harakatidan o‘rnak oladi. Shu bois xalq orasida bejiz “Ustoz otandek ulug‘” degan maqol aytilmagan.

Ibn Sinoning asarlari XII asrdan boshlab lotin tiliga tarjima qilingan va Yevropa universitetlarida ko‘p asrlar davomida darslik sifatida o‘qitilgan. Uning “Qonun” nomli asari XVII asrgacha Yevropa tibbiyot fakultetlarida asosiy qo‘llanma sifatida xizmat qilgan.

Bugungi kunda Ibn Sino g‘oyalari “komil inson” konsepsiyasining — ya’ni bilim, axloq va sog‘lom turmush tarzining uyg‘unligini targ‘ib etuvchi nazariy poydevor sifatida e’tirof etilmoqda [6,64]. Uning ilmiy-falsafiy merosi shaxs kamoloti, ta’lim va tarbiya jarayonida ilm-aqlning ustuvorligini, inson salomatligi va axloqiy barkamolligi o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni chuqur yoritadi [4,112]. Ibn Sino ilgari surgan “komil inson” g‘oyasi nafaqat o‘z davrining falsafiy mezoni, balki bugungi kunda ham ta’lim-tarbiya tizimining asosiy g‘oyaviy tamoyillaridan biri bo‘lib xizmat qilmoqda.

Mutafakkirning bosqichma-bosqich ta’lim metodlari bugungi pedagogik amaliyotda o‘quv jarayonini individuallashtirish, o‘quvchining yosh va psixologik xususiyatlarini inobatga olish, murakkab mavzularni asta-sekin o‘zlashtirish tamoyillarini shakllantirishda beqiyos ahamiyat kasb etmoqda Bu metod orqali o‘qitish jarayoni tabiiylik, izchillik va tushunarlilik asosida quriladi. Shu bois, Ibn Sino ilgari surgan ta’lim falsafasi zamonaviy didaktika va metodikaning eng muhim nazariy poydevorlaridan biri sifatida e’tirof etiladi [5,97].

Bundan tashqari, uning axloqiy tarbiya haqidagi qarashlari yosh avlodni barkamol inson sifatida voyaga yetkazishning ma’naviy-ruhiy negizini belgilab beradi. Ibn Sino fikricha, bilim axloq bilan uyg‘unlashmaguncha, haqiqiy ma’rifat yuzaga kelmaydi. Shu bois, u har qanday bilimni insonparvarlik, halollik, sabr-toqat va adolat mezonlari asosida qo‘llashni ta’kidlagan. Bu g‘oya zamonaviy ta’limda shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvning, ayniqsa axloqiy-tarbiyaviy ishlarning falsafiy asosini tashkil etadi.

Ibn Sinoning sog‘lom turmush tarziga oid tavsiyalari esa jismoniy tarbiya va psixologik barqarorlikni inson kamolotining ajralmas qismi sifatida talqin etadi. U inson sog‘lig‘ini faqat tibbiy holat emas, balki ma’naviy va aqliy muvozanatning ifodasi sifatida ko‘radi. “Al-Qonun fit-tibb” asarida ilgari surilgan gigiyena, to‘g‘ri ovqatlanish, dam olish va mehnat uyg‘unligi haqidagi fikrlar bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan [1,239]. Zamonaviy pedagogika bu qarashlarni sog‘lom turmush madaniyatini shakllantirishda samarali qo‘llamoqda.

Shuningdek, olimning ustoz shaxsiga oid fikrlari bugungi pedagogik nazariyada o‘z dolzarbligini saqlab qolmoqda. Ibn Sino fikricha, ustoz — bu nafaqat bilim manbai, balki o‘quvchi uchun axloqiy namuna, ruhiy yetakchi va hayot yo‘lboshchisidir. Uning “ustozning nutqi, odobi

va muomalasi bevosita tarbiya vositasidir” degan g‘oyasi bugungi kunda ham pedagogik etika va kasbiy madaniyat tamoyillarining nazariy asosini tashkil etadi.

Xulosa qilib aytganda, Abu Ali ibn Sino yoshlar ta’limi va tarbiyasi masalasida o‘z davri uchun ham, hozirgi zamon uchun ham bebaho g‘oyalarni ilgari surgan. Uning pedagogik qarashlari insonni ilm, axloq va sog‘lomlik orqali kamolga yetaklashga qaratilgan bo‘lib, zamonaviy ta’lim tizimini rivojlantirishda mustahkam nazariy va metodologik asos vazifasini bajaradi. Ibn Sino merosidan foydalanish yoshlarning ilmiy dunyoqarashini kengaytirish, ma’naviy-axloqiy barkamolligini mustahkamlash, ularni hayotiy mas’uliyat va ezgu niyat ruhida tarbiyalashda g‘oyat muhim ahamiyatga ega.

Bugungi O‘zbekiston ta’lim tizimida Ibn Sinoning ta’lim-tarbiya haqidagi qarashlaridan foydalanish — “Yangi O‘zbekiston” g‘oyasiga, intellektual salohiyatli va ma’naviy yetuk avlodni voyaga yetkazish maqsadlariga xizmat qiladi. Shu sababli, Ibn Sino merosi nafaqat o‘tmish madaniyatining ifodasi, balki kelajak ta’limi uchun ham yo‘l ko‘rsatuvchi ilmiy-ma’naviy manba sifatida qadrlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ибн Сино. Al-qonun fi’t-tibb. – Qohira: 1025. – 312 b.
2. Ибн Сино. Donishnoma. – Dushanbe: 1020. – 180 b.
3. Jumayeva N.A. Sharq allomalarining ilmiy merosi [Matn] : o‘quv qo‘llanma. – Buxoro: “Durdona”, 2020. – 228 b.
4. To‘xtaboyev S. Sharq mutafakkirlarining pedagogik qarashlari. – Toshkent: O‘qituvchi, 2015. – 220 b.
5. Shodiev A. O‘zbekiston pedagogika tarixi. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2018. – 248 b.
6. Rahmonov B. Ibn Sino va zamonaviy ta’lim. – Buxoro: BuxDU nashriyoti, 2022. – 156 b.

INFLYATSIYA VA UNING IJTIMOIY-IQTISODIY OQIBATLARI

Ismoilova Xayitxon Maxammadjonovna
Qo‘qon universiteti, Andijon filiali katta o‘qituvchisi
Iskandarova Zahroxon
Qo‘qon universiteti Andijon filiali talabasi
iskandarovam087@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada inflyatsiya tushunchasi, uning kelib chiqish sabablari, turlari hamda ijtimoiy va iqtisodiy oqibatlari chuqur tahlil qilinadi. Inflyatsiya — bu mamlakatdagi narxlar darajasining doimiy oshishi natijasida pul birligining qadrsizlanishidir. Ushbu jarayon iqtisodiyotning barcha sohalariga, jumladan, aholi daromadlari, investitsiya muhiti va davlat byudjeti barqarorligiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Maqolada talab va taklif inflyatsiyasi, import inflyatsiyasi hamda struktur inflyatsiya kabi shakllar tahlil qilinadi. O‘zbekiston iqtisodiyotida inflyatsiya jarayonlariga sabab bo‘luvchi omillar va ularni jilovlash yo‘llari amaliy misollar asosida yoritiladi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, inflyatsiyani boshqarishda pul-kredit siyosati, ishlab chiqarish hajmini oshirish va bozor raqobatini kuchaytirish muhim ahamiyat kasb etadi. Maqola yakunida inflyatsiyaning ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikka ta’siri hamda uni kamaytirish bo‘yicha tavsiyalar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: Inflyatsiya, monetar siyosat, narx darajasi, real daromad, talab inflyatsiyasi, taklif inflyatsiyasi, deflyatsiya, pul emissiyasi, iqtisodiy barqarorlik, Markaziy bank.

Аннотация: В статье представлен глубокий анализ понятия инфляции, её причин, видов и социально-экономических последствий. Инфляция – это обесценивание национальной валюты в результате постоянного роста уровня цен в стране. Этот процесс оказывает существенное влияние на все секторы экономики, включая доходы населения, инвестиционный климат и стабильность государственного бюджета. В статье анализируются такие её формы, как инфляция спроса и предложения, импортная инфляция и структурная инфляция. На практических примерах рассматриваются факторы,

обуславливающие инфляционные процессы в экономике Узбекистана, и пути их сдерживания. Результаты исследования показывают, что денежно-кредитная политика, увеличение объёмов производства и усиление рыночной конкуренции играют важную роль в управлении инфляцией. В конце статьи рассматривается влияние инфляции на социально-экономическую стабильность и представлены рекомендации по её снижению.

Ключевые слова: Инфляция, денежно-кредитная политика, уровень цен, реальные доходы, инфляция спроса, инфляция предложения, дефляция, денежная эмиссия, экономическая стабильность, Центральный банк.

Abstract: This article provides an in-depth analysis of the concept of inflation, its causes, types, and social and economic consequences. Inflation is the depreciation of a currency as a result of a constant increase in the price level in a country. This process has a significant impact on all sectors of the economy, including population incomes, the investment climate, and the stability of the state budget. The article analyzes such forms as demand-pull inflation, import inflation, and structural inflation. The factors causing inflation processes in the economy of Uzbekistan and ways to curb them are highlighted on the basis of practical examples. The results of the study show that monetary policy, increasing production volumes and strengthening market competition play an important role in managing inflation. The article concludes with the impact of inflation on socio-economic stability and recommendations for its reduction.

Key words: Inflation, monetary policy, price level, real income, demand-pull inflation, supply-pull inflation, deflation, money emission, economic stability, Central Bank.

Inflyatsiya — bu har qanday iqtisodiyot uchun eng muhim makroiqtisodiy muammolardan biridir. Uning yuqori darajada bo‘lishi iqtisodiy beqarorlik, aholining turmush darajasi pasayishi va ishlab chiqarish samaradorligining kamayishiga olib keladi. Shuning uchun davlatning iqtisodiy siyosatida inflyatsiyani boshqarish va uni maqbul darajada ushlab turish eng asosiy maqsadlardan biri hisoblanadi.

O‘zbekiston iqtisodiyotida ham so‘nggi yillarda bozor mexanizmlarining rivojlanishi, valyuta bozorining erkinlashtirilishi va narxlarni bosqichma-bosqich bozor talablari asosida shakllantirish natijasida inflyatsion bosim sezildi. Shu sababli Markaziy bank tomonidan qat’iy monetar siyosat yuritilmoqda, asosiy foiz stavkasi inflyatsiya kutilmalariga mos ravishda belgilanmoqda. Ushbu maqolada inflyatsiyaning nazariy mohiyati, sabablari, turlari va ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlari chuqur tahlil qilinib, O‘zbekiston sharoitida uni boshqarish strategiyalari yoritilgan.

Inflyatsiya nazariyasi ilk bor J. M. Keyns asarlarida chuqur tahlil qilingan bo‘lib, u inflyatsiyani talabning ortiqcha o‘sishi bilan bog‘lagan. M. Fridman esa uni “pul hodisasi” sifatida izohlagan va pul massasining ortishi asosiy sabab ekanini ta’kidlagan. P. Samuelson, P. Krugman va boshqalar esa inflyatsiyani bozorning ichki muvozanatidan chetga chiqish sifatida ko‘rsatadilar. Mahalliy olimlardan Q. Alimov, B. Shukurov va A. Abdurahmonovlar O‘zbekiston iqtisodiyotida inflyatsiyaning manbai sifatida energiya resurslari, import narxlarining oshishi va ishlab chiqarish xarajatlarining ko‘payishini alohida ta’kidlaydilar. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, inflyatsiyani jilovlashda pul-kredit siyosati bilan bir qatorda ishlab chiqarish salohiyatini kengaytirish ham muhim rol o‘ynaydi.

Inflyatsiya — bu iqtisodiy tizimdagi narxlarning umumiy darajasining uzluksiz o‘sib borishi natijasida pulning qadrsizlanish jarayonidir. U turli shakllarda va sabablarga ko‘ra yuzaga keladi.

Inflyatsiyaning asosiy turlari:

1. Talab inflyatsiyasi – aholining tovar va xizmatlarga bo‘lgan umumiy talabi ishlab chiqarish hajmidan ortib ketganda sodir bo‘ladi.
2. Taklif inflyatsiyasi – ishlab chiqarish xarajatlarining (energiya, xomashyo, ish haqi va transport) ortishi natijasida narxlarning ko‘tarilishi.
3. Import inflyatsiyasi – tashqi bozorlardagi narxlarning oshishi yoki milliy valyutaning qadrsizlanishi sababli yuz beradi.

4. Struktur inflyatsiya – iqtisodiyotdagi nomutanosibliklar va resurslarning samarasiz taqsimlanishi natijasida kelib chiqadi.

Inflyatsiyaning asosiy sabablari – pul massasining ortishi, byudjet taqchilligi, soliq yukining oshishi, ishlab chiqarishning sekin o‘sishi va tashqi savdo disbalansidir.

Inflyatsiya iqtisodiyotga ikki tomonlama ta’sir ko‘rsatadi. Past darajadagi inflyatsiya iqtisodiy o‘sishni rag‘batlantirishi mumkin, chunki u ishlab chiqaruvchilarni faol bo‘lishga undaydi. Ammo yuqori inflyatsiya iqtisodiy beqarorlik, jamg‘armalarning kamayishi, investitsiya oqimining pasayishi va aholining real daromadlarining qisqarishiga olib keladi.

Ijtimoiy oqibatlar:

- real daromadlar pasayadi;
- kambag‘allik kuchayadi;
- sobit daromadli qatlam (byudjet xodimlari, pensiya oluvchilar) zarar ko‘radi;
- jamiyatda ijtimoiy tengsizlik kuchayadi.

Iqtisodiy oqibatlar:

- ishlab chiqarish xarajatlari ortadi;
- eksport raqobatbardoshligi pasayadi;
- investitsiya muhiti beqarorlashadi;
- milliy valyuta qadrsizlanadi.

O‘zbekiston Respublikasida inflyatsiyani nazorat qilish uchun Markaziy bank asosiy foiz stavkasini belgilash, pul massasini tartibga solish va valyuta bozorini barqarorlashtirish choralarini amalga oshirmoqda. 2020–2024-yillar oralig‘ida inflyatsiya darajasi 15 foizdan 9 foizgacha pasaygani kuzatildi.

Inflyatsiyani jilovlash uchun ishlab chiqarish hajmini kengaytirish, eksportni ko‘paytirish, energiya tejamkor texnologiyalarni joriy etish, shuningdek, davlat xarajatlarini optimallashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Ushbu tadqiqotda iqtisodiy tahlil, statistik kuzatish, dinamik qatorlar va taqqoslama usullari qo‘llanildi. O‘zbekiston Markaziy banki, Davlat statistika qo‘mitasi va Xalqaro valyuta jamg‘armasi (IMF) ma’lumotlari asosida 2018–2024-yillar oralig‘idagi inflyatsiya ko‘rsatkichlari tahlil qilindi. Ma’lumotlarga ko‘ra, pul massasi o‘sish sur’ati bilan inflyatsiya darajasi o‘rtasida to‘g‘ridan-to‘g‘ri bog‘liqlik mavjud. Shuningdek, ishlab chiqarish xarajatlarining 10 foizga ortishi natijasida inflyatsiya o‘rtacha 4–5 foizga oshgan. Natijalar inflyatsiyani nazorat qilish uchun ishlab chiqarish hajmini ko‘paytirish va byudjet taqchilligini kamaytirish zarurligini ko‘rsatdi.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, inflyatsiya iqtisodiyotda asosan ishlab chiqarish hajmining yetarli emasligi, import narxlarining o‘sishi va pul massasining tez kengayishi bilan bog‘liq. Inflyatsiya darajasi oshganda aholining real daromadlari pasayadi, investitsion muhit zaiflashadi va milliy valyuta qadrsizlanadi. O‘zbekiston sharoitida Markaziy bankning qat’iy monetar siyosati va ishlab chiqarishni rag‘batlantiruvchi dasturlari inflyatsiyani barqarorlashtirishda muhim rol o‘ynamoqda.

Xulosa qilib aytganda, inflyatsiya har bir mamlakat iqtisodiy barqarorligiga bevosita ta’sir etuvchi asosiy omillardandir. Uning nazoratsiz o‘sishi iqtisodiy o‘sishni sekinlashtiradi, aholi farovonligini pasaytiradi va investitsion muhitni beqarorlashtiradi.

Inflyatsiyani jilovlash uchun O‘zbekiston Respublikasida Markaziy bank tomonidan pul-kredit siyosatini qat’iylashtirish, fiskal intizomni kuchaytirish, davlat byudjeti taqchilligini kamaytirish va ishlab chiqarishni kengaytirish bo‘yicha qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Shuningdek, ichki bozorni milliy mahsulotlar bilan to‘ldirish, import o‘rnini bosuvchi siyosatni rivojlantirish ham inflyatsiyani pasaytirishning muhim yo‘nalishidir.

Kelgusida inflyatsiyani barqaror darajada ushlab turish uchun iqtisodiyotning real sektorini modernizatsiya qilish, raqobatbardosh ishlab chiqarish korxonalarini qo‘llab-quvvatlash, energiya tejamkor texnologiyalarni joriy etish va aholining moliyaviy savodxonligini oshirish zarur.

Inflyatsiyani nazorat ostida saqlash iqtisodiy barqarorlik, ijtimoiy adolat va milliy valyutaning mustahkamligini ta’minlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Keynes J. M. *The General Theory of Employment, Interest and Money*. – London, 1936.
2. Friedman M. *Inflation and Monetary Theory*. – Chicago, 1970.
3. Samuelson P. *Economics*. – New York, 1998.
4. Krugman P. *Macroeconomics*. – New York, 2016.
5. Alimov Q. *Pul va kredit siyosati asoslari*. – Toshkent, 2021.
6. Abdurahmonov A. *Makroiqtisodiy tahlil*. – Toshkent, 2020.
7. Shukurov B. *O‘zbekiston iqtisodiyoti va inflyatsiya jarayonlari*. – Toshkent, 2022.
8. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki hisobotlari, 2024.
9. Davlat statistika qo‘mitasi ma’lumotlari, 2024.
10. IMF. *Inflation Outlook in Emerging Economies*. – Washington, 2023.

PERIFRAZA VA UNING LINGVOPRAGMATIK ASOSLARI

Shaxnoza Allayorova Primkulovna
JDPU, Ingliz tili nazariyasi va metodikasi kafedrasi o’qituvchisi
snoza3328@gmail.com
https://orcid.org/0009-0005-0069-2785

Annotatsiya. Ushbu maqolada perifraza tushunchasi va uning lingvopragmatik asoslari tadqiq etilgan. Perifraza — bu ma’noni bevosita ifodalash o‘rniga, murakkab yoki bilvosita iboralar orqali yetkazish usuli bo‘lib, so‘zlashuv va yozma nutqda kommunikativ boylik va ohangdorlik yaratishda muhim rol o‘ynaydi. Tadqiqotda perifrazaning tuzilishiy va funksional xususiyatlari, shuningdek, uning kontekstga bog‘liq kommunikativ vazifalari lingvopragmatik nuqtai nazardan tahlil qilingan. Maqolada perifrazaning turli turlari, jumladan, sinonimik almashtirish, atroflicha tushuntirish, yumshatuvchi yoki ta’kidlovchi iboralar orqali ifodalanishi ko‘rib chiqilgan. Shuningdek, perifrazaning nutqdagi pragmatik funksiyalari — muloyimlik, urg‘u berish, noaniqlik yaratish yoki yuzni saqlash kabi kommunikativ maqsadlarni amalga oshirishdagi roli ochib berilgan. Lingvopragmatika doirasida perifrazaning semantika, sintaksis va kontekst o‘rtasidagi o‘zaro ta’siri tahlil qilinib, so‘zlovchi va yozuvchilarning til vositalarini maqsadli va samarali qo‘llash strategiyalari ko‘rsatib berilgan. Turli tillar va janrlardan olingan misollar asosida perifrazaning til kreativligi va kommunikativ kompetentsiyada tutgan o‘rni ta’kidlangan.

Kalit so‘zlar: perifraza, lingvopragmatika, stilistik vositalar, pragmatik funksiyalar, bilvosita ifoda, til kreativligi, yuzni saqlash strategiyalari, diskurs tahlili, semantik o‘zgarish.

Аннотация. В данной статье исследуется концепция перифраза и его лингвопрагматические основы. Перифраз — это способ передачи смысла не прямо, а через сложные или косвенные выражения, играющий важную роль в создании коммуникативного богатства и выразительности в устной и письменной речи. В исследовании с лингвопрагматической точки зрения анализируются структурные и функциональные особенности перифраза, а также его контекстно-зависимые коммуникативные задачи. В статье рассматриваются различные типы перифраза, включая его выражение через синонимическую замену, развернутое объяснение, смягчающие или акцентирующие выражения. Кроме того, раскрывается роль перифраза в прагматических функциях речи, таких как вежливость, выделение важного, создание неопределённости или сохранение лица для достижения коммуникативных целей. В рамках лингвопрагматики анализируется взаимодействие между семантикой, синтаксисом и контекстом перифраза, а также демонстрируются стратегии целенаправленного и эффективного использования языковых средств говорящими и писателями. На примерах из различных языков и жанров подчеркивается роль перифраза в языковом творчестве и коммуникативной компетенции.

Ключевые слова: перифраз, лингвопрагматика, стилистические средства, прагматические функции, косвенное выражение, языковое творчество, стратегии сохранения лица, анализ дискурса, семантическое изменение.

Abstract: This article explores the concept of periphrasis and its linguo-pragmatic foundations. Periphrasis is a method of conveying meaning not directly, but through complex or

indirect expressions, playing a significant role in creating communicative richness and expressiveness in both spoken and written language. The study analyzes the structural and functional features of periphrasis from a linguo-pragmatic perspective, as well as its context-dependent communicative tasks. The article examines various types of periphrasis, including its expression through synonymous substitution, elaborate explanation, mitigating, or emphasizing phrases. Furthermore, the role of periphrasis in pragmatic functions of speech, such as politeness, emphasis, creating ambiguity, or face-saving to achieve communicative goals, is revealed. Within the framework of linguo-pragmatics, the interaction between semantics, syntax, and context of periphrasis is analyzed, and strategies for the targeted and effective use of linguistic means by speakers and writers are demonstrated. Examples from various languages and genres emphasize the role of periphrasis in linguistic creativity and communicative competence.

Keywords: periphrasis, linguo-pragmatics, stylistic devices, pragmatic functions, indirect expression, linguistic creativity, face-saving strategies, discourse analysis, semantic change.

Tilning asosiy vazifalaridan biri – insonlar o‘rtasida samarali va ma’nodor muloqotni ta’minlashdir. Bunda so‘zlarning tanlanishi, ularning birikishi va kontekstga moslashuvi muhim ahamiyat kasb etadi. Perifraza – bu nutq yoki yozma matnda ma’noni bevosita ifoda etish o‘rniga, uni bilvosita, atroflicha yoki kengaytirilgan shaklda yetkazish usuli bo‘lib, tilning pragmatik va stilistik imkoniyatlarini kengaytiradi[6.3].

Perifraza (yunoncha "peri" – atrofida, "phrasis" – ifoda) – bu bitta so‘z yoki tushunchani bir necha so‘zlar yordamida ifodalashning lingvistik usuli. Bu nafaqat tilning badiiy bezagi, balki nutqning pragmatik jihatlarini tahlil qilishda muhim vosita hisoblanadi. Perifraza nutqda aniq ma’lumot berishdan ko‘ra, ko‘proq emotsional, ekspressiv yoki madaniy jihatlarni ifodalashga xizmat qiladi[5.45].

Lingvopragmatika – bu tilshunoslikning til birliklarining nutq jarayonida, aniq kommunikativ vaziyatlarda qanday qo‘llanilishini va ularning ma’nolarining kontekstga qarab qanday o‘zgarishini o‘rganadigan sohasi. Lingvopragmatika tilning nafaqat tizim sifatidagi, balki harakat sifatidagi jihatlariga e’tibor qaratadi [9.27].

Lingvopragmatika fanining rivojlanishi bilan perifrazaning kommunikativ vazifalari va nutqdagi roli yanada chuqurroq o‘rganila boshlandi. Perifraza nafaqat semantik jihatdan ma’noni boyitadi, balki nutqning yuzni saqlash (face-saving), muloyimlik, ta’kidlash yoki inkor etish kabi pragmatik maqsadlarini amalga oshirishda ham muhim vosita hisoblanadi[4.138]. Shu sababli, perifrazaning lingvopragmatik asoslarini tahlil qilish tilshunoslikda hamda til amaliyotida katta ahamiyatga ega.

Lingvistik nuqtai nazardan, perifrazaning asosiy vazifasi so‘z boyligini oshirish, ma’noni yanada nozik va chuqur ifodalashdir. Masalan, “qirolicha” so‘zining o‘rniga “davlat boshlig‘i ayol” yoki “saltanat sohibasi” kabi ifodalar qo‘llanilishi perifrazaning aniq namunasi hisoblanadi. Bu usul ayniqsa badiiy adabiyotda keng tarqalgan bo‘lib, matnga estetik did va ifoda quvvatini qo‘shadi.

Pragmatik jihatdan perifraza muloqotda turli maqsadlarni amalga oshirishda xizmat qiladi. U orqali so‘zlovchi muloyimlik ko‘rsatishi, yuzni saqlash (face-saving), noaniqlik yaratish yoki ta’kidni kuchaytirish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Masalan, “o‘ldirdi” so‘zini “uning hayotiga nuqta qo‘ydi” deb bilvosita ifodalash matndagi ohangni yumshatadi va tinglovchida yanada chuqur taassurot qoldiradi.

Perifraza turlari turlicha: sinonimik almashtirish, atroflicha tushuntirish, metaforik va eufemistik perifrazalar mavjud. Har biri o‘ziga xos stilistik va pragmatik funksiyani bajaradi. Lingvopragmatik tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, perifraza nutqning kontekstiga moslashib, kommunikativ samaradorlikni oshiradi hamda ijtimoiy madaniyatga xos muloqot qoidalarini saqlashda yordam beradi. "O‘lim" kabi keskin va og‘ir tushunchani ifodalashda perifrazalarning qo‘llanilishi bu jihatni ayniqsa yaqqol namoyon qiladi. “O‘lim” so‘zi ko‘pincha to‘g‘ridan-to‘g‘ri, keskin va hissiy jihatdan og‘ir ma’no anglatadi. Bu kabi so‘zlar muloqot jarayonida tinglovchida noxush kayfiyat, qayg‘u yoki ruhiy bosim uyg‘otishi mumkin. Shu sababli, so‘zlovchilar ushbu so‘z o‘rniga perifrazalardan foydalanib, uni muloyimroq va sezgirroq tarzda ifodalashga

intiladilar[10.92]. Masalan, “abadiy uyquga ketdi” iborasi “o‘ldi” degan so‘zning yumshatilgan shakli bo‘lib, bevosita aytilgan holatdagi hissiy zarbani kamaytiradi va hamdardlik ifodasini kuchaytiradi[2.112]. Bunday iboralar eufemizm vositasi sifatida xizmat qilib, nutqni muloyimlashtirishga xizmat qiladi. Ba’zi madaniy va ijtimoiy muhitlarda o‘lim haqidagi bevosita gaplar nomaqbul yoki odobsizlik deb qaraladi. Xususan, o‘zbek madaniyatida bunday holatlarda ehtiyotkorlik bilan, ko‘proq ramziy yoki yumshoq ifodalar orqali murojaat qilish odat tusiga kirgan. Bu esa ijtimoiy muloqotda noqulay vaziyatlarning oldini olish, tinglovchining “yuzini saqlash” va muloqot muhitida muvozanatni ta’minlashda muhim pragmatik vosita sifatida namoyon bo‘ladi. Perifrazalarning qo‘llanilishi so‘zlovchiga o‘z fikrini muloyimlik bilan, ijtimoiy va hissiy noziklikni hisobga olgan holda ifodalash imkonini beradi[14.205]. Ayniqsa, rasmiy nutq, motam marosimlari, ommaviy axborot vositalaridagi chiqishlar yoki hushyorlikni talab qiladigan muloqotlarda bunday yumshatilgan iboralarning ishlatilishi muloqotning kommunikativ samaradorligini oshiradi. Natijada tinglovchining holatga nisbatan hissiy javobi nazorat ostida bo‘ladi, so‘zlovchi esa etiket normalariga rioya qilgan bo‘ladi. “O‘lim” so‘zining to‘g‘ridan-to‘g‘ri ishlatilishi ko‘pincha salbiy konnotatsiyaga ega bo‘lib, u tinglovchida qayg‘u, qo‘rquv yoki og‘riq kabi hissiy holatlarni keltirib chiqaradi. Perifrazalar esa bu hissiy yukni yumshatadi, uni kontekstga mos ravishda “niqoblaydi” va muloqotni yanada ijtimoiy maqbul holga keltiradi. Shuningdek, bunday iboralarning qo‘llanishi so‘zlovchining empatiya darajasini, vaziyatga moslashuvchanligini ham namoyon qiladi.

William Goldingning "Lord of the Flies" (Chivinlar hukmdori) romanida perifrazalar nafaqat badiiy ifoda vositasi sifatida, balki chuqur lingvopragmatik funktsiyalarni bajaradi[8.45]. Romanning markaziy perifrazalaridan biri "The beast" (Yirtqich hayvon) ifodasi bolalarning psixologik holati va inson tabiatining ibtidoiy tomonlarini ifodalashda muhim rol o'ynaydi [8.78].

“The beast” (Yirtqich hayvon) — aslida odamlarning ichki qo‘rquvi va vahshiylik ramzi sifatida ishlatilgan perifrazadir. Bu ifoda bolalarning tashqi yirtqichdan emas, balki o‘zlarining ichki vahshiyligidan qo‘rqishlarini ko‘rsatadi.

“The Lord of the Flies” — to‘g‘ridan-to‘g‘ri tarjimada “Chivinlarning malikasi” yoki “Chivinlar shahzodasi”, bu esa Shayton yoki yovuzlik timsoli sifatida ramziy perifrazadir [8.112]**.**

“They could not have found a better place for a picnic” — bu ibora yuzaki oson ko‘ringan joyni tasvirlab, aslida orolda yuz berayotgan qiyinchilik va qo‘rquvni bilvosita ifodalaydi[8.94].

"Lord of the Flies" asaridagi perifrazalar Goldingning inson tabiati haqidagi falsafiy qarashlarini ifodalashning muhim vositasi hisoblanadi. "The beast" perifrazasi orqali muallif insoniyatning tsivilizatsion qobiq ostidagi ibtidoiy instinktlari va vahshiylik haqidagi chuqur psixologik haqiqatni ochib beradi. Bu perifrazalar nafaqat badiiy ifoda vositasi, balki romanning asosiy ideologik va falsafiy mazmunini tashuvchi lingvopragmatik birliklar hisoblanadi[11.203].

Perifrazalarning lingvopragmatik tahlili shuni ko'rsatadiki, ular nutqning semantik va pragmatik qatlamlarini boyitib, o'quvchining kognitiv va emotsional javobini boshqarishga xizmat qiladi. Golding ushbu vositalar yordamida insoniyatning universal psixologik va ijtimoiy muammolarini chuqur va ko'p qirrali ifodalay olgan.

Lingvopragmatika nutq jarayonida til birliklarining qanday qo‘llanilishi va ularning ma’nolarining kontekstga bog‘liq o‘zgarishini o‘rganadi. O‘tkir Hoshimovning “Ikki Eshik Orasi” asarida qo‘llanilgan perifrazalar nafaqat badiiy ifoda vositasi, balki muayyan lingvopragmatik funktsiyalarni bajaradi. Ushbu tadqiqot asarda keltirilgan perifrazalarning nutqdagi amaliy ahamiyatini ochib beradi.

Asarda keskin yoki noqulay tushunchalar perifrazalar orqali yumshatilgan. Masalan: “Vafot etdi” o‘rniga “O‘tmishning jonli arxivi” – bu insonning o‘limi emas, balki uning hayoti va tajribasining abadiyligini ta’kidlaydi[7.145]. “Qiyin qaror” o‘rniga “Qarorning qora buluti” – qarorning og‘irligini tasvirlaydi, lekin to‘g‘ridan-to‘g‘ri salbiy ma’noni yumshatadi.

Perifrazalar orqali muallif hissiyotlar va kayfiyatni ifodalaydi:

“Yurakning tinimsiz qo‘shiqchisi” – sevgi va sadoqatning abadiyligini ta’kidlab, o‘quvchida ijobiy hissiyotlar uyg‘otadi[7.167]. “Ruhiy tuzoqlarning tarmoqlari” – ichki iztiroblarni tasvirlab, o‘quvchining empatiya qilishiga yordam beradi.

Ba’zi perifrazalar madaniy kodlarni tashuvchi rol o‘ynaydi:

“Oila otashining vafodor nigohboni” – oilaviy qadriyatlarning muhimligini va uni saqlash zarurligini anglatadi[7.189]. “O‘tmish va hozir o‘rtasidagi ko‘prik” – avloddan-avlodga o‘tadigan madaniy merosni ifodalaydi.

Perifrazalar nutqning mazmunini boyitadi va uni mantiqiy jihatdan tartibga soladi: “Hayotiy dengizning to‘lqinlari” – hayotiy mashaqqatlarni tasvirlab, ularning vaqt bilan o‘tib ketishini anglatadi[7.201]. “Taqdirning g‘alati o‘yini” – hayotdagi tasodifiylikni ta’kidlab, o‘quvchini fikr yuritishga undaydi.

“Ikki eshik orasi” asaridagi perifrazalar muallifning badiiy uslubini boyitish bilan birga, ularning lingvopragmatik funktsiyalari orqali nutqning semantik va emotsional qatlamlarini oshiradi. Ular evfemistik, emotsional, madaniy va diskursiv vazifalarni bajarib, asarning umumiy mazmunini chuqurroq tushunishga yordam beradi.

Xulosa shuki, perifrazaning lingvopragmatik asoslarini o‘rganish shuni ko‘rsatadiki, ushbu lingvistik hodisa nutqning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Perifraza yordamida nutq qatnashchilari nafaqat mazmunni yetkazish, balki turli kommunikativ maqsadlarni amalga oshirish imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

Adabiy asarlar, xususan O‘tkir Hoshimovning "Ikki eshik orasi" asaridagi perifrazalar ularning badiiy ifodaviyligini namoyon etadi. "Hayotning oq yo‘li", "Yurakning tinimsiz qo‘shiqchisi" kabi ifodalar muallifning obrazli fikrlash uslubini ko‘rsatibgina qolmay, balki tilning pragmatik imkoniyatlarini ham ochib beradi.

Lingvopragmatik nuqtai nazardan perifrazalar nutqning turli funktsiyalarini amalga oshirishga xizmat qiladi. Evfemistik funktsiya yordamida keskin tushunchalar yumshatiladi, emotsional-ekspressiv funktsiya hissiyotlar ifodasini kuchaytiradi, madaniy funktsiya esa milliy-madaniy qadriyatlarni aks ettiradi. Perifrazalarning qo‘llanilishi nutqning semantik va pragmatik qatlamlarini boyitadi, kommunikativ samaradorlikni oshiradi va nutq qatnashchilari o‘rtasidagi o‘zaro tushunishni yaxshilaydi. Tilning ushbu hodisasi inson nutqining murakkabligi va ko‘p qirraliligini yaqqol tasdiqlaydi.

Adabiyotlar ro’yxati:

1. **Austin J.L.** *How to Do Things with Words*. Oxford: Clarendon Press, 1962. 166 p.
2. **Brown P., Levinson S.C.** *Politeness: Some Universals in Language Usage*. Cambridge: Cambridge University Press, 1987. 345 p.
3. **Grice H.P.** Logic and Conversation. In: Cole P., Morgan J.L. (eds) *Syntax and Semantics*. Vol. 3. New York: Academic Press, 1975. pp. 41-58.
4. **Leech G.N.** *Principles of Pragmatics*. London: Longman, 1983. 250 p.
5. **Crystal D.** *A Dictionary of Linguistics and Phonetics*. 6th edition. Oxford: Blackwell Publishing, 2008. 529 p.
6. **Yule G.** *Pragmatics*. Oxford: Oxford University Press, 1996. 138 p.
7. **Hoshimov O.** *Ikki eshik orasi*. Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot, 1980. 240 p.
8. **Golding W.** *Lord of the Flies*. London: Faber and Faber, 1954. 224 p.
9. **Levinson S.C.** *Pragmatics*. Cambridge: Cambridge University Press, 1983. 420 p.
10. **Wierzbicka A.** *Cross-Cultural Pragmatics: The Semantics of Human Interaction*. Berlin: Mouton de Gruyter, 1991. 502 p.
11. **Sperber D., Wilson D.** *Relevance: Communication and Cognition*. 2nd edition. Oxford: Blackwell, 1995. 326 p.
12. **Thomas J.** *Meaning in Interaction: An Introduction to Pragmatics*. London: Longman, 1995. 224 p.
13. **Searle J.R.** *Speech Acts: An Essay in the Philosophy of Language*. Cambridge: Cambridge University Press, 1969. 203 p.

14. **Blum-Kulka S., House J., Kasper G. (Eds.)** *Cross-Cultural Pragmatics: Requests and Apologies*. Norwood: Ablex Publishing, 1989. 340 p.

15. **Tannen D.** *Conversational Style: Analyzing Talk Among Friends*. New York: Oxford University Press, 2005. 208 p.

BOLALARNI TA'LIM JARAYONIGA QIZIQTIRISHDA MILLIY TARBIYA USULLARIDAN FOYDALANISH

Djabbarova Nilufar Baxtiyarovna
Pedagogika va aniq fanlar kafedrasi katta o'qituvchisi.
Urganch RANCH texnologiya universiteti
e-mail: nilush-90@mail.ru
Sergeyeva Dilasal Sanjar qizi
Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi 2-bosqich talabasi.
Urganch RANCH texnologiya universiteti
e-mail: dilasal_sergeyyeva@ gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada bugungi kunda milliy tarbiyaning mazmun-mohiyati, bolalarni ta'lim jarayoniga qiziqtirishda milliy tarbiyamizning o'rni, ta'limga innovatsion yondashuv texnologiyasi va uning o'ziga xos xususiyatlari haqida fikr-mulohazalar keltirilgan.

Kalit so'zlar: axloq, milliy tarbiya, jamiyat, yoshlar, zamonaviy dunyo, ta'limga qiziqish, tarbiya tamoyillari.

Abstract: This article presents opinions on the content and essence of national education today, the role of our national education in attracting children to the educational process, the technology of an innovative approach to this process, and its specific features.

Keywords: morality, national education, society, youth, modern world, interest in education, principles of education.

Аннотация: В статье излагаются мнения о содержании и сущности отечественного образования сегодня, роли отечественного образования в привлечении детей к образовательному процессу, технологии инновационного подхода к этому процессу и его специфические особенности.

Ключевые слова: нравственность, национальное воспитание, общество, молодежь, современный мир, интерес к образованию, принципы воспитания.

Bugungi globallashuv jarayonida yosh avlodni har tomonlama yetuk, ma'naviy barkamol va milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalash masalasi jamiyat rivojining eng dolzarb yo'nalishlaridan biriga aylangan. Ta'lim tizimi nafaqat bilim berish, balki o'quvchilarning shaxsiy qiziqishlarini uyg'otish, ularni milliy ruh va qadriyatlarga sadoqatli qilib tarbiyalashni ham o'z oldiga maqsad qilib qo'yadi. Shu nuqtai nazardan, bolalarni ta'lim jarayoniga jalb etishda milliy tarbiya usullaridan oqilona foydalanish bugungi pedagogikaning muhim vazifalaridan biridir.

Milliy tarbiya – xalqning tarixiy tajribasi, urf-odatlari, xalq og'zaki ijodi, axloqiy qadriyatlari va milliy o'zligiga asoslangan tarbiya tizimidir. U nafaqat bolalarda milliy g'urur va vatanparvarlik tuyg'ularini shakllantiradi, balki ularning o'qishga bo'lgan qiziqishini oshiradi, ta'lim jarayonini mazmunan boyitadi. Zero, milliy qadriyatlarga asoslangan o'qitish jarayoni o'quvchini o'z ildizlariga yaqinlashtiradi, o'qish va bilishga bo'lgan ehtiyojni tabiiy tarzda uyg'otadi.

Bugungi kunda o'qituvchidan faqat bilim berish emas, balki bolalarning ichki motivatsiyasini kuchaytirish, ularni faol, mustaqil fikrlovchi va o'zligini anglay oladigan shaxs sifatida tarbiyalash talab etiladi. Shu bois ta'lim jarayonida xalq og'zaki ijodi namunalari, milliy o'yinlar, maqollar, topishmoqlar, ertaklar va xalq pedagogikasining boshqa unsurlaridan foydalanish o'quvchilarning fanga bo'lgan qiziqishini oshirishda samarali vosita bo'lib xizmat qiladi.

Mazkur maqolada bolalarni ta'lim jarayoniga qiziqtirishda milliy tarbiya usullaridan foydalanishning nazariy asoslari, ularning pedagogik ahamiyati hamda amaliy natijalari yoritiladi.

Shuningdek, milliy qadriyatlarga asoslangan o‘qitish metodlarining zamonaviy ta’limga integratsiyasi bo‘yicha taklif va tavsiyalar beriladi.

XXI asr – tezkor axborot, sun’iy intellekt va raqamli texnologiyalar rivojlangan asrdir. Ammo, bu davrda ham inson tarbiyasining poydevorini, o‘z ildizini milliy qadriyatlardan oladi. Zero, jamiyat taraqqiyoti bevosita inson omiliga, inson esa o‘z navbatida ta’lim va tarbiya uyg‘unligiga tayanadi. Shu bois bolani ta’lim jarayoniga qiziqtirish masalasi ijtimoiy hayotimizda dolzarb mavzulardan xisoblanadi.

Muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganidek, “Har bir bola bizning kelajagimiz, har bir oila – jamiyatning ildizi, har bir ustoz – xalqimizning tayanchidir”. Shu mazmunda olib qaraganda, bola ta’lim jarayoniga qanday ruhda kirishini belgilovchi eng muhim omil — bu milliy tarbiyadir. Chunki milliy tarbiya bola tafakkurini shakllantiradi, o‘zligini anglash, orzu va maqsad qo‘yish madaniyatini beradi.

Abdulla Avloniy o‘zining “Turkiy guliston yoxud axloq” asarida shunday yozadi: “Tarbiya biz uchun yo hayot, yo mamot, yo najot, yo halokat, yo falokat, yo saodat masalasidir” [1,78]. Bu fikrlarga ko‘p ming yillar o‘tgan bo‘lsa-da, bugungi kunda ham o‘zining dolzarbligi va ahamiyatini yo‘qotgani yo‘q. Shuningdek, bolani ta’limga qiziqtirish masalasi ham juda ahamiyatlidir.

Ta’limga qiziqish — bu ichki motivatsiya, ya’ni bolaning o‘rganishga ich-ichidan ehtiyoj sezish holatidir. Psixolog L.Vygotskiy bu jarayonni “yaqin rivojlanish zonasi” deb ataydi: bola o‘zining mavjud bilimi asosida yangi bilimga intiladi. Bu intilish esa faqat rag‘bat, e’tibor va ijobiy muhit orqali shakllanadi. [2,123].

O‘zbek oilalarida esa bu jarayon ko‘pincha milliy qadriyatlarga tayanadi. YAngi tug‘ilgan chaqaloqqa onasining alla aytishi davomida bola ruhiyatida va qalbida milliy tarbiya, yaxshi niyat va kelajakka katta umid orqali tarbiyaviy ta’sir o‘tkaziladi. Chiroyli so‘zlar va yaxshi niyat bilan tarbiyalangan bola esa albatta oqil bo‘lib voyaga yetadi. Bola katta bo‘lgani sari oilada va ijtimoiy muhitda ta’lim va tarbiyaning ahamiyati va ko‘lami yanada kengayib boradi. Shu bois, milliy tarbiya bolaning o‘qishga munosabatini belgilovchi ruhiy omil sifatida namoyon bo‘ladi.

Sotsiologik kuzatuvlar shuni ko‘rsatadiki, o‘qishga qiziqishi yuqori bo‘lgan bolalarning 68 foizi o‘z oilasida ilmli shaxslar bilan muloqotda bo‘ladi. Demak, ota-onaning intellektual muhiti — bu bolani ta’limga jalb etuvchi “ko‘rinmas darslik”dir.

Bugun yosh avlod axborotning cheksiz olamida ulg‘aymoqda. Biroq har bir “trend” yoki “kontent” bolaga ijobiy ta’sir ko‘rsatmaydi. Aksincha, milliy tarbiyadan uzoqlashish, axborot iste’moliga bevosita taqlid qilish holatlari ko‘paymoqda. Bu — jamiyat uchun jiddiy ijtimoiy muammo. O‘qituvchi va ota-onalar endi faqat bilim beruvchi emas, balki axborot filtri vazifasini ham bajarishi kerak. Milliy qadriyatlarga tayanmagan ta’lim bolaning ma’naviy dunyosini zaiflashtiradi. Misol uchun, xalq og‘zaki ijodi - ertak, maqol, doston - bola tafakkurini mustahkamlaydi. “Bilim - boylik kaliti”, “Mehnat qilgan to‘yadi”, “Ustoz otangdan ulug‘” kabi hikmatlar bola ongiga nafaqat so‘z, balki qadriyat sifatida singadi. Demak, milliy tarbiya - bu ijtimoiy immunitet. U orqali bola o‘zligini anglaydi, begona g‘oyalar ta’siridan himoyalanadi.

So‘nggi yillarda O‘zbekiston ta’lim tizimida milliy tarbiya alohida e’tibor markazida. “Yangi O‘zbekiston maktabi” g‘oyasi aynan milliy qadriyat va zamonaviy innovatsiyalar uyg‘unligini ko‘zda tutadi.

Masalan, 2022–2026-yillarga mo‘ljallangan “Ta’limni rivojlantirish milliy dasturi”da milliy g‘urur, tarixiy xotira va o‘zlikni anglashni kuchaytirish asosiy ustuvor yo‘nalishlardan biri sifatida belgilangan.

Bu siyosatning maqsadi - o‘quvchini “bilim oluvchi obyekt” emas, balki “o‘z madaniyatini anglaydigan subyekt” sifatida tarbiyalashdir. Shuningdek, ta’lim muassasalarida milliy o‘yinlar, hunarmandchilik, folklor kechalari, tarixiy shaxslar hayotiga bag‘ishlangan tadbirlar - barchasi milliy tarbiya konsepsiyasining amaliy ko‘rinishidir.

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, milliy tarbiyaga asoslangan o‘quv dasturlari o‘quvchilarning:

• ijodiy fikrlash darajasini 25–30% oshiradi;

• ijtimoiy faolligini kuchaytiradi;
• o‘ziga ishonchini mustahkamlaydi;
• ma’naviy immunitetini oshiradi.

Shuningdek, ota-onalar ishtirokidagi milliy an’analarni tiklash (masalan, “Kitobxon oilalar” aksiyasi, “Ona tilim — faxrim” kechalari) bolalarning o‘qishga bo‘lgan ijobiy qarashini shakllantiradi. Bu natijalar milliy tarbiyaning nafaqat ma’naviy, balki ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlik uchun ham zarur omil ekanini isbotlaydi.

Tarbiya nazariyasida milliy, ilmiy-pedagogik atamaga duch kelyapmiz, bu sohada qanday ishlar amalga oshirilmoqda, milliy tarbiyaning mazmuni nimalardan iborat?

Aslida tarbiya - aniq maqsadli ijtimoiy tarixiy tajriba asosida yosh avlodni har tomonlama kamol toptirish, ma’naviy sifatlarni shakllantirishga qaratilgan amaliy pedogogik jarayondir. Milliy tarbiya esa ma’lum bir shaxs yoki xalqning jamiyatda komil inson bo‘lib shakllanishi uchun unda milliy mafkura, milliy g‘urur, milliy ong kabilarni rivojlantirish jarayonidir. Pedagog olimlardan professor Muhammad Qurbonov milliy tarbiya tushunchasiga quyudagicha ta’rif bergan: “Milliy tarbiya” ko’p qirralari tushuncha bo’lib u: - milliy qadriyatlar asosida olib boriluvchi maqsadga yo‘naltirilgan tarbiyaviy faoliyat; - umuminsoniy tarbiyaning har bir xalqqa xos va mos betakror shakli; - xalq va uning madaniyatini saqlab qolish, tiklash va rivojlantirish vositasi; - kadrlar tayyorlash milliy dasturi maqsad, vazifa va tamoyillarning tarkibiy qismi; - o‘quvchilarni axloqiy, mehnarsevarlik, vatanparvarlik, go‘zallik, iqtisodiy, ekologiya va boshqa yo‘nalishlarda tarbiyalashning bosh tamoyili; - millatlararo muloqot madaniyatini tarbiyalash va buning natijasida O‘zbekistonda umumfuqaroviy totuvlikka erishishning insonparvarona yo‘li va vositasi; - ijtimoiy tarbiya va maktab tarbiyasi uyg‘unligining pedagogik shartidir.[3,65]

Diqqat qilinsa, bu ta’rif milliy tarbiya tushunchasining ma’no-mazmunini to‘liq qamrab olgan. Chunki milliy tarbiyaning o‘zaki milliylikdir. Milliy tarbiya yosh avlodlarda o‘zining va o‘zga xalqlarga xurmat, milliy g‘urur, vatanparvarlik singari fazilatlarni uyg‘otishga xizmat qiladi.

Pedogogika fanida milliy tarbiya keng ma’noda o‘quvchi shaxsini milliy qadriyatlar asosida shakllantirish jarayoni sifatida talqin qilinadi. Bu jarayon o‘z mohiyatiga ko‘ra, o‘qitish, o‘rgatish va tarbiyalash faoliyatining uyg‘unligini ta’minlaydi.

Milliy tarbiyaning asosiy ilmiy tamoyillari quyidagilardan iborat:

1. Insonparvarlik tamoyili - har bir o‘quvchini milliy qadriyatlar ruhida, shaxs sifatida hurmat qilish va uning qobiliyatlarini rivojlantirishga e’tibor qaratish;
2. Izchillik va tizimlilik tamoyili - milliy tarbiya elimentlarini bosqichma-bosqich, yosh xususiyatlariga mos tarzda o‘quv jarayoniga kiritish;
3. Uyg‘unlik tamoyili- milliy qadriyatlar bilan zamonaviy ta’lim metodlarini uyg‘unlashtirish;
4. Faollik tamoyili- o‘quvchilarni faqat bilim oluvchi emas, balki ijodiy ishtirokchi sifatida rivojlantirish.

Bolaning o‘qishga bo‘lgan motivatsiyasining ortishi ijtimoiy muhit, tarbiya, o‘qituvchining shaxsiy fazilatlari hamda dars jarayonning mazmuni bilan chambarchas bog‘liq. O‘quvchi o‘zini o‘qish jarayonida qadrlangan, eshitilgan va tushunilgan deb his qilsa, unda bilim olishga nisbatan ichki ehtiyoj kuchayadi. Milliy tarbiya vositalari bu jarayonda beqiyos ro‘l o‘ynaydi. Masalan, ertaklar, maqollar, dostonlar, tarixiy shaxslar hayotidan misollar keltirish o‘quvchining diqqatini jalb etadi, hissiy uyg‘unlik hosil qiladi. Natijada bilim olish jarayoni quruq axborot emas, balki ma’naviy kechinma va faxr manbaiga aylanadi.

Milliy pedagogika bu borada ko’plab manbalarga tayanadi. Farobiyning “Fozil odamlar shaxri”, Yusuf Xos Xojibning “Qutadg’u bilig”, Alisher Navoiyning “Mahbub ul-qulub”, Kaykovusning “Qobusnoma”, Husayn Voiz Koshifiyning “Futuvvatnomai Sultoniy” asarlarida yoshlarni milliy tarbiyalash asoslari juda keng yoritilgan.

Ta’lim-tarbiyadagi o‘zgarishlar va yuqori samarodorlik ko‘proq milliy pedagogikaning tarixiy ildizlari va zamonaviy yutuqlari boshlang‘ich sinf o‘quvchilarning ongiga singdirish qay darajada olib borilganligiga bog‘liq bo‘lib, u barkamol avlod tarbiyasida mustahkam asos bo‘ladi ana shu nuqtai nazardan kelib chiqqan holda xalqimiz tarixi va hozirgi talablarni jamlashtirgan

holda o‘quvchiga quyidagi qadriyatlarni bilishi muhim sanaladi: o’zidan kattalarga salom berish, ota-ona va yoshi ulug‘ insonlarni hurmat qilish va mehrli bo‘lish, o‘zga millat vakillarining dini, urf -odatlari va madaniyatiga hurmat bilan qarash, o‘tmish va ota - bobolar haqida ma’lumotlarga ega bo‘lish, o‘zidan kichiklarni izzat qilish, ona tili va dinini qadrlay bilish, har bir ishni o‘z vaqtida bajarish orqali o‘tayotgan vaqtning qadriga yetish, bir ishni boshlashdan oldin o‘zidan kattalar, ota-onasi ustozlari bilan maslahatlashish, ilmga mudom chanqoqlik hissini tuyush, kamtarin bo‘lish va o‘zgalar oldida kekkaymaslik vas hu kabi ijobiy fazilatlar.

Milliy tarbiyamizning mazmuni tashkil etuvchi ma’naviy fazilatlarni o‘quvchilar ongiga singdirish kichik maktab yoshida izchil ravishda amalga oshirilsa samarasi yuqori darajada bo‘ladi. Boshlang‘ich ta’limda milliy tarbiya masalasi dolzarb ahamiyat kasb etadi “Ta’lim tog’risida”gi Qonunga 13-moddasiga binoan bunda quyidagilar muhim ahamiyatga ega;

1) boshlang‘ich sinf o‘quvchilarning bilim olishini, ularda ko‘nikma va malakalar hosil bo‘lishini milliy asosda ta’minlash;

2) o‘quvchilarni tarbiyalanganlik darajasini o‘stirish;

3) o‘quvchilarda milliy axloqiy sifatlarni shakllantirish;

Bugungi kunda yosharni ma’nan yetuk va albatta barkamol shaxs bo‘lib yetishishlari uchun mavjud imkoniyatlardan unumli foydalanilmoqda.

Bugungi kunda pedagogikada foydalanib kelinayotgan milliy tarbiya usullarining turlari quyidagicha:

1. Og‘zaki ijodiy usullar - yuqorida keltirib o‘tganimizzdek ertak, doston, maqol, topishmoqlar orqali o‘quvchilarga axloqiy saboq berish;

2. Amaliy usullar - milliy o‘yinlar, hunarmandchilik mashg‘ulotlari, milliy bayramlarga jalb qilish orqali o‘quvchilarning faolligini oshirish;

3. Ko‘rgazmali usullar - milliy kiyimlar, san’at asarlari, tarixiy manbalar orqali dars jarayonini boyitish;

4.Ta’sirchan so‘z va ibrat usuli - buyuk ajdodlarimiz hayoti va qilgan ishlarini faxr bilan tushuntira olish va o‘quvchilarda faxr tuyg‘usini uyg‘otish;

5. Tajriba va kuzatuv usuli – o‘quvchilarga xalq urf-odatlarini o‘z ko‘zi bilan kuzatish, unda ishtiroq etish imkoniyatini yatatish. [4,5].

Albatta bu usullar o‘quvchilarga yanayam qiziqroq bo‘lib, firklash tarzi va ijodkorlikka bo‘lgan qiziqishini oshiradi. Eng muhimi ular ta’lim jarayonini milliy ruh bilan boyitadi va ularda o‘zlikni anglash hissi kuchayadi.

Milliy tarbiya - bu kelajakni quruvchi kuch. Agar bola o‘z ildizini his etsa, u o‘qishga nafaqat majburiyat, balki baxt deb qaraydi. Chunki o‘zligiga tayanmagan ta’lim - ildizsiz daraxtdir.

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, milliy tarbiya - bu faqat o‘tgan avlod xotirasi emas, balki kelajakning ma’naviy yo‘riqnomasidir. Bolani ta’lim jarayoniga qiziqtirishda milliy tarbiya quyidagi vazifalarni bajaradi:

1. Motivatsion – o‘qishga ichki rag‘bat uyg‘otadi;
2. Axloqiy – mehnatsevarlik, halollik, vatanparvarlikni shakllantiradi;
3. Ma’naviy – milliy g‘urur va o‘zlikni mustahkamlaydi;
4. Ijtimoiy – jamiyatga foydali, mas’uliyatli shaxsni kamol toptiradi.

Shu asosda quyidagi ilmiy takliflarni ilgari surish mumkin:

- Milliy tarbiya asosida yaratilgan interfaol metodikalarning yagona bazasini ishlab chiqish;
- O‘qituvchilar uchun “Milliy qadriyat va zamonaviy pedagogika” mavzusida amaliy seminarlar tashkil etish;
- Maktablarda “Milliy tarbiya haftaligi” loyihasini yo‘lga qo‘yish;
- Ota-onalar uchun “Milliy tarbiya – oilaviy qadriyat” nomli qo‘llanmalarni yaratish;
- Ijtimoiy tarmoqlarda milliy qadriyatlar asosida motivatsion kontentlar tayyorlash.

Har bir insonning butun umri davomida, xususan, maktab va talabalik yillarida berilishi lozim bo‘lgan ta’limda milliy va ma’naviy-axloqiy tamoyillarning ahamiyati katta. Ma’lumki har bir davlatning kelajakda qanday rivojlanishi o‘sha mamlakatning bugungi kundagi ta’lim-tarbiya

sohasida olib borilayotgan ishlar natijasiga bog‘liq. To‘g‘ri tashkil etilgan ta’lim va tarbiya o‘sib kelayotgan yosh avlodning odob-ahloqli bo‘lib tarbiyalanishiga juda katta zamin yaratadi.

Литература

1. Abdulla Avloniy. “Turkiy guliston yoxud axloq”. Toshkent. Ma’naviyat 1992, 78-b.
2. Vygotskiy L.S. “Psixologiya va ta’lim”. Moskva: Pedagogika nashriyoti. 1983,, 123-b.
3. Qurbonov.M “Milliy tarbiyaning nazariy va amaliy asoslari”.-Toshkent: Fan texnologiya, 2020, 65-b.
4. Karimova.D. (2023) “Milliy tarbiya usullaridan ta’limda foydalanishning zamonaviy yondashuvlari”. 2023, 5-b.

CLASSICAL AND MODERN APPROACHES IN TRANSLATION STUDIES

Kamola Khujumova
Assistant-teacher, Jizzakh State Pedagogical University
kamolahujumova@gmail.com

Annotaton: This article is based on scholars' theories about the problem of equivalence in translation. Also, equivalence in translation is understood as the similarity between the source text (MM) and the translation text (TM). In the article, world translators such as Catford, Jacobson, Nida and Newmark put forward different views on equivalence, paying attention to semantic, structural and pragmatic aspects, and the debates about achieving “*original*” equivalence in translation are shown.

Keywords: Translation Studies, equivalence, descriptive translation studies, pure translation, applied translation, semantic translation, communicative translation, translation shifts.

Annotatsiya: Ushbu maqola olimlarning tarjimadagi ekvivalentlik muammosi haqidagi nazariyalariga asoslanadi. Shuningdek, tarjimadagi ekvivalentlik deganda manba matn (MM) va tarjima matn (TM) o‘rtasidagi o‘xshashlik tushunilishi dalillar bilan keltiriladi. Maqolada jahon tarjimashunoslari Ketford, Yakobson, Nida va Nyumark kabi olimlar semantik, strukturaviy va pragmatik jihatlarga e'tibor qaratib, ekvivalentlik bo'yicha turli qarashlarni ilgari surganlar va tarjimada “*asl*” ekvivalentlikka erishish borasidagi bahslar namoyon bo’ladi.

Kalit so’zlar: Tarjima tadqiqotlari, ekvivalentlik, deskriptiv tarjima tadqiqotlari, sof tarjima, amaliy tarjima, semantik tarjima, kommunikativ tarjima, tarjima o‘zgarishlari.

Аннотация: Данная статья основана на теориях ученых о проблеме эквивалентности в переводе. Также под эквивалентностью в переводе понимают сходство между исходным текстом и текстом перевода. В статье мировые переводчики, как Кэтфорд, Джейкобсон, Нида и Ньюмарк, выдвигают разные взгляды на эквивалентность, уделяя внимание семантическим, структурным и прагматическим аспектам, а также показаны споры о достижении “*оригинальной*” эквивалентности при переводе.

Ключевые слова: Переводоведение, эквивалентность, описательное переводоведение, чистый перевод, прикладной перевод, семантический перевод, коммуникативный перевод, переводческие сдвиги.

The process of translation has existed for thousands of years and facilitates the transmission of language and culture. However, as an academic field, it began to develop under the name of “Translation Studies”, which was proposed by the scholar James Holmes in the latter half of the 20th century in 1972. This concept has been widely accepted because it sees translation as an all-encompassing field and shifts focus to areas of translation that have been neglected by the training of interpreters and translators. Perhaps the greatest contribution of James Holmes was his attempt to clarify the “field” of translation research. [3.208] If you look closely at the map, the translation he divides into two main areas. Very pure and applied. Pure translation serves two purposes. Translation is a complex cross-cultural communication activity involving the transfer of cultural information and knowledge, rather than simply transferring words and phrases from one language to another. This theory suggests that the goal of translation is to produce a text that has the same meaning as the original text despite linguistic and cultural differences. However, the concept of

equivalence is not simple, and there are many factors that can influence how equivalence is defined and established by stratification in practice.

The concept of equivalence has been explored in this area of translation research. A person who influenced the development of equivalence theory is Eugene Nida, who defined equivalence as “the relationship between the source language text and the target language text in which the two texts communicate the same message, even though the forms of the message may differ”. [8 .331] Nida’s definition of equivalence emphasizes the importance of producing a translation that conveys the same meaning as the original text, even if the form of the message is different. Another influential scholar in the field of equivalence theory is Peter Newmark, who developed a typology of equivalence that includes three types: semantic, communicative, and formal equivalence. [7.292]

First, we describe the various translation phenomena that exist. Second, to develop general principles that adequately explain these phenomena. The former is classified as descriptive translation studies (DTS) and the latter as translation theory, both subcategories of pure translation studies. Furthermore, descriptive translation research can be divided into product-oriented DTS (text-centric research that investigates existing translations) and process-oriented DTS (mainly interested in manipulating the mental processes that occur during translation). We focus on his three research areas:

Secondly, Function-oriented DTS (studies describing the function of translation in socio-cultural contexts). DTS research findings have been applied to translation theory and general translation, including media (human or machine translation), domains (specific languages or cultures) and rank groups (focus on specific language groups) and rank-group partial translation theories partial translation theory. .groups) are restricted levels of words, sentences, text types (which deal with specific genres such as literals and literals). letter). business transactions), time (dealing with a specific period of time), and problem (dealing with a specific problem, e.g. translating a picture).Holmes Map's 'Applied' division is more hands-on and primarily deals with translation training (related to teaching methods, testing techniques and research planning) and translation assistance (related to IT). applications, distributions, translation software, online). Translation policy (considering the role of translators and translators in society, and the position and role of translation in society), translation criticism (mainly dealing with issues of revision and evaluation of translations).).

It is worth noting that the theoretical, descriptive and applied fields of translation studies are closely related and dialectical in nature. This view is in stark contrast to Toulouse's theory that the training and critique of translators is not central to the study of translation, but rather is seen as an “extension” of the field. Toouru partly takes the view that there is a unidirectional relationship between the two extremes of theoretical and descriptive translational research on the one hand and his statements and applied extensions on the other increase.

Although Holmes' maps have been criticized, Holmes' subdivision provides a flexible separation of the various areas of translational research and demonstrates the great potential of the field. increase. [10.200] Its simple, science-based, hierarchically organized categories not only help you identify different translation possibilities, but they also help make other tasks easier. Historically, this figure can be taken as a legitimate starting point, but it should be noted that what translation studies represent cannot be simply mapped onto this map. The field is evolving, and its interdisciplinary nature has become increasingly apparent over time.

Despite its versatility, the concept of equivalence has always been an interesting topic in the field of translation research, as explained below.

The concept of equivalence is of particular interest to translation students because it is closely related to the definitional and practical aspects of translation. Equivalence was an important feature of translation theory in the 1960s and 1970s, showing that the original (hereafter ST) and the target text (hereafter TT) share some similarity with “саменес”. The question was what kind and degree of similarity the different types of equivalence show. Below is an attempt to analyze the equivalence paradigm developed by scientists in this field.

Vinau and Darberne (1958), Jacobson (1959), Nida and Tabor (1969), and Sutford (1965).), House (1997), Solar (1979), Newmark (1981), Baker (1992) and finally Pam (2010).

A critical evaluation of the concept of equivalence Jacobson

Structuralist Roman Jacobson states that there are three types of translation: intralingual (paraphrasing or paraphrasing within a language) and interlingual (paraphrasing or paraphrasing between two languages). , claiming that there is an intersymbolic language (paraphrasing or paraphrasing). (between symbol systems). [15. 113]

More specifically, in dealing with the thorny problem of semantic equivalence between words in different languages, he emphasizes that perfect equivalence does not exist between his two words. As an example of the word “cheese” in English, he pointed out that it is not identical to the Russian word “sir” and that the term “cottage cheese” is not included in the Russian word “sir”. James does not claim that translation is impossible, but rather points out differences in linguistic structure and terminology.

Co-author of Towards the Science of Translation and Theory and Practice of Translation which attempted to give translation a 'scientific' meaning. [9.218] Borrowing theoretical concepts from semantics and pragmatism, and influenced by Chomsky's Generative and Transformative Grammar, Nida takes a more systematic approach to exploring the world of translation studies. [16].

Catford

Catford's most important contribution to the field of translation studies was his introduction of the concept of translation types and variations. Shifts are changes that occur during the translation process. More specifically, Mr. Catford uses his three criteria to account for the great variety of translations.

First, he creates full and partial translations. Partial translation depends on the scope of the translation.

Second, global translation differs from forced translation depending on the language levels involved in the translation.

Third, Sutford distinguishes between ordered and unconstrained translations according to the grammatical or phonological rank for which equivalence is established. Since our research interest is equivalence, we focus on the third type of transformation and provide an analysis of the concept of displacement. Catford defines a translational shift as a deviation from the formal response in SL to TL translation. [2. 103]

Furthermore, he states that there are two main types of translation shifts, i.e. level shifts (where SL elements are at one language level, such as grammars, there are equivalent TL elements; Level (Vocabulary, etc). These are (a) structural change with grammatical structure change, (b) unit change with rank change, (c) class change with class change, and (d) source and target language systems.

Newmark

To refer to Dwindle Newmark, one of the authors of the Language Professionals Organization and a strong proponent of Internet specialization.

Newmark's Approaches to Interpretation and A Reading Materials of Interpretation do not aim to promote firm interpretive hypotheses, but rather attempt to present them. A prerequisite for dealing with problems that arise during the preparation of an interpreter. [6. 192]

More specifically, Newmark, Nida replaces the notion of formal and energetic compatibility with a semantic and communicative interpretation. The main difference between his two types of interpretations proposed by Newmark is that semantic interpretation focuses on meaning, whereas communicative interpretation focuses on the past. In other words, the semantic interpretation looks back at the ST and tries to preserve its properties as much as possible. Its nature is more complex, detailed and prone to over-translation. Communication interpreting, on the other hand, respects the wishes of the recipient and aims to fulfill them as far as possible. In this respect, communicative interpretation tends to be undertranslated. It's more fluent, cooperative, and less taxing to read.

Thus, semantic interpretation places special emphasis on the author of the original text, while communicative interpretation assumes that it is intended to serve a wider audience. Note that in interpreting, preparation and communication interpreting should not be used solely for meaning or bad practice. In literary content, a particular sentence may require a communicative interpretation, even if another sentence in the same sentence requires a semantic interpretation. Therefore, the two interpretation strategies can be used in parallel while changing the center in which they are used. Moreover, Newmark strongly believes that strict interpretation is the best approach for both semantic and communicative interpretation.

Dough puncher

Mona Pastry specialist in her compelling book In Other Words addresses the vexing issue of comparability by receiving a more unbiased approach when she contends that proportionality could be a relative idea since it is influenced by a assortment of etymological and social components . In specific, the chapters of her book are organized around distinctive sorts of proportionality, that's , at the level of word, state, language structure, content and pragmatics. Hence, terms such as syntactic, literary and down to earth comparability come up. In more detail, a refinement is made between word-level and above-world- level comparability. Receiving a bottom-up approach, Pastry specialist recognizes the significance of person words amid the interpretation prepare, since the interpreter looks firstly at the words as single units in arrange to discover their identical within the TL.

In summary, all comparison deals are primarily about implications. Following Jacobson, Newmark argues that the term “implicit” is used not in a strict sense, but to imply what is implied. In other words, the focus of the conspiracy is not what is articulated, but what is wanted and suspected in a given situation. The role of the interpreter is to understand the meaning of the implication, if it exists in the ST, and replace the implication to the extent possible. The interpreter's primary concern is to render SL's target messages in a way that is accessible and understandable by the target group.

Nida’s involvement in the field of interpreting is widely regarded as providing an efficient approach to preparing interpreters through the development of sub-procedures that can be used to tackle a variety of interpreting problems that interpreters face on a daily basis.

REFERENCES:

1. Baker M. In Other Words: A Coursebook on Translation. – London : Routledge, 1992. – 327 p.
2. Catford J. C. A Linguistic Theory of Translation. – London : Oxford University Press, 1965. – 103 p.
3. Holmes J. S. Translated! Papers on Literary Translation and Translation Studies. – Amsterdam : Rodopi, 1988. – 208 p.
4. House J. Translation Quality Assessment: A Model Revisited. – Tübingen : Narr, 1997. – 210 p.
5. Jakobson R. On Linguistic Aspects of Translation // Venuti L. (ed.). The Translation Studies Reader. – London : Routledge, 2000. – P. 113–118.
6. Newmark P. Approaches to Translation. – Oxford : Pergamon Press, 1981. – 192 p.
7. Newmark P. A Textbook of Translation. – London : Prentice Hall, 1988. – 292 p.
8. Nida E. A. Toward a Science of Translating. – Leiden : Brill, 1964. – 331 p.
9. Nida E. A., Taber C. R. The Theory and Practice of Translation. – Leiden : Brill, 1969. – 218 p.
10. Pym A. Method in Translation History. – Manchester : St. Jerome, 1998. – 200 p.
11. Toury G. Descriptive Translation Studies and Beyond. – Amsterdam : John Benjamins, 1995. – 311 p.
12. Venuti L. (ed.). The Translation Studies Reader. – London : Routledge, 2000. – 554 p.
13. Vinay J. P., Darbelnet J. Comparative Stylistics of French and English: A Methodology for Translation / Trans. by J. C. Sager, M.-J. Hamel. – Amsterdam : John Benjamins, 1995. – 359 p.

14. House J. Translation Quality Assessment: A Model Revisited. – Tübingen : Narr, 1997. – 244 p.
15. Jakobson R. On Linguistic Aspects of Translation // Venuti L. (ed.). The Translation Studies Reader. – London ; New York : Routledge, 2000. – P. 113–118.
16. Chomsky N. Aspects of the Theory of Syntax. – Cambridge (MA) : MIT Press, 1965. – 251 p.

YOSHLARNI SHAXSIY RIVOJLANISHIDA IJTIMOIY MUHITNING PSIXOLOGIK OMILLARI

Davletova Shahnoza Madamin qizi
Urganch RANCH texnologiya universiteti talabasi

Annotatsiya. Yoshlarning shaxsiy rivojlanishi zamonaviy jamiyatning asosiy masalalaridan biri hisoblanadi. Bunday rivojlanish jarayonida ijtimoiy muhitning psixologik omillari muhim rol o‘ynaydi. Ijtimoiy muhit — bu yoshlarni atrofidagi odamlar, jamiyat va madaniy ta'sirlar tizimi bo‘lib, ularning shaxs sifatida shakllanishi va taraqqiyoti uchun maydon yaratadi. Psixologik omillar esa yoshlarning ruhiy holati, hissiy tajribasi, shaxsiy qobiliyatlari, o‘ziga bo‘lgan ishonchi va boshqalar kabi ichki elementlarni o‘z ichiga oladi.

Kalit so‘zlar: yoshlar, ijtimoiy muhit, munosabatlar, psixologik jihatlar, jamiyat, madaniyat, shaxs, dunyoqarash, qadriyatlar.

Аннотация. Личностное развитие молодежи является одной из основных задач современного общества. В процессе такого развития важную роль играют психологические факторы социальной среды. Социальная среда — это система людей, общества и культурных влияний, окружающих молодежь, которая создает условия для их формирования и развития как личности. Психологические факторы включают внутренние элементы, такие как эмоциональное состояние, личный опыт, способности, уверенность в себе и другие характеристики.

Ключевые слова: молодежь, социальная среда, отношения, психологические аспекты, общество, культура, личность, мировоззрение, ценности.

Annotation. The personal development of young people is one of the key issues in modern society. Psychological factors of the social environment play an important role in this developmental process. The social environment is a system of people, society, and cultural influences surrounding young individuals, providing a space for their formation and growth as personalities. Psychological factors include internal elements such as emotional state, personal experience, abilities, self-confidence, and other characteristics.

Keywords: youth, social environment, relationships, psychological aspects, society, culture, personality, worldview, values.

Yoshlar o‘z atrof-muhitidan, o‘zaro munosabatlardan, oiladan, maktabdan, do‘stlardan va kengroq jamiyatdan ta'sir oladi. Ijtimoiy muhit yoshlarning identifikatsiyasi va shaxsiy xususiyatlarini shakllantirishda, ularning dunyoqarashi va qadriyatlari tizimini aniqlashda katta ahamiyatga ega. Ijtimoiy muhitda paydo bo‘luvchi ijobiy psixologik muhit yoshlarni o‘z-o‘zini anglashga, o‘z maqsadlarini belgilashga va ularni amalga oshirishga yordam beradi. Aksincha, salbiy muhit esa shaxsning rivojlanishida to‘sqinlik qiladi, ruhiy muvozanatni buzadi, o‘zlikni qidirish jarayonini qiyinlashtiradi. Oilaviy muhit yoshlarning psixologik va jismoniy jihatdan rivojlanishida birinchi muhim manba hisoblanadi. Oila farzandning birinchi ijtimoiy muhiti bo‘lib, unda bolalar o‘zlarini qulay va xavfsiz his etishlari, shaxs sifatida shakllanishlari uchun zarur sharoit yaratiladi. Oilada ota-onaning ruhiy holati, mehr-muhabbat, qo‘llab-quvvatlash, ijobiy kommunikatsiya, me'yorlar va qadriyatlar yoshlarning o‘zini hurmat qilish va boshqalar bilan munosabatda bo‘lish qobiliyatlarini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Oilada o‘zgarib turuvchi ijtimoiy vaziyatlarga moslashish qobiliyati, stress holatida yordam olish imkoniyati, ijobiy his-tuyg‘ularni boshqarish va o‘zini anglashni ta'minlash mumkin bo‘ladi.[1]

Maktab va ta'lim muassasalari yoshlarning ijtimoiy muhitida muhim o‘rin tutadi. Ta'lim jarayonida o‘qituvchilar va tengdoshlardan keladigan psixologik ta'sir yoshlarning o‘rganish

motivatsiyasini, o‘z-o‘zini anglashini va ijtimoiy qobiliyatlarini shakllantiradi. O‘quvchilar o‘rtasidagi musobaqalar, hamkorlik va suhbatlar yoshlarning o‘zaro munosabatlarini mustahkamlashga, bir-birini tushunishga, ijtimoiy qoidalar va me'yorlarni qabul qilishga yordam beradi. Maktab muhiti yoshlarning mustaqil fikrlashiga, qaror qabul qilishga, mas'uliyatni anglashi va jamiyatga moslashishiga xizmat qiladi. Do‘stlar va tengdoshlardan keladigan psixologik ta'sir yoshlarning shaxsiyati shakllanishida katta o‘rin tutadi. Ularning fikr-mulohazalari, qadriyatlari, o‘rnak tutadigan xulq-atvori, qiziqishlari yoshlarni motivatsiya qiladi va ijtimoiy identifikatsiyani kuchaytiradi. Ijobiy do‘stlik munosabatlari yoshlarni o‘ziga bo‘lgan ishonchni oshiradi, ijtimoiy ko‘nikmalarni rivojlantiradi, qiyin vaziyatlarda yordam berish imkonini yaratadi. Do‘stlar bilan muloqot qilish yoshlarning ijtimoiy bilimlarini kengaytiradi va ularning ruhiy sog‘lig‘iga ijobiy ta'sir ko‘rsatadi. Biroq zararli aloqalar, yomon ta'sirlar esa yoshlarning noto‘g‘ri yo‘llarga kirib qolishiga, ruhiy buzilishlarga olib keladi.[2]

Kengroq jamiyat va madaniyat ham yoshlarning psixologik rivojlanishida muhim element hisoblanadi. Madaniyat yoshlarning qadriyatlari, etika, axloqiy normalar bilan bog‘liq bo‘lib, ular o‘z-o‘zini joylashtirish, identifikatsiya va o‘zligiga bo‘lgan hurmatni shakllantirishda yordam beradi. Keng jamiyatdagi ijtimoiy institutlar, xususan sport, san'at, ijtimoiy tashkilotlar yoshlarning o‘z qobiliyatlarini kashf etishi va rivojlantirishiga yordam beradi. Ularning ishtiroki yoshlarning ijtimoiy faoliyatlarga, ijobiy hayot tarziga intilishini qo‘llab-quvvatlaydi va ruhiy barqarorlikni oshiradi. Psixologik omillar bilan ijtimoiy muhit o‘rtasidagi o‘zaro ta'sir yoshlarning shaxs sifatida rivojlanishida asosiy mexanizmni tashkil qiladi. Yoshlar o‘zlarini atrofdagilar miqyosida anglaydi va shunga mos ravishda o‘z xususiyatlarini rivojlantiradi. Agar yoshlar ijobiy psixologik muhitda bo‘lishsa, ular o‘z qobiliyatlari va imkoniyatlariga ishonch hosil qiladi, stress va qo‘rquvlarni yengish qobiliyatini oshiradi, o‘zini ijtimoiy jamiyatda faol ishtirok etuvchi shaxs sifatida qabul qiladi. Bunday sharoitda yoshlar barkamol shaxs sifatida o‘sib-ulg‘ayadi, jamiyat oldidagi mas'uliyatlarini tushunadi va ijobiy ijtimoiy rollarni bajarishga tayyor bo‘ladi.[3]

Salbiy ijtimoiy muhit, masalan, oilaviy nizolar, zo‘ravonlik, qashshoqlik, ijtimoiy izolyatsiya, yoshlarning ruhiy rivojlanishiga salbiy ta'sir ko‘rsatadi. Ular o‘zini yetarlicha himoyalanmagan his qiladi, o‘ziga bo‘lgan ishonchi susayadi, depressiya, stress va boshqa psixologik muammolar yuzaga keladi. Bunday sharoitda yoshlar o‘zlarini jamiyatdan ajratilgan, yolg‘iz his qilishi, to‘g‘ri qaror qabul qila olmasligi va shaxs sifatida ijtimoiy moslashuvchanlikda muammolarga duch kelishi mumkin.[4]

Shu bois, yoshlarning shaxsiy rivojlanishi uchun ijtimoiy muhitning psixologik omillari ijobiy bo‘lishi zarur. Rivojlanayotgan yoshlarning ijtimoiy qo‘llab-quvvatlanishi, ular bilan samarali muloqot o‘rnatilishi, ruhiy salomatlikni saqlash uchun zarur sharoitlar yaratilishi muhimdir. Jamiyat va oila yoshlarning ehtiyojlarini inobatga olib, ularni doimiy ravishda rag‘batlantirib borishi, ijobiy o‘zgarishlarga ko‘maklashishi kerak. Shaxsiy rivojlanishda o‘rganilgan psixologik omillarning ijobiy ta'siri yoshlarning kelgusi hayotidagi muvaffaqiyatlari uchun muhim poydevor bo‘lib xizmat qiladi. Bu esa o‘z navbatida ijtimoiy faollikning oshishi, intellektual va hissiy salohiyatning rivojlanishi, yangi avlodning jamiyatga ijobiy hissa qo‘shishi imkonini beradi. Ijtimoiy muhit va psixologik sharoitlar yoshlarni hayotdagi qiyinchiliklarga tayyorlaydi, ularni keng dunyoqarashli, yetuk shaxs sifatida shakllantiradi.[5]

Xulosa. Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, yoshlarning shaxsiy rivojlanishida ijtimoiy muhitning psixologik omillari beqiyos ahamiyatga ega bo‘lib, ularni doimiy ravishda qo‘llab-quvvatlash va ijobiy muhit yaratish lozim. Bu orqali yoshlar o‘z qobiliyatlarini to‘liq ro‘yobga chiqarib, jamiyat va oila uchun foydali shaxsga aylanishlari ta'minlanadi. Ya’ni, ijtimoiy muhitning ta'siri bilan yoshlarning o‘zlikni anglash jarayoni yanada chuqurlashadi va qat'iylashadi. Shu tarzda yoshlar kelajakda mard, mardona, mas'uliyatli va ijtimoiy faol fuqarolar bo‘lib yetishadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. G‘aniev, A. (2018). Yoshlarning shaxsiy rivojlanishida ijtimoiy muhitning ta’siri. O‘zbekiston Psixologiya Jurnali, 3(2), 45-53.

2. Islomova, M. (2020). Yoshlarning ijtimoiy muhitdagi o‘zaro munosabatlari va psixologik salomatligi. Toshkent Pedagogika Universiteti ilmiy ishlar to‘plami, 12, 78-86.
3. Mirzayev, R. (2019). Ijtimoiy muhit va yoshlar psixologiyasi: nazariy va amaliy jihatlar. Toshkent Psixologiya Markazi nashri, 101 sahifa.
4. Nurmatov, J. (2021). Yoshlarning shaxsiy rivojlanishida oilaning roli va psixologik omillar. O‘qituvchi va Ilm-fan, 6(4), 33-42.
5. Qodirov, S. (2017). Ijtimoiy psixologiya asoslari. Toshkent: Fan va Texnologiya nashriyoti.
6. Rasulov, I. (2022). Pedagogik psixologiya va yoshlarning ijtimoiy rivojlanishi. Toshkent davlat pedagogika universiteti ilmiy jurnali, 8(1), 15-27.
7. Toshboyev, E. (2019). Ijtimoiy muhit va shaxsiy rivojlanish: psixologik tahlil. Toshkent: Ilm-nashr, 135 bet.

YANGI O‘ZBEKISTONNI BARPO ETISHDA “MAHALLA YETTILIGI”NING O‘RNI VA AHAMIYATI

Soliyev Jasur Djaloldinovich
Qo‘qon universiteti Andijon filiali
Tarix va ijtimoiy fanlar kafedrasi o‘qituvchisi,
zhsoliyev87@gmail.com

Annotatsiya: Davlat organlari va jamoatchilikning hamkorligi, “Mahalla yettiligi” a’zolarining malakali faoliyati mamlakatni rivojlantirish va modernizatsiya qilishda muhim resurs sifatida ko‘rilmoqda. Ushbu maqola orqali eng quyi bo‘g‘in hisoblangan mahalla fuqarolar yig‘inlarida faoliyat olib borayotgan “Mahalla yettiligi”ning yangi O‘zbekistonda ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlashda, aholi bilan davlat o‘rtasidagi aloqalarni yanada yaxshilashda, shuningdek, davlat dasturlarini mahallalarda samarali amalga oshirishdagi o‘rni tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: Yangi O‘zbekiston, “Mahalla yettiligi”, “mahallabay”, “xonadonbay”, “fuqarobay”, mahallani qo‘llab-quvvatlash kengashlari, mahalla raisi, hokim yordamchisi, yoshlar yetakchisi, xotin-qizlar faoli, profilaktika inspektori, ijtimoiy xodim va soliq inspektori.

Аннотация: Сотрудничество государственных органов и общественности, а также профессиональная деятельность членов «Махаллинской семёрки» рассматриваются как важный ресурс в развитии и модернизации страны. В данной статье рассматривается роль «Махаллинской семёрки», действующей в собраниях граждан махаллей – базовом звене общества, в укреплении социальной стабильности в Новом Узбекистане, совершенствовании взаимодействия между населением и государством, а также в эффективной реализации государственных программ на уровне махаллей.

Ключевые слова: Новый Узбекистан, Махаллинская семёрка, «махаллабай», «хонадонбай», по поддержке махаллей, председатель махалли, помощник хокима, лидер молодёжи, активистка женщин, инспектор по профилактики, социальный работник, налоговый инспектор.

Annotation: The collaboration between state authorities and the public, along with the professional activities of the members of the “Mahalla Seven,” is viewed as a crucial resource for the country’s development and modernization. This article analyzes the role of the “Mahalla Seven” — the grassroots-level team operating within the citizens’ assemblies of mahallas — in strengthening social stability in New Uzbekistan, enhancing communication between the population and the state, and effectively implementing state programs at the mahalla level.

Keywords: New Uzbekistan, Mahalla Seven, “Mahallabay”, “khonadonbay”, “fukarobay”, Makhalla Support Councils, Makhalla Chairman, Assistant to the Khokim (District Governor), Youth Leader, Women’s Activist, police inspector, Social Worker, Tax Inspector.

O‘zbekistonda so‘nggi uch yilda mahalla institutining jamiyatimiz hayotida tutgan o‘rni va ahamiyati yuqorilab, mahallalarni qo‘llab-quvvatlash, “mahallabay”, “xonadonbay”, “fuqarobay” tizim asosida ishlashga mas’ul bo‘lgan davlat xizmatchilari faoliyatini samarali tashkil etish va ularning hamkorligini ta’minlashga qaratilgan tizimli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Shuningdek, Yangi O‘zbekistonda davlatning ijtimoiy siyosati avvalo eng quyi bo‘g‘in – mahalladan boshlanishi belgilab berildi.

Davlatimiz rahbari, Yangi O‘zbekistonni barpo etish va Uchinchi Renessans poydevorini tiklashga qaratilgan ko‘plab farmon, qaror va farmoyishlarni imzoladi. [1,49]

Bu jihatdan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 21 dekabrdagi “Mahalla institutining jamiyatdagi rolini tubdan oshirish va uning aholi muammolarini hal etishda birinchi bo‘g‘in sifatida ishlashini ta’minlashga qaratilgan chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmoni hamda “O‘zbekiston mahallalari uyushmasi faoliyatini yo‘lga qo‘yish va mahallalarda boshqaruv tizimini takomillashtirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarorida ham ezgu maqsadlarga erishishda muhim masalalar o‘z aksini topgan. [2] [3]

Ushbu Farmon hamda Qaror qabul qilinishi natijasida o‘zini o‘zi boshqarish organlari maqomiga zid bo‘lib qolayotgan, mahalla instituti faoliyati ustidan O‘zbekiston Respublikasi Mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash vazirligi (2023 yilda tugatilgan) kabi davlat organi zimmasiga yuklatilgan nazorat va monitoring amaliyoti bekor qilinib, mahallalarni rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlarini belgilovchi, daromad va xarajatlar hamda dasturlarni tasdiqlovchi jamoatchilik asosida faoliyat yuritadigan oliy organ Respublika, Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahri va tumanlar (shaharlar) mahallani qo‘llab-quvvatlash kengashlari (keyingi qatorlarda Kengash) shakllantirildi.

Kengashning asosiy vazifasi mahalladagi muammolarni hal etishga boshqa manfaatdor idora va tashkilotlarni faol jalb qilish, samarali boshqaruv tizimini shakllantirish hamda sohaning nufuzi va unga bo‘lgan e’tiborni kuchaytirish hisoblanadi.

Shu bilan birga, Farmon talablari asosida nodavlat notijorat tashkilot sifatida O‘zbekiston mahallalari uyushmasi hamda uning viloyat va tumanlardagi bo‘linmalari tashkil etildi.

Shu asnoda mahallalarninng jamiyat hayotidagi o‘rnini oshirish hamda sohada boshqaruv tizimini takomillashtirish maqsadida bevosita mahallada mahalla raisi, hokim yordamchisi, yoshlar yetakchisi, xotin-qizlar faoli, profilaktika inspektori, ijtimoiy xodim va soliq inspektoridan iborat “Mahalla yettiligi” tashkil qilinib, vazifalari aniq belgilab berildi.

Hozirgi davrda xalqaro maydonda hukm surayotgan murakkab, tahlikali voqeiliklar, oqibatini bilib bo‘lmaydigan o‘zgarishlar, dunyoning va mamlakatimizning barqaror rivojlanishi yo‘lidagi xavf-xatarlar, tahdidlar atroflicha tahlil etilishi, bu jihatdan aholining ijtimoiy muammolarini hal etish, bandlikka ko‘maklashish, odamlarni ezgu maqsadlar yo‘lida birlashtirish va safarbar etish orqali mahallalardagi ijtimoiy-ma’naviy muhit barqarorligini ta’minlash masalasi har bir “mahalla yettiligi”dan zamonaviy boshqaruv mahoratini puxta egallab olishlikni talab etadi. [4,13]

“Mahalla yettiligi”ning ish faoliyati to‘g‘ri rejalashtirilsa, bugungi shiddatli davrda barcha mas’ullardan o‘ziga tegishli sohaning murakkabliklarini yaxshi bilishsa, oldiga qo‘ygan maqsadini chuqur his etsa, ko‘plab muammolar o‘z yechimini topib, yurtimiz yanada obod, turmushimiz esa farovon bo‘ladi. [5,407] Bu borada “Mahalla yettiligi” a’zolari o‘zlarining hududida yashovchi fuqarolarga ma’naviy yaqin bo‘lishi, aholi bilan o‘zaro munosabatini iliqlashtirishi, hamisha odamlarning quvonch va tashvishlari bilan yashashi talab etilmoqda.

“Mahalla yettiligi” quyidagi vazifalarni amalga oshirishi belgilangan:

- tegishli hududda qonunlar va boshqa qonunchilik hujjatlarining ijro etilishi holatini, oilalarning iqtisodiy-ijtimoiy holati va ehtiyojlarini o‘rganishda fuqarolar yig‘ini kengashiga ko‘maklashadi;
- jismoniy shaxslarni “Temir daftar”, “Yoshlar daftari” va “Ayollar daftari”ga kiritish to‘g‘risida qaror qabul qiladi;
- jismoniy shaxslarga “Temir daftar”, “Yoshlar daftari”, “Ayollar daftari”, Aholini tadbirkorlikka jalb qilish jamg‘armasi, Bandlikka ko‘maklashish davlat jamg‘armasi hamda Hunarmandchilik va kasanachilikni qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasi orqali ijtimoiy yordam ko‘rsatish va subsidiyalar ajratish bo‘yicha qaror qabul qiladi. Bunda 2023 yil 21 dekabrda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-209-sonli Farmoni bilan tasdiqlangan

““Mahalla yettiligi”ning kollegial qarorlari asosida ko‘rsatiladigan ijtimoiy yordam va ajratiladigan subsidiyalar ro‘yxati”da keltirilgan ijtimoiy yordam va subsidiyalar ajratiladi;

- ijtimoiy xodim tomonidan “Saxovat va ko‘mak” jamg‘armasi orqali fuqarolarning og‘ir ijtimoiy ahvolga tushib qolishining oldini olish va shunday vaziyatga tushganlarni og‘ir vaziyatdan chiqarish maqsadida kiritilgan xulosa asosida ijtimoiy yordam ko‘rsatish va subsidiyalar ajratish bo‘yicha qaror qabul qiladi;
- davlat organlari va tashkilotlarining faoliyatiga doir masalalar yuzasidan fuqarolarning murojaatlarini ko‘rib chiqishda ishtirok etadi, shuningdek, ularni ko‘rib chiqish natijalari bo‘yicha davlat organlari va tashkilotlariga tegishli takliflar kiritadi;
- qonunchilik hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarni amalga oshiradi.

Bunda “Mahalla yettiligi” a’zolarini funksional vazifalaridan kelib chiqib, muammolarni bartaraf etadi.

Misol uchun,

- mahalla raisi o‘z hududida aholi manfaatlarini ifodalaydigan hamda hududni kompleks rivojlantirish vazifalari amalga oshirilishini va fuqarolar muammolarini samarali hal etilishini tashkil etadigan mas’ul shaxs hisoblanadi;

- hokim yordamchisi ishsiz fuqarolar bandligini ta’minlash chorasini ko‘radi, yoshlar yetakchisini kam ta’minlangan oilalarda tarbiyalanayotgan voyaga yetmagan o‘quvchi-yoshlarni turli to‘garaklarga jalb etadi;

- xotin-qizlar faolini “Ayollar daftari”ga kiritilgan xotin-qizlarni tadbirkorlikka o‘rgatish choralarini ko‘radi;

- profilaktika inspektorini muntazam ravishda spirtli ichimlik iste’mol qilib, oilasi va mahallaning tinchini buzayotgan fuqaroni majburiy davolanishga yuborish choralarini ko‘radi;

- ijtimoiy xodimni yolg‘iz yashovchi va nogironligi bo‘lgan fuqaroning xonadoniga borib, ijtimoiy yordam ko‘rsatadi;

- soliq inspektori mol mulk va yer solig‘ini to‘lamagan fuqarolar bilan suhbatlashib, soliq tushumlarini tashkil etishga yo‘naltiradi.

Xulosa qilib aytganda, Yangi O‘zbekistonni qurishda mahallalarida ishni to‘g‘ri rejalashtirish va vaqtdan samarali foydalanish katta san’at. “Mahalla yettiligi” a’zolari doimo xalqning dardi bilan yashovchi shaxslardir. Ularning mashaqqatli mehnatlari natijasida mahallalar obod, turmush farovon bo‘ladi, jinoyatchilik va huquqbuzarliklar barham topadi, mehr-oqibat, ahillik muhiti shakllanib, odamlarning hayotdan rozi bo‘lishlariga erishiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Mirziyoyev Sh.M. “Hozirgi zamon va Yangi O‘zbekiston”.–Toshkent: «O‘zbekiston» NMIU, 2024.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 2023 yil 21 dekabrdagi PQ-402-sonli “O‘zbekiston mahallalari uyushmasi faoliyatini yo‘lga qo‘yish va mahallalarda boshqaruv tizimini takomillashtirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarori.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 21 dekabrdagi PF-209-sonli “Mahalla institutining jamiyatdagi rolini tubdan oshirish va uning aholi muammolarini hal etishda birinchi bo‘g‘in sifatida ishlashini ta’minlashga qaratilgan chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmoni.
4. Mahalla, The Pillar of New Uzbekistan — Rakhimov Ilkhomjon & Tishabayeva Lola. Educator Insights: Journal of Teaching Theory and Practice. 2024.
5. Maria Louw. “Islamic legal culture in Uzbekistan”. Journal Legal Pluralism and Critical Social Analysis, 2023, 55(3), 402–429.

MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARI TARBIYALANUVCHILARIDA MILLIY G'URUR HISSINI SHAKLLANTIRISHNING AHAMIYATI

Kadirova Shaxnoza Xudoyberdiyevna
TerDPI Maktabgacha ta'limda tarbiyani tashkil etish kafedrasi katta o'qituvchisi PhD, dotsent
shaxnoza.kadirova.85@mail.ru
Tog'ayeva Munisa
TerDPI 1-bosqich magistranti

Anotasiya. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida muntazam tashkil etiladigan, tarbiyalanuvchilarni Vatanga sadoqat, milliy g'urur va buyuk ajdodlar ma'naviy merosiga hurmat ruhida tarbiyalashga qaratilgan ma'naviy-ma'rifiy, tarbiyaviy ishlar jarayonida xalqimizning boy ma'naviy-madaniy merosi, sharqona va umumbashariy qadriyatlar asosida mamlakat, millat kelajagini belgilaydi.

Kalit so'zlari: Ta'lim-tarbiya, milliy g'urur, milliy qadriyatlar, pedagogik mahorat, tarbiyachi, urf-odatlar, buyuk ajdodlar, ma'naviy-madaniy meros, xalq an'analari.

Резюме. Богатое духовное и культурное наследие нашего народа, будущее страны и нации определяет будущее страны в процессе духовно-просветительской работы, которая регулярно организуется в дошкольных образовательных учреждениях.

Ключевые слова: Образование, национальная гордость, национальные ценности, педагогическое мастерство, воспитатель, традиции, великие предки, духовное и культурное наследие, народные традиции.

Summary. The rich spiritual and cultural heritage of our people, the future of the country and nation determines the future of the country in the process of spiritual and educational work, which is regularly organized in preschool educational institutions.

Keywords: Education, national pride, national values, pedagogical skills, educator, traditions, great ancestors, spiritual and cultural heritage, folk traditions.

Tarixdan ma'lumki, ilmli va ma'rifatli kishilar doimo izzat va hurmatda bo'lishgan. Chunki, ilm har qanday kishini bu dunyoda yor-birodarlari o'rtasida hurmatli bo'lishiga sababchi bo'ladigan narsadir. «Yoshlikda olingan bilim go'yo toshga o'yilgan naqsh kabidir»-degan hikmatli maqol bor. SHunday ekan, foydali ilm olishga barchamiz yoshlikdan xarakat qilishimiz kerak.

Bugungi kunning eng dolzarb yana bir masalalaridan biri-bu mustaqil davlat talablariga javob beradigan yosh avlodni voyaga yetkazish, kadrlar tayyorlash, uzluksiz ta'lim-tarbiya tizimini milliy qadriyatlar va urf-odatlarimiz asosida yaratilishi. Mamlakatimiz ta'lim muassasalarida oxirgi yillarda yoshlarning ma'naviy tarbiyasiga katta ahamiyat berilmoqda. Ta'lim tarbiya milliy qadriyatlarni shakllantirish va rivojlantirishda asosiy o'rinni egallaydi. Tariximiz, madaniyatimiz, milliy urf-odatlarimizga e'tibor kuchaydi, yoshlarda milliy g'ururni shakllantirish va mustahkamlashga alohida ahamiyat berilayotganligi fikrlarimiz isbotidir. [1,327].

Maktabgacha ta'lim sohasi uzluksiz ta'lim tizimining birlamchi bo'g'ini hisoblanib, u har tomonlama sog'lom va barkamol bola shaxsini tarbiyalash va maktabga tayyorlashda g'oyat muhim ahamiyat kasb etadi. Bolalarni madaniy-ma'naviy, axloqiy kamoloti suratlarini tezlashtirish, ta'lim-tarbiya ishlarini oqilona yo'lga qo'yish tadbirlarini amalga oshirishda maktabgacha ta'lim muassasalarining ahamiyati kattadir.

Maktabgacha ta'lim muassasalarida muntazam tashkil etiladigan, tarbiyalanuvchilarni Vatanga sadoqat, milliy g'urur va buyuk ajdodlar manaviy merosiga hurmat ruhida tarbiyalashga qaratilgan ma'naviy-ma'rifiy, tarbiyaviy ishlar jarayonida xalqimizning boy ma'naviy-madaniy merosi, sharqona va umumbashariy qadriyatlar asosida mamlakat, millat kelajagini belgilaydigan ilg'or g'oyalarni, millatlararo do'stlik, hamjihatlikning ahamiyatini, yurtimizda tinchlik va barqarorlikni saqlashning zaruriyati va mohiyatini yoshlar qalbiga singdirish jarayonlariga yondashuv o'tmishga, hodisa va voqelikka tahliliy yondashuvni tatbiq qilish bugungi kunda o'ziga xos ahamiyat kasb etadi.

Milliy qadriyatlarimizni tiklash, urf-odat va an'analarimizni asrab-avaylash, xususan, yosh avlod qalbi va ongiga Ona yurtga muhabbat, istiqlolga sadoqat tuyg'ularini chuqur singdirish, milliy g'oya targ'ibotini hamda ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish muhim ahamiyat kasb etmoqda. [2,4].

Barkamol avlodni milliy qadriyatlar asosida tarbiyalash ularda ona-yurtiga muhabbat tuyg'ularini, uni himoya qilish, asrab-avaylashga qaratilgan intilishlarini kuchaytirishga yordam beradi. Milliy jihatdan o'zligini anglagan insongina davlati oldida turgan asosiy maqsadlari nimadan iboratligini tushunib, xalq oldidagi mas'uliyatini chuqur anglaydi. Milliy urf-odat an'analar, milliy g'urur, milliy qadriyat, birdamlik va hamjihatlik tuyg'usi zaminida shakllangan vatanparvarlikni ham o'z ichiga oladi. "An'ana" -tarixiy taraqqiyot jarayonida va ijtimoiy ehtiyojlar orasida vujudga keladigan, avloddan-avlodga meros bo'lib o'tadigan, kishilar ma'naviy hayotiga ta'sir ko'rsatadigan madaniy hodisadir. An'ana o'ziga xos ijtimoiy hodisa sifatida majmuasi hisoblanadi.

Xalq an'analari - uzoq taraqqiyot jarayonida etnoslarning ijtimoiy-ma'naviy ehtiyojlari asosida vujudga kelib, ularning aqliy-ijodiy faoliyati asosida, atrof-muhit, tabiat, mehnat jarayoniga bog'liq holda avloddan-avlodga o'tib, taraqqiy etgan va asrlararo ajdodlar fikri, orzu-o'ylari, tajribalari, yutuqlari va boshqa qadriyatlarini mujassamlashtirgan bebaho ijtimoiy-madaniy merosga aylangan. Urf-odat kishilarning turmushiga singib ketgan, ma'lum muddatda takrorlanib turuvchi xatti-harakat, ko'pchilik tomonidan qabul qilingan xulq-atvor qoidalari ko'nikmasidir. Masalan: kichiklarning kattalarga salom berishi, uy-xovlini tartibga keltirish, mehmonlarga alohida hurmat ko'rsatish, bayram arafasida keksa qariyalar, kasal ojiz, qiynalgan kishilar holidan xabar olish, qo'ni-qo'shnilarni biror ishiga yordam berish, hasharga borish kabilar o'zbek xalqiga xos yaxshi odatlar hisoblanadi. Yosh avlodlarda ona zaminga bo'lgan muhabbat, u bilan faxrlanish qanchalik kuchli bo'lsa, Vatanni sevish, yuksak darajada e'zozlash kuchaysa, har bir inson o'z vatani tarixi, milliy qadriyatlari, o'zining ona tilisi, madaniyati, milliy urf-odatlari, an'analarini mukammal bilsa, millat taqdiri va istiqboli haqida chuqur tasavvurga ega bo'lsa, mustaqillik shunchalik mustahkam va barqaror bo'ladi. [3,113].

Abstract: As states, societies develop in World Development, the human factor becomes more and more dominant. In this regard, the issue of social history is important in revealing the progress of each society and the relationship between different social strata. The essence of multinationalism, the study of the problems of demography, which arose in Turkestan in the second half of the XIX – early XX centuries, serves to introduce new data into the history of the colonial period of Uzbekistan.

Keywords: Central Asia, Turkestan country, military, works belonging to administrators, peoples of Central Asia, lifestyle, ethnic and social composition, resources.

Аннотация: В мировом развитии по мере развития государств, обществ человеческий фактор все больше выходит на передний план. В этом отношении вопрос социальной истории важен для раскрытия прогресса каждого общества и взаимоотношений между различными социальными слоями. Изучение сущности многонациональности, возникшей в Туркестане во второй половине XIX – начале XX века, проблем демографии послужит введению новых данных в историю колониального периода Узбекистана.

Ключевые слова: Произведения, относящиеся к Средней Азии, Туркестанскому краю, военным, администраторам, народам Средней Азии, образ жизни, этнический и социальный состав, источники.

1886-yilgi “Turkiston o‘lkasini boshqarish Nizomi” ga muvofiq, Turkiston o‘lkasining mamuriy-hududiy bo‘linishi o‘zgartirildi. Bunda mavjud birliklarni unifikatsiyalash prinsipiga izchil rioya qilina boshlandi. Zarafshon okrugi Samarqand viloyatiga aylantirildi. Uning tarkibiga Sirdaryo viloyatining Xo‘jand va Jizzax uezdlari o‘tkazildi va keyinchalik Samarqand viloyati Jizzax, Kattaqo‘rg‘on, Samarqand va Xo‘jand uezdlaridan tashkil topdi. Samarqand viloyati va uning tarkibidagi uezd (tuman), shahar va uchastka (jabha)lar nomi keltirildi. 1897 yilda M.Virskiy bergan malumotlarga ko‘ra, Samarqand uzedida-32 ta, Xo‘jand uezdda-11 ta, Kattaqo‘rg‘on uezdda-31 ta, Jizzax uezdda-17 ta volost mavjud edi. Viloyat bo‘yicha 390 ta

qishloq va 48 ta ovul jamoalari, aholi punktlari 2267 ta qishloq va 158 ta ovuldan iborat bo‘lgan [1,75-76].

Zarafshon muzofoti va uning Kattaqo‘rg‘on bo‘limi aholisining etnik tarkibi va soni to‘g‘risida birlamchi yozma manbalarda, shuningdek, maxsus tarixiy adabiyotlarda keltirilgan ma’lumotlarni tadqiq va tahlil etish, ularni umumlashtirish aholining soni va etnik tarkibi xususiyatlarini aniqlash vazifalari qo‘yilgan. Bu vazifalarni bajarish natijasida Samarqand viloyati va Kattaqo‘rg‘on bo‘limiga oid birlamchi manbalar va maxsus tarixiy adabiyotlar ustida kichik tarixiy-manbaviy tahlilni amalga oshirish ko‘zda tutilgan. Maqolada mohiyatan muammo bo‘yicha tarixshunoslik tahlili amalga oshirilgani bois mavzuning tarixshunosligi bo‘yicha alohida to‘xtalinmadi.

Samarqand viloyatida aholisi soni bo‘yicha Kattaqo‘rg‘on uezdi etakchi o‘rinda turgan. Jumladan, 1897 yildagi Rossiya imperiya aholisining birinchi marta ro‘yxatga olish to‘g‘risidagi malumotlarga ko‘ra uezdda aholi soni umumiy 110006 nafar kishidan iborat bo‘lgan. Shundan erkaklar 60897 nafar va ayollar 49109 nafarni tashkil etgan. Kattaqo‘rg‘on shahar aholisi umumiy 10087 kishi, shundan erkaklar 5954 nafar ayollar, 4133 kishidan iborat bo‘lgan [2,III-IV].

1880-yil Kattaqo‘rg‘on bo‘limida jami aholi tarkibida pravoslavlar 1496, raskolniklar 15, rim-katoliklar 50, armanlar 13, yahudiylar 542, musulmonlar 132403 va butparastlar 80 nafarni tashkil etgan [3,81-82].

Kattaqo‘rg‘on bo‘limida nasliy dvoryanlar 3, shaxsiy dvoryanlar 3, ruhoniylar 1, quyi unvonli xizmatchilar 466 va 14 yoshgacha bo‘lgan bolalar 28 nafarni tashkil etgan. Ularning jami soni 501 kishidan iborat bo‘lib, shundan xotin-qizlar 57 nafar.

1883-yil uchun Kattaqo‘rg‘on shahridagi harbiy-xalq boshqaruvi xizmatchilarining diniy e’tiqod bo‘yicha ro‘yxati qaydnomasi.

Kattaqo‘rg‘on shahridagi harbiy-xalq boshqaruvi xizmatchilaridan 395 nafari pravoslav (shundan 30 nafari ayollar), 14 nafari raskolnik, 1 nafar rim-katolik, 16 nafari musulmon va 11 nafari butparast bo‘lgan. Ularning jami soni 466 nafarni tashkil etgan [4,19-20].

Kattaqo‘rg‘on shahrida nasliy dvoryanlar 32, shaxsiy dvoryanlar 3, quyi unvonli harbiy xizmatchilar 801, 14 yoshgacha bo‘lgan bolalar 42 nafarni tashkil etgan. Shundan xotin-qizlar 71 nafar.

Harbiy xizmatchilardan 758 nafari pravoslav, 28 nafari raskolnik, 18 nafari rim-katolik, 17 nafari yahudiy, 15 nafari musulmon e’tiqodiga mansub bo‘lgan. Ularning jami soni 836 nafarni tashkil etib, shundan 55 nafari xotin-qizlar [5,23-24].

1883-yilda Kattaqo‘rg‘on bo‘limida pravoslavlar 1,341, raskolniklar 19, yahudiylar 577, musulmonlar 150,031, butparastlar 81 nafarni tashkil etgan. Kattaqo‘rg‘on bo‘limida hovlilar, uylar, o‘tovlar va masjidlar soni to‘g‘risida statistik ma’lumotlar (1870 yil uchun).

№	Kattaqo‘rg‘on bo‘limi	Hovlilar soni	Uylar soni	O‘tovlar soni	Masjidlar soni
1	Payshanba qo‘rg‘oni	503	644		10
2	Payshanba tumani qishloqlarida	3028	5287		147
	Jami:	**3531**	**5931**		**157**
1	Kattaqo‘rg‘on shahrida	843	1027		30
2	Kattaqo‘rg‘on tumani qishloqlarida	2914	3594	759	124
	Jami:	**3757**	**4621**	**759**	**154**

Kattaqo‘rg‘on bo‘limi boshlig‘i tomonidan taqdim etilgan ma’lumotlar:

1870 yilda Kattaqo‘rg‘on shahrida yashovchi hindlarning soni 33 kishini tashkil etib, ular karvonsaroylarda yashagan va sutxo‘rlik bilan shug‘ullangan. Ayrimlari boy hindlarning xizmatkorlari hisoblanadi.

1870 yil 20 aprel holatiga ko‘ra, Kattaqo‘rg‘on shahrida yashovchi yahudiy erkaklardan 40 nafarining ro‘yxati taqdim etilgan.

KKB shaharlari aholisi soni tarkibi to‘g‘risida qaydnoma (1872)

№	Kattaqo‘rg‘on bo‘limi	Kattaqo‘rg‘on shahri		Payshanba shahri		Mitan qo‘rg‘oni (Girdiqo‘rg‘on)	
		Erkak	Ayol	Erkak	Ayol	Erkak	Ayol
1	Tojiklar	1700	1630			53	51
2	O‘zbeklar	550	451	1018	925	118	126
3	Eronilar	18	20				
4	Yahudiylar	120	101	85	77		
5	Hindlar	47		19			
6	Lo‘lilar	100	73				
	Jami aholi:	4810		2124		348	

2.12.1872 da KKBB tomonidan taqdim etilgan ma’lumotlarga ko‘ra, KKbda erkaklar 27378, ayollar 34031 kishini jami aholi 51,409 kishini tashkil etgan.

KKB bo‘yicha statistik malumotlar (30.03.1873) [6,25-26].

№	**Umumiy malumotlar**	**soni**
1	Hovlilar	17895 ta
2	Erkaklar	27388 jon
3	Ayollar	24031 jon
	Jami:	69314
1	**Etnografik malumotlar**	
2	Tojiklar	6469 kishi
3	O‘zbeklar	41408 kishi
1	**Toifaviy malumotlar**	
2	Dindorlar	677 kishi
3	Savdogarlar	79 kishi
4	Qora ishchilar	5430 kishi
5	Sanoatchilar	4268 kishi
6	Dehqonlar	16934 kishi

Samarqand viloyati Kattaqo‘rg‘on bo‘limiga ko‘ra, Samarqand aholisining etnik tarkibi va soni to‘g‘risidagi ma’lumotlar Kattaqo‘rg‘on bo‘limida uylarning umumiy soni 2080 tani tashkil etib, shundan 48 tasi ruslarga tegishli bo‘lgan. Samarqand shahri aholisining etnik tarkibi va soni to‘g‘risida faqat muzofot boshlig‘i mahkamasi hujjatlaridan nisbatan ishonchli ma’lumotlarni olish mumkinligi aniqlandi. Shaharning barcha aholisi qo‘shinlardan tashqari 10000 jonni tashkil etgan.

1886-yilgi “Nizom” rus aholisini ko‘chirib keltirish yo‘li bilan o‘lkani ruslashtirish harakatini qonuniy mustahkamlab, unga siyosiy tus berdi. 1875-1890 yillar orasida Turkistonda 1300 ta oila joylashib, 19 ta rus qishlog‘ini tashkil etildi.

Xulosa o‘rnida yana shularni ham qayd etish joizki, 1883-yilda Kattaqo‘rg‘on bo‘limi aholisi ijtimoiy tarkibi keltirilgan. Umumiy olganda, 1897-yilgi ro‘yxatga olish xujjatlarida, ijtimoiy tarkib faqat rus aholisiga nisbatan keltirilgan bo‘lib, ular quyidagicha edi: dvoryanlar va amaldorlar - 2,1%, shahar aholisi va ruhoniylar - 6,5%, dehqonlar - 20%, kazaklar - 8,1%. Shunday qilib, dehqonlar va kazaklarning o‘ziga to‘q qatlamlarini ham hisobga olganda, rus aholisining deyarli yarmi Rossiya samoderjavisining Turkistondagi mustamlaka apparatining asl o‘zagini tashkil qilgan [7,98-99]. Bu manzara XIX asr oxiri - XX asr boshlarida mustamlaka tuzumning ijtimoiy negizini tashkil etgan.

O‘rta Osiyoni bosib olish jarayonda yangi shaharlar barpo etilishiga qaramasdan (Verniy, Krasnovodsk, Kazalinsk, Perovsk va b.), rus aholisining katta qismi sharoit yaratib berilgan “eski shahar”lar qismida istiqomat qilgan. Ya’ni, bu davrda bir shahar doirasida ikkita: “Eski qism” (mahalliy qism) va “Yangi qism” (“Rus qism”)lar mavjud bo‘lgan. Katta shaharlar toifasiga Samarqand, Ashxaobod, Xo‘jand, Qo‘qon, Andijon, Marg‘ilon, Chimkent, Namangan, Chorjo‘y, Jizzax, Kattaqo‘rg‘on, Avliyoota va O‘ratepa kabilar kirgan.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Г.Б.Нормуродова. XIX аср охири ва XX аср бошларида Самарқанд вилояти аҳолисининг ижтимоий стратификацияси. – Тошкент: Янги нашр, 2013. B-75-76.
2. Первая Всеобшая перепись насиления Российской империи, 1897 г. Самаркандская область.-СПб., 1905.-С. III-IV.
3. Y.U.Xolxujayeva. Turkiston o‘lkasi aholisi va uning milliy tarkibi:tarixiy tahlil (1867-1917 yillar). Avtoreferat-2024. Samarqand. B-81-83.
4. ЎзР МДА, И 22-жамғарма, 1-рўйхат, 365-иш, 19-20 варақлар
5. ЎзР МДА, И 22-жамғарма, 1-рўйхат, 365-иш, 23-24 варақлар
6. ЎзР МДА, И 22-жамғарма, 1-рўйхат, 97-иш, 25-26 варақлар.
7. Ўз МА, И–22–жамғарма, 1–рўйхат, 365–иш, варақлар 30 ва унинг орқаси; Абдурахимова Н, Эргашев Ф. Туркистонда чор мустамлака тизими. ..., 98–99 бетлар.

AUDITORLIK TIZIMIDAGI MUAMMO VA YECHIMLAR: O‘ZBEKISTON VA JAHON TAJRIBASI.

Ismoilova Xayitxon Maxammadjonovna
Qo‘qon universiteti Andijon filiali
Tarix va ijtimoiy fanlar kafedrasi
katta o‘qituvchisi
Abdupattoyev Azizbek
Qo‘qon universiteti Andijon filiali
Iqtisodiyot yo‘nalishi talabasi

Annotatsiya. Maqolada O‘zbekiston Respublikasining audit tizimi va AQSH, Buyuk Britaniya, Germaniya kabi davlatlar audit tizimi tajribasi tahlil qilingan. Xalqaro audit standartlarini joriy etish, auditorlarning malakasini oshirish va audit sifatini nazorat qilish mexanizmlarini takomillashtirish bo‘yicha ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqilgan. Maqolada O‘zbekiston audit tizimining mavjud holati, yutuq va kamchiliklari tahlil qilinib, uni xalqaro standartlarga moslashtirish yo‘nalishlari belgilangan.

Kalit so‘zlar: audit, xalqaro audit standartlari, audit faoliyati, audit tizimi, xalqaro tajriba, audit sifati nazorati, professional audit tashkilotlari.

Аннотация: В статье анализируется система аудита Республики Узбекистан и опыт аудиторских систем таких стран, как США, Великобритания и Германия. Разработаны научно обоснованные рекомендации по внедрению международных стандартов аудита, повышению квалификации аудиторов и совершенствованию механизмов контроля качества аудита. В статье анализируется современное состояние, достижения и недостатки системы аудита Узбекистана, а также определяются направления ее адаптации к международным стандартам.

Ключевые слова: аудит, международные стандарты аудита, аудиторская деятельность, система аудита, международный опыт, контроль качества аудита, профессиональные аудиторские организации.

Abstract: This article analyzes the audit system of the Republic of Uzbekistan and the experience of the audit systems of countries such as the USA, Great Britain, and Germany. Scientifically based recommendations have been developed on the introduction of international audit standards, improving the skills of auditors, and improving audit quality control mechanisms. The article analyzes the current state, achievements, and shortcomings of the audit system of Uzbekistan, and identifies areas for its adaptation to international standards.

Keywords: audit, international audit standards, audit activities, audit system, international experience, audit quality control, professional audit organizations.

O‘zbekiston Respublikasida bozor iqtisodiyoti sharoitida audit faoliyatini rivojlantirish va takomillashtirish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Zamonaviy sharoitda korxona va tashkilotlarning moliyaviy-xo‘jalik faoliyatini tekshirish va baholashda audit xizmati muhim ahamiyat kasb etmoqda. Biroq, xalqaro audit standartlarini joriy etish va audit sifatini oshirish bo‘yicha hali ko‘plab vazifalar mavjud. Xususan, milliy audit standartlarini xalqaro talablarga

moslashtirish, auditorlarning malakasini xalqaro darajaga ko‘tarish, audit sifatini nazorat qilish tizimini takomillashtirish kabi masalalar dolzarb bo‘lib qolmoqda. Bu esa o‘z navbatida O‘zbekiston audit tizimini jahon tajribasi asosida rivojlantirish zaruriyatini keltirib chiqaradi. Rivojlangan mamlakatlar tajribasini o‘rganish va ularning ilg‘or amaliyotini milliy sharoitga moslashtirgan holda joriy etish orqali O‘zbekiston audit tizimining samaradorligini oshirish mumkin.

Adabiyotlar tahlilida milliy va xorijiy olimlarning ilmiy ishlari, me’yoriy-huquqiy hujjatlar, xalqaro audit standartlari va boshqa manbalar o‘rganildi. Mahmudov va boshqalar (2023) O‘zbekistonda audit tizimining huquqiy asoslarini tahlil qilib, qonunchilikni takomillashtirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqqan. Xorijiy tadqiqotchilardan Smith (2022) turli mamlakatlarning audit tizimlarini qiyosiy o‘rganib, samarali audit tizimining asosiy xususiyatlarini aniqlagan. Weber (2023) rivojlangan mamlakatlardagi zamonaviy audit amaliyotini tadqiq etib, audit sifatini nazorat qilishning ilg‘or mexanizmlarini tavsiflagan. Tadqiqot davomida audit sohasidagi me’yoriy-huquqiy hujjatlar, xalqaro audit standartlari (ISA), professional audit tashkilotlarining hisobotlari va boshqa rasmiy manbalar ham tahlil qilindi. Bu esa o‘z navbatida tadqiqot natijalarining ishonchliligini ta’minlashga xizmat qildi.

Xalqaro tajriba tahlili shuni ko‘rsatadiki, rivojlangan mamlakatlarda audit faoliyatini tartibga solishning samarali mexanizmlari mavjud. AQSH tajribasi bo‘yicha, audit faoliyati davlat va jamoat tashkilotlari tomonidan nazorat qilinadi. Bu yerda Securities and Exchange Commission (SEC) va Public Company Accounting Oversight Board (PCAOB) kabi tashkilotlar audit sohasini tartibga solishda muhim rol o‘ynaydi. AQSH audit tizimining o‘ziga xos jihati shundaki, yirik kompaniyalarda ichki audit xizmatiga katta e’tibor qaratiladi va ular tashqi audit bilan samarali hamkorlikni yo‘lga qo‘ygan.

Buyuk Britaniyada auditorlik faoliyatini o‘z-o‘zini tartibga solish tizimi mavjud [5]. Financial Reporting Council (FRC) audit standartlarini ishlab chiqish va audit sifatini nazorat qilishda asosiy organ hisoblanadi. Professional audit tashkilotlari (ICAEW, ACCA) auditorlarning malakasini oshirish va sertifikatlashda faol ishtirok etadi. Britaniya tajribasining o‘ziga xos tomoni - audit firmalari rotatsiyasi tizimining samarali ishlashi va audit hisobotlarining yuqori shaffofligidir.

Germaniya tajribasi audit faoliyatini qat’iy tartibga solish bilan ajralib turadi. Bu yerda Wirtschaftsprüferkammer (WPK) auditorlarni litsenziyalash va nazorat qilishning markazlashgan tizimini amalga oshiradi. Germaniyada auditorlarning mustaqilligi va professional etikasi masalalariga alohida e’tibor qaratiladi.

BIG 4 bu dunyodagi xususiy auditorlik kampaniyasi bo‘lib asosiy to‘rtta kampaniyadan tashkil topgan. Bu kampaniyalar Deloitte, PwC, EY, KPMG. Bu kampaniya nima vazifani bajaradi. Bu kampaniya AUDIT: korxonalar moliyaviy hisobotlarni tekshirish va tasdiqlash, Soliq maslahati:korxonalarga soliqlarni to‘g‘ri hisoblash va optimallashtirish, Konsalting:biznesni rivojlantirish, strategiya yaratish, jarayonlarni takomillashtirish, Risklarni boshqarish:moliyaviy, operatsion, axborot xavfsizligi risklarni kamaytirish vazifalarini bajaradi va ixtiyoriy pullik tekshiruvlarni amalga oshiradi. Hozirda BIG 4 kompaniyasida bir million to‘rt yuz sakson mingdan ortiq odam ishlab keladi. Bu kompaniya hozirda O‘zbekiston Respublikasi banklarini ham tekshirib keladi va hozirda shu kampaniyada yigirma to‘qqiz nafar o‘zbek auditorlari ishlab keladi banklarimizni tekshiradi. Yuqorida aytib o‘ytganimizdek bu insonlar CAP va CIPA sertifikatlariga ega. Biz yuqorida nazarda tutilgan yigirma to‘qqiz nafarni yanada oshirib bu tajribalarni o‘zimizda qo‘llashimiz kerak.

O‘zbekiston audit tizimini tahlil qilganda bir qator muammolar aniqlanadi. Xususan, Milliy audit standartlarining xalqaro standartlarga to‘liq mos kelmasligi, auditorlarning malakasida xalqaro bilimlarni yetishmasligi, audit sifatini nazorat qilish mexanizmlarining yetarli darajada rivojlanmaganligi, raqamli texnologiyalarning audit jarayonlarida yetarlicha qo‘llanilmasligi kabi masalalarni ko‘rish mumkin.

Xalqaro tajriba asosida O‘zbekiston audit tizimini takomillashtirish uchun bir qator islohotlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq. Ya’ni xalqaro audit standartlarini (ISA) to‘liq

joriy etish va milliy standartlarni ular asosida qayta ko‘rib chiqish. Bu jarayonda rivojlangan mamlakatlar tajribasini inobatga olgan holda, milliy xususiyatlarni ham hisobga olish lozim.

Auditorlarning malakasini oshirish tizimini takomillashtirish. Buning uchun xalqaro sertifikatlashtirish dasturlarini joriy etish, xorij audit kompaniyalari bilan hamkorlikni kuchaytirish, zamonaviy o‘quv dasturlarini ishlab chiqish zarur.

Audit sifatini nazorat qilish mexanizmlarini kuchaytirish. Bu yo‘nalishda xalqaro tajribada qo‘llaniladigan "peer review" tizimini joriy etish, sifat nazorati bo‘yicha xalqaro standartlarni qo‘llash, mustaqil sifat nazorati tizimini shakllantirish muhim.

Professional audit tashkilotlarining rolini oshirish. Ular audit standartlarini ishlab chiqish, auditorlarning malakasini oshirish va audit sifatini nazorat qilishda faol ishtirok etishi lozim.

Audit sohasida raqamli texnologiyalarni keng joriy etish. Audit jarayonlarini avtomatlashtirish, sun’iy intellekt va katta ma’lumotlar texnologiyalaridan foydalanish audit samaradorligini oshiradi. Bundan tashqari, audit xizmatlarining yangi turlarini rivojlantirish, audit bozorini diversifikatsiya qilish, audit tashkilotlarining moliyaviy barqarorligini ta’minlash choralariniko‘rish zarur. Bu chora-tadbirlar O‘zbekiston audit tizimining xalqaro miqyosda raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi.

Shu jihatlarni hisobga olgan holda O‘zbekistonda auditorlik faoliyatini tartibga solish va rivojlantirish bo‘yicha bir qator islohatlar amalga oshirilmoqda. Xususan, O‘zbekiston Respublikasining Auditorlik faoliyati to‘g‘risidagi Qonuni ishlab chiqildi va amaliyotga joriy etildi.

O‘tkazilgan tadqiqot natijalariga ko‘ra, O‘zbekiston audit tizimini xalqaro tajriba asosida rivojlantirish uchun tizimli yondashuvga asoslangan kompleks islohotlar talab etiladi. Audit tizimining zamonaviy holati tahlili shuni ko‘rsatadiki, bugungi kunda milliy audit standartlarini xalqaro talablarga moslashtirish, audit sifatini nazorat qilish mexanizmlarini takomillashtirish va auditorlar malakasini xalqaro darajaga ko‘tarish dolzarb masalalar hisoblanadi. Xalqaro tajriba o‘rganish natijasida audit tizimini rivojlantirish bo‘yicha quyidagi ustuvor yo‘nalishlar belgilandi:

Adabiyotlar

1. Johnson, P. (2023). International Auditing Standards: Implementation and Challenges. Journal of Accounting Research, 45(2), 234-251.
2. Peterson, K. (2023). US Audit Regulation System. Journal of Finance and Accounting, 34(2), 123-138.
3. Smith, R. (2022). Comparative Analysis of Audit Systems. International Journal of Auditing, 18(3), 167-182.
4. Weber, M. (2023). Modern Audit Practices in Developed Countries. Accounting Review, 56(4), 345-360.
5. Исломов, Ф. (2023). Аудит тизимини такомиллаштириш истиқболлари. Молия ва банк иши, 5(2), 78-85.
6. Каримов, Н. (2022). Халқаро аудит стандартларини жорий этиш: муаммо ва ечимлар. Бизнес-эксперт, 2(4), 12-18.
7. Махмудов, А., Қосимов, Г. (2023). Ўзбекистонда аудит фаолиятини ривожлантириш масалалари. Иқтисод ва молия, 3(1), 45-52.

RAQAMLI IQTISODIYOT VA UNING AN’ANAVIY BOZORLARGA TA’SIRI.

Ismoilova Xayitxon Maxammadjonovna

Qo‘qon universiteti Andijon filiali

Tarix va ijtimoiy fanlar kafedrasi katta o‘qituvchisi

Erkinboyeva Sarvinozxon

Qo‘qon universiteti Andijon filiali Iqtisodiyot yo‘nalishi talabasi

Annotatsiya: Raqamli iqtisodiyot raqamli texnologiyalarni biznes va savdo sohasining barcha jabhalariga integratsiyalash orqali global iqtisodiy muhitni tubdan o‘zgartirdi. Ushbu maqolada raqamli iqtisodiyotning an’anaviy bozorlar ustidagi ta’siri o‘rganiladi, ayniqsa elektron tijorat, raqamli to‘lov tizimlari va onlayn platformalarning iste’molchilar xulq-atvori, ta’minot

zanjirlari va bozor raqobatiga qanday ta’sir ko‘rsatgani tahlil qilinadi. Tahlil an’anaviy bizneslarning raqamlashtirishga moslashishidagi imkoniyatlar va qiyinchiliklarni yoritadi. Ushbu jarayonlarni tushunish siyosatchilar va tadbirkorlar uchun zamonaviy raqamli dunyoda muvaffaqiyat qozonishda muhimdir.

Kalit so‘zlar: raqamli iqtisodiyot, an’anaviy bozorlar, elektron tijorat, raqamli to‘lov tizimlari, onlayn platformalar, iste’molchilar xulq-atvori, bozor raqobati, raqamlashtirish, ta’minot zanjiri, biznesni moslashuvi

Аннотация: Цифровая экономика изменила глобальный экономический ландшафт, интегрируя цифровые технологии во все аспекты бизнеса и торговли. В данной работе рассматривается влияние цифровой экономики на традиционные рынки, с акцентом на то, как электронная коммерция, цифровые платежные системы и онлайн-платформы изменили поведение потребителей, цепочки поставок и рыночную конкуренцию. Анализ выявляет как возможности, так и вызовы, с которыми сталкиваются традиционные предприятия при адаптации к цифровизации. Понимание этих процессов важно для политиков и предпринимателей, стремящихся успешно работать в условиях цифровой экономики.

Ключевые слова: цифровая экономика, традиционные рынки, электронная коммерция, цифровые платежные системы, онлайн-платформы, поведение потребителей, рыночная конкуренция, цифровая трансформация, цепочки поставок, адаптация бизнеса

Annotation: The digital economy has transformed the global economic landscape by integrating digital technologies into all aspects of business and commerce. This paper explores the impact of the digital economy on traditional markets, focusing on how e-commerce, digital payment systems, and online platforms have reshaped consumer behavior, supply chains, and market competition. The analysis highlights both opportunities and challenges faced by traditional businesses in adapting to digitalization. Understanding these dynamics is essential for policymakers and entrepreneurs aiming to thrive in an increasingly digital world.

Keywords: digital economy, traditional markets, e-commerce, digital payment systems, online platforms, consumer behavior, market competition, digital transformation, supply chain, business adaptation

So‘nggi yillarda raqamli iqtisodiyot tez sur’atlarda rivojlanib, global iqtisodiy tizimda muhim o‘rin egallamoqda. Raqamli texnologiyalar va internetning keng joriy etilishi biznes jarayonlari va savdo sohasini tubdan o‘zgartirmoqda. An’anaviy bozorlar esa ushbu raqamlashtirish jarayoniga moslashishga majbur bo‘lib, o‘z faoliyatlarini yangicha shakllarda olib borishga harakat qilmoqda. Elektron tijorat, raqamli to‘lov tizimlari va onlayn platformalar iste’molchilar xulq-atvori va bozordagi raqobatni o‘zgartirib, yangi imkoniyatlar bilan birga qator qiyinchiliklarni ham yuzaga keltirmoqda. Ushbu ishda raqamli iqtisodiyotning an’anaviy bozorlar ustidagi ta’siri, imkoniyatlari va muammolari tahlil qilinadi.

Raqamli iqtisodiyot an’anaviy savdo usullarini raqamli xizmatlar va mahsulotlar bilan almashtirishni o‘z ichiga oladi, bu esa bozorlarda tezkor o‘zgarishlarga olib kelmoqda. Shu bilan birga, kichik va o‘rta biznes sub’yektlari uchun yangi raqamli platformalarda faoliyat yuritish imkoniyati paydo bo‘ldi. Biroq, raqamlashtirish jarayoni barcha tadbirkorlar uchun oson kechmayapti, chunki bu yangi texnologiyalarni joriy qilish, kadrlarni tayyorlash va moliyaviy resurslarni ta’minlash kabi masalalar mavjud.

Shu sababli, raqamli iqtisodiyotning an’anaviy bozorlar ustidagi ta’sirini o‘rganish va tahlil qilish iqtisodiyotni yanada samarali boshqarish, raqamli transformatsiyani muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun muhimdir.

Raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi bilan birga, an’anaviy bozorlar yangi raqamli vositalar va platformalar yordamida o‘z biznes modellarini qayta ko‘rib chiqishga majbur bo‘lmoqda. Bu jarayon iqtisodiy tizimda innovatsiyalar va texnologik yangilanishlarni rag‘batlantiradi, shu bilan birga iste’molchilar uchun xizmat ko‘rsatish sifatini yaxshilashga imkon beradi. Shuningdek, raqamli iqtisodiyot bozorlardagi shaffoflikni oshirib, raqobatni kuchaytiradi hamda narxlarni barqarorlashtirishga yordam beradi.

Biroq, raqamli iqtisodiyotning kengayishi bilan bog‘liq xavf va qiyinchiliklar ham mavjud. Bularga kiberxavfsizlik tahdidlari, ma’lumotlar maxfiyligi masalalari, raqamli ko‘nikmalar yetishmasligi va raqamli tengsizlik kiradi. Ayniqsa, an’anaviy bozor sub’yektlari uchun raqamli platformalarga moslashish murakkab va resurs talab qiladigan jarayon bo‘lib qolmoqda.

Shu bilan birga, raqamli iqtisodiyotning an’anaviy bozorlar ustidagi ta’siri faqat iqtisodiy sohada emas, balki ijtimoiy va madaniy sohalarga ham ta’sir ko‘rsatmoqda[14.2]. Masalan, raqamli savdo orqali iste’molchilarning xarid qilish odatlari o‘zgarib, onlayn xizmatlardan foydalanish kengaymoqda. Bu esa o‘z navbatida ish o‘rinlari tuzilmasining o‘zgarishiga, yangi kasblarning paydo bo‘lishiga olib kelmoqda.

Shu sababli, raqamli iqtisodiyot va an’anaviy bozorlar o‘rtasidagi o‘zaro ta’sirni o‘rganish bugungi kunda iqtisodiy tadqiqotlarning muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Bu mavzu bo‘yicha olib borilgan tahlillar va tavsiyalar raqamli transformatsiyani yanada samarali amalga oshirishga, iqtisodiyotning barcha qatlamlarini raqamlashtirish jarayonini tezlashtirishga yordam beradi.

Raqamli iqtisodiyot – bu raqamli texnologiyalar, ayniqsa internet, mobil qurilmalar, bulutli hisoblash, sun’iy intellekt va boshqa innovatsion vositalar asosida tashkil topgan iqtisodiy faoliyatdir[12.1]. U mahsulotlar, xizmatlar va jarayonlarni raqamlashtirish orqali iqtisodiy samaradorlikni oshirishga qaratilgan. Asosiy elementlariga elektron tijorat , raqamli to‘lov tizimlari, raqamli marketing, onlayn platformalar va raqamli ma’lumotlar tahlili kiradi.

An’anaviy bozorlar ko‘p asrlik tajribaga ega bo‘lib, asosan jismoniy savdo nuqtalari, to‘g‘ridan-to‘g‘ri xarid-sotish va qog‘oz asosidagi hujjatlar orqali faoliyat yuritadi. Ushbu bozorlar mahalliy iste’molchilar bilan yuzma-yuz muloqotga asoslangan bo‘lib, o‘ziga xos mijozlar bazasi va xizmat ko‘rsatish usullari mavjud.

Raqamli platformalar orqali xarid qilish imkoniyati ortib, iste’molchilar mahsulot va xizmatlarni solishtirish, sharhlar o‘qish, va tezkor xaridlarni amalga oshirish imkoniga ega bo‘ladi. Bu an’anaviy do‘konlarning savdo hajmiga ta’sir ko‘rsatadi.

Raqamli iqtisodiyot an’anaviy bozorlarga yangi raqobatchilar kirishini osonlashtirdi, shu bilan birga narxlarning pasayishi va sifatning oshishiga sabab bo‘ldi. Raqamli vositalar yordamida ta’minot zanjirlari optimallashtirilib, mahsulotlarni yetkazib berish tezligi va samaradorligi oshdi. An’anaviy bozor sub’yektlari raqamli xizmatlar va onlayn savdo kanallarini joriy etishga majbur bo‘ldilar, bu esa ularning biznes jarayonlarini tubdan qayta tashkil etishni talab qildi.

Dunyoda va O‘zbekistonda elektron tijoratning o‘sishi an’anaviy bozorlar faoliyatiga qanday ta’sir qilayotganini ko‘rsatadigan misollar keltiriladi. Masalan, onlayn chakana savdo platformalari, raqamli bank xizmatlari, va elektron to‘lov tizimlarining keng tarqalishi. Bu tendensiyalar an’anaviy chakana savdo va xizmat ko‘rsatish sohalarida raqamlashtirishni talab qilmoqda.

Raqamli iqtisodiyot an’anaviy bozorlar ustida chuqur ta’sir ko‘rsatib, ular strukturasini va faoliyat shakllarini o‘zgartirmoqda. Avvalambor, raqamli texnologiyalar savdo-sotiq, marketing va mijoz bilan ishlash jarayonlarini avtomatlashtirish imkonini beradi, bu esa xarajatlarni kamaytirib, samaradorlikni oshiradi. An’anaviy bozorlar endi faqat jismoniy makon bilan cheklanmay, onlayn platformalar orqali global darajada kengaymoqda. Bu esa kichik va o‘rta bizneslarga yangi imkoniyatlar ochib beradi, ularning mahsulotlari va xizmatlari global iste’molchilarga yetib boradi.

Bundan tashqari, raqamli iqtisodiyot axborot va ma’lumotlarni tezkor tahlil qilish imkoniyatlari orqali iste’molchilar ehtiyojlarini oldindan aniqlash va ularga mos mahsulotlar taklif qilish imkonini beradi. Natijada, bozorda raqobat kuchayadi va sifat ham oshadi. Shu bilan birga, raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi an’anaviy ishchi o‘rinlarining qisqarishiga ham olib kelishi mumkin, bu esa yangi kasb-hunarlar va ko‘nikmalarni o‘rganishni talab qiladi.

Shunday qilib, raqamli iqtisodiyot va an’anaviy bozorlarning o‘zaro ta’siri — bu murakkab va dinamik jarayon bo‘lib, uning samarali boshqarilishi va imkoniyatlaridan foydalanish davlatlar, biznes va jamiyatning umumiy farovonligi uchun muhimdir. Kelajakda raqamli iqtisodiyot

an’anaviy bozorlar bilan yanada yaqinlashib, ularning integratsiyasi iqtisodiy o‘sishning asosiy drayveriga aylanishi kutilmoqda.

An’anaviy bozorlar raqamli iqtisodiyot sharoitida ko‘proq shaffoflik va tezkorlikka ega bo‘lib, iste’molchilar o‘zlari uchun eng yaxshi tanlovlarni qilish imkoniga ega bo‘lmoqda. Shuningdek, raqamli platformalar kichik va o‘rta bizneslarga yangi bozorlar ochish imkonini berib, iqtisodiy faollikni kengaytiradi. Biroq, bu jarayon ayrim an’anaviy korxonalar uchun qiyinchiliklar keltirib chiqaradi, chunki raqamli transformatsiya [10.8]ga moslashish uchun katta investitsiyalar va yangi malakalar talab etiladi.

Raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi bilan birga, an’anaviy bozorlarning geografik chegaralari ham yo‘qolib boradi, natijada global raqobat kuchayadi. Bu esa, o‘z navbatida, innovatsiyalarni tezlashtirishga va sifatni oshirishga undaydi. Ammo, bunday sharoitda kichik ishtirokchilar bozorni yo‘qotish xavfi ostida qolishi mumkin, bu esa raqobatni tenglashtirish uchun davlat siyosati va regulyatorlarning faol rolini talab qiladi.

Shuningdek, raqamli iqtisodiyotda axborot xavfsizligi va shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilish muhim ahamiyat kasb etmoqda. An’anaviy bozorlarning raqamlashtirilishi bilan bog‘liq xavflar, xususan, kiberhujumlar va ma’lumotlarning noqonuniy tarqalishi, ishonch muhitini zaiflashtirishi mumkin. Shu bois, raqamli iqtisodiyot va an’anaviy bozorla o‘rtasida barqaror va xavfsiz muhit yaratish uchun texnologik va huquqiy asoslarni kuchaytirish zarur.

Xulosa qilib aytganda, raqamli iqtisodiyot an’anaviy bozorlarni yangicha shakllantiradi, ularni yanada raqobatbardosh, samarali va global darajada faol bo‘lishiga xizmat qiladi. Bu jarayonda muvozanatni saqlash, innovatsiyalarni rag‘batlantirish, xavfsizlikni ta’minlash va ijtimoiy ta’sirlarni inobatga olish iqtisodiyotni yanada barqaror va rivojlangan qilish uchun asosiy omillar bo‘ladi. Shu bilan birga, jamiyat va davlat organlari raqamli transformatsiyani qo‘llab-quvvatlash, malakali kadrlar tayyorlash va qonun hujjatlarini zamon talablariga moslashtirish orqali ushbu jarayonga samarali hissa qo‘shishi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Brynjolfsson, E., & McAfee, A. (2014). *The Second Machine Age: Work, Progress, and Prosperity in a Time of Brilliant Technologies*. W.W. Norton & Company.
2. Tapscott, D. (2015). *The Digital Economy: Rethinking Promise and Peril in the Age of Networked Intelligence*. McGraw-Hill Education.
3. Schwab, K. (2016). *The Fourth Industrial Revolution*. Crown Business.
4. OECD. (2019). *Digital Economy Outlook 2019*. OECD Publishing.
5. Muro, M., Liu, S., Whiton, J., & Kulkarni, S. (2017). *Digitalization and the American Workforce*. Brookings Institution Report.
6. World Economic Forum. (2020). *Shaping the Future of Digital Economy and New Value Creation*.
7. Quronov, O. (2021). Raqamli iqtisodiyot [12:1] va uning rivojlanish istiqbollari. Toshkent: O‘zbekiston Milliy Universiteti Nashriyoti.
8. Castells, M. (2010). *The Rise of the Network Society*. Wiley-Blackwell.
9. Tapscott, D., & Tapscott, A. (2016). *Blockchain Revolution: How the Technology Behind Bitcoin Is Changing Money, Business, and the World*. Penguin.
10. McKinsey Global Institute. (2018). *Digital Globalization: The New Era of Global Flows*.
11. Friedman, T. L. (2007). *The World Is Flat: A Brief History of the Twenty-First Century*. Farrar, Straus and Giroux.
12. Zuboff, S. (2019). *The Age of Surveillance Capitalism*. PublicAffairs.
13. Porter, M. E., & Heppelmann, J. E. (2014). *How Smart, Connected Products Are Transforming Competition*. Harvard Business Review.
14. Laudon, K. C., & Traver, C. G. (2021). *E-commerce 2021: Business, Technology and Society*. Pearson.
15. Brynjolfsson, E., & McAfee, A. (2017). *Machine, Platform, Crowd: Harnessing Our Digital Future*. W.W. Norton & Company.

ОИЛАДА МУЛОҚОТ ТЎСИҚЛАРИ ВА УЛАРНИНГ ЁШ АВЛОДНИНГ ШАХСИЙ РИВОЖЛАНИШИГА ТАЪСИРИ

Юсупов Равшанжон Акрам ўғли
Жўраева Сарвиноз Жахонгир қизи
Наманган давлат университети мустақил изланувчиси.

Аннотация: Мақолада оиладаги мулоқотнинг ёшлар тарбиясидаги ўрни ёритилган. Оила муҳитида самарали мулоқот орқали фарзандларда ахлоқий, маънавий ва ижтимоий сифатлар шаклланиши таъкидланади. Шунингдек, ота-оналар ва фарзандлар ўртасидаги тўғри мулоқот орқали тарбия жараёни самарадорлиги ошиши мумкинлиги илмий асосланади.

Калит сўзлар: оила, мулоқот, тарбия, ёшлар, ота-она, таълим –тарбия жараёни, ўсмирлик ва ўспиринлик даври.

Annotation: The article highlights the role of family communication in the upbringing of youth. It emphasizes that effective communication within the family environment contributes to the development of moral, spiritual, and social qualities in children. It is also scientifically substantiated that proper dialogue between parents and children increases the effectiveness of the educational process.

Keywords: family, communication, upbringing, youth, parents, the process of education and upbringing, adolescence, and youth period .

Аннотация :В статье раскрывается значение семейного общения в воспитании молодёжи. Подчёркивается, что благодаря эффективному общению в семье у детей формируются нравственные, духовные и социальные качества. Также обосновывается, что правильный диалог между родителями и детьми способствует повышению эффективности воспитательного процесса.

Ключевые слова: семья, общение, воспитание, молодёжь, родители, процесс обучения и воспитания, подростковый и юношеский период

Маълумки шахснинг ҳаёт йўли ва ижтимоий тажрибаси аввал оила муҳитида, кейин эса болалар боғчаси, мактаб, олий таълим муассасаси, меҳнат жамоаси ҳамда кексалар орасида ривожланиб боради. Инсоннинг юксак маънавий эҳтиёжларидан бири – бу мулоқотга бўлган эҳтиёждир. Агар мулоқот эҳтиёжи қондирилмаса, шахс онги ва руҳияти тўлақонли ривожланмайди. Шу боис инсоннинг турли ижтимоий муҳитларда мулоқотга киришиши унинг шахсий ва ижтимоий ривожланишининг асосий шарти ҳисобланади. Таниқли психолог С.Л. Рубинштейн таъкидлаганидек: “Кундалик ҳаётда одамлар билан мулоқотга киришар эканмиз, биз уларнинг хулқ-атворини кузатиш орқали маълум бир маъно чиқарамиз. Бу жараёнда биз гўё уларнинг ташқи маълумотлари моҳиятини “ўқиб”, ички психологик мазмунни англаймиз”.

Демак, мулоқот орқали шахсда атрофдагиларнинг хулқ-атворига нисбатан муайян автоматик психологик тасаввурлар шаклланади. Ҳозирги шароитда ёшлар ва ота-она ўртасидаги ўзаро муносабатларда бир қатор тўсиқлар мавжуд. Биринчиси — бандлик тўсиғи, яъни ота-оналарнинг турли уй юмушлари ва иш билан машғуллиги сабабли фарзандларига етарли вақт ажрата олмасликлари. Бу ҳолат болаларда ҳиссий ривожланишнинг сустлашишига олиб келиши мумкин. Иккинчиси — авлодлараро фарқ (ёш тўсиғи). Катталар кўп ҳолларда боланинг ички дунёсига кириш, унинг кечинмаларини англашга ҳаракат қилмайдилар. Катталар учун арзимас бўлиб туюлган нарса фарзанд учун жуда катта аҳамият касб этиши мумкин. Учинчиси — анъанавий қолиплар тўсиғи. Ота-оналар кўп ҳолларда фарзандларининг улғайиб, мустақил фикр ва қарорлар қабул қилишга интилаётганлигини сезмайдилар. Ваҳоланки, ўсмирлик ва ёшлик даврида фарзандлар ота-оналари томонидан ҳисобга олинишини, уларнинг фикрлари эшитилишини истайдилар. Шу боис, ота-оналар ўз қарашларини замон талабига мос равишда янгилашлари зарур. Фарзанднинг мустақил фикрига ҳурмат билан муносабатда бўлиш, унинг ички дунёси ва эҳтиёжларини англаш — оиладаги соғлом психологик муҳитнинг шаклланишига хизмат қилади.

Бугунги кунда оилада ўсмирлар тарбиясидаги муаммолардан бири–бу интернетга тобеъликнинг таъсиридир. Албатта бугунги ахборот асрида яшаётган ёшлар ҳамма нарсага қизиқиш билан қарайдилар, барча янгиликлардан хабардор бўлишга ҳаракат қиладилар. Уларда тақлид қилиш кучли бўлгани учун улар интернетда ўтириб, компьютерда жангари фильмлар, кераксиз суратларни ва қўрқинчли кинофильмларни кўришга қизиқадилар. Интернетнинг ёшлар дунёқарашига ва руҳиётига

таъсири хам ижобий ва салбий томонлари мавжуд. Бир томондан интернет вақтни тежайди, яъни ёшлар адабиёт қидириб, дўконма дўкон сарсон бўлмайдилар; шуеингдек интернет дунёқарашни кенгайтириши мумкин. Лекин салбий таъсири хам борки , ижтимоий тармоқлардан айрим ёшлар фақат бўш вақтларини ўтказиш учунгина фойдаланадилар; Масалан, ёшлар интернет орқали ёшига мос келмайдиган кинолар кўришлари, қўрқинчли киноларни кўришлари, уяли телефон орқали жуда кўп мулоқотда бўлишлари, ҳатто қизларнинг нотаниш йигитлар билан ҳам телефон, интернет орқали кўр-кўрона мулоқотда бўлишлари орқали уларда салбий характер хислатлари шаклланади, жумладан, бемеҳрлилик, шафқатсизлик, ўч олиш, кескирлик, ишонувчанлик, андишасизлик, атрофдагиларга беписандлик, бепарволик кабилар; Бундан ташқари улар диққатининг паришонлиги, нутқининг, мулоқотчанликнинг бузилиши, яъни турли хил бемаъни сўзларни ишлатишлари, фантазияларининг бузилиши, иродасининг кучсиз бўлиб шаклланишига олиб келади. Бугунги кунда ўқувчиларнинг дарс машғулотларига қизиқишларининг пасайиб кетишига ҳам юқоридаги ҳолатлар, яъни ҳаддан ташқари телефон орқали мулоқотда бўлишлари сабаб бўлмоқда. Биз педагоглар, ота-оналар интернетдан мақсадли фойдаланишни, уяли телефондан қандай, қачон фойдаланиш лозимлигини ёш авлодга ўргатишимиз керак.

Атрофдагиларда яхши таассурот қолдиришлари, дунёда энг бахтли инсон бўлишлари учун қуйидаги маслаҳатлар наақат ёшлар балки ўспиринлик давридаги инсонлар учун хам мухимдир:

1. Сиз доимо атрофдагиларга, яқинларингизга хушмуомала бўлинг.
2. Ҳеч қачон “йўқ” деган сўзни ишлатманг, уни ўрнига “ўйлаб кўраман”, “ҳаракат қиламан” каби сўзларни ишлатинг.
3. Мулоқотга киришишдан аввал салом беринг.
4. Ўзингизни ва яқинларингизни нотаниш кишиларни олдида ҳеч қачон камситманг.
5. Ўз муаммоингизни ўзингиз ҳал қилишга ҳаракат қилинг, ўз кучингизга, билимингизга ишонинг.
6. Ҳар қандай муаммонинг ечими борлигига ишонинг, бунинг учун озгина сабрли бўлинг.
7. Сизга берилган умр учун яратганга шукрона келтиринг ва аниқ мақсад сари доимо интилинг.
8. Ўзингизни севинг, сиз гўзалсиз, чунки ёшликнинг ўзи гўзаллик.
9. Бошингизга ташвиш тушганда “шунга ҳам шукр, бундан баттар бўлиши мумкин эди”деган сўзни хаёлингизда бир неча марта қайтаринг.
10. Ҳар куни “мен бахтлиман”, “мен хотиржамман”, “мен кучлиман” деган сеҳрли, олтин сўзларни 6-8 мартадан қайтаринг.

Хулоса шуки,яхши тарбия ва таълим билан бирга қадриятларимизни хам ёшлар онгига сингдириш зарур жихатдир. Чунки келажагимиз ворисларини етук инсонлар қилиб тарбиялашимиз зарур. Яъни уларда тўртта хусусият, яъни яхши сўз, яхши феъл, яхши ахлоқ, таълим камолга етиши лозим. Бу хусусиятларни болаликданоқ шакллантириш, аввало оиладан бошланади. Зеро юртбошимизнинг “Фарзандларимиз биздан кўра кучли, доно, билимли ва албатта бахтли бўлишлари шарт” деб таъкидлаганлари бежиз эмас. Юртимиз келажаги биз таълим-тарбия бераётган авлоднинг дунёқараши, салоҳияти, иқтидори ҳамда кретив фикрлашларига боғлиқ.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Рубинштейн С.Л. Принципы и пути развития психологии. М. 1997 г. РСФСР. ПФА нашр.180-бет.
2. Davletshin M.G., Shoumarov G‘.B. Zamonaviy o’zbek oilasi va uning psixologik xususiyatlari . O’zbek oilasining etnopsixologik muammolari: Respublika ilmiy-amaliy anjumani ma’ruzalari qisqacha bayoni. — Toshkent, 1993y. 45-46b.
3. Эйдомиллер.Г. Семейного психотерапия. – Л., 1989. - 192с

YOSHLAR ONGNI BOSHQARISH VOSITASI SIFATIDA SHAKLLANAYOTGAN AXBOROT TERRORIZMINING PSIXOLOGIK VA MA'NAVIY-AXLOQIY MEXANIZMLARI TAHLILI

Qurbonov Sherzodjon Shuxratovich,
Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti Axborot resurs markazi direktori
+998 (91) 557-17-46 sherzodjonurbonov@gmail.com
Gulommamedova Orzigul Normamatovna
Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti psixologi

Annotatsiya: Ushbu maqolada zamonaviy axborotlashgan jamiyatda yoshlar ongni boshqarish vositasi sifatida shakllanayotgan axborot terrorizmining psixologik va ma'naviy-axloqiy mexanizmlari tahlil qilinadi. Qo'rquv uyg'otish, stereotiplashtirish va tayyor qoliplarga majburiy ergashtirish kabi psixologik usullar orqali inson tafakkuriga ko'rsatilayotgan bevosita va bilvosita ta'sir shakllari ko'rib chiqiladi. Maqola axborot terrorizmining mohiyatini falsafiy va ijtimoiy nuqtai nazardan ochib berar ekan, uning yoshlar ongiga ko'rsatadigan xavfli ta'sirini ham yoritadi.. Mazkur holatga qarshi ma'naviy immunitet va tanqidiy tafakkurni shakllantirish zarurati asoslab beriladi.

Kalit so'zlar: Axborot terrorizmi, ongni boshqarish, psixologik usullar, qo'rquv uyg'otish, stereotiplashtirish, ideologik qoliplar, ma'naviy texnologiyalar, axborot xavfsizligi.

Аннотация: В данной статье анализируются психологические и нравственно-этические механизмы информационного терроризма, формирующегося как средство управления сознанием молодежи в современном информационном обществе. Рассматриваются формы прямого и косвенного воздействия на мышление человека посредством психологических методов, таких как навязывание страха, стереотипизация и принудительное следование готовым шаблонам. Раскрывая сущность информационного терроризма с философской и социальной точек зрения, статья освещает его опасное влияние на сознание молодежи. Обосновывается необходимость формирования духовного иммунитета и критического мышления как средства противодействия данной угрозе.

Ключевые слова: Информационный терроризм, управление сознанием, психологические методы, внушение страха, стереотипизация, идеологические шаблоны, духовные технологии, информационная безопасность.

Annotation: This article analyzes the psychological and moral-ethical mechanisms of information terrorism, which is emerging as a tool for controlling the consciousness of youth in today's information society. It examines both direct and indirect forms of influence on human thinking through psychological methods such as instilling fear, stereotyping, and enforcing adherence to predetermined patterns. By revealing the essence of information terrorism from philosophical and social perspectives, the article highlights its dangerous impact on the minds of young people. The necessity of developing spiritual immunity and critical thinking as means of countering this threat is substantiated.

Keywords: Information terrorism, mind control, psychological methods, instilling fear, stereotyping, ideological frameworks, spiritual technologies, information security.

XXI asrda axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi inson hayotining barcha jabhalariga, ayniqsa uning tafakkuriga bevosita ta'sir ko'rsata boshladi. Endilikda axborot — nafaqat ma'lumot yetkazuvchi vosita, balki ongni shakllantiruvchi kuchga aylangan. Bu kuch esa ko'plab hollarda ongni boshqarish va nazorat qilishga yo'naltirilgan strategik vosita sifatida ishlatilmoqda. Aynan shu jarayon doirasida "axborot terrorizmi" tushunchasi paydo bo'ldi. Bu atama ma'lum mafkuraviy va siyosiy maqsadlarda ongga manipulyativ ta'sir ko'rsatishga qaratilgan tizimli, psixologik va kommunikatsion bosimlarni anglatadi.

Axborot terrorizmi orqali insonlar, ayniqsa yoshlar, doimiy ravishda tahdid, xavotir, ijtimoiy beqarorlik va tayyor ideologik qoliplar muhitida yashashga o'rgatilmoqda. Bu holat shaxsning mustaqil fikrlash qobiliyatini zaiflashtirib, uni tashqi axborot oqimlariga tobelikda

saqlab turadigan psixologik holatga olib keladi. Ulrich Beck, Pierre Bourdieu, Erich Fromm, Guy Debord va Michel Foucault kabi mutafakkirlar zamonaviy jamiyatda ongni boshqarish mexanizmlarining qanday shakllanayotganini chuqur tahlil qilganlar. Ularning qarashlari asosida ong ustidan o‘rnatilayotgan nazoratning faqat tashqi kuch emas, balki ichki ma’naviy texnologiyalarga tayanayotgan murakkab tizim ekanligi aniqlanadi.

Mazkur maqolada axborot terrorizmining nazariy asoslari, psixologik usullari, ma’naviy ta’sir mexanizmlari va yoshlar ongiga bo‘lgan tahdidlari keng yoritiladi. Shuningdek, bu xavfga qarshi kurashishning falsafiy asoslari va ma’naviy immunitet shakllantirish mexanizmlari ham tahlil etiladi.

Ongni boshqarishga qaratilgan psixologik usullar – qo‘rquv uyg‘otish, stereotiplashtirish va tayyor qoliplarga majburiy ergashtirish – zamonaviy ma’naviy jarayonlar va texnologiyalar kontekstida inson ongining manipulyativ mexanizmlar orqali qanday shakllantirilishini ochib beradi. Stanley Cohen o‘zining mashhur Folk Devils and Moral Panics asarida “qo‘rquv uyg‘otish mexanizmi jamiyatni doimiy ravishda tahdid ostida qolgandek his qildirish orqali hokimiyatning ma’naviy legitimatsiyasini mustahkamlaydi” deb yozadi[1.45.]. Bu tahlil shuni ko‘rsatadiki, qo‘rquv uyg‘otish shaxsiy ongga ta’sir qiluvchi psixologik usuldan tashqari, ma’naviy jarayonlarda ijtimoiy texnologiya sifatida ishlaydi. Biroq, qo‘rquvning doimiy ravishda kuchaytirilishi insonning ongini mustahkamlamaydi, balki uni xavotirli muhitga moslashishga majbur qiladi. Shu ma’noda, Cohenning fikrini ilmiy baholash shuni ko‘rsatadiki, qo‘rquv texnologiyalari jamiyatni muayyan yo‘nalishga majburiy tarzda safarbar qilishga xizmat qiladi.

Stereotiplashtirish mexanizmlari esa ijtimoiy ongni boshqarishda o‘ziga xos texnologik kuchga ega. Erving Goffman o‘zining Stigma: Notes on the Management of Spoiled Identity kitobida “stereotiplar insonning jamiyatdagi ijtimoiy maqomini oldindan belgilab qo‘yuvchi ramziy qoliplardir” deya qayd etadi[2.12.]. Unga ko‘ra, stereotiplar ma’naviy jarayonlarni shunday shakllantiradiki, individ o‘zining ongli tanloviga emas, balki jamiyat tomonidan tayyorlab qo‘yilgan tasavvurlarga bo‘ysunadi. Bu yondashuvni tahlil qilar ekanmiz, stereotiplashtirishning psixologik usuldan tashqari ma’naviy-texnologik funksiyasi ham mavjudligini ko‘ramiz: u ongni mustaqil tahlildan cheklab, kollektiv me’yorlar asosida yo‘naltiradi.

Tayyor qoliplarga majburiy ergashtirish mexanizmi esa ijtimoiy-axloqiy jarayonlarni yanada keskinlashtiradi. Pierre Bourdieu o‘zining Outline of a Theory of Practice asarida “inson jamiyatning tayyor madaniy kapitali va ijtimoiy maydoniga moslashish jarayonida o‘zining individual qarashlarini ko‘pincha ongli emas, balki avtomatik tarzda jamiyat tomonidan belgilangan qoliplarga moslashtiradi” deya ta’kidlaydi[3.164.]. Bu tahlil tayyor qoliplarning shaxsiy ongga qanday chuqur singdirilishini ko‘rsatadi: inson nafaqat tashqi ijtimoiy me’yorlarga bo‘ysunadi, balki ichki dunyosida ham ularga ergashishni tabiiy deb biladi. Ilmiy nuqtai nazardan qaraganda, bunday jarayon erkin tafakkurni susaytiradi va ongni oldindan belgilangan ma’naviy-axloqiy mexanizmlar orqali boshqarishga imkon yaratadi.

Ongni boshqarishga qaratilgan psixologik usullar – qo‘rquv uyg‘otish, stereotiplashtirish va tayyor qoliplarga majburiy ergashtirish – zamonaviy ma’naviy jarayonlar va texnologiyalar kontekstida ongni manipulyatsiya qilishning eng samarali mexanizmlari sifatida qaraladi. Noam Chomsky o‘zining Media Control: The Spectacular Achievements of Propaganda asarida “qo‘rquv uyg‘otish mexanizmi hokimiyatning eng qudratli quroli bo‘lib, u orqali insonlar ongida doimiy xavf hissi yaratilib, siyosiy va ijtimoiy tartiblarni oqlash imkoniyati paydo bo‘ladi” deb yozadi[4.21.]. Bu fikr shuni ko‘rsatadiki, qo‘rquv nafaqat shaxsiy psixologiyada, balki ma’naviy texnologiyalar darajasida ham ongni boshqarishning markaziy vositasiga aylanadi. Biroq, qo‘rquvga asoslangan jarayonlarning ma’naviy oqibati inson erkinligini susaytirishi va jamiyatni ongli qaror emas, balki instinktiv xavfsizlik ehtiyojlari asosida harakatlanishga majbur qilishi mumkin.

Ongni boshqarishga qaratilgan psixologik usullar – qo‘rquv uyg‘otish, stereotiplashtirish va tayyor qoliplarga majburiy ergashtirish – zamonaviy ma’naviy jarayonlar va texnologiyalar kontekstida inson ongining ijtimoiy-madaniy nazoratini kuchaytiruvchi murakkab mexanizmlar sifatida talqin etiladi. Erich Fromm “Escape from Freedom” asarida “qo‘rquv inson ongini

erkinlikdan voz kechishga, xavfsizlik illuziyasi uchun hokimiyatga bo‘ysunishga majbur etadi” deya ta’kidlaydi[5.157.]. Ushbu fikr shuni ko‘rsatadiki, qo‘rquv uyg‘otish jarayoni ongni boshqarishda eng qadimiy, ammo hamon samarali texnologiyalardan biri bo‘lib, u insonni ongli qaror emas, balki instinktiv himoya mexanizmlari asosida harakat qilishga undaydi. Bunday mexanizm ma’naviy jarayonlarda mustaqil tafakkurni susaytirib, jamiyatni hukmron diskurslar ta’sirida qolishga majbur etadi.

Stereotiplashtirish mexanizmi esa ongni boshqarishda ijtimoiy texnologiyalarning yanada murakkab shaklini ifodalaydi. Pierre Bourdieu “Language and Symbolic Power” asarida “stereotiplar jamiyat ongida ‘simvolik zo‘ravonlik’ shaklida namoyon bo‘lib, ular odamlarni tayyor ma’naviy qoliplarga ergashtiradi” deya ta’kidlaydi[6.121.]. Bu jarayonning ma’naviy mohiyati shundaki, u ijtimoiy ongni shaxsiy tajriba va tafakkurdan emas, balki oldindan belgilangan simvolik strukturalardan shakllanishga majbur qiladi. Natijada inson o‘zini mustaqil fikrlayotgan deb o‘ylasa ham, aslida jamiyatning tayyor stereotiplari ichida faoliyat yuritadi. Bu, bir tomondan, jamiyat barqarorligini ta’minlasa, ikkinchi tomondan, ongni o‘zgarish va yangilikka qarshi qo‘yishi mumkin.

Tayyor qoliplarga majburiy ergashtirish mexanizmi esa ijtimoiy texnologiyalarning eng nozik shakli sifatida ongni ongli tanlov illuziyasi orqali boshqaradi. Theodor Adorno va Max Horkheimer “Dialectic of Enlightenment” asarlarida “madaniy industriya insonlarga tayyor qoliplarni majburan singdirib, ularni passiv iste’molchiga aylantiradi” deb yozadilar[7.94.]. Bu fikr ma’naviy jarayonlarda muhim ahamiyat kasb etadi, chunki tayyor qoliplar insonning tanlov erkinligini soxta shaklda saqlab, aslida uni kollektiv istak va ehtiyojlar bilan cheklaydi. Ma’naviy texnologiyalar kontekstida bunday jarayon insonni ko‘rinmas nazorat tizimlari ostida bo‘ysundirishning yangi shaklini yaratadi.

Ongni boshqarishga qaratilgan psixologik usullar – qo‘rquv uyg‘otish, stereotiplashtirish va tayyor qoliplarga majburiy ergashtirish – nafaqat insonning individual qaror qabul qilish jarayonlariga, balki jamiyat miqyosidagi ma’naviy dinamikalarga ham chuqur ta’sir ko‘rsatadi.

Yana bir muhim qirra shuki, ongni boshqarishga qaratilgan psixologik strategiyalar orqali qo‘rquv uyg‘otish, stereotiplar asosida qaror qabul qilishga undash, va tayyor qoliplarga ergashtirish mexanizmlari orqali yoshlar mustaqil fikrlashdan chetlashtiriladi. Bunday texnologik-psixologik bosim ostida individ haqiqatni o‘zi anglashdan voz kechadi va unga taklif etilayotgan diskursni "muqaddas haqiqat" sifatida qabul qiladi. Bu esa, ma’naviy jarayonlarning texnologik jihatdan vositalashtirilishi orqali ong ustidan nazorat o‘rnatishning yangi shaklidir. Aynan shunday kontekstdagina axborot terrorizmi fenomenini zamonaviy ijtimoiy-madaniy tahdid sifatida tahlil qilish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Cohen, S. Folk Devils and Moral Panics. – London: Routledge.
2. Goffman, E. (1963). Stigma: Notes on the Management of Spoiled Identity. – Englewood Cliffs: Prentice-Hall.
3. Bourdieu, P. Outline of a Theory of Practice. – Cambridge: Cambridge University Press.
4. Chomsky, N. Media Control: The Spectacular Achievements of Propaganda. – New York: Seven Stories Press.
5. Fromm, E. Escape from Freedom. – New York: Farrar & Rinehart.
6. Bourdieu, P. Language and Symbolic Power. – Cambridge: Polity Press.
7. Adorno, T., & Horkheimer, M. (1947). Dialectic of Enlightenment. – New York: Herder and Herder.

O‘ZBEKISTONDA AYOLLAR TADBIRKORLIGINI RIVOJLANTIRISHNING IJTIMOIY-IQTISODIY ASOSLARI.

Ismoilova Xayitxon Maxammadjonovna
Qo‘qon universiteti Andijon filiali
Tarix va ijtimoiy fanlar kafedrasi katta o‘qituvchisi
Ganijonova Rayyona
Qo‘qon universiteti Andijon filiali
Iqtisodiyot yo‘nalishi talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada O‘zbekistonda ayollar tadbirkorligini rivojlantirishning iqtisodiy, ijtimoiy va institutsional asoslari chuqur tahlil qilinadi. Unda ayollarning biznesdagi ishtiroki, davlat siyosati, xalqaro hamkorlik dasturlari va mavjud muammolar yoritilgan. Shuningdek, ayollar tadbirkorligining barqaror iqtisodiy o‘sish, bandlikni oshirish va ijtimoiy barqarorlikni ta’minlashdagi roli alohida ko‘rsatib o‘tiladi. Maqolada ta’lim, raqamlashtirish va moliyaviy qo‘llab-quvvatlash orqali ayollarni biznesga keng jalb etish bo‘yicha takliflar ham berilgan.

Kalit so‘zlar: ayollar tadbirkorligi, gender tenglik, iqtisodiy faollik, davlat siyosati, innovatsiya, inklyuziv iqtisodiyot, barqaror rivojlanish.

Аннотация: В данной статье глубоко анализируются экономические, социальные и институциональные основы развития женского предпринимательства в Узбекистане. Освещаются участие женщин в бизнесе, государственная политика, программы международного сотрудничества и существующие проблемы. Также особое внимание уделяется роли женского предпринимательства в обеспечении устойчивого экономического роста, повышении занятости и социальной стабильности. В статье приводятся предложения по расширению участия женщин в бизнесе через образование, цифровизацию и финансовую поддержку.

Ключевые слова: женское предпринимательство, гендерное равенство, экономическая активность, государственная политика, инновации, инклюзивная экономика, устойчивое развитие.

Annotation: This article provides an in-depth analysis of the economic, social, and institutional foundations for the development of women’s entrepreneurship in Uzbekistan. It highlights women’s participation in business, government policy, international cooperation programs, and existing challenges. The article also emphasizes the role of women’s entrepreneurship in ensuring sustainable economic growth, increasing employment, and promoting social stability. Furthermore, it offers recommendations for expanding women’s involvement in business through education, digitalization, and financial support.

Keywords: women’s entrepreneurship, gender equality, economic activity, government policy, innovation, inclusive economy, sustainable development.

So‘nggi yillarda O‘zbekiston gender tenglikka va ayollarning iqtisodiy faolligini oshirishga alohida e’tibor qaratmoqda. Ayollarni tadbirkorlik faoliyatiga keng jalb etish mamlakat rivojlanish strategiyasining asosiy yo‘nalishlaridan biriga aylandi. Mustaqillikdan buyon ayollar huquqlari va manfaatlarini himoya qilish bo‘yicha mustahkam huquqiy hamda institutsional tizim yaratilgan.Prezident Shavkat Mirziyoyev rahbarligida ayollar uchun iqtisodiy imkoniyatlarni kengaytirish siyosati davlat miqyosida ustuvor yo‘nalishga aylangan. Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida ayollar tadbirkorligini qo‘llab-quvvatlash, ularning iqtisodiyotdagi o‘rnini kuchaytirish va ijtimoiy tenglikni ta’minlash asosiy maqsad sifatida belgilangan. Bugungi kunda O‘zbekistonda iqtisodiy faol aholining qariyb 48 foizi ayollar, ulardan 35 foizi tadbirkor sifatida faoliyat yuritmoqda. Ayollar to‘qimachilik, ta’lim, oziq-ovqat, sog‘liqni saqlash va xizmat ko‘rsatish sohalarida yetakchi o‘rin tutmoqda. Ularning biznesi iqtisodiyotning diversifikatsiyasi va jamiyat taraqqiyotining muhim omiliga aylanib bormoqda.

Shu bilan birga ayollar tadbirkorligi bilan bog‘liq bir qator muammolar mavjud. Ayollarda moliyaviy resurslarga kirish cheklanganligi sabab garov ta’minoti yo‘qligi kredit olishni qiyinlashtiradi. Iqtisodiy va moliyaviy savodxonlik pastligi ko‘plab ayollar biznes yuritish bo‘yicha yetarli bilimga ega emas. Ijtimoiy stereotiplar ya’ni ayrim hududlarda ayolning tadbirkorlik bilan shug‘ullanishi salbiy qaraladi. Raqamli savodxonlik yetishmasligi, onlayn marketing va elektron savdodan foydalanish darajasi

pastligiga sabab bo‘ladi. Ushbu muammolarni hal etish uchun ta’lim, moliyalashtirish, infratuzilma va axborot texnologiyalarini uyg‘unlashtirgan kompleks yondashuv zarur.

Shu sababdan O‘zbekiston hukumati ayollar tadbirkorligini rivojlantirish uchun keng ko‘lamli islohotlar va dasturlarni amalga oshirmoqda. Xususan, ishsiz ayollarni aniqlab, ularni kasb-hunarga o‘qitish va ish bilan ta’minlash maqsadida, “Ayollar daftari” tizimi yaratildi. “Ayollar tadbirkorligini rivojlantirish jamg‘armasi” doirasida 36 oygacha muddatli, yillik 10–12% stavkali imtiyozli kreditlar ajratilmoqda. “Tadbirkor ayol” tanlovi — innovatsion g‘oyalarga ega ayollarni rag‘batlantirish va moliyaviy yordam ko‘rsatilmoqda. Mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash vazirligi huzuridagi markazlarda bepul biznes o‘quv kurslarini tashkil etilmoqda.

2023-yilda ushbu jamg‘arma orqali 20 mingdan ortiq ayolga jami 2,5 trillion so‘m miqdorida moliyaviy yordam ko‘rsatilgan. Shuningdek, BMT, UNDP, Yevropa Ittifoqi va Jahon banki bilan hamkorlikda 300 dan ortiq startap loyihalar amalga oshirilgan.

Ayollar tadbirkorligi mamlakat iqtisodiy o‘sishiga sezilarli hissa qo‘shmoqda yangi ish o‘rinlari yaratish, oilaviy daromadni oshirish va innovatsiyalarni rivojlantirish orqali. Statistika ma’lumotlariga ko‘ra (2024-yil), ayollar rahbarligidagi korxonalar O‘zbekiston YAIMining 14 foizini tashkil etadi, ularning soni esa so‘nggi uch yilda 28 foizga oshgan.

Ayollar tadbirkorligining asosiy ijobiy ta’sirlari quyidagilardir:

- oilaviy va mahalliy farovonlikni oshiradi;
- kambag‘allikni kamaytiradi;
- gender tengligini mustahkamlaydi;
- ijtimoiy mas’uliyatli va barqaror biznes modelini shakllantiradi.

Ayollar boshchiligidagi korxonalar, odatda, ijtimoiy jihatdan faolroq, ekologik barqaror va oshkora faoliyat yuritadi. Shu bois ularning jamiyatdagi obro‘si yildan-yilga ortib bormoqda.

Dunyo miqyosida ayollar tadbirkorligi iqtisodiy rivojlanishning asosiy harakatlantiruvchi kuchi sifatida e’tirof etilgan. Xususan, Turkiya Respublikasida “KAGIDER” tashkiloti ayollar startaplarini grantlar bilan qo‘llab-quvvatlaydi. Janubiy Koreyada “Women’s Business Centers” raqamli savodxonlik va marketing bo‘yicha o‘quv dasturlarini o‘tkazadi. AQShda “Small Business Administration” ayollar uchun alohida moliyalashtirish dasturlarini amalga oshiradi.

So‘nggi o‘n yilliklarda O‘zbekistonda ayollarning iqtisodiy holatini (erkaklarga nisbatan) kuzatish va solishtirish uchun xalqaro miqyosda taqqoslanadigan ko‘rsatkichlardan foydalanish, shuningdek, gender kesimida ajratib ko‘rsatilgan rasmiy ijtimoiy-iqtisodiy ma’lumotlar va ko‘rsatkichlarni ishlab chiqish sezilarli darajada oshdi. Bu qisman BRM sohasida monitoring va hisobot berishning paydo bo‘lishi bilan bog‘liq bo‘lib, unda “hech kimni ortda qoldirmaslik” tamoyiliga rioya qilish xalqaro miqyosda taqqoslanadigan, gender kesimida ajratib ko‘rsatilgan ko‘rsatkichlardan foydalanish orqali samarali ta’minlanadi

Jahon banki Jahon taraqqiyoti ko‘rsatkichlari ma’lumotlar bazasi ma’lumotiga ko‘ra Qirg‘iziston, daromadi o‘rtachadan yuqori bo‘lgan davlatlar hamda dunyo bo‘yicha ma’lumotlar 2023-yilga tegishli. Boshqa mamlakatlar uchun ma’lumotlar 2015-2020-yillarga tegishli. “Asosiy egalari orasida ayol kishi bo‘lgan korxonalar ulushi” sifatida ta’riflanadi. “Rahbar yoki bosh direktori ayol kishi bo‘lgan xususiy sektordaga korxonalar ulushi” sifatida ta’riflanadi. Biroq ayollar tadbirkorligi uchun eng dolzarb, ochiq, xalqaro miqyosda taqqoslanadigan ko‘rsatkichlar nuqtayi nazaridan erishilgan siljish unchalik aniq emas.

Jahon bankining “Jahon taraqqiyoti ko‘rsatkichlari” (WDI) hamda “Ayollar, biznes va qonun” (WBL) indeksi ma’lumotlar bazalaridan bevosita ayollar tadbirkorligiga (ayollarning iqtisodiy huquq va imkoniyatlarini kengaytirishning kengroq toifasidan farqli o‘laroq) doir potensial foydali bo‘lgan ma’lumotlar (ularda ham ishchi ayollar, ham tadbirkor ayollar qamrab olingan, shu bois mazkur tadqiqot uchun foydasi kamroq) 1, 2 va 3-rasmlarda ko‘rsatilgan. Ushbu ma’lumotlarga ko‘ra, O‘zbekistondagi korxonalarning atigi 26 foizida korxona asosiy egalaridan bir yoki bir necha nafari ayol kishi va O‘zbekistondagi (xususiy) korxonalarning atigi 12 foizida bosh direktor yoki boshqa bosh rahbar ayol kishi hisoblanadi. O‘zbekiston bu ko‘rsatkich bo‘yicha nafaqat dunyo (34% va 19%) va daromadi o‘rtachadan yuqori bo‘lgan mamlakatlar (mos ravishda 36% va 21%), balki Qozog‘iston (31% va 26%), Qirg‘iziston (34% va 22%), Rossiya (34% va 24%) bilan ham raqobatlasha olmaydi. Biroq

ayollar egalik va boshqaruvdagi asosiy funksiyalarni bajaradigan korxonalar ulushi to‘g‘risidagi O‘zbekiston (va ba’zi boshqa mamlakatlar) bo‘yicha ushbu ma’lumotlar 2019-yildan beri yangilanmagan va endi to‘la haqqoniy bo‘lmasligi mumkin.5 Boshqa tomondan, O‘zbekistonda ayollar tadbirkorligi uchun huquqiy muhit (yaqinda) Jahon bankining «Ayollar, biznes va qonun» (WBL) indeksi bo‘yicha ijobiy baholangan (3-rasm). Biroq bu ma’lumotlar faqat Toshkentga (va boshqa mamlakatlar poytaxtlari yoki, agar boshqa bo‘lsa, yetakchi tijorat shaharlari) taalluqli. Shu tariqa, ular O‘zbekiston va qo‘shni mamlakatlarda tadbirkor ayollar duch kelayotgan shart-sharoitlar to‘g‘risida qisman tasavvur beradi, xolos.

Ayollarning iqtisodiy huquq va imkoniyatlarini kengaytirishga qaratilgan keng ko‘lamdagi chora-tadbirlar nuqtayi nazaridan, ayollarning 2023-yilda mehnat bozoridagi ishtiroki to‘g‘risidagi ma’lumotlari O‘zbekistonda ayollarning mehnat bozoriga jalb etilish darajasi jahon va daromadi o‘rtachadan yuqori bo‘lgan mamlakatlarning o‘rtacha ko‘rsatkichlariga, shuningdek, ayrim qo‘shni davlatlarga nisbatan pastligini ko‘rsatadi. Bundan tashqari, bu ko‘rsatkich qisman mamlakatda tug‘ilishning yuqori (va o‘sib borayotgan) darajasi tufayli vaqt o‘tishi bilan pasayib borayotgandek ko‘rinadi. 2023-yilda 961 962 nafar tug‘ilish qayd etilgan bo‘lib, bu bir yil avvagi ko‘rsatkichga nisbatan 3 foizga ko‘p. 2020-2024-yillarda har yili o‘rtacha 90 ming nafar ayol homiladorlik va tug‘ish ta’tilini olib, iqtisodiy faol bo‘lmagan aholi safiga qo‘shilgan. Bundan tashqari, 2022-yilda oltmish yoshdan oshgan shaxslar 3,2 milliondan ziyod kishini tashkil etib (2009-yilga nisbatan ikki baravar ko‘p), bu O‘zbekistonda keksalarni (shuningdek, bolalarni) parvarishlashning o‘rni ortib borayotganidan dalolat beradi. Mamlakatda tug‘ilishning yuqori darajasi va o‘rtacha umr ko‘rishning o‘sib borayotgani parvarishlash iqtisodiyoti muammolari (va ular tadbirkor ayollarga yuklashi mumkin bo‘lgan yuklamalar) yaqin kelajakda ham muhim bo‘lib qolishi mumkinligini ko‘rsatadi.

Ayollar tadbirkorligini rivojlantirish O‘zbekistonning barqaror iqtisodiy o‘sish strategiyasining ajralmas qismidir. Ayollarni biznesga jalb etish nafaqat iqtisodiyotning samaradorligini oshiradi, balki ijtimoiy tenglik, farovonlik va jamiyat barqarorligini ta’minlaydi. Bugungi kunda O‘zbekiston ayollari o‘z salohiyatini ro‘yobga chiqarib, innovatsion, raqamli va ekologik yo‘nalishlarda muvaffaqiyat qozonmoqda. Ularning faol ishtiroki mamlakatning xalqaro miqyosdagi raqobatbardoshligini oshirishda muhim omil bo‘ladi.Shunday qilib, ayollar tadbirkorligini rivojlantirish — bu nafaqat iqtisodiy ehtiyoj, balki milliy taraqqiyotning tayanchi, jamiyatning kelajakka ishonchli qadami hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 8-martdagi “Ayollarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash to‘g‘risida”gi farmoni.
2. O‘zbekiston Respublikasi Statistika agentligi. “Gender va iqtisodiyot” hisobotlari, 2024-yil.
3. Jahon banki. Women, Business and the Law 2024.
4. BMT Taraqqiyot dasturi (UNDP). Markaziy Osiyoda ayollar tadbirkorligini rivojlantirish loyihasi, 2023.
5. Yevropa Ittifoqi. Women in Business – Eastern Partnership Countries, 2022.
6. “Business Women Uzbekistan” assotsiatsiyasi rasmiy ma’lumotlari, 2024.
7. www.lex.uz — O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari ma’lumotlar bazasi.
8. Business New Europe (BNE, 2021), Special Report: Uzbekistan Rising (December 2021).
9. CABAR Asia (2019), ‘Узбекистан: женщины меньше получают, менее образованны, менее равны’, (9 March)
10. Central Bank of Uzbekistan (2024), ‘Central Bank of Uzbekistan Unveils Women Entrepreneurs Finance Code’ (24 Jul

ELLA MAYYARNING O'ZBEKISTONGA SAYOXATIGA DOIR

Karimova Go'zaloy Baxtiyor qizi
Qo'qon universiteti Andijon filiali
IT va ijtimoiy-gumanitar fakulteti
Tarix yo'nalishi talabasi
e-mail: guzaloykarimova7@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada XX asrning mashhur shveytsariyalik sayyohi, yozuvchi va fotografi Ella Mayyarning O'zbekistonga qilgan sayohati, uning mazmuni va tarixiy ahamiyati tahlil etiladi. Ella Mayyar shaxsining shakllanish jarayoni, uning sportchi va yozuvchi sifatidagi faoliyati hamda Markaziy Osiyoga bo'lgan ilmiy qiziqishi O'zbekistonda yetarlicha o'rganilmagan. Maqolada E. Mayyarning 1932-yilda Sovet Ittifoqiga kelganda yashirin tarzda O'zbekistonga kirib kelgani, Toshkent, Samarqand va Buxoro shaharlarida olib borgan kuzatuvlari, mahalliy aholi hayotini o'rganishga bo'lgan intilishi yoritilgan. Shuningdek, uning "Osmonli tog'lardan Qizilqumgacha" nomli asari orqali O'zbekiston tarixini va madaniyatini G'arb jamoatchiligiga tanitishdagi xizmatlari ilmiy asosda tahlil qilinadi. Bugungi kunda Ella Mayyar tomonidan olingan fotosuratlarning Shveytsariya va O'zbekiston muzeylarida namoyish etilishi bu merosning dolzarbligini ko'rsatadi. Maqola O'zbekiston madaniy tarixini o'rganishda va keng yoritishda Yevropa manbalarining ahamiyatini ochib beradi.

Kalit so'zlar: Ella Mayyar, sayohat, O'zbekiston, fotosuratlar, madaniyatlararo muloqot, tarixiy memuarlar.

Abstract. This article analyzes the journey of the famous Swiss traveler, writer, and photographer Ella Maillart to Uzbekistan, focusing on its content and historical significance. The formation of Ella Maillart's personality, her career as an athlete and writer, as well as her scientific interest in Central Asia, remain insufficiently studied in Uzbekistan. The article discusses how, in 1932, after arriving in the Soviet Union, Maillart secretly entered Uzbekistan and visited Tashkent, Samarkand, and Bukhara, where she observed and documented the lives of local people. Special attention is given to her book *"Turkestan Solo: One Woman's Expedition from the Tien Shan to the Kizil Kum,"* through which she introduced the history and culture of Uzbekistan to the Western public. The continued exhibition of her photographs in museums in Switzerland and Uzbekistan highlights the enduring relevance of this cultural legacy. The article underscores the importance of European sources in studying and promoting Uzbekistan's cultural history.

Keywords: Ella Maillart, travel, Uzbekistan, photography, intercultural dialogue, historical memoirs.

Аннотация. В данной статье анализируется путешествие известной швейцарской путешественницы, писательницы и фотографа Эллы Майяр в Узбекистан, его содержание и историческое значение. Формирование личности Эллы Майяр, её деятельность как спортсменки и писательницы, а также научный интерес к Центральной Азии до сих пор недостаточно изучены в Узбекистане. В статье рассматривается, как в 1932 году, прибыв в Советский Союз, Э. Майяр тайно проникла в Узбекистан, посетила Ташкент, Самарканд и Бухару, проводя наблюдения и изучая жизнь местного населения. Особое внимание уделено её книге «От Небесных Гор до Красных песков», в которой она представила историю и культуру Узбекистана западной аудитории. Отмечается, что демонстрация её фотографий в музеях Швейцарии и Узбекистана подтверждает актуальность данного культурного наследия. Статья подчёркивает важность европейских источников в изучении и популяризации культурной истории Узбекистана.

Ключевые слова: Элла Майяр, путешествие, Узбекистан, фотографии, межкультурный диалог, исторические мемуары.

O'zbekiston hududiga tashrif buyurgan ko'plab sayyohlar o'zlari ko'rgan voqea-hodisalarni kitob xolida yozib tarqatganlar. Ularning yozgan kitoblrini o'rganib chiqish tariximizga oid ko'plab ma'lumotlarni keng ilmiy iste'molga kiritishga, ular natijasida xalqimiz ma'naviyatini ko'tarishga erishishimiz mumkin. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti

Sh.Mirziyoyev “Ma’naviy barkamol avlodni tarbiyalash, ta’lim-tarbiyani rivojlantirish, ma’rifatli jamiyatni barpo etish asnosida taraqqiyot strategiyasini ro‘yobga chiqaradigan yangi shaxsni voyaga yetkazish – pirovard maqsadi inson manfaatlarini ta’minlash bo‘lgan islohotlarning eng muhim vazifalaridandir” [1,277] degan purma’no g‘oyasini amalga oshirish uchun xalqimizni, avvalo, yoshlarni tariximiz bilan chuqur tanishtirishimiz mumkin.

Inson zoti doimo yangi yurtlar, yangi madaniyatlar va ezgu g‘oyalarni kashf etishga intilgan. Shu yo‘lda tarixda nom qoldirgan buyuk sayohatchilardan biri – Ella Mayyar (fr. Ella Maillart) hisoblanadi. U nafaqat mahoratli sayohatchi, balki yozuvchi, fotograf va sportchi sifatida ham tanilgan. XX asrning birinchi yarmida ayol kishi uchun xatarli va og‘ir deb hisoblangan, lekin madaniy va ma’rifiy tomonlama boy bo‘lgan mamlakatlarga bir o‘zi otlanishi uni geografiya va tarixga bog’langan sayohatlarga qiziqishini yana mustahkamladi.

Ella Mayyar 1903 yil 20 fevralda Jenevada mo‘yna savdosi bilan shug‘ullanuvchi savdogar oilasida dunyoga kelgan yagona farzand bo‘lgan. Ella Mayyarni kelib chiqishi shvetsariyalik bo‘lsada, u bir necha tillarda bemalol gaplasha olgan va ko‘plab mamlakatlarga borgan. U sayohat davomida kitoblar yozgan va o‘z kitoblari orqali ko‘plab odamlarga ilhom bera olgan. Uning sayohatlari nafaqat geografik jihatdan joylarni o‘rganish, balki o‘sha yerdagi insonlarni hayoti, urf-odatlarini va dunyoqarashini tushunishga va bilishga qaratilgan edi. Shu bois Ella Mayyar faqatgina sayyox emas, balki madaniyatlararo madaniy ko‘prik bo‘la olgan shaxs sifatida tarixdan joy olgan.

Ella Mayyar bolaligidan sport bilan faol shug‘ullangan O’rta yer dengizida yelkanli kemada suzgan va tog‘ chang‘isi blan ham shug‘ullangan. Shveytsariya milliy xokkey jamoasini sardori bo‘lgan, chim ustida xokkey (ayollar) jamoasiga asos solgan. Bumdan tashqari u 1924 yilda Parijdagi Yozgi Olimpiya o‘yinida yelkanli qayiqlarda yakkalik baxslarida qatnashgan ilk ayol ishtirokchi bolgan. Yillar o‘tib – 1931–1934-yillarda tog‘ chang‘i sporti bo‘yicha jahon chempionatlarida Shveytsariya sharafini himoya qilgan.

Ella Mayyar dunyo kezish maqsadida o‘zi astoydil ishlay boshlagan va sayohat uchun pul topgan. Dastlab Angliyada bir muddat fransuz tilidan dars bergan, keyin Berlinda ingliz tilidan dars bera boshlagan. Sport bilan shug‘ullanish Ella Mayyarga mustaqillik, chidamlilikni hamda qat’iyatli bo‘lishni o‘rgatdi. Shu sababli Ella Mayyar oilaviy biznesni davom ettirishni hohlamagan, boshqa tomondan esa ayollarning jamiyatdagi roli haqidagi an’anaviy qarashlarga qarshi bo‘lgan. E.Mayyar chang‘ida Shveytsariyaning Alp tog‘larini, yelkanli qayiqda O‘rta yer dengizini kesib o‘tdi, yolg‘iz o‘zi Markaziy Osiyo, Hindiston, Xitoy va Turkiyani aylanib chiqdi. U yo‘lni ko‘pincha piyoda, ayrim paytlarda esa otda, aravada va poyezdlarda bosib o‘tgan.

E. Mayyar 1930-yilda Rossiyaga sayohat qiladi va rejissyor Djiga Vertov va Vsevolodov Pudovkin bilan tanishadi. U V.Pudovkin filmlarida tasvirlangan O’zbekiston hududlarini o‘z ko‘zi bilan ko‘rmoqchi bo‘lgan. E. Mayyar 1932-yil Sovet Ittifoqi poytaxti Moskvaga keladi va SSSR Tashqi ishlar xalq komissarligidan O‘zbekistonga borish uchun ruxsat so‘raydi. A.F.Neyman unga ruxsat yo’qligini aytadi, E.Mayyarning “O’zbekistonga Vayyan-Kutyure va Kishlar borishdi-ku degan” e’tiroziga “Ular kommunist edilar” deya javob beradi. Unga moskvalik alpinistlar blan birga o’sha paytda RSFSR tarkibi hisoblanuvchi Qirg’izistonga borishga ruxsat berildi, yani E. Mayyarni O’zbekiston haqida ma’lumot olishlariga qarshilik qilgandek harakat qilishgan edi. Lekin E. Mayyarni bu narsa to‘xtata olmadi, u qarshilikga qaramasdan Qirg’izistondan Olmaota shahri orqali yashirincha Toshkentga kirib keladi. Kirib kelish hujjatlarining yo‘qligi Ellani o’zini pulsizdek, yani kambag’al ayol sifatida ko’rsatishga va kambag’allar orasida yashashga majbur qiladi, u o’z kitobida “Agar men o’zimni boy kabi tutsam, meni darxol chet ellik deb tanib olishardi” [1,78] deb hotirlaydi. Umuman olganda, u huddi o’zining sevimli qahramoni, musulmon bo’lmaganlar kirishi taqiqlangan Buxoro amirligiga kelgan Herman Vamberiga o‘xshab xarakat qiladi. Natijada u Toshkent, Samarqand, Buxoro kabi shaharlarni, Qizilqum cho‘lini o‘z ko‘zi bilan ko‘rgan.

U ajoyib sayohati davomida kitob yaratadi ya‘ni ko‘rgan va eshitgan borki yangiliklarni o‘z kitobiga joylaydi va bu kitobni “Osmonli tog‘lardan Qizilqumgacha” (Turkestan Solo - One Woman’s Expedition from the Tien Shan to the Kizil Kum) deb nomlaydi. Bu kitob dastlab fransuz

tilida yozilgan, keyinchalik ayrim kitobxonlarni talabiga binoan ingliz tiliga o‘girildi. E.Mayyar o‘z sayohati davomida olgan suratlari uning kitobiga yanada jon bag‘ishladi, yani u rasmlardan ilyustratsiya sifatida foydalandi.

Ella Mayyar 1932-yilda O‘zbekistonning o‘sha davrdagi turmush tarzini, odamlarini aks ettiruvchi jarayonlarni suratga olgan va Yevropada namoyish etgan yagona yevropalik ayol edi. U tomonidan olingan suratlarning asl nusxalari hali ham mavjud va ular muzeylarda saqlanib kelmoqda. Suratlar Samarqand (2023-yil 7-iyuldan 8-oktyabrgacha), Buxoro shaharlarida (2024-yil 20-martdan 20-aprelgacha) namoyish etilgan. 2024-yil 15-maydan 15-iyulgacha Xorazm viloyati Urganch shahridagi O‘zbekiston zamonaviy san’at muzeyida uning suratlaridan iborat “Jasorat va Hamdardlik” ko‘rgazmasi tashkil etilgan bo‘lib ko‘rgazma Bonum Factum galereyasi raxbari Shaxnoza Karimboboyeva va Shveytsariyaning O‘zbekistondagi elchixonasi bilan hamkorlikda tashkil etilgan.

Bugungi kunda E.Mayyarning shaxsiy arxividagi fotosuratlarning asl nusxalari Lozannadagi (Shvetsariya) Yelisey fotosuratlar muzeyida saqlanadi.

Xulosa. Ella Mayyar faoliyati va uning O‘zbekistonga qilgan sayohati nafaqat shaxsiy jasorat namunasi, balki madaniyatlararo muloqot tarixida muhim bosqichdir. Uning 1932-yilda Markaziy Osiyoga qilgan ekspeditsiyasi o‘sha davrda Yevropa jamoatchiligiga O‘zbekiston hayoti, xalqining urf-odatlari va ijtimoiy madaniyatini tanitgan ilk mustaqil ayol tadqiqotchi tajribalaridan biri bo‘ldi. Mayyarning “Osmonli tog‘lardan Qizilqumgacha” asari geografik, etnografik va madaniy manba sifatida O‘zbekiston tarixini o‘rganishda alohida ahamiyat kasb etadi.

Bugungi kunda uning fotosuratlari va asarlari xalqaro ko‘rgazmalarda namoyish etilayotgani, Shveysariya hamda O‘zbekiston o‘rtasidagi madaniy hamkorlikni yanada mustahkamlab, ilmiy aloqalarning yangi yo‘nalishlarini ochmoqda. Ella Mayyar merosi o‘zbek xalqining o‘tmishini xorijiy nigoh orqali yoritish imkonini beradi hamda ayol sayyohlarning tarixiy rolini qayta baholash zarurligini ko‘rsatadi.

Shu bois, E. Mayyarning hayoti va ijodini o‘rganish, uning asarlari va fotosuratlarini ilmiy tahlil qilish O‘zbekiston tarixshunosligida yangi istiqbollarni ochib beradi.

Kelgusida Andijon, Farg‘ona va Namangan viloyatlarida Ella Mayyar tomonidan suratga olingan tarixiy fotosuratlar ko‘rgazmalarini tashkil etish orqali mahalliy aholi hamda xorijiy mehmonlarga O‘zbekistonning madaniy merosi va tarixiy jarayonlari haqida yanada chuqurroq tasavvur berish imkoniyati yaratiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh. Yangi O‘zbekiston taraqqiyoti strategiyasi. To‘ldirilgan ikkinchi nashri. – Toshkent: “O‘zbekiston” nashriyoti, 2023. – 416 bet.

2. Maillart E.K. Turkestan Solo: One Women’s Expedition from Tien Shan to Kizil Kum. London, Toronto, 1938, 362 p.

SHARQ VA G‘ARB FALSAFASIDA INSON VA JAMIYAT MASALALARI

Xalilova Nilufar Axmatovna
Qo‘qon universiteti Andijon filiali
“Iqtisodiyot va Moliya” kafedrasi o’qituvchisi
Marifjanova Kamola Sherbek qizi
Qo‘qon universiteti Andijon filiali
2-bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Sharq va G‘arb falsafasida inson tabiatiga, uning axloqiy qadriyatlari va jamiyatdagi o‘rniga oid qarashlar tahlil qilinadi. Sharq mutafakkirlari – Forobiy, Ibn Sino, Alisher Navoiy, Abdulla Avloniy kabi allomalarning falsafiy qarashlari bilan G‘arb faylasuflari Aristotel, Kant, Gegel, Russo, Nitsshe qarashlari qiyosiy o‘rganilib, inson va tabiat, axloq va jamiyat, madaniy merosni asrash masalalari zamonaviy falsafiy nuqtai nazardan yoritiladi.

Kalit so‘zlar: Sharq falsafasi, G‘arb falsafasi, inson tabiatiga qarashlar, axloqiy qadriyatlar, jamiyat, tabiat, uyg‘unlik, komil inson, falsafiy tafakkur, barqaror rivojlanish.

Аннотация: В данной статье анализируются взгляды на природу человека, его моральные ценности и роль в обществе в философии Востока и Запада. Сравниваются философские идеи восточных мыслителей аль-Фараби, Ибн Сины, Алишера Навои, Абдуллы Авлония с воззрениями западных философов Аристотеля, Канта, Гегеля, Руссо, Ницше. Рассматриваются вопросы взаимодействия человека и природы, морали и общества, сохранения культурного наследия с позиции современной философии.

Ключевые слова: Восточная философия, Западная философия, природа человека, нравственные ценности, общество, природа, гармония, совершенный человек, философское мышление, устойчивое развитие.

Abstract: This article analyzes the views on human nature, moral values, and the role of the individual in society within Eastern and Western philosophy. The philosophical perspectives of Eastern thinkers such as Al Farabi, Avicenna, Alisher Navoi, and Abdulla Avloni are compared with those of Western philosophers such as Aristotle, Kant, Hegel, Rousseau, and Nietzsche. The issues of the relationship between humans and nature, ethics and society, and the preservation of cultural heritage are discussed from a modern philosophical perspective.

Keywords: Eastern philosophy, Western philosophy, human nature, moral values, society, nature, harmony, perfect person, philosophical thinking, sustainable development.

Inson va jamiyat o‘rtasidagi o‘zaro aloqadorlik masalasi qadimdan falsafaning markaziy mavzularidan biri bo‘lib kelgan. Har bir sivilizatsiya inson mohiyatini, uning jamiyatdagi o‘rni va tabiat bilan munosabatini o‘ziga xos tarzda talqin qilgan. Sharq falsafasida inson komillik, axloq va uyg‘unlik timsoli sifatida ko‘rilgan bo‘lsa, G‘arb falsafasi insonni individual shaxs, aql-idrok va erkinlik egasi sifatida tahlil qilgan. Bugungi globallashuv davrida ushbu ikki yondashuvni qayta tahlil qilish, ularning umumiy va farqli jihatlarini o‘rganish yoshlar ma’naviy tarbiyasi va jamiyat taraqqiyoti uchun dolzarb ahamiyatga ega.

Ushbu tadqiqotda qiyosiy falsafiy tahlil, tarixiy yondashuv va mantiqiy umumlashtirish usullari qo‘llanildi. Sharq va G‘arb falsafasining klassik manbalari, Forobiy, Ibn Sino, Alisher Navoiy, Kant, Gegel, Aristotel, Nitsshe kabi mutafakkirlarning asarlari asosiy nazariy manba sifatida tanlab olindi.

Shuningdek, zamonaviy ilmiy adabiyotlar, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev nutqlari, va YUNESKO hujjatlaridagi madaniy merosni asrashga oid manbalar tahlil qilindi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, Sharq falsafasida inson tabiatining mohiyati axloqiy poklik, ma’naviy kamolot va jamiyat bilan uyg‘unlikda ko‘riladi. Forobiy insonni fozil jamiyatning markaziy kuchi deb bilgan, Ibn Sino esa inson tabiatini jismoniy va ruhiy uyg‘unlik orqali tushuntirgan. G‘arb faylasuflari esa insonni individual ong, tafakkur va erkin irodaga ega mavjudot sifatida tahlil qilgan. Kantning axloqiy qonun haqidagi g‘oyasi, Aristotelning ijtimoiy mavjudot konsepsiyasi, Gegelning davlat va shaxs o‘rtasidagi dialektikasi G‘arb falsafasining asosiy yo‘nalishlarini belgilagan. Har ikki maktabda inson va jamiyat o‘rtasidagi uyg‘unlik, adolat, ma’naviy barkamollik g‘oyalari muhim o‘rin egallaydi.

Sharq va G‘arb falsafasidagi inson haqidagi qarashlar bir-birini to‘ldiruvchi mazmunga ega. Sharq tafakkuri jamiyat manfaatini, ma’naviy komillikni oldinga sursa, G‘arb tafakkuri inson erkinligi va aql-idrokini ustuvor deb bilgan. Bugungi kunda bu ikki yondashuv uyg‘unlashib, zamonaviy falsafaning asosini tashkil etmoqda. Xususan, O‘zbekiston jamiyatida yoshlarni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalashda Sharq ma’naviyati va G‘arb ilmiy tafakkurining uyg‘unlashuvi muhim ahamiyat kasb etadi. Bundan tashqari, inson va tabiat munosabatlari masalasida barqaror rivojlanish konsepsiyasi Sharq falsafasidagi uyg‘unlik g‘oyasi bilan G‘arb ekologik tafakkuri o‘rtasida yangi sintezni yuzaga keltirmoqda.

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, Sharq va G‘arb falsafasi inson va jamiyat haqidagi qarashlarda turli nuqtalardan yondashgan bo‘lsa-da, ularning umumiy maqsadi insonni komillikka

yetaklashdir. Sharq falsafasi axloqiy poklik, uyg‘unlik va ma’naviy yuksalishga urg‘u bersa, G‘arb falsafasi erkinlik, tafakkur va huquqiy ongni rivojlantirishni asosiy vazifa deb biladi. Zamonaviy davrda bu yondashuvlar uyg‘unlashib, insoniyat taraqqiyotining falsafiy poydevorini tashkil etmoqda. Inson – bu tabiatning bir qismi, jamiyatning faol a’zosi va madaniyat yaratuvchisidir. Uning vazifasi o‘zini kamolga yetkazish, jamiyatda adolat va uyg‘unlikni ta’minlash hamda madaniy merosni kelajak avlodlarga yetkazishdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abu Nasr Forobiy. Fozil shahar ahlining nazariyalari. – Toshkent: Ma’naviyat, 1993.
2. Ibn Sino. Donishnoma. – Toshkent: Fan, 1980.
3. Alisher Navoiy. Mahbub ul-qulub. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nashriyoti, 1991. 4. Aristotel. Politika. – Moskva: Nauka, 1983.
5. Immanuil Kant. Amaliy aql tanqidi. – Moskva: Nauka, 1994.
6. Gegel G.V.F. Huquq falsafasi. – Moskva: Mysl, 1990.
7. Tomas Gobbs. Leviatan. – Moskva: Kanon, 2001.
8. Jon Lokk. Ikki risola o pravlenii. – Moskva: Mysl, 1988.

GLOBALLASHUV DAVRIDA XITOYDAGI DINIY TA’LIMOTLARDA IJTIMOIY HIMOYA KONSEPSIYASI

Egamov Oyatillo Xabibillo o’g’li
Dinshunoslik fani stajyor o‘qituvchisi
Andijon davlat texnika institute
e-mail: oyatilloegamov6@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada globallashuv jarayonida Xitoydagi diniy ta’limotlarning ijtimoiy himoya konsepsiyasiga ta’siri tahlil qilinadi. Buddizm, Daoizm, Konfutsiylik va Islomda mavjud bo‘lgan mehr-shafqat, birdamlik, adolat va o‘zaro yordam g‘oyalari zamonaviy ijtimoiy siyosat bilan bog‘liq holda ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, diniy qadriyatlarning transformatsiyasi, ularning ijtimoiy barqarorlikni ta’minlashdagi o‘rni va kelgusidagi istiqbollari ilmiy nuqtai nazardan asoslanadi.

Kalit so‘zlar: Xitoy, globallashuv, diniy ta’limotlar, ijtimoiy himoya, birdamlik, qadriyatlar.

Annotation: The article analyzes the impact of globalization on the concept of social protection in religious teachings in China. The study examines how values of compassion, solidarity, justice, and mutual assistance, inherent in Buddhism, Daoism, Confucianism, and Islam, are reflected in contemporary social policies. Furthermore, the transformation of these religious values, their role in ensuring social stability, and their future prospects are discussed from an academic perspective.

Keywords: China, globalization, religious teachings, social protection, solidarity, values.

Аннотация: В статье рассматривается влияние глобализации на концепцию социальной защиты в религиозных учениях Китая. Анализируются идеи сострадания, солидарности, справедливости и взаимопомощи, характерные для буддизма, даосизма, конфуцианства и ислама, в контексте современной социальной политики. Особое внимание уделяется трансформации религиозных ценностей, их роли в обеспечении социальной стабильности и перспективам дальнейшего развития.

Ключевые слова: Китай, глобализация, религиозные учения, социальная защита, солидарность, ценности.

Din va falsafiy an'analar insoniyatning asrlar davomidagi tajribasini aks ettirib, ijtimoiy adolat, himoya va birdamlikka oid boy g'oyalarga ega. Budddizm, Daoizm, Konfutsiylik va Islomding ijtimoiy himoya mexanizmlari va adolat tushunchalarini tahlii qilamiz.

Buddizmning asosiy qadriyati — bu barcha mavjudotlarga nisbatan mehr-shafqat (karuna) va mehribonlik (maitri). Bu tushunchalar faqat individual emas, balki ijtimoiy miqyosda ham amal

qiladi. Bodhisattva ideali — o'zini boshqalarning azob-uqubatlarini yengishga bag'ishlash, ijtimoiy adolatning eng yuqori ifodasidir.[15]

Buddist ijtimoiy g'oya insonlarning o'zaro bog'liqligi (pratityasamutpada) tamoyiliga asoslanadi. Bu tamoyil bo'yicha, jamiyatdagi har bir a'zo boshqalarga qaram bo'lib, ularning farovonligi ham o'zaro bog'liqdir. Zamonaviy buddist ulamolari ijtimoiy adalatsizlikka qarshi kurashish va qashshoqlikni bartaraf etishni Buddaning o'qitishlarining muhim qismi sifatida ko'rsatadilar.

Daoizmning markaziy tushunchasi — bu tabiat (ziran) bilan uyg'un yashash. Bu nafaqat ekologik, balki ijtimoiy jihatdan ham ahamiyatli. Daoist g'oyalarga ko'ra, jamiyat tabiat qonunlariga mos ravishda tashkil etilishi kerak — bu odamlar o'rtasida ham, inson va tabiat o'rtasida ham uyg'unlikni anglatadi.

"Vu-Vei" (harakatsizlik) tamoyili — bu tabiiy oqimga qarshilik ko'rsatmaslik, bu esa jamiyatda zo'ravonlik va tajovuzkorlikni kamaytirishga xizmat qiladi. Daoist jamoalarda o'zaro yordam va hamjihatlik an'anaviy ravishda rivojlangan, bu esa ijtimoiy himoyaning samarali shakli hisoblanadi.

Konfutsiylikda jamiyatning barqarorligi har bir a'zoning o'z majburiyatlarini bajarishiga bog'liq. "Ren" (insonparvarlik) va "yi" (adolat) tushunchalari ijtimoiy munosabatlarning asosini tashkil qiladi.[16] Konfutsiylikda hukmdor xalqiga g'amxo'rlik qilishi kerak, aks holda uning hokimiyoti legitim hisoblanmaydi.

Konfutsiycha ijtimoiy tartib "Lijing" (Marosimlar kitobi)da belgilanganidek, har bir insonning jamiyatda o'z o'rni borligi tamoyiliga asoslanadi. Bu tizimda kuchlilar zaiflarga yordam berish majburiyatini oladi. Konfutsiylik ta'limotlari Xitoyning ijtimoiy siyosatiga chuqur ta'sir ko'rsatgan, xususan, oilaviy qadriyatlarni saqlash va katta avlodlarga g'amxo'rlik qilishda ko'rinadi.

Islomda ijtimoiy adolat va himoya tizimi yaxshi rivojlangan. Zakot — bu moliyaviy ibodat shakli bo'lib, boy musulmonlarning qashshoq va ehtiyojmandlarga yordam berish vositasi hisoblanadi. Bu majburiy xayriya ijtimoiy adalatsizlikni bartaraf etishga qaratilgan.

Sadaqa nafaqa ixtiyoriy xayriya bo'lib, jamiyatda mehr-shafqat va yaxshilikni targ'ib qiladi. Ummat tushunchasi barcha musulmonlarning birdamligini anglatadi, bu esa keng qamrovli ijtimoiy himoyani o'z ichiga oladi. Islom iqtisodiyotida ribo (foiz) man etiladi, bu iqtisodiy adalatsizlikni kamaytirishga qaratilgan.

Sharqiy din va falsafiy an'analar ijtimoiy himoya va adolat tushunchalariga boyligi bilan ajralib turadi. Buddizmning mehr-shafqati, Daoizmning tabiat bilan uyg'unlik g'oyasi, Konfutsiylikning ijtimoiy tartibi va Islomning zakot tizimi — barchasi insoniyatning ijtimoiy adolat va himoyaga bo'lgan intilishini ifodalaydi.[17]

Zamonaviy jamiyatlar ushbu qadimiy donolikdan ko'p narsalarni o'rganishlari mumkin. Global muammolar kuchaygan bir paytda, Sharqning bu to'rtta buyuk an'anasi insoniyatga hamjihatlik, o'zaro hurmat va adolatli jamiyat qurish yo'lida qimmatli manbalar taqdim etadi. Ushbu qadriyatlarni anglash va qadrlash butun insoniyat uchun foydalidir.

Xitoy bir necha ming yillik madaniy merosga ega bo'lib, unda Konfutsiylik, Buddizm, Daoizm va boshqa diniy an'analar chuqur ildiz otgan. Zamonaviy davrda global madaniy oqimlar va ichki ijtimoiy o'zgarishlar Xitoy diniy qadriyatlariga yangicha talqin va qayta qadrlashni taklif etmoqda. Ushbu maqola Xitoy diniy an'analarining zamonaviy ijtimoiy siyosatdagi o'rni, ularning

[15] Асадова, С. И. Буддизм и социальная мысль Китая. — Москва: Восточная литература, 2008, С. 156-162.

[16] Бокер, Р. Конфуцианство и социальная гармония в современном Китае. — Санкт-Петербург: Наука, 2012, с. 45-60.

[17] 黄宇 (Huang, Yu). 伊斯兰与公共团结在中国. — 乌鲁木齐: 新疆大学出版社 [Urumchi: Xinjiang University Press], 2014, 页 88-95.

ijtimoiy barqarorlikka qo'shgan hissasi va davlat tomonidan amalga oshirilgan ijtimoiy himoya siyosatidagi ahamiyatini tahlii qiladi.

Globalizatsiya jarayonida Xitoy an'anasidagi diniy qadriyatlar yangi sharoitga moslashmoqda. G'arb individualizmi va materializmi bilan aloqada bo'lganiga qaramay, Xitoy jamiyati an'anaviy qadriyatlarning ahamiyatini saqlab qolmoqda. Aksincha, global muammolar – atrof-muhitning buzilishi, ijtimoiy adalatsizlik va ma'naviy inqiroz – Xitoy an'anasidagi diniy qadriyatlarning dolzarbligini yanada oshirdi.

Masalan, Konfutsiylikning "hamma narsaning uyg'unligi" g'oyasi zamonaviy ekologik qadriyatlar bilan uyg'unlashmoqda. Buddizmning "mehr-shafqat" va "o'zaro bog'liqlik" tushunchalari esa zamonaviy inson huquqlari va ijtimoiy adolat g'oyalari bilan rezonans hosil qilmoqda.

Xitoyda diniy qadriyatlar rasmiy siyosatga bevosita kiritilmaganga o'xshasa-da, ular dolzarb ijtimoiy siyosatlarga bilvosita ta'sir ko'rsatmoqda.

Xitoyning qashshoqlikni bartaraf qilish dasturlarida Buddizmning mehr-shafqati va Konfutsiylikning oilaviy qadriyatlari aks etadi. Atrof-muhitni muhofaza qilish siyosatida Daoizmning tabiat bilan uyg'un yashash g'oyasi o'z ifodasini topmoqda.[18]

Diniy qadriyatlar Xitoyda ijtimoiy barqarorlikni ta'minlovchi muhim omil hisoblanadi. Konfutsiylikning oilaviy qadriyatlari katta yoshdagi fuqarolarga g'amxo'rlik qilish tizimini yengillastiradi, bu esa davlat byudjeti uchun katta yuk emas. Buddizm va Daoizmning ruhiy qadriyatlari esa jamiyatda ma'naviy tinchlik va qoniqishni ta'minlaydi.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, an'anaviy diniy qadriyatlarni saqlagan jamolalar ijtimoiy muammolar kamroq uchraydi. Oilaviy qadriyatlar, kattalarga hurmat va jamoa manfaatlarini shaxsiy manfaatlardan ustun qo'yish kabi konfutsiycha tamoyillar ijtimoiy uyg'unlikka hissa qo'shadi.

Xitoy o'zining ijtimoiy himoya tizimini ishlab chiqishda an'anaviy diniy qadriyatlardan og'ilona foydalanmoqda. Masalan, oilaviy qo'llab-quvvatlash tizimi Konfutsiylikning "oila qadriyati" g'oyasiga asoslanadi. Qariyalarga g'amxo'rlik qilishda "kattalarga hurmat" konfutsiycha tamoyil asos qilib olinadi.

Atrof-muhitni muhofaza qilish siyosatida Daoizmning "tabiat bilan uyg'unlik" g'oyasi aks etadi. Xitoyning ekologik tsivilizatsiya qurish dasturi tabiatga nisbatan hurmat va uning bilan uyg'un yashash tamoyillariga asoslanadi.

Buddistik mehr-shafqat va xayriya an'analari esa ijtimoiy xayriya va ko'ngillilar harakatini rivojlantirishga turtki bo'lyapti. Ko'plab Buddistik va Daoistik tashkilotlar qashshoqlikni bartaraf etish, ta'lim va sog'liqni saqlash sohalarida faol ishtirok etmoqda.

Xitoy an'anaviy diniy qadriyatlari zamonaviy ijtimoiy siyosatda muhim rol o'ynashda davom etmoqda. Global madaniy oqimlar va ichki ijtimoiy o'zgarishlar ushbu qadriyatlarning yangicha talqin qilinishiga olib kelmoqda. Konfutsiylik, Buddizm va Daoizmning asosiy qadriyatlari Xitoyning "Yuksalish jamiyati" qurish va "Xitoy orzusi"ni amalga oshirish dasturlarining muhim tarkibiy qismidir.

Diniy qadriyatlarning aql bilan qo'llanilishi Xitoyga ijtimoiy barqarorlikni saqlash, iqtisodiy o'sish va madaniy identifikni himoya qilish o'rtasida muvozanatni topish imkoniyatini beradi. Bu tajriba boshqa mamlakatlar uchun ham, ayniqsa, tez rivojlanayotgan va global ta'sirga uchragan jamiyatlar uchun foydali manba bo'lishi mumkin.

Xitoyning an'anaviy diniy qadriyatlarni zamonaviy ijtimoiy siyosat bilan uyg'unlashtirish tajribasi dunyoning boshqa mintaqalari uchun qimmatli ilhom manbai bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Zamonaviy globallashuv davrida insoniyat yangi ijtimoiy, iqtisodiy va ekologik muammolar oldinda turibdi. Bunday sharoitda Sharqning to‘rtta buyuk diniy-falsafiy an’anasi – Buddizm, Daoizm, Konfutsiylik va Islom – insoniyatga qadriyatlar integratsiyasi orqali yechimlar taklif qilishi mumkin. Ushbu maqolada ushbu an’analarning integratsion imkoniyatlari, ularning

[18] Эймс, Р. Конфуцианская традиция и социальная этика. — Москва: ЛКИ, 2011, С. 130-145.

globallashuv davridagi ijtimoiy siyosatga qo‘shadigan hissasi va Xitoy jamiyatida ijtimoiy birdamlikni mustahkamlashdagi rolini tahlii qilamiz.

Buddizm, Daoizm, Konfutsiylik va Islom qadriyatlari o‘rtasida sezilarli umumiy jihatlar mavjud. Barcha to‘rtta an’ana insoniyatning axloqiy takomillashuvi, ijtimoiy adolat va hamjihatlikni targ‘ib qiladi. Buddizmning "mehr-shafqat" (karuna), Konfutsiylikning "insonparvarlik" (ren), Daoizmning "tabiat bilan uyg‘unlik" va Islomning "rahmdillik" tushunchalari o‘rtasida chuqur konseptual bog‘liqlik mavjud.

Ushbu diniy an’analar integratsiyasi Xitoyda amalda namoyon bo‘lgan. Xitoy madaniyati tarixan turli diniy oqimlarning sinteziga asoslangan. Masalan, Song sulolasi davridagi "uchlik sintezi" (sānjiào héyī) – Buddizm, Daoizm va Konfutsiylikning uyg‘unlashuvi – bu integratsiyaning yorqin namunasidir.

Globallashuv dunyoni qiyinliklar oldinda turibdi: iqlim o‘zgarishi, ijtimoiy tengsizlik, madaniy ziddiyatlar. Sharqiy diniy an’analar ushbu muammolarning bardoshli yechimlarini taklif qiladi.

Buddizmning "o‘zaro bog‘liqlik" tushunchasi global muammolarning tabiatini tushunishga yordam beradi. Daoizmning tabiatga hurmat tamoyili barqaror rivojlanish siyosati uchun asos bo‘lishi mumkin. Konfutsiylikning oilaviy va jamoaviy qadriyatlari individualizmning haddan oshiq shakllarini muvozanatlashi mumkin. Islomning zakot va sadaqa tizimi esa ijtimoiy himoyaning samarali mexanizmi sifatida xizmat qiladi.

Xitoyning "Insoniyat taqdiri hamjamiyati" (rénlèi mìngyùn gòngtóngtǐ) tushunchasi to‘g‘ridan-to‘g‘ri ushbu an’analardagi umumiy insoniy qadriyatlardan kelib chiqqan.[19]

Xitoyda an’anaviy diniy qadriyatlarning qayta tiklanishi ijtimoiy barqarorlikka sezilarli hissa qo‘shmoqda. Konfutsiylikning oilaviy qadriyatlari qariyalarga g‘amxo‘rlik qilish tizimini yengillashtirmoqda. Buddistik va Daoistik xayriya tashkilotlari qashshoqlikni bartaraf etishda muhim rol o‘ynamoqda.

Xitoyning g‘arbiy viloyatlarida Islomning ummat va o‘zaro yordam tushunchalari milliy kamtarlikni bartaraf etish dasturlarida qo‘llanilmoqda. Islom va Xitoy madaniyatining uyg‘unlashuvi – mintaqaviy taraqqiyot va ijtimoiy uyg‘unlikka hissa qo‘shmoqda.

Buddizm, Daoizm, Konfutsiylik va Islom qadriyatlari zamonaviy jamiyatning murakkab muammolariga yechim topishda muhim manba bo‘lib xizmat qilishi mumkin. Ushbu an’analarning integratsion imkoniyatlari, ayniqsa, Xitoy kabi madaniy xilma-xillik va tez rivojlanishni birlashtirgan mamlakatlarda sezilarli darajada namoyon bo‘lmoqda.

Kelajakda ushbu an’analarni chuqur o‘rganish va ularni zamonaviy ijtimoiy siyosatga tatbiq etish insoniyatga yangi yo‘nalishlar ko‘rsatishi mumkin. Ushbu qadimiy donolikni zamonaviy ilmiy yondashuvlar bilan uyg‘unlashtirish orqali biz globallashuv davrining yangi qiyinchiliklariga bardoshli va odil jamiyat qurish yo‘lida muhim qadamlar tashlashimiz mumkin.

Diniy an’analarning integratsiyasi nafaqat Xitoy, balki butun insoniyat uchun ijtimoiy taraqqiyotning yangi modelini taklif qilishi mumkin. Bu yo‘nalishda olib boriladigan keyingi tadqiqotlar insoniyatning kelajagi uchun muhim ahamiyatga ega bo‘lishi kutilmokda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Асадова, С. И. *Буддизм и социальная мысль Китая*. — Москва: Восточная литература, 2008. — 256 с.
2. Баканов, А. В. *Даосизм: философия и социальные практики*. — Москва: Алетейя, 2009. — 310 с.
3. Бокер, Р. *Конфуцианство и социальная гармония в современном Китае*. — Санкт-Петербург: Наука, 2012. — 318 с.
4. Терентьев, В. В. *Религиозные традиции и социальная защита: опыт Восточной Азии*. — Казань: Казанский университет, 2020. — 192 с.

[19] Yang, F. Religion in China: Survival and Revival under Communist Rule. — Oxford: Oxford University Press, 2012, P. 250-260.

5. Хуан, Ю. *Ислам и общественная солидарность в Китае*. — Урумчи: Xinjiang University Press, 2014. — 212 с.
6. Чжан, Л. *Конфуцианство в условиях глобализации*. — Шанхай: Fudan University Press, 2016. — 276 с.
7. Чжоу, Х. *Религиозные ценности и социальная политика Китая*. — Пекин: Renmin University Press, 2019. — 264 с.
8. Эймс, Р. *Конфуцианская традиция и социальная этика*. — Москва: ЛКИ, 2011. — 290 с.
9. Fan, R. *Reconstructionist Confucianism: Rethinking Morality after the West*. — Dordrecht: Springer, 2010. — 280 p.
10. Li, S. *Buddhism, Compassion and Social Welfare in Contemporary China*. — Singapore: Springer, 2018. — 340 p.
11. Tu, W. *Confucianism and Human Rights*. — New York: Columbia University Press, 1998. — 352 p.
12. Wong, J. *Daoism and Social Responsibility in Chinese Tradition*. — London: Routledge, 2015. — 224 p.
13. Yang, F. *Religion in China: Survival and Revival under Communist Rule*. — Oxford: Oxford University Press, 2012. — 368 p.
14. 高明. *中国伊斯兰教史与当代社会* [Islom tarixi va zamonaviy Xitoy jamiyati]. — 北京: 中国社会科学出版社, 2011. — 220 页.

O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTIDA IQTISODIY O‘SISH VA ISHSIZLIK O‘RTASIDAGI O‘ZARO BOG‘LIQLIK

Ne’matullayev Muhammadmuso Baxtiyorjon o’gli
Kokand universiteti Andijon filiali
Iqtisodiyot yo’nalishi 1-bosqich talabasi

Annotatsiya: Maqolada O‘zbekiston iqtisodiyotida iqtisodiy o‘sish sur’atlari va ishsizlik darajasi o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik masalalari yoritiladi. Tadqiqotda Okun qonuni nazariy modeli asos qilib olingan bo‘lib, 2010–2025-yillar davridagi statistik ma’lumotlar dinamikasi orqali iqtisodiy o‘sish va bandlik o‘rtasidagi munosabat aniqlanadi. Shuningdek, mehnat bozori strukturasi, demografik omillar va raqamli transformatsiya jarayonlarining ishsizlik darajasiga ta’siri tahlil etilgan.

Kalit so‘zlar: iqtisodiy o‘sish, ishsizlik, Okun qonuni, mehnat bozori, bandlik siyosati, makroiqtisodiy barqarorlik, raqamli iqtisodiyot.

Аннотация: В данной статье рассматривается взаимосвязь между темпами экономического роста и уровнем безработицы в экономике Узбекистана с точки зрения макроэкономического анализа. В основу исследования положена теоретическая модель закона Окуна, на основе которой проводится анализ динамики статистических данных за 2010–2025 годы. Определяется обратная корреляционная зависимость между ростом ВВП и уровнем занятости. Кроме того, исследуются влияние структурных изменений на рынке труда, демографических факторов и процессов цифровой трансформации на безработицу.

Ключевые слова: экономический рост, безработица, закон Окуна, рынок труда, политика занятости, макроэкономическая стабильность, цифровая экономика.

Abstract: This article explores the interrelation between economic growth rates and unemployment levels in Uzbekistan’s economy from a macroeconomic analytical perspective. The study is grounded in Okun’s Law theoretical framework and employs statistical data from 2010 to 2025 to identify the inverse correlation between GDP growthand employment rates. Furthermore, the paper examines the influence of labor market structures, demographic factors, and digital transformation processes on unemployment dynamics.

Keywords: economic growth, unemployment, Okun’s Law, labor market, employment policy, macroeconomic stability, digital economy.

Zamonaviy iqtisodiy taraqqiyot sharoitida mamlakatlarning ijtimoiy-iqtisodiy barqarorligini ta’minlash, makroiqtisodiy siyosatning asosiy maqsadlaridan biri sifatida iqtisodiy o‘sish sur’atlarini yuqori darajada ushlab turish bilan bir qatorda, bandlik darajasini optimal holatda saqlashni ham nazarda tutadi. Chunki iqtisodiy o‘sish - bu nafaqat ishlab chiqarish hajmining ortishi yoki yalpi ichki mahsulot (YAIM)ning o‘sishi, balki aholi turmush darajasi, daromadlarning oshishi, ijtimoiy farovonlik va mehnat bozori barqarorligining muhim mezonidir. Shu nuqtayi nazardan, iqtisodiy o‘sish va ishsizlik o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni aniqlash, ularning o‘zaro ta’sir mexanizmlarini tahlil qilish iqtisodiyot nazariyasi va amaliy iqtisodiy siyosatning markaziy yo‘nalishlaridan biriga aylangan.

Iqtisodiy o‘sish va ishsizlik o‘rtasidagi munosabat birinchi bor amerikalik iqtisodchi Artur Okun tomonidan 1962-yilda empirik asosda izohlangan bo‘lib, u tomonidan ishlab chiqilgan Okun qonuni iqtisodiy o‘sish sur’atlarining pasayishi ishsizlik darajasining ortishiga olib kelishini, aksincha, iqtisodiy o‘sish tezlashganda ishsizlik kamayishini ko‘rsatadi. Ushbu qonun iqtisodiy jarayonlar orasidagi teskari korrelyatsion munosabatni aniqlash imkonini bergan va bugungi kunda ham makroiqtisodiy tahlilning muhim metodologik asosi sifatida keng qo‘llanadi. Ammo har bir mamlakatning iqtisodiy tuzilmasi, mehnat bozori xususiyatlari, demografik omillari va davlat siyosatining o‘ziga xosligi tufayli bu bog‘liqlik darajasi ham farqlanadi. Shu sababli Okun qonunini O‘zbekiston sharoitida empirik jihatdan o‘rganish, iqtisodiy o‘sish va ishsizlik o‘rtasidagi munosabatning real ko‘rsatkichlari asosida baholash ilmiy jihatdan muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishganidan buyon iqtisodiy o‘sish barqarorligi va aholi bandligini oshirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri bo‘lib kelmoqda.Mazkur tadqiqotning dolzarbligi shundan iboratki, hozirgi global raqamli iqtisodiyot sharoitida iqtisodiy o‘sishning sifati, innovatsion texnologiyalarni joriy etish darajasi va bandlikning tarkibiy o‘zgarishlari o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar tobora murakkablashmoqda. Shu bois, O‘zbekiston misolida iqtisodiy o‘sish va ishsizlik o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni aniqlash, mavjud statistik ma’lumotlar asosida Okun qonunining amal qilish darajasini empirik jihatdan tekshirish, hamda mehnat bozori siyosatini takomillashtirish bo‘yicha ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqish ushbu maqolaning asosiy maqsadini tashkil etadi.

Iqtisodiy o‘sish va ishsizlik o‘rtasidagi bog‘liqlik masalasi iqtisodiyot nazariyasining eng muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Ushbu munosabat ilk bor XX asr o‘rtalarida amerikalik iqtisodchi Artur Okun tomonidan empirik tarzda o‘rganilgan. U tomonidan ishlab chiqilgan Okun qonuni iqtisodiy o‘sish sur’atlari bilan ishsizlik darajasi o‘rtasida teskari korrelyatsion munosabat mavjudligini isbotlagan. Ya’ni, iqtisodiy o‘sish tezlashgan sari ishsizlik darajasi kamayadi, aksincha, iqtisodiy inqiroz davrida ishsizlik ortadi[1.].

Makroiqtisodiyot nazariyasida bu jarayon potensial ishlab chiqarish hajmi (Y*) va haqiqiy ishlab chiqarish hajmi (Y) o‘rtasidagi farq bilan izohlanadi. Agar iqtisodiyot potensial darajadan past ishlasa, unda ishsizlik tabiiy darajadan yuqori bo‘ladi. Shu sababli, iqtisodiy o‘sishni rag‘batlantiruvchi siyosat mehnat bozorida bandlikni oshirishning asosiy omili sifatida qaraladi[2.15].

Shuningdek, keyingi tadqiqotlarda iqtisodiy o‘sish va ishsizlik o‘rtasidagi munosabat bir xil emasligi, u mamlakatning mehnat bozori elastikligi, ishchi kuchi malakasi, texnologik yangiliklar va investitsion faollikka bog‘liqligi ta‘kidlangan[3.]. O‘zbekiston iqtisodiyoti misolida bu jarayon raqamli texnologiyalar joriy etilishi, mehnat migratsiyasi va yoshlar bandligi bilan yanada murakkablashadi.

Mazkur nazariy yondashuvlardan kelib chiqib, iqtisodiy o‘sishni faqat yalpi ichki mahsulot (YaIM) o‘sishi bilan o‘lchash yetarli emas - balki uning ish o‘rinlari yaratish qobiliyati ham iqtisodiy barqarorlik mezoni sifatida qaralishi lozim.

O‘zbekiston mustaqillikka erishgach, iqtisodiy o‘sishning barqaror modelini shakllantirish davlat iqtisodiy siyosatining ustuvor yo‘nalishiga aylandi. 2010–2025-yillar mobaynida mamlakat yalpi ichki mahsuloti (YaIM) hajmi muntazam o‘sib bordi. Davlat statistika qo‘mitasi

ma’lumotlariga ko‘ra, 2010-yilda YaIMning real o‘sish sur’ati 8,5 %**,** 2015-yilda 7,9 %**,** 2020-yilda pandemiya davrida 1,9 %**,** 2023-yilda esa 6,0 %ni tashkil etgan[14.]. Ushbu ko‘rsatkichlar O‘zbekiston iqtisodiyotining tashqi iqtisodiy zarbalarga nisbatan ma’lum darajada barqarorligini ko‘rsatadi.

2017-yildan boshlab amalga oshirilgan tarkibiy islohotlar**,** xususan, valyuta bozorining liberallashtirilishi, soliq tizimi modernizatsiyasi va biznes muhiti erkinlashtirilishi iqtisodiy faollikni oshirdi. Xalqaro Valyuta Jamg‘armasi (IMF) ma’lumotlariga ko‘ra, O‘zbekiston 2017–2023-yillar oralig‘ida Markaziy Osiyo mintaqasida eng yuqori o‘sish sur’atlarini namoyish etgan mamlakatlardan biri bo‘lgan[10].

Biroq, iqtisodiy o‘sishning yuqori sur’atlariga qaramay, bandlik o‘sishi unga mutanosib tarzda ortmadi. O‘zbekiston Mehnat vazirligi ma’lumotlariga ko‘ra, 2010-2024-yillar davomida mehnatga layoqatli aholining soni 7 milliondan ortiqga ko‘paygan bo‘lsa-da, rasmiy bandlik darajasi nisbatan sust o‘sdi. Bu esa Okun qonunining O‘zbekiston sharoitidagi amal qilish xususiyatlarini tahlil qilishni zarur qiladi - ya’ni, iqtisodiy o‘sish ko‘rsatkichlari bandlik bilan har doim bir xil darajada ijobiy bog‘lanmagan[1.]. Umuman olganda, O‘zbekiston iqtisodiyoti 2010–2025-yillar oralig‘ida barqaror o‘sish, iqtisodiy diversifikatsiya va bozor mexanizmlarining shakllanishi yo‘lidan bordi. Ammo bu davrda ishsizlikning barqaror kamaymasligi, iqtisodiy o‘sishning “ish o‘rinlari yaratmaydigan” xsusiyatlari bilan izohlanadi.

O‘zbekiston mehnat bozori so‘nggi o‘n yillikda demografik o‘sish, texnologik modernizatsiya va iqtisodiy strukturadagi o‘zgarishlar ta’sirida jadal o‘zgarishlarni boshdan kechirmoqda. Mamlakatda mehnatga layoqatli aholining o‘sishi bandlik siyosatiga sezilarli bosim ko‘rsatmoqda. 2025-yil holatiga ko‘ra, mehnat resurslari 20,2 million kishidan ortiqni tashkil etadi, bu esa 2010-yilga nisbatan qariyb 25 foizga ko‘pdir[14.].

Ishsizlikning umumiy darajasi 2010–2019-yillar oralig‘ida o‘rtacha 5,2–5,7 foiz atrofida bo‘lgan bo‘lsa, pandemiya davrida 10,5 foizgacha oshgan. 2024-yil yakunida bu ko‘rsatkich 8,0 foiz atrofida qayd etilgan. Shu bilan birga, yoshlar ishsizligi (15–29 yosh) 2023-yilda 15 foizni tashkil etib, bu umumiy ishsizlik darajasidan deyarli ikki baravar yuqoridir. Ushbu holat mehnat bozori tarkibida mavjud bo‘lgan strukturaviy muammolar, ishchi kuchi malakasi yetishmasligi va hududlararo tafovutlar bilan izohlanadi.

O‘zbekiston iqtisodiyotida mehnat bozori o‘ziga xos tarkibiy va tizimli jarayonlarga ega bo‘lib, unda ishsizlik darajasi iqtisodiy o‘sish sur’atlariga bevosita ta’sir ko‘rsatuvchi muhim indikator sifatida namoyon bo‘ladi. Ishsizlikning shakllanishi nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy, demografik, texnologik va institutsional omillar bilan ham chambarchas bog‘liq. Avvalo, demografik omillar mamlakat mehnat bozorining asosiy xususiyatlaridan biridir. O‘zbekistonda mehnatga layoqatli aholining yuqori o‘sish sur’atlari natijasida har yili mehnat bozoriga yangi ishchi kuchi kirib kelmoqda. Bu holat iqtisodiyotning real sektori bandlikni yetarlicha ta’minlay olmasa, ishsizlikning ortishiga sabab bo‘ladi.

Shuningdek, iqtisodiy o‘zgarishlar - xususan, ishlab chiqarishning modernizatsiyasi, texnologik yangilanish va raqamli iqtisodiyotga o‘tish jarayonlari ham qisqa muddatda tarkibiy ishsizlikni yuzaga keltiradi. Ya’ni, ayrim sohalarda avtomatlashtirish ish o‘rinlarini qisqartirsa-da, yangi texnologiyalar bilan bog‘liq mutaxassisliklar uchun talab ortadi. Bu holat mehnat bozorida kasbiy nomutanosiblik (skills mismatch) muammosini keltirib chiqarmoqda. Ijtimoiy omillar, xususan, yoshlar va ayollar bandligining yetarli darajada ta’minlanmagani ham muhim masalalardan biridir. Yoshlar orasida ishsizlik darajasi, rasmiy statistik ma’lumotlarga ko‘ra, umumiy o‘rtacha ko‘rsatkichdan yuqori. Bu holat mehnat tajribasining yetishmasligi, kasb-hunar tayyorgarligining zamon talablariga mos emasligi va ta’lim tizimida amaliy ko‘nikmalar yetishmasligi bilan bog‘liq.

O‘zbekiston hukumati so‘nggi yillarda ishsizlikni kamaytirish maqsadida “Yoshlar daftari”, “Ayollar daftari” kabi ijtimoiy dasturlarni joriy etdi. Shuningdek, “Har bir oila tadbirkor” dasturi orqali o‘zini o‘zi band qilishni rag‘batlantirish, mikrokreditlar ajratish va mahalliy ishlab chiqarishni kengaytirish choralari ko‘rilmoqda. Bu chora-tadbirlar qisqa muddatda mehnat bozoridagi bosimni yumshatish va norasmiy bandlikni qisqartirishga xizmat qilmoqda.

O‘zbekiston mehnat bozorida ishsizlikning shakllanishi ko‘p omilli jarayon bo‘lib, uni kamaytirish uchun kompleks yondashuv zarur. Iqtisodiy o‘sish va mehnat bozori o‘rtasidagi muvozanatni ta’minlashda ta’lim tizimini modernizatsiya qilish, kasb-hunar tayyorgarligini kuchaytirish hamda hududiy iqtisodiy siyosatni diversifikatsiyalash muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR VA INTERNET MANBALAR

1. Okun, A. M. *Potential GNP: Its Measurement and Significance.* — *American Statistical Association, Proceedings of the Business and Economic Statistics Section*, 1962.
2. Samuelson, P. A., & Nordhaus, W. D. *Economics.* — 19th Edition. — New York: McGraw-Hill Education, 2009.
3. Blanchard, O., & Mankiw, N. G. *Macroeconomics.* — 9th Edition. — London: Pearson Education, 2019.
4. Dornbusch, R., Fischer, S., & Startz, R. *Macroeconomics.* — 12th Edition. — New York: McGraw-Hill, 2014.
5. Krugman, P., & Wells, R. *Macroeconomics.* — 6th Edition. — New York: Worth Publishers, 2021.
6. Mishkin, F. S. *The Economics of Money, Banking, and Financial Markets.* — 12th Edition. — Pearson, 2019.
7. Mankiw, N. G. *Principles of Economics.* — 9th Edition. — Cengage Learning, 2020.
8. Okun’s Law Revisited. — *The Review of Economics and Statistics*, Vol. 85, No. 4, 2003.
9. OECD (2024). *Economic Outlook 2024.* — Paris: Organisation for Economic Co-operation and Development.
10. International Labour Organization (ILO). *World Employment and Social Outlook 2024.* — Geneva: ILO Publications.
11. IMF. *World Economic Outlook Database.* — Washington, D.C., International Monetary Fund, 2024.
12. World Bank. *World Development Indicators.* — Washington, D.C.: The World Bank Group, 2024.
13. United Nations Development Programme (UNDP). *Human Development Report 2023/2024.* — New York: UNDP.
14. O‘zbekiston Respublikasi Statistika agentligi. *Mehnat bozori ko‘rsatkichlari 2015–2024.* — Toshkent, 2024.
15. O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi. *Iqtisodiy o‘sishning tarkibiy tahlili.* — Toshkent, 2023

GLOBAL EKOLOGIK MUAMMOLAR VA O‘ZBEKISTON: XALQARO HAMKORLIKNING TARIXIY RIVOJLANISHI

Avezov Hikmatjon Kenjayevich
O‘zbekiston Milliy Universiteti
Tarix fakulteti, “O‘zbekiston tarixi”
kafedrasi tayanch doktoranti (PhD)
Email: avezovhikmatjon@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada O‘zbekistonning ekologik diplomatiyasi mustaqillikdan to hozirgi davrgacha bosqichma-bosqich o‘rganiladi. Tadqiqotda ekologik siyosatning milliy va xalqaro miqyosda shakllanishi, ekologik konvensiyalar va xalqaro bitimlarga qo‘shilish jarayonlari, BMT hamda boshqa xalqaro tashkilotlar doirasida amalga oshirilgan tashabbuslar keng tahlil qilinadi. Xususan, Orolbo‘yi hududining ekologik innovatsiyalar makoni sifatida e’tirof etilishi, 2017 yildan keyingi davrda O‘zbekiston tashqi siyosatida ekologik muammolar ustuvor yo‘nalish darajasiga ko‘tarilishi, xalqaro hamkorlikning ijtimoiy-gumanitar ahamiyati va inson–tabiat uyg‘unligini ta’minlashdagi o‘rni ilmiy asosda yoritilgan. Ushbu izlanishning natijalari gumanitar fanlar va jamiyat yo‘nalishidagi, xususan inson va tabiat munosabatiga oid

ilmiy qarashlar bilan ma’lum darajada uyg‘unlik kasb etadi, chunki unda ekologik muammolar tarixiy jarayon va ijtimoiy rivojlanish kontekstida tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: O‘zbekiston, ekologik diplomatiya, xalqaro hamkorlik, Orolbo‘yi, BMT, ekologik xavfsizlik, barqaror rivojlanish, xalqaro konvensiyalar, inson va tabiat uyg‘unligi, ekologik madaniyat.

Аннотация: В данной статье поэтапно исследуется экологическая дипломатия Узбекистана от обретения независимости до наших дней. В работе всесторонне анализируется формирование экологической политики на национальном и международном уровнях, процесс присоединения к экологическим конвенциям и международным соглашениям, а также инициативы, реализованные в рамках ООН и других международных организаций. Особое внимание уделено признанию Приаралья в качестве зоны экологических инноваций, выдвижению экологических вопросов в ранг приоритетного направления внешней политики Узбекистана после 2017 года, социально-гуманитарной значимости международного сотрудничества и его роли в обеспечении гармонии между человеком и природой. Полученные результаты демонстрируют определённую степень согласованности с научными подходами в области гуманитарных наук и общества, в частности в контексте отношений человека и природы, поскольку экологические проблемы рассматриваются в связи с историческим процессом и социальным развитием.

Ключевые слова: Узбекистан, экологическая дипломатия, международное сотрудничество, Приаралье, ООН, экологическая безопасность, устойчивое развитие, международные конвенции, гармония человека и природы, экологическая культура.

Abstract: This article examines the step-by-step development of Uzbekistan’s environmental diplomacy from independence to the present day. The study provides an extensive analysis of the formation of environmental policy at both national and international levels, the process of joining environmental conventions and international agreements, as well as the initiatives implemented within the framework of the United Nations and other international organizations. In particular, it highlights the recognition of the Aral Sea region as a zone of ecological innovation, the elevation of environmental issues to a priority direction in Uzbekistan’s foreign policy after 2017, the socio-humanitarian significance of international cooperation, and its role in ensuring harmony between humans and nature. The findings of this research demonstrate a certain degree of compatibility with scholarly perspectives within the field of humanities and society, especially concerning human–nature relations, as it analyzes environmental problems in the context of historical processes and social development.

Keywords: Uzbekistan, environmental diplomacy, international cooperation, Aral Sea region, United Nations, environmental security, sustainable development, international conventions, human–nature harmony, ecological culture.

Kirish. XXI asrda insoniyat duch kelayotgan eng dolzarb global muammolardan biri bu ekologik muammolardir. Tabiiy resurslarning cheklanganligi, global isish, suv tanqisligi, atmosfera va biosferadagi muvozanatning buzilishi butun insoniyat taraqqiyotiga bevosita ta’sir qilmoqda. Shu bois ekologik xavfsizlik masalasi nafaqat milliy, balki xalqaro darajada ham strategik ahamiyat kasb etmoqda.

O‘zbekiston mustaqillikka erishgan dastlabki yillardan boshlab, ekologik muammolarni hal qilishda xalqaro hamkorlikni tashqi siyosatining muhim yo‘nalishlaridan biri sifatida belgiladi. Xususan, Orol dengizining qurishi oqibatida yuzaga kelgan ekologik inqiroz nafaqat mintaqaviy, balki global miqyosda dolzarb muammoga aylandi. Bu esa O‘zbekistonni xalqaro tashkilotlar bilan keng qamrovli hamkorlikka undadi.

1991–2023 yillar oralig‘ida mamlakatning Birlashgan Millatlar Tashkiloti, YUNEP, YuNESKO, Yevropa Ittifoqi va boshqa xalqaro hamjamiyat bilan olib borgan ekologik faoliyati hamda tashabbuslari inson va tabiat munosabatini barqarorlashtirishga qaratilgan tarixiy jarayon sifatida alohida ilmiy tahlilni talab etadi. Shu nuqtayi nazardan, mazkur maqolaning asosiy

maqsadi – O‘zbekistonning global ekologik muammolarni hal etish yo‘lida xalqaro tashkilotlar bilan olib borgan hamkorligi tarixini ilmiy-nazariy asosda o‘rganishdir.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Global ekologik muammolar insoniyat taraqqiyoti jarayonida yangi bosqich sifatida namoyon bo‘ldi. Agar inson va tabiat o‘rtasidagi muvozanat qadimdan mavjud bo‘lgan bo‘lsa, XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab bu munosabat tubdan o‘zgara boshladi. Sanoat inqilobi, urbanizatsiya, tabiiy resurslarning ortiqcha ishlatilishi va antropogen faoliyatning kuchayishi natijasida ekologik muvozanat buzildi, ekologik inqiroz holatlari esa mintaqaviy chegaradan chiqib, global miqyosda dolzarb masalaga aylandi. Ilmiy-nazariy nuqtayi nazardan global ekologik muammolar — bu butun insoniyatni qamrab oladigan, davlatlarning milliy chegaralaridan tashqariga chiqadigan va faqat xalqaro hamkorlik orqali hal etilishi mumkin bo‘lgan ekologik inqirozlar majmuasi sifatida talqin qilinadi[20].

XX asr oxiri ekologik xavfsizlik masalalarining xalqaro kun tartibiga jiddiy kiritilgan davr bo‘ldi. 1972 yilda Stokgolm shahrida o‘tkazilgan BMTning Atrof-muhit bo‘yicha konferensiyasi ekologik muammolarning global tus olganini e’tirof etdi hamda insoniyatning ekologik barqarorlikka bo‘lgan mas’uliyatini ta’kidladi[21]. Oradan yigirma yil o‘tib, 1992 yilda Rio-de-Janeyroda bo‘lib o‘tgan “Yer sammiti”da qabul qilingan “21-asr kun tartibi” hujjati ekologik rivojlanishni xalqaro siyosatning ajralmas qismi sifatida belgilab berdi. Shu tariqa ekologik xavfsizlik masalalari xalqaro huquq, siyosat va iqtisodiyotning ustuvor yo‘nalishiga aylandi[22].

XXI asr boshlariga kelib esa global isish, iqlim o‘zgarishi, bioxilma-xillikning qisqarishi, cho‘llanish, suv resurslari tanqisligi kabi muammolar bevosita insoniyat taraqqiyotiga xavf tug‘diruvchi omillar sifatida e’tirof etildi. Bu jarayon ekologik xavfsizlikni nafaqat ekologiya fani doirasida, balki xalqaro munosabatlar va milliy xavfsizlik konsepsiyalarida ham alohida ustuvor yo‘nalish sifatida ko‘rilishiga olib keldi. Shunday qilib, ekologik xavfsizlik konsepsiyasi global xavfsizlik tushunchasining ajralmas tarkibiy qismiga aylandi[23].

Mazkur jarayonlarda xalqaro tashkilotlarning tutgan o‘rni beqiyos bo‘ldi. BMT va uning maxsus institutlari, xususan YUNEP, YuNESKO, FAO va boshqa tuzilmalar tomonidan ishlab chiqilgan xalqaro konvensiyalar, deklaratsiyalar va strategiyalar ekologik barqarorlikni ta’minlashda muhim asos bo‘lib xizmat qildi[24]. Shu bilan birga, Yevropa Ittifoqi, Jahon banki, Osiyo taraqqiyot banki kabi xalqaro moliyaviy institutlar ekologik loyihalarni amalga oshirishda faol ishtirok etdi. Bu boradagi tajribalar shuni ko‘rsatadiki, ekologik muammolarni yakkama-yakka davlatlar hal eta olmaydi; ular umumjahon miqyosidagi birgalikdagi sa’y-harakatlar natijasidagina samarali yechim topadi[25].

Global ekologik muammolarning tarixiy shakllanishi va xalqaro tashkilotlarning bu jarayondagi roli shuni anglatadiki, inson va tabiat o‘rtasidagi uyg‘unlikni ta’minlash butun insoniyatning umumiy vazifasidir. Shu jihatdan, O‘zbekistonning mustaqillikdan keyingi davrda ekologik muammolarni hal qilishda xalqaro hamkorlikda faol ishtiroki mazkur global jarayonlarning ajralmas qismi sifatida ilmiy tahlilni talab etadi.

O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishganidan keyin ekologik siyosatni shakllantirish masalasi davlat taraqqiyotining muhim ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida belgilandi. 1992-yilda qabul qilingan O‘zbekiston Konstitutsiyasida tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, ekologik muvozanatni ta’minlash hamda atrof-muhitni muhofaza qilish davlatning asosiy vazifalaridan biri sifatida qayd etildi. Shu davrdan boshlab mamlakat ekologik xavfsizlikni milliy manfaatlar darajasida himoya qilish, tegishli qonunchilik bazasini yaratish va maxsus davlat

[20] Meadows, D. H., Meadows, D. L., Randers, J. *The Limits to Growth.* New York: Universe Books, 1972. – P. 23.
[21] United Nations. *Declaration of the United Nations Conference on the Human Environment (Stockholm Declaration).* UN, 1972. – P. 8.
[22] United Nations. *Agenda 21: Programme of Action for Sustainable Development.* Rio de Janeiro, 1992. – P. 15.
[23] Sachs, J. D. *The Age of Sustainable Development.* Columbia University Press, 2015. – P. 101.
[24] United Nations Environment Programme (UNEP). *Global Environment Outlook 1.* Nairobi: UNEP, 1997. – P. 86.
[25] Rockström, J. et al. “Planetary Boundaries: Exploring the Safe Operating Space for Humanity.” *Ecology and Society*, 2009, 14(2). – P. 9.

tuzilmalarini shakllantirish bo‘yicha amaliy qadamlar tashladi[26]. 1990-yillar davomida qabul qilingan “Tabiatni muhofaza qilish to‘g‘risida” (1992), “Atmosfera havosini muhofaza qilish to‘g‘risida” (1996) qonunlari, shuningdek, “Yer kodeksi” (1998) kabi hujjatlar mamlakatda mustaqil ekologik siyosat poydevorini mustahkamladi[27].

Mazkur davrda O‘zbekiston tashqi siyosatda ham ekologik masalalarni ustuvor yo‘nalish sifatida ilgari surdi. Mamlakat Birlashgan Millatlar Tashkiloti hamda uning ixtisoslashgan institutlari - YUNEP, YuNESKO, UNDP bilan hamkorlikni keng yo‘lga qo‘ydi. Shu asosda O‘zbekiston 1993-yilda BMTning Iqlim o‘zgarishi to‘g‘risidagi konvensiyasiga, 1995-yilda Biologik xilma-xillik konvensiyasi hamda Cho‘llanishga qarshi kurash to‘g‘risidagi konvensiyalarga qo‘shildi. Bu xalqaro majburiyatlar mamlakatda ekologik monitoring tizimini yo‘lga qo‘yish, barqaror rivojlanish strategiyalarini ishlab chiqish va ekologik muammolarni xalqaro hamkorlik doirasida hal etishga imkon berdi[28].

1990-yillarda O‘zbekiston ekologik siyosatining markazida Orol dengizi inqirozi turdi. Mustaqillikning ilk yillaridan boshlab hukumat Orolbo‘yi fojiasini nafaqat milliy, balki global muammo sifatida ilgari surdi. 1993-yilda O‘zbekiston tashabbusi bilan Orolni qutqarish xalqaro jamg‘armasining tashkil etilishi mazkur masalani mintaqaviy hamkorlik darajasida hal etishning muhim qadami bo‘ldi[29]. Jamg‘arma doirasida Markaziy Osiyo davlatlari birgalikda Orolbo‘yi hududida ekologik vaziyatni yumshatish, aholi salomatligini saqlash va iqtisodiy barqarorlikni ta’minlashga qaratilgan dasturlarni amalga oshirishga kirishdilar. Shu bilan birga, O‘zbekistonning tashabbuslari xalqaro tashkilotlar tomonidan qo‘llab-quvvatlandi, natijada UNESCO, UNEP va boshqa institutlar Orolbo‘yi hududida ilmiy tadqiqotlar olib bordilar va xalqaro e’tiborni ushbu ekologik fojia tomon qaratdilar[30].

Natijada, 1991–2000 yillar O‘zbekistonning ekologik siyosatida mustaqil strategik yondashuv shakllangan, xalqaro hamjamiyat bilan ekologik sohada dastlabki muhim hamkorlik yo‘llari ochilgan davr sifatida tarixiy ahamiyat kasb etdi. Bu davrda mamlakat ekologik xavfsizlikni milliy siyosat darajasida belgilabgina qolmay, balki Orolbo‘yi muammosini global kun tartibiga olib chiqishda ham faol ishtirokchi sifatida maydonga chiqdi.

2001–2016 yillar O‘zbekiston ekologik siyosati rivojida yangi bosqich sifatida ajralib turadi. Bu davrda mamlakat ekologik diplomatiyani institutsional asosda rivojlantirishga kirishdi, xalqaro ekologik konvensiya va bitimlarga faol qo‘shildi hamda xalqaro tashkilotlar bilan keng ko‘lamli loyihalar amalga oshirildi.

Avvalo, ekologik diplomatiyaning institutsional rivojlanishi mamlakat tashqi siyosatida muhim o‘rin tutdi. 2001-yildan boshlab O‘zbekiston hukumati BMT, Yevropa Ittifoqi, Yevropa xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti (YXHT), Jahon banki, Osiyo taraqqiyot banki kabi xalqaro institutlar bilan ekologik muammolarni hal qilish bo‘yicha tizimli muloqotlar olib bordi[31]. Shu davrda ekologik xavfsizlik masalalari nafaqat ichki siyosat, balki xalqaro munosabatlarning ham alohida yo‘nalishiga aylandi.

O‘zbekiston 2000-yillarda xalqaro ekologik huquqiy maydonga faol integratsiyalashdi. 2001–2016 yillar davomida mamlakat Kioto protokoli (2006), BMTning Ozon qatlamini himoya qilish to‘g‘risidagi Monreal protokoli hamda boshqa xalqaro bitimlarga qo‘shildi. Bu bilan O‘zbekiston ekologik diplomatiyada nafaqat ishtirokchi, balki muayyan majburiyatlarni zimmasiga oluvchi davlat sifatida namoyon bo‘ldi[32]. Ushbu konvensiya va protokollarga

[26] Karimov I.A. *O‘zbekiston XXI asr bo‘sag‘asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari.*– Toshkent: O‘zbekiston, 1997. –B. 154.
[27] Xidoyatov Q. *O‘zbekiston Respublikasida ekologik qonunchilik taraqqiyoti.* – Toshkent: Adolat, 1999. –B. 114.
[28] Jalilov M. *O‘zbekiston ekologik siyosatining shakllanish bosqichlari (1991–2000 yillar).* – Toshkent: Fan, 2001. – B. 210.
[29] Golubev G. *Water and Politics in Central Asia: The Orol Sea Basin Crisis.* – London: I.B. Tauris, 1999. – PP. 84–106.
[30] Ellis J. *International Environmental Agreements and Central Asia.* – Environmental Policy and Law, 1997. – Vol. 27(4). –PP. 198–210.
[31] Jalilov, S. *Ekologik xavfsizlik va xalqaro hamkorlik*. – Toshkent, 2012. – B. 98.
[32] UN. *Kyoto Protocol Status of Uzbekistan*. – New York, 2005. – P. 11.

qo‘shilish orqali mamlakat atmosfera muhofazasi, global iqlim o‘zgarishi, bioxilma-xillikni saqlash va cho‘llanishga qarshi kurash masalalarida xalqaro hamjamiyat bilan mas’uliyatni baham ko‘rdi.

Ushbu bosqichda xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik yangi mazmun kasb etdi. Jahon banki va Osiyo taraqqiyot banki bilan hamkorlikda suv resurslarini boshqarish bo‘yicha yirik loyihalar amalga oshirildi, Markaziy Osiyo mintaqasida suv taqchilligi muammosini yumshatish va Orol havzasidagi ekologik inqirozni yumshatishga qaratilgan dasturlar ishlab chiqildi[33]. Shuningdek, YuNESKO va UNEP ko‘magida O‘zbekistonda bioxilma-xillikni saqlash, noyob flora va faunani muhofaza qilish, milliy tabiat bog‘larini rivojlantirishga qaratilgan tashabbuslar amalga oshirildi[34].

Atmosfera muhofazasi sohasida Monreal protokoli doirasida O‘zbekiston 2006-yildan boshlab ozon qatlamini yemiruvchi moddalarni bosqichma-bosqich kamaytirish choralarini ko‘rdi. Bunda BMTning Atrof-muhit dasturi (UNEP) va GEF (Global Environmental Facility) bilan hamkorlikda qator loyihalar amalga oshirildi[35]. Shu davrda mamlakat iqlim o‘zgarishiga qarshi kurash borasida milliy dasturlarini ishlab chiqdi, 2010-yilda BMTning Iqlim o‘zgarishi bo‘yicha doiraviy konvensiyasiga milliy hisobotlarini taqdim etdi.

2001–2016 yillar O‘zbekistonning ekologik siyosatida rivojlanish, xalqaro huquqiy majburiyatlarni zimmasiga olish va ekologik diplomatiyani kuchaytirish davri bo‘lib, bu jarayon mamlakatning inson va tabiat munosabatidagi barqaror yondashuvini mustahkamlashga xizmat qildi.

2017-yildan boshlab O‘zbekiston ekologik siyosati yangi bosqichga ko‘tarilib, ekologik xavfsizlik masalalari davlatning tashqi siyosiy kun tartibida ustuvor yo‘nalish sifatida namoyon bo‘la boshladi. Bu davrda mamlakat rahbariyati tomonidan ekologik barqarorlikni ta’minlash faqat milliy yoki mintaqaviy masala emas, balki global miqyosdagi dolzarb vazifa sifatida ilgari surildi. Shu tariqa ekologik diplomatiya O‘zbekistonning xalqaro maydondagi faoliyatida markaziy o‘rin egalladi va ekologik muammolar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish strategiyasi bilan chambarchas bog‘liq holda ko‘rib chiqila boshlandi.

O‘zbekistonning yangi tashqi siyosiy yondashuvi ekologik muammolarni keng qamrovli tarzda hal etishga qaratilgan bo‘lib, bunda qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish, yashil iqtisodiyotga bosqichma-bosqich o‘tish, iqlim o‘zgarishi oqibatlarini yumshatish hamda ekologik xavfsizlikni global barqarorlikning ajralmas qismi sifatida ilgari surish kabi masalalar alohida ta’kidlandi. Ayniqsa, davlat rahbari tomonidan BMT Bosh Assambleyasi minbaridan turib bildirilgan tashabbuslar xalqaro hamjamiyat tomonidan keng e’tirof etildi[36].

Bu davrda Orolbo‘yi mintaqasiga alohida e’tibor qaratildi. Orol dengizining qurishi oqibatida yuzaga kelgan ekologik falokat nafaqat mintaqaviy, balki global xavfsizlikka ham tahdid soluvchi inqiroz sifatida xalqaro miqyosda keng muhokama qilindi[37]. 2018-yilda BMT Bosh Assambleyasi tomonidan Orolbo‘yi mintaqasini ekologik innovatsiyalar va texnologiyalar hududi sifatida e’tirof etilishi O‘zbekiston tashabbusining muhim yutug‘i bo‘ldi. Ushbu qaror nafaqat ekologik barqarorlikni ta’minlash, balki zamonaviy texnologiyalarni jalb qilish, xalqaro grantlar va investitsiyalarni hududga yo‘naltirish imkonini berdi[38]. Shu bilan birga, ilmiy hamkorlik va amaliy loyihalar doirasida yangi ekologik yechimlarni joriy etish jarayoni tezlashdi.

So‘nggi yillarda O‘zbekistonning ekologik tashabbuslari xalqaro darajada yanada keng qamrovli tus oldi. Xususan, “Orolbo‘yi mintaqasi uchun inson xavfsizligi hududi” rezolyutsiyasining BMT Bosh Assambleyasi tomonidan qabul qilinishi ekologik diplomatiyaning

UNEP. *Global Environment Outlook – Uzbekistan*. – Nairobi, 2008. – P. 160.

[33] Spoor, M. *Water Management in Central Asia*. – Routledge, 2007. – P. 141.

[34] Giese, E., Mossakovsky, I. *Environmental Change in Central Asia*. – Berlin: Springer, 2011. – P. 199.

[35] CBD. *Uzbekistan NBSAP*. – Montreal, 2010. – P. 94.

[36] Mirziyoyev Sh.M. *Yangi O‘zbekiston strategiyasi.* – Toshkent: “O‘zbekiston”, 2021. – B. 142.

[37] United Nations General Assembly. Resolution A/RES/73/297: Region of the Aral Sea. – New York: UN, 2018. – PP. 2–6.

[38] Safarov B. *O‘zbekiston ekologik siyosatining yangi bosqichi.* – “Ijtimoiy fanlar jurnali”, 2020, №3. – B. 63.

sezilarli muvaffaqiyati sifatida baholanishi mumkin[39]. Mazkur hujjat nafaqat ekologik muammolarni hal etish, balki hudud aholisining ijtimoiy-iqtisodiy farovonligini ta’minlash, sog‘liqni saqlash va infratuzilmani rivojlantirish kabi masalalarni ham qamrab oldi. Shu tariqa O‘zbekiston tashabbuslari xalqaro kun tartibiga kiritilib, global ekologik hamkorlikni mustahkamlashga xizmat qildi.

Mazkur davrning muhim jihatlaridan yana biri mintaqaviy hamkorlikning sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarilganidir. Markaziy Osiyo davlatlari o‘rtasida transchegaraviy suv resurslaridan oqilona foydalanish, cho‘llanish jarayoniga qarshi kurash, bioxilma-xillikni muhofaza qilish va atmosfera ifloslanishini kamaytirish kabi masalalarda hamkorlik mexanizmlari shakllandi. Shu orqali ekologik xavfsizlik Markaziy Osiyoning barqaror taraqqiyotini ta’minlovchi strategik omil sifatida qaralmoqda.

Umuman olganda, 2017–2023-yillar oralig‘ida O‘zbekiston ekologik diplomatiyasi jadal rivojlanib, milliy siyosatning ajralmas qismi sifatida global hamjamiyatda keng e’tirof etildi. Ekologik tashabbuslarning xalqaro miqyosda qo‘llab-quvvatlanishi nafaqat mamlakatning ekologik xavfsizlik sohasidagi nufuzini oshirdi, balki mintaqaviy va global barqaror rivojlanish jarayonlariga ham sezilarli hissa qo‘shdi.

Global miqyosda ekologik muammolarni hal etishda inson va tabiat o‘rtasidagi uyg‘unlikni ta’minlash xalqaro hamkorlikning eng muhim yo‘nalishlaridan biri sifatida e’tirof etilmoqda. Chunki ekologik barqarorlik faqatgina iqtisodiy yoki texnik jarayon emas, balki u jamiyat hayotining ijtimoiy va gumanitar sohalariga ham bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Shu bois, ekologik muammolarning hal qilinishi jarayonida insoniyatning barqaror rivojlanishga yo‘naltirilgan umumiy sa’y-harakatlari tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Insoniyat tarixida tabiat bilan uyg‘un yashash masalasi har doim dolzarb bo‘lib kelgan. Mustaqillikdan keyingi davrda O‘zbekiston ekologik barqarorlikni ta’minlashni nafaqat milliy, balki xalqaro miqyosdagi vazifa sifatida ilgari surdi. Ekologik xavfsizlikning ijtimoiy va gumanitar ahamiyati, avvalo, inson salomatligi va kelajak avlod hayoti bilan uzviy bog‘liqdir. Shu boisdan ham xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik orqali ekologik muammolarni hal etish, ekologik madaniyatni rivojlantirish va ekologik diplomatiyani mustahkamlash jarayoni mamlakat siyosatida ustuvor yo‘nalishga aylandi.

Ekologik barqarorlik masalasi inson salomatligi, ijtimoiy farovonlik va kelajak avlodlarning yashash sharoitlari bilan uzviy bog‘liqdir. Shu nuqtai nazardan, xalqaro hamkorlik nafaqat davlatlararo kelishuv va bitimlarni, balki aholining ekologik madaniyatini oshirishga qaratilgan keng qamrovli ta’lim, targ‘ibot va madaniy loyihalarni ham qamrab oladi. Bu jarayonda Birlashgan Millatlar Tashkiloti, YUNESKO, Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti va boshqa xalqaro tuzilmalar ekologik masalalarga ijtimoiy-gumanitar yondashuvni shakllantirishda muhim rol o‘ynamoqda.

Prezident Sh.M. Mirziyoyev bu borada ta’kidlaganidek, *“Ekologik barqarorlikni ta’minlash masalasi faqatgina alohida davlatning emas, balki butun insoniyatning dolzarb vazifasiga aylanib bormoqda*[40]*”*. Bu fikr xalqaro hamkorlikning global ahamiyatini ochib beradi.

Shuningdek, xalqaro hamkorlik ekologik muammolarga bo‘lgan yondashuvni global ong darajasiga olib chiqib, inson va tabiat o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni chuqurroq anglashga yordam bermoqda. Jumladan, xalqaro konferensiyalar, forumlar va qo‘shma loyihalar orqali atrof-muhit muhofazasi masalalari keng jamoatchilik muhokamasiga qo‘yilmoqda. Bu esa ekologik ongni shakllantirish, ekologik mas’uliyatni kuchaytirish va insoniyatni tabiat bilan uyg‘unlikda yashash tamoyiliga yaqinlashtirishga xizmat qilmoqda.

Inson va tabiat o‘rtasidagi uyg‘unlikni ta’minlash jarayonida xalqaro tashkilotlar va donor institutlarning tashabbuslari ham alohida ahamiyat kasb etadi. Xususan, ekologik infratuzilmani rivojlantirish, yashil iqtisodiyot konsepsiyasini joriy etish, qayta tiklanuvchi energiya

[39] UNDP Uzbekistan. *Sustainable Development Goals and Uzbekistan.* – Tashkent: UNDP, 2020. – P. 29.

[40] Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent: O‘zbekiston, 2017. – B. 210.

manbalaridan foydalanishni kengaytirish kabi tashabbuslar xalqaro hamkorlikning samarali ko‘rinishlari sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Demak, xalqaro hamkorlik nafaqat ekologik muammolarni hal qilishda, balki inson va tabiat o‘rtasidagi barqaror uyg‘unlikni shakllantirishda ham strategik ahamiyat kasb etadi. Bu jarayon orqali ekologik madaniyat jamiyat ongining ajralmas qismiga aylanmoqda, barqaror rivojlanish esa nafaqat davlat siyosati, balki har bir shaxsning hayotiy qadriyatiga aylanishiga zamin yaratmoqda.

Xalqaro hamkorlikning yana bir muhim jihati – ekologik madaniyatni rivojlantirishga qo‘shayotgan hissasidir. *“Tabiatni asrash, ekologik madaniyatni yuksaltirish – jamiyatimiz ongida eng muhim qadriyatlardan biriga aylanishi lozim*[41]*”*. Bu borada xalqaro tashkilotlarning ekologik ta’lim, ilmiy tadqiqotlar va jamoatchilikni xabardor qilishga qaratilgan dasturlari O‘zbekistonda samarali qo‘llanmoqda.

Demak, inson va tabiat o‘rtasida uyg‘unlikni ta’minlashda xalqaro tashkilotlar faoliyati ham ilmiy, ham amaliy jihatdan katta ahamiyat kasb etadi. O‘zbekistonning tashqi siyosati va ichki islohotlarida ekologik barqarorlikni ta’minlash masalasi inson manfaatlari va global hamkorlik tamoyillari bilan uyg‘un holda qaralmoqda.

XULOSA

O‘zbekistonning ekologik siyosati va xalqaro tashkilotlar bilan hamkorligi mustaqillikning ilk yillaridan boshlab bosqichma-bosqich rivojlangan murakkab tarixiy jarayondir. Tadqiqot davomida olib borilgan tahlillar shuni ko‘rsatadiki, 1991–2023 yillar mobaynida mamlakat ekologik barqarorlikka erishish yo‘lida muhim bosqichlarni bosib o‘tdi. Bu davrni shartli ravishda to‘rt bosqichga bo‘lish mumkin: mustaqillikning ilk davri (1991–2000), rivojlanish bosqichi (2001–2016), yangi davr va faol ekologik tashabbuslar davri (2017–2023), hamda inson va tabiat munosabatida xalqaro hamkorlikning chuqurlashuvi.

Birinchidan, global ekologik muammolar nazariy va amaliy jihatdan XX asr oxiri va XXI asr boshlarida dolzarb ahamiyat kasb etdi. O‘zbekiston ham boshqa davlatlar qatori ekologik xavfsizlik masalalarini davlat siyosatining muhim tarkibiy qismiga aylantirdi. Ayniqsa, BMT, YUNEP, YuNESKO kabi xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik orqali ekologik masalalarni global kontekstda hal etish imkoniyatlari yuzaga keldi. Shu jarayonda ekologik muammolar faqat tabiatni muhofaza qilish masalasi sifatida emas, balki ijtimoiy, gumanitar, iqtisodiy va siyosiy muammolar bilan uzviy bog‘liq jarayon sifatida qaralmoqda.

Ikkinchidan, 1991–2000 yillarda O‘zbekistonning mustaqil ekologik siyosati shakllandi. Bu davrda mamlakat ekologik muammolarni, ayniqsa, Orolbo‘yi fojiasini xalqaro darajada ko‘tarib chiqishga intildi. Orolbo‘yi ekologik inqirozi nafaqat mintaqaviy, balki global muammo sifatida ko‘rilib, xalqaro tashkilotlar e’tiborini tortdi. O‘zbekiston hukumati ekologik masalalarni milliy siyosatda ustuvor yo‘nalishga aylantirib, dastlabki xalqaro ekologik loyihalarda faol ishtirok etdi.

Uchinchidan, 2001–2016 yillarda ekologik diplomatiya institutsional rivojlanish bosqichiga o‘tdi. O‘zbekiston bir qator xalqaro ekologik konvensiyalar va bitimlarga qo‘shildi. Xususan, suv resurslari, bioxilma-xillikni saqlash, atmosfera muhofazasi kabi sohalarda xalqaro loyihalar amalga oshirildi. Bu bosqichda xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikning huquqiy-me’yoriy asoslari mustahkamlandi. Shu bilan birga, ekologik masalalarni iqtisodiy va ijtimoiy barqarorlik bilan uyg‘un holda hal etishga qaratilgan milliy strategiyalar ishlab chiqildi.

To‘rtinchidan, 2017–2023 yillarda O‘zbekiston ekologik siyosatini sifat jihatdan yangi bosqichga ko‘tardi. Prezident Sh.M. Mirziyoyev tashabbusi bilan ekologik masalalar tashqi siyosatning ustuvor yo‘nalishiga aylantirildi. Ayniqsa, Orolbo‘yi mintaqasining ekologik innovatsiyalar hududi sifatida e’tirof etilishi O‘zbekistonning xalqaro maydondagi ekologik diplomatiyasida yangi sahifa ochdi. BMT Bosh Assambleyasi doirasida ilgari surilgan

[41] Mirziyoyev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. – Toshkent: O‘zbekiston, 2018. – B. 178.

tashabbuslar, Markaziy Osiyo davlatlari bilan mintaqaviy hamkorlikning kuchayishi O‘zbekistonning ekologik masalalarni xalqaro miqyosda hal etishdagi faol ishtirokini ko‘rsatdi.

Beshinchidan, inson va tabiat o‘rtasidagi munosabatlar, ekologik barqarorlikning ijtimoiy va gumanitar ahamiyati tobora dolzarb bo‘lib bormoqda. Xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik nafaqat ekologik loyihalarni amalga oshirish, balki jamiyat ongida ekologik madaniyatni rivojlantirish, ekologik qadriyatlarni mustahkamlashga ham xizmat qildi. O‘zbekiston tajribasi shuni ko‘rsatmoqdaki, ekologik xavfsizlikni ta’minlash jamiyatning umumiy taraqqiyoti, aholining farovonligi va kelajak avlodlarning sog‘lom hayotini ta’minlash bilan bevosita bog‘liqdir.

Shunday qilib, O‘zbekiston ekologik siyosatining shakllanishi va rivojlanishi tarixiy jarayon sifatida global ekologik muammolar fonida kechdi. Bu jarayon xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik, ekologik diplomatiya, milliy strategiyalar va tashabbuslarni uyg‘unlashtirgan holda amalga oshirildi. 1991–2023 yillar oralig‘ida erishilgan natijalar mamlakatning ekologik barqarorlik yo‘lida muhim bosqichlarni bosib o‘tganini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, bu davr O‘zbekistonning xalqaro hamjamiyatda ekologik masalalarni hal etishdagi faol va tashabbuskor davlat sifatidagi mavqeini mustahkamladi.

Kelgusida O‘zbekiston oldida ekologik xavfsizlikni ta’minlash, barqaror rivojlanish tamoyillarini chuqurlashtirish, mintaqaviy va global hamkorlikni yanada kuchaytirish kabi masalalar turibdi. Bu vazifalarni hal etishda xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik hamon hal qiluvchi omil bo‘lib qolmoqda. Xususan, BMTning barqaror rivojlanish maqsadlari, global ekologik dasturlar, mintaqaviy tashabbuslar O‘zbekistonning ekologik siyosatini yangi bosqichlarga olib chiqishi kutilmoqda.

Umuman olganda, olib borilgan tadqiqot O‘zbekiston ekologik siyosatining 1991–2023 yillardagi tarixiy rivojlanishini, xalqaro hamkorlikning mazmuni va natijalarini keng ilmiy tahlil qildi. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, inson va tabiat o‘rtasida uyg‘unlikni ta’minlash yo‘lida ekologik diplomatiya, xalqaro tashkilotlarning ishtiroki va milliy tashabbuslarning uyg‘unligi hal qiluvchi ahamiyat kasb etmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – Toshkent: “O‘zbekiston”, 2021. – B. 142.
2. United Nations General Assembly. Resolution A/RES/73/297: Region of the Aral Sea. – New York: UN, 2018. – PP. 2–6.
3. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent: O‘zbekiston, 2017. – B. 210.
4. Mirziyoyev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. – Toshkent: O‘zbekiston, 2018. – B. 178.
5. Meadows, D. H., Meadows, D. L., Randers, J. The Limits to Growth. New York: Universe Books, 1972. – P. 23.
6. Karimov I.A. O‘zbekiston XXI asr bo‘sag‘asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari.– Toshkent: O‘zbekiston, 1997. –B. 154.
7. United Nations. Declaration of the United Nations Conference on the Human Environment (Stockholm Declaration). UN, 1972. – P. 8.
8. United Nations. Agenda 21: Programme of Action for Sustainable Development. Rio de Janeiro, 1992. – P. 15.
9. Sachs, J. D. The Age of Sustainable Development. Columbia University Press, 2015. – P. 101.
10. United Nations Environment Programme (UNEP). Global Environment Outlook 1. Nairobi: UNEP, 1997. – P. 86.
